

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

I

ISBN 978-9910-9137-3-0

G‘AFUR G‘ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
noshirligi

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

I


G‘AFUR G‘ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

IKKI JILDLI

TOSHKENT – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

BIRINCHI JILD

A — O

G‘AFUR G‘ULOM NOMIDAGI
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2024

UO'K 81.2–3(5O')
KBK 81'373.21 (575.1)(038)
O' 23

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
Davlat tilini rivojlantirish departamenti
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi

Tahririyat a'zolari:
N.D. To'ychiyev, N.J. Xolbo'tayev, A.K. Qirg'izboyev (t.f.d., prof.); **N.M. Mahmudov** (f.f.d., prof.); **T.M. Abdullayev** (t.f.n., dots.)

Muvofiqlashtiruvchi
U.A. Mahmudov

Tuzuvchilar:
R.Y. Xudoyberganov (f.f.n., dots.v.b.); **N.Uluqov** (f.f.d., prof.); **G'.Boboyorov** (t.f.d.,prof.); **M.B. Abdiyev** (f.f.d., prof.); **M.T. Mirakmalov** (g.f.d., dots.); **T.J. Enazarov** (f.f.d., prof.); **A.Sobirov** (f.f.d.,prof.); **B.Qlichev** (f.f.d., prof.); **D.Yo'ldoshev** (f.f.d., dots.); **R.Shukurov** (f.f.d.,prof.); **V.T. Nafasova** (f.f.n., dots.); **A.M. Turobov** (f.f.d.); **I.Ermatov** (f.f.d.); **O'.X. Rajabov** (f.f.n., dots.); **O'.A. Oripov** (f.f.n., dots.); **Sh.A. Temirov** (f.f.f.d.); **H.To'rayev** (t.f.d., prof); **O.Bo'riyev** (t.f.d.); **X.O. Bo'riyeva** (t.f.f.d.); **Y.Ahmadaliyev** (g.f.d., prof.); **Q.Hakimov** (g.f.n., prof.); **K.M. Seytniyazov** (g.f.n.); **Y.Ne'matova** (f.f.f.d.); **G.Jo'raboyeva** (f.f.f.d.); **O.Boltabayev, M.M. Avezov, Sh.Bekturdiyev, S.G'aybullayev**

Mas'ul muharrirlar:
Z.Do'simov (f.f.d., prof.); **N.Uluqov** (f.f.d., prof.); **R.Y. Xudoyberganov** (f.f.n., dots.v.b.)

Taqrizchilar:
A.D. O'rozboyev (f.f.d.); **Y. Odilov** (f.f.d.,prof.)

O'zbekiston Respublikasidagi joy nomlari nihoyatda ko'p va rang-barang bo'lib, ular mazmunan boy hamda tarixiy sanaladi. Mazkur lug'atda katta obyektlar, tarixiy va ayrim zamonaviy nomlar jamlangan. Asosiy maqsad, ushbu joy nomlarining ma'nolarini aniqlash va belgilab olish hamda kelgusida shu sohada ilmiy-tadqiqot olib boruvchi izlanuvchilar uchun zamin hozirlash, eng asosiysi, yoshlarga mazkur nomlarning ma'nolarini bekam-u ko'st yetkazishdan iborat.

Ayni paytda, ushbu kitob joy nomlarining lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida yozilishi har bir kitobxonga, qolaversa, rasmiy idoralar va tashkilotlarga ko'mak beradi.

Mazkur lug'at O'zbekiston Toponimika jamiyatining yig'ilishida muhokama qilinib, 2024-yilning 3-iyun 4-son bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan. Ushbu kitob ikkinchi nashr bo'lib, unga tarixiy joy nomlarining ayrimlarigina kiritildi. Kelgusida kitobxonlarning taklif va mulohazalarini inobatga olib to'ldirilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9137-3-0

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024

MUQADDIMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi bilan nashr qilinayotgan "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati" bugungi kunda joy nomlari ma'nolarini aniqlash, keng ommaga ma'lum qilish borasida qilinishi zarur bo'lgan bo'shliqni to'ldirishi bilan ahamiyatlidir. Garchi toponimika bo'yicha ko'plab fundamental tadqiqotlar yaratilgan bo'lsada, bir necha nafar mualliflarning ilmiy yutuqlarini umumlashtiradigan, hayotga tatbiq etadigan mana shunday manbalar nashr qilinmagan edi. Qo'lingizdagi kitob bevosita hukumatimizning davlat tili va mamlakatimizda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning tillarini rivojlantirish va asrab-avaylash yo'lidagi oqilona siyosati natijasidir.

Ma'lumki, joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma'lum bir hududda qaysi qabila, urug' vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Toponimning ma'nosini bilib olish, muayyan hudud haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish, buning natijasida joy nomlari lug'atini tuzish kerak bo'ladi. Bugungi kunda bunday lug'atlarga ehtiyoj nihoyatda katta.

Keyingi yillarda respublikamizda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tilini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalari hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida til siyosatiga oid ko'pgina hujjatlar qabul qilindi. Bular ichida Respublikamiz Prezidentining ikkita Farmoni tilimiz taraqqiyotini belgilashda muhim rol o'ynayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Birinchisi, 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni bo'lib, unda tilni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina masalalar qatorida geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlarida belgilab berilgan talablar asosida nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan. Qo'lingizdagi ushbu lug'at ana shu monitoringni yuritish va tartibga solish yo'lidagi samarali ishlarning ajralmas qismi sifatida maydonga keldi hamda joy nomlarini to'plash va tartibga solishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Ma'lumki, respublikamizdagi joy nomlarining barchasini insonda estetik zavq uyg'otadigan, milliy mafkura va qadriyatlarimizga mos keladigan, hududning xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan deb bo'lmaydi. Ayrim nomlarni o'zgartirish ehtiyoji bor, shuningdek, imlo xatolari mavjudligi, o'zlashmagan so'zlar bilan ifodalanganligi tilimizga putur yetkazmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev shu kabi holatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Afsuski, jamoat joylarida, ko'chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko'pincha xorijiy tillarda, ma'naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda, ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o'rganib chiqish va tartibga solish zarur. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o'ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarimiz, betakror san'atimiz va adabiyotimiz, ona tilimizni ko'z qorachig'iday saqlashimiz zarur". Davlatimiz rahbari tomonidan joy nomlari bo'yicha ta'kidlab o'tilgan muammolarni bartaraf qilish uchun, albatta, toponimlarni tarixiy-lisoniy jihatdan tadqiq qilish va toponimik lug'atlar yaratish lozim bo'ladi.

"Davlat tili haqida"gi Qonunning 22-moddasida: "Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi", – deb yozib qo'yilgan bo'lsa-da, yangi qurilgan, qurilayotgan aholi punktlari yoki ko'ngilochar maskanlarga nom berishda bir qismi yoki to'laligicha xorijiy tilga oid so'z bilan ifodalanuvchi Toshkent siti, Olmazor siti, Nukus siti, Magic City kabi nomlar paydo bo'la boshlagani ijobiy hodisa emas, albatta. Mazkur lug'atda asosiy e'tibor tarixiy nomlarga, shuningdek, yirik toponimik obyektlar nomini izohlashga qaratilganki, ular xalqimizning tafakkuri, dunyoqarashi va turmush tarzini o'zida aks ettiradigan onomastik birliklar bo'lib, yuqoridagi kabi sun'iy ravishda yoki boshqa tillarga taqlidan qo'yilmagani bilan qimmatlidir. Bugungi kunda joy nomlarining ma'nolarini, ularning xalq tafakkuri asosida shakllangani, milliy mentalitetimizni aks ettirishini o'sib kelayotgan avlodga tushuntirmas ekanmiz, yuqoridagi kabi nomlar paydo bo'lishda davom etaveradi.

O'zbekiston toponimiyasi so'nggi yuz yil ichida murakkab bosqichlarni bosib o'tdi. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni ishg'ol qilgunga qadar toponimlarimiz o'zbek tilining nom qo'yish qonuniyatlari asosida shakllangan birliklardan iborat edi. Sovetlar davrida esa milliy joy nomlari o'rniga Sho'ro mafkurasini yoyishga qaratilgan nomlar qo'yildi. Bu haqida Birinchi Prezidentimiz shunday deb yozgan edi: "Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko'cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha

nomlar, shior va lavhalarni ko'rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo'lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzelari "S-1", "S-2", "S-15" degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik. Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo'lgan, odamzodni tarixiy xotira, Vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas".

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, respublikamizning barcha hududlarida sho'rolardan oldingi joy nomlarining qayta tiklana boshlagani juda quvonarli hodisalardan biridir. Murakkab sinovlarga duchor bo'lsa ham, yo'qolib ketmagan ana shunday joy nomlari ham kiritilgani uchun lug'atni tuzuvchilarga har qancha minnatdorchilik bildirsak arziydi.

Ushbu lug'at "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"da ko'zda tutilgan o'zbek tili o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini yaratish orqali sohalar bo'yicha milliy terminologik tizimni takomillashtirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Shu paytga qadar yaratilgan toponimik lug'atlarning aksariyati ma'lum hududga tegishli joy nomlarini izohlashga qaratilgan edi. Bu o'z-o'zidan tushunarli bo'lib, muayyan hudud toponimiyasi tadqiqi bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida biror viloyat kesimidagi toponimik lug'atlar nashr qilingan. Z. Do'simov va X. Egamovlar hammuallifligida yaratilgan "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" (1977), B. O'rinboyevning "Jizzax viloyati toponimlari" (1992), "Samarqand viloyati toponimlarining izohi" (1997), Q.Hakimovning "Jizzax viloyati toponimlari" (2014), M. Mirakmalov va M. Avezovlarning "Vobkent tumani toponimlari" (2017), "Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari" (2020), "O'zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va geografik lingvistika" (2021), "Arid o'lkalar toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari" (2021) kabi kitoblari fikrimizni dalillaydi.

Olimlarimiz O'zbekistonning barcha hududlaridagi toponimlarni izohlashga qaratilgan lug'atlarni ham tuzishgan. T. Nafasovning besh mingdan ortiq toponimlarni o'z ichiga qamrab olgan "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" (1988), S.Qorayevning "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" (2005) kitoblari shular jumlasidandir.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, joylarni nomlash milliy an'ana va qadriyatlarimizga, o'zbek mentalitetiga mos ravishda amalga oshirila boshlandi.

Bu esa yangi toponimik lug'atlar yaratish ehtiyojini tug'dirdi. Shuningdek, respublikamizning barcha hududlari bo'yicha qilingan tadqiqot natijalarini umumlashtiradigan toponimik lug'at nashr qilish toponimika sohasi uchun juda zarur edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashabbusi va homiyligi bilan soha olimlarining tadqiqotlari birlashtirilgan, umumlashtirilgan holda ushbu lug'at maydonga keldi. Mazkur kitob tuzuvchilar sonining ko'pligi bo'yicha ham o'zbek onomastikasida yaratilgan lug'atlarning dastlabkisi hisoblanadi.

Lug'at tuzish o'ta mashaqqatli ish bo'lib, tuzuvchilarning sabrli, har qanday mayda-chuyda unsurlarga ham o'ta sinchkovlik bilan yondashishini talab qiladi. Berlin akademiyasi lug'atshunoslik bo'limidagi devorda o'rta asrlarning mashhur filologi Yustus Skaligerning lug'at tuzishning naqadar mashaqqatli, og'ir va sharafli ish ekanligini betakror o'xshatishlar orqali ifodalagan ushbu misralari yozib qo'yilgan ekan: "Agar kimdir og'ir mehnat-u azoblarga mahkum etilgan bo'lsa, unga temirchi-yu konchilar mashaqqatini ravo ko'rmay qo'yaqol-da, lug'at tuzishni buyur: shu ishning o'ziyoq barcha mashaqqatlarning mashaqqatlirog'idir". Nazariy leksikografiyaning asoschilaridan biri mashhur tilshunos akademik L.V.Shcherba ham "Men tilshunoslikda lug'atshunoslikdan ko'ra jiddiyroq sohani bilmayman", – deb aytgan ekan. Haqiqatan ham, lug'at tuzish, ayniqsa, mamlakatimizning turli hududlaridagi oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarida hududiy toponimiya masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va borayotgan olimlarning ishlarini birlashtirib, yaxlit lug'at qilish oson ish emas. Shularni hisobga olgan holda, ushbu kitobning yuzaga kelishida mashaqqatli mehnat qilgan R.Y.Xudoyberganov, N.Uluqov, M.T.Mirakmalov, T.J.Enazarov, V.T.Nafasova, O.Bo'riyev, X.O.Bo'riyeva, M.M.Avezov, O.Boltabayev, Y.Ahmadaliyev, S. G'aybullayev, Sh.Bekturdiyev, K.Seytniyazov kabi olimlarga samimiy minnatdorchilik izhor qilamiz.

Respublikamiz joy nomlarini o'rganishda olimlarimiz keng ko'lamli ishlarni amalga oshirganlar. Y.G'.G'ulomov, R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, H.Hasanov, F.Abdullayev, Z.Do'simov, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ishayev, N.Oxunov, S.Qorayev, T.Nafasov, R.Qo'ng'urov, B.O'rinboyev, N.Begaliyev, N.Uluqov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar e'tiborga molik. Joy nomlarini lisoniy tadqiq qilishda T.Enazarov, A.Otajonova, M.Tillayeva, O'.Rajabov, D.Yo'ldoshev, X.Egamov, Sh.Qodirova, L.Karimova, T.Rahmatov, S.Gubayeva, Y.Xo'jamberdiyev, J.Latipov, S.Nayimov, N.Mingboyev, A.Zokirov, X.Xolmo'minov, O'.Oripov, A.Turobov, Sh.Temirov kabi olimlar respublikamizning turli mintaqalari toponimik obyektlarini monografik tarzda o'rgandilar. Ushbu lug'atni tuzuvchilar ba'zi toponimlarning ma'nosini izohlashda yuqorida sanab o'tilgan nomshunoslarning ilmiy izlanishlaridan ma'lum ma'noda foydalanganliklari, ularning ishlariga murojaat qilganliklari lug'atning ilmiy qimmati yanada oshishiga sabab bo'lganini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu lug'atning yaratilishida toponimik lug'atshunoslikka tamal toshini qo'ygan olimlarimiz: H.Hasanov, T.Nafasov,

S.Qorayev, Z.Do'simov, N.Oxunov, B.O'rinboyev, N.Begaliyev va boshqa qator mutaxassislarning mazkur sohada yaratilgan lug'atlaridan foydalanilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ushbu lug'atning birinchi nashri 2022-yilda amalga oshirilgan edi. Guvohi bo'layotganingizdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashabbusi bilan mazkur lug'atning to'ldirilgan ikkinchi nashri tayyorlangani va unda, asosan, tilda avvaldan mavjud bo'lib, hozirgi kunda unutilib borayotgan ayrim tarixiy nomlar o'rin olganligi, ba'zi toponimlarning izohi lingvistik jihatdan tahlil qilinib to'ldirilganligi, qolaversa, til egalari uchun muhim manba vazifasini o'tashda har jihatdan qo'l kelishi kabi xususiyatlar mualliflar jamoasining uzoq va mashaqqatli mehnatlari samarasi sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatib turibdi. Lug'atda Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat, Toshkent shahri, shuningdek, boshqa shaharlar, 209 ta tuman haqidagi ma'lumotlarning kengaygani uni avvalgi nashridan farqli tomonlaridan biridir.

Mazkur lug'atni nashrga tayyorlashda mutaxassislardan tashqari, boshqa yondosh sohalar vakillarining ishtirok etishi hamda ularning o'z nuqtayi nazaridan yondashishlari natijasida lug'atga kiritilgan nomlarning izohi yuzasidan ayrim tavsiya, taklif, e'tiroz va mulohazalar paydo bo'lganida ishchi guruh tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinib, bu jarayon lug'at maqolalarining izohi mukammallashuviga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Ta'kidlaganimizdek, lug'atni yaratishda nafaqat tilshunoslar, balki etnograf, manbashunos, tarixchi va geograflar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi ushbu yo'nalishdagi ishlarning qimmatini yanada oshiradi va kelgusida mazkur sohada amalga oshiriladigan ishlarga zamin hozirlaydi.

Ushbu lug'atdan joy olgan toponimlar xalqimizning ko'p asrlik tarixi, tili, madaniyatini o'zida mujassamlashtirgani bois, yosh avlodda milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, Vatanga bo'lgan muhabbat, yurtga bo'lgan sadoqat, vatanparvarlik kabi eng nafis tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Umuman, kelgusida "O'zbekiston joy nomlari ensiklopediyasi" yaratilishida tamal toshi bo'lib, ushbu kitob materiallari muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi o'zbek leksikografiyasi uchun muhim voqeadir.

Nizomiddin Mahmudov,
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor

Azamat PRIMOV,
Urganch davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

LUG'ATNING TARKIBI VA TUZILISHI

Ma'lumki, joy nomlari yurtimizning qadimiy tarixi, geografik sharoiti, xalqimizning orzu-umidlari, madaniy-ma'naviy, siyosiy, diniy-falsafiy, estetik qarashlari, ona tilini e'zozlash va uning boyliklarini asrab-avaylash usullarini o'zida ifoda etgan ulkan xazina, lisoniy birliklardir.

Shu kunlarda davlatimiz tomonidan xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini tiklash borasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlar joy nomlariga bo'lgan munosabatni, ularni tartibga keltirish, ilmiy jihatdan tadqiq etish masalalarini yanada kuchaytirmoqda. Chunki joy nomlari, tarixiy toponimlar, milliy qadriyatlar tilning bebaho boyligi hisoblanishi bot-bot aytilmoqda. Shu bilan birga, joy nomlarining atoqli ot sifatida tilda muqimlashuvi o'zbek onomastikasining muhim nazariy, amaliy va jiddiy masalasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur lug'atni butun respublikadagi ayrim olimlar jamoasi tarqoq holda bo'lgan joy nomlarini umumlashtirib, aziz kitobxonlarga yetkazishni maqsad qildik.

Umuman, joy nomlarining izohli lug'atiga kirgan nomlarning lug'aviy tarkibi haqida quyidagilarni ta'kidlash lozim.

Birinchidan, lug'atda izohlangan nomlar tarixning uzoq o'tmishlarida yaratilgan toponimlar, joy nomlari haqida xalq orasida turli xil izohlar, sharhlar, talqinlar, rivoyatlar mavjud. Ularning yaratilishi va tarqalishi yuzasidan talqinlar ham turlichadir. Masalan, mahalliy kishilar, ko'pincha, nomga xalq tomonidan berilgan izohlarni to'g'ri va ma'qul deb bilishadi. Bunday hollarda yolg'on ma'lumotlar berilishi ham mumkin. Aslida, nomlar ilmiy, nazariy, amaliy asoslangan, ularning turli davrlarda turli xil lisoniy o'zgarishlarga uchragani aniqlangan bo'lishi kerak. Masalan, Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi **"Beshta"** nomli qishloq nomining ma'nosi, paydo bo'lishi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. Aslida, "Beshta" toponimi besh soni bilan bog'liq emas, u 2500 yillik tarixga ega bo'lgan tarixiy nom sanaladi. U Xorazmiycha "pesh", ya'ni "old tomon" degan ma'noni anglatadi va "ta" qismi esa "daha" so'zining qisqartirilgan dialektal variantidir. Demak, "Beshta" aslida "Peshdaha", ya'ni old qishloq deganidir. Shuningdek, **Toshkent, Samarqand,**

Xorazm, Buxoro, Qarshi, Xiva va boshqa qator tarixiy toponimlarning izohi ushbu lug'atga kiritilgan.

Ikkinchidan, ushbu lug'atdan ayrim muqaddas joy nomlari, avliyolar, ziyoratgohlar nomlari ham o'rin olgan bo'lib, **Avliyochek, Boboshayx, Zangiota, Sulton Uvays, Chorbakr** kabi nomlar shular jumlasidandir.

Uchinchidan, tabiiy-geografik obyektlarga mos keluvchi joy nomlarini ijod qilgan, qadimda yashab o'tgan mashhur, o'zidan chuqur tarixiy iz, boy ma'naviy meros qoldirgan kishilar allaqachon mangu uyquga ketgan. Ammo ular yaratgan kashfiyotlar, nomlar, ismlar turli dolg'ali bo'ronlardan omon qolib, bizgacha yetib kelgan. Ushbu lug'atdan ana shunday tarixiy shaxslar nomlari ham joy olgan: **Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish** va boshqalar.

To'rtinchidan, urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi bilan ataladigan, o'zbek tilidagi joy nomlaridan o'rin oladigan etnonimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ushbu lug'atda urug', qabila, elat, xalq, millat nomidan joy nomiga aylanib ulgurgan etnotoponimlar ham izohlangan, masalan: **Avoqli/Aboqli, Achamayli/Ashamayli, Bahrin, Misit, Kenegas, Oqto'nli, Qora** va boshqalar.

Beshinchidan, yer yuzasida, jumladan, O'zbekistonda ham suv bilan bog'liq tabiiy va sun'iy obyektlar mavjud bo'lib, tilda ularga ham maxsus nomlar berilgan. Mazkur lug'atda ana shular bilan bog'liq bo'lgan *ko'llar:* **Ashiko'l, Baxmalko'l, Biydayko'l, Bo'tako'l, Damko'l, Jarmishko'l, Laylakko'l;** *daryolar:* **Sirdaryo, Oqdaryo, Qoradaryo, To'polondaryo;** *soylar:* **Kosonsoy, Jilg'asoy, Oqsuv;** *quduqlar:* **Bolquduq, Galaquduq, Jarquduq;** *buloqlar:* **Arnabuloq, Galabuloq, Gumbuloq, Jarbuloq, Itbuloq;** *kanallar:* **Anhor, Solar, Ulug'nor, Toshsoqa;** *ariqlar:* **Abbosariq, Bodoqsoy, Iskanarariq, Kildonariq** va boshqalar izohlangan.

Oltinchidan, yer yuzasidagi quruqlikda joylashgan fizikaviy-geografik obyektlarning atoqli otlari. Ular baland joylar hisoblanib, mazkur lug'atga ushbu joy nomlari ham kiritildi, masalan: *tog'lar:* **Ultov, Shovdor, Qusxonatov, Qulontaqir, Qoraqush;** *tepaliklar:* **Oqtepa, Yapaloqtepa, Sho'rtepa, Ustuvortepa, Toltepa;** *qoyalar:* **Bamardak, Darg'ot, Mumloyxona** va boshqa qator geografik obyektlar nomlari izohi ham ushbu lug'atdan joy olgan.

Yettinchidan, totemizm ilk urug'chilik davrida yuzaga kelgan diniy ko'rinish bo'lib, bunga ko'ra ma'lum urug' va qabila, uning a'zolari biror hayvon, o'simlik yoki predmet bilan qandaydir aloqador deb hisoblangan va bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. Mazkur lug'atda hayvonlar va qushlar nomi bilan atalgan joy nomlari (fitonimlar va zoonimlar) izohlandi, *hayvonlar nomlari:*

Bug'ra/Buvra, Qorabura, Bo'ri, Qoraqulonchi, Baroq, Qo'zichi; *qushlar nomi:* **Qizilishton, Qushchi, Shunqor** va boshqalar shular jumlasidandir.

Sakkizinchidan, tuman yoki shahar ichida ekinzor yoki bog'lar va boshqalar mavjud. O'z navbatida, ular o'z atoqli otlariga ega bo'lib, biror obyektni boshqalaridan farqlashga xizmat qiladi. Ushbu lug'atda respublika hududidagi tarixiy va zamonaviy bog'lar, ekinzorlar va boshqalar nomlari izohi berildi. Masalan: **Bog'idilkusho, Bog'ibihisht, Behizor, Olmazor, Uzumzor** va boshqalar.

Lug'atning tuzilishi, unda joy nomlarining berilish xususiyatlari yuzasidan quyidagilarni eslatib o'tish o'rinlidir:

– Lug'atda joy nomlari alifbo tartibida joylashtirildi.

– Joy nomlarining yozilish shakli lotin alifbosiga asoslangan o'zbek imlosida berildi. Kitobxonlarga joy nomlarining lotin yozuvida yozilishini o'zlashtirishga yordamlashish maqsadida ham shunday qilindi.

– Joy nomlarining ayrimlari ajratilgan holda yozilgan bo'lsa, ayrimlari qo'shib yozilgan holda berilgan.

– Lug'atga shevalarga oid bo'lgan joy nomlari shevada qanday talaffuz qilinsa, shunday shakllarda kiritildi.



ABATAVUL – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qo'ng'irotko'l" va Chimboy tumanining "Tazg'ara" OFY hududlarida joylashgan aholi punktlari nomi. Mahalliy xalqning aytishiga qaraganda, shu yerlik xalqning obod va totuv turmush kechirishlari uchun yaxshi niyatlar bilan aholi punkti nomiga Abatovul nomini bergan.

ABBOSARIQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Yangiariq kanalining o'rta asrlardagi nomi. Ariqning quyi oqimi Anhor tumaniga borib tutashgan. XVII–XVIII asrlarda Jo'yi Nav deb atalgan, keyinchalik Yangiariq deb atala boshlagan (Vyatkin, 1902: 9; Mukminova, 1966: 254–280). V.L. Vyatkin Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifin" asarida shu nomdagi ariq va cho'l tilga olinganligini ta'kidlaydi. V.V. Bartold Istaxriy (X asr) bergan ma'lumotlarga asoslanib, bu kanal o'rta asrlarda Barmish deb atalganligini va u bir kunlik yo'l uzoqligi masofasida ekanligini qayd qiladi (Bartold, I ,1963: 133–134).

Prof. Sh.S. Kamoliddin Bormish (Nahr Bormish) arig'ining nomi turkcha "bor+mish" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin, deydi (Ibn Xavkal, 2011:205). Ariq 1464-yilda tuzilgan vaqf hujjatida fors tilida Juyinav deb tilga olinadi (Vyatkin, 958:124).

Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi davrlariga kelib tashlandiq holda bo'lgan va keyinchalik ariqning bosh tomoni tuzatilib, undan yana suv oqa boshlagach, Yangiariq deb atala boshlagan. Ariq o'zani keyinchalik doimiy qazilib turilgan. L.Sobolev o'zining "Zarafshon okrugi haqida geografik va statistik ma'lumotlar" (1874) kitobida Yangiariq kanalining 1827-yilda Samarqand hokimi Kattabek parvonachi tomonidan qazdirilganligini qayd etadi. V.V. Bartold ariq Temurning harbiy sarkardalaridan Abbos bahodir nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin, – degan fikrni bildiradi. "Yangi" so'zi toponimiyada ko'p qo'llaniladigan terminlardan biridir. Jumladan, birgina Samarqand viloyatidagi 21 ta ariq nomi mazkur so'z ishtiroki bilan yasalgan.

ABDOL – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Abdol xalqi nomi bi-

lan bog'liq toponim. Abdallar tarixiy manbalarda eftalit nomi bilan mashhur bo'lgan xalq vakillari bo'lib, ularning nomi bilan bog'liq toponimlar respublikamizning ko'pgina viloyatlarida uchraydi. Toponimist A.Turobovning qayd qilishicha, abdal qabilasi qadimgi Volgabo'yi, Orol atroflarida yashagan massagetlar avlodi bo'lgan eftalitlar yoki boshqacha aytganda, oq xunnlar, haytallar avlodidir. "Haytal" so'zi Buxoro lahjasida "pahlavon", "jasur odam" degan ma'noni ifodalaydi.

Markaziy Osiyo toponimiyasida bu etnonim abdal shaklida uchraydi. G.P.Vasilyeva abdol etnonimi turkman urug'lari orasida, R.G.Qo'ziyev esa boshqird urug'lari orasida borligini qayd qilganlar. Xorazm viloyatining Gurlan (Abdalboy, Mullaabdal), Yangi Urganch (Abdalaras), Bog'ot (Abdalbova), Samarqand viloyatining Payariq (Qoraabdal), Urgut (Xo'jaabdal), Oqdaryo (Abdal) tumanlarida ushbu etnonim bilan bog'liq geografik nomlar ko'p uchraydi.

ABDUJABBOROS//OLLONAZAROS//ESHBOYOS – Xiva xonligidagi masjidlar (xutorlar) nomi (M. Yo'ldoshev. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. –T., 1959. B. 31, 106, 133, 134 va b.). "**Az, asos** asosli etnonimlar Oltoydan Uralgacha bo'lgan katta hududlarda mashhurdir" (Р.Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа. С. 228, 229).

N.Aristovaning kuzatishlari bo'yicha hayvonlar nomlari, shu jumladan, oqsichqonlar Oltoy xalqlari urug'lari nomlarida uchraydi (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен. С. 340). ***As*** komponenti mustaqil etnonim sifatida O'zbekistondagi boshqa geneonimlar tarkibida qayd etilgan (Б.Х. Кармышева. Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских генеологиях (ас, кышлак, урус). Сб. "Ономастика Средней Азии". –М., 1978. С. 18–21).

ABDULLA SOY – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi soy. Mazkur gidronimining birinchi komponenti Abdulla tarixiy shaxs nomi, ikkinchi qismi soy. Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. "Ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan paslik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" [O'TIL.3, 545].

Demak, Abdulla soy – Abdullaxon tomonidan qurilgan suv ombordan boshlanuvchi kichik anhordir.

ABDULLAXON – Buxoro viloyatidagi kollektor nomi. Kollektor Peshku va Vobkent tumanlari chegarasi bo'ylab o'tkazilgan. U o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583–1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi Abdullaxon II (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xo'ja Muhammad ibn Abulxayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog'i, Samarqand;

Buxoro yaqinidagi Bahouddin Naqshband majmuasiga dafn etilgan) sharafiga shunday nomlangan. Tarixdan Abdullaxon II davrida karvon yo'llarida sardobalar, rabotlar, kanallar, suv omborlari bunyod etilganligi ma'lum.

ABDURAYIMBOVLON – ariq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Yangiariq kanalining o'ng qirg'og'idan chiqarilgan ariq nomi. Abdurahim (ism) va "bovlon, bog'lon" (ming urug'i tarmoqlaridan biri) so'zlaridan yasalgan antropogidronim.

ABDUSAMAD – Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq nomi. Kishi ismi bilan atalgan joy nomlaridan biri. Toponimikada shu yerda yashagan, yurt obodligiga xizmat qilgan yoki butun millatning faxriga aylangan kishilarning ismi va familiyalari biron qo'shimchasiz joy nomlariga qo'yiladi. Aslida, uning nomlanish motivi o'sha shaxsga bo'lgan ehtirom va hurmat hamda uning amalda ko'rsatgan faoliyatidir. Bu nomlar ham ma'lum ma'noni anglatishi shubhasiz. Jumladan, **Abdusamad** arabcha *"abdu (abdi)* – qul, banda, *samad* – doimiy, boqiy" degan ma'noni anglatsa, viloyatdagi joy nomlarida ko'p takrorlanadigan **Abdulla** – *Tangrining quli;* **Abdurahmon** – *mehribon, rahm qiluvchining quli;* **Aziz** – *qadr-qimmatli, mo'tabar;* **Azim** – *ulug'vor, ulkan;* **Akbar** – *ulug', katta, hurmatli;* **Alisher** – *oliy, mo'tabar, shersifat va dovyurak,* degan ma'nolarni anglatadi.

ABILLAJALG'IZQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan yolg'iz qum tepaligi nomi. Qumlik nomining kelib chiqish tarixi – bu qumlik yonida Abilla ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilgan ekan.

ABJUVOZ BOSHI – Farg'ona viloyatidagi Qo'shtepa, Quva tumanlarida joylashgan qishloqlar nomi, to'g'ri yozilishi **Objuvoz boshi**. Ob va juvoz komponentlaridan tashkil topgan bo'lib, u suv tegirmoni ma'nosini anglatadi.

Abjuvoz boshi shu qurilma atrofidagi qishloq demakdir. Bu nomning paydo bo'lishi XVIII asrlarga borib taqaladi. Viloyatda qayta ishlovchi mahalliy ishlab chiqarish korxonasi nomi bilan bog'liq bo'lgan **Tegirmonboshi, Qo'shtegirmon, To'pjuvoz, Suvjuvoz, Yog'juvoz** kabi qishloqlar bor.

ABU MUSLIM – Buxoro viloyati hududlaridagi kanal va tepalikning nomi. Abu Muslim – bu 747–749-yillarda immaviylar hukmronligiga qarshi Movarounnahr va Xuroson hududlarida hamda arab xalifaliklarining g'arbiy qismida qo'zg'olonni boshqargan Abdurahmon ibn Asadning laqabi. Tepaliklar – Zarafshon daryosining boshidan chiqqan Navoiy viloyatining shu nomli tumanlari hududlarida Ju va Abu Muslim – kanalning asosiy qismi Qiziltepa qishlog'i yaqinidagi qal'aning buzilgan qoldiqlari.

ABU RAYHON BERUNIY – Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Abu Rayhon Beruniy – Xorazmning buyuk allomasi, tarix,

geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqa ko'plab fanlarga oid qomusiy asarlar muallifi hisoblanadi. Uchbu qomusiy olimning nomini abadiylashtirish, muallif tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy meros kelgusida yoshlarimizda ibrat maktabini o'tashi maqsadida hamda ajdodimizga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtirom natijasida ushbu hudud shunday nom olgan.

ABUZ – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol, Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanlaridagi qishloq nomi. O'zbeklarning Qo'ng'irot qabilasi tarkibida (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 213) va uz qabilasi (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах. С. 19), qozoqlarda (жетыри qabilasi) va qoraqalpoqlarda (ashamayli qabilasi) abuz urug'i qayd etilgan. Demak, Abuz – urug' nomi, etnonim.

ADAS – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Toponimist olimlarning qayd qilishlaricha, kenagas urug'ining bir tarmog'i *andas* deb ataladi. Andas keyinchalik adas bo'lib ketgan (Nabiyev, Asrorov. "O'zbekiston SSR tarixi" kursi. 1985: 96). *"Anda"* so'zi *"tutingan og'a-ini"* ma'nosida bo'lib, qadimiy mo'g'ul odatiga ko'ra, ikki urug'ga tegishli kishilarning o'zaro do'stlashuvi demakdir (Vladimirsov, 1934: 60–61), ***-s*** esa mo'g'ul tilida ko'plik qo'shimchasi bo'lib, *andas, adas – "Tutinganlar, tutingan og'a-inilar"* ma'nosidadir. Hozirgi o'zbek tilida mazkur so'z *"quda-anda"* qarindoshlik atamasida saqlanib qolgan. Shuningdek, *"adas"* fors tili lug'atlarida *jigarrang loviyaning bir turi* ekanligi qayd qilingan (Farhangi zaboni.., 1969: 39).

ADOLAT – mahalla. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Mazkur nom Mustaqillik davridan keyin atalgan bo'lub, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan: "Adolat – arabcha so'z bo'lib, odillik, odilona ish tutish" kabi ma'nolarni ifodalaydi (O'TIL. 2008, I, 41).

ADOQ/ADOQIYON – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. ***Adoq*** – *"quyi, etak, quyida yoki adaq etagida joylashgan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud.

ADRASBOF – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. *Adras* – bezakli yarim ipak hunarmandlar gazlamasi; *bof, boftan* – hozirgi zamon fe'lining asosi "olmoq". ***Adrasbof*** – *adras tayyorlash bo'yicha usta; shunday mutaxassislar yashaydigan qishloq* demakdir.

ADRASBOFON – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "adras-gazlamachi ustalar yashaydigan joy" ma'nosini bildiradi.

AFROSIYOB – Samarqand shahrining qadimiy vayronasi. V. L.Vyat-

kinning fikricha, Afrosiyob nomi XVII asrdan boshlab yozma manbalarda uchray boshlaydi. Bungacha uni *"Hisori ko'hna", "Qal'ayi ko'hna" ("Eski qal'a")* nomlari bilan tilga olishgan. Endilikda xalq tilida ham, ilmiy adabiyotlarda ham *Afrosiyob* nomi bilan mashhur.

V. A. Livshis yodgorlik nomini *Parshab* (sug'dcha *Parshvab*) – *"Siyob usti"* so'zidan kelib chiqqan, deydi. Biroq Afrosiyob nomi bilan bog'liq geografik nomlar respublikamizning boshqa joylarida ham ko'plab uchraydi. Jumladan, Toshkent shahridagi Mingo'rik yodgorligining yana bir nomi *"Afrosiyob oshxonasi", "Shohnishintepa"* esa *"Afrosiyob taxti"* deb ataladi. Shuningdek, Kitob shahridagi yodgorlik ham Afrosiyob nomi bilan bog'liq.

V.V. Bartold o'rta asr arab mualliflari asarlariga tayanib, Afrosiyobdagi bir qator joy nomlarini qayd qiladi. Jumladan, Shahristondagi Asfizar mahallasi, Arab amirlarining eski saroyi, Jome masjidi, Rofe ibn Lays qasri singari bir qator geografik nomlarni o'rganish Afrosiyobning topografiyasini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Afrosiyob XIII asrdagi mo'g'ullar hujumidan so'ng xarobalikka yuz tutgan qadimiy Samarqand shahrining markazi bo'lib, uning afsonaviy Turon shohi nomi bilan atalishida tepalik yonidan oqib o'tuvchi Siyob arig'ining aloqasi yo'q. Samarqandning mo'g'ullar hujumiga qadar asosiy markazi bo'lgan hozirgi Afrosiyob o'rta asrlarda mustahkam devorlar bilan o'ralgan edi. Ibn al-Faqih asarida qal'a haqida to'xtalar ekan, uning Kesh, Xitoy, Usrushon va Ohanin darvozalari haqida ma'lumot beradi. Har qanday geografik nomda bo'lgani singari, darvozalar nomi ham vaqt o'tishi bilan o'zgarib turgan. Afrosiyob darvozalari haqida yozgan al-Istaxriy (X asr) Kesh darvozasini Katta, Ohanin darvozasini Navbahor, Usrushona darvozasini esa Buxoro darvozasi deb qayd qilgan. Mazkur darvozalardan biri Xizr masjidi o'rnida bo'lib, u Kesh yoki Katta darvoza nomi bilan mashhur bo'lgan. Arab tarixchisi Istaxriyning aytishicha, bu darvoza temirdan bo'lib, unda xalqqa notanish yozuv bo'lgan. Samarqandliklar bu yozuvni himyariyra (arab qabilalaridan biri) yozuvi, deb bilishgan. Bloshe ularni o'rxun bitiklari bo'lishi mumkin deydi. Har holda Istaxriy Samarqandga kelgan paytda bu yerda ko'tarilgan isyonning guvohi bo'lgan edi. Isyon vaqtida qo'zg'olonchilar mazkur darvozani buzib tashlashgan. Keyinchalik shahar hokimi Abul Muzaffar darvozani yana temirdan yasatgan, lekin undagi yozuvlar qayta tiklanmagan.

AFG'ON//AFG'ONI//AFG'ONBOG' – mahalla. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri va O'zbekiston tumanidagi mahallalarning nomi. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomlari. Afg'on (Avg'on) toponim yasovchi so'z sifatida respublikamizda keng tarqalgan. Afg'on xalqi nomi bilan bog'liq. O'zbek tilida bu so'z *"faryod, fig'on, nola chekmoq"* ma'nosida ham ishlatiladi. O'zbekistonda bu toponimlar oz emas: **Afg'on,**

Afg'onon, Avg'oni va boshqalar. Bu nom afg'onlar joylashgan hududdan, shu etnik guruhdan kelib chiqib, o'zlarini afg'onlar deb atashadi, ammo ular hind tili guruhi dialektida gaplashishadi.

AFG'ONON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. ***Afg'on*** – etnonim (afg'on) – afg'on xalqi, -i (-lik) affiksi mansublik, xoslikni bildiradi. Demak, ***Afg'onon*** – *"afg'on xalqiga mansub kishilar yashagan qishloq"* ma'nosini bildiradi.

AFSHINA//AFSHONA – qishloq. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. Mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad Narshaxiy Afshona toponimi haqida shunday fikr bildirgan: "katta shoristonga va mustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan. Qutayba ibn Muslim u joyda masjidi jome bino qilgan. Muhammad ibn Vose ham bir masjid qurdirgan. Bu yer duo qabul bo'ladigan joy. Odamlar shahardan u joyga boradilar va uni tabarruk deb hisoblaydilar"[1].

Shunday ekan, Afshina//Afshona nomlari – *"ziyoratgoh qishloq"* ma'nosini anglatadi.

AFSHINA DARVOZASI//BOB AFSHINA – darvoza. Samarqand viloyatidagi bu darvoza Isbask qishlog'i va Cho'ponota tepaligi oralig'ida bo'lgan (Беленицкий 1973: 226). As-Sug'd (Zarafshon) daryosining narigi qirg'og'ida Afshina nomli yer bo'lib, darvoza uning qarshisida bo'lganligi tufayli shunday nomlangan.

AGANAY – qishloq. Toshkent viloyati Qibray tumanidagi qishloq nomi. Qirg'izlarning saruu qabilasining bir urug'i aganay deb atalgan. Qishloq nomiga etnik birlik nomi asos bo'lgan.

AHILLIK – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: *"ahil munosabat, shunday munosabatli holat"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 522-bet).

AHMAD DONISH – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2014-yilga qadar **Murdashuylar** deb atalgan. Toponimni hosil qilgan *"murdasho'y"* so'zi kasb nomi. Marhum (murda)larni yuvib, tarash bilan shug'ullanuvchi kishi *murdasho'y (yuvuvchi, g'assol)* deb ataladi. Shu kasb egalari yashaydigan joy – Murdasho'ylar.

Mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra qishloq hududida avvallari marhumlarni yuvib, tarash kasbi bilan shug'ullanuvchilar ko'p bo'lganligi sababli qishloq shunday nom olgan. Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Ahmad Donish* deb o'zgartirilgan. Ahmad Donish – buxorolik yozuvchi, rassom, xattot, olim va ma'rifatparvar. To'liq ismi Ahmad Donish Maxdum ibn Nosir, taxallusi Kalla. Ahmad Donish 1826-yilda Buxoroda tug'ilgan, 1897-yilda shu yerda vafot etgan. XIX

[1] Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy Buxoro tarixi. –T.: Fan. 1966. –B.23.

asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. Qishloq taniqli ma'rifatparvar Ahmad Donish nomi bilan atalgan.

AHMAD YASSAVIY – mahalla. Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Guliston tumanlaridagi mahallalar nomlari. **Xo'ja Ahmad Yassaviy** XI–XII asrlarda yashagan. Tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri, diniy ulamo. Mahalla taniqli tasavvuf, shoir Ahmad Yassaviy nomi bilan atalgan.

Ahmad Yassaviy nomi antropotoponim sifatida respublikamizning ko'plagan hududlarida uchraydi.

AJINAKAMAR – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi kamar nomi. ***Kamar*** salqin va shamolli bo'lgani bois unga kirgan odam kasalga chalinadi. Kasallik ***kamar***dan keldi deb bilguvchi odamlar uni shunday atashgan.

Arab tilidan o'zlashgan *ajina* aynan *jin* bo'lib, *"Sharq mifologiyasida va diniy tasavvurlarga ko'ra: pastqam joylarda kishi ko'ziga odam timsolida ko'rinib, go'yo uni biror dard-illatga chalintirib ketadigan afsonaviy maxluq"* ma'nosini anglatadi.

Kamar lug'aviy birligi oronimik indikator sifatida *"suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yonbag'rida yuvilish, o'prilish va shu kabilar natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy"* ma'nosini anglatadi (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

AJIMOVUL – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus, Kegeyli tumanlaridagi ovul nomi. Qozoqlarning jetiruv, qirg'izlarning sayoq qabilalarining bir urug'i ajim deb atalgan.

AJIRIKTI – ovul. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi ovul nomi. U *"ajriq o'tli joy"* degan ma'noni ifodalaydi.

AKBAROBOD – qishloq. Farg'ona viloyati Quva tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xoni Xudoyorxonning nabirasi Akbarali nomi bilan atalgan. *"Obod"* so'zi tojikcha *"ob* – suv, *obod* – suvli, suv yetarli joy" degan ma'noni bildiradi. Bu so'z shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma'nosi *"gullagan"* demakdir.

Farg'ona viloyatida "obod" affiksoidini kishilar ismiga qo'yilishidan *Azimobod, Bekmirzaobod, G'aniobod, Zafarobod, Islomobod, Yo'ldoshobod, Matqulobod, Mirzaobod, Sattorobod, Solijonobod, Usmonobod, Haydarobod, Qayquobod* kabi qishloq nomlari yaratilgan bo'lsa, kishilarning amali, mansabi kasb-koridan kelib chiqib, *Amirobod, Bekobod, Sultonobod, Xonobod* nomlari hosil qilinganligini ko'rish mumkin. Viloyatdagi qishloq va mahalla nomlari orasida *Begobod* olti marta takrorlanadi.

ALAKO'YLAK – shaharcha. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi shaharcha (2009) nomi. Nomning tarkibi o'zgargan. Qadimiy shakli – *alacha/olacha + ko'ylak*. O'zbek etnonimiyasida *ko'ylak, qalpoq, telpak, to'n* so'zlari uchraydi: *olako'ylak/olacha-*

ko'ylak, qoraqalpoq, qoratelpak, olato'n/alato'n. Demak, mazkur nom etnonim hisoblanadi.

O'zbek xalqi tarkibidagi 300 urug'ning biri olacha to'qib, undan ust-bosh qilib kiygan hunarmand kishilar nomidan – *alachako'ylak/olachako'ylak* (Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – T., 1968. – B. 80).

Bu – xalq izohi. *Alaqo'yliq/alaqo'yliq/olaqo'yliq/olaquylik* etnonimining tovush va morfema tarkibi o'zgargan shakli – *alako'ylak/olako'ylak*. Ana shu etnonim qishloq nomiga aylangan. Qishloqning nomlanishida aholining etnik tarkibi e'tiborga olingan.

ALAMDOR – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. **Alamli** – Buxoro viloyatining Romitan tumani, Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloqlar nomlari. **Alam** (arabcha) – *"bayroq, tug'"* ma'nosida. Avvalgi davrlarda har bir muqaddas joyning o'zining bayrog'i bo'lgan, u uyining oldiga ilingan; o'limidan keyin ham ilinib turgan. Muqaddas joylar, qabristonlardagi aybsiz o'ldirilgan qabrlarda yoki o'sha qabristonlardagi daraxtlar tepasiga ilingan oq mato – **alam** deb atalgan.

Alamdor (forscha), **Alamli** (o'zbekcha) – *bayroqli, tug'li joy*. Bunday joylar muqaddas joylar hisoblanadi.

ALAMI – qishloq. Namangan viloyatining Mingbuloq tumanidagi qishloq nomi. Qishloqning nomlanishi haqida bir necha qarashlar mavjud. Ayrim kishilarning fikricha, bir vaqtlar qishloq atrofidagi ekinzor yerlar bir alamga qarashli bo'lgan emish. Shu bois bu joy a'lamning yeri, a'lamning qishlog'i deyilib, keyinchalik *Alami* bo'lib ketgan emish[1].

Bizningcha, bu xalqona yuzaki talqin. O'zbek tilidagi omonimik xarakterga ega *"alam"* so'zi *"bayroq, tug', nishon, alomat, belgi"* ma'nolarini anglatadi[2]. O'zbek tili toponimiyasida alam apellyativi asosida yasalgan *Alamli* (Samarqand viloyati Bulung'ur tumani)[3], *Alamdor* (Buxoro v. Romiton t.) kabi nomlar ham kuzatiladi. Mazkur oykonimlarning etimoni ana shu *alam* so'zi bilan bog'liq.

Demak, *Alami* oykonimining tarkibi *bayroq, tug', nishon, belgi* ma'nosini anglatuvchi *alam* va *-i* morfemalaridan iborat.

ALAMLI//QARALAM//QORALAMBUVA – qadamjo. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadamjolar nomi. Ma'lumki, *ələm* komponenti yordamida hosil bo'lgan toponimlar anchagina, jumladan, *Ələmli, Qarələm, Qarələmbuva* kabi. Bunday nomlarning ma'nosi turli xil talqin qilinadi. Ular aksariyat ko'pchilik hollarda azob, dard, qiynoq, g'am kabi so'zlar bilan bog'lanadi. Albatta, bu so'zning semantik doirasi ancha kengligi bilan izohlanadi.

---

[1] Bu haqida qarang: Abdulla Jabbor. Namangan viloyati. Ixcham ma'lumotlar to'plami. – Namangan, 2011. – B. 50.

[2] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I tom. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 75–76.

[3] Qarang. O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar. – Samarqand: Zarafshon, 2003. – B. 16.

O'zbek tilining izohli lug'atida u quyidagicha izohlanadi: "**Alam** – arabcha. *1. esk. bayroq, tug'. 2. din. Aziz avliyolar dafn etilgan mozorga sig'inuvchilar tomonidan shu mozor daraxtlariga bog'langan latta*"[1].

Alam علم arab tilida alomat, belgi, nishon ma'nosini anglatadi. Bundan tashqari, yalov, tug' kabi ma'noni ham ifodalaydi[2]. ***Alam*** – *aziz-avliyolar mozorida, qadamjolarda o'sgan daraxtlarga osiladigan har xil latta*. Bunday lattalar ko'pincha oq rangda bo'ladi. Shuning uchun ham Janubiy Qoraqalpog'istondagi qora latta taqilgan mozor kishilarning diqqatini o'ziga tortgan va *Qarələm* sifatida toponimlarda aks etgan. Shahidlar qabridagi tayoqqa osilgan latta ham *ələm* deb yuritilgan. Alam taqilgan joy asosan aziz-avliyolar dafn qilinganini anglatgani uchun hozirgi kunda ishlatiladigan "alaming sharpildab turibmi?" kinoyasi sening nasl-nasabing biznikidan ustunmi? – degan ma'noni anglatadi. Shu o'rinda hududning ayrim joylarida mavjud *Ələmchilər* mikrotoponimida *ələm* so'zining hudud turmush tarzi bilan bog'liq ma'nosi – Amudaryodan kechuvda yo'l ko'rsatuvchi ma'nosi nazarda tutiladi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

Shunday nomdagi mikrotoponimlar respublikamizning deyarli barcha hududlarida uchraydi.

ALAMLISOY – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi gidronim. *Alam* (arabcha) – *bayroq* ma'nosida bo'lib, *"muqaddas joyda o'sgan daraxt shoxlari"*ga yoki *"shahid bo'lgan kishi mozoriga o'rnatilgan tayoqqa osilgan har xil mato"*lardir. S. Qorayev ma'lumotlariga ko'ra, Alamli –*"aziz-avliyolar mozori"* yoki *"shahid kishi ko'milgan joy"* demakdir.

ALAQARG'A – shaharcha. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi shaharcha nomi. Turkiy etnonim *qarg'a*, shu urug'ning bir bo'limi, katta tarmog'i – *alaqarg'a*. Azaldan *ulug'+qarg'a* tarzida bo'lgan: *ulug'qarg'a → uluqarg'a → ulaqarg'a → alaqarg'a → Alaqarg'a*, ya'ni alaqarg'a urug'i vakillari yashagan joy (qishloq) – Alaqarg'a. Tovush o'zgarishlari orqali so'z etnonimga aylangan. Qashqa-Surxon qo'ng'irotlari qanjig'ali bo'limining qoraqursoq tarmog'ida qarg'a urug'i bor. Qarg'ani totem deb qabul qilgan jamoa nomidan qarg'a etnonimi yaralgan.

ALAQO'YLIQ – shaharcha va mahalla. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi mahalla va shaharcha nomi. To'ra Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi" kitobi (42-bet) da yozilishicha, o'zbek xalqi tarkibida turli qabilalarga tegishli *alvqo'yli/olaqo'yli, qoraqo'yli/qorag'uyli* urug'lari bo'lgan. Jumladan, **Do'rmonlar** tarkibida *oqqo'yli*, **Ming** qabilasida *qoraqo'yli/qorag'uyli*, **Kenagaslar**da

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.38.

[2] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 75.

Alaqo'yli urug'i bo'lgan. Bu urug'lar o'zbek xalqining boshqa qabila va qabila ittifoqlari tarkibida ham bo'lgan. Muallif shulardan kelib chiqib, *alaqo'yli, oqqo'yli, qoraqo'yli* so'zlarini umumturkiy etnonim, deydi. Kitob, Shahrisabz qarluq lahjasida *-li* qo'shimchasi, asosan *-lik* qo'shimchasi tarzida qo'llanilgani tufayli **Alaqo'yliq** toponimiga aylangan, – deb yozadi To'ra Nafasov.

Mahalliy aholining fikricha, alaqo'yliqliklar 200–300 yil ilgari Toshkentning Qo'yliq dahasi va Bektemir tumanining Alaqo'yliq hududidan kelib qolishgan. Aholi chorvador bo'lgani uchun chorvasini haydab kelib, bir qismi Kitob tumani hozirgi Alaqo'yliq qishlog'ini, qolgan qismi Shahrisabzni maskan qilgan. Ko'chib kelgan hududlariga o'zlari tug'ilgan joy nomini berishgan.

ALILI//ALELI – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mang'it tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom bilan atalgan kanal ham mavjud. Ushbu nomning ayrim manbalarda turkmanlarning ***Ali-Eli*** urug'ining nomi bilan aloqadorligi qayd etiladi. ***Ali-Eli*** urug'i vakillari Xiva xonining marhamati bilan o'sha paytdagi Qilichniyozboy qal'asi atrofidan yer olib, shu yerda yashay boshlaganlar. Ularning nomi Alili deb yuritilgan. Qishloqqa boradigan ariq ham xuddi shu nom bilan atalgan. Hazorasp tumanidagi eski Aliulik toponimi ham Ali elining shevadagi shaklidir[1].

Buxoro viloyatining Jondor tumanida ham shunday nomdagi qishloq uchraydi.

ALLABERDI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikroantroponim ***Allaberdi*** ismli shaxs tomonidan o'zlashtirilgan joyga nisbatan qo'yilgandir. Antroponim bir o'zakli ot so'z turkumiga oid.

Bunga o'xshash nomlarning respublikamizning turli hududlarida turlicha dialektal shakllari uchraydi. Masalan: ***Ollovardi, Allaberdi, Ollohberdi*** va boshqalar.

ALVONJ – guzar. Buxoro shahrining guzari. Forscha *alvonj* – "arg'umchoq". Bu urug'ning nomi mahallaliklarning mashg'uloti bilan bog'liq (О.А. Сухарева. Кварталъная община Бухары. С. 74). Tadqiqotchi M.M.Avezovning ma'lumotlariga ko'ra, chaqaloqlar belanadigan maxsus boshpana (chaqaloqlar uyi) alvonj deb ataladi. Buxoro viloyatining aksariyat hududlari (Vobkent, Qorako'l, Jondor, Olot va boshqa tumanlar)da chaqaloqni beshikka emas, alvonj nomli tebranuvchi moslamaga belashadi. Shu moslamani yasash bilan shug'ullanuvchi kishilar yashaydigan joy – Alvonj. Guzar u yerda yashovchi aholining kasbidan nom olgan.

ALLOP – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi qishloq. *Allop (allof)* – "bug'doy va un sotuvchi", "shunday insonlar yashaydigan qishloq".

[1] Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. –B. 12-13.

ALLOT – qishloq. Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi qishloq. *Allat* – arlat etnonimining dialektal shakli (qarang: *Arlat*).

ALOQABANDOM – guzar. Buxoro shahrining guzari (mahallasi). *"Zar uqa tayyorlaydigan – jiyak tayyorlash bo'yicha ustalar".*

ALQOR – qishloq. Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi qishloq nomi. Ilmiy adabiyotlarda etimologiyasi berilmagan. Biroq zootoponimik oykonim (hayvon nomi bilan bog'liq nom) bo'lishi mumkin. O'zbek tilida yovvoyi tog' qo'yi Alqor deb ataladi. Viloyatdagi *Bo'riqum, G'ozigijdon, G'oziyog'liq, Kaptarxona, Laylakuya, Qushqo'noq, Qushchi, Qo'chqorchi, Shunqor* nomlari ham hayvonlarga nisbat berib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Biroq bu toponimlar orasida urug'lar nomi, etnonimlari ham ko'p uchraydi. Masalan, S.Gubayeva (1983) *Alqor* qalmoqlar qishlog'i bo'lib, uni Oppoqxo'ja eshon duo qilganligini yozadi. *Qushchi, Qutchi, Quchchi* toponimlari parranda nomidan emas, balki urug' nomidan olinganligi isbotlangan (S.Qorayev, 2001). Shuning uchun har bir nom izohi alohida tahlilga muhtoj.

AL-XORAZMIY – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Markaziy Osiyoning buyuk allomasi, matematik, astronom Abu Abdulla Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy (780–850)ga ehtirom ko'rsatish, nomini abadiylashtirish maqsadida shu nom bilan atalgan.

ALCHINARIQ – ariq. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Samarqand, Kattaqo'rg'on tumanlaridagi ariqlarning nomi. *Alchin* (olchin) – bir qancha turkiy xalqlar, shu jumladan, kichik juz qozoqlari tarkibiga kirgan yirik qabila (alshin).

AMINLAR – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Amin Buxoro xonligida tuman yoki qishloq oqsoqoli, bozorda sotuvchilardan soliq yig'ib yurgan "amaldor, ishonchli" demakdir. Aslida, ***Amin*** so'zi – arabcha bo'lib, ma'nosi *"ishonchli"* demakdir. Shuningdek, Amino – "Aminho" ham qishloq nomi hisoblanadi.

Buxoro viloyatining Romitan tumanida ham ***Aminlar*** nomidagi qishloq mavjud.

AMIROBOD – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon, Buxoro, G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. ***Amir*** *– o'tmishda qo'llangan oliy mansab atamalaridan biri, podsholik, xonlik unvoni* nomini bildirgan.

Amirobod *– "Amirning qishlog'i, amirga qarashli yerlarda bunyod etilgan qishloq"* ma'nosidadir.

AMIRQUM – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. *Amir* ismi va *qum* so'zining qo'shilishidan toponim hosil bo'lgan.

Odatda, qaysidir bir hududda qandaydir shaxs istiqomat qilib, o'zining xizmatlari bilan nom qozonsa, shu nom mahalliy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Mazkur hudud-

da ham qadimda Amir qozoq nomli odam yashagan bo'lib, keyinchalik mazkur hudud shu nom bilan atalib, *Amirqum* nomini olgan.

AMUDARYO – tuman va daryo. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birlik. ***Amudaryo*** tumani 1957-yilgacha Mang'it rayoni deb atalib, u Xorazm viloyati tarkibida bo'lgan. Qipchoq rayoni esa Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi tarkibida bo'lgan. 1957-yil 18-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Rayosatining maxsus qarori bilan Xorazm viloyatining Mang'it hamda Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasining Qipchoq tumanlari birlashtirilib, ***Amudaryo*** tumani tashkil qilingan va u Qoraqalpog'iston tarkibiga kirgan.

Tumanning ma'muriy markazi – Mang'it shahridir.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonning eng katta va sersuv daryosi nomi. Temuriylar davri yozma manbalarida Amudaryo ko'proq *"Jayhun"* va nisbatan kamroq *"Obi Omuya"*, Xorazm hududida Gurganj shahri yaqinidagi qismi *"Obi Gurlan"* (Gurlan daryosi) va *"Jo'yi Gurlan"* (Gurlan arig'i), yuqori oqimida *"Panjob"* nomlari bilan uchraydi. Uning *"Obi Vaxsh"* (hozirgi Vaxsh daryosi), *"Surxob"*, *"G'und"*, *"Hisor"* va *"Chag'onrud"* (hozirgi Surxon daryosi) irmoqlari ham eslatib o'tilgan.

"Boburnoma"da mazkur daryo nomi *"Amu daryosi"*, *"Amu suyi"* shakllarda uchraydi. Zahiriddin Bobur 909 (1503)-yili Movarounnahrdan Qobul tomonga ketayotganida: "Amu suyini Uyoch (hozirgi atalishi *Ayvaj*) guzaridin o'tgandi" (B. 102).

Daryoni yunon va rimliklar *Oksus* yoki *Oksos*, arablar Jayhun, yerli xalqlar dastlab *O'kuz*, *Vaxsh*, so'ngra *Amul* deb ataganlar. "Avesto" va boshqa tarixiy manbalarda daryoning *Arang*, *Raxa*, *Ranxa*, *Aranxa* kabi tarixiy nomlari ham uchraydi. Ayrim mutaxassislar Amudaryoning hozirgi nomini o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Amul shahri nomi bilan bog'liq deyishadi.

Masalan, H.Hasanovning yozishicha, "Daryoning ayrim qismlari Jaryob, Balx daryosi, Termiz daryosi, Kolif daryosi, Urganch daryosi, Xorazm daryosi, Jurjoniya daryosi nomlari bilan yuritilgan. Omul (Omuyya – XV asrdan buyon Chorjo'y) shahri yonida esa Omuy daryosi deb atalgan, keyin qisqacha Amu bo'lib qolgan.

Buning boisi shuki, Omuyya (Omul, Chorjo'y) shahri Eron bilan Turkiston o'rtasidagi eng muhim savdo yo'lida, eng qulay daryo kechigi ustida joylashgan yirik manzil bo'lganligidan nomi og'izdan og'izga o'tib, boshqa nomlarga nisbatan mashhurroq bo'lgan. Ba'zan Amu nomiga beriladigan izohlar – "o'jar daryo", "jo'shqin daryo", "quturgan daryo", "jinni daryo" uning lug'aviy ma'nosi emas, balki laqabi, xulqi, epitetidir. Daryo so'zi – yer osti va yer usti suvlardan hosil bo'lib, o'zi hosil qilgan o'zandan oqadigan katta suvlarga nisbatan qo'llaniladi.

Amudaryo tumanining ma'muriy markazi Mang'it shahri (1957-yildan).

O'zbekistonning ko'plab hududlarida mang'it etnonimi joy nomlari hosil qilgan. Mang'it qabilasining nomi aholi punktlari nomiga aylanishiga, etnik guruh vakillari respublikaning barcha hududlariga tarqalishi sabab bo'lgan. Mang'itlar XII asrda Dashti Qipchoqda, katta bir qismi esa Volga va Ural daryolari oralig'ida yashashgan. Ular qipchoqlar ta'sirida o'z tillarini unutib, turk – qipchoq tilini qabul qilganlar.

Mang'itlar o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kirganlar. XVI asrda hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib kelganlar. Mang'itlar XX asrning boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. 1753–1920-yillar davomida Buxoroni idora qilib kelgan xonlar mang'itlardan bo'lgan.

T.Nafasovning yozishicha, mang'it – turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga, ya'ni ularning o'tmishidagi oltoy bobotiliga tegishli so'z. Mang'it nomining mo'g'ulcha shakli – myangat. Mo'g'ul tilida ming soni manga(n) so'zi bilan ifodalangan. Myangat – mingtalik ma'nosini beradi.

ANDAK – mahalla. Samarqand viloyati Urgut tumanidagi mahalla nomi. Mazkur viloyatning Kattaqo'rg'on tumani va Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanlarida ham *Andoq* nomli qishloqlar bor. *Andak, andoq – "qayir"* (*poyma*) degan so'z (A.Muhammadjonov). *Adak (Andak)* nomli qishloq Payariq tumanidagi *O'ymovut* qishlog'i o'rnida ham bo'lgan (Вяткин, 1902: 64; Список населенных мест Узбекской ССР, вып. 11, 1925: 73).

ANDIJON – viloyat. O'zbekistondagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Viloyatda shu nomdagi shahar ham mavjud. Viloyat mamlakatimizning, jumladan, Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. X asrdan boshlab, tarixiy yozma yodgorliklarda *Andiyan, Andukan, Andugan, Andigan* va nihoyat, *Andijon* (masalan, Boburda XVI asr) sifatida tilga olinadi. Hududda arxeologik qazishmalar natijasida VII-VIII asrlarga oid buyumlarning topilishi uning Markaziy Osiyodagi ko'hna shaharlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Astionim dastlab X asrda arab sayyohlari tomonidan yozilgan manbalarda *Andukan // Andukon* tarzida, fors tilida yaratilgan asarlarda esa *Andigan // Andigon*, shuningdek, Z.M.Boburning "Boburnoma" asarida *Andijon* shaklida qayd etiladi. Xalq orasida Andijon astionimining kelib chiqishiga doir turli afsona va naqllar ko'plab uchrasa-da, fanda hali ham uning ilmiy etimologiyasi borasida aniq to'xtamga kelinmagan.

Astionim tarixiga oid rivoyatlardan birini Is'hoqxon Ibrat o'zining 1916-yilda yozgan "Farg'ona tarixi" asarida keltirib o'tadi. Unga ko'ra Andijon nomi Turon podshosi Afrosiyobning qizi Odinajon ismi bilan bog'lanadi: *"Tarixi Qutadg'u"dan mus-*

tazod bo'lurki, Andijon to'rt ming yildan muqaddam, ya'ni O'g'uzxon vaqtida shahar bo'lsa ham, andan avval ham obodon shahar ekan... Vaqtiga kelganda Afrosiyob Turon podshohi bo'lib, Andijonni poytaxt qilib, Ko'nikdo'z shahridan goho Toshkand va Andijon kelib yurar ekan. Ammoki, afvohi nosda qariyalar so'zidurki, Andijon aslida Odinajondur. Odinajon Afrosiyobni qizidurki, anga o'rda va bog' bino qilib berib, ani ismiga tasmiya qilib edi. Odinajonni tilda buzub, munshira ismini forsiyda Avazjon ag'loti avom ila Andijon qilgan, deydurlar".

Yana bir rivoyatda esa Andijon astionimining vujudga kelishi shu yerda yashagan "And" qabilasi, ya'ni hindular bilan aloqador sanalsa, boshqa bir rivoyatda shahar nomi unga ilk poydevor qo'ygan shaxs – Andi ismidan kelib chiqqan deyiladi. Yurtimiz tarixiga oid yozma manbalarda Andijon to'g'risidagi ma'lumotlar juda kam uchraydi. Mutaxassislar fikricha, ***Andukon*** (Andijon) atamasi qayd etilgan ilk manba Istaxriyning 930–933-yillarda yozilgan "Kitob masolik al-mamolik" asari hisoblanib, unda astionim Farg'onaning Quyi Nisya viloyati shaharlarining nomlari qatorida tilga olinadi: *"Farg'ona viloyatlari quyidagilardir: Quyi Nisya, Yuqori Nisya, Asbara, Nekad, Miyon-rudan, Jidg'il, Urasta, Besafar, Asht. Yuqori Nisya esa Farg'onaning birinchi shahridir, negaki Xo'jandga yo'l olayotib undan o'tiladi. Mazkur viloyatning shaharlari: Vanket, So'x, Xo'qand, Rishton. Quyi Nisya shaharlari: Marg'inon, Zenderamsh, Nejreng, Ustikan, Andukan. Va bu yerda tog'li hamda dasht hududlar mavjud".*

Z.M.Bobur Andijonni Farg'ona viloyatining yettita eng yirik shaharlari qatorida ko'rsatib o'tadi va ushbu hudud tavsifiga oid ma'lumotlarga batafsilroq to'xtaladi: *"Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafda voqe' bo'lubtur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qad'ag'a fosila ushbu xandaq yoqasidog'i shohruhtur. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujud Hiriyda nash'u namo topibtur, bu til biladur".*

Ilmiy adabiyotlarda ham Andijon astionimining kelib chiqishiga doir qarashlar mavjud bo'lib, o'tgan asrda

yashagan rus muarrixi V.P.Nalivkin astionimni o'zbeklarning "andi" qabilasi nomi bilan bog'laydi va ushbu leksemaga "gon" qo'shimchasi birikib, "Andijon" shaklida talaffuz etilgan, deb yozadi. Xuddi shunga o'xshash fikr Is'hoqxon Ibrat tomonidan ham berib o'tiladi: *"Bu Andijon avvalda Andigon bo'lub, arabiyga olganda Andijon bo'lur, chunonchi, "kofi" forsiy arabda "jim" o'qilur. Mana farangi lafzi arabda afranjiy, bangni banj. Kofi forsiy arabda "j" bo'lib, Andigon arab lafzlarida Andijon bo'lgan bo'lsa kerak. Ozarbaygon arabda Ozarbayjon yoziladur va o'qiladur. Shunga o'xshash Andijon lafzi asli Andigon bo'lsa kerak. Bu forsistonda qo'shilgandur, chunonchi, bandigon yoki mardigon degandek. Forsiyda gonlar o'rnida mardlar yoki ozodagon ozodalar degan so'zdek. Andigon andlar degan so'z. "Andi" turklar urug'ini o'zbyeklarini aytur".*

O.Xojimatov tahlillariga ko'ra Andijon astionimining kelib chiqishi boshqacharoq tarzda bayon etiladi. Olim E.Murzayevning "Slovar narodnыx geograficheskix terminov" ("Xalq geografik atamalari lug'ati") asariga tayangan holda astionimning birinchi qismini qadimgi turkiy tilda uchraydigan *angar // ungir, xandaq* birliklari tarkibida uchraydigan "an" geografik termini bilan aloqador hisoblaydi. Mazkur terminning bir qancha *chuqurlik, jarlik, yer yoriqlari, ungir, ko'l, dengiz, vodiy* singari lug'aviy ma'nolarini sanab o'tish barobarida Andijon shahrining geografik o'rni qozonga o'xshash relyefli hududda, ya'ni chuqurlikda joylashganligini nazarda tutib, astionim etimologiyasini "Chuqurlikdagi shahar" sifatida talqin etadi.

A.Muhammadjonov Andijon astionimi tarkibidagi *andi* yoki *anda* topoleksemasini qadimiy turk-mo'g'ulcha so'z sanash barobarida uni "ahdlashib og'a-ini yoki do'st tutinmoq", "yaqin birodar, qalin ittifoqdosh, o'rtoq, tomir bo'lmoq", "qarindoshdek munosabat bog'lamoq" kabi ma'nolarni anglatishini qayd etadi. Olim fikricha, ***andi // anda*** birligi astionim tarkibida "yaqin", "olis bo'lmagan" semasini bildirib keladi va "suv", "daryo" yoki "soy" ma'nolarini ifodalovchi ***kon // gon // jon*** morfemalariga birikib, ***Andijon*** – "Soy bo'yida joylashgan shahar" sifatida izohlanadi.

Shuningdek, toponimshunos Y.Ahmadaliyev "Andi" – tutingan demak" nomli maqolasida tilshunos M.Tojiboyev "anda" birligini mo'g'ul tilidagi "do'st" so'zidan olinganligini, mo'g'ullar o'z istilolaridan keyin shu yerga to'planib, o'zlari vayron qilgan shaharni qaytadan tiklab, unga **Andigon** – "Do'stlar shahri" deb nom berishganini ta'kidlab o'tadi. Uzoq yillar mazkur masala tadqiqi bilan shug'ullangan professor S.Jalilov fikriga ko'ra shaharning nomi "adoq" atamasi bilan bog'liq. Tarixchi olim shu o'rinda Shayx Sulaymon Buxoriy tomonidan yozilgan "Lug'oti chig'atoyi va turki usmoni"da keltirilgan "Adoq – Turkistonda voqe'

Andijon shahrining nomi qadimiy-sidir", – degan fikriga asoslanadi.

Aytish joizki, Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida ham Azg'ish (Adg'ish) toponimini joy nomi sifatida ko'rsatib, ***azg'ish // ezg'ish*** atamasini O'zjand [O'zgan] da turuvchi turkiy qabilalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari, "Tuhfat at tavorixi xoni" nomli qo'lyozma asarda ham o'zbek urug'lari qatorida ***azoq // adoq*** nomi sanab o'tilgan.

Demak, S.Jalilov fikricha, barcha keltirilgan atamalarning o'zagi bir, ya'ni "ad" bo'lib, bu o'zak so'z 92 urug'ning biri sanaluvchi "adoq", "adg'ish" urug'ining qadimiy turkcha nomlanishidir.

Shuningdek, A.Ergashevning Andijon viloyati etnotoponimlari tahliliga bag'ishlangan dissertatsiyasida ham muallif Andijon astionimi etimonini *ad, andi* etnonimlari deb hisoblaydi va uni viloyatning eng qadimiy davrlariga xos bo'lgan joy nomlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Yuqorida sanab o'tilgan qarashlarning barchasi ilmiy dalillarga asoslangan holda bayon etilgan bo'lsa-da, lekin fikrimizcha, ***andi // anda*** leksemasini mo'g'ul tiliga bog'lash u qadar to'g'ri emas. Chunki Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning Farg'ona vodiysidagi shaharlarga, jumladan, Andijonga bosqini XIII-XIV asrlarga to'g'ri keladi.

Shunday ekan, Andijon astionimi mo'g'ullar bosqinidan ancha ilgariroq, ya'ni IX-X asrlardayoq *Andukon* sifatida mavjud bo'lgan.

Bizningcha ham Andijon astionimi etimologiyasini S.Jalilov tadqiqotlariga asoslanib, 92 urug'ning biri sanaluvchi "adoq", "adg'ish" deb atalgan turkiy qabila nomlariga bog'lash haqiqatga yaqinroq. Fikrimizni asoslash maqsadida Andijon tarixiga doir ba'zi dalillarga murojaat qilamiz. Tarixchi olimlarning xulosalariga ko'ra Andijon hududidan topilgan eng qadimgi buyumlar V–VIII asrlarga tegishli bo'lib, bu topilmalar orasida turk tamg'asi ifoda etilgan sopol idishlarni qayd etish mumkin. Mazkur buyumlar, o'z navbatida, o'sha davrlardayoq Andijonda turkiy qavmlar istiqomat qilganidan darak beradi. Bundan tashqari, S.Jalilov, S.Shokarimovlar ham melodiy IV asrdan O'rta Osiyoning barcha daryo vodiylariga turkiy xalqlar ko'chib kela boshlaganini, bu jarayon Farg'onaga ham o'z hukmini o'tkazib, Andijonning turkiylashishi ham aynan mana shu davrlardan boshlangani haqidagi dalillarni keltiradilar.

Ko'rinib turibdiki, qadimdan mazkur hududning tub aholisi asosan turkiy xalqlar va qabilalar sanalgan, bu o'z navbatida ularning lisoniy tizimiga, xususan, o'zlari yaratgan joy nomlari, ya'ni toponimiyasiga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Qolaversa, Z.M.Bobur ham Andijon xalqining etnogenezisiga alohida urg'u berib, *"Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur"*, – deb yozadi.

Astionimning ikkinchi tarkibiy qismini ham, fikrimizcha, yuqorida

ko'rsatilganidek, "suv", "daryo", "soy" ma'nolarini ifodalovchi ***kon // gon // jon*** birliklari yoki forscha ko'plikni ifodalovchi ***-on*** qo'shimchasi sifatida emas, balki nomning Istaxriy asarida qayd etilgan ilk shakli (Andukan)ga asoslanib, sug'diycha ***kan*** – "shahar", "makon", "maskan" sifatida izohlash maqsadga muvofiqdir.

Demak, Andijon astionimi lisoniy jihatdan quyidagicha shakllangan: nomning birinchi qismi qadimiy qo'lyozmalar "Lug'oti chig'atoyi va turki usmoni", "Devonu lug'otit turk" hamda "Tuhfat at tavorixi xoni"da qayd etilgan ***azoq // adoq, azg'ish // adg'ish*** etnonimlarining asosini tashkil qiluvchi ***ad*** degan turkiy qabila nomidan kelib chiqqan bo'lib, bu etnonimga sug'diycha "shahar" ma'nosini ifodalovchi ***kan*** leksemasi qo'shilishi natijasida astionim ***adkan // adikon*** tarzidagi, keyinchalik "n" tovushi orttirilib, *A (n) dukan > A (n) digon > A (n) dijon* shaklidagi ko'rinishga kelgan.

ANDIJON SUYI//ANDIJON RUDI – kichik daryo. Temuriylar davrida O'sh shahridan o'tib, Andijongacha oqib kelgan. Hozirgi nomi Oqbura, asosiy qismi Qirg'iziston hududida. Bobur daryo suvidan obodonchilikda keng foydalanishini ta'kidlagan: "Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub, Andijong'a borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudqa mushriftur, binafshasi bisyor latif bo'lur. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lur, qalin lola va gullar ochilur".

ANDIJONI – qishloq. Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloq. Qadimiy turk-andilar nomi bilan bog'liq nom. Ilmiy adabiyotlarda turk-andilar tilga olinadi.

A.K. Pisarchik Andijon shahrining tarixiy topografiyasi haqidagi ocherkida Markaziy Osiyodagi Andijon (hozirgi shakli) yoki "Andigon", "Andikon" (qadimiy shakllar) nomli qishloqlarning ro'yxatini keltiradi. Surxondaryo vodiysi Denov shahri yaqinidagi Andijon, Kofirnihon daryosining chap qirg'og'idagi Andigon, Saroykamar tumanidagi Panj daryosi bo'yidagi Andijon, Samarqand tumanidagi Andijoni toponimlari turk-andilar bilan bog'liq nomlardir. Mazkur geografik nomlar, shubhasiz, o'rganilayotgan hududda turk-andilar qoldirgan izlardir. V.P. Nalivkinning yozishiga ko'ra: "hozirga qadar namanganliklar andijonlik o'zbeklarni andi nomi bilan atashadi va andilar Turkistonda va uning atrofida yashovchi turklar bilan bir xalqdir (bir joydan kelib chiqqan) deb aytadilar".

ANDOQ – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi va Qiziltepa tumanlaridagi qishloqlar. V.V. Bartoldning so'zlariga qaraganda (Сочинения I, С. 173), qishloq arab geografi Yoqut Hamaviy tomonidan tilga olingan (XII–XIII asrlar). A.R.Muhammadjonovning fikriga ko'ra, *andak* so'zi *"qayir, o'tloq yerlar"* ma'nosini ifodalaydi.

ANGARIK – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahri. Xorazm shevasiga xos bo'lgan *"ang"* so'zi *"eng"* so'zi-

ning dialektal shakli bo'lsa, mazkur shevaga xos yana bir so'z *arik*dir. U *o'rik* so'zining dialektal variantidir. Angarik yerlari juda hosildor, o'rik va uzumlar ko'p va ertapishar bo'lgani uchun shevada *ang* (eng, old), *arik* (o'rik) *"ang-arik" – ertapishar o'rik* ma'nosida *Angarik* deb nom berganlar. *"Angur-nek"* forsiyda *"anguri"* so'zi *uzum* degani, *"nek"* so'zi *shirin* (yaxshi) degan shu ikki so'z qo'shilib, "shirin uzum" Xiva shevasida *"angarik"* so'zi bo'lib aytilib kelingan.

ANGISHTIHO//ANGISHTIYON – guzar. Buxoro shahrining guzari. Forscha *angisht* – daraxtli ko'mir, ko'mir. *Angishtiho* – ko'mirchilar (O.A. Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 106).

ANGOR – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Surxondaryo viloyati tarkibidagi tuman va shaharcha nomi. Tuman hududi viloyatning eng janubiy qismida joylashgan. Mahalliy aholi *"Hosili yig'ishtirib olingan g'alla maydoni"* ma'nosidagi *angor* so'zi bilan bog'lab, qadimda Termiz va uning atrofidagi o'troq aholining lalmikor dehqonchilik qiladigan g'allazori, yaylovi bo'lgan joy, deb izohlaydi.

Tuman nomiga aylangan angor geografik termini haqida ikki xil talqin mavjud. Birinchisi, odatda bug'doy, arpa kabi g'allasi o'rib olingan maydon shevalarda *angor*, adabiy tilda *ang'iz* deyiladi. Qadimda angor so'zi o'lchov birligini ham anglatgan. Ko'pincha, atrofi uvat bilan o'ralgan yaxlit ekin maydoni bir angor deyilgan.

Ikkinchi talqin toponimist olim T.Nafasovga tegishli, uning yozishicha, aholi punkti nomiga forscha *angor* so'zi emas, balki *"suv yo'li, kanal"* ma'nosidagi *anhor* (arabcha – *"nahr"* so'zining ko'pligi) so'zi asos bo'lib xizmat qilgan. Olimning fikricha, nom dastlab suv obyekti – Surxon va Sherobod daryolaridan chiqarilgan kanalning nomi bo'lgan. Bu suv yo'li Anhor (arabcha *"ariq, kanal"*) deb atalgan. Vaqt o'tishi bilan *anhor* so'zi mahalliy xalq talaffuzida *angor* shakliga o'zgargan. Ayrim hollarda anhor so'zining o'zi ham mustaqil toponim o'rnida ishlatiladi.

Tarixiy manbalarda hozirgi angor tumani hududida miloddan avvalgi VI–IV asrlarda ham aholi manzilgohlari bo'lganligi qayd qilingan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Kushon podsholigi davrida (I–III asrlar) ushbu hududda dehqonchilik rivojlangan o'sha davrlarda Zartepa qal'asi Angorning markazi bo'lgan.

Mutaxassislarning aniqlashicha, VI–VII asrlarda qal'alar va qo'rg'onlar vujudga kelgan, chunki Angor o'tmishda Termizga boradigan savdo karvonlari qo'nib o'tadigan maskanlardan biri bo'lgan. Hozirda Angor shaharchasi Surxon–Sherobod vodiysida, Katta O'zbek trakti yonida joylashgan. Tuman ma'muriy markazi – Angor shaharchasi (1979-yildan).

Surxondaryo viloyati Angor tumani markazi. *Angor* (adabiy *ang'iz*) – "o'rilgan maydon, o'rim-yig'im". Shunday fikr bor, Kichik Osiyoning Angor pastte-

kisligi bo'yicha Angor deb nomlangan, shunda, ya'ni 1402-yili Amir Temur turk sultoni Boyazid ustidan g'alaba qozongan (Г.А.Арандаренко. "Досуги в Туркестане", СПб, 1889. С. 277).

Pushtu tilida pasttekislik ham Angor deb nomlanadi. T.Nafasovning fikriga ko'ra, yuqorida tilga olingan geografik obyektning nomi arabcha *anhor* "katta ariq" terminining dialektal variantidir (T.Nafasov. O'zbekiston toponimlari, 1988. – B. 13).

ANGREN – shahar. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Angren – bu Ohangaron ("Temirchilar") so'zining buzilgan shakli. Ko'plar buni ruscha talaffuz oqibati deyishadi. Aslida quramalar shunday talaffuz qilganlar.

ANHOR – daryo, kanal. Arabcha *nahr (daryo, kanal)* so'zining ko'pligi. Zarafshondan chiqarilgan Narpay (Nahri Pay), Farg'ona vodiysidagi Ulug'nor (Ulug' Nahr) kanallarining nomi ham ana shu termindan hosil bo'lgan (Qorayev. 1970, 14).

ANHOR KANALI – kanal. Toshkent shahri. Bo'zsuvning chap tarmoqlaridan biri, uzunligi 8,7 km. Shahar ichida shimoli-sharqdan janubi-g'arbga qarab oqadi[1]. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Anhor Toshkentning Eski shahar va Yangi shahar qismlari o'rtasidagi chegara vazifasini ham o'tagan. Uning o'ng va chap tomonlaridan bir nechta ariq suv olgan. *"Anhor"* gidronimi arabcha *"nahr" – "daryo"* so'zining ko'plik shakli bo'lsa-da, bu yerda *"katta ariq"* ma'nosini bildiradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, *"Anhor"* gidronimi mahalliy aholining talaffuzida ko'pincha *"ariq", "soy"* ma'nolarini anglatadi. Anhor shahardan oqib chiqqach, Bo'rijar nomini olgan. Anhor kanalining nomi turli davr yozma manbalarida qayd etilgan. XIX asr rus yozma manbalarida mazkur gidronim ko'proq "angor", shuningdek, "anhor" deb yozilgan. O'sha davrda nashr etilgan xaritalarda mazkur ariqning nomi "anhor" shaklida qayd etilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Anhor arig'i Shayxontohur dahasining Yerteshgan, Yangi shahar Labzak, Turk, Yangi shahar, Minor, Qiyot, Tojik mahalla mavze-mahallalari, Shatak, Turktepa, Qashqar, Qiyot katta ko'cha, Kaltatoy, Qaymoq bozor, Qiyot tor ko'cha, Pastak, Qoryog'di, Quduqboshi, O'rda, Qiyottepa, Qiyot, Quyi Mergancha mahallalari hududidan oqib o'tgan va ularni suv bilan ta'minlagan.

ANJIRBOG' – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Geografik joy nomining tarkibi ikkita so'z – *anjir* va *bog'* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *anjir* so'zi o'simlik (daraxt va uning mevasining) nomi, fitonim. Uning ikkinchi komponenti – *bog'*

[1] Mazkur lug'atda nomlari tahlil etilgan ariqlarning uzunligi va yo'nalishiga oid ma'lumotlar quyidagi adabiyotdan olingan: Xolmatov Q., Baratov P. Toshkent shahrining irrigatsiya shoxobchalari. – T.: Fan, 1983. – 23–29, 33–39-betlar.

so'zi *"mevazor"* degan ma'noni bildiradi. Demak, *Anjirbog' – "anjir daraxti ko'p bo'lgan bog'"* ma'nosidadir. Qishloqning o'rta asrlardagi nomi *Anjirfag'na.*

ANNAOVUL – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bunday nom bilan atalgan qishloq nomlari Taxtako'pir tumanining "Qorateren", Chimboy tumanining "Baxitli", "Tag'jap", "Tozajol" QFY hududlarida bor. Bu qishloq nomlarining *Annaovul* atalishining sababi, bu yerda yashovchi xalqlarning ko'pchiligi qoraqalpoqning anna urug'iga tegishli xalqlar hisoblanadi, ular azaldan shu yerga makon bosgan.

ANORZOR – mahalla. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. **Anor** yetishtiriladigan hudud. Usbu nom "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlananadi: "Anor bilan band yer, bog'" (O'TIL. I, 87).

Shu nomdagi toponimlar mamlakatimizning *Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent va Xorazm* viloyatlari hududlarida turli obyektlarning nomi sifatida ko'plab uchraydi.

APARDI – qishloq. Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi qishloq nomi. Nom oxiridagi *-di* so'z qo'shimchasining azaliy shakli *diz – qo'rg'on, istehkom.* Nom boshidagi apar qismining tarkibi *ob+par/ob+i+par – yuqoridagi oqar suv. Apardi – yuqoridagi oqar suv bo'yidagi qo'rg'on.*

Boshqa tahlil: "Boburnoma"da qayd qilinishicha, o'zbek xalqining tarkibida apar, apardi degan urug' bo'lgan. Bu urug' vakillari Bobur qo'shini tarkibida jangchilik qilgan. Hozirgi davr o'zbek etnonimiyasida bu nomdagi urug' yo qabila nomi mavjudligi aniqlangan emas. O'zbek xalqining qadimgi urug' nomi aholi maskani nomiga aylangan bo'lishi ham mumkin.

APPAQ – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Qozoqlarning alimuli qabilasining bir urug'i *appaq (oppoq)* deb ataladi.

APPARTAK – aholi punkti. Toshkent viloyati Angren shahrining shimoliy-sharqiy qismida, Dukentsoyning so'l sohilida joylashgan aholi manzili. Bu nom forscha "obpartoyak" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, asosiy o'zanda oqayotgan suvni boshqa yoqqa burib yuborishda foydalanilgan irrigatsion uskuna, nov yoki shovani anglatadi. Eron va Afg'oniston forsiylari hamda Tojikiston va O'zbekiston tojiklarining nutqida hozir ham suvni taqsimlagich va ortiqcha suvni tashlab yuborgich uskuna va inshootlar "obparto", "obpartov", "obtaqsimkunak", "chenkunda", "partoftan" va boshqa atamalar bilan yuritiladi (*Djaxonov, Zamledelie tadjikov... s.51; Rahmatullayev, Etimologik lug'at, b.166*).

AQOR – Zarafshon vodiysidagi bir necha joy nomi. Bobur Zomin yaqinidagi *Oqar tuzi* (tekisligi) degan joyni tilga oladi. ("Boburnoma", 1961: 75).

O'rta asrlarda machit, ombor, otxona, pichanxona kabi binolar qurilgan joy aqor deb atalgan. *Aqar, og'ar* degan etnonim (urug' nomi) ham bor. (Qorayev, 1970: 21).

Aqar (og'ar) so'zining *"o'zan"* ma'nosi ham bor. Masalan, Cheleken yarim orolida (Turkmaniston Respublikasi) mineral suv oqib, har xil ohak eritmalari qoladigan o'zanni *aqar* deyishadi. (Э.М. Мурзаев. Природа Синьцзяна и формирование пустынь Центральной Азии. –М., 1966: 366).

AQTO'G'IN – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi *Kegeyli, Chimboy tumanlaridagi ovullar nomi.* Qoraqalpoqlarning keneges qabilasi tarkibidagi bir urug' *aqto'g'in (oqto'g'in)* deb atalgan.

AQCHA – qishloq va soy. Toshkent viloyati Ohangaron tumani Nurobod qo'rg'oni bilan Aqchasoy oralig'ida joylashgan katta qishloq shunday ataladi. Respublikada *Aqcha, Oqcha* degan joy ko'p.

To'g'risi, *oqcha. Oq* so'zining rangni bildirishidan tashqari, *"oqib turgan, qurib qolmaydigan"* ma'nosi ham bor. Oqsoy bora-bora *Oqcha, Aqcha* bo'lib ketgan bo'lishi ham mumkin.

Demak, qipchoqlar tarkibiga kiruvchi turkiy urug'lardan birining nomi ham Aqcha deb ataladi.

AQCHAKO'L//AQCHAO'ZAK – ko'l va o'zak. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlaridagi qadimiy ko'l hamda o'zan nomi. ***Aqchakəl, Aqchaəzək*** – gidrotoponimlari tarkibidagi aqcha so'zi *"o'zak", "daryo irmog'i", "tarmoq"* ma'nolarini bildiradi. Aqchaəzək gidronimining ikkinchi qismi bo'lgan əzək "Devon"da yerdan sirqib chiqqan hovuzcha, sizot suv, shuningdek, vodiylardan ajralib chiqqan ariq ma'nosida izohlangan.

Demak, mazkur gidrotoponimlar yerdan sirqib chiqqan hovuzcha, sizot suv, o'zan ma'nosini ifodalaydi va toponimning shakllanishiga gidronim asos bo'lgan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

ARABA//ARABACHI//ARABACHILAR – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomlari. Etnooykonim ***arab + a / ho/*** qismlaridan iborat bo'lib, *araba, arablar* degani. Nom tarkibidagi ***-ho*** fors-tojik tilida ko'plik ma'nosini ifodalovchi shakldir. Turkiy tilga xos bo'lmagan "h" harfi tushib qolgan. Affiksdagi o tovushi a tovushiga o'tgan. Shu sabab ***Arabho > Araba*** holatiga kelib qolgan.

Arablarning bir qismi VII–IX asrlarda, bir qismi XIV asrda Markaziy Osiyoga kelib o'rnashib qolgan. Arablar o'zbek va tojik millatlari tarkibiga kirib, ona tillarini unutgan. Etnik guruh nomini bildiruvchi ***arab*** so'zi asosida shakllangan joy nomlari Samarqand viloyatida ko'p uchraydi.

Samarqand viloyatining Samarqand, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om, Ishtixon tumanlarida Arabxona, Nurobod tumanida Arab qishloq, Narpay tumanida Arabolchin etnooykonimlari mavjud.

Bunday nomlar respublikamizning boshqa viloyatlarida ham uchraydi. Ularning birinchi qismi Markaziy Osiyoda yashovchi, o'zlarini arab deb yurituvchi etnik guruh nomidir. Etnooykonimlarning ikkinchi qismi sifatida xona, qishloq, olchin so'zlari kelgandir. Xona so'zi ba'zan joy, qo'rg'on, qishloq, ovul ma'nosini bildiradi.

Arabachi – arobachilar yashaydigan qishloq ma'nosini ifodalaydi. Bizningcha, obyekt turkmancha etnonim *arabachi* bilan nomlangan. Arabachi qabilasi Xiva xoni Abulg'ozixonda ham qayd etilgan. Turkmanistonlik shoir Arif (XIX asr) arabachi etnonimini arabcha *arabagin* – "qirq" va forscha *chil* –"qirq" so'zlarining qo'shimchasi deydi, (С.Атаниязов. Словарь туркменских этнонимов. –Ашхабад. 1988. С. 22).

O'zbeklarda ham arabachi etnonimi qayd etilgan (П.П.Иванов. Архив хивинских ханов XIX века. 1940. С. 220).

Arabachi+lar (ko'plik ko'rsatkichi); qarang: *Arabachi*.

ARABBANDI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Arabbandi – "arabcha to'g'on"* (O'zbekistonda arablar ko'p va ularning joylashgan vaqti noma'lum).

ARABKENT – qishloq. Buxoro viloyati Kogon tumanidagi qishloq nomi. *Kent, kend* – katta qishloq, shaharcha. *Arabkent* – "arablar qishlog'i". *Arabon, Arablar, Arabobod, Arabxona* ham shular jumlasidandir.

ARABLAR – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahallaning tarixiy nomlaridan biri. Bu etnonim. Mahalliy xalq vakillari fikrlariga ko'ra, urush yillarida Arabistondan qullar olib kelingan va ular bu hududda qolib ketgan. Shundan keyin bu joylar *Arablar* deb atala boshlagan. U boshqacha ham bo'lishi mumkin, ilmiy manbalarda qayd etilishicha, arablar istilosidan keyin, VI–VIII asrlarda Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekistonga ham arablar kelib, muqim joylashgan va ular qolib ketishgan. Hatto, ular o'zlarining tillarini ham unitishgan, faqat millatini saqlab qolgan.

ARABMOZOR – qishloq. Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nomda asosiy o'rinni arab etnonimi egallaydi. *Arabon, Arabband, Arablar, Arabxona, Arabqishloq, Arabqo'rg'oncha, Aravon, Yangi Arab, Eski Arab, Arabbek, Arabto'pi, Arab mahalla* kabi qishloqlar nomi arab xalqi nomi bilan bog'liqdir (Oxunov, 1989).

Ajdodlari VII–XIV asrlarda O'rta Osiyoga kelib o'rnashgan, o'zbek, turkman, tojik millatining tarkibiga kiruvchi etnik guruhlar yashaydigan qishloqlar ko'proq shunday nomlangan.

ARABOBOD – qishloq. Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. *Arabobod* – arablar tomonidan o'zlashtirilgan va qurilgan "arablar qishlog'i", aynan Arabxonadir.

ARABSAROY – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq. Qishloq

nomi 2006-yilga qadar *Arabxona* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *Arabsaroy* deb o'zgartirilgan. Geografik joy nomiga xalq nomi, etnonim asos bo'lgan. Toponimning birinchi komponenti – *arab* so'zi xalq nomi, etnonim. Toponimning ikkinchi komponenti – *saroy* so'zi "hashamatli bino", "omborxona" kabi ma'nolarni anglatadi.

Ammo shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, saroy nomli urug' mavjudligi ham aniqlangan. 92 bovli o'zbek qavmlaridan biri saroy deb atalgan. Bu qabila vakillari, asosan, Zarafshon vodiysi, Jizzax hamda Andijon viloyatlarida yashagan. *Saroy qabilasining chemsaroy, qo'ng'irotsaroy, jomonsaroy, chirg'izsaroy, mojorsaroy, oltintamg'alisaroy, qipchoqsaroy, jolong'ochsaroy (yalang'ochsaroy)* kabi tarmoqlari bor.

Shunday ekan, *Arabsaroy* – "arab xalqi va saroy urug'i vakillari birgalikda yashaydigan joy" ma'nosidadir. Qishloqqa nom rasmiy-ma'muriy tarzda berilgan.

Shuningdek, Navoiy viloyatining Karmana tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud. Markaziy osiyolik arablar bu yerda 1000 yildan ortiq davr mobaynida yashashmoqda. Mazkur davrlar mobaynida ko'pchilik arablar o'z tillarini unutishgan va o'zbeklar hamda tojiklar tillari bilan aralashib ketgan. Arabsaroy – arablar avlodlari va o'zbek qabilalarining vakillari yashaydigan saroy.

ARABXONA – qishloq. Buxoro viloyati G'ijduvon, Kogon, Qorako'l, Shofirkon tumanlaridagi; Samarqand viloyati Samarqand, Narpay, Ishtixon, Kattaqo'rg'on tumanlari; Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi qishloqlar nomi. *Arabxona – "arablar uyi", "arablar yashaydigan uy"*. Markaziy Osiyoga arablarning bir qismi VIII–IX asrlarda, qolganlari keyinchalik kelishgan. O'zbekistonda bir qancha qishloqlar *Arablar, Arabon, Saidon* ("arablar") va boshqa nomlar bilan atalgan.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq. Viloyatda *Arabolchin, Arabboy (Narpay), Arablar, Arab, Arabxona, Kattaarab, Kichikarab* (Kattaqo'rg'on) nomli qishloqlar ko'plab uchraydi. Bu qishloqlarda asosan arab millatiga mansub, ammo bugungi kunda o'zbek va tojik xalqi tarkibiga singib ketgan va o'zlarini tojik yoki o'zbeklarning "arab" urug'idanmiz, deb bilgan kishilar yashashadi.

1926-yilgi aholi ro'yxatida arablar respublikamizning Qashqadaryo, Zarafshon, Samarqand, Buxoro va qisman Surxondaryo okruglari va Konimex tumanlarida istiqomat qilganliklari qayd qilingan. Mazkur ro'yxatga ko'ra, arab xo'jaliklari (assimilatsiya qilinganlaridan tashqari) respublika hududida 5219 ta yoki jami xo'jaliklarning 0,7 foizini tashkil qilgan. Markaziy Osiyo arablari haqida M.S.Andreyev, I.N.Vinnikov, S.A.Volgin, B.X.Karmishov, I.A.Amiryans va boshqa etnograf olimlar tadqiq olib borganlar. Ularning qayd qilishlari-

cha, Markaziy Osiyo arablari o'tmishda arab tilining alohida dialektidan foydalanganlar. Hozir bu tildan juda kam kishilar foydalanadilar. Ular ham keksa kishilardir.

A.D.Grebenkin ma'lumotiga ko'ra, XX asr boshlarida arablar o'zaro "buzilgan arab tili"da gaplashganlar. L.N.Logofet Buxoro xonligidagi arablar arabcha so'zlar aralashtirgan holda o'zbek tilida so'zlashganlar deydi. Respublikamizda ijtimoiy-madaniy hayot (o'quv-o'qitish ishlari, nashriyot, radioeshittirish) o'zbek va tojik tillarida olib borilishi arablar tiliga ham katta ta'sir o'tkazgan. Natijada 1938-yili O'zbekistonda ona tilini saqlab qolgan arablar soni 1750 kishi bo'lgan.

1970-yilda aholi ro'yxatidagi 3,5 kishidan 900 nafari arab tilini ona tili deb tan olgan. Ayrim arab guruhlari orasida ajdodlarining Amir Temur davrida olib kelinganligi haqidagi rivoyatlar mavjud. Biroq manbalar buni tasdiqlamaydi. Aksincha, tarixiy manbalarda arablarning kattagina qismi XVII asrda Afg'onistonning shimoliy qismi va Hisordan Qashqadaryo, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Buxoro hududlariga ko'chib kelganliklari ko'rsatilgan. Hozirda arablarning asosiy qismi o'zbek va tojik tillarini, madaniyati, turmush tarzini qabul qilgan holda xalqimiz tarkibiga singib ketgan.

ARAL – mahalla va qishloq. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi mahalla va sobiq qishloqning nomi. Orol, Ahror, O'rol ismlarining o'zgargan shakli tarzida izohlash hollari bor. Orol/Aral – umumturkiy so'z. Oqar suv (daryoning tarmoqlangan, bo'lingan, qayrilgan joyi) o'rtasidagi yer bo'lagi, oqar suvdan ajralib chiqib turgan balandroq joy, yalanglik – aral/orol.

Boshqird tilida aral – kichik tepalik, balandlik, tog' tizmasi. Aral – daryo (Qashqadaryo va Qorasuv) qirg'og'idagi balandlikda o'rnashgan qishloq. Balandlik nomi qishloq nomiga o'tgan.

ARASHON – irmoq. Ohangaron daryosining irmog'i, Toshkent viloyati hududida joylashgan. Gidronim sanskritcha "rasayana" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "obihayot", "xudolar ozig'i" demakdir. Arashon shifobaxsh issiq suvli buloqlardir. Bu termin Markaziy Osiyodan Uzoq Sharqqacha, Buryatiyadan boshlab, Tibet tog'larigacha bo'lgan hududlarda *arashan, arshan* shakllarida ko'plab gidronimlar hosil qilgan.

Shuningdek, u soy, Ohangaron daryosining irmog'i, Namangan viloyati, Chotqol va Qiziltor cho'qqilari qoyalaridagi dovon; Arashonbuloq – buloq, Toshkent viloyati O'rta-Chirchiq tumani. Arashan – mineral suvlar manbalari, issiq shifobaxsh suv bulog'i. Arashan sanskritcha *rasayana* – "nektar", "shohlar ichimligi", "shifobaxsh suv" demakdir.

ARBINJON – shahar. Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qadimiy shahar. Arbinjon yoki Rabinjon shakllarida uchraydi (Samoniy ushbu shahar Xorazmshoh II – Arslonning Sa-

marqandga 1158-yilgi yurishi davrida vayron qilinganligini ta'kidlaydi. Eramizning IV asrida bunyod etilgan mazkur shahar hozirgi Raminjontepa xarobasi o'rnida bo'lgan. Yodgorlik hududida zardushtiylik ibodatxonasi o'rnida qurilgan IX asr machiti qoldiqlari topilgan).

ARBOB – qishloq. Xorazm viloyati Shovot tumanidagi qishloq, viloyatning Yangiariq tumanida Arboblar nomli qishloq ham mavjud. Arbob (arabcha, birlik sonda – rabbun – ega) – Xorazmda inqilobgacha qishloq sardori, yo'lboshchi bo'lgan.

ARBOBON – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Arbob – asli arabcha so'z bo'lib, "rabbun, xo'jayin" so'zining ko'pligi, ega degan ma'noni beradi. Elga tanilgan mashhur shaxslar, boshliq, rahbar, qishloq oqsoqoli bo'lgan. Buxoroda qishloq miroblarining boshlig'i arbob deb yuritilgan. Ularga qarashli yerlar egasining ismiga shu so'z qo'shilgan (Arbobota) ***arbobon*** – tojikcha, shuningdek ***arboblar*** toponimi ham shunday vujudga kelgan, ya'ni bu joylar arboblar yeri hisoblanib, xon amaldorlari yerni dehqonlarga teng sheriklikka berib ishlatganlar.

Shunday ekan, ***Arbobon//arboblar*** – *"donishmandlar qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

ARDABIL – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi qadimiy ovul nomi. Mazkur nomning birinchi *Arda* komponenti Markaziy Osiyo va Eron onomastik tizimida keng tarqalgan bo'lib, *art* eroniy tillarda *qutlug, muqaddas* mazmunini kasb etgan. Shuningdek, *rt* sanskrit tilida *qadrli,* majozan *muqaddas* degan ma'nolarni anglatadi[1]. Bu tarkibiy qismni Ardabil toponimi tarkibida ham ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, *Ardabil* nomidagi ikkinchi tarkibiy qism bil *"shahar, qo'rg'on, umuman, aholi punkti"* ma'nosini anglatib, *fil, pir, pur, bur* so'zlari sirasiga kiradi. Toponimlarda emotsional-hissiy bo'yoq deyarli bo'lmasligini e'tiborga olib, biz toponimlardagi *arda* komponentini *yangi* ma'nosini anglatgan, deb hisoblaymiz. Birinchidan, yuqoridagi misollar ham bu fikrni quvvatlasa, ikkinchidan, ushbu o'zakning *yangi, toza* ma'no semasi kengayishi natijasida hozirgi eroniy tillarda *ord* .أرد.. – "un" (bug'doy uni) ma'nosigacha o'sgan. Shu orqali *Ardabil* toponimining "yangi shahar" ma'nosini anglatishi yoki *Ardaxiva* Xivaga nisbatan so'ngroq barpo qilinganini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. *Ardasher* kabi antroponimlar tarkibida esa "arda"ning *"qadrli", "ulug'"* ma'nolari mavjudligini e'tirof etish mumkin va bu, jumladan, H.Mozandoroniy tadqiqotlarida o'z aksini topgan[2] (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'is-

[1] Shamsiddin bin Xalaf Tabriziy. Burhoni qote'. – Tehron: Amiri kabir, 1375, – S. 98.

[2] Husayn Shahid Mozandoroniy. Farhangi "Shohnoma". Nomi kason va jaho. – Balx, Bunyodi Nishopur. – S. 76.

ton toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

ARDASHON – mahalla. Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi mahalla nomi. Sharqiy Sibir va Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalgan toponim bo'lib, "mineral, shifobaxsh yoki muqaddas suv" degan ma'noni anglatadi. *Ardashon, Arashon, Arasan* terminlarining ko'plikdagi shakli *Narzan* bo'lib, u ham yuqoridagi ma'noni bildiradi (Murzayev., 1984).

ARIQBAGISH – qishloq. Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi qishloq nomi. Qishloq qirg'iz etnonimi *арикбагиш* bo'yicha nomlangan.

ARIQBO'YIQULONCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Toponimga qulonchi urug'i nomi asos bo'lgan; *Ariqbo'yiqulonchi* – "kanal bo'yida yashovchi qulonchi urug'i vakillari" ma'nosini anglatadi.

ARIQMAHALLA – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. *Ariqmahalla – "ariq bo'yidagi mahalla (daha)".* Balki "ariq urug'i vakillari yashaydigan mahalla" ma'nosida ham bo'lishi mumkin. Qozoqlardagi argin, bayuli, qang'li qabilalari, qirg'izlardagi adigine, mungush, sayak qabilalari, turkmanlardagi karkin, teke, ersari qabilalari, o'zbeklardagi yuz, qo'ng'irotariq urug'i ma'lum.

ARIQOSHGAN – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***ariq***" va "***oshmoq***" yoki "***ochmoq***" qismlaridan iborat. ***Ariq*** – sun'iy ravishda yasalgan suv yo'li, o'zani va undagi suv ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 5, 1, 98].

Demak, ushbu mikrotoponimning shakllanishi shu hududda ariq ochish jarayoni bilan aloqador. Leksik jihatdan ikki bo'g'inli ***ot+ravish*** shakliga ega.

ARK – shahar. Buxoro shahridagi shahar nomi. Beklikning odamlari, bekning o'zi yashaydigan qo'rg'on. Ushbu toponim tojikcha ***ark*** – "shahar qo'rg'oni ichida amir, bek turadigan qasr"[1] degan ma'noni anglatadi. XIV-XV asr o'zbek tilida ***ark*** – "*saroy, qasr, baland qo'rg'on, ichki qal'a*" ma'nolarini ifodalagan. XIX oxiri XX asr boshlarida xonlik (ma'lum yirik) ma'muriy-hududiy birlik (ning yoki uning kichik ma'muriy qismlari) beklarning bosh shahrida hukmdor turadigan ichki qal'a qasr hisoblangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida u "*poytaxtdagi qasr; xon yoki amir saroyining mustahkamlangan qismi va shuningdek, saroyning o'zi*"[2] kabi ma'nolarni bildiradi.

Shunday nomdagi tarixiy yodgorlik nomi Samarqand shahrida ham mavjud.

ARUS – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi.

---

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. А – Н Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Санд Каримов, Мирзо Насани Султон. Душанбе – 2008, -С.78.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.54.

Mazkur toponim tojikcha ***arus*** – *"kelin, kelinchak"* demakdir. Lug'atda uning "*turmush qurgan qiz, erning uyida ayolga nisbatan ishlatiladigan nom, chiroyli va zebo har narsa*" kabi ma'nolari ham bor[1].

ARK ICHI – mahalla. Andijon viloyatining eski shahar qismidagi qadimiy mahalla nomlari. "Boburnoma"da yozilganidek, Farg'ona mulkining XV asrdagi poytaxti Andijondir. Uning arki 1504-yili Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan vayron qilingan. Tekshirishlarimiz natijasiga ko'ra hovlilar oralab saqlanib qolgan ark devorining uzunligi 460 m ga, eni 180 m ga to'g'ri keladi (XX asr 60-yillaridagi tekshirishlar). Ark devorining shimoliy qismi hozirgi Haqiqat torko'chasiga to'g'ri keladi. 60-yillargacha ham devor qoldiqlari saqlangan edi. Keyinchalik imoratlar ortida qolib ketdi.

ARLOT – mahalla. Samarqand viloyatining Ishtixon tumani, Navoiy viloyatining Nurota tumanlaridagi qishloqlarning nomlari. Arlat – Chingizxon o'g'li Chig'atoy uchun tashkil qilgan to'rtta mo'g'ul qabilalarining nomlaridan biri. Arlotlarning asosiy qismi hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida joylashgan. Shunga qaramasdan, arlotlar Movarounnahrda ko'p sonli bo'lgan va ular o'ziga xos qabila hisoblangan. 92 o'zbek "urug'lar"i orasidan tilga olingan Arlot qabilasi ko'pchilik ro'yxatlar va joylarda *Arlat, Arlot, Allot, Olot* qabilalari sifatida talaffuz qilingan va qayd etilgan.

ARMETAN – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholi qishloq hududidan ariq oqib o'tganligi sababli toponim "metin ariq" ma'nosini bildiradi, deb hisoblashadi.

Nom, aslida, *Ariqmitan* bo'lsa kerak. Uning birinchi komponenti *"ariq"* so'zi – suvni ma'lum bir joydan boshqa bir yerga olib borish uchun yer sathining qazib hosil qilingan oqar suv yo'li va o'zanini bildiradi.

Professor T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, yerlarni o'zlashtirish, dehqonchilik qilish, qishloqqa oqar suv keltirish uchun mahalliy aholi tomonidan qazilgan yagona suv o'zani nomi – ariq. Toponimning ikkinchi komponenti *"metan"* so'zi – *mitan* qabilasi nomining o'zgargan shakli, etnonim.

Demak, *Armetan* (aslida *Ariqmitan*) – "mitan qabilasi vakillari tomonidan yoki ularga tegishli yerda qazilgan suv yo'li" ma'nosini anglatadi.

ARMIYON – qishloq. "Boburnoma"da Andijon viloyatining Rabotak o'rchin (tuman)iga qarashli kent (qishloq) deyilgan. Bu joylarning tabiiy sharoiti qishlov uchun qulay bo'lgan. Bobur (1499–1500) 905-yili o'z cherigi bilan Armiyon va o'sha atroflarda qishlagan. "Rabotak o'rchinini

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. А – Н Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Насани Султон. –Душанбе. 2008, -С.80.

Ikki suv orasi ham derlar, Armiyon va No'shob navohisida qishlamoq xayoli bila Andijondin ko'chub, mazkur bo'lgan kentlarning navohisig'a kelib qishloq solduk"(–B. 72–73). Bu yerda "Ikki suv orasi" deganda, Ilamish (yoki Iramish) daryosi (Qoradaryo) bilan Norin daryosi oralig'i nazarda tutilgan.

ARNABULOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Xorazmda *"arna" – katta ariq, anhor, daryodan chiqarilgan kanal.* Tog' etaklarida va adirliklarda *arna* – sel, tabiiy yog'in suvlari yerni yuvib, o'yib ketishidan hosil bo'lgan jarsimon uzun o'yiq, suv oqqan o'zan. *Arnabuloq* – sel yoki tabiiy yog'in suvlari o'yib ketgan jarsimon chuqurlik bor joydagi buloq (yonidagi qishloq).

ARNAQAPCHIG'AY – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. 1926-yilgi aholi punktlari ro'yxatida qayd qilingan. Tarkibi: *arna+qapchig'ay*. *Arna* – qadimgi eroniy tillarga mansub so'z. Tarixshunoslar, tilshunoslar, elshunoslar asarlarida *arna* so'zi xorazmiy tiliga mansub kalima ekanligi ta'kidlangan (Abdullayev F. Xorazm shevalari. I. – T., 1961. –B. 50.)

Xorazmiy tilida *arna* – katta kanal, daryodan qazib chiqazilgan va katta hajmda suv oqizilgan anhor. Xorazm shevalarida *arna* – ulkan kanal, anhor. Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining qipchoq lahjali aholisi nutqida *arna* so'zi mavjud, xususan, tog'li hududlarda bu atama saqlangan. Tovush shakli – *arna/orna/onna/anna.* Ma'nosi – yog'in va tabiiy suvlar o'yib ketgan jarsimon o'yiq. Arna – soy, dara tubi. Xalq dostonlarida otning arnadan irg'ib sakrab o'tishi ko'p tasvirlangan. Qashqadaryoning tog'li hududlarida *arna/orna/onna* – soy va dara tubida oqar suv o'yib ketgan jarsimon o'yiq, chuqurlik. Kosonda uncha chuqur bo'lmagan cho'ziq o'yiq – arna.

ARNASOY – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qizilqum cho'llarida tutashgan Mirzacho'lning shimoli-g'arbiy qismidagi pastliklar, hozirda suv bilan to'ldirilgan. *Arna* – "jarlik", "kanal", "soylik", "jar", *"arna"* so'zi juda qadimgi. *Arna* – daryodan hosil bo'lgan kanal (В.В.Радлов, Опыт словарья. Т. I. –С. 303).

V.V.Bartoldning ta'kidlashicha, arna Xorazmchadan kelib chiqqan: "X asrlarda Xorazmda boshqa eroniylar uchun tushunarsiz bo'lgan xalq hali o'zining ona tilida gapirishda davom etgan va hatto yozma hujjatlarda qo'llanilgan, bizningcha, bu til keyinchalik forsiy deb surib chiqarilmagan, turkiy til deb (turkiy – ta'kid S.Q.niki) hisoblangan, shubhasiz, Xorazmiy tilining qoldiqlari, sug'orishning ayrim sun'iy terminlari hisoblangan (*arna* – katta kanal, *yop* – kichkina kanal)". V.V.Bartoldning so'zlari bo'yicha quyidagi sitata keltiriladi: "xorazmiy tili o'zbek tili leksikasining Xorazm shevalarida o'z izini qoldirgan (ma-

salan, sug'orishda xorazmiy terminlari saqlanilgan: *arna* – "katta kanal", *yop* – "kichkina kanal, ariq" (Народы Средней Азии и Казахстана. –М., 1962, ч. 1. С. 140).

Mazkur fikrni o'zbek olimi rivojlantiradi: "Xorazmda katta kanallar *"arna"*, kichkinalari – *"yop"* deb atalgan (Я.Г. Гулямов. История орошения Хорезма". –Ташкент 1957. С. 294). Buyvola ko'rinishidagi nom o'ziga alohida e'tibor qaratadi, u *arni* yoki hindcha *"Buxalus arni"*, ya'ni "suvli buyvol" deb nomlanadi. Hindiston, Shri Lanka va Birmaning botqoqlik joylari sifatida tilga olinadi. Bu yerda arna, shubhasiz, "suvli" demakdir. Shu munosabat bilan biz Mahmud Koshg'ariyda uchraydigan "suvsigiri", bu degani, "suvli sigir" (buyvol xitoycha *shuynyu* deb nomlanadi: *shuy* – "suv", *nyu* – "sigir", ya'ni "suvli sigir"), demak, buyvola nomini qadimgi eski turkiycha nom sifatida keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Biroq mazkur "Devon"da ushbu hayvon nomining tarjimasini eski o'zbek tilida qo'tos deb xato keltirishadi yoki o'zbekcha qo'tos (qirg'izcha – joy) "buyvol" emas, ammo "qo'tos" suvda emas, tog'ning balandliklarida yashaydi.

Arna terminining arealiga kelsak, V.V.Bartoldning ko'rsatganiga qaraganda, u nisbatan kengroq va tasdiqlashicha, *arna* so'zi "faqat Xiva va turkmanlarda" uchraydi (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 122). Xorazm va Turkmanistondan tashqari *arna* termini O'zbekiston aholisining boshqa qismlarining belgisi hamdir, masalan, Jizzax viloyatining Zomin, Jizzax, G'allaorol, Forish tumanlarida *arna* termini vaqtli oqimlarda yorilgan jar-quruq o'zanining sinonimi hisoblanadi. Bunga misol bo'lib, Sirdaryo viloyatining Arnasoy tumani xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, *arna* so'zi (Xorazm va Turkmaniston) bir tumanni ifodalaydigan "magistral kanal va oqim" mustaqil turdosh geografik termin hisoblanadi, boshqa tomondan (Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida) – "quruq o'zan, jar", uchinchi tomondan, "daryo" Shimoliy Qirg'izistonda (qiyoslang: katta arna va kichik arna daryolari), Qozog'istonda esa "daryo o'zani". Biroq *arna* terminining ma'nosi kanalga nisbatan kengroqdir. S.P.Tolstovning fikricha, *arna – "manba, kalit"* ma'nosini ifodalaydi. (С.П. Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М. – Л., 1948. С. 81).

Mazkur so'zning ma'nosi Y.G'ulomov tomonidan ham to'g'ri ta'kidlangan: "Asosiy va katta kanallar, kanallarning keng qismlari arna deb nomlanadi. Keyingi termin xususiy ma'noda daryoning o'zanga bo'linishidagi oqimga tegishlidir. *"Arna"* terminini ostida uning "oroldan ajralgan yoki sayoz, daryoning qismi, oqimi"ni tushunish mumkin. Sun'iy kanallarga nisbatan mazkur terminning qo'llanilishi shunday tushuntiriladi, oxirgisi kattaligi bo'yicha daryoning qismi sifatida qaraladi. Misol uchun: *Paxtaarna, Shovotarna, Polvonarna, Otaliqar-*

na. Shu bilan birgalikda, bu termin bilan *Bog'lanarna, Kesikarna* sifatidagi Amudaryoning shunday oqimlari ham ifodalanadi (Я.Г.Гулямов. История орошения Хорезма. –Т., 1957. С. 243). *Arna* so'zining etimologiyasi qanday? V.V.Radlov (Опыт словарья. T.I. 303) va L.Z.Budagovda (Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, СПб 1871. С. 34) *arya* so'zi uchraydi. Har ikkala muallif ham mazkur so'zning etimologiyasini *rohi* va *ob* sifatida beradi, bu *"suv yo'li, ariq"* so'zi bilan ma'nodosh.

Ma'lumki, qadimgi eron tilida *ar* so'zi "suv" so'zini ifodalagan, balki *ariq* so'zi ham shundan kelib chiqqan. Qozoq tilida *arna* so'zi *buloq* ma'nosini ifodalaydi.

Endi biz *arna* komponenti bilan bog'liq geografik nomlarni keltiramiz: *Arna* (Buxoro viloyatidagi qishloq), *Arnabo'yi* (Xorazm viloyatidagi qishloq), *Arnaqapchig'ay* (dara – Qashqadaryo viloyati), *Arnasoy* (Jizzax viloyati), *Arnao'tkan* (Xorazm viloyati), kanallar – *Otaliqarna, Bog'lanarna, Kesikarna, Nazarxonarna, Shovotarna* (Xorazm viloyati); daryolar – *Katta arna, Kichik arna* (Chu tizimi); Dog'istonda toponimlar mavjud: buloq – *Arna-Buloq*, haydalgan yer – *Arna-Gvay Djiga*.

AROBASOZ//AROBASOZLAR – Buxoro viloyatining Vobkent va Romitan tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Aroba* – arba, *arobasoz* – aroba tuzatadigan usta ma'nosini anglatadi.

Aslida, Aravasozlar bo'lishi kerak. Geografik joy nomi tarkibidagi *arobasoz* so'zi *aravasoz* so'zining xalq tilida fonetik jihatdan o'zgargan varianti. Arava – transport vositasi. Aravasoz – "arava yasovchi (yoki uni tuzatuvchi) usta" degan ma'noni bildiradi. Toponim tarkibidagi *-lar* ko'plik affiksi. Demak, Arobasozlar – "arava yasovchi yoki uni tuzatuvchi kishilar (yashaydigan joy)" ma'nosidadir.

AROBASOZON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Arobasoz* – aroba tuzatadigan usta; *-on* – ko'plik ko'rsatkichi.

ARPA – qishloq. Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Toponimist V.A.Nikonov Araks daryosining chap irmog'i Arpa deb atalishini qayd qilgan va bu daryo arpa o'simligi ekiladigan hududdan oqib o'tganligi uchun shunday nomlangan, deb izohlaydi (Nikonov, 1966: 33).

O'zbek toponimikasi fanining yirik vakili T.Nafasov Qashqadaryo viloyatidagi *Arpazor, Arpali, Arpapoya, Arpachak* toponimlari haqida fikr yuritib, mazkur nomlar arpa (don o'simligi) bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi (Nafasov, 1988: 16). Buxoro viloyatida ham *Arpa* nomli qishloq qayd qilingan.

Demak, Oqdaryo tumanidagi *Arpaqishloq* qishlog'i nomi ham boshoqli don o'simligi – arpa bilan bog'liq holda yaratilgan, ya'ni *"arpa ekilgan maydon atrofidagi qishloq"* ma'nosidadir.

ARPALIQ – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi. ***Arpaliq*** toponimiga asos bo'lgan *arpa* so'zi Mahmud

Koshg'ariy tomonidan *arpa* أرپا shaklida qayd qilinadi[1].

XIV asr Xorazm yozma manbalarida *arpa* ارپا tarzida qo'llaniladi[2].

Tadqiqotlarda bu so'zning asosi qadimgi turkiy tilda "erta" ma'nosini anglatgan *ar* bo'lib, *arpa* erta pishar, tez pishib yetiladigan o'simlik ma'nosida bo'lganligi ta'kidlanadi[3]. *-lыq* topoformanti yordamida yuqoridagi joy nomi yuzaga kelgan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

ARSIF – qishloq. Farg'ona viloyati Quvasoy shahar Kengashiga qarashli qishloq nomi. Quvasoy arig'i bo'yidagi adirlar orasida joylashgan. *Arsif* so'zi S.Qorayevning yozishicha, tojikcha *arz purs* – "arz so'rash" so'zidan kelib chiqqan. O'zbekistondagi joy nomlari zamirida ba'zan fe'l shaklidagi nomlar ham uchraydi (Qorayev, 1970).

ARZIQTEPA – qishloq. Farg'ona viloyati Dang'ara tumanidagi qishloq nomi. Arziq – gipsga o'xshagan oq loy. Ko'chmanchi o'zbeklar, qisman mang'itlarning urug'-qabila bo'linishlari tarkibida arzuk urug'i mashhurdir.

ARG'IN – qishloq. Andijon viloyatining Shahrixon tumani, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani, Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va O'rta Chirchiq tumanlaridagi qishloqlar nomi. Arg'inchi – qishloq, Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq va Yuqori Chirchiq tumanlari, Argun – Navoiy viloyatining Karmana tumani.

Argin (shakllari: argin, argun) – turkiy qabila nomi bo'lib, Mahmud Koshg'ariyning asarida Amudaryo bo'ylarida argu shaklida qayd etilgan, qadimda Movarounnahrda yashagan.

Arg'in etnonimi qozoqlar, qirg'izlar, boshqirdlar, xakaslar, tatarlar tarkibida ham qayd etilgan. *Argin* so'zi (o'zagi – arg') mo'g'ulchadan kelib chiqqan bo'lib, "*chatishma*" ma'nolarini ifodalaydi.

Arg'inlar Movarounnahrda, Amudaryo bo'ylarida qadimdan istiqomat qilib kelgan turkiy qabila. Arg'in Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd qilingan arg'u qabilasining o'zi bo'lsa kerak. Tarixiy manbalarda, jumladan, "Boburnoma"da, Mulla Sayfiddin Axsikandiyning "Majmuat at-tavorix" (XVI asr) asarida bu urug' nomi arg'un shaklida qayd qilingan.

Ayrim manbalarda mazkur etnonimni mo'g'ulcha *arg'in* (o'zagi *ar-*) – "duragay" so'zidan kelib chiqqanligi e'tirof qilinadi. Arg'in etnonimi, masalan, qirg'iz tilida hozir ham shu ma'noni anglatadi.

ARCHALI – qishloq va dovon nomi, Jizzax viloyati. Archa daraxti o'sgan joy bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Archali qishlog'ining nomi *"archa daraxti o'sgan kichik tekis joy"* degan ma'noda qo'llanilgan.

---

[1] Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. I tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: O'zFAN, 1960. – B. 144.

[2] Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Т. I. –Ташкент, 1966. –Б. 65.

[3] Малов С.У. Уйгурские наречия Цинзуана (тексты, переводы, словарь). –М.,1961. –С.100.

ARCHA OTA – fitonim. Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi "Bozorjoy" MFY hududidagi "Fozilmon ota" tog'ida bo'y ko'rsatib turgan mo'jizaviy archa daraxtlari nomi.

Mazkur nom mahalliy aholi tomonidan nihoyatda qadrlanadi va bu joy ularning ziyoratgohi hisoblanadi. Ushbu nekronim xalq etimologiyasiga ko'ra, bir zamonlar to'rtta qalandarsifat kishilar safar qilib kelib, shu joyda bir kecha-kunduz tunash, dam olish uchun hassalarini yerga qadab, chodir qurishgan ekan. Mo'jiza ro'y berib bir kecha-kunduz ichida asolar nihol bo'lib, ko'karib chiqibdi. Keyinchalik bu asolar salobatli va mahobatli ulkan to'rtta archa daraxtiga aylanibdi. Hayratlanarlisi, bugun shu tog'da ushbu archalardan boshqa biror tup archani uchratmaysiz.

ARSHANGUL – ovul. Qaraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. *Arshan* – qoraqalpoq qabilasining mang'it urug'laridan biri (T.A.Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса).

ARSHANOVUL – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqning arshan urug'i nomi bilan atalgan nom bo'lib, bu qishloq Chimboy tumanining "Baxtli" OFY hududida joylashgan.

ASADBAHRIN – ariq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi ariq nomi. Urgut tumanlarida ham *Bahrin* nomli qishloq va ariqlar bor.

Tarixchi B.Y. Vladimirsov fikricha, bahrin turklashgan mo'g'ul qabilalaridan bo'lib, ular mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqqa kelib o'rnashganlar. XVIII–XIX asrlarda bahrinlarning katta bir qismi Toshkent vohasi, Farg'ona va Zarafshon vodiylarida o'troqlashib qolgan. Bahrin qabilasi afsonaviy Budunchardan tarqalgan urug'lar orasida eng yirik tarmoq bo'lib, uning katta o'g'li Baaridayning avlodidir (Vladimirsov, 1934: 49).

Bahrin qadimiy turkiy urug'lardan biri bo'lib, Markaziy Osiyodagi ko'plab joy atamalari tarkibida uchraydi. "Jome at-tavorix" asarining muallifi Rashididdin Fazlulloh (XIV asr) qayd qilishicha, bahrin qabilasi turkiy urug'lardan bo'lib, durban urug'iga yaqin hisoblangan.

Tilshunos olim K.Marqayevning aytishicha, bahrin – qadimiy turkiy tilda *katta yirtqich qush lochinning bir turi bo'lib*, uni qo'lga o'rgatib, ovchilikda foydalanilgan. Qush nomi urug' nomiga ko'chgan. Bu holatda nomlanish asosida totemistik tasavvur mavjud. Totemizm ilk urug'chilik davrida yuzaga kelgan diniy ko'rinish bo'lib, bunga ko'ra ma'lum urug' va qabila, uning a'zolari biror hayvon, o'simlik yoki predmet bilan qandaydir aloqador, deb hisoblangan va bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. Shunga ko'ra, bunday hayvon, o'simlik yoki narsa muqaddaslashtirilgan va unga sig'inishgan. Totem deb tan olingan jonli va jonsiz obyekt urug' yoki qabilaning shunchaki muqaddas e'tiqodi bo'lmasdan, totemni qarindosh deb

hisoblashgan, o'zlarining taqdirlari va baxtlarini u bilan bog'lashgan.

ASAKA – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mutaxassislar Asaka nomining kelib chiqishini turlicha talqin qilishgan. Ayrim tadqiqotchilar Asaka nomining paydo bo'lishini Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan sak qabilalari nomi bilan bog'lashadi. Chunki bu qabila ba'zi tarixiy manbalarda "assakenlar" nomi bilan ham tilga olingan. Ularda *"asvaka"* – ot, *"assaka"* – otliqlar ma'nosini bildirgan. Qadimshunoslar vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan o'z fikrlarini asoslashga harakat qilishgan va shu hududda qadimda nasldor otlar boqilgan, degan xulosaga kelganlar.

Rus tarixchisi B.A.Litvinskiy Asaka tarixini Farg'onada miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan sak qabilalar bilan bog'laydi. Taniqli olim qadimgi yunon va hind manbalariga asoslanib, o'tmishda Pomirda yashovchi sak qabilalarining yurti Assakana, xalqi esa assake(n)lar deb atalganligi, A.Makedonskiy O'rta Osiyodan keyin, ana shu yo'l orqali Hindistonga o'tganligini ta'kidlaydi.

Arxeolog olim B.X.Matboboyev esa Asaka tarixini Dayyuan (qadimgi Farg'ona) davlati tarixi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Uning talqinicha, Asaka so'zi jonli hind tilida "asvaka" – ot, "assaga, assaka" – otliqlar, chavandozlar degani, ya'ni assaka – otliqlar yurti deb e'tirof etadi. Shu xulosaga asoslanib, 1997-yili Asaka shahriga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykali qo'yilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, ba'zi nasabnomalarda o'zbek urug'lari orasida asaka va qirg'izlarning sayaq qabilasi tarkibida asake urug'i qayd qilingan. Oltinko'l tumanidagi Asakalik qishlog'i va Ustyurt platosining janubidagi Asakaovdon botig'ining nomi ham shu etnik guruh nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ammo bir qator olimlar borki, ular Asaka nomi va uning tarixini ilk o'rta asrlar bilan bog'laydi. Masalan, professor A.Teshaboyev Asaka so'zini o'zgacha talqin qilgan. Olim qadimgi turkiy tilda *"ass" – burgut, lochin* degan ma'nolarni anglatgan va o'tmishda turk urug'lari ichida *"ass" – burgut (totemi)* urug'i ham bo'lganligi to'g'risida ayrim tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor deydi.

Shu o'rinda B.Ahmedovning Asaka nomini "ass" urug'i bilan bog'liq degan xulosasini ham aytish mumkin. Olimning fikricha, hozirgi Asaka va uning atrofidagi adir va vodiylarda ilk o'rta asrlarda "ass" etnik guruhi vakillari yashaganlar. Bu mulohazani tarixchi A.Muhammadjonov ham tasdiqlaydi va uning fikricha, Asaka aslida Assikal shaklida talaffuz etilib, ass – turkiy urug', kal – suv yoki soy demakdir.

ASAKAOVDON – Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'lkaning nomi. Shu nomdagi botiq ham mavjud. Asaka – urug' nomi, etnonim. O'zbek urug'larining ayrim ro'yxatlarida asa-

ka etnonimi qayd etilgan, bizningcha, bu qadimgi sak xalqlarining nomidan kelib chiqqan. Forscha *ovdon-obdon* – "suv ombori", "ko'l", "havza". Geologiya fani ma'lumotlariga ko'ra, to'rtlamchi davrda Asakaovdon botig'i o'rnida ko'l bo'lgan.

ASALCHI – mahalla. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Nom ikki qismdan iborat – *Asal+chi*. **Asalchi** – asal yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs hisoblanadi u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tubandagicha izohlananadi: "Asal olish uchun asalari urchitish, uni parvarish qilish bilan shug'ullanuvchi shaxs; asalarichilik mutaxassisi". (O'TIL. I, 104).

ASBOB – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Romitan tumanlaridagi qishloq nomi. Arabcha – "asbab" (birlik sonda "sabab") XI–XII asrlarda "yer xususiychiligi va boshqa egaliklar"; nisbatan keyingi vaqtlarda, xususan, XVI–XVII asrlarda, *asbab* termini boshqacha ma'noga ega bo'lgan va u, odatda, "mulk harakati" ma'nosini ifodalagan (А.Ю.Якубовский. Восстание Тараби в 1238 г. Труды ИВАН. Т. XVII; 1936. С. 108; примечание 2; П.П.Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. С. 11; О.Д.Чехович. Бухарские документы XIV в. С. 220). *Asbab* komponenti bilan toponimlar, ayniqsa, XVI–XVIII asrlarda Buxoroning jubay shayxlari hujjatlarida tez-tez takrorlangan: Asbab-i Ali Yamchi, Asbab-i bag-i kalyan, Asbab-Ibraxim, Asbab-i Kafiran va boshqalar. (П.П.Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов С. 173, 260, 317, 318 и т.д.).

ASNOV – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Toponimist S.Qorayevning fikricha, u arabcha asnof so'zi bilan bog'liq bo'lib, ***Asnof*** – *"sinflar, guruhlar, tabaqalar"* kabi tushunchalarni ifodalaydi[1].

ASQARSHIRAM – joy nomi. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' va Dehqonobod tumanlaridagi joy nomlari. Toponimshunos T.Nafasov askar komponentini mazkur nomlarda *"katta, buyuk, baland"* deb tarjima qiladi. Shunday tushunchalar qirg'iz tilining misollarida ham tasdiqlanadi: *aska* – "yalang'och tog'", "zabt etib bo'lmaydigan baland qoya" (К.К.Юдахин. Кыргызско-русский словарь. С. 74); *shiram* – geografik termin, uning ostida mahalliy aholi oxirida birdan yoriladigan tog'li joylardagi qalin balandlik tushuniladi.

ASTARBOF – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. ***Astarbof*** – tojikcha so'z bo'lib, *"Astar-to'quvchi"* – kiyim yoki ko'rpa, ko'rpacha singari narsalarning ichki qavati, ichki tomoniga tikilgan material hisoblandi[2]. Kasb-hunar nomi oykonimga asos bo'lgan.

ATAXUSHMITAN//ARDAXUSHMISAN//RAXUSHMITAN// XUSHMITAN – (Gurganchdan uch kunlik

[1] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.245.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.60.

yo'l) O'rta asrlarda Xorazmdagi katta va boy shahar. Arta sifati qadimgi forsiydagi murakkab so'z ("yaxshi", "ajoyib"), Xorazmning geografik nomenklaturasida tez-tez uchraydi (В.В.Бартольд, Сочинения. Т. III. С. 171). Unga shuni qo'shish mumkinki, *xush* komponenti tarkibidagi mazkur nom fors tilida ham "yaxshi", "ajoyib" (qarang: Mitan) ma'nolarini ifodalaydi.

ATTARON – mahalla. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi mahalla nomi. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, ilgari zamonlarda qishloq o'rni to'qayzor bo'lgan. Bir necha o'ziga to'q kishi to'qayzorlarning bir qismini kesib, o'rniga imoratlar qurgan va aholi bu yerlarni asta-sekin o'zlashtira boshlagan. Qishloq aholisi attorlik moli hisoblangan qalampir yetishtirib sotgan va qishloq nomi shu tariqa paydo bo'lgan.

Boshqa manbada *attor* – atir, xushbo'y hid taratuvchi, pardoz vositalari yetishtiruvchi shaxs va *-on* fors tilidagi ko'plik hosil qiluvchi affiks bo'lib, *attaron* – "Attorlar istiqomat qilgan qishloq" ma'nosini anglatishi qayd etiladi.

Har qanday rivoyatning ostida qandaydir ma'noda haqiqat yotganidek, birinchi rivoyatda *Attor* – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi shaxs bo'lsa, ikkinchi tahlilda hunarmandchilikka oid atir, xushbo'y hid taratuvchi, pardoz vositalari yetishtiruvchi shaxs sifatida e'tirof qilingan.

AVAYXON – mahalla. Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. XX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi Qozoqlar xoni Ablayxon nomidan olingan.

AVAZMERGAN – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ***avaz*** va ***mergan*** qismlaridan iborat. Ba'zi ishlarda ***avaz*** kishi nomi sifatida emas, balki xazar qabilasining urug'i sifatida talqin etiladi. Lekin u tildagi rotatsizm, sigmatizm qonuniyatiga amal qiladigan bo'lsak, u ***avar*** so'zining o'zgargan shaklidir: ***avar*** – *авыр–abar–augar–xavur –aviyor – agiyor–avaz–abaz* tarzidagi yo'lni bosib o'tgan.

Demak, apellyativning birinchi komponenti ***avar*** so'zi *ava+ar* qismlaridan iborat bo'lib, *ava-* qarshilik ko'rsatmoq, qo'zg'almoq: *-ar* harakat nomi yasovchi qo'shimcha. Shunday ekan, ***avar- avaz-*** qarshilik ko'rsatuvchi, qo'zg'olonchi ma'nosini beradi.

Etnooykonimning ikkinchi qismi ***mergan*** so'zi urug' nomi sifatida qo'ng'irotlarning oyinni bo'limida *kenagas, mang'it, qovchin*lar tarkibida mavjud.

AVESTO – mahalla. Xorazm viloyatining Urganch shahridagi mahalla nomi. IX asrda Xorazmda bitilgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi. ***"Avesto"*** kitobida ilgari surilgan yorug'lik – zulmatlik, obodonchilik – vayronagarchilik, farovonlik – qashshoqlik, salomatlik – kasallik va yaxshilik – yomonlik kabi qarama-qarshilik g'oyalarini yoshlarimiz ongiga singdirish maqsadida qo'yilgan nom.

Shuningdek, ***"Avesto"*** kitobidagi "Ezgu so'z", "Ezgu amal" va "Ezgu fikr"

g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish ham maqsad qilingan. Bu kabi g'oyalarni yosh avlod ongi, shuuri, qalbi va tafakkurida qaror toptirish va shu orqali nafaqat insonning o'zi, balki butun xalq va jamiyatning manfaat topishi ko'zda tutilgan holda shunday nomlangan.

AVJIN – qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irotlarning qanjig'ali bo'limiga mansub urug'lardan biri – *avjin/avjun*. Urug' nomiga totem nomi asos bo'lgan: *av/ev←uy – sigir, ho'kiz, qo'tos* (Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk, 1, 80). Nomning so'nggi qismi *"chin"* so'zi turkiy, mo'g'ul tillaridagi *chin/chun/shin/sho'n/jin/jun/sin/sun/so'n/zin/zun/zo'n* so'zlariga daxldor. Turli tovush qiyofasidagi bu so'z *"odam, kishi, xalq"* ma'nosida. Avjin urug'i sigir (ho'kiz, qo'tos)ni totem deb bilishgan. Totem asosida urug' nomlangan. Urug' nomidan qishloq nomi yasalgan.

AVOQLI//ABOQLI – qishloq. Qashqadaryo viloyatidagi qishloq nomi. Avoqli//Aboqli – bir necha turkiy xalqlarga xos urug'. Qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq, boshqird xalqining *avaqli/abaqli/abaxli* urug'i borligi ma'lum. *Avoq/oboq* – tamg'a shaklining nomi. Tamg'a qora uyning urug'iga o'xshash, to'g'ri chiziqning boshi yonga qayrilgan, boshi egik to'g'ri chiziq tamg'a mollarga qo'yilgan, tamg'asining shakli asosida urug' nomlangan. Urug'iga qarab, ular yashagan qishloq *Avoqli* deb nom olgan.

AVURDUVON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Abdulkarim Somoniyning "Kitob ul-ansob" asarida ushbu qishloq nomi *"Anbarduvon"* shaklida tilga olinadi. ***Anbar*** (عنبر) *xushbo'ylikni bildiruvchi* so'z bo'lib, ushbu toponimning birinchi komponentini tashkil etadi. Bundan *"xushbo'y dovon"* ma'nosi kelib chiqadi.

AVVAL – qishloq. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida joylashgan qadimiy qishloq nomi. Dastlab "Hudud al-olam" (24-a varaq) hamda arab geografi Muqaddasiy (X asr) asarlarida qayd etilgan. Aholisining milliy tarkibi tojiklar va o'zbeklardan iborat. "Avval" so'zi o'zbek tilida dastlabki, ilgarigi, burungi voqea, hodisa va jarayonlarni ifodalashda ishlatiladi.

AVG'ONBOG' – Andijon shahrining "Yangi bozor" mavzesidan Hakan tomonga ketishda chap tomondagi eski bog'. Afg'on-avg'on nomi (etnonimi) laqabga aylangan. "Bog'" so'zi o'zbek tiliga qadimgi sug'd tilidan kirib kelgan va mevali daraxtlar hamda boshqa nav o'simliklar o'sadigan obod joy. XIX asr oxirida chorizm ma'muriyati o'lkada yangi nav o'simliklar o'stirishni sinash uchun tajriba uchastkasi barpo qilib, dastlab asli afg'onistonlik bo'lgan agronomni boshliq qilib tayinlagan. Shu sabab xalq orasida keyinchalik "Afg'onbog'" nomida mashhurlashib ketgan (Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanida ham Avg'onbog' bor. Jalolobodning Arslonbob qishlog'ida ham "Afg'on dala" degan joy bor).

AVSHAR – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tu-

manidagi qishloq nomi. Mazkur nomni Mahmud Koshg'ariy o'g'uz qabilalarining oltinchisi sifatida ***afshar*** shaklida tilga oladi. Rashididdin Yulduzxonning birinchi o'g'lining ismi sifatida qayd etadi. Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai tarokima" asarida ham ***avshar*** etnonimi shaklida beriladi[1].

Afshar etnonimining tarqalish areali ancha keng. Mazkur komponent Ozarbayjon va Armaniston, Eron toponimiyasi tizimida juda qadimdan mavjud ekanligi ma'lum[2]. Afsharlar o'g'uz ko'chmanchi qabilalari tarkibiga kirib, IX–XI asrlarda Orol va Kaspiy bo'ylarida hayot kechirgan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ***afshar***lar Sirdaryoning quyi oqimida o'troqlashgan bo'lib, qishloqlar, qo'rg'onlarda yashaganlar. H.Vamberi nomni "boshqaruvchi, hokim" – deb tarjima qilsa, Y. Nemet so'zni ***auš*** o'zagi bilan aloqador deb hisoblaydi va ma'nosini "*itoatkor*" deb izohlaydi[3]. A.Gusayinzade etnonimning "*epchil, uddaburon*" degan izohini ma'qullaydi va so'zning uch qism – *äv* + "*shoshilmoq, tezlashmoq*", *iš* birgalik nisbat qo'shimchasi, *-ar/-är* – kelasi zamon fe'li qo'shimchasidan iboratligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, *afshar* etnonimining qadimgi yozma manbalarida qayd etilgan izohi haqiqatga yaqindir. (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, 2012).

Bunday nomdagi etnotoponim Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida ham mahalla nomi sifatida mavjud.

AVSHARMAHALLA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Arab geograflari (X asr) Buxoro yaqinida Avshar qishlog'ini qayd etadi (БАГ, III. С. 282). Avshar (afshar) urug'-qabilasi nomi bilan mashhur. Abulg'ozi Bahodirxonning so'zlariga ko'ra, *avshar* – *"tez ishlovchi", "tezkor"* ma'nosini ifodalaydi. Forscha *"ob"* (suv) va *"sho'r"* (sho'r) so'zlaridan hosil bo'lgan. *Obi sho'r* (ariq, buloq) o'zbekcha talaffuzda *abshar (avshar)*ga aylangan bo'lishi mumkin.

AXSI//AXSIKENT – qishloq. Namangan viloyatining Uychi, To'raqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur oykonimlar etimologiyasi xususida ko'p yozilgan. Oykonim haqida "Hududul-olam" asarida quyidagi ma'lumot uchraydi: *"Axsikat – Farg'onaning poytaxti, amirning qarorgohi, katta shahardir. Xashart (Sirdaryo) daryosi labida"*[4].

Yoqut Hamaviy bu haqida: *"Axsikat Farg'ona vodiysining shaharlaridan bo'lib, bu nom Axsikat va* ***Ax-***

---

[1] Кононов А.Н.Родословная туркмен. Сочинение Абулгази хана Хивинского. –М., –Л., 1958. –С. 53.

[2] Гусайнзаде А. О произхождении топонима "Апшерон" // Советская тюркология. №3. 1974. –С. 64-69.

[3] Koprulu MF. Afsar // Islam Ansiklopediyasi. C 2. – Istambul, 1961. S. 29.

[4] *Qarang.* Hasanov H. O'rta osiyolik geograf va sayyohlar. – Toshkent, 1964. – B.61.

sikos *deb ham ishlatila bergan",* – deb yozadi[1].

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Axsi Farg'ona viloyatining poytaxti, ya'ni shahar nomi sifatida tilga olinadi: *"Sayhun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar: biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat bitarlar. Nechunkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. Andijondin g'arb sori to'qqiz yig'och yo'ldir. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayhun daryosi qo'rg'onning ostidan oqar..."*[2] Hozirda Axsikent qishloq hisoblanadi.

Uychi tumanidagi Axsi qishlog'ining nomlanishi ham Axsikent oykonimiga borib taqaladi. Axsikentdagi zilziladan keyin shahar aholisining ko'p qismi atrofga tarqalib ketadi. Aholining bir qismi hozirgi Uychi tumanining Jiydakapa mahalla fuqarolari yig'ini hududiga borib, yer ochib, shu joyda o'rnashib qolganligi uchun bu qishloq *Axsi* deb atalgan.

Shuningdek, Namangan shahridagi mahallalardan biri ham Axsikent deb ataladi. Axsi, Axsikent oykonimlari etimologiyasi haqida bir necha xil qarashlar bor. S.Qorayev oykonim Balazuriy asarida Xishkat shaklida tilga olinishini ko'rsatadi. U sug'dshunoslar fikricha, Axsikat (Xishkat) *"oq shahar"* ekanligini ta'kidlaydi hamda *Axsi* o'zagi qadimiy turkiy tilda biror ma'noni anglatgan turdosh ot bo'lsa kerak, degan mavhumroq xulosa beradi[3].

S.Tulakov oykonimning lug'aviy ma'nosini Namangan shahriga borish yo'lidan biri Axsi ko'chasida bo'lganligiga nisbat berib, "xakas tilidagi *axsi* – "og'iz" so'ziga aloqador", degan fikrni bildiradi va nomning lisoniy shakllanishini quyidagicha ko'rsatadi: 1) *aruз* + i ("*u*" egalik affiksi) > *aгuзu*; 2) *aгuзu*> *aгзu* > *axsi*, ya'ni *ag'* > *ax* + *зu* + *cu*[4]. A. Juvonmardiyev: *"axsi"* so'zi *"axzi"*dan olingan. *Anushirvoni odil* har o'lkadan bittadan yaxshi qilmishlik kishilarni keltirib, *"axzi"*-ga qo'yib, yangi viloyat qilgan. Ko'p aytish, takrorlanish natijasida axzi > axsi bo'lib ketgan", – deb yozadi. Yoqut Hamaviy keltirishicha, *"Axsikat ichki shaharining to'rtta darvozasi bo'lib, uning imoratlari loydan yasalgan. Shahar ichida va qo'rg'oni atrofida oqar suvlar va katta hovuzlar bor... Bu – Movarounnahrda eng xushmanzara joylardan biri"*[5]. Haqiqatan, Axsi o'tmishda eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lganligini tarixiy yozma

---

[1] Hikmatullayev H., Shoislomov Sh. Yoqut Hamaviy. – Toshkent, 1965. – B.37.

[2] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B.8.

[3] *Qarang.* Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B.95.

[4] *Qarang.* Tulakov S. Namangan shahar shevasi leksikasidan materiallar // O'zbek shevalari leksikasi. – B. 441.; Juvonmardiyev A. XVI–XIX asrlarda Farg'onada yer-suv masalalariga doir. – Toshkent, 1965. –B. 76.

[5] Hikmatillayev H., Shoislomov Sh. Yoqut Hamaviy, 127-bet.

yodgorliklar ham tasdiqlaydi. Undan tashqari, shaharning qo'rg'oni tepada bo'lganligi, devorlar bilan o'ralganligi ham ma'lum. Buni qomusiy lug'atlardagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi"[1].

Axsi so'zi usmonli turk tilida va arab tilida **axs** shaklida omonim sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llangan: 1) savdo; 2) oldi-berdi (munosabat); 3) qo'rg'on, qal'a[2]. Y.Uzoqov, A.Aliyevlar fikricha, **axsi** so'zining *"savdo"* ma'nosi Axsikent oykonimi uchun asos bo'lgan[3].

Bizningcha, Axsikent oykonimi uchun ko'proq omonimik **axsi** so'zining *"qo'rg'on, qal'a"* ma'nolari etimoni hisoblanadi. "Boburnoma"da keltirilganidek, Axsi Umarshayx mirzo davrida Andijonning poytaxti bo'lganligi, Bobur tomonidan uni qo'rg'on deb atalganligi kabi omillar eski Axsikent xarobalari, arxeologlar bergan ma'lumotlar ham fikrimizga asos bo'la oladi. Demak, *axsi* va *kent* morfemalaridan tarkib topgan oykonim *"qo'rg'onli shahar"* degan ma'noga ega. Uning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *axsi > axsi + kent(kat) > Axsikat // Axsikent > Axsi kabi.*

AXTAXONA – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Axtaxona* – "ot boqiladigan joy" (Л.Будагов. Сравнительный словарь туреско-татарских наречий, т. I. –С. 17; И.Д. Ягелло. Полный персидско-русский словарь. – Ташкент, 1910, 38). Boshqacha talqini – *astaxon* etnonimi mashhur (*axtixona*), (*Axtachi*). Ko'pchilik toponimlarda *-li, -chi* qo'shimchalari etnonimlar tarkibida tushib qoladi; mazkur vaziyatda etnonimga *-xona* komponenti qo'shilgan; qiyoslang: *Arabxona, Uyshunxona, Do'rmanxona.*

AXTACHI – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumaniga qarashli qadimiy qishloq nomi. Keyingi tekshirishlar natijasining ko'rsatishicha, turkiy qavmlarning mayda bir urug'ining nomi "axta" deb atalgan. Biroq ilmiy izlanishlar natijasi oydinlashgunga qadar xalq orasida "otlarni axta qiladigan (bichadigan) joy", – deb atash urf bo'lib ketgan. Endilikda buning to'g'ri emasligi isbot qilingan. *Axta – ot* ma'nosini ham bildiradi.

Andijon viloyatining Shahrixon tumanida ham shunday nomli qishloq bor. Axtachi – qadimgi o'zbek qabilalaridan biri. Axtachi urug'i qirg'iz-qipchoqlarida ham qayd etilgan. Axtachi qabilasi vakillari Boburda ham tilga olinadi. *Axtachi* so'zi mo'g'ul tilidan kelib chiqqan bo'lib, *"ot boquvchi", "otchi"* ma'nolarini ifodalaydi.

AXSHAK – qishloq. Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi qishloq nomi. *Axshak, Axshakguzar* nomli toponimlar qayd etilgan. So'zning aniq etimologiyasi ma'lum bo'lmasa-da,

---

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000, I j. – B. 533.

[2] Qarang. Радлов В.В. Опыт словарья тюркских наречий. СПБ. I. – С.138.

[3] Uzoqov Y., Aliyev A. Namangan toponimikasidan // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 1968. – B.90.

uning *"yorma"* degan ma'noni anglatishi haqida adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan (Qorayev, 2001).

AYDAR – ko'l. Jizzax viloyatidagi ko'lning nomi. *Aydar* – qozoq tilida *"peshona gajak", "o'roq"*; geografiyada – *"balandlikdagi katta toshlar uyumi, tepalik"* (Э.М. Мурзаев. Словарь народных географических терминов. – М., 1964. С. 41) ma'nolarini anglatadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, – qozoqlarda olchin qabilasi bor (Н.А. Аристов. Заметки об этническом составе. С. 363), shuningdek, aydar etnonimi ham bor. O'zbeklardagi kabi qozoqlar va qirg'izlarda ko'pchilik geografik obyektlar urug'-qabila nomlari bilan uyqash qilib qo'yilgan. Aydar etnonimi qirg'izlarda ham bor.

AYDASQAL'A – qal'a. Qoraqalpog'iston Respublikasi qoraqalpoq xalqi Qo'ng'irot aholisining qoldovli urug'idan bo'lgan va XIX asrda yashagan qoraqalpoq xalqiga taniqli tarixiy shaxs Aydosbiy nomiga qo'yilgan eski tarixiy joy nomi. U hozirgi Taxtako'pir tumani "Qoraoy" QFY hududida, Ko'k-o'zekning eski o'zanining sharqiy tomonida va Oqjag'isning janubida joylashgan tarixiy joy nomi.

1810-yili Muhammad Rahimxon Aydosbiyga Ko'ko'zekning Oqjag'is bo'yiga yaqin joyidan qo'rg'on qurishiga ruxsat beradi va bu qo'rg'onni *Aydosqal'a* nomi bilan atagan.

AYIRBULOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "Ayirmoq" ikkiga bo'lingan ma'nosini ifodalaydi. "Buloq", "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan "oy, chashma" [O'TIL. 1, 371].

Aslida esa, buloq suvining ikki tomonga oqishi natijasida shunday nomlangan.

AYLOQ – tarixiy Iloq viloyatining parallel nomi (Ohangaron vodiysi). *Aylak (ayloq), yaylaq* so'zining dialektal varianti – *yaylov*. Chig'otoy tili lug'ati Kalkutta nashrida (1890) *aylak* so'zi *yozgi yaylov* sifatida tushuntirilgan. V.V. Radlov bu shakllarni xato deb hisoblaydi va *yaylak* so'zi *yaylov* ma'nosida deb sanaydi. Shu bilan birga, mazkur so'z qisqartirilgan shaklda hozirda ham katta hududda qo'llanilmoqda. Masalan, Afg'on Badaxshonida yozda podani yozgi yaylovga haydashadi – *aylak*, Tojikiston janubida yozgi yaylovni ham *aylaq* deb nomlashadi. O'xshash varianti qirg'iz tili dialekti uchun ham ahamiyatlidir, chunki u yerda ham *jayloo (yaylov)* shakli bilan birgalikda *aylak* shakli ham bordir.

Shunisi bilan qiziqarliki, turkman urug'laridan biri salax aylak deb nomlanadi. Shu narsa diqqatni tortadiki, qadimgi Iloq poytaxti yonida – Tunket shahri bilan unchalik katta bo'lmagan Sarijayloq qishlog'i joylashgan, keksa avlod vakillarining so'zlariga qaraganda uning nomi forscha sar – (bosh) va turkcha *jayloq* (yozgi yaylov); xulosa qilish mumkinki, Sarijayloq nomi o'rta asrlardagi Ayloq nomidan kelib chiqqan emasmi? Buxoro vohasida aynan shunday komponentli toponim

– Ayloqtepa (aholi punkti) uchraydi; Tojikiston Respublikasining Novobod tumanida Ayloqjo darasi ham uchraydi.

AYLOVOT//AYLOVOTXO'JA – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. 1546-yilgi vaqf hujjatida *Aliobod* shaklida yozilgan. Temuriylar davrida Sug'udi Kalon tumanining shimoliy qismi hisobiga Aliobod tashkil qilingan. XV asr boshlarida Aliobod bu hududdagi asosiy aholi punkti hisoblangan. Keyinchalik u tuman markazi bo'lgan (Chexovich, 1974: 359–406).

V.L.Vyatkin Sug'udi Kalon tumanini tasvirlar ekan, Aliobod mang'itlar davrida o'z mavqeyini yo'qotganligi va Chelak tumani markazi bo'lib qolganligini yozadi. Alioboddan so'ng cho'l boshlangan, qishloqdan Samarqand – Jizzax yo'li o'tgan bo'lib, tarixiy hujjatlarda uning yaqinidagi *Xo'ja Diydor qal'asi, Karjak* (yoki *Karzak*) mavzesi nomlari tilga olinadi. Bu nomlar allaqachon unutilgan, ammo qishloqqa chegaradosh *Siyob (Qorasuv), Adak* yoki *Andak* (hozirgi *O'ymovut*), uning sharqidagi *Kurtushayx* va *Said Ohu* (hozirgi *Saydov*) qishloqlari, g'arb tomondagi *Xonqo'rg'on* mavzelari tilga olinadi. V.L.Vyatkin o'z asarida Bulung'ur arig'idan chiqarilgan *Kuchakariq* (hozirgi *Kuchukariq*)ni ham qayd etadi.

"Kuchak" so'zining lug'aviy ma'nosi "kichik" bo'lib, *Kuchakariq* – "kichik ariq" demakdir. *Aylovot* toponimi "Ali" (kishi ismi) va "obod" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. *Aliobod* vaqt o'tishi bilan talaffuzda *Aylovot* shaklida qo'llana boshlagan.

AYMAT – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi "Toz" MFYda joylashgan qishloq nomi. Turkiy va mo'g'ul tillariga oid ***aymaq//aymoq//aymat*** so'zlari xalq ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 56].

Mazkur so'z tatar, yoqut tillarida ***qabila, urug'***; qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ***mamlakat, bog', el, o'lka*** kabi ma'nolarni ifodalaydi [T.Nafasov, 10].

Mo'g'ul tilida ***aymat//aymoq*** deyilganda qarindosh oilalar ittifoqi birlashmasi tushunilgan [S.Qorayev]. ***Aymat*** komonimi aslida etnonim bo'lib, keyinchalik oykonimga aylangan. Ushu etnooykonim ot so'z turkumiga mansubdir.

AYMATSOY – soy. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Gidronimning birinchi komponenti ***Aymat*** so'zi aslida etnonim bo'lib, gidronimga ko'chgan. Geografik termin "soy", "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" [O'TIL. 3, 545].

Yuqoridagilarga asosan mazkur etnogidronimni "Aymat qishlog'ida joylashgan yoki oqib o'tuvchi kichik daryo" shaklida tavsiflash mumkin.

AYMATTEPA – tepalik. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi te-

palik nomi. Aymat termini, aslida, (bu nom xususida yuqorida batafsil izoh berildi) etnonim, biroq mahalliy xalq tepalikni shu nom bilan atashgan.

AYMOQARIQ – ariq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi ariq nomi. Ma'lumki, *aymoq* – mo'g'ul tilidan kelib chiqqan so'z. B.Y.Vladimirsovning so'zlariga qaraganda, uning asosiy ma'nosi *"yig'im, qandaydir bir yaqin turlarni birlashtirish"*dir.

Shunday qilib, aymoq – bu ittifoq yoki qadimgi urug'lardan kelib chiqqan turli shohalar, qarindosh oilalarini birlashtirish demakdir (Б.Я. Владимирцов. Общественный строй монголов. С. 137).

T.A.Bertog'ayevning ta'kidlashicha, aymoq ikkita komponentdan tashkil topgan – *aymoq*: o'zak so'z – *ay* ko'proq mo'g'ul qabilalari xalq og'zaki ijodi asarlarida *"cheklanmagan miqdordagi ko'plik", "cheksiz, son-sanoqsiz"*. V.V.Bartold shunday hisoblaydi, *aymoq* so'zi taxminan turkcha il (xalq) so'zi bilan bir xil ma'noni ifodalaydi: "har ikkalasi ham dastlab "qabila" so'zini ifodalagan, ammo siyosiy birlashma sifatidagi katta qabila ittifoqlarini ifodalash uchun qo'llanilgan.

Afg'onistonda *"char (chaxar) aymoq"* ("To'rt aymoq") ifodasi ko'chmanchi xalqlarni ifodalagan (jamshidlar, hazoriylar, firuzkuxlar, teymenlar)" (В.В.Бартольд. Сочинения, т. V. С. 489). Umuman, aymoq so'zi turli hududlarda turlicha qo'llanilgan.

Qirg'iz tilida u *"mamlakat", "o'lka", "hudud"* ma'nolarini ifodalaydi. Hozirgi mo'g'ul tilida u ko'p ma'nolarni ifodalaydi: 1) hududiy birlik: 2) qabila: 3) bo'lim, tur: 4) so'z turkumlari (Монгольско-русский словарь. – М., 1957. С. 27).

AYOQQUDUQ – qishloq. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi qishloq nomi. ***Ayoq*** – turkiy va turkiy tillariga oid qadimiy so'z. XI asr turkiy tilda *ayiq kosa, yog'och, kosa, tovoq, idish*. XV-XVI asrdagi o'zbek tili yodgorliklarida ***ayoq – ayog'*** – *qadah, jom, may, kosa; ayoqchi – ayog'chi – soqiy, may quyuvchi*; qozoq, uyg'ur, qoraqalpoq, qirg'iz, qumiq, qorachaybolqar, no'g'ay, boshqird, oltoy turk tillarida ayoq – kosa, tovoq, hajm o'lchov birligi: qadah, piyola. Yoqut tilida ayaq – teshik, kirish yo'l. Teshik o'rni, og'iz, qimiz ichadigan katta tovoq (jom). Mo'g'ulcha ayacha – ayag'a, kosa, tovoq va shular singari uy-ro'zg'or buyumlari yasovchi shaxs. Bu yog'och kosada may, qimiz suzib beruvchi, soqiy, kosagul. Birinchi ma'no – bosh, asosiy va qadimiy, qishloq nomi ikki qismdan iborat: ***Ayoq*** – *yog'ochni yo'nib, taroshlab kosa, tovoq singari ro'zg'or ashyolari yasovchilar*; **quduq** – *ya'ni, shu qishloqda quduq borligini* ko'rsatmoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oyoq – esk. 1) kosa, idish; 2) qadah[1].

AYOZQAL'A – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani hududidagi arxeologik yodgorlik, shu

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.523.

hududning nomi. Miloddan avvalgi IV–II asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat. Bir necha turkiy xalqlar folklorining qahramoni Ayoz nomi bilan atalgan.

AYRI GAZA – cho'qqi. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi cho'qqi nomi. Oronimi "***ayri***" va "***gaza***" qismlardan tashkil topgan.

Ayri so'zi "biror joyidan ikkiga tarmoqlangan" ma'nosiga ega" [O'TIL. 1, 54].

Gaza so'zi esa "tog'larda va tog' oldi qirlarida relyefda bo'rtib, turtib chiqqan tog', tog' tepasi, alohida tepalar" [G'ulomov, 1994: 25].

Demak, ***Ayri gaza*** – biror joyidan ikkiga tarmoqlangan alohida do'nglikdir.

AYRONKO'L – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Tumandagi qadimiy nomlardan biri bo'lib, rivoyatlarga ko'ra qadimda bir odam bu ko'lda qushini yo'qotgan va shundan hayron bo'lib yurgan. Shundan keyin bu ko'l *Hayronko'l* nomi bilan atala boshlagan hamda keyinchalik mazkur hudud *Ayronko'l* nomini olgan. Har qanday rivoyatning ham tagida qaysidir ma'noda kichkina haqiqat yotishini inobatga olsak, bu haqiqatga yaqinroqdor. Chunki tilshunoslikdagi fonetik qonuniyatlarga asosan tovush tushish hodisasi mavjud bo'lib, Xorazm shevasida so'z boshida tovush tushishi bor, masalan, Hayitjon, Hayitboy ismlaridagi so'z boshidagi ***h*** harfi tushirilib, Aytjon va Aytvoy tarzida talaffuz qilinadi, shunday ekan, *Ayronko'l* ham *Hayronko'l* bo'lishi mumkin.

Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga qarashli qishloq nomi ham shunday nomlanib, u quyidagicha izohlanadi: "O'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan birining nomidan olingan. Tilshunoslar fikricha, *-chi* affiksi ma'nosiga ko'ra, toponimikada *-lik* affiksiga yaqin: *ayronchi – ayronli(k), farg'onachi – farg'onalik* va h.k. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida ham shu nomli qishloqlar bor.

Shuningdek, Andijon viloyatining Andijon tumani; Qashqardayo viloyatining Koson va Kitob tumanlarida ham shunday nomli toponim mavjud. Nayman qabilasi urug'laridan biri ayronchi deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 102). Shunday fikrlar ham bor, *ayronchi* so'zi *ironchi – "eronlik", "erondan kelib chiqqan odam"*.

Mazkur toponim Respublikaning juda ko'p hududlarida uchrab, uning ma'nosi yuzasidan turli xildagi rivoyatlar va afsonalar qayd etilsa, shu bilan bir qatorda, soha olimlarining har birisi o'z nuqtayi nazaridan yondashgan. Masalan, Qashqadaryo viloyati Koson, Kitob tumanlaridagi ushbu nomning ma'nosi yuzasidan tilshunos T.Nafasov quyidagi fikrlarni qayd etadi: "O'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan biri – *ayronchi*. Urug'iga nisbat berilib, qishloq nomlangan. Etnonimning tarkibi: *ayron+-chi*. *Ayron* – qush turi, *-chi* qo'shimchasi

etnonimiyada *"mansublik, tegishlilik"* ma'nosidan tashqari, *"to'da, jam', to'p, jamoa"* ma'nolarini ham anglatgan: *ayronchi* – ayron qushini totem deb biluvchi jamoa".

AYRONCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan, Shofirkon, Buxoro tumanlaridagi qishloqlar nomlari. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomidir. Kenagaslarning ayronchi degan urug'i bor. Mazkur toponim *Ayron* so'zi va *-chi* morfemasining qo'shilishidan tuzilgan. *-chi* affiksi esa kasb-hunar oti hosil qiluvchi qo'shimcha hisoblanadi.

Navoiy viloyatining Navoiy, Qiziltepa tumanlarida ham shunday nomli qishloqlar nomlari uchraydi.

AYTEKE – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy, Kegeyli tumanlaridagi ovul nomi. Kegeyli tumanida 8 ovul *Ayteke* deb ataladi. Qoraqalpoqlarning qitay qabilasi tarkibidagi ayteke degan urug' nomi bilan atalgan.

AYUCHI – qishloq. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi qishloq nomi. Ayuchi – dashti-qipchoq urug'i bo'lib, o'zbek va qirg'izlar tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarining nomlaridan biri ham ayuvchi – ayuchi deb nomlanadi (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –Т., 1974. С. 123).

AYG'IRTEPA – qishloq. Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi. *Ayg'ir* – "ayg'ir ot", toponimiyada "yirik", "katta" ma'nosidadir; shunday tushunchadagi *Ayg'irtepa* – katta, yirik tepalik. *Ayri, ayriq* – "ikkilangan", "ikki cho'qqisi bilan" nomli geografik terminlar bor (tovushlarning almashishi natijasida *"ayriq"* so'zi *ayg'ir* shaklini olgan), *Ayg'irtepa (Ayriqtepa)* – "ikkita cho'qqili tepalik", "ikki boshli tepalik" ma'nosini ifodalaydi.

AZIZBULOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Gidronimning birinchi komponenti erkaklar ismi bo'lishidan tashqari, arabchada "ulug', qadrli" semalarini ifoda etadi. Geografik atama "buloq" – "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" [O'TIL. 1, 371]. Demak, mahalliy aholi buloq suvining shifobaxsh xususiyatlariga ishonishi vajidan shunday nom bergan deb taxmin qilishimiz mumkin.

AZIZQUDUQ – qishloq. Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. XI asr turkiy tilida ***aziz*** – *baland yer, aziz tog' – baland tog' yoki oshib o'tish mumkin bo'lmagan tog'* hisoblangan. Aziz, adir so'zlari o'zakdoshdir. "Devoni lug'atit turk"da uch so'z o'rtasida *d* tovushiga o'xshash talaffuz qilingan. Aziz, adir so'zlaridagi umumiy ma'no tog' etaklaridagi past-baland joy, tekislik so'ziga qarama-qarshidir. Keyinchalik adir leksemasi tilda saqlanib qolgan, azizning yuqoridagi ma'nosi iste'moldan chiqqan, lekin toponimiyada saqlanib qolgan.

Shunday ekan, ***Azizquduq*** – *"tog' etagidagi yoki baland joydagi quduq yoki qishloq"* demakdir.

AZLARBOVA – ziyoratgoh. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi ziyoratgoh nomi. Arabcha "aziz" so'zining shevadagi shakli va "muqaddas ziyoratgoh joylar" tarkibida qo'llanadigan "bobo" so'zlaridan yasalgan toponim.

AZLARTEPA – tepalik. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tepalik nomi. Oronim ***azlar*** va ***tepa*** birliklaridan tarkib topgan, qo'shma oronim. ***Azlar*** o'zbek adabiy tilidagi shayx so'zining dialektal muqobili. Shayx so'zi tarixiy-etimologik manbasiga ko'ra, arabcha bo'lib, *"qariya, keksa; urug', qabila boshlig'i; diniy rahbar; olim, murabbiy"* lug'aviy ma'nolariga ega. Shayx lug'aviy birligi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: *"Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, avvalo, bilimdon kishilarga, so'ngra ulamo va faqihlarga berilgan nom; keyinchalik muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan*[1]*"*.

Samarqand shevalariga xos azlar so'zi aynan shu ma'noda qo'llanadi. Tarixchilarning qayd etishlaricha, Nurobod tumani Jom atrofidagi har bir qishloqda shayxlar, ya'ni azlarlar xilvatgohi bo'lgan. Bu joydan zokirlar, hofizlar va boshqa ixlosmandlar qadami uzilmagan. Haftada ikki marta halim va no'xat unidan tayyorlangan non tekin tarqatilgan[2].

Azlarlar nazr yiqqan. Ular ana shu xilvatdagi tadbirni o'tkazuvchi asosiy shaxslar bo'lgan.

Keyinchalik bu joylarda xonaqohlar va qabrlar ham yuzaga kelgan.

Azlartepa atrofida *Azlartut, Qadamjoy* kabi ziyoratgohlar ham bor.

Qadamjoy – Azlartutning sharqi-shimoliy tomonida joylashgan muqaddas tosh.

Qadamjoy xususida mahalliy xalq orasida bir necha fikrlar bor.

Emishki, Kamol shayx to'xtab dam olayotganda, kofirlarga ko'zi tushadi va o'rnidan turib ularni quvayotganda, Allohning amri bilan ularning izlari toshga tushgan. Aytishlaricha, bu izlar to qiyomatgacha turar emish.

Kamol shayx bu joydan Cho'nqaymishga o'tgan va o'sha joyda yashab, vafot etgan. Qabri tepalikdan qisman nishabda joylashgan.

Tog'dagi ulamolardan biri Jo'ra boboning qizi Iqlim buviga aytgan gaplariga qaraganda, Kamol shayx Farg'onadan kelgan. Z.Sarimsoqov, H.Sarimsoqovlarning fikricha, bu ulug' zot Kamol shayx Iqoniydir[3].

Demak, *Qadamjoy* shayxlar, xususan, Kamol shayx qadami izi qolgan joy (tosh) sifatida shunday atalgan.

AG'RON – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Nayman qabilasining bir tarmog'i ag'ron deb yuritiladi.

---

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 4-j. – B.535.

[2] Sarimsoqov Z., Sarimsoqov H. Jom javohirlari. – Toshkent: Navro'z, 2012. – B.44.

[3] Sarimsoqov Z., Sarimsoqov H. Jom javohirlari. – Toshkent: Navro'z, 2012. – B.45.

1926-yilgi aholi ro'yxatida Narpay tumani Qo'rg'on qishloq kengashida *Ag'ron qishlog'i* deb qayd qilingan.

ASHAQQAL'A – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. Xorazmcha *oshaq* – past, pastki; *qal'a* – shahar (*Ashaq-qal'a* – "pastki, quyidagi shahar").

Demak, *Ashaq qal'a – "quyidagi, pastdagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

ASHIRQULMERGAN – mahalla. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi mahalla nomi. Toponimikada kishilarning ismiga amali, mansabi, laqabi, kasbi, tabaqasi qo'shib aytilishidan hosil bo'lgan joy nomlari ko'p. Bu o'rinda kishi ismiga uning xislati (bexato otishi, merganligi) qo'shilishidan joy nomi hosil qilingan bo'lishi mumkin. Viloyatda *Alimergan, Qurbonmergan, To'xlimergan* kabi joy nomlari bor. Mergan etnonim (xalq nomi) bo'lishi mumkin, chunki *Mergancha, Mergan-to'pi* nomlari shundan dalolat beradi.

Bunday nom bilan ataluvchi qishloqlarning odatda yonma-yon, bir hududda uchrashi ham diqqatga sazovor. Andijon viloyatining Marhamat tumanida *Hasanmergan, Shukurmergan,* Fargona viloyatining O'zbekiston tumanida *Ashirqulmergan, Qurbonmergan* kabi joy nomlari uchraydi.

ASHPORIYON – Andijon viloyatidagi qishloqcha nomi. "Boburnoma"-da Andijondan janubdagi tog'larda yashovchi elat sifatida qayd etilgan va mazkur elat yashagan joylar shu nom bilan atalgan. Bobur 914 (1498–1499)-yili Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbalga qarshi kuch to'plash uchun Qosimbekni *Ashporiyonga* jo'natgan va mazkur elatdan o'ziga navkarlar olgan. *"Qosimbekka Pashog'ariydin va yangi navkar bo'lg'onlardin va Ali Do'st bekning navkarlaridin yuzdin ko'prak kishi qo'shub, Andijonning janub tarafidag'i tog' ellariga, misli Ashporiyon va To'ruqshoron va Chakrak va ul navohilarg'a yiborildikim, istimolat bila yo zo'r bila bu ellarni kelturgay... va ul navohidag'i tog' va tuzdagi raiyat va aymoq tamom kirdilar"* (B. 68).

ASHXOBOD – mahalla. Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, *Ashxobod* – bir paytlari mazkur hududda o'ziga xos tarzda shirin taomlar tayyorlangani va shu sababli u yerni Oshi obod mahallasi deb nomlangani qayd etiladi, biroq bu munozaralidir, u xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, aslida u o'sha davrdagi rahbariyatning topshirig'iga asosan tez nom topish maqsadida to'satdan atalgan nom bo'lishi mumkin.

Aslida esa, Turkmanistonning poytaxti Ashxobod shahrining nomi bilan atalgan toponimdir.

ACHAMAYLI//OCHAMAYLI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi qishloq. Respublikaning bir necha tumanlarida ham *Achamayli/Ochamayli* qishlog'i mavjud. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri – achamayli. O'zbek xalqining qadimiy etnik birligi bo'lganligi bois so'nggi davrlarda turli qabila va urug'lar

tarkibiga singishib ketgan. Shu bois qo'ng'irot, kenagas, yuz, do'rman, nayman, qurama, marqa qabilalari tarkibida achamayli urug'i mavjud.

Achamayli – umumturkiy etnonim, qoraqalpoq va qozoqlarning *achamayli/atamayli* urug'i aniqlangan. *Achamayli/ashamayli* etnonimining tarkibi: *acha+mayli*. Ba'zi manbalarda achamay+li tarzida talqin qilingan. Ho'kiz, qo'tosga uriladigan egar yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar *ochamay/achamay* deyilgan. *Achamayli* – tamg'asi egar shaklidagi urug' demak (O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar. – Samarqand, 2003. – 20-bet).

Boshqa izoh: etnonimning tarkibi: *acha/ocha+mayli/moyli/boyli* – *achamayli/ochamayli/ochaboyli*. Boyli qabilasining urug'i – *achamayli/ochamayli/achaboyli*. Boy – qush turi, totem. Boyli qabilasining bir urug'i – *achaboyli/ochamoyli/achamayli*. Urug' nomi bilan qishloq atalgan.

Shuningdek, Samarqand viloyati Urgut va Bulung'ur tumanlari, Toshkent viloyatining Bekobod, Bo'ka tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ham shunday nomli qishloqlar bor. *Ochamayli, Achamoyli* shakllarida talaffuz qilinadi. *Achamayli* boshqa turkiy xalqlar tarkibida, jumladan, qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi (*ashamayli*). T. Nafasov fikricha, bu izoh etnonimning lingvosotsiologik xususiyatiga to'g'ri kelmaydi. *Achamay – "may-bay-moy-boy"* qushining bir turi, bu qush shu qabilaning totemi sanalgan. Totem etnonimga aylanib, *-li* affiksi qo'shilgach, jamlik – kishilar jamoasi ma'nosini ifodalagan (Nafasov, 1988: 19).

ACHAVOT – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. Sebzor dahasidagi qadimiy mahalla nomi bo'lib, Chimboy, Yov va Sag'bon mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan va shahar mudofaa devoriga tutashgan.

Mazkur nomning ta'rifi yuzasidan turlicha talqinlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi munozaralidir.

A.Muhammadjanovning fikricha, ilk o'rta asrlarda zodagon ayollar yashagan joy (Achavot – katta ona qo'nog'i) hisoblangan.

Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, Achavot nomi joyning tabiiy xususiyatidan kelib chiqqan, ya'ni zaxkash achchi suvini o'zlashtirish natijasida Achchiobod – Achavot atamasi paydo bo'lgan (S.Qorayev).

Achi etnonimi ham bor (**achchi**) (H.Hasanov). Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning (XIX asr) "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Jumanbiy madrasasining Achchi mavzeyida 150 tanob yerdagi daraxtzordan iborat vaqf bo'lganligi yozilgan. Aholisi hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Ana shu so'nggi fikrlar haqiqatga yaqindir.

Demak, Achavot, xususan, Achiobod – "achi qabilasi vakillari tomonidan o'zlashtirilgan va obod qilingan" mahalla nomi bo'lib, shuning uchun mazkur mahalla shunday atalgan.

ACHISOY – buloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi gidronim. Viloyat hududida Sho'rtepako'l, Sho'rnavo bulog'i (Urgut), Sho'rbuloq (Bulung'ur), Sho'rtepaariq (Oqdaryo) kabi nomlar uchraydi. Mazkur nomlarning ba'zilari qishloq nomlari bilan aloqador. Biroq gidronimlar tarkibida uchraydigan "sho'r", "achchi" singari terminlar bu obyekt foydali qazilma bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Bu borada geolog R.Musin shunday yozadi: "Agar joy nomi Achchisuv, Ashshibuloq, Sho'rsuv, Sho'rbuloq deb atalsa, u yerda albatta ruda bo'ladi, chunki achchiq toshlar sulfidlarning yoki oltingugurtlarning parchalanishidan hosil bo'ladi".

ACHCHI – qishloq. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi qishloq nomi. Birinchi marta (XVI asr) Abdullaxon tarixida Achiq shaklida tilga olingan ("Abdullanoma", t. II. 219-bet. Ochik ("Abdullanoma" II. 252-bet). Achik (ochiq) (ochiq joyda joylashgan). *Achchi* dialekti "achchiq", "tuzli" (qishloq suvining ta'mi haqiqatda achchiq – tuzli bo'lgan). Achchi urug'i mashhur. Qadimgi turkiy yozma manbalarida *ach* yoki *achiq* etnonimi esga olinadi (М.И.Боргояков. Хакасские этнонимы тюркского и нетюркского происхождения. – "Происхождение аборигенов Сибири". –Томск, 1969. –С. 10). Samarqand viloyatining Xatirchi tumanida ham Achchi qishlog'i mavjud.

ACHCHIQKO'L – mahalla. Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi mahalla va mavze nomi. Gidronimlarni nomlashda suvning maza-ta'mi, hidi va haroratiga nisbatan nom olgan toponimlar alohida guruhni tashkil etadi (Oxunov., 1989). *Obishir, Issiqsuv, Shirinbuloq, Sho'rsuv, Sassiqko'l* kabi geografik nomlarning yaratilishida mazkur tamoyilga amal qilingan.

Shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo daryolari qirg'og'idagi ko'pchilik ko'llarning nomi. *Achchiqko'l* – "tuzli ko'l".



BADAL – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. 1904–1905-yilgi aholi punktlari ro'yxatida *Badalqorovulbegi* deb qayd qilingan. Toponim *Badal* (shaxs ismi) va *"qorovulbegi"* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. ***Qorovulbegilar*** harbiy tabaqaga mansub amaldorlar bo'lib, ularning qo'l ostidagi kishilarning bir guruhi harbiy yurishlar davrida xon o'rdasini qo'riqlagan va "keshik qorovul" deb yuritilganlar.

Ikkinchi bir turi asosiy qo'shindan oldinda yurib, dushmanning xatti-harakatlari haqida markazga xabar yetkazib turgan, ya'ni xabarchi vazifasini bajargan (Axmedov, 1982:173).

Demak, *Badalqorovulbegi* toponimi mazkur qishloq bilan bog'liq shaxs nomi va uning unvoni asosida hosil bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan unvon talaffuzda tushib qolib, *Badal* so'zi qishloq nomi bo'lib qolgan.

BADALSOY – soy. Toshkent viloyatining Ohangaron va Bo'stonliq tumanlaridagi soy nomi. Mazkur soyning nomi haqida ikki xil talqin mavjud. Bulardan biri *badal* – "chakalakzor", "butazor" degan so'z bo'lsa, ikkinchisi laqay qabilasining kichik bir tarmog'i badal deb atalgan (Karmisheva, 1976:100).

BADAY//BADOY – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra yerlari unumdor bo'lganligi sababli jannatmakon deb atalgan. Bu fikrga unchalik ham qo'shilib bo'lmaydi. Aslida ***Baday*** bo'lsa kerak. ***Baday*** – ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi urug' nomi, etnonim. ***Badaylar*** asosan Amudaryoning quyi oqimida, Xorazm viloyatining Urganch, Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanlarida istiqomat qilishgan. XIX asrning boshlarida Surxon vohasiga, Bekobod, Zomin dashtlariga tarqalgan. Tadqiqotchi M.M.Avezovning fikricha, qishloq shu urug' nomi bilan atalgan.

Samarqand viloyatidagi Narpay, Ishtixon, Paxtachi, Oqdaryo tumanlarida ham shunday nomdagi qishloqlar nomlari mavjud bo'lib, ular ham aynan shu ma'noni ifodalaydi.

BADAYOVUL//QO'RIQBADAY – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Qora-

qalpog'iston Respublikasida *Baday-to'g'ay* nomli qo'riqxona ham mavjud.

Baday – ovchilik bilan shug'ullanadigan o'zbek urug'i, (Xorazm viloyatining Urganch tumani, Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani). XIX asr boshlarida *badayliklar* Surxondaryo viloyati bo'ylab tarqalishgan va Bekobod shahri hamda Zomin posyolkasi oralig'ida joylashgan.

BADOQSOY – soy. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi soy, Piskom daryosining yuqori oqimidagi chap irmog'ining nomi. Buxoro viloyatida *badoq, bodoq* deb katta ariqdan chiqarilgan ariqqa (suvga) aytiladi. Bu yerda iyak tagi – botoq ma'nosida bo'lsa kerak. Tepa, tog' tagidagi soy deyish mumkin. Soyning nishabligi juda yuqori bo'lib, tor o'zanda, tez oqadi. Etnonimlar tarkibida ham bodaq degan urug' qayd etilgan. Lekin bu yerda, joyning tabiiy geografik xususiyati toponimga asos bo'lgan.

BADRAQJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani hududidagi uzunligi 15 km bo'lgan sug'orish tarmog'i. U "Janadaryo" QFY aholisini suv bilan ta'minlaydi. U Quvonchjarmadan bo'linib, Qorag'ash va Marjanko'l aholi punktlarining shimoliy qismidan oqib o'tadi.

Hammamizga ma'lumki, tarixda XX asrning boshlarida yollanma ishchilar Batraklar deb atalgan, bu sug'orish tarmog'ining qazilishida ham Batraklar qatnashgan va sug'orish tarmog'ining nomi shu nom bilan atalgan.

BAGIS – qishloq. Toshkent viloyatidagi qishloq nomi. Mazkur toponim Farg'ona viloyatida ham uchraydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ***Bagis*** va ***Bagish*** qirg'iz urug'lari nomlaridan biri bo'lib, u bulan demakdir (S.Qorayev, 1977, 24). E.Murzayevning e'tirof etishicha, ***bag*** va ***bak*** geografik termin hisoblanib, u *"cho'qqi, yuqori manba"* degan ma'noda qo'llaniladi (E. Murzayev. Ocherki. 129). Bagis toponimi aynan shu termin asosida vujudga kelgan. Respublikamizning ayrim hududlarida uchraydigan ***Poybagish*** (*Poybagis – "cho'qqi pastidagi qishloq"*) va ***Saribag'ish*** (*Sari bag'ish – "cho'qqi oldidagi qishloq"*), ***Cho'ngbag'ish*** (*Cho'ng bag'ish – "katta qishloq"*) kabi toponimlarning mavjudligi buni yana bir karra isbotlaydi.

Demak, ***Bagis*** toponimi *"cho'qqi, yuqori manba"* degan ma'noni ifodalaydi.

BAHORISTON – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim bahor so'ziga o'rin-joy oti yasovchi *-iston* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. U fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "gullab-yashnagan bog'" ma'nosini ifodalaydi hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: "Bahorga makon bo'lgan, doim yashnab turgan o'lka, mamlakat" (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 198-bet).

BAHRIN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi qishloq nomi. Respublikaning ko'pgina tumanlarida Bahrin qishlog'i borligi

ma'lum: *Bahrinbayot* (Qorako'l), *Kattabahrin, Kichikbahrin, Bahrinovul, Tolbahrin, Etakbahrin*. Bahrin – turkiy qabila.

O'zbek, qirg'iz, turkman xalqlari tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan biri – bahrin. Elshunoslar bahrinlarni turkiylashgan mo'g'ul qabilasi deb qarashadi. Mo'g'ullar istilosi davrida bahrinlar Dashti Qipchoq hududiga kelib o'rnashganini bunga dalil qilib keltirishadi. Bahrin qabilasi ham turkiy xalqlar, ham mo'g'ul xalqlari tarkibida bo'lgan. Turkiylashish Chingizxon istilosi davrida kelgan bahrinlarda yuz bergan.

Bahrinlarning O'zbekiston hududiga kelib o'rnashib qolishi Shayboniyxon yurishi bilan bog'liq. Bahrin qabila nomiga totem asos bo'lgan. *Lochinning bir turi – bahrin*. Bahrinlarni qushbonlar qo'lga o'rgatib, qush va boshqa jonivorlarni ovlashgan. Qabila jamoasi bahrin qushiga sig'inishgan, tug'iga qush tasvirini tushirishgan. Totemistik qarash tufayli qabila totemi nomi bilan atalgan. Aholisining etnik mansubligi asosida qishloqlar nomlangan. Bahrin – bahrin qabila jamoasining qishlog'i.

Andijon viloyatining Asaka tumani; Samarqand viloyatining Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Paxtachi tumanlari; Navoiy viloyatining Xatirchi tumanlarida ham, shu kabi hududlarda ham Bahrin nomli toponimlar uchraydi.

BAHRINBAYOT – qishloq. Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qishloq bahrin va bayat urug'lari ismlari bo'yicha nomlangan. Baxt (1964-yilgacha – Buyuk Alekseyevskiy) – Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani, shahar posyolkasi. Hozirgi nomi: Baxt.

BAHRINOBOD – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar Bahrin deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda Bahrinobod deb o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi ikkita so'z – *"bahrin"* va *"obod"* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – ***bahrin*** so'zi urug' nomi, etnonim hisoblanadi. Bahrin – turklashgan mo'g'ul qabilalaridan biri. Mo'g'ullar hukmronligi davrida bahrinlar Dashtiqipchoqqa kelib o'rnashgan. XVII–XIX asrlarda bahrinlarning katta bir qismi Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi (Marg'ilon atroflari), Zarafshon vodiysida o'troqlashib qolgan.

Y.R.Vladimirsovning ma'lumotlariga ko'ra, bahrin qabilasi mo'g'ullarning afsonaviy ajdodi Bo'do'nchardan tarqalgan urug'lar orasida eng katta tarmoq bo'lib, Bo'do'ncharning katta o'g'li Bahrindayning avlodidir. Toponimning ikkinchi komponenti – *"obod"* so'zi esa ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib, joy nomini yasaydigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan" ma'nosidagi affiks.

Demak, *Bahrinobod – "bahrin qabilasi vakillari tomonidan o'zlashtirilgan yer(dagi qishloq)", "bahrin qabilasi vakillari obod qilgan joy"*, – degan ma'nodadir.

BAJANAK//BEJANAK//BIJANAK – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq va Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. Etnotoponim.

Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlarning o'n to'qqizinchi urug'i *bəjənək (bajanak)* deb qayd qiladi. Rashididdin bu nomni *Bədjənə* shaklida qo'llaydi va bu Ko'kxonning ikkinchi o'g'lining ismidir, deb yozadi. So'zning ma'nosini esa "ezgu ishlar sohibi" deb izohlaydi.

Abulg'ozi Bahodirxon esa bu nomni *bechene* "bajo keltirukchi" deb tilga oladi[1]. Ibn Rusa, Ibn Fadlan, al-Ma'sudiy kabilarning arab tilida bitilgan yodnomalarida qayd etilishicha, pecheneglarning qadimgi yashagan o'rni Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, shuningdek, Orol dengiziga yaqin hududlarning shimoli-sharq va shimoli-g'arb tomonida bo'lgan[2]. Biroq qadimda biz bajanak deb yuritgan qabila boshqa nom bilan ma'lum.

Makedonskiylar dinastiyasining to'rtinchi imperatori va mashhur muarrix Konstantin Bagryanarodniyning bergan ma'lumotiga qaraganda, qadimda pechenglar janubiy rus dashtlariga ko'chib kelmaslaridan oldin Kangar (xauuar) nomi bilan ma'lum bo'lgan. U o'zining mashhur "Davlatni boshqarish haqida" deb nomlangan risolasida bu so'zning yaxshilik va saxiylik ramzi bo'lganini, shuningdek, "pechenglar hozir ham (948-952-yillarda) shu nom bilan Kangar deb yuritiladi, ammo hammasi emas, faqat uch okrugda..." deb qayd etadi.

A.M.Shcherbak runik, manixey va uyg'ur yozuvlaridagi qadimgi turkiy matnlarda pecheng nomining uchramaganligi hamda bu nomning ancha kech qo'llana boshlaganligiga asoslanib, bu xalq O'rta Osiyoga kelgandan keyin uning pecheng nomi tarqalgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi[3].

Darhaqiqat, Orolbo'yi va Janubiy rus cho'llari xalqlari haqida yozilgan barcha tarixiy va geografik asarlarda pechenglar faqat shu nom bilan tilga olinadi. Qiyos qiling: sharqiy slavyanchada *pechenezi, печенеги*; arab manbalarida *bажnak*, fors tilidagi tarixiy asarlarda *bажanak, biжanak*; venger tilida *besenuo, bisseni, picenati, bessi, bysseni, wisseni;* polyak manbalarida *piecinigi, pieczyngi, pincenasiti*; nemis tilida *Pezineigi, Pezenegi, Pedenei, Petinei*; qadimgi yahudiy manbalarida *patsinak, putsigax, parsinak; tyurk, beжenak, bəjənək* kabi.

---

[1] Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абулгазихана Хивинского. – М, -Л., 1958. –С. 53.

[2] Щербак А.М. Знак на керамике кирпичах из Саркела-блой веже (К вопросу о языке и письменности печенегов) // Материалы исследования по археологии СССР, №75. т. ИИ. –М., –Л., 1959. –С. 372.

[3] Щербак А.М. Знак на керамике кирпичах из Саркела-блой веже (К вопросу о языке и письменности печенегов) // Материалы исследования по археологии СССР, №75. т. ИИ. –М., –Л., 1959. –С. 369.

A.M. Shcherbakning ta'kidlashicha, yuqorida qayd etilgan turli shakllarning hammasi turkiy tillardagi shakliga (*bejenak, bəjənək*) – Mahmud Koshg'ariy "Devoni"dagi ko'rinishiga asoslangandir[1]. Etnonimning kelib chiqishi va uning ma'nosini izohlashga urinish natijasida uning turli xil talqinlari vujudga keldi.

Jumladan: "Pecheng" so'zining ma'nosini aniqlashga uringan shved olimi I.Stralenberg va daniyalik tarixchi P.F.Sum uning ildizlarini slavyan tillaridan izlaydi. Ular pecheneg etnonimi ruscha *pech* yoki *pyos* (ko'ppak) va polyakcha *pecznieju*, ya'ni "katta ishlar qiluvchi" degan ma'nolarni anglatadi, deb hisoblaydi.

D.P.Yevropeus *pecheneg* so'zini ugor tillarida mavjud bo'lgan *petsen* "qarag'aysimon, o'rmon kishilari" so'zi bilan bog'laydi.

Ayrim tarixchilar etnonimning ugor tillari bilan bog'lab izohlanishini to'g'ri deb hisoblaydi. IX asrda pecheng urug'i vakillari Volga orqasini bosib olib, u yerda pechenglar ittifoqini tuzadilar. Bu ittifoqqa o'rmonda yashovchi ayrim fin-ugor qabilalari ham kirganligi ma'lum. Bu tarixiy voqea bilan bog'lab etnonimning izohini ugor-fin tillari orqali izohlaydilar.

V.V.Bartold etnonimning etimologiyasini turkiy tillardan izlaydi va uni "kuyov" deb talqin qiladi. V.V.Bartoldning bu izohi keyinchalik qator tadqiqotchilar tomonidan quvvatlandi.

O.Pritsak bu etnik guruhning ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganligi va uning nomi turkiy tillardagi *baji, bäжä* (boja) so'zi bilan aloqadorligini aytadi. V.Bang ham bu fikrni qo'llagan holda etnonim tarkibidagi *-nak* jamlik ko'rsatuvchi affiksdir, deb hisoblaydi. A.M.Shcherbak ham bu fikrga qo'shiladi.

Darhaqiqat, turkiy tillarning ko'pchiligida *baja* termini nikoh orqali qarindoshlik bildiruvchi so'z sifatida qo'llaniladi. Qiyos qiling: o'zbekcha *boja*, uyg'ur tilida *baжa*, qozoqcha *baжa*, qoraqalpoq tilida *baжa*[2], qirg'izchada *baja*, turkmancha *baжa*, o'zbek shevalarida *baja/bayja/ba:ja*[3]; turkchada *bacanak, kayin* (qayinog'a) ma'nosiga ega[4]. (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, 2012).

BAKOVUL – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Xonga beriladigan ovqatni totib ko'ruvchi va saroydagi ziyofatni boshqaruvchi amaldor – bak-

---

[1] Щербак А.М. Знак на керамике кирпичах из Саркела-блой веже (К вопросу о языке и письменности печенегов) // Материалы исследования по археологии СССР, №75. т. ИИ. –М., –Л., 1959. –С. 368-369.

[2] Русско-каракалпалский словарь. –М.: Советская энциклопедия, 1967. – С. 913.

[3] Ismoilov I.. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. –Toshkent: Fan, 1966. – B. 140; O'zbek xalq shevalari lug'ati. –Toshkent: 1971. –B.334. (Lug'atning qarindoshlik terminlari qismi A.Ishayev tomonidan tuzilgan).

[4] Yusuf B. Turkcha-o'zbekcha va o'zbekcha-turkcha lug'at. –Toshkent: O'zbekiston. 1993. –B.17.

ovul nomi bilan yuritilgan[1]. V.Radlov lug'atida bu so'zga "*oshpaz va boshqaruvchidan yuqori bo'ldan saroy lavozimi*" deb izoh berilgan[2]. Buxoroda xon oshxonasini boshqarib boruvchi shaxsning mansabi, "***bakovuli kalon***" deyilgan[3].

Ilmiy manbalarda ***Bakovul//bukovul*** quyidagicha izohlanadi:

1) Chingizxon davrida va temuriylar saroyida taom va ichimliklar tayyorlovchi oshpazlar boshlig'i;

2) Oltin O'rda xonligida qo'shinga maosh-ulufa ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor. Bakovulning hurmat-e'tibori juda yuqori bo'lgan, unga tumanbegi va mingbegilar ham bo'ysungan;

3) Buxoro amirligida saroy dasturxonchisi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi bosh oshpaz – bavurchi, choshnigir.

Demak, Bakovul qishlog'i shu mansab egasiga qarashli yerlarda bunyod etilganligi uchun shunday nom olgan.

BALANDCHAYLA – shaharcha. Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi shaharcha nomi. *Baland* – yer yuzasidan baland ko'tarilib turgan joy. *Chayla* – vaqtincha qurilgan boshpana, odatda, yoz oylarida dehqonlar va chorvadorlar shox-shabba, qamish va turli xashaklardan qurishadi. Ana shunday chaylalar baland joyda yoki boshqa chaylalarga nisbatan balandroqda joylashganligidan shunday nom bilan atalgan.

BALIQCHI – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Shuningdek, Qashqadaryoning Koson tumanidagi qishloq nomi. Oykonim dastlab Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlarda qishloq, mavze (shahar va shahar atrofidagi aholi yashaydigan joylarning kichik hududi, mahallasi) sifatida tilga olinadi. Uning kelib chiqishi haqida xalq orasida turli afsona va rivoyatlar uchraydi. Bir rivoyatga ko'ra, Baliqchi nomi Qoradaryo sohillarida yashagan baliqchi chol nomi bilan bog'lanadi. Cholning daryo bo'yida va hozirgi Baliqchi hududida joylashgan Hisor tepaligi yaqinida qo'rg'on saroyi bo'lib, keyinchalik bu yerlarga boshqa baliqchilar ham kelib o'rnashishlari va ular ham uy-joy, hovli, qo'rg'on qurishlari natijasida Baliqchi, uning atrofida O'rta qo'rg'on, Etak qo'rg'oncha nomli qishloqlar vujudga kelgan.

Shunday bo'lsa-da, ilmiy adabiyotlarda aslida Baliqchi oykonimining paydo bo'lishiga baliq ovlash, baliqchilik sohasining hech qanday aloqasi yo'q deb ko'rsatiladi. Ba'zi tadqiqotlarda Andijon viloyatidan tashqari Farg'ona, Marg'ilon, Qashqadaryo hududlarida ham *Baliqchi, Baliqchito'p, Olimbaliqchi, Baliqchiguzar* singari

[1] Вудагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарский наречий. –Л.: 1969, Т.1. –С.262.

[2] Радлов В.В. Опыт словарья турецкий-наречий. Т. IV. Сп.: 1911, –С.193.

[3] Абдурахимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI первой половине XIX века. –Т.: 1966, –С.84.

joy nomlarining borligi hisobga olinib, mazkur oykonimlarning barchasi ***baliqchi*** urug‘ nomidan kelib chiqqanligi ta’kidlanadi. S.Qorayev fikricha, o‘zbeklarning bir urug‘i, turkmanlarning ersari, boshqirdlarning tanip, qozoqlarning aday qabilasining bir shoxobchasi hamda qirg‘izlarning kichik bir urug‘i ***baliqchi*** deb atalgan. S.Gubayeva V.P.Yudinning ma’lumotlariga asoslanib, yurtimiz hududiga baliqchi etnonimi o‘rta asrlarda Yettisuvdagi Mo‘g‘uliston davlatidan kelgan, deb yozadi. Baliqchi etnonimining yuzaga kelishi haqida ham ayrim qarashlar mavjud bo‘lib, T.Nafasov ushbu urug‘ nomini qadimgi turkiy tillarga oid ***baliq*** leksemasi bilan aloqador, deb hisoblaydi.

Aytish joizki, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ***baliq*** atamasining omonim so‘z sifatida quyidagi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan: 1) baliq (baliqning o‘zi suvda, ko‘zi chetda); 2) loy (arg‘u va ba’zi o‘g‘uzlar tilida); 3) shahar (johiliya davridagi turklar va uyg‘urlar tilida). Mazkur ma’lumotdan kelib chiqib hamda To‘nyuquq yodgorligi, Manixey yozuvlari, Turfon matnlaridagi dalillarga asoslanib aytish mumkinki, turkiy tillarda ***baliq*** leksemasi – “shahar” ma’nosini anglatgan. Shuningdek, olim fikricha, ***baliq*** birligining turkiy tillardagi eng qadimgi ma’nolari – *devor, devor-to‘siq; devor bilan o‘ralgan joy,* ya’ni *qo‘rg‘on, shahar* bo‘lib, bular ichida uning ***qo‘rg‘on, shahar*** ma’nolari keyingi davrlarda paydo bo‘lgan. Ushbu leksema turkiy tillarda *baliq, balig‘, baluq, balix, paliq;* mo‘g‘ul tillarida *balg‘asu(n), balg‘asun, balag‘asu;* tungus-manjur tillarida *falg‘a, falga, palg‘a* tarzida shakllangan (Т.Нафасов. Ўзбек номномаси. – Қарши, 1993. 13–15-бетлар).

Baliq leksemasiga keyinchalik qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida yangi so‘zlar hosil qilingan, turkiy tillarda unga ***-chi, -si*** qo‘shimchalari qo‘shilgan: *baliqchi, baliqsi* kabi. Mazkur yasama so‘zlar dastlab o‘troq aholi – shahar va qishloqda doimiy yashovchi yoki shaharlik ma’nolarini ifodalagan. Tarixchi R.G.Kuzeyevning aniqlashicha, boshqird tilida ***balixsi*** – “istehkomli shahar qo‘riqchisi”, ya’ni “shaharni talonchi ko‘chmanchilar hujumidan saqlovchi kishi (lar)”dir. Urug‘ nomiga ana shu ma’no asos bo‘lib, ma’lum bir kishilar guruhi mazkur ish bilan mashg‘ul bo‘lgan va shu guruh *baliqchi // baliqsi,* ya’ni “qo‘riqchi”, “shahar qo‘riqchisi” deb atalgan. Shuningdek, baliqchi etnonimi tarkibidagi ***-chi*** qo‘shimchasi ham hozirgi o‘zbek tilida biror kasb egasi yoki biror ish bilan mashg‘ul ma’nosida; uzoq o‘tmishda, jumladan, urug‘-qabila nomlari tarkibida esa to‘da, jamlik, ko‘plik ma’nolarini bildirgan. ***Baliqchi*** etnonimi tarkibida esa ushbu qo‘shimcha har ikki ma’noni ham ifodalab kelgan.

Demak, ***Baliqchi*** oykonimi etimoni ***baliqchi*** etnonimi sanalib, nomning lisoniy shakllanishi quyidagi-

cha bo'lgan: ***baliq+chi > baliqchi > Baliqchi.*** Mutaxassislar ta'kidlaganidek, oykonimning paydo bo'lishida baliqchilik sohasining hech qanday aloqasi yo'q, chunki tarkibida baliqchi etnonimi bo'lgan boshqirdlar ham, qozoq va qirg'izlar ham qadimda baliqchilik bilan umuman shug'ullanmagan. Etnonimning yuzaga kelishiga sabab ko'chmanchi xalqning o'troqlashishi yoki shahar va qishloqlarning paydo bo'lishi hisoblanib, ***baliqchi*** etnonimi – "shahar va qal'a qo'riqchisi" yoki "shaharlik" ma'nosini, ***Baliqchi*** oykonimi esa "baliqchi urug'iga mansub kishilar yashaydigan joy" sifatida talqin etiladi. Baliqchi etnonimini qadimgi davrlarda, asosan, chorvador qipchoq turkiy xalqlarida paydo bo'lganini hisobga olib, ***Baliqchi*** oykonimini ham bevosita qipchoq urug'lariga tegishli etnotoponim tarzida izohlash mumkin.

BALIQCHI KO'L – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadimiy hudud nomi. *Балықсһы, Балықсһы kol* mikrotoponimini biz tadqiq qilayotgan joy geografik xususiyatidan kelib chiqib, zootoponim sifatida tahlil qilsak ham, aslida bu nomning yuzaga kelishi barcha hollarda ham zoonim bilan cheklanmaydi.

Baliqchi, Baliqli tarzidagi joy nomlari O'zbekistonning turli hududlaridagi mikro va makrotoponimlari tizimida mavjud. Shuning uchun ham T.Nafasovning "o'zak so'zning *baliq* (рыба) tushunchasiga mutlaqo aloqasi yo'q"[1] degan fikri shu nomli ayrim toponimlarga nisbatan to'g'ri bo'lsa, ayrim, xususan, Baliqli tarkibli gidronimlar yoki aholisining asosiy mashg'uloti baliqchilik bo'lgan Baliqchi nomli ovul, elatlarga nisbatan u qadar to'g'ri kelmaydi. Ana shularni hisobga olgan holda bunday toponimlar tahlilida turkiy tillardagi *baliq* shaklli ikkala tushunchaning qaysi biri muayyan toponim uchun asos ekanligini hudud tarixi, geografik sharoiti, aholisining kasb-kori kabi omillarni e'tiborga olgan holda belgilagan ma'qul. Buning uchun T.Nafasovning yuqoridagi fikrini "barcha hollarda ham" istisnosi bilan to'ldirsak, kifoya.

Qadimgi turkiy tilda ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi *baliq* so'zi To'nyuquq yodgorligi, Manixey va Turfon matnlarida "shahar" ma'nosini anglatadi[2].

V.V.Bartold bu so'zning qadimgi turkiy bitiklarda qayd etilganiga asoslanib, uni barcha turkiy tillar uchun umumiy so'zlar sirasiga kiritadi.

V.V.Radlov *балық, палық* shaklidagi bu so'zning ma'nosini "shahar", "qo'rg'on" deb izohlagan[3]. Shuningdek, bu so'z turkiy tillarga oid eng qa-

---

[1] Nafasov T. "Baliqchi" nomining ma'nosi // Sharq yulduzi. №10. 1991. – B. 198-199.

[2] Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.– С. 41

[3] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. IV. – Сб.б. 1911. – С. 1496.

dimiy lug'atlardan biri ibn Muhanna lug'atida *balыg'* shaklida qayd etiladi[1]. Bu so'z "shahar", "qo'rg'on" ma'nolarida toponimlar tizimida ancha vaqtgacha o'z ma'nosini saqlab qolgan bo'lsa ham, Mahmud Koshg'ariy qaydlaridan uning X-XI asrlarga kelib eskirganini aniqlash mumkin. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy "*balыq* – johiliya davridagi turklar va uyg'urlar tilida – shahar. Uyg'urlarning eng katta shaharlariga *Besh balыq* deyilishi shundandir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga *Yangi baliq* – yangi shahar deydilar" – deb yozadi[2].

Balыq so'zining "shahar" ma'nosi uning nisbatan keyingi shakliy va ma'noviy taraqqiyoti natijasi bo'lib, turkologlar, jumladan, S.Y.Malov, bu so'zning o'zi tarixan yasamaligi, ya'ni "loy" ma'nosidagi qadimgi turkiy *bal* o'zagi asosida yuzaga kelganini qayd etadilar[3]. G.Dyorfer bu so'z "devor" semasidan "qo'rg'on", "shahar" ma'nolariga qadar taraqqiy qilganini asoslaydi. Shu jihatdan *bal* o'zagi qadimgi turkiy Balasag'un toponimida ham ko'rinadi. Hozirgi mo'g'ul tilida *balg'as* "shahar" ma'nosini anglatishi ham tasodifiy emas.

E.V.Sevortyanning mo'g'ul tilidagi bu so'zning tuzilishi turkiy *balыq – balq – balaqa* (shahar) bilan o'zakdoshligini ta'kidlashi[4], uning shakliy va ma'noviy ildizlari naqadar qadimiyligidan darak beradi. Ushbu toponim tarixiy-etimologik tahlilida S.P.Tolstov tomonidan taqdim qilingan talqinni ham ko'zdan qochirmaslik kerak[5].

Yuqorida qayd etilganidek, *baliq* asosi bilan bog'liq toponimlarni faqat uning ma'muriy-hududiy ma'nosi nazarda tutilmaydi. Qrimning janubiy qirg'og'idagi *Balaklava* shahri[6] yoki Volga va Don havzalaridagi joy nomlari tizimida *Balыkley, Balыkleyka* nomlarining uchrashi fikrimizning dalilidir. M.Fasmer bu joy nomlarini turkiy *balykly* (baliqqa boy) so'zi bilan bog'lab talqin qiladi[7].

Ana shularni hisobga olgan holda, bizning hudud toponimiyasidagi *Baliqchы, Balыqlы kol* toponimlarini zoonimik tizim doirasida tahlilga tortishimiz o'rinlidir (Bu haqda qa-

---

[1] Мелиоранский П.М. О монгольском языке. – Санкт-Петербург: Типография императорский академии наук. Вак. Остр... 9 линия, № 12. – 1903. – С. 80

[2] Mahmud Kashg'oriy. Devonu lug'atit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutalibov. II jild. – Toshkent: O'zFAN, 1960, – B. 67.

[3] Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л., 1954. – С. 368.

[4] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на букву "Б") –М.: Наука, 1978. – С. 59-60.

[5] Толстов С.П. Города гузов // СЭ. №3. – С. 71-73.

[6] Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Перевод с немецкого и дополнения О.Н.Трубачева. Том 1. – М., 1964. – С. 112.

[7] Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Перевод с немецкого и дополнения О.Н. Трубачева. Том 1. – М., 1964. – С. 119.

rang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

BALIQCHI OTA – ziyoratgoh. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi "Pichot" MFYga qarashli Baliqchi ota qishlog'ida joylashgan ziyoratgoh, nekronim.

Mazkur hududning tarixini tadqiq qilgan mutaxassislarning keltirishlaricha, Baliqchi otaning asl ismi Bahriddin bo'lgan. Baliqchi ota Ahmad Yassaviy izdoshlaridan bo'lib, Yassaviya tariqatining namoyandalaridan bo'lgan. Bahriddin (Baliqchi) ota yashab o'tgan yillar aniq emas (hozircha). Maqbaraga yaqin joydan katta soy oqib o'tadi. Bu soy shu yerning nomi bilan Pichotsoy deb nomlangan. Bahriddin otaning "Baliqchi" nomini olishiga u kishining mana shu soydan baliq tutib tirikchilik qilgani sabab qilib ko'rsatiladi. Masjidning hozirgi hovlisiga tutashib ketgan tepalikda qo'rg'on, istehkom joylashgan bo'lgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilishicha Nurotani zabt qilgan Chingizxon shaxsan o'zi boshchiligida bu yerga yaqin joylashgan Zarnuh shahrini vayron qildi. Shu bosqinda mazkur "Baliqchi ota" masjidi-maqbarasi joylashgan joylardagi barcha narsa batamom vayron qilindi, xalqi qatl qilindi. Bu joy bir qancha vaqt xaroba va tashlandiq holida yotdi. Ko'p o'tmay tiklash ishlari olib borilib, yana gavjum maskanga aylandi. Ayniqsa, Shayboniylar davrida atrof qishloqlarda xalq ko'payib, bu joylar yanayam obod bo'ldi. O'sha paytlarda masjid barpo qilingan, ammo qayta qurilgan sanalari, qurgan shaxslar haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas.

Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur nomning Baliqchi toponimiga hech qanday aloqasi yo'q bo'lib, u "Baliqchi ota" chashmasi sifatida shifobaxshligi bilan ham hozirgacha mashhur.

BALQANQAYCHILI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloqning nomi. Aslida Balandqaychi bo'lishi kerak. Tarkibi: *balqan+qaychili*. Qadimgi turkiy tilda *bolqon – tog'* (Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T., 1965. – B. 47). Turk tilida *balkan – usti o'simlik bilan qoplangan tog'* (Турецко-русский словарь. – М., 1945. – С. 110).

Qaychili – turkiy xalqlarga mansub urug'. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, boshqird xalqlarida shu nomdagi urug' mavjud. Qo'ng'irot va kenagaslarning qaychili urug'i borligi ma'lum. Urug'ning tamg'asi qaychi shaklida bo'lgan. Balqanqaychili – yuqorida (tog'da) joylashgan qaychili urug'i vakillari yashaydigan joy. Qishloqning geografik o'rni va u yerda yashovchi aholining etnik tarkibi e'tiborga olinib, qishloq shunday nomlangan.

BALXI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Qarshi tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Balx* – Afg'onistondagi qadimiy shahar.

Balx+-i – balxlik, Balx shahri, viloyatidan kelgan kishi(lar). *Balx/balq/baliq* – turkiy tillarning eng qadimgi davriga xos so'z, ma'nosi – *qo'rg'on, qishloq, shahar.* Qashqadaryo qovchinlarining balxi urug'i mavjud.

BALXIYON – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Professor Z.Do'simov mazkur toponimni *"Balxlilar"* degan ma'noni anglatishini qayd etadi[1]. Aslida ham shunday. Chunki apellyativning birinchi komponenti ***Balxi*** – *balx//balq//baliq* tarzida shakllanib, u *"shahar", "qo'rg'on", "qishloq"* kabi ma'nolarni bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti *yon* – tomon ma'nosidadir.

Ayrim manbalarda Balxi urug' sifatida ham qayd etiladi (T.Nafasov, 52).

Balx Shimoliy Afg'onistonda, hozirgi Mozori Sharif shahrining g'arbidagi ko'hna shahar. Shahar eramizdan oldin VII asrlardan ma'lum bo'lib, *Ummul Bilod (Shaharlar onasi)* deb yuritilgan va mazkur shahar G'arb va Sharqni bo'glab turgan "Buyuk ipak yo'li"dagi yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan.

BAMARDAK – qoya. Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi qoya, Odamtosh ham deyiladi. **Bomardak** – tojikchada *Boboi mardak* – "buva" degani. Qoya odam shaklida bo'lgani uchun shunday atalgan. Kofirlar bosib kelganda bir qariya toshga aylanib qolgan ekan. Bu toponimiyada keng tarqalgan rivoyat.

BAND – qishloq. Navoiy viloyati Karmana, Xatirchi tumanlaridagi qishloq nomlari. *Band – "qo'rg'on, to'g'on, suv ombori, damba"* (qarang: Bandixan).

O'zbekistonda joy nomlari tarkibida uchraydigan irrigatsion termin. Tog' daralariga qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot *band* deyilgan. Masalan, Jom qishlog'i yaqinidagi suv omborining to'g'oni (XII asr) *G'ishtband*, Eskioqchob qishlog'i yaqinida Buxoro xoni Abdullaxon (1557–1598) tomonidan qurdirilgan *Abdullaxon bandi* ana shular jumlasidandir. Daryolarga qurilgan to'g'on ham *band* deb atalgan.

BANDISALOR – Axsi bilan Andijon oralig'idagi joy. Axsidan Andijonga boradigan eng yaqin yo'l Bandi Salor orqali o'tgan va "Boburnoma"da "Bandi Salor yo'li" deb qayd etilgan. "Axsidin namoz jum'a vaqtida chiqib, Bandi Salor yo'li bila namoz shom bila namoz xuftan orasida Andijong'a keldim" (B. 51). Zahiriddin Bobur 905-yilning qish faslida (jumod ul-avval – sha'bon /1499-y. dekabr – 1500-y. fevral), Kosonda joylashgan Sulton Ahmad Tanbalga qarshi jang qilish maqsadida, Andijondan safar qiladi va Bandi Salor yo'li bilan Axsiga kelib, u yerdan Kosonga yuradi.

BANDIXON – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Surxon – Sherobod cho'lining shimoliy qismida joylashgan. Tumanga nom bo'lgan *bandixon* so'zi fors-tojik tilida

[1] Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1977. –B. 25.

"xon tomonidan qurilgan suv to'g'oni" ma'nosini anglatadi. Nom dastlab *"suv to'planadigan va taqsimlanadigan joy"* bo'lgan. Keyinchalik gidronim shu atrofda paydo bo'lgan aholi punktiga ham berilgan.

Tuman va shaharchaga nom bo'lib o'tgan Bandixon aslida qisiq darada qurilgan to'g'on (band)ning nomi. Suv manbalari taqchil bo'lgan Markaziy Osiyo sharoitida suvdan tejab-tergab foydalanish, mavsumiy suvlarni bir joyga to'plab, ulardan unumli va oqilona foydalanish hamma davr-u zamonda g'oyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu maqsadlarni ko'zlab, qadimdan hozirgi O'zbekiston hududida suv omborlari va to'g'onlar qurilgan.

Bandixon to'g'oni qurilgan dara Boysunsoy vodiysi Takasakirdi tizmasini kesib o'tgan joyda joylashgan. Uning uzunligi 10–12 km, tagining eng tor joyi 8–10 metr. Yonbag'irlari tik, janubiy yonbag'rida ba'zan qiyaroq joylari ham uchraydi. Bandixon darasining yonbag'irlari bo'r davrining gil, gips, ohaktosh, alevrolit jinslaridan, suvayirg'ich qismi paleogen ohaktoshlaridan tuzilgan. Ohaktosh jinslari qattiq bo'lganidan kam yemirilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, to'g'on XVI asrda shayboniylardan bo'lgan Abdullaxon II (1534–1598) tomonidan pishiq g'ishtdan qurilgan va unga mahalliy xalq Bandixon nomini bergan. Uning eni 30–35 metrni tashkil qiladi. Soy eng tor joyida to'g'on bilan to'silgan va o'sha davrda hozirgi Bandixon – Qiziriq tekisliklariga suv chiqarish uchun xizmat qilgan. Abdullaxon II davrida karvon yo'llarida sardobalar, rabotlar, kanallar, suv omborlari, ko'priklar, chorbog'lar bunyod etilgan. Bandixon to'g'oni va suv ombori ana shulardan biri hisoblanadi.

Bandixon tumani hududida bir qancha qadimiy qo'rg'on qoldiqlari topilgan. Arxeologik yodgorliklar va madaniy meros obyektlari O'zbekistonning me'morchilik, hunarmandchilik va dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Tuman ma'muriy markazi – Bandixon shaharchasi (2009-yildan).

BANGI//BANGILAR – qishloq. (Hozirda bu nomlar amalda qo'llanilmaydi, biroq mahalliy aholi og'zaki nutqida mavjud). Buxoro viloyatining Shofirkon, Olot tumanlaridagi qishloqlar nomlari. O'zbek tilining izohli lug'atida **Bangilar** quyidagicha izohlanadi: *1) nasha chekuvchilar, nasha chekishga o'rganib qolganlar, nashavandlar; 2) umuman giyohga (ko'knori, qoradori va sh.k.ga) o'rgangan odam, giyohvand, ko'knori*[1]. Qishloq nomi shu nomdagi o'simlikning borligi asosida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Mazkur nomdagi toponimlar respulikamizning ko'plab hududlarida mavjud bo'lib, mustaqillikdan keyin ularning barchasi yangi nomlar bilan almashtirildi.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.78.

BANOKAT//BINOKAT – Shohruxiya shahri o'rnidagi o'rta asrli shahar. Muqaddasiy asarida ilk bor tilga olinadi (БАГ, III. С. 277) (*kat – shahar, qishloq*). Bu shaharning xarobalari Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan.

BAQANLIJAP – orol. Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot qabilasi tarkibida bir urug' baqanli deb atalgan; *Jap, yab (yop)* esa "kichkina kanal", " kichkina ariq" ma'nosini anglatadi.

BAQAQANGLI – qishloq. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Baqaqangli – qangli qabilasi bo'limlaridan biri bo'lishi mumkin (qarang: *Qangli*).

BAQIROQSOY – soy. Toshkent viloyatidagi soy nomi. Aygaing daryosining chap o'zani, soy (Chirchiq daryosining tizimi). Baqiroq – balki tez oqayotgani uchun shunday nomlangan.

BAQIRCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qarshi, Qamashi, Nishon, Dehqonobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Tarkibi: *baqir/paqir+-chi.* Qadimgi turkiy tilda *baqir/paqir* – mis (metall turi); to'rt gramm og'irligidagi o'lchov birligi; mis tanga; pul birligi (Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С. 82). Baqirchi/paqirchi – *ro'zg'or va bezak buyumlari yasovchi, mis bilan boshqa metallarni qorishtiruvchi usta.* Kasb-hunar so'zidan urug' nomi yuzaga kelgan. Mang'itlarning qoramang'it bo'limi tarkibidagi urug' tarmog'i – baqirchi. Urug' nomidan qishloqlar nomi hosil bo'lgan.

BAQQOLON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. ***Baqqolon*** – arabcha so'z bo'lib, "*mayda-chuyda ro'zg'or mollari va oziq-ovqatlar bilan savdo qiluvchi do'kondor*", degan ma'noni bildirgan[1].

Shunday ekan, ***Baqqolon*** – "*Do'konchilar, savdogarlar qishlog'i*" ma'nosini anglatadi.

BAQQOLXONA – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Baqqol nomi asosida hosil qilingan bo'lib, ***Baqqolxona*** – *baqqolchilik do'koni* demakdir. Baqqolchilik do'koni mavjud bo'lganligi va u yerda, asosan, savdo-sotiq bilan shug'ullanganligi sababli shunday nom olgan.

BARINCHA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Aslida, ***Bahrincha*** so'zining dialektal varianti bo'lib, mazkur toponim ***bahrin*** qabilasi nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Demak, nomning vujudga kelishiga etnotoponim asos bo'lgan.

BARKAD//ABARKAD – shahar. Samarqand viloyatining o'rta asrdagi shaharlaridan birining nomi. Buzmajan rustog'i (tumani)ning markazi. Samarqanddan 4 farsax (28–32 kilometr) masofada joylashgan. Temur davrida mazkur shahar o'rnida Sheroz qal'asi qurilgan. V.L. Vyatkin Sheroz G'azira qishlog'ining (Jomboy tumani) shimoliy tomonida bo'lgan, deb yozgan. Sheroz nomi XVII

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.89.

asrga qadar tarixiy manbalarda uchrab turadi.

Mahalliy aholi Misr nomi bilan ataladigan qadimiy qal'a xarobasini Sheroz qal'asining qoldig'i, deb ko'rsatishadi. Barkat (keyinchalik Sheroz) shahri o'rta asr tarixida muhim rol o'ynagan. Arablar davrida ham, temuriylar davrida ham mazkur shahar nomi siyosiy voqealar munosabati bilan bir necha bor tilga olingan. Akademik Y.F. Buryakov Samarqanddan 30 km uzoqlikdagi masofada joylashgan G'ishtlitepa yodgorligini (Bulung'ur tumani) Barkat shahri xarobasi, deb yozadi. Bulung'ur kanali bo'yidagi Bolg'alitepa yodgorligini esa Sheroz shahri, – deb izohlaydi.

Prof. Sh.S.Kamoliddin esa "*Aborkat* yoki *Borkat* shahrining qoldiqlari Samarqanddan shimoli-sharqdagi Oqtepametan qishlog'i yonida joylashgan", deydi (Ibn Xavkal. 2011:210). *Barkat* nomi sug'dcha *"bar"* – *baland* va "kat" – shahar, *qishloq* so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, *"Baland shahar yoki qishloq"* ma'nosidadir. O'rta asrlarda Buxoroda ham xuddi shu nomdagi qishloq bo'lgan.

BARKAMOLLIK – mahalla. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahallaning nomi. Mustaqillik yillarida atalgan mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: *"Yetuklik, mukammallik holati, kamolot cho'qqisi"*.

BARLOS – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Qabila nomi bilan bog'liq nom. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Chiroqchi, Koson, Shahrisabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Marhamat, Xo'jaobod, Nurota, Urgut, G'allaorol tumanlarida yashaydi. "Badoyi al-lug'at" asarida "*barlos*" so'zi – "mard, botir, qo'mondon", deb izohlangan.

BAROQ – qishloq. Navoiy viloyati Nurota, Xatirchi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Baroqqishloq – Samarqand viloyati Ishtixon tumani. O'zbeklarning qatag'on, qo'ng'irot, Nurota turkmanlarining qozayaqli urug'i tarkibida, shuningdek, qirg'iz urug'ida barak (baraq) etnonimi qayd etilgan.

BAROQTOM – qal'a. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani hududidagi tarixiy qal'a. Toponimning baroq so'zi bilan hech qanday aloqasi yo'q. Nom aslida eron tillariga xos. V.A. Abayevning yozishicha, eron tilida *baroq* so'zi "chavandoz, xabarchi" demakdir. *Baroqtom – "xabarchilar to'xtab o'tadigan joy"* degan ma'noni anglatadi.

BAROTXO'JA – mahalla. Toshkent shahrining Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Quyliqota, "Parvona", "Matonat" mahallalari bilan chegaradosh. 1936-yil tashkil qilingan, bunda mahallaning birinchi oqsoqoli Tursunboy Saliboyevning xizmatlari katta bo'lgan. Mahalla hududidan anhor oqib o'tadi. Aytishlaricha, ushbu anhorda qadimda Barotxo'ja ismli shaxs umrining oxirigacha mirob bo'lgan. Uning vafotidan so'ng anhor Barot-

xo'ja deb nomlangan. Mahalla ham shu shaxsga nisbat berilib, Barotxo'ja deb atalgan.

BAROZ//BAROZUN – qishloq. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. Xuddi shunday nomdagi qishloq Jizzax viloyatida ham uchraydi.

Sug'd va fors tillarida *"balandlik"*, O'rta Osiyoning ko'pchilik hududlarida *"tepasi yassi baland qirlar"* baroz deb yuritiladi.

Jizzax viloyatidagi ***Katta Baroz*** hamda ***Kichik Baroz*** nomli toponimlar ham xuddi shu so'zdan hosil bo'lgan[1].

BARRAJ – qo'rg'on. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qo'rg'onning nomi. *Barraj* – fransuzcha so'z bo'lib, "to'siq, to'g'on" ma'nolarini anglatadi [146: 64]. Ushbu joy XX asrning 50-yillarida Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani va Chirchiq shahri o'rtasida Chirchiq GESlarining Bosh gidrobog'lanmasining to'g'oni qurilishi davrida vujudga kelgan.

BARZUVON – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur Barzu toponimi sug'd tilida "baland", "bahaybat" ma'nosini anglatsa, *-on ("-lar")* affiksi esa forscha ko'plikni ifodalovchi qo'shimcha hisoblanadi. Tali Barzu tepaligi nomi ham shu asosda yasalgan.

BATOSH – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi, G'uzor, Yakkabog' tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qadimiy o'zbek qabilasi – batosh. Bir necha o'zbek qabila va urug'lari tarkibida ham batosh urug'i bo'lgan. Turkmanjuz (Surxon vohasi)larning voxtamg'ali bo'limida batosh urug'i borligi aniqlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 97).

Afg'onistonda ham o'tmishda batoshlar yashaganligi ma'lum (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 128). Surxondaryoning Sho'rchi, Oltinsoy tumanlarida ham Batosh qishlog'i mavjud. Barcha batoshlar Afg'oniston hududidan kelishganini ta'kidlashadi. Qishloq atrofida yashovchi boshqa etnik birlikka mansub aholi Batosh deb atagan, nomlashda etnik tarkib e'tiborga olingan.

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani. T.Nafasovning fikricha, batash o'zbek qabilasi Qashqadaryo viloyatida yashashgan. Batosh urug'i, shuningdek, ko'chmanchi o'zbeklarning yuz qabilasi, ersari turkman qabilasi tarkibida ham qayd etilgan va batoshlar qirg'iz va boshqirdlarda ham bor.

BAXILTOG' – cho'qqi. Samarqand viloyati. Oqtog'ning g'arbiy davomi va Samarqand viloyatining shimoli-g'arbiy qismidagi tog' cho'qqisi. Baxil – "xasis, ziqna" ma'nosini anglatadi. Tog'ning past tog' ekanligi, shu bois balandlik mintaqalari ko'p emasligi va o'simlik hamda hayvonot dunyosiga nisbatan "kambag'alligi" obyekt-

[1] Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1977. –B.26.

ning shunday atalishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak.

BAXITLI – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanining shimoli-g'arbiy qismida, Chimboy shahridan 14 km uzoqlikda joylashgan QFY va aholi punkti nomi. Bu nom ideologik nom hisoblanib, xalq baxtli, shod-u xurram yashasin degan niyatda shunday nomlangan.

BAXMAL – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, tog' oldi tekisliklari va tog'lardan iborat. Nomshunos olimlar tomonidan tuman nomining etimologiyasi haqida aniq bir fikr bayon qilinmagan. Ko'pchilik mutaxassislar gazlama hisoblangan baxmalga bu so'zning hech qanday aloqasi yo'qligini ta'kidlashgan. Janubiy O'zbekiston toponimiyasini o'rgangan olim To'ra Nafasov baxmal so'ziga ta'rif berib, qovchinlarning bir urug'i boqmon (baqman), baxmal uning talaffuzda o'zgargan shaklidir, degan xulosani bayon qilgan. Bozorboy O'rinboyev ham yuqoridagi fikrni tasdiqlagan. Ammo qaysi til qonuniyatlari asosida baqman so'zi baxmal shakliga o'zgarganligi sabablari ochib berilmagan.

Tuman nomining etimologiyasi haqidagi yuqorida keltirilgan izohni ishonarli deb bo'lmaydi. Chunki hozirgi Baxmal tumani hududida o'tmishda baqman, boqmon yoki baxmal nomi bilan etnik guruh yoki qishloq qayd qilinmagan. Mavjud dalillarga asoslanib aytish mumkinki, tuman nomi xuddi Forish, G'allaorol tumanlari nomlari kabi sobiq sho'rolar davrida paydo bo'lgan yasama (soxta) nomlar sirasiga kiradi.

Yana bir e'tiborli tomoni shuki, Baxmal tumani 1943-yili G'allaorol tumani negizida Qoraqishloq nomi bilan tashkil etilgan. Dastlab tuman markazi sifatida Qora qishlog'i tanlangan, ammo ko'p o'tmay qishloqni noqulay geografik o'rni, katta yo'l va yirik aholi punktlardan chekkada joylashganligi e'tiborga olinib, tuman markazi hozirgi O'smat shaharchasiga ko'chirilgan. Mahalliy ma'lumotlarga qaraganda, baxmal so'zi tuman nomi sifatida 1971-yili tuman qayta tashkil etilgan vaqtda paydo bo'lgan.

Sangzor vohasi tarixini o'rgangan arxeolog olim M.Pardayev ham tumanga qachon bu nom berilganligiga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaydi. Olimning yozishicha, tarixiy manbalarda ushbu voha "yoryayloq" nomi bilan qayd qilingan. Balki vohaning aynan go'zal, yam-yashil va chiroyli tabiati uni shu nom bilan atalishiga sabab bo'lgandir. Mutaxassislar tomonidan tuman nomiga asos bo'lgan baxmal so'zining kelib chiqishi va etimologiyasi sinchiklab o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Tuman ma'muriy markazi O'smat shaharchasi (1971-yildan). Nomning Usmat talaffuzi ham bor. O'smat so'zining ilmiy etimologiyasi aniqlanmagan bo'lsa ham, oykonimning kelib chiqishi to'g'risida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Tarixchi S.Ravsha-

nov "Baxmal tarixi" kitobida: "O'smat buyuk kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazgan maskandir, qadimda bu hududdan Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Tuman markazidagi eng so'lim go'shada, Dunyotepa poyida hazrat Usmon ota ziyoratgohi bor.

Rivoyat qilishlaricha, u kishi dushmanlar ta'qibidan qochib, tepa poyida yashirinadi va sirli ravishda g'oyib bo'ladi. Zamonlar o'tib e'tiqodda sobit xalq tomonidan bu muqaddas joyda hujra barpo etilib, ramziy qabr o'rnatilgan. Bu joyning O'smat deb atalishi ham shu kishining nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan taxmin mavjud", – deb yozgan.

Abu Sa'd Abdulkarim Somoniyning "Kitob al-ansob" ("Nisbalar kitobi") asarida (XII asr) Usmatning nomi "Usmand" shaklida berilgan. Usmatdan fiqhshunos Abul Fath Muhammad ibn Abdulhamid al-Usmandiy as-Samarqandiy (XII asr), Abdullo Usmatiy ibn Muhammad Yusuf Xalifa ("Sharh al-Ilyos" asarini yozgan) yetishib chiqqan. Nomning xalqona etimologiyalari ishonchsiz.

BAXMALBOP//BAXMALBOFON – mahalla va qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla nomi bo'lsa, shu hududning o'zida va Buxoro viloyatining Buxoro tumanida Baxmalbofon deb atalgan qishloq ham mavjud.

Ushbu nom Baxmal so'zi asosida shakllangan hisoblanib, barxat, duxobadir. *Baxmalbof* nomi forscha bo'lib, "Duxoba tikadigan shaxs yoki baxmalga o'xshash mato, gazlama" kabi ma'nolarni ifodalasa, *-on* – ko'plik son qo'shimchasi sanaladi.

Yuqoridagilarga asosan ***Baxmalbofon*** toponimi barxat tikuvchilar, baxmalchilar qishlog'i ma'nosini ifodalaydi. Biroq bu o'rinda, bizningcha, Baxmalbof – baxmal tikuvchi emas, balki baxmal to'quvchi ma'nosidadir.

BAXSHI QUDUQ – quduq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi quduq nomi. Gidronimining birinchi komponenti "xalq qo'shiqlari va dostonlarini yoddan kuylovchi shoir, oqin; irim-sirimlar qilib, duolar o'qib, dam solib davolovchi tabib" ma'nolarini [O'TIL.1, 180], ikkinchi komponenti quduq "suv olish maqsadida vertikal tarzda qazilgan tor va teran chuqurlik; gidrotexnik inshoat" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 5, 364].

Demak, mazkur nomni antropogidronim sifatida baholash mumkin, chunki "muayyan shaxs (baxshi) tomonidan, uning shofyeligida qazilgan yoki unga tegishli quduq" ma'nosini ifoda etadi.

BAXSHITEPA – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi hamda Samarqand viloyatining Toyloq tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Xo'ja Asrorning vaqf hujjatlarida Samarqand atrofida Baxshikent kanali qayd etilgan (О.Д.Чехович. Самаркандские документы. С. 246). V.V. Bartoldning fikricha, baxshi sanskritcha *bxikshu* – "sufizm darveshi".

Mo'g'ullar hukmronligi davrida *baxshi* – "kotib, mansabdor shaxs"

ma'nolarini ifodalagan. 1920-yili Kalkuttada nashr qilingan Chig'atoy lug'atida *baxshi* so'zi "noib, tabib, nozir, ovchi" sifatida tushuntirilgan (Л.Будагов. Сравнительный словарь, т. I. С. 245).

Buxoro xonligida kirim-chiqim resurslari bilan shug'ullanuvchi, mamlakat qurilishi uchun mablag' ajratuvchi *baxshi* deb atalgan. Hozirgi o'zbek tilida baxshi: 1) to'quvchi; 2) ruhoniy, sehrgar. Qo'ng'irot qabilasining bir qismi baxshi atalgan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 93).

BAXSHIVOY – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Baxshivoy – Zarafshon vodiysidagi arabcha etnonim sanalib, mazkur hududning nomlanishiga o'sha etnonim asos bo'lgan.

BAXSHIYON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. O'zbek tilining izohli lug'atida baxshi so'zi quyidagicha izohlanadi:

1) xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin;

2) *etn.* duolar o'qib, dam solib irim-sirimlar qilib davolovchi tabib;

3) *tar.* Buxoro xonligida: qurilish uchun hisob-kitob yurituvchi lavozimli kishi[1].

V.V. Bartoldning yozishicha, ***Baxshiyon – baxshi*** so'zi sanskritcha *bxikshu "budda qalandari"* so'zidan kelib chiqqan. Mo'g'ullar davrida baxshi deganda mirzo, kotib, katta amaldor kishi tushunilgan. 1920-yilda bosilgan "Chig'atoycha lug'at"da baxshi so'ziga *"rohib, jarroh, nozir, ovchi"* – deb izoh berilgan. Buxoro xonligida hukumat tomonidan quriladigan imoratlar uchun sarf qilinadigan mablag'larni daromad-xarajat qilib turadigan shaxs baxshi deyilgan. Hozirgi o'zbek tilida baxshi so'zi ikki ma'noni anglatadi:

1. Xalq orasidan chiqqan badihago'y oqin, shoir.

2. Emchi, shomon, sehrgar. XX asrgacha O'zbekistonning ko'pgina joylarida (masalan, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida) har bir qishloqda bir necha baxshi (shomon) bo'lgan. Baxshichilik ko'pincha avloddan-avlodga o'tgan. Baxshilar aksar ayollardan chiqqan. Qo'ng'irot qabilasining kichik bir tarmog'i – baxshi deb atalgan[2]. Biroq Xorazmda baxshilar faqat erkak kishilar hisoblangan, xalq og'zaki ijodi yo'lida ijod qiladigan qo'shiqchilarga xalfa deb aytiladi.

BAYDOQCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Muborak, Kasbi tumanlaridagi qishloq nomi. O'tmishda bu qishloqni *Neko'z/ Nekuz* ham deyishgan. *Neko'z, baydoqchi* – mang'itlarning oqmang'it bo'limiga qarashli urug'lar. "O'zbek xalq dostonlarida *baydoq* – "bayroq". Turkman tilida *bayroqchini baydaq* deyishadi. Uch qismidagi qo'ndoqqa ipak popuk taqilgan bayroqni ko'tarib yuruvchi harbiy kishi – *baydoqchi*. Harbiy atama etnonimga aylangan. Etnonimdan qishloq nomi yuzaga kelgan.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.86.

[2] Karmisheva B.X. Ko'rsatilgan asar. –B.93.

BAYKEQUM – qumlik. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan qumlik nomi. Qumlik nomining kelib chiqish tarixiga ko'ra qumlik yonida Bayke ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilgan ekan.

BAYOT – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim. O'zbekistonning boshqa hududlarida, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm vohasida, Buxoro viloyatida ko'plab uchraydigan qishloq nomidir.

Mahmud Koshg'ariy yigirma ikki urug'i orasida to'qqizinchisi *bajat* deb tilga olar ekan, bu so'z arg'u tilida "*xudo, tangri*" degan ma'noni anglatishini ham qayd qiladi[1].

A.N.Samoylovich mazkur nomni totemik ma'nodagi bu so'z qabila nomi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa kerak, deb hisoblaydi[2]. Uning fikricha, bu so'z *bayan* "boy" so'zining ko'plik formasi bo'lib, *-t* affiksi orqali hosil qilingandir.

Rashididdinning qayd etishicha, ***Bayat*** antroponimik nom bo'lib, Kunxanning ikkinchi o'g'lining ismidir. Bu so'z "*baxtli va rahmdil*" degan ma'noni bildiradi[3].

Bu nom bilan ataluvchi hududlar Ozarbayjonning bir qancha joylarida, Turkmaniston, Eron, Ozarbayjon va Iroq respublikasi, shuningdek, Turkiyada ham mavjud[4].

Ushbu etnonimga asos bo'lgan qadimgi turkiy *bay* so'zining etimologiyasi, turkiy xalqlar tarixining turli davrlarida anglatgan ma'nolari, shuningdek, mazkur so'z asosida hosil bo'lgan yangi apellyativlar, qo'shni xalqlar tiliga o'zlashish sabab va omillari xususida V.V.Radlov, N.A.Baskakov, S.Y.Malov, E.V.Sevortyan kabi olimlar tomonidan e'tiborli fikrlar bayon qilingan.

Qayd etilgan ishlarni umumlashtirib tahlil qilgan N.Kudachina ham o'zining mavzuga doir yangi mulohazalari bilan boyitgan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, 2012).

BAYOTQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloqlar nomi. Bayot urug'i yashaydigan qishloq bo'lganligi uchun shunday nomlangan (Ataniyozov, 1980: 347).

BAYROQ TEPA – tepalik. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi tepalik nomi. Bu oronim xalq etimologiyasiga ko'ra, mazkur tepalikda o'z zamonida bayroq o'rnatilgan. Ayrim toponimistlarning fikricha, "bayri" "manzil, makon" so'zi toponimga asos bo'lgan (S.D.Nominxa-

---

[1] Mahmud Kashg'ariy. Devonu lug'otit turk. Birinchi tom. –Toshkent: Fan, 1960. –B. 186.

[2] Самойлович А.Н. Богатый и бедный в тюркских языках//Известия АН СССР отд. общ. наук. 1936. №4. – С. 31-32.

[3] Расъҳид-аддин. Сборник летописей. Том I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетгурова. – М., 1952. – С. 88.

[4] Гусаинзаде А. Параллели огузских этнонимов в современной топонимии Азербайжанской ССР // Советская тюркология. №4,1977. – С. 47-51.

nov). -ak kichraytirish ma'nosini bildiruvchi affiks.

V.I.Abayev eron tillarida "bayroq" – "toychoq, ot" degan ma'noni berishini aytadi [Abayev, Slovar, 1, 232; qarang: Do'simov, 1977:24].

Shunday ekan, mazkur oronimni "tepalikdagi kichik bekat" deb izohlash mumkin.

BAYROQCHI – qishloq. Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. Ayrim mahalliy aholi vakillari mazkur toponimning nomini hozirgi *bayroq (alam)* so'zlari bilan bog'lashadi, biroq u ishonchsizdir.

Ayrim toponimistlarning fikricha, mazkur nom mo'g'ulcha ***bayri*** "*manzil, makon*" so'zi orqali hosil qilingan bo'lib, mazkur toponimning yasalishiga asos bo'lgan va ***Bayroqchi*** – "*manzilga to'xtagan kishi*" ma'nosini anglatgan (S.D.Nominxanov).

B.I.Abayev esa eron tillarida ***Bayroq*** – "*toychoq, ot*" ma'nosini ifodalashini qayd etadi (Б.И.Абаев. Словарь. 232).

Bizning fikrimizcha, ***Bayroqchi*** toponimi aynan shu so'z bilan aloqadordir va u "*Otboqar yoki Otboqarlar qishlog'i*" ma'nosini ifodalaydi.

BAYTALCHI – qishloq. Farg'ona viloyatidagi qishloq nomi. Avvalo, ta'kidlash joizki, ***Baytalchi*** toponimining *baytal* so'ziga hech qanday aloqasi yo'qdir.

Aslida, mazkur toponim ***baytur*** so'zi asosida vujudga kelgan (Q.Yusupov. Ayrim toponimlar masalasi// O'zbek tili va adabiyoti. 1966. 1-son, 17-bet). ***Baytur*** – "*o'rish arqog'i juftlama qilib chiritilgan ipdan to'qilgan gazlama*" ma'nosidadir.

Demak, ***Baytalchi*** yoxud ***Bayturchi*** – "*gazlama to'quvchilar*" ma'nosini anglatadi.

BAYTQO'RG'ON – qishloq. Toshkent viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. ***Bayt*** va ***qo'rg'on*** so'zlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan. Mahalliy aholi vakillari, shuningdek, ayrim ijodkorlar mazkur toponim tarkibidagi ***bayt*** so'zini *bayt, g'azal* bilan aloqador ekanligini qayd etishadi, aslida esa, uning *bayt, g'azal* kabi adabiyotshunoslik terminlariga hech qanday bog'liqlik tomoni yo'q bo'lib, ***bayt*** so'zi arab tilidan o'zlashib, u o'zbek tilida "*mustahkamlangan*", "*saqlanlan*", "*qo'riqlangan*" kabi ma'nolarni anglatadi.

Shunday ekan, ***Baytqo'rg'on*** toponimi – "*Bayti qo'rg'on*", ya'ni "*mustahkamlangan qishloq*" ma'nosini ifodalaydi.

BAZZOZLAR – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mang'it tumanidagi qishloq nomi. Mazkur ***Bazzoz*** toponimi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, "*Ip, gazlama bilan savdo qiluvchi do'kondor*" (baza – gazlama) ma'nosini anglatadi va -lar ko'plik hosil qiluvchi qo'shimcha topofarmat hisoblanadi. Toponim tarkibida ma'lum bir bazzoz va unga yaqin kishilarning shu qishloqda yashashini anglatadi.

Respublilamizning boshqa viloyatlari, jumladan, Xorazm hamda Buxoro viloyatlarida bazzoz so'zi orqali hosil

qilingan toponimlar mavjud, masalan: *Bazziovul, Bazzoz qal'a* kabi toponimlar shular jumlasidandir.

BAG'ANALI – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol va Forish hamda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi; Qorabag'anali – Jizzax viloyati Forish tumani. Bag'anali etnonimi qoraqalpoqlarning qipchoq, qozoqlarning arg'in va nayman, o'zbeklarning yuz qabilasi tarkibida qayd qilingan.

Undan tashqari, o'zbek qabilasi minq tarkibida bog'olan urug'i tilga olingan. Ta'kidlash mumkinki, *bag'anali* va *bog'olan* etnonimlari aynan bir xildir. Qolaversa, Xorazm viloyatining Urganch tumanida Bag'alanchi bor. *Bag'anali – "qorako'l terisi bilan" (Bag'ana – qorako'l terisi).*

BAG'ANALIARIG'I – ariq. Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi ariqning nomi. Bu ariq ochamayli, vaxtamg'ali, kenagas, qozoqli kabi urug'lar tarkibiga kiruvchi aholi nomi bilan bog'liq holda atalgan. *"Bag'ana" so'zining "ustun" ma'nosi ham bor.*

BAG'DOD – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, tekislik, janubi-g'arbida toshloqli dasht yerlar bor. Bag'dod juda qadimiy nom, yozma manbalarda ikki ming yildan buyon qayd qilib kelinadi. O'zbekiston joy nomlari tarkibida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar ko'plab topiladi. Ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ham turlicha. Bunday geografik nomlar qatoriga Bog'dod – "Alloh in'om etgan" nomini kiritish mumkin.

Shaharcha va tuman nomining etimologiyasi haqida bir qancha rivoyatlar mavjud, shulardan eng keng tarqalgani: Bog'i Dod (Dodning bog'i) va But (sanam) tuhfasi. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold Bag' so'zini eroniy tillarda "xudo" degan ma'nosi borligini ta'kidlaydi. Olim o'zining "Eronning tarixiy-geografik tavsifi" nomli asarida Bog'iston degan joyga "Xudo maskani" deb ta'rif bergan.

Taniqli toponimist olim H.Hasanov Bag'dod nomini quyidagicha izohlagan: *bog' – "Alloh", dod – "tuhfa"*, ya'ni *"Allohning tuhfasi"*. Demak, Toshkent viloyatidagi *Bog'iston*, Jizzax viloyatidagi *Bog'don*, Xorazm viloyatidagi *Bog'ot* kabi qadimiy nomlarni talqin qilishda *bag'* yoki *bog'* so'zining qadimiy ma'nosini ham inobatga olish zarur. E'tiborli tomoni shuki, olim har qanday geografik nomni mintaqa tarixi va tabiiy sharoiti bilan bog'liq holda o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlarning negizini tashkil qiluvchi so'zlar ancha qadim davrda mahalliy xalqlar tiliga o'zlashgan va ular bevosita arablarning Movarounnahrni ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq. Olimlar, diniy toponimlar orasida avliyolar, payg'ambarlar va har xil diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlarning ko'pligini alohida qayd qilishgan.

Tuman ma'muriy markazi Bag'dod shaharchasi (1962-yildan). Shaharcha 1894–1962-yillarda Serovo deb atalgan. Bu nomni shaharchaga XIX asrning oxirida Rossiyadan ko'chirib keltirilgan ruslar berishgan.

BAG'DODAK – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani Primkent qishloq kengashi nomi. *Bag'dod* va *-ak* affiksidan yasalgan toponim. *"Kichik Bag'dod qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

BAG'ISH – qishloq. Farg'ona viloyatining Dang'ara, Namangan viloyatining Chortoq tumanlariga tegishli oykonim. *Bag'ish* qirg'izlarning o'ng qanot guruhiga kirgan yirik urug' nomlaridan biri. Ushbu birlik qirg'izlarning *cho'ngbag'ish // chuybag'ish, saribag'ish, qorabag'ish, oriqbag'ish* kabi urug' nomlari tarkibida ham uchraydi.

K.Marqayev tadqiqotlariga ko'ra *bag'ish* etnonimi V-VI asrlardan ma'lum bo'lib, uning qadimiy ma'nosi – *bug'u*. Demak, etnonim kishilarning totemistik qarashlari natijasida vujudga kelgan va turkiy, jumladan, qirg'iz xalqlarida *bug'u* muqaddas jonivor sanalgan.

Farg'ona vodiysining turli hududlarida *bag'ish* leksemasi asosida yasalgan *Cho'ngbag'ish* (qirg'. *cho'ng* – "katta" – Katta bag'ish), *Qorabag'ish, Ariqbag'ish* singari etnotoponimlar uchraydi, lekin ularning yozilishida imloviy jihatdan xilma-xillik kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida joylarda toponimik bilimlarning kamligi va ularga bee'tiborlikdan dalolat beradi. Masalan: *Cho'mbog'ish* (Farg'ona viloyatining Buvayda tumani), *Cho'nbog'ish* (Farg'ona viloyatining Rishton tumani), *Bog'ish* (Farg'ona viloyatining Dang'ara tumani), *Cho'mbog'ich* (Andijon viloyatining Xonobod shahri, Oltinko'l tumani), *Qorabog'ish* (Andijon viloyatining Marhamat tumani), *Cho'nbag'ish* (Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani) kabi.

BASHIR – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi qishloq nomi. Beshir (tojik tilli qishloqlar aholisi nutqida) talaffuzi ham bor. *Be+shir* (f-t) so'zi asosida ona sutini emmasdan o'sib ulg'aygan kishi ismi (Beshir) bilan bog'lab izohlashga mayldorlar mavjud.

Bashir – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug', qadimiy etnonim, qishloq nomi sifatida saqlanib qolingan. O'zbekistonning qadimiy aholisi bo'lmish qatag'onlarning bashir urug'i borligi aniqlangan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 105).

BACHKI – Samarqand viloyati Samarqand tumani. *Bachki – o'simlik yonidan o'sib chiqqan shox-shabba.* Etnonim bo'lishi mumkin. Байулы qozoq qabilasida bachik urug'i qayd etilgan (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе. С. 280).

BACHQIR – shaharcha. Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi shaharcha nomi. *Bachqir* toponimining "bos" va "qir" yoki *boj gir* – "soliq sol" so'zlariga aloqasi yo'q. Toponim

urug' nomi asosida yasalgan bo'lib, 92 o'zbek qavmlari ro'yxatida turlicha nomlar bilan, masalan, muallifi noma'lum bo'lgan "Solnomayi xoja Abdulhakim Termizi" asarida *bachqir,* "Asomiyi navadu du firqayi o'zbak" asarida *bochqir,* "Tuhfat at-tavorixi xoniy" asarida *bojqir (boshqird)* tarzida yuritiladi.

Etnograf olim N.Elmurodov ushbu urug' nomini tarixiy manbalarda yana quyidagi variantlarda uchrashini qayd etadi: *boshqird // boshqirt // bojqir // boshqir // bachqir // pachqurt // boshqurt // beshqurt // boshg'irt* kabi.

Demak, *bachqir* urug' nomi *boshqird* etnonimining o'zaro variantdoshi hisoblanadi. O'.Qoratoyev *bosh + qird // bosh + gurt* etnonimining kelib chiqishini totem asosidagi *"bash karыshkыr",* ya'ni *"yo'l boshlovchi qashqir, bo'ri"* tarzida izohlaydi. Urug' nomi bora-bora joy nomiga aylangan.

BEDANA – Samarqand viloyati Bulung'ur tumani. Hech qanday qo'shimcha komponentlarsiz toza asos, toponim sifatida deyarli uchramaydi, uchrasa ham o'zining komponentlaridan birini takrorlaydigan toponimlar – ellipslar.

Samarqand atrofida Bobur davrida (XV–XVI asrlar va undan keyin ham) xon mulozimlariga ov qilish uchun xizmat qilgan "Bedana qo'rig'i" nomli qo'riqxona bo'lgan.

BEDANAQO'RIQ – Samarqand yonidagi joy nomi. Amir Temurning Dilkusho bog'ining janub tomonida (Panjakentga ketadigan yo'l yaqinida) bo'lgan. Bedanaqo'riq – o'zlashtirilmagan keng yaylov, shu yerda bedana ko'p bo'lgan va xon tomonidan qo'riqlangan, ya'ni qo'riq hisoblangan. Bu qo'riq to'g'risida Bobur bunday deydi: "Yana bir o'lang Bedana qo'rug'idur, Dilkusho bog'i bilan Samarqand orasida voqe bo'lubtur" (BN, 107).

BEDARAK – qishloq. Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning etimologiyasi aniq emas. O'zbek tilida *"bedarak" – daraksiz, nom-nishonsiz"* degan ma'noni bildiradi.

BEGISNING QUMI – qumlik. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qoraoy" OFY hududida joylashgan qumlik. Qumlikning bunday atalishiga qoraqalpoqlar tarixidagi tarixiy shaxs Aydosbiyning ukasi Begis shu qumlikka yaqin joyda yashaganligi sabab bo'lgan.

BEGISH – qishloq. Samarqand viloyati Qo'shrabot hamda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanlaridagi qishloqlar nomi. Toponimining kelib chiqishi haqida uch xil taxmin mavjud:

1. Bu toponim "begning ishi" ma'nosini anglatadi: *begning ishi > begishi > begish > Begish.* Bu holda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushib qolgan va ikki so'z birikib, qo'shma so'zga aylangan. So'ngra u toponimik leksika sathiga ko'chgan.

2. Etnonimdan hosil bo'lgan joy nomi: *begshi > Begish.* Qatag'on urug'ining bir bo'limi *begish* deb atalgan.

3. Odamlar "Beglar yashagan joy" ma'nosida topoobyektga **Begish** deb nom berishgan: *beg+-ish > begish > Begish*. Bunda beg so'zi ba'zi amaldorlarga beriladigan unvon, bunday unvonga ega bo'lgan amaldorlar ma'nosini ifodalaydi, *-ish* topoformanti ko'plik ma'nosini bildiradi: *beg+-ish > begish > Begish*. Bu joy nomi toponimik derivatsiya jarayonida hosil bo'lgan. Uning etimoni *beglar* ma'nosidagi *begish* yasama so'zidir. Shu o'rinda T.Nafasovning ushbu toponim etnonimdan shakllangan etnotoponim degan fikriga qo'shilmaymiz. Bizningcha, yuqorida keltirilgan uchinchi fikrda asos bor: *beklar* yashagan joyning shunday atalishi tabiiy. Uning etimoni *beglar* ma'nosidagi *begish* yasama so'zi hisoblanadi.

BEGLARQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Qabila boshliqlari yoki yirik harbiy sarkardalar unvoni bilan bog'liq nomlar tarkibida "bek" so'zi qo'llangan. Pastdarg'om tumanidagi *"Beklar"*, Urgut tumanidagi *"Beklar ravot"* nomli qishloqlar nomi ham shunday hosil bo'lgan.

BEGLIK – qishloq. Navoiy viloyati Konimex tumanidagi qishloq nomi. "Beglik" bu yerda beklar tomonidan boshqariladigan ma'muriy birlik sifatidagi "beklik"ni ifodalamaydi, balki "dehqonchilik", "o'qituvchilik" umumiy ma'nolariga ega. *Beglik – "beklar", "beklar yashaydigan qishloq"* yoki *"beklarga tegishli qishloq"*.

BEHIZOR – Farg'ona viloyatida keng tarqalgan joy nomlaridan biri. O'simlik va daraxt nomlari bilan ataladigan aholi manzilgohlari ko'p takrorlanishi kuzatiladi. Bunday fitooykonimlar tarkibidagi *-zor* qo'shimchasi ma'lum turdagi o'simlikni shu yerda keng tarqalganligini bildiradi. Viloyatda *Anjirzor, Bodomzor, Gulzor, Do'lanazor, Qayrag'ochzor, Ko'kalamzor, Ko'chatzor, Limonzor, Lolazor, Mevazor, Nokzor, Olmazor, Olchazor, Terakzor, Tokzor, Tolzor, Tutzor, Uzumzor, O'rikzor, Chamanzor, Chilonzor, Shaftolizor, Yulg'unzor* kabi qishloq va mahallalar nomi qayd etiladi. Bu nomlardan *Behizor, Mevazor* 3 martadan, *Uzumzor* 5 marta, *Bodomzor* 7 marta, *Gulzor, Olmazor, O'rikzor* 10 martadan takrorlanadi.

BEKAT – Jizzax viloyatining Forish tumani, Samarqand viloyatining Samarqand tumani, Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani. Chuqurbekat – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani. *Bekat – "kordon", "o'rmon xo'jaligi", "pochta stansiyasi", "karvon-saroy"* ma'nolaridagi ruscha – "beket" (fransuzcha – "piket") so'zidan kelib chiqqan. Qozoqlarning alimuli qabilasida beket urug'i bor (В.В.Востров. Родоплеменной состав и расселение казахов на территории Тургайской области. – Труды Института истории, археологии и этнографии АН Казахской ССР. – Алма-Ата, 1962. С. 87.).

BEKENCHILAR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. *Baken* – sudlarning tergov

olib borishi uchun langarda suzuvchi belgi. *Bekenchi* – bakenlarni o'rnatish va kuzatish bilan shug'ullanuvchi; *-lar* –ko'plik qo'shimchasi.

BEKLAR//BEGLAR – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax tumani, Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani, Farg'ona viloyatining Farg'ona tumani va Buxoro viloyatining Buxoro, Kogon, G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

Bek – 1) taniqli shaxsning maqomi, 2) feodalizm davrida O'rta Osiyo xonliklaridagi qaysidir bir shahar yoki tuman boshqaruvchisi (*-lar* – ko'plik qo'shimchasi; bu yerda toponim hosil qiluvchi formant rolida).

Beglar//beklar – *urug', urug' tarmog'i*. Qashqadaryo mang'itlari oqmang'it bo'limi, mirishkorlarning bir kichik tarmog'i – beglar//beklar deb yuritilgan. Qo'ng'irotlar oyinni bo'limidagi beshbola urug'ining bir bo'lagi ham ***beglar//beklar*** deb atalgan.

Boshqacha izoh: Buxoro xonligida beklarbegi yuksak lavozim va unvon hisoblangan. Viloyat yoki katta shaharlarning hokimi beklarbegi deyilgan. Qarshi bekligini ana shu unvon va lavozimdagi kishi boshqargan. Zikr qilingan joylar beklarbegining suyurg'oli (suyurg'ol – shoh, xon, amir tomonidan amaldor va sarkardalarga alohida xizmati uchun in'om qilingan yer-suv, yer-mulk[1]) bo'lgan. Natijada Beklarbegi soddalashib, qisqarib beklar tarzida nutqda qo'llangan bo'lishi va shu tariqa ***Beglar// Beklar*** deb atalganligi mulohazasini asosli deb qarash mumkin[2].

BEKLAR BULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Qo'ng'irot qabilasining oyinni bo'limida beshbola shoxobchasi bo'lib, u yigirma to'pdan iborat [Z.Ziyotov, 40]. Ana shu to'plarning biri "beklar // beglar" deb ataladi [T.Nafasov, 30-31]. Shuningdek, mang'itlarning oq mang'it urug'i va mirishkorlarning tarkibida ham "beglar" to'pi mavjud [S.Qorayev, 36]. Geografik termin "buloq" "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joyi, chashma" [O'TIL. 1, 371].

Shunga binoan bu gidronimni *"beklar // beglar to'pi aholi yashaydigan qishloqdagi buloq"* deb izohlash mumkin.

BEKLARSOY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Qo'ng'irot qabilasining oyinni bo'limida beshbola shoxobchasi bo'lib, u yigirma to'pdan iborat [Z.Ziyotov, 40]. Ana shu to'plarning biri "beklar // beglar" deb ataladi [T.Nafasov, 30-31]. Shuningdek, mang'itlarning oq mang'it urug'i va mirishkorlarning tarkibida ham "beglar" to'pi mavjud [S.Qorayev, 36]. "Soy" so'zi umumturkiy bo'lib, "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati nati-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 2-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.90.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B.56.

jasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545]. Shunga binoan bu mikrotoponimni "beklar // beglar to'pi aholi yashaydigan, soy bo'yidagi qishloq" deb izohlash mumkin. Etnooykonim o'zak+o'zak beklar//soy shaklida tahlil qilishimiz mumkin.

BEKLIK – Buxoro viloyatining Shofirkon, Vobkent tumanlaridagi qishloq nomi. XVII–XIX asrlarda Buxoro xonligi tarkibida ayrim viloyatlar bek tomonidan yoki to'ra tomonidan boshqarilgan. Bek so'ziga turli manbalarda turli darajada ta'rif berilgan. ***Bek (beg, bey)*** (turkiycha – *hukmdor, janob;* sinonimi – *amir*). 2000-yilda nashr qilingan "O'zbek ensiklopediyasi"da uning quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

1) qadimiy turkiy xalqlarda xon xizmatidagi alohida harbiy qism vakillari. Ular katta imtiyozlarga ega bo'lib, oliy harbiy zodagonlar tabaqasini tashkil qilgan;

2) Movarounnahr xonliklarida davlat arboblarining bolalari va yaqin qarindoshlariga, zodagonlarga berilgan faxriy unvon. Bek bolalari "bekzodalar" deb atalib, ular yoshlik chog'idanoq maxsus tarbiyachilardan harbiy-siyosiy ta'lim olganlar. Ular kelgusida mamlakatni idora qilish, dushman hujumini qaytarish, el-ulus taraqqiyoti yo'lida sa'yi harakat qilish ruhida tarbiyalangan;

3) Zakavkazye turkiy xalqlarida o'rta asrlar va yangi davrda yer egasi, mulkdor unvoni;

4) Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida o'rta asrlarda yer egalari unvoni;

5) Usmonli turk saltanatida viloyat (sanjoq) hokimi; XIX–XX asrlarda bek unvoni yuqori darajadagi turk zobitlari va amaldorlariga berilgan (1934-yilda bekor qilingan); XIX asrning ikkinchi yarmidan bek asosan murojaat shakli;

6) Eronning ayrim joylarida qabila boshliqlari unvoni;

7) Tunisda 1705–1957-yillarda valiahd shahzodalarga berilgan unvon[1].

Toponim tarkibidagi bek so'zi ayrim turkiy xalqlarda feodalizm davrida shahar yoki viloyat hokimlariga, shuningdek ba'zi amaldorlarga berilgan yoki meros bo'lib o'tgan unvon va shunday unvonli amaldor[2].

Demak, ***Beklik*** – *"bek va uning boshqarish apparati, oila a'zolari yashagan qo'rg'on, qal'a"* ma'nosini bildiradi.

BEKOBOD – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Jonli tilda nomning Begovot talaffuzi ham bor. Bekobod shahri Farg'ona vodiysining eng tor qismidan oqib chiqqan Sirdaryoning bo'yida, Farhod qoyalari etagida qad ko'targan. Nom ikki tarkibiy qismdan iborat, bek (beg) – O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mansab, unvon. Qadimda turkiy xalqlarda xon xizmatidagi alohida harbiy qism

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomlik. 1-tom. –T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. –B.680.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.97.

vakillari. Ular katta imtiyozlarga ega bo'lib, oliy harbiy zodagonlar tabaqasini tashkil qilgan. Movarounnahr xonliklarida davlat arboblarining bolalari va yaqin qarindoshlariga, zodagonlarga berilgan faxriy unvon.

Obod – ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib, joy nomini yasaydigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan", "go'zal" ma'nosidagi so'z. Obod – asli ob – "suv" so'zidan kelib chiqqan, degan fikr ham bor. Bekobod yaqinidan Dalvarzin va Do'stlik kanallari boshlanadi.

Chor Rossiyasi davrida (1899-yili) shahar atrofidan temiryo'l o'tkazilgan va ruslar temiryo'l stansiyasiga Xilkovo nomini berishgan. 1915-yilda temiryo'l stansiyasi yaqinida sement zavodi qurilgan, uning yonida paydo bo'lgan aholi punkti, keyinchalik Bekobod shahriga (1954-yildan) aylangan. Bekobod shahrida 1942-yili Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan qora metallurgiya zavodi barpo etildi. 1943-yili shahar yonidan oqib o'tadigan Sirdaryoda Farhod gidroelektrstansiyasi qurilgan. Hozirda Bekobod Toshkent viloyatining sanoatlashgan yirik shahri bolib, Dalvarzin cho'lining janubi-sharqida, Sirdaryoning har ikkala sohilida joylashgan.

Tuman ma'muriy markazi Zafar shaharchasi (1954-yildan). Zafar – rasmiy-ma'muriy tarzda yaratilgan nomlar sirasiga kiradi. *Zafar* so'zining yutuq, g'alaba kabi ma'nolari bor. Aholi punkti 1918–1972-yillarda Olmazor deb atalgan. 1870-yili Rossiyadan ko'chirib keltirilgan ruslar barpo qilgan aholi punkti Korzinkin xutori deb atalgan va o'sha vaqtlar Dalvarzin volostining markazi bo'lgan.

BEKSIIK – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli, Xo'jayli, Chimboy tumanlari. Beksiik – ktay qoraqalpoq qabilasi urug'laridan biri (Т.А. Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса. Рис. 3. Таблица родоплеменных делений).

BEKTEMIR – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Toshkent shahar tarkibida Bektemir tumanini tashkil etish to'g'risida"gi 1990-yil 27-fevraldagi 3938-XI-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Bektemir – bu atoqli ot yoki etnonim; igdir turkman qabilasida bektemir urug'i qayd etilgan. Aslida, kanal shunday atalgan bo'lib, hududning nomi tumandan oqib o'tuvchi Bektemir kanali nomidan olingan. 1960–73-yillar Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Bektemir shaharchasi, 1973–80-yillarda shahar, 1981–90-yillarda davlat va jamoat arbobi Narimon Narimonov (1870–1925) nomi bilan yuritilgan. 1990-yil 27-fevraldan Toshkent shahridagi tuman. Bektemir tumani Toshkent shahrining janubi-sharqiy tomonida bo'lib, Katta halqa yo'lining tashqarisida, asosan, Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan. Bektemir tumani shimol va shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Qibray tumani, Toshkent shahrining

Yashnobod va Mirobod tumanlari, sharqda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, janubi-sharqda O'rta Chirchiq tumanlari, janubi-g'arbda Toshkent viloyatining Zangiota va Toshkent shahrining Sergeli tumanlari, janubda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani bilan chegaradoshdir. Demak, etnonim gidronimga ko'chib, keyinchalik etnotoponimga aylangan.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ham mazkur nom bilan atalgan joy nomlari mavjud.

BEKTO'BI – qishloq. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi qishloq nomi. Bekto'bi – beklar guruhi. To'p – urug' bo'limlarini ifodalash uchun nisbatan qo'llaniladigan terminlardan biri (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 27–28).

BEKTO'P – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bek turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxs [O'TIL. 1, 213].

"To'p" so'zi aynan "to'da" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 241]. Bundan kelib chiqadiki, beklarga mansub kishilar yashagan maskan ***Bekto'p*** deb nomlanadi.

BELESMOZOR – Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi o'lka. Qirg'izcha *beles* – "qalin tog' tarmog'i" (К.К. Юдахин. Киргизско-русский словарь, 1 книга. –Фрунзе, 1985. С. 127), *Belesmozor – "Tog' tarmog'idagi qabriston"* (u yerda qirg'izlar yashashadi).

BELIBOYLI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani. Tarkibi soddalashgan, azaliy shakli o'zgargan. Boyli – urug' nomi. Qipchoq turkiy tillari (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird, o'zbek qipchoq lahjasi)ga xos urug', qabila – *boyli/moyli.* Nomning bosh qismi qadimgi turkiy tilga mansub *"bo'rluk" (tepalik, qir; chakalak, to'qay)* so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin: *bo'rluk→ bo'llik→ bullik→ bellik→ belli→beli.* ***Beliboyli*** *– "Tepalikdagi yoki qir quyisidagi Boyli qishlog'i"* yoki *"boylilarning balandlik etagidagi qishlog'i".*

BELTOV – qir. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani hududining shimoli-sharqiy qismida joylashgan qirlar. Balandligi 140–145 metr atrofida. Bu ikki oronimik *"bel"* va *"tov"* terminlaridan tarkib topgan. *"Bel"* mahalliy geografik termin sifatida *"tog'dan oshib o'tish joyi"* degan ma'noni anglatadi. Qadimgi turkiy tillarda *"bel"* so'zi *"to'be, tepa, do'ng", "past tog'", "tog' tizmasining pasaygan joyi"* ma'nolarida (asosan balandliklarda) joy nomlari tarkibida uchraydi. *Beltov – "past tog'", "tog' tizmasining pasaygan joyi", "tog'dan oshib o'tish joyi".*

BELSOY – soy. Toshkent viloyatining Bo'stonliq hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Birinchi komponent "tog' va

tepaliklarning egarsimon eng baland joyi" ma'nosini anglatuvchi geografik termin [O'TIL. 1, 219].

Geografik termin "soy – "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha, oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" [O'TIL. 3, 545].

Demak, mazkur gidronimni "tepalikning egarsimon qismidan o'tuvchi suv o'zani" deb izohlash mumkin.

BERDIBULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Gidronimning oykonimga aylangan shaklidir.

Berdi ismli shaxs buloq yonida qo'nalg'a barpo etganligi bois buloqqa shu nomni berishgan. Gidronim oykonimga o'zgargan. Bo'ron buloq oykonimi ham shu tipdagi antropooykonim.

BERUNIY – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973, Kat sh. –1048, G'azna sh.) – ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan biri. Mutaxassislarning fikricha, uning nasl-nasabida *"berun"* so'zi *"tashqi"*, *Beruniy* esa *"shahardan tashqarida yashovchi kishi"* ma'nosini bildiradi. Abu Rayhon Beruniy shu hududda joylashgan qadimiy Kat shahrida tavallud topgan.

Geograf, sayyoh, olim va yozuvchi Asror Nizomov "Beruniyning gidrologik merosi" nomli monografiyasida Beruniy taxallusini yangicha talqin qilgan. Unga ko'ra, ko'pchilik olimlar ta'kidlaganidek, Abu Rayhon Beruniy shahardan tashqarida emas, balki shaharning o'zida tug'ilgan. Chunki o'rta asrlarda Kat shahrining Raboti Berun degan nomi ham bo'lgan. Nomshunos olim, ayrim tarixiy manbalarda, jumladan, A.Somoniy asarlarida shahar "Raboti Berun" nomi bilan qayd qilinganligi va o'sha davrda A.Beruniy tug'ilganligini hisobga olib, Beruniy taxallusining kelib chiqishi sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan.

Amudaryoning o'ng sohilidagi bu shahar qadimda Kat deb atalgan va Xorazmning poytaxti bo'lgan. Qadimgi Kat (Kad) shahrining xarobasi hozirgi Beruniy shahridan taxminan 2,5 km shimolroqda joylashgan. 1957-yilgacha shahar Shabboz (Shayx Abbos Vali) deb atalgan. 1957-yil shaharga shu yerda tug'ilib-o'sgan olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy nomi berildi. Beruniy 990-yillarda shaharda astronomik kuzatishlar olib borgan. X asrda fors-tojik tilida bitilgan muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" nomli geografik asarda "Kat – Xorazmning bosh shahri, savdogarlar oqib keladigan joy, shahar katta boylikka ega, yostiq-choyshablari, qavilgan kiyimlar, ip gazlamalar, kigiz va boshqalar o'sha yerdan olib kelinadi", deb yozilgan. Kat o'rta asrlarda turkiy elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan. Tarixiy manbalarga qaraganda, shahar turli davrlarda turlicha

nomlangan. Ular orasida eng mashhuri Kat – xorazmiy tilida "aholi yashash manzili" degan ma'noni anglatgan.

O'rta asr arab geografi Yoqut Hamaviyning yozishicha, Kat Jayhun (Amudaryo)ning sharqiy qirg'og'ida, Jurjoniyadan yigirma farsax narida joylashgan. Bozori shahar markazida, Jardurishak soyi bo'yida bo'lgan. Muqaddasiyning ma'lumotlariga ko'ra, Kat shahriston deb ham atalgan va kattaligi jihatidan Nishopurga tengdir. A.Samoniy esa o'zining "Kitob ul-ansob" asarida Kat raboti "Berun" deb atalganini qayd etgan. Beruniy Afrig'iylar sulolasining asoschisi Afrig' shahri ichida 3 qavat devor bilan o'ralgan qasr qurdirganligi, uning devorlari nihoyatda baland bo'lib, taxminan 20 km uzoqlikdan ham ko'rinib turganligi haqida ma'lumot yozib qoldirgan.

X asrda Kat Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. Keyinchalik Amudaryo shahrini yuvib keta boshlagach, aholi uning sharq tomoniga ko'chib o'tib, yangi Kat shahrini qurgan. X asr oxirlariga kelib eski shahar, asosan, yuvilib ketib, poytaxt Gurganj (hozirgi Ko'hna Urganch)ga ko'chirilgan. 995-yil Gurganj hokimi Abulabbos Ma'mun ibn Muhammad dastlabki Xorazmshohlar sulolasini tor-mor keltirgach, Kat shahri o'zining siyosiy ahamiyatini yo'qotgan. Arab sayyohi Ibn Battuta Katni Xorazm (ya'ni, Gurganj) bilan Buxoro o'rtasidagi aholi yashaydigan yagona shahar ekanligini eslatib o'tgan.

XIV asrda shahar Xiva bilan birga Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. 1372-yili shaharni Amir Temur egallagan. XVII asrda yangi Katni suv bilan ta'minlab turgan yop (yob) ni Amudaryo yuvib ketadi va Xiva xoni Anushaxon daryoning chap qirg'og'ida Toza Yormish yopni qazdirib, uning bo'yida bir qal'a qurdirgan (1681), so'ng eski shahar aholisi o'sha yerga ko'chib o'tgan.

XIX asr boshida bu joyni ham Amudaryo yuvib ketgan, shahar aholisi daryoning o'ng sohilidagi Shayx Abbos Vali mozori tevaragiga kelib joylashgan. Shundan e'tiboran aholi punkti Shobboz deb atala boshlagan. 1957-yili Shobboz shaharchasiga Beruniy nomi berilgan. Tuman ma'muriy markazi Beruniy shahri (1962-yildan).

BESARANG – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlarida *Besaron* – (بسران) shaklida uchraydi. Xalq ichida yurgan rivoyatlarga ko'ra bu joyga qadimda *besar*, ya'ni boshsiz holdagi bir chavandoz kelib qolgan va shu voqea keyinroq qishloq nomiga asos bo'lgan.

Biroq qishloq ahlining etnik tarkibi o'rganilib, toponimning arxiv hujjatlarida qayd etilgan dastlabki shakllaridan biri – *Besaron* lisoniy jihatdan tahlil etilsa, nom etnonim asosida shakllangani ma'lum bo'ladi.

Bizningcha, toponimning yuzaga kelishi qirg'izlarning qipchoq urug'i tarkibidagi *besh sari / bes sari* etno-

nimi bilan aloqador hisoblanadi. *Besh sari* etnonimi qozoq va qoraqalpoq urug'larida ham uchraydi va *bes sari* shaklida qayd etiladi. Nom tarkibidagi *-on* ko'plik qo'shimchasi esa toponimiyada aksariyat etnonimlar bilan birga qo'llanib, kishilarning shu urug'-qabilaga mansub ekanligini bildiradi *(Bes sari + on)*.

Demak, toponim morfemik jihatdan quyidagicha rivojlanib borgan: *Beshsarion // Bessarion > Besaron > Besarang*. Urug' nomi bevosita qishloq nomi uchun asos bo'lgan.

BESJAP – kanal. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy va Qorao'zak tumanlari hududida oqadigan kanal. Bu kanalni beshta kishi qazdirgan va qazib bo'lgach, ular kanal nomini o'zlarining ismlari bilan atashi ustida janjallashadi. Oxirida esa kanal nomi beshalasining ham nomi bilan *Besjap* deb atalgan.

BESKEMPIR OVULI – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning Beskempir urug'i nomi bilan atalgan qishloq nomlari. Bunday nom bilan atalgan qishloqlar Chimboy tumanining "Qosterak", Qorao'zak tumanining "Olg'abos" OFY hududlarida bor.

BESSARI – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli, Chimboy tumanlari. Bessari – qoraqalpoqlarning qtay (xitoy) qabilasi urug'laridan biri (Т.А.Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса, рис. 3, таблица родоплеменных делений).

BESSARIOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasida bu nom bilan atalgan qishloqlar Taxtako'pir tumanining "Qoraoy", "Otako'l", Chimboy tumanining "Kenes", "Tazg'ara", Qorao'zak tumanining "Qarshig'ali" OFY hududlarida bor. Qoraqalpoqlarning Bessari urug'idan bo'lgan xalq bu qishloqlarda ko'pchilikni tashkil qiladi va ular bu yerlarda azaldan yashashi sabab qishloq nomlari shunday atalgan.

BEVAZANON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Kogon tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Bevazan* forscha – *"beva", bevazanon – "bevalar". Bevazanon – "bevalar ko'p qishloq"*, qishloqqa balki bevalar tomonidan asos solingandir va nom ham shu yerdan paydo bo'lgandir.

BESHARIQ – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, pasttekislik, tekislik, qir, toshloq va qumli chala cho'llardan iborat. Janubi-g'arbida qum barxanlari, sharqida Markaziy Farg'onaning So'x – Isfara massivi joylashgan.

Ayrim manbalarda Beshariq nomi quyidagicha izohlangan: "Qadimda aholi suvsizlikdan qiynalib ariq qazib, Ravot tomonidan suv olib kelingach, shodlanib bu ariqni "Behisht ariq" deb nomlaganlar, keyinroq bu yerni Beshariq deb talaffuz qilganlar. Yana bir variantda esa suvsizlikdan qiynalgan xalq Sirdaryodan beshta ariq orqali suv o'tkazib ichganlar, shunga bog'liq holda Beshariq deb nomlangan" deyiladi.

T.Nafasovning yozishicha, ariq so'zi oldidan uch, besh, olti kabi sonlarning qo'shilishi nutqda bor hodisa. Uchariq, Beshariq, Oltiariq nomlari shunday yaratilgan. Bunday nomlarning yaratilishida ariqni boshlangan joyida bir necha shoxobchalarga bo'linishi nazarda tutiladi. Nom dastlab gidronim sifatida yaralgan, so'ngra shu yaqin masofada paydo bo'lgan aholi punktiga nom bo'lib o'tgan.

Ariq (ayiriq so'zidan) – daryo, soy, kanal va boshqalardan sug'orish, suv bilan ta'minlash maqsadlarda inson kuchi bilan chiqarilgan suv shoxobchasi. Qadimdan har bir ariq sug'oriladigan voha, kesib o'tadigan maydon, shahar, qishloqlar yoki uni ochgan kishi nomi bilan atalgan. Katta ariq – anhor deyilgan. Anhor o'zani kengroq, tubi chuqurroq, notabiiy suv yo'lidan besh, ba'zan ko'p yoki oz ariqqa bo'lingan band quyisidagi joy – Beshariq. Tuman ma'muriy markazi Beshariq shahri (1983-yildan).

BESHATMON – ariq. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanining Nanay qishlog'idan qo'shni Qirg'izistonning Karavon shahriga oqib o'tuvchi ariq nomi. *Beshatmon* gidronimi "besh botmon" so'z birikmasining fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lib, birikma tarkibidagi ikkinchi so'zning birinchi bo'g'inidagi ***b*** undoshi davrlar davomida tushib qolgan, keyinchalik so'z birikmasi, ya'ni otli birikma yuzaki qaraganda etimologik talqini murakkab tuyuladigan suv obyekti nomiga aylangan: *besh botmonli > besh botmon > besh + atman > Beshatmon.* Aniqrog'i, yer o'lchovi tushunchasini ifodalovchi birikma onomastik konversiya usulida atoqli otga, gidronim (ariq nomi) ga o'tgan. "Botmon" so'zi asli fors-tojikcha bo'lib, og'irlikni ifodalovchi o'lchov birligi. Manbalarda *mann* shaklida ham qo'llanadi.

Botmon so'zi Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari: Arabiston, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Hindistonda, shuningdek, Markaziy Osiyoda qo'llanib kelingan. Shariatga ko'ra, botmon asosan 0,832 kg ni tashkil qilgan, lekin turli mamlakat va davlatlarda uning mezoni har xil bo'lgan. Markaziy Osiyoda ham botmonning vazni o'zgarib turgan. Jumladan, Farg'ona vodiysida botmon 8–10 pud (131,044–163,805 kg)ga teng bo'lgan[1]. Bu o'lchov paxta va mevalarni o'lchashda ham qo'llanilgan. Markaziy Osiyoning ko'p joylarida esa botmon yer sathini o'lchash birligi sifatida qo'llanilib, 1 botmon yer deganda, 1 botmon don yoki paxta ekiladigan maydon tushunilgan[2]. Hozirgi o'zbek tilida botmon taxminan bir gektarga teng sath, yer o'lchov birligini ham anglata-

[1] Хинц В. Мусульманские меры и весы с переводом в метрическую систему. – Москва, 1970.

[2] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2001. – B. 171.

di[1]. Mavlon akaning meros mahriga tushgan ikki botmon yeri bor (H.G'ulom. "Mash'al"). Biz yuqorida tilga olgan ariqning nomlanish tarixi "*botmon hisob*" so'zining ana shu so'nggi ma'nosi bilan bog'liq.

Nanay qishlog'i hududidagi mazkur ariq dastlab besh botmon – besh gektar yerni sug'orishga xizmat qilganligiga ko'ra, *"Besh botmonli yer arig'i"* deb atalgan. Vaqtlar o'tishi bilan birikma tarkibidagi *"ariq"* so'zi tushib qolgan, *"besh botmon"* birikmasi xalq jonli nutqida hozirgidek *Beshatmon* shakliga kelib qolgan.

Demak, *Beshatmon* gidronimining etimoni *besh botmonli yer arig'i* otli birikmasidir. Gidronim tarixan uch ma'noli qismdan tarkib topgan: *besh, botmon, -li > besh botmonli*. Keyinchalik til taraqqiyoti va toponimik derivatsiya natijasida so'z birikmasi fonetik o'zgarishlar bilan gidronimga aylangan: *besh botmonli yer arig'i > besh botmonli > besh botmon > beshatman > Beshatmon*.

BESHBOLA – qishloq. Samarqand viloyatining Jomboy, Bulung'ur, Ishtixon, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi. Beshbola – etnonim. Qo'ng'irotlarning oyinni bo'limida, Zarafshon qoraqalpoqlari, sariqipchoqlar tarkibida, turkman juzlari, marqa shoxobchasida Beshbola urug'i mavjud. Qishloq aholisining etnik tarkibi asosida qishloq nomlangan (O'rinboyev, 2003:29).

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar kengashiga kiruvchi qishloqlardan biri ham Beshbola deb nomlanadi. Qo'ng'irot qabilasining kichik bir guruhi beshbola deb atalgan. Respublikada bu etnonim joy nomi sifatida 10 martagacha takrorlanishi qayd etiladi.

Professor Z.Do'simov: Mazkur toponim forscha *"Bolo"* so'zidan olingan bo'lib, *"Tepalik, balandlik"* degan ma'noni beradi", deb yozadilar. Bunday yondashuvda *Beshbola – "Tepa oldidagi qishloq"* degan ma'noni anglatadi (Do'simov, 1977). Viloyatdagi Beshbola qishlog'ining geografik o'rnini (relyefini) o'rganish, bu nomni etnonim (urug' nomi) deb izohlash haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Viloyatda *Beshog'a, Beshsari, Beshog'ayni, Beshkal, Beshkaltak* kabi joy nomlari qayd etilgan, ularning ko'pi etnonim – urug' nomidir.

BESHBOLAARIG'I – ariq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi ariq. Qishloq nomining gidronimga ko'chishi natijasida hosil bo'lgan termin. O'zbek-qipchoqlarning qoraqipchoq tarmog'iga kiruvchi urug'lardan biri Beshbola deyiladi. Jomboy tumanida ham Beshbola nomli qishloq bor.

BESHBULOQ – qishloq va mahalla. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo va Guliston tumanlaridagi mahalla va qishloq nomlari. Mo'g'ul va turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo'lgan terminlardan biri ***buloq***, u yerosti

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. T. 1. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 135.

suvlarining tabiiy holda yer yuzasiga sizib chiqqan joyga aytiladi.

Buloq so'zining areali ancha keng va toponimik termin sifatida barcha turkiy tilli hududlarda qo'llaniladi. Buloq so'zi "oqmoq, aralashtirmoq" ma'nosidagi bula fe'lidan kelib chiqqan, degan xulosa mavjud.

Demak, Beshbuloq – *"besh buloqdan iborat joy, buloqlari ko'p joy"* degan ma'noni anglatadi.

BESHBO'YNOQ – qishloq. Andijon shahrining shimolidagi qadimiy qishloq nomi. Qadimgi turkiy tilda tog'ning ingichka siqiq joyi Bo'ynoq atalgan va ikki balandlikni tutashtirgan oraliqqa aytilgan. Hozirgi Beshbo'ynoq qishlog'ining qadimgi o'rni Andijon–Bo'taqora adirlarining yonbosh-etak qismi cho'zilib ketgan balandlik tepaliklarning oralig'i edi. XVI asrdan boshlab o'zbek urug'lari o'rnashib, landshaft asrlar davomida o'zgarib ketgan.

BESHECHKI – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Echki – etnonim. Echki – qatag'on qabilasi o'zbek urug'i nomi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 105).

BESHIKCHILAR – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi. ***Beshikchilar*** toponimiga asos bo'lgan *beshik* so'zi V.V.Radlov[1] tomonidan ham, L.Budagov[2] tomonidan ham *beshik, bəshik* shaklida qayd etilgan. Uning tarqalish areali bolgar va serb kabi slavyan tillariga ham borib taqalishi qayd etilgan[3].

Shu nom bilan atalgan o'ram aholisining hozir ham asosan duradgorlik bilan shug'ullanishi ushbu toponim uchun *beshikchi* shaklidagi zoonim emas, kasb-hunar nomi asos bo'lganini ko'rsatadi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

BESHKAPA – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut va Andijon viloyatining Asaka hamda Farg'ona viloyatining Beshariq va Namangan viloyatining Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. "Beshkapa" – etnonim; adagine qirg'iz qabilasida Beshkepe urug'i, qoraqalpoqlarda Kepe urug'i, o'zbeklarda Kapa urug'i bo'lgan.

Mazkur toponim Farg'ona vodiysida ham keng tarqalgan joy nomlaridan hisoblanadi. Qamishdan yasalgan, usti somonli loy bilan suvalgan uylar – kapa deyilgan. Beshkapa – beshta kapa ma'nosidadir. Beshkapa bora-bora urug' nomi – etnonimga aylangan. Viloyatda *Beshkapa, Kapa, Kapasaroy, Kapayangi, Katta Beshkapa, Kichik Beshkapa, Pastki Beshkapa, Yuqori Beshkapa* kabi qishloq va mahallalar bor.

---

[1] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том IV. – Сб. 1911. – С. 1635.

[2] Будагов Л.З. Сравнительный словарь туреско-татарских наречий. Том I. 1869. – С. 259.

[3] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1978. –С. 123.

Ushbu kapa so'zi orqali hosil qilingan toponimlar respublikamizda joy nomi sifatida 40 martaga yaqin takrorlanishini, uning asosiy qismi Farg'ona vodiysida ekanligini qayd etish mumkin.

BESHKENT – shahar. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi ma'muriy-hududiy birlik (1982). Naxshab viloyatida eng qadimiy aholi maskani, Qarshi quyisida va atrofida "kent" so'zli birorta qo'rg'on, qishloq, shahar bo'lmagan. Yerqo'rg'on xarobasi o'rnida bo'lgan aholi maskani (shahar) Navkat (Yevropa ilmiy manbalarida – Navtaka) deb atalgan. Qarshi shahri janubida Kat qo'rg'oni bo'lgan. Hozir Kat mahallasi, yaqin o'tmishda Kat qishlog'i. Beshkentdan quyida Navkat qishlog'i bo'lgan. Hozir bu qishloqning nomi – Novqat. Hozirgi Beshkent nomi Somoniy, Yoqut Hamaviy asarlarida *Fijkat/Fijaket* (В.В.Бартольд Сочинения. Т. 1. –М., 1963. – С. 196). XVI asr vaqf hujjatlarida *Vijkat/Bijkat/Bejkat* (Р.Г.Мукминова. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. по материалам "Вакф-наме". – Т., 1966. – С. 218, 291). Bu nomning (**p**) undosh tovush bilan boshlanadigan varianti ham bo'lgan: *Bijkat/ Bujkat/ Bijkat/ Pijkat/ Pejkat/ Vijkat/ Fijkat.* Aholi maskanlari nomida **kat** va **kent** so'zli nomlar sarhadi bir-biridan farq qiladi.

Eroniy tilli hududlarda **kat** so'zli, turkiy tilli hududlarda esa **kent** so'zli qishloq, qo'rg'on, shahar nomlari tarqalganligi aniqlangan. **Kat** va **kent** so'zlari qaysi hududdagi nomlar tarkibida bo'lishidan qat'i nazar, qo'rg'on, qishloq, shahar ma'nosini bildirgan. Nomning bosh qismi bo'lmish **besh** so'zi **Beshkent** nomi haqida turli izoh, talqinlar yaratilishiga sabab bo'lgan: *Besh+kent – beshta qo'rg'on. Besh+kent – yaxshi qo'rg'on.*

Fors-tojik tilida **besh** so'zining *"yaxshi, ajoyib, durust"* ma'nolari ham bor. Besh+kent – Beshkas nomining o'zgargani, beshta og'ayni beshta qo'rg'on qurgan. Besh+kent nomi azalda Pesh+kent tarzida bo'lgan – old qo'rg'on, oldingi qo'rg'on, sharq tomondagi qo'rg'on (Z.Do'simov, 1977). Beshkent – beshkal urug'ining qishlog'i. Bu izohlarning barchasi o'zbekcha **"besh"**, fors-tojikcha **"pesh"** so'zlarining ma'nolariga asoslanib yaratilgan. Beshkent nomidagi **besh** so'zining o'zbekcha **besh** so'ziga daxli yo'q. Nomning bosh qismidagi *besh/pesh/bij/pij/fij/vij* so'zi shahar/qo'rg'onning joylashgan o'rni bilan bog'liq belgisini bildirgan. Qo'rg'onning o'rni Naxshab shahrining o'rni bilan qiyoslangan.

Ana shu qiyos asosida aytish joizki, nom boshidagi "besh" so'zi – "quyi, adoq" yoki "old, yuqori" ma'nolarini bildirgan bo'lishi mumkin: *Beshkent – quyi qo'rg'on. Beshkent – yuqori qo'rg'on, kun chiqar tomondagi qo'rg'on.*

BESHKUBI – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin hamda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanlaridagi qishloq nomi. Beshkubi – etnonim: Xitoy-yuzi unchalik katta bo'lmagan o'zbek urug'lari avlodidan sanaladi (X.Doniyorov, O'zbek shajara va shevalari).

BESHOG'OCH DARVOZASI – darvoza. Toshkent shahri Ko'kcha dahasining janubiy qismida. Bu darvoza nomini Beshog'och qabilasi nomidan olingani qayd etilgan. U holda mazkur toponim etnotoponimlar guruhiga mansub bo'ladi. Ba'zi tadqiqotlarda esa bu so'z "beshinchi manzil" ma'nosini anglatishi haqida yozilgan. Mazkur darvozaning nomi Muhammad Solihning XIV–XV asrlar uchun bergan ro'yxatida mavjud. Keyingi davr rus manbalarida ham u qayd etilib, "Beshagach" shaklida berilgan. Beshog'och darvozasi XX asr boshlarigacha bo'lgan, bu yerlarda Beshog'och mahallasi joylashgan. Hozir mazkur hudud "Beshyog'och" deb ataladi, sababi, vaqt mobaynida "Beshog'och" toponimi xalq talaffuzida birmuncha o'zgarib, "Beshyog'och" shaklini oldi.

BESHPAYKAL – qishloq. Surxondaryo viloyatining Angor hamda Samarqand viloyatining Narpay va Buxoro viloyatining Kogon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Qadimgi O'rta Osiyo paykal termini.

X asrdan boshlab, manbalarda yersuvdan foydalanish haqida tilga olinadi, u turli tumanlarda har xil qo'llaniladi: yer uchastkalari maydoni va suvni o'lchash ma'nosida. Paykallarning o'lchovi turli joylarda yer uchastkasi sifatida turlicha bo'lgan: 12 gektardan 160 gektargacha. Paykal hammasidan ko'proq suvdan foydalanish bilan bog'liq yer uchastkalari sifatida mashhurdir. **Paykal** so'zi ikki komponentdan tashkil topgan: **pay** (turkcha) – "qism", yer maydoni; **kal** (forscha) – "xandaq" (А.Б.Вильданова, О.Д.Чехович. Об общинном водо-земельном пользовании, обозначаемом термином пайкал, ж. "Народы Азии и Африки", 1965, №1. С. 110–112).

Mazkur komponentlar bilan bog'liq tarixiy toponimlar Buxoro shayxlari arxivlarida qayd etilgan (XVI–XVII asrlar) (РП.П. Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледелия в Средней Азии в XVI–XVII вв. –М. – Л., 1954. С. 188).

Mazkur komponentlar bilan bog'liq tarixiy toponimlar Buxoro shayxlari arxivlarida qayd etilgan (XVI–XVII asrlar) (РП.П. Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального земледелия в Средней Азии в XVI–XVII вв. –М. – Л., 1954. С. 188).

BESH QAHRAMON – Samarqand viloyatining Pastdarg'om hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi.

Son+ot strukturali ikki komponentli mikrooykonim. Birinchi komponent sanoqni bildirsa, qahramon shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, jonbozik, mardlik qilib, o'zini ko'rsatgan shaxs [O'TIL. 5, 272; 591].

BESHQAYRAG'OCH – mahalla. Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. "Davlatobod", Abdulla Qodiriy, "Taqachi", "Sharq yulduzi", "Ibrat", "Oqmachit", Hayratiy mahallalari bilan chegaradosh. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mahalla

hududi 1910–12- yillarda "Tuyatortar karvon yo'li" nomi bilan atalib kelingan. "Temurnoma" asari muallifi Salohiddin Toshkandiy shu mahallada yashab, ijod qilgan. Mahalla guzarida beshta qayrag'och daraxti ekilgan bo'lib, Salohiddin Toshkandiy taklifi bilan mahalla "Beshqayrag'och" nomi bilan atalgan.

BESHQUDUQ – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Beshni mahalliy aholi tojikcha pas/t/ so'zining o'zgargan shakli deb hisoblaydi. Besh so'zining qadimiy ko'hna ma'nolari bo'lgan. Besh quduq – qadimiy quduq bo'lsa kerak. ***Beshquduq*** – *"yuqoridagi quduq, yuqori tomondagi quduq"* ma'nosini bildiradi. Z.Do'simov pesh (pastning aksi, yuqori, baland) so'zining o'zgargani deb qaraydi. Apellyativning birinchi qismi bo'lgan beshni besh raqamiga aloqasi yo'q. Aslida esa u pesh bilan aloqador bo'lib, pesh – old tomon ma'nosini ifodalaydi.

Demak, ***Beshquduq*** toponimi – *"yuqoridagi quduq, old tomondagi quduq"* demakdir.

BESHQO'L – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron tumani "Qurama" QFY hududida, Ohangaron daryosining o'ng sohilida, "Toshkent–Andijon" avtotrassasining 130-kilometrida joylashgan kichik qishloq. Uning shimoliy qismidagi Chatqol adirlaridan Beshqo'lsoy oqib tushadi. Toponimshunos S.Qorayevning yozishicha, turkiy tillarda "qo'l" ("qol") so'zining "soy", "jilg'a" degan ma'nosi ham mavjud (*Qorayev, 1978, b.97*). Beshqo'l beshta kichik irmoqlardan hosil bo'lgan soy demakdir.

BESHQO'SH – qishloq. Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi bo'lib, o'zbek urug'laridan birining nomi sifatida etnotoponim sanaladi.

Asosiy aholisi "***beshqo'sh***" urug'idan bo'lgani uchun ushbu qishloq nomini olgan. Bu yerda yashovchi aholi, asosan, Zomin tog'laridan ko'chib kelgani haqida ilmiy manbalarda qayd etiladi.

BESHSARI – qishloq. Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Namangan viloyati Pop tumanida ham shu nomdagi qishloq qayd etilgan. Sari qipchoqlarning bir urug'i Beshsari deb atalgan (Qorayev, 1987).

BESHTA – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. O'zbek tilida jamlovchi sonlardan toponimlar hosil qilinmaydi (Beshta – beshala). Z. Do'simovning fikrlariga ko'ra, **Peshdaha** (daha – ma'muriy birlik) –Beshtaga aylangan. (Aslida, Beshta besh raqami bilan emas, Xorazm shevasida **"pesh"** so'zi bilan bog'liq, **pesh – "old tomon"** ma'nosini ifodalagan, shuning uchun Z.Do'simov **Peshdaha** deb to'g'ri ta'kidlagan va **Peshdaha** – "old qishloq" ma'nosini ifodalaydi).

BESHTENTAK – Toshkent viloyatidagi qishloq nomi. Toponimning shakllanishi va kelib chiqishi to'g'risida bir necha farazlar mavjud:

1. Avvallari odamlar bir-biriga haddi siqqani uchun hazillashib chaqirish ma'nosida bir guruh vakillari ikkinchi bir guruhning vakillarini chaqirishda "besh tentak" deyishgan.

2. Toponim ikki ma'noli qismdan iborat: *besh, tentak*. Ikkalasi ham topoasos hisoblanadi. Bular birikib, oldin qo'shma so'zni, keyin etnonimlashuv jarayonida etnonimni, so'ngra toponimlashuv jarayonida etnotoponimni hosil qilgan: *besh+tentak > besh tentak > beshtentak > Beshtentak*.

Demak, bu toponim etnonimdan shakllangan bo'lib, *"beshtentak urug'i vakillari yashagan joy"* degan ma'noni anglatadi. Uning etimoni qo'shma so'z shaklidagi *beshtentak* etnonimi, etnonimning etimoni esa *besh tentak* qo'shma so'zi sanaladi.

Beshsariq toponimi ham etnonim nomidan hosil bo'lgan. Toponim ikki topoleksemadan tashkil topgan: *besh, sariq*. U quyidagicha shakllangan: *besh+sariq > besh sariq > beshsariq > Beshsariq*. Ikki so'zning qo'shilishidan, avval *beshsariq* etnonimi hosil bo'lgan, so'ngra etnonim toponimga ko'chgan. Toponim beshsariq urug'i vakillari yashagan obyektning nomini ifodalab, etnotoponimlardan biri hisoblanadi. Uning etimoni *beshsariq* etnonimi, etnonimning etimoni esa *beshsariq* qo'shma so'zi hisoblanadi.

BESHTERAK – qishloq. Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi qishloq nomi. O'simliklarning kamligi yoki sanoqli ekanligini, biroq shu hudud uchun xarakterli belgi vazifasini o'taganligi uchun qo'yiladigan nom (Oxunov, 1989). Bunday nomlardan viloyatda *Chorbog', Yakkatut, Qo'shchinor* kabilarni, qo'shimchasiz o'zak holida ishlatiladigan *Archa, Rayhon, Sadda, Qayrog'och* nomli qishloqlarni ham keltirish mumkin.

BESH TO'LA – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ikki komponentli mikrooykonim. ***Besh*** – geografik obyektning miqdorini ko'rastuvchi son. Mikrooykonim tarkibidagi ***to'la*** – kishilar tomonidan istiqomat qilish uchun tuproqli qir va tepaliklarda o'yib kovlash natijasida yasalgan uy.

Demak, bu ushbu aholi yashash maskanida tarixiy joylar borligidan dalolat beradi.

BESHTO'R – soy. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi soyning nomi. Ushbu gidronim tarkibidagi ***to'r*** termini qirg'izchada "baland tog' yaylovi" demakdir ("uyning to'ri" deganday "tog' vodiysining to'ridagi tog' yaylovi").

BESHUY – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Hali hududlar markazlashtirilmagan va ko'chalashtirilmagan vaqtda mazkur hududda dastlab faqat beshta uydan iborat bo'lgan aholi punkti mavjud bo'lgan, keyinchalik ushbu hudud markazlashtirilib, ko'plab oilalar ko'chib borib joylashgandan keyin ham shu nom saqlanib qolgan va shuning uchun mazkur nom bilan atalgan.

BESHYOG'OCH – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. Mahal-

la nomi beshog'och nomli qabila bilan bog'liq. ***"Beshog'och"*** qo'shma toponim bo'lib, *"besh"* va *"og'och"* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. H.Hasanov fikriga ko'ra, **Beshog'och** – *"beshinchi yog'och"*, ya'ni *"beshinchi stansiya"*, Eski Toshkentdan hisoblaganda beshinchi karvonsaroy ma'nosida ham talqin qilinadi ("og'och" yoki "yog'och" – masofa o'lchov birligini anglatgan, taxminan 7–8 km). Tarixchi Muhammad Solihxo'ja asarida mazkur toponim **"Beshog'och"** shaklida berilgan va qabila nomi ekanligi qayd etilgan. Beshog'och mahallasi aholisi misgarlik, egarchilik, tikuvchilik, pishiq g'isht tayyorlash kabi kasblar bilan mashhur edi. Daha hududida bog'lar ham ko'p bo'lgan. Shahar tashqarisidagi yerlarda beshog'ochliklarning bog'lari va dehqonchilik yerlari (mavzelari) joylashgan.

Ushbu nom Samarqand viloyatida mavjud.

BESHYUZ – qishloq. Toshkent viloyatining Bekobod tumani. Beshyuz (beshjuz) – Jizzax viloyatining G'allaorol va Zomin tumanida yashovchi yuz qabilasi o'zbek urug'i nomi hisoblanib, mazkur qishloq shuning uchun ham shunday nomlangan.

BINOKOR – qishloq va mahalla. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq, Yangiyer shahridagi mahalla nomlari sanaladi. Mazkur ***Binokor*** nomi, aslida, forscha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "*Bino qiluvchi, bino quruvchi, binj quruvchi usta, ishchi*" kabi ma'nolarni bildirishi qayd etilgan. (O'TIL. 2022, I, 267).

BIRKUNLIK – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq nomi. Nomning tovush va so'z tarkibi o'zgargan. Ayrimlar qishloq bilan Kitob shahri yoki markaziy bozor orasidagi masofa bir kunlik yo'l bo'lgan, markazdan ancha uzoq bo'lgani bois bir kunlik yo'l → Birkunlik deb atalgan deyishadi.

Tilshunos olim X.Doniyorov esa nom asossiz tarzda o'zgartirilganligini qayd etadi. Uning azaliy shakli – *Burgutli/ Burqutli*. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri – *burgut/burqut* (X. Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – T., 1968. – B. 81).

Burgutli, Burqutli nomining qarluq lahjasidagi shakli – *Burgutlik, Burqutlik*. Shahrisabz, Kitob tumanlari shevasida ham *-li* qo'shimchasi *-lik* qo'shimchasi tarzida aytiladi va yoziladi.

BIRLASHGAN – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Ushbu termin *"birlashmoq"* so'zining sifatdoshi asosida nomlangan bo'lib, u *"o'zaro jipslashgan, o'zaro kelishilgan"* ma'nolarini ifodalab, mazkur hududning aholi vakillari birlashsin, deya shunday atalgan.

BIRQOZONLIKO'L – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot tumanidagi ovul nomi. Birqozon (yoki saqoqush), Birqozonliko'l – Saqoqush ko'li ekanligi qayd etilgan va shuning uchun ham shunday nomlangan.

BIRYONKATI – mahalla. Buxoro viloyatining Peshku tumandagi mahalla nomi. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida shu ko'rinishda uchraydi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat bo'lib, ***Biryon*** fors-tojik tilida *"qovurilgan", "kuygan", "g'am-alamga botgan", "g'am-g'ussali"* ma'nolarini anglatadi. Apellyativning ikkinchi tarkibiy qismini tashkil etuvchi **kati** so'zi, aslida, Buxoro vohasining janubiy hududlarida yashaydigan qisman turkmanzabon aholi tomonidan *katti, gati, gatti, gitti, ketti* tarzida talaffuz qilinadi va "ketdi" ma'nosini bildiradi.

Demak, toponim *"g'am ketdi"* ma'nosini anglatib, g'am-alam, tashvishlardan forig' bo'lgan qishloqqa nisbatan ishlatilgan.

BITIKLIK – dara. Mo'g'ultov tog'laridagi dara (O'zbekiston va Tojikiston chegaralarida). *Bitik – yozuv. Bitiklik – "yozuvi bilan"*. Daraning qoyalarida turli xildagi yozuvlar uchraydi, shu jumladan, shoir Amir Ma'sudning she'rlarida ham qayd etilgan.

BIYA – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Ilmiy manbalarda Nayman qabilasining bir urug'i biya deb ataladi (O'rinboyev, 2003:29).

BIYASIG'MAS – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi dara, eski qishloq nomi hisoblanadi. Oykonim shakllanishining talqini bo'yicha bir necha taxminlar bor:

1. Bu toponim chorvadorlar tomonidan yaratilgan. Ular yashaydigan joylari tor bo'lgani uchun *biyasig'mas* deb atashgan. Oldin bu birikma bir xonadon uchun aytilgan, keyin butun qishloqqa shu birikma nom bo'lib qolgan.

2. Toponimi uchta ma'noli qismdan iborat: *biya, sig', -mas*. Bu toponimda ikkita topoleksema bor: *biya* va *sig'moq*. Tabiiy geografik omilning ta'sirida obyektning nomlanish ehtiyoji bilan hamda toponimlashuv va toponimik derivatsiya oqibatida joy nomi shakllangan: *biya+sig' + -mas > biya sig'mas > Biyasig'mas*. Ungacha *biya sig'mas* ko'rinishidagi predikativ birikma holatida bo'lgan.

"**Biya**" so'zi bir ma'noga ega. Otning urg'ochisi. Bu ma'nosi bilan ushbu so'z *"sig'moq"* so'zining *"joylashmoq"* ma'nosiga moslashgan. Sifatdoshning bo'lishsizlik shaklini hosil qiluvchi *-mas* qo'shimchasi bu predikativ birikmaning yuzaga kelishida vosita bo'lgan. *Biya sig'mas* predikativ birikmasi toponimikadagi birlamchi o'tish qonuni asosida toponimga aylangan. So'zsiz, bu yerda ham toponimik derivatsiya jarayoni bor. Hosil bo'lgan joy nomining etimoni predikativ birikmaning ot+sifatdosh ko'rinishidagi birikmaga oid: *biya sig'mas*. Bu yerda, albatta, ekstralingvistik omillardan biri bo'lgan geografik omilning mavjudligini ta'kidlash shart.

BIYBOZOR – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi qishloq nomi. *Biybazar* – toponimi ham tarkiban turli lug'aviy qatlamga mansub so'zlardan tashkil topgan. Apellyativning birinchi tarkibiy qismi

biy tariximizning keyingi davrlarida *bek* terminidan farqli ravishda ijtimoiy-siyosiy ma'no anglatgan bo'lsa ham uning genetikasi ushbu so'zga borib taqaladi.

Sh.Rahmatullayevning fikricha, bu so'z dastlab *"katta", "yirik"* kabi ma'nolarni anglatgan, keyinchalik ma'no taraqqiyoti natijasida sifatdan otga aylangan[1]. *Beg / bek* so'zining ushbu ma'nosi hozirgi kunda Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining o'g'uz lahjasida saqlanib qolgan.

A.N.Baskakov ushbu so'zning kelib chiqishini xitoycha *paik* so'ziga bog'laydi[2]. Lekin bu masalada olimlar tomonidan bir to'xtamga kelinmagan. Sababi – ushbu so'z barcha turkiy tillar lug'at fondida mavjud va turli fonetik o'zgarishlarga uchragan holda ishlatiladi. Ba'zi tadqiqotlarda mazkur so'z genetikasini eroniy tillarga bog'lashga harakat qilingan. Jumladan, H.Mozandaroniy bu so'zni ahmoniylar toshbitiklarida *baga*, "Avesto"da *baġa*, sanskritda *bhâga*, rus tilida *bog*, pahlaviyda *bag* yoki *bak* qatori eroniy asosga ega deb ko'rsatadi.

M.Mu'in esa *bek*ni turkiy tillarga mansubligini ta'kidlaydi. *Bazar* so'zi hozirgi fors tili uchun ham, o'zbek tili uchun ham tub so'z sanalsa-da, tarixan ikki tarkibiy qismdan iborat.

Bazar so'zining etimologiyasiga nazar solsak esa pahlaviy tilida *vacar* shaklida bo'lgan bu so'z qadimgi forsiyda *abâcari* tarzida ishlatilgan. Uning *abâ* qismi sanskritcha *sabha* bilan o'zakdosh bo'lib, *"odamlar to'planadigan joy"* ma'nosi anglatsa, *cari* qismi maydon, sahn mazmunlarini anglatgan[3] (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

Mahalliy aholi orasida toponimning *"bozorsiz, ya'ni bozori yo'q, bozori bo'lmaydigan"* qishloq ma'nosidagi etimologiyasi keng tarqalgan. Aslida esa nom ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***-biy*** – unvon nomidir. Apellyativning ikkinchi komponenti ***bozor*** – savdo qilish joyi, maskanidan tashqari, Xorazmda qishloq, qishloq markazi ma'nosida ham qo'llaniladi.

Demak, ***Biybozor*** toponimining ma'nosi *"qabila boshlig'i yashaydigan qishloq"*dir.

BIYDAYKO'L – ko'l. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanidagi "Qoraoy" OFY hududida joylashgan quruq ko'l nomi. Ko'l joylashgan hudud dastlab bug'doy ekiladigan o'y joy ekan, keyinchalik bu hududni suv bosgan va ko'l shu nom bilan atalib ketgan. Hozirda ko'l yo'q, lekin nomi saqlanib qolgan.

BICHOQCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq

---

[1] Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – B.43.

[2] Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. 1989. – №1. –С.67.

[3] Shamsiddin bin Xalaf Tabriziy. Burxoni qote'. – Tehron: Amiri kabir, 1375. – S. 128.

nomi. **Bichoqchi** aslida **Pichoqchi**ning dialektal varianti bo'lib, u *"pichoq tayyorlaydigan usta"* ma'nosini ifodalaydi. Zarafshon daryosining quyi oqimida yashovchi aholi so'zlashuvida **pichoq** so'zi **bichoq** sifatida talaffuz qilinadi.

BOBIRTEPA – cho'qqi. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi cho'qqi nomi. Bu yerda Samsirak qishlog'ida 907-hijriy yili (mil. 1501–1502-yillar)da bir necha bor Zahiriddin Bobur bo'lgan (M.E. Массон. Ахангеран. С. 117). Balki bu toponim shu haqida guvohlik berar. Qashqadaryo viloyatidagi *Bobirtepa, Bobirgurgon* toponimlari Hindistondagi Boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) bilan bog'liq.

Qirg'izistonning O'sh viloyatida Bobul qishlog'i bor. Keksa insonlar o'zining harbiylari bilan mazkur o'lkalarda bo'lgan, asli kelib chiqishi andijonlik hisoblangan Bobur nomi ularning qishlog'ining nomi ekanini qayd etishadi.

Bobur nomi Rossiyada ham mashhur. Rus onomastikasida uchraydigan *Baburin, Baburov, Zababurin, Baburchyonok, Babur* kabi familiyalar shular jumlasidandir. G.F. Blagova aynan Zahiriddin Bobur bilan bog'laydi.

Qiziqarlisi shundaki, XVI asrdagi "yozma kitoblar"da Nijneye Baburino tilga olinadi; undan tashqari, Vladimirsk viloyatining Kirjak tumanida hozirgi davrda ham Baburino nomli qishlog'i bor, balki bu qadimgi bo'sh yer Nijneye Baburinodan kelib chiqqandir.

BOBOILOHIY – Xurosondagi kent. "Boburnoma"da Sulton Husayn Mirzo (Husayn Boyqaro) vafot etgan joy sifatida eslatilgan. "Bu [911]-yilning oxiri zulhijja oyida Sulton Husayn Mirzo Shayboniyxonning ustiga cherik tortib, Boboilohiyg'a yetganda tengri rahmatig'a bordi" (B.127). Mirxondning "Ravzat as-safo" asarida bu sana aniqroq yozilgan va 911-yil 11-zulhijja (1506-yil 5-may), dushanba, hayit kunining ertasiga, quyosh botishi paytida, ul saltanat osmonining quyoshi mag'rib tomon ko'chdi, deyilgan. Shaxs nomi orqali joy nomi hosil bo'lgan.

BOBOJON BULOQ – buloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi buloq nomi. Birinchi komponent bobo "o'tmishda Buxoroning katta dahalarini nazorat qiluvchi bosh mirshab unvoni [O'TIL. 1, 293] – jon affiksoidi erkalatish, ba'zida kesatiq" ma'nosini bildiradi. Geografik termin "buloq" – "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" [O'TIL. 1, 371].

Ushbu gidronim komponentlarining denotativ semalariga tayanilsa ham antropogidronim, ham tabiiy geografik gidronimlar sirasiga kiritish mumkin.

BOBO XUROSON – qishloq. Andijon viloyatining Marhamat tumani markaziga yaqin qishloqning nomi. Uning tarixi xalq og'zaki ijodida ba'zi rivoyat-naqllar bilan izohlanib kelinadi. Bizning tekshirishlarimiz shundan dalolat qiladiki, Bobur otasi Umarshayx Mirzo davridan boshlab,

Andijonda ma'naviy-ma'rifiy hayot sezilarli darajada rivojlanib, atrofdan ilm ahli – ulamolar, shoirlar kelib o'rnashgan. Shulardan biri hirotlik katta olim Mavlono Shayx Husayndir (uning nomi hamon xalq xotirasida saqlanadi).

Fikrimizcha, o'sha olimning safdoshlaridan yoki shogirdlaridan biri bugungi Marhamat tomonga borib, turib qolgan. Uning vafotidan so'ng o'sha mahalla, keyincha esa butun qishloq Bobo Xuroson(iy) deb atalib ketgan.

BOBOYURT – mahalla. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Ma'lumki, tilda otayurt, boboyurt terminlari respublikamizning deyarli ko'pchilik hududlarida juda ko'p qo'llaniladi va uni toponimga aylanishi o'sha hududda yashab, vaqt o'tishi bilan boshqa hududlarga ko'chib ketishi natijasida mazkur hudud o'sha ko'chib ketganlar uchun ***Boboyurt*** sanalgan, bir kun kelib esa shunday nomni olgan.

Demak, ***Ota (bobo)yurt*** dastlab otalari, bobolari yashagan joy, makon degan ma'noda qo'llanilgan.

BOBOSHAYX – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponimning asosini tashkil qiluvchi "**shayx** *so'zi oliy musulmon ruhoniylari vakilini hamda mozor va boshqa ziyoratgohlar mutasaddisi*" ma'nosini ifodalaydi. Mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra, qadimda qishloq hududida keksa yoshli shayx yashagan. Shu sababli qishloqning nomi ham Boboshayx deb atalgan.

BODIYA-I XURDAK – Navoiy viloyatining Karmana shahri qadimgi nomlaridan biri. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" va akademik V.V.Bartoldning asarlarida bu nom "*ko'zacha*" sifatida qayd etilgan.

Badiya (bodiya)ning boshqa bir ma'nosi – *"cho'l", "dasht"*. **Badiyai Xurdak** – *"katta bo'lmagan dasht"*. Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida Buxoro atrofida Dashtak nomli joyni aynan shu ma'noda tilga oladi (*dasht, -ak* erkalash qo'shimchasi).

Bu dasht Eronda **Sarob-i bodiya** deb nomlanib, u *"sarobdagi dashtliklar"* ma'nosini ifodalaydi.

BODOMCHA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Ilgari qishloq hududida bodomzorlar ko'p bo'lgan. Mazkur nom *bodom* so'zi va *-cha* affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Demak, Bodomcha – *"bodom ko'p o'sadigan joy"* ma'nosidadir.

Shuningdek, Buxoro viloyatining Vobkent tumanida shunday nomli toponim mavjud bo'lib, u aynan shunday ma'noda ekanligi qayd etiladi.

BODOMCHOLI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Toponim forscha-tojikcha "***bodom***" va "***choli***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. ***Bodom*** so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida – sermoy va lazzatli mag'zi uchun ekiladigan daraxt sifatida izohlanadi [O'TIL. 1, 295]. ***Chol*** – chuqurlik, botiq joy, o'yiq, suv o'ygan, suvning quyilish joyi, to'g'on, hovuz, havza. ***-li*** so'z yasavchi affiks.

Shunday ekan, ***Bodomcholi*** – bodomi bor to'g'on yoki suv quyilish joyi yonidagi qishloq, demakdir.

BODOQSOY – qishloq va ariq nomi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani; bodoq – etnonim. Xorazmiy tilida esa **bodoq** – *ariq, kanal* ma'nosini ifodalaydi. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi Qumbodoq tarixiy toponimi tarkibidagi bodoq qismining ma'nosi ham shudir.

BOJOQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***boja // bojo***" va "***qishloq***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"**Boja // bojo**" umumturkiy so'z bo'lib, "*opa-singillarning erlari*" (birbirlariga nisbatan) ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 297].

"***Qishloq***" esa "*aholisi, asosan, qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi joy, maskan, hudud*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 5, 315]. Shunga binoan, bu mikroponimni "bojalar tomonidan barpo etilgan yashash maskani" deb izohlasa bo'ladi. Bu nomning tashqi ko'rinishi asosidan vujudga kelgan etimologiyadir.

Etnografiyaga oid adabiyotlarda qirg'izlarning bir urug'i **bo'jay** deb yuritilgani qayd etib o'tilgan [Sidiqov, 1927:26]. Toponimning birinchi qismidagi **boja** ← **bo'jay**ning tovush o'zgarishi va tushishi hosilasidir. Qishloq shu urug' nomi bilan atalgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ikki o'zakli boja va qishloq so'zlaridan tashkil topgan va *ot+ot* so'z turkumiga mansub.

BOFANDALAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. **Bofanda** forscha bo'lib, u "*Tikuvchi*" ma'nosini ifodalaydi. Demak, **Bofandalar** – "*Tikuvchilar*", "*Tikuvchilar qishlog'i*" degan ma'noni bildiradi.

BOLATOSH – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Bola, tosh (bolaning gavdasini eslatadigan tosh). Balki forscha *bolo – yuqori, yuqorigi, baland*", o'zbekcha – *tosh* ma'nosida ham bo'lishi mumkin. Agar shunday bo'lsa, *Bolotosh – "baland tosh" (qoya)* ma'nosini ifodalaydi.

BOLDIR – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani va Surxondaryo viloyatining Muzrabod tumanlaridagi qishloq nomi. Baldir *(boldir) – cho'qqi* ma'nosini ifodalaydi (Древнетюркский словарь. С. 28). Ayrim manbalarda etnonim bo'lishi mumkinligi ham qayd etiladi.

BOLDIRSOY (BELDERSOY) – qishloq va soy. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi soy va qishloq nomi. Baldir *(boldir) – cho'qqi* ma'nosini ifodalaydi (Древнетюркский словарь. С. 28). Ayrim manbalarda etnonim bo'lishi mumkinligi ham qayd etiladi.

BOLOYIRO'D – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim forscha – ***bolo*** – "*yuqori,* ***ro'd*** – "*ariq, kanal*" degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, ***Boloyıro'd*** – "*ariq, kanal yuqorisidagi qishloq*" ma'nosini ifodalaydi.

BOLQUDUQ – quduq. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi quduq nomi. *Bol – "asal", bolquduq – "chuchuk suvli quduq"* ma'nolarini ifodalasa, cho'l-sahrolarda cho'ponlar uchun asosiy taxminiy joy ma'nosini ham bildiradi.

BOLTA – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Kattaqo'rg'on, Payariq hamda Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur nom etnonim hisoblanadi. Uning Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanida **Qorabolta** shakli ham mavjud. *Baltali* etnonimi mashhur bo'lib, u bolta shaklidagi tamg'ani eslatadi. Qozoq olimining ma'lumotiga ko'ra, Baltali – O'rta juzning asosiy qabilalaridan biri (С.А. Аманжолов. Вопросы диалектологии и истории казахского языка, ч. I. –Алма-Ата, 1959. С. 9, 14, 16). Toponimikaning ma'lumotlari bo'yicha ta'kidlash mumkinki, *Boltali* etnonimi (qisqartirilgan varianti *bolta*) o'zbeklar tarkibida bo'lgan.

BOLTABOSHI – qishloq. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi qishloq nomi. *Bolta* nom hisoblanib, *boshi* esa, shu urug'ning boshi ma'nosidadir. Shuningdek, qozoqlarda Boltali asosiy urug'lardan biri hisoblanadi. S.Qorayevning fikricha, Boltali (bolta) urug'i o'zbeklar tarkibiga ham kirgan bo'lsa kerak (Qorayev. 1978, 39).

BOLTAKO'L – qishloq. Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi qishloq nomi. Urug' nomidan olingan, degan fikrlar bor. Biroq bu so'z ko'l kotlovinasining shaklidan olingan bo'lishi ham mumkin. Viloyatdagi *Achchiqko'l, Damko'l, Ko'lbo'yi, Ko'lariq, Qorako'l, Oydinko'l* kabi joy nomlarini paydo bo'lishida ko'l so'zi asosiy o'rinni egallaydi.

BOLTAMIN – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***bolta***" va "***amin***" qismlaridan iborat. "***Bolta***", "***boltali***", "***boltachi***" – umumturkiy etnonim so'zlar bo'lib, "***bolta***" shakli, boltaga o'xshash tamg'asi bo'lgan urug'lardan biridir.

O'zbeklar tarkibidagi sarqipchoqlarda, qoraqalpoqlarda, tatar, qozoq va ozarbayjonlarda "***bolta***" deb nomlanuvchi urug' mavjud. "***Amin***" – tuman yoki qishloq oqsoqoli, bozorda sotuvchilardan soliq yig'uvchi amaldor, afv etuvchi demakdir.

Shuningdek, "***amin***" so'zi arabcha bo'lib, "*ishonchli*" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 1, 78]. Toponimni "***bolta***" urug'iga mansub amin (amaldor) barpo etgan yashash maskani, qishloq, deb izohlash mumkin. Ushbu etnooykonim bolta/amin ot+ot strukturasiga egadir.

BOLTAMOZOR – qabriston. Toshkent shahri hududidagi qabriston, bu nomdagi manzil Qozog'istonda ham bor. Qozoqcha Balta (baltali) urug'i bilan nomlangan.

BOLG'ALI – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumani, Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi.

Qozoq va qoraqalpoqlarning turkman juzlarining hamda o'zbeklarning jaloyir, qo'ng'irot, qoraxitoy, yuz, qurama, kenagas qabilalari tarkibida bir urug' ***bolg'ali*** deb ataladi [S.Qorayev, 1, 39; T.Nafasov, 41-42; Z.Ziyotov, 48; N.Begaliyev, 41]. Ularning tamg'asi bolg'a shaklida bo'lgan.

Shunga ko'ra B.O'rinboyev Qo'shrabot tumanidagi Bolg'ali mikrotoponimini etnooykonimlar qatoriga kiritadi [B.O'rinboyev, 39]. Tashqi tuzilishiga ko'ra, ot + -li topoformantidan tashkil topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu etnooykonimni ham yaxlit bir o'zakli ham bir o'zak va topoformantli etnooykonimlar sinfiga kiritish mumkin.

BOQI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Yuz qabilasining marqa bo'limi 16 ta shoxobchaga bo'linadi [Z.Ziyotov, 40]. Ana shu shoxobchalardan biri qoratamg'ali deb ataladi.

Qoratamg'ali urug'i tarkibida, laqaylarning tuyachi urug'i tarkibida, oqmang'itlar tarkibida boqivachcha urug'i mavjud [T.Nafasov, 43; B.O'rinboyev, 40]. Boqivachcha so'zi qisqarib, boqi shaklida qo'llangan[1].

Bu o'rinda boqi patronimi oykonimga aylangan, degan xulosaga kelsa bo'ladi. Etnooykonim bir o'zakli, ot so'z turkumiga mansubdir.

BOQIY SHAHAR MAJMUASI – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi ulkan xalqaro turizm markazi.

Mazkur majmua 2022-yilning 22-avgustida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan tashkil etilgan.

BOQICHIG'ATOY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponimning tarkibi "boqi // boqibachcha // boqivachcha" va "chig'atoy" etnonimlaridan tuzilgan. Yuz qabilasining marqa bo'limi 16 ta shoxobchaga bo'linadi [Z.Ziyotov, 40]. Ana shu shoxobchalardan biri qoratamg'ali deb ataladi. Qoratamg'ali urug'i tarkibida, laqaylarning tuyachi urug'i tarkibida, oqmang'itlar tarkibida boqivachcha urug'i mavjud [T.Nafasov, 43; B.O'rinboyev, 40].

Boqivachcha so'zi qisqarib, boqi shaklida qo'llangan[2]. Mo'g'ul imperiyasi davrida G'uljadan Amudaryogacha bo'lgan yerlar Chig'atoy ixtiyorida bo'lgan. Movarounnahr Chig'atoy ulusi deb atalgan.

Chig'atoy so'zining ma'no va qo'llanish doirasi kengaygan. O'sha davrda Chig'atoy kishi ismi funksiyasidan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, harbiy va etnik ahamiyat kasb etgan. XIII-XIV asrlarda Chig'atoyxon harbiy qo'shinlari va avlodlari, imtiyozga ega bo'lgan

[1] Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2004, 38-bet.
[2] Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2004, 38-bet.

turkiy-mo'g'ul kishilari, XV asrda Movarounnahr va Sharqiy Xurosonning barcha turkiy aholisi chig'atoy deb yuritilgan [T.Nafasov, 209].

Temuriylarning Shayboniylarga qarshi kurashi davrida esa Movarounnahrning ham turkiy, ham tojik tilida gaplashuvchi aholisi chag'atoylar deyilgan. Chig'atoy // chag'atoy XV-XVI asrlardayoq hududiy ma'noga ega bo'lgan, etnonimik ma'nosi va vazifasi ham shu davrlarda yuzaga kelgan. Bu davrda chig'atoy // chag'atoy so'zi ham etnonim, ham antroponim vazifasida qo'llangan [O'TIL.5, 4, 501].

Shunga ko'ra bu etnotoponimni "boqichig'atoy" urug'i vakillari yashaydigan qishloq, maskan" deb izohlash mumkin. Ushbu etnotoponim ot+ot boqi/chig'atoy tuzilishiga ega.

BOQSUQ (qadimgi nomi Kallaurtepa) – Toshkent viloyati Angren shahrining shimoli-sharqiy qismidagi ko'hna joy nomi. Aholisi ko'mir sanoati ehtiyojlari munosabati bilan o'tgan asrning 80-yillarida Angren shahri hududiga ko'chirilgan. Ayrim mahalliy vaqtli matbuot nashrlarida "Boqsuq" atamasiga Bog'isug'd, Bog'isurx tarzida noto'g'ri talqin berilgan. Bu termin aslida shu yerda taxminan XIV asrda mustahkam istehkom va bozorni bunyod etgan Bobojuq degan mard va tanti bir odam ismining fonetik buzilgan shaklidir. Tarixiy qo'lyozma asarlarda bu yer Bobojuq qal'asi deb keltiriladi. Misol uchun Hofiz Tanish Al-Buxoriyning 1534–1590-yillarda yozilgan mashhur "Abdullanoma" asarining ikkinchi jildida shunday ma'lumot mavjud: "...Sipohlar Sperimbiy naymanning... Ohangaron tevaragida balandligini ko'z ilg'amaydigan Bobojuq qal'asiga yashiringanini eshitdilar. Oxiri shijoatli Abdusamadbiy, Ahmadali Bahodir va boshqa sipohlar... metin, cho'b va tabarzinlarning zarb zahmi bilan... tog'dan bir parcha bo'lgan o'sha qal'ani ochdilar. Qiyomatasar lashkar qal'aning asosini buzib, kunguralarini yer bilan barobar qildilar" (*Hofiz Tanish Al-Buxoriy, j.2, b.95).*

BOROQTOM – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning ***baroq*** (*yungdor*) so'zi bilan hech qanday aloqasi yo'q. Nom aslida eron tillariga xosdir. B.I.Abayevning e'tirof etishicha, Baroq so'zi eron tillarida "chavandoz, xabarchi" ma'nosini anglatadi (B.I.Abayev. Slovar. I. 236).

Shunday ekan, ***Baqortom*** – *"xabarchilar to'xtab o'tadigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

BORSAKELMAS – Qoraqalpog'iston Respublikasi Orol dengizining suvi kamaymasdan oldin katta orol bo'lgan, hozir yarim orol.

Orolning nomi haqida turlicha rivoyatlar bor. Shulardan biri haqiqatga yaqinroq bo'lib, ilgarilari Orol atrofidagi boylar qish paytlarida chorva mollarini muz ustidan sero'tli orolga haydab borib, bahorda muz erishi oldidan chorvalarini yana orol sohiliga olib qaytishar ekan. Bir yili bahor erta kelib, muz erib ketganidan mol-

lar o'sha orolda qolib ketgan emish. Shundan keyin orol *Borsakelmas* deb atalar ekan.

BOSAY – kanal. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani markazidan oqib o'tuvchi kanal nomi. Kanalning Bosay deb nomlanishining sababini 60 yoshli (2017-yil) Qadir bobo quyidagicha tushuntirdi: uning Bosay degan bobosi cho'pon bo'lgan. Har kuni ot bilan mol boqqan. Kunlarning birida otni minib uyiga kelayotganda, kanalga oti bilan qo'shilib oqib, cho'kib ketadi va shundan so'ng mazkur kanal *Bosay* nomi bilan ataladi.

BOTIR – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanida *Botirboy*, Andijon viloyatining Izbosgan tumanida *Botirobod* shaklidagi qishloq, Farg'ona viloyatida esa *Botirsoy* nomli ariq mavjud. Xullas, deyarli barcha turkiy xalqlarda *Botir* etnonim sifatida qayd etilgan.

BOTQOQQUM – Amudaryo va Zarafshonning quyi qismida joylashgan Qizilqumning janubiy qismi shunday nomlangan. *Botqoqqum – "botqoq sochiluvchan qum"* ma'nosini ifodalagan.

BOVURCHI – atrofi tabiiy narsalar bilan o'ralgan chegara, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani. *Bovurchi ("dasturxonchi")* – Chingizxon davrida *"ovqat va ichimlik mudiri"*, keyinchalik *xonning asosiy oshpazi (bakovul)* bo'lgan. Demak, *Bovurchi – "oshpaz"* ma'nosini ifodalaydi.

BOY – Farg'ona viloyatida keng tarqalgan joy nomlaridan biri, ushbu maskanda yashayotgan kishilarning mulkiy holatiga nisbatan yoki biror kishiga qo'yiladigan ism nomidan joy nomi hosil qilingan.

Boymahalla, Boyto'pi, Botirboy, Jumaboy, Katta-boybuchcha, Meliboy, To'laboy, Toshboy zamini, Uzoqboy, O'rinboy, Qo'qonboy kabi joy nomlari shular jumlasidandir.

BOYBICHA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Aholi nutqida ***boybicha – boyvicha – boybika, boy-xotin, boybecha*** tarzida izohlanadi. ***Boybicha*** – etnonim, qopaqalpoqlarning qtay (xitoy), qipchoq, muyten qabilalari tarkibida boybishe urug'i bo'lgan. Janubiy O'zbekiston qo'ng'irotlarining ***boybicha – boyvicha*** degan urug', tarmog'i bo'lgan. Etnonim oykonimga o'tgan.

Qozoq tilida baybishetau tog' etagi, tog' bag'ridagi keng yoyiq maydon[1] ma'nosini ifodalagan. Buxoro viloyatining mazkur hududida tog' mavjud emasligini inobatga olsak, nom aslicha, o'sha hududlardan aynan ko'chgan deb hisoblash mumkin.

BOYBICHAKON – Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qaynatilgan tuzning paydo bo'lgan joyi. **Boybicha** (eski o'zbekcha, qirg'izcha, qozoqcha) – *boyning xotini, boyning katta xotini*; **kon** (forscha) – *paydo bo'lgan joy.*

[1] Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. –Алма-Ата: 1974. –С. 94.

Taxmin qilish mumkinki, *"boybicha"* so'zi mo'g'ulcha bo'lib, dastlab *baydjin, baychin, baycha* tarzida talaffuz qilingan. O'xshashligi bo'yicha va *"bayvachcha"* so'zining ta'sirida (boyning o'g'li) o'zbek tilida *boybicha* va *boyvuchcha* sifatida talaffuz qilinadigan bo'lgan yoki mo'g'ulcha *djin, chin* qo'shimchalari ayollik jins belgisini ko'rsatuvchi affiks bo'lib xizmat qilgan, masalan, *g'unan* – uch yoshli ot, *g'unajin* – uch yoshli ho'kiz yoki sigircha, *dunan* – to'rt yoshli ot, *dunajin* – yosh (to'rt yoshli) ho'kiz yoki sigir; *megajin* – to'ng'izning urg'ochisi va boshqalar.

BOYBOG'ISH – Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi. **Bag'ish** – qirg'iz urug'ining "butoq" ma'nosidagi nomi. Farg'ona vodiysining o'zbek qismlarida *Bog'ish, Saribog'ish, Cho'ngbog'ish* kabi qishloqlar mavjud. Ba'zan Bog'ishni o'zbek urug'i deb ham hisoblashishadi (В.П.Наливкин. Краткая история Кокандского ханства. –Казань. 1886. С. 13.)

BOYBO'L – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumani. **Boybo'l** – *"boy bo'l"* ma'nosidagi etnonim (qozoqlar, turkmanlar, balki o'zbeklar tarkibida ham bo'lishi mumkin).

BOYBO'RI – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Boybo'ri – "Alpomish" dostonidagi to'rt qahramonlardan biri (jarayonlar hozirgi Surxondaryo viloyati hududida bo'lib o'tadi). Katta ehtimollar bilan bu – etnonim.

BOYBO'TA – Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla nomlaridan biri. Boybo'ta urug' nomlaridan biri bo'lib, u etnonim hisoblanadi. Bundan tashqari, qirg'iz qabilalari bo'limlaridan biri bag'ish ham shunday deb nomlangan. "Boybo'ta" degan urug' haqiqatan ham, mavjud bo'lgan, biroq Qo'qondagi bu nomli joy etnonim emas, antrotoponim bo'lib, mazkur joy Qo'qon xonlari xonadoni vakili Boybuta Bahodir ibn Sulaymonxon degan xonzodaga qarashli mulk bo'lgan, shuning uchun ham u etnonim emas, balki antropotoponimdir.

BOYHO – Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi qishloq nomi. U forscha *"boyxo"* – *boylar* ma'nosida bo'lib, etnonim (patronim) hisoblanadi.

BOYHO/BOYLAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon tumanlaridagi qishloq nomlari. Forschadan olingan – ***boyho*** so'zi – o'zbek tilida ***boylar*** demakdir. O'zbekistonda, xususan, Buxoro viloyatida ***boylar*** degan bir nechta qishloqlar bor. Manbalarda boylar degan etnonim ham borligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, Navoiy viloyatining Konimex, Navoyi tumanlarida ham shunday qishloq nomlari mavjud.

BOYLIK – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mazkur so'z o'zbek tilining izohli lug'atida: ***Boylik*** – *boy, dunyo, davlat, mol-mulk, moddiy resurslar majmuyi* tarzida izohlanadi[1]. Shuningdek, o'zbek toponimiyasida ba'-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B.127.

zan *boyli* etnonimini *boylik* shaklida qo'llash holatlari uchraydi. Chuyut, mang'it va saroylarning boyli urug'i borligi ma'lum. Boyli so'zi o'zbek urug'lari: achamayli (acha// ocha+moyli //boyli), jag'albayli. Moyli, Boyli kabi kishi ismlari ham boyli urug' nomidan olingan. Boy//moy – qush nomi. Qush – totem, totemdan urug' nomlangan, urug' nomi qishloq nomiga aylangan[1].

BOYLIOTA – Miyonqolning qadimiy qishloqlaridan biri. Sug'd azizlaridan Abul Hasan Rastafig'oniy mozori ushbu joydadir. Qishloq XVI asrgacha *Rastivag'n* deb atalgan. Ushbu toponimning etimologiyasi haqida turlicha fikrlar bor.

V.A. Livshis qishloq nomi Mug' bitiklarida tilga olingan dehqon Rustning ismi bilan bog'liq, deydi. O.I. Smirnova esa, qadimiy Eron ilohi Rashna nomiga aloqador, deb izohlaydi. Toponimning birinchi qismi adolat ilohi Rashna nomi va ikkinchi qismi *"bag'n"* (sug'd tilida *"ibodatxona"*) so'zlaridan yasalgan va *Rashibag'n* shaklida bo'lgan hamda *"adolat ilohi ibodatxonasi"* ma'nosida, – deyiladi.

Qishloq nomi keyinchalik talaffuzda o'zgarishga uchrab, *Rast(i)-vag'n* deb atala boshlangan. Agar sug'd tilida *"rusto"* – qishloq so'zining mavjudligini hisobga olsak, mazkur nomning ma'nosini *"qishloq yoki tuman ibodatxonasi"* deb izohlash mumkin. Qishloq qadimdan muqaddas joylardan biri sifatida e'zozlanib kelingan. Bu uning keyingi nomi – *Boyliotada* ham o'z aksini topgan.

BOYMONOVUL – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. O'zbek xalqi tarkibidagi ***baymoq//boymoq*** urug'i mavjud [Nafasov, 2007:16], ushbu holatda *boymon < boymoq < baymoq* shaklida tovush o'zgarish hodisasi voqe bo'lgan deb taxmin qilindi.

"Ovul" so'zi chorvadorlarning bahor va yozda turar joyi; qora uylar tikilgan manzil [Nafasov, 2007:43].

Demak, ***Boymonovul*** – *"boymoq urug' qabilasiga mansub kishilar yashaydigan manzil"* demakdir.

BOYMOQLI – Jizzax viloyatining G'allaorol va Zomin tumanlari; Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumani. Boymoqli etnonim hisoblanib, xususan, u qo'ng'irot qabilasi bo'limlaridan biridir. Shuningdek, Baymoqli urug'i boshqa turkiy xalqlar, xususan, qoraqalpoqlar, qozoqlar (baybaqti) tarkibida ham qayd etilgan.

BOYOVUT – tuman. Sirdaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho'l dashtining janubida joylashgan. Relyefi, asosan, tekisliklardan iborat bo'lib, uning yuzasi allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Tuman nomiga aylangan. Boyovut – O'zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan turkiy urug'lardan birining nomi.

Rashididdinning "Jome ut-tavorix", Abulg'ozi Bahodirxonning "Sha-

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B. 66.

jarayi turk" asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida Boyovut urug'i tilga olingan. *Boyovut – "boy", "boylar"* degan ma'nolarni anglatadi. Qozoqlarning Arg'in qabilasi tarkibida ham bayaut urug'i qayd qilingan. Ayrim mutaxassislar, jumladan, boshqird etnolog olimi R.G.Kuzeyev Boyovut bilan Bayot aslida bir qabila, deb hisoblaydi.

Rashididdinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo'lib, bir necha tarmoqqa bo'lingan. XII–XIV asrlarda Boyovutlarning katta bir qismi o'zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Qo'lyozma nasabnomalarning ba'zilarida boyovut qadimiy 92 o'zbek urug'ining biri sifatida ko'rsatilgan.

Boyovut so'zining kelib chiqish tarixiga oid rivoyatlarga asoslangan boshqa talqinlar ham bor. Masalan, rivoyatlardan birida qadimda bu yer otlarga boy bo'lgan va *"otga boy", "boy ot"* so'zlaridan kelib chiqqan deyilsa, boshqa rivoyatda bu yerlar o'tga boy joylar bo'lgan, *Boyovut – "boy o't"* so'zidan kelib chiqqan deyiladi. XVI asrda yashagan farg'onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiyning "Majmuat-tavorix" asarida Boyovut 92 bovli o'zbek urug'laridan biri sifatida qayd qilingan.

Tuman ma'muriy markazi – Boyovut shahri (1991-yildan). O'tgan asrning 60-yillarida Mirzacho'lni o'zlashtirish harakati boshlanishi bilan uzoq-yaqindan ko'chib kelganlar va quruvchilar hisobiga shahar kengaygan. Shahar 1961–1991-yillari *Dmitrovo* deb atalgan.

BOYSUN – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Boysun Surxondaryo viloyatidagi eng qadimiy aholi manzilgohlaridan hisoblanadi. Boysunning shimoli-g'arbida Teshiktosh g'ori joylashgan. Boysunda miloddan avvalgi taxminan 5 ming yillik oxirida aholi yashaganligi ma'lum. Miloddan avvalgi I asrdan milodiy I asrgacha Boysun o'rnida Poyikalon nomli mustahkam qal'a-shahar mavjud bo'lgan.

Milodiy VI–XIII asr boshlarida Boysun o'rnida Chag'oniyon shaharlaridan biri – Bosand joylashgan. Abu Is'hoq Istaxriyning "Kitob masolik va al mamolik" ("Mamlakatlar yo'llari to'g'risida kitob") asarida ham Bosand deb ta'riflangan.

"Hudud ul olam" kitobida Bosand ko'p sonli va jangovar aholili mustahkam joydir, deyilgan. Bosand Chag'oniyon markazidan Temir qapig' orqali Samarqandga boradigan savdo yo'li ustida joylashgan.

Arxeologik manbalarga ko'ra, Bosandda hayot ilk o'rta asrlardan mo'g'ullar istilosigacha davom etgan. Mo'g'ullar bosqinida vayron bo'lgan shahar keyinroq qayta tiklangan. Boysun mavzesi.

"Zafarnoma"da ham qayd etilgan. XIX asrda Boysun Buxoro amirligi davrida Surxondaryodagi uchta beklikdan birining markazi bo'lib, unda badavlat turkiy qavmlar yashagan.

Chig'atoy ulusi tarkibiga mansub ko'chmanchi turkiy qavmlar unga "Boysun" deb nom berganlar. *"Boysun"* atamasi qadimiy turkiycha *"boy"* va *"sin"*dan olinib, *"ulug' tog'"* yoxud *"katta tog'"* ma'nosini ifodalagan. V.V.Verbitskiyning XIX asr oxirida tuzgan lug'atida ham *"sin"* so'zi orografik obyekt ifodalashi qayd qilingan.

T.Nafasovning yozishicha, *"sin"* so'zining areali ancha keng, orografik obyekt – *tog', tog' tizmasi*ni bildirishi Oltoy, Sibirda saqlangan, qad-qomat, bo'y-bast ma'nosini ifodalashi Volgabo'yi, Markaziy Osiyo, Qozog'istonda saqlanib qolgan. Qadimiy turkiy qavmlarda boshqa narsalarga sig'inishlar qatorida toqqa sig'inish ham mavjud bo'lib, tog'lar muqaddas sanalgan.

Tog', tog' tizmasi *"sin"* so'zining qadimgi, birlamchi ma'nosi, *"bo'y, qad-qomat"* ma'nosi ikkilamchidir. O'zbek xalq dostonlaridagi Boysin yurti ham tog' va o'lka nomidir. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning badavlat kishilari yashagan bo'lib, *"Biysun"* atamasi *"Boylar qishlog'i"* ma'nosini anglatgan. Tuman ma'muriy markazi – Boysun shahri (1975-yildan).

BOYTERAK – Qashqadaryo viloyati yondosh qishloq. Nomning talqini *"ulkan terak, muqaddas terak"* ma'nosidadir. Terak – mevasiz, manzarali, yog'och bo'ladigan daraxt. Daraxtlarga sig'inish kulti asosida nomlangan.

Boshqacha talqin: *boy – katta, ulkan, "terak – darak"* so'zining o'zgargani. **Darak** – *katta anhordan oqayotgan suvni bir necha ariqlarga bo'lib yuboradigan band.* Demak, **Boyterak** *– bir qancha ariqlarga suv bo'linadigan katta band.*

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumanidagi joy, quduq nomi ham shunday ataladi. **Boyterak** – *chinor, tayanch, muqaddas daraxt.* Turkiy xalqlarda *Boyterak, Bayterek* degan ismlar bor. Boyterak etnonim – qozoqlarning Qangli qabilasi va qirg'izlarning Saribag'ish qabilasi tarkibida Boyterek (Bayterek) urug'i qayd qilingan.

BOYQOZON – qishloq. Toshkent viloyatining Parkent hamda Buxoro viloyatining Vobkent tumanlaridagi qishloq nomi. Mahalliy aholi qishloqni *Boyqazon* deb ataydi. Buxoro viloyatining ko'pgina hududlarida *qozon* so'zini *qazon* shaklida talaffuz qilish hollari uchraydi. Toponim ikkita so'z – *boy* va *qozon* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Toponimning birinchi komponenti – *boy* so'zi *"badavlat odam"* ma'nosini bildiradi. Ikkinchi komponenti – *qozon* so'zi esa – *ovqat pishiriladigan quyma cho'yan idish*ni bildiradi.

Mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra, ilgari bu hududda boy temirchi, misgarlar yashagan bo'lib, ular qozon va har xil xo'jalik buyumlari yasashgan. Ammo *Qozon* nomli etnonim – urug' nomi mavjudligini e'tiborga oladigan bo'lsak, *Boyqozon – "qozon urug'idan bo'lgan boylar bunyod etgan (qurgan) qishloq"* ma'nosini anglatadi.

BOYQOZOQ – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq. Viloyat tumanlari hududlarida "qozoq" etnonimi ishtirok etgan geografik nomlar juda ko'plab uchraydi. *Maydaqozoq, Beshqozoq, Qozoqlar* (Narpay), *Qozoqot* (Kattaqo'rg'on), *Qozoqovul, Kichikqozoqovul, Qozoqxurmi* (Oqdaryo), *Qozoqtepa, Qozoqko'prik* (Urgut) kabilar shular jumlasidandir.

Mazkur nomlar turli siyosiy voqealar bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar berish bilan ajralib turadi. Jumladan, tarixchi Mahmud ibn Valining aytishicha, Buxoro hukmdori Imomqulixon o'z amakisi Valimuhammadxonga qarshi kurashda qozoq xoni Ishim Sultondan yordam so'ragan va evaziga uning o'g'li Jonibek Sultonga Sog'arj tumanini tuhfa qilgan (Ahmedov. 1982 : 107).

Ko'rinib turibdiki, qozoqlarning Movarounnahrga kelib o'rnashishlari, ko'pchiligining qaytib ketishlari bir paytda sodir bo'lmasdan, vaqti-vaqti bilan yuz berib turgan va bu hodisa mahalliy toponimiyada o'z aksini topgan.

BOYQUT – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Ilmiy manbalarda Boyqut etnonim sifatida qayd etiladi (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari).

BOYQO'NG'IR – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumani. Shuningdek, Boyqo'ng'irsoy nomli ariq ham bor bo'lib, u Sangzor daryosining o'zani (shu yerda) sifatida qaraladi. Aslida esa Boyqo'ng'ir etnonim hisoblanadi.

BOYTO'BI – Toshkent viloyatining Bo'ka tumani; Samarqand viloyatining Bulung'ur, Ishtixon, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloq nomlaridan biri. *Boyto'bi – "boylar urug'i"* etnonim, aniqrog'i, patronim. *Bay* asosi bilan (*boy, boylar, baydar, bayli, bayat, bayaut, bayandur* va boshqalar) bog'liq etnonimlar o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlarda keng uchraydi.

BOYTO'P(I) – qishloq Samarqand viloyatining Ishtixon va Qo'shrabot tumanlaridagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***boy***" va "***to'p***" qismlaridan iborat.

"***Boy***" so'zi katta, baland, boyligi ko'p ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 1, 301]. "***To'p***" so'zi aynan "***to'da***" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 241]. Ya'ni biror maqsad bilan uyushgan kishilar guruhi qadimdan etnografik jihatdan "***to'p // to'da***" deb yuritiladi.

Yuqoridagilarga asosan ***Boyto'p*** mikrotoponimini boyligi ko'p kishilar guruhi yashaydigan qishloq, maskan [B.O'rinboyev, 37] deb izohlash mumkin. **Leksik jihatdan ikki o'zakli ot+ot shakliga xos.**

BOYO'G'LI – Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Boyo'g'li-aday qozoq qabilasi; o'zbek-qipchoqlarda ham Boyo'g'li urug'i bo'lganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan.

BOYG'UNDI – Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi shaharcha (2009). Shuningdek, Qarshi tumanida qishloq va Kasbi tumani-

da esa mahalla nomi ham shunday ataladi. Mang'itlarning bir urug'i – Boyg'undi. Ba'zan Boyg'undi mang'it ham deb atashadi.

Mahalliy aholi *boy qo'ndi, qo'nish qildi, qo'rg'on qurdi* tarzida izohlashadi. Bu – xalq og'zaki ijodining izohi. Boyg'undi – qadimgi turkiy xunn xalqi nomi bilan bog'liq etnonim. Etnonim tarkibidagi *"boy"* so'zining ma'nosi – *ulug', qudratli; ulkan, yuksak* demakdir. Bundan tashqari, totem vazifasini bajargan va jamoa uchun totem hisoblangan qushning nomi ham hisoblanadi. Boyqushni totem qilib tanlagan. *G'undi/qundi/xundi/g'unli/qunli/xunli* so'zlari esa etnonim sifatida qayd etilgan.

BOZORBOSHI – Farg'ona viloyati Oltiariq va O'zbekiston tumanlaridagi qishloq va mahallalar nomi. Markaziy Osiyoda kishilarning iqtisodiy turmushida savdo va transportning ahamiyati yuqori bo'lgan. Savdo mazkur hududning gullab-yashnashiga ta'sir o'tkazgan. Shu bois "bozor" iborasi toponimlar tarkibida keng tarqalgan. Viloyatda *Bozor, Bozoryaypan, Yog'bozori, Saribozorcha, Ustabozor, Yangibozor* kabi joy nomlari mavjud.

Andijon viloyati Izbosgan tumanidagi qishloq ham shunday nomlanadi. U *"Bozorda", "Bozorning yonida"* (aynan *"bozor boshi"*); forscha ekvivalenti *Saribozor (Sarbozor)* aynan shu ma'noni ifodalaydi.

BOZORJIQ – Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. U adabiy tilda "bozorcha" ma'nosini ifodalaydi. Hozirda mazkur toponimning nomi keksa avlod vakillari nutqidagina tilga olinadi, xolos.

BOZORJOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Aslida, ***"bozor"*** forscha so'z bo'lib, *"aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon"* ma'nosini bildiradi [O'TIL.5, 1, 298]. "Joy" ham forscha so'z bo'lib, "ma'lum bir narsa yoki ish-harakat uchun eng qulay, mos yer, o'rin, maydon" ma'nolarini bildiradi [O'TIL.5, 2, 99]. Shularga asoslanib, B.O'rinboyev bu mikrotoponimni *"aholi savdo qiladigan maxsus joy"*, – deb izohlaydi [B.O'rinboyev, 2, 14].

Bozor savdo qilish joyi ma'nosidan tashqari, Xorazmda "qishloq, qishloq markazi" ma'nosida ham qo'llanadi. Mazkur joyga tutash bo'lgan Urganji toponimi ushbu hududdagi aholi hozirgi Xorazm vohasining Urganch shahri hududidan ko'chib kelganini hisobga olsak, ushbu toponimni "qishloqning markaziy qismi yoxud qishloqlarning o'rtasi" deb taxmin qilish mumkin. Leksik jihatdan ikki o'zakli ot+ot shakliga xos.

BOZORTOSH – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qadimiy tosh nomi. Mahalliy manbalarga ko'ra, qadimda bu yerda qul bozori bo'lgan. ***Bozortosh***ning g'arbiy tomonida bir g'or bo'lib, u juda chuqur, ichi qorong'i. Mahalliy shevada bu ***g'or zindon*** deb yuritiladi. G'orda qullar saqlangan degan ma'lumotlar bor.

Bozortosh oronimi tarixiy arxeologik mohiyatga ham ega, undagi g'orda oy, quyosh, ot va qo'y-mollarning suruvi tasvirlangan tosh suratlar saqlanib qolgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

BOZORCHA – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. To'g'ri, ko'pchilik toponimik nomlarga mahalliy aholi tomonidan turlicha rivoyatlar, afsonalar to'qiladi. Har qanday afsona yoki rivoyatning tagida qandaydir haqiqat bo'lganidek, aynan, mazkur toponimdagi rivoyat haqiqatga ancha yaqindir.

Birinchidan, nom yaqin atroflarda paydo bo'lgan;

ikkinchidan, nom haqidagi tushuncha va tasavvurlar yuzasidan hozirgi aholi ma'lumotga ega. Chunki mazkur qishloq hududida bozorcha bo'lib, u yerda mahalliy aholi mayda savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Shunday ekan, ***Bozorcha*** – *"bozor bo'lgan joy, savdo-sotiq qilingan qishloq"* ma'nosini bildiradi.

BOZORCHABOLO – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. **Bozorcha** – *unchalik katta bo'lmagan savdo joyi,* bolo – *yuqori, yuqori qism,* **Bozorchayi bolo** – *"yuqori bozorcha"*. Shunday deb nomlangan qishloqlar respublikamizning boshqa hududlarida ham bor.

BOG'AJAT – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***bog'a // bog'at***" va "***jat***" so'zlarining birikuvidan tashkil topgan.

"***Bog'a // bog'at***" – yozda yashash uchun shahar va qishloqdan tashqarida tashkil qilingan mevazor ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 350].

"**Jat**" – G'arbiy Afg'onistonda lo'li sanaluvchi qavmning nomi [T.Nafasov, 72].

Barloslarning "***jat***" deb nomlangan kichik urug' tarmog'i ham bo'lgan [T.Nafasov, 72; S.Qorayev, 54].

Etnograf B.Karmishyevaning ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyoda jat // jatta ("***jete***" – qaroqchi) degan urug' bo'lgan, ular o'zlarini barloslarning jatta urug'i vakillari, deb hisoblashgan[1].

Shunga binoan bu etnotoponimni "jat" urug'iga mansub kishilarning yozda yashash maskani o'rnida barpo etilgan qishloq, deb izohlash mumkin. *Bog'at/jat ot+ot* strukterasiga ega etnooykonim.

BOG'DOR – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Mazkur **Bog'dor** nomi – *"bog'bon, bog' egasi"* ma'nosini ifodalaydi, shuning uchun ham bu hudud shunday atalgan.

BOG'IBIHISHT – bog' nomi. Samarqandda 1378-yili Amir Temur tomonidan o'zining xotini Tuman og'a uchun qurilgan bog'ning nomi Bog'i-

[1] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 186.

bihisht deb nomlanib, u *"Jannat bog'i"* ma'nosini bildirgan.

BOG'IBOLO – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Forscha izofali toponimdir. ***Bog'+i+bolo*** – *"yuqoridagi, shimol tomondagi bog'"* ma'nosini bildiradi.

Boshqa bog'larga qaraganda nisbatan (yoki aholi punktidan yuqori joylashgan yoki atrofida tashkil bo'lgan bog') yuqorida bo'lgani uchun shunday atalgan.

BOG'IDASHT – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Forscha izofali toponim bo'lib, ***Bog'+i-dasht*** – *"dashtdagi bog'"* degan ma'noni anglatadi.

BOG'IDILKUSHO – Amir Temur bog'laridan birining nomi. U *"ko'ngil ochadigan, xursand qiladigan bog'"* ma'nosini ifodalagan. Samarqandning sharqida, Feruza darvozasidan 6 km narida bo'lgan. 1396-yilda Amir Temurning xotini To'qalxonim uchun qurilgan. Bog' to'rtburchak shaklida bo'lib, har tomoni 1500 gaz (taxminan 1 km) bo'lgan. Bog'ning atrofi baland devor va xandaq bilan o'ralgan. Bog'ning o'rtasida uch qavatli saroy (ko'shk) bo'lgan. "Ul ko'shkda Temurbekning Hindiston urushini tasvir etibturlar" (BN,105) va Amir Temurning hamda xotinlarining surati solingan edi (Qorayev, 1970, 29–30). Dilkusho saroyining xarobalari Panjakentga boradigan yo'lning janub tomonidagi Xoncharbog' tepaligi o'rnida bo'lgan (M.Y.Masson).

BOG'IJAHONNAMO – tog' yaqinida joylashgan Samarqanddagi Amir Temur bog'i. U *"butun dunyoni ko'rsatadigan bog'"* ma'nosini ifodalagan.

BOG'IKALON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Forscha izofali toponim sanaladi hamda ***Bog'ikalon*** – *"katta bog'li qishloq"* demakdir.

BOG'IMAYDON – mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan bog'lardan birining nomi sanaladi.

BOG'ISAIDON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. Forscha – izafet. *Bog'i+saidon: bog' va said,* sayyid – Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari, *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichidir. Demak, *Bog'i Sayyidon – "Muhammad (s.a.v.) avlodlari bog'i"* ma'nosidadir.

BOG'ISTON – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qishloq nomi. "**Bog'**" so'zi bundan bir necha asr oldin "Alloh" ma'nosini ifodalagan (В.В.Бартольд. "Историко-географический очерк Ирана", Ташкент, 1926. С. 55, 130).

Geograf olim X.Hasanovning fikricha, Bog'iston toponimi *"Bug'ular hayoti"* ma'nosini ifodalagan. Biroq bunday tahlillar asos talab qiladi. Yoki *-iston* qo'shimchasi so'zlarga qo'shilib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) qaysidir mamlakat yoki xalqning yashash joyi, mamlakat nomi;

2) nimalarnidir serob joyi. Mazkur qo'shimcha so'zlarga qo'shilib, qaysidir bir hayvonning nomini hosil qilgani noma'lum.

Professor I.P. Petrushevskiy "Bog'iston" terminini *"daraxtlar o'tkazilgan bog'"* sifatida tushuntiradi va buni biz nisbatan to'g'ri deb hisoblaymiz.

Shunga qo'shish mumkinki, qirg'izlarda bogostan-bugustan urug'i bo'lgan (Н.Ф.Ситняковский. Перечисление некоторых родов киргизов, обитавших в восточной части Ферганской области. – ИТОРГО, т. 2, вып. 1,2, –Ташкент, 1900. С. 58)

Boshqa bir ilmiy manbalarda uning ikki xil talqini mavjud. Bulardan biri Bug'uston – *"bug'ular yashaydigan makon"* degan ma'noni bildirsa, ikkinchidan, o'tmishda bog'-rog'lar ko'p joy, serdaraxt guzar – bog'iston deyilgan. Rashididdinning "Jome' at-tavorix" asarida ham bog'iston so'zi bor.

Xorazm viloyatining Bog'ot va Gurlan tumanlarida ham mazkur nom bilan atalgan mahalla nomi mavjud bo'lib, u quyidagicha izohlangan: *"Bog'iston – (forscha – bog'larga boy joy; bog'lar) serbog' joy; bog'lar o'lkasi, bog'-rog'lar bilan qoplangan maydon, joy"* ma'nosini ifodalaydigan toponimdir. Mazkur hudud shuning uchun ham shunday nomlangan.

BOG'ITURKON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumani. *Bog'–turkon – turklar, Bog'i turkon – turklar bog'i.* Undan tashqari, *"Turkon"* so'zi *"Turk shohlari"* nomi sifatida tez-tez uchraydi.

BOG'IZOG'ON – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Bu yerda *Bog'izog'on* nomli Amir Temurning mashhur bog'i bo'lib, u *Qarg'alar bog'i* deb ham atalgan.

BOG'ISH – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Bog'ishni o'zbek urug'i deb hisoblashadi (В.П.Наливкин. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. С. 13). Farg'ona vodiysida bir necha qishloqlar *Boybog'ish, Saribog'ish, Cho'ngbog'ish* kabi nomlar bilan ataladi. *Багыш солто* qirg'iz qabilasining urug'i (С.М.Абрамзон. Этнический состав киргизского населения. ТКАЭЭ, т. 4, –М., 1960. С. 108).

Aslida, **bog'ish** – *"bag'ish"* so'zining fonetik varianti. Bag'ish – Oloy tomonlardan ko'chib kelgan qirg'izlar urug'ining nomi, etnonim. Manbalarda izohlanishicha, *Bag'ish* etnonimining ma'nosi: *"лось"* – qadimgi turkiy tilda *bulan // pulan* deb atalgan *"bug'usimon sershox yirik hayvon"*[1].

Ko'chmanchi Bag'ishlar Namangan viloyatidagi Chortoq tumanining Peshqo'rg'on qishlog'i atrofiga kelib o'rnashgan va hozirda ham shu hududda yashaydi. Ular yashayotgan manzillar *Cho'mbag'ish* (aslida, *Cho'ngbag'ish*) va *Arbag'ish* deb ataladi. Ana shu *Arbag'ish* qishlog'idagi bag'ishlar tomonidan qazilgan, ularga xizmat qiluvchi ariq *Bag'ishariq* deb atalgan.

Demak, bag'ishlar arig'i qaratqichli birikmasi davrlar davomida sayqal-

[1] *Qarang.* Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 153.

lanib, Bag'ishariq gidronimiga aylangan va gidronimning birinchi bo'g'inidagi ***a*** unlisining ***o*** tarzida talaffuz qilinishi natijasida *Bog'ishariq* shaklini olgan: *Bag'ishlarning arig'i > Bag'ishlar arig'i > Bag'ish arig'i > Bag'ishariq > Bog'ishariq*.

BOG'ISHAMOL – qishloq. Samarqand viloyati Samarqand tumani. Bu yerda 1397-yili Amir Temur tomonidan o'zining Mironshoh qizi va nevarasiga bag'ishlab *Bog'ishamol bog'i* barpo etilgan, u *"Shamolli bog'"* ma'nosini ifodalaydi. Aynan shunday nomli qishloq Jizzax viloyatining Zomin tumani, Farg'ona viloyatining Bog'dod tumani va Namangan viloyatining Chust tumanlarida ham bo'lganligi qayd etiladi.

Mazkur qishloq Temurning yetti bog'idan birining nomi bilan atalgan. "Boburnoma"da: "yana Samarqandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Bihishtdir" (BN,105), – deb ko'rsatiladi.

BOG'ISHARIQ – ariq. Namangan viloyati Chortoq tumanining Arbag'ish qishlog'idagi ariq nomi. Mazkur gidronim etnogidronimlar guruhiga mansub. Ma'lumki, Farg'ona vodiysining tub joyli xalqlaridan biri qirg'izlardir.

V.Nalivkinning ko'rsatishicha, XVI asrdan boshlab, ayniqsa, XVII asr oxirlarida Farg'ona vodiysiga, tog' va tog'oldi tumanlariga ko'chmanchi chorvador qirg'izlar kelib o'rnashadilar[1]. Ana shu "ko'chmanchi o'zbeklar" – Oloy tomonlardan ko'chib kelgan qirg'izlar, asosan, Namangan bilan Peshqo'rg'on hamda Namangansoy oraliqlariga kelib o'troqlashganlar. Farg'ona vodiysiga Oloy tomonlardan kelgan mazkur qirg'izlarning bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular, asosan, soy suvlaridan foydalanganlar. Shuningdek, o'troqlashgan aholining har bir urug'i o'z imkoniga qarab sug'orish tarmoqlari barpo etishga, qazishga harakat qilgan. Ana shu harakatlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan har bir ariq aynan shu jamoaning, urug'ning ehtiyojinigina qoplagan va mazkur urug' nomi bilan atalgan. Namangan viloyati hududidagi *Quramaariq, Mamayariq, Qipchoqariq, Qirg'izbuloq* kabi etnogidronimlar fikrimizning dalilidir. Jumladan, *Bog'ishariq* ham ana shunday etnogidronimlardan biridir.

BOG'ICHINOR – bog'. Amir Temur o'z hayotining eng oxirida qurgan bog'lardan biri. U Samarqandning janubida joylashgan bo'lib, **"Qal'aga yovuqtur"** (BN,1965), **"Bog'ning saroyi"** (ko'shk) nomlari bilan tepalikda qurilgan edi.

Bog'ichinor hozirgi Qizilqo'rg'on tepaligi o'rnida joylashgan bo'lsa kerak, chunki bu yerda ko'plab paxsadevor qoldiqlari bor (M.Y. Masson).

Boshqa bir ilmiy manbalarda u shahardan janubda joylashganligi qayd etilib, Amir Temir umrining oxirgi kunlarida asos solgan Samarqand shahridagi bog' ekanligi qayd

[1] *Qarang.* Jalilov S. Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixi. – Toshkent: Fan, 1977; Мидендорф А. Очерки Ферганской долины, 1982. – С. 195.

etiladi (O'rinboyev, 2003). Istirohat bog'i bo'ylab chinorlar ekilgan bo'lib, shu yerdan bog'ning ham nomi kelib chiqqan.

BOG'OLON – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi qishloq va mahalla nomlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy aholi mazkur toponimni *"bog'i ko'p, bog'zor"* deb talqin qilsa, shu hududdan yetishib chiqqan O'zbekiston xalq shoiri Omon Matchon Bog'olonni *"bog' va olanglar bilan o'ralgan qishloq"*, deb ataydi.

Keyinchalik Xorazm toponimlari bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borgan prof. Z.Do'simov bu haqida tarixiy faktlarga asosan shunday yozadi: "Ushbu toponimni *bog'i alon* deb tushunish, ya'ni qadimgi alon xalqining nomi bilan bog'lash haqiqatga ancha yaqindir, chunki Xorazmda qadimgi eron guruhi tillarida gaplashuvchi alon qabilalarining yashaganligi haqida ma'lumotlar bor, shuningdek, bu yerda hozir ham saqlanib qolgan alanlar, Alan Qal'a kabi nomlar bu fikrni yana bir bor isbotlaydi.

Bu fikrni S.P.Tolstov ham tasdiqlaydi. Toponimning birinchi qismi *"bog'"* so'zining mevazor ma'nosidan tashqari bir qancha ma'nolari bor: *bog', yer to'p, jamlik, atrofi o'ralgan maydon, xalq, qabila* kabilar. Shunday ekan, *Bog'olon – alonlar jami*, degan ma'noni anglatadi" (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 33-bet).

BOG'OT – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Bog'ot tumani Xorazm viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan.

Relyefi asosan, uchlamchi davr oxiri va to'rtlamchi davr boshlarida daryo keltirgan yotqiziqlarning to'planishidan vujudga kelgan.

Janubiy O'zbekiston toponimiyasini o'rgangan nomshunos olim T.Nafasovning yozishicha, bog'ot so'zining ilmiy ma'nosi – *bog'lar, bog'* so'zining ko'plik shakli, *-ot* qo'shimchasi ko'plik, me'yoridan ko'p ma'noni bildiradi. Shahardan tashqari, atrofi devor bilan o'ralgan, mevali daraxtlar, tok va gullar ekilib, bog'-rog' va gulzorga aylantirilgan joy – bog'ot. Ana shunday joy atrofida bunyod qilingan aholi punktiga ham Bog'ot nomi berilgan. Xorazmiy tilda bog'ot so'zi ana shunday ma'noda qo'llangan bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan bog'-rog'lar barpo qilishga ishtiyoqi baland bo'lgan. Arab sayyohlari O'rta Osiyo shaharlari bog'larga burkanganligini ko'rib hayratda qolganlar. Amir Temur davrida barpo etilgan bog'larning tuzilishi o'ziga xos bo'lgan. XVII–XIX asrlarda Xiva atrofida Qibla toza bog', Rofanik kabi bog'lar barpo qilingan. Bog'otlar nafaqat dam olish va hordiq chiqarish maskani, balki mahalliy aholining meva va meva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ham xizmat qilgan.

Tarixiy manbalardan Bog'otni 2000 yillik tarixga ega ekanligi ma'lum. Bog'ot janubidagi Qal'ajiq (Dovudqal'a) dan topilgan buyumlar milod boshlariga oidligi aniqlangan. Bu qal'a "Buyuk ipak yo'li"da joylashganligi sababli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotda katta rol o'ynagan. Hozirgi kungacha qal'aning g'arbiy qismi mahalliy aholi o'rtasida "cho'yanbozor" deb yuritiladi. Hozirda qal'aning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida ham Bog'ot nomli aholi punktlari bor. Tuman ma'muriy markazi Bog'ot shaharchasi (1970-yildan).

BOG'ZOR – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Bog'ot tumanining aksariyat hududlarida bog'lar ko'p bo'lib, ular, asosan, uzumchilik bilan shug'ullanishadi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Bog'ot tumanida *Bog'zor, Uzumzor, Uzumchilik, Mevazor* kabi nomlar, aniqrog'i, toponimlar ko'plab uchraydi. Demak, **Bog'zor** – *"mevazor, chamanzor, bog'li joy"* deganidir.

BOG'CHA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Sug'dcha ***bag'***, yag'nob tilida ***bug'***, tojikcha ***bog'*** – *"mevali daraxt, tok, gul parvarishlab voyaga yetkazilgan joy"* kabi ma'nolarni anglatadi.

Yozda yashash uchun shahar qishloqdan tashqarida tashkil qilingan mevazor, bog'ot. Bog'cha tarkibidagi ***-cha*** aslida, - *"jo/y/ so'zining soddalashgani bog'jo/y/ bog'ja – bog' bo'lgan joy, daraxtli joy"* deganidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ***-cha*** qo'shimchasi lug'aviy shakl yasovchi affiksga aylangan, ***-cha*** affiksi ayrim holatlarda esa kichraytirish ma'nosiga ham ega, toponimlar tarkibida tez-tez uchraydi: ***Qo'rg'oncha, Darcha, Tandircha*** va boshqalar shular jumlasidandir.

BOSHBULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. O'zbek tilining izohli lug'atida "***Bosh***" so'zi *"ulkan, asosiy, katta"* ma'nolari mavjud [O'TIL. 1, 333].

Geografik termin sanalgan "***buloq***" so'zi esa yuqorida qayd etilgan izohli lug'atda *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* [O'TIL. 1, 371].

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, **Bosh buloq** deganda asosiy katta buloq nazarda tutiladi.

BOCHQIR – qishloq. Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Ayrimlar qishloq nomi *"Bos"* va *"qir"* so'zlaridan tarkib topgan deyishadi.

Bu yerga arablar bostirib kirganda xalq bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatadi, arab sarkardasi xalqni "Bosib, qirib tashla" deb buyruq berganidan qishloq shunday atalgan emish. Ba'zilar qishloq **Boj gir** – *"Soliq sol"* degan ma'noni anglatadi, deyishadi.

Bizningcha, haqiqatga yaqinrog'i Bochqir qishlog'i nomining boshqird etnonimi bilan atalganligidir. XVII–XVIII asrlarda ana shu qishloqda

boshqirdlar yashagan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. С. 145).

BUKRITOSH – tosh. Samarqand viloyatining Nurobod tumanida tosh nomi. Bukri apellyativi "umurtqa yoki ko'krak qafasining qiyshayib o'sishi natijasida hosil bo'ladigan do'mboq, bukri joy" ma'nosini anglatadi.

Toshning shakliy tuzilishi shunday ko'rinishda bo'lgani bois ***Bukritosh*** deb atalgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

BULBULAK – mahalla. Samarqand viloyati Samarqand shahrining eski shahar qismidagi mahalla nomi. M.Abramovning fikricha, XVII asr boshlarida tashkil etilgan.

Qadimda mahalla ahli, asosan, kulollikning bir yo'nalishi bo'lgan bolalar o'yinchoqari yasash bilan shug'ullangan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В. 42).

Bulbul so'ziga sug'dcha -ak erkalash-kichraytirish qoshimchasi qo'shilisi natijasida hosil qilingan bo'lib, bulbulcha yasash ma'nosini bildiradi.

BULOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "***Buloq***" so'zi *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini bildiradi [O'TIL.5, 1, 370-371].

Shunga binoan bu mikrotoponimni *"buloq yoqasida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq"* [B.O'rinboyev, 45] deb izohlash mumkin. **Leksik jihatdan bir o'zakli ot shakliga xos.**

BULOQBOSHI – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Aholi maskani buloqning boshlanishi tomonidan bo'lganligi uchun shunday nomlangan.

Buloqboshi *"sarchashma"* so'zining o'zbekchasidir. Buloqboshi nomli o'zbek urug'i ham bor (Qorayev, 1970). E.Murzayevning yozishicha, bu so'z *"oqmoq", "aralashmoq"* fe'lidan olingan (1984). Buloqning xarakteri, shakli, soni, egasini ifodalovchi so'zlar qo'shilib, ko'plab joy nomlari hosil bo'lgan, jumladan, *Yettibuloq, Zarbuloq, Oqbuloq, To'qqizbuloq* kabi joy nomlari "**buloq**" so'zi bilan bog'liq.

BULOQOVUL – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ikki o'zakli mikrooykonim. U ***buloq*** va *ovul* qismlaridan tashkil topgan.

Apellyativning birinchi komponenti "***buloq***" – yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"dir [O'TIL. 1, 680].

"***Ovul***" so'zi esa *"ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq"* ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL.5, 3, 81).

Obul tipdagi joy nomlari ko'p uchraydi (*Tegirmonovul, Ko'povul, Abirovul, Tojikovul, Qirqovul, Kamarovul, Chorovul, Sariovul, Sortovul* va boshqalar).

Demak, **Buloqovul** mikrooykonimi – *buloq boshida barpo etilgan yashash maskanidir.*

BULOQSOY – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti "***buloq***" geografik termin bo'lib, u o'zbek tilining izohli lug'atida *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 1, 371].

Geografik termin hisoblangan "***soy***" esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* dir[O'TIL. 3, 545].

Demak, Buloqsoy gidronimini "chashma suvlaridan to'yinuvchi suz o'zani" shaklida izohlash mumkin.

BULUNG'UR – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tumandagi yirik ariqlardan birining nomi. Shu nomdagi qishloq ham bor. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida *"Bulung'ur suyi"* nomi bilan tilga olingan.

V.L.Vyatkin fikricha, bu ariq qadimiy sug'orish inshootlaridan bo'lib, uning o'zani ilgaridan mavjud bo'lgan soylik bo'ylab o'tgan.

S.D.Nominxonovning aytishiga ko'ra, **Bulung'ur** mo'g'ulcha *"loyqa suv"* demakdir. Surxondaryo viloyatida *Bulung'ur* nomli soy, Xitoyning Gansu viloyatida *Bulunszir*, ya'ni *Bulung'ur* degan daryo bor.

Professor B.O'rinboyevning fikricha esa, **bulung'ur** umumturkiy so'z bo'lib, **bulung, bulun**, ya'ni *"burchak oxiri, chegara va qir, qir yonbag'ri, tog' yonbag'ridagi soylik, zov, tepalik qirrasi"* so'zlaridan tashkil topgan. Demak, **Bulung'ur** – *"uzunasiga ketgan yassi tog'lik burchagi"* ma'nosini beradi.

Mahalliy aholi uni *Qumariq* nomi bilan ham yuritadi. Tuman markazi nomi 1926-yilgi aholi ro'yxatida *Rostovsevo stansiyasi (bekati)*, deb tilga olingan, o'tgan asrning 90-yillariga qadar esa Krasnogvardeysk nomi bilan mashhur edi. Mustaqillikdan so'ng *Bulung'ur* nomi bilan yuritila boshlagan. Xuddi shu tumandagi Temiryo'lchi bekatining nomi ham mustaqillikka qadar rus tili ta'sirida Mixaylovo-Valnevskoye, Bol. Mixaylovka nomlari bilan atalib kelinganligi keksa kishilar xotirasida saqlanib qolgan.

BULUCH – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani. Mazkur qishloq baluj xalqlari nomi bilan atalgan, ular, asosan, Eron va Afg'onistonda, shuningdek, Tojikistonning ham ayrim hududlarida yashaydi (T.Nafasov. "Mehnat va turmush", 1973, № 8).

BUNYODKOR – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mustaqillikdan keyin atalgan mazkur so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh beriladi: *"asos soluvchi, barpo qiluvchi, yaratuvchi"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 522-bet). Keyin davr mahsuli bo'lgan bunday nomlar

respublikamizning ko'plab hududlarida uchrashini qayd etish zarur.

BURAMATUT – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qishloq nomlaridan biri. **Buramatut** – *"Tut daraxtlari bilan o'ralgan tutzor"* ma'nosini ifodalaydi.

BURBALIQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Ushbu ***Burbaliq*** toponimining "Bo'rilar shahri" degan etimologiyasi nomning tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Aslida, nomning birinchi qismi ***bur*** – *"ekilmaydigan yer, bo'z, portov yer"* degan ma'noni ifodalasa, apellyativning ikkinchi komponenti ***baliq*** esa *"shahar, qo'rg'on, qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

Demak, ***Burbaliq*** toponimi *"bo'z yoxud portov yerlardagi qishloq"* degan ma'noni anglatadi.

BURDAGO'Y – Termiz yaqinidagi qishloq (Surxondaryo viloyati). XV asrda Amudaryoda Burdaguy bo'lgan. Mashhur tarixchi va geograf Hafiz Abru (1361–1430) shunday yozgan: Burdaguy qishlog'i Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn), mazkur so'z yunoncha *"mehmonxona"* ma'nosini ifodalaydi.

Harbiy kartograf, general-mayor I.V.Bouverning (XVIII asr oxiri) xaritasida qadimgi Burdaguy shahrining yaqinida Burdalik aholi punkti ko'rsatilgan, Burdalik beklar markazi bo'lgan. Professorning hisoblashicha, Hafiz Abru tomonidan tilga olingan Burdalik qadimgi Burdaguy shahridir (М.Е.Массон. Новые картографические данные о прошлом Туркменистана XVIII в. Известия АН Туркменской ССР, №1, 1958. С. 47).

BURGALIK – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani. Ko'chmanchi o'zbeklar tarkibida *Burga* degan **urug'** bo'lgan, saroy qabilasining bir urug'i *Burgali-saroy* deb atalgan. **Burganlik**, ya'ni *"soy ichi burgan o'simligi bilan qoplangan"* ma'nosida ham bo'lishi mumkin.

BURGAN – Navoiy viloyatining Xatirchi tumani va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Bu mikrotoponim tarkibidagi "***burgan***" so'zi aslida fitonim bo'lib, *"bargi ikki-uch karra patsimon qirqilgan, sariq gulli, bo'yi 60-100 sm, murakkab gulli, poyasi va bargida oshlovchi modda, smola, shakar, efir moyi va alkaloidlar bo'lgan bir yillik o'simlik"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 376].

Professor T.Nafasov mazkur mikrotoponimni *"burgan o'simligi o'sadigan joyda bunyod etilgan qishloq, yashash maskani"*, deb izohlaydi [T.Nafasov, 46]. Ushbu fitooykonim bir o'zakli bo'lib, ot shakliga xos.

BURGANLI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning tarkibi *"**burgan**"* va *"**-li**"* qismlaridan iborat. Burgan so'zi aslida fitonim bo'lib, *"bargi ikki-uch karra patsimon qirqilgan, sariq gulli, bo'yi 60–100 sm, murakkab gulli, poyasi va bargida oshlovchi modda, smola, shakar, efir moyi va alkaloidlar bo'lgan bir yillik o'simlik"* ma'nosini bildiradi (O'TIL. 1, 376).

Shunga binoan *"burgan o'simligi ko'p o'sgan joyda bunyod etilgan qishloq, yashash maskani"* deb izohlash mumkin.

BURGUT – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Burgut, aniqrog'i, burqut – turklashgan mo'g'ul qabilasi, ularning aksariyati XII – XVI asrlarda Markaziy Osiyoga kelib, Zarafshon vodiysi va bo'sh dashtga joylashib, o'zbeklarga moslashishga ulgurishgan.

BURGUTLAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ujduvon tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Burgut toponimining hech qanday yirtqich qushga aloqasi yo'q, bu o'zbeklar tarkibiga kirgan *Burqut* qabilasi nomidan kelib chiqqan.

BURGUTLI – dovon. Turkiston tizmasi cho'qqisidagi dovon (Jizzax viloyati Baxmal tumani). "**Burgutli**" – *"burgut –berkut"* ma'nosini ifodalaydi.

BURGUTLISOY – soy. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Apellyativning birinchi komponenti "**Burgut**" o'zbek tilining izohli lug'atida – *"qarchig'aysimonlar oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush"* ma'nosiga ega [O'TIL. 1, 376].

Uning geografik termin sanalgan ikkinchi qismi "***soy***" esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* [O'TIL. 3, 545].

Demak, ***Burgutlisoy*** – *"Burgut yoki burgutsimon qushlar ko'p bo'lgan soy, maskan"* ma'nosini anglatadi. Ushbu nomni ornitogidronimlar sirasiga kiritish mumkin.

BURGUTQAL'A – qal'a. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qal'a nomi. Mazkur arxiotoponim hudud toponimiyasida yuqoridagi tasnifga asosan ikkinchi guruhga mansub joy nomlaridan biridir. Ana shunday joy nomlaridan biri bo'lgan *Burgutqal'a* toponimini tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uni yuqorida ta'kidlanganidek, o'zining ilk (asosiy) nomini saqlab qolmagan, turkiy adaptatsiyadan keyin nomi to'la turkiylashgan va mahalliy aholi tomonidan *"moslashtirilgan"* toponimlar sirasiga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Burgutqal'a – Ellikqal'a tumanidagi "Qirqqizobod" fermer xo'jaligida joylashgan. Yodgorlikning devor va burjlarida ilk o'rta asrlarda ta'mirlash ishlari olib borilgan[1].

Ajdodlarimizning ilk manzillarni nomlash odatlari, shuningdek, arxeologik natijalar qal'aning bu qadar qadimiyligini tasdiqlashi hisobga olingani holda, uning nomi qal'a bilan barobar yuzaga kelmagan bo'lsa kerak, degan fikr tug'iladi. Bundan tashqari, hudud toponimlarida "juft nom-

[1] Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. – Toshkent: Fan, 2009. –B. 49.

lar" tamoyili[1] ham shunday fikrga kelishimizga asos bo'ladi. Fikrimizcha, apellyativning birinchi komponenti *bar*dir. Mazkur so'zning ilk ma'nosi "*qabul*" bo'lib, polisemiya natijasida "*saroy*"; "*qasr*"; "*hukmdor manzili*" kabi mazmun kasb etgan. So'zning ushbu ma'nosi hozirgi fors tilidagi va eski o'zbek tilidagi *borgoh* so'zida saqlanib qolgan[2]. Ikkinchi komponent esa *git* shaklida bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlar hududda shu nomli qal'a bo'lganligini ham ko'rsatadi. *Git* yoki *Puljoy* Xorazm vohasining g'arbiy qismida joylashgan shahar bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan[3].

Arab sayyohlari asarlarida mazkur shahar *Jit* nomi bilan tilgan olingan. Eroniy tillardagi fonetik qonuniyatlarga asoslanib, *Git* nomini *Kat* so'zining fonetik variantlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bu holda ***Burgut*** – "*saroy joylashgan shahar*"; "*saroyli shahar*" degan ma'noni anglatadi.

Qal'aning arxitekturasi, hududning aholisi nisbatan zich yashagan qismi bo'lgani hamda shahar vayronlarining bugungi mahobati ham shu xulosamizga asos bo'ladi. Keyinchalik hudud toponimlarida *qal'a* indikatorining faollashuvi, xorazmiy tilining iste'molidan chiqib, nomning lug'aviy ma'nosi unutilishi natijasida qal'a *Bargit* nomi mahalliy aholi tilida mavjud *Burgut* zoonimi bilan almashgan va bu bilan bog'liq toponimik rivoyatlar yuzaga kelgan.

Toponimikada bu tabiiy jarayon bo'lib, bugungi kunda ham, deylik, "kent" so'zining lug'aviy ma'nosi anglangan holda "*shahar*" indikatorini qo'shamiz.

Hudud toponimiyasida *Burli* nomining ham mavjudligi toponimning *bur* qismi haqidagi fikrlarimizga yana bir dalil deb hisoblaymiz (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi. –Nukus, 2012).

BURQUT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponimga asos bo'lgan *Burqut (burqit)* so'zi urug' nomi, etnonim. Shu urug' vakillari yashaydigan joy – Burqut. Geografik joy nomi etnonim asosida vujudga kelgan.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi ham shunday ataladi. *Burqut, burgut* – o'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan biri (Doniyorov, 1968:81).

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani, Samarqand viloyatining Payariq, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanlarida *burqut* etnonimi bilan bog'liq qishloqlar nomi ko'p.

Burqut, bargut qabilasi nomi mahalliy talaffuzda burgut bo'lib ketgan. Rashididdin asarida qayd qilingan Bur-

[1] Неразин Э.Э. К проблеме развитие городов Хорезма.// Культура и искусства древнего Хорезма. –М.: Наука,1981.–С.225.

[2] Персидско-русский словарь. Том 1. –М.: Русский язык, 1983. –С. 165.

[3] Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. – Toshkent: Fan, 2009. –B. 77.

gut qabilasi keyinchalik o'zbek qavmlari qatorida tilga olingan bo'lsa kerak.

Olim Qori, Tulas, Bargut qabilalarining o'zaro yaqinligini ta'kidlaydi.

"Abdullanoma" asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriy o'z asarida Abulxayrxonning o'g'li Shoh Budog' (Muhammad Shayboniyxonning otasi)ning onasi Burkut qabilasidan bo'lganligini yozib qoldirgan.

BURCHMO'LLA – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qishloq. Toponimning etimologik tahlili bilan uning etimoni ham bahsli va unutilgan jarayon nomi ekanligi ko'rsatildi. Toponim haqida ikkita taxmin bor:

1. Toponim ikki ma'noli qismdan tashkil topgan: *burch, mo'lla*. Undagi "mo'lla" so'zi *"mulla"* so'zining o'zgargan shakli. Bu joy nomi *"burchli mulla"* degan ma'noni beradi: *burchli + mulla > burchli mulla > burchmulla > Burchmo'lla*. Mazkur toponimda *u > o'* fonetik hodisasi ro'y bergan. Ammo toponimning ma'noli qismlariga qarab, *"Burchli mulla"* degan ma'noni anglatadi deyish, bizningcha, xalq etimologiyasi sanaladi.

2. Oykonim ikki ma'noli qismdan iborat: burj, mo'lla. ***"Burj"*** so'zi – *"qal'a, qo'rg'on devori bilan tutashgan kuzatuv binosi"* ma'nosini ifodalaydi. ***"Mo'lla"*** so'zi toponim uchun lug'aviy asos bo'lgunga qadar asli *mo'la* shaklida bo'lgan. U lug'aviy asos sifatida tanlangach, bir *l* undoshi orttirilgan: *mo'la > mo'lla*.

T.Nafasovning qayd etishicha, ***mo'la*** *– tuproq uyib, chim yo g'isht (tosh) qalab, baland qilingan so'risimon joy.* ***Mo'la*** *– kuzatish, qo'riqlash, xabar berish obyekti.* Agar mo'la lug'aviy asosining yuqoridagi ma'nolari e'tiborga olinadigan bo'lsa, u holda harbiy termin sifatida qo'llanadigan **mo'ljar** so'zi ham u bilan ma'no jihatdan bog'liq: *"xandaq oldidagi tuproq uyumi"*. Ehtimol, ***mo'ljar*** apellyativi fonetik o'zgarishlarga uchrab, ***mo'la*** shakliga kelib qolgan: *> mo'lja > mo'la*. O'rganilayotgan lug'aviy asos tarkibidan talaffuz vaqtida avval ***r*** undoshi, so'ngra ***j*** undoshi tushib qolgan.

Bizningcha, ***burj*** so'zi *mo'lla* so'zidan keyin toponimga qo'shilgan. Arablar bu obyektga yetib kelishgach, uning *"kuzatish, qo'riqlash, xabar berish obyekti"* ma'nosidagi *mo'lla* so'zi ekanligini tushunib-tushunishmay, uning arabcha ko'rinishi bo'lgan *burj* so'zini ham birgalikda qo'llashgan: *burj + mo'lla > burj mo'lla > burchmo'lla > Burjmo'lla*. Uning shakllanishi jarayonida ***j*** tovushi ***ch*** tovushiga o'tgan: *j > ch*. Toponimdagi ikki lug'aviy asosning ma'nolari bir-birini to'ldirib, qo'riqlash va kuzatish punkti bo'lgan harbiy inshootni bildiradi. Mazkur topoobyektning tog' o'rtasida joylashishi ham u ifodalayotgan toponimik ma'noga zid emas. Shuning uchun ham Burjmo'lla toponimi oldingi davrlarda *"qurilgan kuzatish, qo'riqlash punkti joylashgan joy"* ma'nosini anglatgan.

Demak, uning etimoni ***burj*** va ***mo'la*** lug'aviy asoslarining birikishidan hosil bo'lgan ***burj mo'la***

birikmasi hisoblanadi. Xullas, bu toponim xalqimiz qadimdan himoya – qo'riqlash tizimiga e'tibor berganligini asoslab turibdi.

BUVAYDA – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. N.Abdulahatovning yozishicha, tuman o'tgan asrning 30–50-yillarida Molotov nomi bilan atalgan. Tuman tashkil qilingan vaqtda o'sha hududda muqaddas qadamjo hisoblangan Buvayda ziyoratgohining nomi tumanga berilgan. *Buvayda* nomining ilk shakli Bibi Huvaydo. Toponimikadagi tejalish qonuniyatiga ko'ra, nom qo'llanish jarayonida soddalashgan va talaffuzda qulay bo'lgan Buvayda shaklini olgan. *Bibi – buvi (momo)* so'zining mahalliy shevadagi shakli. *Huvaydo* arabcha *"oshkora, ravshan"* kabi ma'nolarga ega so'z.

Farg'ona viloyati toponimlarini o'rgangan olim N.Oxunovning yozishicha, *Buvayda* nomi – Bibi Ubayda so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir. Bunda avval o'xshash bo'g'inlardan biri (*bi+bi=bi*), keyin yonma-yon kelgan tor unli (*i+u*) lardan "*i*" unlisi tushib qolgan va intervokal holatda "*b*" fonemasi "*v*" tovushiga o'tgan. Natijada *Bibi Ubayda – Buvayda* ko'rinishiga kelib qolgan. Imlo uchun nomning talaffuzi asos qilib olingan.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"dagi ma'lumotlarga ko'ra, tuman hududida tarixiy obidalardan *Bibi Buvayda* me'moriy yodgorligi (XV–XVI asrlar) saqlangan. Uni Farg'ona vodiysida islom dinini targ'ib qilgan imom, afsonaviy sarkarda Shoh Mahmud Jalil onasi Bibi Huvaydo va xotiniga atab qurdirgan, deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, tumanda *Podshopirim, Bandikushod, So'fi Aziz, Boston buva (Sulton Boyazid Bistomiy)*larning maqbaralari bor.

IX asrda yashagan Sulton Boyazid Bistomiy musulmon olamida katta shuhrat qozongan shaxs bo'lib, tasavvufni yirik ta'limotga aylanishida juda ulkan xizmatlar qilgan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da u kishi haqida: "Boyazid Bistomiy – avvalqi tabaqadindur. Oti Tayfur binni Iso Ahmad Xizraviya... Tarix ikki yuz oltmish birda olamdin o'tdi", – deb yozadi.

XVIII asrda yaratilgan "Tazkirat ul-avliyoyi turkiy"da Bistomiyga shunday ta'rif beriladi: "Ul sulton ul orifin, ul burhonil muttaqin, piri vaqt shayx Boyazid Bistomiy ul vaqtning avliyolari va mashoyixlarining ulug'i erdi. Va xalifayi barhaq va qutbi olam erdi. To'la riyozatlar tortqon va bisyor karomatlari bordur".

Qo'llanish jarayonida Sulton Boyazid Bistomiy nomi ixchamlashgan va qo'llash uchun sodda va qulay bo'lgan shaklga kelib qolgan. Nomning so'nggi qismi – *Bastom* so'ziga *bobo* so'zi qo'shilib, *Bastombobo*, so'ngra *bobo* qo'shimchasi o'rnini mahalliy shevadagi *buva* so'zi egallagan va nom tubjoy xalq uchun qulay bo'lgan *Bostonbuva* shaklini olgan.

Tuman ma'muriy markazi Yangiqo'rg'on shaharchasi (2009-yildan).

Yangiqo'rg'onning belgisini bildiruvchi so'z. Yonidagi qo'rg'onlarga nisbatan ulardan keyinroq qurilgan qo'rg'on – Yangiqo'rg'on. O'tmishda Farg'ona vodiysi tarkibida qo'rg'on so'zi bo'lgan nomlar boshqa mintaqalarga nisbatan ko'proq bo'lgan.

BUXORO – viloyat. O'zbekistondagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Markaziy Osiyodagi qadimgi shaharlardan, endi shu nomdagi viloyatning markazi. U shahar sifatida yangi era davridan ma'lum. VI–VIII asrlarda feodal buxarxudotlar ("buxorolik hukmdorlar") davlatining poytaxti bo'lgan.

Buxoro 709-yili Qutayba ibn Muslim boshchiligida arab harbiylari tomonidan bosib olingan. IX–X asrlarda Buxoro Xuroson va Movarounnahr hududlaridagi Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan. Mazkur shaharda butun dunyoga mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino (980–1037) shifokor sifatida, shoir Rudakiy (X asr), davlat arbobi va tarixchi Bal'amiy (X asr), shoir Daqiqiy (X asr), tarixchi Narshaxiy (X asr), yozuvchi va astronom Ahmad Donish (1825–1897), yozuvchi Ayniy (1878–1954) va boshqalar yashab, o'zlarining mo'jizalari bilan dunyoni lol qoldirgan.

Buxoro nomi ilk bor Ptolemey (II asr)ning "Geografiya" asarida **Puxar** tilga olinadi, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida (Tojikiston Respublikasi) VIII asrda, shevalarda **Buxara, Bukar, Puqar** shakllarida talaffuz qilinadi.

Akademik V.V.Bartoldning yozishicha, hozirgi Buxoroning o'rnida islomgacha bo'lgan davrlardan ham bir necha asrlar avval shaharga asos solingan. Xitoyliklar uni hozirgi eramizdagi V asr deb nomlaydi va **Numijkatu** (Numijkat – Buxoro nomlaridan biri) nomiga moslaydilar. Buxoro nomi (xitoycha **Buxo**) ilk bor xitoylik mashhur Syuan Szanu (630-yillar atrofida) tomonidan tilga olinadi. Akademik V.V. Bartold kabi ko'pchilik olimlar ham nemis olimi V.Tomashek **Buxoro** nomini sanskritcha *vixara* so'ziga olib borib taqashadi va u *"buddizm cherkovi"* ma'nosini ifodalashini qayd etishadi.

Mazkur olimlarning so'zlariga ko'ra, **Buxor(o)** – mazkur sanskritcha so'zning turkcha-mo'g'ulcha shaklidir. So'nggi yillarda shunday tasdiqning qarshi tarafdorlari topildi. Shahar nomining sug'dcha shaklda yozilishiga asoslangan eronliklar, shunday etimologiyaning ishonchliligiga shubha qilishgan; ularning fikricha, *vixara* fonetik jihatdan shahar nomining hozirgi shaklini berishi mumkin emas (В.А.Лившиц, К.В.Кауфман, И.М.Дьяконов. О древнейшей согдийской письменности Бухары. Вестник древней истории, № 1, 1954. С. 150–163).

Buxorolik tarixchi Hofiz Tanishning (XVI) tasdiqlashicha, Buxoro nomi *buxor* so'zidan kelib chiqqan, u otashparastlar tilida *"bilimlar uyi"* ma'nosini ifodalaydi (Hofiz Tanish. "Abdullanoma" –T., I. 1966. C. 273).

Ta'kidlash joizki, **Buxoro** boshqa joylarda ham uchraydi: Sibirda **Buxoro** arig'i, Janubiy Uralda – **Buxorcha** ariqchasi, Bekobod yaqinida **Buxarariq** kanali; Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida okruglar, mahallalar, joy nomlari **Buxoro** nomi bilan qayd etilgan. "Buxoro"ning nomlanishi ilk bor V asr tangalarida bo'lib, yozma yodgorliklarda esa VII asrda tilga olinadi. Tarixchi Djuveyn (XIII), uning izidan boshqa tadqiqotchilar, shu jumladan, I.Markvart, V.Tomashek, V.V. Bartoldlar **Buxoro** nomini sanskritcha *vixara* – "suffizm cherkovchisi"ga bog'lashga harakat qilishgan.

O'zbekistonning o'zida ham **Buxoro** deb nomlanadigan ko'plab joylar bor: Samarqand tumanida **Buxoro** nomli qishloq, Oqdaryo tumanida **Buxororavot** qishlog'i, Toshkent viloyatining Bekobod tumanida **Buxoroariq** nomli ariq bor. Bundan tashqari, Respublikada **Buxoro, Buxorto'par, Buxoriy, Xo'jabuxoriy** nomli mahalla, dara va boshqalar bor.

BUXORO ARIG'I – ariq. Sirdaryo viloyatining Mirzacho'l hududidagi o'tmishdagi ariqlardan birining nomi. Buxoro amirligi davrida 1885–1890-yillarda qurilgan. 1895-yil 1-sentabrda esa mazkur Mirzacho'lga ilk bora suv chiqqan. Sirdaryodan suv olgan. Shuning uchun ushbu nom Buxoro amirligi sharafiga atab qo'yilgan.

BUYRAK – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. Toponimning kishilar orasida: "Buyrakka o'xshash" bo'lganligi uchun shunday ataladi", – degan izohining hech qanday asosi yo'q. *Buyrak – "Bayri"* va *"-ak"* (*"kichraytirish"* ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha) affiksi orqali yasalgan joy nomidir. *"Bayri" – "Bekat, to'xtash joy"* degan ma'noga ega. *Buyrak* yoki *Bayrak – "kichik bekat"* demakdir (Do'simov, 1977). Ayrim manbalarda Buyrak urug' nomi ekanligini yozadilar. Buxoro viloyati Kogon tumanida ham shunday nomli toponim mavjud bo'lib, uni Shayboniylar hukmronligi ostida joylashgan asosiy urug'lardan biri (qushchi, nayman, buyrak va qarluq) ekanligi qayd etiladi (В.В.Бартольд, Сочинения. Т. VIII. С. 168).

BUYUK AJDODLAR – mahalla. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi mahalla nomi. Mazkur nom Mustaqillikdan keyin buyuk ajdodlarimizni xotirlash, doimiy eslab yurish maqsadida atalgan.

Qolaversa, o'sha hududda diniy peshvolar, shariat va tariqat ilmini mukammal egallagan Sayyid Mazaddin bobo, Odina Eshon bobo, Bulad Xo'ja bobo va boshqa buyuk shaxslar yashab o'tganligini ham inobatga olgan holda, shu bilan birga, har qanday buyuk ajdodlarimizni doimiy ravishda eslab, xotirlab yurish maqsadida **Buyuk ajdodlar** nomi berilgan.

BUYUK TURON – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi aholi punkti nomi. Mazkur nom buyuk va turon so'zlaridan tashkil topgan.

Apellyativning birinchi komponenti **buyuk** so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"hajm-o'lchovi odatdagidan ortiq, katta; ulkan. Ulug'vor, yuksak, tengsiz, mislsiz. Aziz, mo'tabar"* tarzida ifodalangan (O'TIL. I, 390).

Uning ikkinchi komponenti **Turon** – bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma'noni bildirib, keyinchalik Turkiston tushunchasiga aylangan. Turkiston termini sug'dcha – yer, tuproq, dala va dasht kabi ma'nolarni ifodalagan.

Shunga ko'ra, Turkiston, Turon toponimi pasttekislik, dala-yu dashtliklar, ya'ni keng yaylovlar degan ma'noni anglatgan.

BUYUK ZAMIN – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi aholi punkti nomi. Buyuk – *"hajm-o'lchovi odatdagidan ortiq, katta; ulkan. Ulug'vor, yuksak, tengsiz, mislsiz. Aziz, mo'tabar"* kabi ma'nolarni bildirsa, (O'TIL. I, 390). Zamin esa forscha so'z bo'lib, *"yer, tuproq; mamlakat"* kabi tushunchalarni ifodalaydi (O'TIL. I, 126).

Demak, nazkur toponim *buyuk mamlakat, buyuk tuproq, buyuk yer* kabi birikmalar bilan hamohangdir.

BUYUK YURT – qishloq. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Buyuk – *"hajm-o'lchovi odatdagidan ortiq, katta; ulkan. Ulug'vor, yuksak, tengsiz, mislsiz. Aziz, mo'tabar"* kabi tushunchalarni ifodasa (O'TIL. I, 390), yurt so'zi esa – *"ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy; o'lka, mamlakat, vatan. Biror mamlakat yoki o'lkada yashovchi xalq; el; aholi"* kabi ma'nolarni bildiradi (O'TIL. V, 93).

BUZRAVOT – mahalla. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi mahalla nomlaridan biri. **Buzravot** forscha *"buzrug" – "katta"* va arabcha *"rabot" – "karvonsaroy"* so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan (T.Nafasov. O'zbekiston toponimlari izohli lug'ati. – Toshkent, 1988. C. 45).

BUZUQLI – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi tepa va qishloqning nomlaridan biri. Toponimning shakllanishi to'g'risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Bu toponim ikkita ma'noli qismdan iborat: *buzuq, -li.* **"Buzuq"** so'zi *buz* fe'lidan *-uq* qo'shimchasi bilan yasalgan: *buz+-uq > buzuq*. Ushbu so'z asosida oykonim yasalgan. Binobarin, mazkur so'z toponim tarkibida *"yurib bo'lmaydigan joy"*, ya'ni qisman salbiy ma'noni anglatgan.

2. B.O'rinboyev bu toponimni *yurib bo'lmaydigan tik yon bag'irdagi joy,* deb ko'rsatgan.

3. Sababi, bunday nomlangan obyekt tog'li hududda joylashgan qishloqdir, *-li* topoformanti esa xususiyatga tegishlilik, ega bo'lganlik ma'nosini ifodalab, *buzuq* so'ziga birikib kelgan: *buzuq-li > buzuqli*. Hosil bo'lgan yasama so'z toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonida apellyativ leksika sathidan onomastik leksika sathiga ko'chgan: *buzuq+-li > buzuqli > Buzuqli.*

Demak, toponim *"yurib bo'lmaydigan tik joy"* ma'nosini ifodalaydi. Uning etimoni esa *buzuqli* shakliga ega bo'lgan yasama so'z sanaladi. Joy nomi to'g'risidagi ikkala taxmin bir-birini ma'lum ma'noda to'ldirib borgani uchun bir mukammal ilmiy tahlil yuzaga kelgan.

BUZUNDUVON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Nomning etimologiyasi ma'lum emas. Bu nomni ikki xil talqin qilish mumkin:

birinchisi, toponim aslida *Buzurgdovon* bo'lishi mumkin. Toponim tarkibidagi *buzurg* so'zi *"katta", "ulkan", "yirik"* degan ma'noni bildiradi. Ikkinchi komponenti – *dovon* so'zi esa *"Tog'dan oshib o'tish mumkin bo'lgan joy"* ma'nosidadir;

ikkinchisi, toponim *Buzuqdovon* bo'lishi ham mumkin. Toponimning birinchi komponenti – *buzuq* so'zi *"yurib bo'lmaydigan, yiqilib tushadigan tik yonbag'ir"* ma'nosini bildiradi. Ikkinchi komponenti – *dovon* so'zi esa *"Tog'dan oshib o'tish mumkin bo'lgan joy"* ma'nosini anglatadi. Demak, *Buzuqduvon – "Tik yonbag'irli dovon"* deganidir.

BUZUQSOY – irmoq. Yuqori Zarafshon daryosining irmoqlaridan biri. Buzuq – yomon, xo'jalikda foydalanish uchun yaroqsiz yerlar, yo'lsiz aylanma qoyalarni ifodalaydigan geografik termin hisoblangan. Shuning uchun ham mazkur hudud shunday nomlangan.

BUG'AJIL – ariq va qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi ariq va qishloq nomi. Bo'gajil ochamayli, vaxtamg'ali, kenagas, qozoqli kabi qabila tarmoqlari tarkibiga kiruvchi urug'. Ariq shu nomdagi qishloq yonidan oqib o'tadi. Shuning uchun ushbu ariq va qishloqning nomi shunday atalgan.

BUG'DOYQO'RG'ON – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim ***"bug'doy"*** va ***"qo'rg'on"*** qismlaridan tashkil topgan.

"Bug'doy" *– g'alladoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simlik va uning doni, g'allasi"* ma'nosini bildiradi [O'TIL.5, 1, 393].

"Qo'rg'on" esa *"atrofi devor bilan mustahkamlangan hovli, joy"* ma'nosidadir [O'TIL.5, 5, 416].

Shunga binoan bu mikrotoponimni *"bug'doy o'simligi ekiladigan, g'allachilik bilan shug'ullaniladigan joyda barpo etilgan qo'rg'on, yashash maskani"* deb izohlasa bo'ladi, – degan xulosaga keldik.

BUG'DOYCHI – qishloq. Farg'ona viloyati Oltiariq tumani. *Bug'doy* so'zi va *-chi* – ma'lum bir kasbni ifodalovchi ot yasovchi affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, **Bug'doychi** – *"bug'doy bilan shug'ullanadigan yer egasi"* ma'nosini ifodalaydi.

BO'BAKSOY – soy. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi soy nomlaridan biri. **Bo'bak** – *"kichkina bola, go'dak"* ma'nosini ifodalab, **Bo'baksoy** esa – *"daryoning, soyning kichkina bolasi"* ma'nosini bildiradi.

BO'DANA QO'RUG'I – qo'riqxona. Samarqand shahri yaqini atrofidagi dasht-qo'riqlardan biri. "Boburnoma"-da Samarqand atrofida bir nechta o'langlar sanab o'tilgan va tavsiflangan *(Konigil o'langi, Xon yurti o'langi, Bo'dana qo'rig'i, Ko'li mag'ok o'langi, Qulba o'langi)*. Shulardan yana biri Bo'dana qo'rug'idur. Mazkur asarda u "Dilkusho bog'i bila Samarqand orasida voqi' bo'lubtur", deb qayd etilgan (B.61).

BO'JAY – qishloq. Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. U yerda yashovchi mahalliy aholi mazkur terminni *bu* va *joy* so'zlarining o'zaro birikuvidan vujudga kelgan, deb izohlaydi. Lekin etnografiyaga oid adabiyotlarda qirg'izlarning bir urug'i bo'jay deb yuritilganligi qayd etilgan. Qishloq shu urug' nomi bilan atalgan bo'lishi ehtimoli bor (Oxunov, 1984).

BO'KA – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Bo'ka tumani hududi janub va janubi-g'arbga tomon Sirdaryoga qiya tushgan tog'oldi tekisliklaridan iborat. Tuman nomiga turkiy xalqlarning Bo'ka (Bo'ke) urug'ining nomi asos bo'lgan deb taxmin qilinadi. Mutaxassislar O'zbek-qang'lilar va Qatag'anlar tarkibida Bo'ka-qangli, Bo'ka-qatag'an urug'lari borligini qayd qilishgan.

Qozoq toponimisti Y.Koychubayev ma'lumotiga ko'ra, qozoqlarning bir urug'i Bo'ke (Bo'ka) deb atalgan. Taniqli olim Suyun Qorayevning yozishicha, qadimiy turkiy tilda *bo'ka* so'zi – *"kuchli, qudratli, pahlavon"* kabi ma'nolarni anglatadi. Mahalliy xalqning aytishicha, o'tmishda etnik guruh vakillari turli milliy bayram va tantanali marosimlar chog'ida o'tkaziladigan pahlavonlar musobaqasida kurashchi, polvon sifatida faol qatnashib, nom chiqargan.

Tarixiy manbalarda qadimgi turkiy tilda *"Bo'ka"* so'zi – *"zo'r"*, *"kuchli"* deb izohlangan. Darhaqiqat, o'tmishda turli an'anaviy bayram va tantanali marosimlar chog'ida o'tkazilgan pahlavonlar musobaqasi qatnashchisini *bo'ka* deyishgan. Bo'kalarning xalq orasidagi obro'si juda baland bo'lgan.

Sug'dda eng kuchli bo'ka sharafiga yiliga bir marta nishonlanadigan bayram kuni bo'lgan. O'sha kuni bo'ka uchun noz-ne'matlar bilan bezatilgan maxsus dasturxon tayyorlangan. Yozilgan dasturxonga bo'kadan boshqa kishi yaqinlashmagan. Bo'kalar musobaqasi tinchlik vaqtlarida, shuningdek, harbiy safar va yurishlar paytida ham o'tkazilib turilgan.

Professor Z.Do'simovning ta'kidlashicha, *bo'ka* so'zining boshqa ma'nolari ham bor. Eron toponimiyasida sermahsul bo'lgan *bo'ka* so'zi ikki xil ma'noga ega: 1) mozor, ibodatxona, bino. 2) mamlakat, joy, pastlik. Taniqli olimning taxminicha, *bo'ka* toponimi birinchi ma'nosi asosida paydo bo'lgan. Tuman ma'muriy markazi Bo'ka shahri (1980-yildan).

BO'KTARYO'L – yo'l. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi yo'l. **Bo'ktar** – umumturkiy so'z sifatida *"Tog' etaklari"* ma'nosini ifodalaydi (Mahmud

Koshg'ariyda qayd etilgan). **Bo'ktaryo'l** – *"Tog' etaklariga mos keladigan yo'l"*, shunda haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

BO'LMAS – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson va Qamashi tumanlarida ham O'lmas qishlog'i bor. *Bo'lmas, – O'lmas* nomlari bir so'zning so'z boshidagi bir tovush bilan farqlanadigan ko'rinishi. Tarkibi: *bo'l/ o'l+mas*. Tarixiy manbalarda *bo'lmas, o'lmas* shaklida ishlatilganligi ma'lum.

Nomning qadimiy shakli bilan hozirgi amaldagi shakli o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan. *Bo'lmoq, o'lmoq* fe'lining asosi (*bo'l, o'l* so'zi) va fe'lining bo'lishsiz shakli *-mas* qo'shimchasining *(ishlab charchamas, oqar-oqmas, kelar-kelmas*) qo'shilishidan hosil bo'lgan (*bo'lmas → Bo'lmas, o'lmas → O'lmas)* tarzidagi tafsir nomlarning hozirgi shakli va tilda bu nomlarga o'xshash bo'lgan so'z va qo'shimchalarga asoslanib izohlashdir.

Farg'ona qipchoqlarining urug'laridan biri – O'lmas (К.К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1971. – С. 116). Bu urug' nomi bir necha manbalarda qayd qilingan. Qamashida O'lmas – saroylarning urug'i. Kosonda Bo'lmas – mang'itlarning urug'i. Urug'ga totem nomi asos bo'lgan. *Bo'lmas, o'lmas – totem vazifasidagi jonzot nomi (qo'y, hayvon, hasharot)*, turkiy so'z.

BO'M – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun tumani. Turk-mo'g'ulcha ***bum, boom*** – *"qiyin o'tiladigan soylik, tor joyda joylashgan daryo vodiysi, darasi, qoyali devor"* (Э.М. Мурзаев. Словарь народных географических терминов. – М., 1984. –С. 91). Qishloq tog' darasida joylashgan.

BO'RBALIQ – qishloq. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Toponimning "bo'rilar shahri" degan etimologiyasi nomning tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. "**Baliq**" so'zining *"aholi yashaydigan maskan, qishloq"* ma'nosi bor. **Bo'r** so'zi – *"ekin ekilmaydigan bo'z, partov yer"*, degan ma'noni bildiradi.

Demak, **Bo'rbaliq** so'zi *"bo'z, partov yerdagi qishloq"* degan ma'noni beradi (Do'simov, 1977).

Bo'r so'zining *orol* ma'nosi ham borligini e'tiborga olgan holda, ushbu toponimning etimologiyasini yanada chuqurroq tahlil qilish lozim.

BO'RI – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. O'zbek ko'chmanchilari, Zarafshon qipchoqlari tarkibida Adigine, qirg'iz qabilalarida – Aziq, qozoq qabilasi Argin bo'ri deb qayd etilgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа, 1974. С. 123, 129; Н.Ф.Ситняковский. Перечисление некоторых родов киргизов... ИТОРГО, т. 2, вып. 1, 2. – Ташкент, 1900. С. 102).

Demak, **Bo'ri** toponimi qabila nomlaridan biri bo'lib, u etnonim hisoblanadi.

BO'RIJAR ARIG'I – ariq. Bo'zsuvning chap tarmog'i, uzunligi 5,4 km.

Hozirda Chilonzor va Yakkasaroy tumanlari hududidan oqadi, Salor kanaliga quyiladi. Mazkur ariq Anhor arig'ining shahar tashqarisidagi davomidir.

"Bo'rijar" gidronimi tadqiqotlarda har xil talqin qilingan: **"Bo'rjar"** *aslida "bo'z (oqish, oqimtir) va jar"* so'zlarining o'zgargan shakli[1]; bu yerda chiyabo'ri ko'p bo'lganidan xalq ariq oqib o'tgan jarni va ariqni "Bo'rijar" deb atagan[2].

Bizningcha, "Bo'rjar" gidronimining etimologiyasini "Bo'zsuv"dan olib qaragan to'g'riroq, chunki *Bo'rijar arig'i* Bo'zsuv kanalining davomi va *"Bo'rjar" – "Bo'z jar" – "Bo'zsuv oqqan jar"* iborasining qisqargan shaklidir.

XX asr boshlarida **Bo'rijar arig'i** Toshkent shahri atrofidagi *Rakat, Chilonzor, Taxtako'prik, Xayrobod, Katta Qozirabod, Kichik Qozirabod, Zangiota, Bo'rijar* mavzelaridan oqib o'tgan va bu suvdan ekinzorlarni sug'orishda foydalanilgan.

BO'RILIK – qoya. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qoya nomi. Ba'zilar bu qoyani ***Murilik*** ham deyishadi. Jom tarixini yozgan Z.Sarimsoqov, H.Sarimsoqovlar shu qarashni qoya tepasida saqlanib qolgan muhrga o'xshagan suratlarga asoslangan holda, to'g'ri hisoblab, ***murilik*** so'zi ***muhrlik*** so'zining shevadagi talaffuzi degan xulosa beradilar.

Bizningcha, bu juda sodda va ishonchsiz talqin. Qipchoq shevalarida ***muhrlik*** so'zi ***murilik*** tarzida talaffuz qilinmaydi.

Manbalarga ko'ra, ***Bo'rilik*** atrofida chorvador qabilalar yashashgan. Manzildan qadimiy tosh qurollar, kamon o'qi topilgan. Shuningdek, u yerda qoyatoshga chizilgan chorva hayvonlarining suratlari saqlanib qolgan. Bu dalillar qoyani ***Bo'rilik*** deb atalishini tasdiqlaydi.

Demak, oronim ***bo'rilar makoni*** degan oronimik ma'noga ega (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

BO'RIXONA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumani, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi qishloq va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi jarlik nomi.

T.Nafasovning fikricha, xalq nutqida ***"bo'ri//bo'ra//bo'ru*** (**o'** tovushi cho'ziq) ulkan, katta" degan ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi [Nafasov, 2007:18]. "Xona" so'zi "chuqurcha, o'yiq" kabi ma'nolariga egadir [O'TIL.4:410].

Demak, **Bo'rixona** – *"ko'p bo'rilar joylashgan yer"* ma'nosini ifodalaydi.

BO'RLOQ – mahalla. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani. Nafaqat viloyatda, balki respublikaning ko'pgina hududlarida mazkur nom bilan atalgan toponimlar uchraydi. Rivoyatlarga qaraganda, bu joyga qadimda Xon dam olgani borgan va bu

[1] Qorayev S. Geografik nomlarning ma'nosini bilasizmi? – T.: O'zbekiston, 1970. –B. 67.
[2] Karimova L. O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi. – T.: Fan, 1982. –B. 91.

yerning tabiati unga yoqqan hamda Xon bu joyni "Borliq" deb atagan. Shundan keyin mahalliy aholi o'zlarining talaffuziga moslashtirib, mazkur hududni *Bo'rloq* deb atashgan.

Shuningdek, bir necha aholi punktlarining nomi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand viloyati Jomboy tumani) **Burlak** so'zi bilan bog'liq. O'ylash mumkinki, mazkur toponim ruscha *burlak* so'zi bilan bog'langan deb, qolaversa, ko'pchilik qishloqlar nomi Amudaryo va Zarafshon daryolarining qirg'oqlarida joylashgan. Bundan tashqari, rus leksikografi V.Dalning so'zlariga ko'ra, rus tilining shevalarida *"Burlak" – "daryo kemalarida pul topish uchun elga ketadigan dehqon-krestyanin"*, shuningdek *"uysiz, uylanmagan, bo'ydoq"* ma'nolarini ifodalaydi (В.Даль. Тольковый словарь живого русского языка, – М., 1955, т. I. С. 143). Ko'chmanchi o'zbeklar tarkibida ("Материалы по истории казахских ханств в XV–XVIII веков". – Алма-Ата. 1969. С. 452) va no'g'aylarda burlak etnonimi bor (Н.Г.Волкова. "Этнонимы и племенные названия Северного Кавказа". – М., 1973. С. 81). Demak, *Burloq* aslida etnonim hisoblanadi.

BO'STON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Uning nomi 2006-yilga qadar *Arabxona* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Miyona Arabxona* deb o'zgartirilgan. Qishloq nomiga *arablar* nomi asos bo'lgan. Shu sababdan ham bu geografik joy nomi etnotoponim hisoblanadi. Toponimning birinchi komponenti – *miyona* so'zi *"o'rta", "o'rtaliq", "bel"* degan ma'nolarni bildiradi. Toponim tarkibidagi *Arabxona* so'zi esa *"arablar yashaydigan joy"* ma'nosidadir. Shundan bilish mumkinki, *Miyona Arabxona – "o'rtadagi arablar yashaydigan joy"* ma'nosidadir. Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Bo'ston* deb o'zgartirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (1981) arabcha *bo'ston* so'zi *"bog'", "dala", "tomorqa", "poliz", "bog'-rog'li obod yer"* kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan.

Shuningdek, Andijon viloyatining Andijon va Baliqchi tumanlari, Farg'ona viloyatining Rishton tumanida ham shunday nomli qishloqlar bor.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda Farg'ona viloyatida mazkur toponimning o'n martadan ko'proq takrorlanadigan qishloq va mahallalar nomlari qayd etilgan. Farg'ona – Yozyovon – Quva oralig'ida yashovchi qirg'izlarning Bo'sto'n (*bo'z to'nli*) urug'i vakillari keng tarqalgan joylarda shu nomli qishloqlar bor (Gubayeva, 1983). Albatta, hamma Bo'ston toponimlari urug' nomidan olingan – etnonim deb o'ylash xato. *Bo'ston* so'zi o'zbek tilida *"yashnagan bog'"* ma'nosida ishlatilishini ham e'tiborga olish lozim.

Andijon viloyatida *Bo'ston* tumani mavjud. U 1950-yilda tashkil etilgan. 2019-yilga qadar tuman nomi Bo'z deb atalgan. H.Hasanovning yozishicha, *bo'z* so'zining *yangi* degan ma'nosi bor, *bo'z yer – yangi yer, bo'z bola – yosh yigit* va boshqalar. Shu sa-

babdan *bo'z qishloq* deganda, *yangi qishloq* deb tushunish mumkin. **Bo'z** so'zini *loyqa, sarg'ish* degan ma'nosi ham bor. *Bo'z suv – loyqa suv, sarg'ish rangdagi suv.*

Qadimda qo'l dastgohlarida bo'sh pishitilgan paxta ipidan sodda to'qilgan mato ham *bo'z (karbos)* deyilgan. Yozma manbalarda boshqa matolar qatori bo'z ham ko'p tilga olingan. Bo'z Turkistonda qo'lda to'qilgan matolar orasida xaridorbop mato bo'lgani uchun mahalliy aholi orasida keng tarqalgan. Chunonchi, Buxoroda bo'z sotiladigan "Bozori karbos" nomli maxsus joy bo'lgan. *Bo'zchilar* (bo'z to'qish kasbini egallagan) – bo'zdan turli xil kiyimlar, kashta tikilgan buyumlar, gul bosib bezatilgan dasturxon, choyshablar tayyorlagan.

Bo'z so'zining yana bir ma'nosi – *o'zlashtirilmagan, uzoq yillar ishlov berilmagan qo'riq yer, dasht, cho'l.* Bo'z yer, asosan, sug'orish imkoni bo'lmaganligi tufayli saqlanib qolgan va ular ekin maydonlarini kengaytirishning asosiy zaxirasi hisoblanadi. O'zbekistonda bo'z tuproq turi dengiz sathidan balandligi 300 metrdan 1000 metrgacha bo'lgan yerlarda tarqalgan va qishloq xo'jaligida keng foydalaniladi. Ayrim mutaxassislar, *"baz"* yoki *"bo'z"* so'zini qadimiy turkiy tilda *"o'zga yerlik kishi", "begona kishi"* degan ma'nolari ham bo'lgan deyishadi.

2019-yil 30-sentabrda tuman nomi Bo'ston tumani deb o'zgartirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *bo'ston* so'zi *"gullagan joy", "gulzor", "serbog' joy", "bog'iston", "diyor"* degan ma'nolarni anglatadi.

BO'STONLIQ – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Tyanshan tog' tizimidagi Ugom, Piskom, qisman Qorjontov, Chotqol tizmalari oralig'ida joylashgan. Tumanga nom bo'lgan *Bo'stonliq*dan tashqari, mintaqa joy nomlari tarkibida, xuddi shunday "**-liq**" qo'shimchasi (formanti) bilan tugaydigan *Xondayliq, Soyliq* kabi nomlar ham bor. Albatta, bu tasodifiy holat emas, balki aniq bir toponimik qonuniyat mahsulidir.

Bo'stonliq nomiga asos bo'lgan "bo'ston" so'zining ilk shakli fors-tojik tilidagi – *"bo'yiston", "yashnagan", "gullagan", "bog'-rog'li joy", "hidlar o'lkasi"* degan ma'noni bildiradi. Nom so'ngidagi "**-liq**" qo'shimchasi shu narsani ko'pligiga ishoradir. Ayrim mutaxassislar, tuman tashkil etilayotgan vaqtda tumanga nom rasmiy-ma'muriy tarzda berilgan, deyishadi.

S.Qorayev tuman nomi haqida shunday yozgan: "Bu rayon Qozog'iston Respublikasi tarkibida ekanligida qozoqcha Bostandiq (Bo'stondiq) shaklida yozilar edi. Bo'stonliqni *"bog'-rog'"* ma'nosidagi *bo'ston* so'zidan ko'ra *Bo'ston (bo'z-to'n-li)* degan urug' nomi bilan atalgan deyish to'g'riroqdir. Shu joyda *Chimboyliq* degan qishloq ham bor. (*Chimboy* – urug' nomi); **-liq, -lik** (**lig'**) affiksi kishilarning qaysi qabila-urug'dan ekanini ham ko'rsatadi; masalan, ming

qabilasidan bo'lgan kishilar minglig' deb atalgan".

Tuman ma'muriy markazi G'azalkent shahri (1964-yildan). Shahar Chirchiq daryosining chap sohilida, Oqsoq ota soyining Chirchiq daryosiga quyilish joyida joylashgan. Ayrim mutaxassislar, o'rta asr arab geograflari asarlariga tayangan holda, Gazak shahri hozirgi G'azalkent bo'lsa kerak, – deb taxmin qilganlar. Professor H.Hasanov esa *G'azalkent* nomi *g'izol – "ohu"* va *kent – "shahar"* so'zlaridan tarkib topgan, degan xulosaga kelgan.

BO'TAKO'L – ko'l. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududida joylashgan ko'l nomi. Ko'lning bo'yida cho'ponlar tuya boqadi va ularning bo'talari nomiga *Bo'tako'l* deb atalgan.

BO'TAN – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Toponimist olimlar **"Bo'tan"** so'zi *"To'daga qo'shilmay ajralib chiqqan, yakka, yolg'iz, chekkaroq joyda, boshqa aholi punktlaridan uzoqroq, xilvat joyda bunyod bo'lgan qishloq"* ma'nosida ekanligini yozishgan (Nafasov. 1988:50; O'rinboyev. 2003:47).

BO'TANACH qishloq (hozirgi ko'rsatkichlarda *Bo'tanosh* shaklida yozilgan). – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq. Bizningcha, bu nom ham **"bo'tan"** so'ziga tegishli bo'lib, *"asosiy qishloqdan ajralib chiqqan qishloqcha"* ma'nosida bo'lsa kerak.

BO'TAQORA – qishloq. Andijon viloyati Andijon shahridan 6 km shimoli-sharqdagi qishloq. Etimologiyasi – asl ma'nosi aniq emas. Ammo o'zbek urug'larining kichik bir tarmog'i qadimda "Bo'taqara" deb atalgan. Shaxsiy tekshirishlarimiz natijasiga suyanib, quyidagi xulosaga keldik: *Bo'taqora* Qoradaryo bo'yidagi qadimiy buloq atrofida paydo bo'lgan qishloq. Islom dinidan ilgari odamlar buloqni muqaddas deb hisoblaganlar. Johiliya davridagi e'tiqodning "animizm" tarmog'i, ya'ni ayrim tabiiy narsalarga sig'inish hisoblangan.

Arablar kelgach, bu atrof egallanib, buloq atrofiga maxsus kishilar tayinlangan. Bir ungurda XI asrga oid qabr toshi saqlanib qolgan. Bu yer hozirgacha buloq bo'yidagi odamlar dam oladigan joydir. Unga yaqin "xo'jalar mahallasi" ham bor. XVI asr boshlarida Farg'ona vodiysini Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar egallab, asta-sekin o'troqlashadilar. O'zbek urug'ining "Bo'taqora" tarmog'i shu yerda o'rnashib, joyning qadimgi nomi unutilib ketgan. Keyinchalik Bo'taqoraning janub tomonidagi adirga bug'doy ekilib mashhurlashdi ("Bo'taqoraning qayrog'i"). Shimol qismi Qoradaryoning qadimiy izlaridan bo'shab, "achima" joylarda sholikorlik rivojlanib, "Bo'taqora" guruchi bilan mashhur bo'lib ketgan.

BO'TQACHI – qishloq. Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi qishloq nomi. Bo'tqachi qirg'izlarning ichki

guruhi tarkibiga kiruvchi nayman qabilasining bir tarmog'i bo'lgan (Gubayeva., 1983). Urug' nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan. Ba'zi adabiyotlarda bu qishloq aholisi shirin-shirin bo'tqa pishirib, mehmonlarni kutganidan shunday yuritiladi (Oxunov, 1989).

BO'YINTURUQ – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. *Bo'yinturuq – bu eshakni aravaga qo'shganda uning bo'yniga ildiradigan buyumning ustida turadigan qurilma.* Qishloqning nima uchun shunday nomlangani noma'lum. Balki shu buyumni tayyorlaydigan joy bo'lgani uchun shunday nomlangandir.

BO'YNIQORA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. *Qorabo'yin* aslida etnonim bo'lib, mazkur etnonim fors tilining ta'sirida *"Bo'yniqora"*ga aylangan va shunday nomlangan.

BO'YRABOP – qishloq. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Forscha "**Buryobof**" – *o'g'ilcha* ma'nosini ifodalaydi. *Bo'yra* o'simlik nomi bo'lib, shu o'simlikka xos tushunchani ham ifodalashi mumkin. Xalqda maqol bor: "O'tirgan bo'yra, yurgan daryo".

BO'YRACHI – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumani, Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani, Xorazm viloyatining Shovot tumani hududlarida shunday nomli qishloqlar mavjud. Mazkur toponimning shunday nomlanishini *buyrak* etnonimi bilan bog'liq ekanligi qayd etiladi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 99).

BO'YROBOF/BO'YROBOFHO – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent, G'ijduvon, Romitan tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mazkur ***Bo'yra*** toponimi – *"tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama"* ma'nosini bildiradi. ***Bo'yrabof*** – "bo'yra to'quvchi, bo'yrachi"[1] tarzida birlikdagi nom ma'nosida kelsa, ***Bo'yrabofho*** esa ko'plik shaklidagi *"bo'yra to'quvchilar"* ma'nosini ifodalaydi.

Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi ***Bo'yrachi*** toponimi ham shunday ma'noni anglatadi.

BO'Z – qishloq. Andijon viloyatining Bo'z shaharchasi, Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi qishloq nomlaridan biri. U o'zbekcha *bo'z yer* ma'nosini ifodalaydi, shuning uchun mazkur hudud shunday nomlangan.

BO'ZATOV – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birlik. Amudaryo bo'yida – Xorazmda, Qoraqalpog'istonda **atao'**: 1) *o'tov, bo'z uy;* 2) *daryo o'rtasidagi kichikroq orol;* 3) *qamishzor, to'qay* ma'nolarini ifodalaydi Shuning uchun ham bu hudud shunday nomlangan.

BO'ZAXONA – qishloq. Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi qishloq nomlaridan biri. U yerda odamlar – savdogarlar yo'lning to'xtash joyida, karvonning yonida bo'z savdosi bilan

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B. 160.

shug'ullanishgan. Shu sabab hududdagi qishloq shunday nom olgan.

BO'ZAXO'R – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq. *Bo'zaxo'r – "bo'zni yoqtiruvchi"* ma'nosini ifodalab, u *"bo'zni yoqtiruvchilar qishlog'i"* ma'nosini bildiradi.

BO'ZACHI – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomlaridan biri. **Bo'za** – *tariqdan, mayda guruchdan tayyorlangan mast qiluvchi ichimlik* bo'lib, **bo'zachi** yoki **bo'zagar** esa bo'za *tayyorlash bilan shug'ullanadigan shaxsdir.*

BO'ZSUV – daryo. Toshkent viloyatidagi daryo nomi. Gidronimning kelib chiqishi bo'yicha bir necha variantlar bor. Biz nisbatan mos keluvchi deb bo'zsuvni hisoblaymiz. U *"ko'kroq (rangli) suv"* bo'lganligi uchun Chirchiqning irmoqlaridan biri *Ko'ksuv* deb nomlanadi, daryo aslida chuqur bo'lib, uning soy joylari ko'kroq bo'lib oqadi, nom ham shu yerdan kelib chiqqan.

BO'ZYOP – yop (kichkina kanal). Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani Qoraoy aholi punktining sharqiy va Oqko'l aholi punktining shimoliy tarafidan oqib o'tuvchi sug'orish tarmog'i.

Yoshi katta bobolarimizdan eshitishimizga qaraganda, ekin maydonlarini kengaytirish maqsadida yangidan bo'z yerlar o'zlashtirilib, bu o'zlashtirilgan yerlarni sug'orish uchun kanal qazilgan hamda kanal nomi Bo'zyop deb atalgan.

BO'ZYOPBO'YLI – qishloq. Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom **bo'z, yop** va **bo'y so'zlari** hamda -li affiksi qismlaridan iborat.

Nomning birinchi va uchunchi qismlari **bo'z** va **bo'y** so'zlari indikator sanalib, ***bo'z*** so'zi *"ekilmaydigan, chim bosgan, haydalmagan, ishga solinmagan yer, qo'riq"* ma'nolarini anglatsa, **bo'y** so'zi "qirg'oq, tomon" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Mazkur indikator Xorazmda *Yarmышhboylы, Arnaboylы* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Ushbu nomlar tarkibida ma'lum qishloqda yashovchi xalqning biror joydan, asosan, katta suv qirg'oqlaridan ko'chib kelganligiga ishora qiladi.

Masalan, ***Bo'zyopbo'yli*** qishlog'i aholisi oldin Bo'zyop kanali atrofida yashaganligi yoki turmushi shu obyekt bilan bog'langanligini ko'rsatadi, ya'ni Bo'zyop atrofida yashagan yoki Yormish kanalidan suv ichgan aholi ekanligini anglatadi.

Mazkur indikator boshqa turkiy tillarda ham uchraydi. Turkm. ***boy*** – *"qirg'oq"*; qarach. balq. ***boy*** *"tomon, qirg'oq"*, uyg'. ***boj*** *"**daryo qirg'og'i, etak**"*.

Ayrim tadqiqotchilar ***Uzbo'y*** nomini ham shu indikator bilan bog'laydilar (Bu haqda qarang: O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.)

BO'ZQALʻA – qishloq. Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi qish-

loq va mahalla nomi. Mazkur nom **bo'z** va **qal'a** qismlaridan iborat.

Apellyativning birinchi komponenti **bo'z**, aslida, indikator sanaladi. Xorazmda *Bo'z, Bo'zatov, Bo'zliq, Bo'zloq, Bo'zyop, Bo'zsolma* kabi o'nlab nomlar tarkibida uchraydi. Bu indikator, asosan, Xorazm qipchoq shevalari vakillari yashaydigan hududga xosdir. Bu so'z *"ekilmaydigan, chim bosgan, haydalmagan, ishga solinmagan yer, qo'riq"* ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu so'z ko'pgina turkiy tillarda uchraydi: ozarbayjon tilida: ***boz*** – *yalang, daraxtsiz joy*; turk tilida ***bozkur*** – *sahro, cho'l*; Turkmanistonda ***boz*** – *cho'l* kabi.

E.M.Murzayev ushbu so'z bolgar tiliga ham o'tganligini qayd qiladi (Murzayev. Lug'at, 88).

E.V.Sevortyan ushbu so'zning etimologiyasini tekshirar ekan, mo'g'ulcha *bor, bur, baro*; oset. *bur, bor*, "sariq" so'zi ham ushbu indikator bilan aloqador ekanligini qayd qiladi[1]. ***Bo'zburun, Bozag'il*** (Ozarbayjon), ***Boro*** (Oltoy), ***Bozaral*** (Qozog'iston), ***Bozbaytal*** (Tojikiston), ***Bo'zayg'ir, Bo'zariq*** (Qozog'iston, Chimkent), ***Bo'zdala*** (Qizilo'rda), ***Bo'zsuv*** (Toshkent), ***Bo'zteri*** (Issiqko'l) kabi joy nomlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda **Bo'zqal'a** toponimi *"ekilmaydigan, chim bosgan, haydalmagan, ishga solinmagan yerdagi qishloq, qal'a"* ma'nosini ifodalaydi (Bu haqda qarang: O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.)

Ushbu fikrni professor Z.Do'simov ham qo'llab-quvvatlagan.

BO'ZCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomlaridan biri. *Bo'z – qo'pol paxta xomashyosidan ishlab chiqariladigan mato* ma'nosini ifodalaydi. Demak, *Bo'zchi – bo'z to'quvchidir.*

[1] Севортян Э.В. К отношению грамматики и лексики в тюркских языках, к проблеме словообразования // Вопросы узбекского языкознания. – Т., 1954.

D

DABBOQI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq. Forscha *"Dabbog'" – "charm terisi bilan shug'ullanuvchi, terichi"* ma'nosini ifodalaydi.

DABUSIYA – Samarqand viloyatining Narpay tumani. Zarafshon daryosining chap sohilidagi ulkan qal'a xarobasi.

Qal'a raboti 70 gektarni, shahristoni esa 22–23 gektarni tashkil qiladi. Shahar hukmdorini Dabusshoh deb ataganlar. Qal'a bir necha asrlar davomida viloyatning markazi bo'lgan. Shahar xarobasida Imom Bahra ota maqbarasi (XVI asr) mavjud.

Dabus – "Temir qo'rg'on" ma'nosini bildiradi. Shahar mustahkam qurilgani uchun shunday atalgan (Sanayev, 1996 : 14).

DAGARLIK – yaylov. Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani. Qashqadaryo daryosining quyi qismida tuproqlari zich va qotib qolgan, o'simliklardan mahrum bo'lgan pasttekisliklar *dagar* deb ataladi (qarang: ***Taqir***) (T.Nafasov. O'zbekiston toponimlari izohli lug'ati. –T., 1988. C. 56).

DAHA – qishloq. Tarixiy toponim. Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi qishloq nomi. ***Daha*** respublikamizning ko'plab hududlaridagi toponimlar tarkibida uchraydi. ***Daha***, aslida, sug'd tilidan o'zlashgan bo'lib, u *"qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

Shaharlarning ma'muriy bo'linishidagi bir bo'lagi daha deb (yaqinlargacha u kvartal deb qo'llanilib kelingan) yuritilgan. Toshkent shahridagi *Ko'kcha, Sebzor, Shayxontohur, Beshyog'och* va boshqalar shular jumlasidandir.

Shaharlarning ma'muriy bo'linishidagi bir bo'lagi sifatida ***daha*** termini hozir ham mavjud.

DAHANA – qishloq. Tarixiy toponim. Surxondaryo viloyatining Denov tumani va Buxoro viloyatining Vobkent tumanlaridagi qishloqlarning nomi. Toponim forscha-tojikcha *dahan*, ya'ni *"og'iz"* so'zidan olingan bo'lib, toponimiyada *"daraga kiraverish joyi", "dara", "daryoning quyilish joyi", "bo'g'iz", "to'g'on", "ariq yoki kanal boshlanadigan joy", "ko'chaning og'zi"* kabi bir qancha ma'nolarda kelishi qayd etiladi.

Bu yerda *dahana* so'zi *"to'g'on"* ma'nosini anglatmoqda. Qishloq hududida uni suv bilan ta'minlovchi

kanalga to'g'on qurilgan bo'lib, u orqali boshqa qishloqlar hududiga suv taqsimlanadi. Shu sababdan ham qishloq shunday nom olgan.

Mazkur elementlar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar O'zbekistonning janubida tez-tez uchraydi: *Bo'zrabotdahana, Gundahana, Dahanajom, Kattadahana, Nandahana, Oqdahana* (4 marta takrorlanadi), *Qoradahana. Dahana* – ko'p ma'noli termin: *"daraga chiqish; daryoning og'zi; ko'chaning boshi; to'g'on; ariqning sug'orish joyidan kanalning asosiy joyigacha"* ma'nolarini ifodalaydi. Oqim suvini maydalash uchun katta sug'orish ariqchasi bo'ylab kesilgan narsa bilan mustahkamlanadi. Suv oqib o'tadigan har bir kesik narsa ham *dahana* deb nomlangan(forscha *dahon – "og'iz"*).

Ta'kidlash joizki, nomlar turli hududlarda uchrasa-da, ma'nolari deyarli bir-biriga yaqindir.

Dahana geografik termin sifatida qator ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Jumladan, *dara og'zi, daryoning quyilish joyi, g'or og'zi* kabilar Dahana deb ataladi (H.Hasanov. Geografik terminlar lug'ati. 81). S.Qorayevning fikricha, *"Ariq yoki kanal boshidagi joy, ya'ni to'g'onboshi"* ham ***Dahana*** deyiladi (S.Qorayev. Lug'at. 43).

Shunday qilib, ***Dahana*** toponimi *"to'g'on boshidagi yoki dara oldidagi qishloq"* ma'nosini anglatadi.

DAHBED – qishloq. Shayboniyxon hukmronligi davrida Ofarinkent tumanidagi bu qishloq nomi ilk bor tilga olinadi.

Dahbedning paydo bo'lishi XVI asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysining Koson shahrida yashagan Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniyning (1461–1542) nomi bilan bog'liqdir. U Samarqand hukmdorlari, xususan, shayboniylardan Jonibek Sultonning taklifiga binoan Miyonko'lga ko'chib kelgan va shu yerda dastlab o'nta tol ekkan. Natijada ul zot yashagan mavze *"Dahbed"* (forscha *"o'nta tol"* degani) nomi bilan atalib ketgan, – deyiladi rivoyatlarda.

Farg'onaning Koson qishlog'idan shayx Mahdumi A'zamning bu yerga ko'chib kelishi bilan mazkur joy mashhur bo'lib ketadi. Shayxning qabri ham Dahbedda bo'lib, keyinchalik Yalangto'sh Bahodir bu yerda xonaqoh qurdirgan. Mang'itlar davrida pishiq g'ishtdan machit va darsxonadan iborat 34 hujrali madrasa bunyod etilgan. Shayboniylar davrida Dahbed bir necha darvozasi bo'lgan devor bilan o'ralgan va ular orasida Juq mozori darvozasi mashhur bo'lgan. Dahbedning shimoliy tomonidagi bu darvozaga yaqin joyda keyinchalik daryo yuvib ketgan *Safeduk* qishlog'i bo'lgan. Qishloqda shayx Xo'ja Is'hoqning mozori va xonaqoh bo'lgan. Qabrni Oqdaryo suvlari yuvib ketishi xavfi tug'ilgach, Xo'ja Is'hoqning mozori Bog'i Balandga ko'chirilgan (Vyatkin, 1902: 60).

1892–1893-yillarda *Dahbed* qishlog'ida *Shaxob, Sartarosh, Safeduk, Achidoqar, Tongotar, Beshtut, Oynaqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Kattasolin, Xonaqoh, Te-*

mirchi, Qozi, Kichiksolin, Dehqon, So'fi, Kichikqo'rg'oncha, Bozorjoy guzarlari bo'lgan (СКСО на 1896 г.:1–2).

Hozirgi kunda *Dahbed* qishlog'ida *Ulug'bek, Navoiy 1, Navoiy 2, Ibn Sino* mahallalari mavjud.

DAHBEDI – mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. M.Abramovning fikricha, XVIII asr boshlarida hozirgi Oqdaryo tumani ***Dahbed*** shaharchasidan ko'chirib keltirilgan aholi shu yerga joylashtirilgan va shuning uchun mazkur joy shunday nom olgan (М.Абрамов Гузары Самарканда, 1989).

Demak, ***Dahbed+i***, ya'ni *"dahbedliklar, Dahbeddan ko'chib kelganlar"* ma'nosini ifodalaydi.

DAHYAKOTA – qishloq. Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloq nomi. Forscha *"dahyak – kirimning o'ndan bir qismiga teng soliq"* ma'nosini anglatadi. O'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan pulga beriladigan qo'llanma ham *dahyak* deb atalgan. *"Dahyakota – qo'llanma olgan mulla"* ma'nosini ifodalaydi. Bizningcha, bu munozarali bo'lib, u bu qishloqning nomlanishi qabriston hamda ziyoratgoh bilan bog'liqdir va bu haqiqatga yaqindir.

DALATOV – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi ovul nomi. **Dalatov** toponimi, aslida, uch ma'noli qismga ajraladi: *dol + li + atov*.

Apellyativning birinchi qismi bo'lgan *dal* qadimgi xorazmiy tilida *"to'g'on", "qo'rg'on"* degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ipak qurti uchun yaraydigan tut daraxti va *-li* affiksi toponimlar yasashda unumli formant, *atov* esa landshaft ifodalovchi indikatordir.

Demak, etimon *"dolli atov"* so'z birikmasi. Bu fitotoponim hozirgi holatga sintaktik ellipsis sababli o'tgan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

DALIGUZAR – qishloq. Toshkent viloyadagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur toponim ikki qismdan, ya'ni ***"dal"*** va ***"guzar"*** so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, ***dal*** (aslida, ***tal***) *"tepa, baland"* ma'nosini bildirsa, ***guzar*** esa *"mahalla"* degan ma'noni anglatadi.

Shunday ekan, ***Daliguzar*** toponimi *"yuqoridagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

DALVARZIN – qishloq. Andijon shahrining g'arb tomonidagi sobiq qishloq (hozir shahar mahallasi) va Jalaquduq tumani hududidagi arxeologik yodgorlik nomi. Qadimgi istehkom xarobasi.

Eski o'zbek tilida *"Dalvarzin"* **("Dal" (tal)** – *tepa, "var"* – *qal'a, qo'rg'on)* – *"Tepalikka qurilgan qal'a-istehkom"* – degan ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (akademik Y.G'ulomov tekshirishlarining qo'lyozmalari). Demak, Andijonning sobiq Dalvarzin qishlog'i o'rnida qadimiy qal'a-istehkom bo'lganligi mumkin. Afsuski, ular

paxta dalalari bilan tekislanib ketgan. Jalaquduq tumanidagi Dalvarzinda esa bundan uch ming yil ilgarigi davrga oid shaharcha qoldiqlari, tepaliklar hamon saqlanadi. Keyinchalik bu joylarga odamlar kelib o'rnashib, o'sha urug'-qabila ham "Dalvarzin" nomi bilan atalib, etnotoponimga aylanib ketgan (ya'ni joy nomi urug' nomiga aylangan). O'zbekistonning janubiy tomonlarida ham shu nomdagi qishloqlar ko'plab uchraydi.

Shuningdek, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi (O'zbekistonning Toshkent viloyati) dashtning nomi ham shunday ataladi.

O'zbek arxeologi A.R.Muhamedjanovning fikricha, *dalvarzin* so'zi arabcha *dal, – tal – "tepalik", "qo'rg'on"*, eroncha *var – "qal'a", "qasr"* so'zlaridan kelib chiqqan va *zi (zin) – yer* deganidir. Yana ham ishonchliroq etimologiyasi bo'yicha, *dalvarzin* mo'g'ulcha *dorboljin – "to'rtburchak"* (hozirgi mo'g'ul tilida *dorvoljin – "kvadrat"*) so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi istehkomlarning qoldiqlari ham *dorboljin* deb atalgan".

Qadimgi turkcha *to'rtko'l*, forscha *choldevor* (xususan, *chordevor*), mo'g'ulcha *dorboljun* aynan bir xil: *"sobiq istehkomlarning kvadrat xarobalari"* ma'nosini ifodalaydi. Dalvarzin dashtini tojiklar **Dilvarzin** deb atashadi, Afg'onistonning Balx vohasidagi tarixiy viloyat **Dilberjin** tarzida nomlanadi. Bu nomlarning barchasi mo'g'ulcha *"dorboljin", "dorvoljin"* so'zlaridan kelib chiqqan.

DALOILXONA – Qo'qon xonligi madrasasida (А.Л.Троицкая. Каталог архива кокандских ханов XIX в. – М., 1968. С. 83, 332) shunday nomli joy bo'lgan. *Daloilxona* – arab tilidagi kitoblarni o'rganadigan musulmon diniy maktabi "Daloil ul-hayrat" – *"Dalillar bilan hayratlanadigan" (daloil* so'zining ko'plik shakli *dalil – "asoslash", "dalil"* ma'nolarini anglatadi.

DAM – qishloq. Namangan viloyatining Jarqo'rg'on tumani, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloqlar nomi. Shuningdek, Samarqand viloyatining Narpay tumanida esa **Damcha** nomli qishloq mavjud. *Dam* – tortishish kuchi emas, *"tortish"* ma'nosini ifodalaydigan geografik termin bo'lib, *ariq* so'zi bilan birgalikda qo'llaniladi. Demak, **Damariq**ning qisqartirilgan varianti **Dam** hisoblanadi.

Shuningdek, Andijon viloyatining Andijon tumani, Farg'ona viloyatining Quva tumanlarida **Damariq** nomli qishloqlar ham mavjud.

Damaxumdon, Damcha, Damqishloq (Narpay), **Damchag'atoy** (Ishtixon), **Damqorin** (Qoradaryo) toponimlari tarkibidagi *"dam"* so'zi *"suvi yaxshi oqmaydigan, dam bo'lib qoladigan arig'i bor qishloqlar"* ma'nosida qo'llanilgan.

DAMARIQ – ariq. Namangan viloyatining Chust, Uychi tumanlaridagi ariqlar nomi. Shuningdek, ***Dam*** (ariq – Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani Qayqi qishlog'i), ***Jo'yidam*** (Namangan viloyati Kosonsoy

tumani) kabi gidronimlar ham mavjud. Mazkur suv obyektlari suvning oqish holati (harakati) motivatsiyasi asosida nomlangan. Bunday nomlar tarkibidagi ***dam*** leksemasi ko'chma ma'noli bo'lib, suvning *"dimlanib, sekin oqish"* holatini anglatadi.

Demak, ***Dam, Damariq, Jo'ydam // Jo'yidam*** gidronimlari *"suvi dimlanib, sekin oqadigan ariq"* degan gidronimik ma'noga ega.

DAMACHCHI – qishloq. Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi qishloq nomi. U *"achchi qishlog'i arig'i"* ma'nosini ifodalaydi.

DAMKO'L – botqoqlik. Markaziy Farg'onaning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, aynan "damlangan" ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, Namangan viloyatining Namangan tumanida shunday nomli qishloq oldin ko'l deb nomlangan va qirg'og'ida aholi punkti paydo bo'lgan.

DAMQISHLOQ – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. *"O'zi oqadigan ariqqa ega qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

DAMCHA – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq. *Dam – "damlangan ariq", -cha* erkalash-kichraytish qo'shimchasi, toponim hosil qiluvchi formant hisoblanadi.

DANFAG'ANKAT – shahar. O'rta asrlarda Binketdan (Toshkentdan) uzoq bo'lmagan joyda mavjud bo'lgan va *Shuturket (Tuyalar shaharchasi)* dan ikki chaqirimda joylashgan shahar. (Мукаддаси. БАГ II. С. 276–277).

Danfag'ankatning xarobalari Niyozbosh qishlog'idan uzoq bo'lmagan joyda, Yugantepa qo'rg'oni yonida, Sharqiy Yangiyo'l temiryo'l stansiyasidan 4 km uzoqda joylashgan. Tarixchi O.I.Smirnova mazkur shaharning nomini **Dinfag'nkat** deb hisoblaydi va uni sug'dcha *"kat – ibodat uyi"*, deb hisoblaydi (О.И.Смирнова. Места до мусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимики).

DANG'ARA – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, tekisliklardan iborat. Uning janubi-g'arbiy qismi So'x yoyilmasining shimoli-g'arbiy chekkasida, shimoli-g'arbiy qismi esa Sirdaryoning birinchi va ikkinchi terrasalarida joylashgan. Bahorda va kuzda kuchli "qo'qon shamoli" esadi.

Shubhasiz, har qanday joy nomi qandaydir bir ma'noni anglatadi, chunki ma'nosiz toponimning o'zi yo'q, ammo hali ma'nosi aniq bo'lmagan nomlar ko'p. Buning sababi, ayrim toponimlar uzoq o'tmishda paydo bo'lgan, ularni yaratgan xalqlar tarix sahnasidan ketgan, nomga asos bo'lgan so'zlar muomaladan chiqqan yoki fonetik jihatdan tamoman o'zgarib, tushunarsiz bo'lib qolgan bo'lishi mumkin.

Nomshunoslikning muhim qonuniyatlaridan biri shuki, notanish so'zlarni xalq o'z tilining grammatik xususiyatlariga moslashtirishga urinadi. Mahalliy xalq orasida *Dang'ara* nomi *"don g'arami"* so'zidan kelib chiqqan, degan rivoyat bor. Nomdagi notanish so'z tildagi tanish so'zga aylantirilgan.

Demak, bu xalqona talqin, nomning ilmiy etimologiyasi noma'lum va u qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladi.

Bizningcha, tuman nomi tarkibidagi *"dan"* so'zi sug'd tilidagi *"darani boshlanishi, og'zi"* ma'nosidagi *dahna, dahana* so'zining qisqargan, soddalashgan shakli bo'lishi mumkin. Tog'li tumanlarda *dahana, dahna – doimo suv oqadigan o'zan, oqar suv.* T.Nafasovning yozishicha, IX–XIX asrlar tojik tilida *dahana – dara, soy, qishloqning etak qismi.* Oykonimning ikkinchi qismidagi *"g'ar, g'ara"* so'zi esa qadimiy sug'd tilida tog' ma'nosini ifodalaydi. *Dang'ara – tog' darasida yoki kiraverish qismida joylashgan joy, aholi punkti.*

Joy nomi nomlanayotgan obyektning o'rni, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarini hamda ko'pgina boshqa geografik tushunchalarni ham o'zida mujassam etgan bo'ladi. H.Hasanovning iborasi bilan aytganda: nomlar joylarga shunday moslab berilganki, mahalliy aholining zakovatiga qoyil qolasan kishi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ot qo'yish oson. Chunki yuzlab tayyor ismlar bor, ulardan faqat o'zingizga ma'qulini tanlab olasiz. Ammo joy nomlarini o'ylab topish lozim va ismini jismiga monand qilish kerak. Tuman ma'muriy markazi Dang'ara shaharchasi (1979-yildan).

Jizzax viloyatining Baxmal tumanida ham shunday nomli qishloq bor.

DAPSAN – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani. *Dapsan* – bu *O'zbeksitonning tog'oldi hududlaridagi tekis yuzaga ega balandlik.* Mazkur termin *depsan, depsen, tepsen* shakllarida Jizzax viloyatida, shuningdek, Qozog'istonda ham aynan shu ma'noda uchraydi (Г.К. Кошкашпаев. Словарь географических терминов. – Алма-Ата, 1963).

Qiyoslang: Qoraqum tog'idagi eng katta balandlik **Chogori Dapsang** deb nomlanadi.

DARAI ZANG – Bu nom Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida *"Darai Zangiy"* shaklida yozilgan. Movarounnahrning janubiy qismida, hozirgi Surxondaryo viloyatining Boysun tumani hududida joylashgan qishloq. XIV–XV asrlarda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan.

746 (1345–1346)-yili Darai Zangiy qishlog'i yaqinida Chig'atoy ulusi xoni Qazon Sultonxon bilan Amir Qazag'an o'rtasida jang yuz beradi va unda Qazon Sultonxon g'olib keladi.

"Boburnoma"da 909 (1503–1504)-yil voqealari bayonida Sulton Husayn mirzo Shaybonxonning Xurosonga bostirib kelishiga qarshi choralar ko'rgani va o'g'li Badiuzzamon mirzoga Darai Zangda turishni buyurgani qayd etilgan. "Badiuzzamon mirzo Balx va Shaburg'on va Andxud qo'rg'onlarig'a mazbut kishilarni qo'yub, o'zi Gurzvon va Darai Zangda ul ko'histonni berkitsun" (B.103). Bobur Movarounnahrdan Chag'oniyonga va Qobuldan

Samarqandga hamda u yerdan yana Qobulga qaytish safarlari chog'ida uning yo'li Darai Zang orqali o'tgan.

DARAYTUT – qishloq. Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi qishloq nomi. *Dara* tojikcha izofa *dara+yi+tut* hosil qilingan bo'lib, u *"Tutli dara"* ma'nosini ifodalaydi.

DARBAND – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. *Darband – "qisqa joy", "tog'dan o'tish uchun tor yo'l"* – (forscha *dar* – eshik, *band* – yopiq, mustahkamlangan) ma'nolarini ifodalaydi.

DARDOQ – qishloq. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq nomi. ***Dardoq*** toponimi ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***–dar*** oldin qo'shimchasi hisoblanib, uning ikkinchi qismi ***doq*** (*dak, dax* – dialektal variantlari) dex so'zining mahalliy aholi tilidagi talaffuz varianti sanaladi.

Demak, mazkur **Dardoq** toponimi *"uzoqdagi, chekkadagi qishloq"* ma'nosini bildiradi.

DARI ZANJIR – mahalla. XV asrda Samarqand shahrida bunyod etilgan mahalla. XVIII asrda mahallaga Zominnig Kultepa qishlog'idan aholi ko'chirib keltirilgan.

Dar – forcha, eshik ma'nosini bildiradi. Mahalla ahli asosan eshik zanjiri va qulf-kalit yasash ishlari bilan shug'ullangani ushun ham shunday nom olgan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. -С. 13).

DARVESHI – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. *Darvesh – darvish, zohid; darveshi – "darvishlar qishlog'i"* ma'nolarini anglatadi.

DARVESHIBOLO – qishloq. Buxoro viloyati Jondor tumani. Forscha izafet *Darveshi bolo – Yuqori darveshlar* ma'nosini ifodalaydi.

DARVESHIPOYON – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. *Darveshi poyon – Quyi Darveshlar* (qarang: ***Darveshlar***) ma'nosini anglatadi.

DARVISHIQ – qishloq. 1926-yilgi aholi ro'yxatida qayd etilgan. Samarqand viloyati Payariq tumani O'rta Saydov qishloq kengashidagi **Darvesh shayx** qishlog'i keyinchalik mahalliy aholi tilida **Darvishiq** shaklida talaffuz qilina boshlagan.

Abu Tohir Xojaning "Samariya" asarida Sheroz tumaniga qarashli Aliobod (hozirgi Aylavot) qishlog'i yaqinidagi Darvesh shayx Azizonning (XVI asr) o'g'li Mo'min shayx mozori haqida ma'lumot berilgan (Abu Tohir Xoja, 1991:59).

Demak, qishloq tarixiy shaxs bo'lgan Darvesh shayx nomi bilan atalgan.

DARVOZAGAZA – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim *"**darvoza**"* va *"**gaza**"* qismlaridan tashkil topgan.

Aslida, *"**Darvoza**"* forscha so'z bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida *"shahar, qo'rg'on, qal'a va shu kabilarga kiriladigan ikki tabaqali katta eshik"* ma'noni ifodalashi qayd etiladi [O'TIL. 5, 1, 560-561].

"***Gaza***" esa "*tog' etaklari va notekis adirlarda qirsimon cho'ziq balandliklarning oshib o'tadigan yo'l bo'lgan qismi*" ma'nosini bildiradi [T.Nafasov, 53; Z.Do'simov, 42].

Shunga asosan, mazkur mikroponimni gazalarning darvoza (kirish) qismida joylashgan qishloq, yashash maskani tarzida izohlash mumkin. Leksik jihatdan ikki o'zakli ot+ot shakliga xos.

DARVOZAQIR – qishloq. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Bu tepalik yassi bo'lib, u "*tepacha, qircha*" kabi ma'nolarini anglatgan. Hozir ham xalq bu joylarini "*qircha*" so'zi bilan ifodalaydi.

Qishloq M34 – xalqaro ahamiyatli magistral yo'li (Guliston – Yangiyer shaharlari) oralig'ida nisbatan tepalik(qir)da joylashgan. Shu yerda yashovchi mahalliy aholining aytishiga qaraganda, qishloq dastlab tashkil topgan vaqtlarda qishloqqa kiraverishda darvoza o'rnatilgan.

Mazkur hodisa qishloq nomiga ko'chgan va shu tariqa ***Darvozali qir // Darvozaqir*** nomini olgan.

DARVOZAQUM – qishloq. Andijon viloyati hozirgi Bo'z shaharchasi paydo bo'lgunga qadar uning g'arb tomoni Markaziy Farg'ona cho'liga tutashgan qumlik barxanlar bilan qoplangan cho'l yerlar ushbu nom bilan atalib kelgan.

"Boburnoma"da Xo'jandgacha tutashgan qum sahrosi "Ho darvish cho'li" deb tilga olinadi va bu nom haqida naql ham keltiriladi (ya'ni sayohatchi darvishlar qum bo'roniga uchrab, bir-birlarini yo'qotib qo'yishgan va "ho darvish" – deb chaqirishib halok bo'lganlar). "Darvozaqum" ham tarixiy nom hisoblanib, XX asr o'rtalarida cho'lga hujum boshlanib, butunlay o'zlashtirilgan va qum barxanlari deyarli tugatilgan.

DARXASELAT – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ***darxas*** va ***elat*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Xorazm vohasi tarixiy toponimiyasida ham mazkur darxas formasi bilan hosil bo'lgan nomlar uchraydi.

Y.G'ulomov qadimda *Darxas* درخس nomli qishloq bo'lganini yozadi[1].

Darxas — Katdan pastroqda, undan bir manzil narida daryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bu hozirgi Gurlanning yoniga to'g'ri keladi. Hozirgi Xonqa shahri ham shu nom bilan yuritilgan[2].

Darxaselat toponimi "ichkari shahar, shahar ichkarisi" kabi ma'noni ifodalagan. Xorazmiy tilida bu ma'noda "darun, daran" so'zlari qo'llanilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z tug'ilgan qishlog'i *Berun* — tashqaridagi shahar, sirtdagi qishloq o'sha "darun" so'ziga antonim ekanligini qayd etgan.

Hozirgi fors tilida ham *darun* درون – *ichkari* (izofali predlog holatida *ichida), birun* بيرون – tashqari (izofali predlog holatida *tashqarida)* ma'no-

[1] G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B.155.
[2] G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B.211.

larini anglatadi[1]. Pahlaviy tilida *byorop* shaklidagi bu so'z qadimgi forsiy *divarya un* so'ziga qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil qilingan[2].

Fikrimizcha, arab tilidagi "hovli" ma'nosini beruvchi *daar* دار so'zi *dar* ning fonetik o'zgarishga uchragan (unli cho'ziq holatga o'tgan) shaklidir. Arabchada bu so'z umuman *uy* mazmunini ham anglatadi. Masalan, *aljaaru summa-d-daaru* الجار ثم الدار – avval qo'shni (tanla), so'ngra uy (ol) maqolidagi kabi[3]. Keyinchalik bu so'z *manzil, turar joy, makon* mazmunini umumlashtirgan holda ifoda eta boshlagan. Masalan, *daaron* داران – *ikki dunyo* kabi[4]. Aynan *ikki manzil, ikki makon* ma'nosidagi bu so'z arabchada musulmon va g'ayri musulmon mamlakatlar ma'nosini ham anglatadi[5].

Xorazm va Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlari tizimidagi *dar, dur, dir* qismlarini barcha holatda ham *dar*ning fonetik variantlari sifatida qabul qilish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, *Durgadik dur* (yoki dar) + *kad* "qishloq" + *ik* (yoki ak) kichik qishloq < Dar + kad + ik. Shu o'rinda mazkur toponim tarkibida *dur* uzoq ma'nosini (mazkur eroniy so'z *uzoqdan ko'ruvchi* ma'nosidagi *durbin* so'zi tarkibida ham bor) anglatishini yoki *eski* ma'nosidagi *di:r* so'zi bilan aloqadorligini ham taxmin qilish mumkin. Toponimlarning nomlanish tamoyillari ham *(Uzoq qishloq, Eski shahar* kabilar) shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Darbant – dar prefiksiga *band* بند so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Pahlaviy tilida ham shu shaklga ega bo'lgan *band* so'zi bir necha ma'nolarga ega. Jumladan, *to'gon, g'ov, to'siq, tepa* va hokazo. Shunday ekan, *Darband* toponimi *"g'ov ichidagi, atrofi o'ralgan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

Aqdarband xuddi shu ma'nodagi so'zga *"aq"* so'zi qo'shish orqali hosil qilingan. Xorazmda istiqomat qiluvchi oqdarbandliklarning asl vatani bo'lgan Xurosondagi Darband qishlog'i haqida Ogahiy keltirgan ma'lumotlar ham shu fikrni tasdiqlaydi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

DARG'ABOG'I – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. *Darga – daruga* mo'g'ullarda *viloyat, shahar, gubernator boshlig'i* ma'nolarini ifodalaydi (Л.Будагов. Сравнительный словарь, T. I. C. 547).

Buxoro xonligida *darg'a – "soliq yig'imchisining yordamchisi, tuman bo'yicha hosilni xirmon bilan yig'ib olishni ta'minlaydigan shaxs"*.

Qo'qon xonligida darg'a soliq yig'imlari masalalari bilan shug'ullan-

[1] Vafoiy A., Abdusamadov M., Avazmetov Sh. Forscha-o'zbekcha lug'at. – Toshkent : 2007.

[2] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى. برهان قاطع. باهتمام دكتر محمد معين. تهران.امير كبير. 6831.جلد1.ص533

[3] قاموس المحيط www.дорар.нет

[4] قاموس المحيط www.дорар.нет

[5] Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. –М: Русский язык. 1985. – С. 266.

gan. Bosh darg'a *darg'aboshi* deb nomlangan. Qo'qon xonligida Xudoyorxon davrida *darg'aboshi ("bosh darg'a")* xon tuyalari va ularning haydovchilariga mas'ul mansabdor shaxslar nomlangan (А.Л. Троицкая. Каталог архива Кокандского ханства. С. 539).

Xiva xonligida *darg'a*ning ma'nosi *"kema kapitani"* tarzida qayd etiladi.

DARG'ALI//DORG'ALI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. ***Darg'a – dorug'a*** so'zi asli mo'g'ulcha bo'lib, *"boshliq, qo'mondon"* degan ma'noni anglatishi yuqorida qayd qilingan edi. Hozirgi mo'g'ul tilida ham ***darg'a*** – *"rais, boshliq"* demakdir. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, ***darg'a*** so'zi o'z navbatida, *"ezmoq, qismoq"* ma'nosidagi daraxt fe'lidan kelib chiqqan, deyishadi. ***Darg'a*** mansabi dastlab, Chingizxon davrida paydo bo'lgan va *daruxachi (darugachin)* deb atalgan.

Dorg'a mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar hukmronlik qilgan davrlarda (XIV–XVI asrlar) viloyat, shahar hokimi hisoblangan. ***Dorg'a*** idora qilish hamda soliq undirish bilan ham shug'ullangan. ***Dorg'a*** mansabi keyingi asrlargacha mavjud bo'lgan. Chunonchi, Buxoro xonligida ***dorg'a*** soliq yig'uvchining yordamchisi hisoblangan va har bir viloyatda qancha hosil olishini hisob-kitob qilgan. Xiva xonligida ham ***dorg'a*** oliq-soliq ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Bosh ***dorg'a*** *dorg'aboshi* deb atalgan. Xudoyorxon davrida *dorg'aboshi* xonning boshqa mamlakatlarga mol olib chiqadigan sarbonlariga (tuyakashlariga) boshchilik qilgan.

Xiva xonligida ***dorg'a***lar saroyda amaldorlik vazifasini ado etgan, davlat ishlari, ma'muriy ishlarni bajargan. Kishi va yuklarni Amudaryodan o'tkazib qo'yish ishlari ham dorg'alar zimmasida bo'lgan. Hozirgi vaqtda esa Xorazmda kema kapitani yoki shatak kema boshlig'i ***dorg'a*** deyiladi.

Xorazmda ***Abdullatifdorg'a, Bobodorg'a, Yoqubdorg'a, Jabborberdidorg'a, Muroddorg'a, Shermuhammaddorg'a, Yusufdorg'a, Qoraboydorg'a*** degan qishloq bo'lgan.

Suv darg'asi, suv taqsimlovchi mirob darg'ob (dorg'anob) deb atalgan. Dorg'alik mansabining boshqa vazifalari ham bo'lgan. Ba'zan mirshab (polistiya), bozor hokimi ham ***dorg'a*** deb atalgan. Biron lavozimda turgan mas'ul shaxsni ham ***dorg'a*** deyishgan. Masalan, mashhur tarixchi Xondamir Alisher Navoiyning ukasi Darvishalini "***Dorug'ayi kitobxonayi humoyun***", ya'ni *"Qutlug' kutubxona mudiri"* deb atagan.

Ma'lumki, Darvishali Alisher Navoiy davrida sulton kutubxonasining kitobdori, ya'ni kutubxonachisi bo'lib xizmat qilgan[1].

DARG'OM – kanal. Sosoniylar davri diniy afsonalari to'plami "Bundaxesht"da "Suda", ya'ni Sug'ddagi Dargaman (Darg'am) kanali tilga olinadi (Masson, 1972: 22).

V.V.Bartold o'rta asr tarixchisi Istaxriy asarida tilga olingan Barsh

[1] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. –T.: O'zbekiston, 1978. –B. 46-47.

kanalini Darg'om bilan bir bo'lsa kerak, – deb qayd qiladi (Бартольд. 1. 1963: 133–134). Darg'om nomli qishloq ham bo'lgan (Вяткин, 1902: 39).

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida Darg'om haqida shunday yozadi: "...Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg'am suyi derlar" (Bobur, 1966: 104).

Sh.S. Kamoliddin Darg'am dunyodagi inson qo'li bilan barpo qilingan eng uzun sun'iy ariqlardan biridir, deydi.

Rozenfeld: *"Darg'* "so'zi *"daryodan ajratilgan ikkinchi yoki uchinchi darajali oqim, kanal"* ma'nosida, – deb qayd qiladi (Розенфельд, 1980: 157).

B.P. Lurye fikricha esa, uning nomi qadimgi eroniy *darg'a – "uzun"* so'zidan hosil bo'lgan (Лурия, 2004).

DARG'OT – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi qishloq nomi. *Darg'ot – to'g'on, qoya* (Таджикско-русский словарь. – М., 1954. С. 137), *dargot – suvni ajratib turuvchi tog'on,* degan ma'nolarni anglatadi (О.Д. Чехович. Бухарские документы XIV в., 222).

DAROZON – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi bo'lib, u forscha *daroz – "baland, uzun, uzun bo'yli (inson)"* ma'nolarini bildiradi. *Darozon – uzun, baland bo'yli odamlar, "uzun, baland bo'yli odamlar yashaydigan joy"* ma'nolarini anglatadi.

DARXON – qishloq. Andijon viloyati Xakan qishlog'i o'ramidagi qishloqcha – hozir mahalla nomi hisoblanadi. Manbalarda: *"Davlat oldidagi ma'lum xizmatlari evaziga barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilingan shaxsga "Tarxon (Darxon)" yorlig'i berilgan"*, deb ko'rsatiladi. Terminning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Bu so'z ko'pchilik turkiy tillarda uchraydi, shuningdek, fors-tojik, kurd, osetin, gruzin, venger, rus tillarida ham uchraydi va *"Ma'lum imtiyozlarga ega bo'lgan, davlat oldida gunohi kechirilgan shaxs"*, – deb tushuniladi. Gruzin tilida *"darxon (tarxan)" – "shahzoda, yuksak unvon"* ma'nosini ifodalaydi (bundan 50-yillar ilgari Andijonda ishbilarmon gruzin "Tarxun" nomli yaxna ichimligini ishlab chiqqan edi).

Shuningdek, Andijon viloyati Andijon tumani; Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq va O'rta Chirchiq tumanlari; Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanlarida ham shunday nomli qishloqlar bo'lgan. *Darxon* (tarxan) – barcha turdagi soliqlar va bojlardan ozod qilingan shaxs. Chingizxon davrida harbiy zodagonlar tomonidan urushda va ovda qo'lga kiritilgan barcha o'ljalar ularning shaxsiy mulki hisoblangan (В.В. Бартольд. Сочинения, Т. I. С. 451).

Bundan tashqari, Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi bir qator qishloqlar nomlari tarkibida uchraydigan termin. 1892-yilgi manbalarda *Qirqdarxon, Po'latdarxon* qishloqlari nomlari uchrasa, 1926-yilgi aholi ro'yxati materiallarida *Ozoddarxon, Jo'raboydarxon, Nomozdarxon, Oshkadidarxon* kabi qishloqlar nomi qayd qilinadi (Материалы, 1927: 117).

Darxon so'zi ancha qadimiy manbalarda uchraydi. Mug' tog'i yodgorliklarida, shuningdek, arab yilnomalarida tilga olingan Tarxun (704–710) nomi munosabati bilan bu so'zning etimologiyasiga doir birmuncha mulohazalar bildirilgan.

Tarxonlik, ayniqsa, XV asrda avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo'lida yirik yer maydonlari va katta hokimiyat bo'lgan. Tarxon xohlagan narsasini qila oladigan, butunlay mustaqil, harbiy xizmatdan ozod kishidir, tarxonlar har qanday jinoyat qilsa ham, to'qqiz martagacha afv etilgan. Aftidan, darxon termini ishtirok etgan qishloqlar hukmdorlar tomonidan tarxon (darxon)lik berilgan shaxslarga tegishli bo'lgan.

DARXONARIQ – Toshkentdagi ariq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida *Boshdarxon, Ozoddarxon, Naymandarxon, Po'latdarxon, Qirqdarxon* nomli qishloqlar mavjud.

Mo'g'ulshunos Nominxanovning so'zlariga qaraganda, *darxan* mo'g'ulcha so'z bo'lib, *"Temirchi (odam) – barcha bojlar va to'lovlardan ozod etilgan"* ma'nosida qo'llanilgan (Ц.Д. Номинханов. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР. "Записки (Калмыцкий. Научно-исследовательский институт языка, литературы и истории", вып. 2. Элиста, 1962. С. 258).

V.V.Radlovning fikrlariga ko'ra, turkiy xalqlarda (xususan, qozoqlar va qirg'izlarda) *darkan (tarkan) "tumirchi", "rassom", "ozodlikni sevuvchi", "qadr-qimmat"* ma'nolarini ifodalagan (В.В.Радлов. Опыт словарья, т. III, 1629). Shunday qilib, *darkan (darxan) va tarxan (tarqan)* aynan bir ma'nolarda: *tarxan – hukmdor nomi* (Mahmud Koshg'ariy. Devon. T. I. 409-bet). *"Tarxan – barcha soliqlardan ozod qilingan bilimdon"* (В.В.Бартольд, Сочинения, Т. III. С. 44).

Markaziy Osiyoda tarxonizm so'nggi asrlarda ham harakatda bo'lgan. Ba'zida tarxonizm nafaqat ayrim shaxslarga, balki butun shahar aholisiga ham berilgan. Masalan, amir Shoh Murod Buxoro aholisining ishonchiga kirish uchun aholini barcha soliqlardan ozod qilgan tarxonizm faxriy yorlig'i bilan taqdirlagan. Zarafshon vodiysida **Tarxon, Tarxonon, Tarxononbolo, Tarxononpoyon, Tarxonsayot** sifatidagi ariqlar va qishloqlar bo'lib, ularning ayrimlari hozirgi kungacha mavjuddir. Shu bilan birgalikda, shunday nomli etnonimlar: *darkan* (qirg'iz qabilasida cherik), *darxan* (qozoq qabilasida chanshkili), *tarxan* (turkman qabilasida gyoklen, igdir, ersari, shuningdek tuvinlarda) ham mavjud.

Shubhasiz, bu etnonimlarning barchasi egalari tarxonlik yorlig'ini olgan insonlarning avlodlaridir. Ta'kidlash joizki, Toshkentda **Darxonariq** kanali **Jui Tarxon** yoki **Tarxonsayot** tarzida nomlangan.

DASTORTOSH – qoya. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qoya nomi. Oronim salla; sochiq ma'nosini anglatuvchi fors-tojikcha ***dastor*** va ***tosh*** oronimik indikatoridan tarkib

topgan bo'lib, qoya boshi boshga, taram-taram qilib o'raladigan sallaga o'xshashi bois shunday atalgan.

Demak, oronim sallaga o'xshash qoya ma'nosiga ega. Rus tili obro'-e'tibori ortgan davrda ayrim mahalliy aholi vakillari ***Dastortosh***ni *Shapkalitosh* deb ham atashgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

DASTURXONCHI – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. Xonliklar zamonida ushbu nomda maxsus saroy xizmatchisi bo'lib, mehmon kutib olish, taom keltirish va kuzatib qo'yish vazifasini bajargan.

Qo'qon xonligi tarixida davlatlar lavozimlari ro'yxatida "Dasturxonchi" ham keltiriladi. Keyinchalik ularning xizmati evaziga yer-suv berilgan (Farg'ona viloyatida *"Cheki dasturxonchi"* qishlog'i bor).

DAVKAMAR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. *Dav – tov, ya'ni "Tog'" so'zining o'zgargan shakli. – Tog' tizmasi yonbag'ridagi kamar.* Yana bir izoh: *dav – katta, ulkan. Kamar – tog' yonbag'ridagi o'yiq, pastqam joy.*

Demak, **Davkamar** – *katta kamar (yonidagi qishloq)* ma'nosini anglatadi.

DAVLATOBOD – tuman. Namangan viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Namangan shahri tarkibida 2020-yilda tashkil etilgan ma'muriy-hududiy birlik – tuman nomi (xoronim). Xoronim davlat va obod topoformantidan tarkib topgan. Nomga davlat so'zining mamlakat ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan.

Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahridagi mahalla nomi. Mazkur ***Davlatobod*** toponimi *davlat* va *obod* so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi qismi ***Davlat*** forscha so'z hisoblanib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "mamlakat" ma'nosini bildirishi qayd etiladi (O'TIL. I, 537).

Demak, ***Davlatobod*** "Obod mamlakat, obod joy, obod yurt" ma'nosini ifodalaydi. Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahridagi mahalla nomi. Mazkur ***Davlatobod*** toponimi *davlat* va *obod* so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi qismi ***Davlat*** forscha so'z hisoblanib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "mamlakat" ma'nosini bildirishi qayd etiladi (O'TIL. I, 537).

Demak, ***Davlatobod*** "Obod mamlakat, obod joy, obod yurt" ma'nosini ifodalaydi.

DAVLAY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. T.Nafasov *Davbola, Davbobo, Davbuloq* singari toponimlar tarkibidagi *"dav"* qismini *"katta, yirik jussali, ulkan, bahaybat"*, deb izohlaydi [T.Nafasov, 56].

Bizningcha, bu joy nomi, aslida, *"Davlat"* so'zining dialektal varianti-dir, keyinchalik bu so'z og'zaki so'zlashuv nutqida ***"Davlay"*** shaklida talaffuz qilingan.

Qozoq xalqi etnik tarkibiga kiruvchi "***duvlat***" urug'i ham bor [Nosirov, 2012:367].

"Davlay" Nurota turkmanining bir toifa urug'i ekanligi ham ta'kidlanadi [O'roqov, 2011:46].

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu mikrotoponim bir o'zakli ot so'z turkumiga mansub etnooykonimdir.

DAVRQO'RG'ON – qishloq. Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***davr***" va "***qo'rg'on***" qismlaridan iboratdir.

"***Davr***" arabcha so'z bo'lib, "*aylanish, aylana, almashinish, navbat*" kabi ma'nolarni bildiradi [O'TIL. 5, 1, 540-541].

"***Qo'rg'on***" esa "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*atrofi devor bilan mustahkamlangan hovli, joy*" tarzida izohlanadi [O'TIL.5, 5, 416].

Yuqoridagilarga asoslanib, ushbu mikrotoponimni "*aylana shaklida bo'lgan joyda barpo etilgan qishloq, yashash maskani*" deb izohlasa bo'ladi.

DAVTOSH – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq. Toponimist T.Nafasovning yozishicha, "*dav (dev) – jonsiz narsalarning me'yoridan katta, hajmi va tanasi ulkan*" ekanligini bildiradi. Qishloq atrofida ulkan hajmli toshlar ko'p bo'lganligidan Davtosh deb atalgan. **Davtosh** – "*tog' bag'ridagi qishloq, tog'-u toshli qishloq*" ma'nosini anglatadi.

DASHT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani, Farg'ona viloyatining Bog'dod tumani, Andijon viloyatining Izboskan tumanlaridagi qishloq nomlari.

Dasht – "*bo'shliq, dasht, toshli, g'ishtli tekislik*" degan ma'nolarni ifodalaydi. Respublikada *dasht* so'zi bilan bog'liq bir qancha toponimlar uchraydi: **Dashtariq** – qishloq. (Qashqadaryo viloyati Kitob tumani), **Dashtiso'xta** – "*kuygan dasht*" (Samarqand tumani), **Dashtig'oz** – "*g'ozlar dashti*" (Surxondaryo viloyati Boysun tumani), **Dashtichinor** – "chinorlar dashti" (Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani), **Dashtmahalla** – (Farg'ona viloyati Quva tumani, Andijon viloyati Izboskan tumani) va boshqalar.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida ham shu nomli qishloq bo'lib, u o'zbek tilida "*ekin ekilmay yotgan suvsiz yer, cho'l, keng ochiq maydon*" degan ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi. Shunday yerda barpo bo'lgan qishloq shu nom bilan atalgan.

Bundan tashqari, Farg'ona viloyatida keng tarqalgan toponimlardan biri ham dashtdir. Dasht aslida geografik termin sifatida "*dala, ovloq joy*", "*Toshloq cho'l*" ma'nolarida qo'llaniladi. Ana shunday ovloq, ochiq joylardagi qishloqlar dasht deb yuritiladi. Ba'zi hollarda bu so'z toponim tarkibida ham uchraydi, masalan, *Dashtmahalla, Dashthasan, Dashtcho'pon, Dashtiqipchoq* (Do'simov, 1977; Oxunov, 1989).

DASHTAK – dara. Buxoro shahri ostidagi dara. Narshaxiy tilga olga-

nidek, bizningcha, bu Dashtak (Narshahiy. Buxoro tarixi. – T., 1966, S. 31–32) forscha *dasht* so'zi va *-ak* – erkalash-kichraytish qo'shimchasining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan. **Dashtak** – *"kichkina dasht", "kichkina bo'shliq"* ma'nolarini ifodalaydi.

DASHTAKIBOLO – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim quyidagicha hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi qismi ***dasht*** – *"dala, ovloq, joy"* ma'nosini ifodalasa, uning ikkinchi qismi ***-ak*** – erkalash-kichraytirish qo'shimchasi hisoblanadi va apellyativning uchinchi qismi ***bolo*** esa *"tepa yoki yuqori"* ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, ***dashtakıbolo*** toponimi *"yuqori yoki kun chiqishdagi dasht"* demakdir.

DASHTIQIPCHOQ – dasht. Jizzax viloyatining Paxtakor tumanidagi dasht nomi. Tarixiy nom va ikki qismdan iborat bo'lib, ***dasht*** – *"dala, ovloq, joy"* ma'nosini ifodalaydi. ***Qipchoq*** esa urug' nomi sanaladi. O'zbek tilidagi lahjalardan biri ham ***qipchoq*** deb yuritiladi.

Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududning XI–XIV asrlardagi nomi.

Dashtiqipchoq terminini dastlab Nosir Xisrav (1003–1088) qo'llagan va shundan boshlab arab hamda fors tillaridagi asarlarda uchraydi.

V.V. Bartoldning aniqlashicha, ***Dashti qipchoq*** aholisi sharq manbalarida – ***Qipchoqlar***, Vizantiya xronikalarida – **Kumanlar** deb yuritilgan. Xorazmga qo'shni bo'lgan.

XIV asrning 60-yillaridan boshlab, Sharqiy dashti qipchoq "O'zbeklar mamlakati" va uning aholisi esa o'zbeklar deb atala boshlangan.

DASHTISO'XTA – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi bo'lib, u *"kuydirilgan dasht"* ma'nosini anglatadi.

DASHTMAHALLA – qishloq. Andijon viloyati Izboskan tumani, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani. *Dashtmahalla – "Bo'sh mahalla", "bo'shliqda paydo bo'lgan mahalla"* (mahalla – shahar dahasi) ma'nolarini ifodalaydi.

DASHYOQ – mahalla va qishloq. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Afsona va rivoyatlarga ko'ra, Xiva qal'asining atrofi dasht, qum, ko'llardan tashkil topgan bo'lib, u ikkita qum oralig'ida joylashgan, ya'ni cho'lliklar, dashtliklardan iborat deb qaralgan va shuning uchun bu hududni *Dashtyaq, Dashyat* tomon deb aytilgan, keyinchalik *Dashyoq* deb yuritilgan.

Aslida, Xorazm shevasida, umuman, o'g'uzlarda *"dash"* so'zi *"uzoq"*, "yiroq" ma'nolarini ifodalagan. "Yoq" shaklining *"yaq"* va *"yat"* shakllari ham bo'lib, u ham Xorazm shevasiga xos va *"tomon, chekka"* ma'nolarini bildirgan. Demak, **Dashyoq** – *"uzoq, yiroqdagi qishloq"* ma'nosidadir.

DEBALAND – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumani. Forscha *-de*

(deh) – "qishloq" va *"baland" – "Tepalikdagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

DEGDAVON – qishloq. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***deh*** yoki ***dek*** "qishloq" degan ma'noni ifodalaydi hamda uning ikkinchi qismi ***davon*** esa "o'tish joy" ma'nosini anglatadi.

Demak, ***Degdavon*** toponimi – *"o'tiladigan joydagi, yo'l ustidagi qishloq"* demakdir[1].

DEGREZ//DEGRIZ//DEGREZI//DEGREZLAR – qishloq va guzar. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla va Buxoro viloyatining Kogon tumani, Navoiy viloyatining ayrim tumanlardagi qishloqlar nomlari hamda Buxoro shahridagi guzarlaridan birining nomi. To'g'risi, ***Degrez*** tojikcha so'z bo'lib, u ikki qismdan tashkil topib, apellyativning birinchi komponenti ***deg*** – *"qozon"* ma'nosini ifodalaydi hamda uning ikkinchi komponenti ***rextan*** – *"quymoq"* ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, ***Degrez*** toponimi *"qozon quyuvchi, qozon ustasi"* degan ma'noni anglatadi.

Degrezlar cho'yan, jez, abjush (haftjush) – "yetti qotishma"dan qozon va boshqa har xil uy-ro'zg'or asboblari yasashgan. Kasb-hunar nomi oykonimga o'tgan.

Degrezi – Buxoro shahridagi hunarmandlar yashab faoliyat ko'rsatadigan guzarlardan birining nomi bo'lib, *guzar ahli ko'proq omoch tishi quyib kun kurgani uchun pozagar deb atalgan*[2].

Toshkent shahri va boshqa hududlardagi Degrez mahallasi nomi ham shu so'z bilan bog'liq bo'lib, bunday nomdagi toponimlar respublikaning ko'p hududlarida uchraydi.

Degrezlar – "qozonchi", "quyma temirdan qozon quyuvchi usta" ma'nosida qayd etilgan. Toshkent shahri Uchtepa tumanida Degrez nomli mahalla mavjud.

Fors-tojik tilida *"cho'yandan xo'jalik buyumlari yasaydigan ustalar yashaydigan joy"* ma'nosini bildiradi.

DEHIBALAND – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. *Deh – "qishloq"* va *"baland" – "tepalikdagi qishloq"* (**Dehibaland** – *tepalikda joylashgan qishloq)* ma'nosini ifodalaydi.

DEHIMULLAYON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. *Deh – qishloq, -i* forscha izofani ko'rsatuvchi; *mullo* va *-yon* ko'plik qo'shimchasi. Demak, *Dehimullayon – "mullolar qishlog'i", "mullolar ko'p yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

DEHISAYIDON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Deh – qishloq, ovul, sayid – Muhammad payg'ambarning avlodi, -on* – ko'plikni ifodalovchi qo'shimcha; *Dehisayidon – "Muhammad payg'ambarning avlodlari qishlog'i", "ko'p say-*

[1] Do'simov Z., Egamov X. Ko'rsatilgan asar. –B.49.

[2] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. –T.: O'zbekiston, 1978. –B. 48.

idlar yashaydigan qishloq" ma'nosini ifodalaydi.

DEHNAV – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, mazkur nom ikki qismdan iborat. Forschadan deh – qishloq va nav – yangi tushunchasini ifodalaydi.

Shunday ekan, ***Dehnav*** toponimi "*yangi qishloq*" ma'nosini anglatadi.

DEHQALANDAR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom *deh* va *qalandar* qismlaridan iborat bo'lib, "*adashgan darvish*" degan tushunchani ifodalaydi.

Demak, **Dehqalandar** – *darvishlar yashaydigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

DEHQON – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. *Dehqon* – "qishloq xo'jayini": forscha *-deh* (qishloq) va mo'g'ulcha *kann* (xoqon). Dastlab Markaziy Osiyoda (V–XII asrlar) dehqonlar deb yer egalari, yirik feodallar nomlangan. Asta-sekin oddiy qishloq mehnatkashlari leksikasida qishloq deb nomlana boshlangan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanib, biror-bir qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi shaxs dehqon nomi bilan ataladi.

DEHQONBOZOR – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qadimiy qishloq nomlaridan biri sanaladi. *Dehqonbozor* – "Dehqon" so'zi *katta yer egasi, zamindor, qishloq hokimi* va *"bozor"* so'zi esa *savdo rastasi, savdo qatori"* ma'nolarini ifodalovchi so'zlarning qo'shilishidan hosil qilingan nom.

Shu nomdagi toponimlar O'zbekiston Respublikasining ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash zarur.

DEHQON KANALI – kanal. Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi kanal nomi. Mazkur kanal o'tmishda dehqonlar tomonidan qo'l kuchi, qo'l mehnati hisobiga qazilganligi uchun shunday nom olgan va ko'p yillardan beri shu nom bilan atalib kelinmoqda.

DEHQONOBOD – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1925-yili tuman *Tangiharam* nomi bilan tashkil qilingan.

Dehqonobod tog'li tuman, relyefi o'rtacha balandlikdagi tog'lar, past tog'lar va tog'oldi qiya tekisliklardan iborat. Tog'li tumanlar aholisi nutqida *tangi – tor dara* (tojikcha *tang* – *"ensiz"*). Kambar soylik, daraning tor, siqiq joyi, tangida ko'pincha suv oqib turadi. *Haram* – muqaddas joy, ziyoratgoh. Ziyoratgoh, muqaddas qadamjo joylashgan daradagi tangi – *Tangiharam*.

1935-yili tuman nomi rasmiy-ma'muriy tarzda *Dehqonobod* deb o'zgartirilgan. Nom ikki tarkibiy qismdan iborat: *dehqon* va *obod*. Dehqon – agrar sohada faoliyat ko'rsatadi, yerga egalik qiladi va unda xo'jalik faoliyatini yuritadi. Dehqonning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoat tuzumining parchalanishi jarayonida ixtisoslashuv yuz berib, dehqonchilikni paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Markaziy Osiyoda dastlab jamoadan ajralib chiqqan katta yer egalari,

ba'zan qishloq oqsoqollari "dehqon" deyilgan. Ular o'zlarining devor bilan o'ralgan mustahkam qo'rg'onlariga ega bo'lganlar. O'rta asrlarga kelib dehqonlar qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining asosiy tayanchiga aylandi. Z.Do'simovning yozishicha, XI–XII asrlardan keyin ekin ekuvchi aholining barchasini dehqon deb ataganlar. So'nggi davrlarda Xiva xonligida katta yer egalariga yollanib ishlovchi mardikorni dehqon deyishgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda dehqon davlatdan yerni uzoq muddatga (10–50 yil) ijaraga olgan yirik fermer xo'jaligi sohibi.

Dehqonlar o'zlashtirib, yangidan tashkil qilingan obod maskan – Dehqonobod. *Obod* – ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", gullab-yashnagan, go'zal ma'nosidagi so'z. *Obod – asli ob – "suv" so'zidan kelib chiqqan,* degan fikr ham bor.

Ta'kidlash joizki, geografik obyektlarga nom berishda quyidagi shartlarga rioya qilishni zarur deb hisoblaymiz: birinchidan, nomning ma'nosi aniq, tuzilishi sodda, qulay bo'lishi lozim. Ikkinchidan, qo'yiladigan nom tilning grammatik qoidalariga mos kelishi zarur. Nom birgina geografik termin yoki ijtimoiy-siyosiy istilohlardan, birgina o'simlik yoki hayvon nomlaridan iborat bo'lmasligi kerak. Uchinchidan, bir xildagi nomlar ko'payib ketmasligi lozim, chunki bir viloyat, shahar yoki tumanning o'zida bir xil yoziladigan nom ikkita bo'lsa, chalkashlik tug'iladi. Tarixiy toponimlarni o'zgartirmaslik kerak, ular lisoniy, tarixiy, siyosiy va ilmiy ahamiyatga ega. Xalq o'tmishidan darak beruvchi bunday nomlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish shart.

Tuman ma'muriy markazi – Qorashina shaharchasi (1976-yildan). Nomning tarkibi ikki, ya'ni *qora* va *shina* so'zlaridan iborat. Janubiy O'zbekiston toponimiyasini o'rgangan T.Nafasovning yozishicha, turkiy va mo'g'ul tillarida *qora, xara – balandlik, do'nglik.* Qozoq tilida *shin – cho'qqi, tog'ning baland cho'qqisi.* Oltoy tillarida *sin – tog' tizmasi, cho'qqi, qoya.* Olimning fikricha, geografik obyektning joylashgan o'rni uni nomlashda muhim ahamiyat kasb etgan. *Qorashina – uncha baland bo'lmagan tog',* degan ma'noni anglatadi, ya'ni aholi manzilgohi nomiga tog' nomi asos bo'lib xizmat qilgan.

DEHQONTO'DA – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *to'da – "guruh", "gala"* ma'nolarini anglatadi, shuningdek, *to'da* etnonimi ham mavjud.

DEHQONCHEK – qishloq. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, u *chek – "yer ishlari", "yer uchastkalari"* ma'nolarini anglatadi hamda bu o'rinda -chek indikator vazifasida kelmoqda. Farg'ona vodiysida mazkur termin, shuningdek, 432–450 kv metrga teng bo'lgan yer o'lchovini ifodalash uchun ham qo'llanilgan (А.Л. Троицкая. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – М., 1969).

DEHOJI – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *De* (deh) – *qishloq* va *hoji* so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Dehoji** – *"Makka va Madinaga haj qilganlar qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

DEHVAYRON – mahalla. Farg'ona viloyati So'x tumanidagi mahalla nomi. *Dehvayron* va *Dehmursad* kabi aholi manzilgohlari nomidagi *"deh"* iborasi *qishloq* ma'nosini anglatadi.

DEKDAVON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq bo'lib, u turkiycha-mo'g'ulcha *"dovon" (Dovondagi qishloq)* ma'nosini anglatadi.

DEKMORON – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qamashi, Kitob tumanlaridagi qishloq.

Ayrim manbalarda *Dekmoron* forschadan (*deh* (de) – *qishloq* va *mor* – *"ilon"*, *-on* ko'plik qo'shimchasi) – *"ilonlar qishlog'i"*, *"ilonli qishlog'i"* sifatida qayd etiladi.

Dek (deh) forscha-tojikcha so'z bo'lib, *qishloq, ovul degani, moron* – xalqona talqinda *mor – ilon*, ya'ni *ilonlar ko'p joy* ma'nosida, lekin T.Nafasovning fikricha, *moron – marg'*, ya'ni *o'tloq* so'zidan olingan. *Marg' – o't, o'tloq, chamanzor, o'tzor* degan ma'nolarni anglatadi. Demak, *Dekmoron – o'tloqdagi qishloq* deganidir.

DEKTAR – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Nomning qadimiy shakliga asos bo'lgan so'z – *bo'ktir (bo'ktar)*. Mahmud Koshg'ariyda *bo'ktir – tog'lardagi past-baland yer*. Qozoq tilida *bo'ktur – tog'lardagi past-baland yer*, qirg'iz tilida *bo'ktur – tog' etagidagi tepalik. Bo'ktar* so'zining dialektal o'zgarishidan *dektar* so'zi kelib chiqqan. Demak, *Dektar – tog' etagidagi qishloq, balandlik yonidagi qishloq* ma'nosidadir.

DENAV – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi shaharcha (2009) bo'lsa, Kitob tumanida qishloq nomidir. Tarkibi *deh+i – nav (-t) – yangi qishloq*. Yonidagi shaharcha qishloqdan keyin, so'nggi davrda qurilgani uchun shu nom bilan atalgan.

DENGIZKO'L – ko'l. Buxoro viloyati Qorako'l tumani (Zarafshon daryosining quyi oqimida). *Dengiz* va *ko'l* (*"katta ko'l"* ma'nosida) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

DENOV – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududining shimol, janub va markaziy qismi tekislikdan iborat. Sharqda Bobotog', g'arbda Boysuntog' tizmalari bilan o'ralgan. Relyefi sharqqa tomon asta-sekin pasayib boradi.

Denov qadimiy shahar, yozma manbalarda XIV asrning oxirlaridan shahar tojik tilidagi Dehinav nomi bilan tilga olingan. Shahar shu nom bilan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" (XV asr) asarida qayd qilingan. Nom ikki tarkibiy qismdan iborat, *deha – "qishloq"* va *nav – "yangi"*, ya'ni *"yangi qishloq"* ma'nosini anglatadi. Uzoq muddat iste'molda bo'lgan nom soddalashgan va talaffuzda qulay bo'lishi uchun *"deha"* so'zi tarkibidagi *"a"* harfi tushib qolgan.

Dehinav so'zi nom sifatida hozirgi o'zbek tiliga *"Denov"* shaklida o'zlashgan. Hozirda tuman markazi

bo'lgan Denov shahri kattaligi va aholi soni jihatidan viloyatda Termizdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shahar dengiz sathidan qariyb 600 metr balandlikda, Surxondaryo va Sangardak daryolari oralig'ida joylashgan. O'zbekistonda *Dehibaland, Dehisurx, Dehibolo* kabi yuzlab toponimlar *deha* atamasi ishtirokida paydo bo'lgan.

XVII asr tarixchisi Mahmud ibn Valining yozishicha, Dehinav ajoyib bozori, katta masjidi va xonaqosi bo'lgan mustahkam qal'a-shahar hisoblangan. Ayrim tadqiqotchilar qadimgi Chag'oniyon shahri o'rnida hozirgi Denov shahri barpo qilingan, deb hisoblashadi. Arxeologlar Chag'oniyon shahri xarobalarini Denovdan 6 km janubi-sharqda joylashganligini aniqlashgan.

Mo'g'ullar istilosidan keyin, xususan, temuriylar davrida Denov yirik savdo-sotiq va hunarmandchilik markaziga aylangan. XVII–XVIII asrlarda Buxoro xonligi tarkibida karvon savdosi markazlaridan bo'lgan, tuman hududida hunarmandchilikning yuzdan ziyod turi, ayniqsa, ko'ncharm tayyorlash, etikdo'zlik, to'quvchilik, zardo'zlik yaxshi rivojlangan. Denov shahrida me'moriy yodgorliklardan Said Otaliq madrasasi (XVI asr) saqlanib qolgan. Tuman hududidan xalqaro ahamiyatdagi temir yo'l va avtomagistral o'tgan. Tuman ma'muriy markazi Denov shahri (1958-yildan).

DEPELIQAQ – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "depe", "-li" (ot yasovchi -lik affiksining dialektal varianti) va "qoq" so'z+affiks+so'z ko'rinishida hosil qilingan hamda apellyativning qismi "depe" so'zi Xorazm shevasiga xos bo'lib, o'zbek tilidagi tepalik so'zining dialektal variantidir. Uning uchinchi tarkibiy qismi "qoq" so'zi – "ko'l, sho'r, tashlandiq yer" kabi ma'noni bildiradi.

M.Kashg'oriy ham bu so'zni "qaq – yomg'irdan paydo bo'lgan yer" deb izohlaydi (M.Kashg'oriy. DLT. II. 327).

Demak, **Depeliqaq** – *"tepaligi bor yoki mavjud ko'l"* degan ma'noni bildiradi.

DESO'XTA – qishloq. Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***"de"*** forscha dehqon so'zining qisqartirilgan, dialektal varianti hisoblanadi va u *"qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

Apellyativning ikkinchi qismi, ya'ni ***"so'xta"*** esa *"kuygan"* ma'nosini ifodalagan. Manbalarda "Kuygan" termini "jabr ko'rgan" degan mazmunni kasb etib, uning negizida qishloqning tabiiy ofatlar, jumladan, sel, yomg'ir, suv toshqinlari, hosilsizlik natijasida mashaqqat tortganiga ishora mavjud bo'lib, ushbu toponim *"jabr ko'rgan qishloq"* deganidir.

DEVONALAR – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi hisoblanib, *Devona* so'zi va *-lar* ko'plik affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Xorazm viloyati Yangibozor tumani O'zbekiston qishlog'ida ham shunday nomli aholi punkti bo'lib, mazkur toponim urug' sifatida qayd etiladi.

DEVONASOY – qishloq. Qashqadaryo viloyati Koson tumani. *"Devona", "past"* – bu yerda *"adashish"* ma'nosida (boshida aholi punkti nomi ma'nosida bo'lgan) qayd etilgan.

DEVONBEGI – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi qishloq nomi. Tarixiy manbalarda ***Devonbegi*** *"devon, devonxona (hukumat idorasi) boshlig'i"* degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i, keyinchalik esa unga mamlakatning barcha moliya ishlari topshirilgan. Xiva xonligida devonbegilar ko'p bo'lgan, ular elchilik, yasovulchilik va shunga o'xshash boshqa ishlarni bajargan. Devonbegiga qarashli ma'lum yerlar, odatda, uning nomi bilan atalib kelingan.

Shunday qilib, qishloq nomiga lavozim nomi asos bo'lgan va shuning uchun ham u ***Devonbegi*** deb yuritilgan.

DEVORI QIYOMAT – devor. Samarqand shahrining o'rta asrdagi devori nomi. Qoldiqlari hozir ham bor. Tarixchi at-Tabariy 713-yil voqealari haqida hikoya qilar ekan, *"Samarqand devori"* (hayit) haqida eslatib o'tadi.

Ayrim kishilar devorni Abu Muslim qurdirgan, deb ma'lumot berishadi. Devorning *"Devori ko'ndalang", "Devori qal'a", "Kampir devor", "Kanpirak devor"* kabi nomlari ham bor.

Payariq tumanidagi qadimiy devor qoldiqlari *Kampirariq* deb ataladi. Buxoro vohasida ham *Kampirdevor* bo'lib, bu nomlarning kelib chiqishidagi ma'nolarida bog'liqlik mavjud.

Toponimist Z. Do'simov bu nom haqida to'xtalib, *"para", "par", "var"* so'zlarining *"qo'rg'on", "devor"* ma'nolari borligini qayd qiladi va respublikamizda *Kamparakdevor, Kampirdevor* nomi ko'p uchrashi hamda bu nom *"Kanti parak"*, ya'ni *shahar devori* ma'nosida ekanligini qayd qiladi.

DEVXONA – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. *Dev – div, devxona – ko'p devlar yashaydigan joy* ma'nosini anglatadi.

DEYDAROZ – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon, Peshku tumanlaridagi qishloqlar nomlari. ***Deydaroz*** – fors-tojikchadan olingan bo'lib, ***"deh+i+daroz"*** tarzida hosil qilingan.

Shunday ekan, ***Deydaroz*** toponimi – "uzun qishloq" ma'nosini bildiradi[1].

DEYCHA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Peshku, Romitan tumanlaridagi qishloq nomlaridan bo'lib, u forscha *-deh* (de) – *qishloq, ovul, -cha* toponim hosil qiluvchi erkalash-kichraytish qo'shimchasining qo'shilishi orqali hosil qilingan.

DEYCHACHORVOQCHA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. ***Deycha + chorvoqcha*** – *"kichkina chorbog'"* (*qarang*: **Chorbog'**) ma'nosini ifodalaydi.

DESHONQAL'A – qal'a. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi qal'alardan biri bo'lib, *"shahardan tashqaridagi qal'a"* ma'nosini anglatadi. *"Deshon"* so'zi xorazmiy tiliga mansub bo'lib, u "tashqari" ma'nosini bildiradi.

[1] Do'simov Z., Egamov X. Ko'rsatilgan asar. –B.49.

DIBOLA – qishloq Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi hisoblanadi. **Debolo (Dehi bolo)** – *"yuqori qishloq"* ma'nosini anglatadi.

DILKUSHOD – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumaniga qarashli Childuxtaron tog' yonbag'ridagi qishloq (tuman janubida). Uning paydo bo'lish tarixi quyidagicha: Zahiriddin Muhammad Bobur 1499-yil yozida O'shga ketishda o'sha tog' yonbag'ridagi Lotkankentga (katta qishloq) to'xtab o'tadi. Ushbu qishloq XVII asr o'rtalarida yuz bergan qattiq zilzilada vayron bo'lgan. Sobiq qishloq shimolidagi tekislikda yangidan qad ko'targan hozirgi *Dilkushod* qishlog'i tarixi Bobur xizmatidagi xo'jalar nomi bilan bog'liq. U to'g'risida ayrim naql-rivoyatlar saqlangan. Ammo tafsilotini manbalarda uchratmadik. Boburning 1993-yilda o'tkazilgan 510 yillik yubileyi munosabati bilan hozirgacha saqlanib qolgan "lotkan" arxeologik tepalik qo'rg'onga olindi va toshdan zinapoyalar qilinib, oldiga maxsus marmar lavha o'rnatildi va ziyoratgoh joyga aylantirildi.

Shuningdek, Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida aynan shunday nomli qishloq bo'lib, u *"yoqimli, qalbga yoqimli, sehrli"* kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi.

DILKUSHOYIDURUN – guzar. Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi guzar nomi. Mazkur nom ***Dilkushoyi*** va ***durum*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi komponenti ***Dilkushoyi*** – *"yurakni quvontiradigan"* degani bo'lib, uning ikkinchi qismi ***durun*** – *"ichkari"* ma'nosidadir.

Demak, ***Dilkushoyidurum*** nomi – "yurakni quvontiradigan ichkaridagi joy, maskan" ma'nosiga egadir.

DILEKESHOQAT – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani hududida joylashgan qumlik va aholi punktining nomi. Qumlik yonida Dileke ismli kishi istiqomat qilgan va bu qumlikning *Dilekeshoqat* deb nomlanishiga sabab bo'lgan. Keyinchalik bu nom shu hududdagi aholi punkti nomiga aylangan.

DIMISHQ – qishloq. Temuriylar davridagi mashhur qishloqlardan biri. Samarqandning qadimiy devori yonida, g'arbida bo'lgan.

Xalq rivoyatiga ko'ra, qishloqqa Damashq shahridan olib kelingan asirlar tomonidan asos solingan. Ammo Damashq shahri 1401-yili zabt etilganligi, Samarqand Dimishqi esa tarixiy asarlarda 1392-yilda tilga olinganligini hisobga olsak, bu rivoyat asosli emasligini ko'rish mumkin (Bartold, 1965:195).

Dimishqdan janub tomonda *Xishrav* qishlog'i joylashgan bo'lib, uni *Arabqishloq* deb ham atashadi. V.L.Vyatkinning qayd qilishicha, qishloq aholisi o'zlarini arablar deb bilishadi.

DIVARAKXURD va DIVARAKKALON – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloqlar nomlari. Prof. B.O'rinboyev mazkur nom *devor* va *-ak* qismlaridan hosil bo'lgan, deb ko'rsatadi va toponim ma'nosini *"devor bilan o'rab olingan*

qishloqcha" deb izohlaydi (O'rinboyev, 2003: 58).

DIYQANOVUL – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududida joylashgan aholi punktining nomi.

Mahalliy xalqning ko'pchilik qismi dehqonchilik bilan shug'ullanadi, bu esa aholi punkti nomining *Diyqanovul* atalishiga sabab bo'lgan. Qangliko'l tumani hududida ham *Diyqanobod* deb atalgan aholi punkti bor.

DIYUL – qishloq. Samarqand yaqinida, sharq tomonda joylashgan qishloq nomi. "Boburnoma"da 906 (1500–1501)-yil, ya'ni Zahiriddin Boburning 240 kishi bilan Samarqand shahrini Shayboniyxondan tortib olib, to'rt oy davomida o'z qo'lida ushlab turgani voqealari bayonida tilga olingan. *"Sayid Muhammad mirzo do'g'lat ham xon dodam (Sulton Mahmudxon) qoshidin ko'mak kelib, ming-ming besh yuz kishi bila Diyul tushubtur, ora to'rt yig'och yo'ldur"* (B.82) , – deb yozadi Bobur Toshkentdan yetib kelgan yordam xususida.

DOBON – qishloq. Toshkent viloyatining Angren shahri hamda Samarqand viloyatining Urgut, Qo'shrabot tumanlaridagi tog'likdan o'tish joyi, dovon nomi hisoblanadi. Mazkur nom bir o'zakli mikrooykonim. Aslida, Dobon dovon so'zining shevadagi shakli, dialektal variantidir.

Ushbu Dovon mikrooykonimi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da – "tog' yoki tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joy" ma'nosida izohlanadi [O'TIL. 1, 634].

Demak, Dobon mikrooykonimi dovonning dialektal variant sanalib, "O'tish y'oli" ma'nosini anglatadi.

DODIQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Dodiq* – Dodik nomining o'zgargan shakli, *dodik – dodxohlarning arz so'raydigan joyi* degan izohlar mavjud (Z. Do'simov, X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – T., 1977. – B. 53).

Avliyo mozori ustiga ko'plab tug'lar (cho'p, xoda, yog'och, tayoq) o'rnatilgani sababli *dah+tug' (o'nta tug')* birikmasi bilan atalgan, degan sharh ham bor: *dah+tug'→do: tug'→dodug'→doduq→dodiq→Dodiq*. Tarkibida forscha *deh (qishloq)* so'zi o'zgarishga uchragan nom ekanligi ilmiy haqiqatga yaqinroq.

DODXO – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumani, Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. *Dodxo* lavozimi Buxoro xonligida to'rtinchi yuqori amaldor bo'lgan. Uning vazifasi xon nomiga arizalarni qabul qilish (yoki amirning) va ular bo'yicha qabul qilingan qarorlar haqida xabar berishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik dodxo harbiy boshliq bo'lgan. N.Xanikovning fikricha, *dodxo* unvoni yana ham yuqori deb sanalgan.

DODXOH – qishloq. Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi va Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloqlar nomlari. Toponimga amirlikdagi mansab nomi asos bo'lgan. Dodxoh ma'lum mansab nomi bo'lib, bir necha ma'noda qo'llanilgan:

a) Qo'qon va Buxoro amirligida qal'a boshlig'i, qo'rboshi;

b) Buxoroda arzchilar shikoyatini amirga yetkazib, javobini shikoyatchilarga bildiruvchi amaldor, raisi kalon. Bunday amaldorlarga qarashli yoki ular yashagan joylar shu mansab nomi bilan atalgan[1]. Qo'qon xonligida "dodxoh" – saroy lavozimlaridan biri bo'lib, bu mansabdagi shaxs qal'a boshlig'i sanalgan.

Shuningdek, qozixona ishlari ustidan nazoratchi vazifasini ham bajargan.

Xonlikning XIX asrga oid hujjatlarida *Abdurahim dodxoh, Abdullabek dodxoh, Otabek dodxoh, Ashurbek dodxoh, Gadoyboy dodxoh* kabi nomlar uchraydi. S.Qorayevning (1970) yozishicha, bu so'z forscha bo'lib, *"adolat talab qiluvchi", "adolatparvar"* kabi ma'nolarni anglatadi.

Dodxoh so'zi forscha bo'lib, ma'nosi – *"adolat talab qiluvchi, adolatparvar"* demakdir.

DOMAN – qishloq. Andijon viloyati Asaka tumanidagi qishloq nomi. **Doman** (domana) so'zi "Boburnoma", "Shayboniynoma" kabi tarixiy asarlarda tez-tez uchraydi va *"nimanidir chekkasi", "tog'ning qoyasi"* ma'nolarini ifodalaydi, demak, **domani ko'h** – *"tog' etaklarida"* deganidir.

DONIYORBEK – mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Mazkur mahalla XIX asrda Doniyorbek ismli arbob tomonidan Samarqand shahrida bunyod etilgan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. В. 46). Shuning uchun ham ushbu mahalla shunday nom olgan.

DORBOZLAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *Darboz – dorvoz – "arqonda yuruvchi"* ma'nosini anglatadi. *Dorbozlar – "arqonda yuruvchilar, arqonda yuruvchilar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

DORILOMON – qishloq. Andijon viloyati Asaka tumanidagi qishloq nomi. XIX asrning boshlarida Shahrixon ("xon shahri") shahriga asos solinganidan keyin bu yerlarni obodonlashtirish maqsadida mohir hunarmandlar va ustalar jalb qilingan. Shaharning yonida **Dorilomon** nomli qishloqqa ham asos solingan bo'lib, u *"ozod"* ma'nosini ifodalab, mazkur qishloqqa bir guruh mahbuslar keltirilgan.

DORISOY – qishloq. Buxoro viloyatidagi eski qishloq nomlaridan biri (Hozirda bu nomda qishloq mavjud emas). Mazkur toponim ikkita qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ko'pchilik tomonidan ta'kidlanayotgan *dori yoki malham, davo* ma'nosida emas, balki *-dop (-dur)* old qo'shimcha hisoblanib, u biror obyektdan uzoqda joylashganini bildiradi.

Demak, ***Dorisoy*** *"uzoqdagi suv yoki soydan uzoqdagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

DOTQUSH – qishloq. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidadgi qishloq nomi. Nomning tovush tarkibi o'zgargan. Uning so'nggi qismi bo'lmish *qush* so'zi *Hindukush* (ba'zan Hindiqush

[1] Do'simov Z., Egamov X. Ko'rsatilgan asar. –B.53-54.

tarzida xato yozishadi) tog' nomidagi *kush* so'zi bilan manbadoshlik munosabatida ekanligi qayd etiladi.

Forslar Hindukush (Afg'oniston va Pokiston hududidagi tog')ni Hinduqush deb atashgan. *"Kush"* va *"ko'h"* so'zlari ma'no va kelib chiqishi jihatidan bir-biriga yaqin. *Kesh* nomi ham shu so'zga daxldor.

Hind professori S.N. Pande bu tog' nomi qadimda Hindukush bo'lganligini, nom tarkibidagi *kush* so'zi *"suvayirg'ich tog'"* ma'nosini bildirishini yozgan (H. Hasanov. Yer tili. – T., 1977).

Nomlar tarkibidagi *kash/kish/kesh* so'zi *tog', balandlik* ma'nosini anglatgan. **Dotqush** nomi ham qadimda *Dodkash/Dotkash/Dotkesh* tarzida bo'lganligi taxmin qilinadi. *Kash/kish/kesh/kush/qush* so'zi *tog', balandlik* ma'nosini bildirgan. **Dot** so'zining tarkibi o'zgargan, ma'nosi noaniq. *Deh, dej, diz (qo'rg'on, qishloq)* so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin.

DOVDON – irmoq. Amudaryoning quyi qismidagi qadimgi irmoqlar. **Dev (div)** – *"iblis mavjudot"* va forscha *don* – *"joylashish"* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Devdon – *"devlarning kelish joyi"* ma'nosini anglatadi. Qadimdan mavjudligi sababli Amudaryo va Vaxshlar suv ma'budasi (farishtalar)ning tug'ilgan joyi hisoblangan, daryoning irmoqlari esa **Devdon** deb nomlangan (Н.Г. Маллицкий. О некоторых географических терминах, имеющих отношение к Средней Азии. Изв. ВГО №5, 1945. С. 283).

DOVON – Jizzax viloyatidagi (mo'-g'ulcha daban) – tog'ning oshib o'tish qulay bo'lgan joyi. Sh.Rahmatullayev *dovon* lug'aviy birligini turkiy leksika sirasiga kiritadi va unga quyidagicha etimologik izoh beradi: "... bu ot eski o'zbek tilida *"tog'dan oshib o't"* ma'nosini anglatgan *daba-* fe'lidan *-n* qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *daba + - n = daban > davan*".

O'zbek tilida *dovon* so'zi *"tog' va tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi"* ma'nosida qo'llanadi.

O'zbek tilida va uning shevalarida *oshuv* termini *dovonning* sinonimi sifatida ishlatiladi. Qashqadaryo viloyati shevalarida *oshuv* lug'aviy birligi *"ko'ndalang cho'zilgan qirsimon va oshib o'tish mumkin bo'lgan balandlik"* ma'nosida uchraydi.

Tarixiy manbalarda uchraydigan *art, aqba, bel, ko'tal* terminlari ham *dovon* terminining sinonimlaridir. Dovonlar orqali ko'pincha yo'llar o'tkaziladi. Masalan, *Taxtaqoracha dovoni, Murunak dovoni* (Urgut t.), *Qoraguzar dovoni, Taxtaisa dovoni* (Nurobod t.), *Taqilon dovoni* (Qo'shrabot t.) kabi.

Izohli lug'atda *bel* so'zi *"tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi"* deb izohlangan.

Aqba, aqaba (arabcha *aqaba* – dovon, tog' yo'li, ko'pligi *aqabot*) – O'rta Osiyoda tarqalgan geografik termin. IX–X asrlardagi geograflarning asarlarida ko'p uchraydi.

Hozirda bu termin, asosan, tarixiy geografik nomlar tarkibida saqlanib

qolgan. Turkiston, Zarafshon tizmalarida va Pomir tog'larida *aqba* so'zi lug'aviy asos bo'lgan o'nlab dovon nomlari uchraydi: *Aqbaboshi, Aqbavodimiy, Aqbayi Obburdan, Aqbayi Gishxun, Choshi aqba* va h.

Bu termin *axba, ag'ba, ovg'a* fonetik variantlarida O'zbekistonning bir qancha joylarida turli xil ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, Samarqand, Jizzax viloyatlarining ba'zi tumanlarida dovonga chiqiladigan tik yo'lni *ovg'a* deyishadi. Masalan, *Ovg'a* (Qo'shrabot t.).

Gazako'tal, Ko'talgaza, Ayriko'tal, Qiyako'tal, Ko'talqiya, Chag'ilko'tal degan oronimlar mavjud. Eski o'zbek tilida *ko'tal* so'zi "past dovon" ma'nosiga ega bo'lgan: *"Tangi va uchma yo'llarda tund va tez ko'tallarda qalin ot va teva qoldi. Uch-to'rt ora qo'nub, Sira tog' ko'taliga yettuk, ko'tal va ne nav' ko'tal, hargiz mundoq baland va tang ko'tal ko'rungan emas"*. "Boburnoma"-da *ulug' ko'tal* (289), *kichik ko'tal* (189), *uch ko'tal* (188), *tez ko'tal* (138), *ozroqcha ko'tal* (189), *o'zga ko'tal* (202) kabi geografik terminlar va *Oqko'tal* (127), *Choshliko'tal* (290), *Anbahor ko'tali* (287), *Xupiyon / Xubyon ko'tali* (182), *Gunbozak ko'tali* (247), *Shibartu ko'tali* (189), *Javak ko'tali* (188), *Porandiy ko'tali* (188), *Hindukush ko'tali* (202), *Botkich ko'tali* (191), *Qora ko'ba ko'tali* (287), *Sanglaki ko'tali* (289), *Haftabacha ko'tali* (188), *Bozorak ko'tali* (188), *Bodom chashma ko'tali* (190), *Qipchoq ko'tali* (188) kabi oronimlar kuzatiladi.

Tahlildan shu narsa ma'lumki, *ko'tal* so'zi – tarixiy geografik termin, u tog'li hududdagi oroobyektlarning bir turi ma'nosiga ega. Ko'tal termini yordamida o'zbek tili o'tmishida ikki tur oronimlar yuzaga kelgan:

1. Obyekt belgisini bildiruvchi *so'z + ko'tal* indikatori: *Oqko'tal.* Hozirgi o'zbek oronimiyasida ham, asosan, shu oronimik voqelanish saqlanib qolingan.

2. *Tayyor toponim + III shaxs -i qo'shimchasi ko'tal* termini: *Shibartu ko'tali* (189). Bu holat ham Urgut, Qo'shrabot, Nurobod tumanlari mikrotoponimiyasida mavjud: *Oqsoy ko'tali, Jom ko'tali, Anjirli ko'tali* (Nurobod t.). Jom, Anjirli, Oqsoy – qishloq nomlari. Ko'tal obyekti shu qishloqlarning yuqori qismida bo'lgani sababli qishloq nomi bilan atalgan.

Prof. Sh.Qurbonov bir guruh orografik obyektlarni bildiradigan geografik terminlar metafora yo'li bilan yuzaga kelganligini va ular tilda inson uzvlari nomini bildirishi, geografiyada esa oroobyektlar turini anglatishi, ana shu so'nggi ma'nolar asosida toponimlar, jumladan, oronimlar hosil qilinganligini ko'rsatgan: *bosh (Tegirmonboshi, Boshbuloq), bel (Beldovtepa, Chambil, Kattabel), bo'yin (Tuyabo'yin, Bo'ynoq, Mo'ynoq), oyoq/adoq (Adoqqishloq), qo'l/qul (To'raqul, Kengko'l), bo'y (Soybo'yi, Ariqbo'yi), burun (Uchburun, Toshburun), shox (Yetimshox), tumshuq (O'rtatumshuq), panja (Beshpanja), sar (Sarbozor, Saribozor), chashm/chashma (Chashma, Sarchashma), uch/ucha (Uchquduq), emchak (Qizemchak), ozig' (Og'zikeng)*

kabi (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

DOVUD – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlari sanaladi.

Mahalliy xalq afsonalariga ko'ra bu yerda Dovut dafn etilgan emish. Shu sababli bu joy Dovud deb atalgan. Balki, David ("chiroyli") ismi – qadimgi yahudiy shohi David, musulmon payg'ambari sifatida Bibliya orqali Qur'on kitobiga kirgan.

Prof. Z.Do'simovning fikrlariga ko'ra, haqiqatan ham Dovud tarixiy shaxs bo'lib, eramizdan avvalgi X asrda Isroil va Iudeyani birlashtirib, yahudiy davlatini tuzgan. Keyinchalik uning o'g'li Sulaymon hukmronlik qilgan. U ilmiy, diniy manbalarda payg'ambar sifatida talqin qilinadi. Shu rivoyatlarga asoslanib, ruhoniylar ko'pgina joylarda ularning "mozori"ni vujudga keltirgan. Shu tariqa Xorazmda ham Dovudning qabri paydo bo'lgan va shu hudud Dovud deb atalgan (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 53-bet).

Buxoro viloyati Jondor tumanida Dovut nomli qishloq bo'lib, aholisi turli xil pichoqlar tayyorlash bilan shug'ullanadi.

DOVUL – qishloq. Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nomning *"kuchli bo'ron"* ma'nosini ifodalovchi *dovul* so'ziga bog'liqligi yo'q. Nom dastlab *tovul* tarzda bo'lgan: keyinchalik so'z boshida *t* jarangsiz undoshining jaranglilashib *d* ga o'tishi natijasida ***Dovul*** shakliga kelib qolgan. *Tovul* aslida Farg'ona vodiysidagi qipchoq urug'laridan birining nomidir. Qishloqning nomlanishiga mana shu etnik guruh nomi asos bo'lgan[1].

Demak, nom *"dovullar yashaydigan aholi manzili"* degan ma'noni anglatadi.

Shunday nomdagi qishloqlar nomlari Jizzax viloyatining G'allaorol tumanlarida ham mavjud.

DOVQARA – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududida joylashgan aholi punktining nomi. Taxtako'pir tumani hududi ilgari *"Dovqara yerlari"* deb atalgan katta aholi yashash punkti bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlarda bu yerda *Dovqara ko'li*, bir manbalarda *Dovqara botig'i* shaklida uchraydi. Sababi, bu yerlarda suv toshqini ko'p takrorlanadigan bo'lgan. Shu sababli ham birida quruqlik, birida esa ko'l tagi bo'lib turgan. Dovqara kishi ismi bo'lib, Y.Gulyamovda *Tavqara* shaklida uchraydi, aslida esa, *Dovqara* bo'lishi kerak.

Xalq rivoyatlarida Dovqara Chimboyning bolasi degani aytiladi. Bu haqida quyidagicha rivoyatlar bor: "Chimboy juda katta boy kishi bo'lgan, mollarini sig'dira olmay katta o'g'li Dovqarani o'tovga yaylovga chiqarar ekan. Dovqaraning ham keyin boyligi ortib, xalq orasida nomi chiqqan

[1] N.Oxunov. Joy nomlari ta'biri. –Toshkent: O'zbekiston, 1994.–B.17.

boy bo'lgan", deyishadi. Mazkur nom *tog'* so'zining *tov, dov* ko'rinishidagi dialektal varianti hamda *qoratov* ma'nosini ham anglatishi mumkin.

DRDUARIQ – tarmoq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Ipakli qishlog'i yonida Qozonariq arig'idan chiqarilgan tarmoq. Uning yonidagi yana bir tarmoq Qo'ng'irotariq deb ataladi. *Drdu* yoki *durduv* nomi bilan ataluvchi bu ariq qo'shni Cho'michli qishlog'i yerlarini sug'oradi.

Rashididdinning "Jome at-tavorix" asarida O'g'uzxonning nabiralaridan biri Oyxon haqida gapirar ekan, uning o'g'li Dordirg'a ismini ham tilga oladi. Muallif *"dordirg'a"* so'zi *"hokimiyatni egallovchi va qonunlarni amalga oshiruvchi"* ma'nosida ekanligini ta'kidlagan. Rashididdinning asarida qayd qilingan bu ma'lumotlar boshqa kitoblarda ham uchraydi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi 22 o'g'uz qabilalari haqidagi ma'lumotda "Tutirqa" nomi ham keltirilgan.

Xuddi shunday fikr Abulg'ozi Bahodirxonning (XVII asr) "Shajarai tarokima" asarida ham bor. Muallif o'g'uz qabilalarini sanar ekan, ularning etimologiyasi haqida ham to'xtaladi va "Dudurg'aning ma'nosi yurt olmoqni va ani saqlamoqni bilgichi temak bo'lur", – deb yozadi.

Yuqoridagi barcha fikrlar bitta, ya'ni Drdu qabilasi haqidadir. Tutirqa, dordirg'a, dudurg'a bitta so'zning turlicha fonetik variantlaridir. So'zning ma'nosi *"Tutmoq, tutib turmoq"* bo'lib, aftidan, Turk xoqonliklari davridagi *"Tutuq, tudun"* unvonlari ham ushbu ma'no bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Urgut tumanidagi Mirzaqishloq qishlog'ida istiqomat qiluvchi bir guruh oila o'zlarini "drduv to'p"ga tegishli deb biladilar, ammo o'zlaridan 2-3 km uzoqlikdagi *Drduariq* haqida hech narsa bilmaydilar.

Demak, ushbu fakt o'g'uz qabilalaridan bo'lgan durduv (drdu, dudurg'a)larning o'zbek xalqi tarkibida etnografik guruh sifatida saqlanib qolganligini ko'rsatadi (dala materiallarida Dodurg'alar guklan turkmanlarning to'rt urug'idan biri sifatida tilga olinadi).

DRIN – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Professor B.O'rinboyev ushbu toponimni *"Diring", "dirang"* shakllarida yozadi va mazkur so'z tojikcha bo'lib, *"sustlik, o'rtaga tushmoq, harakatsizlik, doimiy sukunat, ustuvorlik, vaqt, zamon, soat"* ma'nolariga ega, deb qayd qiladi (O'rinboyev, 2003).

DUKARCHILA – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi hudud nomi. ***Dukarchyla*** – toponim.

Ma'lumki, tillarning genetik qarindoshligini aniqlashdagi mezonlardan biri sifatida son va olmosh turkumidagi so'zlar hisoblanadi. Chunki genetikasi turlicha bo'lgan tillar yaqin munosabatda bo'lganda ham son va olmosh leksik sofligini saqlab qolishi ko'p kuzatilgan. Masalan, o'zbek tilida ham yigirma uchta ko'p qo'llanadigan sonning yigirma bittasi asl tur-

kiy. Xorazmiy tilida *iv* – bir, *zu* ("z" tish ora tovush) – ikki, *shi* - uch, *sid* - yuz, *uksid* – olti yuz, *hazor* - ming va hokazo[1]. Shu o'rinda keksalar nutqidagi "hazor shukur" iborasidagi "hazor"ni tojik yoki fors tili o'zlashmasi deyish noto'g'ridir.

Bundan tashqari, *zu (du)* – 2 soni bilan bog'liq *dukard* دوکارد (qaychi) so'zini bemalol qadimgi Xorazmiy so'zi sifatida sharhlash mumkin. To'g'ri, *dukard* hozirgi fors, tojik tilida ham bor. Lekin bu so'z bevosita o'zlashgan deyishga asos bo'lmaydi. Til ora "z" (inglizcha th) keyinchalik til oldi "d"ga o'tgan. Misol uchun Xorazmiy tilidagi *zast* fors tilida *dast* (qo'l)[2]. Bu hodisa turkiy tillarda ham borligi ma'lum. *Kard* کارد komponenti esa umumeroniy so'z – "Avesto"da *kareta* (pichoq), kurdcha *kird,* baluj tilida *karja, karj* kabi shakllarda uchrasa, sanskrit tilida *kard* ko'rinishiga ega[3].

Shuningdek, *dukard* دوکارد so'zining hudud shevalaridagi va fors tilidagi ma'nolari o'rtasida farq bor. Bizning shevada bu so'z *qaychi* so'zi bilan sinonim tarzda qo'llanadi. Forslar ham *qaychi*ni قَیچی tarzida ishlatadilar. دوکارد draku D esa fors tilida qo'y qirqadigan qaychini anglatadi[4]. Obyekt hududda keng tarqalgan agronimlar tarkibidagi *karta* indikatorining ayni shu so'z bog'liqligiga shubha yo'q. Bu holatda *karta* "kesib olingan yer", "ma'lum bir chegaraga ega yer" kabi ma'nolarni anglatadi[4]. Kartani arabcha *iqto', qit'a* so'zlari anglatgan ma'nolariga qiyoslash ham bu fikrni dalillaydi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

DUKTAROSH – qishloq. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. **Duk** – *yo'nuvchi, tarashlamoq* ma'nosida bo'lib, **Duktarosh** – *duk ishlab chiqaruvchi, temir yo'nuvchilar qishlog'i* ma'nosini ifodalaydi.

DUKCHILAR – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro va Vobkent tumanlaridagi qishloqlar nomi. Toponimga asos bo'lgan *duk* so'zi *charxning ip o'ralib boradigan qismi*ni bildiradi. *Dukchi – duk yasovchi usta.* Toponim tarkibidagi*lar* qo'shimchasi ko'plikni bildiradi. Demak, **Dukchilar** – *"duk yasovchi ustalar yashaydigan joy"* ma'nosini anglatadi.

DUKCHILIK – qishloq. Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloq nomi. **Duk** – *yo'nuvchi* ma'nosini ifodalab, dukchilik esa quyidagi ma'nolarda ekanligi qayd etiladi: *1) temir yo'nuvchi usta; 2) tayyorlangan mahsulotlar sotiladigan bozor qatori.* Matolardan qo'l san'atlari ishlab chiqarilishida yo'nuvchi kasbi Markaziy Osiyoda juda keng tarqalgan edi. Barcha shaharlarning bozorlari va ba'zi bir yirik qishloqlarida tayyor mahsulotlar sotadigan rastalar shunday atalgan.

---

[1] Фрейман А.А. Хорезмский язык. –М, 1951. – С. 12.

[2] Фрейман А.А. Хорезмский язык. –М, 1951. – С. 46.

[3] Shamsiddin bin Xalaf Tabriziy. Burxone qote'. – Tehron: Amiri kabir, 1375. – S. 1009.

[4] Персидско-русский словарь. –М:, Русский язык, 1983. – С. 681.

DULDUL – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. *Duldul* – Muhammad payg'ambarning sherigi, xalifa Alining afsonaviy nomi. Markaziy Osiyoda ko'plab joylar Ali va uning otining nomi bilan bog'liq. Darhaqiqat, bu iymon uchun kurashuvchi Movarounnahrda umuman bo'lmagan.

DULOB – aholi punkti. Buxoro vohasidagi bir qancha aholi punktlari va joylarning nomi. *Dulob – suvni baland joylarga ko'tarish vositasi* hisoblanadi (В.В.Бартольд. Сочинения. Т. III. С. 117).

DUOB – qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. Forscha *du – ikki, ob – oqar suv, jilg'a yoki daryoning irmog'i* ma'nolarini ifodalaydi. **Duob** – *ikki jilg'a, qishloq shu ikki jilg'a qo'shilgan joyda* joylashgan. **Duoba** degan qishloq ham bo'lib, u ikki suv (daryo, jilg'a, suv) ning dara ichidan oqib kelib, yoyiq maydonchada tutashgan joydagi qishloq shunday atalgan.

Shahrisabz va Boysun tumanlaridagi *Dug'oba* qishloqlari ham aynan shu ma'noda qayd etiladi.

Markaziy Osiyodagi ikkita sayoz daryolarning tutashgan joyi **Duoba, Dug'oba, Duvava** deb nomlanadi.

DUOBASOY – soy, To'polondaryoning irmog'i. (Surxondaryo daryosi havzasi), **Duobasoy** – *"Ikki suvning quyilishidan hosil bo'lgan soy"* ma'nosini anglatadi.

DURGADIK – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi eng qadimiy qishloq va mahalla nomlaridan biridir. Qishloq Polvon-G'azovot kanali o'rtasida joylashgan. Qadimda bu qishloqning atrofi chorbog' bilan o'rab olingan qal'a bo'lgan. Unda ma'dan, ro'mol va olacha kabi ipak matolar to'qiydigan ajoyib hunarmand kosiblar yashagan.

Xalq rivoyatlarida *Durvadik* yoki *Durg'adik* so'zining ma'nosi *"durlar, durdonalar vodiysi", "dur, durdona, qimmatli, qimmatbaho"* bo'lib, ikki kanalning *"Torayib, kichrayib, oqqan joyi "dadik"* deb nomlanib, shundan *Durgadik* termini paydo bo'lgan.

DUVLAT – qishloq. Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Duvlat (qirg'iz tilida – duulat) – qirg'izlarning Manaq urug'i kichik qabilasining nomi (bu qabilaning avlodlari u yerda yashaydi). Dulat – qozoqlar orasida katta urug' va qabila birlashmasi. Dulat, Duvlat, Dug'lat qabilasi boshqirdlar, o'zbeklar va boshqa turkiy xalqlarning qabilaviy bo'linmalarida ham uchraydi.

DUXCHI – qishloq. Samarqand viloyati Samarqand hamda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanlaridagi qishloqlar nomi.

Joy nomining kelib chiqishi haqida ikkita taxmin mavjud:

1. Toponim ikkita ma'noli qismdan iborat: *tug' > tug > tux+chi > tuxchi > duxchi > Duxchi.*

2. *"Bayroq"* so'zi turkiy tillarda *to' // tug* so'zi bilan ataladi. *To' // tug* so'zi fonetik o'zgarishlarga uchrab, *t > d, g > x* o'zgarishlari natijasida dux so'zi paydo bo'lgan: *tug' > dug > dux.* Unga *-chi* qo'shimchasi qo'shilib, *bay-*

roqdor ma'nosidagi *duxchi* so'zi yuzaga kelgan: *dux+chi > duxchi.* Ushbu so'z toponimning etimoni. Unda fonetik tamoyil amal qilgan. Hosil bo'lgan *duxchi* so'zi etnonimlashuv hodisasi natijasida apellyativ leksikadan onomastik leksikaga o'tib, etnonimning nomini bildiradi: *duxchi > duxchi.* So'ngra bu etnonim onomastik konversiya tufayli toponimga ko'chgan: *duxchi > Duxchi.* Uning etimoni esa bayroqdor ma'nosidagi *tuxchi* so'zi.

3. Bu toponim bir ma'noli qismdan iborat: *tuxsi.* T.Nafasov uni *tuxsi* etnonimining fonetik o'zgarishga uchragan ko'rinishi, deb ko'rsatgan: *tuxsi > tuxchi > tuqchi > duxchi // duqchi.* Bunda ***s*** undoshi ***ch*** undoshiga o'tgan: ***s > ch.*** So'ngra onomastik konversiya jarayonida etnonim toponimik leksika sathiga ko'chib, joy nomini hosil qilgan: *Duxchi > Duxchi.* Uning etimoni *tuxsi* etnonimi hisoblanadi. Ushbu toponimning shakllanishiga etimon asos bo'lgani uchun etnotoponim hisoblanib, *bayroqdorlar va duxchi qabilasi vakillari yashaydigan joy,* degan ma'noni ifodalaydi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, ikkala taxmin ham bir-birini to'ldiradi. Duxchi toponimiga qachon duch kelsak, ozodlik hamda mustaqillik uchun kurashchilardan biri bo'lgan Dukchi eshon qo'zg'oloni esga tushaveradi.

DUYUM – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Naymansay urug'ining bo'linmalaridan biri *duyum* deb nomlangan (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков верхней Кашкадарьи // В книге "Этнографические культуры и быта узбекского народа". – Т., 1972).

DUSHOHASOY – soy. Navoiy viloyatining Konimex tumani. Forscha **Dushoha** – *"ikkiga bo'lingan", "ikkita shoxli" (irmoqlari bilan)* ma'nolarini anglatadi.

DO'LANA – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur *"**do'lana**"* mikroponimi o'simlik nomi (fitonim) bo'lib, uning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"atirgullilar oilasiga mansub, ko'pincha tog'li joylarda yovvoyi holda o'sadigan, sariq yoki qizg'ish, dumaloq mevali daraxt va uning yeyishli mevasi"* degan ma'noni bildirishi qayd etilgan [O'TIL. 5, 1, 673].

Shunga asosan, ushbu fitotoponimni *"do'lana ko'p o'sadigan hudud atrofida joylashgan qishloq"* deb izohlash mumkin.

DO'LANA BULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti "ma'nodoshlarga mansub, ko'pincha tog'li joylarda yovvoyi holda o'sadigan, sariq yoki qizg'ish, dumaloq mevali daraxt va uning yeyishli mevasi" [O'TIL. 1, 673].

Geografik termin sanalgan *"**buloq**"* so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* [O'TIL. 1, 371].

Yonida do'lana daraxti mavjud bo'lgan chashmani anglatgani uchun ham ***Do'lana buloq*** nomini olgan.

DO'LANAQISHLOQ – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. Do'lana mevali o'simlik nomi bo'lib, **Do'lanaqishloq** – *"ko'p do'lana o'sadigan qishloq"* ma'nosida ekanligi qayd etiladi.

DO'LTA – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Do'lta yoki do'lta bo'ri adabiy tilda sirtlon deb ataladigan hayvon. Do'lta qishlog'i nomi elliptik, ya'ni qisqargan nomdir. Chunki hayvon, o'simlik nomi toponimga aylanganda unga biron qo'shimcha (chunonchi *-li, -lik, -xona*) yoki biron aniqlovchi (chunonchi *soy, qishloq* kabilar) qo'shilishi kerak (Qorayev, 1970).

Nayman urug'ining bir tarmog'i Do'ltanayman deb yuritiladi. Do'lta totem bo'lishi ham mumkin.

DO'LTALI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor, Qamashi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Dehqonobod tumanlari va Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Do'ltaxona nomli joylar mavjud.

T.Nafasovning so'zlariga ko'ra, relyef turlarini bildiruvchi terminlar xon komponenti bilan toponim hosil qilmaydi: bunday terminlarga *-li* affiksi yoki qirq va ming soni, odatda, "son-sanoqsiz" qo'shilishi mumkin: masalan, *Mingchuqur, Mingtepa, Qirqquduq, Qirqo'zak* va boshqalar.

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, *do'lta – yirtqich hayvon* nomi – uning adabiycha nomi – *sirtlon*; xona komponenti esa *"uy", "xona", "mo'l-ko'llik yoki yashash joyi"* ma'nosida toponimlarni hosil qiladi: **Bo'rixona** – *"bo'rilar yashaydigan joy"*, **Qulonxona** – *"ko'plab qulonlar yashaydigan joy"*. O'zbekistonning janubida, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida tog'lar, qishloqlar, quduqlar bor: **Do'lta, Do'ltali, Do'ltalik**. Ushbu toponimlarning barchasida yoqimsiz tungi yirtqich hayvonining nomi – do'lta aks etgan.

DO'LTI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oykonim bir o'zakli mikrooykonim hisoblanib, mazkur o'rinda a tovushi i ga o'zgargan.

Ushbu **Do'lta** nomi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "yumoloqqina, lo'ppi, do'mboq" tarzida izohlanadi [O'TIL. 1, 680]. Odamning tashqi ko'rinishiga nisbat bergan mikrooykonim sifatida qaralgani uchun shunday nom olgan.

DO'MBIROBOD – mahalla. Toshkent shahridagi ko'cha va mahalla nomi. Qariyalarning gaplariga qaraganda bu yerda Mirsoat do'mbira degan qassob o'tgan. Qorni do'mbiradek katta bo'lganidan shunday laqab olgan. Bizningcha, bu munozarali, mahallada yoshi ulug' oqsoqollarning ta'riflashicha, aslida, shu hududda do'mbirachilar istiqomat qilishgan, aynan, shularning sa'y-harakatlari natijasida hudud bosqichma-bosqich gullab-yashnab borgan va keyinchalik shu yer Do'mbirobod nomi bilan atalgan.

DO'NARTEPA – qishloq. Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi qishloq nomi. Oykonim ***do'n, -moq, -ar, tepa*** morfemalaridan tarkib topgan bo'lib, unga *qiya tepalik, balandlab boruvchi tepalik* ma'nolarini anglatuvchi *do'nar tepa* birikmasi eti-

mon bo'lgan. Qishloq shunday tepalikda joylashganligiga ko'ra ***Do'nartepa*** deb atalgan.

DO'NGARIQ – qishloq va mahalla. Siradaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomlari. Mazkur ***Do'ngariq*** toponimi do'ng va ariq so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: *do'nglik – do'ppaygan, qappaygan, bo'rtiq. Yerning qavariq bo'lib chiqqan joyilari, do'ng yer, tepalik* (O'TIL. I, 675).

Shunday ekan, ushbu ***Do'ngariq*** toponimi – do'nglikdan, tepalikdan kesib o'tgan ariq kabi ma'noni anglatadi.

DO'NGIZLI – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadimiy hudud nomi. ***Do'ngizli*** nomi ham zootoponimlarga mansub joy nomlaridan biridir. Unga asos bo'lgan so'z turkiy tillarning ko'pchiligida ishlatiladi. Masalan, ozarbayjon tilida *donuz*, gagauz, turk tillarida *domuz*, qozoqcha *doңiz*, qoraqalpoq, turkman tillarida *doңuz*, tatar tilida *duңiz*, uyg'ur tilida *toңuz* shakllariga ega[1]. Lekin ushbu nom bilan atalgan jonivorlarni bir-biridan farqlash lozim. Chunki Janubiy Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida *doңiz// doңg'iz* so'zi cho'chqanigina emas, yovvoyi cho'chqani ham ifodalaydi. Sababi xalqimizning diniy e'tiqodidan kelib chiqqan holda keyingi 1000–1500-yil davomida uyda cho'chqa boqilmagan. Shuning uchun *doңiz* deganda ovlanadigan, go'shti yeyiladigan boshqa bir jonivor tushunilishi kerak. Bu jonivor, ayniqsa, yaralangan holda ovchilar uchun xavfli ekani, uni bir o'q bilan yiqitish lozimligi sababli xalqimiz orasida natijasi muhim bo'lgan tavakkal ma'nosini ifodalovchi "doңiza bir oq" iborasi shakllangan.

Muchal hisobidagi yillarning biri ham *doңiz* bo'lib, xalqimiz orasida bu muchal evfemik formada *qara kiyik* nomi bilan yuritiladi.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ushbu jonivor nomini ham qayd etadi: "Va yana biri sho'ru shaynlig' ovki, to'ng'uz ovidur, aning ham erkagini "qobon", tishisin "megajin" va ushog'in "cho'rpa" derlar"[2]. O'tgan asrning yetmishinchi yillarigacha hududda to'ng'iz ovlangan va o'sha ovchilardan hozirgi kunda hayotlari kam.

Demak, ushbu zootoponim hudud hayvonot olami haqida ma'lum tasavvurlar beradi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

DO'NKILLAK – qir. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qir nomi. Mazkur nom, aslida, oronim hisoblanib, "do'ng yer, tepalik" ma'nosida qo'llanuvchi do'ngalak so'zining buzib talaffuz qilish hosilasi, aniqrog'i, mahalliy, dialektal variantidir.

---

[1] Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. –М.:Издательство АН СССР, 1967. –С. 125.

[2] Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. O'n birinchi tom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1967. – B. 115.

DO'NGQISHLOQ – qishloq. Andijon viloyatining Andijon, Xo'jaobod tumanlari, Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloqlar nomi. **Do'ngqishloq** – *"tepalikdagi qishloq"* ma'nosini anglatadi.

DO'NGSAROY – qishloq. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. *Do'ng – tepalik* ma'nosini ifodalasa, *saroy* – bu o'zbek qabilasining nomidir. Demak, tepalikda mazkur saroy qabilasi vakillari yashaganligi uchun qishloq shunday nomlangan.

DO'RMAN – mahalla. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomi. Mamlakatdagi ko'p sonli aholi punktlari nomi. U aslida etnonim bo'lib, prof. Z.Do'simovning ta'kidlashicha, "Zarafshon vohasi, Xorazm, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida va Tojikistonda hamda Shimoliy Afg'onistonda istiqomat qiluvchi o'zbek qabilalaridan biri. Ular XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan ko'chib kelishgan va ular yashagan qishloqlar **Do'rmon**, **Do'rmoncha** deb atalgan. **Do'rman** – mo'g'ulcha *"do'rba"* so'zidan olingan bo'lib, *to'rt* degan ma'noni anglatadi" (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 55-bet).

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Bog'dod tumanlaridagi qishloqlar nomi bo'lib, u XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbek qabilalaridan biri ekanligi qayd etiladi.

Bundan tashqari, Do'rmanlar Zarafshon vodiysi, Surxondaryo va Toshkent vohalarida yashagan. Do'rmon qabilasining *Qo'yli, Uvoq, Uch rug', Ko'kchelak, Sakson, No'g'oy, Gurdak, Oytamg'ali* kabi urug'lari bo'lgan. Bu qishloqlar nomi *Do'rman* va *Do'rmon* shakllarida talaffuz qilinadi.

Shu bilan birgalikda, Samarqand viloyatining Narpay, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo tumanlaridagi qishloqlar nomi ham shunday atalganini uchratish mumkin. Rashididdin Fazlullohning "Jomi at-tavorix" kitobida (XIV asr) do'rmonlar (baarin) qabilasi bilan yaqinligini qayd qilib, ikkalasi bir o'zakdan kelib chiqqan, deydi. U "Jomi at-tavorix" kitobini yozishda 1286-yili Xitoydan Eronga kelgan Po'lod Chjen-syan (ushbu amir Do'rmon urug'idan bo'lgan)ning hikoyalaridan keng foydalangan.

Do'rmonlar Chingizxon hokimiyat uchun kurash boshlagan yillarida unga qarshi turgan qabilalardan biri bo'lgan (24:84). Abulg'ozining aytishicha, do'rmonlar mo'g'ullarning Bichinkayon nomli podshosining to'rtta o'g'lidan tarqalgan. Bichinkayon vafoti oldidan kichik o'g'lini to'ra, ya'ni podsho qilib tayinlashlarini vasiyat qilib, ko'z yumadi. Ota vasiyatiga amal qilgan xalq kichik o'g'ilni xon qilib ko'taradi. Ammo to'rtta aka norozi bo'lishib, bizlardan qaysi birimizni xon qilib ko'tarsalaringiz rozimiz, ammo ukamizning xonligini tan olmaymiz, deb xalqqa murojaat qiladilar. Xalq esa bu to'rtta aka-ukalarning so'zlarini qabul qilmaydi. Natijada ular begona yurtga ko'chib ketishadi va bu elda aka-ukalarga *"do'rmon"* deb nom qo'yishadi, chunki mo'g'ullar to'rtni *"do'rmon"* deydilar.

Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarida yozilishicha,

to'rtta yosh yigit boshqa viloyatga borib yashash uchun daryodan o'tib istiqomat qilganlar. Mo'g'ullar to'rtni *"do'rmon"* deydilar. Ana shu to'rt yigitdan tarqalgan odamlarni *do'rmonlar* deb atay boshlaganlar.

Har ikkala rivoyat bir-biriga yaqin bo'lib, xalq orasida Do'rmon qabilasining kelib chiqishi haqidagi afsonalarning umumiyligini ko'rsatadi.

"O'zbek ensiklopediyasi"da do'rmonlar XV–XVI asrlarda Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbek qabilalaridan biridir deyiladi (bu o'rinda ularning mo'g'ul qo'shinlari safida XIII asrdayoq O'rta Osiyo hududida bo'lganlari hisobga olinmagan bo'lsa kerak).

Ularning anchagina qismi Surxondaryoning Bobotog' tog'larining shimoliy yonbag'irlarida, shuningdek, Hisor va Kobadiyon tumanlarida istiqomat qiladilar. Xuddi shu hududda 1924-yilda Do'rmon qabilasiga mansub 7979 kishi bo'lgan. Kobadiyon tumani Shox qishlog'ida istiqomat qiluvchi J.Shomurodovning (1967-yil tug'ilgan) aytishiga ko'ra, bu yerda Do'rmonlarning O'rjaqlar, Xalachilar, Bekto'bi, Navandaki urug'lari yashashadi. Xalaji (xalach, kalach)lar qadimgi turkiy qabilalardan bo'lib, ular Qarluqlar bilan (balki ulardan ham oldinroq) Amudaryoning janubidagi mamlakatlar – Tohariston, Seiston va ularga chegaradosh viloyatlarga taxminan VI asrlarda ko'chib kelib joylashgan. Keyinchalik ular mahalliy xalq tarkibiga singib ketgan. Xalachlar afg'onlarning Gilzoyi qabilasining shakllanishida katta o'rin tutganlar.

Tadqiqotchilar Gilzoyi nomini Xalaj so'zi bilan bog'lab izohlaydilar. Xalajilarning bir qismi Eronda yashab, hozirgi kunga qadar o'z nomlarinigina emas, balki tillarini ham saqlab qolganlar. Ular Ozarbayjonning janubida, shuningdek Shimoliy Afg'onistonda – Rustakda ham yashashadi. Karmishevaning qayd qilishicha, Rustak xalachilari sho'rolar inqilobidan oldin o'zlarining Kobadiyondagi qabiladoshlari bilan bordi-keldi qilishgan. Demak, Do'rmonlar ichida yashayotgan Xalaji urug'i keyinchalik ushbu qabila tarkibiga singib ketgan.

DO'RMONCHA – qishloq. Farg'ona viloyatining Bog'dod tumanidagi qishloq nomi. **Do'rmon** so'zi va unga *-cha* (toponim hosil qiluvchi formant rolidagi erkalash-kichraytish affiksi) qo'shish orqali hosil qilingan. Demak, **Do'rmoncha** – *"kichik do'rmon, ikkinchi do'rmon"* ma'nosini anglatadi.

DO'SKA – qishloq. Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Do'ska – o'zbek qabilasi Qo'ng'irotning Qonjig'ali bo'linmalari urug'i nomlaridan biri sanaladi (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории узбекского народа. С. 92).

DO'STLIK – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman yer yuzasi, asosan, tekislik, qisman qir va adirlardan iborat. O'tgan asrning 70-yillari boshida Jizzax cho'lini o'zlashtirish boshlandi. Sirdaryodan Janubiy Mirzacho'l kanali orqali katta miqdorda suv keltirildi. Sobiq Ittifoqning turli hududlaridan Jizzax cho'lini

o'zlashtirish uchun ko'plab mutaxassislar ko'chib kelishdi.

Bir qator yangi tumanlar, shaharchalar, qishloqlar qurildi. Yangi aholi maskanlariga yangi nomlar berildi. Millati, tili, e'tiqodidan qat'i nazar, barcha mehnatkash xalq bir tan bir jon bo'lib Jizzax cho'lini obod qilish uchun jonbozlik ko'rsatishdi. Turli millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga yangi tashkil etilgan tumanga *Do'stlik* nomi berildi.

Do'stlik so'zi ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Do'stlik millat va xalqlar o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli mamlakatimizning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim.

Do'stlik oykonimi haqiqatdan Mirzacho'l va Jizzax cho'lini o'zlashtirishda qatnashgan saksondan ortiq millat va elat vakillarining hamkorligi sharafiga berilgan nomdir. Nom rasmiy-ma'muriy tarzda berilgan, xalqlarning ittifoqligi, birgalikda xo'jalik yuritishi, do'stligi kabi omillar uning paydo bo'lishida ijtimoiy asos vazifasini bajargan.

Aslida, geografik obyektlarga balandparvoz nomlar qo'yish, chaqiriq yoki shior toponimlarning sonini ko'paytirish, mafkuraviy lof urishning hayotiy siyosat emasligini sho'rolar toponimiyasi ko'rsatdi. Shuning uchun, har qanday joy nomi, jumladan, oykonimlar mustaqillikning muhim ko'rsatkichi, yurt jamoli, xalqning aql-zakovati mahsuli bo'lmog'i kerak. Tuman ma'muriy va madaniy markazi Do'stlik shahri (1970-yildan).

DO'STLIK BOG'I – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Mazkur so'z birikmasi *do'stlik* va *bog'* so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan.

DO'ZANDA – Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oykonim mahalliy tojiklar tomonidan fors-tojikcha kasb otidan hosil bo'lgan. *Do'zanda – igna bilan tikuvchi, mashinachi, poyafzaldo'z* degani[1]. Qishloq aholisi o'tmishda kashta hamda turli kiyim-kechak tikish bilan shug'ullangan, ularga bu hunar nasldan naslga o'tgan. Qishloq ana shu kasb-hunar egalariga nisbat berish asosida shunday nomlangan.

N.Oxunov negadir Do'zanda oykonimini mahalla nomi deb izohlaydi. Shuningdek, nom tojikcha *do'xtan (tikmoq)* fe'lining hozirgi zamon o'zagi hisoblanmish *do'z* so'ziga *-anda* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan, deb ko'rsatadi[2].

Bizningcha, nom haqidagi bunday talqin noto'g'ri. *Do'zanda* oykonimi fors-tojik tilidagi sodda yasama kasb otidan yasalgan. Demak, nom yasama emas, uning lug'aviy asosi yasama, o'zbek tiliga shu shaklda o'zlashgan.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati, 241-bet.

[2] Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B.18.



E

EGARBELITOG' – qoya. Jizzax viloyatining Forish tumani. Mazkur toponim uchta qismdan iborat. *Egar, egarbeli* – o'tiradigan egar va *tog'.*

Sunday ekan, ushbu *Egarbelitog'* toponimi o'tiradigan egar tog'i ma'nosini anglatadi.

EGARTOSH – tosh. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tosh nomi. Qizilqotning gaza deyiladigan joyidagi katta tosh shaklan "ot-ulov ustiga uriladigan va minib o'tirish uchun moslangan abzal"ni anglatuvchi egarga o'xshagani bois shunday atalgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

EGARCHI – mahalla. Toshkent shahri Eskijo'va bozorining Shayxontohur dahasiga tegishli qismida joylashgan qadimiy mahallalardan biri bo'lgan. Egarchilik hunarmandchilikning qadimiy hunar turlaridan biri bo'lib, asosan shaharlarda rivojlangan. O'tmishda egar-jabduq oddiy kustar usulida maxsus do'konlarda tayyorlangan. Mahalla aholisining asosiy qismi egarchilik kasbi bilan shug'ullangan va mahallaning nomi ham shunga asosan atalgan.

EGIZTEPA // EGIZAKTEPA – Samarqand viloyatining Oqdaryo va Urgut tumanlaridagi tepalik nomi. Mazkur oronimlarining morfem tarkibi ikki qismdan: obyektning tabiiy xususiyatlarini bildiruvchi ***egiz//egizak*** va ***tepa*** oronimik indikatoridan iborat.

Oronimning birinchi komponenti ***egiz, egizak*** leksemasi onomastikada ijtimoiy nominativ, ma'noviy va farqlovchi vazifa bajargan.

Egiztepa, Egizaktepa oronimlari turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining qadimiy o'tmishida yuzaga kelgan nomlardan biridir.

Egiz, egizak leksemalarining hozirgi o'zbek tilidagi ma'nolari sirasida geografik termin, ya'ni yer yuzasida tik ko'lami bilan farqlanadigan balandlik, yonma-yon yoki bir-biriga tutash, bir xil tiklikda va hajmdagi balandlik ma'nosi mavjudligi aniqlangan. Biroq geografiyaga oid lug'atlar va boshqa adabiyotlarda bu leksemaning geografik terminlik ma'nosi va vazifasi, oronimlar tarkibida uchrashi,

hosil qilishi, oroobyektning belgisini bildirishi qayd etilmagan.

Etimologik lug'atlarda umumturkiy leksik birlik sifatida turkiy tillarda ***egiz*** leksemasining *egis //yegis // ägïz //yegus //egüs //igiz //ugez// ye:s//iäs* kabi fonetik variantlari mavjudligi qayd etilgan.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, jumladan, qadimgi uyg'ur tili matnlarida, eski o'zbek tili bitiklarida ham bu leksema kuzatiladi.

Bu leksemaning tarqalish areali ancha keng. Qirg'iz, uyg'ur, lobnor, oltoy, qozoq tillarida, ayniqsa, uyg'ur tili dialektlarida ***egiz*** faol lug'aviy birlik sanaladi.

Prof. E.V. Sevortyanning qiyosiy kuzatishlariga ko'ra, ***egiz//egiz*** so'zi ikki qismdan iborat: *eg//eg* yoki *egi// egi* (yuqorilamoq, ko'tarilmoq, yuqoriga chiqmoq) fe'li so'z asosi, *-(a)z* yoki *-(a)r* qo'shimchasi esa fe'l asosidan ot yasagan. Bu – ***egiz//egiz*** so'zining morfema tarkibi haqida bir mulohaza. Turkiy tillarning ilk o'tmishida *-(a/i)z* va *-(a/i)r* qo'shimchalari fe'ldan ot,sifat turkumlariga mansub so'z yasovchi birlik bo'lganligini isbotlovchi misollar mavjud: *ko'z – ko'r; tiz – tir(sak), adir – adiz, qir – qiz/quz, ko'ks – ko'krak.*

Egiz so'zining etimoni va tarkibidagi lisoniy birliklarni aniqlash borasida prof. E.V. Sevortyanning quyidagi fikri oronimlar tarkibidagi ***egiz*** so'zining ma'nosi va vazifasi haqidagi fikrlarga ancha yaqin. U ***egiz//egiz*** so'zini turkiy tillardagi, xususan, eski o'zbek tilidagi ädiz, qadimgi uyg'ur tilidagi *ädis/ädic* qadimgi turkiy yodgorliklardagi *idiz/ädiz* so'zlari bilan bog'liq deb hisoblagan. Bu so'zlarning asosi – *ad/aδ*. Yasovchi *-iz/-uz* qo'shimchasi esa fe'l asosdan ot, sifat yasagan. Ma'nosi – yuksak, ulug'; ko'tarilgan, yuqorilangan; tepalik, tepa, balandlik; ko'tarma qilingan, yuksak qilingan. *Adir* so'zi ham etimologik jihatdan shu etimonga daxldor. Adir so'zining ilk ma'nosi – tepa, tepalik, balandlik. ***Egizak*** leksemasining tarkibi: *egiz+-ak. Egiz* – birlamchi yasalish, ***egizak*** –ikkilamchi yasalish.

Egiz // egiz so'zining qadimiy ma'nosi asosida ***Egiztepa, Egizaktepa*** oronimlarini *baland tepa, yuksak balandlik* deb izohlash mumkin. Shu talqin orografik obyektning tabiiy xususiyatlariga mos. Hozirgi o'zbek tilida ***egiz*** leksemasi (ikkita) *egiz tug'ilgan* ma'nosini anglatadi, tirik mavjudotlarning tug'ilish va tug'ilishidagi miqdoriy holatiga nisbatan ishlatiladi. So'nggi talqinda ***egiz*** so'zining hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi ko'zda tutilgan. ***Egiztepa, Egizaktepa*** oronimlari uzoq o'tmishda yuzaga kelgani sababi **egiz/egiz** so'zini qadimgi turkiy tillardagi ma'nolari bilan izohlash oroobyektning nomlanish tamoyili va motivini to'g'ri, aniq belgilashga asos bo'ladi. Obyektning miqdor belgisi emas, tik ko'lam belgisi nomlanishga asos bo'lgan deyish ilmiy jihatdan asosliroq (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

EGIZQUM – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi joy. Egiz so'zi "*qo'shaloq*"dan tashqari, "*baland, yuksak*" degan ma'nolarni ham bildiradi. *Egizqum – "baland qum tepaligi"* ma'nosini ifodalaydi.

EGRIQO'L – qishloq. Samarqand viloyatining Nurobod tumani. V.L.Vyatkin mazkur qishloq o'tmishda Zarganlik nomi bilan mashhur bo'lganligini yozadi. (Вяткин, Материалы... 1902: 56). Tog'ning yuqori qismidan pastga qarab egri-bugri bo'lib tushgan, qiyshiq qo'l shunday atalgan bo'lishi mumkin. Mazkur qishloq *Uyriqo'l, Uyrig'o'l, Iyriqo'l* deb ham yuritiladi.

Bu shakllar *Egriqo'l* so'zining shevadagi variantlaridir. Chunki tarixiy manbalarda *uyri* yoki *iyri* so'zi uchramaydi. *G'o'l* yoki *g'ul* so'zi eski o'zbek tilida, xususan, "Boburnoma"da tamoman boshqa ma'noda, ya'ni "*harbiy qo'shinning markazi, qo'shin saflanganda uning o'rtasidan joy olgan* asosiy *otryad*" ma'nosida ishlatiladi. Urgut tumanida Eyriqo'lsoy nomli gidronim mavjud.

EHTIROM – mahalla. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mustaqillik yillarida atalgan mazkur nom arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh beriladi: *"yuksak hurmat, izzat-hurmat"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 70-bet).

EKIN-TIKIN – Andijon viloyati. Shaharning sharq tomonidagi sobiq qishloq nomi. Bu yerlar sharqdan g'arbga cho'zilgan adir etaklari bo'lib, etagi Andijonsoyga tutashgan. Shaharliklar bahorda bu tomonlarga ko'chib chiqib yer o'zlashtirar va dehqonchilik qilar edilar. Yillar o'tgach, bu dala joylardan paydo bo'lgan yangi qishloq ham "*Ekin-Tikin*" nomi bilan atalib ketdi. O'lkani Russiya bosib olgach, temir yo'l qishloqning bir qismini oralab o'tgan, hozir uning bir qismi shahar tarkibiga kirgan.

ELLIKQAL'A – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Ma'lumki, Xorazmda shaharni qal'a deyishadi. Mazkur toponim nomlangan paytda ushbu hudud Xorazm viloyati tarkibida bo'lgan. Keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi hududga kiritilgan. Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra, mazkur hududda ellikta qal'a mavjud bo'lganligi uchun ham shunday nomlangan.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy hududlarida mazkur nom bilan atalgan qishloqlar ham mavjud bo'lib, ular ham amalda shunday ma'noni anglatadi.

ELOBOD – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi aholi punkti hamda Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Ushbu Elobod toponimi ***el*** so'ziga o'rin-joy ma'nosidagi ot yasovchi ***-obod*** affiksini qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***el*** so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "*Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umu-*

man, ko'pchilik odam, xaloyiq" kabi ma'nolarda qayd etilgan (O'TIL. V, 29).

Bunday nomdagi toponimlar Buxoro, Xorazm, Surxondaryo kabi viloyatlarda ham uchraydi.

ELTAMG'ALI – qishloq. O'zbeklar ning qurama qabilasining bir urug'ning nomi. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani. *Eltamg'ali* – etnonim.

ELCHI – qishloq va mahalla. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq va mahalla. O'z eli, yurtining ishonchli vakili, ishongan kishiga xabar yetkazuvchi vakil shunday nomlanadi. Mazkur toponimni alohida etimologik tahlil qilish lozim.

EMARI – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur toponim arabcha ***imori*** yoki ***amori*** (ayn harfi bilan) tarzida bo'lib, u *"kajava", "taxtravon"* degan ma'noni bildiradi. Ba'zan amiri – amirga tegishli tarzida ham izohlanadi.

ENAKACHANDIR – qishloq. *Chandir* – o'zbek va turkmanlar tarkibidagi o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi urug'lardan biri. Respublikamizning Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida Chandir nomidagi ko'plab qishloqlar nomlari uchraydi. *Eneke – Chandir urug'i tarmoqlaridan biri* (Ataniyozov, 1980: 348).

ERGANAKLI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq. Erganak (erganakli) – etnonim. *Erganak* so'zi *"katak", "uycha"* ma'nolarini ifodalagan.

ERNAZARQO'RG'ON – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi toponim. Ashtarxoniylar davrida mazkur qishloq *Ortiqmo'ytan* nomi bilan mashhur bo'lgan.

ERONIHO – guzar. Buxoro shahridagi guzar. Daha, asosan, eronliklar bilan to'ldirilgan edi va shundan shu nom kelib chiqqan.

ERSUV – daryo. Ohangaron vodiysidagi bir necha daryolarning nomi (Toshkent va Namangan viloyatlari). Harakatchan va tez oquvchi daryo *Ersuv – "erlar suvi"* deb nomlangan (Н.Г. Маллицкий. О некоторых географических терминах, имеющих отношения к Средней Азии, ИВГО. Т. 77. С. 283).

Ehtimol, bu qadimgi turkiycha kult *yer* va *suv – yer-su* bilan bog'liqdir (Л.П. Потапов. К изучению шаманизма у народов Саяно-Алтайского нагорья. Сб. Филология и история монгольских народов. –М., 1958. С. 322).

ERTOSH – qishloq. Toshkent viloyati Ohangaron tumani. Mahalliy talaffuzi *iyartosh:* dialektal *iyar* (adabiycha – *egar*), *tosh* – egarni eslatadigan tosh, qoya, qoya-egar.

ESABIY – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumani. Mazkur nom aslida shu yerlarga qadimda egalik qilgan beklarning nomidan kelib chiqqan. Esabiy nomi Isabiyning dialektal shakli bo'lsa kerak.

ESAT – qishloq. Qashqadaryo viloyati Yakkabog', Qamashi tumanlari. Naymansaroy urug'i bo'linmalaridan biri *Esat* deb atalgan (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи. С. 14).

ESKI BIRINCH – soy. Samarqand viloyatining Urgut tumani Terak qishlog'idagi soy nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, mazkur soydan topilgan birinch (bronza) buyum soy nomining yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

ESKI JO'VA – mahalla. Toshkent shahri. H.Hasanovning fikriga ko'ra, bu yerda qurol-yarog'lar ombori joylashgan – juva (xususan, **jiba** – *"qurol", "ovchilar qurollari")* va shu yerdan mahallaning nomi ham kelib chiqqan (H.Hasanov, O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T., 1965. 40-bet).

Buxoro xonligida *jibachi – "ovchi"* shu tarmoqdagi to'rtinchi amaldor deb hisoblangan. Tarixiy manbalarda *juba* – bozor maydoni, bozor rastalari (Р.Г.Мукминова. "Вакф-наме". –С. 319) sanalgan. Buxoroda o'rta asrlardan *Jubai baqqolon* – "Baqqollar bozori" bo'lgan (Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1966. S. 21, 51). Eronda esa *Jubai jadid* – "Yangibozor" toponimi mavjud.

ESKIARAB – qishloq. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Bu nomni arab etnonimiga aloqador ekanligi yuqorida ta'kidlangan edi. Toponimikadagi xronologik qonuniyatga ko'ra barcha nomlar eski va yangi nomlarga bo'linadi. Yangi aholi maskanini paydo bo'lishida boshqa maskandan kelgan kishilarning xizmatlari bo'ladi, ular odatda o'z maskanlari nomini *"yangi", "obod"* qo'shimchalari bilan yangi joyga ko'chirib boradilar. Ularning oldingi maskanlariga ko'pincha *"eski"* iborasi qo'shiladi. Masalan, *Eski, Eskishipan, Eskiko'rpa* kabi.

ETIKCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi ***qishloq*** nomi. Etik va shunga o'xshash *"oyoq kiyimlar tikuvchi usta, etikdo'z"* kasb-koriga nisbat etilgan kishi laqabi. Shaxsning laqabi asosida vujudga kelgan oykonim hisoblanadi.

EVALAK – qishloq. Toshkent viloyati Bo'ka, Piskent, O'rta Chirchiq tumanlari. Ayrim olimlarning fikrlariga ko'ra (xususan, filologiya fanlari doktori X.Zaripov) *Evalak* – o'zbek urug'ining nomi.

EZGULIK – mahalla. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Ushbu termin mustaqillikdan keyin atalgan nom bo'lib, unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday ta'rif beriladi: "xayrli, ezgu ish" (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 22-bet).

ESHBO'RABOY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. ***Eshbo'ravoy*** so'zi urug' nom (etnonim)laridan biridir. Qo'ng'irotlarning tortuvli bo'limi bir shoxobchasi eshburaboy deb ataladi [T.Nafasov, 49; Z.Ziyotov, 208]. Shunga ko'ra bu mikrotoponimni "eshbo'raboy urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq", tarzida izohlash mumkin [B.O'rinboyev, 232].

Shu sababli ham mazkur joy nomi etnooykonimlar sirasiga kiradi.

ESHIKOG'ABOSHI – qishloq. Kattaqo'rg'on uyezdi Charxin qishloq jamoasidagi qishloq. Eshikog'aboshi

darvozabonlar boshlig'i hisoblangan. XVII asrda Balxda mazkur amaldor saroydagi quyi amaldorlar qatoriga kiritilgan. Buxoro xonligining so'nggi davrlarida sakkizinchi darajali unvon bo'lgan (Мукимханская история, 252).

ESHIMJIRON – qishloq. Xorazm viloyati Gurlan tumani. Bu toponimning kelib chiqishi haqida turli xil farazlar mavjud. Bulardan biri shuki, bu yerda Eshim degan kishi yashagan bo'lib, u jayron ovlashga qiziqqan. Uni hamma *Eshim jayron* deb atagan.

Mana shu jumlaning talaffuzda buzilishidan *Eshimjiron* atamasi kelib chiqqan.

Professor Z.Do'simov ushbu terminni *yorgan/yorg'an* so'zi bilan bog'liq deb ko'rsatadi: *Eshimjarg'an/ Eshimjaran/ Eshimjiron*. Bizningcha, bu topoantroponim bo'lsa kerak, chunki Eshim nomidagi ***m*** harfi Muhammadning qisqargan shakli bo'lib, aslida ushbu nom Eshmuhammad ismining dialektal variantidir.

ESHIM TO'G'AY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. ***To'qay*** so'zining mahalliy shevada ***to'g'ay*** bo'lib ishlatilishini dala ekspiditsiyasida uchratdik. Ana shunday shaklda Xorazm viloyatida ham qo'llanilishini kuzatdik.

Demak, ***Eshim*** ismli shaxs tomonidan to'qayzorni obodonlashtirish natijasida ushbu hudud mikro-antropooykonimga aylangan. Leksik jihatdan ot+ot strukturasiga ega.

ESHON – qishloq. Farg'ona viloyati. Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. Eshon dindorlar orasida ma'lum obro' qozongan ruhoniy, din peshvosi. Viloyatda *Eshonguzar, Eshonko'cha, Eshon Sayid, Eshonto't, Eshonqishloq, Eshonqo'rg'on, Bandi Eshon* kabi joy nomlari tarkibida *eshon* toponim yasovchi so'z sifatida ishlatilgandir.

ESHONARIQ – ariq. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanining Navkent qishlog'idagi ariq nomi. Mazkur ariq eshonlar va ularning avlod-ajdodlari yashaydigan ko'chadan oqib o'tganligiga ko'ra shunday nomlangan. Gidronim tarkibidagi ***eshon*** termini forscha bo'lib, *"ular"* degan ma'noni anglatadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, ***eshon*** – sufiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni. Odatda, eshonlar darveshlik, sufiylik oqimlarining biriga mansub bo'lgan. Ismoiliylar sektasi dindorlar jamoasining rahbari ham eshon hisoblanadi. Shuningdek, *dindorlar orasida ma'lum obro' qozongan ruhoniy, din kishisi* ma'nosini ham anglatadi. Gidronim tarkibidagi ***eshon*** lug'aviy birligi xuddi shu ma'noda qo'llangan.

ESHONLAR – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi hudud nomi; Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qadimda bu yerda ta'lim beruvchi ilm-u toliblar – *eshonlar* juda ko'p bo'lgan, shu sababli ham qishloq *Eshonlar* deb atalgan. Toponimni hosil qilgan *eshon* so'zi o'tmishda *"din odami", "ruhoniy", "dindorlar orasida katta obro'ga ega bo'lgan shaxs"* ma'nolarini anglatgan.

Toponimning ikkinchi tarkibiy qismi qo'shimchasi esa ko'plikni bildiradi.

Demak, **Eshonlar** – *"dindorlar orasida katta obro'ga ega bo'lgan shaxslar yashaydigan joy"* ma'nosidadir.

ESHONTO'P – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur ***Eshon*** forscha so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"dindorlar orasida ma'lum obro' qozongan ruhoniy, din peshvosi"* ma'nosini ifodalashi qayd etiladi [O'TIL. 5, 66]. "***To'p***" so'zi ham aynan shu lug'atda "to'da" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 241].

Ushbu mikrotoponim ***eshonlar*** sulolasi istiqomat qiladigan maskan yoki ular tomonidan o'zlashtirilgan joyga nisbatan aytiladi. Biz yuqorida keltirilgan ijtimoiy maqomga ishora qilib, aholi yashash joylarini ifodalovchi oykonimlarni **o'zak + topolekse-ma** tuzilishiga ega deb hisoblaymiz, chunki to'p, to'da komponentlari mustaqil ma'noga ega bo'lib toponim hosil qilmoqda.

ECHKILAR – qishloq. Xorazm viloyati Yangiariq tumani. Dashti Qipchoq o'zbeklar tarkibida *Echki* (ehtimol – *ichki*) qabilasi qayd etilgan; bu qabilalar ichidan Shayboniyxon Movarounnahrni bosib olishda qarshilik ko'rsatgan va shundan *echki* kelib chiqqan (А.А. Семенов. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана, – МИТУ, вып. I, ТИИАЭ АН Тадж. ССР, т. XII, 1954. С. 24, 29; Б.А. Ахмедов. Государство кочевых узбеков, – М., 1965. С. 16).

XX asrning boshlarida *echki* nomi Qatag'on qabilalarini birlashtirishda unchalik katta bo'lmagan guruh sifatida saqlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории узбекского народа. С. 105, 246).



FAQIR, FAQIRQISHLOQ – qishloq. Andijon viloyati Xo'jaobod tumani. *Paqir* (og'zaki so'zlashuvda) – *past, kambag'al* (adabiycha – *faqir*), etnonim bo'lishi mumkin; turkmanlarda *Paqir* (shix) urug'i deb qayd etiladi.

FARHOD – Sirdaryo viloyatining Xovos hamda Boyovut tumanlaridagi qishloq va Shirin shahridagi mahalla nomlari. Mazkur toponim Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi bosh qahramon Farhod obraziga nisbatan qo'yilgan joy nomidir.

FARKAT – Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi qishloqning qadimgi nomi. *Far* – qadimgi fors tilida nurni, *kat* qo'shimchasi sug'd tilida *obod joy* – shahar yoki qishloqni bildirishini hisobga olib, *nurafshon qishloq*, deb tarjima qilish mumkin. Lekin qadimshunoslar, Farkat toponimi zardushtlik diniga bog'liq ma'budlardan biri – *Farn* (Farn – ilohiy oliy zot. Baxt, omad ramzi, nurli siymo. Oq qush, oq qo'y, oq ot va boshqa qiyofalarda tasavvur qilingan. Avestocha – Xvarno)ga bag'ishlangan ibodatxona nomidan kelib chiqish ehtimoli ko'proq, deb bilishadi. *Xvarno* so'zi ilk fors tilida *farn*, so'ng *far*, sug'd tilida esa *par* shaklida ishlatilgan. Masalan, *farax* – baxtli hayot (vaxi avestocha – *hayot*).

Tadqiqotchi olim M.Is'hoqov izohlariga ko'ra: *"Farn uzoq ajdodlarimiz tasavvurida din-u diyonatda, imon-u e'tiqodda, ezgulik va adolatda sobit-u mustahkam, haq buyurgan ishlarga o'zligini safarbar etgan, jismi, qalbi, ruhida qabohat va yomonlikni, fikri-zikri, so'zidan aldoq va yovuzlikni, Axriman ("Avesto"da zulmat, yovuzlik yaratuvchi) paydo qilgan noravonlikni sitib chiqargan, pok insonlarga nasib bo'ladigan ilohiy baxt tajallisidir. "Avesto"da aytilishicha, borliqning yaratuvchisi va oliy hakam Axuramazda o'z irodasi bilan Farnga loyiq etgan suyukli bandalari sanoqli bo'lgan. Jumladan, Kayyoniy shohlaridan Qayqubod, Kaykovus, Kaypishin, Kayorish, Siyovushlar ilohiy Farnga sazovor bo'lishgan. Ular Axuramazda suygan bandalar bo'lib, savobli, to'q, farovon qilib yaratilgan o'lkalardagi barcha ezgu insonlarga baxt-iqbol berishlari lozim hisoblangan"* (Авесто. Яшт китоби. Т., Шарқ, 2001., 54-б.).

Farkat nomining Parkat, Parkentga o'zgargan vaqtini aniqlash qo'shimcha

tadqiqot manbalarini talab qiladi. Fors va arab olimlarining sayohatnomalarida Farkat nomi bilan tilga olinishi, arablar istilosi va undan keyingi davrlarda ham mazkur hududning shu nom bilan atalganini bildiradi.

Mo'g'ullar istilosi davrida Farkat vayron bo'lib, 100–150 yillardan so'ng sekin-astalik bilan bu hudud yana qayta tiklangan. O'sha davrlarda ushbu joy Parkent nomi bilan tiklangan bo'lishi mumkin, degan ehtimol ham yo'q emas. "Boburnoma"da bu manzil Farkat deya tilga olingan. Xo'ja Abdulhaq qalamiga mansub, bobosi Xoja Ubaydullo Ahror Valiyning hayot yo'liga bag'ishlangan "Maqomati Xoja Ahror" asarida (XVI asr o'rtalari) Toshkentga qarashli Parkat qishloqlaridan biri Injakent qishlog'i haqida ma'lumot keltirilgan [Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т., Ўқитувчи, 1994., 257-261).

Demak, XVI asr o'rtalaridan boshlab, ya'ni shayboniylar davriga oid (1501–1600) yozma manbalarda Parkat toponimi qayd etila boshlagan.

FAROVON – Sirdaryo viloyatining Sayxunobod va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomlari. Ushbu ***Farovon*** nomi forscha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: "Mo'l, juda ko'p, ortiq, ziyoda" (O'TIL. IV, 330). Demak, mazkur toponim har jihatdan to'la-to'kis ta'minlangan, hamma narsasi mo'l-ko'l; to'q degan ma'noni bildiradi.

Ushbu nom, asosan, mustaqillik davrida qo'yilgan bo'lib, bunday nomdagi toponimlar Xorazm, Qashqadaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlarida ham uchraydi.

FARG'ONA – viloyat. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Qadimgi Farg'ona davlatiga oid dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi II asrdan boshlab yozilib kelingan xitoy manbalarida, ya'ni "24 tarix"ning 1-2 jildi "Shiji" ("Tarixiy xotiralar") va "Xan shu" ("Xannoma")da beriladi. Xitoy manbalarida Farg'ona xoronimi "Dayyuan" ("Davan") atamasi bilan yuritilib, "Tarixiy xotiralar" kitobida Farg'ona haqidagi ilk ma'lumot Chjang Chyanning (Farg'onaga birinchi marta yuborilgan elchi) Xitoy xoqoniga bergan axborotidan olingan: *"...farg'onaliklar (dayyuanliklar) avloddan-avlodga o'troq hayot kechirib kelgan ekan. [Ular] dehqochilik bilan shug'ullanib, sholi, bug'doy ekar ekan. Uzum sharobi chiqarar ekan. Farg'ona (Dayyuan)da asl otlar ko'p bo'lib, mazkur otlarning hammasi tulpor otlardan ekan. Badanida qizil ter tomchilari [yaltirab] chiqib turar ekan. [Dayyuanda] shahar, qal'a, uy-imoratlari bor, katta-yu kichik 70 dan ko'p shahar qarar ekan. Bir necha yuz ming aholisi bor ekan. Bu davlat askarlari o'q-yoy, nayza ishlatar va ular otga minishga, o'q-yoydan foydalanishga mohir bo'lar ekan..."*

Farg'ona o'lkasi, uning geografiyasi, tabiati va iqlimi, shaharlari nomi haqidagi ma'lumotlar X asrda arab sayyohlari tomonidan yaratilgan qa-

tor manbalarda va noma'lum muallif tomonidan fors tilida yozilgan (983 yil) "Hudud ul-olam" asarida ham aks etadi. Xususan, "Hudud ul-olam" asari o'rta asrlardagi Farg'ona nohiyati, uning tasarrufidagi yigirmadan ortiq joy nomlari haqida eng sara va ishonarli ma'lumotlarni o'zida saqlagan qimmatli manbadir: *"Farg'ona – katta va obod nohiyat, unda noz-ne'matlar farovon erur; tog'lar ko'p, dasht-u shaharlari, oqar suvlari bor. Turkistonning eshigidir. U yerga ko'plab turk qullar keltiriladi. Tog'lari oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, navshodir, simob, yonartosh, poyzahr toshi, magnit toshi va turli minerallarga boy; u yerda tabarxun va antiqa dorilar tayyorlashda ishlatiladigan giyohlar bor".* Manbada Farg'ona toponimining nomlanishi, uning etimoni xususida hech qanday ma'lumot berilmaydi. Shunday bo'lsa-da, asar o'lkaning o'sha davrdagi tabiati va iqlimi, joylashish o'rni, qolaversa, toponim o'rta asr manbalarining deyarli barchasida aynan *Farg'ona* atamasi bilan yuritilganligini asoslovchi ilmiy hujjat ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona viloyatining qasaba va shaharchalari, poytaxt shaharlari, geografiyasi, joylashish o'rni, tabiati, aholisining kasb-kori, jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda boshqa muhim ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilgan manbalardan yana biri "Boburnoma" asaridir: *"Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe' bo'lubtur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog'lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoluq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas... Yetti pora qasabasi bor: beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonubida".*

Is'hoqxon Ibrat tomonidan yozilgan "Tarixi Farg'ona" asari ham vodiy toponimiyasi etimologiyasiga oid ma'lumotlarni, jamlagan, nodir manbalardan biri sifatida xizmat qiladi. Asarda Farg'ona toponimining kelib chiqishiga oid fikrlar bir qancha tarixiy – "Shohnoma", "Ravzat us-safo", "Mulhaqot us-Suroh" hamda Yoqut Hamaviyning "Ajoyib ul-buldon" asarlaridan keltirilgan parchalar orqali izohlanadi. Unga ko'ra, *"Farg'onani avvali insho etguchi kishi faylasuf Farg'ona bino qilg'on ekan. Ul kishi Afrosiyobi Turonshohiyning umarolaridan ekan".* Shu bilan bir qatorda, asarda Farg'ona nomi "har xona" iborati bilan bog'lanadi: *"Ajoyib ul-buldon"da masturdurki, Farg'ona iborati "har xona"dur. ...podshoh Iskandar, arzlaring nimadur, deganlarida: "Arzimiz bul turgon joyimizni shahar qilib bersangiz!" deganlarida, umarolaridan bir bofarosat sohibi aqlli kishini ta'yin qilib, shahar*

qilmoqg'a amr qilg'on ekanlar. Ul kishining oti Farg'ona bahodir ekan. Ul kishi necha yillar harakat qilib, har shahardan va har xonadan odam olub, o'tquzub, oti "har xona" deb qo'yub, "harxona"ni "Farg'ona" o'qub, parxona, parg'ona deb o'qub va ham ul muassis kishining ismi qaviyroq bo'lib, Farg'ona shuhrat topgan".

Ibratning Farg'ona xoronimiga oid qarashlari yozma manbalarga asoslangan bo'lsa-da, ular xalqona etimologiyadan iborat, ilmiy jihatdan esa munozaralidir. Ko'plab tarixiy nomlarning kelib chiqishiga e'tibor berib qaralsa, aksariyati afsona va rivoyatlar bilan bog'lanadi. T.Nafasov ta'kidlaganidek, eng qadimgi nomlarning vaqtlar o'tishi bilan tarkibi o'zgarib, tildagi boshqa so'zlarga o'xshab qoladi. Natijada qadimiy nom bilan uning hozirgi shakli o'rtasida shakliy va mazmuniy mutanosiblik yuzaga keladi.

Yuqorida qayd etilgan *"Farg'ona"* va *"har xona"* so'zlari o'rtasidagi bog'liqlik ham shakliy va mazmuniy o'xshashlikdan boshqa narsa emas.

Nom qancha ko'hna bo'lsa, uning etimologiyasini bilish ham shuncha qiyin bo'ladi. Ayniqsa, kelib chiqishi ikki ming-uch ming yillik tarixga ega bo'lgan yurtimizdagi ko'plab toponimlar nomlanishi juda chuqur tekshirishlarni talab etadi. Farg'ona toponimi etimoni yechimi ham mutaxassislar e'tiroficha, qadimgi xitoy manbalari va sug'd hujjatlariga borib tutashadi.

Xususan, Farg'ona atamasi xitoy manbalarida "Dayyuan" ("Davan") nomi bilan yuritiladi. Xitoyshunos olim A.Xo'jayev izohicha, toponim tarkibidagi ***day*** – "buyuk", "katta" ma'nosini ifodalaydi. ***Yuan (van)*** iyeroglifini esa xitoylar qadimda atrofi balandlik yoki tog'lar bilan o'ralgan kosasimon joyga nisbatan ishlatishgan. Olim tadqiqotlarida qayd etilishicha, xitoyliklar dastlabki davrlarda o'zgalar yurtidagi joylarga o'z tilida va yozuvida nom qo'yganlar. Shunga ko'ra, ular ko'p hollarda o'zga yurtlardagi joylarning nomlarini xitoychaga tarjima qilib olganlar. Jumladan, qadimgi Farg'ona ham mahalliy xalq tilida sug'diycha "Parkona" ("Parkana") deb atalgan bo'lib, Xitoylar uni o'z tillariga "Dayyuan" deb tarjima qilishgan. Natijada bu har ikki atama boshqa-boshqa tillarga mansub bo'lsa-da, ular "tog'lar bilan o'ralgan tekislik", "tog'lar orasidagi chuqurlik, pastlik" degan bitta ma'noni ifodalagan.

Bundan XIII asr ilgari yozilgan sug'd hujjatlarida esa Farg'ona xoronimi β r γ ' n k – *Far (a) gāna* yoki *Fragāna* shaklida qayd etiladi (B.A. Лившиц. Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. Выпуск II. – Москва, 1962. 85-стр). "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da sug'diy hujjatlarda ushbu shaklda yozilgan nomning hind-sanskrit tilida "kichik viloyat"; fors tillarida "Tog' oralig'idagi vodiy", "Atrofi berk soylik" degan ma'nolarga

ega ekanligi haqidagi ma'lumot beriladi (O'zME, 56-bet).

Sharqshunos olim M.S.Andreyevning ta'kidlashicha, atama fors-tojik tilida "parvan" yoki "parkana" tarzida talaffuz etilib, u "atrofi berk vodiy" degan ma'noni anglatgan. Toponimshunos H.Hasanov ham o'zining "Geografik nomlar siri" lug'atida Farg'ona atamasining kelib chiqishi haqida 10 ga yaqin farazlarni keltirib, Pomirdagi rushon shevasida "parkana" deb, "har tarafi tog', bir yog'igina ochiq vodiy"ga aytiladi, degan fikrni beradi va yuqoridagi tahlillarni "Boburnoma"dan keltirilgan ushbu parcha bilan izohlashga harakat qiladi: *"Girdo-girdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim ... tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'iy kela olmas"*.

Geograf olim S.Qorayev M.Is'hoqovning qadimiy sug'd tilida "par" so'zi devor yoki aylanma shaklidagi balandlik, "kan" so'zi esa jamlanish, bironta boylikning yig'ilgan joyi kabi ma'nolarni anglatishi haqidagi mulohazasiga ishora qilib, Parkona, ya'ni Farg'ona toponimining ma'nosi mana shu ikki so'z birikmasidan hosil bo'lganligini asosli deb topgan.

E.M.Murzayevning qayd etishicha, Pomir tillarida "pargana", "bargana" so'zlari mavjud bo'lib, ular atrofi balandliklar bilan o'ralgan tekislik joy ma'nosida ishlatiladi.

A.Muhammadjonov o'zining shu mavzuga bag'ishlangan "Farg'ona nomining ma'nosiga doir" nomli maqolasida ko'pchilik mutaxassislarning mulohazalarini tahlil qilish barobarida "Farg'ona" atamasining tarkibiy tuzilishi haqida quyidagilarni qayd etadi: "Farg'ona" tilshunoslik jihatidan ikki bo'g'inli nomdir. Uning birinchi bo'g'ini "far" yoki "par", ikkinchisi "g'on", "gan", "kon" va "kan" shakllarida qadimiy tarixiy toponimlar tarkibida substrat yoki morfemalar sifatida uchraydi. "Far" yoki "par" – tushmoq, enmoq, inmak, pastlamoq, "g'on", "gan", "kon" va "kan" – daryo, soy, havza va vodiy tushunchalarini bildirgan".

Tadqiqotchi olimlarning yuqorida sanab o'tilgan barcha tahlillarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Parkon // Parkana // Parg'ana toponimi qo'shma tarkibli nom sanalib, *par+kon / kana / g'ona* birliklaridan tashkil topgan. Qadimiy sug'd tilida ***par*** topoleksemasi "devor yoki aylanma shaklidagi balandlik" ("par" birligining "aylana, aylanma, o'ralgan, qurshalgan" ma'nosi fors-tojik tiliga mansub pargar (sirkul), parma (aylanma harakat qilib teshadigan asbob), parvona so'zlariga ham aloqador bo'lishi mumkin), yana boshqa izoh bo'yicha ***par*** – "yuqori, baland", "devor bilan o'ralgan" ma'nosida, ***-kon / -kana, -g'ona*** birligi esa, umuman, joy ma'nosini ifodalagan. Farg'ona toponimining etimologiyasiga doir fikrlarni xitoy yozma manbalari va sug'd hujjatlari orqali aniqlash mumkin bo'lib, ushbu nom qadimgi xitoy solnomalarida *Dayyuan*, sug'd hujjatlarida *Parkona (Pargana, Fragana)*,

arab manbalarida esa *Farg'ona* atamasi bilan yuritilgan.

Xoronim tarkibidagi ***par*** birligi "balandliklar bilan qurshalgan" yoki "tog'lar bilan o'ralgan", ***-kon / -kana, -g'ona*** formanti esa "joy, maskan, makon, vodiy" ma'nosini anglatib, **Farg'ona**ni – "tog' tizmalari oralig'idagi joy" yoki "tog'lar bilan qurshalgan vodiy" sifatida izohlash to'g'ridir.

FAXRI KATAK – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mikro-antropooykonimlardan biri sanaladi. ***Katak*** – parranda yoki ayrim (asosan mayda) jonivorlar turishi uchun maxsus ishlangan qurilma; xona, uycha [O'TIL. 2, 331]. Mohiyatan anglashiladiki, Faxri ismli kishi tomonidan barpo etilgan katak keyinchalik mikro-antropooykonim nomiga o'tgan. Bu tipdagi mikro-antropooykonimlar ham ko'p uchraydi. ***Omon katak, Ismat katak, Baxtiyor katak*** kabilar shular jumlasidandir.

Mazkur mikro-antropooykonim leksik jihatdan ot+ot strukturasiga ega.

FAYZIOBOD//FAYZOBOD – Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanining Sirdaryo viloyatining Xovosdagi qishloqlar nomi. **Obod** so'zi tojikcha *"ob – suv, obod – suvli, suv yetarli joy"* degan ma'noni bildiradi. Bu so'z shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma'nosi *"gullagan"* demakdir.

Viloyatda ijtimoiy hayotdagi voqealardan *Dehqonobod, Jonobod, Yoshlarobod, Mehnatobod, Mingdonobod, Mulkobod, Navro'zobod, Nurobod, Obodmahalla, Oqariqobod, Paxtaobod, Toshobod, Fayziobod, Xalqobod, Chekmirzaobod, Chinobod, Sharqobod, Shohimardonobod, Yangiobod* kabi joy nomlarining yaratilganligini ko'rish mumkin. Viloyatdagi qishloq va mahalla nomlari orasida Mehnatobod 3 martadan, Dehqonobod 6 marta, Yangiobod 7 marta takrorlanadi.

Andijon viloyatining Paxtaobod tumani. *Fayz – "ko'rkamlik, jozibadorlik"* hamda *obod – "obodon"*.

Demak, **Fayzobod** – *"jozibali, obod aholi yashash punkti"* ma'nosini ifodalaydi.

FAZILAT – Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahridagi mahalla nomi. Mazkur toponim mustaqillik yillarida qo'yilgan nom sanaladi. ***Fazilat*** arabcha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: "Afzallik, ijobiy xislat; ezgu ish" (O'TIL. IV, 318). Demak, ***Fazilat*** toponimi ijobiy xislat, yaxshi xulq yoki xususiyat kabi ma'nolarni ifodalaydi.

FERUZA DARVOZASI – Samarqand shahri devoriga janubi-g'arb tomondan o'rnatilgan darvoza. "Boburnoma"da Zahiriddin Boburning 906 (1500–1501)-yili Samarqand shahrini egallash harakatlari va Shayboniyxon bilan janglari bayonida tilga olingan. "[Temurbek] Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur".

FIDOKOR – Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahallaning nomi. Ushbu termin mustaqillik yillarida nomlangan yangi toponim hisoblanib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"biror kimsa, narsa yoki e'tiqod yo'lida o'z jonini qurbon qiladigan"*, degan ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 342-bet).

FIDOYILAR – Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mustaqillikdan keyin nomlangan *fidoyilar* so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh beriladi: *"O'z tanlagan yo'li, maslagi, g'oyasiga, kasb-u koriga yoki biror kimsaga sodiqlik, o'zini baxshida etish"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 342-bet).

FILQAL'A – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi qo'rg'on, qal'a nomi. Mazkur qo'rg'on Xorazmning eng qadimgi markazi, Tabariy uni ***Madinat al-fil*** deb tilga oladi. Ibn Hayqal esa uni ***Kat*** yoki ***Kas*** deb ataydi. Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham ***Fil*** yoki ***Fir*** nomi uchraydi. Xorazmning oldingi poytaxti halokatga uchragach, markaz yangidan qurilgan va ***Kat*** deb atalgan.

Mo'g'ullar istilosida to XVII asrgacha shahar ***Kat*** deb yuritilgan.

Fil yoki ***Fir*** nomining kelib chiqishi haqida mahalliy aholi shunday afsonalarni keltiradi. Bu yerda Xorazm shohlarining urushda qatnashadigan fillari boqilgan. Shu sababli ham shahar ***Filqal'a*** deb atalgan deyishadi.

Aslida esa, mazkur toponimning fil so'ziga hech qanday aloqasi yo'q, u fir deb atalgan. ***Fir*** yoki ***Pir*** Xorazmiy tilida *"eski, ko'hna"* ma'nolarini anglatgan (Д.Т.Чхеидзе. Именное словообразование в персидском языке. –с. 37).

Shunday ekan, ***Fılqal'a*** – *"eski yoki ko'hna qal'a"* degan ma'noni anglatadi.

FORISH – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi viloyatning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan va viloyat maydonining salkam ellik foizini tashkil qiladi. Relyefi pasttekislik, qir, adir va tog'lardan iborat. Tumanda *Arnasoy, Tuzkon, Baliqli, Pistali ko'llari* va *Aydar botig'i* bor.

Tumanga nom bo'lib o'tgan Forish so'zi g'alatiroq bo'lganligi bois, uning etimologiyasi ko'plab mutaxassislar diqqatini tortgan va turlicha talqin qilingan. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da tuman nomi quyidagicha izohlangan: "Mahalliy ma'lumotlar bo'yicha tuman nomiga o'tgan Forish qishlog'ining nomi Amir Temur Samarqand atrofida qurdirmoqchi bo'lgan "Parij" shahri nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Forij, Farish, Forish deb o'zgarib borgan, degan taxmin mavjud".

Samarqand atrofida qurilmay qolgan "Parij" shahrining nomi qanday sabablarga ko'ra, undan salkam 200 km shimolroqda, ya'ni Nurota tog'larining shimoliy etagida joylashgan kichik bir qishloqqa berilishi mum-

kin. Bu taxmin qanchalar haqiqatga yaqin? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Parij" so'zi atoqli ot sifatida o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan, chunki faqat ruslar Fransiya poytaxtini Parij deb atashadi. Fransuzlar mamlakat poytaxtini Parij emas, balki Paris deb yozadilar, og'zaki nutqda "s" harfi qoldirilib, "Pari" shaklida talaffuz qilishadi.

Binobarin, "Parij so'zi Amir Temur davrida bizga rus tili orqali kirib kelgan", degan fikrni haqiqatga yaqin deb qabul qilib bo'lmaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirgacha Amir Temur va undan keyingi davr yozma manbalarida Forishni Parijga nisbat berib atalganligi to'g'risida hech qanday ma'lumotlar aniqlanmagan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, *Forish* so'zining Fransiya poytaxti Parijga hech qanday aloqasi yo'q.

Forish so'zining yana bir izohi B.O'rinboyevga tegishli. Olimning yozishicha, "Toponim sug'd tilidagi *far, par, bar, var* (yuqori) va turkiy, mo'g'ul tillaridagi *sin, shin* (xalqlar) qismlaridan tashkil topgan. *Forish, farshin – "yuqorida istiqomat qiluvchi xalqlar demakdir"*. Bu talqin esa haqiqatga uncha to'g'ri kelmaydi, shu bois, uni sharhlash ham maqsadga muvofiq emas, deb hisobladik.

Bizningcha, tuman nomiga aylangan Forish – yasama so'z, uning paydo bo'lishi tumanning tashkil etilishi bilan bog'liq. Tuman nomiga hozirgi tuman markazidan 30 km shimoli-g'arbda, Nurota tog'lari etagidagi qadimiy *Porasht* qishlog'ining nomi asos bo'lgan. Mahalliy xalqning aytishicha, o'tgan asrning 30-yillarida respublika rahbarlaridan biri bo'lgan Yo'ldosh Oxunboboyev yangi tuman tashkil etish maqsadida shu joylarga kelib, unga markaz sifatida Porasht qishlog'ini tanlagan.

Tuman tashkil etilayotgan vaqtda esa qishloq aholisining kamligi, katta yo'llardan uzoqligi inobatga olinib, tumanning ma'muriy markazi qilib geografik o'rni nisbatan qulayroq bo'lgan *Bog'don* qishlog'i tanlangan. Tuman nomi sifatida esa avvalgi qishloq nomini qoldirishga qaror qilingan.

Porasht so'zi tojik tilidagi og'zaki talaffuzda *Porash* deb, "*t*" harfi tushirib talaffuz qilinadi. Tumanga nom berilayotgan vaqtda *Porash* so'zini o'zbekona talaffuzga moslashtirib, rasmiy hujjatlarda *Forish* deb yozilgan. Qadimiy *Porasht qishlog'i*ning nomi esa rasmiy-ma'muriy tarzda *Eski Forish* deb o'zgartirilgan. E'tiborli tomoni shuki, mahalliy aholi hozir ham qishloq nomini *Porasht* shaklida talaffuz qilishadi.

2014-yili Forish tumani xalq deputatlari Kengashi qarori bilan qishloqning qadimiy *Porasht* nomi qayta tiklandi. Tuman tashkil etilgandan boshlab, mazkur qishloq nomi rasmiy hujjatlarda *Eski Forish* deb qayd qilinganligi tuman nomining shu qishloq nomi bilan bog'liqligidan dalolat beradi. Tuman ma'muriy markazi *Bog'don* shaharchasi (2009-yildan).

FURQAT – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Markaziy Farg'ona

cho'lida, So'x-Isfara massivida joylashgan. 1992-yili yangi tashkil etilgan tumanga, o'zbek taraqqiyparvar shoiri, mutafakkir, publitsist Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li Furqat nomi berildi.

Barkamol lirikasi, jozibali nasri va publitsistikasi bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan Furqat ona vatanidan uzoqda vafot etdi. Uning jasadi Yorkentning Dongdor qabristonida ko'milgan. 1990-yili shoir qabri ustida maqbara qurilgan. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinossenariy va boshqalar yaratildi.

Furqat she'rlari kitob holida dastlab 1913-yili bayoz holida toshbosmada bosilgan edi. O'tgan asrning 1950–1980-yillari oralig'ida shoir asarlari ko'p bor nashr etildi. O'zbekistondagi bir qator qishloq, tuman, maktab, ko'cha va xiyobonlar o'zbek taraqqiyparvar shoiri Furqat nomi bilan ataladi. Furqat tumani hududida tarixiy va me'moriy yodgorliklardan Qilich Mergan bobo va Abduqahhor ota ziyoratgohlari saqlangan.

Tuman ma'muriy markazi – Navbahor shaharchasi (2009-yildan). *Navbahor* so'zi tojik tilida *nav* – "yangi" va *bahor* – "ko'klam" so'zlari o'zbek tiliga yaxlitlashgan, mujassamlashgan navbahor shaklida o'tgan. Navbahor so'zi o'zbek tiliga XIV–XV asrlarda o'zlashgan. Ma'nosi – *erta bahor, ilk bahor, bahorning boshi.*

Navbahor so'zi o'tgan asrning 80-yillarida navro'z (bahorning birinchi kuni) bilan ma'nodosh tarzda ham qo'llanilgan. Mustaqillikdan keyin, ayrim viloyatlar toponimiyasi tarkibida ma'muriy-rasmiy tarzda *Navbahor, Navro'z, Nurobod, Nurafshon* kabi nomlar soni ancha ko'paydi.

FO'TABOB – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. *Fo'ta – "belbog'; belbog' sifatida xizmat qilgan mato bo'lagi"; fo'tabof – "belbog' tikish bo'yicha mutaxassis"*. Keyinroq qishloqning nomi **Fayzobod** *"saxiy, muruvvatli"* deb o'zgartirilgan.



GADAVAD DARVOZASI//BOB G'ADOVAD – Somoniy asarida *Guzavaz* mahallasi va darvozasi deb tilga olinadi. *G'adovad* mahallasi shahar devorlaridan bir farsax uzoqlikda joylashgan. Bu nom sug'dcha **yada** –*"yog'och"* va **yd** – *"yer"* so'zlaridan hosil bo'lgan bo'lib, *"yog'ochli yer"* ma'nosini ifodalaydi (Лурье. 2004: 128, 222, 225).

GADOYTOPPAS//GADOYTOPMAS – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi.

Professorlar T.Nafasov va B.O'rinboyevlarning fikricha, bu mikrotoponim "***gadoy"+"top"+"-mas***" qismlaridan iborat ekanligi va uni *"yirik aholi punktlaridan ancha pastqam, yiroq joyda tashkil topgan yashash maskani, qishloq"* deb izohlanishini qayd etishgan [T.Nafasov, 52; B.O'rinboyev, 52].

Mazkur nomdagi qishloqlar viloyatning Mitan, Oqdaryo tumanlarida ham uchraydi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Mitan tumanidagi *Gadoytoppas boksan* qishlog'i qayd qilingan. Mazkur nom **leksik jihatdan ikki o'zakli *ot+fe'l+affiks* shakliga xos.**

GAJDUMAK – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, u forscha *gajdum – chayon* ma'nosini ifodalaydi.

GALABEK – Navoiy (avval Samarqand viloyati bo'lgan) viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Mazkur ***Galabek*** toponimi *"gala, to'da, qishloq, ovul"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, ***Galabek*** – *"bekjar galasi yoxud beklar qishlog'i"* degan ma'noni ifodalaydi.

Samarqand viloyatidagi ***Galabotir*** toponimi ham shu so'z bilan aloqadordir.

GALABOTIR – Samarqand viloyatining Samarqand, Pastdarg'om, Jomboy tumanlari, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloqlar nomi. **Galabotir** – mang'itlar qabilalarining Samarqand atrofida yashaydigan 17 urug'laridan biri (А.Д. Гребенкин. Узбеки. С. 87).

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Galabotir – Qo'ng'irot qabilasining Qoragursaq urug'i bo'limlaridan biri (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 92). Nima bo'lganda ham Galabotir urug' nomi bo'lib, u etnonim hisoblanadi.

GALABULOQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi buloq nomi.

Bir-biriga yaqin bir necha buloqlarning qo'shiluvidan hosil bo'lgan buloq hisoblanganligi uchun shunday deb atalgan.

GALAGUZAR – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *Gala* – "guruh", *guzar* – "daha" ma'nolarini ifodalaydi.

GALAJIN I//GALAJIN II – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloqlar nomlari. Bu mikrotoponim "***gala***" va "***jin***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"***Gala***" forscha so'z bo'lib, *"to'da, uyur, poda, bir to'da odam, olomon"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 1, 478].

"***Jin***" esa arabcha so'z bo'lib, "afsonaviy maxluq, arvoh, yomon ruh" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL.2, 90].

Tumanda bir nom bilan ikki qishloq nomi atalgani uchun ularni bir-biridan farqlash maqsadida 1 va 2-tartib raqamlaridan foydalanilgan. Bu joyning nomlanishi afsonaviy ruhlarning, arvohlarning ko'zga tashlanishi bilan aloqadordir.

Demak, strukturasi "***gala***" va "***jin***" qismlardan iborat bo'lib, ikki o'zakli va *ot+ot* shakliga ega.

GALAMO'LA – Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Rasmiy ma'lumotnomalarda **Galamulla** (*mullasi ko'p qishloq*) tarzida xato yozish hollari mavjud. *Mo'la* so'zli joy nomlari respublikaning ko'pgina hududlariga xos. Bu tur nomlarni *mulla* so'zi bilan yozish xato: *Burchmo'la, Uzunmo'la, Toshmo'la, Mo'labuloq, Mo'laqo'rg'on, Kattamo'la, So'pimo'la.*

*"O'zbek tilining izohli lug'ati"*ga mo'la so'zi kiritilmagan, izohlanmagan. Sug'orma dehqonchilik qilingan hududlar aholisi nutqida **mo'la** – *ekilgan don ekinlari, poliz ekinlarini zararkunandalardan qo'riqlash, kuzatish, xabar berish uchun yer sathidan 1–1,5 metr balandlikda doira yoki to'rtburchak, uzunchoq shaklda chim yoki paxsa loydan ko'tarib qilingan supasimon moslama; lalmikor dehqonchilik qilinadigan hududlarda va chorvachilik bilan shug'ullanadigan joylarda sut mahsulotlarini qo'yish, saqlash uchun odam qo'li yetadigan balandlikda loy, chim, kesaklardan qilingan supaga o'xshash moslama.* **Gala** – *ko'p, me'yordagidan ortiqcha.* **Galamo'la** – *"makkajo'xori, jo'xori, arpa, bug'doy, poliz ekinlari ekilgan joyda qilingan ko'p mo'lali joy"* ma'nosini ifodalaydi.

GALAOSIYO – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi *"Tegirmonchilar guruhi"* (forscha *gala* – guruh, to'da; *osiyo* – tegirmon) ma'nosini anglatadi.

GALAQUDUQ – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi quduq nomi. **Galaquduq** – *"quduqchilar guruhi"* (qishloq tumanning Karnab dashtida joylashgan) ma'nosini ifodalaydi.

GALGOCHI – Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. "***Galagovchi***" tarminining fonetik transformatsiyaga uchragan ko'rinishi. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida *"galgochi"* tarzida uchraydi. Mazkur toponim *"sigirlar to'dasi"*

ma'nosini ifodalaydi. Bug'doy yanchishda bir-biriga matashtirilgan, ya'ni bo'ynidan ip o'tkazib bog'langan hayvonlar to'dasiga *"galagov"* deyilgan. Bu turdagi mehnat jarayoni mahalliy aholi tilida "ho'p" deb ataladi. "Ho'p"da eshaklardan ko'p foydalanilgan.

Qishloq xo'jaligi texnikasi takomillashgandan so'ng, bunday mehnat tadbiri texnika vositasida amalga oshiriladigan bo'ldi hamda hozirda u unut bo'lib ketgan.

GANDABULOQ – Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Aslida **Kandabuloq**: *kanda* – qazilgan chuqurlik; qo'rg'on devorining tashqarisida suv bilan to'ldirilgan xandaqni ham kanda deyishgan. **Gandibuloq** – *"yerni o'yib, chuqur hosil qilinib suv chiqarilgan buloq"* ma'nosini ifodalab, shu atrofdagi qishloq shunday atalgan.

GANDABULOQSOY – soy, Sherobodning o'ng irmog'i (Surxondaryo viloyati), Gandasoy – soy, Sho'rsoyning o'ng irmog'i (Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani). Mo'g'ulcha *Ganda "yakka"* ma'nosini ifodalaydi, o'zbekcha *buloq*.

GANDIMYON – Xorazm viloyati Xiva tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri. Mahalliy aholi vakillari va ayrim mahalliy ijodkorlar mazkur toponimni *bug'doy* so'zi bilan bog'lab, shunday izohlashadi: **"Gandimyon"** forscha so'z bo'lib, *"Gandum", "choxdum"* – bug'doy; *"yon"* – "kon", ya'ni *"bug'doy koni"* degan ma'noni bildirgan". Bizningcha, bu munozaralidir.

Prof. Z.Do'simovning fikriga ko'ra, *"Gandi"* qabila nomi bo'lsa kerak, *"Miyon"* so'zi hozir Eron toponimiyasida *qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

Demak, **Gandimiyon** – *"Gandilar qishlog'i"*dir (Z. Do'simov, X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Toshkent, 1977. 43-bet). Bu haqiqatga yaqinroqdir.

GANCHKASH – mahalla. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri. *Ganch* – alebastrning ko'rinishi, *-kash* – ma'lum kasbning vakili yoki arbobning nomini hosil qiluvchi affiks hisoblanib, *Ganchkash* – *"ganj ustasi"* ma'nosidadir.

GARDON – Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi ariq nomi. Mazkur viloyatning Urgut tumanida *Gardonbuloq* gidronimi bor. **Gardon** fors-tojik tilida *"bo'yin"* degani bo'lib, geografik termin sifatida *"burilish, qayrilish"* ma'nosini beradi. Oronimiyada **gardon, gardan** – *"tog' beli, tog'ning ikki cho'qqisi o'rtasidagi qismi"* ma'nosini anglatadi (Xromov. 1978: 61).

GARKAY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Biz tomonimizdan apellyativning birinchi komponenti **gar ←g'or** "tog'" ma'nosida, **kay ←chay** "soy" ma'nosidan kelib, *"tog' yonidagi soy"* ma'nosida izohlansa, gidronimning oykonimga o'tish hodisasi voqe bo'lgan degan taxmin ilgari surildi.

Ammo toponimdagi **k** tovushi pozitsiya jihatdan ancha mustahkamligi ko'rinib turibdi. ***-gay*** qadimgi

turk-mo'g'ul tillarida ot hosil qiluvchi qo'shimcha hamdir. Leksik jihatdan ikki o'zakli *ot+ot* shakliga xos.

Bizningcha, *"tog' yonidagi soy"* ma'nosida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

GARIMDON – Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi mahalla nomi. **Garim** tojikcha *"issiq, jazirama"* degan ma'noda ishlatiladi. *"Issiq joy"* ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin. S.Gubayeva (1983) bundan 175 yil avval Farg'ona vodiysiga Garm aholi maskanidan ko'chib kelgan tojiklar haqida yozadi.

GARMALI//GARMALISOY//GARMATEPA//GARMAQO'TON – tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy nomi. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumani. Demak, *Garma – "tuya tikanlariga o'xshash tikanli o't o'simligi"* ma'nosini ifodalaydi.

GARMISTON – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. **Garm** – *"issiq, iliq"*, **Garmiston** – *"issiq joy", "issiq o'lka"* ma'nosini ifodalaydi. Eronning Mozandaron viloyatida Garmiston nomli tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy bor (В.И. Савина. Словарь географических терминов и других слов, формирующих топонимию Ирана. – М., 1971. С. 56).

GAVR QAL'A – Tarixiy toponim. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi qal'a nomi. Bu nomdagi qal'a xarobalari Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Sulton Uvays tog'i etagida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida, shuningdek, Turkmanistonning Mari hamda Toshovuz viloyatlarida bo'lgan.

Mazkur toponimning birinchi qismi ***gavr*** so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, u *"otashparast"* degan ma'noni anglatadi va ushbu nom islom dini tarqalgunga qadar O'rta Osiyo aholisi otashparastlar (zardushtiylik) diniga e'tiqod qilganlar hamda ularni "gavr" yoki "mug'" deb ataganlar. Ular yashagan qo'rg'onlar Gavr qal'a, yani "Gavrlar qal'asi" deb yuritilgan.

GAZA – Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim asosida geografik termin yotadi.

Gaza nomi "tog' tepasi yoki tog'-yonbag'ri" ma'nosini anglatadi va Gaza "tog' yonidagi qishloq" demakdir.

Ayrim manbalarda Gaza terminining arabcha "qo'rg'on" ma'nosi ham qayd qilingan.

GAZAI KALON – Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Turkiston cho'qqisi tepaliklaridan biri. *Gaza – "tog'li cho'qqi"; och gaza – "egar", to'q gaza – "tepalik"; adir-gazalar – tog' cho'qqilari, tepaliklari* ma'nolarini ifodalaydi. Demak, **Gazai Kalon** – *"cho'qqi, tepalikdagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

Bu so'zning kelib chiqishi qadimiydir. Qiziqarlisi, Makedoniyalik Aleksandrga o'jarlik bilan qarshilik ko'rsatgan barbarlarning daryo bo'yidagi yettita qal'asidan biri **Gaza** nomiga ega bo'lgan va u Tojikiston Respulibkasining hozirgi Shahriston va Nov qishloqlarining tog'li yerlarida joylashgan.

GAZARAK – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Mazkur ***Gazarak*** toponimi tojikchadagi *Guzar* so'zi bilan aloqador bo'lib, u *"kichik kechuv"* degan ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, ***Guzar*** – *"o'tish joyi"* ma'nosini ifodalaydi va *-ak* erkalash-kichraytirish qo'shimchasi hisoblanib, u *"o'tish joyidagi qishloq"* demakdir.

GAZAXONA – Ohangaron daryosi basseynidagi soy. Namangan viloyati Pop tumani. *Gaza* (forschadan – *echki) – tutqir qushlar bilan ovchilar yashiringan joy*: uzun iplarda qochib ketishga urinayotgan kaptarlarni ushlab turishgan, biroq kaptarlar uchib keta olishmagan, chunki ular bog'langan bo'lgan. Uzoq yashirinib yuradigan insonga *"gaza tutib yuribsanmi"*, deb aytishgan. Demak, **Gazaxona** – *"tutqir qushlar, kaptarlar saqlanadigan joy"* ma'nosidadir.

GAZLI – Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi shahar nomi. Gazli yerlaridan gaz va neft kashf etilganidan keyin bu nom *Gazli* deb atala boshlandi (affiks *-li* egalik miqdor ma'nosi bilan otlardan nisbiy sifat hosil qiladi. Amaliy jihatdan bu punkt *Gadjdu* sifatida ma'lumdir.

GAZCHI – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahri. **Gazchi** – gaz *sohasida ishlovchi mutaxassis.* 1967–70-yillarda Xiva shahrida katta Kompressor stansiyasi qurilishi munosabati bilan turli davlatlardan yuqori malakali mutaxassislar, ishchilar taklif qilindi. Ularni birinchi navbatda turarjoy, maktab, bolalar bog'chasi bilan ta'minlash maqsadida, 1968-yili Xiva shahar ijroiya qo'mitasining qaroriga ko'ra, 33 gektar yer ajratildi.

Shundan keyin kompressor stansiyasi ishchi-xizmatchilarining oilalari yashayotgan ushbu mahallaga "Gazchi" nomi berilgan.

GASHIRCHILA va GASHIROTIZ – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi hudud nomi. ***Gəshirchilə*** toponimi va ***Gəshiratьız*** (JQ) agronimi tarkibidagi *gashir* (sabzi) hozirgi fors tilining ba'zi shevalarida *gazir* tarzida ishlatiladi.

E'tiborli jihati shundaki, mashhur leksikograf Muhammad Mu'in bu so'zni izohlashda Xorazm shevalariga e'tibor qaratadi. Olim yozadi: "Sanskritchadagi *gajar*, ehtimol, fors tilidan o'tgan. Qoraqalpoq tilidagi *gashir* yoki *kajir* shu forsiy so'zdir"[1]. Olim qoraqalpoq tilidan deb Karl Mengisning "Harvard Journal of Asiatic" jurnalidagi "Qaraqalpaq grammar" maqolasiga murojaat qilgan va tabiiyki, undagi materiallar biz tadqiq qilayotgan hududga ham aloqadordir.

Gashir pushtu tilida *gazara*, gilakiyda *gazar* shaklida *sabzi* ma'nosida qo'llaniladi. Fors tilida *sabzi* ma'nosida *zardak* زردک so'zi qo'llaniladi. Eroniy tillardagi *sh-j* tovush mosligiga asoslanib, *gashir* aslida *gajir* shaklida bo'lgan keyinchalik turkiy adaptatsiya davrida (turkiyda sirg'a-

[1] Shamsiddin Bin Xalif Tabriziy. Burxone qote'. – Tehron: Amiri kabir, 1375. – B. 1811.

luvchi *j* bo'lmagan bois) *gashir* shaklida qo'llana boshlagan deyish mumkin. Mazkur fitonim ham hududdagi ayrim mikrotoponimlar uchun apellyativ asos vazifasini bajargan.

Xorazm shevalari leksikasi bo'yicha qilingan ko'plab ishlarda eroniy o'zlashma deyilgan so'zlarning ko'pchiligi substrat qatlamga mansub. Bunday so'zlarni topish uchun ularni Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Az-Zamaxshariyning "Muqaddimat-ul adab" asarlarining turkiy nusxasidan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Bu boradigi eng muhim ishlardan biri esa, eroniy tillar so'zlari o'rtasidagi adaptatsiya qonuniyatlarini topish hisoblanadi.

Xullas, ***Gəshirchilə*** – sabzi yetishtiradiganlar ovuli ma'nosini ifodalasa, ***Gəshiratьız*** – sabzi ekiladigan maydon, dala ma'nosini anglatadi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

GILAMBOF – Surxondaryo viloyatining Angor, Termiz, Sherobod tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Forscha *gilambof* – "gilam to'quvchi". *Gilambap* (gilambapi) etnonimi ham ma'lum.

GILAMCHI – Xorazm viloyati Xiva shahridagi mahalla nomlaridan biri. **Gilamchi** – *"gilam to'qish bilan shug'ullanuvchi kasb egasi"*. Xiva shahrida 1976-yilda gilam to'qish kombinati ishga tushirilgan va ishchilarning yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida ikki qavatli uylar qurilib, gilam to'qish fabrikasida ishlovchi ishchilarga berilgan. Shundan so'ng, yangi tashkil qilingan mahallaga 1979-yili **Gilamchi** nomi berilgan.

GIYOXO'R – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. *Giyo(h)* – *"har xil o't, o'simlik"*; bu yerda narkotik vosita ma'nosidadir.

GOBIRQALA//GOVIRQALA// GOVROTIZ//GOVRPOL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va Amudaryo tumanlaridagi hududlar nomi. ***Gəbьırqala // Gavьırqala, Gavratьız, Gavrpol*** kabi toponimlar tarkibidagi *gabir* Janubiy Qoraqalpog'iston shevalarida (xususan, Xorazm qipchoq shevasida) *"sho'r, tuzi ko'p"* ma'nosida qo'llanadi. Masalan, avqating yaman *gabir* bolipti – ad. orf. ovqating juda sho'r bo'libdi. *Gabir* so'ziga shaklan va ma'no jihatidan yaqin so'z hozirgi fors tilidagi *kavir (kevir)*dir. Erondagi katta cho'llardan biri *Dasht-ye Kavir* deb ataladi.

"Burhoni qote'"da bu so'z *suvsiz, sho'rhok joy,* shuningdek, *sarob* ma'nolarida izohlangan[1]. Bu so'z eroniy tillardan gilakiyda *kavir,* yarshiyda *kaver* tarzida ishlatiladi. *Kavir* so'zi "Shohnoma"da ham *sho'rlik, sho'rhok* ma'nosida ishlatilgan.

Gabir va *kabir* so'zlari o'rtasidagi fonetik farqlar jarangli-jarangsiz undoshlarning bir-biriga almashinishi bilan bog'liq (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

[1] Shamsiddin Bin Xalif Tabriziy. Burxone qote'. – Tehron: Amiri kabir, 1375. – B. 1742.

GOJO – Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. S.S.Gubayeva Gojlar urug'i O'sh viloyati Aravon tumanidagi turklar tarkibida uchrashini qayd qiladi (Gubayev. 1983:70).

Demak, **Gojo (gojho)** – *gojlar qishlog'i* hisoblanib, etnotoponim sanaladi.

GOTFAR – mahalla. IX asrda Samarqand viloyatining Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla nomi. ***Gotfar***, aslida, shaxs ismi sanalib, arablar bosqini davrida shahar harbiy qo'mondoni bo'lgan.(М.Абрамов Гузары Самарканда, 1989, В.28).

GOVXONA – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloqlar nomlari. Mazkur toponimni tojik tili asosida ikki qismga bo'lib izohlaydilar, ya'ni gov – "sigir" va xona – "joy"dir. Bu toponimning tashqi ko'rinishi asosida vujudga kelgan "xalq etimologiyasi"dir.

Aslida, nomning birinchi qismi **ob** so'zining birinchi variantidir. **Govxona** "*suv saqlagich yoki suv ombori*" degan ma'noni bildiradi. Turkmanistonda bu termin **xovdan** shaklida qo'llaniladi. Qashqadaryo viloyatidagi Govxona, Govxonsoy toponimlari ham shu so'z bilan aloqador (Do'simov, 1977:44).

Nomshunos olim To'ra Nafasovning yozishicha, tarminning birinchi qismidagi **gov** so'zi tojik tilida "*chuqur, teran, past joy*" ma'nolarida ham qo'llanilgan.

Shunga asosan tilshunos N.Oxunov Govxona nomini "*chuqur joydagi qishloq*", yonidagi qishloqlarga nisbatan pastqamlikka o'rnashgan aholi turarjoyi" deb izohlaydi (Oxunov, 1994:14). **Leksik jihatdan ikki o'zakli *sifat+ot* shakliga xos.**

GUGURTLI – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. *Gugurt*, oltin gugurt, gugurtli. Balki gugurt tashkil topgan qishloq nomi bilan ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkin.

GUJUM – tog'. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi tog' nomi. Faqat asosdan iborat. Tog' shox-shabbalari zich va qalin bo'lib, salqin soya beradigan sada qayrag'ochlar ko'p bo'lganligi uchun shunday atalgan.

Izohli lug'atda *gujum* so'ziga *sada qayrag'och* deb izoh berilgan.

Bizningcha, *sada* va *qayrog'och* boshqa-boshqa daraxtlar. *Sada* – emanlar oilasiga mansub sershox, sersoya daraxt.

Qayrag'och – yog'ochi qattiq, shoxlari tig'iz joylashgan, bargi mayda va to'q rangli, qalin soya beradigan, suvsizlikka chidamli daraxt.

Mahalliy aholi nutqida oronimning *G'ujum* varianti ham kuzatiladi. O'zbek tilida *g'ujum* so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) uzum donasi va uning shingili;

2) shv. G'uj, to'p.

Fikrimizcha, oronimning to'g'ri shakli *Gujum*. G'ujum oronimning buzilgan paronim shakli. Demak, *Gujum* fitooronimlar guruhiga man-

sub bo'lib, *qayrag'ochlari, gujumlari ko'p, gujumli, qayrag'ochli tog'* degan oronimik ma'noga ega (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

GUJUMLIK – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. *Gujum* – qattiq daraxt qorayog'ochning turli ko'rinishi. *Gujumlik* – shunday ko'p daraxtlar o'sadigan joy. Gujum daraxti Xorazm viloyati va Buxoro viloyatining Xorazm bilan chegaradosh Olot va Qorako'l tumanlarida va Qoraqalpog'istonda o'sadigan qattiq daraxt, uni ko'pincha qayrag'och daraxti deb atashadi, aslida qayrag'och daraxt emas, u dumaloq shaklda bo'lib, ko'p shoxli va soya, salqin beradigan o'ziga xos o'simlik. Ushbu qishloqda shunday daraxtlar ko'p bo'lgani uchun qishloq shu tarzda atalgan.

GUJUMSOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***gujum***" va "***soy***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"***Gujum***" o'simlik nomi (fitonim) bo'lib, sada qayrag'och ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 516]. Biroq Xorazmdagi "***Gujum***" daraxti nazarda tutilgan bo'lsa, u aynan sada qayrag'och emasligini ham ta'kidlash mumkin, chunki gujum boshqa, sada qayrag'och boshqadir, hatto o'xshashlik nuqtayi nazaridan ham ularni yaqinlashtirish mumkin emas, faqatgina qattiqlik jihatidan yaqinlashtirish mumkin.

"***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

Shunday ekan, bu mikrotoponimni "gujum daraxtlari ko'p o'sadigan soy bo'yidagi qishloq" deb izohlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

GULBAHOR – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi shaharcha, qishloq va mahalla nomi. ***Gul*** va ***bahor*** so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan bo'lib, apellyativning birinchi qismi **Gul** forscha so'z hisoblanadi va u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Chechak" ma'nosini (O'TIL. 2022. I, 517) bildirsa, bahor so'zi esa xuddi shu lug'atda shunday izohlanadi: "Yilning to'rt faslidan biri, ko'klam (asl ma'noda), quvonch, shodlik, baxt, sevgi, muhabbat, umid (ko'chma ma'nolarda)".

Aslida, mazkur toponim ham mustaqillik davri mahsuli sanaladi.

GULBOG' – mahalla. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. **Gul** va **bog'** so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, u gul ekilgan bog', guliston, saylgoh yer kabi ma'nolarni ifodalaydi. Mazkur toponim 100 yillik tarixga egadir.

Shunday nomdagi toponimlar respublikamizning Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ham uchraydi.

GULBULOQ – mahalla va qabriston. Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanidagi mahalla va qabriston nomi. Mazkur ***Gulbuloq*** toponimi ***Gul*** va ***buloq*** so'zlarining qo'shilmasidan hosil qilingan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: buloq so'zi "Yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan, chashma" deb qayd etiladi (O'TIL. 2022 I, 517).

GULIOB – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi bo'lib, **Guliob (gulob)** – *"atirgul suvi; atirgul guli bargidan ishlangan suv"* ma'nolarini anglatadi.

GULIRAYHON – mahalla. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi mahalla nomi. Xiva shahri Yangiobod (Qosmaobod) shaharchasida 1977-yilda tashkil topgan. Bo'z yerlardan unumli foydalanish maqsadida zich aholini ko'chirish uchun qabul qilingan qarorga muvofiq, yangi mahalla tashkil qilingan va obod bo'lishi, gullab-yashnashi uchun mazkur mahallaga *Guliraryhon* deb nom berilgan.

GULISTON – tuman. Sirdaryo viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1961-yildan boshlab tuman shu nom bilan atalgan. 1963-yili Sirdaryo viloyati tashkil qilingandan so'ng, Guliston shahri viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi. Mirzacho'lning janubi-sharqida, Do'stlik kanali sohilida joylashgan.

1895-yilda yangi qurilayotgan Samarqand – Toshkent temir yo'li yoqasida, hozirgi Guliston shahri o'rnida dastlabki uylar qad ko'targan. Keyinchalik hozirgi shahar o'rnida Duxovskiy va Spasskiy nomli ikkita qishloq paydo bo'lgan. Bu ikkita qishloqning birlashishi natijasida vujudga kelgan shahar Mirzacho'l deb atalgan. 1961-yili shaharga ma'muriy-rasmiy tarzda Guliston nomi berilgan. Mirzacho'l o'zlashtirilishi bilan asrlar davomida qaqrab yotgan cho'l bog'-rog' va ekinzorlarga aylantirildi.

Guliston nomi *Gul* va forscha – *iston* (egallovchi ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha) komponentlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Yashnagan, obod yer, bog'-bo'stonlar makoni bo'lgan o'lka[1]. Guliston nomi asrlar davomida qaqrab yotgan Mirzacho'lni bog'-rog' va ekinzorlarga aylantirilishi va o'zlashtirilishi sababli berilgan.

Gul so'zi joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi va toponimlar yasashda ancha faol qo'shimcha hisoblanadi. Cho'l, dasht yoki umuman o'zlashtirilmagan joyda tashkil qilingan obod, yashnagan, bog'-rog'lari ko'p joy – Guliston. O'tgan asrda bu nom yangidan o'zlashtirilgan joylarda tashkil etilgan aholi punktlariga ko'p marotaba berildi. Hozirda *Guliston, Bo'ston* kabi nomlarni respublikamizning barcha mintaqalarida uchratish mumkin.

Joyning obodlik belgisi bo'lgan *guliston* so'zi geografik obyektlar-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. – B. 519. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Birinchi nashr. –Toshkent, 2022. – B. 134.

ni nomlash qonuniyatlari talabiga to'la javob berganligi sababli atoqli otga aylangan. XX asrning 60-yillari Sirdaryo viloyati hududida kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildi, ekin maydonlariga aylantirildi. Viloyatning tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurildi, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi.

Shunday ekan, bu mikrotoponimni "gujum daraxtlari ko'p o'sadigan soy bo'yidagi qishloq" deb izohlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guliston tumani ma'muriy markazi – Dehqonobod shaharchasi (1992-yildan). Dehqonobodda dastlab 1886-yili Rossiyaning Poltava, Tver guberniyalaridan podsho hukumati tomonidan ko'chirib keltirilgan rossiyaliklar yashagan. 1887-yildan boshlab aholi punkti *Romanovsk* (Rossiyada hukmronlik qilgan Romanovlar oilasi sharafiga) deb atalgan. Hududda sho'rolar hokimiyati o'rnatilganidan so'ng 1923-yili shaharchaga *Krestyansk* nomi berilgan. Bu nom 1992-yilgacha amalda bo'lgan va o'sha yili shaharcha nomi rasmiy-ma'muriy tarzda *Dehqonobod* deb o'zgartirilgan.

GULKORON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, u forscha *gulkor* – "gul yetishtiruvchi", *-on* affiksi esa ko'plik hosil qiluvchi qo'shimcha hisoblanib, *Gulkoron* – *"gul yetishtiruvchilar qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

GULOBOD – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi aholi punkti nomi. **Gul** so'ziga -obod o'rin-joy ot yasovchi affiksini qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, u gul ekilib, obod bo'lgan yer kabi ma'noni bildiradi.

Shunday nomdagi toponimlar respublikamizning Xorazm, Jizzax, Buxoro, Namangan va Andijon viloyatlarida ham uchraydi.

GULOBIYON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Gulob – "atirgul suvi; atirgul guli bargidan ishlangan suv"* ma'nosini anglatib, *Gulobiyon – "atirgul bargidan suv ishlash bo'yicha ustalar"* ma'nosida bo'lishi mumkin.

GULRABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2014-yilga qadar *Tatar* deb atalgan.

Mahalliy aholi toponimga asos bo'lgan *tatar* so'zini millat nomi sifatida bilib, joy nomini *"Tatar millatiga mansub aholi yashaydigan joy"* deb izohlashadi. Ammo o'zbek xalqi tarkibida *Tatar* urug'i mavjudligi qayd etilgan.

Demak, *tatar* – urug' nomi, etnonim. Shu urug' vakillari yashaydigan joy ham.

Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Gulrabot* deb o'zgartirilgan. Nom *gul* va *rabot* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi komponenti – *gul* so'zi ziynat uchun ekiladigan yoki o'zi o'sadigan gulli o'simliklar, chechaklar ma'nosini anglatib, uning ikkinchi komponenti – *rabot* so'ziga "O'zbek tilining izohli

lug'ati"da (1981) quyidagicha izoh berilgan:

1. Mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki istehkom, qo'rg'on.

2. Savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy.

3. Shahardan chetroqdagi turarjoy.

Akademik V.V.Bartoldning ma'lumotlariga qaraganda, musulmon dunyosining chegaraga yaqin boshqa o'lkalaridagi kabi Turkistonda ham diniy urush – g'azovot uchun devor va g'ovlardan tashqari *ribotlar* (to'g'ri talaffuzi shunday) yoki *rabotlar* qurganlar (buni Turkistondagi *rabod* so'zi bilan adashtirmaslik kerak, – deydi V.V.Bartold), – u o'z fikrini davom ettirib yozadi, – *rabot* so'zining ma'nosi *"ot bog'lanadigan joy"* demakdir, *rabot* muqaddas, ya'ni diniy urush uchun kurashadigan g'oziylarga mo'ljallab qurilgan. G'oziylar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiyla-nayranglari, hujumlarini bartaraf qilib turganlar. Ribotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun kazarma rolini bajargan.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda *rabod* yoki *rabaz* termini ham bo'lgan. Tarixchi A.A. Semyonovning yozishicha, shaharga tutash shahar-mahallalar *rabaz* deb yuritilgan. Shunday qilib, dastlab rabaz deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan. Keyinchalik bu ikki termin bir-biriga qo'shilib, *karvonsaroy* ham *rabot* yoki *rabod* deb ataladigan bo'ldi.

Buning sababi deb yozadi V.V.Bartold, – istilochilar qurgan rabotlar bu yerda oldindan mavjud bo'lgan g'aribxonalar va ibodatxonalarga juda o'xshab ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar *rabotlarga* moslashtirilgan. Buning ustiga, rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. Bu so'zlarning yaqinligini shundan ham bilsa bo'ladiki, Buxoro yaqinida yashab o'tgan Jo'ybor shayxlari (xo'jalari)ning arxivlarida (XV–XVI asrlar) bu terminlar deyarli bir-biridan farq qilmagan: *rabaz* – og'ilxona, hovli joy; *rabot* – qo'rg'on, qo'ra.

A.R.Muhammadjonov *rabot, ravot* so'zini sug'dcha deb hisoblaydi: *ro(x)* – *"yo'l"*, *bat* (*bata, vata*) – "manzil, mazgil" va Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qurilgan ko'pdan-ko'p bekatlar ana shu termin bilan atalgan, deydi.

Bundan tashqari, yag'nobshunos olim A.L.Xromov *"yaylov sifatida foydalaniladigan sero't adir, joy"* ma'nosida *ravad (ravod)* so'zi borligini aytadi va uni qadimgi eroniy *ravati*, yag'nobcha *rowut*, xorazmcha *rwun* (*"yer", "joy"*) so'zlari bilan bog'laydi. Demak, **Gulrabot** – *"gulli qo'rg'on"* ma'nosidadir.

GULTEPA – qishloq. Andijon viloyatining Asaka va Toshkent viloyatining Piskent tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Gultepa* – "tepalik – gulzor" degan ma'noni anglatadi.

GULXONASOY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Toponim ***"gul"***,

"***xona***" va "***soy***" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

"***Gul***" so'zi forscha bo'lib, "*chechak, atirgul, umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o'zi o'sadigan gulli o'simliklar*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 516].

"**Xona**" so'zi ham forscha bo'lib, "*uy, turarjoy, bino, bo'lma*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 4, 410].

"***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkunki, "*turli xil gullar o'sadigan maskanda istiqomat qiladigan aholi punkti*" nomi ma'nosini ifodalaydi.

GULZOR – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Guliston* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Gulzor* deb o'zgartirilgan.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq gulzorlari ko'p bo'lganligi sababli shunday nomlangan. Uning tarkibi ikki komponent: *gul* so'zi va *-zor* so'z yasovchi qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o'zi o'sadigan gulli o'simliklar, chechaklar.

Demak, *Gulzor* – "*gullar bilan ishg'ol etilgan yer*", "*gulshan*", "*chamanzor*", "*gul ekilgan obod joy*" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, Xorazm viloyatining Bog'ot va Qo'shko'pir tumanlaridagi mahalla nomlaridan biri ham shunday nomlangan. Mazkur "*Gulzor*" termini "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*gul bilan qoplangan maydon; gul ekilgan yer, chamanzor, gulshan*" ma'nolarida qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 519-bet).

GULG'UNCHA – Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur toponim mustaqillik yillarida atalgan nom bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'nolarda izohlanadi: "*Gulning g'unchasi, ochilmagan gul*" (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 522-bet).

GULSHAN – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan va Bog'ot tumanlaridagi mahallalar nomlari. Mazkur termin "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*gul bilan qoplangan, gulzor, chamanzor*" ma'nolarini ifodalovchi forsiy so'z asosida hosil qilingan joy nomidir. Aynan shunday nomli toponimlar Farg'ona viloyatidagi qishloq va mahallalar nomlarida ham uchrashini qayd etish lozim.

GULCHAMBAR – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi aholi punkti nomi. Mazkur nom "O'zbek tilining izohli lug'ati"da - "*gul forscha so'z bo'lib, chechak*" tarzida izohlanadi. (O'TIL. I, 517). Gul va chambar so'zlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan.

Demak, ***Gulchambar*** nomi "*hamma tomon gullarga burkangan joy, maskan*" ma'nosini bildiradi.

GUM – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponimdagi

"***gum***" forscha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*g'oyib, pinhon, daryo yoki ko'lning chuqur joyi; chuqur*" tarzida izohlanadi [O'TIL. 5, 1, 522].

Professor B.O'rinboyev mazkur mikrotoponimni "*suv havzasining gum bo'lgan joyiga yaqin o'rinda barpo etilgan yashash maskani, qishloq*", –deb izohlaydi [B.O'rinboyev, 55].

GUMBAZ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Zarafshon vodiysida yashaydigan Qoraqipchoqlarning bir urug'i Gumbaz deb yuritilgan va qadimdan Pastdarg'om tumanida yashab kelgan (Shaniyazov, 1974:123). Shuningdek, qubbali bino gumbaz deyilgan, shu bilan birga, toza suv saqlanadigan sardobalar ustida ham pishgan g'ishtdan gumbazi bo'lgani uchun qisqagina gumbaz deb atalgan.

Bundan tashqari, respublika tuzilmalaridagi aholi punktlari nomlari ham shunday nomlanib, *Gumbaz* – Markaziy Osiyo me'morchiligining ajralmas qismi (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 123).

GUMBAYXONA – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Uch komponentli mikrooykonim.

"***Gum***" forscha "*g'oyib, pinhon; daryo yoki ko'lning chuqur joyi; chuqur*" [O'TIL. 1, 680].

"**Bay**" esa arabcha so'z bo'lib "*savdolashish, sotish, kelishish, savdo muammolarida, ishga yollash va yollanishda har ikki tomonning o'zaro kelishuvi*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 680].

"***Xona***" tarixan mustaqil leksik birlik bo'lib, vaqt o'tishi bilan affiksga yaqinlashib, o'z lug'aviy ma'nosini muayyan darajada yo'qotgan leksemalar (*- bog', - obod, -diz, - kent, -band, -xona, -mitan*) – topoleksemalar safiga kiradi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, "*qishloq hududidan uzoqroda pinhona uchrasuv joyi belgilangan maskan*" ma'nosi ifodalanadi.

GUMBULOQ – qishloq va buloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qishloq va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Gidronimining birinchi komponenti

"***Gum***" forscha "*g'oyib, pinhon*" semasini ifoda etadi. Mahalliy so'zlashuvda esa "***gum***" suvlikning chuqur joylarini anglatadi. geografik termin sanalgan "***buloq***" esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 371].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ushbu gidronimni "*chuqur, suvi tugamaydigan buloq*" deb izohlash mumkin. Gidronim ikki o'zakli *sifat+ot* shakliga ega.

GUMKON – qishloq va mahalla. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri va tumanlaridagi mahalla, qadimiy qishloq nomlaridan biri. Ayrim kishilar *gung* (qulog'i kar bo'lganligi sababli eshitmaydigan va so'zlash iqtidoriga ega bo'lmagan kishi) va *-on*

(ko'plik ma'nosidagi) qo'shimcha asosida izohlashga moyillik bildiradilar.

Nomning qadimiy shakli: *gum+kom* (forscha). Eroniy tillarda **gum** – *"chuqur, teran, yer sathidan ancha past"* va **kom** – *"oqar suv, anhor, kanal"* ma'nosini ifodalaydi.

O'tmishda Jayhun daryosining sharqidan Qarshi tumanining Fayzobod qishlog'i tomon Jo'ybor arig'i (keyingi vaqtlarda bu ariqni *Javhararіq* deb atashgan)dan Kat va Gungon qishloqlariga ariq o'tgan. Shu ariqni *Gumkom→Gunkom* deb atashgan.

Dastlab ariq nomi bo'lgan. Ariq ko'milib ketgach, shu ariq bo'yidagi qishloqqa nom bo'lib qolgan.

GUMSOY – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. *"**Gum**"* forschada *"g'oyib, pinhon"* semasini ifoda etadi.

Geografik termin *"**soy**"* esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* [O'TIL. 3, 545].

Demak, ushbu potamonimni *"chuqurlikdagi kichik daryo"* sifatida izohlash mumkin.

GUNGON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim tojikcha bo'lib, *"gunglar, soqovlar"* demakdir. (laqab)[1]. Prof. T.Nafasov nomning qadimiy shakli: **gum+kom (f-t)** eroniy tillarda ***gum*** – "chuqur, teran, yer sathidan ancha past" ma'nosida bo'lsa, ***kom*** esa – *"oqar suv, anhor, kanal"*.

Demak, ***Gungon Gumkom***, ya'ni *"chuqurdagi, past joydan oqib o'tuvchi ariq"*[2] tarzida sharhlagan.

GURGULI – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi bo'lib, Loqay qabilasi bo'limining Gurguru urug'i etnonimini aks ettirishidir (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 101).

GURGUTSOY – ariq. Oqqopchig'ayning o'ng irmog'i, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani. Shevalarda adabiy tildagi *gugurt* o'rniga *gurgut* talaffuz qilishadi. Shu sababli mazkur nom shunday atalgan bo'lishi mumkin.

GURLAN – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Amudaryoning chap sohilida joylashgan, relyefi biroz past-baland tekisliklardan iborat. S.Qorayev tuman nomining kelib chiqishini gurlan etnik guruh nomi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Olimning fikricha, ushbu hududda Gurlan degan kichkina urug' bo'lgan.

Z.Do'simovning yozishicha, Xorazmda yashovchi aholi o'zlarining urug' va qabila bo'linishlarini unutgan bo'lsalar ham etnik nomlar asosida vujudga kelgan toponimlar viloyat toponimiyasining anchagina qismini tashkil etadi. Chunki ushbu hudud qadimdanoq turli etnik guruhlarning

[1] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.44.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B. 84.

to'qnashish, doimiy yashash manzili va aralashish joyi bo'lgan.

Taniqli nomshunos olim *Gurlan* nomining paydo bo'lishini Xorazm toponimiyasining turkiy-mo'g'ul davri bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Mo'g'ul tiliga xos so'zlar Xorazmning shimoliy qismida ancha sermahsul. Gurlan tumani Xorazm viloyatining shimolida joylashganini inobatga olsak, farazni haqiqatga ancha yaqinligi ayon bo'ladi. Xorazmning janubida urug', qabila nomlari, ya'ni etnotoponimlar ko'proq bo'lsa, uning shimoliy qismida ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan joy nomlari ko'proq uchraydi.

Z.Do'simovning ta'kidlashicha, Shimoliy Xorazmdagi Gurlan toponimi mo'g'ul tiliga aloqadordir. Buni toponim etimologiyasini kuzatish jarayonida yaqqol ko'rish mumkin. *Gurlan* asli *Ko'rlang* bo'lgan deb izohlaydi mahalliy aholi. Darhaqiqat, bu so'z uning dastlabki shakliga yaqindir. Hozirgi mo'g'ul tilida *hovli, bog'* ma'nosidagi *"xureelen"* so'zi mavjud. E'tiborli tomoni shuki, bu so'z o'zining semantik taraqqiyotida qator bosqichlarni bosib o'tgan va ma'no-mazmuni qisman o'zgargan. Shunday qilib, *Kuralan* yoki *Gurlan* toponimining eng so'nggi ma'nosi *"to'xtash joyi"*. Bir nechta ovullarning birikuvi, to'xtash joyi – Gurlan.

Ushbu toponimning kelib chiqishi haqidagi quyidagi qarashlar haqiqatga yaqinroqdir: ayrim manbalarda mo'g'ulcha *Xureelen, Kuren* (qo'ra, atrofi o'ralgan qishloq) deyiladi (*Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати, –Т., 1977. 45–46-бетлар). Ba'zilari mo'g'ulcha kuriygen (to'xtash joyi) so'zidan kelib chiqqan.*

Ma'lumki, har qanday nomda qandaydir ma'no – tarixiy, lisoniy ma'lumotlar yashiringan. Chunki nomlar ma'lum bir tarixiy davrda yaratilgan va ularda tarixiy voqea-hodisalar muhrlanib qolgan. Aksariyat hollarda aholi maskanlariga, qishloqlarga nom o'zgalar tomonidan berilgan. Bu nomshunoslikning o'ziga xos qoidalaridan biridir. Aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanaladi. Tuman ma'muriy markazi – Gurlan shaharchasi (1992-yildan).

GURLANBET – Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi joy nomi. Mazkur toponim ***Gurlan*** va ***bet*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi qismi ***Gurlan*** toponimining etimologiyasi va leksik xususiyatlari haqida lug'atimizning Gurlan nomi izohlangan sahifadan bilib olishimiz mumkin.

Ushbu nomning ikkinchi qismi ***bet*** so'zi indikator sanaladi va mazkur so'z Xorazm shevalari leksikasida hozir ham mavjud bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: *1) tomon, taraf; 2) varaq; 3) yuz, aft, bashara.* Geografik termin sifatida *"adir, qir, tog' oldi tepaliklaridagi tekis yoki salgina qiya yon bag'ir va yuzalar"*ni anglatadi.

Mazkur ***bet*** so'zi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan. Indikator sifatida bir qator turkiy tillarda mavjud. Jumladan, qirg'iz tilida *"tog'ning quyi qismini, uning bir tomonini"* anglatadi. Qadimgi turkiy tilda, aynan *"yuz, aft-basharа"* ma'nosini bildirgan (DTS). K.Konkashbayevning xabar berishicha, qozoq tilida ***betkey*** (-key affiksi orqali yasalgan) shakli uchraydi va *"tomon, tog'ning yassi qismi"* ma'nosini anglatgan.

Darhaqiqat, -key affiksi ***terskey, kungey*** so'zlarini hosil qilgan. ***Kungey*** *"tomon, tog'ning quyoshga qaragan tomoni, janub"* ma'nosini bildiradi. Bu so'zning antonimi sifatida ***terskey*** so'zi mavjud bo'lib, *"quyoshga teskari tomon, orqa tomon"* ma'nosini anglatadi.

Kunbotish va ***kuntug'ish*** so'zlari ham *"g'arb va sharq"* tomonlarni bildiradi. Umuman, *bet* indikatori *Tashlыbet, Kunbet* (Dog'iston), *Gyllänbet* (Xorazm) kabi ko'plab toponimlar tarkibida ishtirok qilgan.

Demak, **Gurlanbet** toponimi *"Gurlan tomondan, gurlanlik"* ma'nosini anglatadi (Bu haqda qarang: O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.).

GURLAN-URGANJI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomlaridan biri. **Urganji** (Urganch – Gurganj shahar nomidan) – ayrim tarixchilarning tasdiqlashicha, xorazmlik o'zbeklar; boshqa bir tarixchilarning ta'kidlashicha, urganji – u yerdan kelgan xorazmliklar emas, XVIII asrning oxirida Urganchni tark etib, Buxoro va boshqa joylarga joylashishgan; yana boshqa ma'lumotlarga ko'ra, urganji – hunarmand ustalar avlodlari, Chingizxon tomonidan Xorazmning tor-mor qilinishidan so'ng Buxoroga olib kelishgan (А.Д.Гребенкин. Узбеки. Сборник "Русский Туркестан", вып. 2, –М., 1872). Gurlan – Xorazm o'zbeklari urug'larining nomlaridan biri.

GURTAK – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qishloq nomi. *Gurdak* (gurtak) – do'rman qabilalarining to'rt bo'limlaridan biri hisoblanadi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. С. 107).

GURUNCHMOZOR – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi qishloq nomi. Aynan kelib chiqishi *"gurunch mozori"*. Aniqrog'i, **Qulijmozor** – shu nom bilan qishloq XII asrdan boshlab mashhur (А.К. Писарчик. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы. Сборник статей, посвященных искусству таджикского народа. – Сталинабад, 1956. С. 171–172).

GUVALAK – shaharcha. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi shaharcha (2009) nomi bo'lib, umumturkiy etnonimlar sirasiga mansub hisoblanadi.

Tatariston Respublikasida Go'balak urug'i, Go'balak tumani mavjud.

Boshqird xalqining ham shu nomdagi urug'i borligi ma'lum.

Qashqadaryo mang'itlarining oq-mang'it bo'limida *guvalak/go'balak* urug'i mavjud. Bu urug'ning *gaulak* talaffuzi ham bor (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1. – T., 2002). Go'-balak tuja urug'i qo'ng'irotlar vax-tamg'ali bo'limining Chanchiqli urug'i tarkibidagi tujalarga tegishlidir (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджи-кистана и Узбекистана. –М., 1976. – С. 90). XII–XIV asrlar qipchoq turkiy tillarida *ko'balak – itning bir turi* (At-tuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya. – T., 1968. – B. 219). *Guvalak/gubalak/ go'balak* – totem, muqaddas sanalgan mavjudot (hayvon). Totem→urug' nomi→shaharcha nomi. Demak, aholi-ning etnik tarkibi asosida shaharcha shunday nomlangan.

GUZAR – qishloq. Navoiy viloya-tining Nurota va Buxoro viloyati-ning Kogon tumanlaridagi qishloqlar nomi. ***Guzar*** so'zi tojikcha bo'lib, *"gu-zashtand – o'tmoq"* fe'lining hozirgi zamon shaklidir.

Aholi turarjoy nomlari tarkibida mazkur so'z mahalla ma'nosini ifoda etadi. Hozir, ko'pincha, ***guzar*** deyil-ganda, mahallaning markazi do'kon, choyxona va shunga o'xshash boshqa ijtimoiy obyektlar bo'lgan obod joy tushuniladi.

S.Qorayev Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida ***Guzargo*** nomli to-ponim mavjudligini, uning tog'lik joyda ekanligi hamda u *"kechik, darband"* ma'nosida ekanligini qayd qilgan[1].

Biroq "O'zbek tilining izohli lu-g'ati"da *"mahalla, obod, serqatnov, gavjum joy"* [O'TIL.1, 516] degan ma'-nolarni izohlashi qayd etiladi.

Shunga asosan **Guzar** nomlari *"obod, serqatnov, gavjum joy, mas-kan"* ma'nosini ifodalaydi. ***Guzar*** so'zi ishtirokidagi joy nomlari respublika-mizning ko'pgina hududlarida uch-raydi. **Leksik jihatdan esa bir o'zak-li ot shakliga xosdir.**

GUZARGO – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qish-loq nomi bo'lib, u forscha *guzargoh – "o'tish yo'li, dovon"* ma'nosini ifoda-laydi.

GUZARXONA – qishloq. Buxo-ro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. **Guzar** – *shahardagi, ko'chadagi jonli joy*, Buxoro shahrida esa – daha, mahallalar nomlari **Guzar** deb yuritiladi. Demak, **Guzarxona** – *"bir necha guzarlar joylashgan yer"* ma'nosini anglatadi.

GO'JAXO'R – qishloq. Buxoro vi-loyatining Romitan tumanidagi qish-loq nomi. **Go'ja** – *jo'xori yoki bug'-doydan tozalab tayyorlangan osh; go'jaxo'r – shunday oshni yoqtiruvchi yoki tayyorlovchi* (qishloq aholisining laqabi) *kasb egasidir.*

GO'RI AMIR – mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Mazkur mahalla XVI asr oxiri, ya'ni 1405-yili qurilgan me'-moriy yodgorlik sanaladi.

[1] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B. 44.

Ayni paytda, Amir Temur maqbarasi nomi bilan yuritiladigan me'moriy yodgorlik hisoblanadi.

GO'RIARAB – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, forscha *go'r* – "qabr"; *go'riarab* – "arabning qabri" ma'nosini ifodalaydi.

GO'RIMIRON – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. Forscha "*hukmdorlar qabri*" (*go'r* – qabr, *mir* – hukmdor, *-gon* – ko'plikni ko'rsatuvchi qo'shimcha) ma'nosini anglatadi.

GO'RKOV – qishloq. Samarqand viloyatining Darg'om kanali bo'yidagi qishloq nomi. Hozirgi Miyonkov qishlog'i o'rnida bo'lgan (Вяткин, 1902: 45). **Go'rkov** – "*qabr qazuvchi*" ma'nosini ifodalaydi.

GO'RTEPA – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Go'rtepa* – "*tepalikda joylashgan qabriston*" ma'nosini ifodalaydi.

GO'RXONASOY – ariq. Beklarsaroyining o'ng irmog'i (Navoiy viloyati Nurota tumani). **Go'rxona** – "*qabr*", "*qasr*", "*maqbara*" ma'nolarini anglatadi.

Mazkur so'z o'zbek adabiy tilida qayd etilmagan, ammo shevalarda, shuningdek, tarixiy manbalarda, shu jumladan, "Boburnoma" asarida ham uchraydi.

GO'SPANDJALLOB – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomlaridan biri bo'lib, forscha **go'sfand** – "*qo'y, qo'chqor*" va **jallob** – "*savdogar*" ma'nolarini anglatadi.

Demak, **Go'sfandjallob** – "*qo'y savdosi bilan shug'ullanadigan qishloq*" ma'nosidadir.

GO'SHSOY – qishloq va soy. Toshkent viloyatidagi Qurama tizmasining shimoliy-sharqiy qismida Ohangaron daryosiga quyiluvchi soy va qishloq nomi.

Ma'muriy jihatdan Ohangaron tumanidagi "Susam" QFY hududiga kiradi. Forscha "jo'sha" – qizil tuproq (kaolin) + "soy" qo'shma so'zining qurama shevasidagi fonetik buzilgan shakli. Qattiq jala yoqqan kunlarida bu soyda hozir ham qizg'ish rang bo'tana oqadi.



HAKKA – qishloq. Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi qishloq nomi. Farg'onadagi o'zbeklarning turk urug'ining bir tarmog'i *hakka* deb nomlangan.

HALVOGARON – qishloq. Buxoro viloyati. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Mirzolar* deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda *Halvogaron* deb o'zgartirilgan. Toponimning asosini tashkil qiluvchi *halvo* so'zi shirinlikning nomi (aslida *holva*). Buxoroda qadimdan *halvo* nomli shirinlik tayyorlanadi. Shunday shirinliklarni pishiruvchi kishi – *holvagar*.

Forscha-tojikcha *Halvogaron* – *"holva pishiruvchilar yashaydigan joy"* degan ma'noni bildiradi. Avvallari mahalliy aholining asosiy qismi holvapazlik bilan shug'ullangan. Shu sababli aholining kasb-kori qishloq nomiga asos bo'lgan.

HAMZA – Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi shahar va ko'plab aholi maskanlariga qo'yilgan nom. O'zbek yozuvchisi, kompozitor, rejissyor, jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy sharafiga shunday atalgan. Tojikcha **Niyoz** – *yolvorib, tilab olingan farzand*ga qo'yiladigan ism. Viloyatda **Haydar** *(arslon, kuchli, baquvvat)*, **Hakim** *(dono, bilimdon, tabib)*, **Hamid** *(maqtashga arzigulik)*, **Hasan** *(chiroyli, go'zal)* kabi kishilar ismlariga qo'shimchalar qo'shish bilan yoki alohida holda joy nomlari yasalgan.

HAQDIZA – qishloq. Hozirgi *Bo'tanach* qishlog'ining eski nomi. Tortuvli qishlog'ining sharq tomonida joylashgan. O.D. Chexovich fikricha, Haqdiza keyinchalik *Bo'tatoj* va *Qiyot* qishloqlariga bo'lingan.

HAQIQAT – qishloq. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi qishloq va Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi. **Haqiqat** arabcha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "Chin, rost; asl, haqqoniy" (O'TIL. 2022, V, 521).

Shunday qilib, ***Haqiqat*** toponimi chindan ham bor, chindah bo'lgan; asl, haqqoniy ma'nolarini bildiradi.

HASAN BOBO – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti ***"Hasan"*** arabcha so'z bo'lib, uning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"husn sohibi, go'zal, zebo; Muhammadning katta nabirasi nomi"* ma'nolari qayd etiladi [O'TIL. 5, 5, 513].

B.O'rinboyevning fikricha, bu qishloq nomi dastlab kishi nomi bilan atalib, antropotoponim sifatida shakllangan, keyinchalik bu qishloq nomi ham ilohiylashtirilib, Hasanbobo toponimi nekrotoponimga aylangan [B.O'rinboyev, 280].

Ushbu nekronim ikki o'zakli ot+ot strukturasiga egadir.

HASANBOY – qishloq va mahalla. Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi mahalla va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomlari. Mazkur mikro-antropooykonim "***boy***" leksemasi shaxs ismiga qo'shilib erkalash, ulug'lash, hurmatlash ma'nolarini ifodalaydi.

Hasanboy ismli shaxs tomonidan o'zlashtirilgan makon nomi. Ikki o'zakli ot+ot strukturasiga ega. Bu tipdagi mikro-antropooykonimlar ko'p uchraydi. *Qo'ng'irboy, Do'stboy, Erkinboy* kabilar.

HAVOTOG' – aholi punkti. Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi aholi punkti nomi. Mazkur nom ***havo*** va ***tog'*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan toponim. ***Havo*** arabcha so'z bo'lib, atmosfera, havo; iqlim; shamol; ob-havo kabi ma'nolarni anglatadi.

Shunday nomdagi toponimlar respublikamizning Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ham uchraydi.

HAVZAK – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. *Hovuz (havz)* va *-ak (-cha)* elementlaridan yasalgan toponim. **Hovuz** (*ar.*) – *suvli joy*, basseyn. Hovuz tojik tilida *havz* shaklida ishlatiladi. Pastdarg'om tumanida *Havzak* nomli ariq, Paxtachi tumanida *To'qqizhovuz* nomli qishloq bor.

HAVZAKDORSOZLAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Bu yerda biz tojik-o'zbek toponim yasalish namunasini ko'rishimiz mumkin: *havz – hovuz; -ak* – kichraytirish affiksi; *dorusoz* – provizor, farmatsevt; *-lar* – ko'plik affiksi.

Demak, **Havzakdorsozlar** – *"provizorlarning katta bo'lmagan hovuzi"* ma'nosini anglatadi.

HAZARA – ariq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi ariq nomi. Samarqand shahrining chekkasida ham xuddi shu nomdagi mahalla bor. *Hazara* (Hazora) arig'ining nomi *"hazira"* so'zi bilan bog'liq deyishadi.

Hazira deb, atrofi ihota qilingan maxsus xilxona – *qabristonni* aytishgan. Shuningdek, tarixchi olimlar "hazara" termini – Temur davrida ma'muriy-hududiy atama ma'nosida qo'llangan, deb ko'rsatadilar. Hazara chegarasidan kanal o'tishi shart bo'lib, mingta jangchi berishi kerak edi.

Keyinchalik "hazara" termini Markaziy Osiyoning bir qator qishloq va kanallari nomiga aylangan.

HAZORA – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Shu nomli toponim Zarafshon vodiysining boshqa tumanlarida ham uchraydi. Temur davrida *hazora* termini 1000 ga yaqin jangchini yetkazib

bergan (tuman 10000 jangchi yetkazib bergan) ma'muriy-hududiy tumanni anglatgan.

Boshqa manbalarga qaraganda, mazkur ma'muriy-hududiy tuman jangchi yetkazib berish emas, balki ma'lum bir kattalikdagi sug'oriladigan yerlarni qayta ishlaydigan odamlar hisobiga boqilish bilan bog'liq bo'lgan. Hazora hududida 50000 tanob yerni sug'oradigan kanal bo'lishi kerak bo'lgan, bu 1000 jangchini boqish uchun yetarli bo'lgan (A.A.Семенов. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. "Советское востоковедение", V, М-Л, 1948. С. 151–158; В.Л.Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. СКСО, вып. VII, 1902. С. 53).

HAZORASP – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mazkur toponimning etimologiyasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lib, bularning barchasi ushbu toponimning etimologiyasini o'rganayotgan shaxsning nuqtayi nazariga bog'liq holda talqin qilinadi.

Tadqiqotchilarning ko'pchiligi mazkur toponimni ikki qismga, ya'ni "Hazor" va "Asp" ga bo'lib o'rganadilar hamda shu asosda toponimning kelib chiqishini izohlaydilar.

Y.G'ulomovning fikricha, mazkur qal'ani bahaybat dev qurgan emish. Dev aldash yo'li bilan shu yerga suv ichgani keladigan mingta qanotli otni qo'lga kiritadi va ularning qanotini kesib o'ziga o'rgatgan. Shu otlarning nihoyatda yaxshi avlodlari tufayli *Hazorasp*, ya'ni *ming ot* deb atay boshlagan (Y.G'ulomov, 149).

A.R.Muhammadjonov va T.Ne'matovlar esa shu asoslarga tayangan holda, "*Hazorasp – "ming suvoriyni beradigan ma'muriy hudud"* ma'nosida bo'lsa kerak", degan fikrni aytadilar.

Tilshunos Y.Jumanazarov esa *Hazorasp* toponimi asosida qabila nomi yotadi, deydi va u Hazora-os bo'lib, "Os qabilasi" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, Hazorasp toponimi Xorazm shevasida Hazaris shaklida qo'llaniladi va yozma manbalarda ham *Hazaris, Hazarus, Azarus* shakllarida tilga olinadi.

Boshqa bir manbada esa Hazorasp toponimi ikki komponentdan: *Hazor* – xalq nomi va *-us* ko'plik qo'shimcha shaklidan iborat (З.Ҷўсимов, Х.Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент, 1977. 160 бет).

HAZRAT IMOM QAFFOLI SHOSHIY DAHASI – iste'molda ko'proq *Sebzor* deb atalgan. "*Hazrat Imom Qaffoli Shoshiy*" dahasining nomi murakkab antropotoponimlar guruhiga kiradi va X asrda yashagan tarixiy shaxs ismidan olingan. Imom Qaffoli Shoshiyni ismi kundalik iste'molda qisqartirilib, "*Hastimom*" shaklida talaffuz qilingan. Ayni paytda dahaning "*Sebzor*" degan nomi ham saqlangan.

Qaffol Shoshiyning to'liq ismi – Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (904–

976), shofi'iya mazhabining yetakchi olimlaridan, fiqhshunos. Shoshda tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotni shu yerda olgan. Iroq, Shom mamlakatlariga safar qilgan. Islom dunyosining eng mashhur imomlaridan Abul Abbos Ahmad ibn Umar ibn as-Surayjiy (850–918)ning shogirdi bo'lgan.

Har tomonlama o'qimishli, aql-zakovat sohibi bo'lgan. Vataniga qaytgach, Movarounnahrda, jumladan, Shosh viloyatida shofi'iya mazhabini targ'ib etgan, ilohiyotga doir bir qancha asar yozgan. Qur'on, hadis va shariat ilmi, shuningdek tilshunoslik sohasida bilimdon bo'lgan.

"Odob ul-qozi" ("Qozi odobi"), "Odob ul-bahs", "Husni jadal" nomli asarlar yozgan[1]. Qaffoli Shoshiy Toshkentda vafot etib, Kaykovus arig'iga yaqin yerga dafn etilgan. Keyinchalik qabri ustiga maqbara bunyod etilgan. Bu daha Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Imom Qaffol Shoshiy dahasi deyilgan. Qaffol Shoshiy maqbarasi xalq orasida Hazrat Imom (qisqacha Hastimom) nomi bilan shuhrat topgan, muqaddas ziyoratgohga aylangan.

Hozirgi kunda Hastimom – bu faqat bir maqbaraning emas, balki Toshkent shahridagi arxitektura majmuyining nomlanishi. Uning tarkibiga Qaffol Shoshiy maqbarasi (XVI a.), Tilloshayx masjidi (XIX a.), Juma masjid (XX a.) imoratlari kiradi. Qaffol Shoshiy qulfsozlik kasbi bilan tirikchilik qilgan. Og'irligi yarim gramm keladigan ajoyib qulf-kalit yasaganligi uchun "Al-Qaffol" ("qulfchi") laqabini olgan.

Arab tarixchisi va geografi Abul Fido (1273–1331)ning yozishicha, Qaffol Shoshiy o'z zamonasining yetuk olimlaridan bo'lib, Movarounnahrda unga teng keladigan alloma bo'lmagan. Toshkent ko'chalaridan biri Qaffol Shoshiy nomiga qo'yilgan. Qaffol Shoshiyga atab qurilgan dastlabki maqbara saqlanmagan.

Keyingi maqbara me'mor G'ulom Husayn tomonidan qurilgan (1541–1542). Hozirgi kunda u tarixiy yodgorlik sifatida mashhurdir. Yuqorida qayd etilganidek, dahaning ikkinchi nomi "Sebzor". "Sebzor" – qo'shma toponim, "seb" (forscha "seb" – "olma") va "zor" qismlardan tuzilgan, "olmazor" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni Sebzor dahasi olmazor, umuman bog'lari ko'p yer bo'lgan.

Hazrat Imom Qaffoli Shoshiy (Sebzor) dahasi XVIII asr boshlarida shakllangan va shaharning shimoliy qismini egallagan, Ko'kcha, Shayxontohur, Beshyog'och dahalari bilan tutashgan, Toshkentdagi to'rtta dahadan eng kichigi. Chegarasi g'arbdan Sag'bon va Qorasaroy ko'chalarining oralig'idan (hozirgi Zarqaynar ko'chasining g'arbidan), janubdan Jangob arig'idan o'tgan, dahaning shimoli-sharqiy qismida sebzorliklarning bog'lari va dehqonchilik yerlari

[1] Hakimjonov A. Xalifani lol etgan zakovat / "Toshkent oqshomi" gazetasi. 1993-yil 10-mart; *yana qarang*: А.И. Добросмыслов. Ташкент в прошлом... – С. 75–76; Д.И. Еварницкий. Путе-

(mavzelar) o'rin olgan; undan Kaykovus, Shahar (Tanishahar) kabi yirik ariqlar oqib o'tgan[1]. Dahada shaharning eng katta molbozori joylashgan.

Mallitskiy ro'yxatiga ko'ra, dahada 79 mahalla va shahar atrofida unga qarashli 64 mavze bo'lgan[2]. XIX asr oxirlarida Sebzorda 3 madrasa, 78 masjid bor edi. Toshkentning 3 darvozasi (Labzak, Taxtapul, Qorasaroy) va Eskijo'va bozori Sebzor hududida joylashgan. Aholisi hunarmandchilik (kosibchilik, to'quvchilik, chitga gul bosish va b.), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan.

Dahada ko'hna qabristonlar (Kohota mahallasidagi Voyvoyota, shahar darvozasidan tashqarida joylashgan Darvishqofqa) bor edi. Daha hududida 1970-yillarda 2230 xonadon bo'lib, ulardagi aholi soni 18 650 kishini tashkil etgan[3].

HIKMATLI – mahalla. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Mustaqillik davri mahsuli bo'lgan ushbu toponim hikmati bor, hikmat ifodali; chuqur mazmunli; sirli kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

HINDIMOZOR – qishloq. Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga qarashli katta qishloq nomi. Andijon haqidagi bizning tekshirishlarimiz ko'rsatishicha, shahar sharq tomonidan kelib Ergashtom dovoni orqali Farg'ona tomon davom etgan qadimiy savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li ustida joylashgani sabab, hind savdogarlari ham kelib turgan (akademik Komil Yashin xotiralarida yozishicha, Andijonda XX asr boshlarida ham hindlarning do'konlari bo'lgan). Xotiralarda ushbu qishloq tarixini o'sha hind savdogarlaridan vafot qilganlari nomi bilan bog'laydilar.

HINDUVON – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. O'rta asr vaqf hujjatlarida tilga olingan qishloqlardan biri. Ispanza qishlog'ining sharqiy tomonida bo'lgan.

V.L.Vyatkin Hinduvon nomli qishloqlar soni ko'p bo'lganligini qayd qiladi. Olim Markaziy Osiyoda "Hindi, Hindu", ko'pligi "Hinduvon" nomi bilan ataluvchi joy nomlari temuriylar davrida, ba'zan undan oldinroq ham mavjud bo'lganligini qayd etadi.

U mahalliy kishilarning bu qishloqlar aholisini Temur Hindistondan olib kelganligi haqidagi hikoyani keltirib, bu fikrda ma'lum asos bo'lsa kerak, deydi.

Shuningdek, Temurning mashhur bog'laridan biri Bog'i Dilkusho yaqinidagi qishloq. Rus istilolaridan so'ng *Do'ngqishloq* deb atala boshlagan.

HISORAK – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq

водитель по Средней Азии от Баку до Ташкента. В археологическом и историческом отношениях. – Ташкент, 1983. – С.191–193.

[1] Toshkent. Ensiklopediya... – 263-b.

[2] Mallitskiy N.G. Toshkent mahallalari, 12–14-b.

[3] Toshkent. Ensiklopediya... – 263-б.

nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat bo'lib, *hisor* (arabcha) – *"qal'a, istehkom"* ma'nosini ifodalasa, *-ak* – kichraytiruvchi affiks hisoblanadi.

Hisor so'zi arab tilidan shaharsozlik, qishloqsozlik, uysozlik madaniyati bilan bog'liq tarzda IX-X asrlarda o'zbek, tojik, fors tillariga o'tgan. Dastlabki ma'nolari o'rab olmoq; o'rab olingan, devor bilan qurshalgan; atrofi o'ralgan joy, devorli qo'rg'on, qo'rg'on, qal'adir. Turkiy tillarda *hasar* (ozarbayjoncha), *asar* (qozoqcha), *isar* (qirg'izcha), shevalarda esa *zar* kabi shakllarni olgan: Hisortepa > Zartepa. Toponim tarkibidagi *-ak* kichiklik va mavjudlik ma'nosini bildirgan. **Hisorak** – "qo'rg'oncha", "kichik qo'rg'on yonidagi qishloq" demakdir.

HOVSKANCHEK – Andijon viloyatining Paxtaobod tumaniga qarashli Uchko'za (Fayziobod) qishlog'i o'rnidagi qadimiy joy nomi. Bu yerda *Hovskantepa* nomli qadimiy katta tepalik hamon saqlanadi.

Akademik V.Bartoldning fikricha, ushbu tepalik miloddan avvalgi VIII–VI asrlarda mavjud bo'lgan qadimiy shahar o'rnida saqlanib qolgan vayrona qoldig'idir.

Atrofi soya-salqin va katta qabriston bo'lganligi sababli, keyingi yillarda ziyoratgohga aylangan (tepalik haqida xalq og'zida ayrim afsonalar ham saqlangan).

HOVUZAKSOY – daryo. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi daryo nomi. Havzak (forscha *shakl*) – *"kichik hovuz, ko'lmak"* ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, **Havzaksoy** gidronimi *"kichik hovuzli soy"* ma'nosini ifodalaydi.

HOVUZI SANGIN – XV asrda Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand viloyatining Samarqand shahrida qurilgan hovuz nomi. ***"Sang"*** so'zi forscha tosh ma'nosini ifodalaydi va mazkur nom *"toshdan qurilgan hovuz"* ma'nosini anglatadi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, B.21).

HUNARMAND – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri. *Hunarmand* – mohir, yuksak mahoratli, iste'dodli, qobiliyatli, uyida va do'konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi malakali mutaxassis, kasb-hunar egasi ko'p joy kabi ma'nolarni ifodalaydi.

HURVATAN – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom mustaqillik yillarining boshlaridagi dayr mahsuli sanalib, u ikki qismdan: ***hur*** va ***vatan*** so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan.

Apellyativning birinchi qismi *hur* o'zbek tilining izohli lug'atida shunday izohlanadi: *"Ozod, erkin; mustaqil; erksevar; asil, toza"*[1] kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Uning ikkinchi qismi Vatan so'zining mazkur lug'atda *"Kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i,*

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, –Toshkent: O'zbek Milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.562.

yurt, diyor"[1] kabi ma'nolari qayd etiladi.

Sunday ekan, ***Hurvatan*** toponimi "*Kishining tug'ilib o'sgan ozod o'lkasi, shahri yoki qishlog'i*" ma'nosini bildiradi.

HURRIYAT – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "**hurriyat**" so'zi – *siyosiy, iqtisodiy va boshqa zulm, tazyiqdan xaloslik, erkinlik, ozodlik* (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 565-bet) kabi ma'nolari qayd etilib, mazkur hudud ham shularni nazarda tutgan holda nomlangan.

HUSNIOBOD – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq, mahalla va qabriston nomi. ***Husn*** arabcha so'z bo'lib, *ko'rk, chiroy; go'zallik, latofat; yaxshi sifat, xislat* kabi ma'noni bildiradi.

Mazkur o'rinda Husniobod toponimi go'zal va obod joy, o'lka, hudud kabi ma'nolarni ifodalaydi.

[1] O'sha lug'at. 1-jild, -B. 444.



I

IBRAYIMO'ZEK – kanal. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qoraoy" OFY hududini sug'oruvchi kanal. Nuroniy otaxon Yesbosin Saparovning aytishiga qaraganda (2017-yil), qoraqalpoqning Bessari urug'idan bo'lgan Narimbet oxunning o'g'li Xudoybergan ismli kishi bo'lgan ekan. U tuman kengashi raisi bo'lgan paytida hozirgi Qoraoy hududidagi Besmeshit degan joyga suv olib borish maqsadida kanal qazdirgan. Lekin kanal nomini o'zining ukasi Ibrayimning nomi bilan atagan.

IBRAT – mahalla. Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi mahalla nomi. Viloyatda bir necha marta takrorlanadigan joy nomlaridan biri. Arabchada **Ibrat** – *namuna, o'rnak* degan ma'noni bildiradi. **Ikrom** – *izzatli, hurmatli,* **Islom** – *bo'ysungan, itoatkor, islomni qabul qilgan,* **Iftixor** – *faxr, g'urur, shon-shavkat,* **Yo'ldosh** – *esh, hamroh, do'st* deb izohlanadigan kishilar ismidan ham viloyatda joy nomlari vujudga kelgan.

IBROHIMOTA – qishloq. Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi qishloq nomi. Afsonalarga ko'ra, *Ibrohim ota* tasavvufning Turkistondagi taniqli vakili bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviyning (XII asr) otasidir. U yerda Ibrohimota maqbarasi ham bor. Qishloq shu nom bilan atalgan.

IDIRLIQAL'A – qal'a. Tarixiy toponim (hozirda mavjud emas). Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi qismi hisoblangan ***idir*** so'zi Xorazm shevasiga xos bo'lib, *"tartib, tuzuk, yaxshi"* kabi ma'nolarni bildiradi. Mazkur so'z hozirda ham Urganch va Xiva tumanlarida faol qo'llanilib, ***idirli*** (Xorazmning ayrim hududlarida ***idinli*** varianti ham mavjud) – "tartibli" degan ma'noni anglatadi (O'zbek shevalari lug'ati. – Toshkent, 1971. – B. 114.).

Shunday ekan, ***Idirliqal'a*** – *"tartibli, reja asosida qurilgan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

IFTIXOR – mahalla. Sirdaryo viloyatining Boyovut hamda Buxoro viloyatining Vobkent tumanlaridagi qishloq hamda mahalla nomlari. Buxoro viloyatida qishloq 2014-yilga qadar *Tojiklar* deb atalgan.

Geografik joy nomiga *tojik* xalqi nomi asos bo'lgan, ya'ni bu nom hosil

bo'lishiga ko'ra etnonimdir. Toponim tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik affiksi hisoblanadi. Demak, **Tojiklar** – *"Tojik millatiga mansub kishilar yashaydigan joy"* ma'nosidadir.

Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Iftixor* deb o'zgartirilgan.

Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida esa mazkur nom mustaqillik yillarida nomlangan bo'lib, aslida, ***Iftixor*** arabcha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: *"Faxrlanish, maqtanish, shon-sharaf hissi, faxr degan ma'noni anglatadi. Shon-sharaf keltiruvchi, faxrlansa arziydigan ish, kimsa yoki narsa"* (O'TIL. II, 245).

IJGANT – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Turkiy qipchoq shevalarida, xususan, Qo'shrabot tumanida aholi so'zlashuv nutqidagi "y" harfi talaffuzi o'rnida "j" harfi talaffuzini qo'llashadi.

Apellyativning birinchi qismidagi **Ijg,** aslida, **iyik,** ya'ni *"yon bag'rdagi, qayrilishdagi"* deb izohlash mumkin. Chunki **iy** so'zi deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi va *"chekka, qayrilish, yonbag'ir"* degan ma'nolarni bildiradi [Sevortyan, 1974, 330].

Toponimning ikkinchi qismidagi –gant (-ant) "***kent***"ning o'zgargan, dialektal shakli bo'lib, "***qishloq***" ma'nosini ifodalaydi. Leksik jihatdan ikki o'zakli sifat+ot shakliga xosdir.

IJODKOR – mahalla. Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. ***Ijodkor*** arabcha, forscha so'z bo'lib, ushbu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: *"Ijod qiluvchi degan ma'noni, shuningdek, ijod etuvchi, yuzaga keltiruvchi, yaratuvchi, yaratilgan narsa egasi"* kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan (O'TIL. 2022, II, 176).

IKKI OLMA – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom son+ot strukturali mikrooykonim sanaladi. Bu yerda olma daraxtining soniga urg'u berilmoqda va mazkur joy nomi shuning uchun ham shunday atalgan.

ILATON//ELATON – qishloq. Tarixiy toponim. Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanidagi qishloq va mahalla nomlari. Mazkur toponim turkiy tillarda mavjud bo'lgan ***il*** yoki ***el*** so'zi asosida hosil bo'lgan. O'zbek tilida ***il*** so'zining bir qancha ma'nolari mavjuddir, jumladan: *"qabilalar ittifoqi, xalq, mamlakat va h."* (Э.В.Севортьян. Этимологический словарь тюркских языков. –М. 1974. –С.342-343).

Eski o'zbek tilida il o'zagidan ***el*** so'zi ham hosil qilingan va bu "aholi, xalq" ma'nolarini ifodalagan. ***-On*** qo'shimchasi esa fors-tojik tillariga xos bo'lib, ko'plik ma'nosini anglatadi.

ILGALDI – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Avvallari bu hududlarda hech kim yashamagan va taxminan 1920-yillardan keyin mazkur hududga odamlar kelib yashay boshlagan. Shundan keyin bu hudud *"elkeldi" < "elgaldi"* deb nomlana boshlangan. Keyinchalik mahalliy aholi vakillari mazkur nomni o'zlari-

ning nutqiga moslashtirishi natijasida uning **Ilgaldi** dialektal shakli vujudga kelgan.

ILONLI – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal hamda Samarqand viloyatining Narpay va Buxoro viloyatining Qorako'l tumanlaridagi qishloqlar nomi.

Ilonli//yilonli//jilonli o'zbeklarning ko'pgina urug', qabilalarida qayd etilgan. Tojikiston do'rmonlarida ***ilonli//jilonli*** urug'i bor.

X.Doniyorov ***ilonli (ilonsoy)*** asosiy o'zbek urug'laridan biri deb ko'rsatgan. Bu etnonim bir qator turkiy xalqlarda mavjud. Jumladan, boshqirdlarda ***ilon//idial//elan.***

Demak, ***Ilon*** – totem, shu asosida urug' nomlangan, etnonimdan joy nomi yuzaga kelgan[1].

ILONLIKOTA – mahalla. Toshkent shahrining Bo'rijar mahallasi hududida Qatortol va Katta Xirmontepa ko'chalari kesishuvida joylashgan. Umumiy maydoni – 2,5 gektar. Qachondan faoliyat ko'rsatayotgani ma'lum emas. O'zbeklar orasida ilonli, jilonli, jilontamg'ali kabi urug'lar mavjud. Bu etnonimlarning vujudga kelishi ilon totemi bilan bog'liq, qadimda Markaziy Osiyo xalqlari ilonni yer va suv timsoli sifatida muqaddaslashtirgan. Qabriston nomi ham (O'rta Osiyo hududida bu nomdagi qabriston, qadamjolar ko'plab uchraydi) va shu asosida nom shunday atalgan.

ILONLISOY – soy. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi gidronim. *Ilonli* nomli qishloq ham bor. Tamg'asi ilonga o'xshash urug', qabila nomi bilan bog'liq gidronim.

O'lkashunos V.Kucheryavixning aytishiga ko'ra, Markaziy Osiyoda ilon bilan bog'liq *Ilonsoy, Jilono'ti, Morguzar* kabi toponimlar keng tarqalgan. Xalq rivoyatida aytilishicha, *Ilonsoyda* ajina paydo bo'lib, suv yo'lini to'sgan va bu yerda qurg'oqchilik bo'lgan. Shunda xalq Kamqo'ton tog'idagi Ko'lbobo chashmasida yashovchi ilonga murojaat qiladi. Ilon kishilar iltimosini bajarib, toshlarni qo'porib, suv yo'lini ochadi. O'zi esa kuchsizlanib, tog' cho'qqisiga aylanadi. Shu paytdan boshlab, soy *Ilonsoy* deb atala boshlangan (Кучерявых, 1982). Mazkur satrlar muallifi ilonsoylik kishilar bilan suhbat qurganda, ular bu soyda, haqiqatan ham, ilon ko'pligini ta'kidlashdi.

Shuningdek, *Ilonsoy* nomli ariq ham mavjud bo'lib, u 1) Qoratepa tog'larining shimoliy yonbag'ridan kelib chiqadi, Darg'om kanaliga quyiladi – "ilon daryosi"; 2) Surxondaryo viloyati Sherobod daryosining o'ng irmog'i. Ilonsoy – shu tumanda. *Ilonsoy – "ilon kabi tebranayotgan daryo"* ma'nosini anglatadi.

ILOQ – vodiy. Toshkent viloyati. O'rta asrlardagi Ohangaron vodiysining nomi. Ilk bor arab geograflari Istaxriy (БАГ, I, С. 280, 290, 312 и т.д.), Ibn Havqal (БАГ, II. С. 342, 348, 362 и др.), Muqaddasiy (БАГ, III, С.

[1] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. O'zbekistonning janubiy rayonlari. –T.: O'qituvchi, 1988. –B.84.

49, 262, 265 va boshqalar.), shuningdek, "Hudud ul-olam" asarlarida tilga olinadi.

Iloq turkcha toponim, *loq*, professor A.Gulyamovning fikricha, "joy" ma'nosini ifodalaydi. Iloq toponimini arab grafikasida **Ayloq**, shunda u "*yaylov*" ma'nosini ifodalaydi, ba'zan **Eloq** sifatida ham o'qish mumkin.

Tarixchi G'. Boboyorov fikricha, Iloq aslida "daryo, jilg'a" ma'nosidagi eski turkcha "ilak, ilek" so'zlari bilan bog'liq. Hozirgi Ili daryosi qadimda Ila deb yuritilganidek, Ural daryosining bir tarmog'i Ilek deb ataladi.

ILONO'TTI – dara. Jizzax shahri yaqinidagi dara, yaqindan boshlab **Ilono'tti** yoki **Jilono'tti** ("ilon yo'li") nomiga ega bo'lgan.

Rus mualliflari ushbu darani "Tamerlan darvozasi" deb atashgan. Ushbu daraning qadimiy turkiy nomi "Temir qapusi" bo'lgan, deb hisoblaymiz. Temir so'zi ruslar uchun hech narsani anglatmasdi. Shu sababli dahshatli qo'mondonning ismi, go'yo to'liq noma'lum ismning o'rnini egallagan. Bunday fikr uchun biz:

1) agar darada chindan ham Temurlan ismini olgan bo'lsa, unda u "Amir Temur darasi" deb nomlanishi mumkinligiga asoslanamiz: chunki u mahalliy aholi orasida Amir Temur nomi bilan tanilgan. Bu yerda O'zbekiston janubidagi mashhur Amir Temur g'orini eslash mumkin. Buxoro viloyatida eski Amir Temur kanali va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, o'zbek urug'lari qabilasi Amir Temir nomi bilan tanilgan;

2) har bir tog' dovoni, tog', dara – hamma joyda nom bor, bu tarjimada "Temir eshiklar" degan ma'noni anglatadi. M.E. Massonning so'zlariga ko'ra, faqat Qrimda 7 daralar "Temir darvozalar" (Demir qapu) deb nomlangan. Bunday misollar juda ko'p. Qadimgi turkcha *qapuğ* hozirgi o'zbek tilida *qopqa* deb talaffuz qilinadi. Toshkentda bir ko'chaning nomi **Teshikqopqa** deb atalgan. Olimlarning ta'kidlashicha, **Yenchu** yoki **Yenchu-o'kuz** – Sirdaryo daryosining qadimgi turkcha nomi hisoblanadi (И. Маркварт, В.В. Бартольд, С.Е. Малов, С.Г. Кляшторный).

ILG'OR – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: a) qo'shinning oldingi qismi, avangardi; b) ishda, taraqqiyotda oldinda boruvchi, peshqadam; v) taraqqiyot, rivojlanishga, olg'a siljishga xizmat qiluvchi, yangilikka boshlovchi" (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 201-bet).

Ushbu **Ilg'or** toponimi mamlakatimizning Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ham uchraydi.

IMIR (EYMUR) – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy va Ellikqal'a tumanlaridagi ovul nomi. Etnotoponim. Bu nom Janubiy Qoraqalpog'iston hududida uchraydigan o'g'uz etnonimlaridan yana biridir. Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlarning o'n birinchi urug'i *əjmÿr* ekanligini aytadi. Rashididdin Tog'xonning ikkinchi o'g'lining ismi Iymur bo'lib, bu so'z

"*behad karam va boylik sohibi*" degan ma'noni ifodalashini yozadi. Abulg'ozi bu etnonimni *Imir* sifatida tilga oladi va uni "*behad boy*" deb izohlaydi. Ayrim tadqiqotchilar *Eymur* etnonimini turkmanlarning *Imreli* urug'i bilan aloqador deb hisoblaydilar[1].

Turkmanlarning Imreli urug'i 1803 (yoki 1804) yilda Avazinoq hukmronligi davrida Janubiy Turkmanistondan ko'chganligi ma'lum. Ular dastlab Amanquli kanali bo'ylaridan yer olib, Xo'jaylida yashaganlar. 1806-yili u yerdan Yangiariq tumaniga ko'chib kelganlar. Imrelilarning katta qismi Turkmaniston Respublikasining Toshovuz viloyatida joylashgan. 1827-yil ularning katta bir guruhi Aptekdan Xorazmga ko'chib o'tgan[2]. Bu ma'lumotlar Eymur (imur) urug'ining turkmanlar tarkibidagi qismiga taalluqlidir. Vaholanki, Xorazm vohasida o'g'uzlarning Imur urug'iga xos etnik guruhlarning yashaganligi juda qadimga borib taqaladi. Hozir mavjud *Yÿmri, Yÿmritav* kabi toponimlari shu etnonim bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yÿmritav oronimining ma'nosi haqida turli qarashlar mavjud. Xalq orasida *Yumri* (yumriq, yumaloq) tog'ning shakliga ko'ra berilgan. U dumaloq ko'rinishga ega deyiladi. Ammo tog'ning shaklini aniqlash ancha mushkul ish. Odatda, tog'larning nomi ularning balandligi, rang kabi xususiyatlariga qarab beriladi. Ayrim tadqiqotchilar tog' nomini avestoviy "saxiy, sherdil, mard, botir" ma'nosini beruvchi *jo'mard* so'zi bilan bog'laydilar[3]. Ular bu faraz isboti uchun S.P.Tolstovning bir fikriga ishora qiladi. S.P.Tolstov o'zining "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" nomli asarida, haqiqatan ham, Eron afsonaviy qahramoni Govmard, Qayumars (Jo'mard) haqida gapiradi. Ammo u bu qahramon nomini Yumritov oronimi bilan bog'lamaydi. Umuman, S.P.Tolstov bu oronimning kelib chiqishi haqida so'z yuritmagan. U yuqoridagi qahramon nomini xorazmliklarning yaqin o't-mishdagi e'tiqodlarida "Avesto"da va pahlaviy afsonalaridagi qahramonlar bilan bog'lanadigan an'analarning mavjudligini ko'rsatish uchun keltiradi. Bunday an'analarning ayrim izlarini Xo'jayli va Amudaryoning so'l sohilidagi Jumurtov tumanlarida kuzatganini aytadi, xolos[4].

Sheva vakillarida bu nomning *Jumritov* varianti mavjud. Bu oddiy fonetik o'zgarish bo'lib, u qipchoq shevalarida *yo'l-jo'l; yur-jur* kabi "j"lashish hodisasi bilan bog'liq.

Demak, *Yumritov, Yumri* toponimik nomlar *stumir* (imur, eymur) etnonimi bilan aloqadordir. Buni ayrim tarixiy materiallar ham tasdiqlaydi. Jumladan, qadimgi yozma manbalardan bir "Nuzhat al-mushtaq" qadimiy o'g'uzlarning yashagan joylari haqida ma'lumot berar ekan, ularning Orol

[1] Гусайнзаде А. Параллели огуских этнонимов в современной топонимии Азербайджанской ССР // Советская тюркология. №4, 1977. –С. 49.

[2] Брегель Ю.Е. Хорезмские туркмены в XIX веке. – М., 1961. –С. 31.

[3] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? –Toshkent, 1970. –B.54.

[4] Tolstov S.R. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. –Toshkent, 1964. –B. 95.

dengizi bo'ylarida yashaganligini va bu dengiz (yoki Xorazm ko'li) bo'yidagi tog' Chakra o'g'uz deb nomlanganini qayd etadi. S.T.Tolstov manbalarda tilga olingan Chakra o'g'uz (O'g'uz tog'i) hozirgi Sultonuvays tog'i ekanligini aytadi[1].

Shunday ekan, bu tog' yonida qadimdanoq o'g'uzlarning yashaganligi aniq. Mahalliy xalq bu o'g'uzlarning kimligini yaxshi bilgan. Tog'ning nomini muayyan urug' nomi bilan yuritganlar. Shunday ekan, eymur urug'ining nomi bilan Yumritov oronimi aloqadordir (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, 2012).

IMOMBOYLIOTA – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Tarixiy manbalarda **Rustuvag'n** shaklida uchraydi. *-bag'n (-vag'n, -fag'n, -pag'n)* va *–bag' (-fag', -pag')* topoleksemalari. *–bag'n* (sug'dcha "ibodatxona") va *-bag'* (sug'dcha "iloh, xudo") (V.B. Xenning etimologiyasi) topoleksemalari bilan yasalgan toponimlar ilk o'rta asrlarga oid bo'lib, hozir kam saqlanib qolgan. Bu turdagi nomlar asosan tarixiy toponimiyada qayd qilinadi. *-bag'n (-bog')* topoleksemasi ishtirokida yasalgan toponimlar yuzasidan fikr yuritgan olima O.I.Smirnova Samarqand hududidagi *Xushuvag'n, Rustvag'n (Rastivag'n), Sanjarvag'n (Zanjirvoq), Bag'diza, Rudfag'kad (Rudvog'kad)* kabilar haqida to'xtaladi. Musulmon manbalarida tilga olingan *-vag'n* topoleksemali nomlarga e'tibor bergan V.B.Xen Samarqand qishloqlaridan birining sug'dcha **Xushuvag'n** nomi *"Olti ibodatxonali qishloq"* ma'nosida ekanligini ko'rsatadi (Smirnova, 1971). Nom ma'nosidan bu qishloqda bir vaqtda oltita ibodatxona yoki butxona bo'lganligi ko'rinadi. Sug'dning muhim madaniy markazlarini birlashtiruvchi yo'llar kesishgan joyda qurilgan bu qishloq XII asrda *"Ras al qantara"* ("ko'prik-boshi") nomi bilan mashhur bo'lgan. XIII asrdan esa *Saripul* deb qayd qilina boshlaydi.

Chingizxon qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan bu qishloq mo'g'ullar istilosi davrida ham mashhur bo'lgan. Saripul qishlog'i XVI asr manbalarida yirik qishloqlardan biri sifatida qayd qilingan. Kattaqo'rg'on shahridan 4 km uzoqlikdagi masofada bo'lgan bu qishloq o'rnida saqlanib qolgan qal'a xarobalari XIX asrda N.Veselovskiy tomonidan tekshirilgan (Веселовский, 1888: 221–226). *-vag'n* topoleksemali geografik nomlardan yana biri Somoniy asarida qayd qilingan *Rastvag'n (Rastivag'n)* qishlog'ining birinchi komponentini O.I.Smirnova adolat ilohi Rashn nomi bilan bog'laydi. U Rashn(i)vag'n so'zi keyinchalik talaffuzda Rast(i)vag'n shaklini olgan, deydi. *Rastivag'n* qishlog'i nomi XVI asr vaqf hujjatlarida ham tilga olingan.

[1] Атаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII веков. – Ашхабад, 1969. –С. 50–53.

V.L.Vyatkinning ko'rsatishicha, o'rta asr qishlog'i *Rastivag'n* Ishtixon tumanidagi *Boyliota* qishlog'i o'rnida bo'lgan. Bu qishloqdagi Abulhasan Ali ibn Sa'id Rustufag'niy mozorining mavjudligi ham olimning fikrini tasdiqlaydi. V.V.Bartold qishloq nomi *Rustagfag'n* shaklida bo'lgan, deydi.

Bizningcha, toponimning birinchi komponenti "**rustoq**" (tojikcha "**rusto**") – *qishloq* (bu o'rinda ma'muriy-hududiy birlik – "Tuman" ma'nosida) so'zining arabchalashtirilgan shaklidir.

Demak, **Rustoqvag'n, Rustuvag'n** toponimini *"qishloq yoki tuman ibodatxonasi"* deb izohlash to'g'ri. *-bag'n* topoleksemasi ishtirokida yasalgan **Zanjirvoq** toponimi (Urgut) etimologiyasi esa sanskritcha **"sangarma"** *("ibodatxona, jamoa joyi")* so'zi bilan bog'liq holda izohlangan.

O.I. Smirnova musulmon mualliflari asarlarida *Sanjarvag'n* shaklida qayd qilingan bu toponimni **Sankaramvag'n, Sangarvag'n** (*"Budda monastiri, ibodatxonasi"*) so'zining o'zgargan shakli, deb ko'rsatadi. Yangiariq kanalining chap qirg'og'idagi bu joy haqida XV–XVI asrlar vaqf hujjatlarida *"Sanjarvog'ni mavzesi Zanjirbog' nomi bilan mashhurdir"*, – deb yozilgan.

Tarixiy manbalarda Bag'diza qishlog'i (XV asr) ham qayd qilingan. Xoja Ahror mahallasining sharqidagi bu qishloq, aftidan, Hurmuzd nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak. **Bag'** – *iloh, xudo va* **diza** – *qal'a, istehkom* so'zlaridan tashkil topgan. -bag'n topoleksemasi Shirvoqota (Urgut) ziyoratgohi nomida ham uchraydi. *Shirmitan, Shirqo'rg'on* singari toponimlar tarkibidagi **"shir"** leksemasi sug'dcha *"yaxshi, mashhur, aziz, hurmatli"* ma'nosida bo'lib, **Shirvoqota** – *"aziz, ulug' sajdagoh, ibodatxona"* ma'nosidadir. Buxoro viloyatidagi Shirbudun toponimi tarkibidagi *"shir"* so'zini olimlar *"shir, sir, chir"* deb atalgan turkiy xalq nomi bilan bog'laydilar (Sayfullayeva, 2009). *-bag'n* topoleksemali joy nomlaridan yana biri Anhor tumanidagi (Miyonqolning quyi qismidagi *Tabaron* va *Navqa* qishloqlaridan janubda joylashgan) Qarasfag'n qishlog'idir. Bag'n topoleksemali geografik nomlar tarkibida keyinchalik *"ota"* leksemasi qo'shib ishlatila boshlagan. Bu islomga qadar muqaddas joy sifatida e'zozlanib kelgan obyektlarning keyinchalik ham o'z mavqeyini saqlab qolganligini ko'rsatadi. Masalan, *Shirvoqota, Zanjirvoqota, Imomboyliota* singarilar shular jumlasidandir.

IMOMQOZIXON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qadimda Imomxon ismli amir maslahatchisi shu yerda Eron lashkarboshisi bilan sulh tuzib, urushni bartaraf qilgan va keyinchalik qishloq shu inson nomi bilan atalgan. Toponim tarkibi uchta so'z – *imom, qozi* va *xon* so'zlaridan iborat. Nomning birinchi komponenti – *imom* so'zi *"namoz boshqaruvchisi"* degan ma'noni anglatgani holda *islom peshvolarining* unvoni ma'nosini bildiradi. Toponimning ik-

kinchi komponenti – *qozi* so'zi esa *"shariat qonuni bo'yicha ish ko'radigan sudya"* ma'nosini anglatadi. Nomning uchinchi komponenti – *xon* so'zi bu yerda *"mehmonxona"* ma'nosida kelmoqda.

INGICHKA – mahalla. Farg'ona viloyati Furqat tumanidagi mahalla nomi. Bu so'z o'zbek tilida *xipcha, nozik* ma'nosida ishlatiladi. Lekin mazkur toponim shu nomdagi urug' nomidan olinganligi aytiladi. Bunday nom respublikamizning boshqa viloyatlarida ham keng tarqalgan.

Ingichka nomli qishloqlar Samarqand viloyatining Nurobod hamda Qashqadaryo viloyatining G'uzor, Qamashi va Dehqonobod tumanlarida ham mavjud.

INGICHKASOY – soy. Samarqand viloyatining Bulung'ur va Payariq tumanlaridagi soylarning nomi. Ingichka (jingichka) urug' nomi bo'lsa kerak (Qorayev, 1978). Relyef bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

INOQ – qishloq. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Buxoro xonligida buyuk *inoq* amir bo'lmaganlar toifasi va amaldor bilan suhbatga loyiq bo'lgan shogirdi peshaga hukmdorning buyruqlarini yetkazib berardi va shu orqali hukmdor bilan suhbatlar o'tkazilardi. Ashtarxoniylar davrida Inoq xon muhrining saqlovchisi ham bo'lgan.

Arabcha **inoq** so'zi *"samimiy do'st, suhbatdosh, insonning ishonchli odami"* kabi ma'nolarni ifodalagan. Shu yerdan xonning eng yaqin odami sifatida inoqning muhim holati aniqlangan. Shunday lavozim Xiva xonligida ham bo'lgan.

IQBOL – mahalla. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur toponim boshqa nomlarga qaraganda mazkur hududdagi nisbatan yosh toponimlardan sanaladi va unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: "*Baxtli taqdir, porloq kelajak, baxt, omad, peshvoz chiqish*" (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 263-bet).

IRQIN – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Qozoqiston toponimiyasida **ir** so'zi bilan yasalgan toponimlar ko'p uchraydi: **irsu** (egri suv), **irtas** (egri tog') va boshqalar. Apellyativning ikkinchi komponenti – qin "qand" (qishloq, shahar) so'zidagi **a** tovushining **i** tovushiga o'zgarishi va so'z oxiridagi **d** tovushi tushushi o'zbek tili uchun xos xususiyat (ya'ni so'z oxirida qo'sh undoshdan biri tushadi).

Demak, ***Irqin*** toponimi – *egri tog' yoki egri suv shahar* ma'nolaridan birini anglatadi.

IRG'AQLIOVUL – aholi punkti. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir va Qorao'zak tumanlarida joylashgan aholi punktlari nomlari. Bu aholi punktlari mahalliy aholining asosiy qismini qoraqalpoqlarning Irg'aqli urug'idan bo'lgan xalqlar tashkil qilganligi sababli shunday atalgan.

IRG'OLI – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi qish-

loq nomi. Toponimikada *-li* qo'shimchasi biror narsani ushbu joyda keng tarqalganligini bildiradi. Bu joy **Irg'ay** – *"yog'ochi qattiq buta o'simligi"* keng tarqalganligi uchun shunday nom olgan bo'lishi mumkin. Professor Z. Do'simov mazkur nomni qush yoki urug' nomi bo'lishi mumkin, – deb yozadi (Z.Do'simov, 1977).

ISABOY – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Qishloq yaqinida Isaboytepa nomli tepalik ham bor. Mang'it qabilasining bir tarmog'i Isaboy deb ataladi, etnotponim.

ISBISK//ISBASK DARVOZASI – darvoza. Samarqand viloyati. Siyob kanalining narigi tomonida, *O'zbekkenti* va *Qunduzso'fi* qishloqlari oralig'ida bo'lgan. Darvoza Samarqanddan ikki farsax uzoqlikdagi *Isbisket* yoki *Isbasket* qishlog'i nomi bilan atalgan. XV asr hujjatlarida *Motrid* yonida joylashgan *Isbask* qishlog'i qayd qilingan. U taxminan Afrosiyobdan shimoli-g'arbdagi *Qunduzso'fi* va *O'zbekkenti* qishloqlari yonida joylashgan. Bu nom sug'dcha *sp* – *"ot"* va *-ask* suffiksidan yasalgan bo'lishi mumkin (Лурье, 2004).

ISFARA – daryo. Farg'ona vodiysidagi daryo nomi. *Asbar* shaklidagi *Isfara* arab geograflari Ibn Havqal (БАГ, 2, 390, 397-betlar), Istaxriy (БАГ, 1, 334-bet) asarlarida eslatib o'tilgan. Etimologiyasi aniqlanmagan. Ammo qadimgi eron tilida **aspabara** – *"chavandoz, otliq"*. Qadimgi davrlarda otchilik Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Farg'ona vodiysida rivojlanib, otchilikning gullab-yashnashiga hissa qo'shishi mumkin edi.

ISKA – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Xuddi shu nomda ariq ham bo'lgan.

Professor B.O'rinboyev mazkur nom qozoqlarning Qorakesak urug'i shoxobchalaridan biri *iskana, iska, kana* bilan bog'liq deb ko'rsatadi. *Iska* qishlog'i va ariq nomi 1489-yilgi vaqf hujjatlarida *Iski* shaklida qayd qilingan. Tarkibida *"iski, iska, iskan, iskotar"* terminlari ishtirok etgan nomlar Samarqand viloyati tarixiy toponimiyasida anchaginadir.

Jumladan, S.Qorayev Tojikistondagi *Iskandarko'l* nomi *"iskotar"* – *baland, yuqori"* so'zi bilan bog'liqligini ko'rsatgani holda, Zarafshondan chiqarilgan o'rta asr ariqlaridan birining *Iskandarg'om* nomi bilan atalganligini ham qayd qiladi. Bu ariq nomi ayrim manbalarda *Eski Darg'om* va *Iskandarg'om* deb tilga olinadi. Aslida, deb yozadi olim, kanal *Iskadarg'om* – (**iska** – *yuqori* va **kom, g'om** – *kanal, ariq,) "yuqori ariq"* ma'nosidadir.

Bizningcha, *Iska* qishlog'i nomi ham *"baland, yuqori"* so'zi bilan bog'liq. Bu o'rinda qishloq ariq nomi bilan atalgan yoki aksincha holat yuz bergan bo'lishi mumkin. Xuddi shu hududda *Pastqishloq* nomli toponim mavjudligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

ISKANDARARIQ – Toshkentning pastida imperator Aleksandrning nomiga atalib qo'yilgan. Shuningdek, Zul-

qarnayn (Zulqarnayn "ikki shoxli") – Aleksandr Makedonskiyning laqabi toponimi ham mavjud.

Ta'kidlash joizki, *Zulqarnayn* toponimi Iskandar nomiga qaraganda ham ko'proq sarkarda Makedonskiy nomi bilan bog'liq, garchi Zulqarnayn shaxs ismi ko'p uchrasa ham yoki Zulqarnayn nomi Iskandar nomiga qaraganda ham kamroq tarqalgan, ikkinchidan, yevropacha Aleksandr tez-tez Iskandar sifatida "Tarjima qilingan", uchinchidan, sug'dcha *Iskadar* nomi qabul qilish jarayonida Iskandarga aylangan.

ISKANDAR – Toshkent viloyati. Sug'dda va Baqtriyada yunon-makedonlari o'zlarining bir yuz ellik yillik hukmronligi davrida geografik nomlar haqida oz bo'lmagan xotiralarni qoldirishgan. O'rta osiyoliklar butligini ta'minlashga harakat qilib, yunon sarkardalari koloniyalarni asoslab mustahkamlashgan va u yerlarga ko'proq o'zlarining askarlarini joylashtirishgan. Shaharlarning nomlarini ham o'zlarining nomlari bilan atashgan (Aleksandriya, Antioxiya, Selevkiya).

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn)ga Sug'd va Baqtriyada yettita shahar (Strabon bo'yicha) yoki 12 ta shahar (Ostin bo'yicha) atab qo'yishgan. Talantli sarkarda Aleksandrning nomiga – qishloqlar, Vavilonga egalik qiluvchi Sirdaryodan Indagacha Iskandarning nomiga 72 ta shaharning nomini berishgan. Grek nomlarining ayrim ma'lumotlari tarixdan mashhurdir. Greklar nomiga asoslangan eng yangi shaharlarga Yaksart ortidagi Antioxiya shahri kiradi. Olimlarning ta'kidlashicha, u hozirgi Toshkent yoki Farg'ona vodiysida joylashgan. Antioxiya shahrining qoldiqlari hozirgi Bayramali shahri (Turkmaniston Respublikasi) atrofida joylashgan. Skifdagi Selevkid Antioxiya hozirgi Uzgen (Qirg'iziston Respublikasi) hududidan o'rin olgan.

Aytgancha, Orol dengizining qadimgi nomlaridan biri ham Antiox dengizi (Antiox Selevka sarkarda Aleksandr Makedonskiyning o'g'li bo'lgan va O'rta Osiyo hududlarining katta qismiga egalik qilgan). Oz bo'lmagan miqdordagi nomlar ham Aleksandr Makedonskiyning nomi bilan bog'liq bo'lgan.

Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlarining birining nomi Termez bo'lgan, u yunon-makedonlari hukmronligi davrida *Aleksandriya, Demitras, Yevkrovtediyaniy* nomlari bilan atalgan. Markaziy Osiyoda ko'pgina nomlanishlar Iskandar (arablashgan shakli Aleksandr) komponenti bilan bog'liq. Bu nomlar odatda Aleksandr Makedonskiy nomidan hosil bo'lgan. Biroq bunday dalillar o'z tasdig'ini topmadi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Iskandar ko'lining nomi sug'dcha *"yuqori, yuqorida yotuvchi"* ma'nosini ifodalaydi.

ISKOGARE – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi shaharcha nomi. Mahalliy aholi toponimni somon sovurish uchun ishlatilgan ***iskov*** asbobi bilan bog'laydi. ***Iskov*** panjshaxa-

ga (پنج شاخه) o'xshagan *besh, ba'zan to'rt panjadan iborat yog'och mehnat quroli* hisoblanib, asosan bug'doy o'rib olingandan keyin uni xirmon qilib, somon va donni sovurish yo'li bilan biri-biridan ajratib olish uchun yengil shamol esgan paytlari ishlatilgan. Asbob hozir deyarli unutilib, ishlatilmay qo'ygan bo'lsa-da, toponim saqlangan.

Ushbu mehnat qurolini yasovchilar yaqin o'tmishda shu qishloqda istiqomat qilgan va toponimning shu shaklda nomlanishiga asos bo'lgan.

ISLOMKENT – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumani. Islom – musulmon dini, **Islomkent** – islom diniga oid qishloq, musulmonlar qishlog'i. **Islom**, ehtimol, qishloq asoschisining ismidir.

ISLOMOBOD – Sirdaryo viloyatining Guliston va Xovos tumanlaridagi aholi punkti, Sirdaryo tumanidagi mahalla va qabriston nomi. Mustaqillik davri mahsuli hisoblangan mazkur toponim islom dini, islom diniga e'tiqodli kishilar yashaydigan obod manzil, hudud, qishloq kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

ISMITAN – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi Mitan qishlog'ining o'rta asrlardagi nomi. Arab muarrixlari Somoniy va Yoqutlarning xabar berishlaricha, Kushoniya (Sug'd) atrofidagi qishloqlardan biri shu nom bilan atalgan. Tarixchi O.I.Smirnova Ishtixon tumanidagi *Mitan* qishlog'i qadimgi *Ismitan* bo'lishi kerak, deb qayd qilgan.

ISPANZA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi yirik qishloqlardan biri. O'rta asr vaqfnomalarida *Ispandiza* tarzida qayd qilingan. Mazkur nomning etimologiyasi (ma'nosi) haqida fikr yuritgan olima O.I. Smirnova fikricha, "**Ispanza**" sug'dcha Aspantarmatdiza – *"yer ilohining qal'asi"* so'zidan kelib chiqqan. Samarqand yaqinida *Ispandi* qishlog'i va *Dami Ispandi* nomli ariq ham bor.

ISTAMZE – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi shaharcha nomi. Mazkur toponim tarkibidagi *"**istam**"* so'zi *biror-bir narsaning, jumladan, matoning bardavomligini, mustahkamligini, chidamliligini* bildiradi. *"**Ziy**"* so'zi esa *turli tabaqaga mansub kishilarning maxsus libosi*ni anglatadi. Chidamli, uzoq xizmat qiladigan libos tikuvchi hunarmandlar yashagan qishloq ma'nosini anglatgan.

Ikkinchi fikrimizga ko'ra, toponim aslida *"istamzeh"* (استمزه) shaklida yozilgan va talaffuz qilingan. Fonetik o'zgarishga uchrab "istamze", ba'zan esa "stamze"ga aylangan. Uning tarkibidagi "zeh" so'zi "kamon ipi", "yoy ipi" ma'nosini bildiradi.

Demak, o'tmishda bu qishloqda mustahkam kamon ipi yasovchi aholi istiqomat qilgan. Har ikkala holatda ham hunarmandlar ma'nosi ifodalanmoqda.

ISTIQBOL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq hamda respublikamizdagi juda ko'plab MFY hamda ko'chalar nomi sanaladi. Ayniqsa, mazkur nom mus-

taqillikdan keyin nomlanib, u *porloq kelajak, farovon hayot kechirish umidi* ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu qishloqning eski nomi "Qullar" bo'lgan. Hududiy lingvomadaniyatda hozir ham keng qo'llanadi. Ushbu qishloqda istiqomat qiluvchi mahalliy aholining tashqi fizionomiyasi ham farqlanib turadi. Qishloq ahli mehnatkash, tadbirkorlar hisoblanadi.

ISTIQLOL – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomi. Mustaqillik yillaridan atalgan mazkur so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday ta'rif beriladi: "*Inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo'lmay, o'z erki bilan yashashi, o'zini o'zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik*" (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 239-bet).

ITBULOQ – Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Yakkabog' tumanlaridagi buloq nomi. Topogidronim *it* va *buloq* ma'noli qismlardan tashkil topgan.

Ushbu toponimning yuzaga kelishi to'g'risida bir necha xil faraz bor:

1. It yashagan buloq yoki it o'lgan buloq. Bu fikr ishonarsiz.

2. Itli buloq yoxud iti bor buloq. Mazkur ikki taxmin xalq etimologiyasi hisoblanadi.

3. Joy nomi *it ichgan buloq* birikmasidan shakllangan: *it ichgan buloq* > *it buloq* > *Itbuloq*. Mazkur fikrga ham ishonish qiyinroq. Sababi, bu topoobyekt bor hududda itlar kam bo'ladi.

4. Bizningcha, toponim tarkibidagi it so'zi hayvon ma'nosidagi it so'zi emas, balki biror so'zning fonetik o'zgarishlarga uchragan shakli deyilishi to'g'ri.

T.Nafasovning qayd etishicha, o'tkir, tig'li ma'nosidagi *yitik* > *yitig* > *itik* > *itig* > *iti* > *it* so'zi ushbu so'zning shakllanishiga asos bo'lgan. Lekin "...toponimiyada bu so'z suv manbayining ko'lami, kichik, tor, ingichka demakdir", deyilishini o'ylab ko'rish kerak. Sababi, mazkur ma'no faqat suv manbayiga oid bo'lib qolmay, balki buloq joylashgan yerdagi mayda toshlarga ham tegishli deyish har jihatdan haqiqatga yaqin. Geografik omilga amal qilib, mazkur toponim joylashgan hudud kuzatilganda, u tor hamda kichik buloq bo'lishi bilan birgalikda, o'sha atrofda o'tkir va tig'li toshlarning ko'pligi seziladi. Buloqlarning, asosan, vodiylar, soylar, jarlar, tog' yonbag'irlari, tog' etaklaridan oqib chiqishi ular joylashgan hududda tig'li, o'tkir toshlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bu ham gidronimning nomlanish jarayonini asoslaydigan ekstralingvistik omillar jumlasiga kiradi.

Buloq ikki ma'noli so'z bo'lib, uning birinchi ma'nosi ("*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma. Issiq buloq. Buloq suvi*") biz istagan ma'no. Uning manbayi hajman eni kichik, tor yoki katta bo'lishi mumkin. It so'zi buloq joylashgan hududga oid xususiyatni, ya'ni u yerdagi toshlarning o'tkir va tig'li bo'lishini anglatadigan *yitik // yitig* so'zining fonetik o'zgarishlardan biri bo'lgan tovush tushishiga uchra-

gan shakli. Bunday gidronimlar tog'li va soyli joylarda ko'p uchraydi. Ushbu toponimning Qamashi hamda Yakkabog' tumanlarida uchrashi yuqorida aytilgan fikrni dalillashga xizmat qiladi. Uning tahlilida fonetik tamoyil va rekonstruksiya usuli faol qo'llangan. Mazkur toponim onomastik konversiya natijasida apellyativ leksika sathidan onomastik leksika sathiga ko'chgan: *yitik+buloq > yitik buloq > it buloq > itig buloq > iti buloq > Itbuloq*. Bu yerda **y, k, i** tovushlari talaffuz jarayonida tushib qolishi ro'y bergan.

Demak, *"tig'li, o'tkir toshlardan iborat joydagi buloq"* ma'nosida qo'llanuvchi *itik (itig) buloq* birikmasi ushbu toponimning etimoni hisoblanadi.

ITMAK DOVONI – Zarafshon tizmasining Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari o'rtasidagi qismida joylashgan dovon.

"Boburnoma"da bu joy haqida: "Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur, Itmak doboni derlar, sangtaroshliq qilur toshlarni tamom bu tog'din eltarlar" (B. 61), deb yozilgan.

Temuriylar davriga mansub boshqa tarixiy manbalarda uning nomi *Kesh dovoni* (aqbai Kesh) shaklida berilgan. Hozirgi nomi *Taxtaqoracha dovoni*, absolyut balandligi 1675 m.

ITTIFOQ – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq va mahallalar nomlari. Hududning shunday nomlanishiga sabab, ushbu hududda turli millat vakillari, aniqrog'i, o'zbek, eron, turkman va boshqa xalqlar vakillari ahillikda birlashib yashaganligi tufayli, mazkur joy *Ittifoq* deb atalgan.

Bunday nomdagi toponimlar respublikamizning ko'plab viloyatlari hududlarida uchraydi.

IYIK – Tarixiy toponim (hozirda nom sifatida mavjud emas) Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim turkiy so'z asosida hosil qilingan bo'lib, ***iy*** va ***-ik*** elementlarining qo'shiluvi natijasida vujudga kelgan.

Iy so'zi deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi hamda u *"chekka, qayrilish, yonbag'ir"* kabi ma'nolarni bildiradi (Э.В.Севортьян. Этимологический словарь тюркских языков. –М. 1974. –С.330). ***-Ik*** esa yasovchi qo'shimcha.

Shunday ekan, ***Iyik*** – *"chekkadi yoki yonbag'irdagi qishloq"* ma'nosini bildiradi.

IYRISUV – ariq va qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani. Mazkur nom ikki qismdan: *iyri* va *suv* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Iyri (adabiy tilda *egri*) – oqadigan suvlarga munosabati bo'yicha. Iyrisuv (egrisuv). Balki toponim qadimiy turk xudosi **Iyirsuv** (Yersuv) nomi bilan bog'liqdir.

IZBOSKAN – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida bir necha taxminlar bor:

1. Emishkim, oldinlari xalq vakillari tomonidan yaxshi tozalanmagan joy ma'nosida ba'zi bir toponimlar *Isbosgan* deb atalar ekan. Bunday deb

tushuntirilishiga sabab, *Izbosgan* va *Isbosgan* toponimlaridagi **z // s** yoki **s // z** holatlarining talaffuz jarayonida ro'y berishidir. Lekin joyni *Isbosgan* deyish noo'rin, chunki xalqimiz tozalikka o'rgangan.

2. Toponim hududida mard, lafzi halol kishilar yashashgan ekan. Ularning avlodlari ham shunday kishilar bo'lishgani uchun avlod-ajdodlar qadriyatlarini ulug'lovchilar, bobolar an'analariga amal qiladiganlar, avlodlari izidan yurganlar ma'nosida *Izbosgan* toponimi qo'llangan.

Bizningcha, ikkinchi taxminiy fikr asosliroq. Chunki bu toponim to'rtta ma'noli qismdan iborat: *iz, -ni* (belgisiz ishlatilgan), *bos, -kan (gan)*. Toponimda **"bos"** so'zining o'n oltita ma'nosidan birinchi ma'nosi **"iz"** so'zining to'rtta ma'nosidan birinchi ma'nosi bilan birikib kelgan. Ularning birikishi natijasida tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qolgan va **g** undoshi **k** undoshiga o'tgan: **g > k**. Joy nomi quyidagi taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan: *iz+ni+bos+-gan > izni boskan > iz boskan > Izboskan*.

Mazkur toponim avlodlar an'analarini davom ettirish ma'nosida bobolar izini bosganlikni anglatadi. Uning etimoni *izni boskan* shaklidagi obyektli birikma sanaladi.

ISHAT – Yana bir nomi **Galabek**. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasining chovjayli urug'i o'z navbatida *gul, oqto'nli, chilpoycha, qoraqiz va baxshi* tarmoqlariga bo'linadi. Qoraqiz tarmog'i *so'pi* va *ishat (eshat)* guruhiga ajraladi (Кармышева, 1976).

Demak, Ishat (Eshat) toponimi patronimdir. Jizzax viloyati Baxmal tumanida ham shu nomdagi qishloq bor (O'rinboyev, 1992).

ISHONCH – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Ushbu so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ikkita ma'nosi qayd etiladi: a) ishonish hissi, tuyg'usi; b) e'timod etilgan, suyanilgan, umid bog'langan shaxs yoki narsa tushunchalarini ifodalab, har ikkala ma'nosini ham nazarda tutgan holda qo'yilgan nom.

ISHRATXONA – Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XV asr). Boshqa bir taxminga ko'ra, yodgorlikning nomi arabchadan *asharat – o'n (o'n xona)* ma'nosini anglatadi.

ISHTIRXON – Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanidagi qishloq nomi. Aholisining milliy tarkibi tojiklar. Sug'd tilida **isht-hasht** – *sakkiz*, **xon (kan)** – *kanal, ariq* degan ma'noni bildirishi qayd etiladi.

Shunday ekan, toponim *"Sakkiz ariq yoki sakkiz kanal"* degan ma'noni anglatadi.

ISHTIXON – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Zarafshon daryosi o'rta oqimida ikkiga – Oqdaryo va Qoradaryoga bo'linadi. Ikki daryo oralig'idagi yerlar *Miyonqol* deb ataladi va bu hudud to'g'risida o'rta asrlardagi tarixiy yozma manbalarda juda ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Temuriylar davri va undan keyin ham ikki daryo orasidagi Miyonkom hududi *Sug'di Xurd – "kichik Sug'd"*, Oqdaryodan shimoldagi yerlar to Nurota tog'larigacha bo'lgan hudud esa *Sug'di Kalon – "katta Sug'd"*, deb atalgan.

Ishtixon shahri va unga tutash hududlar G'arb va Sharqni bog'lab turgan savdo karvon yo'li – Buyuk Ipak yo'lining ustida, Miyonkomning markaziy qismida joylashgan.

Tarixchi olimlar Ishtixon shahrining qadimgi nomi va uning qayerda joylashganligi masalasini turlicha talqin qilishgan. Hozirgi kunda Ishtixon viloyat markazi Samarqand shahridan 54–55 km masofada joylashgan. Shahar markazida joylashgan Ishtixontepa tarixiy yodgorligi, qadimgi shahar o'rni bo'lganligini deyarli barcha olimlar e'tirof etishgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ishtixon shahri ilk o'rta asrlarda mustaqil hokimlik markazi hisoblangan. X asrda Ishtixon qal'a, shahriston va rabotdan iborat katta shaharga aylangan. Keyingi asrlarga kelib shahar atrofida ko'plab mevali bog'lar paydo bo'lgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan birga dehqonchilik ham yaxshi rivojlangan.

Mutaxassislar Ishtixon so'zini turlicha talqin qilishadi. Mahalliy xalq orasida ham nomning paydo bo'lishi haqida turli rivoyat va afsonalar yuradi. Ulardan birida aytilishicha, ushbu hududda qadimgi xonlardan biri shahar bunyod etgan ekan. Uning go'zallikda tengi yo'q bir qizi bo'lib, unga bir boy oshiq bo'lib qolibdi. Buni eshitgan xon achchiqlanib, bepisandlik bilan unga: "Sening boyliging meniki bilan tenglasha olmasa, qanday qilib mening qizimga uylanmoqchisan", – debdi. Bunga javoban boy o'zi yashab turgan joydan, xon saroyigacha ikkita quvur yotqizib, ularning biridan sut, ikkinchisidan yog' oqizdiribdi. Keyin odam yuborib: "Ishdimi (ichdimi) xon?"– deb so'rabdi, bu tomondagilar, "Ishti xon (ichdi xon)", deb javob berishibdi. Xon uning boyligiga ishonch hosil qilib, Chim boy (chin boy) ekan, deb xitob qilibdi va qizini unga berishga rozi bo'libdi. Shu tariqa *Ishtixon* va *Chimboy* degan nomlar paydo bo'lgan ekan.

Shunga o'xshash yana bir rivoyatda, Samarqanddan Ishtixongacha quvurda oqizilgan qimizni podsho tatib ko'rganda xalq "qimizni ichdi xon, xon ichdi" deganidan buyon qishloq *Ichdi xon* (keyinchalik *Ishtixon*) deb atalgan emish. E'tiborli tomoni shuki, nom qancha qadimiy bo'lsa, uni izohlash shuncha qiyin bo'ladi. Natijada nomning xalqona yoki soxta etimologiyasining soni ko'payadi.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra, VIII asr boshida Samarqandni arablar bosib olgach, Sug'd ixshidlari poytaxtni Ishtixonga ko'chirishga majbur bo'lishgan.

Demak, *Ishtixon* so'zi *Ixshitxon* so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. Chor Rossiyasi davrida Miyonkomga ekspeditsiya tarkibida kelgan rus tadqiqotchisi L.Vyatkinning

yozishicha, Teng'iz arig'i qadimda *Shayxon* deb atalgan va uning transformatsiyalashuvi natijasida *Ishtixon* nomi paydo bo'lgan.

Taniqli arxeolog olima G.A.Pugachenkovaning fikricha, *Ishtixon* nomi Xitoy tarixiy manbalarida *Sindixon*, arab manbalarida esa *Ishtixon* shaklida qayd qilingan.

Ayrim mutaxassislar, nomning ikkinchi qismidagi "xon" so'zi, joy nomini, Turk xoqonligi davrida paydo bo'lganligini ko'rsatadi, deyishadi. Chunki o'sha davrda Sug'd va uning tarkibida bo'lgan *Ishtixon* ham xoqonlik tarkibiga kirgan.

Boshqa tarixchi olima O.I.Smirnovaning yozishicha, *Ishtixon* so'zi sug'dcha, **isht** – *"hasht,* ya'ni *sakkiz"*, **xon** – *"kan, kanal"* ma'nosini anglatadi. Yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda Ishtixon nomi V–VI asrlarda paydo bo'lgan, deyish mumkin. Tuman ma'muriy markazi – Ishtixon shahri (1992-yildan).

ICHKILIKQUM – Qizilqumning qumloq joylari. Navoiy viloyatidagi hudud nomi bo'lib, dashtzor, sahro yerlar shu tarzda atalgan.

Shunday ekan, **Ichki, Ichkilikqum** – *(bir narsaning) ichki qismida joylashgan qumlar* ma'nosini anglatadi.

ICHONQAL'A – tarixiy toponim. Xorazm viloyati Xiva shahrining markaziy qismi, aynan ***Ichonqal'a*** deb nomlanib, u *"Ichkiridagi shahar"* ma'nosini anglatgan. O'sha davrlardagi ichki shaharning tashqi qismi esa Deshonqal'a – "Tashqi shahar" deb atalgan.

Hozirda Xorazm viloyati Xiva shahridagi mahalla nomlaridan biri. XVII–XVIII asrlarda Ichonqal'a atrofida qurilgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoning barcha shaharlari, shu jumladan, O'zbekiston ikki qismdan: ichki va tashqi shaharlardan iborat edi. Xorazm shaharlarini bundan mustasno qilganda, shaharning ichki qismi arabcha *madina* so'zi yoki fors-tojikcha *shahriston* termini, yoki forscha *darun* – "ichki shahar" deb nomlangan; shaharning tashqarisi esa *rabod* ("shahar") yoki *berun* ("Tashqi shahar") terminlari ostida nomlangan.



JABU – Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi qishloq nomi. Jabu (yabu) – yirik o'zbek urug'i nomi. Urug' vakillari O'zbekistonning janubi va Zarafshon vodiysida yashashgan va shuning uchun shunday nomlangan. Shuningdek, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari va Farg'ona vodiysida ham shu nomdagi qishloqlar bor.

JABG'UKET – O'rta asrlarda mavjud bo'lgan qadimgi shahar. "Hudud ul-olam" asarida tavsiflanishicha, bu chiroyli shahar bir vaqtlar Chach (Shash) viloyati harbiylari (lashkargohi) bo'lgan. U Binket (Toshkent) shahrining Choch viloyati poytaxti yuqorisida 2 farsax (12–14 km)da joylashgan, bu degani, uning shimoli-sharqiy tomonida. V.V.Bartoldning taklifiga ko'ra, Jabg'uket avvalgi Niyozbek qal'asining o'rnida joylashgan.

Bu shaharning nomi turk tilidan kelib chiqqan: *jabgu* yoki *yabgu* so'zi – suveren ma'nosiga ega bo'lgan qadimgi turkiy unvon va umuman, harbiy turklar orasida oliy hukmdor unvonidir. O'z navbatida, **Jabg'uket** – *"Jabgu shahri, jabgular joylashgan yer"* ma'nosini anglatadi.

JAKARDIZA – Samarqand shahridagi mahallalardan biri. Mazkur nomdagi kanal va qabriston ham mavjud.

Jakardiza qabristoniga yirik allomalar – faylasuf Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad Nizomiddin Moturudiy (945-yili Jakardiza qabristoniga qo'yilgan), "Kitob al-qand fi ta'rixi Samarqand" asarining muallifi Abu Hafs Najmiddin Nasafiy as-Samarqandiy (XII asr), Taftazoniy (1389-yilda vafot etgan) singarilar dafn etilgan. Mahalla hududida harbiy istehkom bo'lib, atamaning yuzaga kelishiga shu sabab bo'lgan. Jakardiza *"chaqir"* – jangchi (aslida "xizmatkor" ma'nosida) va **"diza"** – *qal'a* so'zlaridan tashkil topgan nom bo'lib, *"Jangchilar qal'asi"* ma'nosini ifodalaydi. Chaqir (shokir), chaqar so'zlari VI–VIII asrlarda keng tarqalgan harbiy termin bo'lib, manbalar Markaziy Osiyo hokimlarining maxsus imtiyozli qo'shini – chaqirlari haqida ma'lumot beradi.

Xitoy tarixchilari Buxoro chaqirlari (xitoy tilida *cho-ki*) kuchli va mard yigitlardan tanlab olinganligini qayd qilishadi. Syuan Szyanning so'ziga qaraganda, Samarqand chaqirlari

nihoyatda jasur bo'lganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Samarqand ixshidi (podshosi) G'urak (VIII asr) o'zini chaqir deb atashdan or qilmagan. Yirik shaharlardagi Chaqar mahallalari nomi ham *"chaqir"* so'zi bilan bog'liq bo'lishi tabiiy. Toponim tarkibidagi *-diz* topoleksemasining *-diza, -di, -za* kabi variantlari ham bor. Sug'dcha **-diz, -diza** – *"devor bilan o'rab olingan joy, qal'a, istehkom"* ma'nosidagi termin.

M.Koshg'ariyning (XI asr) fikricha, bu leksema turkiy tillardan fors tiliga o'tgan. **-diz** termini Markaziy Osiyoda, asosan, Zarafshon vodiysida keng tarqalgan bo'lib, mustahkam istehkom turlaridan birini bildirgan. Bu leksema qadimgi eron tilidagi *"Tosh, tuproq uyumi, to'plami"* so'zi bilan aloqadordir.

Samoniyning "Kitob al-ansob" asarida mazkur topoleksema ishtirokida yasalgan *Jakardiza, Sankadiza yoki Sanjadiza, Fag'ndiz* (Samarqand mahallalari) nomlarini keltirgan. *Jakardiza yoki Chokardiza* (sug'dcha **"chaqar"** – *harbiy qo'shin, jangchi* va **diza** – *qal'a* so'zlaridan) Afrosiyobdan janub tomonda joylashgan qal'a va mahalla nomi.

XI asrdan boshlab bu hududda qabriston paydo bo'ladi. Chokardiza toponimi tarkibidagi fonetik o'zgarishlar uning keyingi variantlarini yuzaga keltirgan: *Chaqardiza–Chokardiza–Jakardiza–Shakarjizza* singari. *Sangdiza* mahallasi nomi forscha *"Toshqal'a"* ma'nosidadir, *-diz* topoleksemasi bilan yasalgan geografik nomlar Samarqand viloyati tarixiy geografiyasida keng tarqalganligini manbalarda uchraydigan *Farundiza, Zerudiza, Bag'diza* va boshqa toponimlar ham tasdiqlaydi, *-diz* topoleksemali geografik nomlar etimologiyasi va tarixiga doir maqolasida O.I.Smirnova ularning islomga qadar bo'lgan tarixiy obyektlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Olima Toyloq tumanidagi *Ispandi* va Urgut tumanidagi *Ispanza* qishloqlarining nomlarini izohlashda ular tarkibida diza elementi qatnashgan, – deb ko'rsatadi.

JALA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponimni tashkil etgan "jala" forscha so'z bo'lib, "yomg'ir tomchisi, shiddatli yomg'ir" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 2, 66].

Shunga asoslanib, bu mikrotoponimni jala vaqtida barpo etilgan aholi yashash maskani, qishloq, deb izohlash mumkin. Ammo ushbu oykonimni "jalovut" urug' nomining og'zaki so'zlashuvda qisqartirib qo'llanishi hosilasi deb izohlash to'g'riroq bo'ladi.

JALANASHQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan qumlik nomi bo'lib, bu nomning kelib chiqishiga qumlikda o'simliklarning juda oz, ko'pchilik paytda o'simliklarning o'smasligi sabab bo'lgan.

JALATIR – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponimni tashkil etgan so'z adabiy tilda ***"yaltir"*** [O'TIL. 5, 5,

109], qipchoq shevalarida esa "***jaltir // jalatir***" tarzida talaffuz qilinadi [O'XSHL, 98].

Prof. B.O'rinboyev uni "***Jaltir // jalatir***" – o't o'smagan joy, taqir, loyqa bosib turishi natijasida giyoh bitmay, tuproqning ustki loy qatlami yorilib ketadigan joy, deb izohlaydi [B.O'rinboyev, 71] va shunday joylarda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq deb hisoblaydi.

T.Nafasov esa ***jaltir // yaltir*** so'zini etnonimlardan biri, deb hisoblaydi [T.Nafasov, 71]. Shu bilan birga, qoraqalpoq qiyotlarining tarkibida "***jaltirshi***" deb nomlanuvchi urug' nomi ham bor. Shunga ko'ra bu joy nomini etnooykonim deb ham izohlash mumkin.

JALAQUDUQ – Andijon viloyatidagi shahar, tuman, qishloq. Toponimning kelib chiqishi haqida bir necha taxmin bor:

1. Bu toponimni jarlikdagi quduq, jarlik quduq (*jarlikdagi quduq > jarlik quduq > jarquduq > Jalaquduq)* birikmalaridan keltirib chiqarayotgan kishilar ham bor, ammo bu farazga qo'shilib bo'lmaydi, chunki *jarlik* so'zining *jala* yoki *jalol* ko'rinishiga kelib qolishi mumkin bo'lmagan hol.

2. Toponim tarkibidagi *jalol* so'zini kishi ismiga bog'lashadi: *jalol > Jalol.* Bu gidronim kishi nomi bilan atalgan va "*Jalol qazigan quduq*" ma'nosini ifodalaydi. Ushbu taxmin ham, bizningcha, xato. Agar obyektlarga nom kishi ismlaridan olinsa, unda hamma joyni kishi nomlari bosib ketardi.

Demak, bu ikki taxmin xalq etimologiyasi. Jala topoleksemasi bu toponimning toponimik asosi vazifasini bajargan. Toponimik indikator sifatida quduq so'zi ishlatilgan, ammo obyektlarning vazifasi o'zgarishi bilan *quduq* so'zi toponimik aniqlagich vazifasini bajarmay, jala toponimik asosiga birlashib ketgan. Natijada, shahar, tuman, qishloq kabi so'zlar bu joy nomi uchun indikator, ya'ni toponimik aniqlagich vazifasida qo'llana boshlangan: *Jalaquduq tumani, Jalaquduq shahri, Jalaquduq qishlog'i.* Biroq bu indikatorlar kamdan-kam hollarda ishlatilishi tufayli toponim Jalaquduq holatida qo'llanishi ko'p uchraydi. Ushbu toponim uchun etimon *jala* va *quduq* so'zlarining birlashtiruvchi ma'nolari, ya'ni "*jala ko'p yoqqani uchun yer qazilganda yer osti suvlari tez chiqadigan joy*" ma'nosini anglatuvchi *jalaquduq* birikmasi hisoblanadi.

Toponimning *Jalaquduq* bo'lib ketishi tilimiz tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos mahsuli. *Jalaquduq* joy nomining etimoni *jala* va *quduq* so'zlarining birlashtiruvchi ma'nolari, ya'ni *jala ko'p yoqqani uchun yer osti suvlari yer qazilganda tezda chiqadigan joy* ma'nosini anglatuvchi *jalaquduq* birikmasi ekanligini asoslovchi manba bu geografik omil sanaladi. Uning shakllanishida quyidagi geografik omillar yetakchi vosita bo'lgan:

a) obyektning boshqa obyektlarga nisbatan olganda pastlikda joylashganligi;

b) ko'p vaqtlarda yomg'ir bilan birga jala yog'ib turishi;

v) yeri qazilganda tezda suv chiqib kelishi quduqlarning ko'pligiga asos bo'ladi. Bu omillar toponimning nomlanishida ham vosita bo'lgan. Leksik va fonetik tamoyillar toponimlarning tarkibini o'rganish usuli bilan bu toponimning etimologik tahlili jarayonida ishlatilgan.

Demak, Jalaquduq toponimi kishi ismi bilan bog'liq emas, balki tabiiy geografik holatlarni ifodalaydigan *jala, quduq* so'zlarining ma'nolarini jamlovchi geografik omillarga bog'liq.

JALAYER – Farg'ona viloyatining Rishton, Quva tumanlaridagi qishloq nomlari. Toponimning "jala" va "yer" so'zlariga hech qanday aloqasi yo'q. *Jalayer* – qadimgi turkiy qabila "jaloyir" etnonimidan yasalgan toponimning fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir.

Xususan, Qo'qon xonlari arxiviga tegishli hujjatlarda ham bu urug' nomi bilan yasalgan *Jaloyir qishloq* – (جلایر قشلاق), *Jaloyiri kalon* – (جلایر کلان) singari toponimlar qayd etilgan. Rashiduddinning yozishiga ko'ra, jaloyirlar XII asrda Onon va Kerulen daryolari bo'yida yashashgan. Jaloyirlarning katta bir qismi kidonlar bilan bo'lgan urushda yengilgach, Chingizxon ajdodlariga tobe bo'lgan. XII asrning oxiri XIII asrning boshlarida jaloyirlar Yettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlariga kelib o'rnashganlar va o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqi tarkibiga singishib ketgan.

O'zbeklar tarkibida jaloyirlarning ikki yirik qaychili va bolg'ali urug'lari hamda bir qancha urug' bo'linmalari (qarg'ali, boshqird, qoraabdal, qorako'li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) bo'lgan (O'zME. 1-jild. 38-39-betlar).

Z.Do'simovning xabar berishicha, *Jaloyir* nomli qishloqlar respublikaning Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida uchraydi. *Jaloyir* etnonimining etimologiyasi xususida ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar qayd etilmagan. Shunday bo'lsa-da, T.Nafasov jaloyirlar Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida o'zlarini "xo'ja" deb atashini, biroq "xo'ja" ularga nisbatan berilgan keyingi nom, ular chig'atoy xo'jalari bilan yaqin munosabatda bo'lganliklari uchun qishloq va yerlarini qadimgi urug' nomi bilan atashganini ta'kidlaydi (T.Нафасов. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1988. 71-бет).

Farg'ona viloyatida, shuningdek, mazkur etnonim bilan aloqador holda yuzaga kelgan *Yuqori Jaloyer* (Buvayda tumani), *Chek Jalayer* (Rishton tumani), *Jaloyer* (Furqat tumani) singari qishloq nomlari bor. Toponimlarning barchasi qadimda ushbu hududlarda *jaloyir* urug'iga mansub kishilar yashaganligidan dalolat beradi.

JALOYIR – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Jaloyirlar haqidagi dastlabki ma'lumot Rashididdin asarida uchraydi. Jaloyirlarning yashash joylaridan biri Onon bo'ylari, – deb ko'rsatadi muallif. Rashididdin jaloyir qabilasining

o'nta katta shoxobchasi haqida yozib qoldirgan.

Petrushevskiy Mahmud Koshg'ariy va Juvayniylar ma'lumotlariga tayanib, jaloyirlar XIII asrda mo'g'ul tilida so'zlashganlar, – degan xulosaga keladi. Bu fikrga V.V.Bartold, Ch.Valixonovlar ham qo'shilishadi.

Biroq N.A.Aristov jaloyirlar qabilasidagi urug'larning turk-mo'g'ullar qorishmasidan iborat ekanligini hisobga olib, ularning mo'g'ul ekanliklari haqidagi fikrga shubha bilan qaraydi.

S.A.Amonjulov ham jaloyirlarning asosini turklar tashkil qilganligini aytadi. Jaloyirlar eng qadimiy urug'lardan biri bo'lib, ular Yettisuv va Markaziy Osiyoga XII–XIII asrlarda kirib kelishgan. O'zbeklar tarkibiga kirgan jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota tog'lari etaklarida, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Karmana, Qorako'l tumanlarida, Xorazmda yashaganlar va ikkita yirik urug' – *Qaychili* va Bolg'alilarga hamda mayda urug'lar (*Qarg'ali, Boshqird, Qorabdal, Qorako'li, Qorachopon, Chuvuldoq, Jastabon*)ga bo'lingan.

Navoiy viloyatidan Barno Eshpo'latov "Yoshlik" jurnalida: "*Jaloyir* – "vatanni tark aylaganlar" degan ma'noni anglatadi", deb yozgan edi. Bu qabila deydi u, o'zining ko'p sonli urug' tarmoqlari bilan Oltoy, Boyko'l tomonlardan Markaziy Osiyoga kelgan. Jaloyiriylar yirik davlat tuzib, 1338–1432-yillarda Iroq, Eron, Ozarbayjon hududlarida hukmronlik qilganlar.

O'tmishda yashagan Ahmad Jaloyiriy, Shayx Hasan Jaloyiriy, Shayx Murod Jaloyiriy, Shoir Tufayliy kabi bir qator siyosat va madaniyat arboblari ushbu qabila vakillari bo'lgan. Manbalarda jaloyirlarning XIII asrdan to 1375-yilgacha Ohangaron havzasi va Xo'jand atroflarida yashaganliklari, Amir Temur hukmronligiga qarshilik ko'rsatganligi uchun ularning turli tomonlarga tarqatib yuborilganligi haqida ma'lumotlar bor.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumani; Jizzax viloyatining Zomin tumani; Farg'ona viloyatining Quva va Uchko'prik tumanlari; Toshkent viloyatining Qibray tumani; Farg'ona viloyatining Rishton tumanlarida ham shunday nomli toponimlar mavjud.

Jalayir (jaloyirlar) – turk-mo'g'ul qabilalari ittifoqi. XII asrda Jaloyirlar Sibirning Onon va Kerulen daryolari qirg'oqlarida yashashgan. XII asrning oxiri va XIII asr boshlarida ular Markaziy Osiyoning, jumladan, O'zbekistonning Yettidaryosiga joylashgan. Jaloyirlar o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va qirg'iz xalqlari tarkibiga kirishgan. 1926-yildagi qaydlarga ko'ra, O'zbekiston hududida, asosan, Toshkentda, Buxoro vohasida va Nurota cho'qqilarining tog'oldi joylarida, Jizzax viloyati Zomin tumani, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida, Navoiy viloyati Karmana tumanida, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida va Xorazm viloyatida 25 mingga yaqin Jaloyirlar yashashgan.

JALOYIRCHEK – Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. *Jaloyirchek – "jaloyir qabilasi vakillarining yer ishlari"* ma'nosini anglatadi.

JALPAQTEVA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Ayrim hududlarda tepa so'zi "Tepalik", *teva* (*jalpaq* adabiycha *yalpoq – "qalin"* ma'nosini ifodalaydi) sifatida talaffuz qilinadi. Qishloqda Jarat urug'i vakillari yashashadi va shuning uchun ham u qishloqning ikkinchi nomi **Jarat**dir.

Jarat, juyrot, juyrat – o'zbek xalqi tarkibidagi qabilalardan biri. Juyrot, jarat qadimiy etnonimlardan hisoblanadi. Mo'g'ullarda ham Juryat urug'i bo'lgan. Bu qabila Rashididdin asarida, XV asr yodgorligi "Tavorixi guzida – Nusratnoma", XVII asr yilnomachisi Mahmud ibn Vali asarida ham qayd qilingan. Ularning yozishlaricha, bu qabilani Jijirat deb ham atashgan (Rashididdin, 1952). *Juyrat/jurchat* so'zi turkiy va mo'g'ul tillariga xos bo'lib, bir so'zning variantlaridir. Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida *Juyrat* nomli qishloqlar bor. Hozirgi kunda Urgut shahri mahallalaridan biri sanaladi.

JAMANSHA – Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli, Chimboy, Nukus tumanlaridagi ovullar nomi. *Jaman, Jamanshaq* – Kegeyli tumanidagi ovullar nomi.

Qoraqalpoqlarning Qiyat, Qitay qabilalari tarkibida Jaman, qoraqalpoqlarning Mang'it qabilasi tarkibida Jamansha urug'lari bor. Ko'pgina turkiy etnonimlar orasida Jaman, Yomon laqabli urug'-aymoq nomlari bir necha marta takrorlanadi.

JANADARYO – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi quruq o'zan, OFY va aholi punkti nomi. Orol dengiziga quyiladigan daryolar va uning tarmoqlari haqida taniqli geograf olim L.Berg yozib o'tgan. Orol dengiziga Amudaryodan boshqa uning sharqiy tomonidan Sirdaryo kelib quyiladi. L.Bergning tasdiqlashi bo'yicha Sirdaryoning janub tomonidan ikki daryoning katta tarmog'i dengizga quyilgan. Uning biri Janadaryo, ikkinchisi esa Quvondaryodir. Bu daryolarning o'sha davrlarda suvi gohida ko'payib, gohida kamayib turgan. Janadaryoning boshlanish joyi Perovskiy (Qizil O'rda) shahridan 12 verst pastda bo'lgan.

D.Gladishev va I.Muravinda (1740) bu daryoni uchratmaymiz. Qoraqalpoqlar o'tgan asrning oxirida Perovskiy portining yuqori tomoniga ko'chib kelib, bu yerdan katta kanal qazishadi, uni Janadaryo nomi bilan atashadi. Bu quyidagicha tarixiy hodisalar bilan aloqador bo'lishi mumkin. D.Gladishev va I.Muravin 1740-yili Sirdaryoning quyi bo'yidan Shaxtemir (hozirgi Chimboy shahriga yaqin joyda ilgari Shaxtemir degan shahar bo'lgan) shahrigacha bo'lgan oraliqda sayohat qilgan. Bularning asarida yana P.Richkovning 1762-yilgi asarida ham Janadaryo belgisiz edi.

Demak, Janadaryo qoraqalpoqlar tomonidan XVIII asrning ikkinchi yarmida qazilganligini bir qancha hujjatlar tasdiqlaydi.

JANBASJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanining Dovqora aholi punktining shimoli-sharqiy tarafidan oqadigan sug'orish tarmog'i. "Qorateren" OFY fuqarosi 94 yoshli (2017-yil) nuroniy Xojaxmetov Xojaboy boboning aytishiga qaraganda, bu sug'orish tarmog'i Timpiyjapning yon, ya'ni yonbosh tomonidan qazilgan ekan.

JANDALIK – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Janda: 1) turli rangli materiallardan tez-tez tikilgan quyi darvishlarning kiyimlari; 2) rangli matolardan tikilgan kambag'allarning kiyimlari), *-lik* – egalik qilish ma'nosidagi nisbiy sifatdan ot hosil qiluvchi affiks. **Jandalik** – *kambag'allar qishlog'i* ma'nosini ifodalaydi.

JANG – Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi mahalla nomi. Farg'ona viloyatida jang so'zi qatnashgan joy nomlari ko'p uchraydi. Masalan, *Jangketmon, Jangkent, Jangchilar, Jaygir* kabi. Mazkur toponimlar tarkibidagi *jang* so'zi o'zbek tilida *qonli olishuvni* anglatadi, biroq ushbu nomlarning har biri chuqur ilmiy tahlilga muhtoj.

JANGADARYO – Orol dengizining janubiy qirg'og'idagi quruq daryo irmog'i (Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani). Qadimgi davrlarda Jangadaryo Sirdaryodan ajralgan holda Orol dengiziga quygan. XIV asrda *Jangadaryo* – "yangi daryo" qurib qolgan.

JANGAL – Navoiy viloyatidagi quduqlar nomi. *Jangal* – o'rmon, jungli (Таджикско-русский словарь, – М., 1954. –С. 512); **jangal** (forscha) – *"qurilish o'rmoni emas, shoxchali mayda"* (Л.Будагов. Сравнительный словарь, –Т. I. С. 443); **changal** – *"tikanli chakalakzorlar"* (Узбекско-русский словарь. –Т., 1958. С. 514) ma'nolarini anglatadi.

"Boburnoma" asarida *jangal* so'zi "*o'rmon*" ma'nosini ifodalaydi ("Bobirnoma". –Т., 1960. 340, 345-bet). Qiziqarli tomoni shundaki, Bobur *to'qay* so'zini hozirgidagiday *chakalakzor* ma'nosida qo'llamagan, to'g'ri ma'nosida "*daryoning nurlanishi*" deb qo'llagan ("Boburnoma". –Т., 1960. 420-bet). "Boburnoma"da muallif tomonidan *o'rmon to'tisi jangaliy to'ti* deb nomlangan ("Boburnoma". 1960. 337-bet).

JANGALDI – Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. *Jangal* – o'rmon, jungli (Таджикско-русский словарь, – М., 1954. –С. 512); **jangal** (forscha) – *"qurilish o'rmoni emas, shoxchali mayda"* (Л.Будагов. Сравнительный словарь, –Т. I. С. 443); **changal** – *"tikanli chakalakzorlar"* (Узбекско-русский словарь. –Т., 1958. С. 514) ma'nolarini anglatadi. *Jankeldi-Jing'ildi* (*jing'il* – yulg'unning shoxlari) so'zining dialektal variantidir. Aniqrog'i, *Jangeldi* – etnonim, qozoqlarning *uak* qabilasida *jangeldi* urug'i mavjud (М.С.Муканов. Этнический состав и расселение казахов Среднего Жуза. –Алма-Ата, 1974. С. 66); qozoqlarning Alimuli qabilasida (Н.А.Аристов. Заметки этнической истории. С. 380), shuningdek, turkmanlarning Go'kdan qa-

bilasida (Д.М.Овезов. Население долины Чандыра и среднего течения Сумбара. –Ашхабад, 1976. –С. 45) ham Jangeldi urug'i qayd etilgan.

"Boburnoma" asarida *jangal* so'zi "*o'rmon*" ma'nosini ifodalaydi ("Boburnoma". –T., 1960. 340, 345-bet). Qiziqarli tomoni shundaki, Bobur *to'qay* so'zini hozirgidagiday *chakalakzor* ma'nosida qo'llamagan, to'g'ri ma'nosida "*daryoning nurlanishi*" deb qo'llagan ("Boburnoma". –T., 1960. 420-bet). "Boburnoma"da muallif tomonidan *o'rmon to'tisi jangaliy to'ti* deb nomlangan ("Boburnoma". 1960. 337-bet).

JANGGOH – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. Muhammad Solih Toshkandiyning "Toshkentning yangi tarixi" nomli asarida keltirilishicha, chorhokimlik davrining so'nggi yillarida Shayxontohur dahasida Yunusxo'ja, Beshyog'och dahasida Doniyorxo'ja, Ko'kcha dahasida Isoqxo'ja va Sebzor dahasida Shohbek (Shobek)lar hokimlik qilishgan. Daha hokimlari muhim masalalarni, ayniqsa, tashqi dushman xavfini birgalashib hal qilganlar. Ammo hokimlarning o'zaro nizolari kuchayib, ko'pincha, to'qnashuvlarga sabab bo'lardi. Bunday paytlarda shahar markazidan oqib o'tadigan Labzak suvining ikki tarafi jang maydoniga aylanardi. Hozirgi Abdulla Qodiriy nomli istirohat bog'idan oqib o'tadigan Labzak suvi Jangob, suvning ikki tomonidagi maydon esa "Janggoh", ya'ni jang maydoni nomi bilan shuhrat topgandi. O'zaro janglarga shahar aholisi ham jalb qilinardi. Faqat Chorsu bozori betaraf hisoblanib, janglar vaqtida ham savdo-sotiq davom etardi. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, 1613-yilda Buxoro xoni Imomqul qo'zg'olon ko'targan va shahar aholisidan ana shu joyda qonli o'ch olgan. 1847-yilda bu yerda yana katta jang bo'lib o'tadi. Qo'qon xonining noibi Aziz parvonachining aholiga nohaq soliq solishi qo'zg'olonga sabab bo'lgan. Mahalla va ariqning Janggoh va Jangob deb nomlanishi 1784-yilda Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxo'ja tomonidan yakka hokimlikni qo'lga kiritishda bo'lgan hal qiluvchi jang sabab bo'lgan.

JANNATMAKON – mahalla. Xorazm viloyati Xonqa tumani. Mazkur toponim *jannat* va *makon* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *obod, go'zal* ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 72-bet).

JARARIQ – Chig'atoy arig'ining tarmog'i. Hozirgi kunda uzunligi 1,8 km., Sobir Rahimov (hozirda Olmazor) va Shayxontohur tumanlaridan oqib o'tadi[1]. "Jararіq" gidronimi relyef bilan bog'liq bo'lib, "*jarlikda hosil bo'lgan ariq*", "*jardan oqib o'tgan ariq*" ma'nolariga yaqin. Ma'lumki, Chig'atoy baland yerlardan oqqan, undan o'ng tomonga tarmoqlangan ariqlardan eng kattasi sanalgan Jarariq oqib o'tgan yerlari nisbatan pastlik joylarga to'g'ri keladi.

[1] План города Ташкента. – Ташкент, 1980.

XX asr boshlariga oid rus manbalarida[1] Jarariq "Djar" shaklida berilgan. Mazkur davrda Jarariq Toshkent shahri Ko'kcha dahasining *Shahidontepa* mahallasi hamda shahar atrofidagi *Jarariq* mavzesini suv bilan ta'minlagan.

Shuningdek, Toshkent viloyatining Zangiota tumanida ham shu nomli toponim mavjud bo'lib, u quyidagicha izohlanadi: *Jarariq – "jarlik pastidagi ariq"* deganidir.

JARBULOQ – Jizzax viloyatining G'allaorol, Baxmal hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur mikrotoponim "jar" va "buloq" qismlaridan iborat. Oqar suvlar yumshoq tog' jinslarini o'yib hosil qilgan chuqurlik jar deb ataladi [O'TIL. 5, 2, 73]. "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 370].

Shunga binoan bu mikrotoponimni "jar yonida bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlash mumkin.

Jar – tog' etagidagi qiyaliklarida, zamini yumshoq tekisliklarda ko'plab uchraydigan, oqar suvlar yerni yuvib ketishi natijasida hosil bo'lgan chuqurlik. ***Jar*** umuman *"chuqurlik, pastlik"* ma'nosini ham ifodalaydi, ya'ni "pastlikdagi buloq yonida joylashgan qishloq" deb izohlash mumkin.

Mazkur gidronimidagi birinchi komponenti ***"jar"*** geografik termini *"chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik"* deb izohlanadi [O'TIL. 2, 73].

Mazkur izohlardan gidronimni "chuqur soylikda joylashgan chashma" deb izohlash mumkin. Ushbu gidronim ikki o'zakli bo'lib, sifat+ot strukturasiga ega.

JARMISHKO'L – Polvonyop kanalining chap qirg'og'idagi ko'l (Xorazm viloyati Yangiariq tumani). Xorazmcha *jarmish, jarg'an, yorg'an – "ariq", "kanal"* ma'nosini ifodalab, *Jarmishko'l – "ariqdagi ko'l"* deganidir.

JARQISHLOQ – Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *"jarlikdagi qishloq"* ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining *Beshariq, Bog'dod, Dang'ara, Toshloq* tumanlarida shu nomli qishloqlar bor. *Jar* asli geografik termin bo'lib, tog' etagi qiyalarida, zamini yumshoq tekisliklarda ko'plab uchraydigan, oqar suvlar yerni yuvib ketishi natijasida hosil bo'lgan chuqurliklardir. *Jar* umuman *"chuqurlik, pastlik"* ma'nosini ham ifodalaydi. *"Jar"* so'zi qo'shilishidan *Anorjar, Jamanjar, Jarariq, Jarboshi, Jarqo'rg'on, Oqjar* kabi qishloq nomlari vujudga kelgan.

Shuningdek, Samarqand viloyati Pastdarg'om va Urgut tumanlari; Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani; Surxondaryo viloyati Sho'rchi, Soriosiyo tumanlarida ham mazkur nom bilan atalgan toponimlar mavjud bo'lib, u *"jarlikdagi qishloq"* (aynan,

[1] План-путеводитель по городу Ташкенту. – Ташкент, 1936.

"qishloq – jarlik") ma'nosida ekanligi qayd etiladi.

JARQUM – Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. "Jarlikdagi qum" (aynan, *"qum – jarlik"*) ma'nosini ifodalaydi.

JARQO'RG'ON – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tabiiy geografik jarayonlar (yomg'ir, sel, toshqin, zilzila, yer ko'chishi, o'pirilishi va boshqalar) natijasida yerning yuza qismida hosil bo'lgan o'yiq, yoriq, kesik joy jar deyiladi. Jar asosan, yumshoq jinslardan tuzilgan baland tekisliklarda, tog' etagi qiyaliklarida, relyefi notekis joylarda ko'proq kuzatiladi. Respublika toponimiyasi tarkibida jar so'zi juda ko'p uchraydi. Jar – yangi geografik obyektni nomlashda belgi vazifasini bajargan.

Nomning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan qo'rg'on – yer sathidan ko'tarilgan joyda tevaragi devor bilan o'rab olingan, darvozali qal'a, istehkom. Ta'kidlash joizki, qo'rg'on qurish xalqimizning o'troq hayotga ko'chish ma'naviyati va shaharsozlik qadriyatlari bilan bog'liq. Dastlab atrofi devor bilan o'ralgan aylana, to'rtburchak tarzidagi imorat qo'rg'on deyilgan. So'ngra devorini baland, qalin, mustahkam va mahobatli, bir darvozali qilib qurishgan. Ilk o'rta asrlarda mudofaa maqsadida qo'rg'onlar tevaragida xandaq qazilib, suv bilan to'ldirilgan.

Mahalliy aholi Jarqo'rg'on nomi qadimda daryo yuvishi natijasida paydo bo'lgan jar yoqasida joylashgan qo'rg'on nomidan kelib chiqqan deyishadi. VIII–XII asrlarda hozirgi Jarqo'rg'on o'rnida Charmangan (Sarmangan) shahri bo'lib, arab-fors geografik adabiyotlarda ko'p tilga olingan. O'sha davrlarda Jarqo'rg'on mavqei jihatidan Termiz shahridan keyin ikkinchi o'rinda bo'lgan. Geografik o'rnining qulayligidan Jarqo'rg'on qadimdan muhim savdo-sotiq markazi bo'lib kelgan.

Tumandagi Minor qishlog'ida Jarqo'rg'on minorasi (1108–1109) me'moriy yodgorligi joylashgan. Minora Xuroson me'morlik maktabi an'analari asosida, Xuroson amiri Abu Sa'id buyrug'i bilan, me'mor Ali ibn Muhammad Saraxsiy tomonidan barpo etilgan. Minora tuzilishi me'morning yuksak didi, san'ati va mahoratini namoyish etadi. Minoraning hozirgacha saqlanib qolgan qismining balandligi 21,6 metrni tashkil etadi. Jarqo'rg'on minorasi madaniy meros obyekti sifatida, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Tuman ma'muriy markazi – Jarqo'rg'on shahri (1973-yildan).

JARTEPA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi mahalla. Toponimiyada "jar" termini ishtirok etgan nomlar ko'p uchraydi. *Jarqishloq, O'roqvoyjar, Qaldirg'ochjar* (Urgut) va boshqalar shular jumlasidandir. Jartepa mahallasi bir necha qishloqlardan tashkil topgan bo'lib, ular *Qo'qonqishloq, Erniyoz, Boybo'l, Saroy, Hakachak, Usta Abdulla* (*Yomonkal* ham deyiladi), *Po'dari, Eshonqishloq, Nodirboy, Chovurchi, Jaloyir* qishloqlaridan iboratdir.

Mazkur nomlarning ko'pchiligi etimologik jihatdan "tiniq" bo'lib, faqat *Chovurchi* va *Po'dari* toponimlarining ma'nosi "xira"lashgan.

JARCHIBOSHI – Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi hisoblanadi. *Jarchi* – "xabarchi", *jarchiboshi* – "xabarchilar boshlig'i" ma'nosini anglatadi.

JATTAGUZAR – qishloq. Surxondaryo viloyati Soriosiyo tumani. *Jatta* urug'i Barlos qabilasi tarkibiga kirgan. Ba'zan esa Jattaning Barlos qabilasi tarkibiga kirishi shubha uyg'otadi.

Ma'lumki, *nopok jete* (*"qaroqchi"*) laqabi Movarounnahr turklari tomonidan mo'g'ullar – Mo'g'ulistonning turk-mo'g'ul aholisi ko'chmanchilariga berilgan (Восточный Туркестан и Семиречья) (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 186). Demak, *jatta* va *jete* laqabi, aynan shu ma'noda mo'g'ullarga tegishlidir.

JAVLON – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Oqdaryo tumanlaridagi qishloqlar nomi. Toponim ***javli//jovli//chovli*** va ***-on*** qismlaridan iborat bo'lib, ***Javli // jovli//chovli*** etnonim hisoblanib, ***-on*** esa ko'plik hosil qiluvchi qo'shimcha sanaladi. Qadimgi turkiy tilda chovli lochin bo'lgan bo'lib, bu totemdir.

B.O'rinboyev *javli, chavli* qadimgi turkiy tilda *chavli – lochin* totem demak. Totemdan etnonim, unga *-on (-lar)* qo'shimchasi qo'shilib, kishi ismi yasalgan. Shu ism bilan bog'liq kishilar avlodi yashagan joy, deb izohlaydi.

Boshqacha izoh: Javlon qarluq qabilasi urug'laridan birining nomi.

Demak, Javlon etnooykonim, ya'ni etnik birlik bilan bog'liq qishloq nomidir.

JAVOG'LI – Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Demak, Javog'li – saroy o'zbek qabilasi bo'linmalaridan va qadimgi turk urug'laridan biri sanaladi.

JAVTUK//JAVTUK ALGAL – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Tumanda *Yuqori Algal, Quyi Algal* nomli qishloqlar ham bor. Algal – ming qabilasi urug' tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Professor B.O'rinboyev Javtuk qishlog'i etimologiyasi haqida to'xtalar ekan, *"jav, jabi"* o'zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy urug'. **"Tug'"** so'zining *"nog'ora, xon huzurida chalinadigan baraban, bayroq, dam olib o'z tug'ini tikkan joy, to'g'on"* kabi ma'nolari bor. Javtug – jobi urug'i vakillarining o'z tug'ini tikkan joy demak", – deb qayd qiladi.

Rus olimi A.D.Grebenkin o'zi yiqqan dala materiallariga asoslanib, "algal" ming qabilasining tarmoqlaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan edi. Muallif ming qabilasi uch katta uruqqa – *To'g'ali, Bog'lon va uvoqtamg'al*iga bo'linishini ko'rsatib, *uvoqtamg'alilarning* yana *algal, chavutjayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyikxo'j*a va *yarat* tarmoqlari borligini qayd qiladi (Grebenkin, 1874: 42).

Mazkur urug' tarmoqlarining keyinchalik etnotoponimlarga aylangan-

ligini kuzatamiz. Urgut tumanidagi *O'ramas* (Paxtachi tumanida ham shu nomdagi qishloq bor), *Algal* (shuningdek, *Javtuk Algal* ham) shu yo'l bilan hosil bo'lgan.

Tilshunos K.Marqayev Janubiy O'zbekiston etnonimlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida Chiroqchi tumanida yashovchi qipchoqlarning Qirqoyoq urug'idagi bir tarmoq *chavtik, chavtak* deb atalishini qayd qiladi. **Chovtik** (*"chav, jov, jovli") – (shumovka) cho'mich* ma'nosida bo'lib, urug' tamg'asi chovli (cho'mich) shaklida bo'lgan, deb ko'rsatadi. *Chovli* nomli qishloq Ishtixon tumanida ham bor. Bu chovli etnotoponimi areali keng ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, *Javtuk Algal* qishlog'i nomi etnotoponim bo'lib, *Algal urug'ining Javtuk tarmog'i yashaydigan joy* demakdir. Qishloqning g'arbiy tomonida *Cho'michli* nomli qishloq ham bor. O'zbek qabilalaridan qipchoq, qo'ng'irot, nayman va boshqalar tarkibida "cho'mich, cho'michli" so'zi bilan bog'liq etnonimlar ko'p.

JAYHUN – mahalla. Xorazm viloyati Urganch tumani. Jayhun – 1) Amudaryoning qadimiy nomlaridan biri; 2) har qanday daryo; 3) Jayhuni Xorazm – Amudaryo. Amudaryoning qadimiy nomini tiklash maqsadida mahalla shu nom bilan atalgan.

JAYLOV – Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *Yaylov* so'zi (aynan "yozlovchi") deganidir, "je"lashgan shevalarda *jaylov* sifatida talaffuz qilinadi.

JAYRALI – Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq nomi. *Jayra* – tikonli hayvon, yovvoyi sifat ma'nolarini ifodalasa, *Jayrali* – yovvoyi sifat joylar deganidir. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumani va Jizzax viloyatining Zomin tumanlarida *Jayraxona – "yovvoyi sifat jayrali ko'p joy"* nomi mavjud.

JAYRAXONA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani. *Jayra* – tikonli hayvon, yovvoyi sifat ma'nolarini ifodalasa, *Jayraxona* – yovvoyi sifat jayrali ko'p joy deganidir.

JAYRONXONA – Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi qishloq nomi. *Jayronxona – "jayronlar saqlanadigan joy"* ma'nosini anglatadi.

JAZIRATI USMON – Orolpayg'ambar orolining kitobiy nomi. U arabcha **jazira** – *"orol"* ma'nosini ifodalaydi, Usmon ibn Ma'sud – arab sarkardasi.

JAZXO'RLAR – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. **Jaz** – *mayda-mayda qilib kesilgan go'sht;* **jazxo'r** – *shunday go'shtli taomlarni iste'mol qiluvchi; -lar* – ko'plik qo'shimchasi. Hamqishloqlarning qo'shnilari tomonidan berilgan jamoaviy laqabi.

JAG'ALBOYLI – Samarqand viloyatining Payariq, Pastdarg'om tumanlari, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloqlar nomlari. Jag'alboyli – etnonim. Zarafshon vodiysidagi o'zbek-qipchoqlarda jag'alboyli urug'i qayd etiladi (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –С. 123).

Mazkur termin qozoqlar o'rtasida *jagalbayli* sifatida ma'lum, qirg'izlarda *djagalmay* urug'i mavjud, boshqirdlarda *yagalbay,* qoraqalpoqlarda *djagaltay* urug'i bor.

JASHA – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani. *Jasha* – qipchoqsaroylar urug'ining nomi hisoblanadi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 124).

JENAV – Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi qishloq nomi bo'lib, bu yerda *je* komponenti o'zlashgan hisoblanib, *ju(y)* terminining dialektal variantidir, *nav* – "yangi" ma'nosini ifodalab, *Jenav* – "yangi ariq" deganidir.

JETIURUV – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *Jetiuruv* – Zarafshon qipchoqlarining unchalik katta bo'lmagan urug'i, jeti (adabiycha – *yetti*) *uruv* yoki *uru* (adabiycha – *urug'*) ma'nolarini anglatadi.

JETKINSHEK – Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l, Qo'ng'irot, Ellikqal'a tumanlari. *Jetkinshek* qoraqalpoq tilida *"o'smir", "yosh avlod"* degan ma'noni bildiradi.

JIBACHI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi bo'lib, u "kolchuk yoki (jiba) egalik qilganlar" ma'nosini anglatadi.

Buxoro xonligidagi Qoravul unvonidan oldingi amaldor unvonining nomi.

JIBLON – Toshkent viloyati Ohangaron tumanining "Ko'ksaroy" QFY hududida, Ohangaron daryosiga o'ng tomondan quyiluvchi Jiblonsoy bo'yida joylashgan kichik qishloq. Jiblon deb asli namchil (ariq va soylar bo'yida) yerning yuza qismida ajriqqa o'xshab tarmoqlanib o'suvchi bir yillik yovvoyi o'simlikka aytiladi.

Buxoro xonligida ko'p sonli amaldorlardan biri *jilbon* deb nomlangan va ular xalqni o'g'rilar, qaroqchilar va boshqalardan saqlashgan (А.Б.Вильданова. Подлинник Бухарского трактата о чинах и званиях. Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. – М., 1970. С. 44) va shundan so'ng qishloq nomi shu nomda atalgan. Bu hududda shunday kasb egalariga nisbat berilib joy nomiga qo'yilgan va keyinchalik tildagi metateza hodisasiga ko'ra *Jilbon Jiblon*ga aylangan. Yana bir manbaga ko'ra qishloq nomi arabcha **jabalun** – *tog'* nomidan olingan ekan.

JIDA – Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Naymansaroy urug'ining shoxchalaridan biri *jida* deb atalgan (К.К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи).

JIDAKAPA – qishloq. Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloq nomi. *Jida* – jiyda, buta; *kapa* – kulba, kambag'alning kichkina uychasi.

Demak, **Jidakapa** fitotoponimi "*butalardan bo'lgan kulba*" ma'nosini anglatadi.

JIDAMOZOR – Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi qishloq. *Jidamozor* – "*butalardan tashkil topgan mozor*" ma'nosini anglatadi.

JIDAQISHLOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani. *Jidaqishloq – "butalardan tashkil topgan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

JIGARISTON – Toshkent viloyati Angren shahrining janubi-sharqiy qismida, Ohangaron daryosining chap sohilida joylashgan qo'rg'on. Apellyativning birinchi qismi "Jigar" qarindosh, yaqin kabi ma'nolarni ifodalasa, uning ikkinchi komponenti "-iston" – o'rin, joy, makon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha sanaladi.

Manbalarda bu aholi manzili ko'mir koni ishga tushirilmagan, daryo to'silib, turk suv ombori qurilmagan paytlarda ko'klamgi suv toshqinlari tufayli Boqsuq, Grum, Obliq va boshqa madaniy markazlar va bozorlardan uzilib qolgani uchun shunday nomni olgani qayd etiladi.

Arxeologlar V.A. Soy va S.A. Ashirovlarning "G'arbiy Tyan-Shan: muqaddas joylarga sayohat" nomli yo'l ko'rsatkich-ma'lumotnomasida bu joy haqida shunday yozilgan: "Jigaristonsoyning quyi oqimidagi kaolin tuprog'ining ochiq konidan eramizdan avvalgi birinchi asrda foydalanilganligi to'g'risida ma'lumot bor. XIX asrga qadar samarqandlik va qashqadaryolik kulollar modaga aylangan "chinni" ("xitoyi") degan idishlarni tayyorlash uchun Jigariston gilbo'tasini sotib olganlar."

Biroq bu munozalidir, chunki nomning ko'rinishidan ma'lumki, mazkur joyning nomlanishi bir-biriga yaqin kishilar, yaqin oilalar yashsaydigan makon ma'nosidadir.

JIGDAZOR – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. *Jigda* (adabiycha – *jiyda*) – jiyda, sharq butasi ma'nosini ifodalasa, *-zor* – joy nomi hosil qiluvchi qo'shimchadir.

Demak, *Jigdazor – "jiyda o'simliklari o'sadigan joy"* ma'nosini anglatadi.

JIGDAZORQISHLOQ – qishloq. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani. *Jigdazorqishloq – "jiyda o'simliklari yetishtiriladigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

JILBON//JILVON – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq va kanal nomi. Bir necha asrdan beri shu nomda ataladi.

Buxoro xonligida qator mansab va martabalar orasida ***jilvon*** degan amal bo'lgan. ***Jilvon*** kishilarni o'g'ri, qaroqchi, yo'lto'sar va boshqalardan himoya qilib turgan[1]. Kanalni Jilvonlardan biri qazdirgan bo'lsa kerak.

Bundan tashqari, ***jilvon*** atamasiga quyidagicha ta'rif ham berilgan: ***Jilvon//Jilbon*** *– "chekkadagi cho'l, landshaftli hudud"*. Buxoro vohasining shimoliy chekkasidagi cho'l landshaftli hudud. Qizilqum chegarasida, Shofirkon va qisman G'ijduvon tumanlari hududida joylashgan. Uning bir qismi o'rta asrlardayoq o'zlashtirila boshlangan. Ayrim ko'chmanchi guruhlar, qaroqchilar hujumidan, voha aholisi va karvonlarni himoya qilish uchun xonlik tomonidan u yerda *jil-*

[1] Вилданова А.Б. Подлинник Бухарского трактата о чинах и званиях/ "Письменные памятники Востока", Историко-филологические исследования. –М. 1963. –С.44.

bon (chegara posboni) mansabi joriy qilingan.

Jilbonlar Buxoro va Vardonze shaharlariga kelib ketayotgan karvonlarni ham nazorat qilishgan. Keyinroq ***jilbon*** atamasi joy nomiga aylangan[1].

JILIBULOQ – Samarqand viloyati Nurobod tumani Tim qishlog'i yaqinidagi buloq nomi. Suvining iliqligi bilan xarakterlanadi. Xuddi shu qishloq bilan bog'liq *Qo'tirbuloq, Gurulloqbuloq, Kichiksoy, Devonasoy, Tumshuqariq, Quduqchaariq* gidronimlari va *Piyozliota* oronimlari ham mavjud.

JILON BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mahalliy aholi ko'pincha "y" tovushi o'rniga "j" tovushini qo'llaydi, ya'ni "j"lab so'zlovchidir.

Gidronimning birinchi komponenti "jilon" komponenti aslan *"sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko'zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor"* ma'nosini ifodalovchi "ilon"dir [O'TIL. 2, 198].

Geografik termin sanalgan "buloq" esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* [O'TIL. 1, 371].

Shunday ekan, mazkur gidronimni *"atrofida ilonlar ko'p uchraydigan chashma"* deb izohlash hamda zoogidronim sifatida baholashga asos to'laligicha bor.

JILONSOY – Samarqand viloyatining Samarqand tumani. *Jilonlibuloqsoy* (Jomboy tumani) – *"soy boshlanishidagi relyefning egri-bugriligini bildiradigan nom"* ma'nosidadir.

JILONTAMG'ALI – Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq. *Jilontamg'ali – "ilon shaklidagi tamg'a"* (*jilon* adabiycha – *ilon*) – qo'ng'irot qabilasi o'zbek urug'i va o'zbek-turkmanlar hamda nayman qabilasi nomi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 90; В. Мошкова. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен// Труды института истории и археологии АН УзССР, т. 2. – Т., 1950).

JILOVDOR BOBO – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi ziyoratgoh nomi. Mazkur nekronim "Urganji" MFY hududida joylashgan.

Jilovdor leksemasining konnotativ belgisi "boshliq", "rahbar" kabi ma'nolarni anglatadi [O'TIL. 2, 87].

JINDIBULOQ – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumani. *Jindi* (shevadagi *"jinni"*dan) – *"tezaki"*; **Jindibuloq** – *"tezaki buloq"* ma'nosini ifodalaydi.

JINGILDI – Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi ovul hamda qishloq nomi. Ba'zan ***Jongeldi*** shaklida uchraydi. Aslida, ***Jingildi//Jingil*** – *"yulg'un"* demakdir. S.Qorayev qoraqalpoq qo'ng'irotlilarining kichik bir shoxobchasi jonkeldi deb nomlanishi haqida ham ma'lumot bergan. Bizningcha, ***Jingildi*** toponimi ***"Yulg'unli, tikanli qishloq"*** degan ma'noni anglatadi va u fitotoponim hisoblanadi.

---

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, 3-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. –B.601.

JING'ILDI – Buxoro viloyatining Qorako'l tumani; *julg'unli* (qozoqcha). O'zbek tili shevasida *jing'il* (o'zbekcha-adabiycha – *yulg'un*). *Jangeldi* etnonimi mavjud.

JING'ILSOY – soy nomi. *Yulg'un butasi ko'p o'sgan joy* – soy shunday nom olgan. *Jingil* – yulg'unning mahalliy nomidir.

JILG'INSOY – soy. Navoiy viloyati Nurota tumani. *Jing'il* (yulg'un)*soy* – *"soyning qirg'oqlari bo'ylab yulg'un o'sadigan joy"* ma'nosini anglatadi.

JINNIDARYO – Qashqadaryoning o'ng irmog'i. Norin, Chirchiq, Zarafshon, Surxon daryolarining ham shu nomdagi irmoqlari borligi ma'lum. Respublika hududida *Jinnidaryo* degan jilg'a, irmoq, ko'l (kattaroq daryoga kelib qo'shiladigan, o'zani nisbatan qisqa masofali soy, oqarsuv)larning bo'lishi tabiiy, chunki *Jinnidaryolar* qaysi viloyat, tuman hududida bo'lishidan qat'i nazar, tog'oldi yoki tog' etaklarida uchraydi.

Jinnidaryolar, asosan, yirikroq daryolarga kelib qo'shiladigan irmoq, soy maqomidagi oqarsuvlardir. Jinnidaryolarning suvi bahorda ko'payadi. Yog'in-sochin ko'p bo'lganda, jala yo do'l yog'ganda suvi birdan ko'payib ketadi, natijada qirg'oqlarini to'ldirib oqadi. Ba'zan o'zanini o'zgartirib – o'ng yo chap tomonga burilib ketib, oqim yo'nalishini o'zgartiradi. Yog'ingarchilik bo'lmagan vaqtlarda suvning miqdori bir xil bo'ladi. O'zanini ham o'zgartirmaydi, suvi bir tekisda, bir maqomda oqadi. Oqim tarzidagi bu holat oqarsuvning tabiiy holati, to'yinish manbasi bilan bog'liq.

Jinnidaryolarning suvi tog' etaklaridagi, ba'zi hududlarda dara ichidagi buloq, yerosti sizot suvlaridan hosil bo'ladi. Ana shu xususiyati bilan ular *Qoradaryo, Qorasuv, Qorabuloq* nomlari bilan atalgan daryo irmoqlariga o'xshaydi. Respublika hududidagi barcha *Qorabuloq, Qorasuv, Qoradaryo*larning to'yinish manbasi – buloq, yerosti sizot suvlaridir.

Jinnidaryo bilan *Qoradaryo*ning boshlanishi va tugallanishi, boshqa daryoga qo'shilish nuqtasida o'xshashlik mavjud. Bu o'xshashlik ikki xil so'zlar bilan (*jinni – qora*) atalish sabablarini izohlashga imkon yaratadi. Kuzatishlar *Jinnidaryo* va *Qoradaryo* nomi bilan atalgan daryolarning bir xil geomorfologik hududlarda mavjudligini ko'rsatmoqda. Bir xil relyef shaklidagi hududlardagi oqarsuvlarning ikki xil nomlanish sababi bor. Bu omil xalq tilidagi jinni – qora so'zlarining qadimiy ma'nolari, so'zlarining oqarsuv havzalarini nomlashdagi xalqona tamoyillari bilan izohlanadi.

Jinnidaryo bir qator toponimik lug'atlarda, geografiya darsliklari va qo'llanmalarida, risola va ilmiy maqolalarda bir-biriga o'xshash tarzda izohlanib kelinayotganligi ma'lum. Izoh mualliflari *jinni* so'zining adabiy tildagi, xalq nutqidagi, shevalardagi ma'nosini inobatga olishgan: suvning miqdori yog'in-sochinga bog'liq bo'lganligi tufayli o'zani va sathini o'zgartirib turadigan, qirg'oqlarni yu-

vib zarar keltiradigan, yozda qurib qoladigan daryo – *Jinnidaryo*. Shuni ham aytish kerakki, **Jin** so'zining *tor, kichik* ma'nosi ham bor: *jinko'cha* deganda, uzunligi qisqa, tor ko'cha tushuniladi. *Jin* so'zining ana shu o'rin, makon ma'nosi asosida *Jinnidaryoni "kichik daryo, oqim o'zani uzun bo'lmagan daryocha (irmoq, oqarsuv)"* tarzida izohlash mumkin. Tildagi *jin* so'ziga *-li* qo'shimchasi qo'shilib, *jinli – jinni* so'zi hosil bo'lishi mumkin. Bu – tildagi bor nutqiy, lisoniy holat. Shu tariqa Jinnidaryo gidronimini ikki xil izohlash holati yuzaga kelgan. Bu ikki izoh ham *jin, jinni* so'zlarining ma'nosi bilan bog'liq. Jin so'zining ma'nosi asosida Jinnidaryo gidronimi izohlansa, oqim o'zanining hajm, o'rin belgisi motiv uchun asos bo'lib xizmat qilgan bo'ladi. Bu ikki izohda ham nomlanishning haqiqiy, ilmiy motivi aks etmaydi. Gidronimlarning bu tarzda izohlanishi onomastik illyuziya sanaladi. Demotivatsiya yuz berishining lisoniy va nolisoniy (ijtimoiy) sababi gidronim tarkibidagi jinni so'zining morfologik tarkibi va qadimiy ma'nosining to'g'ri aniqlanmaganligidir.

O'zbekistonning bundan bir necha ming yillar oldin nomlangan suv havzalari nomining qiyosiy lisoniy tahlili shuni ko'rsatadiki, *Jinnidaryo, Jilisuv, Jiliko'l* kabi gidronimlarning yaralishiga asos bo'lgan, suv havzalarining nomlanishiga omil bo'lgan lisoniy dalil boshqa so'z ekanini ko'rsatadi.

1. O'zbek tilining, umuman, turkiy tillarning V–X asrlar o'tmishida buloqdan, yerostidan sizib yo qaynab, otilib chiqadigan suv *yil /yul/yo'l* so'zi bilan atalgan.

2. *Yil/yul/yo'l* so'ziga *-ak/-oq* qo'shimchasi qo'shilib, *yilak/yulak/yo'laq* so'zi yasalgan. XI asrning buyuk tilshunosi M.Koshg'ariyning yozishiga ko'ra, bir necha suv yo'llari, ko'lchalar *yulak/yo'laq* deb atalgan.

3. *Yil/yul/yo'l* so'zi ham buloqni – yerostidan chiqadigan suvni, ham shu suv oqadigan o'zanni, ya'ni jilg'a shaklidagi oqarsuvni anglatgan. Shuni ta'kidlash lozimki, so'z boshida *y-j* tovushlarining mosligi, almashinib qo'llanishi turkiy tillarning qarluq va qipchoq guruhlariga xos. O'zbek tilining esa qarluq va qipchoq lahja (sheva)larida ham *y-j* tovushlari so'z boshida almashinib qo'llanishi qadimiy lisoniy qonunidir.

Buloq va oqarsuv – jilg'a ma'nosidagi qarluq lahja (sheva)sidagi *yil/yul/yo'l* so'zining qipchoq lahja (sheva)sidagi shakli – *jil /jul/jo'l* so'zidir. *Yil/yul/yo'l* va *jil/jul/jo'l* so'zlari bir o'zakdan hosil bo'lgan. Ma'nolari bir xil, tarqalish hududlari – har xil. *Jil / jul/jo'l* so'zi O'zbekiston hududiga xos. *Yil/yul/yo'l* so'zi esa Oltoy, Xakasiya, Uraldagi turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda gidronimlar yasagan. O'zbekiston hududida *jil/jul/jo'l* so'zi *suv, ko'l, daryo* so'zlari bilan birikib, oqarsuv havzalari nomini hosil qilgan.

Jil/jul/jo'l so'zi va *Jinnidaryo* nomi tarkibidagi *jinni* so'zi o'rtasida ma'noviy, kelib chiqish, morfologik tuzilish, so'z yasalishi aloqadorligi bormi?

Bu savolga faqat ijobiy javob berish joiz. *Jil/jul/jo'l* so'ziga *-li* qo'shimchasi qo'shilgan: *jilli, julli, jo'lli.* Bu yasalish V–X asrlarda yuz bergan. Bu yasama so'zga dastlabki davrlarda *suv, ko'l* so'zlari qo'shilgan. Chunki, yasalishi uchun asos bo'lgan so'z ham, suv havzasi turini bildiruvchi suv, ko'l so'zlari ham o'zbekcha: *Jillisuv – Jilisuv, Jilliko'l – Jiliko'l. Daryo* so'zi fors-tojikcha. *Jilli/julli/jo'lli* so'zining *daryo* so'zi bilan qo'shilishi nisbatan keyingi davrlarda yuz bergan. *Jil/jul/jo'l* so'ziga *-li* qo'shimchasi qo'shilgach, yasama so'z o'zagidagi *ll* tovush birikmasi *nn* tovush birikmasiga aylangan: *Jillidaryo – Jinnidaryo.*

Zahiriddin Muhammad Bobur O'zbekistonning, Hirotning tog'li hududlari aholisi nutqida Qorasuv atamasining shu ma'nosini, xalq nutqida shu vazifada qo'llanishini alohida yozib qoldirgan. O'zbek xalqining qor va muz suvlari bilan to'yinadigan oqarsuvlarini *Oqsuv, Oqdaryo* deb atalishini ham Bobur "Boburnoma" asarida qayd qilgan.

Jinnidaryo nomini izohlashda o'zbek tilidagi jinni so'ziga nisbat berib, jo'shib-toshib oqadigan, o'zanini o'zgartirib turadigan jilg'a deb izohlash – xalq etimologiyasidir. Bu etimologiya XIX–XX asrlarda yaratildi.

Tilda *jil/jul/jo'l* va undan yasalgan *jilli/julli/jo'lli* so'zlari o'zbek tili leksik xazinasida qo'llanmasligi, XII–XIII asrlardayoq iste'moldan chiqib ketganligi, ma'nosining noaniqligi, morfema tuzilishining o'zgarib ketganligi daryo nomi haqida xalq etimologiyasining yuzaga kelishiga motiv bo'lgan. O'zbek tilidagi suv havzalari nomi sistemasida daryo nomlari eng qadimiy sanaladi. *Jilg'a, ariq, soy, buloq, chashma, ko'l, qoq, hovuz, quduq, band* nomlari nisbatan keyingi davrlar mahsulidir.

O'zbek tilidagi *Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Norin, Chirchiq, Zarafshon, Oqdaryo, Oqsuv daryo nomlari qanchalik qadimiy bo'lsa, Jinnidaryo, Jilisuv, Jiliko'l* nomlari ham shunchalik qadimiy va azaliydir. Qadimgi turkiy tilga mansub *yil/jil/jul/yul/jo'l/yo'l* so'zidan tog' etagidan oqib kelayotgan kichik oqarsuv ma'nosidagi jilg'a gidrologik atamasi – gidronimik indikatori yasalgan.

Tog' etaklaridan oqadigan har qanday oqarsuv *jilg'a* deb atalishi O'zbekistonning barcha hududlari aholisi nutqiga xos. *Jilg'a* atamasining qarluq lahjasi va qarluq turkiy tillariga xos *yilg'a* shakli ham bor. Bu so'z gidronimlar tarkibida ham uchraydi. Chiroqchi tumanida *Torjilg'a* qishlog'i bor. Azalda u gidronim bo'lgan, gidronim sifatida yaralgan. O'zbekistonning boshqa hududlarida *Qo'shjilg'a, Ayrijilg'a, Iyrijilg'a, Toshjilg'a, Suvlijilg'a* kabi gidronimlar borligi aniqlangan.

JINQISHLOQ – Samarqand viloyatining Oqdaryo va Ishtixon tumanlaridagi qishloq. **Jin** so'zining *"kichik", "tor", "mayda"* ma'nolari ham bor. **Jinqishloq** *–mayda, kichik qishloq* ma'nosini anglatadi.

JIRMIZ – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Rivoyatlarga ko'ra bu yerda bir buz-

ruk (ulug' zot, xo'ja) yashab o'tgan emish. Uning bir qancha shogirdlari bo'lib, shogirdlaridan biriga ko'proq mehr qo'yib, *"sen Jirimsizsan" (o'ta yuvosh, aytganini qiladigan* ma'noda) der ekan. Shundan keyin o'rtoqlari uni *"Jirimsiz shogird"* deb atay boshlaganlar. Shogird keksayib vafot etgach, shu yerda dafn qilingan va elga xizmati singanligi tufayli qabriston ham, qishloq ham uning nomi bilan atala boshlagan. *"Jirimsiz"* so'zi yillar o'tishi bilan *Jirmiz* shaklida talaffuz qilinadigan bo'lgan. Aholi ko'payib, qishloq ancha kengaygach, *Katta jirmiz* deb atala boshlagan.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida ham shunday nomlangan toponimlar mavjud. Yuqori Qashqadaryoda *qayta ishlanmagan yer – jovuz* deb ataladi (B. Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo. 132-bet).

JIVACHI//JEVACHI – Andijon viloyati Andijon tumanining Xartum qishlog'i hududidagi kichik qishloq. So'zning asl atamasi **"Jeba", "Jiba"** – *mayda simdan to'qilgan urush kiyimi, sovut.* **Jevachi** – *shu kiyimning ustasi, hunarmand.* Ammo toponimist S.Qorayevning fikricha, **"Jevachi"** (Jebachi) – qurol-aslaha omborining boshlig'i. Toshkentdagi "Eski Jo'va(Juva) nomi ham ana shu so'zdan olingan.

JIYDALI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur komonim ***"jiyda"*** so'zi hamda ***"-li"*** affiksining qo'shilishidan tashkil topgan va u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi"* [O'TIL. 5, 583-584] tarzida izohlanadi. Nomning "jiyda" elementi "bargi uzunchoq, guli xushbo'y mevali daraxt va uning mevasi" ma'nosini anglatadi [O'TIL.2, 84]. Bundan ma'lum bo'ladiki, ***Jiydali*** – bu *"jiyda daraxti ko'p o'sadigan joyda barpo qilingan qishloq"*dir.

JIYDALI BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Gidronimning ***"jiyda"*** komponenti *"bargi uzunchoq, guli xushbo'y mevali daraxt va uning mevasi" tavsifiga ega* [O'TIL. 2, 84]. ***-li*** turkiy tillarga xos affiks bo'lib, "otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi" [O'TIL. 5, 583-584].

Geografik termin ***"buloq"*** esa "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* tarzida izohlanadi [O'TIL. 1, 371].

Yuqoridagilarga asoslanib, mazkur gidronimni fitogidronim sifatida baholab, *"atrofida jiyda daraxtlari o'sadigan chashma"* deb bemalol izohlash mumkin.

JIYDALIK // JIYDALI // BUVA // JIYDOTIZ – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy, To'rtko'l va Elikqal'a tumanlaridagi ovullar nomi.

Jiydalik, Jiydali buva, Jiydotiz toponimlari tarkibidagi *ji:də, jiydə* so'zi uyg'ur tilida *ǯçigdə*, qoraqalpoq tilida *jiyde*, qozoq tilida *ǯçide*, qirg'izchada *jiyde, jigdə*, turkchada *iyde*, turkmanchada *igde* shakllariga ega.

Turkman tilining ayrim shevalarida, jumladan, kirach dialektida *ǯçigde*, ersari dialektida esa *yigde*[1], qoraqalpoq shevalarida uning *yiyde* shakli mavjud[2]. *Jiyda* so'zi qadimgi turkiy yodgorliklarda *yigde, yigte*[3], *yigte, yikde, igde* kabi shakllarda qayd qilingan.

E.V. Sevortyan ushbu so'zning fonetik taraqqiyotini *Jiyda<yigde, igde, ǯçigde, yikdə*[4]tarzida ko'rsatadi.

Umuman, "***Jiydalik*** – *jiyda daraxti bilan o'ralgan maydon, dala*" va "**Jiydotiz** – *jiyda ekilgan maydon, dala*" (Janubiy Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati shevalarida ekin ekiladigan maydon, dala otiz deb yuritiladi) kabi ma'nolarni ifodalaydi va shu sababli ham mazkur ovullar shunday nomlangan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

JIYDASOY – soy. Namangan viloyatining Pop tumanidagi Sirdaryoning birinchi irmog'i, "*qirg'oqlar bo'ylab butalar o'sadigan soy*" ma'nosini anglatadi.

JIZZA – Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Kasbi tumanlaridagi qishloq nomi. Taxmin qilinadi: toponim sug'dcha *diz* – "qal'a" va unga *-a* qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilingan.

JIZZALIK – Namangan viloyatining Koson tumanidagi qishloq. ***Jizza*** (*qarang*: yuqorida) va *-lik* mazkur joydan yetishib chiqqan insonlarni ko'rsatuvchi qo'shimchadir.

JIZZAX – viloyat. Mamlakatdagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Osiyodagi qadimiy shaharlardan biri. Shahar Sangzor daryosi bo'yida joylashgan. Jizzax shahri VII asrdan buyon ma'lum, arablar kelmasdan oldin o'z ahamiyati jihatidan Ustrushonaning eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Yunon solnomachilari Kiropol va Gazo shaharlarini alohida tilga olishgan. Arxeolog-olimlar Gazo shahri Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashganligini ta'kidlashgan. Olimlar Gazoni qadimiy Jizzax deb taxmin qiladilar. Jizzax kichik qal'a sifatida bir necha qadimiy karvon yo'lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Jizzax vohasidagi ilk qadimiy shahar, hozirgi Jizzax shahrining sharqiy qismida joylashgan Qaliyatepa o'rnida miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan. Milod boshida, taxminan ikki ming yil avval shaharning umumiy maydoni 50 gektarga yetgan, shahriston,

---

[1] Очерк диалектов туркменского языка. – Ашхабад, 1970. –С.395.

[2] Досканов У. Диалектная лексика каракалпакского языка. – Нукус,1950. –С.129.

[3] Mahmud Kashg'ariy. Devonu lug'atit turk. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 37.

[4] Севортьян Е.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. –С.325.

ark qudratli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, uning atrofida suv to'ldirilib qo'yilgan muhofaza xandaqlari bunyod etilgan. Arab istilosi natijasida, ya'ni VIII asrning ikkinchi yarmida qadimgi Jizzax vayron etiladi.

Keyinchalik shahar hayoti Qaliyatepadan 6 km. shimoli-g'arbda joylashgan hozirgi O'rdaga ko'chadi.

Jizzax yozma manbalarda ilk bor islom dunyosi geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Havqal, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olingan. Shahar IX–X asrlarda Somoniylar, XI–XIII asrlarda Qoraxoniylar, XIV–XV asrlarda Temuriylar davlati, keyinchalik Buxoro amirligi tarkibiga kiritilgan. Shahar bir necha marta inqirozga uchrab, yana qayta tiklangan. Amir Temur va Temuriylar davrida Jizzax yana ham obodonlashib, savdo-sotiq va strategik ahamiyatni kasb eta boshlagan.

XIX asrning 60-yillarida, ya'ni Sho'ro istilosi arafasida Jizzax (O'rda) 100 gektarga yaqin maydonni egallagan, ikki qator mudofaa devorlariga ega, Buxoro amirligi tasarrufidagi Jizzax hokimining ma'muriy markazi, harbiylashgan qal'a-shahar hisoblangan. Rossiya istilosidan keyin, Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olingan Jizzax shahri yangi tashkil topgan Jizzax uyezdining markaziga aylangan.

Nom davr, zamon, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli. Nom paydo bo'lgan davr tarixini yaxshi bilmasdan, uning zamiridagi ma'noni anglash qiyin. Bu uchun kamida nomlashga asos bo'lgan ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlab olish zarur. Joy nomlangan paytlarda uning ma'nosi va nomlanish sabablari shu nomni qo'ygan aholiga aniq ma'lum bo'lgan. Qadimgi buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan hozirgi Jizzax shahri, muhim strategik ahamiyatga ega kichik bir qal'a sifatida ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan va dastlab Dizak deb nomlangani ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Jizzaxni "Dizak" deb ta'riflab, shahar to'g'risida shunday yozgan: "Semiz etlar va mayda yetmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon". Jizzax oykonimining kelib chiqishi to'g'risida turli fikr va mulohazalar mavjud. Masalan, H.Hasanov yozishicha, Jizzax qadimda Dizak deb atalgan. Ma'nosi: *diz* – qadimgi sug'd tilida *"qal'a, istehkom, qo'rg'on"*, *-ak* esa kichkina, ya'ni kichraytirish affiksi, bizdagi *-cha* qo'shimchasiga to'g'ri keladi. *Dizak – "qal'acha"* degan ma'noni beradi. Dizak so'zini Jizzax shakliga o'zgarishini S.Qorayev "z, d, j – tovushlarining o'zaro almashishi va munosabati toponimda katta ahamiyatga ega. Dizak nomining Jizzax shaklini olishi ham shu qonuniyat mahsulidir", deb izohlagan. Jizzax shahri – viloyatning ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi (1973-yildan).

JIZZAXLIK – qishloq. Jizzax viloyati Jizzax tumani. *Jizzax + -lik* mazkur

joydan yetishib chiqqan insonlarni ko'rsatuvchi qo'shimchadir.

JIG'ACHI – Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Bosh kiyimiga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi[1]. Prof. S.Ibrohimovning ma'lumotlariga qaraganda, ***jig'a*** – "bir-biriga yopishtirilgan ikki palla yupqa kumushdan iborat bo'lgan taqinchoq, ustiga bosma naqshlar ishlangan, tilla suvi yuritilgan, marvarid, firuza va boshqa asl toshlar va shishalar qadalgan, ustiga ikki pari qistirilgan, ichiga mum to'ldirilgan. Jig'ani aksariyat xon va xonzodalar taqqanlar".

Demak, ***Jig'achi*** – *"jig'a yasovchi ustalar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

JOBU – Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Turkiy etnonim. O'zbek urug'laridan biri.

G'arbiy turklarning oliy hukmronlik unvonlaridan biri ***yobu (yabg'u)*** deb atalgan. ***Kultegin, Bilga Hoqon*** yodgorliklarida ***yabg'u*** so'zi qo'llangan.

Qadimiy turklarda bu unvon qabila va qabilalar ittifoqi boshliqlariga berilgan.

O'rta Osiyoning qadimiy xalqlaridan bo'lmish qarluq xonlari ham ***yobg'u*** deb atalgan. Mazkur nomning vujudga kelishiga etnonim asos bo'lgan.

JOBUTOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***jobu***" va "***toy***" qismlaridan iborat. "***Jobu//yobu***" ham, "toy (toy baday)" ham urug' nomlari (etnonimlar) qatoriga kiradi [T.Nafasov, 74; S.Qorayev, 1, 55; Z.Ziyotov, 64; N.Begaliyev, 51].

Shunga ko'ra bu etnomikrotoponimni jobu va toy urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq, ot+ot strukturaga ega.

JODUGAR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumani. O'zbek laqay qabilasi urug'i bo'linmalaridan biri *jodugar* deb nomlanib, qishloq ham shu nom bilan atalgan.

JOM – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq va soy nomi; Jom dashti – Samarqand viloyati. *Jom* aynan *yom* deganidir.

JOMASHO'Y – Namangan viloyatining Jomashuy tumanidagi qishloq nomi sanaladi. Forscha **jom** – *kiyim,* **shu(y)** – *kir yuvadigan joy* deganidir. Ehtimol, *Jomasho'y – "kir yuvadigan joydir".*

JOMBOY – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Keksa avlod vakillari ham turlicha izohlaydilar. Ularning rivoyatlariga ko'ra, ***Jomboy*** so'zi jamiyat, jamoat boy so'zlarining birikishi va qisqarishidan hosil bo'lgan. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda ***Jomboy*** toponimining ikki qismdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. U ***jom*** va ***boy*** qismlaridan tarkib topgan.

Etnooykonim tarkibidagi ***jom*** qismini turlicha ta'birlaydilar. ***Jan//jom//jon*** so'zi sug'dcha bo'lib, u buloq, kanal, suv manbayi degan ma'-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B. 283.

noni ifodalaydi. Jan komponentli nomlar IX–XIII asrlarda gidronimik atama sifatida ko'p qo'llanilgan va u suv ombori, kanal, suv havzasi ma'nosida ishlatilgan. Jumladan, Burjan, Madjan, Sangjan, Ro'yjan, Sanbikjan, Obijam (Iskandarko'l) kabi joy nomlari shundan dalolat beradi.

Jom so'zining bekat, istehkom, yom ma'nosida ishlatilishi ham ta'kidlanadi. ***Jom, Jom*** cho'li, Jumrud kabi joy va suv nomlari borligi "Boburnoma"da, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, V.V. Bartold asarlarida eslatib o'tiladi.

Jom so'zi ***yom//jam//zam*** shakllarida uchraydi va u mo'g'ulcha "yo'l" degan ma'noni anglatadi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida esa, savdo, aloqa yo'llaridagi bekat, ot-ulovlarni almashtiradigan joy, xabarlarni bu bekatdan narigisiga yetkazish uchun xizmat qiladigan saroydir.

Ayrim tilshunoslar ***Jomboy*** toponimining ***jom//jan//yom*** so'zlari bilan aloqasi yo'q deb ko'rsatadilar. X.Doniyorovning tadqiqotlarida, o'zbek xalqining 92 bovli urug'i sanalganda, ular tarkibida Jomi urug'i ham eslanadi.

Z.Do'simov, X.Egamov o'zlarining "Joy nomlarini qisqacha izohli lug'ati" nomli kitobida Jomboy so'zini etnonim sifatida izohlaydilar. Ushbu etnonimning jom qismi M.Koshg'ariy eslatgan jumul urug' nomining qisqargan shakli bo'lishi mumkin: ***jumul// jum//jom*** kabi. Chunki ***Jomboy*** tumanidagi qang'li shevasida Jumboy tarzida talaffuz qilinadi. Ko'pchilik lug'at va adabiyotlarda etnonimning ***boy*** qismi *badavlat, to'kis, ko'p, mo'l* ma'nolarini ifodalashi ko'rsatiladi.

Lekin *boybicha, boybotir, boybo'ri, boyli, boyliqora, boyovul* kabi etnonimlar tarkibida boshqa ma'no ifodalaydi. Tilda uning ***boy//bay//moy//may// poy//pay*** kabi variantlari uchraydi. U qanday variant va shakl, ma'noda ishlatilishidan qat'i nazar morfologik va sintaktik usul bilan etnonim hosil qilingan.

Xullas, ***Jomboy*** etnonimining asosida urug' nomlari mavjuddir. Chunki uning tarkibida ham jumul + boyli – jomboy; Jomi – boyli – jomboy. Jomboy etnonimi asosida shakllangan toponimlar Qozog'istonning Gurev viloyatida, Samarqand viloyati Jomboy tumanida Jomboyli, Urgut tumanida Jomboyliravot, Boysun tumanida Jomchi, Nurobod tumanida Jom nomlarining tarqalganligi shundan dalolat beradi. Xullas, Jomboy qipchoqlarning bir urug'i nomidir.

JOMBULOQ – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. **Jombuloq** – *chuqurlikdagi buloq* ma'nosini anglatadi.

JOMONJAR – Farg'ona viloyatining O'zbekiston hamda Samarqand viloyatining Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Bu mikrotoponim "***jomon***" va "***jar***" qismlaridan iborat.

Saroy, oqqipchoq, do'rmon va qoraqalpoqlarning qiyot, quldovli, kenagas, mang'itlarning bir urug'i jomon

(yomon) deb ataladi [T.Nafasov, 69; S.Qorayev, 1, 52; Z.Ziyotov, 65].

Apellyativning ikkinchi qismi "***Jar***" esa "yerning chuqur, o'yiq joyi, chetlari o'pirilgan chuqur soylik, chuqurlik" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 73].

Shunga binoan ***Jomonjar – yomon//jomon***lar urug'i vakillari yashagan jar atrofidagi qishloq ma'nosini ifodalaydi. Ot+ot so'z birikmasiga mansub joy nomi.

JOMONTO'P – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***jomon***" va "***to'p***" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Saroy, oqqipchoq, do'rmon va qoraqalpoqlarning qiyot, quldovli, kenagas, mang'itlarning bir urug'i ***jomon//yomon*** deb ataladi [T.Nafasov, 69; S.Qorayev, 1, 52; Z.Ziyotov, 65].

Shunga ko'ra bu qishloq nomini ***jomon*** urug'iga mansub jamoa yashaydigan yashash maskani deb izohlash mumkin. Patronim keyinchalik qishloq nomiga, etnooykonimga o'tgan, ikki komponentli sifat+ot shakliga ega.

JONBULOQ I – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. "Jon" komponenti hayot manbayi, hayot bag'ishlovchi ma'nolarini ham ifodalab keladi [O'TIL. 2, 104]. Geografik termin "buloq" esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" [O'TIL. 1, 371].

Xulosa qilsak, hayot bag'ishlovchi ya'ni inson sog'ligi uchun minerallarga boy bo'lgan buloq ma'nosini bildiradi.

JONBULOQ II – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Toponimning birinchi qismidagi **jon (jongi)** turkiy tillarga xos bo'lib "yangi" ma'noni anglatadi. **Jonbuloq**-ni "yangi buloq yonidagi qishloq" shaklida izohlash mumkin.

Bu mikrotoponim "***jon // jona***" va "buloq" qismlaridan iborat. ***Jon // jona*** – qiyalik ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 103]. "***Buloq***" so'zi esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 370].

Yuqoridagilarga tayanib, mazkur mikrotoponimni "*qiyalik yonida bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlashga asos bor.

JONDOR – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman Buxoro vohasida Zarafshon daryosining quyi oqimining shimoli-g'arbida, cho'l zonasida joylashgan. Relyefi asosan tekislik, qisman botqoq va sho'rxoklar ham bor.

Jondor so'zi tuman va shaharcha nomi sifatida o'z tarixiga ega. Jondor – saroy lavozimlaridan biri bo'lgan. Movarounnahrda, xususan, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida yasovulboshini ba'zan jondor ham deyishgan. Saljuqiylar davrida jondorlar qo'riqchilik va jallodlik vazifalarini ado etgan jangchilar bo'lib, ularning boshlig'i – amiri Jondor unvoniga ega bo'lgan.

Buxoroda *jondor* so'zi *"jallod"* ma'nosida qo'llanilgan. Yasovul boshlig'i ham jondor deyilgan. Buxoro amiri Haydarning (1800–1826) shaxsiy kotibi bo'lib ishlagan Mirzo Sodiq Jondoriy "Sodiq" taxallusi bilan she'rlar yozgan va hozirjavob, o'tkir zehnli kishi bo'lgan. Jondor qishlog'iga suv kelmay qolib, qurg'oqchilik boshlanganda hamqishloqlari Sodiq Jondoriydan amir nomiga ariza yozib berishni iltimos qilganlar.

Mirzo Sodiq: "Najotpanoh! Hamma narsa, xususan, jondor suv bilan tirik", deb bir qatorgina ariza yozgan. Adabiyot va zakovatni hurmat qiladigan amir Haydarga bu so'z o'yini juda yoqib tushgan va Jondor qishlog'iga suv ochishga farmon bergan. Chunki, *Jondor* so'zining *"jonivor, tirik mavjudot"* degan ma'nosi ham bor. Tuman ma'muriy markazi – Jondor shaharchasi (1981-yildan).

JONKELDI – ovul. Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi ovul nomi. *Jankeldi-Jing'ildi* (*jing'il* – yulg'unning shoxlari) so'zining dialektal variantidir. Aniqrog'i, *Jangeldi* – etnonim, qozoqlarning *uak* qabilasida *jangeldi* urug'i mavjud (M.C.Муканов. Этнический состав и расселение казахов Среднего Жуза. –Алма-Ата, 1974. С. 66); qozoqlarning Alimuli qabilasida (Н.А.Аристов. Заметки этнической истории. С. 380), shuningdek, turkmanlarning Gyokl̈en qabilasida (Д.М.Овезов. Население долины Чандыра и среднего течения Сумбара. –Ашхабад, 1976. С. 45) ham Jangeldi urug'i qayd etilgan.

JORG'OQ – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi bo'lib, u etnotoponim sanaladi. Chunki chuyut o'zbek urug'i avlodlaridan biri jorg'oq deb nomlangan (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи// "Этнографическое изучение культуры и быта узбекского народа". – Т., 1972). **Jorg'oq (yorg'oq)** so'zi *"junsiz qo'y terisi"*, ko'chma ma'noda *"soqolsiz"* ma'nosini ham ifodalaydi.

JOVUZ – Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq. Ushbu nom uchun asos bo'lgan so'zning qadimgi shakli – *yog'iz (yag'iz)*. Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib asarlarida (XI asr) *yag'iz yer – kulrang, bo'z yer. Yog'iz (yag'iz)* so'zining qipchoq shevalariga xos shakli *joviz. Bo'z yerda bunyod bo'lgan qishloq* – **Jovuz.**

JOYLOVGA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi yaylov nomi. Bir o'zakli mikrooykonim. Bu hudud aholisi "j"lashgan shevada so'zlashgani bois "y"ning "j"ga almashuvi tabiiy. Yaylov so'zi chorva mollari erkin o'tlaydigan, yoyilib boqiladigan keng dala, maydon o'tloq [O'TIL. 5, 100].

Bundan kelib chiqadiki, qishloq hududining chorva mollari o'tlab yuradigan joyni anglatish maqsadida shu so'zdan foydalanadi.

JUBUT – Buxoro shahri ostidagi qadimgi qishloq. *Ju(y)* – "ariq", *but* ma'nosini ifodalasa, *Ju(y)but* toponimi esa *"sanam arig'i"* ma'nosini anglatadi.

JUMA – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Juma (bu juma bozorlari o'tkazilgan aholi punktlarining nomi). (*Qarang*: Jumabozor)

JUMABOZOR – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi yirik qishloqlardan biri. Bu yerda bozor juma kuni bo'lganligi tufayli shunday nomlangan. O'tgan asrning 70-yillarida o'lkamizga kelgan rus olimi V.V.Radlov Zarafshon vodiysidagi bozorlar haqida gapirib, Kattaqo'rg'on tumanidagi Payshanba shahrida payshanba kuni, Jumabozorda esa juma kunlari bozor bo'lishini qayd qiladi.

Dushambeqo'rg'on (Oqdaryo) qishlog'i nomi ham bozor bilan bog'liq. *Yangiqo'rg'on* qishlog'i (Oqdaryo tumani) keksalari hafta kunlarini bozor bo'lib o'tadigan qishloqlar nomi bilan atashadi. Jumladan, *Yangiqo'rg'on* (dushanba), *Metan* (seshanba, payariqliklar bu kunni *Aylovot* deb atashadi, chunki shu kuni *Aylovot* qishlog'ida bozor bo'ladi), *Chorshanba, Payshanba, Juma, Chelak* (shanba) va *Bozor kun* kabi.

Jumabozor – arabcha *"jam-jam bo'lish, to'planish* va *bozor"* so'zlaridan tuzilgan. Akademik V. Bartold mazkur termin haqida to'xtalib, **bozor** so'zi Old Osiyoning qadimgi tillaridan biriga mansub bo'lib, u dastlab *"darvoza oldidagi ish"* ma'nosida qo'llanganligini aytadi.

"G'iyos ul-lug'at" muallifi Muhammad G'iyosiddin esa mazkur terminga izoh berib, ushbu so'z asli **abozor,** ya'ni *abo (ust kiyimning bir turi) sotiladigan joy* ma'nosida, – deb ta'rif beradi.

Toponimist T.Nafasov **bozor** so'zining eroniy tillardagi qadimiy shakli *vazar,* ilk davrlarda *vachar, vasar, manixey* (sug'd tili yodgorligi) matnlarida *vasar* bo'lgan, ma'nosi *bozor, savdo qilinadigan joy* ekanligini ko'rsatadi. **Vachar** so'zi qadimgi eroniy tildan fors-tojik tillariga *bozor* shaklida o'tgan. Samarqand viloyatida *Eski Juma, Anhorjuma, Juma* singari joy nomlari ko'plab uchraydi.

Shuningdek, qo'shni Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlarida ham mazkur so'z ishtirok etgan geografik nomlar mavjud. *Jumabozor* qishlog'idagi tabarruk joylardan biri Imom Faxriddinxon shahid mozoridir. "Samariya" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turklar uni Shahsuvor ota deb ataydilar. Bu mozor Darg'om arig'ining yaqinidadir. U hanafiya mazhabining yirik mushtahidlaridan edi. Samarqand shahridan uning mozorigacha uch tosh keladi.

V.L. Vyatkin *Jumabozor qal'asi* haqida gapirar ekan, uning kuchli himoya inshootlaridan biri bo'lganligini qayd etadi.

Bundan tashqari, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlarida ham mazkur nomli toponimlar uchraydi. Markaziy Osiyoda inqilobdan oldin deyarli har kuni u yoki bu qishloqda bozor bo'lgan.

JUMMILAR – Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi eski nomlardan biri. Ilmiy manbalarda Jummilar etnonim sifatida qayd etiladi, biroq u bu-

gungi kunda mavjud emas, aniqrog'i, yangi nom bilan almashtirilgan.

JUMURTOV – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qizilqumdagi tog'. Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab shimoli-sharqiy yo'nalish bo'yicha joylashgan.

Qoraqalpoq toponimist olimi Q. Abdimuratovning yozishicha, bu tog' nomi *jumur* so'zidan olingan bo'lib, *"yumaloq"* degan ma'noni bildiradi. Bu – xalq etimologiyasi hisoblanadi. *Jumurtov* so'zi qadimgi afsonaga aylangan qahramon *Jovmard, Govmard* (ho'kiz-odam) nomidan olingan. Xalq tilida saxiy, mard, botir insonlarni *jovmard* deb atashadi.

JURIYAT – Samarqand viloyatining Jomboy tumani va Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloqlar nomlari. Juriyat (juyrat, jurot) – etnonim.

JUVANDIR – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy va To'rtko'l tumanlaridagi qishloqlar nomi. Etnotoponim. Bu nomni Mahmud Koshg'ariy etnik nom sifatida tilga oladi. O'g'uzlarning yigirmanchi urug'i *juvaldar* (juvaldor, jovuldar) ekanini qayd etadi[1]. Rashididdin bu nomni kishi ismi sifatida qayd etadi. Ko'kxonning uchinchi o'g'li Javuldur deb yuritilishini aytadi[2]. Bu so'z "halol, adolatli" degan ma'noga ega.

Ayrim tadqiqotchilar Javuldur etnonimini hozirgi *Chavdur // Choudыr* bilan aloqador deb hisoblaydi[3]. Agar Javuldur va Chovdur so'zlarini bir nomning ikki varianti deb hisoblar ekanmiz, Xorazm va Qoraqalpog'istonda bu nomlarning ikki formasi ham uchrashini qayd qilib o'tish kerak.

Ayniqsa, Xorazmning shimol tomonida bu etnonim juda ham sermahsuldir. Ayrim yozma manbalarda, jumladan, Munis va Ogahiyning "Firdavs-ul iqbol" asarida ham turkmanlarning bir urug'i *Chaudur* sifatida tilga olinadi[4].

Ko'rinishdan, o'g'uzlarning bu urug'i turkman xalqi tarkibiga ham kirgan va so'nggi davrlarda uning nomi fonetik adaptatsiyaga uchragan.

Bu etnonim Ozarbayjonda ham toponim sifatida uchraydi[5]. Qizig'i shundaki, bu nom Ozarbayjanda ham *Chovdar* formasiga ega. Shunday qilib, o'g'uzlarning *Djuvoldur* urug'i turkmanlarning *Chovdur* urug'i bilan aloqadordir. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra,

---

[1] Mahmud Kashg'ariy. Devonu lug'atit turk. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 90.

[2] Рашидаддин. Сборник летаписей. Т. И. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетогурова. – М., 1952. – С. 89.

[3] Карпов Г.И. Туркмены-Огузы // Известия Туркманистана диал. АН ССР. №1, 1945. – С. 3-9.

[4] Shermuhammad mirob al-mutaxallis bi-l-Munis va Muhammad Rizo mirob al-mutaxallis bi-l-Ogahiy. Firdavsu-l-iqbol. Yuriy Brigelning sa'y va ehtimomi bila tahrir-u tab' qilindi. – Leydin, 1988.

[5] Гусаинзаде А. Параллели огузских этнонимов в современной топонимии Азербайджанской ССР // Советская тюркология. №4. – Баку, 1977. – С. 49.

X asrda Manqishloqda yashagan turkmanlar orasida chovdurlar bo'lgan. Ularning bir qismi keyinchalik Petr I davrida Shimoliy Kavkazga ko'chirilgan. Boshqa qismi esa Xiva xonligi hududida hamda Manqishloq yarim orolida qolganlar. Ular to XIX asrgacha *Choudor, Choudыr* nomi bilan yuritilgan[1].

Xorazm va Qoraqalpog'iston toponimiyasida bu nomning ikki variantda qo'llanilishi ham ma'lum tarixiy sabablar bilan bog'liq. Bu etnonimning *Juvandur* shakli o'g'uzlarning ancha qadimgi davri bilan aloqador. Uning qadimgi qo'lyozma manbalaridagi shakliga yaqinligi ham bundan dalolat berib turibdi. Shimoliy Xorazmdagi *Chovdur* shakli bizning nazarimizda ancha keyingi davrga taalluqli bo'lib, u nomning turkman xalqi etnonimi sifatida tarqalganidan keyin kelgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda ham vohada chovdurlarni turkman urug'i deb hisoblaydilar (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi. 2012).

JUVARIZOR – qishloq. Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq nomi. Marg'ilon shahrining atrofida *jo'xori* so'zi *juvari* sifatida talaffuz qilinadi. **Juvarizor** – *jo'xori ekilgan maydon, dala* ma'nosini ifodalaydi.

JUVOZQOG'OZ – Buxoro viloyati hamda Buxoro tumanining atrofidagi bir necha qishloqlar nomi. Aslida, qo'lda qog'oz tayyorlanadigan dastgoh. ***Juvozqog'oz***, ya'ni – qog'oz juvozi (qog'ozjuvoz) deyilgan.

Demak, ***Juvozqog'oz*** eski kasb-hunarning toponimiyada qolgan izidir. Qog'ozjuvoz suv bilan ishlagan va ba'zan esa uni qog'oz tegirmoni ham deyishgan.

JUVOZXONA – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi bo'lib, *Juvozxona – "juvoz saqlaydigan joy"* ma'nosini ifodalaydi.

JUVON – o'rta asrlarda Qirg'izistonda mavjud bo'lgan shahar. A.N.Bernshtam uni "katta" ma'nosidagi turk so'zi sifatida aniqlaydi. Biroq bu shubhali, qolaversa, uning yonida Nuzketdan to'rt chaqirimda Xoran-Juvon shahri joylashgan. *Duvon (juvon)* va *tuvan* so'zlari bilan tugaydigan toponimlar Zarafshon vodiysida nihoyatda ko'pchilikni tashkil qiladi, masalan: **Aurduvan, Buzunduvan, Kaxishtuvan;** biz ularni sug'dcha toponimlar deb hisoblaymiz, chunki ularning chegaralari Sug'diyona chegaralari bilan aniq chizib belgilangan. **Juvon** va **Xoran-Juvan** toponimlarini Yettiariq koloniyasidagi sug'dcha toponimlar deb hisoblash mumkin. Buning ustiga, ma'lumki, Xoran-Duvon – ko'chmanchilariga egalik qilishgan.

JUVONSIYROQ – Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qishloq nomi. Juvonsiyroq – etnonim, aynan *"pochasi yo'g'on"* degan ma'noni bildiradi.

JUYDAM – Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi bo'lib, **Juy** (*"ariq, irmoq"*) va **dam** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

[1] Брегель Ю.Е. Хорезмские туркмены. – М., 1961. – С. 431.

JUYRAK – qishloq. Farg'ona viloyati Oltiariq tumani. *Juyrak* – etnonim.

JUYRAT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani. Juyrat – kelib chiqishi qadimgi etnonim. Mo'g'ullarda *Juryat, Jirat* qabilalari bo'lgan (Рашид ад-дин. Сборник летописей, т. I, кн. 1. С. 190).

Juyrat, jurat, juyrot urug'lari o'zbeklar tarkibida qayd etilgan (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari; Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник, вып. III. С. 327; Султанов Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. Вопросы этнической и социальной истории. – М., 1982).

JUYRUQARIQ – Samarqand viloyatining Payariq, Jomboy va Urgut tumanlaridagi ariqlar. *Yugurik, tez* ma'nosidagi so'zning shevadagi shakli. Ariq suvi oqimining tezligi shunday nomlanishiga sabab bo'lgan. *Qiyoslang:* Damariq. Jomboy, Payariq, Samarqand tumanlarida Nishabariq nomli suv nomlari bor. Suvi pastlikka enib, tez oqqan ariqlar uchun qo'yiladigan nom, termin.

JUZ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. *Yuz* (juz – jelashgan shevalardagi talaffuzi) o'zbek qabilasi nomi bo'lib, qishloq shu nom bilan atalgan.

JUZQUDUQ – qishloq va ovul. Navoiy viloyatining Tomdi tumani. Qozoqcha – *juz // yuz* (son) va *quduq* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, u *quduqlar ko'p joy* ma'nosini ifodalaydi.

JO'GIXONA//JO'GILAR – Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Eroniy tillariga mansub bo'lgan so'z. Fors-tojik tillarida ***lo'li*** – *qavm nomi*. Asli Hindistondan bo'lgan qabila, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirgan[1].

X–XIX asrlar tojik tilida ***lo'li*** bir ko'chmanchi qabila nomi. Sahroda yashovchilar. ***Lo'li//jo'gi*** – *o'yinchi, nag'magar va qo'shiq aytuvchi jo'gi* fors tilida – ***lo'li//lo'pi.*** Navoiy asarlarida ***lo'li*** – *qavm nomi*: *kuch, qora soch, qora ko'z go'zal; sho'x sevgili, sevikli go'zal; xushro'y sanam, dilbar, mahbuba*; shu asosda ***lo'livash, lo'likash*** so'zlari yasalgan. Tojik tili tarixida ***lo'l*** – *besharm, behayo, gustox*[2].

Bu qavmning faoliyati va xarakterini nazarda tutib, O'rta Osiyoga Eron xalqlari tomonidan ularga berilgan nom, u dastlab etnografik termin sifatida bo'lmagan, hozir shunday ma'no va funksiyaga ega. Lo'lilar o'zlarini mug'at, mazang deydi.

JO'I ARZIZ – Samarqanddagi eng qadimgi kanal, VIII asr oxirida qazilgan va IX asrning boshlarida mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. **Juy Arziz** fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "*qo'rg'oshin kanali*" ma'nosini anglatadi.

JO'I ZAR – Buxoro shahrining guzarlaridan biri: **juy** – "ariq", "xandaq",

---

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. А – Н Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. Душанбе – 2008, -С.732.

[2] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. –С.731.

zar – "oltin". Demak, **Juy Zar** – *"Oltin ariq"* ma'nosini ifodalaydi.

JO'LANGAR – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq. To'g'risi, **Jo'yi Langar** bo'lishi kerak. Tojikcha **"Jo'y"** – *"ariq", "kanal"* demakdir. **"Langar"** deganda *mozor, qabr,* ba'zan *musofirxona, karvonsaroy,* ko'proq *avliyo qabri* tushunilgan. **Jo'langar** – *"avliyo arig'i"* degan ma'noni anglatadi. Langar degan kichik bir o'zbek urug'i sifatida ham qayd qilingan.

JO'N – Toshkent shahri. Salor va Qorasuvning tarmog'i bo'lmish bu ariq Sergeli tumanidagi Shoshtepa va uning atrofini suv bilan ta'minlab turgan. Hozirgi paytda Buxoro va Samarqand viloyatlarida ariq, ba'zan kichikroq kanal ham *"Jo'y"* deb ataladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'zning kichraytirilgan shakli – *"Jo'yak"* saqlanib qolgan. XVI asrlarda shahar doirasidagi suv tarmoqlarining ayrimlari Jo'yi ariq (tojikcha), ya'ni *"shahar arig'i"* deyilgan. Bu atama xalq tilida Jo'nariq bo'lib ketgan degan fikrlar bor.

JO'NSO'Z – Tarixiy toponim. Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning *"jo'n so'z, to'ri so'z, oddiy so'z"* degan xalq etimologiyasi nomning tashqi ko'rinishiga qarab o'ylab topilgan. Aslida, ***Jo'nso'z*** – *"jo'yi so'za, ya'ni zax ariq"* ma'nosini ifodalaydi.

So'za yoki ***siza*** hozir ham o'zbek tilining ko'pgina shevalarida *"shax suv"* ma'nosida qo'llaniladi.

JO'RAK – Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Etimologiyasi ma'lum emas. *Yurak* so'zini shevada aytilishi bo'lishi mumkin. **Yuraktepa** – *shakli yurakka o'xshash tepalik* degan ma'noni anglatadi.

JO'RAQULOQ – Samarqand viloyatining Urgut tumani. Mazkur ariqni qazdirgan Jo'ra Sultonov nomiga qo'yilgan.

JO'YADOK – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Aslida **Jo'yodoq** (*"jo'y" –ariq; "adaq, odoq"* (turkcha) – *quyi, quyi oqim) – "quyi oqimda joylashgan ariq"* ma'nosini ifodalagan. Bundan tashqari, turkman qabilasi igdir va ko'chmanchi o'zbeklarning *adaq, adag, azaq* qabilalari orasida Adaq etnonimi mavjud (К.Ниязкличев. Некоторые вопросы этнической истории туркмен-човдуров. – Вопросы этнографии туркмен. – Ашхабад. 1980. С. 17).

JO'YBOR – Zarafshon vodiysida keng tarqalgan geografik termin. **Juybor** – *kanal qirg'og'i, kanal qirg'oqlari* va ko'pincha shunchaki *"kanal", "ariq"* ma'nolarini anglatadi. Sof shaklda u toponimlarni hosil qiladi.

JO'YDAM – Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi mahalla nomi. Toponimni *"joyi dam"*, ya'ni *"dam oladigan, istirohat qiladigan joy"* tarzida izohlanishi u qadar to'g'ri emas. Aslida, nomning birinchi qismi *"ariq"* ma'nosini ifoda qiluvchi tojikcha *"jo'y"* so'ziga aloqador. *Jo'ydam* – aynan *"dam ariq"* demakdir. Ariq suvining sekin, damlanib oqishi holati mazkur joyning shunday nomlanishiga asos bo'lgan.

JO'YJANGAL – qishloq. Surxondaryo viloyatining Termiz tumani. **Jo'y** – *ariq, irmoq* va **jangal** – *to'qay, chakalakzorlar* ma'nolarini anglatadi. Demak, **Jo'yjangal** – *"chakalakzorli ariq"* ma'nosini bildiradi.

JO'YI ARZIZ – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mashhur suv inshootlaridan biri, gidronimdir. **"Juyi Arziz"** – *"qo'rg'oshin ariq"* haqida Istaxriy shunday yozgan edi: "Oqar suv qo'rg'oshindan yasalgan nova (nasos) orqali o'tib, shaharga kiradi. "Misgarlar" (as-Safforun) deb atalgan joydan keladigan suv toshdan qurilgan baland to'g'on (musannot) dan oqib o'tib, Samarqandning Kesh darvozasi orqali shaharga (Afrosiyobga) kiradi". Mazkur kanal 1220-yilda mo'g'ul galalari tomonidan buzilgach, Afrosiyobda ham hayot to'xtagan (Samarqand tarixi, I, 1971).

JO'I MULIYON – Buxoroning Registon yaqinidan oqib o'tgan eng qadimgi sug'orish arig'i. Buxoro tarixchisi Narshaxiyning yozishicha, sug'orish ariqchasining boshlang'ich shakli **Jui Mavoliyon** – *"Mijozlar kanali"* bo'lgan (Narshaxiy, "Buxoro tarixi", 32-bet).

JO'YI QO'RCHI – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani yaqinidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat.

Apellyativning birinchi qismi ***jo'y*** so'zi *ariq* ma'nosini bildiradi. Uning ikkinchi qismi *qo'rchi* so'zi esa turkiy so'z bo'lib, *"quroldor, qurolbardor"* demakdir. Qo'rchilar ekin dalalarini qo'rib yurgan (L.Budagov). Buxoro amirligida qo'rchi o'q-dori omborlarini qo'riqlab turadigan qorovul bo'lgan (A.A.Semenov).

Yoqoridagilarga asosan ***Jo'yi qo'rchi*** nomi *"Qo'riqchilar qishlog'i"* ma'nosini anglatadi.

JO'YITURKON – Namangan viloyati Chust tumanining Varzik qishlog'idan Karkidon qishlog'iga oqib o'tuvchi ariq nomi. Mazkur nom *"kichik oqin suv yo'li"*, daryo, soy, kanal va boshqalardan inson kuchi bilan chiqarilgan suv shoxobchasi ma'nolarini anglatuvchi fors-tojikcha jo'y so'ziga forsiy izofa ko'rsatkichi vositasida o'zbek etnonimining muqobili bo'lgan turk atamasini va unga fors-tojikcha -on ko'plik qo'shimchasining qo'shiluvidan (*jo'y+i+turk+on*) hosil bo'lgan.

Shunday ekan, **Jo'yiturkon** toponimi *"O'zbeklar arig'i"* demakdir.

Ariq tojiklar yashaydigan Varzik qishlog'idan, asosan, o'zbeklar istiqomat qiladigan Karkidon qishlog'iga oqib o'tganligiga ko'ra shunday nomlangan.

JO'YLANGAR – Sirdaryo viloyatining Yangiyer tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ***jo'y*** va ***langar*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, ***Jo'y*** – *"ariq, kanal, irmoq"* degan ma'noni ifodalaydi.

Apellyativning ikkinchi qismi hisoblangan ***Langar*** esa respublikamizda keng tarqalgan termin bo'lib, A.Z.Rozenfeldning ta'kidlashicha, ***"bekat, to'xtash joyi"*** ma'nosini anglatadi (А.З.Розенфельд. Название Лангар в

топонимике Таджикистана. Из.ВГО. т. 72., вып. 6).

E.Murzayevning fikricha, ***Langar*** Janubiy Sinzyanda *"pochta bekati, mehmonxona"* kabi ma'noni bildiradi (Э.Мурзаев. Очерки. –С. 28).

Shuningdek, Langar termin sifatida Afg'oniston va Eronda hozirda ham mavjud.

Demak, ***Jo'ylangar*** nomi *"bekat yoki qo'rg'on yonidagi ariq"* ma'nosini anglatadi.

JO'YNAV – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani va Buxoro viloyatining Shofirkon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi *jo'y – "irmoq, ariq"* kabi ma'nolarni ifodalasa, uning ikkinchi qismi sanalgan *nav* so'zi esa *"yangi"* ma'nosini ifodalaydi

Yuqoridagi tahlillarga asosan, ***Jo'ynav*** toponimi *"yangi ariq yoki yangi irmoq"* ma'nosini bildiradi.

JO'YODOQ – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Nomning tarkibi ikkita so'z – *jo'y* va *odoq* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *jo'y* so'zi *"ariq", "kanal"* degan ma'nolarni bildiradi.

Professor T.Nafasov forscha-tojikcha *jo'y* so'zining *"soy", "kichik daryo", "irmoq"* kabi ma'nolari ham borligini ta'kidlaydi. Toponimning ikkinchi komponenti – *odoq* so'zi *"oyoq", "etak"* ma'nosidagi so'z.

Demak, *Jo'yodoq – "ariq (kanal) ning etagi, oxiri"* degan ma'noni bildiradi. Qishloq nomiga uning geografik o'rni (ya'ni, ariq (kanal)ning quyi qismida, etagida joylashganligi) asos bo'lgan.

JO'YSAFED – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi *jo'y – "irmoq, ariq"* kabi ma'nolarni ifodalasa, uning ikkinchi qismi sanalgan *safed* so'zi esa *"oq"* ma'nosini ifodalaydi.

Shunday ekan, mazkur **Jo'ysafed** toponimi *"Oq suvli"* ma'nosini anglatadi.

JO'YSOY – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Forscha **juy** ("kanal") va o'zbekcha **soy** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nom.

JO'G'ONTEPA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim ***"yo'g'on// jo'g'on"*** va ***"tepa"*** qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. ***"Jo'g'on // yo'g'on"*** – katta, semiz, ulkan demakdir [O'TIL. 5, 2, 287].

Apellyativning ikkinchi qismi ***"Tepa"*** esa umumturkiy so'z hisoblanadi.

Demak, **Jo'g'ontepa** – *"yer sathidan baland, do'ng joy, balandlik, tepalik"* ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 4, 66].

JO'G'ORI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bir o'zakli mikrooykonim. Jo'g'ori topoleksemasi adabiy tildagi ***"yuqori"*** so'zining dialektal varianti sanaladi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, **Jo'g'ori** toponimi *"aholi*

yashash maskanidan yuqorida joylashgan hudud" ma'nosini ifodalaydi.

JO'SHASOY – Ohangaron vodiysidagi daralik. **Jusha** – *yog'och*ni va ehtimol, *metallni bo'yash uchun ishlatiladigan modda*, o'tmishda og'irlik bilan sotilgan.

K.K.Yudaxin ushbu moddaga yanada aniqroq ta'rif beradi: "**Josho** – *qizil loy*"dir (Киргизско-русский словарь. – М., 1965).

Markaziy Osiyoda, ko'pincha, uchlamchi geologik davrda hosil bo'lgan, jarliklarda uchraydigan har qanday qizil loyni jo'sha deb nomlashgan.

JO'SH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikroponim tarkibidagi "***jo'sh // jo'sha***" so'zi qizil tuproq ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 119]. Kulolchilikda sopol idishlarga qizil rang va naqsh berishda ishlatiladigan bo'yoq jo'sha deb ataladi [O'TIL.-5, 2, 119].

Shunga binoan, bu mikrotoponim kulolchilikda ishlatiladigan tuproq mavjud joyga nisbatan nomlangan, degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu oykonim bir o'zakli, sifat so'z turkumiga xos.



KABERLI – qishloq. Toshkent viloyatining Chinoz tumani. Ilmiy manbalarda *kavir* – *"sho'rxok"*. Qozog'iston va Qoraqalpog'istonda *kabir* deyiladi. *Kaberli* (*keberli*) – *"sho'rxok yer"* degani. Zomin tumanida yerni sho'r bossa, *"kavar boylabdi"* deyishadi.

KABOBI – Navioy viloyatining Navioy tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim shakldoshlik nuqtayi nazaridan kabob (taom)ni eslatsa ham, uning kabobga hech qanday aloqasi yo'q. Ushbu nom aslida forscha – ***Kabud*** (ko'k) va ***ob*** (suv) so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan bo'lib, *"ko'k suv"* degan ma'noni bildiradi.

Ko'k suv nom sifatida o'zbek tili toponimiyasida ko'plab uchraydi. U *"chuqur suv, daryo"* degan ma'noni anglatadi. **Kabob** esa aynan shu so'zning tojikcha tarjimasidir. Nomning oxirgi elementi "i" esa biror bir hududga yoki guruhga mansubligini anglatadi.

Shunday ekan, toponimni *"ko'k suv arig'i tomonidan kelganlar qishlog'i"* degan ma'noda tushunish haqiqatga yaqindir.

Bunday nomdagi toponimlar Buxoro viloyatining ham ayrim hududlarida uchraydi.

KADAN – Miyonqolning quyi qismi, Kattaqo'rg'on shahrining shimoliy tomonida 9–10 km uzoqlikdagi masofada joylashgan yirik qishloqlardan biri.

XV–XVI asrlar vaqf hujjatlarida tilga olinadi. Hujjatda "...Faroxin qishlog'i Samarqand nohiyasida bo'lib, Mazrayi Rimiq nomi bilan ma'lum", – deyiladi.

Ko'rinib turibdiki, qishloq o'rta asrlarda Faroxin nomi bilan mashhur bo'lgan. X.Doniyorov Kadan urug' nomi ekanligini qayd qilgan. Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanida Kadan nomli urug' bor.

Demak, Kadan urug'i nomi toponim yasalishiga asos bo'lgan. Tarixiy manbalardagi *Kidan* qabilasi nomi keyinchalik Kadan tarzida talaffuz qilingan bo'lsa kerak. 1904–1905-yil aholi punktlari ro'yxatida Jizzax uyezdidagi Sangzor volostiga qarashli *Tangatopdi* qishloq jamoasidagi *Qirqkadan* qishlog'i nomi qayd qilingan (Список населен, 1906).

KAKLIKQO'RG'ON – Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. Qishloq, shaharcha va shaharlarni nomlashda hayvon, parranda va boshqa jonzotlarning nomlari ham

asos qilib olinishi mumkin. Toponimikaga oid ilmiy manbalarda bunday joy nomlarini **zootoponimlar** deb ataydilar.[1] Demak, hayvon, parranda, jonzot tushunchasini ifodalovchi apellyativlar bilan nomlangan joy nomlari zootoponim hisoblanadi. Kaklikqo'rg'on ham zootoponimlar sirasiga mansub.

Aholi manzili hududida tovuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi tog' qushi – kakliklar ko'pligiga ko'ra *Kaklikqo'rg'on* deb atalgan. *Qo'rg'on* so'zi o'zbek tilida *"dushman hujumidan saqlanish uchun uzoq muddatli istehkomlar, devorlar bilan mustahkamlangan joy, shahar, qal'a"* degan ma'nolarni anglatadi.[2] Shuningdek, *qishloq, shahar* ma'nolarida ham qo'llanadi.

Demak, ***Kaklikqo'rg'on*** oykonimi *"kakliklar ko'p bo'lgan aholi manzili"* degan ma'noga ega. *Kaklikli qo'rg'on* otli birikmasi oykonimning etimoni hisoblanadi. *Kaklikqo'rg'on* oykonimining lisoniy shakllanishini qo'yidagicha ifodalash mumkin: *kaklikli qo'rg'on > kaklik qo'rg'on > kaklikqo'rg'on > Kaklikqo'rg'on*.

KALAVOT – Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi katta qishloq nomi. Chuvama o'ramidagi kichik qishloq.

Etnografik adabiyotlarda o'zbek xalqi tarkibida "Kal" urug'i bo'lgani qayd qilingan. Bundan *"Kalobod"* (xalq so'zida *"Kalavot"*) nomi paydo bo'lgan. Farg'ona, Surxondaryo, Samarqandda ham *"Alqishloq"*, *"Beshkal"* qishloqlari bor.

KALAVRONCHA – Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim tarkibidagi *kalav* so'zi fors tilidagi kalavidan so'zidan olingan bo'lib, *"ikkilanib yurmoq, beqaror, ishonchsiz"* degan ma'nolarni bildiradi. *Ron* so'zi *oyoqning tizzadan yuqori, son suyagi*ni, rondan so'zi esa bir qancha ma'nolarni, jumladan, "haydamoq, otda yurmoq, ijro qilmoq, idora qilmoq, amalga oshirmoq" kabilarni anglatadi. Ushbu ma'nolarni anglatuvchi so'zlardan tarkib topgan atama ikkilanib yuruvchi, beqaror kishilar yashagan qishloq ahliga, shuningdek, yo'l ikkiga ajralib ketadigan mavzeda joylashgan qishloqqa qarata qo'llanilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

KALVAK – Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi mahalla nomi. Forscha *kalpi* yoki *kalvi* so'zidan olingan bo'lib, *"To'xtash joyi, ko'prik, damba"* kabi ma'nolarni anglatadi. *Ak* – kichraytirish qo'shimchasi sifatida olinsa, **Kalvak** – *"kichik bekat yoki ko'prik oldidagi joy"* nomini bildiradi (Дўсимов, 1977).

Kalvak so'zining o'zbekcha *befahm, befarosat* ma'nosidan toponim yaratilishi mumkinligi haqiqatdan uzoq.

---

[1] Qarang. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B.213.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. 5-j. – B.416.

Kalvak birligining O'TILda quyidagi ma'nolari ko'rsatilgan: 1. Kichik bola; 2. Nodon, anqov, noshud (O'TIL. 2-jild. 297-bet). Bizningcha, joy nomi uchun leksemaning ushbu ma'nolari etimon bo'la olmaydi.

Bu haqda M.Dadaboyevning fikrlari e'tiborli bo'lib, olimning yozishicha, Kalvak mahallasining o'rtasidan mashhur Ulkansoy (Qo'qonsoy) kesib o'tgan. Xo'qand shahrining katta qismi Ulkansoy suvi bilan sug'orilgan va soyning ma'lum joylari to'g'on bilan bo'g'ilib, to'g'on yonidan ariqlar chiqarilgan. XVIII asrda soyning mahalladagi ko'prigi o'rniga to'g'on ko'prik qurilgan. Bu to'g'onning ko'tarilib-tushirilib turadigan suv o'tkazgich darvozasi ham bo'lgan. Ham ko'prik, ham to'g'on, ham suv taqsimlagich vazifasini o'tovchi bu inshoot mahalliy mirobchilikda kalvi deb atalgan. Bu yerga qurilgan kalvi Zarafshon va So'x daryolariga qurilgan kalvilardan biroz kichikroq bo'lganligi uchun bu so'z yoniga ***-ak*** kichraytirish qo'shimchasini qo'shib, ***kalvak*** deb ataganlar.

Shu o'rinda yana qo'shimcha qilish mumkinki, fors tilida *kol* – anhor, daryo; eroniy tillarda *kal / kila / kol* – anhor, oqar suv, daryo ma'nolarini anglatgan. Shunday qilib, *Kalvak* toponimining vujudga kelishi mahalla ichidan oqib o'tgan soy, oqar suv yoki unga qurilgan inshoot nomi bilan aloqadordir.

KALKOVUZ – ariq. Toshkent shahri. 917–936 hijriy (1511–1530)-yilda Abulxayr Suyunch xonning o'g'li Shayboniyxon Kayoniylar sulolasi Kaykavusdan qadimgi Eron shohidan keyin nom qo'yib, bog'ni kengaytirdi; boqqa olib kelgan ariq ham shu nomni oldi. Kaykavus nutqda **Kalkovuz** bo'lgan.

KALLAXO'R – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. *Kalla* – (bu yerda so'yilgan hayvonning boshi), forscha *xo'r, xo'rdan* – "yemoq" hozirgi zamon fe'lining asosi, *Kallaxo'r – "bunday taomlarni sevuvchilar yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

KALLON – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Mahalliy aholi qishloq nomi *"Katta makon"* degan ma'noni anglatuvchi so'z, – deb izohlaydi. Toponim asli *Kalon* shaklida bo'lib, keyinchalik mahalliy aholining dialektik talaffuzida hozirgi holatga kelib qolgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha *kalon* so'zi *"katta", "ulkan"* kabi ma'nolarni anglatishi haqida ma'lumot berilgan. Qishloqning nima sababdan bunday atalganligi aniq emas. M.M. Avezovning fikricha, uning maydoni katta bo'lganligi sababli shunday nom olgan bo'lishi mumkin.

KALTAMINOR – mahalla. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi mahalla nomi. Kalta minor mahallasi 1903-yili tashkil topgan. Mahalla nomi qadimda ham "Kalta minor" nomi bilan atalgan. 1903-yilda Mamat Mahram shu hududda machit, madrasa qurdirgan. Machit minorasi balandligiga qaraganda Xiva shahridagi minoralarning eng kaltasi bo'lgan. Shu sababli mahallaga "Kalta minor" nomi berilgan.

Mahalla to'rt o'ram, ya'ni to'rtta elatdan: *"Otchopar"* (chavandozlar yashagan), *"Buzgo'mar"* (Mamat Mahram qazdirgan hovuz muz saqlaydigan joy bo'lib, yoz kunlarigacha saqlab turilgan), *"Chilla Avliyo"* (bu yerda qadimda bir tup gujum daraxti bo'lib, undan shira oqib turgan va bu shira shifo uchun chilla toshgan go'dakka surtilgan, go'dak dori-darmonsiz sog'ayib ketgan), *"Nurli uy"* (bu yerda kecha-yu kunduz shamchiroq, fonuslar yoqilib savdo qilingan) tashkil topgan.

KALTABORANSOY – Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi soyning nomi. Ushbu atama ikkita qo'shma so'z, ya'ni forscha ***kalta*** – uzunlik o'lchami kichik, qisqa va turkcha ***börүң*** – suv o'ygan yoriq so'zining qo'shiluvidan hosil bo'lib, suv o'ygan kichik yoriq ma'nosini anglatadi.

KALTARABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. Nom tarkibi ikkita so'z – *kalta* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *kalta* so'zi forscha-tojikcha so'z bo'lib, *"qisqa", "bo'yi past", "uzunlik ko'lami qisqa, me'yoridagidan uzunligi kam"*, degan ma'nolarni anglatadi. Toponimning ikkinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli-joy"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Yuqoridagilarni e'tiborga oladigan bo'lsak, *Kaltarabot – "uzunlik ko'lami qisqa bo'lgan qo'rg'on"* ma'nosini anglatadi. *Boshqa bir talqin*: geografik joy nomi tarkibidagi *kalta* so'zi urug' nomi, etnonim bo'lsa kerak. O'zbek xalqi tarkibida *kaltatoy* nomli urug' mavjudligi qayd qilingan. Toponim tarkibidagi *kalta* so'zi *Kaltatoy* urug'i nomining qisqargan shakli bo'lsa kerak. Shunday bo'lsa, toponim dastlab *Kaltatoyrabot* deb atalgan va keyinchalik qisqarib, *Kaltarabot* nomini olgan.

Demak, **Kaltarabot** – *"Kaltatoy urug'i vakillari yashaydigan qo'rg'on"* ma'nosidadir.

KALTATOY – Farg'ona viloyatining Uchko'prik, Jizzax viloyatining Baxmal va Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanlaridagi qishloq nomi. **Kaltatoy** – *o'zbeklar tarkibiga kirgan "Turk" etnik guruhining urug'laridan biri* (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории).

Kaltatoy, o'z navbatida, *maxatzamoni-kaltatoy, mirzo-kaltatoy, maxattori-kaltatoy, tuyalik-kaltatoy, hayvon-kaltatoy, varam-kaltatoy* kabi urug'larga bo'lingan. Inqilobgacha kaltatoyliklar Farg'ona vodiysi, Nurota qoyalari va Molguzor tog'larida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida, Surxondaryo hamda Qoratog' daryosining yuqori va o'rta oqimlarida yashagan (O'zbek sovet ensiklopediyasi. – T. 5. – 1974).

Kaltatoy leksemasi "kichik jussali, kalta bo'yinli ot"ni anglatgan va etnonim kishilarning totemistik qarashlari, ya'ni urug' a'zolari mazkur jonivorni muqaddaslashtirishi natijasida yuzaga kelgan. Shu urug' vakillari istiqomat qilgan joy esa keyinchalik *Kaltatoy* nomi bilan atala boshlagan.

KALTAYOP – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch va Yangiariq tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning qismi *kalta* so'zi past, qisqa ma'nolarini ifodalasa va uning ikkinchi komponenti *yap, yab, yop* so'zlari Xorazm shevasida *kichkina ariq, kanal* ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, ***Kaltayop*** gidronimi *kichkina ariq, kanal* ma'nosini ifodalaydi.

KAM – "chuqurcha" ma'nosi bilan toponimlar tarkibida tez-tez uchraydigan geografik termin. Masalan, **Sarikam** "sariq chuqurcha" toponimi – *tog'oldi cho'qqilaridagi past joy.*

Prof. E.M. Murzayev mazkur so'zni forscha *"og'iz", "teshik", "dara"* deb hisoblaydi va mazkur komponentlar bilan ko'pchilik misollarni keltiradi.

KAMANDI – mahalla. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri. 1980-yillarda shahar hududiga qo'shilgan. Qadimda shahar sarhadlaridan tashqarida bo'lgan.

Shahobiddin Abu Abdulloh al-Hamaviy Yoqut, Abu Said Somoniy asarlarida bu qishloq Naxshab atrofida ekanligi qayd etilgan. Yoqut, Somoniy asarida tilga olingan bu qishloqni tarixchilar *Kabandi, Kabanda, Kabinda, Kabindi, Kubindi, Kubinda* tarzida turlicha o'qishgani ma'lum.

Naxshabliklar nutqidagi bu nom arab tili tovush tizimiga moslashgan, ba'zan xattotlar buzib ko'chirishgan. Bu nom hozirgi *Kamandi* qishlog'ining aynan o'zi deyishga asos bor.

Ma'lumki, Beshkentariq Kamandi qishlog'i hududidan o'tgan, qishloq shu anhor yoqasida bo'lgani sababli, shunday nomlangan. Nomning tarkibi: *kom+ -an+diz. Kom – ariq, anhor*; *-an* qo'shimchasining qadimiy ko'rinishi *-in, -on* shaklidir, ma'nosi o'zbek tilidagi *-li* qo'shimchasining mazmuniga teng: *kom+ -in, kom+ -on – ariqli, anhorli.* Sug'dcha **diz** so'zining ma'nosi – *qo'rg'on, qal'a.* **Komindiz, Komondiz** – *ariqli qo'rg'on, anhorli qal'a yoki anhor bo'yidagi qal'a, ariq yoqasidagi qo'rg'on.*

Koson tumanining *Boyterak* qishlog'i yonida ham *Kamandi* qishlog'i bor. O'zbekistonning boshqa hududlarida ham *Kamandi* degan qishloq bo'lishi tabiiy. *Lagandi, Pakandi, Apardi, Chovdi* kabi qishloq nomlari ham zikrlangan nomga ma'no, atalish, yasalish, tuzilish omili jihatidan to'la daxldor, ularning barchasi bir davrda yuzaga kelgan.

KAMAR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on hamda Farg'ona viloyatining Buvaydo tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Bu termin ikki ma'noda uchraydi:

1) tog' qoyalaridagi *"g'or", "pastlik".* Bu yerga **Kattakamar, Yerkamar** toponimlari kiradi. **Oqchepkanning kamari** (rivoyatlarga ko'ra mazkur mehnatga layoqatli g'orda o'zining oziq-ovqati bilan Akchepkan – "Oq plashli" laqabli o'g'ri yashagan). Mazkur termin *kamartash* shaklida ham qo'llaniladi;

2) adirlardagi *"past joy", "yaylov".* Jizzax viloyatining Zomin tumani

Tamtum qishlog'ida ham shunday toponimlar bor: **Sarikamar, Mulla Qoraning kamari** – mazkur yaylovda joylashgan Mulla Qoraning yer uchastkasi.

Prof. E.M.Murzayev va G.K.Konkashpayevlarning fikrlariga ko'ra, turkcha *kamar* so'zi, keng hududda joylashgan va balandlik, jarlik, qiyalik, bir qator tepaliklarda ham uchraydi. Fors tilida *kamar kux* – "tog' qoyasi"dir (Б.В.Миллер. Персидско-русский словарь. –М., 1953. С. 406).

KAMAROVUL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***kamar***" va "***ovul***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

"***Kamar***" so'zi *"suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yon bag'rida yuvilish, o'pirilish va shu kabilar natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy, yo'l"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 305].

"***Ovul***" so'zi esa *"ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq"* ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 3, 81].

Shungaasoslanib,bumikrotoponimni *"kamar yonida ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Leksik jihatdan ikki o'zakli ot+ot shakliga xos.

KAMOLON DARVOZASI – Toshkent shahri Beshyog'och dahasining janubiy qismida bo'lgan. Muhammad Solih bu toponimni Toshkentning Amir Temur davridagi darvozalar ro'yxatida eslatadi. Muallif uni "Kamondaron darvozasi" deb ataydi va etimologiyasi xususida so'z yuritib, darvoza nomi kamondaronlardan, ya'ni Buzuq qabilasi nomidan olinganini ta'kidlaydi.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, Buzuqlar qadimgi turkiy qabila bo'lib, O'g'uzxon avlodiga mansub. Bu haqida u shunday yozadi: "O'g'uzxonning o'g'illari bir kuni to'planib ovga chiqdilar. (Ular) ovda bitta yoy, uchta tilla o'q topib oldilar va O'g'uzxonga keltirib berdilar. (Podshoh) uchala katta o'g'illariga yoyni va kichik o'g'illariga esa uchta o'qni (bo'lib) berdi. Katta o'g'illar yoyni uch qismga bo'ldilar. Shu sababdan ularni Buzuq, kichik (o'g'illarini esa) *Uch o'q* atadilar. (Shu bilan birga) Buzuqlarning hukmi Uch o'qlarnikiga qaraganda yuqoriroq bo'lsin, deb qaror qildilar, chunki o'q elchilik va yoy – podshohlikni anglatadi"[1]. S.Qorayevning taxminicha, *"Kamondaron"* yoki *"Kamongoron"* toponimi *"kamon yasovchi ustalar"* ma'nosini bildiradi.

Ya'ni, "kamondaron" so'zi mazkur yerda kamon, o'q tayyorlagan kishilarning yashaganligidan dalolat beradi. Toshkentda kamon yasaydigan ustalar yashagani haqida yozma manbalarda ham qayd etilgan.

Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida XVI asrda Toshkentda kamon va kamon

[1] Amir Temur ajdodlari /Fors tilidan tarjima, kirish so'zi va izohlar muallifi Omonulla Bo'riyev. – Toshkent, 1992. 13-b.

o'qi yasaydigan ustalarning mahorati butun viloyatga tarqalgani haqida yozilgan[1].

Kamolon darvozasi XX asr boshlarigacha saqlangan. Uning atrofida XIX asr oxirida Kamolon-1, Kamolon-2, Charxkamolon-1, Charxkamolon-2 nomli mahallalar bo'lgan. Hozirgi kunda ham bu hududda Kamolon mahallasi va shu nomdagi masjid mavjud.

KAMOLOT – Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Aslida, Kamolot arabcha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan: "Yetuklik, mukammallik, yuksalish, rivoj (kamol so'zining ko'pligi)" degan ma'noni anglatadi (O'TIL. 2022, II, 309).

Bunday nomdagi toponimlar Xorazm viloyatining ham ayrim hududlarida uchraydi.

KAMONGARON – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq. Ma'nosi *"kamon yasovchi ustalar" demakdir* (Qorayev, 1970). Urgut shahridagi Kalongar mahallasi nomi ham yasalish jihatdan shunga o'xshash. **Kalon** – *ketmon* va **-gar** – kasb-hunar otini yasovchi qo'shimcha, ya'ni *ketmon yasovchi hunarmandlar mahallasi.*

Tadqiqotchilarning boshqa bir manbalarida *Kamon* (yoki kamalak), *kamongar – "kamon tayyorlaydigan usta", -on* – ko'plik qo'shimchasi sifatida qayd etiladi.

KAMPIRDEVOR//KAMPIRDUVOL//KAMPIR – VIII–X asrlarda Markaziy Osiyoda qurilgan bir necha qal'a devorlari nomi, nisbatan mashhurlari: 1) Buxoro vohasida; 2) Samarqandda; 3) Jizzax va O'ratepa oralig'idagi Ustrushonada; 4) Farg'ona vodiysida; 5) Sirdaryodan Xo'jakentgacha – Toshkent vohasida. *Kampirdevor "eski, qishloq"* sifatida tushuntiriladi.

Boshqa varianti ham bor, unda toponim forscha **kand** – *shahar, okrug* va **parak** – *devor, chegara devori (barcha tomondan devor bilan o'rab olingan)* sifatida qayd etiladi.

KAMPIROBOD – Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq. Shu nomli suv ombori ostida qolib keldi (1968), aholisi atrofga ko'chirildi.

Atamaning ma'nosi quyidagicha: Qadimgi sug'd tilidagi *"qand", "kand"* so'zidan bo'lib, *"qal'a", "devor"* ma'nosida keladi. Qadimda shaharlar va yirik qishloqlar himoya devori bilan o'ralgan va *"kand"* deb atalgan. Keyinchalik qadimiy *"qal'a"* devorlari nomiga forscha *"pir" (eski, qari)* so'zi qo'shilib, **"kandi pir"** – *eski, qadimiy devor* ma'nosida ishlatilgan.

Qoradaryoning tog' darasidan tekislikka oqib chiqqan joyiga qadimda suv bo'lgich damba, to'g'onlar qurilib, daryo suvi dehqonchilikka olingan. Zamonlar o'tishi bilan bu joy *"Kampir rovob"* (aslida *"Kandi pir rovot"*) nomi bilan atalib kelgan. Arxeologlar bu atrofda ayol shakli tushirilgan yuzi

[1] Бабурнаме. Записки Бабура / Пер. М.Сале. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1993. – С. 21.

yassi tosh haykalchalar topishgan (xalq og'zida *"kampir tosh"*).

Keyinchalik "Kampir oboz" deb ham atalib kelgan (*С. Жалилов. Фарғона водийси ерларининг суғорилиши тарихидан. –Тошкент: Фан, 1978.*). Qashqadaryo va Surxondaryo tomonlarda *"Kampirtepa"*, *"Kampir chorbog'"* degan qishloqlar bor.

KANBOY – Samarqand shahri yaqinidagi kent, Toshkent tomonga boradigan yo'lda. Bu joy ko'pgina tarixiy kechinmalarning guvohi bo'lgan. "Boburnoma"da 900 (1494–1495)-yil voqealari bayonida Boysunqur mirzo Samarqand taxtiga o'tirgach, Toshkentdan Sulton Mahmudxon bostirib kelgani va Kanboy atrofida ikkala tomon o'rtasida yuz bergan qattiq jangda Boysunqur mirzo g'olib kelgani aytilgan.

KANDA – Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi qishloq nomi. N.Oxunov (1989) Kanda – mahalliy gidrografik termin bo'lib, *"kan"* va *"-d+a"* (qo'shimcha) elementlaridan tarkib topganligini va "тashlama" degan ma'noni ifoda qilishini ta'kidlaydi. Viloyatdagi *Ahmadkanda, Bo'kakanda, Kandabuloq, Sarjanda* gidronimlarining nomlanishiga shu termin asos bo'lgan. **Kanda** so'zining *"o'ymoq, kavlamoq"* degan ma'nosi ham bor (З.Дўсимов, 1977).

KANDA DARASI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi jarlik nomi. Ikki o'zakli mikrooykonim. Usbu mikrotonimning etimologiyasi ***Kandik dara*** shaklida bo'lib, u *"kandik o'yilish, yemirilish va boshqa sabab bilan hosil bo'lgan alohida joy"* [O'TIL. 2, 314] ma'nosida qayd etiladi. *"**Dara**"* esa forscha so'z bo'lib, *"ikki tog' oralig'idagi uzun, nisbatan tor, chuqur joy; jarlik"* [O'TIL. 1, 557] ma'nolarini anglatadi.

Shunday ekan, tabiiy hodisa natijasida hosil bo'lgan geografik joy nomidir.

KANDIR – Ohangaron vohasi, Qurama cho'qqisidagi dovon, (Toshkent viloyati). Zahiriddin Boburda "**kandirlik doboni**" sifatida uchraydi ("Bobirnoma". – T., 1960). **Kandirsoy** – Qurama cho'qqisi qoyasidan oqadigan soy, mazkur toponimlarda *kandir* komponenti – *yovvoyi, ko'p yillik paxtasimon o'simlik*. **Kandir** – butasimon o'simlik nomi. Kandir dovoni Qurama tizmasining Ohangaron tumanidagi "Susam" QFY hududida Kandirsoydan Ashtga oshish qismida joylashgan. Bobur Samarqand va Andijon taxtini boy berib, Ohangaron vodiysida Shayboniyxon xufyalaridan yashirin yurgan kezlarida (1497–1498-yillarda) shunday yozadi: "Qosimbekni Toshkandga xon qoshig'a yiborib, Andijon ustiga yurmakni istid'o qilildi. Xon (Boburning bobosi, Qutlug' Nigorxonimning otasi Yunusxon) ham cherik tortib, Ohangaron jilg'asi bila kelib, *Kandirlik dobonining tubiga* tushganda men ham Xo'janddin borib, xon dodamni ko'rdim. *Kandirlik dobonini oshib* Axsi tarafig'a tushuldi. ("Boburnoma". Ko'rsatilgan nashr, 113-bet).

KANDIRDOVON – dovon. "Boburnoma"da *Kandirlik doboni* deyilgan. **Kandir** – *tevarak-atrofda yovvoyi kandir o'simligi borligidan nishona.* Yong'oq daraxti bir joyda g'uj bo'lib o'sgan joy yoki yong'oq ko'p soy *Yong'oqli* deb atalgan. Jiyda daraxti ko'p o'sgan joy va orol *Jiydali* deb nomlangan. Yulg'un butasi ko'p o'sgan joy, soy esa *Jing'ilsoy* deb nom olgan.

KANDIRLIK DOVONI – Qurama tizmasidagi dovon. Farg'ona vodiysi bilan Toshkent viloyati o'rtasida hozir ham shu nomda. Hozirda ushbu dovondan oqib tushadigan Ohangaron daryosining so'l irmoqlaridan biri *Kandirsoy* deb ataladi.

Zahiriddin Bobur "Boburnoma"da Movarounnahr voqealari bayonida bir necha marta Kandirlik dovonidan o'tganini yozgan. "Qosimbekni Toshkandga xon (Sulton Mahmudxon) qoshig'a yiborib, Andijon ustiga yurmakni istid'o qilildi (lozim topildi). Xon ham cherik tortib, Ohangaron julgasi (vodiysi) bila kelib, Kandirlik dobonining tubiga tushganda men ham Xo'janddin borib, xon dodamni ko'rdim. (So'ngra) Kandirlik dobonini oshib Axsi tarafig'a tushuldi", deb yozilgan mazkur asarda 903/1497–1498-yil voqealari bayonida (B. 64).

KAPA – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq tumani va Samarqand viloyatining Payariq hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Kapa* – kulba; ehtimol etnonim; masalan, qoraqalpoq qabilalari va urug'lari orasida qirg'izlar Kepe etnonimiga ega va turkiy xalqlarning qabila nomlari ko'pincha bir-biriga to'g'ri keladi. Masalan, ***Kapasaray, Kapayangi***. S.Qorayev "*kapa*" so'zi "*chayla*" ma'nosidan tashqari, biron urug' nomini bildirsa kerak, degan fikrni bildiradi (Қораев, 1978).

Shunga binoan bu mikrotoponimni etnooykonimlar qatoriga kiritsa bo'ladi [T.Nafasov, 90]. Usbu oykonim bir o'zakli bo'lib, ot so'z turkumiga mansubdir.

KAPA QISHLOQ – Andijon viloyatining Jalaquduq tumaniga qarashli eski qishloq nomi. Daryolarga yaqin kichik vodiylar ommaviy ravishda o'zlashtirilmasdan oldin qalin o'sgan qamishzorlar qirg'oqlarida yakka oilalarning vaqtincha kapa tikib o'tirgan xonadonlari bo'lgan. Yerlar o'zlashtirilishi tezlashgan sari kapa atrofida qishloqlar paydo bo'lgan (*"Jiyda kapa", "Norin kapa"* va boshqalar). Jalaquduqqa tobe "*kapa*" qishloq qadimgi Oqbo'ra daryosining quyi oqimida – qamishzorlar qirg'og'ida paydo bo'lgan eski qishloqdir. Bu sobiq "Paxtakor" jamoa xo'jaligi tarkibida edi.

KAPASAROY – qishloq. Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq nomi. Kapa – "*kulba*" va *saroy* so'zlari qo'shilishidan iborat bo'lib, bu yerda taniqli o'zbek urug'i ma'nosi ifodalangan.

KAPAYANGI – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. **Kapa** – "*kulba*" va *yangi* so'zlari bu yerda fors tiliga xos bo'lgan so'zlarning teskari tartibi.

KAPPON – Namangan shahridagi Yangiariq kanalidan suv olib, Namangan tumaniga oquvchi ariq nomi. **Kappon** so'zi fors-tojikcha bo'lib, *"don, g'alla bozori"* degan ma'nolarni anglatadi[1]. Aslida, **kappon** so'zi *"og'ir narsalar tortiladigan bir pallali ulkan tarozi"*ni anglatgan. Kappon g'alla bozoriga o'rnatilib, unda bir necha qop g'alla tortish mumkin bo'lgan. Keyinchalik shunday tarozi o'rnatilgan, usti tim don bozori, g'alla bilan savdo qilinadigan rasta ham kappon deb atalgan. Hozir bozorda, umuman, g'alla sotiladigan joy kappon deyiladi[2].

Demak, *"bir pallali ulkan tarozi"* ma'nosini anglatuvchi kappon so'zi til taraqqiyoti davomida metonimiya asosida *"don bozori"* tushunchasini ham anglatadigan bo'lgan. Gidronimga ana shu kappon so'zi asos bo'lgan. Ariq Namangan shahridagi kappon, ya'ni don bozori hududidan oqib o'tganligiga ko'ra shunday nomlangan. Anglashiladiki, ariq o'zi oqib o'tgan hududga, ya'ni kappon bozoriga nisbat berish asosida nomlangan.

KAPTARUYA – joyning nomi. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. *Kaptar* va *uya* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, demak, *Kaptaruya* toponimi *kaptarlar uyasi* ma'nosini anglatadi.

KAPTARXONA – Samarqand viloyatining Samarqand tumani. Ilgarilari xon va zodagonlarning kaptar boqiladigan binolari bo'lgan. Kaptarlarga kaptarboqarlar qarab turgan. Bundan tashqari, qadimiy diniy e'tiqodga ko'ra pari ko'pincha kaptar ko'rinishida tasavvur qilingan. Dev-pari ko'rinadigan joy "kaptarxona" deb atalgan bo'lishi mumkin (Qorayev, 1978).

Narshaxiyda ***kabutarxona*** – *"kaptarlar uchun qurilgan xona, oshyon"*. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham ***kabutarxona*** – *"kaptar turadigan maskan"*. "Boburnoma"da ***kabutarxona*** – *"kaptar (umuman, ov qushi) saqlanadigan qo'ndoq, qafas, kaptar yashaydigan joy (jar, g'or, quduq, yerto'la)"*.

Shunday ekan, ***Kaptarxona*** nomi qadimiy toponim hisoblanadi.

Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida ham *Kaptarxona* nomli qishloq bor. Xona topoleksemasi o'zak (asos)dan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy ma'nosini bildiruvchi ot yasaydi. Toponimikada esa, o'zakdan anglashilgan predmet mavjudligini anglatuvchi nom yasaydi. Masalan, *Shoxolxona* (Oqdaryo), *Xirsxonasoy* (Urgut), *Gavxonasoy* (Bulung'ur), *Bovlixona* (Samarqand) kabi. Shuningdek, bu topoleksema ishtirokida yasalgan *Xosxonasoy* (Bulung'ur), *Qalandarxona* (Samarqand shahri), *Damxosxona* (Samarqand tumani) kabi nomlar ham bor.

Shuningdek, mazkur toponim Buxoro viloyatining Peshku tumani, Surxondaryo viloyatining Denov, Ter-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. T. 1. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 368.

[2] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 447.

miz tumanlari, Farg'ona viloyatining Farg'ona tumani va boshqa hududlarda ham uchraydi. *Kaptarxona* majoziy ma'noda – odamlar abadiy kelib ketadigan joy; – *bu dunyo kaptarxona* – bu dunyo kabutar sifatida (odamlar kelib ketishaveradi).

Demak, bu nom respublikamiz hududida keng tarqalgan bo'lib, toponimik adabiyotlarda ikki xil ma'noda izohlanadi. Birinchidan, ilgarigi zamonlarda xon va amaldorlarning kaptar boqiladigan binolari joylashgan qishloqlarga shunday nom berilgan. Ikkinchidan, diniy e'tiqodga ko'ra dev, pari va sanamlar ko'rinadigan joylar shunday nomlangan.

KAPTARXONA MAHALLASI – Xorazm viloyatining Xiva shahridagi mahalla nomlaridan biri. Kaptarxona – kaptarlar turadigan in, uy. Hudud Xiva xoni yashab o'tgan maskanning bir bo'lagi, Ichon-qal'a obidalari atrofini o'rab olgan. Rivoyat qilishlaricha, Xiva xoni Muhammad Feruzning davrida uning sevikli ayoli qattiq betob bo'lib qoladi. Xon tabiblari unga kaptar go'shti iste'mol qilishni tavsiya qiladi. Shu qal'a atrofida joylashgan bitta xonadondan kaptar olib kelishib, uni ayolga yediradilar va ayol sog'ayadi.

Shundan so'ng xon Feruzning amri bilan shu hududda kaptar boqish uchun maxsus joylar qurdirilib, kaptar boqadigan maxsus odamlar yollanadi va barcha xonadonlarda kaptarlar boqilishi buyuriladi.

Shu tariqa mahallaning nomi azal-azaldan Kaptarxona mahallasi deb atalgan. Kaptar uchiradigan minoralarning bir qismi hozirgacha mahalla hududida saqlanib qolgan. Mahalla 1992-yilda tashkil qilingan.

KARBOZBOF// KARVOZBOF – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Forscha *karbos* – qo'l san'atlari ishlab chiqaradigan qo'pol paxta matoni; *bof,* boftan (to'qimoq) – hozirgi zamon fe'lining asosini tashkil etib, aslida, ***Karbosbof*** shaklida bo'lib, ***karbos*** degani – *"bo'z to'quvchi usta"* ma'nosini bildiradi. Shunday ekan, mazkur kasb-hunar nomi oykonimga asos bo'lgan.

Shunday ekan, **Karvazbaf** (*Karbosbof*) – *bunday to'quvchilar yashaydigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

KARIMBOBO – Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi qishloq va mahalla nomi. **Karim** so'zi arabchada – *ochiq qo'lli, himmatli, saxiy* degan ma'noni bildirsa, toponimlar tarkibida ko'p uchraydigan **bobo** – *katta ota, otaning otasi* demakdir, ko'pincha, *ulug', ulkan, mo'tabar, aziz* kabi ma'nolarda ishlatiladi.

KARIZ//KAREZ//KOREZ//KORIZ – Buxoro viloyatining Kogon va Navoiy viloyatining Navoiy tumanlaridagi qishloq nomi. ***Koriz*** – *"yer osti suv yo'li"*[1]. Koriz – *"yer osti suvlarini yuzaga chiqarish uchun qazilgan murakkab suv inshooti – yopiq kanal"*. Toponim suv inshooti asosida nomlangan.

[1] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. O'zbekistonning janubiy rayonlari. –T.: O'qituvchi, 1988. –B.90-91.

KARKIDON – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumani. Quvasoy (Farg'ona viloyati) daryosidagi Karkidon suv ombori. Markaziy Osiyoda Karkidonlar bo'lmagan. Demak, toponim Karkidon bilan bog'liq emas. Biroq boshqacha izohlar ham mavjud. Manbalarda XVI-XVII asrlarda turkmanlarning Karki degan qabilasi yashaganligi va ularni Karkidan, Karkilik degan ma'nolarda qo'llanilishi asos bo'lgan deyiladi.

KARMANA – tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi viloyatning janubi-sharqiy qismida, Zarafshon daryosi vohasining markazida, daryoning quyi qismi sohilida joylashgan. 2003-yilda Navoiy tumani nomi Karmana tumani deb o'zgartirildi va Karmana shahri tuman markazi sifatida belgilandi.

Karmana nomining Karmina talaffuzi ham bor. Akademik A.Muhammadjonovning yozishicha, shahar nomi sug'd tilida *Xarmana – "katta saroy"* ma'nosiga ega. Muhammad Narshaxiy o'zining "Tarixi Buxoro" asarida yozishicha, Buxoro vohasining sug'orma dehqonchilik yerlari Karmina hududidan boshlanadi va u vohaning dehqonchilik rivojlangan rustoqlaridan biri bo'lgan.

O'rta asr yozma manbalarida *Karmina rustoqi* ba'zan *Yasir* nomi bilan ham tilga olinadi. M.Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Buxoro bilan Karmina oralig'i 14 farsang (98–112 km) uzunlikka ega bo'lgan. Karmana shahrining qadimgi nomlaridan yana biri – *Bodiyai xurdak*. Tojik tilida *bodiya* so'zi – "cho'l, sahro", *xurdak* – "kichkina" ma'nosini ifodalaydi. *Bodiyayi xurdak – "kichik cho'l, kichik dasht"* demakdir.

Tarixiy manbalarda, jumladan, "Boburnoma", "Shayboniynoma"da *bodiya* so'zi *"cho'l, biyobon, dasht"* ma'nosida qo'llanilgan. "*May, sharob*" ma'nosidagi *boda* so'zi ham bor. Balki, shu ma'noda Narshaxiy "Tarixi Buxoro" asarida *Bodiyai xurdak* nomini *"kichik ko'za"* deb izohlagan. Aslida *Bodiyai xurdak* nomining *"kichik cho'l, dasht"* degan ma'nosi haqiqatga yaqinroqdir.

Karmana so'zining semantikasi noma'lum, u qo'shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi. Tuman hududida me'moriy yodgorliklardan Mir Said Bahrom maqbarasi (XI asr), Qosim Shayx xonaqosi (XVI asr), Raboti Malik karvonsaroyi va sardobasi (XI asr) saqlangan. Buxoro amirligi davrida (1753–1920) Karmana alohida imtiyozli beklikka ajratilib, u Buxoro amirining valiahdi tomonidan boshqarilgan. Jumladan, Amir Abdulahad va Said Olimxonlarning qarorgohlari Karmana shahrida bo'lgan.

Tuman ma'muriy markazi – Karmana shahri (1979-yildan).

KARMISH – Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi qishloq nomi. *Karmish* etnonimi qirg'izlarning bargi, qipchoq urug'lari hamda turkman, qozoq, laqay, o'zbek qo'ng'irotlari tarkibida uchraydi. Qirg'iz etnografi

O'. Qoratoyev *karmish* etnonimi qadimgi turkiy tillarda "aralash", "qurama el", "xalq" degan ma'nolarni anglatishini qayd etadi. Aholisining etnik mansubligi shu nomdagi toponimning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

KARVONSAROY – Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq va qabriston nomi. Karvonsaroy forscha so'z bo'lib, unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday ta'rif berilgan: "Karvonlar to'xtaydigan saroy, karvonlar qo'nishi, tunashi uchun maxsus moslangan joy" degan ma'noni anglatadi. (O'TIL. II, 321).

Bunday nomdagi toponimlar Buxoro va Samarqand viloyatlarining ham ayrim hududlarida uchraydi.

KASBI – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman nomiga asos bo'lgan *Kasba, Kasbi* shahrining xarobalari Qarshi shahridan 35 km janubi-g'arbda joylashgan. Arxeologik manbalarga ko'ra, 589-yil sosoniylar sarkardasi Bahrom Cho'bin turkiy qavmlar ustidan zafar qozonib, *Kasbi* qal'asini egallagan. Milodiy X–XII asrlarda Kasbi shahri rivojlangan, manbalarga ko'ra, X asrda hatto Nasafdan ham katta shahar bo'lgan.

Shahar Buxoro – Nasaf – Termiz karvon yo'lida joylashganligi tufayli yirik savdo markaziga aylangan. Mo'g'ullar istilosi (XIII asr) natijasida vayron bo'lgan. Shahar o'rta asr arab geograflari Istaxriy, Abdulkarim as-Somoniy, Yoqut Hamaviy asarlarida *Kasba* nomi bilan qayd qilingan. Tarixiy manbalarda Kasbi hududiy jihatdan Nasaf shahridan ham kattaligi qayd qilingan. Kasbi nomi vaqf hujjatlarida uchraydi.

T.Nafasov *Kasbi* nomiga *"qasaba so'zi"* asos bo'lgan, deb taxmin qilgan. Olimning yozishicha, bu so'zning ikki ma'nosi bor: birinchisi, *katta qishloq, kichik shahar*; ikkinchisi, *g'arov, qamish*. Ana shu ma'nolari bilan u tojik tilining X–XIX asrlar o'tmishida qo'llanilgan. Kasbi shahri Qashqadaryoning quyi oqimida joylashganligi, ya'ni geografik o'rnini hisobga olib, nom ma'nosini *qamish o'sgan joy,* deb izohlash mumkin.

Tuman ma'muriy markazi – Mug'lon shaharchasi (2009-yildan). Tilshunos olim D.Abdurahmonov shaharcha nomiga mo'g'ul etnonimi asos bo'lgan, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, mutaxassislar tomonidan mo'g'ul nomli turkiy qabila borligi aniqlangan. Shu sababdan, Mug'lon nomining ilk shakli *Mo'g'ulon, "on"* – ko'plik qo'shimchasi.

KASOVLI – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq. Qo'ng'irot qabilasining bir shoxobchasi *Kesavli* deb atalgan (tamg'asi kosov shaklida bo'lgan).

KAT – sug'diy kalima. O'zbekcha *qo'rg'on*, arabcha *qal'a* so'zi sug'd tilida kat atalgan. Hozirgi tepalik o'rnida IX–X asrlarda ulkan, mahobatli qo'rg'on bo'lgan. Bu qo'rg'on katta boy, badavlat kishi tomonidan qurilgan, tevaragida xandaq qazilib, suv bilan to'ldirib turilgan, shu tariqa qo'rg'on

tashqi dushmandan qo'riqlangan, yoz issig'ida mo'tadil iqlim yaratilgan.

Shuni qayd qilish kerakki, sug'd tilida *qo'rg'on* ma'nosi bir o'zakdan hosil bo'lgan ikki so'z bilan bayon qilingan: *kat, kent*. Kelib chiqishi bir bo'lib, ma'nosi va vazifasi yaqin bo'lgan bu ikki so'z eroniy tilli aholi o'rtasida *kad, kat* tarzida, turkiy tilli aholi nutqida *kend, kent* tarzida bo'lgan. Bunday farqlanish X asrlardayoq yuz bergan.

XI asrning buyuk tilshunosi M.Koshg'ariyning yozib qoldirishicha, "kend–shahar o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar nazdida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. Kunchiqar tomondagi har bir shaharga *ken* deydilar. Bu so'z *kend*ning qisqarganidir". *Kend* – qadimiyroq, undan *kent* shakli yuzaga kelgan. M. Koshg'ariyning izohidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, *kend* so'zi *shahar, qishloq* nomlari tarkibida bo'lgan, sug'diy nomlar ommaviy qo'llangan, viloyatlar ham shahar yo qishloq nomi bilan yuritilgan.

Kad, kat shakli ancha qadimiy bo'lgan. *Kend, kent* shakli esa birmuncha so'nggi davrlarga xos bo'lgan. Asrlarda yaratilgan arabiy, forsiy yodnomalarda qayd qilingan qishloq nomlari faqat *kad, kat* so'zi bilan yasalgan. Zarafshon va Sirdaryo bo'ylarida *kad, kat* so'zli qishloq nomlari, ayniqsa, ko'p bo'lgan. X asr tarixnavisi Istaxriy asarlarida zikr qilinishicha, Ohangaron vodiysida 14 ta, Chirchiqda 27 ta qishloq nomi tarkibida *kad, kat* so'zi bo'lgan, shularning 21 tasi *kat* tarzida bo'lgan. *Kat* nomi *qo'rg'on, ravot, qal'a* nomlari bilan ma'nodosh.

Odatda, qo'rg'on yoki shunga o'xshash nomlanadigan maskan ma'lum bir hududda yolg'iz, bitta bo'lsa, shu narsaning nomini bildirgan so'zning o'zi uning maxsus otiga aylanadi. *Kat – kat, qal'a – Qal'a, qo'rg'on – Qo'rg'on, rabot – Rabot*. Agar nomlangan narsa ikki va undan ortiq bo'lsa, bu so'zga boshqa bir so'z yoki so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilib, yangi nom yaraladi: *qo'rg'on – Kattaqo'rg'on, Balandqo'rg'on, Oqqo'rg'on, Toshqo'rg'on yoki Qo'rg'oncha, Qo'rg'onak*. Kat deb atalgan qo'rg'on ham shu hududda yagona bo'lgan, unga tenglashadigan boshqa qo'rg'on bo'lmagan.

KATPUT – Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Toponim tarkibidagi *kat* termini Yevroosiyo materigida eng keng tarqalgan va qadimgi iboralardan bo'lib, "Avesto" va qadimgi sug'd yozuvlarida tilga olinadi. *Uy, boshpana, qishloq, shahar* kabi ma'nolarini anglatadi. *Put* iborasi – *yo'l, so'qmoq, ko'prik* kabi ma'nosida ishlatiladi. **Katput** – *yo'l bo'yidagi qishloq* demakdir.

KATQAL'A – qishloq. Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq nomi. Forscha *kat* – *"uy", "aholi punkti"*, Xorazmda dasht oralig'ida devor (yoki devor) bilan o'ralgan joy, hattoki bu makonning ichida hech narsa bo'lmagan bo'lsa ham, *kat* deb atalgan. (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, ч. I. С. 209).

Ayrim limiy manbalarda kat kent so'zining dialektal shakli sifatida qayd etiladi.

KATTA ARABLAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Arablar* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Katta Arablar* deb o'zgartirilgan. Toponim tarkibi ikkita so'z – *katta* va *arab* so'zlaridan iborat.

Uning birinchi komponenti – *katta* so'zi *"ulkan", "zo'r"* degan ma'nolarni bildirgani holda qishloq joylashgan hududning ko'lamini (kattaligini) anglatadi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *arab* so'zi esa xalq nomi, etnonim. *-lar* qo'shimchasi ko'plik affiksidir. Demak, **Katta Arablar** – *"arab xalqi vakillari yashaydigan katta qishloq"* deganidir.

KATTA ASTARBOF – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Astarbof* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Katta Astarbof* nomiga o'zgartirilgan.

Mahalliy aholi toponimni *"qishloqda bo'z to'qiydigan asbob yasalganligi uchun shunday nomlangan"*, deb izohlaydi.

Toponim tarkibi uchta so'z – *katta, astar* va *bof* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *astar* so'zi *ko'rpa yoki kiyimning ichki qavatidagi mato*ni bildiradi. Uning uchinchi komponenti – *bof* so'zi esa forscha-tojikcha *bofanda* – *"to'quvchi", "kosib"* so'zining qisqargan shakli. Demak, **Katta Astarbof** – *"astar to'quvchi hunarmandlar yashaydigan kattaroq aholi manzilgohi"* ma'nosini anglatadi.

KATTA BAYOT – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Bayat (bayot) – turkman, ozarbayjon, o'zbek xalqlarining tarkibiga kirgan turk-o'g'uz qabilalaridan biri.

1920-yildagi aholining ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi Bayat qabilasi vakillari Buxoro atrofi va Qorako'l tumanida yashagan.

KATTA BESHRABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Beshrabot* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Katta Beshrabot* deb o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi uchta so'z – *katta, besh* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *katta* so'zi qishloqning ko'lami keng, maydoni *kichik* komponentli qishloqqa nisbatan kattaroq ekanligini bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *besh* so'zi sonni, 5 raqamini bildiradi. Uning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, **Katta Beshrabot** – *"beshta katta qo'rg'on"* yoki *"beshta kattaroq turar joy"* degan ma'nolarni anglatadi.

KATTA BULOQ – Andijon viloyatining Baliqchi tumani va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti sanalgan "***Katta***" boshqasiga qaraganda hajmdorroq ma'nosini anglatadi. Gidronimidagi "***buloq***" geografik termini esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv*

chiqib turgan joy, chashma" [O'TIL. 1, 371].

Shunday xulosa qilishimiz mumkinki, "*boshqasiga qaraganda kattaroq buloq*" ma'nosini ifodalaydi.

KATTA OQMACHIT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Apellyativning birinchi qismi "***Katta***" so'zi "*hajmi, o'lchami me'yordan yoki nisbatan ortiq, ulkan*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 333].

"***Oq***" umumturkiy so'zlardan biri bo'lib, "*qor, sut, paxta rangidagi, oq tusga moyil*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 1, 262; O'TIL. 5, 3, 175].

"***Machit // masjid***" so'zi "*sajda qilinadigan, namoz o'qiladigan joy*" ma'nosidadir [O'TIL. 5, 2, 550]. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi hududida qurilgan machitlar oqmachit deb nomlangan. "Katta" va "oq" so'zlari qurilgan machitning amirlikka qarashli ekanligiga, hajman kattaligiga ishoradir.

Darhaqiqat, bu hududda ilgari juda katta machit bo'lganligini keksa kishilar eslaydilar. Leksik jihatdan ikki o'zakli sifat+ot shakliga xos.

KATTA ORG'UN – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim. Aslida, "***Arg'un***". Arg'un qabilasi vakillari yashagan qishloq. Arg'un, arg'in qadimgi turkiy urug'lardan birining nomi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida arg'u tarzida uchraydi.

Demak, mazkur etnotoponim "*Katta Org'unlar aholisi yashaydigan qishloq*" ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, ***Arg'un*** etnonimi *Argin* shaklida qozoqlar, qirg'izlar, bashkirlar, xakaslar, tatarlar aholisi tarkibida ham qayd etilgan.

Mazkur toponim *Arg'un, Arg'in, Arg'u, Arg'i* shakllarida respublikamizning Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari hududlarida uchraydi.

KATTAQANGLI – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Qanglilar haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi II asrga oid Xitoy solnomalarida uchraydi. Tarixiy manbalarda *kanga, qangar, kangeres, qanli, qangli* shakllarida tilga olinadigan ushbu qabila tarixi birmuncha keng o'rganilgan. Rashididdin "*qangli*" so'zining turkiy "arava" ma'nosida ekanligini ko'rsatib o'tgan. Bu xalq etimologiyasidir. Olimlar "*qang*" so'zini turkiy va tungus-manjur tillarida saqlanib qolgan "*daryo, suv*" ma'nosidagi so'z (qadimgi hind-yevropa tillarida ham shu ma'noda qo'llanilgan) ekanligini hamda Sirdaryoning o'rta asrlardagi nomi *qang* bilan bog'liqligini ko'rsatishadi.

Qangli so'zi *qang* – daryo, *-li* esa ma'lum bir xalqning shu daryo bo'yida yashovchilar ekanini anglatadi (Nafasov, 1988). Qangli qabilasi 92 bovli o'zbek qabilasi ro'yxatining qariyb barchasida uchraydi. Qanglilar tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur qabila vakillari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona va Zarafshon vohalarida yashaganliklarini tasdiqlaydi. Toshkent vohasida yashagan qanglilar Niyozbek, To'ytepa, Oqjar, G'oyibota,

Zangiota, Qo'shqo'rg'on bo'limlarida istiqomat qilganlar. 1920-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, Jizzax yaqinidagi Zomin tumani Qangli va Chambil qishloqlarida ham ushbu qabila vakillari yashaganlar.

Hozirgi kunda G'allaorol tumanidagi Qangli, Shirkonli qishloqlarida, Ishtixon, Jomboy, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo tumanlarida (Samarqand viloyati), shuningdek, Xatirchi (Navoiy viloyati), Hazorasp (Xorazm viloyati), Amudaryo (Qoraqalpog'iston) tumanlarida ham qanglilar yashashadi. Zomin, Jizzax, G'allaorol tumanlarida, Farg'ona vodiysida hamda Toshkent vohasida qanglilarning *sariq (sari), qora (qorato'nli), oq (oqto'nli), ko'k (ko'kto'nli) va qizilqangli* kabi yirik bo'linmalari yashashadi.

Sariq va qora qanglilar, o'z navbatida, bir necha guruhlarga bo'linadi: **Sariq qanglilar** – *qo'shtamg'ali, orishli, jaytamg'ali, bolg'ali;* **Qoraqanglilar** – *taraqli-irg'oqli, quyushqonli, qoraqizlarga* bo'linadi. Qanglining yana bir qator urug'lari bo'lib, ular Janubiy Tojikiston tumanlaridagi Qatag'onlar tarkibida ham uchraydi (Karmisheva, 1976).

Ushbu qabila O'zbekiston davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy III asr o'rtalariga qadar yashab kelgan Qang davlatiga asos solgan qanglilar hozirgi paytda o'zbek xalqining yirik qabilalaridan biri hisoblanadi.

KATTA QISHLOQ – Samarqand viloyatining Jomboy, Qo'shrabot hamda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanlaridagi qishloqlar va Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanida ham shunday nomdagi qishloq bor. Bu mikrotoponim ***"katta"*** va ***"qishloq"*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"Katta" so'zi *"hajmi, o'lchami me'yoridan yoki nisbatan ortiq, ulkan"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 333].

Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida ***"qishliq"*** urug'ini mo'g'ul avlodlaridan biri, deb qayd qilgan edi.

Toponimist T. Nafasov ***"qishliq // qishlik"***ni urug' nomlaridan biri deb hisoblaydi [T. Nafasov, 247].

Shevashunos X.Doniyorov ham ***"qishliq"***ni asosiy urug'lar sirasiga kiritgan edi [X. Doniyorov, 81].

S. Qorayev ushbu mikrotoponimni *"qishlik urug'i vakillarining katta qismi yashaydigan joy"* deb izohlagan [S.Qorayev, 1, 65]. Sifat+ot tuzulishiga ega joy nomi.

KATTA QUMRABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi 2006-yilga qadar *Qumrabot* deb atalgan.

2006-yil 29-iyulda *Katta Qumrabot* deb o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi uchta so'z – *katta, qum* va *rabot* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *qum* so'zi esa qattiq minerallar va tog' jinslarining sochiluvchan mayda donachalarini bildiradi. Ba'zan, *qum* termini *qumli cho'l* ma'nosida ham ishlatiladi. Apellyativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, **Katta Qumrabot** – *"qumlikdagi katta qo'rg'on"* ma'nosini anglatadi.

KATTAQO'RG'ON – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Samarqand viloyatidagi yirik shaharlardan biri.

Toponimist E.M. Murzayev mazkur toponimni "**kanta**" (sak tilidagi *"qazilgan, devor bilan o'ralgan joy"*); **kat** – *"shahar, bosh shahar"*; **qo'rg'on** – *tepalik yoki tepalikdagi istehkom"* so'zlaridan hosil bo'lgan, deydi (Murzayev, 1957).

Lekin mazkur nomni turkiy **katta** – *"ulkan, yirik"* va **qo'rg'on** – *"qal'a, istehkom"* so'zlaridan yasalgan deyish to'g'ri. Bu shahar asoschisi Farhodbiy otaliq faoliyati bilan bog'liqlikda ham ko'rinadi. Toponimiyada "qo'rg'on" so'zi bilan yasalgan nomlar juda ko'p uchraydi. Turkiy tildan bir qator hind-yevropa tillariga o'zlashtirilgan qo'rg'on, ya'ni *"qal'a, istehkom"* termini bilan yasalgan toponimlar Yevroosiyodan Tinch okeanigacha, Shimoliy muz okeanidan Hind okeanigacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan (Murzayev, 1984).

KATTAQO'RG'ON SUV OMBORI – Mahalliy aholi tilida Kattaqo'rg'on hovuzi. Ushbu inshoot O'zbekistonda qurilgan shu turdagi gidroobyektlarning birinchisi bo'lganligi uchun "O'zbekiston dengizi" deb ham nom olgan.

Ushbu suv ombori qurilishining birinchi bosqichi 1940-yil 25-fevralda boshlanib, 1941-yilning 12-avgustida tugallangan va bu davrda inshoot 120 mln metr kub suv hajmiga ega bo'lgan. 1941-yilda boshlanib, qolgani urush tufayli suv omboridagi qurilish ishlari to'xtab qoladi. Faqat 1946-yil mayidan bu yerdagi ishlar yana davom ettiriladi. 1952-yilga kelib, suv omboridagi ishlar asosan tugallanadi va bu qo'shimcha tarzda 67 ming gektar yerni sug'orish imkonini beradi. 1962-yil Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishining uchinchi navbati boshlandi. Qurilish tugashi bilan 1 milliard metr kub miqdorda suv to'plash imkoniyati tug'iladi. Suv omborining uzunligi 22 km, eni 12 km dir (Tagiyev, 1973). Mazkur suv omborining nomlanishida uning Kattaqo'rg'on shahri yaqinida qurilganligi asos bo'lgan.

Kattaming va **Kichikming (Katta ming** yoki **Kichik ming)** – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloqlar. Ishtixon tumanida *Minglar* qishlog'i, Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida *Mingqishloq* toponimlari bor. *"Ming urug'iga mansub kishilar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi. Minglar XIX asrda Zarafshonning janubi-sharqida, Buxoro, Toshkent, Hisor, Xiva, Qo'qon va Balx hududlarida yashaganlar.

KATTA OQRABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Oqrabot* deb atalgan.

2006-yil 29-iyulda *Katta Oqrabot* deb o'zgartirilgan. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq hududidan oquvchi ariqlarning suvi tiniq, shaffof bo'lganligi sababli shunday nomlangan.

Apellyativning tarkibi uchta so'z – *katta, oq* va *rabot* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *katta* so'zi *"ulkan", "zo'r"* degan ma'nolarni bildirgani holda qishloq joylashgan hududning ko'lamini, uning o'lchamini (kattaligini) anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *oq* so'zi esa, M.M. Avezovning fikricha, qavm nomi, etnonim. S.Qorayev shu nomdagi qavm mavjudligini qayd qilgan. Apellyativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, **Katta Oqrabot** – *"oq qavmi vakillari yashaydigan kattaroq qo'rg'on"* ma'nosidadir. (*Qarang:* **Gulrabot)**.

KATTA SAROY – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Saroy* deb atalgan.

2006-yil 29-iyulda *Katta Saroy* deb o'zgartirilgan. Toponimning asosini tashkil qilgan *saroy* so'zi urug' nomi, etnonim. 92 bovli o'zbek qavmlaridan biri *saroy* deb atalgan. Bu qabila vakillari, asosan, Zarafshon vodiysi, Jizzax hamda Andijon viloyatlarida yashagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Saroy qabilasining *chemsaroy, qo'ng'irotsaroy, jomonsaroy, chirg'izsaroy, mojorsaroy, oltintamg'alisaroy, qipchoqsaroy, jolong'ochsaroy (yalang'ochsaroy)* kabi tarmoqlari bor.

Demak, ***Katta Saroy*** – *"saroy urug'i vakillari yashaydigan katta qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

KATTATAGOB – soy. Navoiy viloyatining Nurota tumani. *Tagab* – geografik termin, masalan: "Boburnoma"da *tagob – "o'zan", "daryo vodiysi", "qirg'oq"* ma'nolarida uchraydi.

Y.G'ulomovning fikriga ko'ra, Farg'ona va Buxoroda yer tagidan suv chiqadigan joyni *tagob* deb atashgan. Zarafshon vodiysida esa qaysidir bir daryoga bo'ysunadigan, masalan: *Tagobi nahri Qorasuv – "Qorasuv daryosidan sug'oriladigan joy"* ham **tagob** deb nomlangan.

KATTA XO'JALAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Xo'jalar* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Katta Xo'jalar* deb o'zgartirilgan.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, *Xo'jalar – "boy-badavlat kishilar yashaydigan joy"* ma'nosida. Toponim tarkibidagi *xo'ja* so'zi aslida forscha so'z bo'lib, *"xo'jayin", "boshliq", "sohib"* degan ma'nolarni anglatgan. Bu ma'no zamirida *xo'ja* so'zining bir qancha ma'nolari paydo bo'lgan.

Qozoq va qirg'iz tilida eski usuldagi maktab o'qituvchisini *xo'ja* deyishgan. Ko'pgina xalqlarda diniy ruhoniylar, mullani *xo'ja* so'zi bilan atashgan.

Markaziy Osiyoning ayrim xalqlarida yoshi ulug' kishi, oqsoqol, oila boshlig'i, er kishini *xo'ja* so'zi bilan ifodalashgan. Bu so'zning *"janob", "mulk egasi", "jasoratli odam", "tabib"* ma'nosi ham bor.

Ba'zi mamlakatlarda *xo'ja* so'zi faxriy unvonni ham anglatgan. Xo'jalar o'tmishda ijtimoiy tabaqa hisoblangan, shu bois jamiyatdagi ma'lum bir imtiyozlarga ham ega bo'lganligi manbalarda qayd qilingan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi turkiy xalqlarda *xo'ja* qavmi urug', qabila maqomida ham bo'lgan. Qoraqalpoq xalqi, o'zbeklarning Laqay qabilasida *Xo'ja* degan urug', urug' bo'limi borligi aniqlangan. Xo'ja so'zli aholi maskanlarining ko'pchiligi anhor, ariq, daryo bo'yida, katta yo'l yoqasida, dehqonchilik uchun qulay yerlarda, yirik qishloqlar yaqinida joylashgan.

Demak, **Katta Xo'jalar** – *"xo'ja qavmiga mansub kishilar yashaydigan katta qishloq"* ma'nosini anglatadi.

KAVARZOR – XVIII asrdagi Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi bunyod etilgan qishloq va mahalla nomi. (М.Абрамов Г'узары Самарканда, 1989. –В. 17). ***Kavar*** so'zi arabcha bo'lib, achchiq mevali dorivor o'simlik ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, ***kavar+zor = kavarzor*** nomi hosil bolib, *"kavar o'sadigan joy"* ma'nosini beradi.

KAVKAZ – qishloq. Toshkent viloyatining Piskent tumani. **Kavkazovul, Kavkazqishloq** millatidan qat'i nazar, Kavkazdan kelgan odamlar (turklar – mesxeti turklari, qorachoylar, osetinlar, cherkeslar va boshqalar) kavkazliklar deyilgan.

KAVKAZOVUL – Toshkent viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur toponim ikki komponentdan, ya'ni ***kavkaz*** va ***ovul*** so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Apellyativning birinchi komponenti ***Kavkaz*** etnik guruhini ifodalab kelmoqda va u *"kavkazliklar yoxud kavkazdan kelganlar"* ma'nosini ifodalaydi.

Shunday ekan, **Kavkazovul** *"kavkazdan kelganlar ovuli"* ma'nosini bildiradi.

KAVSAR – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumani. Bizningcha, bu yaqin atrofdagi suv manbayi – mazali suvli buloq nomi edi. *Kavsar* "jannat manbasi"dir. Asli biron suv – buloq yoki ko'l nomi bo'lsa kerak. **Kavsar** – *"jannat bulog'i"* ma'nosini anglatadi (Qorayev, 1978).

KAYKOVUS KANALI – Bo'zsuvning o'ng qirg'og'idan suv olgan. Kaykovus kanalidan o'ng va chap tomonga 13 ta ariq suv oladi. Kaykovus kanali hozirgi Olmazor va Shayxontohur tumanlari hududlaridan oqib o'tadi. Kaykovus kanali qadimgi ariqlardan bo'lib, uning qazilgan vaqti o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Mazkur ariq haqida yozma manbalarda ham ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida ariq nomiga daxldor shunday rivoyat keltiriladi: "Kaykobus va podshoh Salor zamonlarida Kaykobusning buyrug'i bilan shahardan uch farsax yerda Farrak daryosining Bandi podshoh degan joyidan katta kanal qazib chiqarildi. To'g'ondan 2 farsax masofada kanal ikki tarmoqqa bo'lingan: birinchi tarmoq shahardan chorak farsang (taxm.1,5 km) janubdan oqib o'tgan va Salor deb atalgan; ikkinchisi – bevosita shahardan o'tib, Kaykobus nomi bilan mashhur bo'lgan"[1].

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida. – T.: Fan, 1983. – 44 b.

Muhammad Solih qadimgi davrda Bo'zsuv arig'i Kaykobus (Kaykovus) atalganligi, keyinroq esa ushbu nom Bo'zsuvning faqat shahardan oqib o'tgan shimoliy tarmog'i uchungina saqlanib qolganligini qayd etgan.

Kaykovus kanali haqida Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy")[1] asarida ham ma'lumotlar bor. Unda yozilishicha, XVI asrda Kaykovus bo'yida (shahar qo'rg'oni tashqarisida) shu ariq nomi bilan atalgan bog' bo'lgan va bu bog' "Kaykovus bog'i" deb atalgan, unda Toshkent sultonlari yashagan.

Bizning davrimizda xalq talaffuzida Kaykobus kanalining nomi "Kalkovuz" shaklida ommalashgan. "Kalkovuz" gidronimi "Kaykovus", "Kaykobus" toponimlarining o'zgargan shaklidir. Mazkur toponim "Kaykovus" antropotoponimi bilan bog'liq. X–XI asrlar fors shoiri Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida yozilishicha, Kaykovus eron shohlaridan biri bo'lgan[2].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Kaykovus arig'i Sebzor dahasining Kohota, Otbozor, Yangi shahar mavze-mahallalari, Shatak, Qoshiqchilik, Qang'liko'cha, Yuqori Taxtapul, O'rta Taxtapul, Quyi Taxtapul, Chilto'g'on, Chaqar, Qumloq, Mozorxon, Halimko'p mahallalari, shuningdek, Ko'kcha dahasining Qo'shtut, Qoziobod, Shahidontepa, Chig'atoytepa mahallalari hamda Yangi shahar, Jarariq, Allon mavze-mahallalarining hududlaridan oqib o'tgan. Ariqning suvlaridan mavzelardagi dala-bog'lar, shahardagi tomorqalarni sug'orishda, aholining suvga bo'lgan boshqa ehtiyojlarini qondirishda keng foydalanilgan. Ariq bo'ylari bahor, yoz fasllarida odamlarning dam oladigan yerlari bo'lgan.

KASHAF – Qashqadaryo daryosi yuqori oqimining irmoqlaridan biri. Geograf, yozuvchi va sayyoh Yoqut Hamaviy eslatib o'tgan bu joy haqida (1179–1229) uning "Mujam ul buldon" lug'atida tilga olinadi. Tarixchi O.I.Smirnova *Kashaf*ni **Kesh** (Shahrisabz) shahri nomining dialektal shakli, deb hisoblaydi.

KASHAN – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Aftidan, *Kash-kashon*dan kelib chiqqan. Xalqaro savdo bilan shug'ullanadigan savdogarlar maxsus ijtimoiy mavqega ega edilar. Ularni kash-kashanlar deb nomlashgan. Kash-kashanlar ulkan boylik egalari bo'lishgan, feodal dehqonlari bilan bir xil pozitsiyada edilar. (Narshaxiy. Buxoro tarixi. –Toshkent, 1976).

KASHTUD – Zarafshon daryosining yuqori havzasidagi qo'rg'on. "Boburnoma"da 906 (1500–1501)-yil tarixiy voqealari bayonida xarobaga aylangan qo'rg'on sifatida eslatilgan.

---

[1] Toshkent. Ensiklopediya. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 443 b.

[2] Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. 3 kitobda / Forsiydan Sh. Shomuhamedov tarj. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1975. Birinchi kitob. – B. 303–325.

Samarqandni Shayboniyxon olgach, Bobur Shahrisabz orqali Hisorga keladi, so'ngra u yerdan Kamrud darasi orqali yurib, Kashtud qo'rg'oniga yetib boradi. "Fondin o'tgach, Kashtud ustig'a ilg'aduk. Kashtud qo'rg'oni xud buzuq ekandur. Bu muddatga anda kishi o'lturg'on emas ekandur. Andin o'tub Ko'hak suyining yoqasig'a kelib tushtuk" (B. 79).

KEGAYLI – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Amudaryoning quyi oqimi, o'ng sohilidagi pasttekislikda joylashgan. Tuman va shaharchaga nom bo'lib o'tgan Kegeyli kanali ham tuman hududidan oqib o'tadi.

Mahalliy xalq Kegeyli nomining kelib chiqishini tuman va shaharcha hududidan oqib o'tadigan Kegeyli kanali nomi bilan bog'laydilar. Bu kanalning ikki tomoni kegey daraxtlari, turang'ilar bilan burkanib turganligi uchun u Kegeyli nomini olgan deyiladi. Demak, tuman hududidan oqib o'tuvchi kanal sohillarida kegey daraxtining ko'pligi uni nomlashda xarakterli belgi vazifasini bajargan.

Keyinchalik shaharcha va tumanga ham shu nom berilgan. Binobarin, kanal nomini birlamchi, shaharcha va tuman nomini ikkilamchi deyish mumkin. Kegey daraxti tashqi ko'rinishidan oq qayinga o'xshaydi, asosan, suvga yaqin joylarda ko'proq uchraydi.

KELACHI – Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. O'zbek urug'larining kichik bir tarmog'i Kelachi deb ataladi (Қораев, 1978).

Shuningdek, Navoiy viloyatining Konimex tumani, Marg'ilon shahrining mahallasida ham shunday joy nomlari mavjud bo'lib, u Kelachi etnonimi sifatida qayd etiladi.

KELES//KALAS – daryo. Sirdaryoning o'ng irmog'idir. Arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal asarlarida *Qalos* dashti, "Abdullanoma"da (XVI asr) *Kalas* suvi tilga olingan.

V.V. Bartold *Qalos* dashti hozirgi *Keles (Kalas)* nomi bilan atalgan deydi. *Qalos* dashti "Hudud ul-olam"da ham qayd qilingan.

Demak, dastlab *Qalos,* keyin *Qalas,* so'ngra *Kalas*, qozoq tili ta'sirida *Keles* bo'lib ketgan. Qozoq toponimisti Y. Qo'ychiboyev fikricha, *kele* – "til", *-s* esa "suv" so'zining qisqargan varianti: **Keles** – *"til suv", "uzun suv"* degani. Lekin bu atama *"kal"* va *"os"* (etnonim)dan birikkan gidronim, ya'ni "Oslar daryosi" ma'nosida ham bo'lishi mumkin.

KELITOSH – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tosh nomi. ***Keli o'g'ir*** so'zining dialektal varianti bo'lib, "*donni urib tuyish, ezib maydalash uchun ishlatiladigan ichi o'yiq g'o'ladan iborat ro'zg'or buyumi*" ma'nosini anglatadi.

Odatda keli yog'ochdan tayyorlanadi. Tog'da toshdan yasalgan ana shunday buyum bo'lganligi bois ***Kelitosh*** deb atalgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

KEMABOSHI – qishloq. Namangan viloyatining Norin tumani. *Kema*, eski o'zbek tilida – qayiq, *bosh* – kemaning bosh qismi, kamoni. Aftidan bu yer qayiqlar turar joyi bo'lgan.

KEMEREKQUM – Buxoro viloyatining Romitan hamda Jondor tumanlaridagi qumli cho'l nomi. Qizilqumning bir qismidir. ***Kampirduvol*** degan qadimiy mudofaa devori ***Kampirak*** deb atalgan. Kampirak qozoq tilida (bu yerda qozoqlar yashaydi) ***Kempirak*** va nihoyat, ***Kemirak*** bo'lib ketgan[1].

KEMEROSTI – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani. *Kemer* (qozoqcha), *kamar* (o'zbekcha) – g'or, *osti* – pasti, **Kemerosti** – "*g'or ostidagi*" ma'noni anglatadi.

KEMUXTGARON – Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi guzar nomi. Aslida, ***Kemuxt*** – "*charm*" deganidir. ***Kemuxtgar*** esa – "*charmgar*"[2] ma'nosidadir.

Shunday ekan, ***Kemuxtgaron*** – "*charm ishlab chiqaruvchi ustalar qishlog'i*" ma'nosini anglatadi.

KENAGAS – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq. Kenagas yirik o'zbek qabilalaridan biri. Asosan Shahrisabz tumanida yashashadi. Kenagaslar haqida ma'lumotlar juda kam.

Qashqadaryo vohasida yashovchi kenagaslar o'zlarini mang'it urug'ining bir tarmog'i ekanliklarini qayd qilishadi. Aytishlariga qaraganda, mang'itlardan ajralgan kenagaslar keyinchalik ularga qarshi tinimsiz kurash olib borganlar. Mang'itlar bilan uzoq vaqt davomida olib borilgan bu kurash haqida tarixiy manbalarda anchagina ma'lumot bor. Bu qarama-qarshilik rus istilolaridan so'ngina so'ndi.

Bu haqida P.P. Ivanov shunday yozadi: "Mang'itlarga qarshi turgan urug' Shahrisabz hududini egallagan kenagaslar bo'lib, ular o'z yerlarini mang'itlar hisobiga kengaytirishga harakat qilardilar. Amir Haydarning o'g'li va vorisi Nasrullo (1827–1860) davriga kelib, Shahrisabz vaqtincha ishg'ol qilindi, ammo shahrisabzlik kenagaslarning Buxoro amirlari tomonidan uzil-kesil bo'ysundirilishi 1870-yilgagina kelib chor qo'shinlari yordami bilan amalga oshirildi". Kenagas va mang'itlarning qarindoshligini mazkur qabilaga mansub kishilarning Qoraqalpog'istondagi hududiy geneologik aloqalari ham tasdiqlaydi.

Abulg'ozixon kenagas-mang'itlarni bir guruhga birlashtirgan edi. Kenagas boshliqlarining XV asrda Abulxayrxonni taxtga o'tqazishda qatnashgan yirik o'zbek qabilalari vakillari qatorida tilga olinishi ularning obro'si baland bo'lganligini ko'rsatadi. 35000 kishilik o'zbek kenagaslarining yarmidan ko'pi Shahrisabz vohasida yashashgan.

---

[1] Мухаммеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. -Т.: 1978.

[2] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. А – Н Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. – Душанбе. 2008, -С.608.

I.Yavorskiy ma'lumotiga ko'ra, Shahrisabz kenagaslari bir qator urug'larga bo'linib, ularning asosiylari beshta bo'lgan. Bular *qaysarali, taraqli, achamayli, chexut(chuyut), nonjemas, abaqlilardir* (ushbu ma'lumotlarni 1924-yil tadqiqotlari ham tasdiqlaydi). Taraqli urug'i qoraqalpoq-kenagaslari tarkibida ham uchraydi. O'zbeklarda Chuyut urug'i ham bor, biroq ular mang'itlar tarkibidadir. Manbalar Kenagas qabilasining *ochamayli, andas* (yana biri *kalpis*), *mosh* (avoqli urug'ining bir bo'limi), *temirchi, chiljuvut, ayronchi, boyli, bolg'ali, bo'gajili, ko'sa, qaychili urug'*lari ham borligini ko'rsatadi. Qozoq va qirg'iz qabilalari tarkibida kenagaslar yo'q.

Shuningdek, Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri ham Kenagas deb nomlanadi va u shunday izohlanadi: "O'zbeklarda Kenagas degan urug' bor va bu urug' vakillari bu joyda yashaganlar, shu sababli bu joylar Kenagas deb atalgan. Haqiqatan ham, shunday nomli urug' borligi ilmiy manbalarda qayd etiladi: Kenagas o'zbek qabilasi tarkibidagi Avaqli urug'i bo'linmasi" (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи. – Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Т., 1972. С. 17).

Kenagaslar Buxoro, Samarqand vohalarida, Farg'ona vodiysida va Afg'onistonning shimoliy qismida ham yashagan.

KENAGAS-MANG'IT – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bulung'urdagi qoraqalpoqlar rivoyatiga ko'ra, Kenagas va Mang'it aka-uka bo'lishgan. Mang'itlar (mo'g'ul manbalarida *mankgut, manxut, mankut*) Rashididdin asari va "Sirli qissa"da tez-tez tilga olinadigan qabila sanalgan. Chingizxon faoliyatining boshlanishi davrida mang'itlar qabilasi boshlig'i Xuildar o'z urug'i bilan Jamug'adan ajralib, Chingizga qo'shiladi. Kerayit xoni Van bilan muhorabada mankgut va uruut qabilalari jangchilari dushman hujumini qaytarishdagi jasurliklari tufayli ularning sardori Xuildar sechen (chechan) Chingizxonning hurmatiga sazovor bo'lgan. Keyinchalik mankgut va uruutlarning bir qismi Jedi noyon mingligi tarkibiga qo'shilgan. Aftidan, Jo'ji ulusida o'rinlashgan ushbu guruh mang'it nomini olgan qabilaning asosi bo'lib xizmat qilgan. O'zbek davlatchiligi tarixida mang'itlar katta rol o'ynaganlar. "Abulxayrxon tarixi" asarida qayd qilinishicha, 1428-yili birinchi o'zbek xoni Abulxayrxonning Tura shahridagi tantanalarida mang'it aslzodalari *qo'ng'irot, nayman* va boshqa qabilalar boshliqlari qatorida bo'lishgan.

Olimlarning aytishlariga ko'ra, mang'itlar Shayboniylar yurishlarida qatnashib, hozirgi O'zbekiston hududiga kelib o'rnashganlar. Mang'itlar asosan uch tarmoqqa bo'linadi: *oqmang'it, qoramang'it, to'qmang'it.*

Mang'itlar tarkibida *baqirchi, ko'la tamg'ali, mang'it qozoq, chovakchak,*

uz va boshqa urug'lar bo'lgan. Zarafshon vodiysida mang'itlarning *Qorabayir* urug'i ham qayd qilingan (Grebenkin, 1878). Mang'itlarning *oq mang'it* va *mirishkor* urug'lari tarkibida beklar nomli to'plari bo'lib, xalq ularni urug' deb hisoblagan (Nafasov, 1988: 30-31).

"*Mang'it*" so'zi etimologiyasi haqida bir qator fikrlar bor. Jumladan, "mankit" so'zi "*qalin o'rmon*" ma'nosida va o'zbek qabilasini bildirish uchun qo'llanganligi (Radlov, 1893–1911: 2020), "*mingat*" – *mingan* (mo'g'ulcha "*ming*") so'zidan kelib chiqqanligi singari izohlar uchraydi. Tilshunos olimlar mang'it atamasini atroflicha o'rganishib, buryat – mo'g'ulcha *myangaad – minglar – ming + at (lar)* so'zidan kelib chiqqan degan xulosaga kelganlar (Otajonova, 1987).

Mang'it, ming ikki qabila nomi bo'lsa ham, ularning ma'no va yaratilish prinsipi bir xil, aholi sonining miqdoriga nisbat etilgan (Nafasov, 1988).

O'rtabo'z mang'it (Bulung'ur), *Mang'itobod* (Urgut), *To'qboy, Temirxo'ja, Isaboy, O'naki* (Pastdarg'om) kabi toponimlar *mang'it qabilasi* va uning urug'lari bilan bog'liq.

KENJABOYQASHQA (Kashka Kenjabay) – Qashqa so'zi bir nechta ma'nolarni anglatadi. Tamtum qishlog'ida (Jizzax viloyatining Zomin tumani) *Qashayjul* toponimi ham mavjud. Avvaldan yashayotgan odamlarning so'zlariga ko'ra, Pirat ismli kishi bo'lib, uning laqabi Kashay edi. Bu odam tez-tez tepalik yonbag'rida o'tinni sudrab borardi, go'yoki bu shaxs sharafiga yo'l *Qashayjul* deb nomlangan. Bizningcha, hamma narsa aksincha bo'lishi kerak.

K.K.Yudaxin *qashqa jol – "tog'li, to'g'ri yo'l"* so'zi sifatida e'tirof etadi. Bizning misolimizda ham *qashayjul* dastlab *qashajo'l* bo'lgan va bizgacha ham buzuq shaklda yetib kelgan. Qashqadaryo daryosining nomi ham xalq etimologiyasining natijasidir, deb bilishadi. Ushbu xulosa akademik V.V.Bartoldning tadqiqotlaridan kelib chiqadi. Uning yozishicha, X asrda Kesh shahri (Shahrisabz) va shu hududdan oqib o'tadigan daryo atroflari *Keshk-rud* deb nomlangan va Temur tarixida **Xashqa** shakli topilgan. Demak, Qashqadaryo daryosi nomining evolutsiyasi quyidagi shaklda ifodalanishi mumkin: **Keshrud – Keshk-rud – Xashka-rud – Xashqadaryo** va nihoyat, **Qashqadaryo.**

Qashqa so'zining etimologiyasiga kelsak, E.M. Murzayev va G. Konkashpayev bu haqida yetarlicha yozishgan. Prof. K.K. Yudaxin bu so'zning o'ndan ortiq ma'nosini beradi. Qashqa etnonimi ham mavjud. "Tepalik" ma'nosidagi **qash** so'zi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda uchraydi (Э.М.Мурзаев. Словарь народных географических терминов. – М., 1984; Г.К.Конкашпаев. Казахские народные географические термины (Изв. АН Каз. ССР, серия географическая. – Алма-Ата, 1951; К.К.Юдахин. Киргизско-русский словарь. С. 203.)

KENJAYUZ – qishloq. Jizzax viloyatining Forish tumani. Qozoqlarga tutash hududlarda o'zbeklar ham juzga bo'linadi: *ulu (g') yuz (katta yuz), o'rta yuz* va *kenja yuz* (kichik yuz). Bizning kuzatuvimizni o'zbek etnografiyasining bilimdoni, tarix fanlari doktori B.X.Karmishevaning shaxsiy suhbati tasdiqladi.

KEPEOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanining "Otako'l", Chimboy tumanining "Tazg'ara", Qorao'zak tumanining "Qarshig'ali" OFY hududlarida shu nom bilan atalgan aholi punkti nomlari bor. Mazkur hududlar aholisining asosiy qismini qoraqalpoqlarning Ktay qabilasi Kepe urug'idan bo'lgan xalqlar tashkil qilganligi sababli ham shunday atalgan.

KERAGAS TOSH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi oykonim nomi. Ikki komponetli mikrooykonim. ***Kenagas*** leksemasi vaqt o'tishi bilan mahalliy aholi tilida ***Keragas*** shakliga o'tgan. ***Kenagas*** yirik o'zbek qabilalaridan birining nomi.

Bu nomdagi toponimlar Samarqand viloyatining Urgut tumanida, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida, shuningdek, Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida ham uchraydi [Z.Do'simov, X.Egamov 1977].

Demak, ***Kenagas*** urug'i vakillari tomonidan olib kelingan toshga nisbatan nomlangan mikrooykonimdir.

KERAY – turkiy va mo'g'ul tillariga mansub nom. Rashididdin *keray/kerey* so'zi **qora odam** ma'nosini anglatadi, deb izohlagan. Abulg'ozi Bahodirxonning izohiga ko'ra, *kerayit/kerait* etnonimining ma'nosi – **qora qo'y** (X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent, 1968). Har ikki izoh ham xalq etimologiyasi bo'lib, turkiy *qora/qara/gara* rang bildiruvchi so'z bilan etnonim etimoni *keray/kerey* leksemasi o'rtasida etimologik birlik mavjud, bir asosdan hosil bo'lgan, degan xalqona qarashdan paydo bo'lgan.

Rashididdinning yozishicha, bir hukmdorning yetti o'g'li bo'lgan, barchasi qora rangli bo'lgan, shu bois ularni *kerayit/kerait* deb atashgan. (Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн.1. –М. – Л.: 1952. – С. 128).

Hozirgi o'zbek tili va uning shevalarida kerayit etnonimining etimoni bo'lmish keray nomiga muqobil so'z yo'q. Qozoq tilida keray etnonimi mavjud.

Qozoq tilshunosi, toponimisti A.Abdirahmonov kerey etnonimi *ker* leksemasi va *-(ye)y* yasovchi qo'shimchasidan yasalganligini ta'kidlagan. **Ker** leksemasi qadimgi turkiy tilda *tog', qir, tog' tizmasi, tog' boshi, cho'qqi* ma'nolarni bildirishini aniqlagan (Abdurahmonov A. Qozog'iston etnotoponimikasi. – Алмати: Вилим, 1979). Bu talqinga asoslanilsa, *-(ye/a)y* qo'shimchasi mansublik ma'nosini bildirib, **kerey** etnonimi *tog'lik, tog'da yashovchi* ma'nosiga ega bo'ladi. Kerey etnonimiga qo'shilgan -t

qo'shimchasi jamoa, jamlik, kishilar uyushmasi ma'nosini bildirsa, kerayit etnonimi *tog'lik odamlar, tog'da yashovchi jamoa* ma'nosini anglatgan bo'lib chiqadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Tojikiston Respublikasida yashovchi o'zbek Laqaylari tarkibida ham Kerey urug'i borligi aniqlangan. (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976).

Qadimiy etnonimlarning yuzaga kelishida kishilar jamoasi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikki holat ko'proq e'tiborga olingan. Birinchisi – totem, qavm jamoasi uchun muqaddas sanalgan mavjudot. Ikkinchisi – qavm jamoasining tamg'asi. Etnik guruh va birlashmalarning nomlanishida ana shu ikki ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, insoniy, jamoaviy mezon asosiy tamoyil hisoblangan. Ana shu tamoyil asosida *-t/-d/-at/-it/-ot/-ut* qo'shimchali etnonimlarning genezisi, morfema tarkibi, til birliklarining tabiati va ma'nosi tahlil qilinsa, ko'pgina etnonimlarning etimoni bo'lmish leksemalar qadimgi xalqlarning totemi nomi ekanligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, **kerayit** etnonimining etimoni – *kerey/keray.*

Hozirgi mo'g'ul tilida **xereye(n)** – *qarg'a.* (Монгольско-русский словарь. – М., 1957). *Kerayit/kereyt/kireyt* qabilasining mo'g'ulcha shakli **xereyed** (Монгольско-русский словарь. – М.: 1957). **Xereyed** etnonimi *xereye (qarg'a)* leksemasi va *-d* jamlik qo'shimchasidan iborat. Turkiy *kerey/kirey/keray* va mo'g'ulcha *xereye* leksemalari bir etimonga ega. Bu leksemaning *gerey/girey/giray/geriy* fonetik varianti ham bo'lgan.

Buryat tilidagi ana shu fonetik variantning ham ma'nosi – *qarg'a.* Shu leksemadan buryatcha familiyalar yuzaga kelgan. Kerayit, kerey qabila, urug'larining nomlanishi ilk urug'chilik va undan oldingi ibtidoiy taraqqiyot davridagi totemistik tasavvur va qarashlar bilan bog'liq. Ibtidoiy jamiyatda kishilar guruhi tabiat va tevarak-atrofdagi mavjudot (hayvon, parranda, jonzot, o'simlik, tabiat unsurlari va boshqa narsa)lar bilan yaqin munosabatda bo'lganligi tufayli ularni muqaddaslashtirishgan. Muqaddaslashtirilgan narsalar jamoasining yaqin mavjudoti yo narsasi deb bilib, totemiga – sig'inadigan narsasiga aylantirishgan, ular bilan qarindoshlik munosabati o'rnatishga intilganlar.

Har bir jamoaning o'z totemi bo'lgan, totem uchun, asosan, hayvonlar, parrandalar, turli jonivorlar tanlangan. Totem tasviri jamoaning tug'i-bayrog'iga tushirilgan. Shu tasvir va totem nomi davrlar o'tishi bilan jamoaning, urug' yo qabilaning nomiga aylangan.

Bu ibtidoiy, ijtimoiy, lisoniy jarayon ko'pgina qadimiy turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlarining yaratilishida asosiy motiv bo'lib xizmat qilgan.

Quyidagi mavjudotlar totem vazifasini bajarganligini o'zbek etnonimlari isbotlaydi.

1. Hayvonlar: *avjin, uychi* (uy – sigir), *boybo'ri* (bo'ri), *chinoz* (chin – bo'ri), *barlos* (bars – yo'lbars), *kiyikchi* (kiyik), *sariq* (sariq – qo'y), *toyloq* (tuya bolasi), *bag'ish* (bug'u), *yobu* (yobi – ot turi), *no'g'ay* (it), *tulkichi* (tulki), *to'pichoq* (ot), *qoraqursoq* (chiyabo'ri), *qo'chqorbuloq* (qo'chqor bo'luk), *kaltatoy* (ot turi), *qorabura* (tuya turi), *bo'ka, buqa, olchin, guvalak* (ko'palak), *tuyachi, esat* (sher), *quyin, qo'yli, qo'zichi, qo'zi, qo'chqor* (K.Sh.Marqayev. O'zbek etnonimlarining lisoniy tadqiqi. Filologiya f.n. diss. avtoref. – T.: 2007).

2. Qushlar, parrandalar: *burqut* (burgut), *kerayit, kerey* (qarg'a), *to'g'on* (lochin), *qarg'a, boyli* (qush turi), *bahrin* (yirtqich qush, lochin turi), *kojar* (qachur – burgut turi), *jovli* (chovli – lochin turi), *chuvalay, to'lg'a* (to'rg'ay), *chavgan* (lochin), *lochin, qamay* (qabay – humo qushi), *qovchin* (qov – oqqush), *qaychi, irg'oqli* (qush turi), *qoraqush, quchchi* (qushchi), *yomon* (qush turi), *ossaroy* (os – qush turi), *yilqichi* (yilqi – qush turi) (K.Sh. Marqayev. O'zbek etnonimlarining lisoniy tadqiqi. Filologiya f.n. diss. avtoref. – T.: 2007).

3. Jonivorlar: *ilonli/ilonchi, qoramo'rcha, uyaz* (chivin), *o'nikki* (enaka – toshbaqa), *qirqoyoq*. Shuni ta'kidlash joizki, *-t/-d/-at/-it/-ot/-ut* qo'shimchali etnonimlarning etimoni bo'lmish leksemalar ham ma'lum bir hayvon yo qushlarning nomini bildirgan. Davrlar o'tishi bilan etnonimning fonetik va morfemik tarkibi o'zgarib, etimon asosi bilan qo'shimcha chegarasini aniqlash qiyin bo'lib qolgan (K.Sh.Marqayev. O'zbek etnonimlarining lisoniy tadqiqi. Filologiya f.n. diss. avtoref. – T.: 2007).

Turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bir qancha etnonimlar asosidagi leksemalar turli mavjudotlarning nomidir: *bayot/boyot, boyovut, boyli, boyqush/boyg'ut* etnonimlari asosidagi *boy* leksemasi qush turini anglatadi. *Qiyat/qiyot, sayat/sayyot, kerayit, qo'ng'irot* qabilalari nomlari etimoni *qiy (qiyg'ir/qirg'iy), say, kerey* leksemalari ham qush turi nomidir. *Esat* etnonimi asosidagi leksemaning ma'nosi – *sher, arslon*.

O'zbek tili etnonimi va etnonimiyasi til tarixining, dunyoqarashlar va falsafiy, madaniy-ma'rifiy tafakkur kechmishining nodir xazinasi va namunasi. Qiyosiy-tarixiy usul etnonimlarda zuhurlangan lisoniy, falsafiy, diniy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganish va tahlil etishning yagona usuli. Kerayit etnonimi o'zbek, umuman turkiy xalqlarning eng ibtidoiy lisoniy birligi sifatida, tarix va falsafiy qarashlar birligi sifatida tadqiqqa arziydigan so'zdir, o'zbek tilidagi nominatsiya va motivatsiyaning o'zgaruvchanligini, bu jarayonning xalq hayoti bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi dalildir.

KERAYIT – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Kerayitlar o'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan yirik etnik guruhlardan biridir. *Kerayit, kerey,*

kareit, kirey deb yuritiluvchi etnonim qozoq, qirg'iz, oltoy, tuva, boshqird, no'g'ay, buryat, mo'g'ul xalqlari tarkibida uchraydi.

Kerey etnonimi o'zbek va qoraqalpoqlar tarkibida kuzatiladi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot arisi(tarmog'i) da ashamayli urug'i bor. Ashamayli, ochamaylilar o'zbek-qo'ng'irotlari tarkibida ham mavjud. O'zbek-laqaylarning Esanxo'ja urug'ida Oqsari tarmog'i bo'lib, bu qozoq-kereylarning urug'laridan biridir. Bu holat harbiy yurishlarda kereylarning bir qismi Movarounnahrga ko'chib kelib, bu yerdagi aholi bilan aralashib ketganligini ko'rsatadi.

Kerey qabilasi ikki asosiy urug' – *Ashamayli* va *Abaqqa* bo'linadi. Ashamaylilar XIII asrda G'arbiy Oltoydan Irtishning quyi oqimi bo'ylab va undan g'arb tomon siljigan, Abaqlar esa o'z yerlarida – janubi-g'arbiy Oltoy, Qora Irtish, Kenderli daryosi vodiysi va Saur tog'larining janubi-sharqiy yonbag'irlarida yashab qolgan. Ashamayli etnonimi "Tuya egari shaklidagi (X) tamg'a (ashamay)" nomi bilan bog'liq. Ashamaylilarning asosiy urug'lari Oqsari va Ko'rsari hisoblanadi. Kereylar o'rta asrlarda (X–XI), mo'g'ullarga qadar o'z davlatiga ega bo'lganlar va buyuk Xitoy devoridan boshlab Onon, Qurilen daryolari, Dolon tog'lari, Dalaynor ko'li, Arg'un daryosi sohillari bo'ylab katta hududda yashaganlar.

Mo'g'ullarning jabri tufayli (XII asr) kerayit qabilasi o'z ona yurtidan ko'chishga majbur bo'lgan. Bir qismi Oltoyda qolgan. Kereyitlarning ma'lum qismi XIV asrda Dashti Qipchoq o'zbek qabilalariga qo'shilgan, keyinchalik ular bilan birgalikda Sharqqa qarab yurish qilgan.

Hozirgi O'zbekiston hududiga ular XV–XVI asrlarda kelib o'rnashganlar. Kerey etnonimi va bu nom bilan ataluvchi qabilaning kelib chiqishi haqida fikr yuritgan. N.Aristov, X.Xovorslar ularni turkiy tilli etnik guruhga mansub deb ko'rsatsalar, V.V.Bartold kereylar mo'g'ullardan bo'lgan, deb hisoblaydi.

Rashididdin "kerey" so'zining etimologiyasi haqida to'xtalib, qadimgi davrda bir podshoning yettita (sakkizta) o'g'li bo'lganligi va ularning hammalari qora bo'lganligi uchun kereyitlar deb atashganligini yozadi. Uning aytishiga ko'ra, *"kerayit"* so'zining ma'nosi *"qora odam "*. Ushbu so'zning *"qora quy"* degan talqini ham bor.

Venger olimi Y.Nemet o'zining "Kereyit, kerey, giroy" nomli maqolasida *kerey* atamasi vengercha *"ker"* hamda turkiycha "ker" (*yuqori, yuksaluvchi*) so'zlaridan olinganligini yozadi. Vengerlar ichida *"ker"* deb nomlanuvchi toifa ham bor. A.Abdurahmonov ham *ker* so'zi qadimgi turkiy tillarda *"tog'"*, *"qir"*, *"tog' tizmasi"*, *"tog' boshi"* kabi ma'nolarda qo'llanganligiga bir necha tarixiy lisoniy dalillar keltiradi.

Biroq ko'pchilik olimlar mo'g'ullarning kirey (kireyit, kereyit) qabilasi nomi *"qarg'a"* ma'nosidagi *kerey* so'zidandir, deb izohlaganlar. Kereyit qabilasining mo'g'ulcha nomi xe-

reyed. Demak, kerayit etnonimi mo'g'ulcha "qarg'a" totem nomidan kelib chiqqan bo'lib, kerey – "qarg'a", -t affiksi esa ko'plik ma'nosini bildiruvchi "*lar*" qo'shimchasidir (Otajonova, 1987). Hozirgi paytda o'zini kerayit deb hisoblovchi etnik guruh o'zbeklar orasida uchramaydi. Ular mang'it, saroy, kenagas va boshqa qabilalar tarkibiga qo'shilib, qorishib ketganlar.

Kerayit O'zbekiston Respublikasi hududida ko'p tarqalgan so'z. Barcha tumanlarda, asosan, qishloq nomi sifatida uchraydi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Koson, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Qamashi, Kasbi tumanlarida Kerayit qishlog'i bor. Viloyat hududida Kerayit degan mahalla, guzarlar ham bor. Yakkabog' tumanida bir tepaning nomi – Kerayittepa. Sho'rolar tuzumi davrida Kitob va Shahrisabz tumanlarida Kerayit qishloqlari nomi tuman, viloyat ma'muriyati tomonidan rasmiy tarzda o'zgartirilgan: Kerayit – Keldihayot (Kitob tumani). Kerayit – Kelhayit (Shahrisabz). Bu nomlar yirik qishloqlar nomi bo'lganligi sababli Keldihayot, Kelhayit tarzida "O'zbek sovet ensiklopediyasi"ga kiritilgan (Ўзбек совет энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: – В. 425, 428).

Qishloq nomini almashtirishda nom asosidagi so'zning ma'nosi tushunarli emasligi, o'zbek tilining o'tmishi va hozirgi holatidagi so'zlarga o'xshamasligi, boshqa tillardagi (tojikcha) so'zlarga o'xshashligi kabi tamoyillarni asos qilib olishgan. Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli, Beruniy tumanlarida Kerayit, Karit, Karayit, Qo'ng'irot, Amudaryo tumanlarida Karitovul etnotoponimlari mavjud (Atajonova A. Xorazm etnotoponimlari. – T.: Fan, 1997).

O'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy qabilalardan biri – kerayit. Qozoq, qirg'iz, oltoy, tuva, boshqird, no'g'ay kabi turkiy xalqlarning ham kereyit, kerayit, kereyit qabilasi bo'lgan. Buryatlarning ham *kerey /kirey/ kireyit* qabilasi mavjud. Bu qabilaning mo'g'ulcha nomi *xereyed*, xuddi shu nomdagi qabila mo'g'ul xalqi tarkibiga kirgan. (Монгольско-русский словарь. – М.: 1957).

Ma'lum bo'ladiki, bu qabila turli tovush qiyofasida turkiy va mo'g'ul xalqlari va tillari o'tmishiga mansub. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, kerayitlar o'rta asrlar (X–XI asrlar)da Mo'g'ulistonning Onon, Kerulen daryolarining boshida, Tula daryosi bo'ylarida yashagan. (Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. 1, кн.1. – М. – Л.: 1952).

Kerayitlar yaqin o'tmishda etnik birlik sifatida mavjudligini saqlab qololmagan. Ular iqtisodiy, ma'naviy yaqin munosabatda bo'lgan *saroy, mang'it, qo'ng'irot, kenagas* va boshqa etnik birliklar tarkibiga qo'shilib, singishib ketgan. Kerayit nomli qishloq, mahalla va ularning atrofida yashovchilar hozir o'zlari va ajdodlarini kerayit qabilasiga mansub qavm deb hisoblashmaydi, ular etnik mansubliklarini unutishgan. Kerayit etnonimi turkiy va mo'g'ul tillarining Oltoy (davri ma'lum emas) davriga mansub

lug'aviy birlikdir. Etnonimning etimoni *keray* leksemasidir, *-it* qo'shimchasi etnik qavm (urug', qabila) nomlarida *jamlik, to'da, to'p, guruh* ma'nolarini anglatgan.

Turkiy qadimiy bir qancha etnonimlar tarkibida *-t/-d/-it/-at/-ot/-ut* qo'shimchasining takrorlanishi etnik qavmlarning nomlanishi oltoy tili davrida yuz berganligini ko'rsatadi: *boshqirt /boshqird, arlot/orlot, bayot/boyot, boyovut, obot/ovot, qiyat/qiyot, sayot/sayyot, esat/usat/o'sat, o'smat, burqut/burg'ut, o'ymovut/uymovut, mang'it, makrit, mesit/masit, dug'lat/duvlat, chubat/chibat (yuz qabilasining urug'i), boyqut/boyg'ut, juyrat, chuyut, chiljuvut, qo'ng'irot, o'ng'ut/o'ngat* va boshqalar. Boshqa turkiy xalqlarda ham bu qo'shimcha bilan yasalgan etnonimlar mavjud.

Ozarbayjonlarda *sukait, kingit, juryat, munit, gurt, obot/avat, tangut, uryat, o'ngut, uyrat* etnik birliklari bo'lgan. G.A. Geybullayev bu etnonimlarni turkiy-mo'g'ul xalqlariga mansub umumiy etnonimlar deb atagan. (Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. – Баку: Элм, 1986).

Qirg'iz xalqining qabila, urug'lari: *abat/avat, bargut/burgut, g'ilat, duulat, darxat, irkit, yomut, kerayit, kilet, kongurat, albat/almat, mang'it, seyit, teyit, chal-teyit, sari teyit, olxonut, noigut, tunkait, merkit, torgut, chiljubut* (С.М.Абрамзон. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л.: Наука, 1971).

Ayrim turkiy xalqlar nomi ham bu qo'shimcha bilan yasalgan: *yoqut, boshqird(t), uyrat.* Barcha etnonimlardagi qo'shimcha so'z yasash vazifasini bajargan, ma'lum bir qavmga mansub kishilar jamoasi ma'nosini anglatgan. Kerayit etnonimining yaralishida ham ana shu jarayon yuz bergan.

KERIZ – Jizzax viloyatining Zomin tumani, Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi qishloq nomi. *Keriz* (qozoqcha) – qoyalikdagi quduqlarni bir-biriga bog'laydigan va suv yuzasiga chiqadigan yerosti galereyalari – *tonnellari* (forscha va o'zbekcha talaffuzida *qoriz*)dir.

KEROVCHI – qishloq. Toshkent viloyatining Piskent tumani. *Kerovchi* (kereuchi) qurama o'zbeklar tarkibidagi urug'lardan biri sanaladi. Urug' vakillari, asosan, Toshkent vohasida yashagan.

KESAK – Andijon viloyatining Andijon, Jalaquduq tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Kesakli* – Buxoro viloyatining Olot tumani. *Kesek* – turkiy xalqlar (qirg'izlar, qozoqlar, o'zbeklar va boshqalar) orasida keng tarqalgan etnonim. Boshqirdlar va vengerlar *kese* etnonimiga ega. Venger olimi, akademik D. Nemetning fikrlariga ko'ra, **kese**(k) – *"naslning ajratuvchi qismi"* degan ma'noni anglatadi (Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа. С. 272).

Qirg'izlarning ichkilik guruhida *kesek, jookesek,* qozoqlarda *qorakesak, qoraul kesak,* xakaslarda *kezeget,*

tuvalarda *kezek-xuular, kezek soyan,* boshqirdlarda *kese-tabin,* turkmanlarda *olti kesek,* o'zbeklarda *mirzokesak, mullakesak* urug'lari bo'lgan.

Kesek // kisek // kesik // kesak etnonimining ma'nosi "bo'lak", "parcha", "urug'larning bo'lingan, kesilgan parchasi" demakdir.

Bundan tashqari, mazkur tumanda *kesak* leksemasi bilan yasalgan *Yovkesak* hamda Farg'ona viloyatining Quva tumanida *Kessaklar* etnotoponimlari mavjud. Jalaquduq tumanidagi *Yovkesak* etnotoponimi ham qirg'izlarning ichkilik guruhidagi *jookesek (joo – "yov", "dushman" + kesek)* urug'i nomi asosida paydo bo'lgan.

KESAKLI – Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Kesak ("kesik", "qism")* – urug'ning nomi. O'zbeklar tarkibiga kirgan qoraqalpoqlarning qabilaviy birlashmalari tarkibida Qorakesak turkumi qayd etilgan. Qorakesak etnonimi qozoqlarda ham bor. *Mollo-kesak* va *mirza-kesek* urug'lari o'zbek qabilasi tukli tarkibiga kirgan (А.Д.Гребенкин. Узбеки. –С. 69, 70).

Qirg'izlarda *kesek* va *jooeksek* qabilalari bo'lgan. "Balki qozoqlar va o'zbeklar–qipchoqlarning qirg'iz etnonimi Kesek va Qora-kesek o'tmishda genetik jihatdan bog'liq bo'lgan" (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 130).

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida *Kiyanni* qabilasining bir qismi sifatida *baylarkesak* avlodi qayd etilgan.

KESOVLI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponimni tashkil etuvchi ***"kasovli // kesovli"*** so'zi urug' nomidir [Z.Ziyotov, 83], qo'ng'irot qabilasining bir shoxobchasi ***kasovli // kesovli*** deb atalgan, bu urug'ning tamg'asi kasov // kesovga o'xshash bo'lgan [S.Qorayev. 1, 66; Z.Ziyotov, 83; S.Qorayev. 2, 115].

Shunga binoan bu mikrotoponimni kesovli urug'i vakillari istiqomat qiladigan joy, qishloq, deb izohlash mumkin. Ammo mazkur toponimining birinchi qismidagi **kes** komponenti sug'd tilida *"atrofi devor bilan o'ralgan joy, qal'a"* degan ma'noni ifodalaydi.

Shunday ekan, ***Kesovul*** toponimini *"atrofi devor bilan o'ralgan ovul"*, deb izohlash ham mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Kesovul komonimini ot (qa'la) + ovul topoleksemasi birikuvidan hosil bo'lgan deb ham izohlash mumkin.

KETMONTEPA – Qirg'izistonning Namangan viloyatiga chegaradosh shahri. Nomdagi **"ketmon"** tojikcha **"kadmand"** so'zining talaffuzda buzilgan ko'rinishi bo'lib, *"xaroba", "vayrona"* ma'nolarini anglatadi.

Akademik V.V.Bartoldning fikricha, shimoli-sharqiy Farg'onadagi qadimiy Xaylam shahrining o'rni shu yerdadir. Ushbu joy tarixiy shahar o'rni bo'lgani uchun izoh berdik. Toshkentning Quyi Chirchiq tumanida ham Ketmontepa nomidagi qishloq bor.

KESH – shahar. Zamonaviy Shahrisabz (Qashqadaryo viloyati). "Yana bir tuman (Samarqandga qarashli) – Kesh; u Samarqandning janubida, yo'lning to'qqiz chaqirimida joylashgan. Dashtlar (atrofda) Kesha va shaharning o'zi, uning tomlari va devorlari chiroyli gullar bilan qoplangan; shuning uchun u Shahrisabz deb ham yuritiladi (Бабур-наме, – Т., 1958).

Bu yerda ruscha tarjimada bitta so'z: "*bahorda*" so'zi tushirilgan. Biz uni joylashtiramiz va o'qiymiz; "Dashtlar (atrofida) Kesha va shaharning o'zi, uning tomlari va devorlari bahorda gullar bilan qoplangan. Shu yerdan shaharning nomi: "*yashil shahar*". Barcha ehtimollar bilan **Kesh** ilgari **Kash** deb talaffuz qilingan yoki uning epiteti **Kashi dilkash** – "*Jozibali Kash*" edi. Olimlarning fikriga ko'ra, ilk o'rta asrda Kesh shahri o'zining geografik holatiga ko'ra zamonaviy Shahrisabz shahriga to'liq mos kelmaydi.

Ushbu shaharni o'rgangan professor M.E. Masson bu shahar XIII asrdan ilgari paydo bo'lgan, deb hisoblaydi va Kesh shahri taxminan Kitob shahri yaqinida joylashgan. Biroq uning qadimgi nomi uzoq vaqt davomida yangi shaharga munosabatida qo'llanilgan va ayniqsa, uning sohasida ishlatilib kelingan (Е.М.Массон, Г.А.Пугаченкова. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке. – Труды САГУ. Вып. XI. Гуманитарные науки. Книга 6; Археология Средней Азии. – Ташкент. 1953).

KECHQO'NOQ – Buxoro viloyatidagi qishloq nomi bo'lib, turkiycha "*kechki mehmon*" ma'nosini bildiradi. Biror joyga, biror kimsaning uyiga qo'ngan, tushgan yo'lovchi – "*qo'noq*", ya'ni mehmon termini ostida ifoda etilgan. Bunga yaqin "*qo'nalg'a*" atamasi esa qushlar qo'nib dam oladigan joyga nisbatan qo'llanilgan. "***Qo'noq***" terminining umumiy ma'nosi "*boshpana, panajoy*" demakdir. Qoraqalpoqlarda ham aynan shu ma'noda qo'llaniladi.

Shuningdek, qo'ng'irboshlilar oilasiga mansub boshoqli bir yillik o'simlik hamda g'alla va yem-xashak ekini ham qo'noq deyilgan. Yuqoridagi barcha tushunchalarni Kechqo'noq toponimiga joriy qilish mumkin.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda qushlar, tovuqlar qo'nadigan dor ham qo'noq deyilgan.

Mazkur toponim yuzasidan boshqa mulohazalar ham mavjud. Unga ko'ra, toponimning asl shakli turkmancha "gechqo'noq" bo'lib, gechchilar, ya'ni echkilar kech bo'lganda tunaydigan joy ma'nosini anglatadi. Ushbu hududda istiqomat qilgan aholi tarkibida turkman etnik guruhi salmog'ining yuqoriligi bu fikrda jon borligini tasdiqlaydi. Biroq bizningcha, bu faraz o'zini oqlamaydi va aslida, mazkur so'z ostida mehmon tushunchasi yotadi.

Umuman, qo'naq termini Qoraqalpog'iston Respublikasida bugungi kunda ham mehmon ma'nosida keng qo'llaniladi.

Shunday ekan, mazkur toponimning ma'nosi kechki mehmon degani haqiqatdir.

KIGIZCHILIK – Andijon viloyatining Andijon shahridagi eski mahalla nomi. Qadimdan Andijon shahrida turli hunarmandchilik rivojlanib, kigiz (namat) bosadigan hunarmandlar o'z mahallalarini tashkil qilib yashaganlar. Jundan (asosan qo'y junidan) kigiz (namat) bosadiganlar ham o'z mahallasini tashkil qilgan. Shuningdek, Farg'ona viloyatining Toshloq tumanida ham Kigizchi qishlog'i bor.

KILDON – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Kildan (Kildon) – yuz o'zbek qabilasining bo'linmasi hisoblanadi.

KILDONARIQ – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi ariq nomi. Kildon nomli qishloq ham bor. Xitoyzi urug'ining bir bo'limi *Kildon (keldon)* deb ataladi.

KIRAKASHXONA – qishloq. Buxoro viloyati Kogon tumani. *Kirakash* – *"vagon savdosi bilan shug'ullanadigan shaxs"* deb sanalsa, *kirakashxona* – *"kirakashlar turadigan xona"* ma'nosini anglatadi.

KITOB – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Kitob dastlab shahar nomi bo'lgan, keyin tuman ham shu nom bilan atalgan. Tuman nomining bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi va tarbiya quroli bo'lgan kitobga aloqasi yo'q.

Ayrim toponimik adabiyotlarda tuman nomiga tojikcha *kitf* – "yelka" va *ob* – "suv" so'zlari asos bo'lgan, deyilgan. Shahar atrofidagi baland Hisor va Zarafshon tog'lari suv ayirg'ich vazifasini bajarganligi uchun, shaharga Kitfiob nomi berilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik, joy nomlarining tejalish qonuniyatiga ko'ra, nom Kitob shakliga o'zgargan.

T.Nafasov yozishicha, shahar Oqdaryo qirg'og'ida joylashgan va uning qadimiy nomi Katob. U sug'dcha so'z bo'lib, *kat – "qo'rg'on, qishloq"* demakdir. Bu so'zning so'nggi ma'nosi qishloq, shahar. **Katob** – *"daryo bo'yidagi qo'rg'on yoki suv bo'yidagi qishloq, shahar"* ma'nosini anglatgan.

KIYIKCHIOVUL – Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi qishloq. O'zbeklar tarkibidagi Kesamir, Mang'it, Qo'ng'irot qabilalari orasida *Kiyikchi* (kiyik – tog' echkisi) urug'i bo'lib, qishloq shuning uchun ham shunday atalgan.

KICHIK BESHRABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Beshrabot* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Kichik Beshrabot* deb o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi uchta so'z – *kichik, besh* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *kichik* so'zi qishloqning en va bo'y ko'lami unchalik keng emasligini, maydoni *katta* komponentli qishloqqa nisbatan kichikroq ekanligini bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *besh* so'zi sonni, 5 raqamini bildiradi. Uning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, **Kichik Beshrabot** – *"beshta kichikroq qo'rg'on"* yoki *"beshta kichikroq turarjoy"* degan ma'nolarni anglatadi.

KICHIK OQMACHIT – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Bu nomlar ham toponimikaning nisbat qonuniga asosan yaratilgan. Bunday nomlardan *Kichik Beshkapa, Kichik Turk, Kichik Kenagas, Kichik Tagob* kabilarni keltirish mumkin.

KICHIK QUMRABOT – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq. Qishloq 2006-yilga qadar *Qumrabot* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Kichik Qumrabot* nomiga o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi uchta so'z – *kichik, qum* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *kichik* so'zi *"katta bo'lmagan"* degan ma'noni bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *qum* so'zi esa qattiq minerallar va tog' jinslarining sochiluvchan mayda donachalarini bildiradi. Ba'zan, *qum* termini *qumli cho'l* ma'nosida ham ishlatiladi. Apellyativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, **Kichik Qumrabot** – *"qumlikdagi kichikroq qo'rg'on"* ma'nosini ifodalaydi.

KICHIK SAROY – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Saroy* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Kichik Saroy* deb o'zgartirilgan.

Toponimning asosini tashkil qilgan *saroy* so'zi urug' nomi, etnonim. 92 bovli o'zbek qavmlaridan biri *saroy* deb atalgan. Bu qabila vakillari, asosan, Zarafshon vodiysi, Jizzax hamda Andijon viloyatlarida yashagan. X.Doniyorovning ma'lumotlariga ko'ra, saroy qabilasining *chemsaroy, qo'ng'irotsaroy, jomonsaroy, chirg'izsaroy, mojorsaroy, oltintamg'alisaroy, qipchoqsaroy, jolong'ochsaroy (yalang'ochsaroy)* kabi tarmoqlari bor.

Demak, **Kichik Saroy** – *"saroy urug'i vakillari yashaydigan kichikroq qishloq"* ma'nosini anglatadi.

KICHIKKO'RPA – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi joy nomi. Ko'rpali urug'i nomi bilan atalgan.

M.Koshg'ariyning qayd qilishicha, *ko'rpa* so'zi *"barra o't", "yosh bola", "qo'zichoq", "uloqcha", "buzoqcha"* ma'nolarini anglatgan. Ko'rpa so'zining ko'pgina ma'nolari unutilgan. Lekin ba'zi joylarda barra bedani *"ko'rpa bo'lib qolibdi"* deyishadi. Urug'lar ko'pincha hayvon nomlari bilan atalishini hisobga olsak, **ko'rpa** etnonimi *"qo'zichoq"* degan ma'noni bildiradi. Akad. V.V. Radlov lug'atida **ko'rpa** so'zining *"kepak"* ma'nosi keltiriladi (Qorayev, 1978).

Shuni ta'kidlash joizki, Kattaqo'rg'on tumanidagi *Mullako'rpa*, Jizzax viloyatidagi *Ko'rpasoy* kabi toponimlar ham bir asosdan paydo bo'lgan.

KODAGCHASHMA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi gidronim (G'o's qishlog'i). Kodag dialektal so'z, bir tomoni ochiq, uch tomoni tog' bilan o'ralgan joy. Bunday joylarda yovvoyi hayvonlar hujumidan

saqlanish mumkin. Tog'da mollar ko'proq kodaglarda boqiladi. **Kodagchashma** gidronimi **kodagdagi,** ya'ni *"himoya joydagi chashma, buloq"* ma'nosini anglatadi.

KOGON – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi asosan tekisliklardan iborat. XIX asr oxirida (1888) Kaspiyorti (Krasnovodsk – Toshkent) temir yo'li qurilgandan keyin, shahar Buxoroning asosiy temiryo'l stansiyasiga aylangan va unga Yangi Buxoro nomi berilgan. 1935-yildan buyon shahar yana avvalgi nomi bilan Kogon deb ataladi. Aholisining aksari qismi hozir ham temiryo'l transportida ishlaydi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, ilgari Kogonda yirik somon bozori bo'lgan. Shahar nomining kelib chiqishi ham shu bozor nomi bilan bog'liq, degan taxminlar mavjud. Shundan kelib chiqib, *"kohkon"* (tojikcha *koh* – *"somon"*), ya'ni *"somon ko'p joy"* so'zi shahar nomiga asos bo'lgan, deyish haqiqatga yaqinroq. Keyinchalik bu nom o'zgarib, Kogonga aylangan bo'lishi mumkin.

Mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra, avvallari qishloq hududida gazlamaga gul bosuvchi kishilar yashagan. Qishloq nomiga qadimda shu yerda yashagan mahalliy aholining kasbkori asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

KOFIRQAL'A – Qadimgi Fay (Pay) shahrining xarobasi o'rni bo'lgan tepalik. Ushbu shahar yirik magistral kanal – Narpay (Nahri Pay)ning nomlanishiga sabab bo'lgan.

Tabariy Sug'dda 720-yilda yuz bergan voqealar haqida hikoya qilar ekan, Fay shahri maligi (hokimi) Turkxoqon haqida to'xtalib, u o'zining 300 kishilik qo'shini bilan arab lashkarboshisi Musayyib ibn Bishrga kelib qo'shilganligini ta'kidlaydi.

Bundan ko'rinadiki, Fay shahri o'rta asr Sug'di tarixida yirik mavqega ega bo'lgan markazlardan biri bo'lgan. Samarqand shahridan 12 km masofada Darg'om kanali bo'yida yana bir qadimiy yodgorlik – Kofirqal'a tepaligi bor. Arxeologlar mazkur yodgorlikning V–VII asrlarga oidligini aniqlashgan. Har holda Samarqand viloyatida "kofir" termini ishtirok etgan geografik nomlar anchagina bo'lib, ular xalq rivoyatlari bilan chambarchas bog'liq.

V.V.Bartold X asr Buxoro tarixchisi Narshaxiy *koh* so'zini *"qasr"* ma'nosida qo'llaganini ta'kidlab, *pir-fir* va uning variantlari *par-vara-pur* so'zlarining genezisi *bir – "devor, to'siq"* ma'nosida ekanligini qayd qilgan. *Koh+i+pir-fir/kohipir-ko:pir-kopir-kofir – "Tevaragi devor bilan o'ralgan qo'rg'on (qasr)". "Qal'a"* ma'no jihatdan *"koh"* so'ziga teng, u X asrdan so'ng qo'shilgan. *Kohpir* tarkibidagi *koh* komponentining ma'nosi unutilgach, shu ma'nodagi *qal'a* so'zi kiritilgan (Nafasov, 1988: 101).

KOFURRABOT – Buxoro shahrining guzari. Bu nom *"kamfur (kofur) savdogarlari karvonsaroyi"* degan ma'noni anglatadi.

Ba'zi buxoroliklar daha nomini "*kofirlarning raboti*" deb tushuntirishga harakat qiladilar (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 143).

KOM – ariq. Buxorodagi mahalliy termin. **Komi Zar**, **Shapurkom** toponimlar va boshqalar shular jumlasidandir, biroq mazkur termin chuqurroq lisoniy, etimologik tahlilni talab qiladi.

KOMDE – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Mahalliy aholi o'choqlari ko'p bo'lganligidan shunday atalgan deb hisoblaydi.

Toponim aslida *Komideh* deb atalgan. Keyinchalik fonetik o'zgarishga uchrab, hozirgi holatga kelib qolgan. Apellyativning birinchi komponenti – *kom* so'zi tojikcha so'z bo'lib, aslida, *"og'iz"* degan ma'noni bildiradi.

Ammo bu so'zning *"katta ariq"* ma'nosi Buxoro toponimiyasi uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki viloyatdagi aksariyat joy nomlari tarkibida bu so'z ayni shu ma'noda, ya'ni *"katta ariq"* ma'nosida keladi. Akademik V.V.Bartold mazkur termin to'g'risida fikr yurita turib, *"kom* so'zi umumforsiy *jo'y* so'ziga nisbatan kattaroq kanallarni bildiradi", – deb yozadi. Uning ikkinchi komponenti – *deh* so'zi esa *"qishloq"* ma'nosini anglatadi.

Demak, **Komde** toponimi – *"katta ariq bo'yidagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

KOMOT – Buxoro viloyatining Vobkent shahri va tumanining tarixiy nomi. Aslida, ***kom*** termini Buxoroda *"katta ariq"* ma'nosida qo'llanilgan va hozirda shu ma'noni ifodalaydi.

KONIGIL – Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Xususan, **Kon-i gil** – *"loy koni"* dir. Bu qishloqdan unchalik uzoq bo'lmagan joyda, bizning davrimizning boshidanoq sopol idishda ishlatiladigan loy, oq qum, qizil loy, sariq loy va boshqa loy turlari qazib olingan.

Temuriylar davrida keng tanilgan bu tekislik haqida birinchi marta Temur va Bobur tarixida so'z yuritilgan. "Samarqand atrofida chiroyli o'troqzorlar joylashgan. Bitta mashhur (o'lang) – Kanigil o'troqzoridir, u Samarqanddan sharqqa cho'zilib, biroz shimolga egilib, bitta sheriga (taxminan 2 km) cho'zilgan. Obi Rahmat deb ham nomlangan ariq Konigilning o'rtasidan oqadi, suv u yerda yetti yoki sakkizta tegirmon bo'ladi. Ushbu soyning qirg'oqlari butunlay botqoqlikdir. Samarqandlik sultonlar uni har doim qo'riqxona deb e'lon qiladilar, ular har yili bu o'tloqqa borib, bir-ikki oy yashab ham kelardilar" (Бабурнаме. – Ташкент, 1958).

Boburning so'zlaridan ushbu so'zning etimologiyasi (**lang** – so'zma-so'z *"maysazor"*) ekanligi ko'rinib turibdi, soy qirg'oqlari botqoqlikdir. Forschada *gil* so'zi *"loy"* degan ma'noni anglatadi. **Konigil** – *loydan, botqoqlardan iborat joy*ni bildiradi. Konigilda ohaktosh koni borligi ma'lum. Ba'zi odamlar *Konigil "gullar mo'l-ko'l joy"* degan ma'noni anglatadi, deb o'ylashadi.

Semantik va grammatik jihatidan bunday bo'linishi asosli emas, chunki mazkur holatda ushbu toponimlar

Gulzor, **Guliston, Gulxona** va boshqalar ham shunday jaranglagan bo'lardi. Boburning Konigil "koniobgir"dan tuzilganligi haqidagi so'zlari diqqatga sazovordir; *obgir* esa geografik termin bo'lib, "ko'lmak", "botqoq" degan ma'noni anglatadi, bu so'z "Boburnoma"da bir necha bor takrorlangan. Konigil tarixda qonli urushlar arenasi va "Samarqand sultonlari" uchun dam olish va ko'ngil ochadigan joy sifatida tanilgan. **Konigil** qishlog'i hozirda ham mavjud.

KONIGIL O'LANGI – Samarqand shahri yonida sharq tomonda joylashgan yalanglik.

"Boburnoma"da bu haqida ayrim tafsilotlar qayd etilgan: "Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar... Qora suvkim Obirahmat derlar, Konigilning o'rtasidin oqar, yetti-sekkiz tegirmon suyi bo'lg'oy... Juvozi kog'azlar suyi tamom Konigildin keladur... Samarqand salotini hamisha bu o'langni qo'ruq qilurlar. Har yil bu o'langga chiqib bir oy, ikki oy o'ltururlar... Ba'zi derlarkim, bu o'langning asli oti "koni obgir" ekandur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar", – deb yozadi Bobur Samarqand shahri yaqin-atroflari tavsifida.

KONIMEX – tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududining asosiy qismini tekislik va qumlik egallagan. Zarafshon vohasining o'rta qismida joylashgan. Zarafshon daryosidan Konimex kanali orqali suv oladi. Konimex qadimiy aholi punktlaridan biri. Mahalliy xalq tuman va shaharcha nomining kelib chiqishini **kon** (kom) – *"anhor, kanal"*; **mex** yoki **mug'** – *"otashparast"*, ya'ni **Konimex** – *otashparastlar anhori* so'zlari bilan bog'lashadi. Darhaqiqat, joy nomlari tarkibida *kom* so'zi – *"ariq, kanal, irmoq, daryo"* ma'nolariga ega.

Mug', sug'd tiliga tegishli so'z, uning xalq talaffuzidagi buzilgan shakli – *mex (meg', miq)*. Musulmonlar zardushtiylikka e'tiqod qilgan kishini shu nom bilan atashgan. Mumtoz she'riyatda *mug' so'zi mayxona egasi, soqiy* ma'nolarida ham ishlatilgan. Otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq joy nomlari mintaqa toponimiyasi tarkibida haligicha saqlanib qolgan.

KONIZAR – Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston, Toshloq tumanlaridagi qishloq nomi. *Konizar* toponimi morfem jihatdan ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, qismlar o'zaro izofa shaklida bog'langan: *koni + zar*. Eroniy tillarda *-kom // -kon // -gon //-gan* – "daryo", "anhor", "oqar suv" ma'nolarida qo'llangan.

Nomning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan *zar / zara* so'zi esa eroniy tillardagi *sar* leksemasiga daxldor hisoblanib, bu so'z toponimlar tarkibida – bosh, yuqori, ust, yuza, baland, katta, ulkan; boshlanish, avval, asos singari ma'nolarni bildirgan.

Shundan kelib chiqqan holda *koni + zar* izofaviy birikuvini – "katta ariq", "bosh ariq" tarzida izohlash, *Konizar* toponimini esa "Katta ariq yoqasidagi qishloq" yoki "Suv bo'yidagi qishloq" deb talqin etish maqsadga muvofiqdir.

KONCHOCH//KONICHOCH – Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi tog'lar va daryolarning nomi. **Kanchach**, aslida **Konichoch** – *chacha koni*.

Ma'lumki, Choch (mahalliy shakl) yoki Shash (arabcha shakl) – bu Toshkent va uning atrofidagi o'rta asrlarning nomi. Kanchach tog'lari *Cho'yangaron* – temir quyish ishchilari sifatida ham tanilgan.

Ehtimol, kondan quyma mahsuloti Chochga kelgan bo'lishi mumkin, shuning uchun bu joylarning nomi shundaydir.

KOPLONKIR – Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt chinkining bir qismi. Bu yerlarda chindan ham qoplon yashagan (hozir qolmagan).

KORABOYLI – Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq, Xo'jayli tumanlaridagi joy. **Qoraboy** – *turnaga o'xshagan qush* (ruschasi – *baklan*).

O'zbeklarning O'z qabilasida, qirg'izlarning Munduz qabilasida Qoraboy degan urug' bo'lgan.

KORIZ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq. *Koriz – yerosti kanali, sizot suvlarni chiqarish uchun mo'ljallangan yerosti galereyalari va quduqlari sistemasi, yerosti sug'orish sistemasi.*

Demak, koriz bir-birlari bilan yer ostida birlashtirilgan oqar quduqlar bo'lib, koriz trassasi belgilab chiqilgach, trassa bo'ylab har 10 m da quduqlar qaziladi. Atama tojikcha **xok** – *tuproq* va **rextan** – *to'kmoq, quymoq* so'zlaridan yasalgan (Пенжиев, 1971).

V.L.Vyatkin o'rta asrda Samarqandning atrofini o'rab olgan devor haqida gapirar ekan, *Korizgoh* yoki *Koriziston (koriz joyi)* darvozasi nomini qayd qiladi. Olim yashagan davrda bu yerda jarlik bo'lib, undan Shahararіq arig'i oqqan. Keyinchalik Korizgoh Nomozgoh yoki Iydgoh deb atala boshlagan. Darvozaning eng so'nggi nomi Xoja Ahror bo'lgan (Вяткин, 1902).

KORIZQUDUQ – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "**Koriz**" va "**Quduq**" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti sanalgan "***Koriz***" "Oz'bek tilining izohli lug'ati"da *"yerosti suvlarini yuzaga chiqarish uchun qazilgan murakkab suv inshooti, suvi tashqariga oqib chiqadigan quduq"* deb izohlanadi [O'TIL. 5, 2, 408].

Shunga asosan B.O'rinboyevning fikricha, mazkur qishloq shunday nom olgan [B.O'rinboyev. 2, 30].

KOSAGAR//KOSAGARON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur nomlar ikki va uch qismlardan iborat bo'lib, *Kosa* – katta piyola, *kosagar* – kosa yasaydigan kulol, *-on* – ko'plik qo'shimchasi sanaladi.

Shunday ekan, ***Kosag*** va ***Kosagaron*** toponimlari *"kosa va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari yasaydigan ustalar makoni yoki nog'orachilar, doirachilar, kuy chaluvchilar qishlog'i"* ma'nosini anglatadi.

KOSARI – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi shaharcha (2013-yildan) nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, shaharcha hududida quduq mavjud bo'lib, yo'lovchilarga suv kosa idishda berilgan. Shuning uchun shaharcha *Kosari* deb nomlangan deyishadi.

Toponim, aslida, *Komisari* bo'lgan, keyinchalik dialektal talaffuzda o'zgarishga uchrab, hozirgi holatiga kelib qolgan.

Demak, geografik joy nomi *kom* va *sari* so'zlarining *-i* qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan. Uning birinchi komponenti – *kom* so'zi tojikcha so'z bo'lib, asli *"og'iz"* degan ma'noni bildiradi. Ammo bu so'zning *"katta ariq"* ma'nosi ham bor.

Apellyativning ikkinchi komponenti – *sari* so'zi esa *"yuqori tomon", "bosh tomon", "yon tomon"* degan ma'nolarni anglatadi. Demak, Kosari – *"katta ariqning yon tomoni (dagi aholi punkti)"* ma'nosini anglatadi.

KOSON – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik (1926), shahar (1972).

Qadimiy "Kushan" nomining (mil. avv. III va milodiy IV asrlar) o'zgargan ko'rinishi. Qadimgi Kushan imperiyasining nomi "Kushan" urug'i (etnonim) nomidandir.

Namangan viloyatidagi Kosonsoy, Farg'ona vodiysidagi qadimgi Kosonsoy shahri nomiga daxldor. Kushan imperiyasi miloddan avvalgi I va milodiy III asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan. Aholisi Yuyechji qabilasi tarkibiga kirgan kushanlar bo'lgan.

Kushan etnonimining o'zgargan shakli – Koson. So'z o'rtasida *sh→s, u/a→o* tovush o'zgarishi yuz bergan: *kushan→ kusan→ koson→ Koson*. IX asr yodgorligi "Hudud al-olam"da Kason, Somoniy va Yoqut asarlarida Kosan (В.В.Бартольд. Сочинения. Т. 1. – М., 1963–1973) nomi qayd qilingan.

Ayrim manbalarda uning hozirgi nomi *Kosonsoy* deb ham qayd etiladi (Namangan viloyatida). Bu "Boburnoma" asarida alohida tavsiflangan. "Kichikroq qasabadur. Axsining shimolida tushubtur... Yaxshi havoliq yerdur, safoliq bog'chalari bor. Safo va havoda O'sh bila Koson elining taassubi bor" (B. 36). Koson yonidan oqib o'tadigan suv tarmog'i, Axsikatga oqib borgani sababli, Axsi suvi deb atalgan, hozirgi nomi Kosonsoy. "Axsi suyi Kosondin kelur" (B. 36). 1494–1502-yillarda Axsi uchun kechgan jang-jadallar Kosonni ham qamrab olgan.

KOSONSOY – Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Kosonsoy shahri O'zbekiston hududidagi qadimiy shaharlardan biri. Kosonsoyning har ikki sohilida joylashgan shahar dastlab Koson deb atalgan. Keyinchalik shahar nomiga soy so'zi qo'shilib, oykonim gidrooykonimga aylangan. Shaharga miloddan avvalgi IV–III asrlarda asos solingan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, shahar miloddan avvalgi I asrda Kushonlar saltanatining poytaxti bo'lgan. Ku-

shonlar saltanati barham topganidan keyin ham Kosonsoy bir necha asr davomida Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri bo'lib turgan. V–VII asrlarga kelib, Buyuk Ipak yo'li tarmog'ining Farg'onadan o'tishi bilan shaharda savdo va hunarmandchilik yana ravnaq topdi.

Tarixiy kitoblarda *Koson,* xitoy manbalarida *Kesay // Gessay* shaklida tilga olinadigan ushbu joy Farg'ona vodiysidagi qadimiy shaharlardan biri. Shaharga miloddan avvalgi IV-III asrlarda asos solingan. Miloddan avvalgi I asrda Kushonlar saltanatining poytaxti bo'lgan. Ushbu hududda joylashgan Mug' qal'asi shahar aholisini shimoldan keladigan ko'chmanchilar hujumidan muhofaza etgan. Kushon saltanati barham topganidan keyin ham Koson bir necha asr davomida Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri bo'lib turgan. Xususan, VII asrning oxiri VIII asr boshlarida Farg'ona ixshidligi (podsholigi) ning poytaxtiga aylantirilgan.

Koson tarixiga oid dastlabki ma'lumotlar qadimgi Xitoy sayyohi Chjan Syan (mil. av. 128-y.), Syuan Szan (630-y.), arab tarixshunoslaridan Ya'qubiyning "Kitob ul-buldon", Muqaddasiyning "Axsan ut-taqosim" asarlarida uchraydi."Boburnoma"da Koson Farg'onadagi mavjud sakkiz shahardan biri bo'lganligi qayd etiladi: *"Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi O'shdin kelur, Axsi suyi Kosondin kelur. Yaxshi havoliq yerdur. Safoliq bog'chalari bor. Vale safoliq bog'chalari tamom soy yoqasida voqe bo'lg'on uchun, "po'stini pesh berra" (Maqtab aytilgan so'z: "Oldiga qora-ko'l teri tutilgan po'stin") debturlar. Safo va havoda O'sh bila Koson elining taassubi bor".*

Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida Koson nomining kelib chiqishiga oid quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: *"Koson demak shul ekanki, arablar tarafidan madaniyati arabni mahkam qilmoq uchun Bag'dod shahridan o'n ikki sulton laqablik kishilar kelib, diyni Muhammadiyani intishor qilmoqda ilm o'rgatmoqda bo'lub, Kosonda turgan ekanlar. Kosoniylar alarni hurmat qilib, o'zlari forsiy sug'd tili ilan sultonlar zikr qilgan kasan deb zikr qilur ekanlar. "Kason" demak "kishilar" demak. Forsiyda bu alfoz ko'p aytilub, ismi Kason bo'lub ketgan ekan".*

Ibrat tomonidan keltirilgan ushbu izoh xalq etimologiyasiga asoslangan bo'lishi mumkin. Chunki ko'plab ilmiy adabiyot va lug'atlarda Koson oykonimining kelib chiqishi Kushan podsholigi nomi bilan bog'lanadi. Jumladan, H.Hasanov talqinicha, qadimiy *Koshon // Koson* oykonimi Kushan nomining o'zgarganidir. Kushonning o'zi xalq nomidir. T.Nafasov, S.Qorayev lug'atlarida yozilishicha ham milodning boshlarida Kushon imperiyasi Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan. Aholisi yuyechji qabilasi tarkibiga kirgan kushanlar bo'lgan. O'sha vaqtda Shimoliy Farg'onadagi Koson shahri,

ya'ni Kosonsoy Farg'onaning siyosiy markazi bo'lib qoladi va nomning vujudga kelishi ham bevosita Kushan etnonimi bilan aloqador sanaladi.

Fikrimizcha, shahar tarixiga oid xulosalar va uning hududida olib borilgan barcha arxeologik qazishmalar Koson oykonimi Kushon etnonimining lisoniy taraqqiyot mahsuli ekanligini ko'rsatadi. So'z o'rtasida ***sh → s, u / a → o*** tovush o'zgarishi yuz bergan: ***kushan > kusan > koson > Koson.***

Dastlabki davrlarda Koson, keyinchalik Kosonsoy nomi bilan yuritila boshlagan oykonimning shakllanish tarixini N.Uluqov shunday izohlaydi: Chotqol tog' tizmasidan Chilquduqsoy nomi bilan boshlangan soy (ilmiy manbalarda daryo deb ham ataladi) oqib o'tadi. Ushbu soyning Koson shahridan oqib o'tiladigan qismi o'rniga nisbat berilgan holda Kosonsoy deb atalgan. Aniqrog'i, *Kosonning soyi* birikmasi til taraqqiyoti jarayonida *Koson soy* shakliga, undan *Kosonsoy* tarzidagi morfemik tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli gidronimga aylangan. Keyinroq soy nomi o'zining shakllanishi uchun asos bo'lgan shahar nomi (polisonim) ga o'tdi, ya'ni Koson shahri Kosonsoy deb ataladigan bo'ldi. 1926-yil 29-sentabrda markazi Kosonsoy shahri bo'lgan tuman tashkil etilgach, u ham shu nom bilan atala boshladi (Н.Улуқов. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2008. 147-бет).

Demak, yuqoridagilardan anglashiladiki, dastlab shahar nomi soyning nomlanishi uchun, keyin soy nomi shahar va tumanning nomlanishi uchun asos bo'lgan. Ilk davrlarda **Koson** tarzida yuzaga kelgan etnotoponim, keyingi davrlarda ***soy*** indikatori bilan birikib, **Kosonsoy** shaklidagi gidrotoponimga aylangan.

KOSXO'R – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumani. Forscha *kos – "cho'chqa, yovvoyi cho'chqa", kosxo'r – "cho'chqani sevuvchilar"*, laqabi hamqishloq qo'shnilar tomonidan berilgan.

KOT – Xorazmning qadimiy poytaxti. Arab geograflari Istaxriy (БАГ, I. С. 283, 304 va b.), Ibn Havqqal (БАГ, II, С. 350, 402), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 30, 49 va b.), shuningdek, Beruniy bu shahar haqida batafsil yozganlar.

Yaqutiyning fikricha (Якут Хамави. "Муджам ул-булдан". С. 222), *kat* so'zi xorazmiylar orasida *"dashtdagi o'qni, hatto ichida hech narsa yo'q bo'lsa ham"*, degan ma'noni anglatadi.

Hozirgi Markaziy Osiyoda To'rtko'l so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llanilgan (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 199). Eng mustahkam qism, ya'ni qal'a fil yoki fir deb nomlangan. Ushbu shahar xarobalari Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy viloyatida joylashgan (**Katqal'a**).

KOZA//KOZACHA – Buxoro viloyatining Vobkent, Qorako'l tumanlaridagi ***qishloq*** nomi. Mazkur nom fors-tojikcha sanalib, ***kozo*** – "chayla, kapa, poliz ekinlari va polizpoya boshiga tikiladigan olachig'" degan ma'noni anglatadi.

Shunday ekan, ***Kozacha*** toponimi – *"kichkina chayla"* ma'nosini ifodalaydi.

KOSHONOTA – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Manbalarda mazkur qishloq yaqinida Navqatepa nomli tepalik bo'lganligi ham ta'kidlanadi. Kushon davlati bilan bog'liq nom. III asrda Markaziy Osiyo kushonlari shohi Sug'dning Kushoniya shahrini o'z poytaxti qilib tanlaydi (Ter-Mkrtchyan, 1979: 44).

Xitoy manbalarida Kushoniya (hozirgi Koshonota qishlog'i o'rnidagi shahar va podsholik) Xe tarzida tilga olinadi va Sug'd knyazliklaridan biri deyiladi (ba'zi manbalarda Syuyshuanniszya yoki Guyshuanni deb yozilgan) va qadimgi Kangyuy podsholigiga qarashli Fumo shahri hududida ekanligi ko'rsatiladi (Malyavkin, 1989: 261).

V.L.Vyatkin vaqf hujjatlarida qayd qilingan Koshon qishlog'i haqida ma'lumot berar ekan, keyinchalik bu qishloq Koshonota nomi bilan atala boshlaganligi va bu yerda shu nomdagi avliyoning mozori mavjudligini qayd qiladi (Vyatkin, 1902).

Xitoy tarixchilarining yozishlaricha, Kushoniyada xitoy, turk, eron, rim hukmdorlari va hind braxmanlari suratlari tasvirlangan yirik imorat bo'lgan (Chavannes, Dokuments. P. 145). Kushoniya Sug'dning eng obod shahri hisoblangan (albatta, Samarqanddan keyin). Istaxriy uni "Sug'd shaharlarining yuragi" deb ataydi. Shahar musulmonchilikka qadar bo'lgan davrda mustaqil hokimlikning markazi bo'lgan. Kushonshoh unvoni Tabariy asarida tilga olinganligi ham shuni ko'rsatadi.

Ibn Xurdodbehning qayd qilishicha, Movarounnahr hokimi bir paytlar Kushonshoh deb nomlangan. Aftidan, bu ma'lumotlar Yuyechjilar yoki Kushonlar hukmronligi davriga oid bo'lsa kerak (Bartold I. 1963: 147). 1926-yilgi aholi ro'yxatida Kattaqo'rg'on tumanidagi yana bir qishloq – Raboti Koshoni ham tilga olinadi (Материалы., 1927: 96).

KOSHG'AR – Temuriylar davrida Markaziy Osiyodagi yirik shaharlardan biri. Buyuk Ipak yo'lining asosiy janubiy tarmog'i shu yerdan o'tgan va undan so'ng ikki tomonga – Badaxshon hamda Andijon yo'nalishlari orqali g'arbga davom etgan.

Amir Temur 1404-yili Axsikatdan to Xo'tangacha joylarni, jumladan, Koshg'arni nevarasi amirzoda Ibrohim Sultonga suyurg'ol qildi. XV asr boshlarida Koshg'ar ma'lum vaqt, aniqrog'i 14 yil bevosita Ulug'bek hukmida bo'ldi. Mo'g'ulistonda Naqshi Jahon, Shermuhammadxon va Vaysxon saltanati davrida (1415–1428) Koshg'arni Ulug'bek tayinlagan voliylar – Mir Sulton Malik do'ladaiy [dug'lat], xo'ja Muhammad Shoyista va Pirmuhammad barlos boshqarganlar. Vaysxondan so'ng Mo'g'ulistonda xonlik taxti uning o'g'li Eson-Bug'oxonga (1426–1461) o'tdi va u 35 yil hokimiyatni boshqardi (XV asr ikkinchi yarmida ham Mo'g'ulistonda xonlik taxtini Eson-Bug'oxon avlodlari egallab turgan). Eson-Bug'oxon saltanati davrida Oqsuv hokimi

dug'lat Sayid Ali Sayid Ahmad o'g'li Koshg'arga muntazam yurishlar qilib, pirovardida uni olishga muvaffaq bo'ldi va chorak asr (1433–1457) davomida shaharni boshqardi. XV asrning so'nggi choragida Koshg'ar Mir Sayid Alining katta o'g'li Sansiz Mirzo qo'liga o'tadi va u yetti yil hokimlik qilib, olamdan ko'z yumadi (vafoti 869/1464–1465).

"Boburnoma"da Koshg'ar Farg'ona viloyatining hamda Movarounnahrning sharqiy chegarasi sifatida qayd etilgan. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Koshg'arni Abubakr Mirzo boshqargani va Umarshayx Mirzo o'limidan so'ng O'zgand viloyatiga bostirib kirgani, so'ngra Koshg'ar Mo'g'uliston xoni Sulton Saidxon hukmiga o'tgani aytilgan. Sulton Saidxonning Zahiriddin Boburga qarindoshlik tomoni ham bo'lgan: "va xeshlig'i ham bizga bor erdi" (B. 266), deb yozilgan bu haqda "Boburnoma"da. Bu davrda Koshg'ar bilan Bobur davlati o'rtasida savdo va elchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan; Andijondan Qobulga qulay yo'l Koshg'ar orqali o'tgan.

KOCHIHO'R – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. Forscha *kochi* – jo'xori unidan bo'lgan osh; *kochiho'r* – jo'xori oshini sevuvchi. Laqabi hamqishloq qo'shnilar tomonidan berilgan.

KOCHIXO'RO – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumani. *Kochixo'r – jo'xori oshini sevuvchi, -o* (*ho*) – ko'plik qo'shimchasi hisoblanadi.

KUBAY – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq. *Kobey / Kubey* haqida fikr yuritgan I.V.Dron no'g'aylar tarkibida uchrovchi mazkur etnonim Oltoydagi mo'g'ul va turkiy qabilalar orasida keng tarqalgan g'ozni muqaddas deb bilish haqidagi rivoyat bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Turk afsonalariga ko'ra, xunn davlati boshlig'i ukasining o'g'illaridan biri g'ozga aylangan. Aftidan, u g'oz urug'ining asoschisi bo'lgan. Sayan-Oltoy xalqlari – *tuva, xakas, teleut, kumanlarda* g'oz haqidagi totemistik tushunchalar saqlanib qolgan. Jumladan, "*g'oz*" kumanlar urug'i nomi bilan bog'liq. Kachinlarda ham *kubay/kobiy* urug'i bor. Yoqut tilidagi *kuba, qumiq* va uyg'ur tilidagi *kub, shor,* qirg'iz va oltoy tillaridagi *kuu, qad,* turk tilidagi *kuui* so'zlari **g'oz** ma'nosini ifodalovchi so'zlardir.

Tilshunos olimlarning fikricha, Biy daryosining irmoqlaridan biri *Ku* va *Kuman/Kuban* daryolari nomlari orasida bog'liqlik bor. Ularning aytishlaricha, *Kuman/Kuban* etnonimi **ku** *-g'oz* va **-man** *-mon* harakat oti yasovchi formantdan yasalgan. No'g'ay xalq eposi qahramoni Edigeyning ikkinchi ismi *Kubugul* bo'lib, mazkur nomning ma'nosi *Kubaug'ul*, ya'ni *g'oz o'g'li* deb izohlanadi.

O'tmishda *Nayman* qabilasining *Qorano'g'ay* urug'i tarkibida *ush kubi*, O'zbek-yuzlar tarkibida *beshkubi* etnik birliklari bo'lgan.

I.V.Dron *besh kubi* so'zlarining qisqarishi, ellipsisga uchrashidan *kubey* etnonimi kelib chiqqan, deb izohlaydi va *Kubey* so'zi Toshkent viloyatidagi

qozoq va o'zbeklar orasida erkaklar ismi sifatida saqlanib qolganligini qayd qiladi. (И.В.Дрон. Гагаузские этнотопонимы и этногидронимы ногайского происхождения. СТ, 1985, №3, –С. 12).

Bizningcha, Oqdaryo tumanidagi *Ko'payi* qishlog'i nomi ham etnonim bilan bog'liq (*Ko'payi* urug'i Qo'shrabot tumanida qayd qilingan).

KULBA//KULBACHA//KULBACHI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l, Jondor tumanlari, Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani. *Kulba – kichkina uycha, baxtsiz uy*, bu yerda *Kulba – "faqat kulbalardan iborat qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

KULLA – Andijon viloyatining Buloqboshi tumaniga qarashli qishloq. **"Kulli", "kulla"** – *cho'qqi, balandlik* ma'nosida keladi ("Boburnoma"ga qaralsin). Qishloq qadimdan adirlikdan boshlangan, atrofga nisbatan balandlik edi, keyinchalik tekislangan. Qashqadaryo tomonda *"kullisoy"* bor (ya'ni, *tepa qoyadan boshlanadigan soy*).

KULOLO//KULOLON//KULOLXONA – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan, Kogon, Buxoro tumanlari; Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Kulol -o(ho)* – forscha ko'plik qo'shimchasi. *Kulolho// Kulolxona – "kulollar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

KULTEPA – Andijon viloyati Andijon shahrining markazidagi qariyalar xotirasida saqlanib qolgan qadimiy joy nomi.

Tilshunoslar fikricha, *"kul"* so'zi turkiy tilda *"xaroba"* ma'nosini ifodalagan. Bu yerda ilgari qadimiy qo'rg'on xarobasi bo'lgan bo'lishi mumkin.

KULCHAN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Qipchoq-saroy urug'laridan birining nomi *kulchan* deb nomlangan (B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari).

KUMUSHKENT – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Guliston* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *Kumushkent* deb o'zgartirilgan.

Toponim tarkibi ikkita so'z – *kumush* va *kent* so'zlaridan tashkil topgan. Uning birinchi komponenti – *kumush* so'zi qimmatbaho metallning nomi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *kent* so'zi esa sug'dcha bo'lib, *"katta qishloq", "shahar"* degan ma'nolarni bildiradi.

Demak, *Kumushkent – "kumush yuvuvchilar yashaydigan qishloq"* deganidir. Qishloq nomiga aholining kasb-kori asos bo'lgan.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida ham shu nomli qishloq mavjud.

KUMUSHKON – Chotqol cho'qqisining janubi-g'arbiy qismidagi yarimmetallar joyi (Toshkent viloyati Parkent tumani). Qadimdan bu yerda kumush qazib olingan va nomi ham shu yerdan kelib chiqqan: *kumush* va *kon*.

KUNARUD – ariq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumani. **Ko'hna** – *eski,*

rud (ro'd) – *daryo, ariq, kanal* ma'nolarini anglatadi.

KUNDALI// KUNDAKOV – Buxoro viloyatining Olot va Kogon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Kesilgan yoki singan daraxtning ildizi qolgan qismi, to'nka* deyilgan. Demak, shu ***qishloq***da daraxtlar kesilganligi sababli daraxtlarning kundalari qolib ketganligi uchun ham mazkur hudud **Kundali** deb atalgan.

Kundakov esa kesilgan daraxtlarning ildizi-tomirini (to'mor) kovlab olish ***kundakovdik*** deyilgan[1].

Shunday ekan, mazkur ***qishloq*** aholisi shu ish bilan shug'ullanganligi sababli shunday nomlangan.

KUNJALI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim aslida "kunjak" va "-li" qismlaridan iborat bo'lgan. Dastlabki so'zning oxiridagi "k" tovushi qisqaruvga uchragan.

"***Kunjak***" so'zi *"burch, burchak, chekka"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 431].

Yuqoridagilarga binoan mazkur mikrotoponimni "tog' burchagida, chekkasida joylashgan yashash maskani, qishloq", deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

KUNJAK – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq. Nomning tarkibi arabcha *kunj* so'zi va *-ak* qo'shimchasidan iborat bo'lib, *"burchak, chet joy"* degan ma'noni anglatadi. Qishloq ariq burchagida joylashganligi sababli shunday nom olgan. Qishloqning geografik o'rni uning nomiga asos bo'lgan.

KUNJIPAY – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani. Forscha *kunj – burchak*, **Pay** – *kanalning qadimgi nomi.*

KUNCHIBOG' – qishloq. Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani. "**Kunchi** – mo'g'ul qabilalarining nomlaridan biri" (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 193); *bog'*, **Kunchibog'** – *"kunchilar urug'iga tegishli bog'"* ma'nosini anglatadi.

Bundan tashqari, **kunchubaq, kunchuvaq (kunshuvaq)** – *"quyoshli, quyoshli tomoni"* terminlari ham bor.

KUNCHIQAR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumani. *Kunchiqar – sharq*, aynan, *"quyoshning sharqdan chiqishi"* ma'nosini ifodalaydi.

KUNCHIQISH – qishloq. Surxondaryo viloyatining Termiz tumani. *Kunchiqish – sharq* (aynan, *"quyosh chiqishi"*); adabiy o'zbek tilida "sharq" ma'nosidagi turkcha *kunchiqish* o'rniga, arabcha *shar arab* xuddi shu ma'noda ishlatiladi.

KURAN – qishloq. Navoiy viloyatining Konimex tumani. *Kuren* so'zi mo'g'ulchadan kelib chiqib, *"halqa"* ma'nosini ifodalagan va shuning uchun ham ko'chmanchilar turar joyini *kuren* deb atashgan. Ularning barcha narsalari o'sha halqaga joylashtirilgan (Б.Я.Владимирцов. Общественный строй монголов. С. 37); tunda hayvonlar va insonlar ham mazkur halqada qo'nim topishgan.

KURENDAG – (Turkmaniston) tog'lari va **Kurancha (Kurancha)**

[1] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –Б.68-69.

(Buxoro viloyati G'ijduvon tumani) qishlog'i nomlarida ham *kuren* termini aks etgan. Biroq **Ko'ron** qishlog'ining nomi boshqacha – *"ko'rlar"* (balki bu laqab aholinikidir) so'zidan kelib chiqqan.

KUVKALLA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim ***"Kuv"*** va ***"kalla"*** qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ***"Kuv"*** so'zi *"yog'och to'qmoq, bolg'a, suyuqlik solinadigan katta ko'za"* ma'nolarida izohlanadi [O'TIL. 5, 2, 419].

"Kalla" forsiy so'zi esa xuddi yuqorida qayd etilgan lug'atda *"bosh; cho'qqi, uch, aql"* ma'nolarida izohlanishi bildiriladi [O'TIL. 5, 2, 299].

Shunga binoan ushbu mikrotoponimni joylashish o'rni va shakliga ko'ra nomlangan, ya'ni ***"Kuvkalla"*** "tog'ning cho'qqisimon qismida joylashgan qishloq", deb izohlash maqsadga muvofiqdir [B.O'rinboyev, 105]. Leksik jihatdan ikki o'zakli ot+ot shakliga xos.

KUYGANYOR – qishloq. Andijon viloyatining Andijon, Izboskan tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *"Yoqib yuborilgan oshiq"* sifatida tarjima qilinadi: aslida *"kuygan jar"*, yor – jar adabiy so'zining dialektal varianti hisoblanadi.

KUYMOZOR – Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qadimiy qishloq nomi. *Kuymozor* oykonimning lisoniy shakllanishi haqida bir necha xalqona rivoyatlar va qarashlar mavjud:

1. Qadim zamonlarda buyuk zotlardan biri shu qishloq o'rnida vafot etgan ekan. Odamlar u kishini hozirgi *Kuymozor* deb atalayotgan hududga dafn etib, qabrdan yetti qadam uzoqlashganlarida qabrdan o't chiqadi va tevarak-atrofdagi qamishlar yonib, bu yerda ekin maydoni yuzaga keladi. Odamlar bu yerni bog' qilib, qabrni **Kuymozor** deb atabdilar. Natijada shu yerda katta bog', uning o'rtasida qabr saqlanib kelar emish. Keyinchalik ana shu qabriston – mozor atrofida yuzaga kelgan aholi manzili *Kuymozor* deb ataladigan bo'lgan ekan[1].

2. O'tgan zamonlarda Koson (Kushon davlati markazi bo'lgan) tomondan ikki otliq bir qulni quvib keladi. Qul hozirgi qishloq chetida qamishzorga kirib yashirinibdi, otliqlar uni topa olmabdilar va g'azablanib qamishzorga o't qo'yib yuboribdilar. Qamishzor yonib tugab, uning o'rtasida yonib kulga aylangan murda qolgan emish. Murdani odamlar tuproq bilan ko'mibdilar, ammo qabr ham kuygan taxlitda qolgan emish. Odamlar uni *"kuygan mozor"* deb atabdilar. Keyinchalik qabr atrofida paydo bo'lgan qishloq ham unga nisbat berib **Kuymozor** deb ataladigan bo'libdi.

Demak, tarixiy voqeani ifodalovchi *kuygan mozor* otli birikmasi oykonimning etimoni bo'lib, nom *"kuygan mozor hududidagi aholi manzili"* de-

[1] Oripov B.N. Kuymozor. – Namangan, 1997. – B. 9.

gan toponimik ma'noga ega. Albatta, yuqoridagilar oykonim haqidagi xalq etimologiyasi talqinlaridir.

3. Yana bir rivoyatga ko'ra, arablarning Koson (hozirgi Kosonsoy)ga yurishlaridan birida aziz avliyolardan, sahobalardan birining qazo kuni yetib, shu yerga, ya'ni hozirgi qishloq hududiga kelganda o'z hamrohlariga: "Bu yer Alloh aziz etgan joy ekan, meni shu yerga dafn etinglar", – degan ekanlar. Sahobalar hayron bo'lib: "ey poki olam, bu yer bir tashlandiq yer bo'lsa, biz sizni mana shu qamishzorga tashlab ketamizmi?" – deganlarida, – "Unday demanglar, anavi qamishlar ortida odamlar yashaydi, bu yerlar avval bog'-rog', so'ngra qishloq, undan keyin shahar bo'ladi", – degan ekanlar. Natijada u kishi shu yerga dafn etilibdi. Bu mozor qishloqdan pastda bo'lgan, uni *"Quyi mozor"* deb atabdilar[1]. Keyinchalik uning atrofida bunyod bo'lgan qishloq **Kuyimozor** deb atalibdi, nom yillar davomida hozirgi **Kuymozor** shakliga kelib qolgan emish.

Demak, bu rivoyatga ko'ra oykonimning etimoni *"quyi mozor"* otli birikmasi. Oykonim *"quyi mozor hududidagi qishloq"* degan toponimik ma'noga ega.

4. Rivoyatlarga ko'ra Koson va Mug'ni musulmonlashtirish uchun kelgan allomalardan birining umri tugab, qazo kuni yetganida, u: "Mening qazo kunim keldi, shekilli, mening qabrim Koson bilan Axsining o'rtasida bo'lsin, chunki mening avlod-ajdodlarim Koson va Axsidadurlar. Men ularning har ikkalalariga ham birdek yaqinlikda bo'lay", – degan ekanlar. Bu vasiyatga ko'ra, Koson va Axsini o'rtasi deb, uni hozirgi qishloq hududiga dafn etganlar. Bu yerni axsiliklar *Ko'hi mozor, Yuqori mozor* deb ham yuritishar ekan. Keyinchalik shu yerda barpo etilgan qishloq ana shu mozorga nisbat berib, **Quyimozor** deb atalgan. Nom davrlar davomida hozirgi shaklga kelgan.

Anglashiladiki, qishloqning uch nomi bor: **Ko'himozor, Yuqori mozor va Kuymozor.** Hozirda mahalliy aholi jonli so'zlashuvda har uch nomni qo'llaydi, biroq rasmiy manbalarda **Kuymozor** nomi qo'llanadi[2].

Yuqorida keltirilgan, oykonimga oid xalq etimologiyasini ifodalovchi rivoyatlar tahlilidan ko'rinadiki, nom haqidagi keyingi ikki rivoyatda mantiqiy asos bor, oykonim talqinida ana shularga asoslansa bo'ladi.

B.Turdaliyev, T.Nu'monov va A.Haydarovlar qishloq mozorga nisbat berib nomlanganligini, ma'nosi *ko'hi (tog') mozor* yoki *quyi mozor* bo'lsa kerak, deb ko'rsatadilar[3].

Bizningcha, qishloq nomi atalish motiviga ko'ra tabiiy-geografik oy-

[1] Oripov B.N. Kuymozor. – Namangan, 1997. – B. 10.

[2] Наманганская область (Справочная политико-административная карта). – Узгеодезкадастр, 1996.

[3] Turdaliyev B., Nu'monov T., Haydarov A. Namangan viloyati toponimlaridan materiallar. 1-kitob. – Namangan, 1995.

konimlar sirasiga mansub. Qishloq mazkur hudud uchun xarakterli bo'lgan *mozorni* va uning geografik joylashuv o'rni, ya'ni *quyi*ni asosga olish asosida nomlangan. **Kuymozor** oykonimining etimoni *quyi mozor* otli birikmasidir. **Quyi mozor** otli birikmasi davrlar mobaynida sayqallanib, lisoniy o'zgarishlarga uchrab, hozirgi shaklga kelgan. Aniqrog'i, nomga asos bo'lgan birikmaning birinchi qismi *quyi* tarkibidagi **i** unlisi tushib, so'z boshidagi **q** undoshi **k** undoshiga almashgan. Natijada nom aynan hozirgi shaklga kelib qolgan: *quyi mozor > kuyi mozor > kuy mozor > kuymozor > Kuymozor.* Qishloqni *Kuymozor* (ya'ni, *Quyimozor*), *Yuqori Kuymozor, Yangiobod* kabi qismlarga bo'linishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

KUSHON – qishloq. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani. Bu qadimgi Kushonlar davlati toponimikasidagi nom (I asr oxiri – III asr boshlari) (L.S.Tolstova. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezining dastlabki bosqichlarining aks sadolari uning tarixiy onomastikasida mavjud (Ономастика Средней Азии. – M., 1978).

KUCHAK – qishloq. Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani, o'zbeklarning Saroy qabilasi tarkibida *Kuchak* (kuchakto'pa) urug'i bo'lgan.

KUCHALA – Namangan viloyatidagi tog'. **Kuchala** – *"hosili nonga o'xshash zaharli mevali o'simlik"* deganidir.

KUCHALASOY – Namangan viloyatining Pop tumanidagi Rezaksoyning yuqori oqimidagi soy nomi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *kuchala* so'zi ko'p ma'noli bo'lib, quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: 1) **kuchala** – o't, o'simlik nomi, uning yana bir nomi – chayono't. Ensiklopedik lug'atda **kuchalaga** *"kuchaladoshlar oilasiga mansub tugunakli, ko'p yillik zaharli o't..."*, – deb izoh beriladi hamda Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarining tog' o'rmonlaridagi zax yerlarda o'sishi ko'rsatiladi[1]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa yanada aniqroq tarzda quyidagicha izohlanadi: *"Guli sariq, ko'k, safsar o'tsimon o'simlik hamda uning meditsinada ishlatiladigan zaharli tugmasimon mevasi"*[2]. 2) **kuchala** – *terak, tol kabi daraxtlarning to'pguli. Kuchalasoy* gidronimi kuchala so'zining birinchi ma'nosi asosida shakllangan. Soy oqimining boshlanishida kuchala o'ti ko'p o'sishiga nisbat berilib, u *Kuchalasoy* deb nomlangan. Aslida mazkur qo'shma so'z shaklidagi gidronim *kuchalali soy* otli birikmasining gidronimik derivatsiya natijasida *kuchalasoy* tarzidagi qo'shma so'zga aylanishi mahsulidir: *kuchalali soy > kuchala soy > kuchalasoy > Kuchalasoy.* Demak, Kuchalasoy fitogidronimining etimoni *"atrofida guli sariq, ko'k, safsar, o'tsimon kuchaladoshlar*

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent, 2003. – B. 154.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. I t. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 409.

oilasiga mansub tugunakli, ko'p yillik, zaharli o't – kuchala o'sadigan soy" tushunchasini ifodalovchi *kuchalali soy* so'z birikmasidir.

KUCHUKARIQ – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi ariq nomi. Aslida *Ko'chakariq*. "**Ko'chak**" fors tilida *"kichik"* ma'nosidagi so'z (Muhammad G'iyosuddin, 1988). Demak, *Kuchukariq* aslida *Kichikariq* ma'nosidagi gidronim.

KUCHUKTEPA – Surxondaryo viloyati Termiz shahri yaqinidagi kichik tepalik. Qadimgi turkiy tilda *kuchuk* "kichik" degan ma'noni anglatgan.

KO'HAK – Samarqand shahri yaqinidagi Cho'ponota tepaligining qadimiy nomi. S.Qorayev ko'rsatishicha, ***Ko'hak*** – *"kichik tog', tepalik"* demakdir.

N.Begaliyev ***Ko'hak*** oronimi *"tog'cha, tepacha, qircha"* ma'nolarini berishini qayd etadi.

Samarqand darvozalaridan biri ***Bobi Ko'hak*** deb atalgan. Shuningdek, Zarafshon daryosi o'rta asrlarda shu tepalik nomi bilan, ya'ni ***Obi Ko'hak*** tarzida atalgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

KO'HAK DARVOZASI – Darvoza Cho'ponota tepaligi chegaralarida bo'lgan. Bu tepalikning o'rta asrlardagi nomi **Ko'hak** bo'lib, u *"kichik tog'"*, *"tog'cha", "tepacha", "qircha"* ma'nolarini beradi. Hozir ham xalq ayrim joy nomlarini *"qircha"* so'zi bilan ifodalaydi.

Samarqand tumanidagi *"Qircha bozori"* toponimi xususida ham shu fikrni bildirish mumkin. Shuningdek, Zarafshon daryosi ham *Ko'hak* deb atalgan.

KO'HAK SUYI – Temuriylar davri yozma manbalarida *"Ko'hak"*, Buxoro shahri yonidan o'tgan bir tarmog'i *"Jo'yi Zar"* (Zar arig'i) nomlari bilan atalgan.

"Boburnoma"da bu daryo *Ko'hak suyi* va yuqori oqimidagi qismi *Kamrud* (to'g'risi: *Komrud*) *rudi* deb atalgan. "Ko'hak suyi (Samarqand shahrining) shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud (ariq) ayribturlar, balki daryochadur, Darg'am suyi derlar. (Darg'am) Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar'iy bo'lg'oy. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma'murdur. Buxoro va Qorako'lgachakim, o'ttuz-qirq yig'och yo'lg'a yovuqlashur, Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur. Mundog' ulug' daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxorog'a suv yetmas".

KO'HISIM – o'rta asrlarda Shosh viloyatida qayd qilingan kon. Dastlab, arab geograflari Ibn Xudodbex, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. *Ko'hi ism – "kumush tog'"* demakdir.

V.Bartold *Ko'hisim* Ohangarondan janubda, Obliq qishlog'i ro'parasida

bo'lgan, deydi. Konning Shosh viloyatida bo'lganini hisobga olsak, u Parkent tumanidagi Kumushkon toponimining o'zginasidir. Haqiqatan ham, ruda jinslari orasida kumush bor.

Shuningdek, toponimning arabcha nomi **Ma'dani Shash** – *"Shosh koni"*, deb atalib, u Abbosiylar davrida tez-tez tilga olingan (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 229).

KO'KALDOSH – Buxoro, Toshkent shahridagi madrasaning nomi. *Ko'kaltosh*, keyinroq *Ko'kaldosh – tarbiyachi birodar*. "... o'zbek davridagi ko'p sonli binolar Turkistonda ko'kaltash taxallusini olgan shaxslarning nomlari bilan bog'liq" (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, ч. 2. С. 212).

KO'KBULOQ – Surxondaryo viloyatining Denov tumani va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloq hamda buloq nomi. Gidronim *"**Ko'k**"* va *"**buloq**"* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponent *"tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori"* ma'nosiga ega [O'TIL. 2, 449].

Uning ikkinchi qismi *"**buloq**"* esa geografik termin sanalib, *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* [O'TIL. 1, 371] ma'nosini anglatadi.

Keltirilgan izohlarga tayanib, *"suvi tiniq chashma"* tarzuda izohlash maqsadga muvofiq, biroq, bizningcha, **Ko'kbuloq** gidronimi *"toza suvli buloq"* ma'nosini anglatadi.

KO'KDALA – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 2022-yilda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani tarkibidan ajralib chiqqan.

Tarkibi Ko'k+dala. Qadimiy nomi – Qorayantoq. O'tgan asrning 30-yillarida Qashqadaryoda o't-o'langa boy bo'lgan dashtda yangi davlat xo'jaligi tuzilgan. Xo'jalik lalmikor dehqonchilik qilib g'allachilik bilan shug'ullangan. Chorvachilik bilan ham mashg'ul bo'lgan. Dastlab mashina-traktor stansiyasi tuzilgan. Markaziy shaharlardan mexanizatorlar olib kelingan. Ko'm-ko'k dala-dashtda tashkil bo'lgan xo'jalikka "Ko'kdala" nomi qo'yilgan. Shu nom xo'jalik markazida va yonida qurilgan qishloqqa ham nom bo'lib qolgan (Manba: T. Nafasov "Qishloqnoma").

Mahalliy aholi qishloq hududidagi dalalarda yam-yashil o'simliklar qalin o'sganligi sababli qishloq shunday nomlangan, deb hisoblaydi. Xalq etimologiyasi haqiqatga juda yaqin.

Nomning tarkibi ikkita so'z – *ko'k* va *dala* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *ko'k* so'zi *"o't-o'lan", "chim", "yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan joy"* ma'nosini anglatadi. Buxoro viloyatining aksariyat hududlarida *ko'k* so'zi *"ko'klam", "yashillik"* ma'nolarida ishlatiladi. Uning ikkinchi komponenti – *dala* so'zi esa *"ekin ekilgan maydon", "ekinzor", "yer"* degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, **Ko'kdala** – *"yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan maydon", "o't-o'lan qalin o'sadigan dala-dasht"* ma'nosidadir. O't-o'lan qalin bo'lib

o'sadigan dala-dashtda tashkil topgan aholi manzilgohi ham hududning landshaftlari, tabiatiga bog'liq holda Ko'kdala deb nomlangan. Toponimga joyning tabiiy geografik xususiyatlari asos bo'lgan.

Ayrim tadqiqotchilar esa mazkur toponimni Ko'kdala – yashil maydon sifatida ham qayd etishadi.

Buxoro viloyatining Vobkent tumanida ham mazkur nom bilan atalgan qishloq nomi bor. Qishloq 2006-yilga qadar *Niyozxo'ja* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *Ko'kdala* deb o'zgartirilgan.

KO'KDO'PPI – qishloq. Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlarida *Ko'k to'pi* – (توفی کوك) shaklida qayd etilgan. Oykonimning kelib chiqishi haqida ko'kdo'ppilik olima N.Umarova quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Qishlog'imizning chet mahallalaridan birida ko'hna, tashlandiq bir qabr bor. Qishloq keksalarining aytishicha, uning paydo bo'lish tarixini birov bilmaydi. Faqat bu yakka qabrli qabristoncha Ko'kto'nli ota deb nomlangan. Bu yerga ko'kyo'tal bo'lganlar shifo izlab kelishgan. Mening fikrimcha, Ko'kto'nli toponimining fonetik strukturasi o'zgarib Ko'kdo'ppiga aylangan bo'lsa ehtimol" (Н.Умарова. Қишлоғим номини айтишдан уялмайман // Фарғона ҳақиқати. – Фарғона, 2020. – № 4.).

Darhaqiqat, Farg'ona vodiysidagi aksariyat joy nomlarining yuzaga kelishi bevosita shu hududda joylashgan ziyoratgoh, qabriston, mozor nomlari bilan aloqadorligi e'tiborga olinsa, muallifning gapi to'g'riga o'xshaydi. Masalan, vodiydagi Qorasoqol, Poshshopirim, Satkak, Chiltontepa, Buvayda (Bibi Ubayda), Qo'chqorchi, So'fiazizlar, Go'ri Avval, Imomota singari toponimlar xuddi shu nomdagi nekronimlar asosida vujudga kelgan.

Ko'kto'nli birligining etimologiyasi xususida esa ilmiy adabiyotlarda ikki xil qarash mavjud: 1) u etnonim sifatida qangli urug'ining yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2) *ko'kto'nli* atamasi tasavvuf oqimi vakillari, umuman olganda, valiylarga nisbatan qo'llangan.

Chunonchi, tarixchi N.Abdulahatovning yozishicha, rang bilan aloqador bo'lgan Ko'kto'nli ota, Oqto'nli ota, Xo'jaikabudpo'sh, Xo'jaisabzapo'sh singari ziyoratgohlar Markaziy Osiyoda ko'plab uchraydi. Ko'k va yashil so'zlari bo'lgan mozor nomlari o'sha avliyolarning kambag'al, oq so'zi esa o'ziga to'qlikni bildirgan (Н.Абдулаҳатов, Ф.Зоҳидов. Фарғона тумани тарихи. – Фарғона, 2013. 267-бет).

Xo'jaisabzapo'sh nomini olgan valiy zotlar aslida Qodiriya tariqatiga mansublikni anglatgan, chunki yashil rang qodiriya tariqati vakillarining o'ziga xos ramzi sanalgan.

Shuningdek, tarixshunos olim M.Dadaboyev ham Qo'qon shahrida joylashgan Ko'kto'nli ota mozori etimologiyasi haqida so'z yuritib, quyi-

dagilarni qayd etadi: "Ko'k to'nli ota nomi bilan bog'liq joy shaharda ikkita bo'lib, biri – Ko'k to'nli ota mozori M.Mahmudov nomli 40-mahalla hududida; ikkinchisi – Ko'k to'nli ota xonaqohi mazkur ko'chada joylashgan. Mozor saqlanib qolgan bo'lsa-da, xonaqoh yo'q bo'lib ketgan. Bu xonaqoh "Ko'k to'nli" oqimiga mansub so'fiylarning qarorgohi bo'lgan. So'fiylikdagi "Oq to'nlilar" oqimi o'ziga to'q jamoani, "Ko'k to'nlilar" oqimi esa yo'qsil, so'fiylar jamoasini bildirgan. Ko'k to'nlilar boriga qanoat qiladigan, boylik to'plashga qiziqmaydigan jamoa vakillaridir".

Demak, Farg'ona viloyatining o'zida, ya'ni uchta hududida: Qo'qon shahri, Farg'ona tumani (Log'on qishlog'i), Furqat tumanlarida bir xil nomdagi *Ko'kto'nli ota* ziyoratgohlari mavjud bo'lib, bu azizlarni bir oqimga mansublik yoki valiylik xislatlari birlashtirib turgan. Jumladan, biz tadqiq etayotgan Ko'kto'nli ota ham shu nomdagi tasavvuf vakili, avliyo zot bo'lgan va mozorini uzoq-yaqindan shifo istab keluvchilar ziyorat qilishgan. Uning nomi bilan atalgan ziyoratgoh esa keyinchalik hududning xarakterli belgisi sifatida qishloq nomiga ko'chgan.

KO'KGUMBAZ – qishloq. Andijon viloyati Andijon tumani, Jizzax viloyati G'allaorol tumani. *Ko'k* va *gumbaz* (qurilish tipi) so'zlaridan hosil bo'lgan.

KO'KJAR – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumani. Qishloq qirg'izning manak urug'i *ko'kjar* avlodi nomi bo'yicha nomlangan.

KO'KMASJID – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Tarixiy nom sanaladi. XIV asr oxiri XV asr boshlarida bunyod etilgan mahalla. Mahallada ko'k gumbazli masjid bo'lganligi tufayli ham shunday nomlangan (М.Абрамов Гузары Самарканда, 1989. В. 29).

KO'KMO'YIN – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. *Ko'k mo'yin* (adabiy *bo'yin*). Farg'ona o'zbek-qipchoqlari va qirg'izlarning Bag'ish qabilasida *Ko'kmo'yin* urug'i qayd etilgan.

KO'KNORIYON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. *Ko'knori* – ko'knori boshlaridan narkotik ichimliklar ishlatadigan narkoman, *-on (yon)* – forscha ko'plik ko'rsatkichi, **Ko'knoriyon** – *narkomanlar, giyohvandlar qishlog'i* ma'nosini ifodalaydi.

KO'KQOVG'A – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***ko'k***" va "***qovg'a***" qismlaridan tashkil topgan. Aslida "***Ko'kqovg'a***" nomi urug' nomi (etnonim)lardan biri sanaladi, chunki B.Karmishevaning fikricha, qo'ng'irot qabilasi oyinni bo'limining bir urug'i qavqa // qovg'a deb atalgan[1].

Ko'kqovg'a *qovg'ali* urug'ining bir tarmog'i sanaladi. Osmondagi 12 burj-

[1] Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 92.

dan biri – dala yulduzlari turkumi ham qovg'a deyilgan [S.Qorayev, 1, 71].

Shunga ko'ra ***Ko'kqovg'a*** etnonimi keyinchalik joy nomiga, oykonimga aylangan, degan xulosaga kelish mumkin hamda sifat+ot shakliga ega deb qarashimiz mumkin.

KO'KSARAKSOY – Namangan viloyati Chust tumanidagi soy. Chotqol tizmasining janubi-sharqiy yonbag'ridan *Ko'ldambassoy* nomi bilan boshlanadi.

Gidronimning tarkibi uch qismdan iborat: *ko'k, sarak, soy.* Ko'p ma'noli *ko'k* so'zining lug'aviy ma'nolaridan biri – *"tiniq, moviy, zangori".* Gidronim tarkibidagi **ko'k** so'zi obyektning umumiy ko'rinishi, ya'ni unda oqayotgan suv moviy, tiniq, zangori tusda ekanligini ifodalaydi. *Sarak* so'zi esa *sarak-sarak* takroriy so'zga xos *"u yon-bu yon chayqalmoq"* ma'nosida qo'llangan[1].

Demak, *Ko'ksaraksoy* gidronimi *"suvi moviy, zangori tusli, u yon-bu yon chayqalib oquvchi soy"* degan ma'noga ega.

Toshkent viloyatining Ohangaron va Zangiota tumanlarida ham mazkur nomli toponim mavjud bo'lib, u quyidagicha izohlanadi: *"ko'k saroy – saroy* o'zbek qabilasining bo'linmasi. Ammo Amir Temur tomonidan qurilgan Samarqanddagi *Ko'ksaroy saroyi* bu nomni bezagi, ko'k rangi uchun olgan".

KO'KSAROY MAYDONI – Samarqand shahridagi viloyat hokimligi oldida joylashgan maydon. Avval ushbu hududda Amir Temur Ko'k saroyi bo'lgan. Hozirda uning qoldiqlari qolgan, xolos. Shunday bo'lsa-da, mazkur maydon hozirda ham shunday ataladi.

KO'KSUV – Namangan viloyati Pop tumanining Sang qishlog'idagi buloq; Farg'ona viloyatidagi Shohimardonsoy irmog'i; Toshkent viloyatidagi Ko'kko'ldan oqib chiqadigan daryo nomi. Mazkur obyektlar suvining xususiyati, ya'ni tozaligi, tiniqligi motivatsiyasi asosida nomlangan.

Gidronimga ***ko'ksuv*** xalqona geografik termini lug'aviy asos bo'lgan. Termin tarkibidagi ***ko'k*** so'zi *"tiniq, osmon rangidagi; moviy, zangori"* lug'aviy ma'nolarini anglatadi. ***Ko'k*** va ***suv*** so'zlarining qo'shiluvidan yasalgan ***ko'ksuv*** geografik termin sifatida quyidagicha izohlanadi: ***"Ko'ksuv*** – *toza, tiniq suv. Qattiq tog' jinslaridan oqib o'tadigan, ko'llardan, tog'dagi muzdan oqib tushadigan, buloqlardan oqib chiqadigan suvlar ana shunday tiniq, ko'kimtir rangda bo'ladi. Daryolar nomi sifatida ham uchraydi".* Farg'ona vodiysi mahalliy shevalarida ham tiniq, toza, zilol suv ***ko'ksuv*** deyiladi.

Demak, ***Ko'ksuv*** deb atalgan buloq va daryolar tiniq, zilol suvli obyektlar demakdir.

O'zbekistondagi bir qancha daryo va soylarning nomlari (masalan, Chotqol daryosining so'nggi o'ng irmog'i, Oygaing daryosining eng katta irmog'i va boshqalar) hisoblanadi.

KO'KTIRNOQ – Orol dengizi bo'yidagi yarim orol. Etnograf B.X.Karmi-

[1] *Qarang.* O'zbek tilining izohli lug'ati, II t., 21-b.

shevaning fikriga ko'ra, obyekt o'zbeklar va boshqa turkiy xalqlar orasida *Tirnoqli – "tirnoqlari bilan"* urug'ining nomi bo'yicha atalgan (Советская этнография, 1977).

KO'KTOSH – Samarqand viloyatining Urgut tumani. Ko'k rangdagi marmar tosh. Xalq orasida mazkur marmarning ust qismidagi chuqurchaga suv quyib ichilsa, ko'k yo'talga davo bo'ladi, degan tushuncha mavjud.

Bunday toshlar boshqa tumanlarda ham mavjud va xalq ularni shifobaxsh deb biladi. Samarqand tumanidagi *Sulfakabud* qishlog'i nomi ham fors-tojik tilidagi **sulfa** – *"yo'tal"* va **kabud** – *"ko'k"* so'zlaridan yasalgan bo'lib, bu toponim mazkur qishloqdagi ko'k tosh bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham shunday nomli qishloq bo'lib, u shunday izohlanadi: "**Ko'ktosh** – *mis suyuqligi, marmar, yashma*".

KO'KTO'NLI – Andijon viloyatining Paxtaobod va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Ushbu mikrotoponim "***ko'k***", "***to'n***" va "***-li***" qismlaridan iborat.

Tarixda kalta chopon, to'n dastlab harbiylar kiyimi bo'lgan. Harbiy qismlar kiygan choponlari va bayroqlari rangi bilan ajralib turgan. Masalan, bayrog'i oq "oq tug'li" qism bo'lgan. Olachoponli qism bayrog'i oq, ko'k to'nlisi ko'k tug'li va h.k. (Muqanna qo'zg'oloni ishtirokchilari oq kiyimda va oq tug'da bo'lishgan).

Aslida, "***Ko'kto'nli***" so'zi urug' nomi (etnonim)lardan biridir [S.Qorayev, 1, 70-71; Z.Ziyotov, 84; T.Nafasov, 101]. Chunki nayman qabilasining bir urug'i ko'kto'nli deb atalgan [Z.Ziyotov, 84].

Bu urug' vakillarining bir qismi hozir ham Andijon viloyati Izboskan tumanidagi Ko'kto'nli qishlog'ida yashaydi. Yozuvchi Bahodir Murodalining "***Ko'kto'nliklar***" nomli qissasi e'lon qilingan [Z.Ziyotov, 84].

Shunga ko'ra yuqorida qayd etilgan hududlardagi bu mikrotoponim etnooykonimlardan biri sanaladi. Ushbu etnooykonim ko'k+to'n va -li sifat+ot+affiks shakliga ega.

KO'KTO'NLI OTA – Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi mavze (*"ko'k to'nlik ota"* ham deyiladi). Tarixda kalta chopon, to'n dastlab harbiylar kiyimi bo'lgan. Harbiy qismlar kiygan choponlari va bayroqlari rangi bilan ajralib turgan. Masalan, bayrog'i oq "oq tug'li" qism bo'lgan. Olachoponli qism bayrog'i oq, ko'k to'nlisi ko'k tug'li va h. k. (Muqanna qo'zg'oloni ishtirokchilari oq kiyimda va oq tug'da bo'lishgan).

Shu nomli qishloqlarda qachonlardir shahid ketgan ko'k to'nli askar yoki uning komandiri dafn qilingan bo'ladi. Keyinchalik paydo bo'lgan qishloq nomi ham *"Ko'k to'nli"* deb atalib ketgan. Mavjud qabr esa xalq udumi, e'tiqodiga binoan muqaddaslashtirilgan. *Ko'k tunli(k) ota – "qandaydir qashshoq avliyo"* ma'nosini ham anglatadi.

KO'KYOR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani, Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

Jizzax viloyatining Baxmal tumanida **Ko'kjar** nomli toponim mavjud. *Ko'kjar* – qirg'iz urug'ining nomi. Ehtimol, xuddi shu etnonim o'zbeklar orasida bo'lishi kerak (toponimika ma'lumotlari ko'rsatganidek); **Ko'kyor** – uning dialektal variantidir.

Filologiya fanlari doktori V.L.Gukasyanning so'zlariga ko'ra, *kok yar "chaqmoq"* degan ma'noni anglatadi; *kok yargan* (aynan, *"osmonni yorib o'tish"*) (Советская тюркология, 1977).

KO'KO'ZAK – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir va Qorao'zak tumanlari chegarasidan oqadigan eski o'zan.

Bu so'zning grammatik shakli va etimologik paydo bo'lishida *Qorao'zak* nomiga bir qancha yaqinligi bor. A.Kaulbarsning bildirishiga qaraganda, 1873-yili *Ko'ko'zekda* suv bo'lmagan. Sababi, u paytlari Amudaryo g'arbga ko'chgan. Bundan avval XVIII asrdagi ayrim tarixiy asarlarda *Ko'ko'zek* nomini ko'p uchratamiz. *Ko'ko'zek* deb atalishining sababi, hamma vaqtda o'zak suvi ko'k rangda oqqan.

Biroq mazkur izoh unchalik ham ishonchli emas, chunki ***ko'ko'zak***, aslida, urug' nomi bo'lib, etnonim keyinchalik toponimga aylangan.

KO'KCHA – Toshkent shahridagi mahalla nomi. Mahalla nomi Ko'kcha darvozasi va shu nomdagi qabila bilan bog'liq ekanligi ilmiy manbalarda qayd etiladi. Muhammad Solih Toshkandiyning (XIX asr) yozishicha, Ko'kcha darvozasining nomi qabila, ya'ni ko'kcha qabilasi nomidan olingan.

Tarixchi olim A.R.Muhammadjonovning fikriga ko'ra, **"ko'kcha"** so'zi aslida *"kohicha"* so'zining o'zgartirilgan shakli, *"kohicha", "kohak"* so'zi *"qal'acha"* degan ma'noni anglatadi va bu yerda o'rta asrlarda harbiy qal'a bo'lganidan dalolat beradi. Mahalla aholisi asosan ko'nchilik, kosibchilik va to'qimachilik, mavzelarda dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shahar tashqarisida mavzelari bo'lgan.

Ushbu nom respublikamizning boshqa joylarida ham uchraydi.

KO'KCHA ARIG'I – Kaykovus arig'ining chap tarmog'i, Shayxontohur va Olmazor tumanlari hududidan oqib o'tadi, Qoraqamishga borib quyiladi, uzunligi – 5,5 km *"Ko'kcha"* gidronimi *"ko'kcha"* toponimidan kelib chiqqan, sababi, mazkur ariq *Ko'kcha* dahasidan oqib o'tgan.

Toponimning etimologiyasi xususida fikrlar turlicha: **Ko'kcha** dahasi *daraxtzor, ko'kalamzor, ekinzor* ko'p bo'lganidan shunday nom olgan; "ko'kcha" – forscha *"kohcha"* so'zining talaffuzda o'zgargan shakli bo'lib, *"kichik qarorgoh" – "qal'acha"* ma'nosini anglatadi[1]. Ko'kcha arig'i shu qarorgoh hududidan oqib o'tganligi tufayli keyinchalik bu joyning nomini olgan; "ko'kcha" shaxs nomi sifatida XIV asrda, aniqrog'i, Rashididdin

[1] Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. – T.: Sharq, 2002. B. 24.

Fazlullohning "Jome'-at-tavorix" asarida uchraydi[1].

KO'KCHA DARVOZASI – Ko'kcha dahasining janubi-g'arbiy qismida. "Ko'kcha" toponimi haqida yuqorida so'z yuritilgandi, Muhammad Solih ma'lumotlariga ko'ra, qabila nomidan kelib chiqqan va etnotoponimlar guruhiga oid. Ko'kcha darvozasining nomi XX asr boshigacha saqlangan. Ko'kcha darvozasi shaharning g'arbiy devoriga qurilgan va undan Qoraqamish va Samarqandga yo'l ketgan.

KO'KQARG'A – qishloq. Samarqand viloyati Narpay tumani. *Qarg'a* – oltoylar orasida (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе. С. 340), boshqirdlarda (Кузеев. Происхождение башкирского народа. С. 153), qoraqalpoqlarda (Каракалпакско-русский словарь. – М., 1958. С. 784), qirg'izlarda (С.М.Абрамзон. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. – ТКАЭЭ. том 4, – М., 1960. С. 118), ўзбекларда (Племена кунграт, юз – Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 92, 97) umumturkiy etnonim bo'lgan.

KO'LIBOLO – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumani. Forscha *ko'l-i bolo* – *"yuqori ko'l"* ma'nosini ifodalaydi.

KO'LIODINA – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Mahalliy aholi oykonimning kelib chiqishini qishloq hududida qadimda yashab o'tgan Odina ismli boy tadbirkor ayol nomi bilan bog'lashadi.

Qishloqning asl nomi *Ko'lioyna* bo'lgan. Keyinchalik talaffuzda o'zgarishga uchrab, hozirgi holatga kelib qolgan bo'lishi mumkin. Uning birinchi komponenti – *ko'l* so'zi *quruqlikdagi chuqurliklarni to'ldirib turgan tabiiy suv havzasi*ni anglatadi. Ba'zan suvsiz katta chuqurlik ham *ko'l* deyiladi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *oyna* so'zi esa bu yerda *"shaffof"*, *"tiniq"* ma'nosida kelmoqda.

Demak, **Ko'liodina** – *"shaffof, tiniq suvli ko'l"* ma'nosidadir.

KO'LISHAG'OLON – qishloq. Buxoro viloyati Kogon tumani. *Ko'l* va *-i* – izofa ko'rsatkichi, *shag'ol* va *-on* – forscha ko'plik qo'shimchasi. **Ko'lishag'olon** – *shag'ollar ko'li* ma'nosini anglatgan, gidronim oykonimga aylangan.

KO'LJOMON – dara. Jizzax viloyati Zomin tumani, Samarqand viloyati Ishtixon tumani. Oq-qipchoqlar (oq qipchoqlar) tarkibiga kiruvchi *Jagaltay* urug'ining bo'linmasi nomi shunday nomlangan.

KO'LMOQIYON – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oykonim turk-mo'g'ul tillariga mansub ko'l, ya'ni "quruqlikning suvga to'lgan, atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi" [O'TIL. 2, 453] va apellyativning ikkinchi komponentidagi aslan forscha mohiyon so'zidagi h tovushining turkiy

[1] Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – пер. с персидского О.И. Смирновой. Прим. Б.И. Панкратова и О.И. Смирновой. Ред. А.А. Семенова. – М. – Л., 1952. Т. 1. Кн. 2. –С. 74.

tillarga xos q tovushiga almashunuvi natijasida hosil bo'lgan.

Shuning uchun ham mazkur komonimni *"mo'l-ko'l baliqlari bor hudud yonidagi qishloq"* deb izohlash mumkin. Ushbu zoooykonim ikki o'zakli bo'lib, ot+ot shakliga xos.

KO'LSAG'A – Chimboy tumanidagi ovul nomi. *Sag'a* – qadimiy saqo so'zining talaffuz shakli, Xorazm viloyatida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Reaspublikasida *"kanal yoki ariqning boshi"* ma'nosini bildiradi. **Ko'lsag'a** – *kanal boshlanadigan joydagi ko'l* ma'nosini anglatadi.

KO'LXATIB – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom **Ko'l** va **xatib** so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Shunday ekan, **Ko'lxatib** toponimi *"machit qo'riqchisi, xatibga tegishli ko'l"* ma'nosini ifodalaydi.

KO'MIRTEPA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi tog' nomi. Oronim ikki ma'noli qismdan iborat: ***ko'mir+tepa***.

V.V.Radlov ***ko'mur//ko'pur//ko'bur*** so'zlari variantdosh ekanligini va ikki ma'nosini ko'rsatgan: ko'prik, tog' cho'qqisidagi tor, siqiq, o'yiq joy. Ko'prik so'zining ko'mru varianti ham bo'lgan.

Demak, ***Ko'mirtepa*** – tog' cho'qqisidagi tor, siqiq, o'yiq joy degan ma'noni anglatadi (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

KO'MIRCHI – Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi mahallaning nomi. Viloyatda *Asalchi, Bug'doychi, Bo'tqachi, Ipakchi, Karpaychi, Ovchi, Pichoqchi, Sandiqchi, Taqachi, Temiryo'lchi, To'qimachi, Qaroqchi, Quruvchi* kabi toponimlar keng tarqalgan.

KO'NABIRLASHUV – Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qadimgi mahalla nomlaridan biri. Mahalliy aholi eskidan hamjihatlikda, birgalikda va birlashib yashab kelayotganligi sababli mahalla shunday nomlangan.

KO'NAOBOD – qishloq. Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat: *ko'na* – (**"ko'hna, eski, qadimgi"**), *obod* – "obodonlashtirish".

Keltirilganlarga asosan, **Ko'naobod** – *"qadimgi aholi punkti"* ma'nosini anglatadi.

KO'NAZEY – Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahallaning tarixiy nomlaridan biri. Xorazmcha **ko'na** so'zi – *ko'hna, eski,* qadimgi ma'nolarini ifodalaydi va **zey** so'zi ham xorazmcha bo'lib, *zax* so'zining dialektal variantidir. Mazkur toponim *Kuna* (*ko'hna*) va *zey* (adabiy zax) – *"namlik, namli joy"* sifatida izohlanadi.

Mahalliy aholi vakillarining fikrlariga ko'ra, mazkur nom ma'nosining ikkita varianti bo'lib, ular quyidagicha izohlanadi:

1. Mazkur hududda Zaytun buva nomli qabriston bo'lganligi tufayli, ushbu hudud Ko'nazey deb nomlangan.

2. Bu joydan eski zey yop o'tganligi tufayli, Ko'nazey deb atalgan. Biz-

ningcha, ikkinchi varianti haqiqatga yaqinroqdir.

3. Aslida Ko'nazeydagi *ko'na* bu yerda eski ma'nosini ifodalamaydi, ya'ni u sifat emas, *ko'na* bu o'rinda *avvalgi, oldingi* ma'nolarini ifodalovchi ravishdir. Chunki uning avvalgi nomi Ko'nazey bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot natijasida mazkur hududdagi aholining aksariyat qismi teparoqqa ko'chib o'tib, u yer yangi nom bilan atalgan. **Ko'nazey** nomi esa o'z holicha qolgan va shu tariqa u tarixiy nomga aylangan.

KO'NPAZ – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. *Ko'n* – ajratilgan teri, *paz* (*puxtan*) – "*pech – o't yoquvchi moslama*" hozirgi zamon fe'lining forscha asosi.

Demak, **Ko'npaz** toponimi "*teri tayyorlovchi usta*" ma'nosini ifodalaydi.

KO'NCHI – Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qadimgi (eski) qishloq va bozor nomi. Hayvon terisini oshlab (maxsus ishlov berib), undan, asosan, oyoq kiyimi va ot anjomlari uchun har xil charm mahsulotlari tayyorlaydigan hunarmand "ko'nchi" nomi bilan ataladi. Mazkur qishloqda qadimda, asosan, ko'nchilar yashagan.

Shunday ekan, ***Ko'nchi*** toponimi "*terichi, kunchilik – terichilik bilan shug'ullanuvchi shaxs*" ma'nosini bildiradi.

KO'NCHILIK – Andijon viloyati Andijon shahrining Soyguzar dahasidagi eski mahalla nomi. Hayvon terisini oshlab (maxsus ishlov berib), undan, asosan, oyoq kiyimi va ot anjomlari uchun har xil charm mahsulotlari tayyorlaydigan hunarmand "*ko'nchi*" nomi bilan ataladi. Mahallada asosan ko'nchilar yashagan. Qo'qon shahrida ham **Ko'nchilik** mahallasi bor. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning ko'plab shaharlaridagi mahalla (dahalar) ham shunday nomlanib, u **Kunchi** – terichi, *kunchilik* – terichilik ma'nosida qayd etiladi, bu yerda "*aholi charm ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan mahalla*"lar mavjud bo'lganligi uchun ham shunday nomlangan.

KO'PAKI – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq. B.O'rinboyev bu so'zni *ko'pak-ko'pay+i -ko'paylik, ko'pay* urug'iga tegishli kishilar ma'nosida deb izohlaydi. *Ko'paki* patronim, shu avlod kishilari yashaydigan qishloq. (O'rinboyev, 2003).

KO'PAKLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim haqida turlicha rivoyatlar mavjud bo'lib, ular ishonchli bo'lmaganligi sababli biz ularni e'tirof etmadik. Aslida, *Ko'paklar* – etnonim, uning Ko'pay urug'iga tegishli ekanligini ko'pchilik tilshunoslar: B.O'rinboyev, T.Nafasov, Z.Do'simovlar qayd etishgan. Hozirda bu nom boshqa nom bilan almashtirilgan.

KO'POVUL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***ko'p***" va "***ovul***" qismlaridan iborat. "***Ko'p // ko'pay***" – patronim.

"***Ovul***" so'zi "*ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 3, 81].

Shunday ekan, "***Ko'povul***" – "*ko'p // ko'pay*" urug'i vakillari yashaydigan ovul, joy ma'nosini bildiradi [B.O'rinboyev, 109].

KO'PRIKBOSHI – qishloq. Andijon viloyatining Qo'shtepa, Xo'jaobod tumanlari. *Ko'prik* va *bosh(i)* so'zlaridan tashkil topgan.

KO'RBULOQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi G'o's qishlog'idagi gidronim. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillardagina suv chiqadigan buloq. Gidronimning ikkinchi nomi Mizom degan shaxs tomonidan qazilishi bilan bog'liq. Xuddi shu joyda Mizomtepa nomli oronim ham bor.

Shuningdek, u appelyativning atoqli otga ko'chishidan hosil bo'lgan gidronim. Suv manbadan chiqib biroz oqqach, yana yerga singib ketganligi uchun shunday nom olganligi ham qayd etiladi.

KO'RMULLA – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Toponim *ko'r* va *mulla* so'zlaridan yasalganligi qayd etiladi. Qishloq nomi laqab bilan atalgan. Ehtimol, tarixiy shaxs bo'lsa kerak.

KO'ROGO(N) – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponimni tashkil etuvchi "***ko'ragon***" so'zi ham ota, ham ona tomonidan podshozoda bo'lgan kishi laqabi – Sohibqiron Amir Temurning laqabi. Laqab nomi keyinchalik oykonimga o'tgan, shunga ko'ra "***Ko'ragon***" mikrotoponimi antropooykonimlar sirasiga kiradi.

KO'RON//KURAN – Navoiy viloyatining Navoiy va Konimex tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari. Xalq tilidagi ***ko'ron*** – fors-tojikcha bo'lib, "*ko'rlar, ko'zi ojizlar*" ma'nosini bildiradi. ***Kuran*** so'zi mo'g'ulcha bo'lib, asli ma'nosi "*halqa*" demakdir, keyinchalik esa ko'chmanchilar manzili ***kuran*** deyilgan. Ko'chmanchi mo'g'ullarning o'tovlari va arava uylari halqa shaklida o'rnatilgan[1]. Kechasi chorva mollari, kishilar ham ana shu yerda panoh topgan. Kuran so'zining "*olomon, qabila*"[2], "*manzilgoh, istehkom*"[3] ma'nolari ham bor. Ruscha ***kuren*** – uy so'zi ham o'sha ***kuran*** so'zidan olingan.

O'zbekcha – ***ko'chkoron*** qo'shma so'zi tarkibida ***kuran*** o'sha mo'g'ulcha so'zdan kelib chiqqan[4].

KO'RONCHA – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Ko'ron – ko'zi ojizlar, -cha – toponim hosil qiluvchi kichraytish qo'shimchasi sanalib, mazkur Ko'roncha toponimi "*kichkina kuron*" yoki "*ikkinchi kuron*" ma'nosini anglatadi.

KO'RPA – Andijon viloyati Xo'jaobod tumani janubidagi qishloq nomi. Tilshunos X. Doniyorov fikricha, "ko'rpali" nomida ham o'zbek urug'i bo'lgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, Shayboniyxon davridan boshlab ko'chib kelgan

[1] Владимирцев Б.Я. Общественний строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. –Л.: 1943. –С.37.

[2] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – Т.1. 1951.

[3] Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып.1. –М.: 1973. –С.243.

[4] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.69.

ko'chmanchi o'zbeklarning shu nomdagi urug'i o'rnashib qolgan qishloq *"Ko'rpa qishloq"* deb atalib ketgan. Janubiy O'zbekistonda *"Ko'rpachi"* nomida ham qishloq bor.

KO'RPALI//KO'RPASOY//KO'RPAQISHLOQ//KO'RPACHA//YANGIKO'RPA – respublikadagi qishloqlarning nomlari. Zamonaviy o'zbek tilida *ko'rpa – paxtali ko'rpa*. Bu aholi punktlaridagi o'zbek oilasi *ko'rpa* yoki *ko'rpali* nomi bilan atalgan. *"To'shak"* degan ma'noni anglatuvchi *"ko'rpa"* so'zi fors tilidan kirib kelib, urug' nomi qadimgi turkiy *ko'rpa* so'zidan kelib chiqqan, uning ma'nosi *"bola", "uloq", "qo'zichoq", "yosh o't"*, zamonaviy turkman tilida esa *korpe – "yosh", "yangi"* va boshqalar.

Demak, *Ko'rpa* urug'i *"kichik"* degan ma'noni anglatadi.

KO'RQUDUQ – qishloq. Buxoro viloyatining Olot tumanidagi qishloq nomi. *Ko'r* va *quduq* so'zlari qo'shilishidan paydo bo'lib, *vaqti-vaqti bilan suv yetkazib beradigan quduqdir.*

Demak, mazkur **Ko'rquduq** nomi *"suv yetkazib beradigan quduq"* ma'nosini ifodalaydi.

KO'RG'ON – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani va Farg'ona viloyatining Quva tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mazkur nom *Qo'rg'on* toponimining dialektal shakli sanaladi.

Qo'rg'on toponimi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi: 1) qal'a, istehkom; 2) qo'rg'on, to'kilma cho'qqi; 3) devor bilan o'ralgan mulk; 4) qal'a devori.

KO'SA – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol hamda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Ko'sa* ("soqolsiz") – *qo'ng'irot, yuz, turkmanuz, saroy* qabilalarining urug'laridan biri (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков. – Этническое изучение быта и культуры узбеков. – Т., 1972. С. 14).

Shuningdek, Samarqand viloyati Samarqand tumanida ham **Ko'saho** nomli qishloq bor.

KO'SAQISHLOQ – Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloqlardan birining nomi.

Xalq etimologiyasida *"soqol, mo'ylovsiz kishilar yashaydigan qishloq"* deb izoh beriladi.

Aslida *Ko'sa – qo'ng'irot, yuz, nayman* qabilalari tarkibidagi urug' nomidir. Bu nomdagi qishloqlar O'zbekistonning boshqa hududlarida (Jizzax, Samarqand viloyatlarida) ham keng tarqalgan.

KO'TARMA – Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. Sug'orish tarixidan shu narsa ma'lumki, *chig'ir*-charxpalak vositasi bilan soy yoki katta ariqdan olib quyiladigan suv – *"ko'tarma suv"*, **ariqcha** esa *"ko'tarma ariq"* deyiladi.

XIX asr birinchi choragida Shahrixonsoy ishga tushirilib, undan suv chiqarish qiyin bo'lgan o'ng qirg'oqdagi balandroq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish uchun soydan suv chig'ir-charxpalaklar orqali "ko'tarma ariq"qa chiqarilgan. Shu tarzda keyinchalik paydo bo'lgan qishloq **Ko'tar-**

ma nomi bilan atalib ketgan. Chiroqchi tumanida hozir ham "**Ko'tarma ariq**" bor.

Shuningdek, Andijon viloyatining Jalaquduq, Xo'jaobod, Shahrixon tumanlari; Jizzax viloyatining Jizzax tumani; Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani; Samarqand viloyatining Urgut tumanlarida ham shunday nomli toponimlar uchrashi qayd etilib, u qishloqqa suv yetkazib beradigan suv o'tkazgichi, tortish ko'prigi ekanligi e'tirof etiladi.

KO'CHABOG' – Buxoro viloyatining Jondor, Buxoro tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari. Mazkur ***Ko'chabog'*** toponimi – *"bog'li ko'cha"* demakdir. XIX asrlar tojik tilida ***Ko'chabog'*** – *"bog'ot va daraxtzor oralig'idan o'tadigan yo'l"* ma'nosini ifodalagan. U fors tilida ham *"bog' ichidagi ko'cha, bog' ko'cha"* kabi manolarni bildirgan. Shahar bilan uning chekkasidagi mahallalar shunday nomlangan.

KO'CHARBULOQ – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Bahor paytlari suv ko'payganligi bois yerosti suvlarinig tez-tez o'rinlarini almashtirib chiqish natijasida buloqqa qo'yilgan nom.

Demak, *"**Ko'charbuloq**"* nomi *"ko'chib yuruvchi buloq"* ma'nosini ifodalaydi.

KO'CHKIOSIYO – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Uning birinchi komponenti – *ko'chki* so'zi turkiy *ko'shk* so'zining dialektal talaffuzda o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. *Ko'shk* so'zi turkiy tilda *"dalahovli"*, *"shahar tashqarisidagi qasr"* demakdir, qadimda esa *"baland, bahavo qilib solingan yengil imorat"*ni bildirgan. Toponimning ikkinchi komponenti – *osiyo* so'zi esa *"tegirmon"* ma'nosini anglatgan. **Ko'chkiosiyo** so'zi *"shahar tashqarisidagi tegirmonli qishloq"* ma'nosidadir.



LABGARDON – Andijon viloyatining Asaka tumaniga qarashli qishloq va ariq nomi. Labgardon – sug'orish tarixida suv taqsimotining maxsus ixtiro qilingan usullaridan biridir (suv kamchil oylari ariq boshi qalin taxta bilan to'silib, suv faqat taxtaning kertib qo'yilgan joyidan oqib tushadi. Labgardon deb shunga aytiladi).

Asakada Shahrixonsoydan bosh oladigan bir ariq "Labgardon arig'i" deb ataladi. Ekinlari shu ariqdan sug'oriladigan qishloq ham shu nom bilan atalib ketgan.

LABIHOVUZ – Buxorodagi me'moriy ansambl. *Labi hovuz – hovuz qirg'og'i, hovuzning qirg'og'ida* (ichadigan suvi bilan katta hovuz yonida).

LABIJO'Y//LABIJO'YON – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Aslida, ***Labijo'y*** toponimi – "*ariq labi*" ma'nosini bildiradi. **Labijo'yon** toponimi esa ***Lab+i+jo'+yon*** tarzida hosil qilingan.

Shunday ekan, **Labijo'y** va **Labijo'yon** toponimlari "*ariqlar labi*" ma'nosini ifodalaydi.

LABIRO'D – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. Forscha **ro'd** – *daryo, kanal*, **lab** – *qirg'oq*. **Labiro'd** – *kanal qirg'og'i, kanal bo'yida* degan ma'noni anglatadi.

LABIG'OR – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi qadimiy mahallalardan birining nomi. Forscha sanalgan "**Lab**" so'zi "*biror narsaning kirish yoki chet qismi*"dir, "**G'or**" so'zi esa "*yerning g'ovaklik qismi*".

Shunday ekan, "**Labig'or**" nomi "*g'orning kirish qismi*" ma'nosini bildiradi.

LABOBIYON – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Toponimning tarkibi quyidagicha: ***lab+ob+i+yon*** tarzida hosil qilingan.

Demak, ***Labobiyon*** toponimi "*Suvlik yerga yaqin joylashgan, suv bo'yidagi aholi punkti, qishloq*"[1] ma'nosidadir.

LABZAK (YOKI JANGOB) ARIG'I – Bo'zsuv kanalining o'ng tarmoqlaridan biri, shahar hududida sharqdan g'arbga yo'nalishda oqadi, suvi Quyi Bo'zsuv arig'iga qo'shiladi. Uzunligi taxminan 4 km "Labzak" gidronimi "labzak" toponimi bilan bog'liq.

[1] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro'z. 2020. –B. 41.

Mazkur joy nomi forscha "**lab**" – *"bo'yi", "chekkasi"* va arabcha **"zax"** – *"nam, zax yer"* – so'zlaridan tashkil topgan. Ya'ni **"labzak"** so'zi *"zax yer"* ma'nosiga yaqin. Aslida ariqning nomi shu nomli hududdan oqib o'tganidan kelib chiqqan.

Manbalarda Labzak nomli ariq XIX asrdan boshlab uchraydi. Uning xalq orasida "Jangob" degan nomi ham mashhur bo'lgan va bu nom qadimiyroqdir. Bu ariq XVIII asrda shahar markazidan oqib o'tgan. Chor-hokimlik davrida (XVIII asr) uning ikki sohili (asosan, hozirgi Sebzor mavzesi qismida) dahalararo bo'lib o'tadigan janglar maydoniga aylangan. Shu boisdan ham suvning nomi shaharliklar orasida "**Jangob**", ya'ni "*Urush suvi*" deb shuhrat topgan edi. Keyingi davrlarda ham Jangobda to'qnashuvlar bo'lgani haqida yozma manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, "Aziz parvonachi xalqdan ortiqcha iftor puli olgani uchun qo'zg'olon ko'tarilgan... Jangobda jang bo'lgan"[1]. "Jangob" gidronimi XIX asr rus manbalarida "Yangob" shaklida xato yozilgan hollar ham bor[2].

O'rganilayotgan davrda Labzak arig'i Shayxontohur dahasining *Turk, Labzak* mavze-mahallalari, *Maraim xalfa, Raisko'cha, Orqako'cha* mahallalari, markaziy bozordagi *Qoshiqchilik* mahallasi, *Sebzor* dahasining *Darvozakent* mavze-mahallasi, *Zanjirli, G'ishtmasjid, Qoziko'cha, Tinchob, Kichik Jangoh*, markaziy bozorda joylashgan *Poyakilik, Hojiko'cha-2, Hojiko'cha-3* mahallalari, Ko'kcha dahasining *Ishqobod, Mahkama, Xodabozor, Beshyog'och* dahasining *Sarchopon, Eski Namozgoh*, markaziy bozordagi *Hovuzbog'-1, Gulbozor, Chorsu* mahallalaridan oqib o'tgan. Shaharning aholi zich yashaydigan joylarini suv bilan ta'minlagan bu ariq *Sebzor* va *Shayxontohur, Ko'kcha* va *Beshyog'och* dahalari o'rtasida chegara ham sanalgan.

LABZAK DARVOZASI – Sebzor (XIX asr o'rtalariga oid Eski Toshkent planida – Shayxontohur) dahasining shimoli-sharqiy qismida, Taxtapul va Oqqo'rg'on darvozalari oralig'ida joylashgan edi.

Toponim "Tarixi jadida..."da eslatilgan "O'zbek darvozasi" bilan turdoshga o'xshaydi. Muhammad Solih o'z asarida "Shayx Shibliy arig'i O'zbeklar darvozasidan shaharga kirib, Qiyot darvozasidan tashqariga oqib chiqadi", deydi. Ana shu mulohazadan kelib chiqib, O'zbek va Labzak nomlari bitta darvozaga tegishli, deb faraz qilish mumkin.

Haqiqatan ham, Shayx Shibliy (Chovli) arig'i Labzak darvozasi yaqinidan shaharga oqib kirib, Qiyot (Qo'qon) darvozasining yonidan – Eski shahardan oqib chiqadi[3]. Yana bir sabab, "Tarixi jadidayi Toshkand" asari arab yozuvida yozilgan bo'lib,

[1] Muhammad Solih. Tarixi jadidayi Toshkand. O'z FASHI qo'lyozmasi № 7791. v. 482 a.
[2] План города Ташкента. – Ташкент, 1890.
[3] План города Ташкента. – Ташкент. 1890.

mazkur grafika bo'yicha Labzak va O'zbek so'zlarining ko'rinishi bir-biriga juda o'xshaydi.

"O'zbek" degan darvoza Muhammad Solih keltirgan XIV asr oxiri XV asr darvozalari ro'yxatida ham bor. Unda muallif O'zbek darvozasining nomi o'zbek qabilasi nomidan olinganini ta'kidlaydi. Hozir ham Labzak darvozasining o'rni va atrofidagi yerlar Labzak deb ataladi.

LAKKON – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Ispanza qishlog'i mahallalaridan biri. Toponimning ikkinchi qismidagi *"kon"* termini bir qator nomlarning yasalishida ishtirok etgan. Jumladan, *Haydarkon, Konigut, Konsoy, Konimansur, Kentov, Eskikon* va boshqalar bunday nomlarga misol bo'ladi.

Geolog R.A. Musin Isfara yaqinidagi Lyakon qishlog'i haqida yozar ekan, *Lyakon – Lyaxkon (mingta kon)*ning buzib talaffuz etilgan shakli, deb qayd qiladi va qishloq yaqinidagi tog'larda qadimgi kon izlari borligini ko'rsatadi.

T.Nafasov bu toponimni "... sug'dcha **lakka** *(maydon)* va – **on** (*-lar*) qo'shimchasidan hosil bo'lgan nom deb ko'rsatadi va *"chet maydonda qasrlari ko'p bo'lgan qishloq"* ma'nosini berishini ta'kidlaydi (Nafasov, 2009).

LANGARBOBO – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumani.

Hozirgi o'zbek tilida langar: *"1) langar; 2) arqonda yurishni muvozanatlashtiradigan tirgak"* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Markaziy Osiyo, Xitoyning Shinjon viloyati, Afg'oniston va Eron toponimlari tarkibida langar so'zi 1) ibodatxona ma'nosida uchraydi; 2) buyuk odamlar qabri; 3) karvonsaroy; 4) to'xtash joyi, bekat; 5) qabul uyi kabi ma'nolarda uchraydi. (А.З.Розенфельд. Названия "Лянгар" в топонимике Таджикистана. ИВГО, т. 72, вып. 6., 1940. С. 861–864).

O'zbek urug'-qabilalari nomlari tarkibida *langar* tilga olinadi (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. S. 80).

LANGARTEPA – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq. Langar atamasi Markaziy Osiyo, Qozog'iston va ularga chegaradosh joylarga tarqalgan. U faqat oykonim sifatida ma'lum, ba'zi oronim va gidronimlar shu oykonimga obyekt turini bildiruvchi so'zlarning qo'shilishidan yasalgan: *Langarsoy, Langarariq* kabi.

Tadqiqotlarga ko'ra, *langar* so'zi juda ko'p tillarda uchraydi. A.Z.Rozenfeld **langar** so'zining *ibodatxona, karvonsaroy, xonaqoh, qabr, bekat* kabi ma'nolarni ifodalashini aniqlagan. Ibodatxona ma'nosi biron tilda saqlanib qolmagan, faqat joy nomlari sifatida saqlanib qolgan (Rozenfeld, 1940: 861–864).

Langartepa – *qadimiy ibodatxona, sig'inadigan joy, musofirxona bo'lgan xaroba, tepalik bo'lgan qishloq* ma'nosini ifodalaydi (Nafasov, 1988).

LATIFSOBUNGAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. Toponim tarkibidagi *Latif* so'zi kishining ismi. Toponimning ikkinchi komponenti – *sobungar* so'zi *"sovun ishlab chiqaruvchi kosib"* ma'nosini

bildiradi. Qishloqqa Latif ismli sovunchi kosib asos solganligi sababli shunday nom olgan bo'lsa kerak.

LATTABAND – soy. Jizzax viloyatining Baxmal tumani, Samarqand viloyati Bulung'ur tumani. *Latta* va *band* – bog'lash.

Odatda, vafot etgan kishining qabriga, qabristonlardagi daraxtlarga yoki tayoqchalarga *alam – "bayroq"* deb nomlangan rang-barang matodan bo'lgan bayroq osib qo'yishgan, bu jarayon *lattaband* deb nomlangan. Ehtimol, bu daryo bo'yida muqaddas joylar mavjudligi uchundir.

LAVANDAK – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Forscha **lavand** – *dangasa*; *-ak* – erkalash-kichraytish affiks (ehtimol, taxallusdir).

LAYLAGON// LAYLAK// LAYLAKLAR – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun tumani; Buxoro viloyatining Buxoro, G'ijduvon, Qorako'l, Olot tumanlari. **Laylagonsoy** – o'sha yerdagi ariq. *Laylak* va *-on* – forscha ko'plik qo'shimchasi; **Laylagon** – laylaklar. *Laylak* –(ellips- toponim); qarang: ***Laylaklar***, ***Laylakxona.***

LAYLAKKO'L – qishloq. Sirdaryo viloyatining Guliston tumani. *Laylak* va *ko'l.* **Laylakko'l** – *laylaklar ko'li* ma'nosini anglatadi.

LAYLAKUYA – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumani, Farg'ona viloyatining Quva tumani. *Uya.* **Laylakuya** – *laylaklar uyi, "laylaklar joylashgan uy"* ma'nosini anglatadi.

LAYLAKXONA – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumani. *Laylak* + *xona* affiksi (aynan "uy", "xona"), toponimlar tarkibida tez-tez nimanidir ko'pligini ko'rsatadi. **Bo'rixona** – *"bo'rilar ko'p joy"*, **Qulonxona** – *"qulonlar ko'p joy"*, **Kaptarxona** – *"kaptarlar ko'p joy"*, **Laylakxona** – *"laylaklar ko'p joy"*.

LAG'MON – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani, **Lag'monqishloq** – Surxondaryo viloyati Denov tumani. *Lahim, lag'm* – yer ostidan yerning ustiga yer osti suvini chiqaradigan anjom; *-on* – forscha ko'plik qo'shimchasi.

LOLAZOR – mahalla. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi mahalla nomi. **Lolazor** – *lola ekilgan joy, gulzor.* Xiva shahar kengashining 1988-yildagi qaroriga asosan Xiva – Urganch magistral yo'li, G'ovuk ko'lining shimoli-sharqiy hududidagi tashlandiq bo'lib yotgan, qishloq xo'jalik ekinlari ekib bo'lmaydigan joyida Xiva shahar aholisining keskin ravishda o'sib borayotganligini inobatga olib, shahar aholisiga shaxsiy imorat qurish uchun yer uchastkalari ajratib berilgan.

1989-yilda elektr energiyasi uchun simyog'ochlar o'rnatildi va elektr energiyasi bilan ta'minlandi. Uy-joylar qurila boshlandi. Ushbu sho'rlangan yerlarni obodonlashtirib, ko'kalamzorlashtirib gulzor, lolazorga aylantiramiz, degan maqsadda faollarning taklifi bilan 1991-yilda mahallaga "Lolazor" deb nom berilgan.

Bugungi kunga kelib, mahallada aholi sonining keskin oshib ketishi, mahalliy aholi vakillarining muro-

jaatlari va takliflarini inobatga olib, mahalla uchta qismga ajratildi.

Birinchi qismi o'sha **Lolazor** nomi bilan qoldirildi, ikkinchi qismi o'zbek san'ati, qo'shiqchiligining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan, o'zidan boy ma'naviy meros qoldirgan marhum san'atkor, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan artist **Rahmatjon Qurbonov nomi** bilan ataldi. Uchinchi qismiga esa, o'sha hududning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, mazkur hududda usta-hunarmandlarning ko'pligini inobatga olgan holda **Hunarmandlar** deb nomlandi.

LOYISH – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani markazi. B.O'rinboyev mazkur toponim *loy/doy* va *ish/ij* qismlaridan tashkil topganligini ko'rsatib, **doy** – *gil va loydan qilingan devorning bir qatori, qavati, paxsaning bir qatori*, **ish/ij** – *ichki qism*, ya'ni **Loyish–Doyij**–*paxsa devorning ichki qismidagi joy*, deb izohlaydi (O'rinboyev, 2003).

Loyish yozma manbalarda dastlab 1470-yilda bitilgan vaqfnomada *Doyij* shaklida tilga olinadi. *Doyij* haqida gapirilar ekan, u sharq tomondan *Hinduvon* (hozirgi *Qangli*), *Yangikat, Tug'luqxoja* qishloqlariga, g'arb tomondan esa *To'ram* kanali va *Muzan* qishloqlariga, janub tomondan *Jo'yi Divona* kanali va *Amiron* qishlog'iga, shimol tomondan *Vang* qishlog'i hamda *Jabbor* kanaliga chegaradosh ekanligi ko'rsatilgan (Chexovich, 1974: 79).

Doyij keyinchalik talaffuzda *Loyish* shaklini olgan. *Doyij* **"dij/diz"** – *qal'a, hisor, qo'rg'on"* so'zi bilan bog'liq holda hosil bo'lgan toponim. Tojikcha **"dijbon"** – *qutvol, qal'a hokimi* termini ham shu so'z yordamida yasalgan. (Farhangi zaboni tojiki, 1-t. 1969: 369).

LOYQAARIQ – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumani. Bu yerda qayta ko'rib chiqish kerak: *qirq* – yirik o'zbek qabilalaridan biri; *yo*(aynan *"loyqa", "il"*) – *laqay* qabila nomining o'zgargan shakli (ikki qabila ittifoqi: *laqay + qirq) Loyqaariqqa* aylangan.

LOYXO'ROKON (*"loy yeyuvchilar"*) – asosan qurilish savdosi bilan shug'ullangan Buxoroning turar-joylaridan birida yashovchilarni mazax qilib laqab qo'yishgan.

LO'G'IMBEK – Andijon viloyatining Izboskan tumaniga qarashli katta qishloq. Xalq xotirasidagi talqinga qaraganda, aslida "lo'g'itbek" kalimasi (ya'ni, *yirik* yoki *semiz, katta boy* ma'nosida) talaffuzda buzilib, *"Lo'g'imbek"* bo'lib ketgan. Ushbu qishloq kengliklari ham atrofi bilan tarixiy *"Ikkisuv orasi"*, ya'ni *Miyonrudon* sarhadidadir. Bu yerlar qadimda chorva boqiladigan va ov qilinadigan chakalakzor, qamishzor yerlar bo'lgan. Shuning uchun qishloq nomi aslida *"Yulg'unbek"* (*yulg'un ko'katiga boy, qalin yulg'unzor*) degan ma'noda keladi.

LOSHA – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. ***Losha*** so'zining *"jasad, o'limtik"* degan

ma'nolari bor. ***Qishloq***ning nega shunday atalgani ma'lum emas. ***Losha*** so'zi izohli lug'atda quyidagicha izohlanadi: 1) odam va hayvonning o'lik tanasi; 2) log'ar kishi;3) zaif, to'rtoyoqli zabun.

Shuningdek, *loshi* so'zi ham borki, u qovunning yetilmagan hosilini bildiradi[1].

Xalq orasida o'tmishda Buxorodan O'rtacho'l massiviga boriladigan yo'l yoqasida xarob, tashlandiq ko'l bo'lib, uning qurigan o'zanida qishloq barpo qilingan. ***Losha*** *"xarob, aftoda"* ma'nosiga ega kabi qarashlar bor. XVIII asrda yashab o'tgan shoir Turdi Farog'iy *osha* so'zini ishlatib, shunday bayt bitgan: *Mol-u dunyoni yig'ib, bir losha tang'a zulm edib,Yuk og'ir, eshak yag'ir, manzil uzog'-u yo'l xatar.*

Bundan ma'lum bo'ladiki, Buxoro shahridan O'rtacho'lga chiqib, ketadigan yo'l yoqasida ***Losha*** qishlog'i o'rni ilgari xarob ko'l bo'lgan va nom shunga nisbatan berilgan[2].

[1] Қаранг: Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. –С.728.

[2] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro'z. 2020. –B. 40.



MADADKOR – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin mustaqillik yillarida berilgan nom bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *madad beruvchi, madad qiluvchi; yordam, ko'mak ko'rsatuvchi* ma'nolarini ifodalaydi.

MADANIY YER – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. *Madaniy* va *yer* so'zlari birikuvidan mazkur toponim hosil qilingan bo'lib, u **madaniy** – *shaharlik, madinalik, Madinaga xos yer* hamda *yer – biror mamlakat, davlat, xalq, xo'jalik va shu kabilarga qarashli hudud* ma'nolarini ifodalaydi.

MADANIYAT – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot, Xonqa va Qo'shko'pir tumanlaridagi mahalla hamda qishloq nomlari.

Mazkur so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'nolari qayd etiladi:

1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi.

2. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan yutuqlari darajasi.

3. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.

4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit.

5. O'simlik yoki ekinning turlarini yetkazish, o'stirish, yetishtirish. (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 521-bet).

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ma'nolarning mujassam bo'lishini nazarda tutgan holda shunday nom qo'yilgan bo'lsa, ajab emas.

MADDOHON – Buxoro shahrining guzarlaridan biri. **Maddoh** – *azizlarning hayotini muqaddas tarixlarni mohirona so'zlab beruvchi shaxs*; *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi.

MADIR – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin *"Mard el"* tushunchasidan kelib chiqqan, deyiladi. Bir paytlar Xorazmni bosib olayotgan yov shu yerga kelganda qattiq qarshilikka uchraydi. Qishloq yigitlarining jasoratiga qoyil qolgan bosqinchilar bu o'lkani *"Mardlar eli"* ekan, deb ta'riflaydilar va qishloq shu nom bilan atala boshlangan. Keyinchalik *"Madir"* shaklida talaffuz etilgan.

Biroq bizningcha, bular "xalq afsonalari"dir. Toponimning etimologiyasini **mard** so'zi bilan emas, balki **mazra** so'zi bilan bog'liq ekanligi haqiqatga yaqin bo'lib, u *"ekinzor, ekiladigan yer"* ma'nolarini ifodalaydi (Z. Do'simov, X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 90-bet).

Shuningdek, manbalarda *G'ozovot* kanalining nomi mo'g'ullar istilosidan oldin *mazra-madra-madir* deb atalgani ham qayd etiladi.

MADRASAI SAFEDI – 1455-1456-yillarda Xoja Ahrori Ubaydulloi Toshkandiy tomonidan qurilgan madrasa nomi bilan ataladigan mahalla nomi. Aslida, "***Safed***" forscha so'z bo'lib, "***oq***" ma'nosini ifodalab, "**Madrasai safedi**" nomi *"oq binoli madrasa"* ma'nosini ifodalaydi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.23).

Mazkur nom hududdagi yoshi ulug'lar nutqida qo'llanilib, yosh avlod vakillari nutqida ushbu nom "***Safedi***" deb atalib, hozir ham xalq ichida "***Safedi***" deb yuritiladi.

MAHALLA – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani, Buxoro viloyatining Shofirkon tumani. Mahalla (arabcha **ma** – *joy*, **xala** – *joylashish*) – *shahar* yoki *katta qishloqning dahasi, ba'zan esa mustaqil qishloq* ma'nosini anglatadi.

MAHALLAQOZI – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ***mahalla*** va ***qozi*** qismlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Mahallaqozi** – qozilar mahallasi, diniy qozilar yashaydigan qishloq ma'nosini ifodalaydi.

MAHALLIBOLO – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. **Mahalla-i bolo** – *"yuqori, yuqorida turadigan mahalla"* ma'nosini anglatadi.

MAHALLIMIRZOYON – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. *Mahalla* – shahar yoki katta qishloqning dahasi, forscha **mirzo** – *xattot, yozuvchi* -*yon* – forscha ko'plik ko'rsatkichi. **Mahallimirzoyon** – *xattotlar yashaydigan mahalla* ma'nosini anglatadi.

MAHALLIMIRON – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon va Peshku tumanlari. *Mahalla* – shahar dahasi, *mir* – hukmdor, *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi. **Mahallimiron** – *hukmdorlar yashaydigan mahalla, hukmdorlarga tegishli mahalla.*

MAHMUDO'TOG'ASI – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumani. **Mahmud** – atoqli ot; **o'tog'asi** termini bir necha ma'nolarga ega: *o'tning kattasi.* Agarda bularni bo'laklarga ajratsak, mazkur termin *o't+og'a+si* ko'rinishida bo'ladi: *o't, og'a* va -si – uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi; bu degani, *"oila o'tining kattasi"*.

Otashparastlikda har bir oila yoki urug' o'zining katta, mas'ul va jamoadagi boshliqlari bilan o'zlarining muqaddas oloviga ega bo'lishgan. **O'tog'** – *"mayda parlar, qush patlari"* (Л.Будагов. Сравнительный словарь, т. I. С. 110.; В.В. Радлов. Опыт словаря, т. I, 1104); **o'tog'a** – *sultonlar (zodagonlar) bosh kiyim*

yoki sallasining ustida qo'yib yuradigan qush patlari (В.В.Радлов. Опыт словаря, т. I, 1104).

Erkaklar bosh kiyimida oval shaklidagi metalldan yasalgan zeb-ziynat buyumlari, rangli toshlar va boyo'g'li patlari singdirilgan, ularga toshlar va boyo'g'li patlari ulangan. Zahiriddin Muhammad Bobur bir necha bor *o'tog'a* so'zini qo'llagan: *soch o'tog'asi, qarqara o'tog'asi, o'tog'a sanchib* (Bobirnoma, – T., 1960. 202, 222, 268-betlar). Boshqa variantlarga ko'ra – *o'tov og'asi*: o'tov (o'toq) – *uy,* og'asi – *katta*: **o'tov (o'toq) og'asi** – *"uyning egasi, oilaning boshlig'i".*

MAHORAT – Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izoh berilади: *"Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 575-bet).

MAHSIDO'ZON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon, Buxoro tumanlari. *Mahsi, mahsido'z* – mahsi tikadigan; *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi; **Mahsido'zon** – *mahsi tikadigan va uni tikish bilan shug'ullanadigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

MAJOR – Samarqand viloyatining Narpay, Paxtachi tumanlari va Qashqadaryo viloyatining G'uzor, Qamashi va Chiroqchi tumanlarida ham Mojor nomli qishloqlar bor. Major(majar) o'zbek millati tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Ular XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand atrofidagi tog' yonbag'irlari, Narpay arig'i bo'ylari, Shahrisabz vohasida yashaganlar (Қораев, 1978).

MAKRIT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani. *Makrit, markit, merkit* – etnonim. Ko'chmanchi o'zbeklarda (Т.И. Султанов. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. Вопросы этнической и социальной истории. –М., 1982. С. 31, 42), *kerey* qozoq qabilalarida (Народы Средней Азии и Казахстана. Т. II, –М., 1963. С. 325), *tyolyos* qirg'iz qabilalarida (Я.Р.Винников. Родоплеменной состав и расселение киргизов на территории Южной Киргизии. – ТКАЭЭ. Т. I, –М., 1956. С. 166), *salir* turkman qabilalarida (Я.Р.Винников. К этнической истории туркменского населения Чарджоуской области. – Проблемы этногенеза туркменского народа. – Ашхабад, 1977. С. 112), shuningdek, oltoylar va qrim-tatarlarda *merkit (mekrit)* urug'i qayd etilgan.

MALIK – Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Hozirgi o'zbek tilida ***Malik*** so'zi faqat kishi ismi bilan yuritiladi hamda antroponim sifatida qayd etiladi. Aslida, mazkur so'z arabcha bo'lib, *"hukmdor, shoh"* degan ma'noni bildirgan. Ta'kidlash joizki, mazkur so'z toponim sifatida kishi nomi emas, balki u *"yer, joy"* nomini ifodalagan. Toponim qadimda mulk shaklida qo'llanilgan bo'lishi mumkin, chunki mulk so'zining *"yer, suv, vatan"* kabi ma'nolari ham bor.

Demak, ushbu toponim avval *"kimningdir mulki"* sifatida vujudga kelib, yer egasining nomi unutilgan.

MALIKON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan iborat: *Malik* – hukmdor, shoh, *-on* forscha ko'plik qo'shimchasi sanaladi.

Malikon toponimi *"hukmdorlarga tegishli bo'lgan qishloq"* ma'nosidadir.

MALLAXON – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. *Mallachek* – Andijon viloyati Baliqchi tumani. Bu qishloqlar bir paytlar Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li – Mallaxon; *chek* – xonlarning yer ajratmasi, ularning oila a'zolari, sud amaldorlari, ruhoniylar va boshqa e'tiborli shaxslar bo'lgan (А.Л. Троицкая. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – М., 1969).

MAMARLI – soy. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi soy nomi. *Mamar – o'tish, kesib o'tish*: **Mamarli** – *"kesib o'tadigan soy"* ma'nosini anglatadi.

MAMASH BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur nom ***"Mamash"*** va ***"Buloq"*** so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan. Gidronimdagi ***Mamash*** komponenti shaxs ismi bo'lib, kichraytirish, erkalatish maqsadida asl ism qisqartirilgan.

Geografik termin hisoblangan ***"buloq"*** esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 1, 371].

Yuqoridagilarga ko'ra, ushbu nomni antropogidronim deyish mumkin. Demak, *"Mamash ismli kishining yashash joyining yaqinidagi chashma"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

MAMUT – qishloq. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Oqqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Qozoqlarning *shanshqli* qabilasining bir urug'i *mamit* (mamut) deb atalgan.

MANAQ – qishloq. Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Mazkur toponimning etimologiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, prof. Z.Do'simovning fikrlariga ko'ra, *Manaq* qirg'izlarning kichik bir urug'ining nomidir. Aslida, *manaq* so'zi eron tillar guruhiga mansub bo'lib, *miyon* so'zi orqali vujudga kelgan. Bu so'z *"markaz, o'rta"* degan ma'noni bildiradi.

Demak, **Manaq** toponimi *"O'rta markaz, O'rta qishloq"* nomli ma'nolarni bildiradi (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Toshkent, 1977. 92-bet).

MANAS – tog'. Talas Olatov cho'qqisi. O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida joylashgan tog'. Qirg'iz Manas epik qahramoniga atab qo'yilgan. Arg'in qozoq qabilasi, *Saribag'ish va chekirsayak* qirg'iz qabilalarida *manas* urug'i qayd etilgan.

MANG'IT – tuman va shahar. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Mang'it o'zbek millati tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi. O'zbekistonda "mang'it" komponenti bi-

lan bog'liq toponimlar ko'p. Bularning barchasi o'zbek qabilasi mang'it nomi bo'yicha atalgan (*-lar* – ko'plik ko'rsatkichi).

Mang'it etnotoponimdir. Mazkur etnotoponim aslida mang'it etnonimi toponimizatsiyasi asosida yuzaga kelgan. Mang'it o'zbek xalqi tarkibidagi eng qadimiy yirik qabila. Uning *oqmang'it, qoramang'it, cholmang'it, boyg'undimang'it, to'qmang'it, o'nikki, chalamang'it* kabi bo'linmalari, *temirxo'ja, esaboy, esat, guvalak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, chovqay, kulatamg'ali, mang'itqozoq, galabotir, beshkal, cholbakchak, uz, uvolay* kabi urug' tarmoqlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud[1]. Mang'it – turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga, ya'ni ularning o'tmishdagi oltoy bobtiliga tegishli so'z. Mo'g'ulcha shakli – "myangad", ya'ni minglar demakdir[2].

Ushbu etnonim O'zbekistonning qariyb barcha tumanlarida uchraydi. Mang'it atamasi qishloq, ovul, guzar, shahar, tumanning atoqli nomi, ya'ni toponim sifatida qo'llanadi. Mang'it toponimi G'ijduvon tumanida ham mavjud. Mazkur etnonim toponim sifatida bir qancha so'zlar bilan birga qo'llanadi: ***Mang'itguzar (G'uzor tumani), Mang'itto'p (Qamashi tumani), Mang'ittepa (Ishtixon tumani), Oqmang'it (Pastdarg'om Urgut tumanlari)***. Shuningdek, ***Xo'jaobod, Jondor, Buvayda, Dang'ara*** tumanlarida mang'it etnonimi toponim sifatida qo'llanadi. ***Xorazmning Gurlan, Hazorasp tumanlari***da *Mang'itsolma, Mang'ityop* kabi qishloqlar ham bor.

Mang'it – turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga, ya'ni ularning o'tmishidagi oltoy bobotiliga tegishli so'z. Mo'g'ulcha shakli – *myangad*. Mo'g'ulcha-ruscha lug'atda bu so'zga *mangol* qabilasi deb izoh berilgan, mo'g'ul tilida "ming soni" *manga (n)* so'zi bilan ifodalangan. *Myangat* "mingtilik" degani. Urug'-qabila nomlarida uch, besh, ming, qirq, yetti, olti, yuz, to'qqiz sonlarining qo'llanganligini e'tiborga olib, A.Ishayev *mang'it* etnonimini quyidagi tarkibiy qismga ajratadi: *ming + -at*. Ma'nosi – "minglar". Bu izohga ko'ra, qabila tarkibidagi aholi, jamoaning mingta yoki undan ko'pligi nomlanishga asos qilib olingan.

Shuningdek, *mang'itlar* qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, no'g'ay va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga ham kirgan.

Andijon viloyatining Xo'jaobod va Qashqadaryo viloyatining Qamashi hamda Buxoro viloyatining Jondor tumanlaridagi qishloqlar nomlari. **Mang'itlar** – Xorazm viloyatining Gurlan va Hazorasp tumanlari, **Mang'itsolma** (Mang'itsolma) – Xorazm viloyatining Gurlan tumani va b.

MANG'ITON – qishloq. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***mang'it*** – o'zbek millati tarkibiga kirgan

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T: Muharrir. 2009. –B. 160-162.

[2] Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. Samarqand, SamDChTI nashri, 2005. –B.63-65.

urug'lardan birining nomi bo'lsa, uning ikkinchi qismi ***-on*** ko'plikni ifodalovchi hisoblanadi.

Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, G'ijduvon, Peshku tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mang'it, mang'itlar – yirik o'zbek qabilasi, ularning vakillari Buxoro xonligi hududida – Buxoro vohasida, Qarshi atrofida, Zarafshon daryosining quyi va o'rta oqimlarida, Jizzax atrofida va Xorazm vohasida yashashgan.

Demak, **Mang'iton** etnotoponimi *"Mang'itlar urug'i vakillari yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

MANGULIK – Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izoh beriladi: *"abadiylik, abadiyat* (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 521-bet).

MANJULI – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. Qtay qoraqalpoq qabilalaridan biri *manjuli* deb nomlangan (Т. Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса, рис. 3, таблица родоплеменных делений).

MAQPALKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Otako'l" QFY hududida joylashgan quruq ko'l. Nomning paydo bo'lishida ko'lning tabiiy geografik xususiyati sabab bo'lgan. Ko'l olisdan qarasang, baxmalday tovlanib, jilolanib turgan va shu xususiyati sabab *Maqpalko'l* nomini olgan.

MARAZ – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq. Yag'nob tilida **baroz-baros** – *biroz past-balandlik, kichik dovon*. Baroz sug'dcha so'z bo'lib, tojik va o'zbek tillariga ham o'zlashgan. **Maraz-baroz** – *kichikroq balandik*. *Maraz* so'zining ma'nosi o'zbek tilida o'z ma'nosini yo'qotgan (Nafasov, 1988). **Marazqishloq** – *tepalikdagi qishloq* ma'nosini anglatadi.

MARBUGAT – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumani. Marbugat termini tarixiy nom hisoblanib, aslida, *Morbo'gat* shaklida yozilishi kerak bo'lib, forscha **mor** – *ilon* degan ma'noni va **bo'gat** so'zi esa sof turkcha hisoblanib, *suv yo'lidagi to'siq* ma'nosini ifodalaydi.

MARHAMAT – tuman va shahar. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mahalliy ma'lumotlarga ko'ra, 1898-yildagi Andijon qo'zg'olonida ishtirok etgani uchun buzib tashlangan bir necha qishloq o'rniga 1899-yilda boshqa joydan biroz yer ajratiladi, u joyda *Marhamat* (*"in'om"*) qishlog'i bunyod etiladi. Qishloq nomi keyinchalik tumanga ham nom bo'lib o'tgan. Qadimgi nomi – *Mingtepa*.

Tarixda Andijon qo'zg'oloni nomini olgan Dukchi eshon qo'zg'oloni hozirgi Marhamat o'rnidagi Mingtepa qishlog'i va uning atrofida boshlangan. Qo'zg'olon shafqatsiz bostirilgach, rus mustamlakachilari mahalliy aholidan ayovsiz o'ch olgan. Mingtepa qishlog'i yer bilan yakson qilinib, uning o'rnida rus selosi qurilgan.

Mingtepa qishlog'i o'rnida qadimiy Davan podsholigining Ershi shahri

xarobalari qisman saqlangan. Xitoyliklar miloddan avvalgi 101-yilda 60 ming kishilik qo'shin bilan Farg'ona vodiysiga bostirib kelib, Ershi shahrini qamal qilib, ishg'ol eta olmaganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar strategik jihatdan qulay joyda joylashgan.

O'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan Ming qabilasi borligini ham unutmaslik kerak. Dastlab etnonimlar qandaydir etnik guruhlarning nomlari sifatida shakllangan, keyinchalik esa joy nomlari – etnotoponimlarga aylangan. T.Nafasovning yozishicha, *Ming (Minglar)* XV asrning oxiri – XVI asrning boshida Dashti Qipchoqdan ko'chib kelishgan.

Ba'zan, *Minglarni tumon* yoki *tumonming* ham deyishgan. Ming nomini *"ko'p", "ko'pchilik"* degan ma'nosi ham borligi qayd qilingan. X.Doniyorovning yozishicha, "Minglar o'zbekning eng katta va e'tiborli qabilalaridan biri bo'lgan. Ular boshqalarga nisbatan oldinroq o'troq yashashga o'tganligi sababli, Minglarning asosiy qismi sipolashgan (shaharlashgan) va boshqa qabilalarga nisbatan oldinroq o'zlarining urug'- aymoqlarini unutgan".

Ming qabilasi tarkibidagi urug'lar soni bo'yicha yagona fikr yo'q. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon okrugida bu qabilani o'rgangan A.D.Grebenkin ma'lumotlariga qaraganda, "Minglar uchta asosiy urug' va ular tarkibidagi bir qancha tarmoqlardan iborat bo'lgan: a) *to'g'alilar (ahmad, chag'ir, tunnamoz, oqshiq* va boshqalar); b) *bog'lonlar (chibli, qora, mirza* va boshqalar); *uvoqtamg'alilar (kiyikxo'ja, chavutjayli, algal, o'ramas, to'qnamoz, yarat* va boshqalar)". XIX asrning oxiriga kelib Minglarning ko'pchiligi o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullangan.

MARJANKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanidagi "Janadaryo" QFY hududida joylashgan ko'l va aholi punkti nomi. Ko'l nomi, asosan, ko'lning tabiiy geografik xususiyati negizida paydo bo'lgan. Olisdan qaraganda ko'lning suvi marjonday yaltiroq bo'lganligidan ko'l shu nom bilan atalgan. Keyinchalik esa bu nom ko'lning bo'yida joylashgan aholi punkti nomiga o'tgan.

MARJON//MARJONBULOQ – ***Marjon*** Jizzax viloyatining G'allaorol tumanlaridagi qishloqlar nomi. ***Marjonbuloq*** – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida 1970-yili bunyod etilgan shahar nomidir. Hozir qishloq o'rnida ***Marjonbuloq*** oltin fabrikasiga xomashyo yetkazib beruvchi karyer joylashgan. Uning chekkasida uchta uy saqlanib qolgan, xolos. Yoshi ulug' keksalar nutqida mazkur nom saqlanib qolgan, biroq keyingi avlod vakillari ushbu nom yuzasidan tushuncha va tasavvurga ega emaslar, aslida, bunday nomlarni qaytadan tiklash maqsadga muvofiqdir.

MARKAZ – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi mahalla nomi. Markaz arabcha so'z bo'lib, unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: *"O'rtalik, o'rta yer;*

holat, mavqe, vaziyat. Aholi yashaydigan joyning ma'muriy binolar, savdo va boshqa muassasalar o'rnashgan asosiy qismi" (O'TIL. 2022, II, 544). Hudud markazga yaqin joylashganligi sababli shunday atalgan.

MARKENT – Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ***mar*** va ***kent*** komponentlarining qo'shilishidan tashkil topgan. Apellyativning birinchi komponenti ***Mar*** sanskritcha ***Maru*** "*cho'l, sahro*" ma'nosini ifodalaydi hamda uning ikkinchi qismi kent esa "*qishloq, ovul, qo'rg'on*" demakdir.

Shunday ekan, ***Markent*** – "*cho'ldagi yoki sahrodagi qishloq*" ma'nosini anglatadi.

MARZBON – Samarqand ostidagi tarixiy viloyat, arab geograflari asarlarida tilga olingan. Viloyat o'zining nomini mazkur viloyatning hukmdori Marzbon ibn Turgash nomidan olgan (В.В.Бартольд, Сочинения, т. I. С. 146).

Demak, *Marzbon* so'zi "*hukmdor*" ma'nosini ifodalaydi.

MARQAYUZ – qishloq. Andijon viloyatining Shahrixon tumanidagi qishloq nomi. Marqa – ming, yuz, qirq o'zbek qabilalarining bog'lovchisidir. Marqayuz – mazkur bog'lovchining komponentlaridan biri (**marqa** – *katta, bosh).*

MARZBON IBN TURGASH – Samarqandning o'rta asrdagi tumanlaridan biri. Mazkur tuman hokimi Marzbon ibn Turgash nomi bilan atalgan.

V. Bartoldning qayd qilishicha, Marzbon ibn Turgash sug'dning boshqa dehqonlari bilan birga Bag'dodga – xalifa saroyiga xizmatga chaqirilgan. 225/840-yili Usrushona hokimi Afshinni xoinlikda ayblash jarayonida ishtirok etgan (Bartold, 1963).

"*Marzbon*" termin. **Marzbon** – *yer egasi, zamindor.* Fors tilida **"marz"** – *yer*; **marzbon** ko'chma ma'noda *hokim va podshoh.* (Muhammad G'iyosuddin, 1988). Bu o'rinda *tuman hokimi* ma'nosidadir.

MARG'ILON// MARG'INON – Farg'ona viloyatidagi ko'hna shahar nomlaridan biri. Astionim X asr manbalarida: arab sayyohlari Abu Bakr al-Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Xavqal asarlarida Farg'ona vodiysining Quyi Nesi'ya (vodiyning janubiy qismida, ya'ni Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'irlaridagi Nasoy tumani) viloyatiga tegishli bo'lgan *Zenderamsh, Nejreng, Ushtikan, Andukan* singari shahar nomlari qatorida tilga olinadi. Shu bilan bir qatorda Ibn Xavqal ushbu hududlarning tabiatini tasvirlab, yaylov va o'tloqli tekisliklardan iborat ekanligini, ular orasida tog'lar yo'qligini ham ilova qilib o'tadi.

"Boburnoma"da esa Marg'ilon Farg'ona vodiysining "yetti pora qasabasi" sifatida e'tirof etilib, muallif tomonidan shahar tavsifiga doir shunday ma'lumotlar beriladi: *"Yana bir Marg'inondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur, pur ne'mat; anori va o'rugi asru ko'p-xo'b bo'lur... Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo'lur. Eli sorttur va mushtzan va purshar-u sho'r eldur. Jangaraliq*

rasmi Movarounnahrda shoye'dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur".

Is'hoqxon to'ra Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida ham Marg'ilon astionimi o'tgan asr boshlarida Farg'ona gubernasining beshta eng yirik ma'muriy-hududiy bo'linmasi nomlaridan biri sifatida qayd etiladi va uning kelib chiqishi haqida "Ajoyib ul-buldon" dan keltirilgan quyidagi rivoyat bayon etiladi: *"Hazrati Iskandar zamonlarida aqsoyi sharqg'a borganlarida Farg'ona yerida bir-ikki forsistondan muhojir bo'lub kelib o'lturgan bechora, dehqoni bodiyanishinlar bor ekan. Podshohga arzi ahvol qilmoq bo'lub, peshkash uchun non-u tuz o'rnig'a bisotlaridagi tovuqlarini pishirub, hazrati Iskandarga tutgan ekanlar. Anda hazrati Iskandar savol qilubdurlarki, bu nimadur, deb. Anda arz qilg'uvchilar forsiy lafzda javob beribdurlarki, murg'u non, ya'ni tovuq birlan non deganlar ... Ammoki ahvolda Marg'inon derlar, o'shal tovuq ilan non tutgan yerdur, Marg'inon shahri ismi bo'lub, Farg'ona umumiy iqlimga ismdur".*

"Ajoyib ul-buldon" asaridan keltirilgan ushbu parcha xalq etimologiyasiga asoslangan bo'lib, astionim etimoni xususida aniq bir ilmiy yechim taqdim etolmasa-da, mazkur naql, rivoyatda yoki yuqorida sanab o'tilgan X–XVI asr yodnomalaridagi ma'lumotlarda ma'lum ma'noda Marg'ilonsoy vohasining ko'kalamzor va purne'mat tabiati, hosildor tekisliklari, qadimdan mazkur o'lkada dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining yuzaga kelishi, qolaversa, aholisining tili o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy toponimikaga oid ilmiy tadqiqotlarda ham Marg'ilon nomining kelib chiqishiga doir turlicha talqinlarni kuzatish mumkin. Toponimshunos S.Qorayev astionimni *marg'* – "o't-loq", "ko'kalamzor" ma'nolari bilan bog'laydi (С.Қораев. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент, 2005. 159-бет). "Marg'ilon shahri va uning atroflari toponimiyasi" mavzusida izlanishlar olib borgan J.Latipovning fikriga qaraganda esa Marg'ilon astionimi ***marg'i*** etnonimi bilan aloqadordir.

Z.Do'simov, X.Egamovlar ham olimning ushbu fikrlariga asoslangan holda astionim yozma manbalarda *Marg'ilon, Marg'inot* shaklida uchrashini bayon etish bilan bir qatorda uning tarkibidagi ***on*** va ***ot*** qo'shimchalari ko'plik belgisi hisoblanib, kishilar guruhiga ishora qilishini, shuning uchun toponim *marg'lar*, ya'ni "o'tloqda yashovchi, o'rmonda yashovchi yoki chorvador" degan ma'noni anglatishini ta'kidlaydilar (З.Дўсимов, Х. Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1977. 94-бет).

A.Muhammadjonov tadqiqotlarida astionim tarkibiy qismi ikki morfemedan tashkil topgan bo'lib *(marg' (murg' // mardj) – on // lon* yoki *marg' (marg'i) – kon // jon)*, qadimda "Marg'ijon" yoki "Marg'ikon" shaklida talaffuz etilgan va "Yayloqsoy",

ya'ni "ko'kalamzordan oqib o'tadigan suv" degan ma'nolarni bildirishi haqidagi fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, astionim tarkibidagi *marg'* morfemasi tarixiy joy nomlari tarkibida faol qo'llanuvchi toponimik leksema sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu birlik bilan hosil qilingan geografik obyekt nomlari O'zbekiston toponimiyasidan keng o'rin olgan. Bunga o'z navbatida asosi *marg'* leksemali *Marg'zor, Martepa, Mag'zon, Miraki, Marg'i Sharqiy, Marg'iqozi, Mardon, Marg'on, Marg'it, Maymarg'* singari yurtimiz toponimik tizimiga tegishli bir qancha nomlarni misol qilib keltirish mumkin.

Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, mazkur leksema sug'diy tillarga mansub bo'lib, "Navoiy asarlari lug'ati" da *marg'* – "o't", "hayvonlar yeydigan o'simlik" ma'nosida, "Muntaxab ul-lug'ot" da *marj* – "o'txo'r hayvonlar yuradigan joy", "yaylov" ma'nosida izohlanadi. "Zubd ul-lug'ot"da esa: "Marg' – giyohedurki aning qadi yarim qarishdan ziyoda bo'lmog'ay. Va ba'zilar ajiriqni ayturlar. Marg'zor, ya'ni giyohzor va sabzazor demakdur. Bu vajhdin bo'ston va gulistonlarni marg'zor derlar", – degan ma'lumotni o'qish mumkin.

Rus olimi E.Murzayev fikricha ham *marg'* birligi geografik termin hisoblanib, tojik tilida *marg'* – "o'tzor", "maysazor", "tog' yonbag'ridagi ko'kalamzor joy", fors tilida *marg'* – "chim", "yaylov", "ko'kalamzor joy" ma'nosida qo'llanadi.

Shuningdek, olim Namangan viloyatidagi *Morguzar,* biz tadqiq etayotgan *Marg'ilon* toponimlari hamda *Murg'ob* gidronimi tarkibiy qismi ham aynan mana shu termin bilan hosil qilinganini ta'kidlab o'tadi.

T.Nafasov esa o'zining "Qashqadaryo qishloqnomasi" nomli lug'atida *marg'* leksemali voha toponimlarini tahlil qilish barobarida birlikning turli tillarga xos bo'lgan bir qancha talqinlarini berib o'tadi: tojik tilida *marg'* – "o't", "o't-o'lang"; "o'tloq", "yaylov", "o'tloqcha". "Avesto" da *marag'a* – "o't", sug'd tilida *marg',* manixey matnlarida *marg'* – "o't", arfg'on tilida *marg'a* – "xashakbop o't", "chim". Tojikiston joy nomlari tizimida *marg' – marr // mar* –"o'tloq", "yaylov", "o't-o'langa boy joy". Shu bilan bir qatorda olim "marg'" leksemasini qishloq nomlari majmuyining tarkibiy qismi sifatida oykonim yasovchi maxsus so'zlar (hozir ularning ko'pchiligi mustaqil so'zlik maqomini yo'qotib, qishloq nomining ajralmas qismiga aylangan, ma'nosi uqilmaydi, yangi nom yasamaydi, qadimiy nomlar tarkibida qotib qolgan) guruhi sifatida tilga oladi va bu birlik bilan yasalgan *Mag'zon, Pomuq, Konimex, Marg'ilon, Marmin, Marg'zor* singari joy nomlarini keltirib o'tadi.

Yuqorida qayd etilgan tahlil va talqinlar shuni ko'rsatadiki, Marg'ilon astionimi Markaziy Osiyoda eramizning IV–IX asrlarida juda keng tarqalgan sug'd tili asosida shakllangan bo'lib, nom asosini tashkil qiluvchi ***marg'*** geografik termini – "o'tloq",

"maysazor", "ko'kalamzor joy", ***on // non // lon*** morfemasi esa ko'plik va jamlik ma'nosini bildiradi.

Shundan kelib chiqib astionimni "o't-o'langa boy joy", "ko'kalamzor joylari ko'p bo'lgan makon" sifatida izohlash to'g'riroq bo'ladi. Chunki har qanday toponim nominatsiyasida joyning jug'rofik o'rni, tabiati, aholisining qishloq xo'jaligi, mashg'uloti, tili ma'lum ma'noda o'z aksini topadi. Marg'ilon astionimi nominatsiyasida esa joyning tabiati muhim ahamiyat kasb etgan.

MAROKAND – *Smarakansa – Samarqand... (toponimik manbalar)* Mashhur tilshunos V.A.Livshis Sug'd so'zining fonetik variantlari Sg'ud va Sug'ud ekanligi haqida to'xtalib, Zarafshon vodiysining hozirgi toponimiyasida o'lkaning qadimiy talaffuzi kamdan-kam nomlarda, ya'ni Sug'du (Yag'nob daryosi vodiysidagi nom) va ehtimol, Sug'ot (yoki Sug'ut, Samarqanddan 75 km narida joylashgan qishloq nomi) so'zlarida saqlanib qolgan, deydi.

Sug'd deb atalgan mazkur hududda kushonlar, eftalitlar, turklar, somoniylar, qoraxoniylar, temuriylar, shayboniylar, joniylar, mang'itiylar singari sulolalar hukmronlik qilishdi. Ushbu davlatlarning siyosiy-iqtisodiy, savdo-sotiq va madaniy aloqalari ularning Sharq va G'arb o'rtasidagi mavqeyini belgilab bergan. Natijada Xitoydan tortib Vizantiya imperiyasiga qadar bo'lgan Buyuk Ipak yo'lida o'ziga xos munosabatlar shakllanganligini ko'ramiz.

X asrda yashab o'tgan Abu Bakr al-Xorazmiy "Samarqand Sug'di yer yuzining jannatlaridan biri", deb ta'riflagan bo'lsa, ingliz sayohatchisi Aleksandr Borns (1832) iqlimining ajoyibligi, suvi shirinligi tufayli "...bu qadimiy vodiy Aleksandr Makedonskiy davridan beri maqtovga sazovor bo'lib kelmoqda", – deydi. Ilk madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Samarqand shahri va viloyati qadimiy nomlar – toponimlarning ham dunyoga kelishida, yaratilishi va saqlanib qolinishida katta o'rin tutadi. Joy nomlari xalq ijodi, hozirjavobligi, teran kuzatuvchanligining mahsuli. U xalq tarixining bir qismini o'zida mujassamlantiradi.

Samarqand toponimiyasini o'rganish va lingvistik tahlil qilishda ularning yozma yodgorliklarda uchragan ilk shakllari, tarixiy, geografik adabiyotlar, dala materiallari asosida ish olib borish talab qilinadi. Viloyat hududiga tegishli eng qadimiy manbalar va bugungi ma'lumotlarni o'zaro qiyoslab o'rganish natijasidagina ularning tarixi va etimologiyasi haqida to'g'ri fikr yuritish mumkin. Ular o'zlarida xalq dunyoqarashi, rivoyatlari, diniy afsonalar, o'tmish haqidagi xotiralarni, etnik tushunchalar va turmushlar haqidagi ko'plab ma'lumotlarni saqlab qoladi. Toponimlar ko'pincha moziy haqidagi afsonalarga aylanadi. Sug'd haqidagi shunday ma'lumotlardan biri "Avesto" bo'lib (eramizdan avvalgi 1-ming yillikning

birinchi yarmi), uning "Videvdat" qismida shunday deyiladi: "Men, Ahuramazda, birinchi marta eng yaxshi joy va mamlakatlarni Ariana-Vejani yaratdim... Ikkinchi bo'lib, sug'dlar yashayotgan joy – Gavani yaratdim..."

Bu Sug'd haqidagi ilk eslatma bo'lib, bundan keyingi bitiklarda u tez-tez uchrab turadi. Shuningdek, Doro I nomi bilan bog'liq Behistan, Persepol bitigida, Hamadondan topilgan kumush taxtachada, Suza yodgorligida, Shopur I bitiklarida, antik davr mualliflari Kvint Flaviy Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Diodor Ssiliyskiy, Pompey Trog asarlarida Samarqand hududi bilan bog'liq toponimlar juda ko'p. Samarqandning geografik nomlari uchun Tan sulolasi (618–907) davrida bitilgan "Szyu Tan shu", "Sin Tan shu" kabi yilnomalar, arab xalifaligi davri va undan keyingi asrlarda yaratilgan asarlar, rus sayyohlari va sharqshunos olimlari ishlari ham muhim toponimik manbadir.

MASLAHAT – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumani, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani. *Maslahat* – oldingi davrning kambag'al toponimi.

MATONAT – Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. Matonat arabcha so'z bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: *"Mustahkamlik, qat'iylik; salobat degan ma'noni anglatadi. Qattiq bardosh, sabot, chidam"* (O'TIL. II, 557).

Mustaqillik davri mahsuli hisoblangan bunday nomdagi toponimlar Xorazm, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hududlarida ham uchraydi.

MATQULOBOD – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi qishloq nomi. Matqul (to'g'rirog'i, Muhammadqul) – qishloq asoschisining nomi, *obod* – obodonlashtirilgan (toponimlar tarkibida mazkur termin *"aholi joylashgan punkt"* ma'nosini ifodalaydi).

MAVRILAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponimni hosil qilgan *mavri* so'zi *"Mavrga, arablarga tegishli"* degan ma'nolarni bildiradi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, **Mavrilar** – *"mavr urug'i yashab o'tgan joy"* ma'nosini bildiradi.

MAXDUMI A'ZAM MAJMUASI – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida bunyod etilgan me'moriy yodgorlik nomi.

Samarqand shahri hokimi Yalangto'sh Bahodir mashhur shayx, so'fiylar namoyandasi Maxdumi A'zam nomiga xonaqoh, daxma qurdirgan. XVII asrda esa katta masjid barpo etilgan.

MAXDUMI XORAZMI – Tarixiy antropotoponim. Samarqand shahrida XV asr oxiri va XVI asr boshlarida bunyod etilgan mahalla nomi. (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. B. 14).

Xorazm viloyatidan ko'chib kelib, shu hududda yashab, naqshbandiylik tariqati ulamosi va mashoyixlik darajasiga yetgan kishi nomiga qo'yilgan mahalla nomi.

MAXSUMLAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, **Maxsumlar** aslida **Maxdumlar** – *"chorvasi, mol-mulki ko'p bo'lgan, yetim-yesirlarga ko'maklashadigan kishilar yashaydigan joy"* demakdir. O'tmishda mullaning, ruhoniy shaxsning o'g'il farzandi *maxsum (maxdum)* deyilgan. Bu so'z adabiy tildagi *maxdum* (diniy ulamo va ruhoniylar unvoni va shu unvonga sazovor bo'lgan kishi) so'zining o'zgargan shakli. Toponim tarkibidagi *-lar* komponenti o'zbekcha ko'plik affiksidir.

Demak, **Maxsumlar** – *"maxsum unvonli kishilar yashaydigan joy"* ma'nosidadir.

MAYGIR – Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi qishloq. Asli nomi *"Mohigir"*, ya'ni *baliq tutadigan joy* ma'nosida. Uzoq tariximizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qadimda o'troqlashayotgan o'zbek urug'lari shu yerlarda ham baliq ovlab, keyinchalik o'troqlashib qolgan va shu nomda qishloq paydo bo'lgan.

"Boburnoma"da "Mohixona" deb yozilgan, ya'ni baliq tutadigan joy nomi bor. ("Suv to'kilur joylarda uy o'rnicha yerni chuqurroq qilib... (atrofiga) tosh qalarlar. Bu yerga suv quyidin bir eshik qo'yarlar... Ushbu bir eshikdin hech bir balig' chiqa olmas, kerak bo'lsa bu chuqurlarning birini ochib, qirq-ellik balig'ni bir zamonda (bir vaqtda – S.J.) (tutib) keltirurlar", "Boburnoma"dan).

MAYDAYOBU – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumani. *Yobu* (*yobu, jobi*) – *kichik o'zbek urug'i*, Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimida, Qarshi cho'lida yashagan; *Mayda-mayda, yirik bo'lmagan* (bu yerda – *kam sonli*) *millat* tushunilgan.

MAYDAJOBU – Samarqand viloyatining Narpay tumani. *Jobu(yobu)* turkiy etnonim, o'zbek qabilalaridan biri. Manbalarda *yobu, yovu, yovi, jobili* shakllarida uchraydi.

G'arbiy turklarning oliy hukmdorlik unvonlaridan biri yobg'u (yabg'u) deb atalgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ham "yabg'u" termini uchraydi. Qadimiy turklarda bu unvon qabila boshlig'i yoki qabilalar ittifoqi boshlig'iga berilgan.

Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan bo'lgan qarluq xonlari ham yobg'u deb atalgan. Yobular o'zbeklar orasida kichik guruhni (1926-yil ma'lumotlariga ko'ra, 4 mingga yaqin kishini) tashkil etgan. Tarqoq holda Zarafshonning o'rta va quyi oqimi (hozirgi Payariq, Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on, Narpay, G'ijduvon)da va Qarshi cho'lida yashaganlar. Yobular qozoqlar tarkibida ham mavjud.

Yobular avlodlari o'zbek millati tarkibiga singib ketgan. Yobular bilan bog'liq qishloq nomlari Samarqand, Buxoro va boshqa viloyatlarda ko'plab uchraydi. Paxtachi tumanidagi *Eshmatjobi*, Buxoro tumanidagi *Yobuxona*, Konimex tumanidagi *Yobiariq* kabi qishloqlar shular jumlasidandir.

MAYDAMILLAT – qishloq va mahalla nomi. Xorazm viloyatining Bog'ot tumani. *Mayda millat* – milliy

ozchilik. O'zbekistonda kichik xalqlar vakillari, masalan, Markaziy Osiyo qipchoqlari va boshqalar shunday nomlangan edi.

MAYDON – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumani, Navoiy viloyatining Xatirchi tumani, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani. **Maydon** (arabcha) – *kvadrat, maydon*, bu yerda *"ochiq keng joy"*. **Maydon** (arabcha) – *dala*, bu yerda *"maydonning ochiq, oddiy joylari"* nazarda tutilgan.

MAYDONTOL – qiya. G'arbiy Tyanshan (Toshkent viloyati)dagi tog' tizmasi. ***Maydon*** va **tol** aynan *"Tol"*, ehtimol, arabcha **To (l)** – *tepalik, cho'qqi, balandlik*. Demak, **Maydontol** – *bir xil balandlikdagi tepalik* ma'nosini anglatadi.

MAYJAP//MAYYOP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy va Taxtako'pir tumanida oqadigan kanal. 1979-yilda bu kanalni Mayjap aholi punktida istiqomat qiluvchi kishilar qazishadi va nomini shunday atashadi. Chimboy tumanida ham Mayjap kanali bor, u Qizilo'zek va Mayjap aholi punktlarining sharqiy tomonidan oqadi.

MAYINTEPA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim *"**mayin**"* va *"**tepa**"* qismlaridan iboratdir. *"**Mayin // mayn**"* so'zi sug'dcha bo'lib, *"qishloq"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 2, 528; B.O'rinboyev, 114].

*"**Tepa**"* umumturkiy so'z bo'lib, *"yer sathidan baland, do'ng joy, balandlik, tepalik"* ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 4, 66]. Shunga ko'ra mazkur mikrotoponimni *"balandlikdagi qishloq, yashash maskani"*, deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

Mayn – yag'nob tilida ham *"qishloq"* demakdir (Do'simov, 1977, 14), bundan ham *"tepalikda joylashgan qishloq"* ma'nosi anglanadi. Mazkur joyga yaqin joylashgan *"**Tojikovul**"* da yashagan tojik millati vakillari tomonidan qo'yilganiga ishora qiladi. Leksik jihatdan ikki o'zakli sifat+ot shakliga xos.

MAYMANAK – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani. (Maymanaqsoy – Qashqadaryo irmog'i). **Maymana** – (arabcha) *o'ng tomon, o'ng qanot; -ak* – erkalash-kichraytish affiksi (bu yerda: toponim hosil qiluvchi formant).

Ariqning bunday nomi Qashqadaryo daryosiga nisbatan: *"o'ng irmoq"* ma'nosida nomlangan bo'lishi kerak.

MAYMURG' – Samarqand viloyatidagi o'rta asr hokimliklaridan biri. Samarqandning janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, keyinchalik hududlariga to'g'ri keladi. Maymurg' hokimligining markazi *Boside* shahri Urgut tumanidagi Quldortepa yodgorligining o'rnida bo'lgan.

Istaxriyning yozishicha, Naxshabdan g'arb sari bir kunlik yo'ldagi Kesh viloyatlaridan birining nomi ham *Maymurg'* bo'lgan. **Maymurg'** sug'd tilidagi **mayn** – *qishloq* va **murg', marg'** – *o't-o'lan, ko'kat* so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, *"o't-o'lanli joy-*

dagi qishloq, yaylovda joylashgan ovul, bahor va yozda yashaydigan qishloq" ma'nolarini bildiradi (Nafasov, 1988).

MAZANG – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani. *Mazang* so'zining dastlabki ma'nosi *"yog'och kalit"*dir. Majoziy ma'noda **mazang** – *oziq-ovqat, shuningdek, qishloq xo'jaligi mollarini sotish bilan shug'ullanuvchi "joylashgan lo'lilar".*

MAZANG KO'CHA – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi ***qishloq*** nomi. Ilmiy manbalarda ***Mazang*** *lo'li* qabilalaridan biri[1] – deb qayd etiladi.

Toponimist S.Qorayev esa ***mazang*** so'zining asl ma'nosi *"tamba, lo'kidon"* deya ta'kidlaydi. Olimning fikricha, baqqolchilik, shuningdek, ***qishloq*** xo'jaligi bilan shug'ullangan, o'troq lo'lilar ***mazang*** deyilgan.

Demak, ***Mazangko'cha*** – *"lo'lilar yashaydigan ko'cha yoki **qishloq**"* ma'nosida bo'lsa kerak[2], – deya sharh bergan.

MAZARAK – hozirgi *Tortuvli* qishlog'ining eski nomi. Manbalarda *Mazarak* keyinchalik ikki qishloqqa bo'linib ketganligi ta'kidlanadi. Ulardan biri *Kapaqishloq* bo'lib, keyinchalik *Mirkand* (Dahbed volosti) deb atala boshlangan. Ikkinchisi Shaxob volostidagi *Turtig'ar (To'rtayg'ir)*dir (Chexovich, 1974).

MAZDAXIN yoki **MAZAXIN** – Samarqand shahridagi ariqlardan birining nomi. Keyinchalik *Navbaxchiyon* deb atala boshlagan (Vyatkin, 1902).

MAZDUBAST – Xorazm viloyatining Tuyamo'yin gidrouzeli majmuasi yaqinidagi Amudaryo quruq irmog'i.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Amudaryoning suvi mazkur quruq irmoq orqali Qoraqumga oqqan.

Bu komponent ikki qismdan tashkil topgan: *Mazda (Mazdak)* – mazdaizm ma'budining nomi bo'lib, *bast* elementi esa *"qal'a", "to'g'on", "kanal"* ma'nolarini ifodalagan. Shunday qilib, **Mazdubast** – *"Mazda (Mazdak)ning to'g'oni"* ma'nosini anglatgan.

MAZRAGON – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat: arabcha **mazraa** – *ekin maydonlari, dala*; **-gon** – forscha ko'plik ko'rsatkichidir.

Shunday ekan, **Mazragon** toponimi *"ekin maydoni"* ma'nosini ifodalaydi.

MAG'ZON – mahalla, sobiq qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri. Mag'zon nomi haqida turli farazlar mavjud: usti qattiq to'sin bilan o'ralgan mevalarning hosili ma'nosidagi forsiy mag'iz so'zi va ko'plikni bildiruvchi *-on* qo'shimchasidan yaralganmish. **Mag'iz+on** (*mag'izi ko'p, mag'izli*) qo'shilishidan **Mag'zon** yaralganmish. Qishloq aholisi mag'iz tayyorlash bilan mashhur bo'lganmish.

Boshqa bir farazga ko'ra, tojikcha **nag'z** (ma'nosi – *yaxshi, durust, a'lo*) so'ziga *on (u)* kalimasi qo'shilib, *nag'z on (u yaxshi)* yaralganmish. Odamlar-

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. –С.741.

[2] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.75.

ning fe'l-atvori yaxshi bo'lgan emish. Farazlar nomning hozirgi shakliga berilgan talqinlardir.

Nomning qadimiy shakli – *Marg'-zor*. Sug'dcha **marg'** – *o't, ko'kat, chorva xush ko'radigan o'simliklar. Marg'* so'zi shu ma'nosida yag'nobliklar tilida hozir ham ishlatiladi. *Yag'noblik lar* – sug'dlarning avlodlari. Ular Zarafshon daryosining bosh qismida yashashadi. Marg' kalimasi eroniy tillarning bir qator yodgorliklarida zikrlangan.

Sug'diy buddiy matnlarida, manixey yodnomalarida **marg'** – *o'tloq, o't o'sgan joy.*

Qadimgi "Avesto"da **marg'** – *o'tloq, yaylov.* Pushtu tilida **marg'a** – *xashakbop o't* ma'nosini ifodalagan. Eroniy tillarning bir qancha lahjalarida bu so'z sal shakliy o'zgacharoq ko'rinishda bo'lgan. Tojik tili o'tmishida bu kalima faol qo'llangan. Ma'nolari – *o't, ko'kat; o'tloq, o't ko'p o'sgan joy; chamanzor.*

X asrda tuzilgan Asadiy Tusiyning "Lug'ati fors" qomusida bu so'z shu ma'nolarda zikr qilingan. Tojik tili o'tmishida bu so'zga *-zor* qo'shimchasi qo'shilgan: **marg'zor.** Ma'nosi – *chamanzor, sabzazor, o'tloq.* Hozirgi fors tilida **marg'zor** – *o'tloq, yaylov; maydoni kichik o'tloq.* Marg'zor so'zi o'zbek tilida sug'd va fors, tojik tillaridan X–XIII asrlarda o'zlashgan.

XIV asr yodgorligi Qutbning "Xisrav va Shirin" dostonida qo'llangan. A.Navoiyning "Sab'ayi sayyor", "Vaqfiya" va boshqa asarlarida *marg'zor* kalimasi ko'p qo'llangan. Ma'nolari – *ko'm-ko'k o'tli joy, o'tloq, chamanzor, sabzazor, yaylov.* Mag'zon qishlog'i nomining yaralishi Naxshab shahri kechmishi bilan bog'liq. Naxshabliklarning bahorgi va yozgi qarorgohi bo'lgan. Naxshabliklar chorvasining o'rni bo'lgan. Nom IX–X asrlarda yaratilgan. Tovush qiyofasi o'zbek tili ichida o'zgargan: *Marg'zor – mag'zor – mag'zon – Mag'zon.*

MAG'OKI ATTORI – Buxoro shahri guzari. Forschada *mag'ok* – 1) chuqurlashtirish, xandaq; 2) g'or; 3) podval, yerosti uyi. *Mag'oki attori* – "Attorlar xandag'i", kasb-hunarga ko'ra, G'uzor aholisining aksariyati attorlik buyumlari savdogarlari bo'lgan. Bu yerda joylashgan masjid tuproqning cho'kishi natijasida asta-sekin chuqurlashib, depressiyani hosil qilgan. (O.A.Сухарева. Кварталь ная община Бухары. С. 215).

MAG'OKI KO'RPA – Choyshablar bozoridagi bo'shliq. "Buxoroning ushbu choragi hududining muhim qismini savdo qatorlari egallagan. Bu yerda tayyor ko'rpalar sotilgan" (O.A. Сухарева. Кварталь ная община Бухары. С. 193). Shu yerdan dahaning, guzarning nomi kelib chiqqan.

MASHAD// MASHAT – Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumani va Marg'ilon shahridagi mahalla hamda qishloq nomi. Arabcha *Mashhad* so'zidan olingan bo'lsa, *"shahid qoni to'kilgan yoki shahid ko'milgan joy"* degan ma'noni anglatadi. Mashad so'zi urug' nomi bo'lishi yoki suvlik,

daryoga aloqador bo'lishi haqidagi fikrlar ham aytiladi.

Mashat – toshli tuproqdagi buloqcha, uning *bashat* (yoki *tashbashat*) – "*Toshli bashat*" varianti ham bor – buloqchadan chiqadigan suv shu yerning o'zida yerga singib ketadi (К.К. Юдахин, Киргизско-русский словарь).

MASHAOVUL – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Qozoqlarning alimuli qabilasining *masha* urug'i bo'lgan. Qozoqlar *mayda pashshani masha* deyishgan va shu tariqa hudud shunday nom olgan.

MACHIT – *ibodatxona* (arabcha *masjid).* Xiva xonligidagi eski ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, u ilmiy manbalarda shunday qayd etilgan:

1) *musulmonlar ibodatxonasi;*

2) *kichik qishloq* (Изв. ТОРГО, т. I, 1899, вып. 2, Ташкент, 1900. С. 159);

3) *Xivadagi birinchi ma'muriy birlik* (П.П.Иванов. Архив хивинских ханов. ЛГУ, 1940. С. 21).

MACHITBALAND – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim **Machit** (*Masjid*) va ***baland*** so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan. ***Machit*** so'zi "*masjid, ibodatxona*" ma'nolaridan tashqari, yana bir qancha tushunchalarni ifodalaydi.

Jumladan, Xorazmda tarqoq xonadonlarni birlashtiruvchi, xon farmonlarini xalqqa yetkazuvchi ma'muriy idora kabi ma'nolarni anglatadi, shuningdek, qishloq markazi ham masjid deyilgan.

Ba'zi hollarda "*qishloq*" so'ziga teng ma'noda ishlatilgan, ko'pincha qishloq machit nomi bilan yuritilgan. Shuning uchun ham mazkur so'z toponimlar tarkibida ko'plab uchraydi. *Oqmachit, Machitli, Balandmachit, Qo'shmachit* kabilar shular jumlasidandir.

Demak, ***Machitbaland*** – "*yuqoridagi yoxud balanddagi qishloq*" ma'nosini bildiradi.

MA'DANI SHOSH – Toshkent yaqinida joylashgan "Shash koni". Bu haqida birinchi bor VIII–XIII asrlarda Abbosiylar sulolasi davrida zarb qilingan tangalarda qayd etilgan.

MA'MUROBOD – qishloq. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq nomi. Ma'mur, **Ma'murobod** – *ma'muriylar qishlog'i (shahri)* ma'nosini bildiradi.

MA'NAVIYAT – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Mazkur nom "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "*Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmuyi*" (O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild, 564-bet). Ushbu nom mustaqillik mahsuli sanaladi.

MA'RIFAT – Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahallalarning nomlaridan biri hisoblanib, mazkur termin arabcha *"bilim, fan; ma'lumot"* ma'nolarini bildiradi.

MEVASTON – Xorazm viloyati Xiva shahridagi mahalla nomlaridan biri. Rivoyat qilishlaricha, atrofi keng maydonlikda xon to'rtta shovvozga

yer ajratib bergan. Bir kuni shu yerdan xon o'tayotgan vaqtda shovvozlar yerga poliz mahsulotlari, qovun-tarvuz ekkanliklarini ko'rib, hormang endi, nima harakat, bu qovun-tarvuzlarni qachon yeymiz, deb so'raganida shovvozlar, Alloh xohlasa qaytishingizda, deb javob bergan ekanlar va Allohning xohish-irodasi bilan xon qaytib kelishida kechga yaqin qovun-tarvuzlar pishib turganini ko'rib hayratda qolgan. Qovun bittasi uchta kosa bo'lagiga o'xshab pishgan, xon shundan bir bo'lagini yeb ko'rib, bu qovunning mag'zi tilni yoradigan va hudud mevaga kon ekan-ku, – deb, shundan ushbu hudud *Mevakon*, keyinchalik esa *Mevaston* deb nomlana boshlagan.

MEVAZOR – Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahallalarning nomlaridan biri. U mustaqillik yillarida qo'yilgan nom bo'lib, mazkur termin "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *mevali daraxtlar bilan band joy, mevali bog'* ma'nolarini ifodalashi qayd etilgan. Bunday nom respublikamizning ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash lozim.

MEHNAT GULI – Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mustaqillik yillarida atalgan mazkur toponim mehnat evaziga ko'p gullar ekilgan hudud, maydon joy bo'lganligi uchun ham shunday nomlangan.

MEHNATOBOD – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir va Farg'ona viloyatining Rishton tumanlaridagi qishloq va mahalla nomi. *Mehnat* va *obod* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, **Mehnatobod** – *"mehnat bilan obodonlashtirilgan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

MEHNATROHAT – qishloq. Namangan viloyatining Uchko'prik tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, *mehnat* + *rohat* – "zavqlanish", "orom olish" ("mehnat – bu orom olish") deganidir.

MEHTAR – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani. **Mehtar** (forscha *"katta, baland, oliy"*) – *zakot va soliq yig'ish bilan shug'ullanadigan amaldor* (Абдуррахмони Тали. История Абдулфайзхана, перевод А.А.Семенова. – Т., 1959. С. 142; А.А.Семенов. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре//Советское востоковедение, т. V. – М. – Л., 1948).

MERGANLAR – qishloq va mahalla nomi. Xorazm viloyatining Shovot va Buxoro viloyatining Romitan tumanlaridagi qishloq nomi. Urug'ning kichik irmog'i oilaviy qarindoshlik guruhi urug' nomi. T.Nafasov ham qo'ng'irotlarning oyinni bo'limida *mergan, mergancha* urug'i, kenagas, mang'it, qovchinlar tarkibida ham mergan urug' tarmog'i bo'lganligi haqida ma'lumot bergan[1]. *Mergan* – miltiqchi, ovchi, *-lar* – o'zbekcha ko'plik ko'rsatkichi.

[1] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. O'zbekistonning janubiy rayonlari. –T.: O'qituvchi, 1988. –B.116.

Demak, *Merganlar – "ovchilar yashaydigan yoki mang'it urug'i vakillari yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

MERGANCHA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq. Mergan – qo'ng'irotlarning *oyinni* bo'limida *mergan, mergancha; kenagas, qovchin, mang'itlar* tarkibida *mergan* urug'i uchraydi. Ushbu etnonim turkiy tildagi *mergan*, mo'g'ul tilida uchraydigan **mergen** – *ovchi, usta otuvchi; dono, ziyrak, mohir* ma'nosidagi so'zdan yasalgan va urug' a'zolarining mashg'ulotlariga ishora qiladi (Marqayev, 2007).

MESHKARON – qishloq, Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Forscha *meshigar – qo'y terisini ishlaydigan terichi; -on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi. **Meshkaron (Meshigaron)** – *qo'y terisini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi va terichilar yashaydigan qishloq.*

ME'MOR – Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi aholi punkti nomi. Aslida, Me'mor arabcha so'z bo'lib, unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: "binokor, imoratsoz, arxitektor, me'morchilik mutaxassisi". (O'TIL. 2022, II, 586).

Demak, ***Me'mor*** toponimi *"me'morchilik mutaxassislari yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

MILTIQCHI – Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi qishloq. **Miltiqchi** – *miltiq otadigan odam, miltiq otadiganlar yashaydigan joy* ma'nosini anglatadi.

MINGBULOQ – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1994-yili Zadaryo nomi bilan tashkil qilingan. Ming soni uzoq o'tmishda eng katta miqdorni anglatgan va son-sanoqsiz, adadsiz ma'nosini bildirgan. Joy nomlari tarkibida ming – aniq sonni emas, balki ko'p, juda ko'p ma'nosini anglatadi.

Mo'g'ul va turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo'lgan terminlardan biri buloq, u yerosti suvlarining tabiiy holda yer yuzasiga sizib chiqqan joyga aytiladi. Buloq so'zining areali ancha keng va toponimik termin sifatida barcha turkiy tilli hududlarda qo'llaniladi. Buloq so'zi *"oqmoq", "aralashtirmoq"* ma'nosidagi *bula* fe'lidan kelib chiqqan, degan xulosa mavjud. Demak, *Mingbuloq – "buloqlar ko'p joy".*

MINGLAR – Navoiy viloyatining Qiziltepa va Navoiy hamda Buxoro viloyatining Romitan hamda Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloqlar nomlari. Shuningdek, Farg'ona vodiysi va Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ham Minglar nomli qishloqlar mavjud. Etnotoponim. Minglar yirik o'zbek qabilalaridan biri.

Mas'ud ibn Ko'histoniyning "Tarixi Abulxayrxoniy" nomli asarida o'zbeklar va ularning XV asrda tashkil topgan davlati to'g'risida gapirilar ekan, tuman – ming urug'i ham tilga olinadi. 1426–1427-yillarda Shohrux buyrug'i bilan yangilangan temuriylarning shajara kitobi – "Mu'izz al-an-

sob"da ulug' – ming qabilasi tilga olingan.

A.D.Grebenkin ma'lumotlariga ko'ra, minglar Markaziy Osiyoga Chingizxon istilolaridan oldinroq kelib, Sir bo'ylab istiqomat qilganlar. O'rta asr tarixchilaridan Muhammad Yusuf munshiy "Tarixi Muqimxoniy" asarida 1702–1707-yillar voqealari haqida hikoya qilar ekan, Shibirg'on minglarning yurti bo'lganligini qayd etadi (Grebenkin, 1874).

Keksa kishilar xotirasida ota-bobolarining Balx tomonlardan kelganliklari haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Farg'ona o'tmishi haqidagi ma'lumotlarda minglar Vodil qishlog'iga XVII asrning boshlarida Samarqanddan kelishganligi, keyinchalik ularning avlodlari Qo'qonga ko'chib o'tganliklari ko'rsatilgan (Gubayeva, 1983).

Yozma manbalarda minglar Samarqand shahri atroflari, Urgut, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, G'allaorol tumanlari (Jizzax viloyati), O'ratepa (Tojikiston Respublikasi), Sirdaryo bo'ylari, Qo'qon, Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston, shuningdek, Turkmaniston, Boshqirdiston, Qirg'iziston, Tuva Avtonom Respublikasi hududlarida yashashlari ko'rsatilgan. Dastlab yirik qabila bo'lgan minglarning mamlakat siyosiy hayotidagi mavqeyi anchagina baland bo'lgan.

Rivoyatlarga ko'ra, bu narsa O'ratepa va Urgutda ko'proq ko'zga tashlangan. Rus istilosiga qadar mazkur tumanlarning beklari ming qabilasi vakillari bo'lib, ular hokimlikni amirning farmoni bilan emas, vorislik tufayli egallaganlar. Markaziy hokimiyatga esa nomigagina bo'ysunganlar. Zarafshon okrugidagi minglar, asosan Urgut va Shovdor (hozirgi Samarqand va Toyloq) tumanlarida yashashgan. Mahalliy kishilarning aytishlaricha, ming atamasi *"ko'p, ko'pchilik"* so'zining sinonimi bo'lib, minglarning o'tmishda ko'p sonli bo'lishi bilan bog'lanadi.

Prof. X.Doniyorovning fikriga ko'ra, minglarning asosiy qismi sipolashib ketgan va shu sababli hozirgi vaqtda o'zlarining urug'lari tarmoqlarini unutib yuborishgan. Vaholanki, ularga qarindosh bo'lgan qabila – yuzlarda urug'lar ancha mo'tadil saqlangan. Olim o'z asarida minglarning bo'linishiga oid materiallar deyarli yo'q, deydi va urgutlik B.Xo'jamurodov, N.Berdiyev ma'lumotlariga tayanib, ming qabilasi haqida qisqagina to'xtalib, uning *voxtamg'ali, to'g'ali, bog'lon, o'ramas, jarat, ramadon va jalmat* urug'lari haqida yozadi (Doniyorov, 1968).

XIX asrning ikkinchi yarmida ming qabilasi haqida yozgan A.D.Grebenkin o'zining maqolasida anchagina keng ma'lumot beradi. Muallifning fikriga ko'ra, Zarafshon okrugidagi minglar quyidagi 3 urug'dan iborat bo'lib, ular, o'z navbatida, bir necha tarmoqlarga bo'lingan:

1. **To'g'alilar** (*ahmad, chag'ir, tunnamoz, oqshiq* va boshqalar);

2. **Bog'lonlar** (*chibli, qora, mirza* va boshqalar);

3. **Uvoqtamg'alilar** (*algal, chavut-jayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyikxo'ja va yarat*).

To'g'alilar bekzodalar, ya'ni beklar avlodi deb yuritiladi. (To'qa shevalarda *to'g'a* deyiladi. Tamg'asi to'qa shaklida bo'lgan urug' to'qali, talaffuzda to'g'ali deb atalgan. Chunonchi, XX asr boshlarida D.N.Logofet to'g'alik degan etnonim borligini qayd qilgan edi (Doniyorov, 1968). Ming qabilasi urug'lari haqidagi manbalar bugungi kunda juda kam. Shunga qaramasdan, ayrim joylarda bu qabilaning urug'lari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, Urgut tumanidagi *Javtukalgal* qishlog'ida yashovchi Islom bobo Musayev (94 yosh, 1997-yil)ning aytishiga ko'ra, mingning *to'g'izsari, kiyikxo'ja* (bu urug' tarmog'i A.D.Grebenkinda ham keltirilgan), *murg'i, jonsiyit* tarmoqlari ham bor. Bundan tashqari, o'zlarining minglarga tegishli deb biluvchi bir qator urug'lar borki, ularning ushbu qabila jadvalida tutgan o'rnini aniqlash ancha mushkul. Bular: *drduv, erganak, boltali, bog'lon, ramadon, toshat, boymaliq* (*boymoqli*), *allot* (*arlot*), *chiyriq, qorag'uyli, monash, qozon, beshkal, kallar, xitoy, qorapocha, oqpocha, qalmoq, chuyut, chiljuvut, qorapo'choq, uyg'ur* va boshqalardir. Shuningdek, minglar yashayotgan hududda *Sanchiqul, Ochamayli, Ipakli, Taraqli, Cho'michli* (Urgut tumani) singari urug' nomlari bilan bog'liq toponimlar uchraydi.

Bu qishloqlar aholisi o'zlarini mazkur qabilaga tegishli deb hisoblashlariga ko'ra, minglarning tarkibi ancha murakkab ko'rinadi. Minglarning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni ancha katta bo'lib, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysida vujudga kelgan Qo'qon xonligi ming qabilasi vakillari tomonidan 1876-yilgacha, ya'ni Farg'ona vodiysining Rossiyaga qo'shib olinishigacha bo'lgan davrda boshqarildi. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'onda *Kattaming, Kichikming,* Ishtixonda *Minglar*, Urgutda *Mirzabog'lon, Qorabog'lon, O'ramas, Jovtuk, Algal, Qozonariq, Beshkal* kabi toponimlar Ming etnonimi bilan bog'liq.

Minglar toponimi *"Ming urug'i vakillari yashaydigan qishloq"* ma'nosini bildiradi.

MINGON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan va Shofirkon tumanlari. Ming – o'zbek qabilalari tarkibiga kiruvchi yirik qabilalardan biri; *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi; qarang: ***Minglar.***

MINGTEPA – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani. *Ming* va *tepa* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Mingtepa** – *"ko'pchilik tepaliklar va qo'rg'onlar"* ma'nosini anglatadi.

MINGCHINOR – O'zbekiston hududidagi bir necha bog'larning nomi. *Ming* va *chinor* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, **Mingchinor** – *"sanoqsiz, ko'p chinor"* ma'nolarini ifodalaydi.

MINDON – Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq, eti-

mologiyasi aniq emas. *Mingdan ortiq xo'jalik, uy bor* degan ma'noda bo'lishi mumkin. *-don* qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan *Bilimdon, Bordon, Garimdon, Zohidon, Novgardon, Obodon, Roshidon, Maydon, Qadrdon* kabilar shular jumlasidandir.

MINJIR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari, Samarqand viloyatining Urgut tumani. **Minjir** (menjir) – o'zbek urug'i (kenagas qabilasi)ning nomi.

MIQ – Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qo'rg'on. Bu *mug'* – "otashparastlik" so'zidan kelib chiqqan. Mahalliy aholi vakillarining so'zlariga ko'ra, u yerdan eski tangalar, butun sopol idishlar va ularning qoldiqlari topilgan. U yerda Mug' xonliklari hukmronlik qilishgan, deb hisoblangan. Shu yerdan bir necha kilometr uzoqlikda Istiravshan (oldingi O'ratepa, Tojikiston) shahridan uzoq bo'lmagan joyda **Miqtepa** tog'i mavjud bo'lgan.

Mazkur nomni mahalliy aholi *mix* so'zi bilan bog'laydi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi va boshqa joylarda **Mug'tepa** qo'rg'onlari uchraydi. Tojikistonning Panjakent shahri yaqinida mashhur **Mug'** tog'i joylashgan, u yerdan suyaklar va toshlarga bitilgan sug'd hujjatlari topilgan (VIII asr). Bularning barchasi Markaziy Osiyoda otashparastlar – (mug')larning paydo bo'lishi izlaridir.

MIQCHAAR – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumani. Mahalliy aholi vakillari so'zlariga ko'ra, u yerda Andijon shahrigacha bo'lgan katta shahar joylashgan. Shahar **Niq** deb nomlanib, u "mustahkam" ma'nosini ifodalagan. **Niqshahar** vaqt o'tishi bilan **Miqchaar**ga aylangan. Aslida bu otashparastlik – mug' nomi bilan bog'liqdir.

MIRAKI//MIRAKON – Buxoro viloyatining Buxoro shahri hamda G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Morfema tarkibi: marmarraki. Tojik tili oronimiyasida ***marg/mar/marr*** ko'rinishida bo'lib, mazkur toponim *"o'tloq, yaylov; o't-o'langa boy joy"*[1] ma'nosini anglatadi va nomning shakllanishiga oronim asos bo'lgan.

MIRBOZOR – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. ***Mir*** va ***bozor*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, *Mir(i)bozor* toponimi *"bozorni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi shaxs"* ma'nosini bildiradi.

MIRJIQNING QUMI – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Qoraoy" QFY hududida joylashgan qumlik nomi. Qumlikning bunday atalishiga qoraqalpoqlar tarixidagi tarixiy shaxs Aydosbiyning ukasi Mirjiq shu qumlikka yaqin joyda yashaganligi sabab bo'lgan.

MIRZAARIQ – Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi ariq. Ariqni XV asr boshlarida Mirzo Ulug'bek qazdirgan.

V.L.Vyatkin vaqf hujjatlarida tilga

[1] Nafasov T. Ko'rsatilgan lug'at. –B.117.

olingan *Sultoni arig'i* haqida to'xtalib, *"...Sultoni arig'i hozirgi Mirzaariqdir"*, deydi (Вяткин, 1902).

Yuqoridagi izohlarda ariq nomlanishida Ulug'bekning faoliyati bilan bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Xalq orasida Mirzo Ulug'bek sifatida mashhur bo'lgan Ulug'bek nomiga qo'yilgan obyektlar doimo Mirzo termini bilan bog'liq holda atalgan. Masalan, *Mirzo qo'rig'i, Puli Mirzo, Mirzo hammomi* va boshqalar.

MIRZAQISHLOQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Toponim ming urug'ining mirzabog'lon tarmog'i nomidan hosil bo'lgan. Qishloqda, shuningdek, *o'ramas, erganak, drdu* va boshqa etnik birliklar mavjud. Samarqand viloyatidagi *Mirzaovul, Mirzaqulchara (Mitan), Mirzaqishloq, Mirzabuloq (Bulung'ur), Mirzabog'lon (Urgut)* kabi qishloqlar nomlarida mirza termini mavjud.

MIRZO PO'LODI – XV asrda Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla nomi. Mahalla aholisi, asosan, po'lat quyish ishlari bilan shug'ullangan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. - В. 29) va shuning uchun ham mazkur hudud shunday atalgan.

MIRZO ULUG'BEK – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik (1935-yilgacha Proletar tumani, 1992-yil maygacha Kuybishev tumani, 1992-yil 8-maydan Mirzo Ulug'bek tumani). 1929-yil 29-noyabrda tashkil qilingan. Toshkentning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Yashnobod, Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray tumani bilan chegaradosh. Toshkent markazi (Amir Temur xiyoboni)dan boshlanib, shimoli-sharqiy tomonga, Katta halqa yo'ligacha boradi. Tuman hududidan 2 ta kanal (Salor va Qorasuv) va 5 ta ariq oqib o'tadi. Ushbu tuman O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Toshkent shahar Kuybishev rayonining nomini Mirzo Ulug'bek tumani deb o'zgartirish to'g'risida"gi 1992-yil 8-maydagi 580-XII-sonli qarori bilan buyuk o'zbek astronom olimi va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek nomini ulug'lash, abadiylashtirish va ajdodlarga ehtirom ko'rsatish maqsadida mazkur nom bilan qayta nomlangan.

MIRZACHO'L – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mirzacho'l – O'zbekiston va qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Tojikiston) hududidagi tekislik nomi. Mirzacho'l so'zini H.Hasanov shunday izohlagan: "Mirzacho'l – ruschada boshqa nom olgan: Южная Голодная степь ("Yalang dala"), Северная Голодная степь Qozog'iston hududida bo'lib, *Betpakdala* deyiladi. Mirzacho'l turlicha izohlab kelinmoqda, bu nom bir Mirzaning ismidan olingan, degan fikr ham bor. Agar bu nomga *marza* va *marzak* so'zlari asos qilib olingan bo'lsa, mantiqli izoh tug'iladi; masalan; *"Qizilqum chekkasidagi kichik cho'l"*, *marza – "chekkadagi yer"*; arabcha *marzak – "kichik" so'ziga daxldor"*.

S.Qorayevning yozishicha, XVI asrgacha bu hudud *Jizzax–Chinoz cho'li* deb atalgan. XVI asr oxirida hukm surgan Buxoro xoni – Abdullaxon dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-tijorat ishlarini, umuman obodonchilik ishlarini ancha avj oldirgan. U o'z amaldori – mirzosiga Jizzax–Chinoz orasidagi cho'lda karvonsaroylar, rabotlar, machitlar, sardobalar qurdirgan. Hozirgi Jizzax viloyati hududidagi Tuyatortar kanali qazilib, cho'lning janubiy va markaziy qismlarida katta maydonlarga suv chiqarilgan. Jizzax–Chinoz cho'lida bir qancha irrigatsiya inshootlari ham qurilib, dehqonchilik birmuncha rivojlangan. Ana shu davrdan, 1583–1598-yillardan e'tiboran *Jizzax–Chinoz cho'li Mirzoning cho'li* (Mirzacho'l) deb atala boshlagan.

Soha mutaxassislari orasida *Mirzacho'l* nomining ilk shakli *Marzacho'l* bo'lgan, keyinchalik xalq talaffuzida Mirzacho'l bo'lib o'zgargan, degan talqinlar ham bor. Masalan, P.G'ulomovning yozishicha, *marza – relyef shakli, tepasi qabariq shakldagi uzun cho'zilgan balandlik.* Marzalar tektonik yo'l bilan hosil bo'lishi, daryo, dengiz to'lqini keltirgan qumlardan vujudga kelishi, morena jinslarining to'planishidan paydo bo'lishi, kishilar tomonidan bunyod etilishi mumkin.

Boshqa izoh: Mirzacho'l so'zining kelib chiqishi Mirzo Ulug'bekning mamlakatda olib borgan obodonchilik ishlari bilan bog'liq, cho'l nomidagi Mirza so'zini Ulug'bek nomi bilan aloqador, deb izohlovchilar ham topiladi. Mirza so'zining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu so'z mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan.

MIRZAOBOD – tuman. Sirdaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1992-yilgacha tuman Komsomol (ruscha, Kommunisticheskiy Soyuz Molodyoji, o'zbekcha, Kommunistik Yoshlar Ittifoqi) nomi bilan yuritilgan. Tuman hududi Mirzacho'l tekisligida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik, loysimon qumoq va qumloqlar bilan qoplangan. Mirza so'zining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu so'z mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan. *"Mirza"* so'zi fors-tojik tilida *"amirzoda, amir avlodi"* degan ma'noni bildiradi. XIV–XV asrlar va undan keyingi davrlarda Amir Temur avlodlari, temuriy shahzodalar ismiga qo'shib aytilgan unvon. Keyinchalik (XVI–XIX asrlar) kotiblar unvoni o'rnida ham qo'llanib kelingan. Tuman hududi Mirzacho'lda joylashganligi bois, tumanga nom ham shunga mos holda ma'muriy-rasmiy tarzda tanlangan.

MIRZO//MIRZOARIQ – Zarafshon daryosidan chiqib, Bulung'ir kanaliga quyadigan kanal nomi. XIV asrning oxirlarida Ulug'bek davrida qurilgan (СКСО – Справочная книжка Самаркандской области, вып. I, Самарканд, 1893. С. 169) va uning nomi bilan atalgan (Ulug'bek Mirzo Ulug'bek sifatida mashhur bo'lgan).

MIRZOBOG' – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qish-

loq nomi. Mazkur toponim *mirzo* va bog' so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Mirzo bir necha ma'nolarda qo'llaniladi: 1) xon oilasi a'zolarining laqablari; 2) xattot, kotib; 3) amaldor, yirik zodagon, qabila boshlig'i.

Yuqoridagilarga asosan *Mirzobog'* toponimi *"Mirzoning bog'i yoki amaldorlar bog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

MIRZOYON//MIRZOLAR – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon, Kogon, Jondor, Vobkent tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Mirza* (o'zbekcha) yoki *mirzo (*forscha) – *xattot, kotib, xon oilasi a'zosi, -yon* – forscha ko'plik qo'shimchasi hisoblanadi.

Demak, ***Mirzoyon*** yoki ***Mirzolar*** toponimlari *"Mirzolar yashaydigan qishloq"* ma'nosidadir.

MIRZORAVOT – qishloq. Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloq nomi. **Mirzoravot** toponimi *"mirzolar ravoti"* ma'nosini anglatadi.

MIRISHKOR – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Mirishkor so'zi *"o'z ishining mohir ustasi", "omilkor"* degan ma'noni bildiradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zbek millati tarkibiga kirgan *mirishkor (merishkor)* nomli qadimiy qabila ham mavjud. Qabila nomi *"ov hokimi, amiri"* degan ma'noni anglatadi.

Mirishkar so'zi (forscha *mirishikor*) – *"ovchilar boshqaruvchisi"* shaklida o'zbek tiliga *mirishkor – "mohir, tajribali, bilimli"* sifatida kirib kelgan. Ehtimol, ular (mirishkorlar) bir vaqtlar etnik emas, balki ijtimoiy, hatto, ularning ismlariga ko'ra, etnik ko'rinishga ega bo'lgan professional guruhlar bo'lganlar (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории).

Etnolog, tarixshunos B.X.Karmishevaning fikricha, *mir+i+shikor* (f-t) birikmasining soddalashgan shaklidan mirishkor etnonimi yuzaga kelgan, ma'nosi – *ov qilish bilan shug'ullanuvchi, ov begi* (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М, 1976. – С. 86).

Bu etnonimning *merishkar* tarzidagi talaffuz shakli ham bor. Urug', qabila nomlari majmuyida fors-tojikcha izofa, qo'shma so'z etnonimlar deyarli uchramaydi. O'zbek xalqi etnonimlarining barchasi o'zbekcha, turkiy so'zlardir.

Etnonimlar asosidagi so'z va qo'shimchalarning turkiy haqiqatidan kelib chiqib, qabila nomini *mirishk/ mereshk/ merishk/ mireshk+ ar/ er* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z, deb izohlashga moyillik bor. Etnonimning birinchi qismi qabila uchun totem bo'lgan hayvon yoki qush nomi, degan faraz bor. So'nggi qismi esa *odam, kishi(lar), er, inson* degan ma'nodagi qadimgi turkiy so'zdir. ***Qiyoslang***: *bulg'ar (bulg'a+ar), tatar (tat+ar), mojar, og'ar/oqar, soqar, suvor, jaloyir, uyg'ur, chandir, badir* – barchasi umumturkiy etnonimlar.

Bu – mulohazatalab fikr. Aholisining etnik tarkibi qishloqning nomlanishi uchun lisoniy va nolisoniy dalil bo'lgan.

O'tmishda boshqa mansabdorlar kabi mirshikorlarning ham xususiy yerlari, ekin maydonlari bo'lgan. Bu joylarda keyinchalik sekin-asta qishloq va mahallalar tashkil topgan.

Darhaqiqat, Mirishkor qishlog'i shu mansab egasiga qarashli yerlarda bunyod etilgan. Shu bois aholi maskani amal nomi bilan yuritilib kelgan. Aslida Mirshikor tarzida shakllangan toponim nom tarkibidagi *"sh"* va *"i"* tovushlarining o'rin almashishi metateza hodisasi tufayli Mirishkor ko'rinishiga kelib qolgan (N.Oxunov. Jo'ydam, Mirishkor va Bahrin // Til va adabiyot ta'limi, 2011, № 9, 93-bet).

Shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako'l, Vobkent hamda Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Namangan viloyatining Namangan hamda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanlarida ham shunday nomli qishloq bor.

MIRMIRON – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani. *Mir* (amir so'zidan) – hukmdor, *Mir(i) miron* – hukmdorlarning hukmdori (shohonshoh tipidagi) so'zlari qo'shiluvidan hosil bo'lgan.

MIROB – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumani. **Mirob** – *sug'orish tizimida suvni taqsimlash bilan shug'ullanadigan shaxs* (aynan, *"suvning hukmdori"*).

MIROBARIQ – qishloq. Buxoro viloyati Qorako'l tumani. *Mirob* – sug'orish tizimida suvni taqsimlash bilan shug'ullanadigan shaxs. **Mirobariq** – *mirobning arig'i, mirobga tegishli; ariqning atrofidagi qishloq* ham shunday nomni olgan.

MIROBLAR – Xorazm viloyati Urganch tumanidagi mahalla nomlaridan biri. **Mirob** – *suv taqsimoti va sug'orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs.* Miroblar esa shu soha vakillari istiqomat qiladigan hudud nomi.

MIROBOD – tuman. Toshkent shahri tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik (1992-yil 8-maygacha – Lenin tumani bo'lgan). Umuman, tuman 1929-yilda tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1992-yil 8-maydagi "Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 579-XII sonli qarori bilan Mirobod deb qayta nomlangan. Tuman Toshkentning janubiy qismida joylashgan. Shimolda Amir Temur xiyobonidan Katta halqa yo'ligacha cho'zilgan. Mirobod tumani janubdan Bektemir, sharqdan Yashnobod, shimoldan Yunusobod, shimoliy-g'arbdan Yakkasaroy, janubiy-g'arbdan Sergeli tumanlari bilan chegaradosh. XIX asrning boshida Qo'qon xoni Toshkentni bosib olganidan keyin, shahar hududi birmuncha kengaydi. Xullas, Qo'qon xonining sobiq o'rdasiga qarashli Anhor bilan Salor o'rtasida Qashqar, Mingo'rik, Mirobod kabi o'nlab mahalla va mavzelar vujudga keldi. Yangi joylardagi tub aholi siqishtirilib, bu yerlar deyarli boshqa joylardan kelganlarga, jumladan, Mirobod hududi Qo'qon xonligining yuqori imtiyozli mirlariga berildi. Tumanning Mirobod deyilishi shundan olingan.

Andijon viloyati Andijon shahrining g'arbidagi eski qishloq nomi ham ***Mirobod*** deb ataladi. Aslida uning nomi "*Amirobod*"dir.

Ayrim ilmiy manbalarda "Amir" nomi Arab xalifaligi davrida hokimlarga berilgan unvon bo'lib, Sohibqiron Amir Temur mo'g'ul xonlaridan o'zini farq qilmoq uchun bu unvonni qabul qilganligi qayd etiladi. Temuriylar sulolasi davridan esa amir unvoni mahalliy hokimlarga ham in'om qilingan. Andijon, umuman Farg'ona vodiysi tarixida o'tgan notinchlik davrida (XVI–XVII asrlar) biror o'tkinchi amirning Qoradaryo sohilida yashagan qo'rg'oni keyinchalik qishloqqa aylanib, "*Amirobod*", so'ngra "*Mirobod*" deb atalib ketgan.

MIRONQO'L – Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq. Mazkur **Mironqo'l** toponimini "*mirlar (amirlar) kelib dam oladigan, sayr yoki ov qiladigan joy, amirlarga qarashli qo'l*" deb izohlash o'rinlidir.

MIROXURI – Samarqand viloyatining Samarqand shahri yaqinidagi tarixiy qishloq. *Miroxur* (*mir – ega, oxur – hayvon uchun oziq-ovqat) – saroy boshlig'i, xon oldidagi otlar va to'lov summalari hamda boshqa kirimlar bilan shug'ullanuvchi. -i* qo'shimchasi toponim hosil qilishda obyektning Mirzaga tegishliligini bildiradi.

Demak, *Miroxuri* toponimi "*otchilar va saroy boshliqlariga tegishli qishloq*" ma'nosini ifodalaydi.

MIRZOTO'P – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Mirzato'p – qo'ng'irot qabilasi chanchiqli urug'i kazayakli bo'linmasining oilaviy-urug' guruhi (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории узбекского народа). Etnonim etnotoponimga aylangan.

MISGARLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. *Misgarlar – "misgarlar yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

MISGARLIK – Toshkent shahridagi mahalla. **Miskarlik** (*Misgarlik*) – *misgarning kasbi yoki hunari,* toponimiyada – *misgarlar yashaydigan mahalla yoki bozordagi misgarlar qatori.*

Mazkur toponim Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla nomi ham hisoblanib, u shunday izohlangan: *"Misga ishlov berish, mis idishlar yasash va uni ta'mirlash bilan shug'ullanadigan ustalar yashaydigan mahalla".*

MISGARON – qishloq. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani. Forscha *misgar* – misdan ro'zg'or buyumlarini tayyorlaydigan usta, *-on* – forscha ko'plik qo'shimchasi. *Misgaron – mischilar yashaydigan qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

MISIT//MESIT – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud. Mazkur nom aslida etnonim bo'lib, ushbu tumandagi tarixiy nomlardan biri hisoblanadi. *Masit//Mesit//Misit* shakllaridagi o'zbek urug'ining nomlaridan biri. Albatta, *Masit* va *Mesit* shakllari *Misit*ning dialektal variantlaridir.

MISKEN – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi. *Mis* va *ken* (qoraqalpoqcha) – *konning paydo bo'lgan joyi* ma'nosini ifodalaydi.

Biroq bu ta'rif mulohazalidir. Chunki u Miskin ismining dialektal shakli sanalib, diniy ulamo bo'lgan shaxs nomi hisoblanadi. Demak, u antropotoponimdir.

MISKON – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qishloq nomi. **Miskon** – *mis koni* (*mis* va *kon* so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan); Bu qadimgi **Rud-i Shash** – *"Shash koni"*. **Shash** (**Shosh**) – qadimgi Toshkentning nomi (arab geograflarida *"Chach"*).

MISR – Samarqand yaqinida Amir Temir tomonidan qurilgan qishloq va u Misr shahri sha'niga atab qo'yilgan. Ular Samarqanddan janubga qarab, Darg'am kanalining chap qirg'og'ida joylashgan. **Misr** qishlog'i hozirda ham Samarqand viloyatining Narpay tumanida mavjud.

MITAN – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi toponim. Viloyat hududida uchraydigan substrat topoleksemalardan biri. Mitan so'zi bilan yasalgan geografik obyektlar nomlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. *Misan/ mitan* leksemasi qadimgi eron tilidagi *mazvana* – *"yashash joyi, mavze"*, pahlaviy tilidagi *maehan*, sug'd tilidagi *mydn* (yangi eron tilidagi *mehan* – *"vatan"* so'ziga asos bo'lgan) atamalariga borib taqaladi. Bu so'z Markaziy Osiyo toponimiyasida pahlaviylar davrida paydo bo'lgan.

Tarixchi olima O.I. Smirnova bu atama bilan yasalgan joy nomlarining Marv, Buxoro vohasi va Xorazmda keng tarqalganligini ko'rsatadi (О.И. Смирнова. К вопросу о среднеазиатских культах. Из среднеазиатской топонимике. Рукопись, В.А.Шишкин. Варахша. – М., 1933).

Biroq 1926-yilgi aholi ro'yxati materiallari bu so'zning Qashqadaryo, Farg'ona, Toshkent vohasidagi toponimlar tarkibida ko'pligini aniqladi.

Mazkur termin bilan yasalgan geografik nomlar Samarqand viloyatida ham uchraydi. Shuningdek, qo'shni hududlardagi *Muytan* (Xorazm), Qoramitan (Buxoro), *Maytun* (Toshkent viloyati Piskent tumani), *Urmitan* (Farg'ona viloyati, Tojikiston Respublikasi Panjakent tumani) kabi toponimlar qatorida *Chormitan* (Samarqand), *Mitan, Mitanchaariq, Mirzamitan* (Ishtixon), Mitan, *Qoraariqmitan* (Bulung'ur), *Zarmitan* (Qo'shrabot), *Semitan* (Xatirchi) kabi qishloq va ariqlar nomlarini ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda faqatgina tarixiy asarlar sahifalarida uchraydigan *Farmitan, Shirmitan* singari ko'plab nomlar ham ushbu termin bilan yasalgan nomlar soni o'tmishda ko'p bo'lganligini ko'rsatadi.

MIYONA – Namangan viloyati Chust tumanining *Varzik* qishlog'idagi ariq nomi. *Miyona* asli fors-tojikcha o'zlashma so'z bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi nofaol so'zlar sirasiga kiradi, lug'aviy jihatdan o'zbek tilida *"o'rtacha, o'rta"* degan ma'nolarni anglatadi. Masalan, *Furqat... to'laroq,*

qora soqol, miyona qad, Zavqiy singari xushchaqchaq odam edi. (T.Obidov, Yusufjon qiziq).

Chunonchi, hozirgi o'zbek adabiy tilida *"biror belgi, xususiyati jihatidan o'rta vaziyatni egallaydigan, o'rtacha"* ma'nosini anglatuvchi *miyona* so'zi va uning o'zbekcha tarjimasi, ya'ni aynan bir so'zning o'zbekcha va fors-tojikcha muqobillari birikuvidan yuzaga kelgan *"o'rta miyona"* iborasi ham mavjud[1].

Varzik qishlog'idagi ariq hajman o'rtachaligiga, qishloq o'rtasidan oqib o'tganligiga ko'ra **Miyona** deb atalgan. Demak, *"o'rta, o'rtacha"* ma'nosidagi fors-tojikcha miyona so'zi **Miyona** gidronimining etimonidir.

Miyona – *"o'rta", "o'rtacha" ariq.* Apellyativ leksik sathga mansub belgi tushunchasini ifodalovchi *miyona* so'zi onomastik konversiya (gidronimik konversiya) asosida ariq nomi (gidronim)ga o'tgan. Gidronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *miyona ariq > miyona > Miyona.*

MIYONQOL – Zarafshonning ikki irmog'i – Oqdaryo va Qoradaryo qo'shilgan joygacha bo'lgan obod hudud, Samarqand va Xatirchi qishlog'i oralig'i. Ba'zan **Miyonqolot** deb ham yuritiladi. "**Miyon**" fors-tojikcha *"o'rta", "oraliq"*, **qol** – qadimgi fors tilida *"kanal, daryo"*, **-ot** -arabcha ko'plik affiksi bo'lib, toponimlar tarkibida shu joyning tevarak atrofini ham bildiradi (Qorayev, 1978).

MIYONRUDON – Qoradaryo va Norin oralig'i nomi, o'rta asrlardagi Sirdaryoning irmoqlari. Ilk bor Istaxriy (БАГ, I, С. 334, 346), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 395, 405), Muqaddasiy asarlarida tilga olinadi. Forscha **miyon** (miyona) – *"o'rta", "oraliq"*, **ro'd** – *"daryo", "kanal"*, *-on* – ko'plik ko'rsatkichi (qarang: *Miyanqol*). Mazkur daryo oralig'i boshqacha – *Rabotak o'rchini* deb nomlangan. Zahiriddin Bobur shunday yozadi: "Bu ikki suv orasini Rabotak o'rchini derlar" ("Bobirnoma", 1960. S. 111). "Rabatak urchinini, shuningdek, "Ikki daryo oralig'i sohasi" deb ham nomlangan ("Бабурнаме", –Ташкент, 1958. С. 80).

MIYONSAROY – qishloq. Buxoro viloyati Qorako'l tumani. Miyonsaroy – 1) saroy ma'muriy ansambli komponentlaridan biri. 2) *miyon saroy* (o'rta saroy) – saroy qabilasi bo'linmalaridan biri: *katta (ulug') saroy, miyon saroy* yoki *o'rta saroy, kichik (kenja) saroy.*

MOJOR//MOJAR//MAJOR – qishloq. Qashqadaryo viloyati Guzar, Chiroqchi tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Majarlar Magiylar tomonidan Vengriyaning umumiy aholisi bilan bog'liq qabila deb hisoblanadi.

MOHITOBON – Buxoro viloyatidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "porlab, charaqlab, toblanib turuvchi, jilvalanuvchi nurafshon oy" ma'nosini bildiradi. Uning mazmunida badiiy tashbuhdan tashqari, otashparastlikdagi samoviy jismlarga sig'inish va ularni muqaddaslashtirish kabi tushunchalar mavjud. Arxeologlar tomonidan Mohitobon tepaligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida topil-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati., I t., 463-b.

gan qabr otashparastlik davriga oid ekanligi aniqlangan.

Demak, toponim islomdan oldingi diniy qarash va e'tiqodlar hosilasi hisoblanadi.

MOKUSOZON – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumani. Forscha – moku to'quvchi, *mokusoz* – moku tayyorlash bo'yicha usta (*-on* – ko'plik affiksi); **Mokusozon** – *moku tayyorlagan ustalar yashaydigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

MOLGUZAR – tizma. Turkiston oralig'idagi G'arbiy Sibir (hozirgi Jizzax viloyati). Etimologiyasi yuzasidan yagona to'xtamga kelinganicha yo'q. Ayrimlar (X.Hasanov va boshqalar) **Morguzarni** *"Ilon o'tti, ilon yo'li"* deb atashib, o'zbekcha *Ilono'tti*ning forscha variantidir.

Ehtimol, Molguzar keng tarqalgan toponim hosil qiluvchi termin *marg'zor – "maysazor", "tog'ning ko'k qoyalari"*dan o'zlashgandir.

MORKUSHON – Buxoro shahridagi Jarib mahallasining nomi. Forscha aynan *"ilon o'ldiruvchilar"* ma'nosini ifodalaydi.

Buxoro tarixining bilimdoni O.A. Suxarevning taxminicha, *Morkushon* mahallasining nomi bizgacha Buxoro shahri darvozasi – *Mardkushon* qadimgi nomini yetkazgan (V.V. Bartoldda–Merdkushan) hozirda *Mardkushon* (*"insonlarni o'ldiruvchi"*) (mahalla nomi) (O.A. Сухарева. Кварталь ная община Бухары. С. 65).

MORTEPA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Guzar tumanidagi qishloq nomi. Forscha *mor* – ilon, o'zbekcha– *tepa* so'zlaridan tashkil topgan (**Mortepa** – *"ilonlar tepaligi", "ilonlar ko'p bo'lgan tepalik")*.

MOTRUD – Samarqand shahri yaqinidagi qishloqlardan biri bo'lgan Motrud tarixiy manbalarda *Matrid, Motrid, Maturit, Moturid* kabi shakllarda qayd qilingan. Qishloq nomi tarixchi Somoniy (XII asr), arab sayyohi Yoqut Hamaviy (XIII asr) asarlarida uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur Motrid Samarqand shahri mahallalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Motrud so'zining etimologiyasi haqida dastlab fikr bildirgan akademik B.Valixo'jayev o'z maqolasida: "Siyob arig'i qadimda Motrud arig'i deb nomlangan, chunki Motrud va Siyob (Siyohob) so'zlari orasida ma'no jihatdan yaqinlik bor", deydi. U o'z fikrini davom ettirib, "*mot*" sug'dcha so'z bo'lib, u bir necha ma'noni, ya'ni *"qoramtir", "qora",* shuningdek, *"hayratga solmoq, hayajonga keltirmoq, mot qilib qo'ymoq"*ni bildirishini yozadi.

"Rud" – "ariq", "daryo" ma'nosini anglatadi. Shunga ko'ra, *"Motrud"* so'zi *"qoramtir"* va *"hayratga soluvchi, hayajonga keltiruvchi"* ma'nolarini beradi. Qoramtirligi tufayli keyinchalik Siyob (Siyohob) – Qorasuv tarzida nomlanishiga sabab bo'lgani ehtimoldan xoli emas (Valixo'jayev, 1995).

Olimning yuqoridagi fikriga e'tiroz bildirmagan holda, ushbu toponimning vujudga kelishiga sabab bo'lgan boshqa jihatlarni qayd qilamiz.

Ma'lumki, inson hayoti bevosita suv manbalari bilan bog'liq bo'lib, qadimdan u ulug'lanib, muqaddas sanalib kelingan. Shuning uchun bo'lsa kerak, turli chashma, buloqlar bilan bog'liq joylar nomlarida ularning ahamiyatini alohida ta'kidlab turuvchi *"ota", "xo'ja"* kabi so'zlar ko'p uchraydi. Jumladan, *Nurota* (Navoiy viloyati), *Shirvoqota, Xo'ja Amon, Xo'jachorchinor* (Urgut tumani), *Xo'ja Doniyor* (Samarqand shahri) va boshqalar. Zarafshon daryosining antik adabiyotlarda qayd qilingan nomi **Politimet** (*"ko'p hurmatli", "qadrli"*) aslida sug'dcha **"Namiq"** – *"shonli", "nomdor", "hurmatli"* so'zining grekcha tarjimasidir. Ushbu narsa daryoning muqaddas sanalganligini ko'rsatadi (Beleniskiy, 1959: 77).

Suv va suv obyektlarini muqaddas deb bilish qadimiy bo'lib, bu hodisa dunyoning qariyb barcha xalqlarining folklori, diniy e'tiqodlari va urf-odatlarida kuzatiladi. Jumladan, G'arbiy Yevropadagi daryo, ko'l, chashmalarga sig'inish keng tarqalgan bo'lib, Buyuk Britaniya, Angliya, Shotlandiya, Irlandiyada muqaddas quduq va chashmalar son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilgan.

Muqaddas sanalgan suv obyektlarini hurmatlash ayrim hollarda ularning nomlarini aytishni taqiqlagan. Jumladan, yoqutlar daryo yoki ko'lni nomi bilan aytmay, *ebe – buvi* deganlar (Gritsenko, 1970). Ruslar ham daryoni "ona" deb atashadi (Волга-матушка).

"Suv egasi, xojasi" obrazi Shimoliy Yevroosiyo xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Chunonchi, *yukagir, nganasan* va boshqa xalqlarda Ona – suv, Ona – yer, Ona – olov kabi tushunchalar mavjud.

Yuqoridagi holatlar ancha qadimiy davrlar bilan bog'liq bo'lib, biz buni Motrud toponimida ham ko'ramiz. Motrud toponimi ikki komponentdan, ya'ni *Mot, mat* va *rud* so'zlaridan yasalgan. Ikkinchi komponent, ya'ni *rit, rud* so'zi sug'dcha *daryo, ariq* ma'nosida bo'lib, mazkur termin yordamida yasalgan ko'plab gidronimlar uchraydi. Masalan, *Shohrud, Panjrud, Yaxrud, Pasrud, Paxrud* kabi. *Mot, mat* so'zi o'rta asr fors tilida *mat* va *modar* shakllarida qayd qilinib, *"ona"* ma'nosida ekanligi ko'rsatilgan (Основы иранского.., 1981: 56).

Demak, *Motrud, Matrud* sug'dcha so'z bo'lib, *"Ona daryo"* ma'nosini beradi. Bunda suvning ilohiy va muqaddas hayotiy manba ekanligi hisobga olingan.

Ko'rinib turibdiki, Motrud o'z nomini qishloq yaqinidan oqib o'tadigan suv obyektidan olgan va u daryocha, ya'ni ariq suvining mohiyati, kishilar hayotidagi tutgan o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomning aholi punktiga ko'chishidan hosil bo'lgan.

MOTRUDIY YODGORLIK MAJMUASI – Imom al–Motrudiy tavalludining 1130 yilligi munosobati bilan 2000-yilda Samarqand shahrida bunyod etilgan ramziy maqbara va xiyobon.

MOVAROUNNAHR – musulmon Sharq adabiyotida IX asrdan boshlab mamlakat nomi sifatida mavjud va Temuriylar davri manbalarida ham bu an'ana saqlangan.

"Boburnoma"da uning chegarasi sharqda – Koshg'ar, g'arbda – Xorazm, shimolda – Shosh, janubda – Termiz ko'rsatilgan. "Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim (islom peshvolari) Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay (shayx Abu Mansur Moturidiy, Xoja Ismoil Xartanak – Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy)", – deb yozadi Bobur.

MOXOV//MOXOVXONA//PESXONA – O'zbekistonning avvalgi bir necha aholi punktlarining nomlari. Bunday mahallalarda (moxov yoki pes) kasalliklari bilan kasallangan insonlar yashashgan. Masalan, XIX asrda Samarqand ostidagi Moxov qishlog'ida 150 ta erkak va ayollar (har ikkala jinsga oid) alohida-alohida yashashgan (СКСО – Справочная книжка Самаркандской области, вып. I, –Самарканд. 1893).

MOXONKO'L – Buxoro viloyatining Qorako'l hamda Jondor tumanlaridagi qishloq va ko'l nomlari. Ba'zi birovlar ko'l nomi tojikcha *moh*, ya'ni baliq so'zidan olingan deyishadi. Unda mohiyon *baliqlar* bo'lishi kerak edi. O'zbekistonda -on/-yon qo'shimchasi asosan ko'plikni bildiradi. Mohiyon nomi moh, ya'ni oy so'zining ko'pligi bo'lishi mumkin: masalan, ilk o'rta asrlarda Buxoro shahrida Moh ibodatxonasi bo'lgan va oy majusiylarning xudosi hisoblangan. Moxonko'l ham ko'plik shaklida bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilida mox – *yo'sin (ikkinchi ma'nosi)* so'zi ham mavjud. Ushbu so'z *zax yerlarda, tosh, daraxt ustida o'sadigan ildizsiz mayda o'simlik*[1] tarzida izohlangan.

Shunday ekan, ***Moxonko'l*** toponimi – *"o'simlik ko'p bo'lgan joy, makon, qishloq"* ma'nosini bildiradi.

MOYBULOQ – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Tog'lik tumanlarda **moybuloq** – *buloq, jilg'a.* Gidronimiyada **moy** – *muqaddas buloq, ko'p suvli jilg'ani suv bilan ta'minlovchi chashma.* Qadimgi xalqlarda suv manbalari (buloq, ko'l, dengiz) muqaddas sanalgan, odamlar ularga topinganlar (Nafasov, 1988).

MOYGIR – qishloq. Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi qishloq nomi. Forscha *mohi* – baliq, *mohigir* – baliqchi, baliq ovlovchi (Qishloq Siza daryosining qirg'og'ida joylashgan). **Mohigir** *Moygirga* aylangan.

MOYLI – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin ushbu hududning qadimiy nomlaridan biri bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: *"a) moyi bor, moy olish mumkin bo'lgan joy: b) moylangan, moy berilgan; v) sermoy, yog'li"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 6-bet). Ushbu hududda qadimdan moy yetishtirilgani uchun shunday nomlangan.

MOYLISOY – Andijon viloyatining shimolidagi Chotqol tog'idan oqib tushadigan daryocha va atrofiga joy-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili, 1981. –B. 355.

lashgan shaharcha – posyolka nomi. Ba'zi tilshunoslar fikricha, "*moy*" qirg'izcha "*umoy*" so'zidan bo'lishi mumkin deyishadi, ya'ni "*muqaddas ona*" ma'nosida keladi. Bu kalima keyinchalik xalq tilida "*moy*" deb talaffuz qilinib kelingan. Shunga binoan "**Moyli soy**" aslida *Muqaddas ona-soy* ma'nosidadir. Keyinchalik xalq bu nomni atrofdagi neft koniga ishora qilib, *"Moyli-yog'li soy"* degan ma'no bergan. Janubiy O'zbekistonda *"Moy ariq"* nomli ariqlar bor.

MOYLIBOLTA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli, Qorao'zak tumanlaridagi ovullar nomi. Qoraqalpoqlarning qipchoq qabilasi tarkibida *moylibolta (maylibalta)* urug'i qayd qilingan. Demak, etnonim etnotoponimga aylangan.

MOYLIKO'L – qishloq. Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qishloqning yonida "*Moyli ko'l*" joylashgan, hozirda u qurib ketgan, shunday bo'lsa-da, mazkur nom saqlanib qolgan.

MOYKAMAR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom, aslida, ikki komponentli mikrooykonim sanaladi. Apellyativning birinchi komponenti hisoblanga "***moy***" so'zining izohi yuzasidan ushbu lug'atdagi Moyli nomining izohiga qarang. "***Kamar***" mikrooykonimni tashkil etuvchi "***kamar***" so'zi "*suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yon bag'rida yuvilish, o'pirilish va shu kabilar natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy, yo'l*" kabi ma'nolarini bildiradi (O'TIL. 5, 2, 305; Z.Do'simov, 75).

Shunga asosan ushbu mikrooykonim "*kamar, tog' yonida barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" demakdir.

MOZORISHAHID – Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi ziyoratgoh nomi. Mozor – qabriston, go'r, qabr (mozoriston, mozorot ham deyiladi). Musulmon mamlakatlarida ko'plab toponimlar hosil qilgan. (Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. – B. 203.) Xovos tepaligida *Mozorisaid, Mozoridil, Mozoriqavs, Mozoripari* kabi toponimlar uchraydi. Arabcha zara – "*ziyorat qilmoq*", "*borib yo'qlab turmoq*", -mo esa o'rin-joy hosil qiluvchi old qo'shimcha hisoblanadi.

Demak, Mozorishahid toponimi *shanidlar qabri* ma'nosini ifodalaydi.

MOZORTEPA – Samarqand viloyatining Urgut shahri mahallalaridan birining nomi. **Mozor** arabcha "*sig'inish joyi*" demakdir. **Mozor** – *qabriston, avliyo qabri*. Mazkur termin musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan.

Mozortepa mahallasi hududida qabriston mavjud. Mozor termini ishtirok etgan toponimlar ko'p. *Tolmozorsoy, Archamozorsoy* (Urgut), *Qoramozorsoy* (Bulung'ur), *Mozorariq* (Toyloq) kabi nomlar bunga misol bo'ladi.

MOSHLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim, birinchidan, toponimlarda *-lar* ko'plik ko'rsatkichi faqat insonlar jamoasini ko'rsata-

di (С.К.Караев. О показателях множественности в топонимах Узбекистана//Советская тюркология. – Баку, 1979, №5. С. 26–29). *Mash* (o'zbekcha talaffuzi *mosh*) – *kenegas* o'zbek qabilasi tarkibidagi *avaqli* urug'i bo'linmasi (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков Верхней Кашкадарьи. – Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. –Т., 1972. С. 17).

MOSHTO'G'AY – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. *Mosh* va *to'g'ay* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Mosh** – iste'mol qilinadigan ekin turi. To'g'ay so'zi to'qayning dialektal variantidir. **To'qay** – *chakalakzor* ma'nosini ifodalaydi.

Demak, **Moshto'g'ay** – *oldinlari dukkakli mosh ekilgan chakalakzor, maydon, daladir.*

MOSHXO'RON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Mosh, moshxo'r – moshdan bo'lgan taomni sevuvchi, -on* – ko'plik ko'rsatkichi (qishloq aholisining taxallusi).

MUBORAK – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. (1982). Arab tilidan o'tgan **muborak** so'zining ma'nolari: *baxt keltiruvchi; xayrli, ezgu; tabarruk, muqaddas; tabriklash.* Kishi ismi ham ana shu ma'nolar asosida qo'yilgan.

Qarshi–Buxoro yo'li chap qirg'o-g'idagi qishloqning nomi *Xo'jamuborak* bo'lgan. U yerda *Xo'jamuborak, Muboraktepa* xonaqohi bor. Ziyoratga Muborak kishi ismi qo'yilgan. Bu kishining asl ismi Abdulla ibn Muborak al-Marvaziy bo'lgan. Marvda tug'ilgan. Buxoroda tahsil ko'rgan. Arabistonda ta'lim olgan. Fiqh ilmining peshvosi bo'lgan. O'nlab kitoblar yozgan. Hadislar to'plagan.

Shu kishining ismi qishloq nomlanishiga asos bo'lgan. Muqaddaslashtirish uchun xo'ja, ota so'zlari qo'shilgan. Kishi ismidan qishloq, ziyoratgoh nomi yuzaga kelgan. Tuman, shahar nomi esa qishloq nomidan olingan.

MUFTILAR – qishloq. Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. *Muftilar – "muftilar yashaydigan qishloq"* (ma'naviy va huquqiy masalalar bo'yicha xulosa beruvchi qonunshunoslar, shariatni talqin qiluvchilar).

MULIYON MAHALLASI – Samarqand shahridagi yirik mavzelardan biri bo'lib, Buxoroning mashhur Jo'yi Mo'liyon arig'i nomi bilan shakldosh.

Muliyon mahallasi o'tgan asr boshlarida Xo'ja Ahror volosti (bo'lisi)ga qarashli bo'lgan. Bu hududni sug'oruvchi ariq esa Jo'yi Mo'liyon nomi bilan atalgan. "Buxoro tarixi" asarining muallifi Muhammad Narshaxiy (X asr) Buxorodagi Jo'yi Mo'liyon nomi "mavoliyon" so'zining (birligi "mavoli") oddiy xalq tilidagi buzilgan shakli, deb ko'rsatadi.

Samarqand shahridagi Jo'yi Mo'liyon haqida fikr yuritgan M.Y. Masson bu toponimning etimologiyasi haqida to'xtalib, uni "*xo'jalar, ulamolar arig'i*" ma'nosida deb izohlagan (Массон. Самаркандский мавзолей.., 1958).

"Mavlo" so'zi izohli lug'atlarda arab tiliga mansubligi ko'rsatilib, u: a) sohib, malik, sarvar, b) g'ulom, chokar, ozod qilingan g'ulom, d) yaqin qarindosh, aqrabo ma'nolarida ekanligi, *"mavlono"* so'zi esa arabcha *Sohib, ustod, xo'ja* ma'nolarida ekanligi ta'kidlanadi (Farhangi zaboni.., 1981).

Akademik V.V. Bartold *"mavlo"* terminining *"g'ulom"* so'zi o'rnida qo'llanganini ko'rsatib, amir Ismoil Somoniy Buxorodagi Jo'yi Mo'liyonda o'z gvardiyasi uchun uy-joy qurib berganligini qayd qiladi (Bartold, I, 1963).

Demak, Samarqand shahridagi Jo'yi Mo'liyon nomi etimologiyasining asosi butunlay boshqa zaminga qurilgan.

MULIK – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi qishloq nomi. Arabcha *mulk* so'zidan kelib chiqqan, *xususiylik, mulk* (bizningcha, ovul kimningdir xususiy mulki bo'lgan).

MULIKJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanining "Mulik" OFY hududini suv bilan ta'minlovchi kanal. "Mulik" OFY fuqarosi 69 yoshli (2017-yil) Asqarov Baxitbayning aytishicha, bu sug'orish tarmog'ini Mulik aholi punktida yashovchilar qazigan va kanal *Mulikjap* deb atalgan.

MULKDOR – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi qishloq nomi. *Mulkdor – uy egasi, yer egasi*; zamonaviy ma'nosi – *ega*.

MULKI NAQIB – Samarqand viloyatidagi qishloq nomi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Kattaqo'rg'on uyezdi Ishtixon qishloq jamoasidagi qishloq deb qayd qilingan. Naqib shayxulislomdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi imtiyozli ruhoniylar tabaqasiga kirgan. Naqib xon yo'qligida harbiylar o'rtasidagi masalalarni hal qilgan. Qoziaskar vazifasini bajargan. (Хаников. Описание Бухарского ханства, СПб, 1843. Стр.190).

MULKINAQIB – avvalgi Samarqand viloyatining Qoradaryo tumani. **Mulk** (arabcha) – *egalik qilish, ega bo'lmoq*. Forscha **naqib** – *yerto'la, yerosti yo'li* (Таджикско-русский словарь. –М., 1954, 261).

Bu yerda *naqib* terminining *"yetakchi", "boshliq"* ma'nolari nazarda tutilmoqda. XVII–XIX asrlarda Buxoro xonligida *naqib* harbiy amaldor sanalgan, u harbiy qo'shin, ularning qurol-yarog'i, avangardi, o'ng va chap qanoti hamda harbiy qo'mondonlarni joylariga qo'yish uchun javobgar bo'lgan (А.Семенов. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в Средневековой Бухаре. – СВ, т. V, 1948. С. 137–153).

Mulkinaqib – buyruq beruvchining mulki. XIX asrda naqib lavozimining ahamiyati haqida Xanikov shunday yozgan (Н. Ханыков. Описание Бухарского ханства, СПб, 1843. С. 190): "Mazkur lavozim o'zining mavjudligi nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim, u amirning yo'qligida harbiylarga tegishli qiyinchiliklar va qozi askarlarining huquqini ko'tarish ma-

salalarining yechimini topishga ega (harbiy sudlar – S.K.), biroq hozirgi amir (Nasrulla 1827-yilda boshqargan) uning barcha amallaridan mahrum qilgan" (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, ч. 2, – М., 1964. С. 324).

MULKSAIDON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Mulk – egalik qilish, xususiylik, said (sayyid) – Muhammad payg'ambarning avlodlari, -an* – forscha ko'plik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Demak, *Mulksaidon – payg'ambar avlodlarining mol-mulkka egalik qilishidir.*

MULLAKUDING – Namangan viloyatining Namangan tumanidagi qishloq nomi. *Mullakuding* oykonimining lisoniy shakllanishi haqida quyidagi qarashlar mavjud:

1. Mullakuding (ilgarigi nomi Qozonqo'rg'on) qishlog'ida Naqshbandiy tariqatining ko'zga ko'ringan piri murshidlaridan biri Xoja Ahmad Yassaviyning ukasi Sadir xoja avlodlaridan biri bo'lgan Ne'matulloh hoji yashagan ekan. U kishi Turkistonda Hazrat Yassaviy qo'lida tarbiyalanib, Namangan hokimlari tomonidan ajratilgan hozirgi Mullakuding qishlog'i yonidagi yerda xonaqoq qurdirib, xudojo'ylik qilarkan. Aslida Ne'matulloh hoji to'qilgan matoga jilo beruvchi kudangar bo'lgan ekan. Qishloq nomi kudangar Ne'matilloh hojiga nisbat berib, *Mullakuding* nomini olgan emish.

2. Kunlarning birida Qo'qon xonligining vakillaridan bir nechtasi Namangan beklari oldidan qaytayotib, hozirgi Mullakudingga Namangan tomonidan kiraverishdagi buloq yonida o'tirgan uch kishiga duch kelishib, ulardan: "Bu yerda jam bo'lib qolibsizmi?" – deb so'rashibdi. Shunda ulardan biri: "Oramizda mullamiz ham bor" – deb, sheriklaridan kallasidan kattaroq salla o'raganini ko'rsatishgan. Shunda suvoriylardan biri, "mullalaringizning ham **kudingdek** kallasi bor ekan", degan. Shu kungi uchrashuvdan keyin sheriklarini hazillashib "Mullakuding" deb chaqiradigan bo'lishgan. Keyinchalik bu nom qishloq nomiga aylangan.

Yuqorida keltirilgan xalq etimologiyasiga mansub rivoyatlar tahlilidan ko'rinadiki, nom haqidagi birinchi rivoyatda mantiqiy asos bo'lib, oykonimning etimologik talqinida shunga asoslansa bo'ladi.

Bizningcha, qishloq nomi **mulla** va **kuding** asoslarining qo'shiluvidan yasalgan bo'lib, tarkibiy tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli oykonim. **Kudung** forscha *yog'och to'qmoq, kurakcha, jo'va* ma'nosini anglatib, *maxsus to'qilgan matoni urib tekislash, silliqlash va unga jilo berish uchun ishlatiladigan to'qmoqsimon yog'och asbob* va shu asbob yordamida qilingan pardozni anglatadi. **Kudungar** so'zi esa kasb oti bo'lib, shunday kasb bilan shug'ullanuvchi kishini bildiradi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *kudungar, kudunglamoq, kudungchi* so'zlari ham berilgan[1]. Davrlar o'ti-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild.– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – B. 419.

shi bilan *kudung* leksemasi tarkibida o'zgarish yuz berishi natijasida *u* unlisi *i* unlisiga almashgan. Nom tarkibidagi *-gar* kasb oti yasovchi qo'shimcha tushib qolgan. Natijada nom *Mullakuding* shakliga aylangan. *Mulla kudingar* otli birikmasi nom uchun etimondir.

Demak, nomning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *mulla kudungar > mulla kuding > mullakuding > Mullakuding.*

MULLALIM – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***mulla***" va "***alim // olim***" qismlaridan iboratdir. "***Mulla Olim***" mahalliy sheva vakillari nutqida "***Mullalim***" tarzida dialektal shaklda talaffuz qilingan.

Demak, "***Mullalim***" – *"yerni o'zlashtirgan, qishloqni tashkil etgan oqsoqol kishining ismi"*. Shunga binoan bu toponim atropooykonimlar sirasidandir.

MULLAOLIM – Qo'shrabot tumanidagi qishloq. Kishi nomi va laqabini ifodalovchi so'zlardan hosil bo'lgan toponim.

MULLAYON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. *Mulla* – musulmon ruhoniysi, *-yon* – forscha ko'plik qo'shimchasi sanaladi.

Demak, *Mullayon* – *"musulmon ruhoniylari yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

MUMLOYXONA – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qoya nomi. **Mumlayxona** (xususan, **Mo'miyoxona**) – *"mo'miyolar ko'p bo'lgan joy"*. O'zbekistonning janubi va Jizzax viloyatida mumiyoni *mumlay* sifatida talaffuz qilishadi.

MUNDUZ – Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. Etnograf O'.Qoratoyevning qayd etishicha, qirg'izlarning so'l qanotdagi yirik urug'laridan biri *munduz* deb atalgan. Xuddi shu nomdagi urug' oltoyliklar va turkmanlarda ham bor ekanligi aniqlangan. Masalan, *munduz* urug'i tarkibidagi "zulum munduz", "kotkor munduz" deb atalgan mayda urug'lar oltoyliklarning shu nomdagi urug'lariga mos keladi.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida (مُنْدُز) – **munduz** so'zini quyidagicha izohlaydi: 1. Ahmoq odam; 2. Kuchli sel; 3. Yo'rg'a ot, chopishda tengi yo'q ot (Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. – Тошкент, 2016. I жилд. 305-бет.).

Ushbu izohlardan "yo'rg'a ot" ma'nosini qirg'iz va turkman xalqlari totem sifatida qabul qilgan bo'lishlari mumkin. *Munduz* so'zi dastlab "yo'rg'a ot" ma'nosida urug' nomiga, keyinchalik shu urug' vakillari yashaydigan joy nomiga ko'chgan.

MUQIMIY – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. O'zbek shoiri va mutafakkiri Muqimiy – Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li (1850–1903) sha'niga atab qo'yilgan qishloq nomidir.

MURG'AQ – qishloq. Buxoro viloyati Jondor tumani. Forscha *murg'ak* erkalash ma'nosida: *murg'* – *"qush", "tovuq"*; **murg'aq** – *"qushcha"*.

MURDASHO'YLAR – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumani. Forscha **Murdasho'y** – *murda yuvg'uchi, -lar* – ko'plik qo'shimchasi ko'rsatkichi. *Murdasho'ylar – murda yuvg'uchilar, murda yuvg'uchilar yashaydigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

MURDOSH – qishloq. Navoiy viloyati Xatirchi tumani. Balki *murdasho'y – "murda yuvg'uchi"* so'zidan o'zlashgandir. *Murdasho'y, g'assol* (forscha), *yuvg'uchi* kabi maxsus kasblar bo'lgan. Yirik shaharlar va qishloqlarda **Murdasho'y** yoki **Murdasho'yon** nomli dahalar bo'lgan, u yerda murda yuvuvchilar yashashgan.

MUROTALI – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'ka, Piskent tumanlari. *Muratali* – qozoq urug'ining nomi (bu tumanlarda qozoqlar ko'p bo'lgan), qirg'iz urug'ining tarkibida ham *murotali urug'i* bor.

MURODSOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***murod***" va "***soy***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

"***Murod***" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*erishish, amalga oshirish ko'zda tutilgan orzu, maqsad, muddao; erkaklar ismi*" kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi [O'TIL. 5, 2, 645].

"***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

Yuqoridagilarga asosan mazkur mikrotoponimni "*Murod degan kishi tashkil etgan soydagi qishloq*", deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

MUSAQOQ – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi gidronim va qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan: *Muso*, ya'ni shaxs ismi va *"qoq"* so'zlaridan tashkil topgan. **"Qoq"** – *cho'llarda, taqir yerlarda yer ustidagi suvlar to'planadigan suv ombori.* Ko'pincha suv kam bug'lanishi uchun usti g'isht bilan yopilib, suvi yerga singib ketmasligi uchun ba'zilarining tagiga g'isht yotqizilgan bo'ladi. Adabiy tilda *sardoba*. **Sardoba** so'zi *"muzxona, yerto'la"* ma'nolarini bildiradi (M.E.Массон. Проблема изучения цестерн-сардоба. – Ташкент, 1935).

Qashqadaryo viloyatidagi sardobalar mahalliy aholi tomonidan *"qoq"* deb ataladi (M.Isomiddinov. Karvon yo'li bo'ylab. "Zarafshon" (sobiq "Lenin yo'li") gaz., 1985-yil 6-mart). Masalan: **Tutliqoq**. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi *Sangboboqoqi, Bibichalarqoqi, Oydonoqoqi* gidronimlari *"qoq"* atamasining tarqalish areali keng ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Pastdarg'om tumanidagi *Qoq* qishlog'i nomi, cho'llarda to'planib qolgan qor-yomg'ir suvi, katta ko'lmak, ya'ni qoq so'zidan yasalgan deydi (Qorayev, 1978). Eski nomi *G'ijdon* (Somoniyda **G'ushdon** – *Shovdor tomoni yonidagi qishloq* deb tilga olinadi).

MUSOBOZORI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. *Musobozori,*

musobozor – turk (aynan turklar), *kaltatoy, barlas* va *musobozori* umumiy nomi ostida mashhur bo'lgan Movarounnahrning dastlabki to'rt qabilalaridan biri.

T. Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, musobozori vakillari Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ko'pgina qishloqlarida yashashgan.

MUSOMUTAVALLI – qishloq. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Antropotoponim. *Mutavalli* (arabcha) – xayriya yoki diniy-ma'rifiy (madrasa, masjid) o'quv muassasasining ishonchli vakili. Muso ismi shaxs bo'lgan. Mazkur qishloqning nomi hozirda mavjud emas.

MUSO SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Gidronimning birinchi komponenti kishi ismini anglatadi. Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan paslik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" degan ma'noni ifodalaydi [O'TIL. 3, 545].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "***Muso soy***" gidronimi "*Muso ismli kishi yashaydigan joydagi kichik suv o'zani*" demakdir. Biz bu kabi antropogidronimlar muayyan darajada kichik o'lchamdagi suv obyektlarini ifodalaydi degan taxminni ilgari suramiz.

MUSTAHKAM – Andijon viloyatining Asaka va Xo'jaobod tumanlaridagi mahalla nomi. *Mustahkam – buzilmaydigan* (dastlab bu qishloq xo'jaligi ishlari nomi bo'lgan). Mazkur nom mustaqillik davri mahsuli hisoblanadi.

MUSTAQILLIK – Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Respublikamizdagi juda ko'plab MFY hamda ko'chalar nomi sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "***Mustaqillik***" – "*ixtiyori o'zida bo'lganlik; tobe, qaram bo'lmaganlik; o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz ish qila olish*" demakdir [O'TIL. 5, 2, 652].

Shunga asosan tilshunos B.O'rinboyev Forish tumanidagi Mustaqillik mikrotoponimini "*xalqning kelajakka ishonch bilan qaray boshlaganini ifodalaydigian joy nomi*", – deb izohlaydi [B.O'rinboyev. 2, 36].

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan davrdan boshlab, mamlakat mustaqiligining sha'niga atab qo'yilgan nom.

MUSULMONQULARIQ – Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Qoradaryo nomining boshlanishi, kanal. 1848–1852-yillarda Qo'qon xoni Xudoyorxonning qaynotasi Musurmonqulning rahbarligida qazilgan va uning nomi bilan atalgan.

MUYON – Farg'ona viloyati Quvasoy shahar kengashiga qarashli qishloq. **Mo'yon** so'zi tojikcha **"miyon"** – *"o'rta"* so'zi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Yajob tilida **miyon** – *"qishloq"* degan ma'noni bildiradi. **Tovmyon** qishlog'i nomi shu so'z bilan aloqador bo'lib, *"suv bo'yidagi qishloq"*, degan ma'noni bildiradi (З.Дўсимов, 1977).

MUYTENOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning *muyten urug'i* bilan atalgan qishloqlar Taxtako'pir, Qanliko'l, Qorao'zak tumanlarida keng tarqalgan.

MUZBEL – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim *muz* va *bel* – *egarcha, dovon* kabi so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, **Muzbel** toponimi *"muzli dovon"* (Turkiston tizmasi cho'qqisi orqali o'tgan dovonda bir xil nomli qishloq joylashgan) ma'nosini ifodalaydi.

MUZBULOQ – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq va buloq hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi qismi sanalgan ***"muz"*** komponenti *"muz kabi sovuq, sovuq"* ma'nolariga ega [O'TIL. 2, 629].

Geografik termin hisoblangan ***"buloq"*** so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"*dir [O'TIL. 1, 371].

Shunday ekan, ***"Muzbuloq"*** nomi *"suvi sovuq bo'lgan chashma"* ma'nosini ifodalaydi.

MUZDAHKAN – Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi ovul nomi (hozirda mavjud emas). Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlari tizimida *deh* komponentli joy nomlari anchagina. Shulardan biri Amudaryo va Kardar kanali oralig'ida joylashgan aholi punktlaridan biri *Muzdahkan* bo'lib, daryoning o'ng qirg'og'idan irmoq oluvchi bir necha kichik ariqlar bilan sug'orilgan.

Ba'zi manbalarda "Mazdahqon tarzida beriladi va Xorazmda bo'lgan o'rta asr shahri, xarobalari Xo'jaylidan 8 km janubiy g'arbda"[1] deya izohlanadi. Maqdisiy Kardar haqida "ko'plab qishloq, o'tloqlar, keng yaylovlar oralig'ida joylashgan" deb ma'lumot bergan. Ushbu nom tarkibidagi *kap xap*ning fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir.

Bunday fonetik o'zgarish boshqa eroniy tillarda ham bor. Jumladan, kurd tilida *kap,* pahlaviy tilida *xap.* Toponimning birinchi komponentini biz, Xorazmiy tiliga oid *piz//nav* – yangi (Nuzkatdagi kabi) va *dye// da: // deh* qishloq, mavze' so'zlaridan iborat deb hisoblash tarafdorimiz. Chunki toponimlar, eng avvalo, joyning turli xususiyatini aks ettirishi, unda hissiy tushunchalarga deyarli aloqadorlik bo'lmasligi tadqiqotchilar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan va isbotlangan.

Umuman, bu ikki nom Xorazmiy tiliga xos toponimlardir. Ularni xorazmiy tilining hali turkiy tillar ta'siriga uchramasidan oldin vujudga kelgan deb qarash mumkin. So'z oxiridagi *deh* komponentining to'la saqlanishi shundan dalolat beradi.

Bu davrga xos nomlarning eng qadimgisi *Jayhun//Jayxun*dir. Bu Amudaryoning qadimgi nomlaridan

[1] Tarixiy-geografik nomlarning qisqacha izohli lug'ati. Buxoro nashriyoti, 2008. – B.21.

biri bo'lib, ikki ma'noda izohlanadi: 1) umuman, "daryo" degan so'z; 2) mashhur daryolar Amu, Sir, Firot, Dajla – Jayxun deb atalgan.

Amudaryo degan nom adabiyotga ancha kech kirib kelgan. Bu nom Xuroson va Movarounnahr o'rtasida asosiy va eng ko'p o'tish joyi bo'lmish *Amuya* (Chorjo'y) bilan bog'liqdir. Uni Xorazmiy Obru bunday tushuntiradi: "Uni Xurosondan Buxoroga o'tadigan joy Amuya shahri yonida bo'lganligi uchun Amudaryo deb ataydilar[1]".

Bu so'zning O'g'uz-Ogus varianti qadimgi uyg'ur tilida ham mavjud bo'lib, "daryo, daryo o'zani" ma'nosiga ega.

N.A.Baskakov bu so'zning kelib chiqishini qadimgi uyg'ur tilidagi "ugu-suv" so'zi bilan bog'laydi[2]. Gerodot o'zining "Tarix"ida Amudaryoni *Araks* nomi bilan tilga oladi[3]. O'z o'rnida Gerodot Araks deb ta'riflagan daryoning Amudaryo ekanligiga ayrim tarixchilar shubha bilan qaraydilar[4].

Ammo Gerodot sharhlagan *Araks* Amudaryoning "Avesto"dagi *Arang* nomiga juda ham o'xshashdir.

Shunday ekan, Araks Arang gidronimining grekcha shakli deb qarash mumkin.

Shunday qilib, *Amudaryo* gidronimining eng qadimgi nomi *Arangdir.* Bu nomning ma'nosiga kelsak, shubhasiz, u sanskrit tilidagi *ag* – "oqim, suv, daryo" bilan aloqadordir. Hozir Xorazm va Janubiy Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi *arna,* Osetiyadagi *Ardon* (toshqin daryo) kabi elementlar o'zining uzoq tarixi bilan "Avesto"ga borib taqaladi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

MUZRABOT – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1994-yilgacha Gagarin tumani deb yuritilgan. Muzrabot toponimi ikki tarkibiy qismdan iborat: *muz* va *rabot*. **Muz** – *suvning qattiq kristall holati*. Muz harorat 0°C dan pasayganda hosil bo'ladi. Ayrim holatlarda *muz* so'zi *sovuq* ma'nosida ham qo'llaniladi. Muz so'zi yordamida respublika toponimiyasi tarkibida ko'plab joy nomlari yaratilgan: *Muzbel, Muzbuloq, Muztog'* va boshqalar.

Rabot so'zi esa dastlab islom dini tarqala boshlagan davrlarda harbiylar uchun mo'ljallab qurilgan bino, istehkom ma'nosini anglatgan. Keyinchalik karvonsaroy (mehmonxona) ma'nosida ham qo'llanilgan. Rabot – o'rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tarhi to'rtburchak, devorlarida minoralari bo'lgan. Dastlab (islom dini tarqala boshlagan davrda) g'oziylarga mo'ljallab quril-

[1] Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. 1914. – С.47.

[2] Баскаков Н.А. Географическая номенклатура в топонимии Горного Алтая // Топонимика востока. – М.:1969.–С.66.

[3] Геродот. История. 1. – С. 202.

[4] G'ulomov Y.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B.35.

gan maxsus bino. Keyinchalik Rabot faqat qo'rg'on, istehkom ma'nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. O'rta Osiyoda VIII–X asrlarda ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh joylarda ko'plab rabotlar qurilgan. O'rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do'konlari joylashgan qismini ham rabod (ravot) deb atashgan va VIII–IX asrlarda fors, tojik, o'zbek tillariga o'zlashgan. Shu sababdan, bu geografik termin Markaziy Osiyo, Eron va Afg'oniston hududida keng tarqalgan. Rabot termini ko'plab joy nomlari hosil qilgan.

MUG'AT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Markaziy osiyolik lo'lilar o'zlarini *mug'at* deb atashgan ("Народы Средней Азии и Казахстана". Т. II. С. 597). So'z ikkita komponentdan tashkil topgan: *mug'* – otashparastlik, *-at* – arabcha ko'plik ko'rsatkichi hisoblanadi.

MUG'IYON//MUG'OLON//MO'G'ULON – Buxoro viloyatining Vobkent, G'ijduvon, Peshku, Buxoro va Shofirkon tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari.

X.Doniyorov ***Mirzoyi (mug'lon), mirzo, mug'al, mug'ol*** degan urug'larni qayd atadi[1].

D.Abdurahmonov mug'on etnonimidan mug'lon toponimi yuzaga kelgan[2], degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, ***sort mug'al, chiriqchi mug'ol, ali mug'al yakka mug'al, hafiz mug'al, qora mug'al*** kabi urug'lar ham borligi ma'lum.

Ular O'zbekiston, Tojikiston va Afg'on Badaxshonida yashashgan. Etnograf tarixchilarining ko'rsatishicha, ***mug'ol*** – *mug'il// mug'al// mo'g'il-istonlik* turkiy qabila. ***Mug'lon*** - *mo'g'ul//mo'g'ul //mug'al+on* ko'plik affiksi) – mo'g'ullar. Demak, etnonim oykonimga aylangan.

MUG'LON – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani. Mo'g'ullar (mo'g'ullar, mugallar) – keyinchalik mo'g'ullar istlosi va hukmronligi davrida o'zbek millati tarkibiga kirgan. Mo'g'ullar Janubiy O'zbekiston va Tojikistonning janubida, Samarqand viloyatida yashashgan (Б.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 85, 205). **Mug'lon** (forscha) – *"mogollar"*.

MUG'ONAK – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. *Mug'* – *otashparast, otashparastlik, -on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi, *-ak* – toponim hosil qiluvchi erkalash-kichraytish qo'shimchasi hisoblanib, **Mug'onak** – *"otashparastlar qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

MUG'ONCHA – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi qishloq nomi. *Mug'* – otashparast, otashparastlik, *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi, *-ak* – toponim hosil qiluvchi erkalash-kichraytish qo'shim-

[1] Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Navro'z, 2017. –B.100.

[2] Abdurahmonov D. Beshkent rayon toponimikasi//O'zbek shevalari leksikasi. –T.: 1966. –B.387.

chasi, **Mug'oncha** – *otashparastlar qishlog'i* (*"Ikkinchi Mug'on"* ma'nosida).

MO'DIN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Mo'g'ulcha **mod(on)** – *daraxt, o'rmon, daraxtzor* (Монгольско-русский словарь. –М., 1957), qirg'izcha **mudun** – *o'rmon* (Б.О.Орузбаева. О киргизских и монгольских лексических параллелях в топонимике. – Известия АН Киргизской ССР. – Фрунзе, 1971).

MO'LA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi qirlik nomi. Mazkur nom oronim sanalib, fors-tojik tilida *"minorasimon dumaloq qurilma"* ma'nosiga ega ekanligi va shuning uchun ham shunday nomlangani ilmiy manbalarda qayd etiladi [Nafasov, 2007].

Mazkur termin tez-tez toponimlar tarkibida uchraydi. *Tosh ayol, toshdan ko'tarilgan tamg'a, nishon, belgi* ma'nolarini ifodalaydi.

MO'LABULOQ – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Bu yerda *mo'la – tosh bilan terilgan belgi* ma'nosini bildiradi.

Demak, **Mo'labuloq** toponimi *"belgilar qayd etilgan buloq"* ma'nosini ifodalaydi.

MO'LALISOY – *soy nomi. Mo'lasi bo'lgan joy yoki soy. Mo'la* so'zining ma'nosi – *tuproq o'yib, chim yoki g'isht (tosh) qalab, baland qilingan so'risimon joy* degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, **mo'la** – *kuzatish, qo'riqlash, xabar berish obyekti ham hisoblangan.*

MO'LAQO'RG'ON – qishloq. Samarqand viloyati Oqdaryo tumani. Bu yerda *mo'la – tayanch minorasi.* **Mo'laqo'rg'on** – *tayanch minorali qal'a.*

MO'LTON – qishloq. Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi qishloq nomi. **Mo'ltonlar** – *"O'rta Osiyo lo'lilari"* bo'lishi mumkin (Pokistonning Multon shahridan kelib chiqqan). Hozirda mazkur qishloq nomi unut bo'lgan.

MO'MINOBOD – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, toponim *Mo'min ato* ismli shaxs nomiga shunday atalgan. Bu shaxsning nomi O.D.Chexovichning "Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве" asarida tilga olingan.

Tilshunoslikda mo'min so'zi va Mo'min ismi mavjud: *mo'min* – Tangrining borligiga iqror bo'lgan, imon keltirgan kishi, musulmon. Mo'min ismining ma'nosi *"dinga va Allohga ishonuvchi, imonli, xudojo'y, dinga va Allohga sadoqatini ham tilida, ham iqror yo'li bilan isbotlovchi"* demakdir.

Obod – *qishloq, ovul, yangidan bunyod qilingan aholi yashash maskani, yangi o'zlashtirilgan yerda qurilgan qo'rg'on.*

Nomshunos olim T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, *obod* so'zi IX asrdan boshlab, kishi ismiga qo'shilib qishloq nomlari yasab keladi. Bu holat Movarounnahr qishloq, mahalla nomlariga xos.

Demak, **Mo'minobod** – *"Mo'min ismli kishi qurgan qo'rg'on yonida tashkil bo'lgan qishloq"* ma'nosidadir.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud bo'lib, u aynan yuqoridagi kabi izohlanadi.

MO'NDIYON – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "Mo'ndi" va "yon" qismlaridan iborat. "Mo'ndi" so'zi "ko'za yasovchilar" ma'nosini ifodalasa, "yon" esa tomon ma'nosini bildiradi. Qadimda mazkur qishloqda ko'za yasovchilar istiqomat qilishgan.

Shunday ekan, "**Mo'ndiyon**" – *"ko'za yasovchilar istiqomat qiladigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

MO'RILOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ariq nomi. Gidronimdagi ***mo'ri*** komponenti bizning taxminimizcha, *"shaldirash"* tovushiga nisbatan anchayin kuchsiz tovushni ifodalovchi ***mo'rillamoq*** fe'lidan hosil bo'lgan. ***-loq*** ot, sifat turkumidagi so'zlardan holat, xususiyat kabi ma'nolarni ifodalovchi sifat yasaydi [O'TIL. 5, 584].

Demak, "***mo'riloq***" nomini *"suvi oqib ketish nuqtasida kuchsiz shaldirashga o'xshash tovush chiquvchi suv obyekti"* deb izohlash mumkin. Gidronim ikki o'zakli bo'lib, sifat+ot shakliga ega.

MO'YNOQ – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mo'ynoq – Qoraqalpog'istonning eng shimoliy shahri. Orol dengizining suvi chekinmasdan avval dengizning janubi-g'arbiy sohilida joylashgan edi. Tuman hududining aksari qismi Orol dengizining qurigan tubi (Orolqum) va Amudaryo deltasidagi ko'llardan iborat.

Mo'ynoq so'zi *bo'yin, bo'g'iz, daryo, ko'l, orol, quruqlik, tog', qir va hokazolarning tor, cho'ziq qismiga nisbatan qo'llaniladi.* Demak, *Mo'ynoq* nom sifatida o'sha hudud relyefining turini bildiradi. U ba'zan geografik termin sifatida o'zi yoki ko'pincha rang, o'rin, shakl, xususiyat, belgini anglatuvchi so'zlar bilan qo'shilib joy nomlari hosil qilishi mumkin.

T. Nafasov yozishicha, *Mo'ynoq* qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan bo'ynoq so'zining qoraqalpoqcha talaffuz shaklidir. So'z boshida "-b" tovushi "m" undoshiga o'zgargan. *Bo'ynoq* so'zi hozirgi kunda qoraqalpoq adabiy tilida uchramasa ham, o'rta asrlarda xalq nutqida qo'llanilgan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida, *"bo'ynoq"* – so'zini *tog' bo'yni* deb izohlagan.

MO'YTAN – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. *Mitan* qabilasi ba'zi joylarda *mo'ytan* (qoraqalpoqlarda – *muyten*) deb atalgan (Qorayev, 1978: 81).

MO'G'OL – Sirdaryo viloyati Xovos tumani, Jizzax viloyati Zomin, Baxmal tumanlari; Toshkent viloyati Piskent tumani, Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloqlar nomlari. *Mo'g'ol, mug'ol* – etnonim. Nomning birinchi komponenti qishloq aholisining

turkiy mo'g'ol qabilasidan ekanligini ko'rsatuvchi so'z. Respublikamizda *Mug'ol, Mug'oltov, Mug'altay* kabi nomlar anchagina.

Mo'g'ullar istilosi davrida O'zbekistonga kelib o'rnashib qolgan turkiy qabilalardan biri *mug'ul, mo'g'ul* deb ataladi. Rashididdinning qayd qilishicha, *mo'g'ul* so'zi dastlab *mungol* tarzida qo'llanib, *"kuchsiz, soddako'ngil"* ma'nosini bildirgan. Aholining etnik tarkibi qishloqning nomlanishiga asos bo'lgan.

MO'G'OLTOG' – O'zbekiston va Tojikiston hududlaridagi, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi va Quramin cho'qqisining janubi-sharqidagi tog'lar.

Mazkur tog' haqida Zahiriddin Bobur shunday yozadi: "Xo'jand qal'asi tepalikdagi joyda turibdi. Sayhun (Sirdaryo) daryosi Xo'jand qal'asining shimoliy tomoni, qal'adan o'q otish oralig'i yaqinidan oqadi. Daryo va qal'adan shimolda Munugil nomli tog' turibdi; aytadilarki, tog'da ko'p ilon, shuningdek, mazkur tog'da firuza va boshqa konlar joylashgan" ("Бабур-наме" – Записки Бабура. Т., 1958. –С. 14).

Haqiqatan ham, tog'da turli xil konlar mavjud. Tog' mug'ol-mo'g'al-mo'g'ul-mug'ul (tojikcha **Ko'hi mo'g'ul**) ismli turk qabilasi nomi bilan atalgan. O'simliklar qatlamining qashshoqligi tufayli odamlar uni *Moxovtog'* deb ham atashgan.



NADDOFON – Buxoro shahrining guzarlaridan biri. **Naddof** (forscha) – *jun, paxtadan to'quvchi, -on* – ko'plik ko'rsatkichi sanaladi.

Demak, **Naddofon** toponimi *"to'quvchilar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

NAGAHON – Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq. Toponimist T.Nafasov mazkur toponimni quyidagicha izohlaydi:

1. Fors-tojikcha **nuh** *(to'qqiz)* + *koh (saroy, qasr, ko'shk, imorat), -on (-lar)* qo'shimchasi – *qasrlari ko'p bo'lgan qishloq.*

2. Sug'dcha lakka (maydon) +-on (-lar) qo'shimchasi. *Maydonlari ko'p bo'lgan qishloq.*

3. Qadimgi eron tillariga mansub **lakka+koh+on** – *chet maydonda qasrlari ko'p bo'lgan qishloq* (Nafasov, 2009).

NAMANGAN – viloyat. Mamlakatimiz tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Namangan aholi soni bo'yicha Farg'ona vodiysida eng yirik shahar. Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikat (Axsikent) 1620-yildagi qattiq zilzila natijasida vayron bo'lganligi sababli uning aholisi hozirgi Namangan shahri hududiga ko'chib o'tgan. Namangan tuz koni ("Namak kon") yaqinida vujudga kelgan bo'lib, shahar nomi o'rta asrlarga oid tarixiy hujjatlarda birinchi marta tilga olinadi, deb yozilgan.

Taniqli toponimist olim H.Hasanov Namangan nomiga izoh berib, shunday yozgan: "Bu nom dastlab "Boburnoma"da tilga olingan bo'lsa kerak. Unga bir qancha izoh berilmoqda: Namakkon – "tuz koni"; Nomiygan – "aziz va nomdor kishilar shahri"; Namang – "marjon", shundan Namangan – "marjon koni". Biz *-gon* formatini "suv, daryo" deb taxmin qilganimiz tufayli bu nomda ham Namakgon – "sho'rsuv", "mineral suv", "moyli suv" (ehtimol neft) deb izohlab ko'rmoqchimiz. Naman asosi biron etnonimga (Nayman?) bog'liq bo'lib chiqishi ham ehtimol".

S.Qorayevning yozishicha, nomga birinchi marta "Boburnoma"da ta'rif berilgan. Taniqli olim nomni *"nav+mon+gon"* so'zlari birikmasidan yuzaga kelgan deydi. *Nav* – "yangi", *man* – "saroy", *gon* – "suv yoki soy"

demakdir. Ilgari nom *Navmangon* deb talaffuz qilingan. Shahar nomining mahalliy talaffuzi *Nomongon.*

NAMATGARON – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi **qishloq** nomi. Mazkur toponim tojikcha **namadgar** bo'lib, – u *"namat ustasi, kigiz bosuvchi"* ma'nosini ifodalaydi, *-on* esa ko'plik ifodalovchi affiks sanaladi. Toponim kasb-hunar nomi asosida shakllangan.

NAMATON – Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimni mahalliy aholi ***Namat*** so'zi bilan aloqadorligini qayd etishadi. Bu esa mazkur nomning tashqi ko'rinishi asosida vujudga kelgan xalq etimologiyasidir.

Aslida, toponim *maton//miton//meton* so'zi bilan aloqadordir. V.L.Vyatkin o'zining ishida ***miton*** *"qal'a, qo'rg'on"* ma'nosini bildirishini yozadi (В.Л.Вяткинь. Материалы к исторической географии Самаркандского вилоята. Справочная книжка "Самаркандской области" вып. VII. 1902. –с. 25).

Apellyativning birinchi komponenti forscha ***na, nav, nau*** – *yangi* so'zining fonetik o'zgarishga uchragan dialektal shaklidir.

Demak, ***Namaton*** toponimi *"yangi qo'rg'on*, qal'a" degan ma'noni bildiradi.

NAMDONAK – qishloq. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Ilk bor X asrda Muqaddasiy asarida *Namudanak* sifatida tilga olinadi (БАГ, III, С. 48, 264). Agarda qishloqning nomini zamonaviy qabul qilsak, Namdonak bo'ladi: **namdon** – *"namli joy", "ko'p suvli"*; *-ak*– toponim hosil qiluvchi affiks.

NAMOZGOH – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om va Surxondaryo viloyatining Denov tumanlaridagi qishloq nomi. Oddiy masjidlarda ibodat qiladigan, musulmonlarning yillik bayramlarida ibodat qilishi uchun keng bog'li va hovlili maxsus masjidlar namozgoh deb atalgan.

NAMOZOVUL – Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi aholi punkti nomi. Mazkur toponim ***namoz*** va ***ovul*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Namozovul so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: *"Namoz o'qiladigan joy, ovul; masjid"* (O'TIL. 2022, III, 16).

Demak, Namozovul toponimi – namoz o'qiladigan ovul, joy, hudud ma'nosini ifodalaydi.

NAMUNA – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *namuna* so'ziga quyidagicha izoh beriladi: *"O'rnak bo'la oladigan, ibrat olsa, ergashsa arziydigan, shaxs yoki narsa: ibrat, o'rnak"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 17-bet).

Bundan tashqari, Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Quva, Farg'ona tumanlarida keng tarqalgan qishloqlar nomi *Namuna* deb atalib, kishilar o'z qishloqlarini boshqalarga o'rnak, ibrat bo'lsin, degan maqsadda shunday nomlagan bo'lishlari mumkin.

NANAY – Toshkent viloyatining Bo'stonliq va Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Markaziy Osiyodagi eng qadimiy toponimlardan biri. *Nanay* (Nanayya, Nani). "Nanayya – Shumer davridan mashhur bo'lib, bu qadimgi Mesopotam Quyosh (Oy) ilohi. Nanayya keyinchalik kushon va sug'd manbalarida qayd etiladi. Bu ilohaning nomi shugnan tiliga o'tgan va u yerdagi **"nan"** so'zi *"ona", "onajon"* ma'nosini ifodalaydi (Б.Г.Гафуров, Таджики, 1972).

Ta'kidlash mumkinki, "onajon" ma'nosidagi *nan* (nana) elementi turkiy tillarga ham o'tgan, masalan, xonning chap tomonidagi qabullarida do'rmanlarda *nänä* ("onajon"), qushonlarda *nánä* va naymanlarda *nänä* muhim ahamiyat kasb etgan (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, часть 2. С. 394).

Bizningcha, bu yerda nänä hozirgi *onaboshi* ma'nosida qo'llanilgan (*do'rman, qushchi* va *nayman* qabilalarida). Shunday qilib, "sug'd bo'linmalarida Nana ilohi yuqori o'rinlardan birini egallab turganligi haqida toponimiyada o'z izini qoldirgan" (Б.Г.Гафуров, Таджики, 1972).

NARMANQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi "Mulik" OFY hududida joylashgan qumlik nomi. Qumlik nomining kelib chiqish tarixiga ko'ra, bu qumlik yonida Narman ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilgan ekan.

NARPAY – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxmin ko'rinishidagi mulohazalar bor:

1. Dehqonchilik rivojlangan hududda ekin maydonlaridagi ekin qatori va kichik maydonlarini paykal deb atash hollari bor. Toponim naridagi paykal birikmasidan shakllangan: *naridagi paykal > naripaykal > narpaykal > Narpay*. Bu nomga bunday munosabatda bo'lish sinxron munosabatning natijasida shakllangandir.

2. Toponim *nar* hamda *pay* so'zlaridan shakllangan. Xalq vakillari tomonidan tuyani nortuya, nor (zoonimlarning alohida bir turi, nor so'zi to'rtta ma'nosidan birinchi ma'nosi "Bir o'rkachli erkak tuya") deb atash hollari uchraydi. **Nor** so'zidagi **o** unlisi talaffuzda **a** unlisiga almashgan: **o > a. Pay** so'zi fors-tojikcha bo'lib, *oyoq, qadam, narsaning quyi qismi* degan ma'nolarni anglatadi. **Nar** va **pay** so'zlari birikishidan mazkur toponim shakllangan: *nar+-i > nari + pay > naripay > Narpay*.

Bulardan anglashilib turibdiki, oldingi davrlarda tuyalar karvoni, ehtimol, Buyuk ipak yo'liga tutashgan karvon yo'llarida o'tib qaytadigan joy, tuyalarning oyog'i yetadigan hudud shunday tarzda nomlangani uchun hudud ham Narpay deb atalgan, ya'ni ushbu toponim qadimgi davrlarda ham savdo yo'li ustida joylashgani uchun shunday nomlanishi odat tusiga kirgan. Bugungi kunda texnika rivoj-

lanib ketgan bo'lsa-da, ushbu nom tarixiylikni o'zida ifodalagani uchun xalq vakillari uni toponimlar tizimida saqlab qolishgan. Ushbu toponimni ham tarixiy, ham zootoponimlar deb belgilash o'rinlidir.

Zarafshon daryosidan olingan kanal (Samarqand viloyati). Mazkur kanal X–XI asrlarda musulmonlarning paydo bo'lishidan oldin irmoq sifatida arab geograflari asarlarida *Naxri Qay* nomi ostida, bu degani, bir o'rinda bitta nuqta o'rniga **f** harfining ustiga ikkita nuqta qo'yilgan, natijada **f** harfi **q** harfiga aylangan (arab tilida **p** harfining bo'lmaganligi sababli, arablar **p** tovushi bilan berilgan so'zlarni **f** tovushi orqali berishgan).

Mazkur toponim shunday qiyofada tarixchi Tabariy asarlarida (IX–X asrlar) ham uchraydi. V.L. Vyatkin vaqf hujjatlarini o'rganib, uni shunday deb ta'kidlaydi, mazkur kanalning nomi bizning davrgacha ham, hozir ham mahalliy aholi tomonidan Sug'dning asosiy qismini sug'oradigan *Nahr-i Qay* emas, aynan *Nahr-i Pay*, aniqrog'i, *Narpay* (В.Л. Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. СКСО – Справочная книжка Самаркандской области, вып. VII, 1902. С. 48).

NARVON – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. **Narvon** – *turuvchi zinapoya (qishloq zinapoyali qoyada joylashgan).*

NARSHAX – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi joy nomi. Etimologiyasi ma'lum emas. Bu joy Muqanna qo'zg'oloni bilan mashhur. Narshax qishlog'ida mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy tug'ilgan (X asr).

Qishloq nomi ilk marotaba Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida tilga olingan. Narshax qishlog'i manbalarda *Narjak, Narjaq* ko'rinishlarida uchraydi. Mahalliy aholi qishloqni *Narchoq* deb ham ataydi.

Tadqiqotchi M.M.Avezovning fikricha, aslida *Nahrishoh,* ya'ni *"bosh daryo"* ma'nosida bo'lishi mumkin.

NARCHOQ – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim tarixiy manbalarda, jumladan, "Kitob al-ansob"da "***Narshax***" nomi bilan tilga olinadi. Narshax qo'rg'oni arablar istilosi davrida, ayniqsa, "Oq kiyimlilar" harakati yuz berayotgan paytda istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. O'rta asrning atoqli tarixchisi, "Buxoro tarixi" asarining muallifi Muhammad Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Demak, ushbu qishloq bir yarim ming yillik tarixga ega bo'lib, "***Narshax***" nomining dialektal ko'rinishidir.

Narchoq termini ayrim manbalarda *Narjak, Narjaq* shakllarida uchrashi qayd etiladi, mahalliy aholi esa uni Narchoq deb ataydi.

NASAF – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik; qadimiy nomi Naxshab bo'lgan, IX–XIII asrlardagi arab manbalarida shahar nomi, asosan, Nasaf shakli-

da qayd etilgan. Mo'g'ullar istilosi davrida vayron qilingan, xarobalari Shulluktepa nomi bilan ma'lum, Qarshi shahridan taxminan 8 km shimoli-g'arbda (**yana q**. *Qarshi*).

Nasaf – *Naxshab* shahrining nomi arablardan o'zlashgan, keyinchalik **Qarshi.** Shahar mazkur nom ostida ilk bor arab geograflari Istaxriy (БАГ, I, С. 325, 343 и т.д.), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 377–379), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 282–283) asarlarida tilga olinadi.

NASRIDDINOBOD – Andijon viloyati Bo'z tumani markazining eski nomi. Qo'qon xoni Xudoyorxonning katta o'g'lining nomi bo'lib, u Andijon shahar hokimi edi. Uning chek yerlari bo'lgan. Jumladan, 1869–1871-yillari Ulug'nor kanali chiqarilishi munosabati bilan unga bugungi Bo'z tumani markazida yangi kanal bo'ylab 200 oilaga mo'ljallangan chek yer berilgan (А. Миддендорф. "Очерки Ферганской долины". СПБ, 1886 г.).

Yangi paydo bo'lgan qishloq "*Nasriddinobod*" deb atalgan. Paxtaobod tumanida uning rahbarligida qazilgan "*Nasriddin arig'i*" ham bor. Shuningdek, Farg'ona viloyati Rishton tumanida ham "*Chek Nasriddinbek*" qishlog'i bor.

NAVA – Samarqand viloyatining Urgut tumani *Kamongaron* qishlog'idagi ariq. XV–XVI asr vaqf hujjatlarida *Noveyi Xurdak* deb tilga olingan (Chexovich, 1974).

Xuddi shu joyda *Noveyi Kalon* deb atalgan ariq ham bo'lgan. Hozir bu ariqlar *Obiziyod* va *Nava* deb ataladi. Demak, nomlar shaklan biroz o'zgargan bo'lishiga qaramay, asosiy ma'no saqlangan. Tog' bag'ridagi tik soylik *novur* termini bilan ataladi (Qorayev, 1970). Samarqand shahridagi o'rta asr kanali *Novadonning* etimologiyasi ham *nov ("jyolob")* so'zi bilan bog'liq.

NAVBAHOR – tuman. Navoiy viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Navbahor Navoiy viloyati tarkibidagi eng kenja tuman bo'lib, 1980-yil 12-martda tashkil topgan. Garchi tuman nomlanishi "yangilanish", "yangi bahor", "Navbahor" deya ta'riflansa-da, bu o'lkaning tarixi hududning tog'-kon sanoati asos solingan hudud sifatida e'tirof etiladi.

1980-yili mart oyining boshlarida o'tkazilgan katta yig'ilishda hududdagi faxriylar taklifiga ko'ra "Navbahor" deb atash va yangi tuzilayotgan tumanning tashkil topish jarayonlariga oid masalalar muhokama qilinadi va mazkur tuman bahor kelgan paytida tashkil etilgani uchun, qolaversa, xalqimiz ko'nglida yaqin yillar ichida ona diyorimizni har tomonlama ravnaq topib, rivojlanishining ramziy ifodasi sifatida yaxshi niyatlar bilan Navbahor nomi bilan atalgan.

Shuningdek, ***Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi shaharchaning nomi Navbahor*** deb ataladi. Shaharcha 2014-yilga qadar *Xargo'sh* deb atalgan. Xalq etimologiyasiga ko'ra, bu yer hazrat Bahovuddin Naqshbandiyning kelgan mehmonlar bilan xayrlashadigan joyi bo'lgan. Shu sababdan bu joy dastlab *Xayrxush* deb atalgan va keyinchalik talaffuzda *Xargo'sh* bo'lib ketgan.

Toponimist olim S.Qorayev *Xargo'sh* toponimi haqida fikr yuritar ekan, "Tojik tilida **xargo'sh** – *"quyon"* degan so'z", – deb yozadi. Shaharcha nomi 2014-yil 28-aprelda *Navbahor* deb o'zgartirilgan. Xalq orasida shaharchaning hozirgi nomi *"erta ko'klam"* ma'nosini anglatadi, degan fikr mavjud. Ammo, *navbahor* so'zining *"yangi ibodatxona"* ma'nosi ham bor. Chunki ilk o'rta asrlarda Buxoroda *Navbexar* degan ibodatxona va darvoza bo'lgan.

Buxoro viloyatining Romitan tumanida ham Navbahor shakli *"erta bahor"* sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, arab geograflari asarlarida Buxoroda (Istaxri, БАГ, I. 306, 307-bet va b.) *Naubahor* va *Naubehor darvozalari* joylari e'tirof etiladi.

Ayrim olimlar (V.V.Bartold, V.Tomashek) mazkur toponimning oxirgi komponenti sanskritcha "ibodatchi" ma'nosida ekanligini ta'kidlashadi (*nau – yangi*).

Shuningdek, ***Xorazm viloyatining Gurlan tumanida*** shunday nomli mahalla mavjud. Mazkur termin fors tili orqali o'zlashgan so'z bo'lib, u mustaqillik yillarida qo'yilgan nom hisoblanadi va o'zbek tilining izohli lug'atida *erta, ilk bahor, bahorning boshi* ma'nolarini ifodalaydi (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 6-bet). Mazkur nom bilan viloyatning Bog'ot tumanidagi mahalla ham atalgan. Umuman, ushbu nom bilan ataladigan joylar respublikamizning ko'pchilik hududlarida uchraydi.

Mazkur nom ***Farg'ona viloyatida*** ham keng tarqalgan joy nomlaridan biri. Aksariyat hollarda bu nom o'zbek tilidagi *erta bahor, ilk bahor, bahorning boshlanishi* ma'nosida ishlatilgan. Viloyatdagi qishloq va mahalla nomlari orasida *Navbahor* yetti marta takrorlanadi.

NAVBIRYOP – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin qadimiy nomlardan biri bo'lib, forscha **nav** – *yangi*, **bir** so'zi va **yop** (Xorazmda *yop* so'zi *"kichik kanal"* ma'nosini ifodalaydi) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. O'sha davrlarda mahalliy aholining qo'l kuchi yordamida shunday bir kichkina kanal qazilib, aholi suv bilan ta'minlangan.

NAVBOG' – qishloq. Samarqand viloyati Samarqand tumani. *Nav* – "yangi" va *bog'* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, "yangi bog'" ma'nosini anglatadi.

NAVGARZAN – Qurama tizmasining shimoliy-sharqiy qismida Ohangaron daryosiga quyiluvchi Navgarzansoy bo'yida joylashgan aholi manzili. Tojikcha "nav" – yangi, "gardonidan" – yon tomonga aylanish degan ma'noni bildiradi. Tojikistonning Asht tumanidan Ohangaron vodiysiga Qurama tog'idan oshib o'tiladigan qadimiy yo'llar Loyaksoy, Go'shsoy va Kandirsoyda bo'lgan. O'tgan asrning 40-yillarida Angrenda ko'mir havzasi va shaxtalarining ishga tushirilishi munosabati bilan Ashtdagi Pong'oz qishlog'i aholisi doimiy ish bilan ta'minla-

nish maqsadida Navgarzansoy orqali yangi qatnov yo'lini ochganlar.

NAVJARTEPA – Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi qishloq nomi. Nom ***nav*** – *yangi*; ***jar*** – *suv yuvib hosil bo'lgan tik chuqurlik*; ***tepa*** – *balandlik* kabi morfemalardan tarkib topgan. Oykonim *yangi suv yuvishidan hosil bo'lgan chuqurlik yonidagi tepalikdagi aholi manzili* degan toponimik ma'noga ega. Qishloq shunday hududda joylashganiga ko'ra *Navjartepa* deya nom olgan.

NAVKAND// NAVKAT// NAVKENT – hozirgi Namangan viloyati hududidagi qo'rg'on, Axsi yaqinida. "Boburnoma"da 905/1499–1500 va 908/1502–1503-yillar voqealari bayonida tilga olingan. Unda Zahiriddin Boburning Farg'ona vodiysida yakkahokimlik uchun Sulton Ahmad Tanbalga qarshi olib borgan jang-u jadallari bir qismi Namangan viloyatida kechgani va Navkandni ham qamrab olgani haqida so'z boradi.

Farg'ona viloyati Farg'ona va Beshariq tumanlari. Sug'dcha *nav* – yangi, *kat* – qishloq. **Navkat** – *yangi qishloq* demakdir.

Farg'ona viloyati Quva tumani, Andijon viloyati Asaka tumani, Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani. Sug'dcha *nav* – yangi, *kat* – qishloq, aholi punkti; eronli sug'dlar *kat, kass, kent* so'zlarini sinonim deb hisoblashadi. ***Navkat***.

NAVKAR – qishloq. Buxoro viloyati Kogon tumani, Navoiy viloyati Karmana tumani. "Mo'g'ul tilida **nokur (nikur)** – *do'st, o'rtoq, birodar, yo'ldosh, ilgaridan ma'lum xizmatkor*.

Forschadan *naukar* hindchaga o'zlashgan. Forscha *naukar* Yevropa yozuvchilari asarlarida uchraydigan va ingliz-hind jargonlarida quyidagi shakllarni bergan: *nokar, noker, nouker* – "xizmatchi, xizmatkor" ma'nolarida (uy xizmatkori yoki harbiy fuqarolik xizmatchilari). Mazkur so'z rus tilida *nuker* shaklida, asosan, sharqshunoslik adabiyotida uchraydi" (Б.Я.Владимирцов. Монгольское "нокур". ДАН-В, 1929. С. 288).

NAVMITAN//NAVMETAN – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Buxoro tumanida **Kunjiqal'a, Navmetan** mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi aholi punkti nomi. Mazkur nom asosida tumandagi ***Yuqori Navmetan, O'rta Navmetan, Quyi Navmetan*** toponimlari hosil qilingan. Navmetan toponimi ikki qismdan iborat: nav+metan. ***Nav*** – "yangi" ma'nosini ifodalasa, ***metan*** – *"yo'l yoqasidagi, yaqinidagi aholi maskani", "yo'lga yaqin qishloq, qo'rg'on, qal'a"* degan tushunchani bildiradi.

Aytish kerakki, *metan* komponentli toponimlar respublikamiz hududida ko'plab uchraydi. Bu haqida bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Quyida *metan so'zi* va u bilan bog'liq holatlarni batafsil tahlil etgan prof. S.Qorayevning fikrlarini keltiramiz: ***Mitan*** – Zarafshon vodiysida toponimlar shaklida uchraydigan va "qishloq" ma'nosini anglatuvchi atama. Tarixchi O.I.Smirnova shunday yozadi:

"Bu komponent eroniy ***mayedana*** *so'zidan olingan bo'lib, "turarjoy, uy" degan ma'noni anglatadi. Yangi fors tilidan* ***mean*** *(arabcha* ***vatan,*** *sug'diycha* ***medan*** *– "turarjoy, uy") ana shu* ***mayedana*** *(mediana) so'zidan kelib chiqqan".*

S.Qorayev "Toponimika" nomli kitobida arxeolog va tarixchi V.E.Vyatkinning *"Farmitan toponimi tarkibidagi mitan so'zi "istehkom, qal'a"* ma'nosini anglatadi" degan fikrini ham keltirgan. ***Mitan*** atamasining asl ma'nosi manbalarda turlicha. Bir o'rinda "qishloq" deyilsa, ikkinchi bir manbada "turar joy, vatan", uchinchi bir asarda esa "qal'a, istehkom" – deb izohlangan.

Buxoro viloyati hududida mitan/metan komponentli Sumitan, Romitan, Navmetan, Armetan kabi toponimlar mavjud. V.V.Bartold Romitan tarixi borasida *"hozirgi vaqtgacha o'z nomini saqlab kelgan Romitan istehkom qishlog'i Buxoro atrofidagi eng ajoyib qishloqlardan biridir. Bu qishloq "qadimgi Buxoro" hisoblangan, ya'ni Buxoro hokimining qadimgi rezidenstiyasi shu yerda bo'lgan. Buxoro barpo qilingandan keyin ham mahalliy hokimlar ko'pincha Romitanda ishlab olar edi. Romitanni afsonaviy Afrosiyob barpo qilgan deb hisoblaydilar. Afrosiyobning raqibi Kayxisrav Romitanning ro'parasida, ya'ni ariqning narigi betida Romush degan qishloq barpo qilgan va bu qishloqqa otashparastlar ibodatxonasi qurgan. Bu ibodatxonaga somoniylar davrida ham cho'qinishgan"* degan fikrni bayon etgan.

Buxorolik mashhur tarixchi Muhammad Narshaxiy Romitan (Romtin) "Buxorodan qadimiyroq" degan. S.Qorayev Zarafshon vodiysida *Bo'rimitan, Mitanazizxo'ja* (Kitob tumani), *Navmitan, Oqtepamitan, Urmitan* (Tojikiston), *Farmitan, Shirmitan, Sanjamitan, Chormitan Qo'shtepamitan, Qoraariqmitan* (Bulung'ur tumani) kabi toponimlar mavjudligini qayd etgan.

Demak, ***Navmetan*** *– "yangi qal'a", "yangi qo'rg'on", "yangi qishloq"* ma'nolarini beradi. G.Vamberi o'zining 1865-yilda yozgan "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asarida Xiva xonligi bo'yicha to'plangan 32 ta urug' va 48 qabila qatorida 20-raqam ostida ***Metan/Miton*** etnonimini qayd etganligi haqida prof.X.Doniyorov xabar bergan. Buxoro chuqurda joylashgani uchun qadimda sellar, do'llar, suv toshini ko'p bo'lgan, aholi o'zini tabiiy ofatlardan himoya qilish uchun tabiiy va sun'iy tepaliklar yasab, o'sha yerda kun ko'rgan. Qadimda suv toshqinidan, dushmanlarning bostirib kelishidan, qahatchilikdan 9 nafar kishi jon saqlagan, ko'pchilik odamlar nobud bo'lgan. Omon qolgan 9 kishi "No'mitan", ya'ni fors-tojik tilida no – to'qqiz hamda metan – metin, chidamli, irodasi mustahkam kuchli degan ma'noni bildiradi[1].

Mazkur termin bilan hosil qilingan geografik obyektlar nomlari Samarqand viloyatida ham uchraydi.

[1] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. – T.: Navro'z. 2020. –B. 46-48.

Shuningdek, boshqa hududlardagi Muytan (Xorazm viloyati), Qoramitan (Buxoro viloyati), Maytun (Toshkent viloyati Piskent tumani), Urmitan (Farg'ona viloyati), (Tojikiston Respublikasi Panjakent tumani) kabi toponimlar qatorida Chormitan (Samarqand viloyati), Mitan, Mitanchaariq, Mirzamitan (Samarqand viloyati Ishtixon tumani), Mitan, Qoramitan (Samarqand viloyati Bulung'ur tumani), Zarmitan (Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani), Semitan (Navoiy viloyati Xatirchi tumani) kabi qator qishloq va ariqlar nomlarini ham ko'rsatish mumkin.

NAVOIY – viloyat va shahar. Mamlakatdagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Buyuk o'zbek shoiri, atoqli arbob Alisher Navoiy nomi bilan almashtirilgan (1441–1501). 1958-yilgacha Karmana shaharchasi bo'lgan. Hazrat Mir Alisher Navoiyga chuqur ehtirom ko'rsatish, uning qoldirgan boy ma'naviy merosini tadqiq va tatbiq qilish maqsadida atalgan.

NAVOLISOY – Toshkent viloyatining Piskent shahridagi daryoning o'ng irmog'i (Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani). **Navo** – *musiqa*, **Navolisoy** – *"musiqali daryo; musiqiy tovushlar chiqaradigan daryo"* ma'nosini anglatadi.

NAVQAZ – Samarqandning janubi-sharqiy hududidagi qishloq. Toyloq tumani. XIX asrgacha *Muni* nomi bilan ma'lum bo'lgan (Chexovich, 1974: 397).

B.O'rinboyevning aytishicha, toponim **nav** – *yangi* va **xoz** so'zlarining birinchi bo'g'inidan yasalgan, ya'ni **novoye xozyaystvo** – *yangi xo'jalik* ma'nosida. Nomlanishda xo'jalikning yangiligi, boshqa xo'jalikka nisbatan keyinroq tashkil etilganligi ko'zda tutilgan (O'rinboyev 2003).

Biroq V.L. Vyatkinning 1902-yilda chop etilgan asarida Navqaz qishlog'i nomi qayd etilgani olimning bu fikrini inkor etadi (Vyatkin, 1902).

1926-yilgi aholi ro'yxatida Navkas shaklida berilgan. Bizningcha, toponim tojikcha **nav** – *yangi* va **-kas, -qaz** – *qishloq* so'zlaridan hosil bo'lgan. Qishloqda *Navqazota* degan muqaddas joy bor.

NAVRABOT – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan iborat: nav+rabot. ***Nav*** – "avval mavjud bo'lmagan narsa, yangi"[1] hamda *rabot* so'zlarining qo'shilishi, yaxlitlanishidan paydo bo'lgan.

Tadqiqotchi N.Adizova o'zining monografiyasida rabot haqida atroflicha mulohaza yuritib quyidagicha ma'lumot bergan[2]. Rabot. Bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan:

1) mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki birbiridan ma'lum masofada joylashgan istehkom; qo'rg'on;

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд) Ҷилди 1. А–Н. –С.876.

[2] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro'z. 2020. –B. 48-50.

2) savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy;

3) shahardan chetroqdagi turarjoy. Mazkur termin haqida mutaxassislar turlicha fikrlar bildirishgan.

Jumladan, akademik V.V.Bartoldning ma'lumotlariga qaraganda, musulmon dunyosi kabi Turkistonda ham diniy urush – g'azovot uchun devor va g'ovlardan tashqari *ribotlar* (to'g'ri talaffuzi shunday) yoki *rabotlar* qurganlar. Buni Turkistondagi *rabod* so'zi bilan adashtirmaslik kerak, deydi akademik. *Rabot* so'zining ma'nosi "ot bog'lanadigan joy" demakdir, *Rabot* muqaddas, ya'ni diniy urush uchun kurashadigan g'oziylar uchun mo'ljallab qurilgan. G'oziylar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiyla-nayranglarini, hujumlarini daf qilib turganlar. Ribotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun *kazarma* rolini bajargan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda *rabod* yoki *rabaz* atamasi ham bo'lgan, Tarixchi A.A.Semenovning gaplariga qaraganda, shaharga tutash mahallalar *rabaz* deb yuritilgan. Shunday qilib, dastlab rabaz deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan.

Keyinchalik bu ikki atama bir-biriga qo'shilib, ham *karvonsaroy,* ham *rabot* yoki *rabod* deb ataladigan bo'ldi. Buning sababi shu ediki, deb yozadi V.V.Bartold, istilochilar qurgan rabotlar bu yerda oldindan mavjud bo'lgan g'aribxonalar va ibodatxonalarga juda o'xshab ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar rabotlarga moslashtirilgan. Buning ustiga rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. Bu so'zlarning yaqinlashishini shundan bilsa ham bo'ladiki, Buxoro yaqinida yashab o'tgan Juybor shayxlari (xo'jalari)ning arxivlarida (XV-XVI asrlar) bu atamalar bir-biridan deyarli farq qilmagan: *rabaz ~ "og'ilxona, hovli joy"*, ***rabot*** *– "qo'rg'on, qo'ra"*[1].

Shuningdek, S.Qorayev rabot (ravot, rabod) so'zi ishtirokidagi toponimlarning O'zbekistonda 200 dan ortishini va ularning aksariyati Zarafshon vodiysida ekanligini qayd etgan."Navoiy asarlari lug'atida" *rabot* so'ziga *"karvonsaroy, yo'lovchilar qo'nishi uchun yasalgan bino, musofirxona; bekat"*[2] izohi berilgan.

A.R.Muhammadjonov rabot so'zi sharhiga bag'ishlangan maqolasida *"rabot – ravot* so'zini sug'dchadir": *ro(h)* – yo'l, *bat* (bata, vata) – manzil. U Buyuk ipak yo'li bo'ylab qurilgan ko'pdan-ko'p bekatlar ana shu atama bilan atalgan"[3], deya izoh bergan.

A.L.Xromov "Таджикская микротопонимия долин верхнего Зараф-

[1] Qorayev S. Toponimika. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.212.

[2] Navoiy asarlari lug'ati. Alisher Navoiy asarlari o'n besh tomligiga ilova. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. –B.517.

[3] Muhammadjonov A. Rabot atamasi etimologiyasi//O'zbek tili va adabiyoti, 1995, 2-son, 43-45-b.

шана и Ягноба" nomli maqolasida *ravad* (ravod) so'zining *"yaylov sifatida foydalaniladigan sero't adir, joy"* ma'nosi borligini qayd etgan[1].

Rabot so'ziga prof. T.Nafasov quyidagicha ta'rif bergan: *"Rabot (arabcha) – arab istilosidan so'ng savdo yo'llarida qurilgan tevaragi devor bilan o'ralgan manzil, karvonsaroy, harbiy istehkom, shahardan tashqari qurilgan saroy. Saroy, qo'rg'on, maschit, qishloq so'zlari bilan birikib joy nomlari yasalganda aholi maskanining hajmi, shakl, miqdor, ko'rinishi, tuzilishi, qarashlilik, qaysi toifa kishilari tomonidan yaratilishi va kimlarga xizmat qilishi kabi tabiiy va sotsial-ijtimoiy belgilar nomlanishiga mezon qilib olingan"*[2].

NAVRO'Z – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomi. O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilgandan keyin ko'pchilik milliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz, urf-odatlarimiz, jumladan, tarixiy nomlarimiz qayta tiklanib, ko'pchilik aholi punktlari nomlari Navro'z deb atala boshlandi. Chunki sobiq Ittifoq davrida bular taqiqlangan edi. Demak, *Navro'z – shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni, yangi kun* ma'nolarini ifodalaydi.

Mazkur termin O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgandan keyin qo'yilgan nomdir va u fors tili orqali o'zlashgan so'z bo'lib, " *yangi kun*" ma'nosini anglatadi.

NAVRO'ZBULOQ – Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq nomi (mazkur toponim hozirda amalda mavjud emas). Ushbu nom ***Navro'z*** va ***buloq*** so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***Navro'z*** kishi ismi bilan bog'liqdir. Mazkur antroponim kishi ismi sifatida Xorazm shevasida keng tarqalgan. Umuman ***Navro'z*** fors tilidan o'zlashgan bo'lib, *"yangi kun"* ma'nosini ifodalaydi.

Uning ikkinchi qismi ***buloq*** so'zining suv otilib chiqadigan buloq so'zi bilan hech qanday aloqasi yo'q. Mazkur ***buloq*** so'zi Xorazm shevasidagi *bo'llak* talaffuz shaklidir. Mallak esa "mulk" so'zining Xorazm shevasidagi dialektal shaklidir. Shunday ekan, ***Navro'zbuloq*** – *"Navro'zning mulkidir"* degan ma'noni bildiradi.

Xorazmdagi ***Otaniyozbuloq*** hamda ***Xudoyqulbuloq*** kabi nomlar ham xuddi shu shaklda hosil qilingan.

NAVRO'ZTEPA – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq va Nurobod tumanidagi qishloq nomlari. Geortonim ikki o'zakli bo'lib, ot+ot so'z turkumidan hosil qilingan. Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni navro'z hisoblanadi [O'TIL. 3, 8]. Bayram tadbiri otkaziladigan joy, tepalik nomi. Har yili Navro'z bayramlari shu hududda o'tkazilaverganidan mazkur joy nomi shunday atalgan.

---

[1] Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долин Верхнего Зерафшана и Ягноба// Ономастика Средней Азии. –М.: Наука, 1978, –С. 58-62.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: "Muharrir", 2009. –B.198-199.

Qadimda aholi shu yerda har yili ko'klamda Navro'z bayramini nishonlagan. Keyinchalik bu tepalik paxta maydoniga aylantirilgan. Istiqlol yillarida esa bu maydon aholiga uy-joy uchun bo'lib berilgan, aholi manzili bunyod etilgan va u tepalik nomiga nisbat berib, Navro'ztepa deb atalgan.

Oronimga ***Navro'z*** geartonimi (bayram nomi) lug'aviy asos bo'lgan. Oronim geartonimga tepa oronimik indikatori qo'shilishi natijasida yasalgan, ***Navro'z*** bayrami o'tkaziladigan tepalik birikmasi oronimning etimonidir: *Navro'z bayrami o'tkaziladigan tepalik > Navro'z tepaligi > Navro'z tepa > Navro'ztepa* (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

NAVXOS – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Xorazm vohasining eng qadimgi nomlaridan bo'lib, u muqaddas "Avesto" kitobida ham qayd etiladi hamda u qariyb uch ming yillik tarixga egadir. **Navxos** forscha **"nav"** (nov) – *yangi*, **"xos" (xose)** –*qishloq, ovul, makon, qal'a, joy* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Shunday ekan, ***Navxos*** toponimi *"Yangi qishloq"* degan ma'noni anglatadi.

NAVZANDAK – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Qadimda qishloqning joylashgan hududi dasht joy bo'lgan. Dastlab bu yerga Urgutdan bir yosh oila ko'chib kelgan. Boshqa qishloq aholisi yangi oila, ya'ni yosh ayolli kishi, yosh ayolcha ko'chib keldi, degan ma'noda forscha ***nav (yangi) + zan(ayol)+ ak = Navzanak*** shaklida atashgan. Keyinchalik zanak so'zi talaffuzda zandak shaklida talaffuz etilib, Navzandakka aylanib, asta-sekin boshqa joylardan ham aholi ko'chib kela boshlashgan.

NAYISTON – Xorazm viloyatidagi qishloq nomi (mazkur toponim hozirda amalda mavjud emas). Mazkur nomning birinchi komponenti ***Nay*** – *"Nayqamish"* ma'nosidadir.

Apellyativning ikkinchi komponenti *–iston* affiksi o'zbek tilida o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchadir. Mazkur affiks o'zbek tilida nihoyatda ko'p bo'lib, *Bahoriston, Guliston, Shahriston* kabi toponimlar shular jumlasidandir. V.I. Abayevning fikricha, ***-ston*** affiksi tarixan mustaqil so'z bo'lgan va *"o'rin, joy"* ma'nosini ifodalagan. Qiyoslang: hind tilida ***-stxana*** *"joy"*, qadimgi eron tilida ***-stana*** *"o'rin"* tushunchalarini bildirgan (В.И.Абаев. Осетинский язык и фольклор. ч. I. –М.-Л. 1949. –с.29).

NAYMAN – Andijon viloyatining Andijon tumanidagi qishloq nomi. "Nayman" – etnik guruh bo'lib, o'zbek millatining tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi. Shuningdek, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham naymanlar bor. Tarixning guvohlik berishicha, Temuriylar sulolasining hukmronligi tugagach, ko'chmanchi o'zbeklar o'troqlasha boshlagach, nayman nomida qishloqlar paydo bo'lgan.

Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Yuqori Nayman* deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda *Xargo'sh Nayman* deb o'zgartirilgan. Toponimning birinchi komponenti – *xargo'sh* so'zi tojik tilida *"quyon"* degan ma'noni bildiradi. Nomning ikkinchi komponenti – *nayman* so'zi qabila nomi, etnonim.

Naymanlar – qadimda turkiy va mo'g'ul xalqlari tarkibida bo'lgan qadimiy qabila. O'zbek, qozoq, qirg'iz, no'g'oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining O'zbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Naymanlar o'zbek xalqining *saroy* qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni *naymansaroy* deb ham atashgan.

Mo'g'ul tilida *nayman* so'zi *"sakkiz"* degan ma'noni bildirgan. Shu ma'no tufayli naymanlarni *sakkiz urug', qabila, turkiy xalq* deb ham izohlashgan.

Taniqli toponimist T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, etnonimning so'nggi qismi hisoblangan *man (mon)* so'zi turkiy tillarning o'tmishida *"odam(lar)", "kishi(lar)", "urug'"* ma'nosini bildirgan. Qishloq nomiga *nayman* urug'i nomi asos bo'lgan. 2014-yil 28-aprelda qishloq nomi *Nayman* deb o'zgartirilgan. Shuningdek, respublikamizning ko'plab tumanlarida uchraydigan qishloqlar nomidir. Naymanlar, A.D.Grebenkin ma'lumotlariga qaraganda, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon, Farg'ona vodiylari va Xorazmda yashagan hamda uchta yirik urug'ga – *qo'shtamg'ali, sadirbek va voxtamg'ali* urug'lariga bo'lingan.

Bulardan tashqari, naymanlar *ag'ran, ayronchi, badir, biya, bag'anali, bukalay, burunsov, jag'alboyli, jestovon, jilonli (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oqto'nli, segizuruv (sakkizurug'), sarinayman, to'rtuul (to'rto'g'il, to'rtovul), to'rttamg'ali, urguch, uchul, changali, cho'michli, qozoyoqli, qoragadoy, qorasiyroq, qarg'ali, qiltamg'ali, qo'ltamg'ali, chirqirovuq, chuvulloq, oltamg'ali* kabi mayda tarmoqlarga ham bo'linadi. Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on va Narpay tumanlarida naymanlarning *oltio'g'il, po'lotchi, ulus, zarman, kichikdik, qoranayman, zaxnayman* bo'laklari bor. Nayman etnonimi qirg'iz, oltoy, no'g'ay, shuningdek, qozoq xalqlari tarkibida uchraydi.

Akademik V.V. Bartold *"nayman"* so'zi mo'g'ulcha bo'lib, *"sakkiz"* ma'nosida ekanligi, demak, ushbu xalq sakkiz tarmoq (urug')ga bo'linishini ko'rsatadi.

Rashididdin nayman feodal davlati haqida hikoya qilar ekan, Bukaxon Taybuka, Buyruqxon, Qushluk (Kuchluk) kabi hukmdorlar nomini tilga oladi. Naymanlar shajarasida sof turkiy ismlar uchraydi. Naymanning uch o'g'li – Tokpan, Yelota, Ukrashlar bo'lib, ularning avlodlari keyinchalik nayman urug'lari tarmoqlarini tashkil qilgan.

Mazkur hudud (Andijon viloyatining Andijon va Farg'ona viloyatining Buvayda tumanlari; Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumani; Toshkent viloyatining Bekobod tumani; Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani; Xorazm viloyatining Gurlan tumani va b.) dagi aholi punktlarining nomlari o'zbek qabilasi *Nayman* nomi bilan atalgan.

Bundan tashqari, Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomlaridan biri ham *Nayman* deb atalgan.

Naymanbo'ston//Naymantepa//Naymancha kabi turli xildagi geografik obyektlar nomlari ham shu Nayman urug'I nomi bilan ham bog'liq bo'lib, ular respublikamizning turli hududlarida uchraydi.

NAYMAS – Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. Toponimshunos olim N.Oxunov nomni *Nonemas* toponimining fonetik o'zgarishlarga uchragan shakli sifatida izohlaydi (Н.Охунов. Жой номлари таъбири. – Тошкент, 1994. 36-бет).

Bu izoh to'g'riga o'xshaydi. Chunki Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlarida *Nonemas qishloq* – (نان يمس قشلاق) qayd etilgan. Etnograf-turkolog olima B.X.Karmisheva kenagas qabilasi urug'laridan birining nomi Tojikiston Respublikasidagi Ko'lob tumani toponimiyasida, ya'ni *Nonemas (Nandjemas)* qishlog'i nomida saqlanib qolganini ta'kidlab o'tadi. S.Gubayevaning yozishicha, qoraqalpoqlar tarkibida ham *nonemas* urug'i bo'lgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, *Naymas* etnotoponimining yuzaga kelishi kenagas qabilasining *nonemas* urug'i nomi bilan bog'liqdir.

NAYNAVO – Andijon viloyatining Shahrixon, Qo'rg'ontepa tumanlaridagi qishloq nomi. Toponimning tarkibi *nay + navo* bo'lib, uni "nayning navosi" sifatida talqin etish xatodir. Xususan, fors-tojikcha *nay (ney)* – "qamish" ma'nosini anglatadi. Fors-tojikcha *nova* termini esa – o'tmishda yog'och, taxta, sopol quvur orqali suv oqizilgan yo'lak (o'zan), moslamaga nisbatan aytilgan. *Nova* terminining fors tilida "ariq", "kanal", "kichik anhor" degan ma'nolari ham bo'lgan. S.Qorayev *Naynavo* toponimini – qamishdan qilingan nova, quvur deb izohlagan.

Biroq bilishimizcha, novalar qamishdan yasalmagan. *Naynavoni* – "qamishli ariq" yoki "qamishzorda joylashgan nova, quvur" sifatida izohlash to'g'ridir. Nomning dastlabki shakli *Naynova* hisoblanadi.

NAZAR BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti kishi ismi hisoblanadi.

Geografik termin "***buloq***" *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 371].

Demak, ***Nazar buloq*** – antropogidronim tip va "*Nazir ismli kishiga qarashli yoki yashash hududiga yaqin yerdagi buloq*" deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

NAZAR MAHRAM – Andijon viloyatining Shahrixon tumanidagi

qishloq nomi. Mazkur antropotoponim kishi nomi (Nazar) va Qo'qon xonligi saroyidagi kichik mansab (mahram) so'zlaridan tashkil topgan. **Mahram** – *xon yonida yuradigan doimiy xizmatkori* (mahramboshi ham bo'lgan). Tarixiy hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, mansab nomlari amal egasining nomiga qo'shilib ketgan. O'shanday kishi yashagan qishloq yoki xizmati evaziga berilgan chek yerning nomi *"Nazar mahram"* atalib ketgan.

NEBO'SA – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Nebo'sa yuz qabilasi xitoy yuz urug'i tarmoqlaridan biri nomi bilan atalgan qishloq.

NEBO'SAQO'NG'ICH – Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi dara nomi. *Nebo'sa* – o'zbek urug'ining nomi, *qo'nguch – manzil, yozda qushlar joylashgan yer* ma'nosini anglatadi.

NEKUZ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim. Nekuz urug'i turli hududlarda turlicha talaffuz qilinadi: *nekuz, nekus, nukuz, nukus, no'kis, nukis* (*qarang*: **Nukus**).

NIHOL – Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi mahalla nomi. Nihol forscha so'z bo'lib, unga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: "Yangi o'tqazilgan, o'stirilgan daraxt; qalamcha kabi ma'nolarni anglatadi. (O'TIL. III, 44).

Demak, Nihol nomi yosh novda yoki ko'chat, yangi o'sib chqqan o'simlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

NILOBA – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. *Nil, nilobi* (ko'k-qora rang). *Niloba* – avval suv obyektining nomi bo'lgan (gidronim).

NIMPAYKAL – Buxoro viloyatining Qorako'l va Kogon tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari. ***Nim*** – *"yarim"* degan ma'noni bildiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ***paykal*** deganda *"marza, ariq, yo'l* va sh.k. *bilan ajratilgan katta ekin maydoni; pol, chek"*[1] kabi tushuniladi. Shuningdek, ***Paykal*** – *"ekinzor, bir xil ekin bilan band maydon"* demakdir. Aslida, ***paykal*** deganda *"bir kecha-kunduzi sug'oriladigan yer"* tushuniladi. Paykal yerdan jamoa bo'lib foydalanish shakli ham hisoblanadi[2].

NIYOZYOBI – qishloq. Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, *niyoz* – qishloq asoschisining nomi va *yobi* – harbiy qabila kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Demak, *Niyozyobi* toponimi *"Niyaz qabilasi vakillari yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

NISHABARIQ – Samarqand viloyatining Jomboy, Payariq tumanlaridagi ariqlar nomi. Suvi pastlikka enib, tez oqqan ariqlar shunday atalgan. *Yana qarang*: **Juyruqariq, Tezariq**.

NISHON – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik, tuman (1975), shaharcha (2009). XX asrning 30-yillarida Balxiyak cho'lida yangidan chorvachilik

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik, 1-tom. –M.: Rus tili, 1981. –B.567.

[2] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.85.

xo'jaligi tuzildi. Yangi turdagi davlat xo'jaligi bo'lganligi sababli ramziy va rasmiy tarzda "**Nishon**" deb nomlangan. **Nishon** (f.-t) so'zining ma'nolari: *belgi, alomat; iz; mo'ljalga olingan narsa; qora; medal.* Erlar, ba'zan qizlar ismi-nomi qo'yilgan. XX asrning 70-yillari o'rtasida shu hududda tuman tuzildi, xo'jalik nomi tuman nomiga aylandi.

NODIRQO'RCHI – Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi guzar nomi. Mazkur nomi ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi **Nodir** – atoqli ot hisoblanadi va uning ikkinchi qismi ***qo'rchi*** esa turkiy so'z sanalib, *"qurolga ega, qurollangan"* degan ma'noni anglatadi. XVI asrda Buxoro amirlarining boshqa mamlakatlardan keltirilgan qullardan tashkil topgan shaxsiy gvardiyasi ***qo'rchi*** deyilgan[1]. Keyingi asrlarda Buxoro amirligida qo'rchi o'q-dori omborlarini qo'riqlab turadigan qorovul bo'lgan.

NOMDANAK – qishloq. Toshkent viloyatining Zangiota, Parkent tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Dastlab Muqaddasiy asarida *Namudonak* tarzida tilga olingan. To'g'risi, *Namdonak* bo'lsa, *namdon – "sernam", "sersuv", "suv to'planadigan joy"* ma'nolarini ifodalab, *-ak* toponim yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

NONVOYON – qishloq. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. Nonvoy (novvoy) – non yopuvchi, *-yon* (*-on*) – ko'plik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Demak, ***Nonvoyon*** toponimi *"novvoylar; novvoylar yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

NONVOYLAR – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Alisher Navoiy* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *Nonvoylar* deb o'zgartirilgan.

Mahalliy aholining ta'kidlashicha, qishloq hududida avvallari novvoychilik bilan shug'ullanuvchi kishilar yashashgan. Mazkur toponim to'g'risida mahalliy aholi bildirgan talqin haqiqatga juda yaqin.

Nonvoy – *"non pishiruvchi kishi"* demakdir. Toponim tarkibidagi *-lar* ko'plik affiksi.

Demak, **Nonvoylar** – *"non pishirish bilan shug'ullanuvchi kishilar yashaydigan joy"* ma'nosidadir. Geografik joy nomining vujudga kelishiga shu hududda yashovchi aholining kasb-kori asos bo'lgan.

NOQI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur qishloq nomiga "***Naqa***" etnonimi asos bo'lgan. Qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limiga qarashli barmoq urug'ining bir tarmog'i ***naqa*** deb nomlangan [T.Nafasov, 131].

Z.Ziyotovning fikricha, naqi (yoki naq) qo'ng'irot qabilasiga kirgan barmoq urug'ining bir tarmog'i sanaladi [Z.Ziyotov, 100].

Shunga ko'ra, ushbu mikrotoponim bir o'zakli etnooykonimlar sirasiga kiradi hamda etnooykonim joy nomi uchun asos bo'lgan.

---

[1] История народов Узбекистана. II. –T.:1947. –S.81

NORBO'TA – qishloq. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq nomi. Qishloqqa Qo'qon xonligi davrida Qo'qon xoni Norbo'tabiy (1769–1801) tomonidan asos solingan va mazkur qishloq uning nomida atalgan.

NORIN – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Norin nomi dastlab gidronim sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik shahar va tuman ham shu nom bilan atalgan. Norin so'zi mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, **norin** so'zi mo'g'ul tilida *"tor, ingichka"* ma'nolarini anglatadi. Hozirgi mo'g'ul tilida **nariyn** – *"ingichka, nozik, tor, tang"* kabi ma'nolarga ega. Norin so'zining ma'nosi unutilib, nutqdan chiqib ketgach, atoqli otga aylangan. Nom ma'nosidan ma'lumki, daryo o'zanining qaysi bir qismi tor, siqiq bo'lib, suvi tez oqqan bo'lsa, dastlab o'sha qismi shu nom bilan atalgan. Keyinchalik nomning areali kengayib, butun daryo shu nom bilan yuritilgan. Boshqacha aytganda, *Norinni tang, siqiq daryo,* deb izohlasa bo'ladi. Qirg'iz olimlari B.Yunusaliyev va S.Qudaybergenovlar ham **norin** so'zining *"tor, kambar"* ma'nolari borligini qayd qilishgan.

S.Qorayev **norin** so'zini etnonim hisoblab, o'zbeklarning laqay, yuz qabilalari, shuningdek Farg'ona qipchoqlari tarkibida norin urug'i borligini ta'kidlagan. E.M.Murzayev esa **norin** – *"serquyosh, oftobro'y"* degan ma'noni anglatadi deydi. O'zbek milliy taomlari orasida xo'randa sevib iste'mol qiladigan norin taomi ham bor. Norin eng qadimiy taomlardan hisoblanib, o'tmishda chorvador qabilalar o'rtasida keng tarqalgan.

Norin – Qirg'iziston va O'zbekistondagi daryo nomi. Daryo Markaziy Tyanshandan boshlanadi. Uzunligi 807 kilometr. Farg'ona vodiysi hududida Norin Qoradaryo bilan qo'shilib, Sirdaryoni hosil qiladi. Tuman hududining shimoli-g'arbiy qismidan Norin daryosi oqib o'tadi, daryo nomi tuman nomiga asos bo'lib xizmat qilgan. Norin nomining tarqalish areali ancha keng va u turkiy hamda mo'g'ul xalqlari yashaydigan hududlarda uchraydi.

NOVA – Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi mahalla nomi. Tog'li tumanlar aholisi nutqida **nova** – *toshni taroshlab yoki yog'ochni yo'nib, ichini kovak qilib o'yib qilingan oqar suv yo'li.* Dehqonobod tumanidagi bir qishloq Novabuloq deb nomlangan.

Nova – *suv oqimi, vaqtincha suv saqlash, mollarni sug'orish uchun yog'och, taxta, truba, quvur va shu kabilarda qilingan oxursimon suv o'zani.* Tojik tili o'tmishida **nova** so'zi *suv, nam* ma'nosini ham anglatgan. Fors tilida **nova** – *ariq, kichik anhor, kanal.* Tog'li tumanlardagi aholi nutqida **nova** – *doimo suv oqib turadigan kichik o'zan, jilg'a. Suvi jilg'a kabi oqib turadigan buloq yonidagi qishloq* – **Novabuloq.**

NOVABOSHI – qishloq. Buxoro viloyati G'ijduvon va Shofirkon tumanlari. **Nova** – *ariq, kanal boshi* so'zlaridan tashkil topib, **Novaboshi** – *ariq, kanalning bosh qismidagi qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

NOVADON – Samarqand shahridagi suv bilan ta'minlangan qadimgi ariq. **Nova** – *ariq, kanal*, **Novadon** – *suvni yetkazib berish yoki chiqarib tashlash uchun mo'ljallangan truba.*

NOVALISOY – *soy nomi.* Tog'li tumanlardagi tojiklar shevasida *nova* – doimo suv oqib turadigan jilg'a. *Nov* – suv oqishi, vaqtincha suv saqlash, sug'orish uchun yog'och, taxta, truba va shu kabilardan qilingan oxursimon suv o'zani demakdir. *-a* ot yasovchi affiks. *Nova* so'zi tojik tili tarixida suv, nam ma'nosiga ham ega bo'lgan. Fors tilida *nova* – ariq, kanal, kichik anhor ma'nosida qo'llanilgan.

NOVBUR//NAVBUR – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi *qishloq* nomi. Turkman tilida ***novbir*** – *"bosh ariq, anhor, yangi ariq"*[1] kabi ma'nolarni anglatadi. M.Penjiyevning fikricha, bu so'z ***navbur*** so'zining dialektal varianti yoki shakliy ko'rinishidir. ***Bur//pur*** esa – *"ko'p, mo'l; katta"* ma'nolarini bildiradi.

Shunday ekan, ***Novbur//novpur*** – *"ko'p suvli apiq, katta apiq"*[2] demakdir.

NOVKAT – Farg'ona viloyatida ko'p uchraydi. **Nov** – tojikcha *"yangi qishloq"* degan ma'noni bildiradi. Bu nom *Novkent, Novobod* ko'rinishida ham uchraydi. Viloyatda kishilar ismidan olingan **Nodira** *(noyob, qimmatli)*, **Noib** *(ko'mak beruvchi)* kabi joy nomlari bor.

NOVQALI – dovon. Respublikamizda *Navqat* sug'dcha *"yangi qishloq"* degan joylar bor. *Novqali* ham shunday toponimlar qatoriga kirishi mumkin. Lekin dovon *nov – "soylik"* joyda bo'lgani uchun shunday atalgan bo'lishi mumkin.

NOVZA – mahalla. Toshkent shahrining Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Olim Xo'jayev, Samarqand Darvozasi, Cho'ponota hamda Chilonzor tumanidagi Charx Kamolon mahallalari bilan chegaradosh. Mahalla hududida 1936-yilda Cho'ponota mahallasi tashkil topgan. Keyinchalik u uch qism (Cho'ponota, O.Xo'jayev, Novza)ga bo'lingan. Mahalla hududidan katta nov arig'i o'tgani bois shunday atalgan, "Oqtepa Novza" mahallasi deb ham ataladi.

NOVCHANDIR – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Bu nom *"nova (tarnov) – suv oqadigan ariq yoqasidagi chandirlar"* degan ma'noni anglatadi (Ataniyozov, 1980).

NOG'ORAXONA – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumani. *Nog'ora; nog'oraxona – nog'oralar saqlanadigan joy, xona* ma'no-

[1] Nafasov T. Ko'rsatilgan lug'at. –B.129.

[2] Панжиев М. Об Ирригационной терминологии туркменского языка. Тюркская лексикология и лексикография. –М.: 1971.-С.258.

sini ifodalagan, shuningdek, u yerda boshqa musiqa dastgohlari ham saqlangan.

NUJKAT – Usrushona tarixiy viloyatining g'arbiy qismidagi shahar nomi. Aniq mo'njal – Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Nushkent qishlog'i nomi. Bir xil nomli shahar Shoshda bo'lgan, shu joydan Chirchiq daryosi Sirdaryoga qarab oqqan ("Hudud ul-olam", list 24 b.), *Bunjikentda* (Tojikiston Respublikasidagi hozirgi *Pan*jakent) va *Isfijabda* (Qozog'iston Respublikasidagi *Sayram* shaharchasi) *Nudkat* darvozalari bo'lgan. **Nuj** – *"yaltiroq", "gulsimon", "chiroyli"*; T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, xorazmiy va sug'd tillarida *no'sh-nush-nuz* – "yangi"; *kat, ket* (sug'dcha) – "shahar", "qishloq" ma'nolarini ifodalagan.

NUKUS – shahar. Qoraqalpog'istondagi ma'muriy-hududiy birlik. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti. 1968-yili 25-dekabrda tashkil etilgan. G'arbda Xo'jayli, shimoliy-g'arbda Amudaryo orqali Qanliko'l tumani, sharqda Qorao'zak, shimoli-sharqda Kegeyli, shimolda esa Bo'zatov tumanlari, janubiy-sharqda Amudaryo tumani bilan chegaradosh. Kegeyli tumanidan ajralib chiqqan. Nukus shahriga yaqin joylashganlikdan, ushbu tumanga Nukus nomi berilgan.

Nukus – mo'g'ul tilidan kirib kelgan: mo'g'ullar bosqini davrida nukusliklarning bir qismi Dashti Qipchoq dashtlarida o'tirib qolishgan; keyinchalik ular o'zbek ko'chmanchilari bilan (XV–XVI asrlar) Movarounnahrga kelishgan va o'zbek-qo'ng'irot va kenegeslar tarkibiga kirishgan; Nukus (nikuz) termini 92 ta "o'zbek" qabilalari orasida tilga olinadi.

O'zbekistonda mazkur etnonim bilan nomlangan obyektlar oz emas: **Nukusqishloq, Balandnukus, Tayzannukus, Tavannukus, Nukuzko'l** (ko'l). **Nukusyap** (kanal) va boshqalar.

Qoraqalpoq toponimshunosi K.Abdimuratov, afsonalarga asoslanib, quyidagicha ta'riflaydi: **Nukus** – *"To'qqiz odam"* (forscha *nu(h)* – to'qqiz, *kas* – odam). Prof. E.M. Murzayev esa mazkur toponimning o'zagida forscha *kesh* (*kes*) – "uycha", "uy" ma'nolari borligini qayd etadi.

Qoraqalpoqlarda *nukus, nukis, nekuz* degan urug' bor. Rivoyatga ko'ra, **Nukus (nukis)** – *surgun qilingan to'qqizta qizning o'g'illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo'lib, "To'qqiz kishi" demakdir* (tojikcha *no'h* – to'qqiz, *kas* – kishi). Bu rivoyat, xolos.

Toponimning etimologiyasi hamon noma'lum. Nukus qabilasi nekuz shaklida turk-mo'g'ul urug'lari tarkibida qadimgi tarixiy manbalarda, chunonchi, Rashididdinning "Jome at-tavorix" asarida ham tilga olingan. Nukus urug'i **Nukas** (*"yangi qishloq"*) degan ma'noni anglatadi, deyuvchilar ham bor. **Nukus (Nikuz)** degan joy nomlari respublikamizning boshqa yerlarida ham uchraydi. Xo-

razm viloyati Gurlan tumanidagi mahalla nomlaridan biri ham shunday nomlanadi.

Umuman, shunday nomdagi toponim respublikamizning ko'plab hududlarida uchraydi.

NURA – Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi dara nomi. Qozoq va qirg'iz tillarida, o'zbek tilining shevalarida **nura** – *"yoriq", "qoya"*, mo'g'ul tilida ham *"yoriq"*, **nuru** – *"tog' cho'qqisi"* ma'nolarini ifodalaydi (Монгольско-русский словарь, 1957. С. 277). O'zbek tilida **nuramoq** – *"parchalanmoq, qulamoq, qachonki tog'lar parchalansa, yoriqlar hosil bo'ladi.* Oldinlari *Nurota* cho'qqisi *Nuratov* sifatida qayd etilgan. Ehtimol, **nura+tov** – *"yoriq tog'lar"*.

NURAFSHON – shahar va mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa, Gurlan, Bog'ot tumanlari va Urganch shahridagi mahallalar hamda Toshkent viloyati markazi nomi. Ushbu termin arabcha-forscha bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur so'z quyidagi ma'nolarda ifodalanadi: *"Nur sochuvchi, nur tarqatuvchi, nurli, porloq"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 66-bet).

Mazkur toponim ham mustaqillik davri mahsuli hisoblanadi.

NURLI KELAJAK – Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi mahalla, Mirzaobod tumanidagi massiv nomi. Mazkur toponim nurli va kelajak so'zlarining birikuvidan tashkil topgan.

Demak, Nurli kelajak toponimi kelajakka nur, yog'du beradigan; yog'duli, kelajagi yorug', ravshan, porloq degan ma'noni ifodalaydi.

NURLI HAYOT – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. Mustaqillik yillarida nomlangan mazkur toponim *hayotga nur, yog'du bag'ishlaydigan, yog'duli yashash* ma'nolarini ifodalash maqsadida shunday atalgan.

NURLI MASKAN – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Mazkur termin mustaqillik yillarida qo'yilgan bo'lib, u *"hayotga nur bag'ishlaydigan hudud"* ma'nosini ifodalaydi.

NURLIYO'L – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin mustaqillik yillarida qo'yilgan nom bo'lib, u arabcha *yorug'lik* ma'nosini bildiruvchi *nur* so'ziga o'zbekcha *–li* qo'shimchasini hamda kishilar yoki transport qatnovi uchun belgilangan uzun yer bo'lagi ma'nosini bildiruvchi *yo'l* so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan nomdir.

NUROBOD – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa va Gurlan tumanlaridagi mahallalar nomlari. Ushbu termin arabcha "yorug'lik" ma'nosini bildiruvchi *nur* va forscha *"odam yashaydigan, ishlov berilgan"* ma'nolarini ifodalovchi *obod* so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan toponim hisoblanadi.

Aslida, *obod* so'zi bilan yasalgan geografik nomlar, asosan, aholi yashaydigan punkt nomlarini yasashda qo'llanilib, u ishtirok etgan nom-

lar respublikaning turli hududlarida ko'plab uchraydi.

Shuningdek, Nurobod nomi respublikada tuman markazi sifatida ham qayd etiladi. U *nur* va *obod* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Obod so'zi, toponimist T.Rahmatov qayd qilishicha, nomlar tarkibida kelib, *"yangidan qurilgan, tashkil qilingan"* ma'nosini beradi. Mazkur so'z bilan yasalgan geografik nomlar, asosan, aholi yashaydigan punkt nomlarini yasashda qo'llanilib, u ishtirok etgan nomlar faqat Markaziy Osiyo respublikalaridagina emas, Eron, Afg'oniston va Pokistonda ham keng tarqalgan. O'rta eron tilidagi **apam** – *aholi yashayotgan joy, obod qilingan, gullatilgan* ma'nosidagi bu so'z bilan yasalgan joy nomlari Eron hududida eramizning III-IV asrlari, sosoniylar davridayoq uchraydi. Shuningdek, **apam** so'zi bilan yasalgan nomlar qadimgi Armanistonda ham uchraydi.

Markaziy Osiyoga **"obod"** terminining kirib kelishi arablar bosqini davrida, taxminan VII-VIII asrlarda fors-tojik dialektlarining tarqalishi bilan bog'liq.

Yoqutning xabar berishicha, XIII asrda, ayniqsa, mahsuldor bo'lgan. Viloyatimizdagi *Rahmatobod arig'i* (Samarqand tumani), *Yangiobod arig'i* (Bulung'ur tumani) singari ko'plab geografik nomlar mazkur terminning joy nomlari yasashda hozir ham sermahsul ekanligini ko'rsatadi.

NUROTA – tuman va shahar. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Nurota toponimining lisoniy tarkibi, ya'ni apellyativ asosi hozirgi o'zbek tilida ham funksional bo'lgan ikki leksemadan ***nur*** va ***ota*** (ato) qismlaridan iborat. Mazkur toponim anglatuvchi ma'no haqida tadqiqotchilar o'rtasida bir to'xtamga kelingan emas.

Akademik Y.Gulomov o'zining "Nur qal'asi" maqolasida Nur qal'asi eramizdan avval IV-V asrlarda qurilganini aytadi.

Jurnalist A.Muxtorov va arxeolog B.O'roqov "Nur qasrini Iskandariya ham deyishadi, chunki uni Iskandar qurdirgan" deb yozishgan.

Sh.Ismoilzoda o'zining maqolalaridan birida Nur shahrining qadimiy nomi Ko'hzor bo'lgani haqidagi rivoyatni keltiradi. Nomning Nurota bo'lib o'zgarishiga buloqning o'zidan nur tarqalishi asos qilib ko'rsatiladi va ***Nurota Nur*** + ***ato*** – "yorug'lik taratadigan joy" ma'nosini berishini yozadi. Ammo ba'zi manbalarda tojikcha bo'lgan ***Ko'hzor*** nomiga shubha bildiriladi, chunki tarixiy manbalarda bu hududga forsiy zabon aholi X–XI asrlardan boshlab kirib kelgan deb hisoblanadi.

Hofizi Abruning "Geografiya" asarida, shuningdek, temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda ***Nurota Nur*** shaklida uchraydi. Umuman, VIII–IX asrlarda, undan keyin ham, gap yuritilayotgan joy Nur deb atalgan. Hatto German Vamberining "Movarounnahr tarixi asari"da ham toponimning Nur shakli qayd qilinadi: 1220-yilda Chingiz bosib olgan ikkinchi shahar Nur

bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar Nur toponimi Nurota shaklida XIX asr oxiri XX asr boshidagi yozma manbalarda uchrashini ta'kidlashadi.

Ko'pchilik manbalarda ***Nur*** toponimining paydo bo'lishi buloqqa, uning xususiyatiga bog'langan holda izohlanadi.

Ayrim ilmiy manbalarda ***Nur*** so'zining ma'nosiga shunday izoh berilgan: "*Yorug'lik manbayidan taralgan va ingichka tola ravishda tasavvur etiladigan ziyo, yog'du*"dir.

Ayrim manbalarda ***Nurota*** nomi tarkibidagi "***ota***" komponenti "***ota***" emas, balki "***ato***" shaklida, ya'ni "*nur tarqatuvchi, nur baxsh etuvchi, taratuvchi*" ma'nolarida qayd etiladi. "***Ato***" mana shu shakl va ma'noda talqin qilinsa, u Alloh va Muhammad payg'ambarning qayd qilingan nomi – sifatlariga ham bog'lana oladi, ya'ni *Alloh yaratgan, baxsh etgan joy, makon yoki Allohning ehsoni, tuhfasi* ma'nolarini beradi.

Ammo mavjud manbalarda Nurota nomining ikkinchi komponenti imlosi va talaffuzida birxillik yo'q. U goh ***Nurota***, goh ***Nurato*** shaklida yozilmoqda. Bu nomni o'sha hududda yashovchi mahalliy aholidan tojikcha so'zlashuvchilar ***Nurato***, qipchoq shevasida so'zlovchilar ***Nurata***, adabiy tilda so'zlovchilar ***Nurota*** tarzida tilga olishadi.

Nurota toponimining ikkinchi qismini o'zbekcha (turkiy) ***ota*** so'ziga bog'lab izohlash ham mumkin. Bu so'z o'tmishda, asosan, uch ma'noda qo'llanilgan: 1) farzandli, bola-chaqali er kishi; 2) rahnamo, ustoz (otaliq so'zi va unvoni mana shu ma'nodan); 3) ulug', muqaddas, avliyo. Biz uchun bu o'rinda qayd qilingan ma'nolardan uchinchisi ahamiyatlidir.

Bordi-yu Nurota nomining ikkinchi qismi ota (ato emas) deb hisoblanadigan bo'lsa, unda ikki xil faraz yuzaga keladi: 1) Nurota nomi nur so'zidan iborat yoki tarkibida nur so'zi mavjud bo'lgan (Nurulla, Nuriddin) shaxs nomi bo'lishi mumkin; 2) Nur deb atalgan qishloq yoki buloq nomi "aziz qadamjoy", "muqaddas joy", "avliyo joy" ma'nosida ilohiylashtirilgan bo'lishi mumkin. Har ikki holatda Nurota nomi diniy mazmun, talqin kasb etadi.

Chunonchi, S.Qorayev Nurota nomini mo'g'ulcha deb talqin qilishga qo'shilmaydi va yozadi: "Shunday qilib, Nur bora-bora Nurota bo'lib ketgan. Nur so'zi (arabcha) "yorug'lik", ota esa – geografik nomlar tarkibida "aziz avliyolarning qadamjoyi" degan ma'noni qayd etadi.

S.Nayimov Nurning mo'g'ulcha ekaniga qo'shilmaydi va uni arabcha nur (ziyo)ga bog'laydi. Uning fikricha, Nurota tog'i nomi qadimiy Nur qishlog'i nomidan olingan, deb izohlaydi.

Akademik Y.G'ulomov uni "Nur o'zining chashmasi bilan atrofdagilarga mashhur. Xalq uning nomi yoniga "ota" so'zini qo'shib, "Nurota" deb atagan".

Nur toponimiga ota so'zining qo'shilish sababini talqin qiluvchilarning aksariyati Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytilgan mulohazaga tayanisha-

di: "Nur katta joy. Unda masjidi Jome bor. U ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar: Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi... Tobeinlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar, xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo'lsin!"

Demak, qadimiy "Nur"ning, keyinchalik Nurotaning muqaddas qadamjoy bo'lgani aniq. Unga "ota" so'zi shu uchun qo'shilgan. Nurota nomini bu joyning ziyoratgohga aylanish sababini konkret shaxs nomiga bog'lab izohlashga intilishlar ham bor. Bunda mashhur shayx Hasan Nuriy ko'zda tutiladi. Bu shaxs yuqorida Narshaxiy aytgan tobeinlar (Muhammad payg'ambarni emas, balki uning safdoshlari, sahobalarini o'z ko'zi bilan ko'rganlar)dan biridir.

Hozir "Chashma" muzeyida saqlanayotgan qabr toshidagi lavha 1912-yilda Mirbiy Yo'ldosh tomonidan fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, unda Abul Hasan Nuriy yeri ko'kdagi bilimlar podshosi deb ta'riflanadi.

U faqatgina islom targ'ibotchisigina emas, Nurda dastlabki masjid-madrasalar qurdirgan va shayx unvoniga sazovor bo'lgan, so'fiylikning o'ziga xos yo'nalishini asoslagani uchun donishmand hamdir. Tilga olingan qabr toshida uning vafot etgan yili hijriy 295, milodiy 907-yil deb ko'rsatilgan. Shayx haqida dastlab X asrda yashagan Jullobiy al-Hujviriyning "Kashf al-mahjub" asarida quyidagicha ma'lumot berilgan: "Islomda so'fiylikning ko'zga ko'ringan ulug'laridan biri Abul Hasan (Husayn) Ahmad ibn Muhammad bo'lib, so'fiylikning "Nuriy" bosqichiga asos solganlar. Bu ulug' va donishmand kishi IX asrda yashagan".

Z.Do'simov, X.Egamovlarning fikricha, qishloq nomi bo'lgan Nurota "toponimi Nurota tog'i nomi asosida vujudga kelgan" va u "baland tog', cho'qqili tog'" ma'nosini bildiradi . Mualliflar bu fikrni mo'g'ulcha nura, nuru apellyativlariga bog'lab izohlashgan.

H.Hasanovning yozishicha, Nurota tarixiy yozma manbalarda Nur, Nur Buxoriy, Nurota shaklida tilga olinadi va ko'hna Nur shahri deb ta'kidlanadi. H.Hasanov Nurota toponimi etimonini arabcha "nur" so'ziga bog'laydi va joy nomi tog' nomidan olingan deb biladi: "Nurota. Asli nomi Nur. Buxoro va Karmanadagi birdan-bir baland tog'. Uni ulug'lab, u yerdagi mozorni muqaddaslashtirib, Nur ota deganlar. Oftob nuri ham eng avval ana shu tog' tepasida ko'rinadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda Nurota toponimining ma'no va etimoniga oid fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

– Nurotaning qadimiy nomi Nur bo'lgan. Ikkinchi qism unga keyin qo'shilgan;

– Nurning bu nomdan avvalgi qadimiy nomi Ko'hzor bo'lgan, u ba'zan Iskandariya deb ham atalgan.

Nurning etimoni mo'g'ulcha nura (nuraak) so'zi va u:

yemirilgan, nurab tushgan, o'pirilgan yer;

tog'dan nurab tushgan toshlar uyumi;

jar, jarlik, suv yemirgan, o'yib tashlangan joy;

cheksiz keng dala;

cho'ziq qirsimon dala ma'nolarini anglatadi.

Demak, ***Nur*** – *jarlik, jarlik bo'yida joylashgan qishloq* yoki *balandlikda, yuqorida joylashgan qishloq, joy* ma'nolarini anglatadi.

Nurning etimoni mo'g'ulcha nuru so'z va bu so'z:

tog', tog'ning orqa qismi;

tog', tog' tizmasi;

baland cho'qqili tog' ma'nolarini anglatadi.

Demak, ***Nur*** asli tog' nomi bo'lgan va u keyinchalik qishloq nomiga ko'chgan.

Nurota toponimini har ikki komponenti arabcha: ***Nur+ato***, ***Nur*** – *yorug'lik, yog'du, ziyo*; ***ato*** – *baxsh etuvchi, beruvchi, in'om qiluvchi*. ***Nurato*** – *yorug'lik, yog'du taratuvchi, nurli, nurafshon*. Bu ma'noda ***Nurota*** *buloq* (*chashma*) nomiga bog'lanadi.

Nur – Alloh va Muhammad payg'ambarning sifatlaridan biri (an-Nur).

Demak, ***Nurato*** – *Alloh ato qilgan, Allohning tuhfasi, ehsoni yoki Muhammadning nazari, nuri tushgan joy.*

NURSUQ – Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq. Nom ikki qismdan tuzilgan, birinchi qismidagi **Nur** "*tog'*", "*tog' tizmasi*" so'zi bilan bog'liq. Ikkinchi komponenti "**suq**" yoki "**suuq**" toponimiyada ko'p uchraydigan geografik termindir. U "*o'zan, jar, soy*" kabi ma'nolarni bildiradi. **Nursuq** – "*tog' o'zani, tog'dagi o'zan*" degan ma'noni bildiradi (Do'simov, 1977; Murzayev, 1974).

NURXON – qishloq. Farg'ona viloyati Toshloq tumani. Birinchi o'zbek aktrisasi, raqqosasi Nurxon Yuldashxo'jayeva (1913–1926) nomi bilan atalgan.

NO'KAR – Buxoro viloyati Kogon tumani, Navoiy viloyati Karmana tumani. "Mo'g'ulcha *nokar, nokur* so'zlari "*do'st*", "*yo'ldosh*" ma'nolarini ifodalagan. Qadimgi Mo'g'ulistonda erkin odamlar begona urug' va qabilalarning harbiy boshliqlariga xizmat qilishgan va ular *no'kar* deb nomlanilgan" (Б.Я.Владимирцов. Монгольское "нокур", ДАН-В, 1929. С. 287–288; Б.Владимирцов. Общественный строй монголов. С. 87).

Askarlardan farqli ravishda, faqat harbiy yurishlarda chaqiriladiganlar ichida doimiy ravishda no'karlar xizmatda bo'lishgan. **No'kar** – *xon o'rdasida urush vaqtida xizmatkor, ov qilishda yordamchi, hamma vaqtlarda xizmatda bo'lgan*. Mazkur so'z mumtoz adabiyotda va o'zbek adabiy tilida *navkar* sifatida qo'llaniladi va "*xizmatchi*", "*askar*", "*harbiy*" ma'nolarini ifodalaydi. **No'kar** so'zi turkiy tillarga XIII asrda fors-tojik tilidan kirib kelgan; *qarang*: *Navkar*. Ayrim tumanlarda kuyovni kuzatib boruvchi do'stini *kuyovno'kar (kuyovnavkar)* deb atashadi.

NO'XATAK – qishloq. Andijon viloyati Andijon tumani. *No'xatak*

– paxtasimon astragul, yovvoyi o't; **No'xatak** – *ko'p o'simlik bor joy.*

NO'XATPOYA – Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi joy. *No'xat, poya* – nimalardir ekilgan maydon, **No'xatpoya** – *"no'xat ekilgan maydon"* ma'nosini ifodalaydi.

NO'G'AY MAHALLA – Andijon viloyati Andijon shahridagi sobiq Narimonov ko'chasining eski nomi. *"No'g'ay"* – qadimgi turkiy urug'laridan birining nomi.

Stavropol o'lkasida, Dog'istonda, shuningdek, Chechenistonda *No'g'ay* nomida qishloqlar mavjud. No'g'aylar Rusiya tarkibiga erta qo'shilib kelgan. XIX asr o'rtalaridan Rusiya qo'shinlari Turkistonga yurish qilganida no'g'aylar tarjimonlik qilishgan. Keyinchalik Rusiya mustamlakasiga aylantirilgan Turkiston viloyatlari, uyezd va shaharlar mahkamalarida no'g'aylar va tatarlar tarjimonlik lavozimida ishlashgan. Andijon uyezdida ishlaganlar oilalari bilan ko'chib kelishib, shaharning sobiq Narimonov ko'chasi bo'yida o'z mahkamalarini tashkil qilganlar. Hozirda kichrayib ketgan "Buransha" (aslida *"Burxonshayx"*) arig'i ilgari shu mahallani oralab oqqan (shuning uchun *"No'g'ayariq"* ham deyilgan).

O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida hozir ham *"No'g'ay qishloq"*, *"No'g'ay qo'rg'on"* degan joylar bor.

NO'G'AYQO'RG'ON – qishloq. Toshkent shahri ostida. Povoljye tatarlarini no'g'aylar deb atashgan; *qo'rg'on* – qal'a, istehkom (toponimlar tarkibida tez-tez "qishloq" ko'rinishida uchraydi). Toshkent Qo'qon xonligi tomonidan zabt etilgandan so'ng (1810) Toshkentga tatarlar oqimi kirib borgan. Qo'qon xoni Madalixon (1822–1842) Toshkentga tatarlarni jalb qilish maqsadida ular uchun katta hududni – Tarxon kanalidan (hozirgi **Darxon ariq**) g'arbdan Qorasuvgacha, sharqdan janubdagi Sovuqbuloqqacha, shimoldan Salor arig'igacha barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan yerlarni bergan.

NO'SHOB – Andijon viloyatining Rabotak o'rchini (tumani), Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig'idagi kent. Zahiriddin Bobur 905 (1499–1500)-yili Jahongir va Tanbalga qarshi urushlar qilganida cherigi bilan qishlovni mazkur tumandagi **Armiyon** va **No'shob** kentlarida o'tkazgan (*yana q.* **Armiyon**).



O

OBBURDAN – Zarafshon tizmasining o'rta qismida Mascho ("Boburnoma"da "Masiyho") tumanida joylashgan qishloq. "Boburnoma"da Mascho ("Masiyho") tog'idagi qishloq deyilgan va shu yerdagi dovon "Obburdan doboni", "Obburdan ko'tali" nomlari bilan tilga olingan. Bobur 907 (1501)-yil yozida Shayboniyxonning O'ratepaga bostirib kelishidan xabar t opgach, tog'li o'lkaning ichkari qismlariga ko'chadi va Mascho tog'laridagi Obburdan qishlog'iga yetib boradi. U yerda bir toshga bir necha qator she'r o'ydirib bitadi.

OBDON – Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi tog' nomi. Mazkur nom ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***ob*** – *"suv"* ma'nosini ifodalasa, uning ikkinchi komponenti ***don*** esa – *"dona, saqlagich"* degan ma'noni bildiradi.

Mazkur termin Turkmanistonda ***Xovdon*** shaklida qo'llanilgan bo'lib, *"suv ombori"* ma'nosini ifodalaydi (М.Гельдиханов. Местные географические термины Туркменистана. – Ашхабад. –с.20)..

Shunday ekan, **Obdon** (forscha) *"suv o'rnashgan joy"* – *"suvga boy joy, suvli joy, suv havzasi, kichik sardoba"* ma'nosini ifodalaydi.

OBDUZ//OBDUZD – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi ***qishloq*** nomi. ***Obduz*** tojikcha – *"suv o'g'risi"* tushunchasini ifodalaydi. Xalq tilida navbatni kutmasdan o'g'rilikka suv oladigan kishi ***obduz*** deyilgan. Ba'zan biron ariqqa yoki o'pqonga kirib ketib yana yer yuziga chiqadigan jilg'a suvi ham ***obduz*** deb ataladi.

Obduz toponimi haqidagi quyidagi fikrlar ham e'tiborga loyiq: qadimiy shaharlarda shahar ichi (shahriston) va tashqarisi – ravotlarda yashirin suv yo'li bo'lgan. Shahar quvur orqali tashqi suv manbayi (kanal, ariq, hovuz, daryo) bilan bog'langan, favqulodda holatlardagina undan foydalanishgan. Hatto shahar ichida yer tagida yashirin quduq, buloq, hovuz bo'lgan. Yer tagidagi yopiq suv yo'li ***obiduzd*** (*obduzd//obduz//obdo'z*) deb atalgan[1].

Akademik Y.G'ulomov ***obdo'z*** – *"suv to'ldirilgan xandaqqa olib*

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B. 186.

chiqadigan yashirin yo'l"[1], deb ta'rif bergan.

Lug'atda ***obduzd*** – "yer tagidagi yashirin ravishda suv quyib turiladigan yopiq yo'l yo lahim"[2], deya izohlangan.

OBGIR – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi kanal nomi. Mazkur toponim tojikcha: ***ob+gir*** ko'rinishida hosil bo'lgan bo'lib, – u *"suv olinadigan joy, hovuz"*. ***Obgir*** so'zining *"botqoqlik"* ma'nosi ham bor.

Ushbu gidronim tojik tilining izohli lug'atida suv ta'minoti sifatida quyidagicha izohlangan:

1) buloqlar va daryolarning boshida suv olish, ko'l;

2) suv oladigan idish;

3) gulobning idishi, atir[3]. Toponimga ana shu ma'nolar ham asos bo'lgan bo'lishi mumkin, xullas, mazkur toponimning vujudga kelishiga gidronim asos bo'lgan.

OBIDIDA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Forscha **ob** – *suv, nam;* **dida** – *ko'z*. **Obidida** – *"ko'z yoshlari"*: kam suvli buloq o'zining mayda tomchilari bilan shunday nomlangan (*qarang*: **Tomchi**).

OBIKANDA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq nomi. Fors tilida **obikanda** – *suv bilan qazilgan* (**ob** – suv, **kandan** – *yormoq, qazimoq)*, **Obkand** – qal'a atrofi qazilib, suv bilan to'ldirilgan (Abdullanoma, t. 1. 130-bet).

OBIOSIYO – Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Mahalliy aholi tomonidan Obisiyo tarzida aytiladi.

S. Qorayevning (1999) yozishicha, bu nom suv yordamida harakatga keltiriladigan tegirmon bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Obisiyo toponimini geografik termin sifatida qaralsa, bu *qora suv*, ya'ni *buloq suvi* degan ma'noni anglatadi.

OBIRAHMAT – XV asrda Samarqand shahri yaqinidagi ariq hamda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi buloq va qishloq nomi. *Obirahmat* – Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani minerallar koni va g'or deb ham yuritiladi. Qishloq buloq yonida vujudga kelgan. Mahalliy xalq uni ilohiylashtirgan va **Obirahmat** "marhamatli suv" deb nomlagan (Do'simov, Egamov, 1977: 110). Ko'pincha shifobaxsh suvli buloqlar shunday atalgan.

"Boburnoma"da Samarqanddagi Siyohobdan ajralib, Pushtayi Ko'hak (Cho'pon ota)ning etagidan aylanib oqqan ariq *Obirahmat* deb atalgan. "Yana Pushtayi Ko'hakning domanasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obirahmat ham derlar, [Temurbek] bir bog' solibtur Naqshi Jahong'a mavsum" (B. 59).

Boshqa joyda Obirahmat degan nom butun ariqqa nisbatan ishlatilgan: "qorasuvkim Obirahmat derlar,

---

[1] G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. –T.: 1959. –B, 162.

[2] Фарҳанги забони тоҷики. ҷ 1. –М.: 1969. –С.195.

[3] Qarang: Фарҳанги тафсирии забони тоҷикї (иборат аз 2 ҷилд). Ҷилди 1. –С.728.

Konigilning o'rtasidin oqar, yetti-sekkiz tegirmon suyi bo'lg'oy".

OBIRO'SHAN – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi buloq nomi. Tojikcha **"ob"** – *suv* va **"ro'shan"** – *tiniq, toza, nurli* so'zlaridan yasalgan.

OBITAHORAT – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Xususan, *Obi tahorat* – tahorat qilish uchun suv.

OBITAVON – Sirdaryo viloyatining Sayhunobod tumanidagi qishloq nomi. XIX asr oxirlarida Rossiyadan ko'chib kelgan ruslar tomonidan bunyod etilgan bo'lib, *"Orzu qilingan yer"* deb atalgan.

Boshqa bir manbalarda esa mazkur nom Markaziy Osiyocha nomini oldi va u *"Sovg'a qilingan suv"* ma'nosida qo'llanilgani qayd etiladi.

Keyinchalik mahalliy xalq uni *Obitavon* deb o'zlashtirib olgan.

OBIXON – Andijon viloyatining Raboti Sarhang o'rchini (tumani) tarkibidagi kent, Andijon shahridan O'sh shahriga borishdagi yo'lda joylashgan. Zahiriddin Muhammad Boburning 905 (1499–1500)-yili Tanbalga qarshi urush voqealari bayonida eslatilgan.

OBIZ – Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. Ushbu qishloq mamlakatimizning tarixchi olimlari orasida mashhur bo'lib, bu yerda bir paytlar Iloq davlatining poytaxti Tunket shahri bo'lgan. Obiz atamasining 2 xil ta'rifi bor: 1. Turkiy qavmlardan boshqird, qozon tatarlari "obiz" deb Qur'onni yod biluvchi qori, ya'ni hofizlarni tushunadilar. Bu yerda hofiz so'zining "h" harfi aytilmaydi. Bundan tashqari, Obiz qozoq tilida (**абыз**) *dono, bashoratli* deb ham talqin qilinadi. 2. Obiz – qabila-urug', ya'ni etnonim bo'lib, ushbu qishloqda shu nomdagi urug' yashab o'tganini bildiradi. Etnograf olim Turg'un Fayziyev tuzgan o'zbek – quramalar geneologiyasi (shajarasi)da "Yuz" qabilasi Toshkent viloyati qishloqlari tarkibida uchraydi. Shulardan biri – Obiz etnonimi. T.Fayziyev tuzgan sxema Obiz qishlog'iga ham tegishli, deb o'ylaymiz. Chunki qishloq yaqinidagi Sarjayloqda Yuz qabilasi vakillari yashab kelmoqda.

OBIZARANG – Surxondaryo viloyatidagi daryo nomi. Mazkur **Obizarang** gidronimini zarang daraxti nomi bilan aloqador deb hisoblaydilar va uni *"zarang suv"* ma'nosida deb biladilar. Ammo bu ishonchli emas, chunki kata suv obyektlari nomlari daraxt nomi bilan atalmaydi. Ushbu gidronim ***ob*** va ***zarang*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***ob*** – *"suv"* ma'nosida kelsa, uning ikkinchi qismi ***zarang//zorang***dir. Mazkur so'z fors tilida *"otlar to'dasi, otlar podasi"* degan ma'noni ifodalaydi (Персидско-русский словарь. –М.: 1970. –с.761).

Demak, ***Obizarang*** nomi *"otlarni yuvadigan suv, ot suvi"* ma'nosini bildiradi. Bunday nomlar toponimiyada uchrab turadi. *Ot yuvar, qo'y suvi*

kabi nomlar ham xuddi usulda vujudga kelgan.

OBISHIR – Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Tojikcha "sut, suv" degani, ko'proq shirin ichimlik suviga nisbatan ishlatiladi. Viloyatdagi *Obirahmat, Obiravon, Obihayot* kabi toponimlar ham *"rahmat suvi", "hayot suvi", "ravon oqadigan suv"* ma'nolarida ishlatilgan.

OBLIQ – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. Arab geograflari tomonidan *Abrliq* yoki *Arpaliq* shaklida tilga olinadi va uni turkiy toponim deb sanash mumkin va Iloq davlatining hududlarida joylashgan ilk o'rta asrlar nomlanishi bilan identifikatsiyalash mumkin (Ohangaron vodiysi).

"Hudud ul-olam" asarida mazkur shahar **Abrliq** deb nomlangan (Hudud ul-olam, l. 24 a).

Mazkur **Abliq** nomining zamonaviy yozilishining nisbatan yaqinrog'ini arab geografi Al-Idris keltiradi.

Shunday qilib, ilk o'rta asr shahri (**Abliq**) nomi grafik jihatdan aks ettirilgan barcha shakllarida turkiy so'z hosil qilishning talablariga muvofiq.

Qadimgi Iloq shahri bilan zamonaviy Abliqning identifikatsiyasi shu dalilni tasdiqlaydiki, M.Y. Massonning ta'kidlashicha, bu yerdan turli xildagi eski narsalar topilgan, shu jumladan, XII asrga iloq mis taalluqli tangalari, hattoki, bir marta butun uyum mis tangalari topilgan.

Mazkur nomning nisbatan mazmuniy ma'nosini M.Y. Masson tomonidan yozilgan xalq etimologiyasiga o'tkazish mumkin; **Abliq** nomi forscha **ob** (*suv*) o'zagidan va turkcha **-lik** qo'shimchasidan tashkil topgan bo'lib, *"mo'l-ko'l, serob suvli joy"* ma'nosini ifodalaydi (M.E. Массон. Ахангеран. С. 40). Farg'ona va Iloq chegaralari yaqinida joylashgan shaharlar ichida, *Abliqdan* tashqari, yana *Namudlik, Itlak, Itlux* nomlari ham bo'lgan. M.Y. Massonning fikricha, ushbu turkiy nomlar Ohangaron daryosi oqimi bo'yicha Tunketning yuqori qismlarida paydo bo'lib, aks etgan bo'lishi ham mumkin (Iloqning poytaxti – S.K.), chunki bu joylar X asrda ko'chmanchi turkiylarga xizmat qilgan.

OBOD – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani, Andijon viloyatining Asaka, Xo'jaobod tumanlaridagi qishloqlar va mahallalar nomi. Ushbu so'z forscha *"odam yashaydigan, ishlov berilgan"* ma'nolarini beruvchi so'z asosida atalgan nom hisoblanadi.

Demak, **Obod** toponimi *"qulay va shinam joy, hudud"* ma'nosini anglatadi.

OBODXON – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Sifat+suffiks strukturali toponim sanaladi. Ko'pchilik mahalliy aholi ushbu nomni shaxs ismi bog'lashadi, aslida esa uning shaxs ismiga hech qanday aloqasi yo'q. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "***Obod***" so'zi

"xalq ko'p yig'iladigan, gavjum serfayz joy" ma'nolarida izohlanadi [O'TIL. 3, 687]. Xon/xan so'zlari E.Murzayevning fikriga qaraganda Avestoda ham uchraydi. Mazkur so'zning "quduq, chashma, buloq" ma'nolari Z.Do'simov tomonidan qayd etiladi [Z.Do'simov, X.Egamov 1977].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "**Obodxon**" nomini *"xalq ko'p yig'iladigan, gavjum serfayz joydagi buloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

OBOD MAHALLA – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi.

Qishloq 2006-yilga qadar *Arablar* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Kichik Arablar* deb o'zgartirilgan. Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Obod mahalla* deb o'zgartirilgan.

Nomning tarkibi ikkita so'z – *obod* va *mahalla* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *obod* so'zi ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib, joy nomini yasaydigan, *"obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan"* ma'nosini bildiradi.

Uning ikkinchi komponenti – *mahalla* so'zi esa arabcha (*hal – "joylashmoq, o'rin olmoq", ma – "o'rin", "joy"* ma'nosidagi old qo'shimchasi) so'z bo'lib, *"shaharning yoki katta qishloqning bir qismi"*, ba'zi bir tillarda *"shahar chekkasi", "shahar atrofi"* degan ma'nolarni anglatgani holda, bu so'zning ko'plik shakli hisoblangan *mahallot* tarixiy manbalarda, masalan, "Boburnoma"da *"shahar atrofi"* ma'nosida keladi.

Demak, **Obod mahalla** – *"katta qishloq (shahar)ning obodonlashtirilgan bir qismi"* degan ma'noni bildiradi.

OBTOVATOSH – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tosh nomi. Oronimga tarixiy-etimologik jihatdan forscha *"qo'lga suv quyiladigan idish"*ni anglatuvchi *obtova* so'zi lug'aviy asos bo'lgan. *Obtova* o'zbek shevalarida *obdasta* deb ham ataladi.

Demak, tosh *"yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo'mrakli, qorni keng, bo'g'zi tor idish"*, ya'ni *obtova*ga o'xshagani bois shunday atalgan(Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

ODAMTOSH – Toshkent viloyatidagi qoya nomi. U o'xshatish asosida nomlangan. Tog'ning yuksak nuqtasidagi tik qoyatoshlar uzoqdan odam qiyofasiga o'xshaydi. Odam shakliga o'xshash tik va baland toshlari bo'lgan cho'qqi – *Odamtosh.*

Shuningdek, Chotqol tepaligining suv bo'limi qismi dovoni ham shunday nomlangan (Toshkent viloyati). Gaz paydo bo'lgan joy (Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani). Odam, tosh; **Odamtosh** – *inson gavdasini eslatadigan odam, tosh.*

ODOQ – Amudaryo qirg'og'idagi joy nomi. **Odoq** (**adaq**) turkiy so'z bo'lib, *"Tog' etaklari, daryo qirg'oqlari, uning oxiri, pastliklari"* ma'nosini ifodalaydi (Э.М.Мурзаев. "Словарь географических терминов". – М., 1984. С. 19).

ODOQARIQ – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 1790-yilda tashkil topgan va mazkur nom bilan atalgan. Geografik joy nomining tarkibi ikkita so'z – *odoq* va *ariq* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *odoq* so'zi *"oyoq", "etak"* ma'nosidagi so'z. Nomning ikkinchi komponenti – *ariq* so'zi *suvni ma'lum bir joydan boshqa bir yerga olib borish uchun yer sathini qazib, hosil qilingan oqar suv yo'li va o'zani*ni bildiradi.

Professor T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, yerlarni o'zlashtirish, dehqonchilik qilish, qishloqqa oqar suv keltirish uchun mahalliy aholi tomonidan qazilgan yagona suv o'zani nomi – *ariq*.

Demak, **Odoqariq** – *"ariqning oxiri, etagi"* degan ma'noni bildiradi. Qishloq nomiga uning geografik o'rni (ya'ni ariqning quyi qismida, etagida joylashganligi) asos bo'lgan.

OFTOBACHI – Andijon viloyatining Oltinko'l tumaniga qarashli qishloq nomi. Qo'qon xonligi saroyida mehmonlarga xizmat qiladigan oftobachi lavozimi bo'lgan. Xudoyorxon o'z tog'asining o'g'li Abdurahmonni shu lavozimda ishlatgan va bir necha yuz tanob yerni chek qilib bergan. Hozirgi qishloq o'sha chek o'rnida. Ilgari *"Abdurahmon oftobachi cheki"* deyilardi. Andijon shahrida *"Aftobachi madrasasi"* ham bor edi. Umuman, "chek" nomi bilan ataladigan barcha qishloqlar ayrim xon amaldorlariga berilgan yerlarda paydo bo'lgan (masalan, *Mallachek, Sheralichek, Iso avliyochek, To'rachek, Cheki Nasriddin* va h.k.).

OFTOBRO'Y – Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi mahalla nomi. Aslida, bu so'z geografik termin bo'lib, *"quyoshga qaragan kungay joyda joylashgan qishloq, mahalla"* degan ma'noni anglatadi.

OGAR – qishloq va tekislik. Jizzax viloyati Zomin tumani. Og'ar-oqar etnonimi qayd etilgan (X.Doniyorov; Shajara, S. 80); *qarang*: **Oqar**.

OHAKLIK – Samarqand ostidagi tog'lar va qishloq (Yuqori Ohaklik, Quyi Ohaklik). Amir Temur davrida Samarqandda masjidni yig'ish uchun bu yerda ohaktosh yetishtirilgan (В.Л. Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята – СКСО, вып. VI, 1902. С. 35). Shu yerdan bu nomlar: ohak, ohaktosh. Ohaklikni tez-tez Og'alik sifatida yozishgan, bu noto'g'ri.

Yoki Farg'ona vodiysida **Og'aliq** etnonimi mashhur yoki og'aliq, otaliq terminini eslatuvchi ijtimoiy termin (В. Наливкин. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886). Namanganda Agalik nomli masjid bo'lgan.

OHALIK – Samarqand viloyatining Samarqand tumanida tog' va qishloq nomi. Bu oronim turli davrlarda turlicha talaffuz etilgan. Amir Temur davrida Samarqandda jome masjidi qurish maqsadida shu yerdan ohak-

tosh qazib olingan. Shuning uchun bu joy asli ***Ohaklik tog'*** deb atalgan.

Demak, ***ohaklik tog'*** lug'aviy birligi oronimning etimoni. Oronim tarkibida til taraqqiyoti davomida fonetik o'zgarish yuz bergan, asos tarkibidagi k undoshi va tog' oronimik indikatori tushib qolgan: ***ohaklik tog' > ohalik tog'>ohalik***. Oronim tarkibiy tuzilishiga ko'ra sodda, yasama, ***ohak*** va ***-lik*** affiksidan iborat bo'lib, "*ohak olinadigan tog'*" ma'nosiga ega.

Ohalik shu hududdagi qishloq nomi. Oykonim ***Ohalik*** oronimini transonimizatsiya natijasida aholi manzili nomiga o'tishi asosida yuzaga kelgan (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

OHANGARON – tuman va shahar. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Aslida, u gidronim sanaladi. Ohangaron daryosi Sirdaryoning o'ng irmog'idir. Ushbu gidronimning bir qancha talqinlari mavjud.

Masalan, dastlab Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida *Soyi Ohangaron, Obi Ohangaron* shakllarida tilga olingan (XV asr.) (О.Д. Чехович, Самаркандские документы. С. 242, 269, 296.), *Daryoyi Ohangaron* ham deyilgan. Bobur *Ohangaron jilg'asi (havzasi)* deb tilga olgan bo'lsa, mo'g'ullar kelmasdan oldingi manbalarda *Iloq* daryosi deb atalgan. Shuningdek, bu havzada qadimdan temirchilik rivojlangani uchun ham daryo *Ohangaron*, ya'ni *"Temirchilar"* deb nom olgan bo'lishi ham mumkin (*qarang*: **Angren**).

OLAJA – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qadimiy qishloqlaridan biri. Rivoyatlarga ko'ra, qishloqdan ola chopon kiygan bir pahlavon yetishib chiqqan. Bu pahlavon Xiva xonligiga bo'lgan dushman hujumlarini daf qilishda juda katta mardlik ko'rsatgan. Ana shunday pahlavonni Xiva xoni "Olajali" deb atagan va katta in'om-ehsonlar hadya qilgan, shundan keyin *olachali* atamasi kelib chiqqan va qishloq nomi ham "**Olaja**" deb ataladigan bo'lgan.

Ilmiy manbalarda **olacha** shakli qayd etilib, u (tojikcha talaffuzi *alocha*) – *hunarmandlikka oid yo'l-yo'l paxtani qayta ishlaydigan yoki yarim ipak gazlama ishlab chiqarish* ma'nosini ifodalashi ta'kidlanadi.

Balki mazkur *Olaja* termini *Olacha*ning dialektal shakli bo'lishi qayd etiladi.

Aslida esa Olaja//olacha ko'rinishidagi urug' nomi bo'lib, etnotoponim toponimga aylangan, demak, u ettoponimdir.

OLAYLUQ O'RCHINI – Andijon viloyatidagi o'rchin (tuman). "Boburnoma"da 908/1502–1503-yil voqealari bayonida, Zahiriddin Boburning Tanbalga qarshi janglari tavsifida tilga olingan. Bobur Qubo (Quva)dan o'tib, Olayluq o'rchini orqali O'shga bostirib boradi va shaharni egallaydi.

OLAQANOT – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qish-

loq nomi. *Olaqanot* – uyg'ur urug'i (etnonim) hisoblanib, etnonim etnotoponimga aylangan.

OLAQARG'A – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. *Qarg'a urug'i* o'zbeklar, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, xakas, shorslar tarkibida qayd etilgan, ular bir necha bo'linmalarga ega bo'lgan: *ko'k qarg'a, qora qarg'a, ola qarg'a*. Demak, etnonim etnotoponimga ko'chgan.

OLATO'N – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Olato'n – O'zbeklarning uz urig'iga mansub tarmoq urug' (К.К. Кубаков. О некоторых родоплеменных группах верхней Кашкадарьи. Этническое изучение быта и культуры узбеков. 1972. С. 16; B. Jurayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari, – Toshkent, 1969. –B. 161).

OLAXAMAK – qishloq. Namangan viloyatining Namangan tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xonlari arxivida tilga olinadi (А.Л. Троицкая. Каталог архивов кокандских ханов. С. 83). Olaxamak – etnonim. Demak, etnonim etnotoponimga ko'chgan.

OLAXOTIN – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Mazkur tumandagi Kamongaron qishlog'i yaqinida *Chashmayi Xotun* nomli buloq ham bor.

Umuman, xotin termini ishtirok etgan nomlar respublikamizda keng tarqalgan. Jumladan, Dabusiya qo'rg'oni yaqinidagi *Shirinxotin qishlog'i*, Samarqand shahridagi Siyob kanali bo'yidagi *Bandayi xotin* mozori, Buxoro viloyatidagi *Xotinsoy* gidronimi, *Boyxotin* qishlog'i (G'ijduvon tumani), Navoiy tumanidagi *Marjonxotin* toponimi, Xorazm viloyatidagi Yomonxotin (joy, dala nomi, Hazorasp tumani), Toshkent viloyatidagi o'rta asr shahri *Xotunkent*, Surxondaryo viloyatidagi *Xotin Rabot* qishlog'i, Kattaqo'rg'on shahrining g'arbiy tomonidagi *Poyandaxotin* qishlog'i, Qashqadaryo viloyatidagi *Olaxotin* qishlog'i, Toshkent va Chimkent (Qozog'iston) shaharlaridagi *Xotinko'prik* atamalari, Tojikiston Respublikasidagi *Arbobxotin* qishloqlari shular jumlasidandir.

Toponimist T. Nafasov Chiroqchi tumanidagi *Olaxotin* qishlog'i etimologiyasi haqida to'xtalar ekan, **ola** – arabcha *ulug', ulkan, yirik, katta* va **xotin** – eroniy tillardagi *tosh, pishiq g'isht* so'zlaridan kelib chiqqan, deydi va **Olaxotin qishlog'i** nomini *tosh yoki pishiq g'ishtdan qurilgan katta qo'rg'on (qishloq)*, deb izohlaydi (Nafasov, 1988).

Ayrim adabiyotlarda "xotin, xotun" terminiga berilgan talqinlarda boshqa holatni kuzatamiz. Jumladan, "G'iyos ul-lug'at" muallifi "xotun so'zi turkiy bo'lib, oliy tabaqadagi ayollar unvonini bildiradi, deydi" ("G'iyos ul-lug'at", 1987: 292).

Mazkur so'zning "malika", "oliy tabaqadagi ayol" ma'nolari ham borligi bir qator boshqa lug'atlarda ham qayd qilingan.

Terminning sug'd tiliga aloqadorligi haqidagi fikrlar mavjud (J.Kloson).

E.Benvenist sug'dcha *xwaten* va o'zbekcha *xotin, xotun* so'zlari orasidagi o'xshashlikni tasodif, deb qaraydi (Shervashidze, 1990).

OLACHABAFON – Buxoro shahrining guzari (mahallasi) nomi. **Olacha** (tojikcha talaffuzi **alocha**) – *hunarmandlikka oid yo'l-yo'l paxtani qayta ishlaydigan yoki yarim ipak gazlama ishlab chiqarish.* **Bof** – *boftan* hozirgi zamon fe'lining asosi; **-on** – ko'plik soni ko'rsatmasi. **Olachabafon** toponimi *"alachani tayyorlash bo'yicha usta"* ma'nosini anglatadi.

OLACHAFURUSH – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. **Olacha** (**alacha**) – *hunarmandlikka oid yo'l-yo'l gazlama,* **alachafurush** – *mazkur gazlamani sotuvchi.*

Demak, **Olachafurush** – *"olacha sotuvchilari yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

OLDOSHMON – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Oldoshmon – o'zbek urug'ining nomi (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari).

OLIMBEKCHEK – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xoni (XIX asr) Xudoyorxon Musulmonqulning pochchasi Qoradaryo daryosining chap qirg'og'idan kanal olib chiqqan (*qarang*: **Musulmonko'lariq**). Bu kanaldan sug'oriladigan yerlar 50 ta taniqli insonlar tomonidan bo'lishilgan, ularning orasida harbiy boshliq Olimboy xon ham bo'lgan (**chek** – *yer solig'i*).

OLIMKENT – shahar. Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi **Olim** antroponim sanaladi va uning ikkinchi komponenti **kent** – sug'dcha *"aholi punkti"* ma'nosini anglatadi.

OLIMLAR – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim ***olim*** va -lar ko'plik qo'shimchasi orqali hosil qilingan.

Demak, **Olimlar** nomi *"olimlar yashaydigan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

OLLAYORQUDUQ – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom ***quduq*** va ***Olloyor*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Shunday ekan, **Olloyorquduq** antropogidronim *"Olloyorning qudug'i"* ma'nosidadir.

OLMAZOR – tuman. Toshkent shahri tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1970-yil 7-dekabrda tashkil etilgan. Avval Sobir Rahimov nomi bilan atalgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2010-yil 4-dekabrdagi "Toshkent shahar Sobir Rahimov tumanining nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 133-II-sonli qarori bilan Olmazor deb qayta nomlangan. Toshkentning shimoli-g'arbida joylashgan. Shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Zangiota tumani, shimol va shimoli-sharqda Toshkent tumani, sharqda Yunusobod tumani, janub va janubi-g'arbda Shayxontohur tumani

bilan chegaradosh. Olmazor – olma daraxti bilan band yer, maydon; olma bog'i ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi mahalla hamda shahar tipidagi aholi punkti nomi ham Olmazor nomi bilan ataladi.

OLMALIQ – shahar. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Birinchi marta Mug tog'-lari sug'd hujjatlarida uchraydi (Cordийские документы. III. C. 101). O'rta asrlarda Turkistonda (shu jumladan, Sirdaryoda) Olmaliq nomli bir necha toponimlar uchraydi.

OLMASUVON – Jizzax viloyatining G'allaorol va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Shevashunos X.Doniyorovning ma'lumotlariga ko'ra, "***Olmasuvon***" o'zbek millati tarkibidagi urug' nomlaridan biridir [X.Doniyorov, 80-84]. N.Begaliyev ham X.Doniyorovning fikriga tayangan holda, Kattaqo'rg'on tumanidagi Olmasuvon qishlog'i nomini yuz qabilasi tarkibiga kiruvchi urug'lardan birining nomiga qo'yilgan, deb hisoblaydi [N.Begaliyev, 83].

Shunga binoan mazkur joy nomini etnooykonimlar sirasiga mansub, degan fikrdamiz hamda leksik jihatdan olma/suv/-on ot+ot+affiks strukturasiga ega.

OLMACHI – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax va Sirdaryo viloyatining Xovos tumanlaridagi qishloq nomlari. Olmachi – etnonim (X. Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 80-bet). Etnonim toponimga ko'chgan.

OLMUROD – Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi qishloq va mahalla nomi. **Olmurod** yoki **Ollomurod** – *Ollohning maqsadi, istagi* degan ma'noni bildiradi. **Oxun** ismi ham ko'plab toponimlarning asosini tashkil etib, tojik tilida *qadimgi ruhoniy tabaqasi, murabbiy, muallim* degan izohga to'g'ri keladi.

OLOT – tuman va shahar. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi Zarafshon daryosining eng quyi tekislik qismida joylashgan. Mutaxassislar tuman nomiga *arlot* (*arlat, alot*) etnik guruh nomi asos bo'lgan deyishadi. Qadimgi turkiy etnonim tuman nomiga aylangan. Qabila nomi *orlot, allot, olot* shaklida ham talaffuz qilingan.

B.Karmishevaning yozishicha, Chingizxon o'z o'g'li Chig'atoyga taqdim etgan to'rtta qabiladan biri arlot bo'lgan. Bu qabilaning asosiy qismi hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida o'rnashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar son jihatdan kam bo'lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Buxoro amirlarini taxtga o'tqazish tantanalarida arlotlar ham ishtirok etgan.

Arlot qabilasi 92 bovli o'zbek qavmlari qatorida ko'p marta tilga olingan. O'rta asrlarning so'nggi davrida arlotlar etnik mansubligini va butunligini unutgan, boshqa etnik birliklar tarkibiga singib ketgan. Muhammad Haydar Ayoziyning "Tarixi Rashidiy" asaridagi etnik nomlar izohida ar-

lotlar haqida quyidagi ma'lumotlar yozilgan: "*arlot, arlat, alot – kelib chiqishi mo'g'ullarga tutashadigan o'zbek urug'laridan biri*".

Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida: "Arlotning ma'nosi *otaning sevar o'g'li* temak bo'lur. Arlot bir kishining ot turur. Ani otasi ko'p sevar erdi. Aning uchun Arlot tedilar. Barcha arlot eli aning nasli turur", – deb yozgan. Manbalarga ko'ra, Chingizxon tomonidan Chig'atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan to'rt ming kishilik qo'shin boshliqlaridan biri ham *arlot* urug'idan (qolgani *jaloyir, barlos, qavchin*) bo'lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg'oniston hududida o'rnashganlar.

Keyingi asrlarda hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek, Xorazmga ko'chib turganlar. Bu nom hozirgi vaqtda etnonim va ba'zan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko'proq uchraydi. Buxoro viloyatidagi Olot shahrining nomi ham "arlot" so'zining fonetik o'zgarganidir.

OLOTXONA – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumani. Olot, arlot, allot – to'rtta mo'g'ul qabilalarining nomlaridan biri, Chingizxon tomonidan o'zining o'g'li Chig'atoyga (arlat) berilgan; xona komponenti (aynan "xona", "bino") toponimlar tarkibida kelib, ma'lum xalq (Arabxona) yoki qabila, urug' (Do'rmanxona, Yobuxona) nomlarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'zbeklar tarkibi va qazan tatarlarida arlat (arlot), allat (allot), alat urug'lari qayd etilgan.

OLTIARIQ – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. O'tmishda Shohimardon soyidan oqib kelgan suv hamda qishloqdan chiqayotgan buloq suvlari hozirgi Oltiariq qishlog'iga yetib kelganda oltita ariqqa, oltita tarmoqqa bo'linib ketgan. Shu sababli bu joy ariqning soniga, miqdoriga nisbat berilgani holda Oltiariq deb atala boshlangan (Oxunov, 1994).

T.Enazarov toponimning yuzaga kelishi haqida to'rtta taxmin borligini qayd etadi:

1. Aytishlaricha, mazkur joy nomining paydo bo'lishida obyekt oldidagi oltita ariq nomlanish jarayonida yetakchi vosita bo'lgan. Mazkur fikrni N.Oxunov ham "O'tmishda Shohimardon soyidan oqib kelgan suv hamda Chimyon qishlog'idan chiqayotgan buloq suvlari hozirgi Oltiariq qishlog'iga yetib kelganda, oltita tarmoqqa bo'linib ketgan. Shu sababli bu joy ariqning soniga, miqdoriga nisbat berilgani holda Oltiariq deb atala boshlangan", – deb tasdiqlagan. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki jiddiy e'tibor berilsa, ko'pchilik topoobyektlar yonida bir necha gidronimik (ariq)larning bo'lishi tabiiy hol.

2. Shevalarda *ariq//arig'* so'zi *toza, pok, to'g'ri, haq* ma'nolarida ishlatilishi e'tiborga olinsa, u holda Oltiariq toponimi oltita, ya'ni *juda ham ko'p toza, pok, haqgo'y insonlar*

yashagan joy, degan ma'noni anglatadi. Ammo *ariq//arig'* so'zi Urganch, Xiva, Xonqa shevalarida yuqorida keltirilgan ma'nolarda uchrasa ham, Farg'ona shevasida qayd etilgan ma'nolarda uchramaydi.

3. Toponim *ort* va *ariq* ko'rinishidagi ma'noli bo'laklardan tashkil topgan. Toponimik derivatsiya jarayoni ta'sirida birinchi ma'noli qismda **r > l** tarzida fonetik o'zgarish ro'y bergan. Ikkinchi ma'noli qism o'rtasida **i** unlisi orttirilgan: *ort + ariq > ortariq > Oltiariq*. Istalgan bir obyekt ariqqa nisbatan ariq orti ma'nosida joylashishi aniq. Shuning uchun ortariq birikmasi toponim uchun etimon bo'lib kelishi mumkin.

4. Bu toponimning shakllanishida *ariq oldi* ma'nosidagi *oldi ariq* iborasi asos bo'lgan. Bizningcha, bu fikrda ham lingvistik, ham ekstralingvistik asoslar bor. Toponimning *old, -i, ariq* ko'rinishidagi ma'nolari bor. Ular birlashib, so'z, so'z birikmasi, qo'shma so'z va nihoyat, joy nomini hosil qilgan: *old+-i+ariq > oldi + ariq > olti ariq > Oltiariq*. Bunda **d > t** shaklidagi fonetik o'zgarish ro'y bergan. *Beshariq* toponimi esa *old ariq* ma'nosidagi *Peshariq*, uning fonetik o'zgargan shakli: **p > b**.

N.Oxunov bu obyekt ariqlarning miqdoriga qarab nomlangan, degan fikrini o'ylash kerak. **Olti** so'zining **old** yoxud **ort** so'zidan shakllanishini geografik omil ham tasdiqlaydi. Tabiiy geografik muhit e'tiborga olingan holda *oltita ariq boshlangan joy* **Oltiariq** deb atalgan. Bunday joy nomlari mikrotoponimlar jumlasiga kiradigan gidronimlar tizimida uchraydi. Ko'p suv oqadigan gidronimning kichik ariqlarga bo'lingan joyi Oltiariq deyiladi, ammo u yerda aholi yashamaydi.

Oldida ariq, daryo yoki buloq mavjud bo'lgan joy xalqning ta'biri bilan aytganda, eng yaxshi joy, bebaho yer sanaladi. Bu hol esa *old +-i > oldi+ariq > oltariq > Oltariq* tarzida toponimik derivatsiya jarayoni yuz berganini asoslashga yordam beradi. Ushbu toponim yonida joylashgan *old ariq* ma'nosidagi *Beshariq* va *Toshariq* toponimlari e'tiborga olinsa, ushbu hududda qonunning alohida shaklda amal qilinishini qayd etish lozim. Demak, uning etimoni *oldi ariq* yoki *ort ariq* shaklidagi birikma.

OLTIN – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi qadimiy ovul nomi. *Алтын* toponimi – turkiy toponimlarda ushbu so'z joy nomlari hosil qilinishi uchun ikki – o'z va ko'chma ma'nolari bilan asos bo'lgan. Hududning tabiiy va iqtisodiy geografik tavsifidan bu komponent Janubiy Qoraqalpog'istonda ko'chma ma'nosi bilan asos bo'lgani ravshanlashadi.

Алтын turkiy toponimlar tizimida eng qadimgi yodgorliklarda ham qayd etilgan. Talas shahrining qadimgi turkiy nomi *Altun arγ uluš*[1] bo'lgan bo'lsa, Mahmud Koshg'ariy

[1] Древнетюркский словарь. Под редакции Набеляева В.М., Насилова Д.М., Тенешова Е.Р., Щербак А.М. – Л.: 1969. –С. 40.

tomonidan keltirilgan Oltin qon afsonasi mashhur[1].

Altын so'zining tarixiy-etimologik tavsifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'plab fikrlar bayon qilingan. Olimlar bu so'zning turkiy tillarda VIII asrlardan boshlab ishlatilganini qayd etadilar[2]. Bu so'z hozirgi turkiy tillarda keng iste'molda[3]. Mazkur nomning etimologiyasiga oid ishlar, shuningdek, turli turkiy tillardagi ma'no qirralari Navruzovlar tomonidan maxsus tadqiq qilingan[4].

Altын so'zining genetikasini xitoy tiliga aloqador deb biluvchilardan biri M.Ryasyanen uni xitoycha "jism" ma'nosidagi *ton* so'ziga bog'laydi. I.N.Shervashidze xitoy tiliga oid lug'atlarda bunday so'z qayd etilmaganini yozadi[5].

Bu so'z xususida bildirilgan barcha fikrlarni umumiy tahlil qilgan holda uni qadimgi turkiyga mansub so'z sifatida ikki tarkibiy qismdan iboratligi, "qizil metall" ma'nosini beruvchi komponentlardan tashkil topganini ta'kidlash lozim. Uning xitoy tilidagi *chi-tong* (qizil metall) so'zining kalkalashtirilgan shakli ekani haqidagi fikrlar, garchi so'zning genetikasi turkiy tillarga oidligini tasdiqlasa ham, unchalik o'rinli emas deb bilamiz. Chunki qimmatbaho tabiiy boyliklar ham nomlar ichida alohida tizimni tashkil qiladi. Ularning, tabiiyki, o'z nominatsiya tamoyillari mavjud. Shu jihatdan olib qaraganda bir xil narsani nomlash tamoyillarining turkiy va xitoy tillarida bir xil bo'lgan bo'lishi kuzatiladigan holat.

Xulosa qilib aytganda "oltin" apellyativi genetikasi turkiy tillardan tashqari ekani xususida olimlarimiz tomonidan bir to'xtamga kelinmagan. Uni boshqa lug'aviy birliklarga qiyoslash, yuqorida ko'rsatilgandek, turkiy tillarning ichki imkoniyati asosida paydo bo'lganini ma'lum darajada asoslaydi.

Al so'zining turkiy tillarda, jumladan, eski o'zbek tilida rangni anglatishidan tashqari "sarob" ma'nosi ham borki, bu mazmun *altын* so'zidagi *al* bilan mantiqiy bog'liqlik kasb etishi tayin. Chunki *al* "sarob" ma'nosini kasb etishida tovlanish, jilo semalari yetakchilik qilgan. Sababi sarob atmosferada nurning noto'g'ri sinib aks etishi (refraksiyasi) hodisasi hisoblanadi[6].

---

[1] Mahmud Kashg'oriy. Devonu lug'atit turk. Birinchi tom. – Toshkent, 1960. – B. 117.

[2] Древнетюркский словарь. Под редакции Набеляева В.М., Насилова Д.М., Тенешова Е.Р., Щербак А.М. – Л.: 1969. –С. 40.

[3] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. (Общетюркские и межтюркские основы на гласные) –М.: Наука, 1974. – С. 142.

[4] Зейналов Ф.Р., Наврузов М.Д. Об этимология слова *алтун*// Советская тюркология. 1984. №5. – С.48.

[5] Шервашидзе И.Н.Фрагмент общетюркской лексики. Заимствованный фонд // Вопросы языкознания. 1989.. №2. — С. 55.

[6] G'ulomov P. Jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B. 94.

Eski o'zbek tilida *al* shaklidagi yana bir "hiyla", "nayrang" ma'nosini berib, hozirgi *alda-* fe'li tarkibida mavjud. Bu mazmunning ham tarixan o'z omonimlari bilan bog'liqligini ilg'ash qiyin emas. Uning "shayton", "yovuz ruh" ma'nolari ham mavjud bo'lib, fikrimizcha, *alvasti* so'zidagi *al* ayni shu so'z hisoblanadi. Bu ham "oltin" so'zi genetikasi turkiy tillarga oidligini asoslashda muhim dalil sanaladi.

Chunki tadqiqotlarda "oltin" so'zini, xususan, "sarob"; "hiyla" ma'nolaridagi *al* bilan qiyoslash, qiyoslangan holatlarda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik haqida so'z yuritilmagan. *Oltin* so'zining o'zbek tilida mavjud ko'chma ma'nolarining barchasi qoraqalpoq tilida ham mavjud[1].

Ayrim toponimlar bizga tarixiy manbalar orqali yetib kelganligini hisobga olsak, ular hudud aholisi tilida hozirda amalda bo'lmasligi tabiiy hol. Buni *Axsisək* joy nomida ham kuzatishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Amudaryoning ikki qirg'og'i o'zaro farqli nomlangan, jumladan, uning chap qirg'oq qismi *"Zamm"* deb yuritilsa, o'ng qirg'oq qismi *"Axsisək"* nomi bilan yuritilgan[2].

Ba'zi eroniy elementlar toponimlar tarkibida topoformant sifatida yashab kelmoqda: *Darxas elat, Peshavil, Darbant, Aqravat, Davdan* kabi. Quyida ularning ayrimlari haqida to'xtalamiz.

Z.Do'simov alanlarning tili qadimgi xorazmiylar tili bilan yaqin bo'lganligini qayd etadi[3]. Xorazmiylar va alanlarning munosabati haqida V.I.Abayev muhim fikrlarni bayon qilgan (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

OLTINKON – qishloq. Namangan viloyati Pop tumani. *Oltin, kon* so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Oltinkon** – *oltin paydo bo'lgan joy.*

OLTINKO'L – Andijon viloyati. Shu nomli tuman markazi. Shu damgacha "Oltinko'l" deb ta'riflab kelinadi. Ammo ushbu joyning tabiiy sharoiti shunday ediki, qadimda Andijonning asosiy o'zlashtirilmagan yerlari uning g'arb tomoni edi, asosan tashlama suvlar, chakalakzorlardan iborat bo'lib, (*"Buzoq o'ldi", "qora yantoq", "qayrantoq", "yaylama"*larni eslang) yanada g'arbga kelganda esa tabiiy ko'llar ko'p bo'lgan edi. Shayboniyxon davridan (XVI asr) ko'chmanchi o'zbeklar kelib, o'rnashib, Andijonning g'arb tomonlari sekin-asta o'zlashtirildi, ko'p qishloqlar qatori, *"Olti ko'l"* qishlog'i paydo bo'ldi. Zamonlar o'tishi bilan yerning unumdorligiga ishora qilib yoki tilning fonetik tabiatiga ko'ra talaffuzda **"Oltinko'l"** bo'lib ketdi.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Gurlan tumani, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot tumanida

[1] Русско-каракалпакский словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1967. – С. 289.

[2] Tarixiy-geografik nomlarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Buxoro, 2008. – B.5.

[3] Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. –B.22.

ham ushbu nomdagi joylar mavjud. **Oltinko'l** – aynan *"oltin ko'l"*, *"oltin suvli ko'l"* (bizningcha, suvning oltin rangli bo'lgani uchundir).

OLTINQAL'A – qishloq. Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq nomi. *Oltin* va *qal'a* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Qarang: oltin.

OLTINQUM – Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri hisoblanib, mazkur hududdagi qumning ko'rinishi sariq, yaltiroq, tilla rangda bo'lganligi uchun ham mahallaning nomi aynan shunday atalgan.

OLTINSOY – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Arablar* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *O'rta Arablar* deb o'zgartirilgan. Toponim tarkibi *o'rta* va *arablar* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *o'rta* so'zi *"markaz"*, *"oraliq"* degan ma'nolarni bildiradi. Bu yerda qishloqning geografik o'rni atrofdagi qishloqlarga nisbatan solishtirilgan. Toponimning ikkinchi komponenti – *arablar* so'zi esa xalq nomi, etnonim.

Demak, **O'rta Arablar** – *"oraliqdagi (o'rtadagi) arablar yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi. Mahalliy aholi bu hududda qadimda arablar yashaganligini ta'kidlashadi.

Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Oltinsoy* deb o'zgartirilgan. Nom tarkibi *oltin* va *soy* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *oltin* so'zi *sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metall*ni, *zar*, *tilla*ni bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *soy* termini *"kichik daryo"*, *"oqar suv"*, *"suv yo'li"*, *"vodiy"*, *"suv oqadigan pastlik"* degan ma'nolarda mamlakatimizning bir qancha hududlarida joy nomlarini hosil qiladi.

Qashqadaryo toponimiyasi bo'yicha yetuk mutaxassis T.Nafasov esa *soy* so'zi (termini)ga quyidagicha ta'rif beradi: "Soy – ikki tomoni qirsimon cho'ziq balandlik bilan o'ralgan, o'rtasi vodiy bo'lgan sayxonlik. Soy – bahor oylarida yog'in suvlari oqadigan, yozda qurib qoladigan, kichik o'zanli oqar suv". Demak, **Oltinsoy** – *"suvi oltinga teng soy"* ma'nosidadir.

Shuningdek, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi daryo nomi. U Oqtovning janubiy cho'qqi qoyalaridan boshlanadi. **Oltinsoy** – *oltinli soy*, suvning oltin rangli bo'lgani uchundir.

OLTINTOV – Navoiy viloyatining Qizilqum markazidagi qoldiqli tog'lar nomi. **Oltintog'** nomi *"oltin tumshuqli tog'lar"* kabi ma'noni anglatadi.

OLTIQOQ – ovul. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi qishloq nomi. **Olti, qoq** so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lib, *qoq* – bu *"suvi bilan turadigan ariq"*. Regional geografik adabiyotlarda Markaziy Osiyo bo'yicha **qoq** – *yog'inli kunlarda oziqlanadigan va loydan uzatilgan yer osti suvini saqlovchi ochiq moslama*. Yoz kelishi bilan ko'pchilik qoqlar yo'qolib ketadi (Э.М.Мурзаев. Словарь народных географических терминов. 1984. С. 24).

OLTIO'G'IL – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay va Paxtachi tumanlaridagi qishloq nomlari. Oltio'g'il ("olti o'g'il", "olti aka-uka") – etnonim sanaladi.

OLG'A – qishloq. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi qishloq va mahalla nomi. XX asrning birinchi yarmi o'rtalarida paydo bo'lgan bo'lib, u ilg'orlardan biri bo'lishi kerak, deb shunday atalgan. Ushbu atama so'z sifatida *oldinga, ilgariga* ma'nolarini ifodalaydi.

OLG'ABOS – Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanining g'arbiy tomonida Chimboy tumani bilan chegara hududida joylashgan aholi punkti nomi. *Olg'abos* atamasi ideologik atama hisoblanib, rivojlanishlar va yuksalishlar bo'lsin, degan yaxshi niyatlarda shu nom qo'yilgan.

OLCHIN – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo va Kattaqo'rg'on, Farg'ona viloyatining Bag'dod, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomi. Alchin – turkiy xalqlar – o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qozon tatarlari, boshqirdlar, qozoqlar tarkibidagi qabilalar ittifoqi.

Shunday nomli qishloq va mahallalar Xorazm viloyatining Xonqa, Gurlan tumanlarida ham uchraydi. U o'zbek urug'larining qadimiy nomlaridan bo'lib, ular ham Chingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurash olib borganlar.

S.Qorayevning lug'atida ham mazkur termin aynan shu ma'noda qayd etilib, ko'proq Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalganligini ta'kidlaydi.

Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq va tepalik nomi. Etnotoponim. Olchin – qadimiy turkiy urug' bo'lib, bu etnonimning etimologiyasi haqida turli farazlar bor.

Ammo ko'pchilik tadqiqotchilar olchin **al, ala** – *katta, ulug'*, **-chin//shin** esa mo'g'ul tilidagi *"xalq, qabila, kishi"* ma'nosidagi so'z deb hisoblaydi. Olchin etnonimini "katta qabila" ma'nosida talqin qilish A.Otajonova ishida ham uchraydi (Otajonova, 1995).

Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Narpay, Payariq tumanlarida ham olchin so'zi ishtirokida yasalgan qishloq nomlari mavjud.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi mahalla nomi ham shunday nomlanib, izohi aynan ekanligini qayd etish zarur.

OLCHINOBOD – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. **Olchinobod** – *alchin qabilasi vakillari tomonidan qurilgan, obodonlashtirilgan uylar.*

OLCHINTEPA – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Tepa; bu yerda *to'pa* tarzida o'zlashgan.

Olchintepa toponimi *"olchin urug'i tomonidan asos solingan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

OLCHOQLAR – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi. **Olchoqlar** toponimi tarkiban *al* so'zining *"yolg'on"* ma'nosi va unga *-chaq* yasovchisini qo'shilishi va *-lar* formantidan iborat. *Al* oti *"hiyla-nayrang", "yolg'on", "avrash"* ma'nolarini anglatgan[1]. Eski o'zbek tilidagi *"qizil"; "qizil tus"* ma'nolaridagi *ol* so'zi ham aslida shu so'zning ko'chma ma'nosi asosida shakllangan. Bu

[1] Древнетюркский словарь. – Л.: 1969. – С. 32.

ma'no fors tiliga ham o'zlashgan[1]. *Al*ning bu ma'nosini *altun*[2] (oltin), "Abushqa"da esa *"qizil tulki terisi"* deyilgan *altay*[3] kabi so'zlarda ham ko'rishimiz mumkin (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, -Nukus, 2012).

ONASHOH//ONASHOX – Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi ***qishloq*** nomi. Turkiy tillarda qabilalarga, urug'lar esa mayda tarmoqlarga shoxlarga, otalarga bo'linadi, masalan: ***bosh shox, yirik shox, onashox*** deyilgan.Shunday ekan, toponimning vujudga kelishiga urug' nomi, ya'ni etnonim asos bo'lgan.

OQAR//OG'AR – Zarafshon vodiysida tez-tez uchraydigan toponim. **Oqar** – turli qurilishlar bilan mashg'ul bo'lgan, qo'rg'onli yerlarni ifodalaydigan vaqf va tarixiy hujjatlarni bir necha bor eslatadigan ijtimoiy termin (О.Д. Чехович. Бухарские документы XIV в. – Т., 1965. С. 217; П.П.Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. С. 10).

Akar (agar) etnonimi ham mashhur. *Akar* Turkmanistonda *o'zan*ni ifodalaydi (Э.М.Мурзаев. Природа Синьцзяна и формирование пустынь Центральной Азии. – М., 1966).

Alisher Navoiy asarlarida *oqor* so'zi ikki ma'noda uchraydi: 1) urug' (qabila)ning nomi; 2) dasht, cho'lning nomi (A.K.Borovkov. "Badai al-lugat". – M., 1961).

OQARIQ – Farg'ona viloyati Farg'ona shahar kengashiga qarashli qishloq nomi. Suvining rangiga ko'ra oqariq deb nomlangan. Odatda, doimo oqadigan, ko'proq qor suvidan to'yinadigan suvga nisbatan *oq* so'zi ishlatiladi.

OQBALIQ – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi qishloq nomi. Oqbaliq – qozoqlarning *джетыру* urug', qabilasi (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен. С. 385) (Bo'ka tumanida qozoq ovullari bor).

Qo'shish mumkinki, **baliq** so'zi qadimgi turkiy tilda *"shahar"* ma'nosini ifodalagan.

OQBASLIKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Otako'l" OFY hududida joylashgan kichik ko'l. Ko'l atrofida juda ko'p aqbas oqbosh o'simligining o'sishi ko'lning *Oqboshliko'l* atalishiga sabab bo'lgan.

OQBILOL – Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. Tarixda birinchilardan bo'lib, islom dinini qabul qilgan Bilol ibn Ruboh Habashiy nomi bilan bog'liq, deb izohlovchilar ham bor. Bu so'zni *"buloq", "qo'ltiq", "burchak"* kabi ma'nolari ham qayd etilgan.

OQBOSHTOV – Qashqadaryo viloyatidagi tog'lar. **Oqboshtov** – *oq*

[1] Shamsuddin bin Xalaf Tabriziy. Burhoni qote'. Jildi 1. – Tehron: 1375 h.sh.– S. 114.

[2] Зейналов Ф.Р., Наврузов М.Д. Об этимологии слова *алтун* // Советская тюркология. 1984. №5. – С.48.

[3] Мухамедова Б. Предварительные замечания о словаре "Ҳелл-И луγат-и čаγатаи" // Тюркская лексика и лексикография. – М.: Наука, 1971. –С.115.

boshli tog' (balki yozda qorning oq dog'lari qolgani uchundir) ma'nosini bildiradi.

OQBULOQ – oqar suvi ko'p buloq. S.Qorayev *Oq buloq* birikmasida *oq* leksemasining rang ma'nosi yo'q, balki *oqmoq* harakatining davomli, davomiyligi, suvining ko'pligi, boshqa buloqlarga nisbatan suv miqdorining ortiqligi ma'nosi bor, deydi. Toshkent viloyati Ohangaron tumani, Jizzax viloyati Forish va Zomin tumanlari, Andijon viloyati Jalaquduq tumani hududlarida ham shunday nomlar uchrashi qayd etilgan. **Oqbuloq** – *oq, yorug' buloq* (ehtimol, suvning tez oqimi uchun obyekt shunday nomlangandir).

OQBURA – Farg'ona vodiysining janubi-sharqidagi daryo. Kichik Oloy tizmasining suvayirg'ich qismidan boshlanadi. Uzunligi 70 km, havzasining maydoni 2676 kv. km[1].

Oqbura gidronimi Boburning "Boburnoma" asarida **Andijon rudi** deb berilgan va quyidagicha ta'riflangan: *"Andijon rudi O'sh maqomatining ichi bila o'tib, Andijonga borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudqa mushruftur, binafshasi bisyor latif bo'lur"*[2].

S.Jalilov fikricha ham, Andijon rudi aynan Oqbura[3]. Manbalarda gidronim *Oqbura, Oqbo'ra, Oqbo'yra* shakllarida uchraydi[4].

Bizningcha, gidronimning asl shakli – *Oqbura*, barcha o'rinlarda ana shu shaklni qo'llash maqsadga muvofiq. *Oqbura* gidronimining bir necha etimologik talqinlari kuzatiladi:

1. Oqbo'ra (Oqbura) gidronimi tarkiban *oq* va *bo'ra* so'zlaridan iborat bo'lib, *bo'ra – "ikki o'rkachli tuya"* ma'nosidagi *bug'ro // bug'ri* so'zining fonetik varianti. Suv obyekti suvining tuya, ya'ni bug'ro yurishiga nisbatlash asosida nomlangan. Keyinchalik mahalliy nutqda *bug'ro* tarkibidagi **g'** undoshi tushib qolgan, **u** unlisi **o'** ga almashgan: *oq bug'ro > oq bura > oqbo'ra > Oqbo'ra.* Bu, bizningcha, nomning xalqona etimologiyaga asoslangan talqini.

2. Respublikamizda bir necha Oqbo'ra nomli qishloqlar bor. Mazkur oykonimlar *oqbo'yra* etnonimi asosida vujudga kelgan. Etnonim *oqbo'yra, oqbuvra, oqbura* kabi fonetik variantlarga ega[5]. Oqbura gidronimi ana shu etnonimning fonetik varianti asosida yuzaga kelgan. Demak, **Oqbura** – etnogidronim.

Bizningcha, *Oqbura* gidronimi *oq, bura* morfemalaridan tarkib topgan. *Oq* – suvning xususiyatini ifodalovchi so'z. *Bura* – bir necha tillarga man-

---

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – B. 618.

[2] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 35.

[3] *Qarang.* Jalilov S. Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixidan. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 24.

[4] Батраков В.С. Характерные черты сельского хозяйства Ферганской долины в период Кокандского ханства. Труды САГУ. Новая серия. 1955. – С. 115.

[5] *Qarang.* Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 354.

sub *muran* tarixiy gidronimik indikatorining fonetik varianti. Qadimgi turkiy til leksikasiga doir lug'atlarda mo'g'ulcha *muran* (mŭrăn) – daryo (reka) deb izohlanadi va *"O'g'uznoma"*, *"Muhabbatnoma"*da o'g'uz so'zi bilan sinonim sifatida *daryo* ma'nosida qo'llanganligi qayd etiladi[1].

Abulg'ozixon esa *muran* so'zini quyidagicha izohlaydi: *"Oqib boraturg'an ulug' suvni turkiy tilinda soy der. Tojik kechkinrud va uluqin rudxona der va arab vodiy der. Mo'g'ul muran der"*. U fikrini davom ettirib, *muran* tarkibli quyidagi gidronimlarni keltiradi: *"Mo'g'ul yurtining kun tug'ishinda sakkiz suv bo'lur. Ani sakkiz muran derlar. Shul suvlarning oralarida o'ltururlar erdi. Aning barchasi kelib Ayqiramurang'a qo'shilur. Ul sakkiz suvning otlari munlar turur: Ko'kmuran, O'nmuran, Qorausin, Sanbiqun, Aqrimuran, O'rmuran, Jig'anmuran, Jochamuran"*[2].

Demak, tarixda *muran* o'nlab gidronimlar tarkibida gidronimik indikator sifatida *soy* ma'nosida qo'llangan. Nom tarkibidagi *muran* til taraqqiyoti davomida *bura* shakliga kelib qolgan.

Turkiy tillarda *m-b* undosh fonemalari mosligi, ya'ni *m* undoshining *b* ga o'tish yoki buning aksi ko'p kuzatiladi: *men – ben, murun – burun, muni – buni, munday – bunday* kabi. Xuddi shu hodisa *muran* so'zida ham kuzatiladi: *muran > buran*. Shuningdek, so'z oxiridagi **n** sonor undoshi ham tushib qolgan.

Demak, gidronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *oq muran > oq mura > oqmura > oqbura > Oqbura*. **Oqbura** suvning belgi-xususiyati asosida nomlangan gidronimlar sirasiga mansub bo'lib, *"oq suvli daryo"* ma'nosidagi *oq muran* otli birikmasi uning etimonidir.

Oqbura gidronimi haqidagi etimologik qarashlarimizni hududda mazkur suv obyektiga nisbatlash, aniqrog'i, obyektlardagi suv xususiyatlarini qiyoslash asosida nomlangan *Qoradaryo* gidronimining mavjudligi ham tasdiqlaydi. Shuningdek, Andijon shahrida *Oqbura, Qorabura* nomli ariqlar ham mavjud. Bu gidronimlar *bura*, ya'ni *muran* gidronimik indikatorining ma'no ko'lami kengayganligini, u daryogina emas, ariq ma'nosida ham qo'llanganligini ko'rsatadi.

OQBO'YRA – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Farg'ona viloyatining Oltiariq va Andijon viloyatining Asaka hamda Shahrixon tumanlaridagi qishloq nomi. Oqbo'yrasoy – Samarqand ostidan o'tadigan daryo.

Oqbo'yra – etnonim (ktayizi qabilasi xonxo'ja urug'i bo'limlaridan biri shunday nomlangan (Jizzax viloyatining Baxmal tumani); nayman, arg'in qabilalari qozoqlari tarkibida akbura varianti ham bor, suan akbura etnonimini eslatadi, qirg'iz qabilalari

[1] *Qarang*. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 354.
[2] Abulg'oziy. Shajarayi turk. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – B. 35.

tarkibidagi solto ham akbura urug'ida uchraydi.

Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq. Oqbo'yra urug' nomi sifatida qayd etiladi. Etimologiyasini aniqlashda nomning ikkinchi qismidagi *Buvra, Bo'g'ra, Bura – "Tuya, oq tuya"* so'zi bilan bog'lash ham mumkin. **Bura** yoki **bo'yra** geografik termin sifatida *"yonbosh, yonbag'ir, qirg'oq, chekka"* degan ma'noni anglatadi (Do'simov, 1977).

Professor S.Qorayevning yozishicha, o'zbek qipchoqlarining bir urug'i *Oq bo'yra* deb ataladi. Ammo H. Hasanov fikricha, daryo nomi *Oq buvra*, ya'ni *Oq tuya* nomida keladi (talaffuzda *"oq bo'ra" "oq bo'yra"* bo'lib ketgan).

Qadimda *"Oq bo'ra"* daryosi O'shni oralab o'tgach, Andijonning sharq tomonidan aylanib, Qoradaryoga qo'shilgan. Bu haqida "Boburnoma"-da ham yozilgan (Andijon shimolida qadimiy "Oqyor" qishlog'i ham bor). Vodiy irrigatsiya tarixining (bizning tekshirishlarimiz) guvohlik berishicha, Oq bo'ra daryosining bir shoxchasi qadimda hozirgi Shahrixonsoy o'zani bo'ylab oqib, Asaka yerlarining bir qismini sug'organ va Shahrixonsoy ishga tushgach, unga qo'shilib ketgan. Asakadagi qishloq o'sha daryo nomida atalib ketgan.

OQDARBAND – mahalla va qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Mazkur qishloq vakillari ta'rifiga ko'ra, *"xudodan oq yo'l tilagan, davlat boshi berk ko'cha"* degan ma'nolarni bildiradi. Mazkur hududda istiqomat qiluvchilarning aksariyati forsiylar bo'lib, ushbu nom uchta qism: *"oq-dar-band"*dan tashkil topgan. **Oq** – rang va poklik ramzini ifodalovchi sifat; **dar** – forscha so'z bo'lib, *eshik* ma'nosini ifodalaydi, **band** ham forscha so'z bo'lib, u *yopiq va mustahkamlangan* tushunchalarini bildiradi.

OQDARYO – Zarafshon daryosining o'ng irmog'i. N.G. Mallitskiy fikricha, muzlik tagidan oqib chiqadigan suv oqsuv deyiladi. Chunki tarkibidagi muz zarralari tufayli muzlik suvi oqish ko'rinadi.

V.L. Vyatkin ham tog' daryolari Oqsuv yoki Oqdaryo deb atalishini qayd qiladi. Samarqand viloyatidagi Oqdaryo va Qashqadaryo viloyatidagi Oqsuv nomlari V.L.Vyatkinning fikrini tasdiqlaydi.

V.V. Bartoldning kuzatishicha, tabiiy o'zanda oqadigan suv Oqsuv yoki Oqdaryo, kanal qazib oqizilgan suv esa Qorasuv yoki Qoradaryo deb ataladi (Bartold, III, 316).

A.N.Kononov esa, **Oqsuv** – *"oqar suv"* degan ma'noni bildiradi, deydi (Кононов. О семантике.., 1954).

OQECHKI – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi qishloq nomi. Oqechki (oq echki) – o'zbek qatag'on qabilasi bo'linmalaridan biri.

Ma'lumki, ko'pgina qabila va urug'lar guruhlarga ajratilgan, nomlanishidan oldin rang bildiruvchi sifatlar turgan: oq, qora, sariq, ko'k va boshqalar. Masalan, qirg'iz qabilasi dyol-

yos tarkibida oqechki urug'i qayd etilgan.

OQHAYDAR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***oq***" va "***haydar***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. "***Oq***" so'zi bu o'rinda *"katta, amirlik tomonidan qurilgan"* degan ma'nolarni bildiradi. "***Haydar***" kishi ismi, antroponim bo'lgani uchun, bu mikrotoponimni *"Amir Haydar davrida barpo etilgan katta yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash mumkin, degan fikrdamiz.

OQJAG'IS – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Hozirgi xalq rivoyatlarida va ayrim ilmiy adabiyotlarda bu nomni ko'plab uchratamiz.

Oqjag'is XIX asrning oxirida Qorateren ko'liga uning sharqiy tomonidan quyilib turgan Ko'ko'zekning bir tarmog'i bo'lgan, Qorateren ko'lining sharqiy tomoni u paytda Timpiy – Oyog'i deb atalar edi (Hozir Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududidan oquvchi Quvonishjarmaning oxirini Timpiy deb ataydi). Bundan Janasuv daryosi oqib, Orol dengiziga quyiladigan bo'lgan.

Xiva hujjatlarida Janasuv daryosini Oqjag'is oxiri deb ham atalganligini ko'ramiz. **Oqjag'is** nomi **oq** va **jag'is** so'zlaridan hosil bo'lib, **oq** – *oq tuproqli yoqa, rash* degan ma'noni, qoraqalpoq tilidagi **jag'is** so'zi esa, *daryo yoqasi, kema to'xtaydigan joyni* anglatadi.

Oq – *barakali, mo'l nasibali* degan ma'noni anglatadi. Yana bir xalq orasidagi so'zlarda Oqjag'is haqida "bir paytlari shu Oqjag'isning bo'yida bir kemachi bo'lgan ekan. U kemachi har doim ustiga oq kiyim, boshiga oq qalpoq kiyib yurgan, uzoqdan qaragan odamga u kishi ustidagi kiyimi bilan oppoq ko'rinar ekan. Shu sababli ham, xalq bu joyni Oqjag'is deb nomlagan", degan rivoyatlar bor. XVIII asrning birinchi yarmida bu yerda Oqjag'is xalqlarining katta qo'rg'oni bo'ladi. Xiva xonligi davrida shimoldan keladigan dushmanlardan himoyalanish va odamlarni xabardor qilish uchun olov yoqib turadigan joy bo'lgan.

OQKO'L – ko'l. Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi ko'l nomi. **Oqko'l** – *"oq ko'l"* (bizningcha, suvning yorug'ligi uchun shundaydir) yoki *"oqadigan ko'l"* ma'nosini ifodalashi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan quruq ko'l. Ko'l nomining kelib chiqishiga tabiiy geografik xususiyati, ya'ni ko'lning judayam sho'r, tuzli ekanligi sabab bo'lgan.

OQKO'TAL – Jizzaxdan Samarqandga boradigan yo'ldagi dovon, taxminan hozirgi Oqtosh qishlog'idan g'arbda joylashgan tog'larga to'g'ri keladi. "Boburnoma"da 905/1499–1500-yil voqealari bayonida eslatilgan. Unda yozilishicha, Toshkentdan Sulton Mahmudxon Samarqandni olish uchun lashkar tortib keladi. Oqko'taldan o'tib Raboti Sug'd va Kanboyga yetganida, Samarqand hukmdori Boysunqur Mirzo lashkar bilan qarshi chiqadi. Yuz bergan qattiq jang-

da Boysunqur Mirzo g'olib chiqadi. "[Boysunqur Mirzo] Kanboyda urushub yaxshi bosti. Uch-to'rt ming mo'g'ulning bo'ynig'a urdurdi").

OQLAR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Angor, Denov tumanlari. Turkmanlarning aksari qabilasi tarkibida ak urug'i bor, guklek, yomut va ersari qabilalarida esa aklar urug'lari mavjud (И.Н.Лезина, А.В.Суперанская. Словарь-справочник тюркских родоплеменных названий, ч. 1. – М., 1994).

OQLON – mahalla. Toshkent shahrining Ko'kcha dahasidagi qadimiy mahalla nomi. Bo'zsuv kanali hamda Ko'kcha, Jarariq va Darvoza mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, mahalla nomi Shayx Zayniddinbobo nomi bilan bog'liq. Shayxning zavjalari shu mahallalik Daryo Dilbekach bo'lib, oqila ayol sifatida tanilgan. Mahalla shu bois "Oqilon", ya'ni oqillar makoni nomini olgan.

OQMANG'IT – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumani. Mang'it qabilasining akmang'it bo'linmalari nomlari bo'yicha nomlangan (*qarang*: **Mang'it**).

OQMANG'ITOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning oqmang'it urug'i nomi bilan atalgan qishloqlar nomi. Chimboy tumanining "Baxitli", "Kenes", "Tazg'ara", "Tag'jap" QFY hududlarida bor.

OQMACHIT – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun tumani, Andijon viloyati Shahrixon tumani, Navoiy viloyati Nurota tumani, Samarqand viloyati Samarqand tumani, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanlaridagi qishloq. **Oqmachit** – "hukmdorlar tomonidan qurilgan". Oq machit binosi aholi punktining boshqa xil rangdagi binolaridan tubdan ajralib turgan.

XVII–XIX asrlarda Buxoro xonligida qurilgan machitlar oqmachit deb nomlangan. Oq xonlikka qarashli ekanligiga, hajman kattaligiga ishora. Oqmachit – katta machit (Nafasov, 1988: 147). Qishloq mazkur joydagi machitga bog'liq holda nomlangan.

OQMO'YIN – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq. *Oqmo'yin* (adabiy tilda *oqbo'yin*) – etnonim (*qarang:* **Qoramo'yin**).

OQOLTIN – tuman. Sirdaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Nom tarkibidagi oq so'zi rang ma'nosini bildiradi. **Oltin** – *tilla, zar, sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho metall.* Nom tarkibidagi oltin so'zi ramziy ma'noda qo'llanilgan va u nodir metallni emas, balki qimmatli sanoat xomashyosi bo'lgan paxtani ifodalaydi. Paxta yengil va to'qimachilik sanoati uchun qimmatli xomashyo bo'lganligi bois uni oltinga qiyoslashgan. Majoziy ma'noda oqoltin – paxta. Adabiy tilda paxtakorlar mehnatini sharaflab, ularning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilgan paxtani oqoltin deyishadi.

OQQAMISH – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani. Amudaryoda birinchi bahorgi yarim

suvli o'simlik ko'k qamish toshqini deb nomlangan.

Ehtimol, oqqamish irrigatsion termindir, balki oqqamish – qarmish nomli qipchoq urug'lari bo'linmalaridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin (talaffuzda **r** tovushi ba'zan tushib qoladi).

OQQAPCHIG'OY – tog' dovonlaridan birining nomi. Toponimiyada *oq* so'zining ma'nolari ko'p: *oqmoq* fe'lining o'zagi; *qor bilan qoplangan (tog') baland, yuksak (tog'); qor suvlari bilan to'yinadigan (daryo, suv); katta (balandlik); suvi qurimaydigan, yozda bo'tana bo'lib oqadigan (suv, daryo).*

Qapchig'ay – mo'g'ul, buryat, qozoq, qirg'iz tillarida *qoya, cho'qqi, balandlik; dara, tog' tizmalari yoki qirlar orasidagi chuqur soylik, suv oqadigan tangi.*

Janubiy O'zbekistonda *qapchig'ay – tog' bag'ridagi dara, doimo suv oqadigan tangi, tog'ning yonma-yon tizmasi* yoki *qir oralig'idagi chuqur soy.* **Oqqapchig'ay** – *tog'ning qorli cho'qqilari bilan tutashgan tizmasi oralig'idan oqadigan soyli dara* demakdir.

OQQAYIR//QAYIRLIQ – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi qadimiy hudud nomi. *Aqqayыr, Qayьrlьq* toponimlari tarkibidagi *qayьr* so'zi ham tuproqning xususiyati, yerning holatini ifodalash maqsadida paydo bo'lgan. Bu so'z Amudaryo o'zanining o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan (daryo oqmay qolgan) yer; daryoning qum aralash loyqa tagi; Amudaryoning sayyoz joyi[1]; sero'g'it yer, balchiq aralash qum[2] kabi ma'nolarga ega.

M. Koshg'ariy ham uni ushbu ma'noda qayd etadi[3] (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

OQQORADARYO SUVAYIRG'ICHI – Samarqand shahrining shimoli-sharqiy chegarasida joylashgan Cho'ponota tepaligiga yaqin hududda qurilgan suvayirg'ich nomi. U Ravotxo'jadan 33 km quyida Zarafshonni ikkiga: o'ng (Oqdaryo) va chap (Qoradaryo) tarmoqqa bo'ladi.

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bu inshoot ilk o'rta asrlarda ham mavjud bo'lgan. XVI asrga kelib yangidan tiklangan. Abdullaxon ko'prigi deb nomlangan bu suvayirg'ichning qoldiqlari yirik ark shaklida hozirgacha saqlangan bo'lib, tarixiy yodgorlik sifatida arxitektor, arxeolog, irrigator va boshqa kasb egalarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. 1971-yili A.Muhammadjonovning arxeologik qazishmalari davrida asosan pishiq g'ishtdan yasalgan ikkinchi arkning qoldiqlari, shuningdek, uchinchi arkning bir qismi mavjudligi aniqlandi.

---

[1] Ishayev A. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977. –B.121.

[2] Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. – Toshkent: Fan, 1973. –B.151.

[3] Mahmud Kashg'oriy. Devonu lug'atit turk. T. III. – Toshkent, 1960. – B.165.

1970-yili Oqqoradaryo suvayirg'ichi to'liq rekonstruksiya qilingunga qadar uni bir necha marta suv olib ketgan va natijada Miyonqol oroli va Buxoro viloyatiga shikast yetgan edi.

Ayniqsa, 1921-yilgi suv toshqini paytida Qoradaryoning chap qirg'og'ini 10 km masofada 50 dan 75 metrgacha enlilikda suv olib ketishi natijasida ikkita qishloq yo'q bo'lib ketgan va qanchadan-qancha ekin yerlari ishdan chiqqan edi (Tagiyev, 1973).

Suvayirg'ichning nomi *Oqdaryo* va *Qoradaryo* so'zlarining birikuvi va gidronimik termin (*"ayirg'ich"*) ishtirokida yasalgan. Manbalarda mazkur inshoot *"Oqdaryo suvbo'lgichi"* deb ham tilga olinadi (Shuls, 1969).

OQQOVOQ – qishloq. Chirchiq tumanidagi GES. **Qovoq (kabak)** – aynan "qadimgi" *daryoning baland ochiq qirg'og'i* (Е.Койчубаев. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. – Алма-Ата, 1974. С. 22); oq; **Oqqovoq** – *oq uzilish*. Bundan tashqari, qozoqlarning *suan* va qirg'izlarning *chekir sayak* qabilalarida *akkavak* urug'i bor.

OQQOVUN – Samarqand viloyati Jomboy, Bulung'ur tumanidagi qishloq.

B.O'rinboyev, qovchin urug'i Qovunchi shaklida toponimga aylangan, deb ko'rsatadi. Biroq A.D.Grebenkin ma'lumotida Zarafshon vodiysi qoraqalpoqlari tarkibida uchraydigan *Beshbola, Qovunchi, Oqqovun, Tungotar* kabi etnonimlar mazkur toponimning qovchin qabilasiga aloqador emasligini ko'rsatadi (Tolstova, 1963). Oqqovun atamasi Zarafshon qoraqalpoqlari tarkibidagi etnik birlik nomining toponimga ko'chishidan hosil bo'lgan.

Turkman va qoraqalpoqlar tarkibidagi Qo'ng'irot qabilalari *akkaun* urug'i deb belgilangan.

OQQULA – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumani. Xususan, **haqqulloh** (haqqi Olloh – **"Olloh oldidagi qarz"**) – *mulla, imom, eshonlarga to'langan dehqonlarning diniy solig'i.* Ammo *hosildan kambag'allarga qurbonlik* – **kapsan** deb nomlangan.

OQQUM – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumani. Mazkur termin tarixiy nom hisoblanib, u rangni bildiruvchi *oq* va bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarralardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi ma'nosini bildiruvchi *qum* so'zlarining qo'shilishidan hosil qilingan nomdir.

OQQO'RG'ON – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Toponimning shakllanishi to'g'risida ikkita taxminiy fikr mavjud:

1. Uning shakllanishida ma'lum bir aholi punktidagi oq rangli uy – qo'rg'on asos bo'lgan: *oq > oq+qo'rg'on > Oqqo'rg'on*. Bu fikrda ham joy nomining yuzaga kelishi uchun qandaydir ma'noviy vosita borki, uni xalq etimologiyasi deyish noto'g'ri.

2. Mazkur toponim ikkita ma'noli qismdan tashkil topgan: *oq* va

qo'rg'on. Albatta, *qo'rg'on* so'zi diaxron planda yasama so'zligini, uning o'zagi **qo'r** so'zi ekanligini e'tiborga olish lozim. Biroq qo'rg'on so'zi bir butun holatda kelishi uchun *qo'r+i+-g'+-on* shaklidagi so'z yasalishi ro'y bergan. Hosil bo'lgan **qo'rg'on** so'zi *himoya ta'siriga ega bo'lgan shahar, qo'rg'on* ma'nolarini anglatgan.

Qo'r va *-g'on* morfemalari o'zaro birikib, *qo'rg'on* so'zini hosil qilgan. Ushbu yasalish diaxron plandagi so'z yasalishi. Shakllangan so'z toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayonidan toponimga aylangan: *quri//qo'ri+gan>qo'rgan>Qo'rg'on*. **Qo'rg'on** so'zi toponimik leksikada *joy nomi*, apellyativ leksika esa oddiy so'zlardan biri. **Qo'rg'on** so'ziga **oq** so'zining qo'shilishi bilan so'z birikmasi va qo'shma so'z, so'ngra toponim hosil bo'lgan: *oq+ qo'rg'on > Oqqo'rg'on*. Uning etimoni odatdagi nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan apellyativ leksikada faol ishlatuvchi **oq qo'rg'on** birikmasi bo'lib, u toponimlashuv natijasida joy nomiga ko'chgan: *oq + qo'rg'on > Oqqo'rg'on*. Bu toponim ham *oq rangli*, ham *nisbatan balandroq bo'lgan qo'rg'on*, degan ma'noni anglatadi.

Bizningcha, **oq** so'zi bu toponim tarkibida *balandlik* ma'nosini ifodalagan. Bu hol *Oqsaroy, Ko'ksaroy, Qorasaroy* toponimlari bilan qiyoslansa bilinadi: **Qorasaroy** – *kichik saroy*, **Ko'ksaroy** – *katta va keng saroy*. **Oq** so'zi toponimlar tarkibida *rang, hashamatli, dabdabali, baland, ulug'lik* ma'nolari bilan qo'llanadi.

Qayd etilishicha, Oqsaroyning bugungi kungacha saqlangan qismi qurilgan holatidagi balandligining yarmi ekan.

OQQO'RG'ON ARIG'I – Bo'zsuv kanalining chap tarmog'i. Uzunligi 8,2 km. Hozirgi kunda Yunusobod va Mirzo Ulug'bek tumanlaridan oqib o'tadi va bir nechta shoxobchalarga bo'linib ketadi, ularning eng kattasi – Darxon arig'i. "Oqqo'rg'on" gidronimi shu shakldagi toponimdan hosil bo'lgan. XV asrda Toshkent atrofidagi mavzelardan biri Oqqo'rg'on deb atalgan va shaharning sharqiy chekkasida, Shibli arig'idan sharqda joylashgan, uning sharqiy chegarasi Salor kanaligacha yetgan. Oqqo'rg'on kanali o'rta asrlarda qazilgan. Uning suvidan Xoja Ahrorning Oqqo'rg'on mavzesidagi vaqf yerlari sug'orilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Oqqo'rg'on arig'i Toshkentning Yangi shahar qismida shimoldan janubga oqqan va Salor kanaliga quyilgan. Uning suvidan *Qoramurut, Niyozbek, Oqqo'rg'on, Pushkin, Baliqchi, Namangan, Qo'yliq shohko'chasi, Xirurgiya ko'chalarini* obod qilishda, o'sha yerlardagi aholining suvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda keng foydalanilgan.

OQQO'YLI – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. Dulat qozoq qabilalarida, do'rmon o'zbek va qoraqalpoq qabilalaridagi аккойли urug'i, ammo turkmanlardagi аккоюнли – "oq qo'y" ma'nosidadir. Oqqo'yli – urug' nomi. *Qarang*: **Qoraqo'yli**.

OQRABOT – qishloq. Buxoro viloyati G'ujduvon tumani; Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani (*qarang*: **Rabat**).

OQSAROY – qishloq. Xorazm viloyati Hazorasp tumani. Hali XVI asrning boshlarida Shayboniyxon yurishlarini tavsiflashda Urganch tevarak atrofidagi Oqsaroy joyi esga olinadi, u yerda Xiva yo'li bo'yicha Urganchga kirib kelgan Shayboniyxon otryadlaridan biri to'xtagan.

Akademik V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, Oqsaroy saroyi Temirning ko'rsatmalariga ko'ra, 1380-yili xorazmlik asirga tushgan ustalar tomonidan Shahrisabzda qurilgan va shu yerdagi binolardan birining nomini olgan, ehtimol, Urganch atrofidagi qishloqning nomlari bo'yicha nomlangandir (В.В.Бартольд. Сочинения, т. III. С. 63). Panj tumanidagi qadimgi oqimlardan biri (Amudaryo tizimi) Oqsaroy (saroy – yirik o'zbek qabilalaridan biri) deb nomlangan (B.B. Бартольд. Сочинения, т. III. –С. 161,319).

OQSOY – Samarqand viloyatining Pastdarg'om hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar va Markaziy Osiyo hamda O'zbekiston hududlaridagi bir necha aholi punktlari va daryolarning nomlari. **Oq, soy** – *daryo, soylik* (*qarang:* **Aksu**).

Gidronim "***oq***" va "***soy***" komponentlaridan iborat. Geografik termin hisoblangan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan paslik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" [O'TIL. 3, 545].

Oq komponenti deyarli turkiy xalqlarda ko'p sonli etnonimlarni hosil qiladi: (qozoqlarda) *oqbaliq*, (o'zbeklar va qirg'izlarda) *akbash*, (qirg'izlarda) *akbuyra*, (qozoqlarda) *akbura*, (qirg'izlarda) *akdjol*, (turkmanlarda) *akduglat*, (qirg'izlarda) *akechki*, (qoraqalpoqlarda) *akkaun*, (qozoqlarda) *akkiyik*, (qirg'izlarda) *akkozu*, (turkmanlarda) *akkumli*, (boshqirdlarda) *akkipchak*, (turkmanlarda) *ak* va *aklar*, (qoraqalpoqlarda) *akmangit*, (o'zbeklar va turkmanlarda) *aksari, aktondu*, (o'zbeklar, qirg'izlarda) *aktonni* va boshqalar.

Taxminiy ma'lumotlar bo'yicha, **ak** sifati bilan bog'liq turkiy xalqlar urug'-qabilalarining umumiy miqdori 200 dan ortiq birlikni tashkil qiladi. Qora komponenti bilan bog'liq turkiy xalqlardagi etnonimlar esa undan ham ko'pdir.

Demak, ushbu gidronim "*tepadagi, yuqoridagi tog' buloqlari va qorlari suvlaridan hosil bo'lgan doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo*" ma'nosini ifodalaydi.

OQSOQOL – qishloq. Andijon viloyati Shahrixon tumani. **Oqsoqol** – *hamma uchun hurmatli odam, keksa yoshli, o'sha yerda shunday odam yashaydigan qishloq.*

OQSUV – daryo. Tog' qorlari, muzliklari bilan to'yinadigan suv, ko'p suvli, tezoqar daryo.

Umuman, *Oqsuv* – Markaziy Osiyoda keng tarqalgan termin hisoblanadi. Ko'pincha, suv nomlari (gidronimlar) ga aylangan.

Oq – *oqmoq* fe'lining o'zagi. ***Oq*** (suvning rangiga ishora) ***suv*** – *bo'tana suv, oqish rangdagi suv. Oq* – to'yinish manbayini, ya'ni *oq qor* bilan qoplangan toqqa va suvning miqdori hamda oqish tezligiga ishoradir. Shuningdek, **Oqsuv** – *"doimo oqib turuvchi daryo"* degan ma'noni ham bildiradi.

OQSUVAT//OQSUVLOT – Ustyurtdagi qiyalardan biri (Qoraqalpog'iston Respublikasi), *Jilg'indisuvlot, Sho'rsuvlot, Oxursuvlot, Suvlisuvlot* – Zarafshon daryosining qadimgi o'zani darasi Maxandaryo (Navoiy viloyati). Suvat yoki suvlat (suvlot) – adabiy "suvloq" (A.Muhammadjonov. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. – T. 1972).

OQTEPA – Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga qarashli qishloq. Oqtepa – balandlikka qurilgan qadimgi qo'rg'on o'rni.

Ustoz Yahyo G'ulomovning yozishicha ("Xorazmning sug'orilish tarixi". – Toshkent. Fan, 1959), turk xoqonligi davridan boshlab (V asr) dehqonchilik vohalarida dala o'rtasida katta imorat (ko'shk)lar vujudga kelgan. Xarobalari hozirgacha saqlanadi.

O'zbekiston viloyatlaridagi katta miqdordagi qishloqlar va joylarning nomi, ba'zan qo'rg'on nomi: Andijon viloyati Andijon va Baliqchi tumanlari; Farg'ona viloyati Qo'shtepa va Buvayda tumanlari; Jizzax viloyati Zomin tumani; Samarqand viloyati Ishtixon tumani; Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani; Toshkent viloyati Qibray tumani; Samarqand viloyati Paxtachi tumani.

Madaniy qatlamlarning qoldiqlari va feodal dehqonlar o'sha paytlari ilk o'rta asrlar qal'a qurilishlari buzilgan joylar ham shunday nomlangan. Demak, yaqin-yaqinlargacha Toshkent shahrining o'zida sakkizta Oqtepa bo'lgan.

Xorazm viloyati Bog'ot tumanida ham shunday nomli toponim mavjud bo'lib, u shunday izohlangan: "Oqlik – poklik ramzi. Qadimda mahallada 4 ta tepalik bo'lib, uning tepa qismi oqarib ko'rinib, quyosh nurida yaltirab nur sochib turgan". Shularni inobatga olgan holda hudud shunday nomlangan. Shu nomdagi toponimlar Mustaqil diyorimizning ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash zarur.

Piskent tumanidagi qishloqlardan biri ham Oqtepa deb nomlangan. *Oqtepa* – balandlik joyda bunyod etilgan qadimgi qo'rg'on o'rni. **Oq** so'zi bu o'rinda ham *katta, baland, yuksak* ma'nosiga ega. *Oq tepa* – yon-atrofida shu tipdagi boshqa balandliklardan hajman katta bo'lgan tepa.

OQTEPAMETAN – Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qishloq. S.Qorayev Oqtepamitan – mitan qabilasining bir bo'limi, deb ko'rsatadi (Qorayev, 1978). Aslida Oqtepa o'rta asrlardagi feodal dehqonlarning qasrlari, ko'shklarining xarobalari bo'lib, tepalikning bir turi, qadimiy

qo'rg'on xarobasining o'rni yoki xaroba qoldig'i (Nafasov, 2009).

Demak, **Oqtepamitan** – *Oqtepa yonida yashagan mitan qabilasi vakillari qishlog'i* ma'nosini anglatadi.

OQTOM – qishloq. Toshkent viloyati Bekobod tumani, Surxondaryo viloyati Denov tumani, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani. **Oqtom** – *oq tom*, aniqrog'i, *oq uy. Boy feodallarning qarorgog'i* shunday nomlangan.

OQTOG'//OQTOV – ohaktosh, chaqmoqtosh, marmar va tog'ning boshqa yorug' bo'yoqlaridan uzatilgan bir necha tog' cho'qqilarining nomi (oqtog').

OQTOSH – Jizzax viloyatining G'allaorol tumani, shuningdek, Samarqand viloyatining Narpay tumani markazi bo'lgan shahar hamda Bulung'ur, Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar va tog' nomi. Mazkur toponim ikki qism "***oq***" va "***tosh***" qismlaridan iborat.

Apellyativning birinchi qismi "***Oq***" umumturkiy so'zlardan biri bo'lib, "*qor, sut, paxta rangidagi, oq tusga moyil*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 1, 262; O'TIL. 5, 3, 175].

Uning ikkinchi qismi "***Tosh***" so'zi ham umumturkiy bo'lib, "*yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo'rt tog' jinslarining umumiy nomi*" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 1, 351; O'TIL. 5, 4, 159].

Shunga asoslanib, tilshunos B.O'rinboyev Qo'shrabot tumanidagi bu mikrotoponimni qishloq joylashgan hududda oq rangli toshlar mavjud bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan, degan xulosaga keladi [B.O'rinboyev, 2, 42].

T.Nafasov esa ushbu mikrotoponimni "*kvarsga boy joy, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshli yer*", deb izohlaydi [T.Nafasov, 149].

Bizning fikrimizcha, "***oq***" – bu o'rinda rang-sifatni bildirib emas, aksincha, hajmni bildirib, aniqrog'i, ***katta tosh*** ma'nosini ifodalab kelmoqda.

OQTOSH OTA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumani "Qiyqim" MFY hududidagi Qiyqim qishlog'ida joylashgan ziyoratgoh nomi. Mazkur nekronim qanday shaxsga tegishliligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Mahalliy aholi tomonidan turli xildagi rivoyatlar mavjud, biroq bular asosli emas.

Shunisi diqqatga molikki, mahalliy aholi qabrga o'rnatilgan tosh ustidan suv oqizib, yosh bolalarda uchraydigan ***ko'kyo'tal*** deb nomlanuvchi kasallikga davo sifatida foydalanishadi.

OQTUMOR – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumani, Farg'ona viloyatining Dang'ara tumani. Tumor yoki dumor – Markaziy Osiyodagi qipchoq urug'i nomlaridan biri. Oqtumor (oq tumor) etnonimi shunday fikrga undaydiki, mazkur urug' bir necha bo'linmalarga ega: oq tumor va qora tumor (yoki sari(q) tumor), qirg'izlarda ham dumar nomli urug' bor.

OQTUMSHUQ – Orol dengizining avvalgi tumshug'i. Oq tumshuq – tumshuq, burun; Oqtumshuq – Surxon-

daryo viloyati Sho'rchi tumanidagi qishloq. Oq tumshuq etnonimi ham bor.

OQTUPROQ – Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi qishloq. Kaolin, bo'r va boshqa oq rang turdagi narsalar xalqda oqtuproq deb nomlangan.

OQTO'NLI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala hamda Andijon viloyatining Shahrixon tumanlardagi qishloqlar nomi. Oqto'nli – etnonim: qangli qabilalarining yirik urug'laridan biri oqto'nli deb nomlangan. Qashqadaryo viloyatida ayinni-qo'ng'irot qabilasi ikki qismga bo'lingan – qarato'nliilar va oqto'nlilar. Bundan tashqari, muqaddas musulmonlar bo'lgan: *Oqto'nli (ota)* – "Oq to'ndagi muqaddas ota", *Ko'kto'nli (ota)* – "ko'k to'ndagi muqaddas ota" (*Oqto'nli* – boy va Ko'kto'nli – kambag'al) hisoblangan.

OQUY – Toshkentdagi joy nomi. "Oq-uy" oq chayladan bo'lgan to'y kiyimlarini va 10–12 ta katta arqondan bo'lgan katta o'tovlarni ifodalagan, XIX asr o'rtalarida qozoq aristokratlariga tegishli hisoblangan. Shu yerdan akuyli – "oq o'tov, soyabon", bu degani, kelib chiqishi bo'yicha feodal ko'chmanchi aristokratlarga tegishli shaxs" (E.M.Массон. Ахангеран. –С. 5). Qirg'izlarning munduz qabilasi tarkibida akuyli urug'i mavjud. Shuningdek, Oquyli – Qo'qon xonligi davrida xonlar tomonidan jazolanib, maxsus hududlarga ko'chirib yuborilgan, surgun qilingan sulola a'zolari, amaldorlar va ularning oilalari hisoblangan.

OQ YER – qishloq. Andijon viloyati Andijon tumani, Farg'ona viloyati Rishton tumani, Namangan viloyati Namangan tumani. **Oqyer** – *qayta ishlangan yerdan o'zlashgan;* Xorazmda – *sug'orilmaydigan qatlam*; tarixiy jihatdan **oqyer** (hur yer) – *yer solig'idan ozod yer.*

OQYOR – Andijon viloyati Andijon tumaniga qarashli qishloq nomi. "Oqbo'ra" (Oq buvra) daryosi nomi bilan bog'liq. Yuqorida yozilganidek, qadimda ushbu daryo O'sh shahri oralab oqib, Andijonni sharq tomondan aylanib, Qoradaryoga qo'shilgan. Bir tarmog'i hozirgi Shahrixonsoy izidan sharqqa burilgan va Asaka yerlarini suv bilan ta'minlagan (*Oq bo'yra qishlog'i nomiga qarang*). Oqbo'ra asosiy qismining Qoradaryoga rudxona (poyma)siga quyilish joyida paydo bo'lgan qishloq Oqyor (*oq jar – jarlik*) nomi bilan atalib ketgan.

OQZOV – qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani. Kukzau (Ko'kzov) – aynan shu tumandagi qishloq. Qirg'izcha **zoo** – *"o'simliklar siz ko'rinmaydigan yalang'och qoya"* (К.К. Юдахин. Киргизско-русский словарь. –С. 291); forscha **zou** – *"egallab bo'lmaydigan qoya, dara"* (Л.И. Розова. Словарь географических терминов и других слов, формирующих топонимию Таджикской ССР. –М., 1975); turkmancha **zov, zav** – *"daraning boshidagi tik turmaydigan qoya"*; **qarang**: *Qizilzau.*

OQO'RDA – Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Oq

o'rda – ko'chmanchi qabilalar boshliqlari, hukmdorlari kelish joyi, qarorgohi. O'rda – ko'chmanchi qabilalar boshliqlari qarorgohi, ular oq o'tovlarning biridan tashkil topgan. Toponim – xalqning tarixiy o'tmishidan guvohlik beradi.

OQSHUNGIL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqchada **shungil** – *"chuqurlik", "botiq", "daryoning chuqur qismi"* ma'nolarini anglatadi.

OQCHANGAL – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod tumani. *Oq* va *changal* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, *tikanli o'simliklar* ma'nosini anglatadi.

OQCHELAK – qishloq. Samarqand viloyati Payariq tumani. Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatidagi Sarichelak ko'li. Qirg'izlarning *bugu* qabilasida *chelek* urug'i qayd etilgan (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен. Живая старина, вып. 3–4. Спб, 1896. –С. 449); ammo qirg'izlarning **argu** qabilasida – **chelekche** (Я.Р.Винников. Родоплеменной состав и расселение киргизов на территории Южной Киргизии. ТКАЭЭ, т. I. – М., 1956. С. 166).

Chelek (chelak) urug'i o'zbek qabila-urug'lari tarkibida ham bo'lgan, bu haqida yuqorida toponimlar keltirilgan.

OQCHO'RAG'ASI – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon va Kattaqo'rg'on tumanlari. Oqcho'rog'asi – qatag'on qabilasining bo'linmalaridan biri, uning vatani Afg'oniston (hozirda Qatag'on) hisoblanadi. Akchuragasi vakillari Samarqand atrofida yashashgan.

OQCHO'ROG'ASI – 1904–1905-yillardagi aholi punktlari ro'yxatida Kattaqo'rg'on uyezdi Mingariq volostidagi qishloq sifatida qayd qilingan. Qatag'on qabilasining bir bo'limi oqcho'rag'asi deb atalgan. Oqcho'rag'asilar Samarqand atroflarigacha yetib kelgan (A.D. Grebenkin). *Yana qarang:* **Qoracho'ra.**

OQSHIX – qishloq. Buxoro viloyati Jondor tumani. Turkmanlarning sakar qabilasi urug'ining nomlaridan biri, ersari shix (sheyx) deb nomlangan.

Oqshix – shix urug' (qabilalari) bo'linmasi. Buxoro viloyatining sharqiy tumanlarida oz bo'lmagan miqdordagi turkmanlar mavjud. Mazkur urug' ba'zan o'zbeklar o'rtasida ham qayd etilgan.

ORLOT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponimni tashkil etgan "***orlot // arlot***" o'zbek millati tarkibidagi azaliy urug'lardan birining nomidir [S.Qorayev, 1, 28].

Mo'g'ullarning yirik qabilalaridan biri ham "***arlot // orlot***" deb nomlangan [Z.Ziyotov, 103; Z.Do'simov, 112]. Chingizxon o'g'li Chig'atoyga taqdim etgan to'rt qabiladan biri "orlot // arlot bo'lgan [T.Nafasov, 15]. "***Orlot // arlot***"lar Afg'onistonning shimoliy qismida – Balxda ham joylashgan. T.Nafasovning ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amirlarini taxtga o'tqazishda "arlot // orlotlar ham bevosita ishtirok etishgan [T.Nafasov, 15].

"***Arlot // orlot***" so'zining asl ma'nosi "lnasining sevgan o'g'li"dir [X.Doniyorov, 34]. Bu etnonim keyinchalik oykonimga aylangan. Ushbu oykonim bir o'zakli ot so'z turkumiga mansubdir.

OROL – Andijon viloyatining Andijon, Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Namangan viloyatining Uychi tumanlaridagi qishloq nomi. Orol – odam yashamaydigan yashil joy. Biroq bu yerlarda unday joylar yo'q. Balki oldinlari bo'lgandir.

OROLBOY – Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy, Kegeyli tumanlaridagi ovul nomi. Qoraqalpoqlarning ktay qabilasida orolboy (aralbay) urug'i bo'lgan. Urug' vakillari ana shu ikki tumanda yashagan bo'lsa kerak – Chimboy, Kegeyli tumanlarida 15 ga yaqin ovul shu urug' nomi bilan atalgan.

OROL DENGIZI – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bu gidronimning kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Nega dengiz (katta ko'l) orol deb atalgan? Orol suv o'rtasidagi quruqlik-ku!

Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg'ozi Bahodirxon Amudaryo dengiziga quyiladigan joyni, deltani Orol deb atagan. Ana shu yerda orollilar degan elat yashagan. L.Berg o'zining "Orol dengizi" asarida (1908) Orol o'sha yerda yashagan xalq – orollilar nomidan kelib chiqqan, deb yozadi va Richkovning (1755) "Orol – ko'lda orol ko'p bo'lganidan shunday atalgan" degan fikrini o'rtaga tashlaydi.

Chindan ham Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo'lgan. Tevarak-atrofdagi o'zbeklar, qozoqlar dengizni Orol (Aral) debgina atashsa, qoraqalpoqlar ham Aral yoki Atau ("Orol") deb atashar ekan.

Qoraqalpoq toponimisti Q.Abdimuratov Orol dengizi chindan ham orol – "suv o'rtasidagi quruqlik" so'zidan kelib chiqqan, degan.

OROL KO'LI – Tarixiy gidronim. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi dengiz nomi. Bu O'rta Osiyodagi eng katta ko'l. Unga Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladi. ***Orol ko'li*** dengizi ilgarilardan geograflarga ma'lum bo'lmagan. Mazkur nom haqidagi dastlabki ma'lumotlar X asrga mansubdir. Istarxiy bu ***ko'l-dengizni*** *Xorazm dengizi* deb ataydi.

Rasmiy manbalarda ***Orol ko'li-dengizi*** 1697-yildan tilga olinadi. ***Orol*** nomi esa birinchi marta Abulg'ozi Bahodirxonning asarlarida uchraydi (XVII asr). Uning yozishicha, ***Orol*** – *daryoning dengizga quyiladigan joyidir.*

V.V. Bartoldning fikricha esa, dengiz ana shu joydan atalgan (Сочинения. Т. III. 1965. –с.332).

H.Hasanov "Amudaryoning etaklarida bir tomoni daryo, bir tomoni dengiz bilan qurshalgan maydon bamisoli orol holida bo'lgan, shu yer orol eli deb, aholisi esa orol qabilasi deb atalgan" –deydi (Ўрта Осиё жой номлари. –Б. 49).

Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ***Orolli, Orollilar, Orollikning yeri*** kabi toponimlar

ko'plab uchraydi. Mazkur nomlar ham shu *dengiz nomi* bilan aloqadordir. Orol bo'ylaridan ko'chib kelgan aholi esa, ***Orolli*** deb yuritilgan.

OROLLI – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Orolli – Orol daryosi yaqinidagi Amudaryoning quyida yashaydigan o'zbek urug'i. So'nggi o'rta asrlarda Janubiy Orolbo'yida yashaydigan o'zbek aholilari Orolli va Orol o'zbeklari deb atalgan.

OROLPAYG'AMBAR – Tarixiy gidronim. Surxondaryo viloyatining Termiz shahri yaqinidagi orol va Termiz shahri yaqinidagi (Surxondaryo viloyati) Amudaryoda odam yashamaydigan yashil o'tloq nomi. Amudaryodagi bu orolning **Orolpayg'ambar** degan izohi ham bor.

Orol oldin ***Jazirat-Usmon*** (***Jazira*** – arabchadan *"Orol, yarimorol"* degan ma'noni bildirgan) – deb ataladi. Keyinchalik esa O'rta orol deb atala boshlangan. **Orolpayg'ambar** *"payg'ambarning oroli"* degan ma'noda bo'lib, xalq afsonalariga ko'ra bu yerga payg'ambar dafn etilgan emish.

Arablar bosqinining dastlabki yillarida mazkur odam yashamaydigan yashil o'tloq Jazirati Usmon (*Usmonning odam yashamaydigan o'tlog'i*) deb nomlangan – u yerda arab harbiy sarkardalaridan biri Usmon vafot etgan.

Keyinchalik mazkur odam yashamaydigan o'tloq O'rtaorol nomini olgan. Nihoyat Orolpayg'ambar deb nomlangan, ishonchli manbalarga ko'ra, u yerda "Zul Kiflning qabri joylashgan va shundan yorug'lik sochilib turgan" (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, ч.1. –С. 204).

ORTIQ OTAJONOV – mahalla. Xorazm viloyati Bog'ot tumani. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yilning 12–13-dekabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida berilgan topshiriqlari asosida o'zbek san'ati, qo'shiqchiligi rivojiga munosib hissa qo'shgan marhum hofiz, O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Ortiq Otajonovning nomini abadiylashtirish maqsadida o'zi tug'ilib o'sgan mahallaning nomiga Ortiq Otajonov nomi berildi.

OSIYO – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Forscha **osiyo** – "tegirmon"; avvallari tegirmon xalq aholisi orasida katta rol o'ynagan. Shuning uchun ham o'zbekcha *tegirmon* va tojikcha *osiyo* tez-tez toponimlar hosil qilgan, hattoki, *Galategirmon* (o'zbek), *Galaosiyo* (forscha) nomli tegirmonchilar guruhini uchratish mumkin.

OSQALʻA – Tarixiy toponim. Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim etnik nom asosida yuzaga kelgan. ***Os*** – eron xalqlari urug'laridan bo'lib, o'zbek hamda qoraqalpoq xalqi tarkibida ham uchraydi (Л.С.Толстова. Некоторые вопросы исторической ономастики Хорезмского оазиса. "Этнография имён", –М. 1971, –с.248).

Os urug'i haqida dastlab qomusiy olim Beruniy o'zining asarlaridan birida ma'lumot beradi. U Amudaryo o'z oqimida to'siqlarga uchrab, so'l tomonga – qipchoqlar yurtiga oqa boshlagach, bu yerda istiqomat qiluvchi aholi Hazar dengizi qirg'oqlariga ko'chdilar. Aynan ular os va olan urug'lari ekanini e'tirof etadi (Абу Райҳон Беруний. Т. III. –В. 95).

Os etnonimi haqida turlicha qarashlar bor. Ba'zi bir tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, Os hozirgi Osetiya xalqining avlodlaridan bo'lgan, Alon urug'ining nomidir (В.В.Радлов. Словарь. Т. I., Ч. I., –с. 535).

Xiva davlat hujjatlarida Os, Osli kabi nomlar qayd etilgan (XIX acp ҳужжатлари. Т. II. 1961, –б. 211). Xorazm viloyatida Osiyon va Oslar (Qo'shko'pir va Gurlan tumanlarida) kabi nomlar yaqinlargacha bo'lgan.

OTALIQARNA – Tarixiy gidronim. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi kanal nomi. Mazkur gidronim hozirgi kunda ***Mang'it arna*** nomi bilan mashhurdir (***Mang'it*** – *urug' nomi*, ***arna*** – *kanal, daryodan suv oladigan katta ariq*). Y.G'ulomov "Qarna Xiva xonligining bir otalig'i tomonidan qazilganligi uchun Otaliq qarna" – deb atalgan deydi (Я.Гуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Тошкент, 1957. –б.212).

Otaliq ijtimoiy termin bo'lib, Xorazmda xonlikning eng katta mansablaridan birini ifodalagan. Buxorada "Ota o'rnini bosadigan kishi", amirlikdagi eng katta mansab. Otaliq mansabi Kavkazda ham qo'llanilgan.

Otaliq – bolani (chaqaloqni) o'z tarbiyasiga olgan kishi, tarbiyachidir (КосвеньМ.О. Аталичество//Советская энциклопедия. № 2. –М. –Л. 1935. –с. 41).

Xorazm toponimiyasida bu so'z bilan atalgan toponimlar ko'plab uchraydi. **Murodotaliq, Do'smonotaliq, Eshniyozotaliq, Yusufotaliq, Madaminotaliq, Tangirotaliq** va boshqalar.

OT UCHIB O'LGAN ZOV – Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Qizilbosh qishlog'idagi toponim. Gap tuzilishiga ega bo'lgan mazkur toponim ushbu obyektda yuz bergan voqea haqida xabar beruvchi nomdir.

Toponimiyada "*uchmoq*", ya'ni "yiqilib halok bo'lmoq" fe'li bilan yasalgan nomlar asosan tog'lik joylarda ko'proq uchrashi kuzatiladi. Bunday nomlar jar, zov kabi orografik obyektlar bilan bog'liq hodisalar haqidagi hikoyalardir.

Xuddi shu tumandagi Qizilto'riq qishlog'i hududidagi *Taka uchdi, Nazar uchdi*, Qo'shrabod tumanidagi *Umsun tushgan soy*, Nurobod tuman Sazag'on qishlog'idagi *Kampiro'ldi, Oto'ldi, Ho'kizuchdi* (Urgut tumani Vag'ashti qishlog'i), *Mahmarayim o'ldi, Tillatopdi* (Urgut tumani Terak qishlog'i), *Otaquvdi* mahallasi (Oqdaryo, Kumushkent qishlog'i) singari mikrotoponimlar ham mazkur turdagi nomlar jumlasidandir.

Bunday nomlar sug'd toponimi-

yasida ham kuzatiladi. "Uchmoq", "yiqilmoq" ma'nosidagi "parta" termini ishtirokida yasalgan nomlar soni anchagina. Masalan, *Husen parta, Shovak parta, Asp parta, Bobo partak* kabi (Xromov, 1975: 26–39). Bu shakldagi nomlar fe'l – toponimlar deb yuritiladi. Viloyat hududidagi *Umsuntushgansoy, Soykechar* (Qo'shrabod), *Otqamarsoy* (Go'zarkent), *Baytalo'ldisoy, Kampiro'ldi* – tog' nomi (Nurobod), Otqamov – joy nomi, *Tillatopdi, Kuntegmas, Mahmarayimo'ldi, Ho'kizuchdi* (Urgut), *Kampiro'ldi-qishloq, Kallakesar-qishloq, Jaruchg'on-qishloq* (Payariq) kabilar mazkur turga kiradi.

OTAKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir hududida joylashgan ko'l, QFY va aholi punkti nomi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, mahalliy xalq og'zaki rivoyatarida bu ko'l bo'yida qoraqalpoqlarning mang'it urug'idan bo'lgan Annet bobo (qoraqalpoq tilida ota deyiladi) ismli kishi yashagan ekan. Odamlar ko'lni Annet ata ko'li demasdan, Otaning ko'li deb atashib, keyinchalik u Otako'l nomiga aylangan.

OTALIQ – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining ta'kidlashicha, geografik joy nomi ilgari *Atoloke* deyilgan, keyinchalik talaffuzda o'zgarib, shu holatga kelgan. Geografik joy nomini hosil qilgan *otaliq* so'zi qadimgi mansab, lavozim nomi.

Buxoro xonligi (amirligi)da eng katta amal – *vazir* unvoni *otaliq* deb atalgan. Buxoro xoni yoki amiri kamdan-kam hollardagina eng hurmatli kishiga *otaliq* unvonini bergan. Otaliq Buxoro xonligi hayotida XVII–XVIII asrlarda, ayniqsa, katta rol o'ynagan va xonlarning tayanchi hisoblangan. Xon davlatni boshqarishda otaliq maslahatlari bilan ish ko'rgan. Otaliq mamlakatda sug'orish va qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan. Otaliq tomonidan tashkil qilingan qishloq – *Otaliq*. Qishloq rasmiy-ma'muriy tarzda nomlangan.

OTQUDUQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanidagi qishloq nomi. **Otquduq** – *otli quduq* (otlar tomonidan chiqariladigan suv qudug'i) ma'nosini ifodalaydi.

OTO'LDI – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qir nomi. G'afforova Izzat momoning aytishicha, o'tgan zamonlarda Eshnazar degan bir qaroqchi bo'lgan ekan. U o'ziga tog'dan makon qilgan. Qishloqlarni kezib, bosmachilik qilar, oilalarni, chorvadorlarni tunab, uylariga o't qo'yar ekan. Kunlarning birida Eshnazar qaroqchi Sazag'on qishlog'ini talamoqchi bo'libdi. Qaroqchilarining ichida uning eng ishongan yigitlari O'rinbek va Bahrombek ekan. Kechga yaqin Eshnazar ularni oldiga chaqirib, qishloqni bosib olishni va qishloqdagi eng chiroyli qizlarni olib kelishni topshiradi. O'sha kuni qaroqchilar bilan qishloq aholisi o'rtasida katta jang bo'lib o'tadi. Jangda qaroqchilar boshlig'i Eshnazar va O'rinbek o'ladi. Bahrombek qochib ketayotganda

oti surinib, qirdan yumalab ketib vafot etadi. Shundan so'ng xalq qirga "***Oto'ldi***" deb nom bergan emish. Bu haqida mahalliy xalq orasida she'r ham yuzaga kelgan: *Eshnazar oti qoldi, Sandiqda xati qoldi. Xatini olib o'qisam, Maydonda oti qoldi.* Eshnazar oti qoldi, Sandiqda xati qoldi. Xatini olib o'qisam, Maydonda oti qoldi (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

OTSHOPARTEPA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Mulik" QFY hududida joylashgan tepalik nomi. Tepalik nomining kelib chiqishida ushbu tepalik ustida azal-azaldan iloq (ko'pkari) o'yinlari bo'lib turgan.

OTCHOPAR – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi qishloq nomi. **Otchopar** – *ippodrom, otlar bilan musobaqa o'tkaziladigan joy* ma'nosini anglatadi.

OVGIR – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi kanal. Forscha **obgir** – *"suv olinadigan joy", "suv havzasi"*, ba'zan *"botqoqlik"* ma'nosini ifodalaydi.

OVJAZ – Toshkent viloyatining Ohangaron tumani "Telov" QFY hududidagi Ovjazsoyning ikki tomoniga joylashgan katta qishloq. U forsiy "Objuvoz" degan qo'shma so'zning mahalliy shevadagi buzilgan talaffuzi natijasida paydo bo'lgan. O'tmishda Ovjazsoyning Qorato'qay degan boshlanish qismidan Ayritomgacha bo'lgan oraliqda o'n bitta objuvoz (g'alla donidan un yoki yog' hosil qiluvchi gidromexanizm) faoliyat ko'rsatgan. Ba'zi kishilar bu joy nomining kelib chiqishini yovvoyi hayvon va parrandalarning ko'p bo'lganligi va ularni ovlash bilan bog'laydilar. Bizningcha, "Objuvoz" talqini haqiqatga yaqinroq.

OVUL – Navoiy viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur nom – qishloq va boshqa ma'nolarda Kichik Osiyodan Tinch okeangacha ***avul, aul, avo'l, ayo'l*** kabi fonetik variantlarda uchraydi.

Xronologik jihatdan qishloq so'zidan oldin paydo bo'lgan bu termin XV–XVI asrlarda kelgan ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlashishi (qishlov – "qishlanadigan joy"), oqibati bo'lsa, *ovul* ko'proq *ayil* shaklida "o'tov", "bir to'p o'tov" ma'nosida ancha oldin mavjud bo'lgan.

O'zbekistonda *ovul* so'zidan tarkib topgan o'zbek qishloqlari ko'p. Janubiy O'zbekistonda *ovul* so'zi "qishloq", "kichikroq qishloq" ma'nosida hamon ishlatiladi.

Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasining ko'pchilik hududlarida hozirgi kunda ham QFY, ya'ni ovul fuqarolar yig'ini faol qo'llaniladi. "Molxona", "qo'ra" ma'nosidagi og'il so'zi ham genetik jihatdan ovul so'zi bilan ma'nodosh.

OVUSHQA – Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi qishloq. **Obushqa (ovushqa)** eski o'zbek tilida *"keksa", "oqsoqol", "yoshi katta inson".*

Ayrim turkiy tillarda, jumladan, qirg'iz tilida "abishka" hozir ham shu

ma'noda. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida "abishka" deb nomlanadi, chunki u aynan shu so'zdan boshlanadi.

OVSHARBADAQ – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom avshar va badaq so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. **Avshar** – qadimgi o'g'uz qabilalarining nomi (Mahmud Koshg'ariyda – afshar) sanalsa, badaq Xorazmiy tilida ariq ma'nosini ifodalaydi.

Abulg'ozi Bahodirxonning so'zlariga ko'ra, **avshar** – *"tez ishlovchi", "tezkor"* ma'nosini ifodalaydi (А.Н.Кононов. Родословная туркмен. С. 53); **badaq** – u ham etnonim. Biroq, ayrim manbalarda **Bodoq** xorazmiy so'z hisoblanib, *kichik ariq, arna* ma'nosini ifodalashi qayd etiladi.

Shunday ekan, **Afsharbadaq** – *Afshar arig'i* ma'nosida ham bo'lishi mumkin.

OVCHI – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani, Samarqand viloyatining Xatirchi tumani. A.P. Xoroshxin "o'zbek" qabilalarining 92 ta urug'i ichida avchini ham qayd etadi (А.П.Хорошхин. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб, 1876. –С. 512).

OXIRCHALIK – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ot+(suffiks) cha+lik strukturali bir komponentli toponim. ***Oxur//oxir//oqir*** mahalliy xalq tilida ***Oxur//oxir*** tarzida talaffuz qilinadi.

Apellyativning birinchi qismi ***Oxur*** chorva mollari (qo'y, echki, sigir, ot) ga yem-xashak solib beriladigan moslama (idish) [O'TIL. 3, 687]. Uning ikkinchi komponenti ***-cha*** qo'shimchasi otlarga qo'shilib kichraytirish, erkalash ma'nolarini ifodalab kelsa, uchinchi qismi ***-lik*** affiksi esa o'rin-joyni bildiruvchi qo'shimchadir.

Bundan kelib chiqadiki, ushbu mikrooykonim kasb-korga nisbat berilib, mahalliy aholi punkti nomlangan.

OXUNQAYNAR – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. ***Qaynar*** – suv qaynab chiqadigan manba, suv otilib chiqadigan buloq; ***oxun*** – uyg'urlarning umumqabul qilingan laqabi (**Axunqaynar** – *uyg'urlar bulog'i*).

OYBEK – o'zbek urug'larining nomlaridan biri oybek, uning buyuk o'zbek yozuvchisi Toshmuhammad Musayev (Oybek) taxallusiga hech qanday aloqasi yo'q. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida oybekto'b etnonimi va bir nomli qishloq bor; Xorazm viloyatining Shovot tumanida ham Oybek qishlog'i qayd etilgan, oybek urug'ining asosiy qismi Afg'oniston hududida yashaydi.

OYDIN – qishloq. Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi qishloq nomi. **Oydin** – *oysimon, oy bilan yoritilgan*, ko'chma ma'noda – *yorug', aniq* ma'noni anglatadi.

OYDIN HAYOT – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. **Oydin** – *"oy chiqib, hamma yoq oy nuri bilan yorigan, yorug'"* va

hayot – *yashash, mavjud bo'lish, tiriklik*" so'zlari orqali hosil qilingan joy nomi. Mustaqillik yillarida qo'yilgan toponim.

OYDINKO'L – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi ko'l nomi. *Oydin* termini ba'zan *oyna* tarzida ham ishlatiladi (Hasanov, 1965).

Oydin so'zi "*tiniq, toza, yaltiroq*" ma'nosida bo'lib, ko'l o'rtasining, asosan, suv chiqayotgan suv yuzasining tiniqligi bilan belgilanadi. Aksincha, **Ayronko'l** nomi *suvning loyqaligini* ko'rsatadi.

OYIM – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq va Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanlaridagi qishloq nomi. **Oyim** – *beka* ma'nosini ifodalaydi.

OYIM QISHLOQ – Andijon viloyatining Jalaquduq tumaniga qarashli qishloq nomi. Atoqli o'zbek shoirasi Nodirabegimning nomi Mohlaroyim edi.

Bir qo'lyozma hujjatda yozilishicha, Mohlaroyim Jaloloboddagi "Hazrati Ayub" bulog'i ziyoratiga ketayotib, Qoradaryo bo'yidagi Dalvarzin qishlog'ida to'xtagan. Qo'qonga qaytib kelib, o'g'li Muhammad Ali (Madali) xonga daryo vodiysining havosi ma'qul bo'lganini aytgan. Muhammad Alixon turli jamoalardan shu tomonga ko'chirma qilib, barchaga chek bergan. Shundan boshlab (taxminan 1830-yillardan) hozirgi Oyim qishlog'iga asos solingan.

Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida ham shunday atalgan mahalla nomi mavjud bo'lib, unda *Oyimcha, Oyimcha qaqir* kabi qishloq va mahalla nomlari qayd etilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu nomni Nodirabegimning taxallusi Mohlaroyimga nisbat berib qo'yilgan, deb hisoblaydilar.

OYIMCHAQAQIR – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. **Oyimcha** – *xonim*, **qaqir** – *quruq, suvsiz joy.*

Demak, **Oyimchaqaqir** – *xonimga tegishli suvsiz, quruq joy* ma'nosini ifodalaydi.

OYISHAXONIM – shaharning g'arbiy qismidagi eski bir katta mahalla nomi. Bizning tekshirishlarimizga ko'ra, shoira Mohlaroyim–Nodirabegimning onalari nomiga XVIII asr oxirlarida ajratilgan chek bo'lib, "Oyishaxonim cheki" deb atalgan. Keyinchalik, amir Umarxon davrida (1809–1822) kattagina qishloqqa aylanib ketgan va shu nomda guzar ham bo'lgan. Bizning davrimizda hozirgi Oltinko'l ko'chasi bo'yidagi mahallalardan biri.

OYNAKO'L – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Oyna* va *ko'l* so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. Demak, **Oynako'l** – *oynali ko'l* ma'nosini anglatadi.

OYNASOZON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumani. **Oyna, oynasoz** – *oyna qo'yadigan odam*, *-on* – ko'plik qo'shimchasi. **Oynasozon** – *oyna tuzatadiganlar yashaydigan qishloq* ma'nosini anglatadi.

OYOQ – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq

nomi. Turkiy so'z hisoblangan **Oyoq** – *past, pastki* degan ma'noni ifodalab, *"pastki qishloq"* ma'nosini anglatadi.

OYOQBOG' – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan iborat bo'lib, oyoq va bog' so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Demak, **Oyoq bog'** toponimi *pastki bog', pastdagi bog'* ma'nosini anglatadi.

OYOQQISHLOQ – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. **Oyoq qishloq** – *pastdagi qishloq, pastda joylashgan qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

OYOQSOLMA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlaridagi qadimiy hudud nomi. Mazkur *Ayaqsalma* toponimi bir qarashda tana a'zosi nomlari bilan bog'liq ko'rinsa ham, *ayaq* (qadimiy *adaq*) so'zining ko'chma ma'nolaridan biri "so'ng", "nihoya" ekanini e'tiborga olsak, joyning tabiiy-geografik xususiyati, xususan, joylashuv belgisini o'zida ifoda etadi.

"Gavdaning tayanib turishi uchun xizmat qiladigan a'zo" ma'nosidagi *ayaq* (eski o'zbek tilida *ayaq // ayag'*) qadimgi turkiy tildagi "qadamlamoq" mazmunini anglatgan *a:d-* fe'lining *ay-* shakli asosida paydo bo'lgan[1] va unga asosda anglashilgan ma'no natijasini anglatuvchi *-q* qo'shimchasi qo'shilgan.

Janubiy Qoraqalpog'iston va Buxoro orasidagi yastanib yotgan cho'l, Qizilqumning janubiy qismi *Batqaqqum // Bataqqum* nomi bilan yuritilgan[2]. Bu toponimni ham obyektning tabiiy-geografik xususiyati bilan bog'liq toponimlar qatorida izohlashimiz mumkin bo'ladi. Apellyativi: *batqaq // bataq + qum*. Turkiy tillardagi "bot" fe'liga o'rin oti yasovchi -qoq qo'shimchasi qo'shilgan, *qum* topoindikator (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

OYOQCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob va Chiroqchi tumanlaridagi qishloq nomi. **Ayakchisay (Oyoqchisoy)** – *daryo*. Qadimgi turkiy va ayrim zamonaviy turkiy tillarda **ayak (oyoq)** – *"kosa", "idish"*, **ayakchi (oyoqchi)** – *"idish tayyorlaydigan usta"*. Undan tashqari, **ayak (oyoq)** so'zi *"pastki", "oxirgi"* ma'nolarini ifodalaydi.

OYQOR – Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Turkiston cho'qqisidagi balandlik nomi. **Qar-g'ar** (sug'dcha) komponenti *"tog'", "tog'lar" ma'nosini* ifodalaydi (birinchi komponent noma'lum). U yerda ham *Chimqortov, Shovqortov* nomli tog'li cho'qqilar bor.

OYTAMG'ALI – Samarqand viloyatining Oqdaryo va Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani, Samarqand viloyatining Payariq hamda Jizzax viloyatining Forish tumani hududlaridagi qishloqlar nomlari. Maz-

[1] Севортян Е.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука, И. –С. 103.

[2] Tarixiy-geografik nomlarning qisqacha izohli lug'ati. Buxoro nashriyoti. 2008. - B.8.

kur qishloqlarda sarixitoy urug'iga mansub aholi yashashiga ko'ra, oytamg'alilar xitoy qabilasi tarkibida ham bo'lsa kerak.

Oytamg'alilar do'rmon, qipchoq, qurama, qo'ng'irot kabi o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug'. Urug' tamg'asi yangi oy (taqa) shaklida bo'lgani uchun oytamg'ali deb atalgan (Qorayev, 1970). Oytamg'ali nomi bilan atalgan qishloqlar *Narpay, Payariq* tumanlarida ham uchraydi.

OYLACHAK ELATI – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. Aslida, **Oylachak elati** toponimi antropotoponimlardan biridir. Bu elat shu hududda XX asr boshlarida yashagan *Oyjon lachak* ismli qissaxon ayol nomi bilan bog'liq.

Bu o'rinda shaxs laqabi sifatida ishtirok etayotgan *ləchək* so'zi voha shevalari uchun ekzotik leksemalardan biri sanaladi. *Ləchək* – xotin-qizlarning bosh kiyimi[1].

Ushbu so'z Qashqadaryo shevalarida *ləchəy* shaklida ishlatiladi[2].

D.Abdurahmonov ushbu so'zni Izbosgan shevasida *kulə//kultə*, Qashqadaryoning ayrim shevalarida *pchəy //pchək* shaklida qo'llanishini ko'rsatadi[3] (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

OZOD – Andijon viloyatining Shahrixon va Samarqand viloyatining Qo'shrabot hamda Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mazkur nomning shaxs ismiga hech qanday aloqasi yo'q. Ushbu mikrotoponimni tashkil etgan "ozod" so'zi forscha bo'lib, *"erkin, hur, asoratdan qutulgan, g'am-tashvishlardan xoli, saxovatli, oliyjanob"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 95].

Shu qishloqda mahalla fuqarolar yig'inining idorasi joylashgani uchun "Ozod" MFY deb nomlangan.

OG'ALIQ//OHAKLIK – qishloq va tog'. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq va tog' nomi. Temur davrida Samarqand va uning tumanlarida masjidlarni tuzatishda ohak qo'shilgan. Og'aliq – qishloq. Andijon viloyatining Shahrixon tumani; Farg'ona vodiysida og'aliq etnonimi qayd etilgan; yana Qo'qon xonligida og'aliq ijtimoiy termini mashhur – rahbar shaxs hisoblangan.

OG'ARE – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq og'zaki ijodiga ko'ra, mahsido'zlar bu yerda charmga oxirgi ishlovni berganlar va shuning uchun ham bu yerni "Oxiri" deb atashgan. **Oxiri** so'zi o'zgarib, hozirgi holatga kelib qolgan.

Toponimga asos bo'lgan *og'ar* so'zi urug' nomi, etnonim. S.Qorayev ham *og'ar (oqar, og'or)* nomli urug' mavjudligini yozgan. Demak, geografik joy nomiga *og'ar* urug'ining nomi, etnonim asos bo'lganligi haqiqatga yaqin.

[1] Ўрозов Е. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 76.

[2] Ўзбек халқ шевалари лексикаси луғати. – Тошкент: Фан, 1971. –Б.172.

[3] Абдураҳманов Д. Ўзбек шевалари лексикасининг тараққиёт манбалари ва улардаги лексик фарқлар // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент. 1991. – Б. 78.

OG'ATEPA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Og'a so'zi Xorazm shevasiga xos bo'lib, "*bir-biriga yaqin, aka-uka*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 184].

Apellyativning ikkinchi komponenti "Tepa" so'zi esa geografik termin sanaladi. Oronim nomi oykonimga o'tgan.

Yuqoridagilarga asosan "***Og'atepa***" – "*bir-biriga tutashgan ikki tepalik atrofidagi bunyod bo'lgan qishloq*" degan ma'noni bildiradi.

OSHOQQAL'A – Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. **Oshoq** so'zi ham Xorazmcha so'z bo'lib, *pastki, quyi* ma'nolarini ifodalaydi.

Aytishlaricha, 1825-yilda Xiva xoni mazkur hududga eroniylarni ko'chirib olib kelib, bu joyning atrofini devor bilan o'ragan va bu hudud qishloqning pastki qismida joylashganligi tufayli *Oshoqqal'a* deb nomlangan.

OCHA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ko'pchlik ilmiy manbalarda mazkur nom etnonim sifatida qayd etiladi. Jumladan, Kenagaslar tarkibidagi urug'larning biri ***acha // ocha*** deb atalgan [T.Nafasov, 19; N.Begaliyev, 83]. Shuningdek, qo'ng'irotlarning voxtamg'ali bo'limida ham shunday urug' nomi bor. Qoraqalpoqlar tarkibida ham ***osha // asha*** urug'i bor [S.Qorayev, 30; Z.Ziyotov, 31].

Shunga binoan bu mikrotoponimni ***ocha // acha*** urug'i vakillari yashaydigan qishloq, deb izohlash maqsadga muvofiq. Etnonim keyinchalik oykonimga o'tgan. Shunga ko'ra, ushbu mikrotoponim bir o'zakli etnooykonimlar sirasiga kiradi.

OCHABULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Bu mikrotoponim "***ocha // acha***" hamda "***buloq***" qismlaridan iborat.

Kenagaslar tarkibidagi urug'larning biri ***acha // ocha*** deb atalgan [T.Nafasov, 19; N.Begaliyev, 83].

"***Buloq***" so'zi esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 370].

Shunga asosan mazkur etnotoponim "*ocha // acha urug'i vakillari tomonidan bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq*" ma'nosini anglatadi va uni ot+ot tuzilishiga ega deb izohlash mumkin.

OCHAMAYLI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur va Urgut, Toshkent viloyatining Bekobod va Bo'ka, Qashqadaryo viloyatining Kitob hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanlari hududlaridagi qishloq va ovullar nomi.

Achamayli qo'ng'irot qabilasi, kenagas, yuz, do'rman, nayman, qurama qabilalari va vaxtamgali bo'lim urug'i. Achamayli etnonimi boshqa qabilalar, xalqlar, xususan, qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi (ashamayli). Ho'kiz va qo'toslar uchun belgilangan egar va bolalar uchun egar esa achamay deb nomlangan.

Ochamayli – "*urug' egari bilan*", "*egarni eslatadigan tamg'ali urug'*". Etnograf N.A.Aristov achamayli etnonimini qadimgi qabila ach nomi bilan bog'laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. –М. –Л., 1958.

2. Abdulla Jabbor. Namangan viloyati. – Namangan, 2011.

3. Abdullayev F. A. Xorazm shevalari. I. –T., 1961.

4. Abdullanoma: Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. –T., 1966, I jild, II jild, 1969.

5. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. –Т., 1966.

6. Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. –Л., 1971.

7. Абрамзон С.М. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. ТКАЭЭ, т. IV, 1960.

8. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1966.

9.Айтбоев Д. Тюркские этнонимы. –Н., 1986.

10. Avezov M.M. Arid o'lkalar toponimlarining tabiiy geografik asoslari (Buxoro viloyati misolida) (monografiya). –T.: Universitet, 2021.

11. Avezov M.M. Buxoro viloyatidagi geografik joy nomlari va ularning tabiiy geografik xususiyatlari // Professor Suyun Qorayev – zamondoshlari nigohida. Professor Suyun Qorayevning 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2015.

12. Avezov M.M., Jumayev I.S. Joy nomlarida hudud tabiiy sharoitining aks etishi (Buxoro viloyati toponimlari misolida) // Zamonaviy geografiya va O'zbekiston tabiiy-resurs potensialini baholash. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -T., 2015.

13. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Buxoro toponimiyasiga doir muhim manba // Geografiya fani va ta'limining zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T., 2015.

14. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari (monografiya). –T.: VNESHINVESTPROM, 2020.

15. Avezov M.M., Hamroqulova M.O'. Quyi Zarafshon tabiiy geografik o'lkasidagi joyning geografik o'rniga bog'liq toponimlar // O'zbekiston Geografiya jamiyati IX syezdi materiallari. –T., 2014.

16. Азимджанова С. А. Индийский диван Бабура. –Т., 1966.

17. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. –T., 1948.

18. Андреев М. Местности Туркестана, интересные в археологическом отношении. -Ташкент, «Средне-Азиатский вестник», 1896.

19. Андреев М. С. По Таджикистану. Отчёт экспедиции. 1925 г. –Т., 1927.

20. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане 1874–1889. –СПб, 1889.

21. Аристов Н. А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. «Живая старина», год VI. СПб, 1896.

22. Архангельский Н. П. Среднеазиатские вопросы географической терминологии и транскрипции. –Ташкент, 1935.

23. Асланов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 2005.

24. Атаниязов С. Топонимика Юго-восточного Туркменистана. Автореферат кандидатской диссертации. –Ашхабад, 1966.

25. Ахмадалиев Ю. И. Фарғона вилояти топонимлари. –Фарғона, 2009.

26. Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. –М., 1965.

27. Бакрон. Жаҳоннома – Мухаммад ибн Наджип Бакран, Джаханнаме (Книга о мире). Издание текста, введение и указатели Ю.Е.Борщевского.

28. Бартольд В. В. Сочинения, т. I. –М., 1963.

29. Бартольд В. В. Сочинения, т. II. –М., 1964.

30. Бартольд В. В. Сочинения, т. III. –М., 1965.

31. Бартольд В. В. Сочинения, т. IV. –М., 1966.

32. Бартольд В. В. Сочинения, т. VI. –М., 1966.

33. Бартольд В. В. Сочинения, т. VII. –М., 1967.

34. Бартольд В. В. Сочинения, т. VIII. –М., 1970.

35. Бартольд В. В . Сочинения, т. IX. –М., 1972.

36. Бартольд В. В . Историко-географический обзор Ирана. –СПб., 1903.

37. Баскаков Н. А. Тюркские языки. –М., 1959.

38. Begmatov E. Joy nomlari – Ma'naviyat ko'zgusi. – T., 1998.

39. Begmatov E. O'zbek ismlari. –Toshkent, 1998.

40. Begmatov E., Uluqov N. Onomastik terminlar izohli lug'ati (bibliografik ko'rsatkich). –Namangan, 2006.

41. Беляев Б.И. Арабские источники по истории туркмен IX–XIII вв. МИТТ, т. I. –М. –Л., 1939.

42. Бернштам А.Я. Памятники старины Таласской долины. Историко-археологический очерк. –Алма-Ата, 1941.

43. Boburnoma: Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., 1960.

44. Бобоёров Ғ. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси // «Ўзбек халқининг келиб чиқиши, илмий-методологик ёндошувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Т., 2004.

45. Бобоёров Ғ. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). Тошкент: Yangi nashr, 2010.

46. Бобоёров Ғ. Ўзбекистон ҳудудида Қорахонийлар давригача бўлган қадимги туркий топонимлар // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар, "Карим Шониёзов ўқишлари" туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари, 1–қисм. – Тошкент, 2005.

47. Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков. Известия отд. общественных наук. АН Таджикской ССР. –Душанбе. Вып. II. 1952.

48. Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тефсира XII–XIII вв. –М., 1963.

49. Боровков А.К. Бадаи ал-луғат – словарь Тали имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. –М., 1956.

50. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, т. I–II. СПб., 1869–1871.

51. Bo'riyeva X. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)yu –T., 2009.

52. Buxoro tarixi: Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1966.

53. Vahobov M. O'zbek sosialistik millati. –T., 1960.

54. Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. СПб., –М., 1877.

55. Веселовский С.Б. Топонимика на службе у истории. «Исторические записки», выпуск. – М., 1945.

56. Вильданова А.Б. Бухарские ирригационные и канцелярские термины. «Народы Азии и Африки», 1964.

57. Вильданова А.Б., Чехович О.Д. Об общином землепользовании, обозначаемом термином «пайкал». «Народы Азии и Африки», 1965.

58. Винников Я.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине. – СЭС II. –Т., 1959.

59. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. –Л., 1934.

60. Востоков А.Х. Задача любителям этимологии. «Санкт-Петербургский вестник», СПб, 1812, № 2, сбр. 204–215.

61. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета, СКСО, вып. VII. 1902.

62. Вяткин В. Памятники древностей Самарканда, изд. 3-е. –Т., 1933.

63. Гафуров А. Рассказы об именах. –Душанбе, 1968.

64. «Географические названия» («Вопросы географии», т. 58). –М., 1962.

65. Гребенкин А.Д. Узбеки. Сб. «Русский Туркестан», вып. 2. –М., 1872.

66. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зерафшанского округа. – СРТ. Вып.II, 1872.

67. Губаева С.С. Этническая история населения Ферганы конца XIX – начала XX вв. (По данным топонимии). –Т., 1983.

68. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Докторская диссертация. –Т., 1957.

69. Гулямов А.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Ташкент, 1957.

70. Дамбе В.Ф. Исследования по вопросам топонимики Латвийской ССР. –Рига, 1962.

71. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –Toshkent, 1968.

72. Дульзон А.П. Вопросы этимологического анализа русских топонимов субстратного происхождения. –ВЯ, 1959.

73. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимов Хорезма. Дисс. док. фил. наук. –Т., 1989.

74. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. –Toshkent, 1985.

75. Do'simov Z. Xorazmdagi tarixiy nomlar // Filologik tadqiqotlar. –Urganch, 2000.

76. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T., 1977.

77. Do'simov Z. Shimoliy Xorazm toponimlari. Nomzodlik dissertasiyasi. –Toshkent, 1970.

78. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T., 1964.

79. Jalilov S. Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixidan. –Toshkent, 1977.

80. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции», т. I. –М., 1952.

81. Жучкевич В. А. Топонимика. –Минск, 1965.

82. Жуковский В. А. Древности Закаспийского края. Развалины Старого Мерва, СПб., 1894 (МАР, вып. 16).

83. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. –Toshkent, 1969.

84. Загоровский В.П. Как возникли названия городов и сел Воронежской области. –Воронеж, 1966.

85. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи. – Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т.I.//Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948. –М., 1952.

86. Закиров А. Лексико-семантическая характеристика этнонимов Джизакской области; Исследования по лексике и фразеологии языков разных систем. –М., 1990.

87. Закиров А. А. Топонимия Джизакской области Узбекской ССР; автореф. дисс. кан. фил. наук. –М., 1991.

88. Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – ТКИПС, 1925.

89. Зафарнома – Шарафиддин Али Яздий, Зафарнома. –Тошкент, 1972.

90. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, 1960.

91. Захириддин Мухаммад Бабур. «Бабур-наме». –Ташкент, 1958.

92. Зинин С. И. Ономастика Республик Средней Азии и Казахстана. Краткий библиографический указатель литературы за 1917–1972 гг. –М., 1972.

93. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. –Toshkent, 1959.

94. Иванов П. П. К истории развития горного промысла в Средней Азии. Краткий исторический очерк. –Л. –М., 1932.

95. Иванов П.П. Из области Среднеазиатской хозяйственной терминологии. ИАН–ООН, 1935.

96. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI–XVII вв. – М. – Л., 1954.

97. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940.

98. Ishayev A. Shimoliy Xorazmdagi ba'zi toponimik nomlarning etimologiyasi // filologiya masalalari. Toshkent davlat chet tillar ped.in-ti asarlari. –Toshkent, 1963.

99. Yo'ldoshev M. X. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. –T., 1959.

100. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.

101. Каримова Л.Г. Топонимы североузбекских говоров. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Ташкент, 1972.

102. Кармышева Б.Х. О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков (по этнографическим данным). Труды международного конгресса востоковедов. Т. III. –М., 1960.

103. Кармышева Б. Х. Сведения об узбекских родах семиз и кесамир. Труды АН Тадж. ССР. –Ташкент, XVIII, 1953; Сборник статей по истории и филологии Средней Азии, посвященный А. А. Семенову. –Сталинабад, 1953.

104. Кармышева Б. Х. Очерки этнографической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М., 1976.

105. Карпенко Ю.А. Топонимия Буковины. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Киев, 1967.

106. Конкашпаев Г.К. Казахские народные географические термины. «Изв. АН Казахской ССР», № 99, серия географическая, вып. 3. –Алма-Ата, 1951.

107. Конкашпаев Г. К. Словарь казахских географических названий. –Алма-Ата, 1963.

108. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абул-Гази-хана хивинского. –М. –Л., 1958.

109. Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак в тюркской географической терминологии // Изв. отд. общественных наук АН Таджикской ССР. –Душанбе, 1954.

110. Крачковский И.Ю. Арабские географы и путешественники. ИГГО. Т. L.XIX, 1937.

111. Крачковский И.Ю. Бируни и его роль в истории восточной географии. «Бируни. Сборник статей под ред. С.П. Толстова». –М. –Л., 1950.

112. Кубаков К. О некоторых родоплеменных группах узбеков верхней Кашкадарьи. «Этнографическое изучение культуры и быта узбекского народа» –Т., 1972.

113. Кузеев Р. Г. Происхождение башкирского народа. –М., 1973.

114. Латипов Дж. Топонимия города Маргелана и его окрестностей (лингвистический анализ). Автореф. дис. филол. наук. –Т., 1975.

115. Лебедева А.И. Словообразование в псковской топонимике «Ученые записки» (ЛГУ), № 198, серия филологических наук. Вып. 24. – Л., 1956.

116. Лившиц В.А. Согдийские письма с горы Муг. –М., 1960 (XXV Международный конгресс востоковедов, Доклады делегации СССР).

117. Лившиц В.А. Два согдийских документа с горы Муг, ВДИ. 1960.

118. Лигети Л. Монгольские элементы в диалектах хазара в Афганистане. Краткие сообщения ин-та народов Азии. № 83, Монголоведение и тюркология. –М., 1964.

119. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары (очерки о Средней Азии). СПб., 1913.

120. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Вып. I–III. –СПб., 1909.

121. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом, т.I. – СПб, 1911.

122. Лойфман Н.Я., Попов С.А. Топонимические названия Оренбургской области. –Оренбург, 1960.

123. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. –Т., 1965.

124. Максудов Ф., Бабаяров Г. К этимологии топонима Чач // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Труды международной научной конференции. – Ташкент, 2009.

125. Максудов Ф., Бабаяров Г., Кубатин А. Чач – один из самых древних тюркских топонимов Центральной Азии // Тәуелсіздік таңы – достық нәрі (Ташкент қаласының 2200 жылдығына арналған ғылыми-теориялық конференция материалдары). Ташкент, 2009.

126. Маллицкий Н.Г. О некоторых географических терминах, имеющих отношение к Средней Азии «Изв. Всесоюзного географического общества», –Т. 77, вып. 5, 1945.

127. Маллицкий Н. Г. Учебное пособие по географии Таджикистана. –Ташкент-Сталинабад, 1929.

128. Маллицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мавза. – «В.В.Бартольд», –Т., 1927.

129. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. –М. –Л., 1951.

130. Мандельштам А.М. Материалы к историко-географическому обзору Памира и припамирских областей с древнейших времен до XX в. м. э. Сталинабад, 1957 (Труды ин-та истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР, т, LIII).

131. Марр Н.Я. Из переживаний доисторического населения Европы племенных и классовых в русской речи и топонимике. –Чебоксары, 1925.

132. Масальский В. И. Туркестанский край, СПб., 1913 (Россия Польное географическое описание нашего отечества, под ред. П.П.Семенова-Тян-Шанского. –Т. XIX).

133. Массон М.Е. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. –Ташкент, 1953.

134. Массон М.Е. Городища старого Термеза и их изучение. «Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936 г.». –Ташкент, 1940 («Труды УзФАН». ср. 1, вып. 2).

135. Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. –Ташкент, 1953.

136. Массон М. Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении. Труды САГУ, новая серия. Вып. XXXI. Археология Средней Азии. –Ташкент, 1956.

137. Массон М.Е. Новые картографические данные о прошлом Туркменистана XVIII в. Известия АН Туркменской ССР, №1, 1958.

138. Матвеев А.К. Историко-этимологические разыскания. «Ученые записки УралГУ, вып. 36. –Свердловск, 1960.

139. Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Арабские и персидские источники. Т. I (VII–XV вв.). Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А. Ю. Якубовского. Труды ИВ Академии наук, XXIX. –М. –Л., 1939.

140. Материалы по районированию Средней Азии, кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1, Бухара. –Ташкент, 1926.

141. Материалы по районированию Средней Азии, кн. II. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 2. Хорезм. –Ташкент, 1926.

142. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. –Тошкент, 1960.

143. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. II том. –Тошкент, 1961.

144. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том. –Тошкент, 1963.

145. Мгеладзе Д.С., Колесников Н.П. Слова топонимического происхождения в русском языке. –Тбилиси, 1965.

146. Минорский В. Ҳудуд ал-олам – Hudud al-Alam, Translaed and explaenen By V. Minorsky. –London, 1970.

147. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. –T.: "Fan va texnologiya nashriyoti", 2009.

148. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Buxoro viloyatidagi xorologik va xronologik oykonimlar // O'zGJ axboroti. 47-jild. –T., 2016.

149. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Buxoro viloyati geografik joy nomlarining o'rganilish tarixi // O'zGJ axboroti. 46-jild. –T., 2015.

150. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Hududiy toponimiya va geografik joy nomlarining rayonlashtirilishi // Farg'ona vodiysi tabiatidan foydalanish va muhofaza qilishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. II qism. –Namangan., 2014.

151. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Asrorov D.Q. Vobkent tumani toponimlari (monografiya). –T., "MUMTOZ SO'Z", 2017.

152. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Shamuratova N.T. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugidagi fitonim va zoonimlar // Zamonaviy geografiya va O'zbekiston

tabiiy-resurs potensialini baholash. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T., 2015.

153. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. O'lkamiz o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishda joy nomlarining o'rni // Orol dengizi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik ofatning atrof-tabiiy muhitga ta'siri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Buxoro, 2015.

154. Монгольско-русский словарь. –М., 1957.

155. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». –Ташкент, 1966.

156. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. –М., 1984.

157. Мурзаев Э. М. Средняя Азия. –М., 1957.

158. Мурзаевы Э.В. Словарь местных географических названий. –М., 1959.

159. Мусин Р. Сўз мағзидан ер бағрига. –Тошкент, 1967.

160. Муталлибов С.М. «Дивану лугат-ит турк» Махмуда Кашгарского. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Ташкент, 1967.

161. Муҳаммаджонов А.Р. ва Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Я. Ғ. Ғуломов таҳрири остида. –Тошкент, 1957.

162. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. –Toshkent, 1972.

163. Muhammadjonov A.R. "Dahkat" oykonimining etimoni va "kat" substrati // O'zbek tili va adabiyoti, 2000.

164. Muhammadjonov A.R. Namangan toponimining etimologiyasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1993.

165. Muhammadjonov A.R. "Kalobod", "Kalhovuz", "Kalos", "Miyonkol" gidronimlari va "kal", "kol", "kolot" substratlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 2004.

166. Набиев Р. Н. Новые документальные материалы к изучению феодального института «Союргал» в Фергане XVI–XVII вв., Известия АН УзССР. Серия общественных наук, № 3, 1959.

167. Наимов С.Н. Ойконимы Бухарской области. Автореф.дис.канд.филол. наук. –Ташкент, 1984.

168. Naimov S.N. Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Buxoro, 1997.

169. Narshaxiy. Buxoro tarixi. –Toshkent, 1966.

170. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (O'zbekistoning janubiy rayonlari). –Toshkent, 1988.

171. Nafasov T. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan? –Toshkent, 1989.

172. Nafasov T. O'zbek nomnomasi. –Qarshi, –Nasaf, 1993.

173. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –Toshkent, 2009.

174. Никонов В. А. Введение в топонимику. –М., 1965.

175. Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. –М., 1966.

176. Ne'matova Y. Zarkent oykonimi xususida / O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2-qism (Prof. Mazluma Asqarovaning 80 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam). – Toshkent, 2005.

177. Ne'matova Y. Kuymozor oykonimi // Til va tarjima muammolari: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Fan, 2007.

178. Ne'matova Y. Qipchoq urug'larini ifodalovchi etnonimlar asosida shakllangan oykonimlar / Til, tarjima va adabiyot kengliklarida (prof. N.Otajonov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Toshkent: Fan, 2007.

179. Ne'matova Y. Namangan viloyati oykonimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. falsafa dok. ... disser. – Farg'ona, 2018.

180. Ne'matova Y. Poramon // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011.

181. Ne'matova Y. Chindovul va Saroy oykonimlari xususida // O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. – Namangan, 2006.

182. Номинханов Ц.Д. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР. «Записки (Калмыцкий научно-исследовательский ин-т языка, литературы и истории)», вып. 2. Элиста, 1962.

183. Оллоёров Қ.М., Оллоёрова В.М. Халқ достонлари ономастикаси. – Тошкент, 2018.

184. Орлов А.Ф. Происхождение названий русских и некоторых западно-европейских рек, городов, племен, местностей. –Вельск, 1907.

185. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. Автореф.дис. канд.филол.наук. –Ташкент, 1978.

186. Oxunov N. Joylar va nomlar. –Toshkent, 1986.

187. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. –Toshkent, 1989.

188. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. –Toshkent, 1994.

189. Oxunov N. Til va joy nomlari. –Toshkent, 1988.

190. Петрушевский И.П. Земледелие и аграрные отношения в Иране XIII–XIV веков. –М., –Л., 1960.

191. Подольская Н.В. Исследование топонимики в связи с данными этнографии // «Материалы и исследования по русской диалектологии», 2. –М., 1961.

192. Попов А. И. Географические названия. –М. –Л., 1965.

193. Поспелов Е.М. Топонимика и картография (Географические названия). –М., 1962.

194. Поспелов Е.М. Современное состояние топонимики в СССР. Изв. АН СССР, серия географическая, 1966.

195. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий, т. I–IV. СПб., 1893-1911.

196. Рашид ад-диню Сборник летописей, т. I, кн.1, –М. –Л., 1952.; т. I, кн. 2, –М. –Л., 1952.

197. Решетов В.В. К вопросу о термине «курама» и кураминцах. Бюллетень АН УзССР. 1945.

198. Розенфельд А. З. Топонимика Нижнего Каратегина в связи с некоторыми вопросами его истории. «Известия отд. общ. наук АН Таджикской ССР». –Сталинабад, 1956.

199. Ромаскевич А.А. Персидские источники по истории туркмен и Туркмении X–XV вв. МИТТ, 1. –М. –Л., 1939.

200. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. СВ, №5, 1948.

201. Семенов А. А. К вопросу о происхождении Саманидов. – «Труды инта истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР». Т. XXVII. –Сталинабад, 1954.

202. Семенов А.А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани хана. – МИТУ, вып. I, ТИИАЭ АН Тадж. ССР, т.XII. 1952.

203. Семенов А. А. Материальные памятники иранской культуры в Средней Азии. –Сталинабад, 1945.

204. Семенов А.А. О среднеазиатском (бухарском) термине «агалык». Доклады АН Таджикской ССР, вып. III, 1952.

205. Семенов А.А. Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. –Ташкент, 1929.

206. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. –Сталинабад, 1954.

207. Семенов-Тян-Шанский В.П. Как отражается географический пейзаж в народных названиях населенных мест. –М.: «Землеведение», 1924.

208. Сергеев И.В. Тайна географических названий. –М., 1963.

209. Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий ВЯ. 1959.

210. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана, ИТОРГО, т. I, вып 2, 1900 (Список арыков и населенных пунктов).

211. Слоним И.Я. О происхождении некоторых географических названий. Страны и народы Востока. Выпуск 1. –М., 1959.

212. Смирнова О.И. Вопросы исторической топографии и топонимики верхнего Зарафшана // «Труды СТАЭ» т. I, 1946–1947 (МИА, № 15), 1950.

213. Смирнова О.И. Места домусульманских культов Средней Азии (по материалам топонимики), «Страны и народы Востока», вып. X. –М., 1971.

214. Смирнова О. И.Очерки из истории Согда. –М., 1972.

215. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе. ЗРГО, т. IV, 1874.

216. Соболевский А.И. Названия рек и озер русского Севера. «Известия 2 отд. Акад наук», т. 32. –Л., 1927.

217. Согдийские документы с горы Муг, вып. I. Чтение, перевод и комментарии А. А. Фреймана. –М., 1962.

218. Согдийские документы с горы Муг, вып. II. Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. –М., 1962.

219. Согдийские документы с горы Муг, вып. III. Чтение, перевод и комментарии М. Н. Боголюбова и О. И. Смирновой. –М., 1963.

220. Соколов Ю. А. Ташкент, ташкентцы и Россия. –Ташкент, 1966.

221. Список населенных пунктов Узбекской ССР. I–VIII части. –Ташкент, 1935.

222. Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX вв. –М., 1966.

223. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –М., 1976.

224. Сухарева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (куча, махалла, гузар). Народы Азии и Африки. –М., 1965.

225. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). –Ташкент, 1958.

226. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М., 1948.

227. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М. –Л., 1948.

228. Толстова Л.С. Некоторые вопросы исторической ономастики Хорезмского оазиса // Этнография имен. –М.: Наука, 1971.

229. Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии и её исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. –М.: Наука, 1978.

230. Топонимика Востока. –М., 1962.

231. Топонимика Востока (Новые исследования). –М., 1964.

232. Топоров В.Н., Трубачев О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верхнего Поднепровья. –М., 1962.

233. Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. –М., 1968.

234. Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района // Ономастика Средней Азии. –Фрунзе: Илим, 1980.

235. Туйчиев У. Этнонимы и этническая география Джамбайского района // Ономастика Средней Азии. 2. –Фрунзе, 1988.

236. Uluqov N. Beshatmon, Miyona gidronimlari // Filologiya masalalari (Tursunboy Nu'monovning 80 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Namangan, 2007.

237. Uluqov N. Jo'y, olish, kanda gidronimik aniqlagichlarining etimologiyasi va ma'noviy xususiyatlari // Til, tarjima va adabiyot kengliklarida (professor Ne'matilla Otajonov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Toshkent: Fan, 2007.

238. Uluqov N. Namangan viloyati fitogidronimlari xususida // O'zbek tilshunosligi muammolari. –T., 2003.

239. Uluqov N. Namangan viloyatidagi ariq nomlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2004.

240. Uluqov N. Namangan viloyatining "jo'y" tarkibli gidronimlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002.

241. Uluqov N. Norin gidronimi // Til va tarjima muammolari: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Fan, 2007.

242. Uluqov N. Oqbura va Ulug'nor gidronimlari xususida // Aktualniy problemi filologii: Materialы regionalnoy nauchnoy konferensii. – Namangan, 2009.

243. Uluqov N. "Saddi Iskandariy"dagi gidronimlar xususida //Navoiyga armug'on. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2003.

244. Uluqov N. Sirdaryo gidronimi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2007.

245. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008.

246. Uluqov N., Ne'matova Y. "Qizilravot" va "Uchqo'rg'on" etimologiyasi xususida // Til va adabiyot ta'limi, 2012.

247. Умняков И.И. Значение трудов акад. В.В. Бартольда по истории Средней Азии, – МПВНКВ. С. 675–682; ср.: журн. «Фан ва турмуш», 1957, № 3.

248. Умурзаков С. Очерки по истории географических открытий и исследований Киргизии. –Фрунзе, 1959.

249. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. т. I. –Ташкент, 1966.

250. Фазылов Э.И., Зияева М.Т. Изысканный дар тюркскому языку. –Ташкент, 1978.

251. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843.

252. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. –СПб., 1876.

253. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек исмлари имлоси доир//Низомий номидаги Тошкент давлат университети конференция материаллари. –Тошкент, 2007.

254. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек исмларининг имлоси хусусида//Филологик тадқиқотлар. –Тошкент, 2008.

255. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. –Урганч, 2023.

256. Xudoyberganov R.Y. Joy nomlari – Vatan tarixini o'rganishda muhim manba//Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Urganch, 2013.

257. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. –Ташкент, 1965.

258. Чехович О.Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. –М., 1974.

259. Чехович О.Д. О некоторых терминах среднеазиатских актов. Иранская филология. Труды научной конференции по иранской филологии. –Л., 1964.

260. Чехович О.Д. Терминологические заметки. «Народы Азии и Африки». 1964.

261. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Ташкент, 1974.

262. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Ташкент, 1964.

263. Шарафуддин Али Язди. «Зафар-наме». –Ташкент, 1972.

264. Шишкин В.А. К исторической топографии Старого Термеза. – «Труды УзФАН, сер. 1, вып. 2, 1940 (Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936 г.).

265. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent, 1962.

266. Шостакович В.Г. Историко-этнографическое значение названий рек Сибири. «Известия Восточно-Сибирского отдела русского географического общества». –Иркутск, 1926.

267. Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X–XIII вв. из Восточного Туркестана. –М. –Л., 1961.

268. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. –М., 1965.

269. Юлдашев М.Ю. К историй крестьян Хивы XIX века. –Ташкент, 1966.

270. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. –Ташкент, 1941.

271. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. –Toshkent, 2020.

272. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. –Toshkent, 2020.

273. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. –Toshkent, 2020.

274. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. –Toshkent, 2020.

275. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. –Toshkent, 2020.

276. O'rinboyev B. Jizzax viloyati toponimlari. –Jizzax, 1992.

277. O'rinboyev B. Samarqand viloyati toponimlarining izohli lug'ati. – Samarqand, 1997.

278. Qorayev S. Geografiya darsliklaridagi termin va geografik nomlar to'g'risida. 1953.

279. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? –Toshkent: O'zdavnashr, 1970.

280. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. –Toshkent: O'zdavnashr, 1978.

281. Қораев С. Географические названия и термины УзСЭ – свод знаний (К завершению издания Узбекской Советской энциклопедии). –Ташкент, 1981.

282. Қораев С. География этнотопонимов Узбекистана. Тезисы XI го международного конгресса по ономастике. –София, 1972.

283. Қораев С. Древнетюркские топонимы Средней Азии. Тезисы XI го международного конгресса по ономастике. –София, 1972.

284. Қораев С. К выходу топонимического словаря – рецензия (В.А.Никонов. Краткий топонимический словарь). //Общественные науки в Узбекистане. –М., 1967.

285. Кораев С. К этимологии топонимов «Сибир» и «Шибер»// «Общественные науки в Узбекистане», 1966.

286. Qorayev S. Navoiy va toponimika// «O'zbek tili va adabiyoti», 1968.

287. Qorayev S. SSSRdagi geografik nomlar lug'ati. –Toshkent: O'zdavnashr, 1964.

288. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006.

289. Qorayev S. Toshkent toponimlari. –Toshkent: Fan, 1991.

290. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O'ZKP MK nashriyoti, 1970.

291. Qorayev S. Etnonimika. –Toshkent: O'zbekiston, 1979.

292. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

293. Qorayev S. O'zbekiston Respublikasi geografik nomlarining o'zbek tilida yozilishi asosiy qoidalari. –Toshkent. O'zgeodezkadastr, 2004.

294. Qorayev S. O'zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so'zlar lug'ati. –T.: O'zgeodezkadastr, 2001.

295. Qorayev S., G'ulomov P., Rahimbekov R. Geografik nomlar va tushunchalar izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1980.

296. G'aybullayev S. Qorako'l vohasi toponimlari. –T., 2015.

297. G'ulomov Ya. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. –M., 1959.

298. Hakimov Q.M. Kartadagi so'z. –T.: "VNESHINVESTPROM", 2018.

299. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. –Jizzax: "Sangzor" nashriyoti, 2014.

300. Hasanov H. Beruniy asarlarida toponimika // Beruniy va ijtimoiy fanlar. –T., 1972.

301. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. –Toshkent, 1964.

302. Hasanov H. Geografik nomlar siri: ilmiy-ommabop ta'rif. –Toshkent, 1985.

303. Hasanov H. Yer tili. –T., 1977.

304. Hasanov H. Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., 1966.

305. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. –Toshkent, 1965.

UO‘K 81.2–3(5O‘)
KBK 81’373.21 (575.1)(038)
O‘ 23

O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn] : lug‘at / tuzuvchilar R.Y. Xudoyberganov, N. Uluqov [va boshq.]; – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 460 b.

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

I JILD

A – O

Muharrir *Habib Abdiyev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhihlar: *Adolat Mustafoyeva, Iroda Umarova, Sanjar Ergashov*
Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Aliyeva*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2024-yil 3-oktyabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Ofset bosma. 26,0 shartli bosma taboq. 20,3 nashr tabog‘i.
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz **info@gglit.uz.**



O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

II

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

II

G‘AFUR G‘ULOM

ISBN 978-9910-9137-3-0


G‘AFUR G‘ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

IKKI JILDLI

TOSHKENT – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

IKKINCHI JILD

P – Ch

G‘AFUR G‘ULOM NOMIDAGI
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2024

UO'K 81.2–3(5O')
KBK 81'373.21 (575.1)(038)
O' 23

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
Davlat tilini rivojlantirish departamenti
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi

Tahririyat a'zolari:
N.D. To'ychiyev, N.J. Xolbo'tayev, A.K. Qirg'izboyev (t.f.d., prof.); **N.M. Mahmudov** (f.f.d., prof.); **T.M. Abdullayev** (t.f.n., dots.)

Muvofiqlashtiruvchi
U.A. Mahmudov

Tuzuvchilar:
R.Y. Xudoyberganov (f.f.n., dots.v.b.); **N.Uluqov** (f.f.d., prof.); **G'.Boboyorov** (t.f.d.,prof.); **M.B. Abdiyev** (f.f.d., prof.); **M.T. Mirakmalov** (g.f.d., dots.); **T.J. Enazarov** (f.f.d., prof.); **A.Sobirov** (f.f.d.,prof.); **B.Qlichev** (f.f.d., prof.); **D.Yo'ldoshev** (f.f.d., dots.); **R.Shukurov** (f.f.d.,prof.); **V.T. Nafasova** (f.f.n., dots.); **A.M. Turobov** (f.f.d.); **I.Ermatov** (f.f.d.); **O'.X. Rajabov** (f.f.n., dots.); **O'.A. Oripov** (f.f.n., dots.); **Sh.A. Temirov** (f.f.f.d.); **H.To'rayev** (t.f.d., prof'); **O.Bo'riyev** (t.f.d.); **X.O. Bo'riyeva** (t.f.f.d.); **Y.Ahmadaliyev** (g.f.d., prof.); **Q.Hakimov** (g.f.n., prof.); **K.M. Seytniyazov** (g.f.n.); **Y.Ne'matova** (f.f.f.d.); **G.Jo'raboyeva** (f.f.f.d.); **O.Boltabayev, M.M. Avezov, Sh.Bekturdiyev, S.G'aybullayev**

Mas'ul muharrirlar:
Z.Do'simov (f.f.d., prof.); **N.Uluqov** (f.f.d., prof.); **R.Y. Xudoyberganov** (f.f.n., dots.v.b.)

Taqrizchilar:
A.D. O'rozboyev (f.f.d.); **Y. Odilov** (f.f.d.,prof.)

O'zbekiston Respublikasidagi joy nomlari nihoyatda ko'p va rang-barang bo'lib, ular mazmunan boy hamda tarixiy sanaladi. Mazkur lug'atda katta obyektlar, tarixiy va ayrim zamonaviy nomlar jamlangan. Asosiy maqsad, ushbu joy nomlarining ma'nolarini aniqlash va belgilab olish hamda kelgusida shu sohada ilmiy-tadqiqot olib boruvchi izlanuvchilar uchun zamin hozirlash, eng asosiysi, yoshlarga mazkur nomlarning ma'nolarini bekam-u ko'st yetkazishdan iborat.

Ayni paytda, ushbu kitob joy nomlarining lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida yozilishi har bir kitobxonga, qolaversa, rasmiy idoralar va tashkilotlarga ko'mak beradi.

Mazkur lug'at O'zbekiston Toponimika jamiyatining yig'ilishida muhokama qilinib, 2024-yilning 3-iyun 4-son bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan. Ushbu kitob ikkinchi nashr bo'lib, unga tarixiy joy nomlarining ayrimlarigina kiritildi. Kelgusida kitobxonlarning taklif va mulohazalarini inobatga olib to'ldirilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9910-9137-3-0

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024



P

PAHLAVONLAR – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomi. Mazkur toponim *Pahlavon* va *-lar* unga ko'plik qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'lgan.

Pahlavon so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'noda qayd etiladi: *"Barvasta va zabardast, jismoniy baquvvat, bahodir; botir, qahramon"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 245-bet).

PALANDARA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Forscha **palang** – *yo'lbars, qoplon* ma'nosidadir.

Demak, **Palangdara** toponimi *qoplonlar darasi* ma'nosini anglatadi.

PANGAT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. T.Nafasov bu so'zni sug'd tiliga mansubligini ko'rsatib, u ikki morfemadan, ya'ni *pan+gat* dan tuzilganligini qayd qiladi. Birinchi qismi *pan-par-bar – yuqori, baland*. So'nggi qismi aslida **kat** (*qo'rg'on, hovli, qal'a, ovul, qishloq*) bo'lgan, **par** so'zi bilan birikib nom yasalgach, so'nggi davrlarda fonetik o'zgarishga uchragan: *parkat – pargat – pangat.*

Shunday ekan, **Pangat (–parkat)** – *yuqori qo'rg'on qishloq* ma'nosini bildiradi (Nafasov, 1988: 153).

Qashqadaryo viloyati Oltinsoy tumanida ham Pangat nomli qishloq bor.

PANJOB – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Mahalla hududida 1889-yilda musulmonchilikning shiya mazhabidagilar uchun mahalliy me'mor va savdogar Xo'ja Abdurayim tomonidan eski masjid o'rnida madrasa qurdirilgan.

"***Panjob***" nomi forscha so'z bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***panj*** – *besh* va uning komponenti ***ob*** – *suv* ma'nolarini bildiradi.

PARAK – daryo. Toshkent viloyatidagi Chirchiq daryosi nomlaridan biri. Ilk bor "Hudud ul-olam", (9b, 24b, **Rud-i Parak)** hamda arab geograflari – Istaxriyda (БАГ, I, С. 109); Muqaddasiyda (БАГ, III, С. 52, 423, 428, 454) **Nahr-i Parak** sifatida tilga olinadi.

Arab geograflari daryoni **Nahri Turk** – *Turk daryosi* deb nomlashadi (БАГ, I, С. 344, 345; БАГ, III, С. 383, 404, 405). **Parak** *(yoki* **Farak***)* shakli bilan bir qatorda, **Turk** shakli ham amalda qo'llanilgan, keyingi o'rta asr-

lar fors manbashunoslarining fikricha, xususan, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida, hatto, **Nahr-i Turkiston** varianti ham mashhur bo'lgan (Истахри-БАГ. I. С. 344).

Chirchiq daryosi Firdavsiyning "Shohnoma"sida ham "Turk" shaklida qayd qilingan. Istaxriy *Nahri Turkiston* deb aniq yozgan. Keyingi manbalarda (XV–XVI asrlar) ham daryoning *Obi Turk* (Sharafiddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", -Toshkent, 1972) va *Obi Farak* (Hofiz Tanish Buxoriy, "Abdullanoma" – Toshkent, 1969., I jild) variantlari uchraydi.

Demak, mazkur daryo XVI asrdan *Chirchiq* deb atala boshlagan bo'lsa ham, qadimda va so'nggi davrgacha *Parak* va *Turk* deb ham yuritilgan. Keles daryosining bir irmog'i *Oq Parak,* Nishboshsoyning (Chirchiq havzasi) bir irmog'i *Parak* deb ataladi. Demak, *parak* (to'g'risi – *par)* qadimiy geografik termin bo'lsa kerak *(Parkent* toponimini eslang). Ba'zilar *par* so'zi *"yuqori", "yuksak"* degan ma'noni bildiradi deyishadi, *par* qadimgi eroniy tilda *var – "qal'a"* so'zining talaffuz shakli bo'lishi ham mumkin.

PARKENT – Toshkent viloyati tarkibidagi shahar va tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tarixiy manbalarda hozirgi Parkent nomi Parkat shaklida qayd qilingan. Nomning birinchi tarkibiy qismi bo'lgan par so'zining ilk shakli parak bo'lgan. Taniqli nomshunos olim Zarif Do'simovning yozishicha, ayrim o'zbek shevalarida parak so'zi – "to'siq, devor" ma'nosini anglatadi. Masalan, Kamparak (to'g'rirog'i, kanti parak – shahar devori) toponimi shu asosda yaratilgan. Qadimda Buxoro vohasidagi shahar va qishloqlarni o'rab olgan devor parak deyilgan.

Kent (kat, kad, kand) (sug'dcha "uy, hovli") – ilk va o'rta asrlarda Turonzaminda joy nomlari hosil qilishda faol qatnashgan topoformant. Sug'd yozuvi va arab geograflari asarlarida kat, kas, kand, kend shaklida uchraydi va dastlab "bir yoki bir necha oila yashaydigan, atrofi devor bilan o'ralgan hovli"ni anglatgan. Dastlab kat so'zining o'zi joy nomiga aylangan bo'lsa, keyinchalik kat so'zi qo'shimcha ma'no (qishloq, shahar) kasb etib, joy nomlarining tarkibiy qismiga aylangan. Mahalliy hamda arab tarixchi va geograflarining asarlarida, jumladan, Ibn Havqalning "Masolik ul-mamolik" asarida esa 40 dan ortiq kat birikmasiga ega joy nomlari keltirilgan.

Kat so'zining turli shakllari hozir ham qishloq va shaharlar nomi tarkibida saqlanib qolgan. Arab geografi Istaxriy Ohangaron vodiysidagi o'n to'rtta shahar va qishloqlar nomini tilga oladi, shulardan yettitasining tarkibida kat (kent) so'zi mavjud. Parkent (Parkat) – "devor bilan o'ralgan shahar" ma'nosini anglatadi.

PARMITAN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. Vaqf hujjatlarida **Farmiton** (**Farmitang**) qishloq si-

fatida qayd etiladi, ikkinchi komponent *mitan* esa "*qal'a*" (В.Л. Вяткин. СКСО – Справочная книжка Самаркандской области, вып. VII, 1902. С. 25) yoki "*qishloq*" ma'nosini ifodalaydi (Народы Средней Азии и Казахстана, I, -М., 1962. С. 138). *Par* komponenti eron tilida *"yuqori", "yuqorigi"* ma'nolarini bildiradi; Demak, **Parmitan – Yuqori Mitan** (*qarang*: **Mitan**).

PAROMOVUL – Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi qishloq nomi. Bu qishloq daryo bo'yida joylashgan bo'lib, daryodan kechib o'tish uchun parom shu qishloqqa nom tariqasida qo'yilgan. Qishloq shuning uchun ham *Paromovul* deb yuritilgan.

PARPI OTA – qabriston. Toshkent viloyatining Ohangaron va Jizzax viloyatining Jizzax hamda Zomin tumanlaridagi qabristonlar nomlari.

Parpi ota – *Parpining otasi, muqaddas, ko'pchilik kasalliklarni davolovchi "yordamchi"* qadamjo sanaladi.

PARTOVLIQ//PARTOV – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadimiy hudud nomi. *Partovliq, Partov* toponimlari. Mazkur nom tarkibidagi "*portov, bodrov*" so'zi yomon suvlar saqlanadigan joy ma'nosiga ega[1].

Bizningcha, bu so'z fors-tojikcha "*partidan*" – tashlamoq so'zi bilan bog'liq bo'lsa kerak, ya'ni *part + ab* – tashlandiq suv. Y.G'ulomovning ta'kidlashicha, bu so'z to'g'onning bekor yotgan qismida ortiqcha suvni qaytadan daryoga oqizadigan maxsus ikki tomonidan to'g'on bilan to'silgan joy deb izohlanadi[2].

Janubiy Qoraqalpog'iston shevalarida bu so'zning ma'nosi ancha toraygan. Toponim tarkibidagi *-liq* topoformant. Demak, bu toponimning etimoni: *padrav yoki badrav* (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

PARCHAQORA – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Parcha* etnonimlar tarkibida urug' va qabilalarning qoldiqlarini (bo'linmalarini) ifodalaydi, qabilaviy birlashish yoki yirik o'tmish qabilalari nomi ostida birlashtiradi. U kichkina qismni yoki urug'-qabila ittifoqlari yoki katta o'tmish qabilalarining qoldiqlarini ifodalashi mumkin (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа).

PARCHAQORACHANDIR – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Parcha va qorachandir – chandir urug'i tarmoqlaridir (**qorachandir** – *"qorako'lli chandir"* degan ma'nodadir) (Ataniyozov, 1980).

PARCHACHANDIR – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Parchachandir – chandir* urug'ining qoldiqlari

[1] Yo'ldoshev R. Toshovuz gruppa o'zbek shevalaridagi qadimgi turkiy so'zlar // O'zbek tili va adabiyoti. 1985.-№4. – B.56.

[2] G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B.271.

(qarang: ***Chondir)***. Mazkur qishloq shu sababli ana shunday nom olgan.

PARCHAYUZ – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin va Toshkent viloyatining Bekobod tumanlaridagi qishloq nomi. *Parcha* (forscha erkalash-kichraytish affiksi *"pora"*) – *parcha, qoldiq, nimaningdir kichkina qismi* (Л.Будагов. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, ч. I. С. 308).

Parcha termini o'zbek qabilalarining qator nomlarida uchraydi: *parchaburqut, parchaqaramang'it, parchamitan, loqayparcha, parchaqipchoq* va boshqalar. *Parcha* termini urug' va qabilalarning turli qoldiqlari yoki qabilaviy birlashishlarini ifodalaydi.

Shuningdek, u kichkina qismni yoki urug'-qabila ittifoqlari yoki katta o'tmish qabilalarining qoldiqlarini ifodalashi mumkin. Agarda shunday bo'lsa, *parchaqipchoq* qipchoq bo'lmagan urug' va qabilalar hamda qator qipchoq qismlarini birlashtiradi. Bu xususida *parchaqipchoq* birlashmasiga kiradigan urug' nomlari va ularning tarkibi guvohlik beradi (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974).

PASRA – Toshkent shahridagi Salor arig'ining chap tomonidagi mavze nomi (tarixiy toponim, hozirda mavjud emas). Mazkur toponim *"kichik ekin maydoni, ozroq ekin ekish"* degan ma'noni anglatadi. Ayrim hollarda tomorqa ham ***Pasra*** deb yuritiladi.

Pasra fors tilida *"yirik yer egalari kambag'allarga ma'lum soliq solib ajratilgan yer"* ma'nosini bildiradi (Персидско-русский словарь. Т. I., –М. –с.261).

Toponim ***Pasrah*** so'zi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Chunki so'z oxirida ***h*** tovushining tushib qolishi o'zbek tili uchun xos xususiyatdir. Pasrah esa *"Qorovulxona, jamoa punkti, kuzatuv joyi"* degan ma'noga ega (Персидско-русский словарь. Т. I., –М. –с.264).

Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida Pasra deb ataladigan qishloq bor.

PASTDARG'OM – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman nomining kelib chiqishini mahalliy tilshunos, toponimistlar daryo (darg'om)ning quyisi (quyisidagi yer, hudud) deb izohlaydilar. Haqiqatan ham Zarafshon daryosining pastki qismida joylashgan Darg'om kanali tuman hududidan oqib o'tadi. Darg'om – Zarafshon daryosidan chiqadigan qadimiy kanal, ariq. Kanal uzunligi 100 kilometrga yaqin. Qadimiy kanal haqida Bobur ensiklopediyasida shunday ma'lumotlar berilgan: "Darg'om – Samarqand shahrining janub tomonidan oqib o'tuvchi katta ariq (kanal). Ko'hak (Zarafshon) daryosidan boshlanadi va Samarqand atrofidagi Shovdor va Anhor tumanlarini hamda shaharning o'zini suv bilan ta'minlaydi. Qadimiy ariq ekanligi manbalarda qayd etilgan. Bobur Samarqand shahri va viloyatini tavsiflar ekan, Darg'amni ham tilga olib o'tgan. Jumladan, Bobur

Samarqandga yurishlarining birida (1500-y.) Darg'am yoqasiga tushgan".

Kanal Zarafshon daryosidagi to'g'ondan boshlanib, Navoiy viloyatidagi Ulus cho'lida tugaydi. Tarixiy manbalar ariqning eramizdan avvalgi V–IV asrlarda qazilganidan xabar beradi. Klavdiy Ptolemey tuzgan kartada (II asr) bu ariq nomi Dargomoniy shaklida tilga olinadi. Toponimning ikkinchi tarkibiy qismidagi *darg'om* so'zini mutaxassislar quyidagicha izohlaydilar: darg' – "uzun", ob – "suv". Binobarin, nomning ilk shakli Darg'ob – "uzun yoki katta suv" demakdir.

PASTGUZAR – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat. Demak, *Pastguzar* toponimi "*Pastda, quyida joylashgan qishloq, daha yoki guzar*" ma'nosini anglatadi.

PASTKIARIQ – ariq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi ariq nomi. Pastki quduq, Pastki mo'g'ol (Bulung'ur), Pastkiguzarariq (Urgut tumani) kabi nomlar obyektlarning joylashgan geografik o'rnini bildiradi.

PASTKI ARCHA – qishloq. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. Toponimikada relyefga nisbatan qo'yiladigan joy nomi. Biror obyektning ikkinchisiga nisbatan quyida, etakda joylashganligini anglatadi. Viloyatdagi Pastki Beshkapa, Past Ko'prik, Pastki Mahalla, Pastki To'lash, Pastki Yakkatut kabi nomlar shu asnoda vujudga kelgan.

PASTKI NAVKAT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "***Navkat // navqat // novkat***" mikrotoponimining ibtidoiy shakli "***nav(i)***" va "***ke(n)t***" bo'lib, u o'zbekcha *Yangiqo'rg'on, Yangiqishloq, Yangishahar* nomlari bilan bir xil ma'nolarni bildiradi [N.Begaliyev, 80].

Ana shu qishloqning pastki qismida barpo etilgan yangi qishloq keyinchalik "***Pastki navkat***" deb yuritilgan [B.O'rinboyev, 153].

PASTKI QO'SHTAMG'ALI – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***past***", "***-ki***" va "***qo'shtamg'ali***" qismlaridan iborat. Qo'ng'irotlar, marqa, jetiurug' qabilalarining tarkibida qo'shtamg'ali degan shoxobcha bo'lgan [S.Qorayev, 1, 185-186; T.Nafasov, 264-265; S.Qorayev, 2, 155; Z.Ziyotov, 215; N.Begaliyev, 143].

Shunga binoan bu etnotoponimni pastki qismda joylashgan qo'shtamg'ali urug'i vakillari yashaydigan maskan, qishloq, deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Asl toponimik ma'noning tiklanishiga xizmat qiluvchi muhim jihat sifatida olimlar shakllanishining grammatik, ayniqsa, morfologik jihatlarini nazarda tutish zarurligi, shuning uchun ham joy nomlarining lingvistik modelining aniqlanishini, so'z tarkibida muayyan tuzilishda ishtirok etayotgan har bir birlikdagi leksik-semantik xususiyatlarni obyektiv o'rganish zarurligini alohida ta'kidlamoqdalar[1].

[1] Rajabov O'.X. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol.fan. nomz. dis.avtoref. – Toshkent, 2009, 8-bet.

PASTKI SHOVVA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***past***", "***-ki***" va "***shovva***" qismlaridan iborat.

"***Shova // shovva***" so'zi "*suvning balandlikdan kuch bilan otilib, shovullab tushadigan joyi, sharshara*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 587].

T.Nafasov ham bu nomni "*yuqoridan quyiga oqib tushgan suv, sharshara*", deb izohlaydi [T.Nafasov, 219].

PATAS – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. Ilmiy manbalarda Jilontamg'ali (Ilontamg'ali) guruhi urug'laridan biri *patas* deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 97. X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 80-bet).

PATTA – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur **Patta** toponimi *o'tinxona, o'tin vazifasini o'taydigan buta* ma'nosini anglatadi.

PATTAKESAR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi qishloq nomi. M.Y.Massonning fikrlariga ko'ra, bu yerda Amudaryodan o'tayotgan sayyohlarning narsalari tekshirilib, hujjatlar rasmiylashtirilardi – *patta; kesar*, aniqrog'i, *hisar – "shahar"*.

Boshqa variant bo'yicha **Pattakesar** – *patta butalari (to'qay teragi) kesiladigan joy.* "Maxobxorat"da saklar, toxarlar va kannlarning sovg'alari qatorida patta daraxtidan olingan matolar ham esga olinardi (М.Е. Массон. Городища Старого Термеза и их изучение. Труды АН УзССР, серия I, история, археология, выпуск 2. Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936. – Т., 1941. С. 104).

PAXTABOSHI – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Samarqand viloyatining o'sha hududlaridagi bo'z yerlar o'zlashtirilgach, paxta dalasining boshida yangi tashkil etilgan qishloq shunday deb atala boshlangan.

PAXTAGUL – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat. **Paxta** – "*o'simlik*" va **gul** – "*yopiq urug'li o'simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan gulband qismi*" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nom.

PAXTAKOR – tuman. Jizzax viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Ushbu termin "paxta yetishtiruvchi, paxta teruvchi" ma'nosini ifodalab, mazkur hudud faqatgina paxta yetishtirishga mo'ljallanganligini bildiradi.

Paxtakor tumani 1967-yil 9-yanvarda tashkil etilgan, Paxtakor tumanining umumiy maydoni 0.38 ming kv km, 37 ming 741 ga, chegara uzunligi 102,8 km. U Sirdaryo viloyatining Do'stlik, Zarbdor, Sharof Rashidov hamda Zafarobod tumani bilan chegaradosh. O'sha davrlarda tuman asosan paxta yetishtirgan bo'lsa, so'nggi yillarda tuman iqtisodiyoti chorvachilik, bog'dorchilik, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va poliz mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sohalariga ixtisoslashdi.

Xorazm viloyatining Gurlan, Xonqa va Qo'shko'pir tumanlaridagi mahallalar nomlari ham Paxtakor nomi bilan atalgan.

Bunday nom respublikamizning ko'plab hududlarida uchrashi va ko'p sonli aholi punktlari nomi ekanligini ta'kidlash lozim.

PAXTAQAYNAR – qishloq. Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim *paxta* va *qaynar – qaynamoq* fe'li asosidagi kelasi zamon sifatdoshi asosida hosil qilingan.

Demak, **Paxtaqaynar** toponimi *"ko'p paxta yetishtiriladigan joy"* ma'nosini bildiradi.

PAXTAOBOD – tuman. Andijon viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1975-yilga qadar Qo'qon qishloq deb atalgan. Nom paxta va obod so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi qismi paxta – g'o'za o'simligining nomi. G'o'za o'simligining momig'i ham paxta deb ataladi. Oykonimning ikkinchi komponenti obod so'zi esa ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab yashnagan" ma'nosidagi so'z.

Shuningdek, Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi ham Paxtaobod deb ataladi. Qishloq 2014-yilga qadar Qirg'izon deb atalgan. Toponimning asosini tashkil qiluvchi qirg'iz so'zi xalq nomi, etnonim. Toponim tarkibidagi -on ko'plik affiksi. To'g'ridan-to'g'ri Qirg'izon – "qirg'izlar" demakdir. Xalq etimologiyasiga ko'ra, shu yerlik bir boy savdogar faqat qirg'izlardan kelin qilgan va uni mahalliy aholi "qirg'izxon" deb atagan. Qishloq nomiga mazkur epitet sabab bo'lgan emish.

Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda Paxtaobod deb o'zgartirilgan. Paxtaobod ko'p sonli aholi punktlari, hatto kanallar nomi bo'lib, u "paxta ekib o'zlashtirilgan joy" ma'nosidadir yoki paxtaga asoslangan va paxta tufayli obod qilingan aholi punktidir.

PAXTACHI – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1935-yili dastlab Paxtakor, keyinchalik 1973-yili Paxtachi nomi bilan qayta tashkil etilgan. Tumanni nomlashda ham shu hududda yashaydigan aholining asosiy xo'jalik faoliyati bo'lgan paxtachilik muhim belgi vazifasini bajargan.

Paxta – g'o'za o'simligining tola va chigitdan iborat asosiy mahsuloti. U to'qimachilik, yog'-moy, gidroliz, kimyo sanoati va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Nomning tarkibiy qismi bo'lgan *"-chi"* biror maqsadda qilinadigan faoliyat, harakat, ishni anglatadigan toponimik qo'shimcha. G'o'za ekish, paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon – paxtachi deyiladi.

PAXTACHILIK – Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi qishloq nomi. Demak, *Paxtachilik* toponimi *"paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchilar qishlog'i"* ma'nosini ifodalaydi.

PAYARIQ – tuman va shahar. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'mu-

riy-hududiy birlik. Tuman hududi Nurota tog' tizmalarining janubida joylashgan. Payariq shahri 1991-yilgacha Narimonovka posyolkasi deb yuritilgan. Payariq o'rnida 1880-yillarda Rossiyadan ko'chib kelib o'rnashib olganlarning qishlog'i bo'lgan va dastlab Fyodorovka, Katalas deb atalgan. Payariq nomi tuman hududidan o'tgan Poy arig'i (kanali) nomidan olingan. Kanal Zarafshon daryosidan boshlanadigan ko'hna suv inshooti hisoblanadi.

PAYIN – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi (hozirda mavjud emas). *Payin* پایین – "pastki, quyi" ma'nosini bildiradi. Uning *pa* yoki *pay* – "oyoq" so'zi bilan aloqadorligi aniq. Hozir biror obyektning pastida joylashgan narsa, joyni ifodalaydigan qo'shimchaga aylangan.

Shunday ekan, *Payanda* پایندہ toponimi < *payin* – "pastki, quyi" + *da* yoki *daha* < Payin + daha. *Pa//pay* komponenti Janubiy Qoraqalpog'istonda mavjud boshqa toponimlari tarkibida ham borligi uning mahalliy aholi tilida qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, *Vayxan* toponimi. Qizig'i shundaki, nomning birinchi komponentini fonetik o'zgarishsiz saqlangan deb hisoblasak, bu so'z ham suvga aloqador bo'lib, suvni osonlik bilan olish uchun zinalar yasalgan joy (hozirda *yasqa*ga o'xshash) joy degan ma'noni beradi[1]. Bu holda *Vayxan* havzasining aholi va chorva mollari suv olishiga mo'jallangan qismi degan ma'noni anglatadi. Xorazmning tarixiy xaritasiga qaraganda bu joy Amudaryodan ham, Govxora kanalidan ham uzoqroqda joylashganligini ko'ramiz. Shunga ko'ra, ushbu joy nomidagi *vay* komponentini oyoq ma'nosidagi *pa//pay* so'zi bilan aloqador degan fikrni ilgari surish mumkin. Shunda toponimga asos bo'lgan apellyativ "suvning oxiri" yoki shevamizdagi "oyoq-suv" mazmuniga muvofiq keladi.

Qadimgi eroniyda *rad* shaklida bo'lgan bu so'zning birinchi undoshi ko'plab eroniy tillarda *r* bo'lsa ham, ayrimlarida boshqa lab undoshlariga o'tgan holat uchraydi. Masalan, osetin tilida *fad*[2]//. Bu holat fonetik qonuniyatlarda lab undoshlari so'z boshida ham boshqasiga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

PAYKAL – Navoiy viloyatidagi suv inshooti nomi. Sug'oriladigan ayrim ekin maydoni, pol, chek. Bu so'z turkiy ***pay*** ("bir qism, ulush") va forschatojikcha ***kol*** ("kanal") unsurlaridan iborat.

Kol so'zi, o'z navbatida, forscha *"kovlamoq, qazimoq"* fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, dastlabki ma'nosi "handak" edi. Ilk o'rta asrlarda ariq qulog'iga o'rnatilgan yog'och kundaning ko'zday teshigidan bir kecha-kunduzda o'tadigan suv bir ***paykal*** hisoblangan.

---

[1] شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. بااهتمام دکتر محمد معین. تهران.امیر کبیر. 6831.جلد3.ص 2255

[2] شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. بااهتمام دکتر محمد معین. تهران.امیر کبیر. 6831.جلد1.ص643

Demak, ***paykal*** dastlab suv o'lchov miqdori bo'lgan. Keyingi asrlarda ***paykal*** sath o'lchov miqdoriga aylangan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 50 tanob yoki 12,5 gektar yer bir paykal, Shimoliy Afg'onistonning Fayzobod shahri atroflarida 400 tanob yer, Mozori Sharif tegralarida 65 gektar yer bir ***paykal***ga teng bo'lgan.

Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda bir kecha-kunduzda sarf bo'ladigan suv va sug'oriladigan yer ***paykal*** hisoblangan.

Bir xil yerlarda ***paykal*** deganda muayyan ariqdan suv ichadigan chek yerlar tushunilgan. O'rta Osiyoning bir qancha hududlarida yerni shirkat bo'lib ishlatish ***paykal*** deb atalar edi. XX asrga kelganda boylarning ***paykal*** yerlari ularning xususiy mulki bo'lib qoldi.

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida **Nimpaykal,** Eronda **O'npaykal** nomli toponimlar bor.

PAYKENT – Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Buxoro vohasidagi qadimiy shahar xarobasi. Hozir ham mavjud. Narshaxiy uni Boykend deb atagan va Buxorodan qadimiyroq deb hisoblagan. Shahar arab va mahalliy tarixchilar tomonidan "Madinat ut-tujjor" (Savdogarlar shahri) tarzida tilga olingan va muhim savdo markazi sifatida e'tirof etilgan. Narshaxiy ta'rifidagi Boykend keyinchalik Poykendga aylangan va hozirgi paytda ba'zan Paykent, ba'zida Poykent shaklida iste'molda uchraydi.

Poykent toponimi "*quyida, pastda joylashgan qishloq*" ma'nosini bildiradi. Mazkur fikr ham to'g'ri, biroq u quyi qishloq nomini ifodalashi uchun uning yuqori yoki o'rta qishloq deb atalishiga asos kerak. Vaholanki, uning o'rta yoki yuqori qishloqlari mavjud emas.

Bizningcha, bu o'rinda apellyativning birinchi qismi *pay//poy* – **asos** ma'nosini bildiradi va xuddi poytaxtdagi *poy* kabi asosiy tushunchasini ifodalaydi. Narshaxiy uni behudaga Buxorodan qadimiyroq shahar deb atamagan va uni mazkur fikri ostida Paykent – asosiy shahar ma'nosining ifodalanishi nazarda tutilgan. Shahar 673-yil arab lashkarboshisi Ubaydulla ibn Ziyod tarafidan hujumga duchor etilgan bo'lsa, 706-yil Qutayba ibn Muslim uni butunlay istilo qildi. Shaharning boyligidan arablar hayratga tushishgan va katta miqdordagi oltinni eritib olganlar. Qoraxoniy hukmdori Arslonxon XII asrda shaharni bir muddat qayta tiklashga erishgan bo'lsa-da, keyinchalik Zarafshon suv tizimidagi o'zgarishlar uni xarobaga aylanishga olib keldi. Qadimiy yodgorlikda muntazam ravishda arxeologik tadqiqotlar olib boriladi. Yodgorlik oldida muzey mavjud.

PAYNOB – qishloq. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi qishloq nomi. Forscha deb hisoblangam ***Payonob*** toponimi *daryoning quyi oqimi, pastlik* ma'nosini anglatadi.

PAYSHANBA – shaharcha. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tu-

manidagi shaharcha. V.L.Vyatkinning ma'lumotiga ko'ra, yirik bozorga ega bo'lgan Payshanba qishlog'iga so'nggi ashtarxoniylar davrida Qambarbiy tomonidan asos solingan. Bu paytda qishloq devor bilan o'rab olingan va madrasa qurilgan. Dastlab qishloq uning asoschisi nomi bilan *"qal'ayi Qambarbiy"* deb atalgan (Vyatkin, 1902).

PASHI – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq nomi bo'lib, Toshkentning Oq ko'rpali degan qishlog'idan besh kishi chorvachilik qilish uchun ko'chib kelgan va shu bilan tojik tilida "Panji" deb atalgan. Keyinchalik talaffuzda o'zgarib, "Pashi" deb atalgan.

PASHSHAXONA – Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi aholi punkti nomi. Aslida, ***Pashshaxona*** so'zi pashsha va chivinlardan himoyalovchi vosita ma'nosini ifodalaydi, biroq hudud aynan shu ma'noda atalgan emas, aksincha, bu yerda *"pashshalarga to'la joy"* ma'nosidadir.

PACHKAMAR – Qashqadaryo viloyatidagi suv ombori va G'uzor tumanidagi qishloq nomi. Ilgari kamar nomi bo'lgan. **Kamar** – *tog' yonbag'ridagi adirliklarda, soy va qirliklar orasida tevaragi balandlik bilan o'ralgan, o'rta qismi pastqam, bir tomoni soyga yoki tekis joyga tutashgan berk joy*. **Pach** – *panj (besh)* so'zining o'zgargan shakli.

Demak, **Pachkamar** nomi *"yonma-yon joylashgan bir necha kamarlar bo'lgan joy"* ma'nosini bildiradi Ana shunday joy quyisidagi qishloq nomiga aytilgan. Suv ombori nomi esa qishloq nomi bilan atalgan.

PEDANA – tarixiy gidronim. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning etimologiyasi haqida turlicha fikrlar mavjud. Nomni Qashqadaryo shevalarida mavjud bo'lgan ***Pidana*** *"Yalpiz"* so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan taxmin ham bor (С.Қораев. Луғат. –б. 96).

Ayrim tadqiqotchilar toponimni ***Bedana*** so'zi bilan ham bog'liq bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari surishadi.

Aslida esa toponim ***pex*** va ***daha*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, ***pex*** – *"keng, katta"* hamda ***daha*** – *"ombor, istehkom, atrofi o'ralgan joy"* degan ma'nolarni bildiradi.

Shunday ekan, ***Pedana*** – *"katta istehkom, keng ombor"* ma'nolarini ifodalaydi.

PESHKU – tuman va shahar. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mahalliy aholi *peshku* so'zini ikki xil talqin qiladi. Birinchisi, tuman nomi fors-tojik tilidagi *peshiko'y* – "katta yo'l ustidagi joy" ma'nosini bildiradi va shu nomdagi qishloqqa nisbatan ishlatilgan. Nom dastlab aholi punktining geografik o'rniga nisbatan ishlatilgan va keyinchalik tuman ham shu nom bilan atalgan.

Ikkinchi talqin bo'yicha, nom tojik tilidagi *pesh* – "old" va *ko'h* – "tog'" so'zlaridan iborat. Nom qo'llanish jarayonida ixchamlashgan va talaffuzda qulay bo'lgan peshku shakliga aylangan. Ikkinchi talqin ishonchliroq ko'rinadi va u tuman hududining

geografik joylashuviga ham mos keladi.

PESHQANDOQ – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom pesh + qandak so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, Pesh "old," "oldingi tomon" ma'nosini anglatsa, qandak o'rik, jiyda so'zlarga qo'shilib, ularning u qadar yirik bo'lmagan, kamsuv, lekin sershira navini bildiradi.

Demak, mazkur toponim shu xildagi *o'rikzor yoki jiydazorlar oldida joylashgan qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

PESHQO'RG'ON – Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim **Pesh** va **qo'rg'on** qismlaridan iborat.

Apellyativning birinchi komponenti ***pesh//pish*** indikator sanaladi. Mazkur prefiks *Peshkänik (Pishkanik) Beshtä, Beshqal'a, Pishik* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. U "*old tomon, bir narsaning oldida*" ekanligi ma'nosini anglatadi. Xorazm toponimlari tarkibida "*sharq, kun chiqish*" tomonni ham ifodalaydi.

Uning ikkinchi qismi **qo'rg'on** esa *qal'a, istehkom* kabi ma'nolarni bildiradi.

Shunday ekan, ***Peshqo'rg'on*** toponim "*old tomondagi qal'a, istehkom*" kabi na'nolarni ifodalaydi.

PILQAL'A – Beruniy yaqinidagi (Qoraqalpog'iston Respublikasi) shaharcha (xarobalar). *Fil (Fir)* – mustahkamlangan qism, qadimgi Kat shahri markazining qal'asi (Istaxriy – БАГ, I, С. 301). *Pilqal'a – Filqal'a*, shahar, *Fir qal'asi.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy shahri yaqinidagi shahar xarobasi. Pilqal'a qadimgi Xorazm poytaxti Kat shahrining ichki qal'asi – Fir (Fil)ning vayronasidir.

PIRMASTOBOD – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Sho'robod* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Pirmastobod* deb o'zgartirilgan.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, toponim tojikcha *priman, ast* so'zlaridan olingan bo'lib, *"bizning ham tarbiyachimiz bor"* degan ma'noni anglatadi.

Bu talqin noto'g'ri. Yozilishicha, toponim aslida *Pirmastiobod* bo'lgan bo'lsa kerak. Toponim *pir, masti* va *obod* so'zlaridan iborat. Nomning birinchi komponenti – *pir* so'zi *"keksa", "qari", "diniy mazhab boshlig'i", "biror kasbning homiysi"* degan ma'nolarni anglatadi. Toponimning ikkinchi komponenti – *masti* so'zi *"yumshoq charmli poyabzal"* ma'nosidagi *mahsi* so'zining xalq nutqidagi talaffuz shakli. Uning uchinchi komponenti – *obod* so'zi esa *"o'zlashtirilgan", "obodonlashtirilgan"* ma'nosidagi so'z.

Demak, Pirmastobod toponimi *"keksa mahsido'z obod qilgan joy"* ma'nosini ifodalaydi.

PIRNAXOS – Tarixiy toponim. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Professor Z.Do'simovning fikricha, toponim ***pir*** va ***naxos*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, pir Xorazmiy tilida – *"eski, qadimgi"* va ***naxos*** – *"qishloq, to'planish joyi"* degan ma'noni ifodalaydi.

Pirnaxos – *"eski, qadimgi qishloq"* deganidir[1].

Biroq ayrim tadqiqotchilar apellyativning birinchi komponenti hisoblangan ***pir***ni – *"diniy ulamolar, buyuklar, pirlar"* deb hisoblashadi va ***Pirnaxos*** – *"Pirlar, buyuklar qishlog'i"* degan ma'noni ifodalashini qayd etishadi.

PISKENT – tuman va shahar. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Piskent shahri tarixiy manbalarda Biskat nomi bilan tilga olingan va u Toshkent vohasining eng qadimiy shaharlaridan biridir. Taniqli olim H.Hasanov Biskat fors-tojik tilidagi *bist* – "yigirma" va *kat* – "qishloq", ya'ni "yigirma qishloq" so'zlaridan olingan bo'lsa kerak, deb yozgan. E'tiborli tomoni shuki, tojik tilidagi og'zaki nutqda bist so'zining "t" harfi tushib qolib, bis shaklida talaffuz qilinadi.

X asr arab geograflari Istaxriy, Ibn Havqal asarlarida Biskat Iloq viloyati tarkibiga kiritilgan. Shahar Shosh (Toshkent)dan Farg'onaga o'tgan karvon yo'lining ustida qulay joylashganligi tufayli IX–X asrlarda savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. XII asr boshida mo'g'ul bosqinchilari shaharni vayron qilganlar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XIII asr o'rtalarida shaharning g'arbiy chekkasi yana qayta tiklangan.

V.V.Bartold va M.Y.Masson shaharni Ohangaron daryosining chap sohilidagi (hozirgi Piskent shahri chekkasidagi) yodgorlik qoldiqlari bilan aynan bir, deb ko'rsatadilar. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, shaharning dastlabki joyi hozirgi Pushti Mahmud tepaligi bo'lib, u VI–VII asrlarda shahar qiyofasini kasb etgan.

Arab geografi Istaxriy o'z kitobida Ohangaron vodiysidagi 14 ta shahar va qishloqlar nomini qayd qilgan bo'lsa, shulardan 7 tasi kat qo'shimchali nomlardir. Shuni ta'kidlash joizki, kat unsuri asli sug'dcha bo'lib, dastlab kaş shaklida talaffuz qilingan, keyinchalik "s" harfi o'rniga "t", ba'zan "d" harfi qo'llanilgan.

PISKOM – daryo. Chirchiqning asosiy o'ng irmog'i (Toshkent viloyati). Piskom nomli qishloq bor. Mazkur qishloq **Biskam** shaklida arab geografi Ibn Havqal asarida tilga olinadi (БАГ, II, С. 388). Zarafshon vodiysida magistral ariqlar *kom* deb nomlanadi (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 165). Ushbu ariqlar, o'z navbatida, ikkinchi darajali ariqlarning boshlanishini qayd etishgan: *juy* (irmoq), *kom* – "dara". Mazkur komponentli gidronimlar oz emas (см. Э.М.Мурзаев. Словарь народных географических терминов. – М., 1984, С. 247). **Piskam** toponimining birinchi qismiga kelsak, xalq etimologiyasi shunday, bu komponent tojikcha **bis** (adabiy *bist*) – *"yigirma"* ma'nosini ifodalaydi.

PISTALI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kitob va Koson tumanlaridagi qishloq nomi. **Pista, Pistali** toponimi *"pista daraxtlari ko'p o'sadigan joy"* ma'nosini anglatadi.

[1] Z.Do'simov, X.Bektemirov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. –b. 118.

PISTALITOG' – tog' cho'qqisi. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi cho'qqi nomi. **Pistalitog'** nomi *"pistali tog'lar, ko'p pistali daraxtlar o'sadigan tog'lar"* ma'nosini bildiradi.

PISTAMOZOR – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi dara va Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomlari. **Pistamozor** nomi *"mozor (muqaddas joy), pista o'sadigan qabriston"* ma'nosini anglatadi.

PIYOZCHILIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq nomi. Toponim ***piyoz*** so'ziga *-chilik* affiksini qo'shish orqali hosil qilingan. O'zbek tilida *-chilik* qo'shimchasi murakkab qo'shimcha bo'lib, joy nomini hosil qilishda faoldir. Viloyatdagi Bog'dorchilik, Dalachilik, Kosibchilik, Ko'nchilik, Taroqchilik, So'kchilik, Qandolatchilik kabi nomlar shunday paydo bo'lgan.

Demak, ***Piyozchilik*** toponimi *"Piyoz yetishtiruvchi qishloq"* ma'nosini anglatadi.

PISHAG'OR – "Yayloq tumanidagi qishloqlardan biri" ("Бабур-наме", 1958. С. 74). "Muhammad Husayn Mirza Xo'jakentdan chiqib, Pishag'orga jo'nashga rozi bo'ldi. Zominga kira turib, qattiq isitma bo'ldim va o'sha isitmaga qaramasdan, tog' yo'li bilan Zomindan o'tdim (bu yerda tog' yo'li bilan) va Xo'ja Robatga keldim" ("Бабур-наме". С. 75, узб. издание. С. 118).

Mazkur toponimning har ikkala varianti ham "Boburnoma" asarining ruscha tarjimasida noto'g'ri berilgan. O'zbekcha nashrida – **Pashog'ar**, aslida, to'g'rirog'i, **Pishag'ar**; Pishag'ar qishlog'i Jizzax viloyatining Zomin tumanida joylashgan va haqiqatan ham *"katta yo'ldan bir necha nariroqdan"* o'rin olgan bo'lib, Bobur "bir paytlari u yerda yashagan".

Pishag'ar nomi etimologiyasining bir necha variantlari mavjud. Ayrimlar mazkur nomning *Beshog'ar* – "besh ariq" so'zidan olinganini ta'kidlashsa, boshqalari *Peshag'or*dan olinganini tasdiqlashadi, bu degani, *"g'or oldidagi joy"*dir.

Har ikkala variantning ham xalq etimologiyasida tushuntirilishini yetarli asoslangan emas, deb hisoblash zarur. Sug'd tilidan o'zlashgan "g'ar" nisbatan ishonchlidir; shu yerdan **Pargar** (apargar) – *"tog'liklar, tog'li mamlakatlar"* nomi kelib chiqqan.

Shunday qilib, sug'dcha **Pishog'ar** – *"tog' oldi"* ma'nosini ifodalaydi va haqiqatan ham mazkur qishloq Malg'uzor cho'qqisidagi tog' oldi hududlarida joylashgan (Н.Г. Маллицкий. Ягнобцы. ИТОРГО, XVII, вып. I. – Ташкент, 1930. С. 178; О.И. Смирнова. Вопросы исторической топографии и топонимики верхнего Зерафшана; Труды СТАЭ, т. I, 1946–1947 ("Материалы и исследования по археологии" СССР, МИА, №15), 1950. С. 56–66; "Страны и народы Востока". Вып. II, ИВЛ. –М, 1961. С. 224, 225; Н.Негматов. Усрушана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад, 1957. С. 65).

Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi mahalla ham shunday nomlanadi. Toponim tarkibidagi *gar (g'ar)* elementi tojik tilidagi *tog'* so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday talqinda ushbu nom *tog' oldidagi qishloq* ma'nosini bildirishi mumkin.

PISHENKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanidagi "Taxtako'pir" OFY hududida joylashgan quruq ko'l nomi. Ko'lning nomlanishida ko'l bo'yida qalin qamish (mahalliy qoraqalpoq tilida pishen) o'simligi o'sganligidan Pishenko'l deb atalgan.

PISHIK ELI – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi (hozirda mavjud emas). *Pishik eli* toponimi tarkibiga ko'ra ancha murakkabdir. Bu nom *pesh* komponentining leksikalizatsiyalashganidan keyin vujudga kelgan. Toponimlarning bunday vujudga kelishi Janubiy Qoraqalpog'istonda hozir ham ko'plab uchraydi. Qiyos qiling: *təmən, yoqarы, ayaq* (yoki *adaq)* va boshqalar.

Shunday ekan, *Pishik eli* toponimining "*pishik*" qismi "yuqori, oldingi" ma'nosini ifodalaydi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

PISHKANIK – Xorazm viloyatining Xiva va Yangibozor tumanlaridagi qishloq nomi. Mazkur toponim ***pesh// pish+kan// kant// kent+ik*** qismlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti ***pesh//pish*** indikator sanaladi. Mazkur prefiks *Peshkānik (Pishkanik) Beshtä, Beshqal'a, Pishik* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. U "*old tomon, bir narsaning oldida*" ekanligi ma'nosini anglatadi. *Pesh* پیش komponenti o'zining toponim hosil qiluvchilik xususiyatini ancha erta tugatgan bo'lsa kerak. Hozirgi turkiy tilda so'zlashuvchi aholi uni butunlay unutgan. Hozirgi Eron toponimiyasida ham uncha sermahsul emas. Bu komponentning *Peshqal'a* va *Peshdara* toponimlarini hosil qilishda qatnashganligi qayd etilgan.

Pishik toponimi strukturasiga ko'ra ancha murakkabdir. Bu nom *Pesh* formantining lokalizatsiyalashganligidan keyin vujudga kelgan. Toponimlarning bunday vujudga kelishi Xorazmda hozir ham ko'plab uchraydi: Qiyos qiling: *təmän, yoqarы, ayaq* (yoki adaq) va boshqalar.

Xorazm viloatining Hazorasp tumanidagi Beshta toponimi tarkibida bu formant lokalizatsiyalashgan. Sheva leksikasida faol bo'lgan besh so'zining ta'siriga tushgan, natijada ***Peshta > Beshta*** bo'lgan. Toponimning ikkinchi qismi *-ta* asli ***daha*** so'zidir (bu haqda oldinroq to'xtalgan edik). Shunday qilib, toponim *dahaoldi* ma'nosiga ega. *Beshqal'a* toponimi ham xuddi shunday o'zgarishga uchragan.

Daha ko'plab eroniy tillarga mansub toponimlar tarkibida ishtirok etuvchi *deh* so'zi qishloq ma'nosida bo'lib, pahlaviy tilida *deh* shaklini ol-

gan. Bu so'zning qishloq ma'nosini kasb etishiga qadimgi fors tilida *dahui* so'zining *manzil; makon; vatan; yer* ma'nolarida ishlatilishi asos bo'lgan.

Qadimgi hind tilida *dasyu* tarzidagi bu so'z "Avesto"da *daxui* shaklida uchraydi. Mazkur so'z turli eroniy tillarda *dau, deh, dih* kabi shakllarga ega[1]. *Daha* so'zining *ta* shaklini olishi eroniy tillardagi fonetik qonuniyatlarga muvofiq bo'lib, bu holni, jumladan, *bermoq* mazmunidagi *dodan* fe'lining hozirgi zamon o'zagi *dehning* Samarqand-Buxoro shevalarida *te* shaklini olishida ham kuzatamiz. Darvoqe, mazkur *te* Xorazm shevalarida *ti* shaklida *kunti:* (besoqol) so'zi tarkibida saqlangan. Bu ham toponim tarkibidagi *d-t* fonetik hodisasini substrat leksikaga mansub so'z misolida asoslashga imkon beradi. Demak, *daha – da: – ta:* fonetik o'zgarishlari "daha oldi" ma'nosiga ega toponimning *Beshta* shaklini olishiga sabab bo'lgan.

Pishkänik toponimining ikkinchi qismi kan(t) va -ik qo'shimchalaridan hosil bo'lgan bo'lib, *"shahar oldidagi, shaharning sharq tomonida joylashgan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

Beshqal'a//Peshqala (Ellikqal'a hududida) toponimi ham xuddi shunday o'zgarishga uchragan. "Tarixiy-geografik nomlarning qisqacha lug'ati"da yozilishicha, XVII asr tarixchilari janubiy Xorazmni shunday ataganlar. Beshqal'a – Besh shahar, besh istehkom demakdir. *Kat, Urgancha, Hazorasp, Xonqa, Qong'irot;* markazi *Xiyva*[2]

Demak, *Pishkänik* toponimi *"shahar oldidagi, shaharning sharq tomonida joylashgan qishloq"* ma'nosini ifodalaydi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012; O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.).

PICHANXONA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. *"**Pichan // bichan**"* so'zi *"hayvonlarga ozuqa bo'ladigan o't, o'rib quritilgan o't, xashak"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 268]. *"**Xona**"* so'zi makonni ko'rsatish uchun ishlatilmoqda.

Shunga asosan mazkur mikrotoponimni *"pichanbop o'simliklar yaxshi o'sadigan joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

PICHOQCHI – qishloq. Samarqand viloyati Oqdaryo va Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi. Zarafshon qipchoqlari urug'laridan biri (oq qipchoqlar) *pichoqchi* deb atalgan.

Shunday nomli toponim Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida ham mavjud bo'lib, u tarixiy nom hisoblanadi va ushbu hududda pichoq yasaydigan hunarmandlar ko'p bo'lganligi uchun qishloq shunday nomlangan.

---

[1] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى. برهان قاطع. باهتمام دكتر محمد معين. تهران.امير كبير. 1831.جلد1.ص44

[2] Tarixiy-geografik nomlarning qisqacha izohli lug'ati. Buxoro nashriyoti, 2008. – B.7.

POLOSON – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. Filologiya fanlari doktori S.D.Nominxanovning fikricha, aholi punkti nomining kelib chiqishi mo'g'ulcha **balgas (un)** – *"shahar"* so'zi bilan bog'liq (Ц.Д.Номинханов. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР. Записки. Калмыцкого НИИ языка, литературы и истории, вып. 2. Элиста, 1962).

Professor Z.Do'simov Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi shunday atalishini qayd etadi. Farg'ona vodiysida g'alvirning bir turi poloson deyiladi. Toponim forscha **Palas** (*"darvesh"*) so'zi bilan aloqador degan fikrga qo'shilsak, **Palason** – *"darveshlar"* demakdir (Do'simov, 1977).

POLVON BOBO BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti "***Polvon***" jismonan baquvvat, qudratli ma'nosini ifodalasa, uning ikkinchi komponenti "***Bobo***" yoshi ulug' kishiga nisbatan hurmat ma'nosini bildiradi.

Geografik termin sanalgan "***buloq***" so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 1, 371].

Yuqoridagilarga asosan ***Polvon*** jismonan baquvvat va yoshi ulug' kishiga tegishli buloq nomini ifodalamoqda.

POLVONKO'L – qishloq. Andijon viloyati Baliqchi va Namangan viloyati Norin tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Polvon* – botir, kuchli, *ko'l*, **Polvonko'l** – *katta ko'l* (ekskavator va boshqa katta mexanizmlar xalq tilida *polvon* deb yuritiladi). Ehtimol, qishloq katta ko'ldan paydo bo'lgandir.

POLVONTOSH – Andijon viloyatining Marhamat tumani va Farg'ona viloyatining Furqat tumanlaridagi mahallalar nomlari. Ba'zi joylarda kichik bo'lsa ham og'ir, polvonlargina ko'tara oladigan palaxsa toshni polvontosh deyishadi.

Demak, **Polvontosh** toponimi *"loy toshi, tosh, botirlarning kuchini o'lchashga xizmat qilgan"* ma'nosini anglatadi.

POMUQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. Ko'pchilik turkiy tillarda **pomuq//pamuk** – *paxta* ma'nosini anglatadi.

Professor T.Nafasovning fikrlariga ko'ra, **pomuk pomarg'** – *"pastki oy" ("yaylov")* so'zidan kelib chiqqan (*Pomarg', Pamurg', Pomug', Pomuq*, "Mehnat va turmush" jurnali, 1973).

PONIQI – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloqlardan biri. Ilmiy manbalarda *Ravot foniqi* shaklida ham uchraydi. V.L.Vyatkin bu qishloqning avvalgi nomi Xilxona bo'lgan, deb ko'rsatadi. "XIX asrning birinchi yarmida, – deydi olim, – Ofarinkent yonida O'zbekkent qishlog'i bo'lib, uning g'arbida Xilvat-tepa, sharqida Mavlum qishloqlari bo'lgan. Shimoldan esa Gavband arig'i oqib o'tgan" (Vyatkin, 1902).

PONOB – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Rabotipoyon* deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda *Ponob* deb o'zgartirilgan. Qishloq nomi aslida *Poyonob* bo'lsa kerak. Nom *poyon* va *ob* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *poyon* so'zi *"joy, masofa va yo'lning oxiri, etagi"* degan ma'noni bildiradi.

Sharq toponimiyasining bilimdoni E.M.Murzayevning ma'lumotlariga qaraganda, geografik apellyativning ikkinchi komponenti – *ob* so'zi esa forscha-tojikcha bo'lib, *"suv", "daryo", "kichik daryo"* kabi ma'nolarni anglatadi. Bu fikrni bir qancha o'zbek toponimist olimlari ham ma'qullaydilar.

Demak, **Poyonob** – *"daryoning quyi qismi", "suvning etagi"* degan ma'noni anglatadi.

PONSAD – mahalla. Andijon viloyatining Marhamat va Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi mahalla nomi. **Ponsad** – *xonliklar davridagi lavozim*, asli **ponsadboshi** deyiladi. Qo'qon xonligida *polk (dasta) qo'mondoni – ponsadboshi* deyilgan. Fors-tojik tilida ponsad yoki "panjsad" – "beshyuz" degan ma'noni bildirgan va u xonlar davrlaridagi mansabdor shaxslar deb atalgan.

POP – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Pop oykonimi IX–X asr arab sayyohlari Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida *Bob*, 983-yilda yozilgan "Hudud ul-olam" asarida esa *Bob // Pob* shaklida Farg'onaning savdo yo'lida joylashgan obod va ekinzorlari ko'p bo'lgan shahri sifatida qayd etilgan. "Boburnoma" asarida Pop qo'rg'oni haqida quyidagi ma'lumotlar uchraydi: *"Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidur. Popliklar Pop qo'rg'onini berkitib, bizga kishi yiboribturlar"*.

Oykonimning kelib chiqishini turlicha talqin qiladilar. V.V.Bartold asarlarida Turkistonda islom dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan kishilar ismiga ***bob*** so'zi qo'shib aytilgan. Masalan, Arslonbob yoki Bob Arslon kabi.

Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida Hazrati Bob Farg'oniy haqida ma'lumot berilib, ul zotning ismlari Umar ekanligi, Farg'ona vodiysi tomonlarda ulug' shayx va avliyolarni ***bob*** deb atalishi ma'lum qilingan. Hazrati Bob Farg'oniy (X asr) Popga dafn etilgan. Bir qancha olimlarning ishlarida hamda O'zbekiston Qomusida qayd etilishicha, arab sayyohlari asarlarida Bob shaklida tilga olingan oykonim keyinchalik Pop bo'lib ketgan. ***Bob*** arabcha – "darvoza" degan so'zdir.

Darhaqiqat, arxeologlarning aniqlashicha, qadimgi Pop shahri Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi Balandtepa o'rnida bo'lgan. Shahar keyingi davrlarda asta-sekin hozirgi Pop tumani markazining janubiy chegarasigacha kengayib boravergan va u qariyb 2000 yillik tarixga egadir. Pop hudu-

dida joylashgan Munchoqtepa va Balandtepadagi ilmiy qazuv ishlari shaharning Buyuk ipak yo'lida muhim rol o'ynaganidan darak beradi. Chunki mazkur tepaliklardan topilgan ko'plab noyob ashyolar, Xitoyning U-shu, Kay Yuan kabi tanga chaqalari Buyuk ipak yo'lini aynan Balandtepa yaqinidan o'tganligini ko'rsatmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Toshkent, Shohruhiya shaharlaridan yo'lga chiqqan karvonlar Farg'ona vodiysiga kirib kelar ekan, birinchi Sirdaryo yoqasida joylashgan Pop qo'rg'oniga duch kelgan.

Bundan tashqari, Andijon, Quva, Axsikentdan kelgan ipak yo'li Popda bir necha bo'lakka ajralgan. Yo'llarning biri Pungon orqali Qamchiq dovoni bilan Ohangaron vohasiga, undan Qozog'iston dashtlari bilan Rossiya tomonlarga davom etgan.

Ikkinchi yo'l Asht orqali Xo'jand va Konibodom, undan Ustrushona (Jizzax) orqali Sug'd (Samarqand, Buxoro), Tohariston (Surxondaryo), undan hozirgi Afg'oniston, Eronga ketgan.

Demak, ***Pop*** oykonimining etimoni arabcha ***bob*** – "darvoza" hisoblanib, ushbu joy qadimda Buyuk ipak yo'lining, qolaversa, har qanday karvon yo'lining Farg'ona vodiysiga kirib kelishida "darvoza", "kirish eshigi" vazifasini bajargan. Shu sababli dunyoning turli taraflaridan kelayotgan savdo yo'llari Pop shahriga kelganda birlashgan va ularning barchasi bitta darvoza – ***Pop*** orqali Farg'ona vodiysiga kirgan.

Oykonim nominatsiyasiga joyning geografik o'rni asos qilib olingan. Lisoniy jihatdan esa nom quyidagicha shakllangan: *bob > Bob > Bop > Pop.*

PORLOQ – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "Porlab nur sochib turadigan, nurdek ravshan" (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 297-bet).

POROMON – Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Poromon oykonimining kelib chiqishi haqida mahalliy xalq orasida bir necha rivoyatlar kuzatiladi: "Arablar bu yerlarga bostirib kelgan davrlarda avliyosifat Hazratishoh buva urushdan nolib, tarkidunyo qilib Allohdan makon so'raganida: "Osmondan parcha non tushgan joy sening manzilgohing bo'ladi", – degan xabar keladi va qishloqdagi Tutmozor oldiga osmondan yarimta non tushib, Hazratishoh buvaga yemish bo'ladi hamda u kishi shu yerda yashab qoladi. Shunga nisbat berib, qishloq **Poromon** deb atalgan emish[1].

Bu xalqona talqinga ko'ra, *pora non (yarimta non)* otli birikmasi oykonimning etimoni bo'lib, keyinchalik hozirgi shaklga kelib qolgan: *pora non > Poranon > Poramon > Poromon.* Bu ancha sodda talqin.

[1] *Qarang.* Qirg'izov Y., Akramov T. Bir o'lkaki... (Yangiqo'rg'on tumani tarixidan lavhalar). – Namangan, 1996. – B. 19.

Bizningcha, **Paromon** oykonimining tarkibi ***par, mon*** kabi ma'noli qismlardan iborat. **Par** tarixiy-etimologik jihatdan qadimiy eroniy tillarga mansub bo'lib, *yuqori, baland, balandlik* ma'nolarini anglatgan[1]. **Par** formanti *par // bar // par // pan // pal // fan* singari fonetik variantlarda bir qator tarixiy toponimlar tarkibida kuzatiladi: *Bo'rob, Panjob, Parmetan, Farxurdiza, Pargar, Palgut, Fangat, Barko'h* kabi. Namangan viloyati toponimiyasida shu birgina oykonim tarkibida uchraydi.

O.Begimov tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, uning fonetik qiyofasi rang-barang, semantik doirasi keng[2].

Shuningdek, toponimist Z.Do'simov bu formantning **var** so'ziga bog'liqligini ko'rsatgan[3].

A. Muhammadjonov Farg'ona oykonimiga doir maqolasida **"Far"** yoki **"par"** – *tushmoq, enmoq, inmak, pastlamoq* tushunchalarini anglatishini qayd etadi[4]. Bizningcha, **Paromon** oykonimi tarkibidagi **par** aynan shu tushunchalarni anglatadi. Oykonim tarkibidagi ***-mon*** formanti ham qadimgi eroniy tillarga mansub.

O. Begimov fikricha, **-mon** etimologik jihatdan sug'dcha *mayn – meyn – mein – me:n – (qishloq)* so'ziga daxldor[5].

T.Nafasov ham *-mon* formantining ma'nosini, bir o'rinda *qo'rg'on,* boshqa bir o'rinda *qishloq* deb izohlaydi[6].

Z.Do'simov Girdman toponimi tahlilida *-man // -mon* Eron toponimiyasida uchraydigan *miyon – qishloq, markaz, o'rta* elementlari bilan aloqador bo'lishi mumkin, degan fikr ham bildiradi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, *-mon* formanti *-man // -min* kabi fonetik variantlarda toponimlar tarkibida kuzatiladi: *Polmon, Shiramon, Zomin, Girdman, Gurdman, Xazarmon, Govushman* kabi.

Demak, **Paromon** oykonimi *par, mon* unsurlaridan tarkib topgan bo'lib, *quyida joylashgan qo'rg'on, qishloq* degan toponimik ma'noga ega. Qishloq nomlanish motiviga ko'ra geomorfologik oykonimlar guruhiga mansub, ya'ni joylashuv o'rnining relyef xususiyatlari asosida nomlangan.

Fikrimizni qishloqning O'ng'or tog'lari etagida, janubida joylashganligi ham tasdiqlaydi. Oykonim manbalarda, mahalliy aholi nutqida *Paramon, Paromon, Poromon* kabi fonetik variantlarda qo'llanadi. Nima uchundir **Paromon** oykonimi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ga kiritilmagan.

PORXANO'ZEK – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tu-

---

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloq nomasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 210.

[2] Begimov O. Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami: Filologiya fan. nomzodlik disser. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 14.

[3] Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. – 17–18.

[4] Muhammadjonov A. Farg'ona nomining ma'nosiga doir// O'zbek tili va adabiyoti, 2007. – № 6. – B.10.

[5] Begimov O. O'sha asar, 11-b.

[6] Nafasov T. Qashqadaryo qishloq nomasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. –B. 22, 210.

mani "Qoraoy" OFY hududida joylashgan tabiiy o'zan. Mahalliy xalqning aytishicha, bu o'zan to'lqinli bo'lib, qattiq, quturib oqqanligi sabab shunday nom olgan. Mahalliy xalq tilida **porxan** so'zi *quturib, o'ynab kasallarni davolaydigan tabiblarga aytiladi.*

POVULG'ON – qishloq. Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. **Paulgan** mo'g'ulcha *"To'xtab turish joyi", "dovon"* ma'nolarini ifodalaydi (Ц.Д.Номинханов. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР. Записки. Калмыцкого НИИ языка, литературы и истории, вып. 2, Элиста, 1962).

POYGABOSHI – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. **Poyga** – *yugurish, musobaqa.*

Demak, **Poygaboshi** toponimi "*yugurish boshlanadigan joy*" ma'nosini anglatadi.

POYTUG' – Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi qadimiy-tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan shahar nomi. U Andijon shahrining shimoli-sharqida, Qoradaryoning o'ng sohilida joylashgan bo'lib, ushbu nom, asosan, Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlarda uchraydi. Poytug' astionimining etimologiyasi borasida jiddiy izlanishlar olib borilmagan, shu sababli uning kelib chiqishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Xalq orasida Poytug' nomining paydo bo'lishi hazrat Aliga bog'lanadi.

V.P.Nalivkin keltirgan afsonaga ko'ra, hazrat Ali bir g'alabadan keyin shu yerga dam olgani to'xtab, o'z tug'ini tikkani uchun bu yer shunday nom olgan. Xuddi shunga o'xshash talqin A.Soliyevning "Izboskan tarixi" nomli kitobida ham qayd etiladi: "Poytug' atamasi arablar istilosi voqealariga bog'liq nomlar sarasiga kiradi. Poytug' so'zining etimologik tahlili: "Poy" – qadam, oyoq; "tug'" – bayroq ma'nosini anglatadi. "Poy" va "tug'" nomlarining birikuvidan esa "Poytug'" toponimi hosil bo'lgan. Demak, "Poytug'" so'zi "Alining qadami yetib ishg'ol etilgan va g'alaba bayrog'i ko'tarilgan joy" degan ma'noni anglatadi"(А.Солиев. Избоскан тарихи. – Тошкент, 1993. 7-8-бетлар).

Yuqoridagi talqinlar xalq etimologiyasiga asoslangan bo'lib, S.Jalilov ta'kidlaganidek, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) dan keyingi to'rt xalifa (mashhur "Chaxoryor" lar) dan so'nggisi bo'lmish Ali ibn Abu Tolib bizning o'lkalarga kelmagani tarixdan ma'lum. Umuman, Ali nomi bilan bog'liq boshqa joylar ham bor. Masalan, Izboskan tumanida "Ali maydon", "Ola maydon", Qirg'izistonda esa "Alamuydin" degan mavzelar yoki Farg'ona viloyatidagi "Shohimardon" qishlog'ini ham hazrat Ali nomi bilan bog'lash odat bo'lib ketgan. Hatto Tojikistondagi Darvoz nomli tuman va shaharchani ham Ali nomiga bog'laydilar, ammo Arabiston tarixida Alining O'rta Osiyo tomonlarga kelgani haqida birorta hujjat yo'q. Ali Iroqning Najaf qasabasida dafn etilgan. O'rta Osiyo, Afg'oniston

va Eronda hech qachon bo'lmagan (С.Жалилов. XV–XVI аср бошларида Фарғона ва Андижон. – Андижон, 2005. 15-бет).

Shu bilan bir qatorda S.Jalilov Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida **Boytoq**, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida esa **Poytog'** tarzida tilga olingan va sohibqiron Amir Temur (Bo'riboy Ahmedovning yozishicha) 53 kun turib, 1376-yil qish mavsumini shu yerda o'tkazgan mavzeni hozirgi Poytug' shahri deb hisoblash to'g'ri ekanligi haqidagi taklifini ilgari suradi. Bundan tashqari, olim xulosalariga ko'ra, Poytug' "Boburnoma"da tilga olingan "Ikki suv orasi" (Miyon Rudon), ya'ni Norin va Qoradaryo o'rtasida joylashgan bo'lib, Boburning yozishicha, ov qilish uchun nihoyatda sharoiti keng, ovbop hayvon-u qushlarga serob joy bo'lgan. Qayd etilgan mulohazalar o'z o'rnida maxsus tekshirishlarni talab etsa-da, shaharning o'rni haqida "Ibrat-ul havoqin"da ham Poytug'ning ikki daryo oralig'ida (Norin va Qoradaryo), Bilqillamaga yaqin joyda joylashganligi haqidagi fikrlar aytib o'tiladi.

V.V.Radlov tadqiqotlarida "Paytoq – yo'l, piyoda yuriladigan yo'l" tarzida izohlanadi. Z.Do'simov, X.Egamovlarning toponimik lug'atida esa Buxoroda xonlik davrida dahaboshi mahkamasi ham Poytug' deb atalganligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida Poytug' astionimining ikkincha tarkibiy qismida qatnashgan turkiycha ***tug'*** – تۇغ leksemasining bir nechta ma'nolarini berib o'tadi: ot oyoqlarining tepinishidan chiqqan chang, to'zon; xon huzurida chalinadigan nog'ora va dovul: *xan tug' urdï (xon dovul qoqdi);* tug', bayroq: *toquz tug'lug' xon;* to'g'on: *suvqa tug' ur (suvga to'g'on qur);* har narsaning tiqini, qopqog'i: *to'ɳlo'k tugÏ (tuynuk qopqog'lari).*

Devonda keltirilgan izohlardan eng ma'qulini H.Hasanov – "to'g'on" so'zi deb hisoblaydi va Poytug' – "to'g'on tagi", "to'g'on yoni" ma'nosini bildirishini aytib o'tadi (Ҳ.Ҳасанов. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент, 1965. 50-бет).

Bizningcha ham, mazkur talqin haqiqatga yaqin bo'lib, ikki daryo oralig'ida joylashgan Poytug' shahri gidrologik inshoot – "to'g'on" yaqinida barpo etilgan bo'lishi mumkin. Chunki suv inshootlari nomi asosida yasalish: *To'g'onboshi, Qumto'g'on, Naynavo, Yuqori Naynavo, Novboshi* kabilar vodiy toponimik tizimida uchraydi va bu xalqning o'ziga xos sug'orish hamda dehqonchilik madaniyati bilan aloqador jihatlarini ifodalaydi.

Shunday qilib, astionim ikki tarkibiy qismdan iborat: fors-tojikcha **poy** – ***oyoq, adoq, ost;*** turkiycha **tug'** – ***to'g'on*** ma'nosini ifodalaydi va **Poytug'** – "To'g'on tagidagi shahar" tarzida izohlanadi.

POZAGARI – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim fors-tojikcha

bo'lib, u ikki qismdan iborat. Apellyativning birinchi qismi ***poza*** – *"omochning uchiga kiydiriladigan cho'yan tish"* ma'nosini anglatadi.

Shunday qilib, ***pozagar (pozarez)*** – "omoch tishi quyuvchi usta" manosini ifodalaydi.

POCHVON – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. **Poch** – *panj* (f-t) so'zining o'zgargan shakli. Toponimning ikkinchi qismi *juvon/-on* so'zining qisqargan shakli bo'lib, xalq rivoyatida yosh yigit ma'nosidagi so'z deyiladi. Qishloqqa beshta aka-uka asos solganlari uchun shunday nomlangan. O'zbeklarda beshbola, do'rman, yetti qashqa, oltibek urug'lari bor. Bu holat **Pochvon** – *besh yigit* nomi ham bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

PRIMKENT – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qadimiy qishloqlardan birining nomi. Tarixiy manbalarda Afarun Samarqand afshini (hokimi) G'urak (711–738) ning ukasi sifatida tilga olinadi. Mazkur shaharga Afarinkas yoki Farankas (Ishtixon okrugi, hozirgi Frinket, Prinket) asos solgan (An-Nadim, 1, 18). Boshqa manbalarda Farankas G'urak tomonidan qurilib, Afarunga hadya qilingan deyiladi (An-Nasafiy. Tarixi Samarqand).

Samarqand shahri 712-yili arablar tomonidan ishg'ol qilingach, Afaruntkas G'urakning qarorgohiga aylangan. Ba'zi manbalarda shahar nomi forscha *ofarin* so'zi ta'sirida paydo bo'lgan, deyishadi.

Aparun ismi sug'd asilzodalari orasida keng tarqalgan. Bu nomni sug'dcha **aparun, afarun** – *"duo qilmoq, oq fotiha bermoq, rag'batlantirmoq"* so'zlari bilan qiyoslash to'g'ri emas (СДСГМ, Юридические, 1962).

V.L.Vyatkin Afarinkent yoki Farinkent haqida gapirar ekan, bu shaharcha Zarafshon vodiysidagi eng qadimiy aholi punktlaridan biri ekanligini qayd qiladi.

"Qandiya" kitobida aytilishicha, Samarqand ixshidi (podshosi) G'urak VIII asrda bunyod qilgan bu shaharcha uning ukasi Afarun nomi bilan atalgan. Demak, **Afarunkent** – *Afarun shahri* ma'nosida. Keyinchalik, davr o'tishi bilan bu nom hozirgi **Primkent** shaklini olgan.

PULIHOKIM//PULHOKIM – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. To'g'rirog'i, **Pulihokim** emas (hokim), **Pulixokin** – *yer ko'prigi.*

Demak, ***Pulihokim*** toponimi "Tuproqli ko'prik" ma'nosini anglatadi.

PULIMUG'OB – Samarqand viloyatining Toyloq tumani yo'lidagi joy nomlaridan biri. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida bu toponim "Pulimag'ok" shaklida yozilgan.

Shuningdek, Bobur asarida shaharning shimoli-g'arbidagi Ko'li Mag'ok haqida ham muxtasar fikr yuritadi. Bundan tashqari, Buxoro shahridagi Mag'oki Attori masjidi nomining birinchi so'zi ham yuqoridagi geografik nomlarga shakldosh.

Lug'atlarda **mag'oq** – *"chuqur, past"* ("Farhangi zaboni tojik", 1969: 668) ma'nosini anglatadi.

Demak, bu nom xalq etimologiyasida rivoyat qilinganidek, *"Mug' suvi ko'prigi"* emas, *"chuqur ko'prik"* deb izohlanishi to'g'ridir. Dastlab Ibn Havqal asarida tilga olingan bu ko'prik nomi *Qantar* (arabcha *"ko'prik"*) va *jurd ("chuqur")* so'zlaridan yasalgan (Qorayev, 2005). 1926-yilgi aholi ro'yxatida Xo'jand tumanidagi Pulichuqur toponimi qayd etilgan (Материалы Всесоюзной, 1927).

Shuningdek, Samarqand viloyatining Samarqand tumanida shunday nomli toponim mavjud bo'lib, unga shunday izoh berilgan: *pul* – ko'prik, *mug'* – otashparastlik, *ob* – suv. **Pulimug'ob** – *otashparastlar daryosining ko'prigi.*

PUXTABOFON – Buxoro shahridagi daha. Forscha *puxtabof* – to'quvchi, *-on* – ko'plik ko'rsatkichi. "Daha aholisining deyarli barchasi to'quvchilardan tashkil topgan edi" (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 105).

PUSHTA – Navoiy viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur toponimning manbalarda ikkita ma'nosi qayd etiladi:

1) *yonbag'ir, tepalik, tog', qir, ko'tarma, uyum, to'plam* ma'nosida;

2) *ikki jo'yak orasida qoldirilgan bo'shliq* ma'nosida.

E.M.Murzayev Tojikistondagi *Safedpushta, Surxpushta* tog'larini, Ozarbayjondagi *Pushtatala* toponimini tilga oladi. Bu termin *pushta (pushte)* shaklida Eronda ko'p toponimlar hosil qilgan.

Xorazm (o'g'uz) shevasida bugungi kunda *pushta* so'zi faol qo'llaniladi va u belkurakning orqa tomoni bilan urib, tuproqni maydalashda – pushta urish deb ishlatiladi. Faqat u mazkur hududda joy nomi, ya'ni toponim sifatida mavjud emas.

PUSHTAYI ZOG'ON – Buxoro shahridagi daha. *Pushta* – tepalik, *zog'* – qarg'a: Demak, **Pushtayi zog'on** – *"qarg'alar tepaligi"* ma'nosini anglatadi.

PUCHUG'OY – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik, Andijon viloyatining Baliqchi va Namangan viloyatining Chust tumanlaridagi qishloqlar nomi. Demak, *Puchug'oy* toponimi Farg'ona qipchoqlari urug'idan biri (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 117).

Puchug'oy etnonim sifatida Farg'ona qipchoqlari hamda qirg'izlarning kesek urug'i tarkibida uchraydi. O'TILda *puchuq* leksemasi quyidagicha izohlanadi:

1.Yassi, yopishgan yoki shikastlangan (burun haqida);

2. Qanshari past, burni yassi, yopishgan, kichik yoki shikastlangan (O'TIL. 3-jild. 325-bet).

Etnograf olim O'.Qoratoyevning yozishicha, etnonim kishilarning tashqi ko'rinishi yoki laqabi asosida vujudga kelgan. Urug' nomi esa keyinchalik shu nomdagi joy nomlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

PO'LAT – qishloq. Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi qishloq

nomi. Po'lati – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om va Qashqadaryo viloyatining Koson tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Pulat* – forscha **po'lod** – "temir". Ammo bu oykonimlar etnotoponimlar hisoblanadi.

Po'lat etnonimi variantlari bilan *(polot, pulat, po'lat)* turkiy xalq urug'-qabilalari orasida qayd etilgan: *polot* – qirg'iz qabilalari tarkibida bagish qabilasi, turkman qabilalari tarkibida esa g'oklan qabilasi, *polat bachcha* – o'zbek qabilalari tarkibida barlas qabilasi (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории, 1976. С. 79).

Polatkel – turkman qabilalari tarkibida teke qabilasi, *pulatlar* – turkmanlar qabilalari tarkibida ata qabilasi, *polot* – qirg'iz qabilalari tarkibida adigine qabilasi, *pulatkel* – turkman qabilalari tarkibida ersari qabilasi, *pulatli* – turkman qabilalari tarkibida ersari qabilasi, *po'latchi* – o'zbek urug'-qabilalari nomlarida uchraydi (X. Doniyorov. O'zbek xalqi shajara va shevalari, 1968).

PO'LAT BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti kishi ismini anglatadi.

Geografik termin hisoblangan "***buloq***" so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* [O'TIL. 1, 371].

Shunday ekan, "***Po'lat buloq***" – antropogidronim tip va *"Po'lat ismli kishiga qarashli yoki yashash hududiga yaqin yerdagi buloq"* deb izohlash to'g'ri bo'ladi.

PO'LATCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Po'latli – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumani, Buxoro viloyatining Jondor tumani. *Po'lat* – temir, *po'latchi* va *po'latli*. Aslida, bular (o'zbeklar va turkmanlardagi) etnonimlar sanaladi.

PO'STINDO'ZON – daha. Buxoro shahridagi daha. *Po'stindo'z* – mo'ynali kiyim, po'stin tikuvchi, *-on* – ko'plik qo'shimchasi. "Daha aholisining asosiy mashg'ulotlari po'stin tikish sanalib, uning nomlanishiga sabab bo'lib xizmat qilgan" (O.A. Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 79).

PO'STINLISOY – soy. Qashqadaryo viloyati. Soy nomining kelib chiqishiga etnonim asos bo'lgan. Chunki *po'stin* – kaltatoylarning kichik urug'i bo'lgan, *-lik* esa affiksdir.

PO'STINNI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Qashqadaryo viloyatining qaziyag'li urug'i bo'linmalaridan biri ***po'stinli//po'stinni*** (po'stinli) deb nomlangan (Bu haqda qarang: B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. 162-bet).



QADIM – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. **Qadim** – *qadimlilik, uzoq o'tmish, qadimgi, eski qishloq"* ma'nosini anglatadi.

QAHAT – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod hamda Buxoro viloyatining Shofirkon va Vobkent tumanidagi qishloqlar nomi.

"Majmu at-tavorix" (XVI asr) va "Tuhfat at-tavorixi xoniy" (XIX asr) asarlarida *qahat* – (قحت) 92 bovli o'zbek urug'laridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Qahat etnonimining kelib chiqishi haqida T.Nafasov quyidagilarni qayd etadi: "Urug' nomining tovush va morfema tarkibi: *qahat // qag'at // quqat // qug'at // quvqat // quvvat // qahat.* Urug' nomiga asos bo'lgan so'z: *qa / qu / quv* – "qush", "qush turi". So'nggi qismi: *-at / -g'at / -qat / -hat,* ma'nosi – jamlik, to'p. Qush nomi totemga, totem nomi urug' nomiga aylanishi jarayonida jamlik ma'nosidagi qo'shimcha qo'shilgan".

Geografik joy nomiga asos bo'lgan *qahat* so'zi *"ocharchilik", "hosilsizlik", "yutgarchilik"* kabi ma'nolarni anglatadi. Bu yerda *qahat* so'zi urug' nomi, etnonim. Qishloqlar hududida *qahat* urug'i vakillari yashaganligi sababli ham shunday nom olgan.

Demak, etnooykonim *"qahat urug'i vakillari yashaydigan joy"* ma'nosini bildiradi.

QALAJIQQAL'A – mahalla. Tarixiy toponim. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Bog'ot tumanida joylashgan eng qadimgi osori atiqalardan biri Qalajiqqal'a hisoblanib, bu tarixiy obida xalq orasida *Dovudqal'a* deb yuritilgan.

Yodgorlik Hazorasp va Xiva tumanlari o'rtasida joylashgan bo'lib, arxeologik tekshirishlarga ko'ra, eramizdan oldingi V asrga oid ekanligi taxmin qilinadi. Bu qadimiy qal'ani o'z davrida mashhur tarixchi-arxeolog olimlardan akademiklar S.P.Tolstov va Y.G'.G'ulomovlar tekshirgan bo'lsalar ham, tadqiqot ishlari oxiriga yetkazilmasdan qolgan. Keyingi davrlarda arxeolog olimlarimiz prof. M.Mambetullayev, dotsentlardan Q.Sobirov, R.Abdirimovlar ham ba'zi qazuv-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Olimlarimizning tadqiqotlari natijalariga asoslanib, Xorazmning miloddan avvalgi IV–V asrlarga oid qadimiy

qal'alaridan biri Qalajiqqal'a bo'lgan.

Qalajiq qal'asi qadimda *Kardaronxos* deb yuritilgan. Bu nom qadimgi Xorazmning muqaddas "Avesto" davriga oid xorazmiy tiliga xos atama bo'lib, *hunarmandlar shahri* degan ma'noni anglatgan. Shaharda asosan temirchilik, qurol-aslaha yasash juda rivojlanganligi sababli aholi qal'ani temirchi ustalarning piri hisoblangan Dovud payg'ambar sharafiga Dovudqal'a, deb ataganlar.

Rivoyatlarga qaraganda, hozir ham qal'a qa'ridan temirchi bolg'asining sadolari eshitilib turar emish. Ko'hna Xorazm hududida Dovud payg'ambarga nisbat berilgan ko'plab muqaddas qadamjolar borligi sababli bu mo'tabar shaxs haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu tarix miloddan oldingi X asrga borib taqaladi. Muqaddas kitoblar Tavrot, Injil, Zabur va Qur'oni karimda tilga olingan payg'ambar Dovud alayhissalom (1047–965) 82 yil umr ko'rib, eramizdan oldingi 1017–965-yillarda 52 yil Isroil-Yahudiy davlatida podsholik qilgan. Payg'ambarlik maqomiga erishgan Dovud alayhissalomga muqaddas kitob Zabur nozil qilinadi. O'zining ta'sirchan va yoqimli ovozi bilan Zabur suralarini chiroyli qiroat ila aytib, barcha fuqarolarni mahliyo qiladi. Shu sababli ham yoqimli ovoz sohiblariga Dovudiy ovoz egasi deyiladi. U hukmronlik qilgan davrda mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli juda rivojlanadi. Natijada Dovud alayhissalom qalbida kibr alomatlari paydo bo'ladi. O'zining 40 nafar bahodir o'g'lonlari bilan mag'rurlanib, Xudoga shak keltiradi. Bundan Xudoning qahri kelib, ibodat chog'ida boshini sajdaga qo'ygan 40 nafar o'g'lining jonini oladi. Og'ir musibatga mubtalo bo'lgan Dovud alayhissalom uzoq muddat yig'lab, Yaratganga tavba qiladi. Xudoyi taolo Dovudning tavbasini qabul qiladi va unga: "Ey Dovud! 40 o'g'lingni beraymi yoki ularning o'rnini bosuvchi bitta o'g'il beraymi?" – deydi. Dovud alayhissalom bitta o'g'ilga rozilik bildirgach, Sulaymon tug'iladi. Eramizdan oldingi 1002–928-yillarda yashab, 74 yil umr ko'rgan Sulaymon alayhissalom 965–928-yillarda 37 yil Isroil-Yahudiy davlatida podsholik qilgan va payg'ambarlik maqomiga erishgan. Rivoyatlarga qaraganda, u yerusti va osti, ins-u jin, hayvonlar-u parrandalarga podsholik qilgan. Qadimiy Xorazm diyoridagi Hazorasp qal'asiga Sulaymon alayhissalom asos solganligi bois Sulaymonqal'a deyiladi.

Shunday qilib, ko'hna karvon yo'li ustida ikkita egizak qal'a – Hazorasp (Sulaymonqal'a) va Kardaronxos (Dovudqal'a) tarix sahifasida paydo bo'ladi. Bu tarixiy obida haqida o'tmish tarixchilaridan Abu Is'hoq al-Istaxriyning "Kitob al-masolik val-mamolik", Abu Abdulloh al-Muqaddasiyning "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim", muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" asarlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Al-Istaxriy va Al-Muqaddasiylar Kardaronxos qal'asining mustahkam

baland devorlari, chuqur xandaqi va hashamatli yog'och darvozalari bo'lganligini yozadilar.

Kardaronxos qal'asi Xorazmning Sharqida Hazoraspdan keyin joylashgan istehkom bo'lib, minglab yillar davomida Xorazmga bostirib kelgan eroniylar, Aleksandr Makedonskiy, eramizning VIII asrida arablar, X asrda qoraxoniylar, XI asrda g'aznaviylar, XII asrda saljuqiylar, XIII asrda mo'g'ul bosqinchilari, XIV asrda temuriylar, XVI asrda shayboniylar, XVIII asrda Nodirshoh lashkari hujumiga duchor bo'lib, qal'a aholisi turli tomonlarga ketib qolgan va qal'a xarobaga aylanib, devorlari yemirilgandan keyin xalq orasida Qal'ajiq, ya'ni Kichikqal'a nomi bilan atala boshlagan.

Hozirgi kunda bu tabarruk maskan respublikaning turistik marshrutlari ro'yxatiga kiritilgan. Saxovatpesha tadbirkorlar va ma'rifatli rahbarlar homiyligida sayilgoh va shifo maskaniga aylantirilgan. Qal'aning janub tomonida saqlanib qolgan shifobaxsh balchiqli ko'l va yuqori haroratli qum uyumlari shifotalab insonlar va xorijlik sayyoh-mehmonlar bilan gavjum.

QALANDARXONA – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. **Qalandar, Qalandarxona** – *"darvish va darbadarlar uchun uy", "darveshlar yashaydigan qishloq"* ma'nolarini anglatadi.

Samarqand viloyati Samarqand shahrining sharqiy qismidagi mahallalardan biri ham shunday nomlanib, unga ham deyarli shunday izoh beriladi.

QALANDARXO'JA – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. 1904–1905-yilgi aholi punktlari ro'yxatida bu qishloqda 26 ta xonadon va 115 ta aholi punkti bo'lganligi qayd qilingan. Tarkibida "qalandar" termini ishtirok etgan joy nomlari jumlasiga Payariq tumanidagi Qalandar, Samarqand shahridagi Qalandarxona kabi nomlarni kiritish mumkin. Shuningdek, Samarqand shahrida Eski Qalandar mahallasi ham bo'lgan (Мавзолей Ишгархана. 1958: 165).

Qalandarlar (tojikcha "kambag'al darvesh") haqidagi ayrim qaydlar V.L.Vyatkin, O.A.Suxareva, I.P.Petrushevskiy, A.L.Troitskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida uchraydi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, qalandarlar o'zlarini shayx Bahouddin Naqshbandiy sulukiga mansub deb bilganlar. Qalandariya tariqatiga asos solgan kishi sifatida Shayx Safo (1740–1741-yillarda vafot etgan) nomi tilga olinadi. XVIII asrning birinchi yarmida Makkadan Samarqand shahriga kelgan Shayx Bobo Xoja Safo Ishratxona maqbarasi yaqinidagi G'ori Oshiqon degan joydan yer olib, bu yerda keyinchalik Qalandarxona deb nomlangan takya, ya'ni xonaqoh qurdirgan.

Bobo Xoja Safoning Samarqanddagi takya va qalandarxonaga asos solganini Abu Tohirxoja ham eslatadi. 1781-yili Shohmurodbiy Samarqand hokimi qilib tayinlangach, xaroba holiga kelib qolgan shahar devor-

lari tuzatilib, sobiq Feruza darvozasi Qalandarxona deb atalgan. Bu yerdagi mahalla ham Qalandarxona deb yuritila boshlaydi.

Qalandarlar haqida birmuncha batafsil ma'lumot bergan A.L.Troitskayaning yozishicha: "Samarqand qalandarlarining yetakchi shayxlari Qalandariya mazhabiga asos solgan Shayx Safo avlodlari bo'lgan. Mazhabning region (joy) lardagi bo'limlari (butun o'lka, shuningdek, Buxoro, Koshg'ar, Afg'oniston va Xiva)ga Shayx Safo avlodlari bilan birga Samarqand shahrida irshod (arabcha *haq yo'lidagi ko'rsatma, qo'llanma*) olgan oddiy qalandarlar, eshonlar boshchilik qilganlar.

Qalandarlar yashagan joy tojikcha *xonaqoh* yoki *qalandarxona* deb yuritilgan. Bunday qalandarxona Toshkent shahridagi Beshyog'och dahasining Qo'g'urmoch mahallasida ham bo'lgan. Shayx odatda to'ra (turkiy "janob, asilzoda"), eshon to'ra (tojikcha – turkiy) yoki bobo deb atalgan (Troitskaya, 1975: 191–199). Ishtixon tumanidagi Safoxo'ja qishlog'i nomi ham Bobo Safo nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Har holda, Qalandarxo'ja qishlog'idagi xo'jalar o'zlarini samarqandlik va safoxo'jalik xo'jalar bilan qarindosh ekanliklarini ta'kidlashlariga ko'ra, ular orasida uzoq qarindoshlik munosabatlari mavjud.

Toponim tarkibidagi "xo'ja" so'zi va uning etimologiyasi munozarali masalalardan bo'lib qolmoqda. Mazkur termin haqida fikr yuritgan R.Y.Rassudova o'lkamizda xo'ja (ba'zi adabiyotlarda "xvo'ja" tarzida yoziladi) so'zi bilan bog'liq toponimlar keng tarqalganligini qayd etadi. Xo'ja termini faqat aholi punktlari nomlaridagina emas, balki aziz joylar (ziyoratgohlar), irrigatsiya inshootlari va boshqa obyektlar nomlarida ham uchraydi, deydi olima. "Xoja, xvoja, xo'ja so'zi forscha bo'lib, "rahbar, boshliq" ma'nosidadir. Mazkur so'z bundan tashqari yana bir necha ma'nolarda qo'llanadi. Ammo, asosan, ma'lum imtiyozga ega bo'lgan tabaqaviy guruhga mansub etnik birlikni ifoda etadi.

"G'iyos ul-lug'at" muallifi mazkur so'zni shunday izohlaydi: "Xoja – xudovand ma'nosida. Turon sultonlari laqabidir. Hindistonda xoja so'zi asosan "xo'ja" shaklida yozilib, shunday o'qiladi va aksari azizlar laqabidir.

Faqir turkiy lug'atlarda xo'ja so'zining malik (molik) ma'nosida ekanligini uchratdim. Shundan ma'lumki, ushbu so'z turkiydir" (G'iyos ul-lug'at, 1987: 318).

Xo'jalarning kelib chiqishini ko'pchilik arablarga mansub deb biladilar. Ba'zilar ularni arab sarkardalari bilan bog'lashsa, ba'zilar to'rt xalifaga yoki ulardan biriga aloqador deyishadi. Nihoyat payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom avlodlari deb biluvchilar ham bor (Rassudova, 1978: 115–120).

A.G'afurov xo'jalar o'zlarini xalifalar avlodi deb bilishlari, ular bir qator imtiyozlarga egaliklari, ya'ni tan jazosidan ozod ekanliklari, jamoa ishlari –hasharlarga olinmasliklari va boshqalar haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, olim "xo'ja, sayid va to'ra sinonim so'zlar bo'lib, ulardan birinchisi eroniy, ikkinchisi arab va uchinchisi turkiy tilga mansub", deb qayd qiladi (Gafurov, 1987: 93–94).

"Xo'ja" termini ishtirokida yasalgan joy nomlari, gidronimlar Samarqand viloyatida ko'plab uchraydi. Jumladan, R.Y.Rassudova Zarafshon vodiysidagi 1862 ta qishloq nomidan 62 tasi "xo'ja" termini ishtirokida yasalganligini ta'kidlab, bu regionda xo'jalarning asosiy qismi joylashganligini ko'rsatadi (Rassudova, 1978: 117). Masalan, Xo'jaqishloq (Urgut), Xo'ja (Jomboy, Narpay, Ishtixon, Paxtachi, Pastdarg'om), Xo'jalar (Ishtixon, Kattaqo'rg'on), Xo'jamazgil (Bulung'ur), Xo'jagunjoyish (Samarqand tumani) va boshqalar. Olima ikkinchi bir ishida xo'jalarning, asosan, Miyonqolda joylashganligini va ular So'g'onchi, Dahbed, Loyish, Dabusiya, Ishtixon, Motrid, shuningdek, Samarqand shahri va uning atroflarida yashashlari haqida ma'lumot beradi (Rassudova, 1987: 70).

Shuningdek, *"shayx", "sheyx"* (arabcha *"yo'lboshchi, boshliq, oqsoqol"* ma'nosida), *"ishon", "eshon"* terminlari ishtirokida yasalgan joy nomlari ham uchraydi. Jumladan, Shayxlar (Shixlar) (Ishtixon), Ko'rshix, Eshonqishloq (Oqdaryo), Yakkashix (aslida Yakkashayx, Dovchar ham deyiladi) – qishloq va qabriston, Olimshayx qabristoni (Aylovotxo'ja qishlog'ida), Toyirshayx qabristoni (Bahrin qishlog'ida), Darvishiq qishlog'i va qabristoni (Payariq), O'rtashiq (Samarqand tumani), Eshonqishloq (Urgut) kabilar shular jumlasidandir.

A.G'afurovning fikriga ko'ra, eshon so'zi unvon sifatida temuriylar davrida paydo bo'lgan. Dastlab uchinchi shaxs ko'plikni ifodalovchi olmosh keyinchalik darveshlar suluki shayxlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Biror-bir hurmatli shaxsni ta'kidlash kerak bo'lganda, u kishini "hazrati ishon" deb ataganlar. "Eshon" so'zi tabu (taqiqlangan so'zlar o'rniga qo'llanadigan ibora yoki so'z) vazifasini bajargan.

Muhammad Yusufning munshi asaridagi izohda esa "Ishon" so'zi Movarounnahr shevasida mahalliy darveshlar suluki boshliqlarining turdosh oti deyiladi. Shuningdek, mazkur so'z qadimiy bo'lib, buni mashhur Xuroson shayxlaridan Abu Said Meyxoniyning (1049-yil vafot etgan) "Hazrati ishon" iborasini oddiy darveshlarga nisbatan qo'llanilishiga qat'iyan qarshi chiqqanligi haqidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi (Мухаммад Юсуф. Мукимханская, 1956: 250). Ko'rinib turibdiki, ilmiy adabiyotlarda "eshon" termini haqidagi fikrlar mushtarak emas.

QALINPO'STIN – qishloq. Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi qishloq nomi. Po'stin ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Po'stinli urug' nomi sifatida ham qayd etilgan (Qorayev, 2001).

QALMOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kitob hamda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanlarida-

gi qishloq nomi, *Qalmoqon* – Buxoro viloyatining Shofirkon tumani. Qalmoqlar Movarounnahrda yashagan va ehtimol o'zbeklar tarkibiga kirgan turklashgan mo'g'ul qabilalarining avlodlaridir. Qalmoq qabilasi o'zbek qabilalarining barcha ro'yxatlarida tilga olinadi.

Qalmoq etnonimining etimologiyasiga keladigan bo'lsak, biz uning ma'nosini turkiy asosda izladik va qalmoq so'zini *"ajratilgan", "tushib qolgan"* deb tushuntirdik.

Biz nisbatan ishonchli deb, quyidagi variantni hisoblaymiz: mo'g'ul tilida *xalmig* "aralash", "gibrid" ma'nosini ifodalaydi (В.П. Дарбакова. К этимологии этнонима калмык. Сб. "Этнонимы". – М., 1970. С. 265–268).

QALQONRUD – kanal. Zarafshon daryosidan keltirilgan qadimgi kanal (Buxoro viloyati). Ilk bor Narshaxiyda (Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., 1966, 35, 42-bet) **Xarqonrud** shaklida, arab geograflarida esa **Naxri Xarganrud** (Истахри, БАГ, 1, –С. 310, Ибн Хавкал, БАГ, –С. 360) sifatida tilga olinadi.

Bundan tashqari, Buxoro yaqinida **Harqanot Ulyo** (Narshaxiy, Buxoro tarixi, 35-bet) nomli ariq bo'lgan, u hozirda **Qalqonota** deb nomlanadi; ammo **Harqanot ul-Soniyo** – "Pastki Harqon" arig'i esa – hozirda **Xalqanrud**. Mazkur ariqning qirg'og'ida **Qalqonota** nomli qishloq bor.

A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, bu toponimlarning barchasi eroncha so'zlardan tashkil topgan: *xar* (*qal* shaklidan kelib chiqqan) – katta, buyuk, *kann* – kanal, ariq, *rud* – daryo, ba'zan kanal (*nahr* arabcha – "kanal", "ariq"). *-at* (-ata) komponentiga kelsak, Markaziy Osiyodagi ko'pchilik toponimlar tarkibida *ata* (ota) "muqaddas", "aziz", "muqaddas joy" ma'nolarini ifodalaydi, ammo aniq misollarda yuqorida tilga olingan toponimlarda *-ata* komponentini biz arabcha birlashtirish qo'shimchasi *-at (a)* deb hisoblaymiz.

QAL'ACHA – qishloq. Farg'ona viloyatining Quvasoy shahar hududida joylashgan qishloq nomi. Qal'a, Qal'acha toponimlari keng tarqalgan. Atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on shunday nomlangan. Bizning tadqiqotlarimizga ko'ra, bunday nom tabiiy jarayonlar, masalan, sel va toshqinga qarshi chora-tadbir ko'ruvchi qishloqlarga nisbatan ham qo'llangan bo'lishi mumkin (Ahmadaliyev, 2007).

QAMASHI – tuman va shahar. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududining bir qismini Qarshi cho'li egallagan. Qamashi nomi o'zbek-qo'ng'irot qabilasi tarkibidagi qamaychi urug'i nomidan olingan. T.Nafasovning yozishicha, qamay qadimgi turkiy etnonim. Turkiy qabila totem asosida nomlangan. Bu etnik guruh vakillari uchun lochinsimonlar turkumi, qarchig'aylar oilasiga mansub bo'lgan qamay qushi totem sifatida qabul qilingan. Bu qushning hozirgi o'zbek tilidagi nomi – qumoy va u O'zbekistonda Hisor tog'larida uchraydi. Qumoy tabiatda kamyob

tur sanaladi. O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan. Rivoyatga ko'ra qumoy qushi uchganda soyasi kimning boshiga tushsa, u davlat, saltanat va baxtga erishadi. Qush dastlab totem bo'lgan, keyinchalik urug' nomi, shahar nomi va tuman nomiga aylangan.

Demak, qush dastlab totem bo'lgan, keyinchalik urug' nomi, shahar nomi va tuman nomiga aylangan.

QAMISHBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ikki komponentli toponim. Ot (qamish)+ot (buloq) tuzulishiga ega.

Apellyativning birinchi komponenti "***Qamish***" so'zi *"boshoqdoshlarga mansub, suvda, botqoqlikda, to'qayzorda o'sadigan, bo'g'im uzun poyali o'simlikning shu o'simlikning o'rilgan poyasi va uning cho'pi"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 591].

Uning ikkinchi qismi *"**Buloq**"* so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"*dir [O'TIL. 1, 680].

Yuqoridagilarga asosan "**Qamishbuloq**" – "*qamishzordagi buloq*" ma'nosini bildiradi.

QAMISHLI – ko'l. Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanidagi ko'l nomi. ***Qamishli*** – bu ko'lning atrofida har doim qamish o'simligi o'sib turganligi Qamishli deb atalishiga sabab bo'lgan.

QAMISHLIJAP – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bu jap Taxtako'pir tumani "Mulik" QFY hududida Oqjay aholi punktining shimol tarafidan oqadi.

"Mulik" QFY fuqarosi 69 yoshli (2017-yil) nuroniy Asqarov Baxitbayning aytishicha, bu sug'orish tarmog'ining ikkala tarafida har doim qamish o'simligi o'sib turganligi Qamishlijap deb atalishiga sabab bo'lgan.

QAMISHLOQ – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. Demak, **Qamishloq** fitotoponomi *"Qamishlar ko'karadigan joy"* ma'nosidagi qadimgi toponim, hozirda **Qamishli** ko'rinishdagi shakliga ega.

QAMCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. Qamchi degan etnonim bor: o'zbeklarning kesamir qabilasining urug'laridan biri *qamchi* deb nomlangan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 103), o'zbek-qipchoqlarda esa qamchili urug'i bor (К.Шаниязов. К этнической истории. С. 123).

QAMCHINBOP//QAMCHINBOF – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Qamchi; *qamchinbof* toponimi *"qamchi tayyorlaydigan odam"* ma'nosini ifodalaydi.

Qamchinbof – *Qamchin* so'zi *qamchi* so'zining xalq tilidagi o'zgargan shakli bo'lib, *otni yurishga undash uchun ishlatiladigan dastali asbob*ni anglatadi.

Demak, **Qamchinbof** toponimi *"qamchin ustasi", "qamchin to'qiydigan usta", "ingichka tasmalarni o'rib qamchin yasovchi kishi"* ma'nosini anglatadi.

QAMCHINFURUSH – mahalla. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanida-

gi mahallalardan birining nomi. *Qamchin yasash va uni sotish bilan shug'ullanadigan ustalar yashaydigan mahalla* ma'nosida bo'lishi mumkin.

QAMCHIQ – dovon. Farg'ona vodiysini Toshkent bilan bog'laydigan qadimiy dovon yo'li, Chatqol tog'ini kesib o'tadi. "Boburnoma"da Kendirlik deb tilga olingan. Keyinchalik bu yo'l tog'dan oqib tushgan kichikkina Qamchiqsoy nomi bilan "Qamchiqdovon" deb atalib ketdi.

Qurama cho'qqisi, Toshkent viloyati Ohangaron tumani. *Kam* – chuqurlik, *-chik* – erkalash-kichraytish qo'shimchasi; balki *kamshik, kemshik* terminlari ostida aynan shu ma'noda kelgandir.

Ushbu joy nomining etimologiyasi bo'yicha professor I.Yormatov shunday fikr bildiradi: "Kamshik" deb bir bo'y sira qator tizilgan narsalarning biron joyidagi kemtikka (qatordagi boshqa narsalardan kamchilikli, qusurli joyiga) aytiladi. Binobarin, birorta tishi tushib qolgan odamga hozir ham "kamshik" degan laqabni qo'llaydilar. Siz agar Tangatopdi, Chetsuv, Ko'ksaroy yoki Ertosh qishloqlari orqali Boboitog' cho'qqisiga ko'tarilsangiz, qarshingizda Qurama tizmasining Boboiob cho'qqisidan sharqqa qarab odamning tishiga o'xshab tizilgan balandliklari orasida avtotrassa o'tgan joy chuqur kemtik ekanligiga amin bo'lasiz. Bu yerda ov qilib yoki mol boqib yurgan mahalliy aholi bu holatni necha asrlar mobaynida kuzatgan va aynan shu joyni "Kamshik" deb atagan.

Demak, ana shu Kamshik dovonidan oqib tushgan soyning nomi ham hozir yozilayotganidek "Qamchiqsoy" emas, balki Kamshiksoydir."(I.Yormatov. Saodat vodiysi. – Toshkent: Navro'z, 2012. 49-bet).

QANDEKLI – Shumanay, Qorao'zak tumanlaridagi ovullar nomi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot qabilasi tarkibida qandekli urug'i mavjud bo'lib, hudud shu asosida atalgan.

QANDI – qishloq. Andijon viloyati Jalaquduq, Qo'rg'ontepa tumanlari, Farg'ona viloyati Quva tumani. *Kandi* – qirg'iz qabilasi yoki urug'ining nomi, bagish va saruu qirg'iz qabilalari bo'limi (Я.Р.Винников. Родоплеменной состав и расселение киргизов на территории Южной Киргизии. – ТКАЭЭ, т. I, – М., 1956). Qandi urug'i qirg'iz-qipchoqlarda ham bor (К.Шаниязов. К этнической истории. С. 120).

QANGLI//QANGNI – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik hamda Samarqand viloyatining Oqdaryo, Bulung'ur, Ishtixon, Jomboy, Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin va Navoiy viloyatining Nurota, Xatirchi tumanlaridagi qishloqlar va mahalla nomlari. **Qangliovul** – Navoiy viloyatining Nurota tumani; **Yamanqangli** – Jizzax viloyatining G'allaorol tumani; **Qizilqangli** – Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani, **Jilkashqangli** – Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani; **Altishqangli** – Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani.

Qangli – o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlar

tarkibiga kiruvchi yirik qabila. *Qangli* qadimgi manbalarda *kanguy, kangar, kengar, kengeres* shakllarida tilga olingan.

VII–VIII asrlarda qangliliklarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta oqimida yashagan. Keyinchalik qangliliklar Xorazm, Zarafshon, Toshkent vohalari va nihoyat Farg'ona vodiysiga ham joylashib olishgan.

"Devonu lug'otit turk" va "Jome' at-tavorix" asarlarida *qangli* – "aravali" degan ma'noni anglatishi qayd etilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi tushuntirilishi (**qanq** – *arba*) ilmiy emas va u xalq etimologiyasidir.

T.Januzaqov tadqiqotlariga ko'ra esa turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarining qadimiy o'tmishida *qan / qang* so'zi "daryo" ma'nosini ifodalagan. Sibirdagi Enasoy daryosini yoki turkiy xalqlar yashagan Ural, Oltoydagi ulkan daryolarning nomi *Qan / Qang* bo'lgan. R.A.Ageyeva ham *Qangli – Qan* (Enasoyning qadimgi nomi) daryosi negizida paydo bo'lgan topoetnonim degan fikrni ilgari suradi. Ko'pchilik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan ushbu izohga ko'ra etnonim "daryo bo'yida yashovchi el" sifatida talqin etiladi.

N.Oxunov "Joy nomlari ta'biri" lug'atida *Qangli* etnotoponimi bilan bog'liq bir ma'lumotni qayd etgan edi. Unga ko'ra Farg'ona viloyati Bag'dod tumaniga qarashli bir-biriga tutash bo'lgan uch qishloq *Irg'oli, Bolg'ali, Qo'g'ali* deb yuritilsa-da, ular xalq nutqida bir umumiy nom bilan *Qangli* deb ataladi. Bunga sabab toponimlarga asos bo'lgan *irg'oli, bolg'ali, qo'g'ali* etnonimlarining barchasi – *qangli* qabilasi tarkibiga kiruvchi urug' tarmoqlari ekanligini yozgan edi.

T.Nafasovning yozishicha, bu qabila nomining o'zbek tilidagi eng so'nggi shakli *qangli* bo'lib, qadimiy manbalardagi shakllari – qang // qang' // qanqar // qangar // qanli // qanguy // qangyuy // qangut // qanqa // qanqali // qangqali tarzida bo'lgan. Qabila nomi yasama: *qan // qang // qang' + -li*. Ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan *-ar, -uy, -ut, -li* qo'shimchalari turkiy qabila va urug' nomlarida ko'plik, jamlik ma'nolarini bildirgan.

Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlarida esa *qangli* etnonimi bilan yasalgan *Qangli qo'rboshi* – (قورباشی قنکلی), *Qangli xalifa* – (قنکلی خلیفه) degan joy nomlari bilan bir qatorda *Qangli-Makoni I, II, III* – قنکلی (سه مکانی) etnotoponimi ham tilga olinadi.

Fikrimizcha, aynan mana shu toponim *(Qangli-Makoni I, II, III)* hozirda *Irg'oli, Bolg'ali, Qo'g'ali* tarzida yuritilayotgan uch qishloqning bir umumiy nom bilan atalgan xonliklar davriga xos dastlabki nomidir. Chunki etnotoponim tarkibidagi raqamlar qishloqning 3 qismga bo'linganidan, shunday bo'lsa-da, ularning barchasida *qangli* urug'iga mansub kishilar yashaganliklaridan dalolat beradi. Keyinchalik esa bu nom faqat xalq tilida saqlanib qolgan.

Xorazm viloyatining Gurlan tumanida ham shunday nomli topoet-

nonim mavjud. O'zbeklar tarkibiga kirgan qanglilіklar to'rtta yirik shoxlarga bo'lingan: *sariqangli, qoraqangli, oqqangli* yoki *oqto'nli* (oq xalat), *ko'kqangli* yoki *ko'kto'nli*. Mazkur tarmoqlar, o'z navbatida, ko'plab mayda tarmoqlar, avlodlar, urug'larga bo'linib ketgan (К.Шаниязов. К вопросу расселения и родовых делений канглы//Этнографическое изучение культуры и быта узбекского народа. – Ташкент, 1972. С. 4–12).

QANGLIOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bunday atama bilan atalgan qishloqlar Taxtako'pir tumanining "Qoraoy", Chimboy tumanining "Kenes", "Tazg'ara" QFY hududlarida bor. Bu qishloqlar aholisining asosiy qismini qoraqalpoqlarning qangli urug'idan bo'lgan xalqlar tashkil qiladi.

QANJIRG'A – mahalla. Farg'ona viloyatining Farg'ona shahri va Toshloq tumanidagi mahallalar nomlari. Leksemaga O'TIL da quyidagicha izoh berilgan: **Qanji (r) g'a** yuk va b. narsa bog'lash uchun egar orqasiga bog'langan tasma, bog'ich yoki ilgak (O'TIL. 5-jild. 237-bet).

Etnonimshunos O'.Qoratoyevning yozishicha, turkiy urug'lar, jumladan, qoraqalpoq, qozoqlarda, qirg'izlarning qipchoq, o'zbeklarning qo'ng'irot urug'lari tarkibida *qanjig'ali* etnonimi mavjud bo'lib, urug'ning kelib chiqishi ham *qanjirg'a* leksemasiga bog'lanadi.

Fikrimizcha, *Qanjirg'a* toponimining yuzaga kelishi qishloq aholisining qadimiy mashg'uloti, ya'ni qanjirg'a yasash, tayyorlash bilan aloqador bo'lsa kerak. Chunki tumanda hozir ham chorva bilan bog'liq holdagi kasb-hunar otlaridan yasalgan *Qamchipurush, Kigizchilik* singari oykonimlar saqlanib qolgan.

QANJIG'ALI – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon hamda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanlaridagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasi yirik bo'limlaridan biri shunday nomlanadi (*qanjig'a*).

QAPCHIG'AY – Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Bu turkiy va mo'g'ul tillariga xos so'z. Zikrlangan tillarda **qapchig'ay** – *qoya, cho'qqi, tog' tizmasining tor, siqiq joyi.* **Arna qapchig'ay** – *suv o'yib ketgan cho'ziq jarsimon o'yiqlari bo'lgan tor dara, dara ichidagi soylik.* Bu nom respublikamizda keng tarqalgan gidrologik termindan olingan. Bu so'z mo'g'ul tilida *"dara", "jar"* degan ma'nolarni bildiradi.

QAQIR – qishloq. Farg'ona viloyatining Quva, Uchko'prik, Dang'ara hamda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. **Dahanaqaqir** – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani; **Qaqirmahalla, O'rtaqaqir** – q., Farg'ona viloyatining Farg'ona tumani; **Shukurqaqir, Sho'rqaqir** – Andijon viloyatining Marhamat tumani, **Qaqirchek** – Namangan viloyatining Uychi tumani; **Qizilqaqir** – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani. *Qaqir* – suv yetib bormaydigan quruq joy (К.К.Юдахин. Киргизско-русский словарь. –С. 328).

Bizningcha, bunday *qaqir* etnonimi ham bor.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanida Oyimchaqaqir, Qizipqaqir degan qishloqlar ham bor. Qirg'izistonda ham Qaqir degan joylar mavjud.

Qaqir – *"suv yetib bormaydigan, qaqrab yotgan yer"* degan ma'noni anglatadi.

QAQPATOS – Qizilqumdagi (Navoiy viloyati) noqulay tog'. Qozoqcha *qaqpa, tas* – tosh. Bu yerda ularning shifer donalari qozon uchun qopqoq vazifasini o'tagan.

QARAMAN – Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi ovul. Turkmanlar, qozoqlarning bir urug'i qaraman deb ataladi. Xorazmda qayrag'och daraxtining bir turini qaraman (qora eman) deyishadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida Qoramon degan qishloq nomi ham mavjud bo'lib, u etnonim sifatida qayd etiladi.

QARAPCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Yuz qabilasining bir tarmog'i. **Qarapchi** so'zi *"kambag'al, nochor" (kishi)* demakdir (E.Fozilov. Sharqning mashhur filologlari. – T., 1971, 51-b.). Ba'zi olimlarning fikricha, qarapchi so'zi qarovchi nozir, nazorat qiluvchi deganidir, chunki qarapchilardan biylar, beklar, qo'mondonlar ko'p chiqqan (Qorayev, 2005:208).

QARLUQ – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Samarqand viloyatining Paxtachi hamda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanlaridagi qishloqlar nomi. Hofiz Tanish Buxoriy xalq etimologiyasiga asoslanib, qarluq etnonimini qarlik (qorliq – qor egasi) tarzida izohlaydi. Tog'da yashashni, qor ichida yashashni amr qilib O'g'uzxon shunday laqab qo'ydi, deb yozadi.

Qarluq qadimiy turkiy etnonim. Kultegin, Bilga xoqon yodgorliklarida turkiy xalqlarning bir shoxobchasi sifatida qayd etilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qarluqlarning turmush tarzi ko'chmanchilik bo'lib, ular turkmanlarning bir guruhi, deb izohlanadi.

Qarluqlar VII asr o'rtalarida Sug'd va Toxaristonga keladilar. X asrga kelib, butun Toxariston, Afg'oniston, Kashmir va Peshovarni qarluqlar egallaydi. Shu davrdan boshlab qarluqlarning bir qismi o'troqlashadi. Paxtachi tumanidagi Qarluq etnooykonimi hanuz saqlanib qolgan.

QARMISH – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa, Xorazm viloyatining Yangiariq tumanlarida ham shu nomdagi qishloqlar bor.

O'zbeklarning laqay, boshqirdlarning yurmati va qipchoq qabilalari tarkibida qarmish urug'i (etnonimi) qayd qilingan. Qarmish urug'i, shuningdek, qirg'iz-qipchoqlar tarkibida ham uchraydi (Ситняковский, 1900: 59).

QARQARALI – qishloq. Jizzax viloyatining Qiziltepa hamda Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qarqarali* (yoki

qararali) – qipchoq urug'laridan biri. Ehtimol, bu yerda *qarqara* – qush-qo'nmas, *qarqarali* – bug'doylarning mo'l-ko'l joyidir.

Ayrim manbalarda Janubiy Qozog'istonda yashab kelgan qipchoq urug'laridan biri. Qarqara degan qush ham bor.

QARG'A – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. **Qarg'alar** – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp va Yangibozor tumanlari, **Qarg'aovul** – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani; **Qarg'ali** – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumani. *Karga* (*qarg'a* – bu yerda etnonim): o'zbek, boshqird, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibidagi qadimgi urug'lardan biri (Н.А.Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен. С. 340; Р.Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа, С. 332, 371; Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 97, 213).

QARSHI – shahar. Qashqadaryo viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qarshi shahar nomi sifatida XIV asrda paydo bo'lgan. Qarshi tumani 1926-yil 4-iyulda tashkil etilgan.

Qarshi shahrining azaliy nomi – Navkat. Eroniy tillarning qadimiy o'tmishida **nav** – *yangi*, **kat** – *qo'rg'on*, ya'ni *yangi qo'rg'on*. O'zbekcha Yangiqo'rg'on nomi bilan ma'nodosh. O'zbekiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan yozma manbalarda Qarshi shahrining nomi Navtak, Navtaka, Navtoq tarzida bitilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Navtak nomi shaharga, Navtaka nomi esa viloyatga nisbatan qo'llangan. Ma'lumki, Navtak – hozirgi Yerqo'rg'on xarobalari o'rnida paydo bo'lgan qadimiy shahar namunasi. U miloddan qariyb 8 asr oldin qurilgan.

Akademik M.Y.Masson Navtaka nomi tarkibidagi taka so'zini sug'd tilidagi toq, toqa so'ziga daxldor deb qaragan. Toq, toqa so'zi qurilishga doir atama. Hozirgi o'zbek, tojik tillaridagi chortoq, chordoq, peshtoq so'zlarining so'nggi uzvi ham shu so'z bilan manbadosh. Chortoq xonlar, beklar uchun qurilgan maxsus hashamatli bino, saroy, qasr, chordoq – bino tomi bilan shifti oralig'idagi bo'shliq joy. Peshtoq binoning old tomonidagi hashamatli yuqori qismi, ark. Toq so'zi qadimgi bozor timini ham anglatgan. Tim deganda yon tomonlari ochiq, usti yopiq, savdo-sotiqqa mo'ljallab qurilgan chordara tushuniladi. Ba'zan esa gumbazli inshoot ham tim so'zi bilan atalganligi ma'lum. Kurdistonda Toqi Girra, Besutun tog'ida Toqi Bo'ston, Mesopotamiyada Tog'i Kasra nomli qadimiy qal'alar bo'lganligi ma'lum. Shuni aytish lozimki, Qarshi shahrining yozma manbalardagi qadimiy Navtak, Navtaka nomidagi tak, taka kalimasining toq so'ziga daxli borligini faraz qilish mumkin.

Ishonchliroq mulohaza shuki, Navtak, Navtaka nomining Navkat so'ziga daxli bor. Markaziy Osiyo joy nomlari tizimida kat eng ko'p tarqal-

gan so'zdir. Navkat degan qo'rg'on, qal'a nomlari har bir viloyat hududida bo'lgan. Kat so'zining Sharq o'lkalarida kant, kand, kend, kent, qand, qant shaklidagi nusxalari ham bo'lgan. Toshkent, Samarqand, Beshkent, Ishkent nomlari shu so'z yordamida hosil bo'lgan. Qarshidagi Kat qishlog'i, Xorazmdagi Kat qal'asi nomi asosida ham kat so'zi bor. Ma'nosi – qo'rg'on qal'a.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, Navkat nomining Ovrupo tillaridagi, geografik nomlar tizimidagi o'zlashma shakli Navtak, Navtaka nomining bu shakli dastlab yunon manbalarida muhrlangan. So'ngra Ovrupo, Sharq va Afrikaning boshqa tillariga, ellariga o'tgan. Keyinroq bu nom O'zbekistonga Ovrupo tillaridagi shakli bilan qaytib kelgan.

Demak, Navkat – birlamchi, Navtaka – ikkilamchi, azaliy nomning buzilgan, o'zgargan shakli. Navkat nomining birlamchi ekanligini O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'izistondagi o'nlab Navqat degan qishloq nomlari ham tasdiqlaydi. Novqat – o'zbek tilida tovush shakli o'zgargan nom. Navkat – qadimgi eroniy tillardagi azaliy nom.

Qarshi shahrining ilk o'rta asrlardagi tadrijiy nomi – Naxshab. Naqshab, Naxshaf, Naqshaf tarzidagi talaffuz shakli ham bo'lganligi ma'lum.

Arab manbalaridagi shakli – Nasaf. Naxshab – sug'd tiliga xos so'z. Barcha eroniy tillarda ob – suv, daryo. Naxshab – daryo bo'yidagi qo'rg'on. Qashqadaryo viloyatidagi Kitob shahrining ham qadimgi shakli Katob tarzida bo'lgan. **Katov** – *daryo bo'yidagi qo'rg'on*. Naxshab, Katob (hozir Kitob) nomlarining shakli har xil bo'lsa ham, ma'nosi bir xil. Har ikkalasi ham daryo qirg'og'ida bunyod bo'lgan. Bir shaharning turli so'zlar bilan atalishiga sabab uning joylashish o'rni bilan bog'liq. Shahar uchun asos bo'lgan qo'rg'onlar Zahhoki Moron, Yerqo'rg'on, Shulluqtepa kabi xarobalar o'rnida bunyod bo'lgan. Eng so'nggi nomi Qarshi.

XVII asr tarixnavisi Mahmud ibn Valining yozishicha, "Kepakxon mo'g'ul u yerda bir ko'shk qurgan edi, mo'g'ul tilida ko'shkni qarshi atashganlari uchun o'sha vaqtdan boshlab, ul shahar Qarshi nomi bilan mashhur bo'ldi". Kepakxon (Kebekxon) 1318–1326-yillarda mo'g'ul hukmdori bo'lgan. Uning mo'g'ul hukmdorligi markazini Qashqadaryo hududiga ko'chirgan. Qarshini mo'g'ullar poytaxtga aylantirgan. Mo'g'ul hukmdorligi uchun 1328-yilda qasr, qo'rg'on qurdirgan.

Tarixnavis qayd qilganidek, xon qasri ko'shkli, ancha mahobatli bo'lgan. Xon qasrini Qarshi deyish o'sha davr tiliga xos bo'lgan. XIV asr va undan oldingi davr mo'g'ul tilida xon ko'shki, ya'ni qarorgohi Qarshi deb yuritilgan. XI asr turkiy tilda, jumladan, o'zbek tilida ham xon, mamlakat hukmdori qasri Qarshi deyilgan.

XI asrning buyuk yodgorligi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida beklar yashaydigan va faoli-

yat ko'rsatadigan qarorgoh Qarshi atamasi bilan atalgan. Bu beklar evi odi qarshi turur, Bu qarshi ichindagi qarshi turur. Misradagi bek – yurt boshlig'i, evi – uyi, qarorgohi. Qarshi – qasr. Yusuf Xos Hojib asarida Qarshi so'zini o'rdi (O'rda), saroy so'zlari bilan juft so'z shaklida, ma'nodosh maqomida ham qo'llagan: Qarshi – o'rdu, qarshi – saroy, o'rdu – qarshi, saroy – qarshi. Misra so'ngidagi qarshi so'zi esa teskari, bir-birini ko'rolmaydigan (kishilar) ma'nosida. XI asr o'zbek adabiy tilida ikkita qarshi so'zi bo'lgan. Shuning birigina hozirgacha adabiy tilda saqlanib qolgan. Qarshi so'zining qasr, qo'rg'on, qal'a ma'nosi unutilgan. Faqat joy nomiga aylanib, maxsus maqomga ega bo'lgan.

Savol tug'iladi: shahar nomiga aylangan va qadimda qo'rg'on, ko'shk ma'nosidagi qarshi so'zi va zid, teskari ma'nosidagi Qarshi azaliy tabiatiga ko'ra bir so'zmi yoki shakldosh so'zlarmi? Ular orasidagi ma'noviy munosabatlarda uzviylik bormi, yo'qmi?

Shuni aytish o'rinliki, shahar nomi, kishi ismi bo'lmish Qarshi kalimasi va Qarshi so'zlari tarixan bir so'z. Ularning asosi bitta lug'aviy birlik bo'lgan. Bu lug'aviy birlikning hozirgi va qadimiy ma'nolari o'zaro bog'liq. Ma'nolar o'rtasidagi uzviylik hozir bilinmas darajaga kelib qolgan. Ma'noviy o'zaro daxldorlik tilimizning ancha uzoq o'tmishida bo'lgan.

Ma'lumki, o'zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub qadimiy tillardan sanaladi. Turkiy tillarning hozirgi davrdagi miqdori 30 ga yaqin. O'zbek tili – shu tillarning bosh bo'g'inidan biri. Turkiy tillar guruhining yana ikkita qardosh guruhi ham mavjud. Biri – mo'g'ul tillari, ikkinchisi – tungus-manjur tillari guruhi. Ana shu 3 guruh tillar majmuyi Oltoy tillar oilasini tashkil qilgan. Shahar nomiga asos bo'lgan *qarshi* so'zi va uning aholi yashash maskani bilan bog'liq ma'nosi tungus-manjur va mo'g'ul tillarida saqlanib qolgan. Tungus-manjur tillar guruhiga mansub evenk tilida qarshi so'zining ma'nosi – to'siq, ya'ni moddiy narsa. Mo'g'ul tilining qadimiy o'tmishida va hozirgi adabiy til sathida xarsh (ya'ni qarshi) qasr. Shu bilan bir qatorda, bu so'z to'sqin, g'ov ma'nolariga ham egadir. Mo'g'ul guruh tillarga mansub buryat tilida **xarsha (qarshi)** – *g'o'la, kunda, taxta kabi yog'och unsurlardan qilingan devor* ma'nosida. Bu tilda qarshi so'zining teskari, zid ma'nosi ham mavjud. **Qarshi – xarsh – xarsh** so'zining ibtidoiy ma'nosi *to'siq vazifasidagi devor.* Har qanday qasr, ko'shkning bosh, birlamchi unsuri, uzvi – devor.

Devor – moddiy birlik, inson faoliyati bilan yuzaga kelgan hosila narsa. Ana shu hosila narsa va u bajargan vazifa tilda qarshi so'zini yaratgan. Bu so'z xalqimizning o'troqlashish, turg'un maskanlar qurish faoliyati bilan bog'liq.

Ma'lum bo'ladiki, qarshi so'zining eng qadimiy ma'nosi – to'siq, devor. Devor bilan qurshalgan joy, maskan, ya'ni ko'shk, qal'a, qo'rg'on ma'nolari

– ikkilamchi. O'zbeklarning turarjoy, qurilish, me'morchilik madaniyati bilan bog'liq tarzda bu ma'nolar yuzaga kelgan. O'zbeklarda qarshi so'zining qadimiy ma'nosi asosida Qarshi, Qarshiboy, Qarshibek, Qarshixon, Qarshijon kabi erkaklar ismlari, Qarshigul, Qarshioy, Oyqarshi, Qarshiniso, Qarshibonu kabi qizlar ismlari ham paydo bo'lgan. Bu ismlar, odatda, ikkinchi yo uchinchi farzandlarga qo'yilgan. Dastlabki farzandlari nobud bo'lgan oilalarda shu ismlarni tanlash va qo'yish an'anasi hozir ham amalda. Bu ism muqaddas ismlar sirasiga kiradi. Ismning qudrati ism egasini turli ins-u jinslardan, balo-qazolardan asraydi, degan tasavvur bilan bog'liqdir. Chunki qarshi so'zidagi to'siq, devor ma'nosi ana shu kabi tasavvurning yaralishiga omil bo'lgan. Bu ism o'zbek xalqining bir necha ming yillar uzoq kechmishida paydo bo'lgan.

Qarshi so'zining yana bir azaliy ma'nosi, vazifasi va qo'llanishi ham bo'lgan. Bu fazilat o'zbek tilida saqlanmagan, ammo qardosh boshqird xalqi tilida, ma'naviyatida saqlangan. Boshqirdlarning qarshin qabilasi bo'lgan. Bu qabilaning qazray qarshin, qarg'a qarshin, satlig'an qarshin, aqbash qarshin kabi urug'lari bo'lgan. Ular Belaya (Oqsuv) daryosining bo'yida yashagan. Qarshinlar qang'li va qipchoqlar bilan yonma-yon, aralash yashaganligi ma'lum. Qarshin qabilasining tamg'asi eshik, darvoza shaklida bo'lgan. Tamg'a shaklining tanlanishi ham xalqning ibtidoiy tasavvuri bilan bog'liq. Eshik (darvoza)ning ham vazifasi to'siq bo'lish, ya'ni ochiq-yopiq holatda bo'lishi ayon. Qarshin etnonimi (qabila nomi) yasama so'z: so'z asosi qarshi, so'z yasovchi qo'shimcha **-n** yasovchisidir. Tamg'a nomiga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilib, qabila nomi yasalgandan so'ng etnonim yangi ma'noga ega bo'ladi. Qarshin – qo'rg'on qo'riqchisi, qasr posboni degan ma'noda. Shu tamg'a asosida uyushgan kishilar jamoasining mashg'uloti, faoliyati ularning nomlanishiga asos bo'lgan. Qarshi shahri tarixi bilan shug'ullangan muarrixlar bu nomga asos bo'lgan so'zning qaysi tilga mansubligi haqida turli xil mulohazalar bildirgan. Qarshi so'zining me'morchilik bilan bog'liq ma'nosi barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan.

XI asrning buyuk tilshunosi, turkiy xalqlar tillarining teran bilimdoni Mahmud Koshg'ariy qarshi – shoh qasri deb izohlagan.

XIV asr tarixnavisi Hofizi Abru "Turkiy tilda podshohning qasrini qarshi deydilar", deb yozib qoldirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur "qarshi – mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili birla qarshi derlar", deb yozgan. Chingizxon saltanatidan so'ng Qarshi shahri nomlanishiga asos bo'lgan qo'rg'onning qurilganligi Boburning "qarshi – mo'g'ulcha ottur" deyishiga sabab bo'lganligi ayon. "Go'rxonani mo'g'ul tili birla qarshi derlar" deyishining boisi Kepakxon qurdirgan qasrda xon avlodi, ulug'

ruhoniy va mo'tabar shaxslar qabri bo'lganligi, mo'g'ullardan so'nggi rahbarlar bu qasrda yashamaganligi, qasrning qarorgohlik maqomini yo'qotishidir. Bobur bu qasrda bo'lgan vaqtda Kepakxon qurdirgan muhtasham qal'a maqbaraga aylangan. Turkiy tillarga mansub qarshi so'zining qasr, qo'rg'on, xon arki ma'nosi iste'moldan chiqishi ham Bobur mulohazasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

XVII asr tarixchisi Mahmud ibn Vali ham qarshi so'zining ko'shk ma'nosini qayd etib, uni mo'g'ulcha so'z deb zikr etgan.

XIX asr oxiri XX asr boshidan turkiy tillarning o'tmishini va o'sha davr holatini o'rgangan tadqiqotchilar ham qarshi so'zi haqida turfa xil mulohazalar bildirishgan. Volgabo'yi, Markaziy Osiyo turkiy tillari tadqiqotchisi va lug'atchisi L.Z. Budagov qarshi so'zi chig'atoy (XIV–XVI asrlar eski o'zbek tili) va uyg'ur tillariga mansub, deb fikr bildirgan. Uyg'ur tilida oltun qarshi – xon kengash qiladigan qarorgoh ma'nosida ekanligini aniqlagan.

Turkiy tillar qomuschisi V.V.Radlov esa qarshi so'zini uyg'ur tiliga tegishli deb qaragan.

Sharq xalqlari tarixshunosi V.V.Bartold esa qarshi so'zini mo'g'ulcha deb qayd etgan. Mo'g'ullar bu so'zni uyg'urlardan olgan bo'lsa, aslida bu so'z turkiy xalqlarning kalimasi bo'ladi-da. Bu tarzdagi bahslar XIV–XVI asrlarda turkiy guruhga mansub o'zbek, uyg'ur, boshqird kabi tillarning adabiy nutq sathida qo'llanmaganligi, iste'moldan chiqqanligi sababli yuzaga kelgan. Aslida esa qarshi so'zi o'zbek, uyg'ur kabi tillarda bo'lgan.

QARSHILIK – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. *Qarshilik* – Qarshidan ko'chib kelib, muqim joylashganlar, keyinchalik qishloqning nomi ham shunday atalgan.

QATARIQ – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin yuzasidan mahalliy aholi quyidagi ta'rifni beradi: qator ma'nosini beruvchi *qat* hamda *ariq* gidronimi asosida hosil qilingan nomni mahalla nomiga ko'chirish orqali paydo bo'lgan nomdir, deydi.

Bizningcha, u qator so'zi bilan bog'liq emas, balki kat so'zining dialektal ko'rinishi bo'lib, forscha *kat* – "qishloq", "istehkom", "qo'rg'on", "uy", "aholi punkti" ma'nolarini ifodalab, ariq so'zining qo'shilishi natijasida, **katariq** – *qishloq yoki aholi punkti arig'i* ma'nosini ifodalaydi.

QATAG'AN//QATAG'ON – Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri.

Mahalliy aholining to'qimalariga ko'ra, qadimda bu joylarga Yusuf Yalovoshi o'g'li Qatag'on nevarasi hujum qilgan va qirg'in-barot urush bo'lgan. Shundan so'ng bu joylar qatag'on deb atala boshlagan.

Bizningcha, bu xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lib, qaysidir bir "ijodkor" ijod qilgan bo'lsa kerak. Aslida esa *Qatag'on* – o'zbeklar tarkibiga kiradigan yirik qabilalardan birining

nomi bo'lib, demak, u etnonim hisoblanadi va shu nom bilan mazkur qishloq atalgan. Fanda urug', qabila nomining joy nomiga ko'chishi etnotoponim deb ataladi.

Samarqand viloyatining Ishtixon, Xatirchi, Payariq tumanlari; Navoiy viloyati Karmana tumani; Namangan viloyati Namangan tumani; Qashqadaryo viloyati Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari. *Katag'an* – o'zbeklar tarkibiga kiradigan yirik qabilalardan biri. Qatag'onlarning asosiy qismi Afg'onistonning Qatag'on viloyatida yashaydi. Markaziy Osiyoda qatag'onliklar Tojikiston (Yaxsu va Quyi Vaxsh vodiysi, Qo'rg'ontepa shahri va Panj daryosining o'ng qirg'og'i) va qisman Janubiy O'zbekistonda qayd etilgan.

QATAG'ANO'YRAT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. *Qatag'on* va *O'yrat* qabilalari vakillarining birlashishidan hosil bo'lgan qo'shaloq etnonim. Shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bir necha qishloqlar nomlari ham Qatag'on nomi bilan ataladi.

QAYIRMA – Namangan viloyatining Chust tumani va Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloqlar nomi. Toponim ikkita ma'noli qismdan tashkil topgan: qayir, -ma. *Qayir* so'zi topoasos bo'lib kelgan, *-ma* qo'shimchasi esa topoformant. Daryo va ko'llar bo'ylab cho'zilgan, suv ko'payganda suv bosib ketadigan pastak zahob yerlar qayir deyilgan. Mazkur so'z ba'zi manbalarda berch yer ma'nosida izohlangan. Unga borguncha baland-pastlik va turli burilishlardan o'tib boriladi. Qayir so'zining *daryo va ko'llar bo'yida cho'zilgan, suv ko'paygan vaqtda suv bosib ketadigan pastak zahob yer* ma'nosi arxaiklashgan. Hozirgi kunda bu so'z *buril* ma'nosini anglatadi, ya'ni uning ma'nosida o'zgarish ro'y bergan. Toponimning geografik joylashuvi ham arxaiklashgan ma'noni inkor etadi.

T. Nafasovning qayd etishicha, bu toponim barcha tumanlarda ariq va qishloq nomi bo'lib keladi. Ammo u *qayir* so'zini negadir turkiy hamda mo'g'ul tillariga oid bo'lgan *xayr* so'ziga bog'lab tahlil qilgan. Bu izohga qo'shilib bo'lmaydi. Mazkur oykonimni borib ko'rish uchun ungacha turli baland-pastlik hamda burilishlardan o'tib borish kerak.

Geografik omildan ko'rinib turibdiki, qayir so'zini xayr so'ziga bog'lashning hech bir zaruriyati yo'q. Yana qayir so'zining o'zbek tiliga oidligi ham asosiy dalil. Toponimning ikkinchi ma'noli qismi *-ma* topoformanti esa *-im +-a* ko'rinishidagi murakkab qo'shimchadan iborat. Qiyoslang: *bos+-im+a > bosma; ter+-im +-a> terma* kabilar.

Binobarin, ushbu toponimning nomlanishiga geografik omil asosiy vosita bo'lgan, chunki bu oykonimgacha bo'lgan dromonimlar (yo'llar) turli-tuman holatdagi qayrilish va baland-pastliklardan tashkil topgan. Mana shu holatni e'tiborga olgan aholi o'zlari yashaydigan joyni Qayirma deb atashgan. Qayirma va qayishish so'zlarining ma'nolari kuzatilsa, turli

burilishlar asosida qayrilish, burilish ma'nolari yotadi. Qayirma joy nomi *qayishish* so'zining arxaik holati.

Demak, qayirma toponimining etimoni geografik omil vositasida topilgan qayrilish ma'nosidagi qayirma so'zi. U onomastik konversiya hodisasidan so'ng joy nomiga ko'chgan: *qayir+-ma > qayirma > Qayirma.*

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi qishloq va mahalla nomi ham shunday nomlangan. Farg'ona vodiysida keng tarqalgan joy nomi bo'lib, aslida geografik terminдan olingan. Daryo, soy yoki yo'lning burilish joyi shunday ataladi. Mazkur hududda joylashgan qishloqlar Qayirma, Qayilma deb atalgan. Bu nomni "**kayir** – *sug'oriladigan yer*" yoki urug' nomi deb izohlovchilar ham bor.

QAVOLA – Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Eski nomi Chahorparcha. Qishloqda Xoja Qavola ordfurush ("un sotuvchi, allof") mozori mavjud (Vyatkin, 1902: 42). Qishloq nomi **qabola** – *"vasiqa"* so'zi bilan bog'liq. 1904-yilgi qishloq nomlari ro'yxatida Qavola qishloq jamoasi nomi qayd qilingan va unga Safedi hamda Gulbog' qishloqlari kirishi ko'rsatilgan.

"Qavola" termini arab, fors manbalarida, shuningdek, XV–XIX asrlarga oid rus hujjatlarida uchraydi. "Qabola" so'zi haqida fikr yuritgan P.I.Petrov o'z maqolasida musulmon sharqi va Rossiyada bu termin turlicha ma'nolarda qo'llanganligini qayd qiladi (Petrov, 1965: 113–115, 183). P.I.Petrov A.Y.Yakubovskiyning qabola so'zi xalifalikda yerni teng sheriklikka ijaraga olishni bildiradi, degan so'ziga e'tiroz bildiradi. Ushbu fikr huquq qonunlariga asoslanib chiqarilgan, aslida hayotda ko'pincha bu qonunlar chetlab o'tilgan. XVI–XIX asrlar hujjatlarida garchi bevosita mazkur terminдan foydalanilmasa-da, davlat yerlarini ijaraga berish keng qo'llanilganligi tasdiqlanadi (Chexovich, 1965: 227).

Demak, **Qabola, Qavola qishlog'i** nomi *yer ijarasi bilan bog'liq* holda paydo bo'lgan.

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida ham Qavola nomli qishloq qayd etilgan.

QAVCHINON – Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi mahalla. O'rta asr manbalarida tilga olingan Farruxshid qishlog'i keyinchalik Qavchunon deb atala boshlagan (Belenetskiy, 1973: 226). Qavchunon – etnotoponim. Qovchinlar O'zbekistonda Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysida, shuningdek, Tojikistonning Ko'lob vodiysida, Turkmanistonning janubi-sharqida yashashgan.

N.Xanikov XIX asrning o'rtalarida qovchinlar Qarshi atroflarida ko'chib yurgan, deb yozadi (Н.Хаников. Описание Бухарского ханства. СПб, 1843, с. 15). V.V. Bartold tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlariga asoslanib, qovchin so'zi dastlab biron urug' yoki qabila nomi bo'lmay, balki qo'shinlarining imtiyozli qismi, qo'mondon qovchin, deb atalgan deydi (Bartold, 1968: 171–172).

Qovchinlar Amir Temur qo'shini tarkibidagi imtiyozli qismlardan biri bo'lgan. I.Magidovich qovchin bilan qutchi bir urug'ning nomi bo'lib, turli joyda turlicha talaffuz qilinishi oqibatidir, deb yozgan (Magidovich, 1926: 213).

V.V. Radlov lug'atida **qovchin** so'zi "xo'jayin, mehmon" deb izohlangan. Qovchinlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona vodiylarida va Turkmanistonning janubi-sharqida yashashgan. N.Xanikov qovchinlar XIX asrning o'rtalarida Qarshi atroflarida ko'chib yurgan, deb yozadi. Oqdaryo tumanidagi Qavchunon (joy nomi), Navoiy viloyati Xatirchi tumani Bo-g'ikalon qishlog'idagi Qavchinonariq nomlari ham ushbu etnonim bilan bog'liq. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Yakkabog', Qamashi, Qarshi tumanlarida Qovchinon, Beshkent tumani hududida Lagandiqovchin, Patronqovchin, Gamaqovchin kabi qishloqlar bor. Qarshi qo'rg'onida esa Qovchin darvozasi bo'lgan.

QAYNAMA – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Yer ostidan otilib chiqadigan suv manbasi, buloq *qaynar* deb atalib kelinsa, mazkur nom shevalarda *qaynama* deb nomlangan.

QAYNAR BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur gidroniming birinchi komponenti ***qaynamoq*** fe'li bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *"ayrim so'zlar bilan birikib, shu so'zlar anlatgan narsaning kuchli, ortiq darajada bo'lish"* ma'nosida qayd etiladi [O'TIL. 5, 215].

Uning ikkinchi qismi "***Buloq***" so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"*dir [O'TIL. 1, 680].

Xulosa qilishimiz mumkimki, *"ko'p va shiddat bilan chiqayotgan buloq"* ma'nosini anglatadi.

QAYNAQUVDI – Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi Suvtushar qishlog'i, guzar.

Toponimning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminlar mavjud:

1. Joy nomi suv qaynab toshgandagi holat – *qaynadi – quvildi* ma'nosidagi *qaynadi, quvildi* birikmasidan shakllangan: *qaynadi+quvildi > qayna quvildi > qayna quvdi > Qaynaquvdi.* Bu taxminiy fikrga qo'shilib bo'lmaydi.

2. Ushbu toponim uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *qayna, quv, -di.* Ushbu ma'noli bo'laklarning birinchisi sinxron planda bir o'zak morfemadan tashkil topgan. Ammo diaxron planda bu topoleksema ikki o'zak morfemadan iborat: *qayin +ona.* Mazkur ikkala qism talaffuz qilingan vaqtda fonetik hodisalardan biri bo'lgan tovush tushishi hodisasi ro'y berib, ular bir o'zak morfema holatiga kelgan: *qayin + ona > qayinona > qayna.* Bu yerda ot so'z turkumidagi *qayna* so'zi toponim tarkibidagi topoasos vazifasini bajargan. Ikki so'zning birikishi tufayli *qayin +ona > qayinona > qayna* so'zi hosil bo'lgan. Bunda qo'llangan *qayn* so'zi *qayin* ko'rinishida bo'lib, erning tug'ishganlari

ma'nosini bildiradi. *Qayin* so'zi qazin so'zi bilan o'zaro bog'liq. So'zdagi **z** tovushi **y** undoshiga almashgani **(z > y)**ni Mahmud Koshg'ariy qayd etgan. *Qazin* so'zi ayol ma'nosini anglatuvchi *xatun // qatun* so'zi bilan bog'lanadi.

Demak, *qazin (qayin)* va *ona* so'zlari *ayol* degan ma'noni ifodalaydi. *Qayna (qayin ona)* so'zi *xotin* yoxud *erning onasi* degan ma'noda qo'llanadi. *Qayin ota > qaynata* – xotin yoki erning otasi. *Qayinuka* – er yoki xotinning ukasi. Toponimning ikkinchi ma'noli bo'lagi *quv* so'ziga fe'lning o'tgan zamon formasini yasovchi *-di* qo'shimchasi qo'shilgan: *quv+di > quvdi.* Toponim oldin *qayin onasi quvdi* tarzida aytilgan, keyinchalik fonetik o'zgarish ro'y berib, hozirgi ko'rinishga kelgach, predikativ birikma hosil bo'lgan: *qayin onasi quvdi > qaynasi quvdi > qayna quvdi.* Uning zaminida esa predikativ birikma qolipli toponim shakllangan: *qayin onasi quvdi > qaynasi quvdi > qayna quvdi > Qaynaquvdi.*

Obyektlarning nomlanish jarayoni va joy nomlarining motivlanishidan ko'rinib turibdiki, milliy an'ana, ya'ni ekstralingvistik omil ushbu toponimning yuzaga kelishi uchun yetakchi vosita vazifasini bajargan. Qaynana kuyovini yoqtirmay qolishi, o'zingga uy-joy qur, deb turib olishi yoxud dangasa, ishyoqmas kuyovlarni ishlashga majbur qilishi sababli *qayna quvdi* predikativ birikmasi shakllangan. *Qaynaquvdi* toponimining etimoni *qayin onasi quvdi* yoxud *qaynasi quvdi* holatidagi predikativ birikma. *Qayin onasi quvdi > qaynasi quvdi* predikativ birikmadan toponimik derivatsiya jarayonida *Qaynaquvdi* toponimi yuzaga kelgan.

QAYROQ – qishloq. Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi qishloq nomi. *Qayroq* (tosh) – uy-ro'zg'or buyumlarini o'tkirlaydigan tosh. Shunday toshlar evaziga qishloq shu nomni olgan, ularning ko'pchiligi o'tkirlash uchun mos kelgan. Shunday toshli tuproqlar yer ishlari uchun qulay bo'lgan.

QAYROQLI – Samarqand viloyatining Samarqand va Urgut tumanlaridagi yirik qishloqlar nomi.

S.Qorayev qayroqli so'zini urug' nomi deb ko'rsatadi (Qorayev, 1978: 164). Qishloq bir necha guzarlarni o'z ichiga oladi: *G'ishtmachit, Jinjak, Chabjayli, Qo'tir* va boshqalar. Chabjayli (aynan Chavutjayli) qishlog'i ming qabilasining tarmog'i bilan bog'liq.

QAYCHI – Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi qishloq nomi. O'zbeklar tarkibidagi qo'ng'irotlarning bir urug'i "qaychili", "qaychi" deb atalgan. Mazkur hududning shunday tarzda atalishiga etnonim asos bo'lgan.

Etnograf T.A.Jdankoning ma'lumotiga qaraganda, urug' tamg'asi qaychi shaklida bo'lgan. Qoraqalpoqlarning ham "qayshili" degan urug'i bor. Qishloqning paydo bo'lishi XVI asrlarga to'g'ri keladi.

QAYCHILI – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qish-

loq nomi. Qo'ng'irot qabilalari urug'laridan biri *qaychili* (uning tamg'asi qaychini eslatardi) nomi ostida mashhur bo'lgan. Shunday nom ostidagi urug' turkiy xalqlarda ham uchragan; masalan, *qayshili* urug'i xitoy qabilasining qoraqalpoqlar tarkibida ham tilga olinadi (Т.А. Жданко. Очерки исторической этнографии каракалпаков (родоплеменная структура и расселение в XIX–XX вв.). ТИЭ, Новая серия, т. IX, – М. – Л., 1950. С. 39–40).

QAZNOQ – daryo. Surxondaryo viloyatidagi ko'l, Namangan viloyati Pop tumanidagi daryo nomi. Pomirdagi cho'qqilardan biri Qaznoq deb ham ataladi. **Qaznoq** qadimgi turkiy tilda *"g'azna"* ma'nosini anglatadi. O'zbek tilining shevalarida esa *qaznoq* "omborxona" deb atalgan.

QAZNOQKO'L – Namangan viloyatining Pop tumanidagi ko'l nomi. Qaznoqko'l gidronimi morfemik jihatdan to'rt qismdan iborat: *qaz,-n,-oq, ko'l. Qaznoq* so'zi turkiy *"yerni chuqur hosil qilish maqsadida o'y, kavla"* ma'nosini anglatuvchi *qazi* fe'l asosiga *-n* va *-oq* affikslarining qo'shiluvidan yasalgan: *qazin + aq > qaz-naq > qaznaq*. Keyinchalik so'zning ikkinchi bo'g'inidagi *a* unlisi *o* ga o'zgargan: *qaznaq > qaznoq*[1].

Lug'atlarda **qaznoq (qaznoqcha)** so'zi *"ombor vazifasini o'tovchi kichikroq xona, hujra, yerto'la", "ombor"*, deb izohlanadi[2]. S.Qorayev mazkur so'z qadimgi turkiy tilda "xazina", o'zbek shevalarida "ombor", "kandik" kabi ma'nolarni anglatishini ko'rsatadi[3]. Qaznoq so'zi Namangan hududiy shevalarida, jumladan, Pop tumani shevalarida "ombor", "yerto'la" ma'nosida qo'llanadi.

Qaznoqko'l tarkibi ana shu "ombor" ma'nosidagi "qaznoq" so'zi va umumturkiy *ko'l* gidronimik indikatoridan iborat bo'lib, *qaznoq ko'l* otli birikmasining qo'shma so'zga o'tishi asosida hosil bo'lgan: *qaznoq ko'l > qaznoqko'l > Qaznoqko'l*. Gidronimning etimoni *"ombor, yerto'la shaklidagi ko'l"* ma'nosini anglatuvchi *qaznoq ko'l* otli so'z birikmasidir. Suv obyektining tuzilishi ombor, yerto'laga o'xshashligi, ya'ni to'rtburchak chuqur shaklida suv to'playdigan ombor ekanligi bois shunday nom olgan. Shu bois *Qaznoqko'l* shakl tuzilishiga ko'ra nomlangan suv obyektlari sirasiga kiradi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatidagi soy, Tojikiston Respublikasining G'arm tumanidagi qishloq, Pomir tog'ining cho'qqilaridan biri ham Qaznoq deb ataladi.

QASHAT – tabiiy obyekt, Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi obyekt nomi. Ushbu nomdagi aholi punktlari Qirg'iziston (Issiqko'l) va Tojikistonning Jergatal viloyatida mavjud. Qirg'iz tilida **kashat** – *"baland qirg'oq"* deganidir (К.К. Юдахин. Киргизско-русский словарь. – М., 1965. С. 363).

---

[1] Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 504.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. II t. – Moskva: Rus tili, 1981.– B. 536.

[3] *Qarang*. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi, 164-b.

QASHQA BULOQ – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Asosiy buloqdan tashqari, bahor paytlarida uning atrofidan ham suvlar chiqib ketish jarayoni tufayli qashqa nomini olgan. Mazkur qishloqda o'shanday buloq mavjud bo'lganligi sababli mazkur hudud shunday nom bilan atalgan.

QASHQADARYO – viloyat. O'zbekiston Respublikasidagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. O'zbekiston Respublikasidagi alohida viloyat, daryo nomi. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi fikrlar bor:

1. Yoshi ulug' insonlarning aytishicha, boshqalardan ajralib turadigan taniqli, belgili narsa qashqa deyiladi. Bu toponim *belgili daryo* degan ma'noni anglatadi.

2. "Qirg'izlarda qashqa "yo'lboshi" degan urug' bor (bu urug' o'zbeklarda ham bo'lsa kerak). Farg'ona vodiysidagi Yettiqashqa, Yuqori Chirchiq tumanidagi Beshqashqa, Bog'ot tumanidagi Qashqalar degan toponimlar o'sha urug' nomi bilan atalgan".

3. Toponimdagi qashqa topoasosi apellyativ leksikada "1. Ot yoki mol peshonasidagi oq joy, oq nishona; shunday nishonali ot, mol. 2. Betning ko'rinadigan yerida urilishdan qolgan nishona, masalan, yara, chaqa", degan ikkita ma'noga ega. Bunda ham toponim *nishonli daryo, belgili daryo* degan ma'nolarni bildiradi.

4."Qashqadaryo gidronimi qadimgi Kesh (to'g'risi – Kash) shahri (Shahrisabz) nomining fonetik jihatdan o'zgarishi oqibatidir. Shahrisabz shahrining ikkinchi nomi Kash-i dilkash bo'lgan, Qashqadaryo avval Kesh (Kash) daryosi deb, Amir Temur davrida Xashqa (Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik (tovush o'zgarishlarga uchrab) Qashqarud – Qashqadaryo bo'lib ketgan".

5. Bizningcha, onomastik leksikadagi qashqa topoasosining o'zagi qash-qosh hayvonning peshonasidagi oq joy, nishonli, belgili, qir, tepalik, tik qirg'oq, marza, alohida ajralib turadigan degani; qashqa tish – kurak tish, qashqa qum baland yalang qum tepaliklari, qashqa tov – boshqalardan ajralib turgan yuksak tog', qashqa ot, otning qashqasiday iboralari ham buni isbotlab turibdi. Mana shu topoasosga daryo toponimik aniqlagichi toponimlashuv jarayonidagi topoobyektlarni nomlash zaruriyati tufayli qo'shilgan va mazkur toponim shakllangan: *qashqa > qashqa+daryo > qashqadaryo > Qashqadaryo.*

Aslida, Kitob tumanidan oquvchi Oqsuv daryosi va Shahrisabz tumanidan oqadigan Tanxoz daryosi birikib, Qashqadaryo gidronimini tashkil etgan. Ya'ni avval gidronim nomlangan, keyinchalik mamlakatimizdagi bitta viloyat shu nom bilan atalgan.

Mazkur toponim tarkibidagi qashqa topoasosi geografik nomlar tarkibida faol uchraydigan termin. Janubiy Sibirdan boshlab, Markaziy Osiyoda, Afg'onistonda, Eronda Qashqa, Qashqabuloq, Qashqayo'l, Qashqaoshuv, Qashqasoy, Qashqasuv, Qashqatepa,

Qashqatov, Qashqaqum kabi ko'plab toponimlar (Ozarbayjonda – gashka) qayd qilingan. Gidronimlar tarkibida qashqa "tog' suvi", "tezoqar toza suv"; qirg'iz tilida ko'k qashqa suv – "zilol tog' suvi", qashqa yo'l – "to'g'ri tog' yo'li", qashqa yo'l bilan yurish – "aylanib yurmasdan to'ppa-to'g'risiga yurish", otliq qashqadan chiqdi – "otliq kishi tepa ortidan chiqib kelishi" ma'nolarini bildiradi.

Xullas, toponim to'g'risida yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda qashqa so'zidan tuzilgan toponimlarni uchga bo'lib o'rganish lozim:

1) qashqa urug'idan nom olgan toponimlar;

2) tog' suvi, tiniq suv;

3) ayrim tog' yoki tepalik (qashqa yo'l – tik tog' yo'li).

Biz o'rganayotgan Qashqadaryo toponimi esa etnonimdan shakllanmagan, balki quyidagi belgilar asosida tog' suvi, tiniq suv, ayrim tog' yoki tepalik (qashqa yo'l – tik tog' yo'li) shakllangan. Haqiqatan ham, Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismi tog', tik tog' yo'li bor va tog' suvi oqadigan joylardan iborat. Bu toponimning etimoni nomlanishga zarur bo'ladigan geografik omilni o'zida ifodalab turadigan qashqa daryo birikmasi. Ushbu toponim gidronimlar asosida shakllangan joy nomlaridan biri hisoblanadi.

QASHQALDOQLIQOQ – ko'l. Xorazm viloyati. *Qashqaldoq*, po'stin, qoq – ko'lmak. **Qashqaldoqliqoq** – xak (ko'lmak), bu yerda yovvoyi qashqaldoq yashagan hamda shu sababli ham hudud shunday nom olgan.

QASHQAR – Andijon viloyatidagi bir nechta aholi punktlarining nomi. Bular asosan, uyg'urlar yashaydigan qishloqlardir. Qashqarda (Shinjon) millatlaridan qat'i nazar, Markaziy Osiyodan kelgan muhojirlarni andijonliklar deb atashgan, Sharqiy Turkistondan kelgan muhojirlarni esa O'zbekistonda qashqarliklar deb nomlashgan. XVIII asrning o'ttizinchi yillarida Qo'qon xoni Madalixon (Muhammadalixon) Sharqiy Turkistonga qilgan yurishidan ko'plab uyg'ur oilalarini ko'chirib keldi, ular **Qashqar, Qashqarqishloq** nomlarini olgan aholi punktlarini tashkil qildilar.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahridagi mahallalardan biri ham shunday nomlangan. XIX asrning qirqinchi yillarida Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan aholi joylashgan maskanlar shunday nomlangan. Viloyatda *Qashqari, Qashqarqishloq, Qashqarmahalla, Katta Qashqar, Qurboqashqar, Oxunqaynar* kabi joy nomlari uchraydi.

QASHQAR DARVOZASI – Toshkent shahri Shayxontohur dahasining sharqiy tomonida joylashgan. Darvoza nomi XIX asrda Qashqar shahridan bir miqdor aholining Toshkentga ko'chib kelib o'rnashib qolganligi bilan bog'liq.

XIX asrning 40-yillarida shaharning yangi tashkil topgan mazkur qismida, Qashqardan chekinib qaytayotgan qo'qonlik Muhammadalixon

(1822–1842) qo'shini bilan kelgan qashqarliklar yashardilar. Bu yerlar to 1966-yilgi zilzilagacha Qashqar mahalla deb atalardi. Umuman, tarix mobaynida bu darvoza nomi o'zgarib kelgan.

Muhammad Solih keltirgan ro'yxatlarda XV asrda Turk, XIX asrda Xitoy va Oqqo'rg'on nomlari ma'lum bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mazkur darvozaning nomi manbalarda Qashqar darvoza shaklida uchraydi. Muhammad Solihning yozishicha, Turklar darvozasining nomi o'zbeklarning turk qabilasi nomidan, XIX asr boshlarida bu yerda Turk mahallasi ham bor edi. Darvozaning Xitoy degan nomi haqida aniq yozma ma'lumotlar hozircha uchramagan bo'lsa-da, uni Buyuk Ipak yo'lining bir yo'nalishi, aniqrog'i, shimoliy tarmog'i Toshkent shahri orqali o'tganligi va bu yerga Xitoydan savdo karvonlari kelgani, mazkur yo'ldan Xitoyga borilganligi bilan bog'lash mumkin.

So'ng mazkur darvoza Oqqo'rg'on nomi bilan mashhur bo'lgan. Muhammad Solihning yozishicha, shaharning sharqiy qismi yaqinidagi Xo'ja Ahrorning vaqf yerlari Oqqo'rg'on deb atalgan. Bu yerlar Shayx Shibli (Chovli) arig'ining sharqiy tomonida bo'lgan, ya'ni darvoza orqali shahardan aynan shu yerga chiqilgan[1].

QIBLA TOZABOG' – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahri. Qibla – mehrob, janub tomon, toza-yangi. Shaharning janubi-g'arbiy tomonida joylashgan, XX asrda Muhammad Rahimxon Feruz va uning o'g'li Isfandiyorxon tomonidan bunyod qilingan Qibla tozabog' bog'i – qarorgohi. U Muhammad Rahimxon Feruzxonning yozgi qabulxonasi bo'lgan. 2004-yildan buyon ushbu hudud "Qibla tozabog'" mahallasi nomi bilan yuritilib kelinmoqda.

QIBRAY – tuman va shahar. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra Qibray (qadimda Qibiray) nomi qadimiy turkiy urug' nomidan kelib chiqqan. Demak, etnik guruhning nomi shahar va tuman nomiga asos bo'lgan.

S.Qorayevning yozishicha, turkiy xalqlarning dug'lat (duvlat, dulat) qabilasining bir urug'i qibiray deb atalgan. Bu urug' vakillari afsonaviy Qibiray botirdan tarqalgan degan rivoyat bor. Dug'lat – qadimiy turkiy qabilalardan birining nomi. Ular XIII asrda Chig'atoy ulusining sharqiy mintaqalarida yashovchi yetakchi qabilalardan bo'lgan. Dug'latlar Sharqiy Turkistonda, Issiqko'lning janubida, Farg'ona vodiysining shimoliy hududlarida ko'chib yurganlar. Asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim va "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi Mirzo Muhammad Haydar dug'latlardan bo'lganlar. XV–XVI asrlar davomida dug'latlar bir qancha guruhlarga bo'linib ketgan. Ular Farg'ona, Tosh-

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih, 22-b.

kent, Samarqandga kelib joylashgan. Dug'latlar hozirda o'zbek, qozoq va qirg'iz xalqlari tarkibiga singib ketgan.

E'tiborli tomoni shuki, qibiray etnonimi birlamchi, Qibray etnotoponimi ikkilamchi. Qibiray urug'i o'zbek xalqining qadimiy o'tmishida bo'lgan. Shu etnonimdan aholi punkti, undan so'ng tuman nomi yuzaga kelgan.

QILICHMOZOR – Andijon viloyati Jalaquduq tumaniga qarashli qishloq. T.Nafasovning aniqlashicha, "qilich" – turkiy etnonim. Davrlar o'tishi bilan kishi ismiga aylangan (masalan, Qilich Burhoniddin). Jalaquduq tumanidagi "qilich mozor" shu nomga asoslangan (xalq og'zida "Guruch mozor" deb talqin qilinadi).

Professor S. Ibrohimov "Gurov mozor" deb taxmin qilgan. Endilikda bu taxminlar barham topdi.

QILICHLI – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani. Qilichli urug' nomi bo'lsa kerak; chunonchi, qoraqalpoqlarning qtay (xitoy) qabilasining kichik bir tarmog'i qilishli (qilichli) deb atalgan (Qorayev, 1978: 171).

QILCHINOQ – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va Mang'it tumanlaridagi ovul nomi. Mazkur ***Qilchinoq*** toponim Xiva xonligida yuqori mavqega ega bo'lgan amaldor Qilichboy inoq nomi bilan bog'liq.

Xiva xonligida *inoq* ایناق ikki xil ma'no anglatadi: 1. Valiahd shahzoda. I. Mirpanjiy "turkistonliklar o'z podshohlarini "xon", shahzodani "to'ra", agar u valiahd bo'lsa, "inoq" deb ataydilar", – deb yozadi[1]. *Inoq*ning ushbu ma'nosini N.A.Baskakov ham ko'rsatib o'tgan[2]. 2. Inoqlik mansabi sohibi. Xiva xonligida bu mansab eng yuqori lavozimlardan sanalgan. Xiva xonligi tarixining ma'lum bir pallasida hukumat inoqlar tomonidan boshqarilgan. Inoq davrida maxsus kengash bo'lib, uning tarkibiga qushbegi, mehtar va otaliqlar kirgan. Inoq va kengash chinakam hokimiyat bo'lib, barcha ishlarni xon nomidan yuritar, lekin buni hech kim bilmasdi[3].

Eltuzarxon (1804-1806-yillar)dan boshlangan qo'ng'irot sulolasining yangi davrida ham inoqlik katta mansab sifatida saqlanib qolgan.

Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlarida Qilichboy inoq nomi, uning obodonchilik yo'lida qilgan harakatlari ko'p bor zikr etilgan[4] (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QING'IR – Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Urgut tumani qishloqlaridagi joy nomi. Mazkur nom O'zbekiston toponimiyasida Qang'ir,

---

[1] Ismoil Mirpanjiy. Asirlikdagi xotiralar // Fors tilidan N.Hasanov tarjimasi. – Urganch: Xorazm, 1997. – B.37.

[2] Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.64.

[3] O'zbekiston xalqlari tarixi. II jild. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 51.

[4] Ogahiy. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

Qing'ir, Qo'ng'ir singari shakllarda uchraydi.

L.S.Tolstovaning fikriga ko'ra, mazkur nom pecheneglar qabilasi qang'arlari bilan bog'liq bo'lib, ularning Markaziy Osiyoga tarqalishi Orolbo'yi va Volgabo'yi qang'arlarining Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibida mazkur hududga kirib kelishlari bilan bog'liq (Tolstova, 1978: 15).

Mazkur etnotoponimning turkiy "qo'ng'ur" (qo'ng'ir) so'zi bilan bog'lanishi xalq etimologiyasidir. Respublikada Qing'ir (Urgut, Baxmal), Qo'ng'ur (Bulung'ur), Boyqo'ng'ur (Oqdaryo), Yuqori Qing'ir (Ishtixon), Qang'ir (Farg'ona) kabi qishloqlar nomi ushbu etnonim bilan bog'liq.

QIPCHOQ – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot, Andijon viloyatining Oltinko'l, Asaka hamda Namangan viloyatining Uychi, Farg'ona viloyatining Beshariq, Dang'ara, Rishton, Qo'shtepa, Toshloq va Buxoro viloyatining Vobkent tumanlaridagi qishloqlar nomi. Toponimni hosil qilgan *qipchoq* so'zi urug' nomi, etnonim.

Qipchoq etnonimining kelib chiqishi haqida "To'rt ulus tarixi", "Shajarayi turk" asarlarida ma'lumotlar keltirilgan: *qipchoq* – "ichi bo'sh, g'ovak daraxt" yoki "ichi bo'sh, g'ovak daraxt orasida tug'ilgan bola" (shu boladan tarqagan el). *Qipchoqlar* turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan bo'lib, o'zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi.

Qipchoqlar nafaqat o'zbek xalqi etnogenezisida, balki qator boshqa turkiy xalqlar – qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, oltoyliklar va Shimoliy Kavkazdagi ayrim xalqlar (no'g'oylar, qo'miqlar, qorachoylar va b.) shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ular dastlab mil. avv. III asr – mil. IV asrda shimoli-g'arbiy Oltoyda yashaganlar.

Qipchoqlarning ilk ajdodlaridan bir qismi VI asrda G'arbiy Oltoydan chiqib, hozirgi Mo'g'uliston va Tuva yerlariga kelib o'rnashadilar. 2-qismi esa Irtish daryosi yaqinidagi dashtlarga ko'chib o'tib, kimaklarga tobe bo'lgan. VIII–XII asrlarga kelib Dashti Qipchoq cho'llarida yashayotgan paytlarida ularning tarkibiga til jihatdan qarindosh bo'lgan ko'plab etnik guruhlar kelib qo'shilgan va g'arbiy qipchoqlar XI asrda Ural va Volganing o'rta oqimida yashovchi yirik etnosiyosiy uyushmaga aylanadi.

Qipchoqlarning Movarounnahr madaniy mintaqalariga yalpi ko'chib kelishi Shayboniyxon davrida XVI asrda va keyinchalik XVII asrda ashtarxoniylar davrida yuz bergan. Shuningdek, qipchoqlar XVI asrning ikkinchi yarmi XVIII asrning boshlarida, jung'arlarning Qozog'istonning janubiy hududlariga bostirib kirishi jarayonida ham Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysiga kelib o'rnashganlar.

Statistik materiallarga ko'ra XIX asrning 90-yillarida Farg'ona vodiysidagi qipchoqlar soni 70 ming nafarni, 1917-yilda 44 ming nafarni, 1926-yilda 33, 6 ming nafarni tashkil qilgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy

hududida yashayotgan qipchoqlar K.Sh.Shoniyozovning fikricha 4 ta katta guruhga bo'lingan: qipchoqlar (yoki toza qipchoqlar), qirg'iz-qipchoqlar, xitoy-qipchoqlar, sart-qipchoqlar.

O'z navbatida, mazkur qipchoq guruhlari bir qancha urug'chalarga bo'lingan. Qo'g'ay, bug'och, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydoq, puchug'oy, elaton, bo'g'oz, og'im, toz, sirmoq, yettiqashqa, qutluqsaid, cherek, ko'kmo'yin, to'rtayg'ir, to'rttoy, tovuldi, chang'roqchi, oqbo'yra, boshqird, qoratikan, tikan, qoramoyun, sari-qipchoq kabi urug'lari Farg'ona vodiysida qayd etilgan.

Bundan tashqari, Namangan viloyatining Uychi tumanida *Qipchoqmahalla*, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri, Toshloq tumanlarida *Qipchoqariq*, Beshariq tumanida *Qipchoqobod*, Andijon viloyatining Izboskan tumanida *Qipchoqovul*, Asaka tumanida *Elashqipchoq*, Shahrixon tumanida *Qipchoqqo'rg'on* singari toponimlar mavjud bo'lib, ularning nomlanish asosini ham *qipchoq* etnonimi tashkil qiladi.

Demak, *Qipchoq – "qipchoq urug'i vakillari yashaydigan joy"* ma'nosini anglatadi.

QIPCHOQSUV – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***Qipchoq***" hamda "***Suv***" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Qipchoq-o'zbek urug'laridan birining nomi bo'lib, *qipchoqlar suvi, yeri* ma'nosini bildiradi.

QIPCHOQOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bu etnonim ko'plab turkiy xalqlar orasida tarqalgan. Qoraqalpog'istonda 15 ga yaqin aholi punkti va ovullar shu nom bilan ataladi. XI–XII asrlarda Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryo va Jayiq dashtlarida Qipchoqlar deb atalgan qavmlar yashagan. Ular o'sha paytda "Dashti Qipchoq" deb nomlangan katta hududni egallagan.

Hozirgi qoraqalpoqlar, qozoqlar, nog'aylar, qisman o'zbeklar, boshqirdlar va tatarlar o'sha vaqtdagi Qipchoq qavmiga birlashgan umumiy xalq bo'lgan.

Hozirgi Qipchoq urug'lari ham o'sha urug' asosida paydo bo'lgan. Qoraqalpog'iston hududidagi Qipchoq nomi bilan atalgan aholi punkti nomlari, daryo nomlarining negizi qadimgi qipchoqlar bilan aloqasi bo'lsa kerak.

QIPCHOQ CHORRABOT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Quyi Chorrabot* deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda *Qipchoq Chorrabot* deb o'zgartirilgan.

Toponim *qipchoq, chor* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *qipchoq* so'zi xalq nomi, etnonim. Toponimning ikkinchi komponenti – *chor* so'zi esa forscha-tojikcha bo'lib, "To'rt" degan ma'noni bildiradi. Joy nomining uchinchi komponenti – *rabot* so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi (*qarang:* **Gulrabot**).

Demak, **Qipchoq Chorrabot** – *"To'rt tomoni rabotlardan iborat qipchoqlar*

yashaydigan joy" degan ma'noni bildiradi.

QIRGULI – Farg'ona shahrida joylashgan shaharcha nomi. Qo'qon arxiv hujjatlarida *Kirgil* – (كرگيل) shaklida berilgan.

T.Nafasovning yozishicha, qadimda mollar tanasiga bosiladigan tamg'a turi va uning nomi "qirg'i" bo'lgan. Qirg'ilar tut kabi qattiq tarkibli yog'ochdan ishlangan bo'lib, undan turli maqsadlarda foydalanilgan. Masalan, jun titadigan va taraydigan asbob, teri oshlanganidan keyin ichki po'stlar shilib olinadigan, teriga silliqlik berish uchun ishlatiladigan asbob, duradgorlar yog'ochlarning ust qismiga silliqlik berishda ishlatiladigan asbob. Ana shu asboblarning tuzilishi va tashqi shakliga o'xshatma qilib molga tamg'a bosilgan: uch yoki undan ko'proq chiziqli, ya'ni taroqsimon shaklda bo'lgan.

Shu shaklda tamg'asi bo'lgan jamoa qirg'i, qirg'ili deb atalgan va urug' nomiga aylangan. Ushbu shaharcha nomi ham "qirg'ili" etnonimi asosida vujudga kelgan bo'lib, toponimni "qirning guli" sifatida talqin etish va *Qirguli* tarzida yozish xatodir.

QIRQIBOLDI – Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi qishloq. Toponim tarkibidagi *qirq* so'zi urug' nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qirq, Qirqketmon kabi toponimlar ham shu asnoda yaratilgan bo'lishi kerak.

QIRQISHAK – Narpay tumanidagi qishloq. Ironiya, ya'ni hazil tariqasida yasalgan toponim.

QIRQQIZ – soy nomi. Bir necha mayda tepalari bo'lgan joyga nisbatan soy shunday deb nomlangan. Morfema tarkibi *qirq + qiz. Qirq < qir, qirq* – miqdor bildiruvchi so'z; cho'ziq yassi balandlik (qir). *Qiz < quz* – terskay bet; yirik balandlikning terskay tomondagi kichik balandlik; tiklik ko'lami yuksak bo'lgan balandlik; tekis joylardagi yolg'iz tepa; qo'rg'onlarning xarobasidagi burj (minora) o'rni. Shuningdek, **Qirqqiz** – "Tepasimon bo'rtib chiqqan balandliklari bir qancha bo'lgan joy; qo'rg'on burjlari, saroylar vayronasidan paydo bo'lgan kichik-kichik minorasimon ko'p balandlikdan iborat xarobazor" degan ma'nolarni ham anglatgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida Qirqqizobod nomli mahalla va qishloq nomi shu toponim bilan bog'liq bo'lsa ajab emas.

QIRQJIGIT – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani. 1904–1905-yillardagi aholi punktlari ro'yxatida Kattaqo'rg'on uyezdi Mingariq volosti Chinortepa qishloq jamoasidagi qishloq sifatida qayd qilingan.

T.Nafasov qarluq qabilasi urug'lari haqida ma'lumot berar ekan, shunday yozadi: "...qarluqlarning qir(q) yigit, uzunoyoq, oltiuylik, gadoy... va boshqa urug' tarmoqlari" bor. Demak, Qirqjigit etnotoponimdir.

QIRQLAR – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Qirq – o'zbek qabilalaridan biri va mazkur urug' vakillari shu

hududda yashaganligi uchun shunday atalgan,

QIRQQIZOBOD – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. Mazkur nom uchta ma'noli qismdan iborat: *qырq + qыz + abad*. Toponim tarkibidagi "qirq" so'zi, aslida, etnonim bo'lib, qipchoq urug'laridan biri. Shuningdek, Jizzax va Buxoro viloyatlarida ham bunday nomdagi qishloqlar bor.

M.Koshg'ariy ham qirqqiz etnonimini qayd qilib o'tadi[1].

Toponim tarkibidagi *qiz* so'zi T.Nafasov lug'atida "tik balandlik" ma'nosida izohlanadi[2].

Lekin bu joy nomining paydo bo'lishida, bizningcha, etnonimning aloqasi yo'q. Balki, yuqorida aytilganidek, "Qirqqiz" dostonidagi "qirq qiz" attributiv birikmasi apellyativ vazifasini o'tagan. Toponim tarkibidagi *obod* qismini funksional indikator sifatida izohlash mumkin (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QIRQOVUL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu etnotoponim "***Qirq***" hamda "***Ovul***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"***Qirq***" urug' nomlaridan biri, etnonim[3]. "***Ovul***" so'zi esa "*ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 3, 81].

Mazkur qishloq qirq urug'i vakillari yashaganligi uchun shunday nomlangan [S.Qorayev. 1, 172; Z.Ziyotov. 212; N.Begaliyev. 132]. Etnonim oykonimga aylangan.

QIRPIQCHIOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. **Qirpiqchiovul** toponimi – bu oykonim tarkibi uch ma'noli qismga ajraladi: *qirpiq + chi + avul*. Toponimga asos bo'lgan "*qirpiq*" so'zi Janubiy Qoraqalpog'iston shevalarida "*qorako'l yoki sur teridan qilingan quloqchin turi*" sifatida izohlanadi[4]. Hozir ham bu so'z keksalarimiz nutqida faol qo'llanib kelinadi. Toponim tarkibidagi *-chi* topoformant va *avul* topoindikator hisoblanadi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QIRQTOM – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. Bu nom tarkibidagi *qirq* miqdor bildiruvchi so'z bo'lib, jamlikni, umumiy miqdorni bildiruvchi sondir. Apellyativning ikkinchi qismi bo'lgan *tom* so'zi qipchoq shevalarida "*uy*", "*xona*", "*joy*" ma'nolarini anglatadi[5].

Demak, toponimning etimoni *qirq tam* so'z birikmasidir. Biz tadqiq qilayotgan hududda bundan tashqari, toponim sifatida uchraydigan *dərmən, nəymən, mang'ыt* etnonimlari etimoni son, miqdor tushunchalari bilan

[1] Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. Tom I. – Toshkent. 1960. – B.426.
[2] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent. 1988. – B.288.
[3] Begaliyev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2004, 58-bet.
[4] O'rozov E. Janubiy Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 76.
[5] O'rozov E. Janubiy Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 67.

bog'liq[1] (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QIRQYOP – qishloq. Xorazm viloyati Xonqa tumani. Qishloq hududidan o'tmishda ham, hozir ham o'nlab katta-kichik kanal, ariqlar va solmalar oqib o'tgan. Uning Qirqyop deb atalishiga sabab ham bu yerda sug'orish tarmoqlarining ko'pligidir.

Ta'kidlash joizki, toponim tarkibidagi *qirq* so'zi urug' nomi bilan bog'liq bo'lib, mazkur kanalni shu urug'ga mansub kishilar qazib, shundan so'ng ushbu hudud shunday nomlangan bo'lishi ham mumkin.

Shuningdek, tilshunos Masharif Safarov kanaldan keladigan suv haddan tashqari loyqali bo'lganligi uchun yil davomida ariqdan suv oqib turgan va keyingi yilga tayyorgarlik ko'rish uchun o'sha ariqni tozalashdan ko'ra, yangi ariq qazilgani mahalliy aholi uchun yengilroq bo'lgan, har yili yangidan ariqlar qazilishi natijasida mazkur hudud shunday nomlanganini qayd etadi.

QIRG'INTO'BA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Strukturasi ikki o'zakli bo'lib, leksik-grammatik jihatdan ravish+ot shakliga ega.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "***Qirg'in***" so'zi "*xunrezlik*" ma'nosida izohlanadi [O'TIL. 5, 303].

O'z navbatida "***Tepa***" topoleksemasi esa dialektda "***to'ba***" shaklida qo'llangan.

QIRG'IZ – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. O'zbek millatiga mansub qabilalardan biri bo'lib, 92 bovli o'zbek qavmlarining hamma shajaralarida qayd etilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida ham Qirg'iz nomli qishloqlar mavjud.

QIRG'IZQISHLOQ – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi toponim nomi. Manbalarda Katta qirg'iz va Kichik qirg'iz qishloqlari qayd qilinadi (Список населенных мест... 1906: 46).

O'zbek xalqi tarkibida yaxlit qirg'iz urug'i va turli qabila, urug'lar tarkibida qirg'iz degan urug', urug' tarmog'i borligi ma'lum. Qashqadaryoning o'rta oqimidagi saroylarning bir bo'limi qirg'izsaroy. Tojikistonning Xonaqadaryo bo'yidagi kaltatoylarning ham qirg'iz urug'i borligi aniqlangan (Nafasov, 2009: 375). Qishloq qirg'iz qabilasi yoki urug'i nomi bilan atalgan. Vaqt o'tishi bilan aholi o'z urug'i nomini unutgan. Hozirgi paytda qishloq Qirqqiz deb ataladi. Shunday ekan, bizningcha, qishloqning asl nomi Qirg'iz tarzida qo'llanishi ma'qul.

QIRG'IZSHAMAN – Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi, etnotoponim. 92 bovli o'zbek uruglaridan birining nomi hisoblanadi. Shunday ekan, etnonim etnotoponimga ko'chgan.

QIRG'ICHI – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq

[1] Otajanova A. Xorazm etnotoponimlari. – Toshkent: Fan, 1997. – B. 40.

nomi. Manbalarda Qaryag'ach yoki Krigach shakllari ham keltirilgan. Bir manbada Qiriya (qar'ya) Gachi, ya'ni Gachi qishlog'i deb tilga olingan. Keyinchalik Qirg'ichi deb talaffuz qilina boshlagan. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Bulung'ur tumani Bo'yrachi qishloq kengashida ham Qirg'ichi qishlog'i qayd qilingan.

QIRCHANG'ISOY – tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi joy nomi. **Qirchang'i** – *nag toshi bilan qoplangan ariq ot;* **Qirchang'isoy** – *yaylovli joylar.*

QIRQCHILTON – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi jarlik nomi. Mazkur oronim mifologik obraz asosida paydo bo'lgan, son+son shakliga ega bo'lib, ikki o'zakli koppullyativdir. "***Chilton***" – forscha so'z bo'lib, "*qirq kishi, qirqta ruh man'nosini bildirib, diniy tasavvurga ko'ra, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan, ko'zga ko'rinmaydigan, bir-biridan ajralmaydigan afsonaviy qirq ruh*" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 4, 485].

QISMOQ CHO'QQI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasining Qo'shtamg'ali urug'i tarmog'i tarkibiga kiruvchi bir tarmog'i qoraqasmoq deb nomlanadi.

Mazkur oronim nomlanishida so'z qisqarishi va tovush o'zgarishi voqe bo'lib "qismoq" shakli hosil bo'lgan. ***Cho'qqi*** so'zi esa "*baland, yuksak joy*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 4,529].

QIYALI – Farg'ona viloyati Dang'ara tumanidagi qishloq. O'zbekistonda keng tarqalgan joy nomlaridan biri. Garchi relyef qiyaligiga o'xshab ko'rinsa-da, aslida bu urug' nomi etnonimdir (Qorayev, 2001).

QIYANNI – Urgut tumanidagi qishloq. Qiyonni (Shahrisabz), Qiyon (Bulung'ur), Qiyot (Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo) nomli qishloqlar bor. Qiyan o'zbek urug'laridan biri. Ko'pligi qiyot. Qiyot – 92 bovli o'zbek "qavmlari" qatorida tilga olingan qabilalaridan biri.

Abulg'ozining fikricha, **Qiyan** mo'g'ulcha so'z bo'lib, *"katta oqim, tog'dan pastga qarab oquvchi toshqin, tez, kuchli, sel"* ma'nosidadir. Qiyan urug'iga mansub kishilar mard va jasur bo'lganliklari tufayli ushbu nom bilan atalganlar (Rashididdin, 1952: 154). Bu fikrni V.V. Radlov ham tasdiqlaydi. Qiyonni, qiyanni urug'ining etimologiyasi ham mo'g'ulcha qiyon so'zi bilan ma'nodosh, Chingizxonning otasi Yesugey bahodir mazkur urug'dan bo'lgan. Qiyot – *qiyan* so'zining ko'pligidir.

QIYOMATSOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oronim "***Qiyomat***" hamda "***Soy***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi qismi "***Qiyomat***" so'zi "*oxirat, mahshar; to'polon*" ma'nosiga ega [O'TIL. 5, 274].

Geografik termin hisoblangan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday*

vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

Shunday ekan, "***Qiyomat soy***" – "*suvi ko'p, shovqin bilan pishqirib oquvchi kichik daryo*" demakdir.

QIYOT – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Qiyot oykonimi Buxoro, Navoiy viloyati toponimiyasida ham uchraydi. "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da izohlanishicha, qiyot – o'zbek urug'laridan biri[1].

Abulg'ozi Bahodirxon fikricha, qiyot mo'g'ulcha, "tog'dan oqqan sel" ma'nosidagi **qiyon** so'zining ko'pligidir[2]. Bu fikrga V.V. Radlov ham qo'shiladi[3]. S.Qorayev ko'rsatishicha, *qiyonni, qiyanni (qiyonli)* urug'ining etimologiyasi ana shu qiyon so'zi bilan bog'liq[4]. Demak, Qiyot oykonimi onomastik konversiya usulida qiyot etnonimidan hosil bo'lgan, "Qiyot urug'iga mansub kishilar yashaydigan manzil, joy" degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Xiva shahri va Urganch tumanidagi mahallalar nomlaridan biri ham qiyot hisoblanadi. Qiyot – o'g'uzlar tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan birining nomi. Har ikkala mahalla nomlari qadimdan ham Qiyot nomi bilan atalgan. Xiva shahridagi Qiyot 1930-yillardan so'ng "Obod", "Komsomol" deb atalgan. 1998-yildan Eski Qiyot qishlog'i deb nomlangan. 2013-yil may oyidan boshlab "Qiyot" mahallasi deb nomlangan.

Bundan tashqari, Navoiy viloyatining Karmana tumani; Farg'ona viloyati Beshariq tumani; Samarqand viloyatining Ishtixon, Oqdaryo tumanlarida ham shunday nomli etnotoponim mavjud. Qiyot – 92 an'anaviy o'zbek qabilalaridan biri.

Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxon qiyot so'zining kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: "Mo'g'ul dog'dan on selni kiyon ter, kiyot aning ja'mi turur". Xon qadimgi o'zbek tilida (XVII asr) yozgan edi, endi bu jumla quyidagicha ko'rinadi: "Mo'g'ul tog'dan oqqan selni qiyon der, qiyot (bu so'zning) ko'pligidir": mo'g'ullar tog'lardan oqib tushayotganlarni qiyon, ko'plik bilan aytishadi (В.В.Радлов. Опыт словаря, т. II, 858).

Yuqorida ta'kidlangan nomlarining izohi deyarli bir xil ekanini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

QIYQIM – Narpay tumani. Prof. B.O'rinboyev qiyib ishlangan narsalar chiqindisi ma'nosida: gazmolning savdodan ortgan bo'lagi; laxtak, parcha, qiyiq joy deb izohlaydi (O'rinboyev, 2003: 237). Qiyqim nomli qishloqlar Oqdaryo, Qo'shrabot tumanlarida ham uchraydi.

Bizningcha, qiyqim etnonim, ya'ni yirik qabilaning bir bo'lagi ma'nosi-

[1] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV jild. –Toshkent: Fan, 1985. – B. 48.
[2] Bahodirxon Abulg'ozi. Shajarayi turk. – Toshkent: Ma'naviyat, 1990. – B. 81.
[3] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречи. II т. – С. 858.
[4] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 170.

da bo'lsa kerak. Venger akademigi D.Nemet kese(k) etnonimi "urug'ning bo'lingan, kesilgan qismi" ma'nosidagi qadimiy umumturkiy so'z – kesey so'zidan kelib chiqqan deb hisoblaydi. O'zbeklarning tuyoqli qabilasining mullakesak va mirzakesak (hozir shevada mullaesagi va mirzaesagi deb talaffuz qilinadi) degan urug'lari bo'lgan (Grebenkin, 1872: 69–70). Agar qiyqim va kesek so'zlarining ma'nolaridagi yaqinlik e'tiborga olinsa, qiyqim so'zi etnik birlikni bildirishi haqiqatga yaqin.

QIYRA – Payariq tumanidagi qishloqlar nomi. Bo'zqiyra yoki Yuqoriqiyra va Qo'riqqiyra yoki Pastqiyra nomlari bilan yuritiladi. Qiyra qorovuz (qorauz)-qipchoq urug'ining bir tarmog'i. Demak, ushbu qishloqlar nomi ham etnik birlik bilan bog'liq. Qo'shrabot tumanidagi Pangat qishlog'ida ham qiyra urug'i bor. Demak, etnonim keyinchalik joy nomiga aylangan.

QIYG'IRUYA – Samarqand viloyatining Nurobod tumanida katta qoyatosh nomi. Mahalliy aholi kuzatishlar asosida, har yili *"tumshug'i kalta va qayrilgan, asosan uncha yirik bo'lmagan, parrandalarga ovga solinadigan sohibchangal yirtqich qush"* qiyg'ir, ya'ni qirg'iy uya qo'yib, bolalarini uchirganligi bois shunday atashgan. Demak, oronim qiyg'ir uya qurgan qoya degan onomastik ma'noga ega bo'lib, zoooronim sanaladi (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

QIZILBEL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***Qizil***" hamda "***bel***" so'zlari yordamida hosil bo'lgan.

Ushbu mikrotoponim tarkibidagi "***qizil***" so'zi *"qizg'ish rangdagi tuproqli tepa (balandlik)"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 5, 277].

"***Bel***" so'zi esa *"cho'ziq qirsimon balandlik"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 5, 1, 218].

Shunga ko'ra bu mikrotoponimni *"qizg'ish rangdagi tuproqli tepada barpo etilgan yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Ushbu oykonim ikki o'zakli bo'lib, sifat+ot+ shakliga xos.

QIZILBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim "***Qizil***" hamda "***buloq***" so'zlari yordamida hosil bo'lgan.

Ushbu mikrotoponim tarkibidagi "***qizil***" so'zi *"qizg'ish rangdagi tuproqli tepa (balandlik)"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 5, 277].

Apellyativning ikkinchi qismi "***Buloq***" so'zi esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 370].

Shunga binoan mazkur mikrotoponimni *"qizg'ish rangdagi tuproqli tepa yonida bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu oykonim ikki o'zakli bo'lib, sifat+ot shakliga xos.

QIZILBOSH – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumani. *Qizilbosh* – "qizil boshli" bo'linmasi bir qator turkiy xalqlar: boshqirdlar, qirg'izlar (kesek, munduz qabilalari), o'zbeklar (qo'ng'irot qabilasi) qabilaviy nomlarida uchraydi (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 93).

QIZILISHTON – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Hozirgi Payshanba shaharchasi mahallalaridan biri.

Prof. T. Nafasovning qayd qilishicha, qarluq qabilasi *qir(q)yigit, uzunoyoq, oltiuylik, gadoy, qizilishton, qozoqchi, turkman, shix, qorong'ilik, havash, temirchi, javlon, qul, to'rtuylik, eshakquloq, kalto'p, olchin* kabi urug' tarmoqlariga bo'linadi (Nafasov, 1988: 245). Tarixiy manbalarda mazkur regiondagi *Javlon, Raboti Javlon* (Список населенных... 1906:49), *Qizilishton, Olchin, Shixlar, Qozoqlar, Qirqjigit, Uzun, Oltibek, To'rtkapa, Havash, Qul* (Материалы.., 1927: 95–102) nomli qishloqlar tilga olingan. Kattaqo'rg'on shahri va uning atrofidagi aholi qarluq lahjasida so'zlashishadi.

Demak, mazkur toponimlar etnik birliklar bilan aloqador. Qizilishton – totem. Turkiy qabilalarning ko'pi turli hayvonlar, qushlar nomi bilan atalgan. Bunda ular muqaddas hisoblanib, u yoki bu qabilaning totemi (ongoni) bo'lgan. Jumladan, bahrin (lochinning bir turi), oqsunqor, burgut, jig'altoy kabi qush nomlari totem sifatida uchraydi. Demak, Qizilishton etnooykonim bo'lib, urug' totemi joy nomiga aylangan.

QIZILKARVON – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***Qizil***" hamda "**Karvon**" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Ushbu maskan *"qizg'ish rangli tuyalardan iborat karvon dam olib o'tadigan joy"* ma'nosini ifodalaydi.

QIZILNURA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Sifat+ot strukturali mikrooykonim.

Apellyativning birinchi komponenti "***Qizil***" so'zi *"rang, sifat"* ma'nosini bildiradi, "***nur(a)***" so'zi esa *"yorug'lik manbayidan taralgan va ingichka tola ko'rinishida tasavvur etiladigan ziyo, yog'du"* kabi ma'nolarni anglatadi [O'TIL 3, 687], bundan tashqari, ayrim ilmiy manbalar ma'lumotlariga qaraganda "***nura***" so'zi *"tog"* ma'nosini ham bildirib kelishligi mumkin [T.Nafasov, V.Nafasova. 6, 88].

QIZILNOVUR – tabiiy obyekt nomi, Surxondaryo viloyatining Boysun tumani. Kattanovur – Jizzax viloyati Zomin tumani. Novur – tog' yonbag'ridagi shaffof jarlik, katta toshlar (talus) uyumidir.

QIZILOLMA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***Qizil***" hamda "***olma***" so'zlari yordamida hosil bo'lgan. Ushu mikrotoponim tarkibidagi "***qizil***" so'zi *"qizg'ish rangdagi tuproqli tepa (balandlik)"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 5, 277]. "***Olma***" meva nomi [O'TIL. 5, 3, 115].

Yuqoridagilarga asosan bu mikrotoponim *"qizil olmalar yetishtiriladigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

QIZILOYOQ – Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. Andijon viloyatining Jalaquduq, Marhamat, Paxtaobod, Qo'rg'ontepa tumanlarida ham shu nomdagi qishloqlar bor.

Qiziloyoq – qirg'iz qipchoqlarining bir urug'i. Qiziloyoq urug'i, shuningdek, qirg'izlarning kesak, do'lus, charu qabilalari, qoraqalpoqlarning qo'ldovli qabilasi hamda turkmanlar tarkibida ham qayd qilingan. Qizil so'zining tillo ma'nosi ham bor (Qorayev, 2001).

QIZILQIYOQ – qishloq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Kiyak (o'zbekcha *qiyoq* yoki *bardi*) – "chakalak (o't)", ammo bu yerda Kiyak – etnonim, masalan, bayuli qozoq qabilasi orasida Kiyak turi qayd etilgan. (П.П.Семёнов. Географическо-статистический словарь. том II, СПб, 1865. С. 48).

I. Magidovich XX asrning 20-yillarida o'zbek qatag'on qabilasi orasida Kiyak (Kiyak) turini eslatib o'tgan (Материалы по районированию Средней Азии, кн. I. – Бухара, 1926. С. 194).

Shuningdek, Farg'ona viloyati So'x tumanidagi mahalla ham shunday nomlanib, unga shunday izoh beriladi: "O'simlik nomi bilan atalgan joy nomlari qatoriga kiradi. **Qiyoq** – *ensiz, keskir bargli ko'p yillik o'simlik. Yovvoyi o'simliklar nomi bilan atalgan joy nomlaridan Qorayantoq, Qorqchitol* kabilarni keltirish mumkin".

QIZILQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Markaziy Osiyoning sharqidagi, O'zbekiston bilan Qozog'iston hududidagi cho'l.

Qoraqalpog'iston Respublikasining sharqiy katta qismini Qizilqum cho'li egallagan. Qizil so'zining ma'nosi ko'p: qizil rang, jigarrang, qon, oftob, sharq va hokazo. Hozirgi geografik kartalarda bu cho'lning nomi keng hududiy yoyilgan.

Aslida, cho'lning Sirdaryo tomonidagi hamda markaziy va shimoliy qismlarigina Qizilqum deb atalib, Buxoro tomonidagi qismi Botoqqum deyilgan. Ba'zan barxanlar – ko'chma qumlar qizilqum deb yuritiladi. Qizilqumni ikki xil izohlash mumkin: Sharqiy cho'l yoki Oltinqum. Qizil so'zining oltin ma'nosi ham bor. Muruntov oltin koni buning dalili.

QIZILRAVOT – Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qadimiy qishloqlardan biri. Qizilravotning qadimiyligi haqidagi fikrimizni mazkur nomni Namangan viloyati Chortoq tumani Koroskon qishlog'i (sobiq kent) dagi Sulton Sayid mozorining shayxlari nomiga XVI–XIX asrlarda berilgan 146 ta hujjatdan iborat "yorliqlar to'plami"da ham o'nlab o'rinlarda uchrashi tasdiqlaydi. Masalan, *"...Adak arig'i Qizilravot (Mavzey) nishoni humoyun asosida uning otasi marhum Muhammad Sayid Fozil Alig'a taalluq*

bo'lg'on ekan..."[1]. Hujjat, ya'ni yorliq ostiga qo'yilgan hijriy yil sanasini, ya'ni *"23-ramazonul muborak, sana 908. 4 muhrluq"*[2]ni hijriy yilning milodiy yil sanasiga aylantirish qoidasiga ko'ra, hozirgi yil hisobiga aylantirsak, quyidagi sana kelib chiqadi: *908 : 33=27,5., 908-27=881, 881+622=1503.*

Demak, Qizilravot 1500-yillarda ham mavjud bo'lgan. Bu qishloq 500 yildan ortiq tarixga egaligini anglatadi.

Qizilravot oykonimining etimologiyasi haqida bir necha xalqona qarashlar bor:

1. Hozirgi Shimoliy Farg'ona kanali (sobiq Yangiariq) qazilayotgan paytlarda kanalning Qizilravot hududidagi qismi suv yo'li qurilishi qonun-qoidalariga muvofiq qazilgan bo'lsa-da, suv yurmagan emish.

Aytishlaricha, tunda bir kuni bir oqsoqolning tushiga Xizr buva kirib: "Men burgan o'tlarning uchlarini bog'lab ketaman, ariq (hozirgi kanal) ni shunga qarab qazinglar", – degan emishlar. Shu voqeaga nisbat berib, kanalning xuddi shu hududida bunyod etilgan qishloq **Xizirobod** deb atalgan. Keyinchalik nom xalq jonli tilida **Qizilravot** shakliga aylanib ketgan emish.

2. Ikkinchi rivoyatga ko'ra, qishloqning shimoliy tomonidan, adirlar etagidan Xitoy bilan Sharq mamlakatlarini bog'laydigan yo'l o'tgan emish.

Yangiariq bo'ylarida savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida karvonsaroylar qurilib, ravotlar, katta saroylar barpo etilgan. Qishloq shu ravotlar o'rnida bunyod etilgani bois avval **Ravot,** keyinchalik **Qizilravot** deb atalganmish[3].

Ko'rinadiki, nom haqidagi har ikki yuqoridagi talqin sodda, mantiqan va til nuqtayi nazaridan asossiz. Shuningdek, Xizirobodning Qizilravot shaklini olishi ham ancha qiyinroq.

Bizningcha, **Qizilravot** oykonimi *qizil* va *ravot* morfemalaridan iborat bo'lib, qo'shma tarkibli nomlar sirasiga mansub. Nom tarkibidagi **ravot** tarixiy oykonimik indikatori asli arabcha **rabot** so'zining fonetik varianti bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi:

– mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma'lum masofada joylashgan istehkom, qo'rg'on;

– savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy; shahardan chetroqdagi turaroy[4].

Demak, bu so'z *istehkom, karvonsaroy, musofirxona, qo'rg'on* degan ma'nolarga ega. Qizil so'zi rangni ifodalashdan tashqari ayrim etnonimlar, toponimlar tarkibida "tilla" ma'nosida

---

[1] *Qarang.* Juvonmardiyev A. XVI–XIX asrlarda Farg'onada yer-suv masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 81.

[2] Juvonmardiyev A., o'sha asar, 81-bet.

[3] *Bu haqida qarang.* Musayev A., Dadajonova D. O'z asrining o'zbek allomalari. – Namangan, 2007.; Mirzomadinova M. Ona qishlog'im – Qizilravot // Uychinoma, 1999, 25. II. – B. 4.

[4] O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 332–333.

kuzatiladi: *qiziloyoq* (urug' nomi), *Abdulla qizil* kabi[1]. Qizil so'zi ko'proq narsa-buyumlarning belgisini – rangini ifodalaydi. Jumladan, qizil hududga, tuproqqa, suvga nisbatan ham qo'llanadi.

O'zbekiston toponimiyasiga xos **Qiziltov** (Namangan v. Norin t., Qashqadaryo v. Dehqonobod t.), **Qizilgaza** (Gazatog' qirrasi – Qashqadaryo v. Qamashi t.), **Qizilyop** (*yop – ariq*. Xorazm v.) kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Yuqorida keltirilgan toponimlar tahlili asosida va hudud o'rnini kuzatish **Qizilravot** toponimi "*qizil tuproqli yerdagi qo'rg'on*" ma'nosiga ega, degan xulosaga keldik. Hozirgi qishloq (sobiq qo'rg'on) qizil tuproqli yerda bunyod etilganligi uchun dastlab "qizil tuproqli yerdagi rabot" deb atalgan, keyinchalik til taraqqiyoti davomida *"qizil rabot" – "qizil ravot"* shaklini olgan va hozirgi ko'rinishga kelgan: *qizil tuproqli yerdagi rabot> qizil rabot> qizil ravot> Qizilravot.*

QIZILTEPA – shahar va tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zbekiston toponimiyasi tarkibida Qiziltepa nomi ko'p uchraydi. Qizil so'zining rang ma'nosidan tashqari boshqa ma'nolari ham mavjud. Masalan, qadimiy turkiy tilda *qizil* so'zi janub tomonni anglatgan. Yana bir ma'nosi tog'larda o'simlik o'smaydigan yoki kam o'sadigan qizil tuproqli joylarni nomlashda ham qizil so'zidan foydalanishgan.

Qiziltepa tumanining cho'l hududi tomon yerlar tuprog'i qizg'ish rangda, Ko'ktog' tomonda esa baland-past tepaliklar qip-qizil tuproqdan iborat. Shuning uchun aholi qadimdan bu joylarni Qiziltepa deb atab kelgan. Qiziltepa – qizil rangdagi tuproq va boshqa qattiq jinsli moddalar qotishmasi bilan qoplangan tepa.

QIZILTO'RIQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim. Ot bilan bog'liq nomlarga qarang: *Qorabayir, To'riayg'ir* kabi.

QIZILO'ZEK – Qoraqalpog'iston Respublikasi Moyjapning eski tarmog'i. U Kegeylidan oqib, Orol dengiziga quyiladigan bo'lgan. Qizilo'zek deb atalishining sababi, bir davrlari qish kunlari va erta bahorda har doim qizil suv oqib turgan. (Qish kunlari va erta bahorda muzli, ya'ni muz ustidan oqqan suvlarni qizilsuv deb atashadi.)

QIZILZOV//KO'KZOV//ZOVETAK – tabiiy obyekt nomlari (Jizzax viloyati Zomin tumani). Fors tilida **zou** – bu *dara*; Eronda bu so'z ko'pincha toponimlar tarkibida uchragan: **Kalezau, Sorxzau** (В.И.Савина. О типах словообразования топонимов Ирана //Топонимика Востока. –М., 1964. С. 168).

E.M.Murzayev Terskey Alatov cho'qqisidagi **Zauka, Zaukuchok** toponimlarida *zov* terminini ko'radi (Э.М.Мурзаев. К географической терминологии и номенклатуре кирги-

[1] Qarang. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 51.

зов Тянь-Шаня. Изв. ВГО, 1940, т. 72, вып. 3. С. 322).

Qirg'izcha **zoo** – *o'tib bo'lmaydigan, o'simliklarsiz, yovvoyi qoyalardir* (К.К.Юдахин. Киргизско-русский словарь. С. 291).

Andijon viloyatida *zovlin: zovlinga tushib ketdi* (prof. S.Ibragimovning og'zaki ma'lumoti) variantlari qo'llaniladi. *Zov* so'zi o'zbek folklorida ham uchraydi: Odam jurmas tovlardan, Qush turalmas *zovlardan*, Mergen adir ovlardan, Qistab o'tub boradi. "O'tib bo'lmaydigan (odamlar uchun) tog'larda, hatto qushlar ham qarshilik ko'rsata olmaydigan jarliklarda, tog' etaklaridagi karlar ov qiladigan joylarda" "Tez yuguruvchi otlar" sayr qiladi.

QIZILCHASOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Gidronimidagi *-cha* affiksi sifatga qo'shilib, kichraytirish ma'nosini saqlagan holda, uni otga aylantiradi. Bunday hollarda *-cha* morfemasi so'z yasovchi sanaladi [O'TIL. 5, 589].

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 3, 545].

Demak, "***Qizilchasoy***" – *"suvi tarkibida qizil tuproq unsurlari bo'lgan kichik daryo"* tarzida izohlanadi.

QIZILCHAG'AT – joy. Jizzax viloyatining Zomin tumani, **Qorachagat** – tog'lar, Buxoro viloyati. O'zbekistonda *chag'at* toshli qiyalik – quyosh nurlari singari, kamdan-kam o'simliklari bilan, Turkmanistonda mayda daralar bor (E.M. Murzayev), Qozog'istonda **shakat** – *siyrak o'simliklar bilan toshloq, sho'r tuproqli joylardir.*

QIZIRIQ – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mutaxassislarning fikricha, tuman nomining ilk shakli Qizariq. Ko'p asrlik qo'llash jarayonida transformatsiyalashib nom sodda, ixcham va talaffuzga qulay bo'lgan shaklga kelgan. Respublika toponimiyasi tarkibida *qiz* so'zi bilan yasalgan joy nomlari ko'plab topiladi. Qizqal'a, Qizquduq, Qizariq, Qiztosh, Uchqiz, Qirqqiz, Yetimqiz va hokazo.

Ko'pincha qiz so'zi nomning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi va aniqlovchi vazifasini bajaradi, ya'ni geografik obyektning tabiiy belgisini bildiradi. Ba'zi hollarda, qiz so'zi nomning so'ngida keladi. Tarkibida qiz so'zi bo'lgan barcha nomlarning yaratilish tarixi haqida ko'plab rivoyat va afsonalar to'qilgan. Ularda qiz (ayol)larning dushmanga, g'ayridinlarga qarshi kurashi, el obodligi yo'lidagi jasorati hikoya qilinadi.

Qiz so'zi bilan yaratilgan joy nomlarining hozirgi holati bilan uning asl ma'nosini aniqlash birmuncha murakkab. Chunki qiz so'zining qadimiy shakli – quz. Quz so'zi qadimiy turkiy tilda tog'ning quyosh nuri tushmas tomoni, terskay, ko'lami baland qoya, cho'qqi kabi ma'nolarni anglatgan.

O'zbek adabiy tilining XIII – XIV asrlar va undan keyingi taraqqiyotida quz so'zi qayd etilmagan, yozma manbalarda ham uchramaydi. Ammo xalq og'zaki nutqida bo'lgan, joy nomlari buning isbotidir. Quz so'zining o'rta asrlardagi ma'nosi yordamida Qizariq nomini izohlash mumkin. Qizariq – balandlik bag'ridagi ariq, adir yoqalab notekis joydan o'tkazilgan suv yo'li.

QIZMOZOR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ziyoratgoh nomi. Ikki o'zakli mikrooykonim. ***Qiz*** – bu yerda jins yoki shaxsga nisbatan qo'llanilayotgani yo'q. ***Qiz*** – topotermin bo'lib, "balandlik, tepalik, qoya" deb izohlanadi [Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati, 153]. ***Mozor*** – mahalliy aholi tomonidan muqaddas deb hisoblanuvchi predmet va obyektlarning atoqli nomi agionimlar (*agio – "muqaddas" + onoma – "nom"*) sanaladi. Mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli nomlari nekronimlardir (Бегматов, 2006, 11). Mazkur nekronim xalq etimologiyasiga ko'ra *"qabristondan qiz bolaning ovozi eshitilgani uchun shu nom berilgan"* – degan afsonani aytishadi. Bizningcha, ushbu hududning geografik joylashuviga ko'ra, bu yerlarda chiyabo'rilar ko'p uchraydi. Ular kechalari chaqaloqning yoki qiz bolaning yig'lash ovoziga o'xshash tovush chiqarishadi. Mifologik obraz asosida paydo bo'lgan.

QISHLIQ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Kitob, Qamashi, Yakkabog' tumanlari. Hatto **Qishliqqishloq** qishlog'i ham bor.

T.I.Sultanov ko'chmanchi qabilalar ichidagi qishliqni tilga oladi (Т.И.Султанов. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. Вопросы этнической и социальной истории. – М., 1982. –С. 31, 43).

X.Doniyorov esa qishliqni asosiy o'zbek urug'-qabilalari qatoriga kiritadi (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 81-bet).

QODIRIYA – qishloq. Toshkent viloyatining Qibray tumani. Qodiriya XII asr Samarqandda asos solingan darvish ordenidir. XIV asr Turkistonda tarqalgan Abdul-Qodiriy Gilyani **Qodiriya**lar atashgan (А.В.Пясковский. Революция в Туркестане. – М., 1958, –С. 606.).

QOLGANSIR – qishloq va ko'l nomi. Toshkent viloyati Bekobod tumani. *Qolgan Sir* – "Sirdaryo tomonidan qoldirilgan", "Sirdaryoning eskisi", "Sirdaryoning eski irmog'i". *Qolgan Sir* – Aydar tuz konining ikkinchi nomi (Jizzax viloyati). Geologlar bu yerda neogen vaqtida Sirdaryo daryosining o'zani bo'lganligini aniqladilar. **Qolgan Sir** – *"Sirdaryo tomonidan qoldirilgan"*, bu degani, *Sirdaryoning eski o'zani.*

QONDI – Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi qishloq nomi. *Qandi* qirg'izlarning ichkilik guruhidagi yirik urug'lardan biri. Mazkur urug' O'.Qoratoyev, S.Qorayev tadqiqotlarida *qangli* etnonimining fonetik varianti sifatida qayd etilgan. Qishloq nomining vujudga kelishiga *qandi / qangli* etnonimi asos bo'lgan.

QONLIKO'L – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududida joylashgan qadimiy ko'llarning biri, turkiy xalqlar tarkibiga singib ketgan qang'li qabilasining nomi bilan Qanliko'l deb ataladi. Etnogidronim keyinchalik, tuman va shaharchaga ham nom bo'lib o'tgan. Qang'li so'zining ma'nosi noma'lum, ammo ayrim tarixiy manbalarda, jumladan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida qang'li so'zi "arava" deb izohlangan. Qadimgi toxarlar tilida qang' so'zi "tosh" ma'nosini anglatgan. Biroq bularning ayrimlari munozaralidir.

Aslida, mazkur nom avval etnonim sanalib, keyinchalik toponimga aylangan. Qangli – o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kiruvchi yirik qabila. Qangli qadimgi manbalarda kanguy, kangar, kengar, kengeres shakllarida tilga olingan.

VII–VIII asrlarda qangliliklarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta oqimida yashagan. Keyinchalik qangliliklar Xorazm, Zarafshon, Toshkent vohalari va nihoyat Farg'ona vodiysiga ham joylashib olishgan.

"Devonu lug'otit turk" va "Jome' at-tavorix" asarlarida qangli – "aravali" degan ma'noni anglatishi qayd etilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi tushuntirilishi (qanq – arba) ilmiy emas va u xalq etimologiyasidir.

T.Januzaqov tadqiqotlariga ko'ra esa turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarining qadimiy o'tmishida qan / qang so'zi "daryo" ma'nosini ifodalagan. Sibirdagi Enasoy daryosini yoki turkiy xalqlar yashagan Ural, Oltoydagi ulkan daryolarning nomi Qan / Qang bo'lgan. R.A.Ageyeva ham Qangli – Qan (Enasoyning qadimgi nomi) daryosi negizida paydo bo'lgan topoetnonim degan fikrni ilgari suradi. Ko'pchilik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan ushbu izohga ko'ra etnonim "daryo bo'yida yashovchi el" sifatida talqin etiladi.

T.Nafasovning yozishicha, bu qabila nomining o'zbek tilidagi eng so'nggi shakli qangli bo'lib, qadimiy manbalardagi shakllari – qang // qang' // qanqar // qangar // qanli // qanguy // qangyuy // qangut // qanqa // qanqali // qangqali tarzida bo'lgan. Qabila nomi yasama: qan // qang // qang' + -li. Ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan -ar, -uy, -ut, -li qo'shimchalari turkiy qabila va urug' nomlarida ko'plik, jamlik ma'nolarini bildirgan.

Demak, Qangliko'l//Qanliko'l// Qonliko'l ko'rinishida o'zgarib, qangli urug'iga mansib kishilar ko'li ma'nosini bildiradi va u etnotoponim sanaladi.

QOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. *Qoq* – suv bilan to'ldirilgan unchalik katta bo'lmagan idish ma'nosini anglatadi.

QORA – Jizzax viloyatining Baxmal tumani, Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani; **Qoralar** – Navoiy viloyatining Xatirchi tumani.

Qora – bu etnonim, masalan, qirq qabilasining bo'linmalaridan

biri Qora (qoracha) deb nomlangan. Bundan tashqari, *qora* komponenti deyarli barcha turkiy xalqlarda qabilaviy bo'linish nomlarida ko'p marta takrorlangan.

Qora urug'i ko'plab turkiy xalqlarda uchraydi: o'zbeklar (qo'ng'irot), qozoqlar (nayman, argin, dulat, boyo'g'li), qoraqalpoqlar (keneges), qirg'izlar (saribag'ish), turkmanlar (ersarlar) va boshqalar. Rang belgilari turkiy xalqlarning urug'-qabila nomlarida keng ifodalangan: *oq, qizil, sariq*. Rang belgilari orasida birinchi o'rinni *qora* egallaydi: dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, u 500 ga yaqin etnonimlarda uchraydi: *qora* komponentining o'zi mustaqil etnonim sifatida qozoqlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tuviniyaliklar orasida va boshqa turkiy xalqlarda bir necha bor takrorlangan.

Etnonimlarning ichida urug'-aymoqni ifodalovchi qora komponentlilari nisbatan ahamiyatli hisoblanadi: qoraaziq, qoraboy, qora-kesak, qora-bogish (qirg'izlar orasida), qorabayir, qorako'sa, qoramoyin, qorateri, qoraqo'yli (o'zbeklar orasida), qorabosh, qorabura, qorako'z, qoratoy, qorato'qay (qozoqlar orasida), qoraxo'ja, qora-siyrak, qora-mang'it (qoraqalpoqlarda), qora-barak, qora-balkan, qoragan, qoraman (turkmanlar orasida) va boshqalar. *Ko'k, qizil, sori* ranglari oddiyroq taqdim etilgan.

Etnonimlarning rang belgilarining ma'nolari hali ochib berilmagan.

QORAABDAL – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloqlar nomi. Toponim "qora" va "abdal" so'zlaridan tuzilgan. Abdallar tarixiy manbalarda eftalit nomi bilan mashhur bo'lgan xalq vakillari bo'lib, ularning nomi bilan bog'liq toponimlar respublikamizning ko'pgina viloyatlarida uchraydi.

Toponimist A.Turobovning qayd qilishicha, abdal qabilasi qadimgi Volgabo'yi, Orol atroflarida yashagan massagetlar avlodi bo'lgan eftalitlar yoki boshqacha aytganda, oq xunnlar, xaytallar avlodidir. "Xaytal" so'zi Buxoro lahjasida "pahlavon", "jasur odam" degan ma'noni ifodalaydi. Markaziy Osiyo toponimiyasida bu etnonim abdal shaklida uchraydi.

G.P. Vasilyeva abdal etnonimi turkman urug'lari orasida, R.G. Qo'ziyev esa boshqird urug'lari orasida borligini qayd qilganlar.

Xorazm viloyatining Gurlan (Abdalboy, Mullaabdal), Yangi Urganch (Abdalaras), Bog'ot (Abdalbova), Samarqand viloyatining Payariq (Qoraabdal), Urgut (Xo'jaabdal), Oqdaryo, Kattaqo'rg'on (Abdal) tumanlarida ushbu etnonim bilan bog'liq geografik nomlar ko'p uchraydi. Bundan tashqari, Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida ham shunday nomli toponim uchraydi. Abdallar – eftalitlar avlodlari, ular Hindiston, Afg'oniston va ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o'ynagan. Eftalitlar (xaytal) allaqachon suriya, yunon manbalarida Abdels deb nomlangan.

QORABALIQ – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron tumani.

Qorabaliq – tog' daryolarida yashovchi chavoq; qozoqlarning chanshkli qabilasida baliq etnonimi ham mavjud (М.Тынышбаев. Материалы к истории киргиз-казахского народа. – Ташкент, 1925. –С. 67) va qirg'izlarning bugu qabilasida baliq urug'i bor.

QORABAYIR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanlari, Samarqand viloyatining Payariq tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Zarafshon mang'itlarining tarmoq urug'i (Гребенкин А. Д. Узбеки. "Русский Туркестан", выпуск 2, – М., 1872. –С. 87), o'zbek-qipchoqlar qorabayir deb nomlangan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –С. 123, 130, 131).

Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq, Qashqadaryo viloyati Koson, Qarshi tumanlari, Zarafshon vodiysidagi mang'itlarning (Grebenkin, 1872: 87; Karmisheva, 1969: 29), o'zbeklar tarkibiga kirgan qipchoqlarning bir urug'i qorabayir deb atalgan (Shoniyozov, 1974: 123–131).

QORABEL – dovon nomi. *Qora* – balandlikning nisbatan pastligini, yonidagi boshqa do'nglikdan vertikal ko'lami jihatidan farq qilinishini bildiradi. Qorabel – tiklik sathi yuksak bo'lmagan cho'ziq balandlik.

QORABET – atrofi tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy. Qashqadaryo viloyati Koson tumani. *Bet, betayi* xalq geografik terminlari "qoyalik", "ekspozitsiya" degan ma'nolarni anglatadi. *Qorabet* – qora qoya, ehtimol, shimoliy ekspozitsiyadir.

QORABOLTI – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumani. Bolta – bu urug'ning nomi (uning tamg'asi boltani eslatadi). Urug' bo'linmalaridan biri Qorabolta deb nomlangan. Shevalarda bolta so'zi (masalan, Toshkent atrofida) bolti sifatida talaffuz qilinadi.

QORABOV//QORABOG' – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot va Toshkent viloyatining Ohangaron hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qorabog'* (qoraboy, qorabak, qorabau) – bu umumturkiy etnonim, u o'zbeklarda (saroy, o'z, mang'it qabilalarida), qirg'iz, ozarbayjonlarda va boshqalarda uchraydi.

Soy va qishloq nomi. Ohangaron daryosining irmog'i. Qurama o'zbeklarining bir urug'i *qorabov* deb atalgan. Bu nom qishloqqa ham ko'chgan.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumani. *Qorabog'* – o'zbek qabilasi urug'laridan biri (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 109). *Bov* etnik termini (so'zma-so'z "bog'lama", "bog'") "qabila", "urug'", "bo'linma" degan ma'nolarni anglatadi: "92 bovli o'zbek – 92 urug'dan iborat" o'zbek urug'lari bor; *Qorabov* natijada *qorabog'*ga aylandi.

Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahallalardan biri ham shunday nomlangan. O'zbek qabilalari ichida Saroy nomli katta qabila bo'lib, ushbu qabilalar bo'linmalarining birining nomi qorabog' deb atalgan.

Ehtimol, shunga ko'ra mazkur hudud shunday atalgandir.

QORABOY OQSOQOL – Samarqand shahrining eski shahar qismidagi mahalla nomi. M.Abramovning fikrlariga kora, mahalla ahli avlodlari XIX asr boshlarida hozirgi Toshkent viloyatining To'ytepa shahridan ko'chib kelgan va mahalla ularning oqsoqoli Qoraboy ismli kishi nomi bilan atala boshlangan(М.Абрамов Гузары Самарканда, 1989, B.19).

QORABOG'LI// QORABOYLI – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumani. *Qorabog'li* – etnonim, *-li* qo'shimchasi qayerdan ekanligini ko'rsatmoqda.

Atrofi tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Xo'jayli tumanlari. *Qoraboy* – bu chavandozga o'xshash katta qush. Qorabayli baklanlarning mo'l-ko'l joyidir. Qorabayli etnonim bo'lishi ham mumkin. O'zbekning o'z va qirg'izning muduz qabilalarida *qoraboy* urug'i bor.

QORABOG'ANALI – qishloq. Jizzax viloyati Forish tumani, Navoiy viloyati Nurota tumani. Bag'anali urug'ining bo'linmalaridan biridir; o'zbeklar (yuz), qozoqlar (argin, nayman), qoraqalpoqlar (qipshaq).

QORABULOQ – Samarqand viloyatining Urgut va Qo'shrabot tumanlaridagi buloqlar nomi. Apellyativning birinchi qismidagi "***qora***" elementi "*ziyosiz; qorong'i*" ma'nosiga ham ega [O'TIL. 5, 335].

Geografik termin hisoblangan "***buloq***" so'zi esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" demakdir [O'TIL. 1, 371].

Demak, "***Qora buloq***" gidronimi "*atrofida daraxt-butalar ko'p bo'lgan buloq*" ma'nosini anglatadi.

QORABURA – Andijon shahridagi eski mahalla nomi. Qo'ng'irot urug'larining bir shoxchasi ham "qorabura" deb atalgan. Qadimiy turkiy tilda esa "Bug'ra", "Buvra" deb totem, ya'ni muqaddas sanalgan hayvon (oq erkak tuya) tushunilgan (Oqbo'ra – daryo nomi).

Fikrimizcha, qachonlardir muqaddas sanalgan noyob hayvon nomi asrlar o'tishi bilan urug' nomi bo'lib qolgan (Qorabura). Urug' nomi esa keyinchalik joy nomiga aylangan bo'lsa kerak. Surxondaryoning Jarqo'rg'on tumanida, Tojikistonning Qo'rg'ontepa tumanida ham Qorabura qishlog'i bor.

QORABO'YIN – Andijon viloyatining Shahrixon hamda Farg'ona viloyatining Beshariq tumanlaridagi qishloq nomi. *Qorabo'yin / qoramo'yin* – turkiy xalqlarga, qipchoqlarga xos etnonim. U o'rta asrlarda qipchoq konfederatsiyasi (ittifoqi) ga mansub urug' bo'lgan.

Ko'chmanchi qipchoqlar bilan Markaziy Osiyo, jumladan, Movarounnahrga kelib, turli qabila va urug'lar bilan qo'shilib ketgan. Buxoro va Samarqand qoraqalpoqlari, Farg'ona qipchoqlari, Surxondaryo qarluqlari, Boysun qo'ng'irotlari hamda turkmanlar tarkibida *qorabo'yin / qoramo'yin* urug'i mavjud.

Qoraqalpoq etnografi D.Aytmuratov fikricha, *qorabo'yin / qoramo'yin* etnonimi "qora sochlilar" ("qora", "muyun" qadimgi turkiy tillarda – "kokil", "soch") ma'nosini bildiradi.

K.V.Vyatkina ma'lumotlariga ko'ra esa boy-un (boyun) tungus tilli ellarda "shimol bug'usi" degan ma'noni beradi va etnonim totemizm ta'siri ostida paydo bo'lgan. Agar qipchoqlarning ilk davrlardagi manzilgohi va yashash sharoiti bilan bog'liq boshqa jihatlari e'tiborga olinsa, K.V.Vyatkin ma'lumoti asosli hisoblanadi.

Demak, *Qorabo'yin* toponimining yuzaga kelishi aholisining etnik mansubligi bilan aloqadordir.

QORADARAQ – Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi qishloq nomi. Uzoqdan qorayayotgan bog'larning massivlari "*qoradaraxt*" (shevalarda "qoradaraq") deb nomlanadi.

QORAGUZAR – dovon. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. *Guzar* – daha, chorrahalar, ko'chalar, ba'zan esa dovonlar (forschadan *guzashtan* – o'tmoq, kesib o'tmoq, yo'naltirmoq)dagi joylanish joyi.

QORAHAVOL – qishloq. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani. I.Magidovich o'zbek urug'lari va qabilalari ichida *karaxaval* etnonimini tilga oladi (Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1, ч. 1. –С. 181).

QORAKALTAK – Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi qishloq nomi. S.Gubayevaning (1983) yozishicha, qirg'iz-qipchoqlarning bir urug'i Qorakaltak deb atalgan.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlaridagi qishloqlar nomi shunday atalgan. Qipchoqlarning qoraqipchoq urug'i tarkibida qorakesak tarmog'i bo'lgan. Qozoqlarda qorakesak O'rta O'rdaning asosiy qabilalaridan biri. (С.А.Аманжилов. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. – Алма-Ата, 1959, 16.)

Shu bilan birga, qozoqlarning arg'in va olchin qabilalari tarkibida ham qorakesak degan urug' bo'lgan.

Umuman, kesak bir qancha turkiy xalqlarda keng tarqalgan etnonimdir. O'zbeklarning tuyoqli qabilasining mullakesak va mirzakesak degan urug'lari bo'lgan (Grebenkin, 1872: 69–70).

QORAKESAK – qishloq. Samarqand viloyati Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlari. Qoraqipchoqlar qabilasi tarkibida *qorakesak* urug'i mavjud bo'lgan. (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –С. 123); qozoqlar orasida *qorakesak* O'rta O'rdaning asosiy qabilalaridan biridir. (С.А.Аманжалов. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. – Алма-Ата, 1959, –С. 16).

Bundan tashqari, qozoqlarning Arg'in va Alchin qabilalarida *qorakesak* urug'i bo'lgan. Umuman olganda, *kesek* (kesak) ko'plab turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan etnonimdir. Qirg'izlarda *kesek* va *jookesek* qabilalari ma'lum (Я.Р. Винников. Родоплеменной состав и расселение

киргизов на территории Южной Киргизии, ТКАЕЕ, том I. – М., 1956. –С. 165, 166, 168.)

O'zbeklarning tuyoqli qabilasi *mullakesak* va *mirzakesak* urug'larini o'z ichiga olgan (А.Г.Гребенкин. Узбеки, "Русский Туркестан" – сборник, 1872. –С. 69, 70). Boshqirdlar orasida *kese* urug'i mashhur bo'lgan (Р.Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа. –С. 272–274).

Turkcha *kesek* so'zi urug'ning "ajratilgan qismi" ma'nosini ifodalaydi.

QORAKI – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Qoraqalpoq-qo'ng'irot qabilasining qoramo'yin urug'i tarmoqlaridan biri qoraki bilan bog'liq nom.

QORAKISSA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. O'zbekistonda yashovchi turkman-juzlarining bir urug'i qorako'sa deb nomlanadi [T.Nafasov, 251]. Bu urug' nomi talaffuzda qorakissa tarzida o'zgargan bo'lishi va shu asosda joy nomiga ko'chgan bo'lishi mumkin [Z.Ziyotov, 214; N.Begaliyev, 134; S.Qorayev. 1, 179].

Shunga ko'ra bu mikrotoponim ***qorako'sa // qorakissa*** urug'i vakillari yashaydigan joy, maskan, qishloq demakdir [B.O'rinboyev, 259]. Etnonim keyinchalik oykonimga aylangan. Qorakuya toponimi aslida qoraqiya bo'lgan, talaffuzda qorakuyaga aylangan bo'lishi mumkin.

Qoracha urug'i vakillari qirning qiyalik tomonida barpo etgan yashash maskani keyinchalik ***Qoraqiya // Qorakuya*** deb nomlangan. Tuzilishi jihatidan ushbu etnooykonim qora/kissa sifat+ot shakliga ega.

QORAKIPCHOQ – Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. *Qoraqipchoq* – qipchoq qabilasining alohida qismi nomi.

QORAKUYA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim, aslida, ***qoraqiya*** bo'lgan, talaffuzda ***qorakuya***ga aylangan bo'lishi mumkin [T.Nafasov, 252; Z.Ziyotov, 214; S.Qorayev, 1, 181].

Qoracha urug'i vakillari qirning qiyalik tomonidan barpo etgan yashash maskani keyinchalik ***Qoraqiya // Qorakuya*** deb nomlangan [B.O'rinboyev, 260]. Tuzulishi jihatidan ushbu etnooykonim ***qora-kuya*** sifat+ot shakliga ega.

QORAKO'RPA – Andijon viloyatining Shahrixon hamda Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanlaridagi qishloq nomi. Toponim *ko'rpa* degan urug' nomi asosida paydo bo'lgan.

S.Qorayev *ko'rpa* etnonimini "qo'zichoq" ma'nosini anglatishini hamda mashhur tilshunos Abu Xayyon al-Andalusiy (XIII asr) asarlarida bu so'z ana shunday izohlanganini qayd etadi.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida (كُرْبا) – **ko'rpa** so'zining yana bir ma'nosi `qo'zichoq` tarzida izohlangan. Urug'larning hayvon nomlari bilan ham atalishi hisobga olinsa, *ko'rpa* etnonimi totem asosida vujudga kelgan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida *Yangi ko'rpa* oykonimi uchraydi.

QORAKO'RPASOY – daryo. Farg'ona viloyatining Dang'ara tumani. *Qorako'rpa – ko'rpa* urug'ining o'zbek turkmanlarining bo'linmalaridan biri.

QORAKO'SA – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. Nurota o'zbeklari – turkmanlari *qorako'sa* (ko'sa – soqolsiz) urug'laridan biri edi.

QORAKO'L – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qorako'l toponimining paydo bo'lishi, ma'nosi va tarixi o'ziga xos talqinlarga egadir. Avvalo, qora (qara) so'zi: a) rangni; b) kattalik, buyuklik, yiriklikni; d) jonli narsani (uyingda biror qara bormi? – uyingda birov bormi?); e) qo'rqinchli, yovuz kuchlarni; f) panohni, yordam berishni (sizni qora tortib keldim – sizdan panoh izlab keldim); j) baxtsizlikni; h) arab tilida esa qara shaklida uchrab, qishloqni anglatadi (qora so'zining boshqa ma'nolari ham bor). Bularning qaysi biri Qorako'l toponimining paydo bo'lishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin? Aslida, Qorako'l toponimining paydo bo'lishini yuqoridagi sakkiz holat bilan ham bemalol bog'lashga istagancha izoh topsa, uni shularga muvofiq rangiga qarab Qorako'l, o'lchamdan kelib chiqib Kattako'l; atrofida majusiylar yashagani uchun Majusiylar ko'li; odamlar ko'p cho'kib ketganligi uchun Yovuz ko'l; odamlar panoh topganligi uchun Panohko'l; baxtsizlikni ifodalaganligi uchun Baxtsizlik ko'li; qishloqqa arablar kelib asos solganligi uchun Qarako'l (Ko'l bo'yidagi qishloq) tarzida talqin qilsa bo'ladi. Chetdan qaralganda bu fikrlarning hammasida mantiq borday ko'rinadi.

Qorako'l nomi birinchi marta Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida uchraydi. Ma'lumki, XI–XV asrlar vohaga Dashti Qipchoqdan, Turkistonning boshqa hududlaridan turli qabila va urug'lar vakillarining ommaviy ko'chib kelishlari hamda suv mo'l-ko'l bo'lgan mazkur hududda o'troqlashishlari bilan xarakterlanadi. Ko'chib kelib, o'troqlashgan mazkur etnik guruhlar ichida turkiy tilda so'zlashuvchi turkeshlarga tegishli qora qabilalar ittifoqiga kiruvchi urug'lar vakillari ham bo'lganligi shubhasizdir.

Tarixdan ma'lumki, 766-yilda qarluqlardan yengilgan turkeshlarning bir qismi (jumladan, qora qabilalar ittifoqi) qarluq qabila ittifoqi, keyinchalik qarluq davlati tarkibiga kirgan. Bir davlat tarkibiga kirgan qoralar ham qarluq lahjasida gaplashishga o'tishgan. Qorako'l vohasi asosiy aholisining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasida so'zlashishining, bu lahjada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, qadimiy turkiy yodnomalarda ishlatilgan so'zlarning uchrashi sababini shunda ko'ramiz.

Toponim tarkibidagi ikkinchi so'zga kelsak, fikrimizcha, aslida u ko'l emas, balki kul so'zining talaffuzga moslashgan shaklidir. *Kul* so'zi qa-

dimiy turkiy tilda erk, erkin; xalqqa xizmat qiluvchi degan ma'noda ishlatiladi. Bundan xulosa sifatida aytish mumkinki, Qorako'l – erkin, erkli, ozod qoralar yurti degan ma'noni beradi. Uning rangga ham, ko'lga ham, kattalik o'lchamiga ham, yovuzlikka ham, qaraga (arabcha qishloq, ya'ni ko'l bo'yidagi qishloq), yuqorida sanalgan boshqa holatlarga ham mutlaqo aloqasi yo'q. Chunki turkiy xalqlar tarqalgan Rossiyaning ko'plab hududlarida, xususan, Tatariston, Boshqirdiston, Tuva Respublikalarida, Omsk, Irkutsk, Orenburg, Chelyabinsk viloyatlarida va Sibirdagi boshqa hududlarda, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston, Ruminiya, Armaniston va Ozarbayjonda, hatto, turkiy xalqlarning azaliy vatani Oltoydan chiqib, Bering bo'g'ozi orqali Janubiy Amerikaga borib qolgan, hozir hindu deb atalmish elatlar yashaydigan joylarda (Braziliyada 3 ta Qorako'l nomli toponim bor), mamlakatimizning Xorazm, Namangan, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida, Qoraqalpog'istonda Qorako'l nomli o'nlab katta-kichik qishloqlar, shaharlar, posyolkalar, ko'llar, daryolar, tog' cho'qqilarining borligini biz fikrimizni tasdiqlovchi dalil sifatida keltirmoqchimiz. Chunki sanab o'tilgan aksariyat joylarda ko'l tugul, kattaroq hovuz ham mavjud emas. Bu holat esa mazkur urug' (qabila ittifoqi) vakillarining keng tarqalganligini anglatadi, afsuski, ularning tarixi haqida uzuq-yuluq ma'lumotlardan (L.N.Gumilyov, K.Shoniyozov asarlari) tashqari aniq ma'lumotga ega emasmiz.

Taniqli tarixchi P.P.Ivanovning yozishicha, Xiva xonlarining vasiqa hujjatlarida qorako'l urug'i qayd qilingan.

Qora so'zining botiq yer, pastqamlik ma'nolari mavjudligini hisobga olsa, Qorako'l – pastqamlikdagi ko'l ma'nosini ham anglatadi. Buxoro vohasidan Qorako'lga borishda Qorako'l yo'lagi orqali harakatlaniladi. Uning atrofi tekislik bo'lib, to'lqinsimon qirlardan iborat. Qorako'l vohasining atrofini ham baland qirlar o'rab turadi. Shu nuqtayi nazardan, hudud relyefi nisbatan botiq hisoblanadi. Narshaxiy tilga olgan juda katta ko'l aynan Qorako'l bo'lishi mumkin. Mahalliy aholi tuman hududida katta ko'l bo'lganligi haqida ma'lumotlar beradi. Hattoki, hozirgi kunda ham tumanda bir-biriga nisbatan yaqin joylashgan, atroflari botqoqlashgan kichik-kichik ko'lmak va ko'llar saqlanib qolgan. Tuman hududidagi tuproqlarning sho'rlanganligi va sizot suvlarining yer yuzasiga nihoyatda yaqinligi ham yaqin o'tmishda hudud suv ostida bo'lganligini dalillaydi. Shunday ekan, Qorako'l toponimini "pastqamlikdagi ko'l" deb ham izohlash mumkin bo'ladi.

Namangan viloyatining Namangan tumanidagi qadimiy qishloq nomi. *Qorako'l* gidrooykonimining etimologiyasi haqida ham bir necha qarashlar mavjud:

1. Ayrim keksalarning talqinicha, o'tmishda hozirgi *To'sar* qishlog'i hududidagi to'planib qolgan qora moyni

odamlar suvga tushmasin deb, uning yo'lini hozirgi Qorako'l qishlog'i tomonga yo'naltirganlar. Natijada qora moylar qishloqdagi chuqurliklarga qo'yilib ko'l hosil qilgan emish. Shunga ko'ra qishloq *Qorako'l* deb atalgan emish.

2. Namangan tumani tarixini yozgan mualliflarning fikricha, *qora* hozirgi o'zbek xalqi urug'laridan birining nomi. Qishloq shakllanayotgan paytlarda bu yerda mavjud ko'l atrofiga ana shu qora urug'i vakillari kelib joylashganligiga ko'ra qishloq *Qorako'l* deb atalgan[1].

3. Yer ostidan chiqadigan sizot va buloq suvlari tiniq, qoramtir tusda bo'ladi. Shunday suv oqadigan soy-jilg'alar ko'pincha *Qorasuv* deb ataladi. Shuningdek, loyqa suv ham ma'lum ma'noda "qora" hisoblanadi. Bizningcha, qishloq ana shunday suvlar hosil qilgan ko'llar o'rnida barpo etilganligiga ko'ra shunday nomlangan.

QORALARCHA – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani. Qoralar – etnonim (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 81-bet). Toponim hosil qiluvchi kichraytiruvchi *-cha* affiksi bu toponimning xuddi shu nomdagi obyektdan ("ikkinchi" ma'nosida) keyinroq paydo bo'lganligini bildiradi.

QORALI – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumani. Shevalarda olxo'ri **Qorali** (*qora olu*) deb nomlanadi. Qorali – ehtimol etnonim – qorali urug'i o'zbek musabozari qabilasining bir qismi sifatida qayd etilgan. (К.Кубаков, О некоторых родо-племенных группах узбеков Верхней Кашкадарьи// Этнографическое изучение культуры и быта узбекского народа. – Т., 1972. –С. 20.).

QORAMON – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani, Xorazm viloyati Qo'shko'pir, Hazorasp tumanlari. Argin qozoq qabilalari orasida (М.С.Муканов. Этнический состав и расселение казахов среднего джуза. – Алма-Ата, 1974. –С. 51) qoraman urug'i qayd etilgan. Xorazmda ingichka tojga ega bo'lgan qarag'ay turlaridan biri *qoramon* deb nomlanadi (F.Abdullayev. Xorazm shevalari. – T., 1961, 60-bet). Ushbu daraxtning nomi, ehtimol, qora + eman – "qora eman" degan ma'noni anglatadi.

QORAMANQALʻA – Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani. *Qoraman* va *aqman* turkman va qozoq qabilalari, bundan tashqari, Xorazmdagi qarag'ay turlaridan biri Karaman (Qora eman – "Qora eman") deb nomlanadi.

QORAMINOS – Narpay tumanidagi qishloq. Urgut tumanidagi Yuqori Ravot qishlog'i yaqinidagi dala nomi ham Qoraminos deb yuritiladi. Etnonim bilan bog'liq bo'lsa kerak.

QORAMOYINOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanining "Taxtako'pir", "Qorateren" va Qorao'zak tumanining "Qarshig'ali", "Madaniyat" va "Qorao'zak" OFY hududlarida joylashgan qishloqlarning nomi.

[1] Qarang: Namangan tumanining o'tmishi va buguni. 32-bet.

Bu qishloqlar aholisining asosiy qismini qoraqalpoqlarning qoramo'yin urug'iga tegishli bo'lgan xalqlar tashkil qiladi.

QORAMURT – qishloq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Qoramurt* ("qora mo'ylov") – mashhur o'zbek urug'i.

QORAMURCHA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Eng yirik o'zbek qabilasi lakay urug'laridan biri qoramurcha deb nomlangan.

QORAMO'YIN – Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi qishloq, Andijon viloyati Shahrixon tumani, Farg'ona viloyati Rishton tumani. **Chekkaramo'yun, Qipchoqqoramo'yun** – Farg'ona viloyatining Rishton tumani. Karamoyun – Farg'ona qipchoqlarining avlodlaridan biri (К.Шаниязов, К этнической истории узбекского народа. –С. 116).

Xuddi shu nomdagi etnonim boshqa turkiy xalqlar tarkibida bo'lgan, masalan, qoraqalpoqlar orasida (ТИЕ, т. IX, – Л., 1950, см. табл. 6 – Родоплеменная структура каракалпаков), qirg'iz qabilalari Nogut va Yetegen (С.А. Абрамзон. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. – ТКАЕЕ – "Труды Кыргызской археолого-этнографической экспедиции", т. IV, 1960. –С. 118). Ushbu qishloq nomi etnonim bilan bog'liq. T.A.Jdanko ma'lumotlariga ko'ra, qoraqalpoq-qo'ng'irot qabilasining bir bo'limi *qoramo'yin* deb yuritiladi.

QORANAYMAN – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay, Urgut tumanlari. O'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlardan tashkil topgan Nayman qabilasi *qora nayman, oq nayman* va boshqalar kabi yirik birliklarga bo'lingan va boshqalar.

QORANAYMAN BOLTALI – Narpay tumanidagi qishloq. Etnotoponim. Urug' tamg'asi bolta shaklida bo'lgan. O'zbek qabilalaridan biri bo'lgan naymanlar, A.D.Grebenkin ma'lumotlariga qaraganda, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon vodiysi, Farg'ona vodiysi va Xorazmda yashagan va uchta yirik uruqqa – *qo'shtamg'ali, sadirbek voxtamg'ali* urug'lariga bo'lingan.

Bulardan tashqari, naymanlar qoranayman, ag'ran, ayronchi, badir, biya, begonali, bo'kalay, burunsov, jag'alboyli, jestovon, jilonli (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oqto'nli, sagizuruv (sakkizuruq), sarinayman, to'rtuul (to'rto'g'il, to'rtovul), to'rttamg'ali, urguch, uchul, changali, cho'michli, qozoyoqli, qoragadoy, qorasiyroq, qarg'ali, qiltamg'ali, qo'ltamg'ali, chirqirovuq, chuvulloq, oltamg'ali kabi mayda tarmoqlarga ham bo'linadi. Nayman etnonimi qirg'iz, oltoy, no'g'ay, shuningdek, qozoq xalqlari tarkibida uchraydi.

Akademik V.V. Bartold "nayman" so'zi mo'g'ulcha bo'lib, "sakkiz" ma'nosida ekanligi, demak, ushbu xalq sakkiz urug'ga bo'linishini ko'rsatadi.

QORANOR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom Ikki o'zakli

mikrooykonim hisoblanadi. Qora tipdagi toponimlarni ko'p uchratishiz mumkin: *Qora+tosh, Qora+bog', Qora+kissa, Qora+soy, Qora+qo'zi, Qora+kuya, Qora+toy* kabilar.

"***Nor***" – forscha so'z bo'lib, "*tamg'a, belgi*" kabi ma'nolarini ifodalab keladi [O'TIL. 3, 59].

Demak, "**Qoranor**" nomi "*Qora nori bor kishiga qo'yilgan laqab*" bo'lib, keyinchalik joy nomiga ko'chgan.

QORAOVULTO'BE – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan kichik tepalik nomi. Tarixiy manbalardan hammamizga ma'lumki, hozirgi Taxtako'pir hududida Qilish degan biy bo'lgan. U Xiva lashkarlarini ko'rish uchun shu joyga qorovul qo'ygan ekan, shu sababli ham Qoraovulto'be deb nomlangan.

QORAOY – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi OFY va aholi punkti nomi. "Qaraoy" deb nomlanishining sababini Hikmetulla Ayimbetov o'zining "Taxtako'pir ulli darbent ustide" nomli asarida quyidagicha yozadi: "Qoraoyni olisdan qorayib qop-qora tuman singari bo'lib ko'rinadigan terakzorlari bilan to'qaylari shu nomni olishiga sababchi bo'lgan". Haqiqatan ham, bu hududda terakzorlar va to'qaylar juda ko'p tarqalgan.

QORAPOYCHA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi (pocha, poicha – baraban tayoqchasi, ikra); *qorapoycha* – "qora oyoqli" – etnonim.

QORAPCHI – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin tumanlari, Samarqand viloyati Jomboy tumani; *qorapchi* – o'zbek qabilalaridan biri. Surxondaryo viloyatida qorapcha urug'i 16 urug'ga bo'lingan. Qadimgi turkiy tilda *qarapchi* so'zi "kambag'al" degan ma'noni anglatadi.

QORAQALPOQ – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumaniga qarashli shahar shimolidagi qishloq.

Qoraqalpoq xalqi, asosan, shu nomli respublikada yashasa ham, tarixning guvohlik berishicha, Xiva xonligi tashkil topgach, bir qism aholi Sirdaryo orqali Farg'ona vodiysiga kirib kelgan (tarixda Markaziy Farg'ona cho'li "qoraqalpoq cho'li" deb atalar edi).

Qoraqalpoqlar daryo bo'ylarida o'z qishloqlarini tashkil qilganlar va chorvachilik hamda bo'yra-bardon to'qish bilan shug'ullanishgan.

Vodiyning Sirdaryo bo'ylarida Qoraqalpoq qishloqlari paydo bo'lgan. Qishloqning Andijondagisi o'shalardan biridir. Bobog'ozi nomli ariq chiqarilib, atrofdagi yerlar o'zlashtirilgan (hozirgi "Bo'g'ozi" arig'i. Qarang: A. Толстова. Каракалпаки Ферганской долины. – Тошкент, 1939).

Shuningdek, Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloqlar ham shunday nomlangan. Etnotoponim.

92 bovli o'zbek qabilasi ro'yxatida qaraqalfaq shaklida qayd qilingan. Qoraqalpoqlar yoki Zarafshon vodiysida yashovchi ushbu qabila vakillari shevasi bilan aytganda qoralpoqlar

o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik etnik guruhlardan biridir. Respublikaning Zarafshon, Buxoro, Jizzax, Xovos, Toshkent kabi hududlarida, shuningdek, Tojikistonning O'ratepa tumanlarida qoraqalpoq qabilasiga mansub aholi istiqomat qiladi.

Zarafshon havzasidagi qoraqalpoqlar haqida A.D.Grebenkin quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "Ular yashayotgan hudud Zarafshonning o'ng qirg'og'idan boshlanib, shimol tomonga – G'o'bdin tog'larigacha, janubda Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab, Cho'ponotadan Jumabozor tepaligigacha 12 vyorst masofada joylashgan. 37 ta qishloqda yashashadi, jami 1500 kishidan iborat".

Qoraqalpoqlar Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi Oqtepametan, Quyonchi, Qoraqo'ng'irot, Jalg'izog'och, Jonqo'roz, Jomonquyanchi, Beshbola, Qorakesak, Karake, Jomboy tumanining "Jomboy" shirkat xo'jaligidagi Tatar, Besho'g'il, Quduqli, Mitan, Achamayli, Chuyit va boshqa qishloqlarda istiqomat qilishadi.

Qoraqalpoqlar Afg'on Turkistonining bir qator hududlarida, jumladan, Mozori Sharif atroflarida ham yashashadi. 1940-yilda bir necha ming qoraqalpoq (15000 kishi) Afg'onistonning Jalolobod shahri atrofiga ko'chirilgan edi.

Qoraqalpoqlarning O'zbekiston tomon siljishlarida ularning ota yurti bo'lgan Turkiston va Qoratovga 1723-yili jung'or xuntaychjisi Sevan Rabdan boshliq istilochilarning hujumidan so'nggi voqealar sabab bo'ldi. Bosqinchilarga bo'ysungan bir guruh kishilardan tashqari qolgan barcha qoraqalpoqlar turli tomonlarga, jumladan, Xiva xonligiga, Yoyiq va Emba vodiysiga va Movarounnahrning markaziy viloyatlari – Samarqand, Buxoro hududlariga ko'chib, o'rnashadilar.

Qoraqalpoqlarning bir qismi 1758-yili Sirdaryoning yuqori oqimi, Farg'ona vodiysida va Xovos tumanlariga kelib o'rnashganlari tarixda yozib qoldirilgan.

Muhammad Vafo Karmanagiy o'zining "Tarixi Rahimxoniy" asarida 1754-yili 6000 ga yaqin qoraqalpoq Xovosga kelganligini, keyinchalik ularning Buxoro fuqaroligini qabul qilib, Samarqand yaqinidagi Konigil mavzeyiga o'rnashganlarini yozadi. O'zbek-qoraqalpoqlar Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Hamkon qishlog'ida (hozir ularning ko'pchiligi Angor tumanining Tallimoron qishloq yig'ini hududida istiqomat qilishadi), shuningdek, Dehqonobod tumanida ham yashashadi.

Samarqand o'zbek-qoraqalpoqlari o'tmishda o'zlarining Surxondaryodagi qoraqalpoqlar bilan aloqada bo'lganliklari haqida ma'lumot berishgan. Farg'ona vodiysidagi qoraqalpoqlarning urug'lari haqidagi ma'lumotlar kam saqlangan. Ammo Zarafshon vodiysidagi qoraqalpoqlarning urug'lari haqidagi ma'lumotlar ancha.

XX asrda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Zarafshon hududida yashovchi qoraqalpoqlar uch yirik

guruhga: qo'ng'irot-qoraqalpoq, qipchoq-qtoy-qoraqalpoq va uyshun-mitan-qoraqalpoqlarga bo'lingan. Har bir guruhga tegishli urug' yana alohida urug' tarmoqlariga bo'linadi (jami 25 ta urug' tarmog'i qayd qilingan). Zarafshon qoraqalpoqlari urug'lari tarkibidagi juda ko'p etnonimlar Xorazm qoraqalpoqlari tarkibidagi urug'lar nomiga o'xshash.

Shu bilan birga, A.D.Grebenkin Xorazmdagi qoraqalpoqlar tarkibida uchramaydigan beshbola, qovunchi, oqqovun, tungotar (qo'ng'irot urug'i tarkibida uchraydi) va boshqalarni ham qayd qiladi. Shuningdek, qipchoq-qtoylar tarkibidagi iletan-qipchoq, qorakesak, baqalchoq, qtoy-qoraqalpoq-to'palas, o'ray, saqman, burlak; uyshun mitanlar tarkibidagi yetiul, sariq-ucha, beshul, beshsait, obislar (abiz), jugontayak, baraqubak, mirzamitan kabi tarmoqlar ham yozib olingan. O'zbek-qoraqalpoqlar yashaydigan hududdagi juda ko'p toponimlar mazkur etnonim bilan aloqador bo'lib, ularni bilmasdan turib, bu joylardagi geografik nomlar haqida fikr yuritish qiyin.

Etnograf olimlarning qayd qilishlariga ko'ra, ushbu etnik birlikka tegishli ma'lumotlar geografik nomlarda juda yaxshi saqlangan. Masalan, Bulung'ur tumanidagi Qoramo'yin, Sabaloq, Qarake, Yamonqo'ng'irot, Turkman bolg'ali va Paxtachi tumanidagi Qoraqalpoq nomli qishloq ham ushbu etnonim bilan bog'liq.

QORAQAMISH – Toshkent shahridagi kanal. Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida **Obi Qaroqamish** sifatida ilk bor tilga olinadi (О.Д. Чехович. Самаркандские документы. –С. 292, 298). Ehtimol, qamishning mo'l-ko'lligi tufaylidir.

QORAQASMOQ – qishloq. Navoiy viloyati Nurota tumani. Qo'ng'irot qabilasining Qo'shtamg'ali urug'ining bo'linmalaridan biri Qoraqasmoq (Karakasmak) deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 91; X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 87-bet).

QORAQIR – Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qir va qabriston nomi. Mazkur toponim qora va qir so'zlari qo'shilishidan hosil qilingan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"-da apellyativning birinchi qismi qora so'zi *"Rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozonkuya, ko'mir tusidagi rang"* ma'nosini bildirsa, uning ikkinchi qismi qir so'zi xuddi shu lug'atda *"Atrofdagi yerlardan biroz ko'tarilib turgan, yassi yoki salgina gumbazsimon balandlik, tepalik"* kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan (O'TIL. 2022, V, 297, 335).

Demak, ***Qoraqir*** toponimi qora rang tusidagi tepalik ma'nosini ifodalaydi.

QORAQIPCHOQ – Samarqand viloyatining Payariq, Jomboy hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur umumturkiy etnonim qipchoq qabilasi tarkibida *qorapichoq, oqpichoq, sariqpichoq* nomli urug'lar bo'lgan. Qorakesak tarkibidagi kesak umumturkiy etnonim. O'zbeklar, qo-

zoqlar, boshqirdlar , qirg'izlar tarkibida kesak, qorakesak, mirzakesak, mullakesak, juukesak degan urug'lar bo'lgan. Qoraqasmoq qo'ng'irot qabilasining qo'shtamg'ali tarmog'i tarkibidagi urug' nomidir. Qorasiyroq – Markaziy Osiyoda yashovchi hozirgi xalqlarning tarkibiga kirgan qadimgi sarmatlarning bir qabilasi sirak deb atalgan. Shundan qorasiyroq nomi hosil bo'lgan. O'zbek qavmlaridan laqaylarning kichik bir tarmog'i qorasiyroq deb atalgan. Qoraqalpoq, no'g'aylarda ham qorasiyroq urug'i mavjud.

Xullas, qora so'zining aholi punktlari yoki atoqli otlar tarkibidagi ma'nolari turli-tumandir. Bu ma'nolar lug'atlarda o'z aksini topmagan. O'zbek xalqining tabiat va jamiyatdagi hodisalarni qora so'zi bilan ifodalashidagi milliy o'ziga xoslik joy nomlarida o'z aksini topgan.

QORAQISHLOQ – respublikaning bir qancha aholi punktlari nomlari. *Qara* komponenti (so'zma-so'z "qora") etnonim nomining aks etishidir – bu qirq, qo'ng'irot qabilasining nomi (qora etnonimi boshqa turkiy xalqlar, xususan, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar va boshqalarda uchraydi). Biroq Sirdaryo viloyatining Boyovut mintaqasidagi Qoraqishloq bunday nomni Baxmal viloyatining shu nomli qishlog'idan oldi, uning aholisi bu nomni bergan.

QORAQULONCHI – q., Buxoro viloyatining Qorako'l tumani. *Qulan* – yovvoyi eshak; bundan tashqari, *kulan* – bu o'zbeklar va qozoqlarning urug'i nomi; turkmanlar orasida *kulanchi* etnonimi mavjud. *Karakulanchi* – bu urug'ning bo'linmasi. *Ariqbuyi kulanchi* – kulanchi urug'i, ularning vakillari ariqning bo'yida yashashadi.

QORAQUM – O'rta Osiyodagi dasht. *Qorakum* – o'simlik bilan qoplangan harakatsiz, qattiq qum; *akkum* – harakatdan bo'shashgan qumlar, o'simliklardan mahrum qumlar.

Mahmud Koshg'ariyning so'zlariga ko'ra, o'g'uzlar qumlarni *"kayir"* deb atagan, Turkmaniston Fanlar akademiyasining akademigi Z.B.Muxamedovaning fikricha, Qoraqum nomi kayir kum – qum-qum juft so'zlaridan kelib chiqqan (З.Б. Мухамедова. Парные словосочетания туркменского языка с неясным компонентом. Изв. АН Туркм. ССР. Серия общественных наук, № 1, – Ашхабад, 1971. –С. 62).

Qora so'zi hammasidan ham ko'proq "shimol", "oddiy" ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, Farg'ona viloyatidagi keng tarqalgan qishloq va mahallalar nomi ham shunday atalgan. Qora so'zi qumning rangini emas, uning relyefi va xususiyatlarini bildiradi. Qoraqum – ko'chmas, yopishgan qum ma'nosini anglatadi.

QORAQURSOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur hamda Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on va Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin tumanlaridagi qishloq nomlari. Qoraqursoq etnonimi. Bu, masalan, Qo'n-

g'irot qabilasi urug'laridan birining nomi edi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 87, 92, 213; X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 81, 87-bet). Shuningdek, Nurobod tumanida ham shu nomdagi qishloq bor.

QORAQUSH – tog' nomi. *Qush-tamg'ali, qushchi* – o'zbek urug'lari. Bu etnonimlar yasama so'z: *qush + tamg'ali, qush + chi*. Qoraqush ham urug' nomi. Etnonim kishilarning qadimiy totemistik tasavvuri bilan bog'liq: *qora qush* burgutning bir turi.

QORAQUSHCHI – Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi qishloq nomi. *Qoraqushchi* etnonim. U *qushchi / qutchi* urug'ining bir tarmog'i hisoblanadi.

Etnonim tarkibidagi qora leksemasi urug' vakillarining geografik joylashuv o'rniga ishora qiladi. Jumladan, I.N.Lezina hamda A.V.Superanskayalar fikricha, *qora* so'zi "shimol" ma'nosini, A.T.Kaydarov xulosasiga ko'ra esa "kun botish", "g'arb" ma'nosini anglatgan.

Shuningdek, *qushchi / qutchi* qabilasining yana bir tarmog'i *ko'kqushchi* deb atalgan bo'lib, A.N.Kononov *ko'k* so'zining ma'nosini "kun chiqish", "sharq" sifatida izohlaydi.

Demak, *Qoraqushchi* oykonimi shu nomdagi etnonim asosida vujudga kelgan.

QORAQO'TON – Urgut tumanidagi qishloq. Qora – "yirik, katta" qo'ton – 1) qo'y qamaladigan qo'ra; 2) qo'y qishlashi uchun qulay bo'lgan chuqur joy (relyef shakli) (Qorayev, 1970: 163). Samarqand viloyatida Boshqo'ton, Do'ngqo'ton, Samarqandqo'ton, Omonqo'ton degan joylar bor.

QORAQO'YLI – qishloq. Toshkent viloyati Bo'ka tumani, Samarqand viloyatining Ishtixon, Pastdarg'om tumanlari; **Qoraqo'ylik** – Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani. **Qoraqo'yunli** (qora qo'y) va *Aqqo'yunli* (oq qo'y) qadimgi turkman urug'lari. Ular *qorako'yli, oqqo'yli* shakllarida o'zbeklar tarkibida ham uchraydi (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 80, 81-b.); masalan, qirq qabilasi bo'linmalaridan biri *qorako'yli* deb nomlangan.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Ishtixon, Pastdarg'om, Urgut tumanlaridagi qishloqlar. Qorag'o'yli urug'i qirq qabilasi tarkibida qayd qilingan. Olimlarning qayd qilishlaricha, qirq 92 bovli o'zbek elatiga kiruvchi urug' va qabilalar ichida ming va yuzdan keyingi uchinchi katta son hisoblanadi. Qariyalar uni yuzning ukasi deb hisoblaydilar. Aslida, mingni ham, yuzni ham va qirqni ham siyosiy birlashmalar (uyushmalar) natijasida yuzaga kelgan etnik birikmalar deb atash haqiqatga mos bo'lsa kerak.

Bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, qirq va yuzlar yaqin qarindosh qabilalardir. I.Magidovich ular ko'pincha birgalikda yashashlari hamda bir umumiy nom bilan (qirq-yuz) atalishlarini yozadi. Ba'zida esa o'zlarini farqlashadi deydi. Qirqlar, asosan, Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani, Jizzax viloyatining

G'allaorol hamda Zomin tumanlarida, qisman Bekobod va O'ratepa tomonlarda yashaydilar.

QORAQO'ZI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ikki tarkibli etnotoponim sanaladi. Qipchoq qabilasiga mansub urug'lardan biri qoraqo'zi deb nomlanadi [S.Qorayev, 1, 181; Z.Ziyotov, 214; N.Begaliyev, 139].

Yuqoridagilarga asoslanib, mazkur joy nomini etnooykonimlar sirasiga kiritish mumkin va u sifat+ot strukturasiga ega.

QORASADOQ – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani. *Qorasadoq* – qirg'izlarning Kandi, Neigut, Sayak, Kesek qabilalari tarkibidagi urug'. Etnonim *qorasadoq* (qirqsoqoq) shaklida ham uchraydi.

QORASAQALJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududining shimoli-g'arbidagi Qorasaqal qishlog'ini suv bilan ta'minlovchi sug'orish tarmog'i. Qorasaqaljap atalishiga bu yopni shu qishloq aholisi birlashib qaziganligi sabab bo'lgan ekan.

QORASAQALOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan qishloq nomi. Nomning kelib chiqishida bu qishloq aholisining asosiy qismini qozoqlarning qorasaqal urug'iga tegishli bo'lgan xalq tashkil qiladi.

QORASAROY – Toshkent shahridagi mahalla nomi. Mahalla nomi qabila nomi bilan bog'liq. Sebzor dahasining shimoliy qismida joylashgan. "Qorasaroy" – etnotoponim. Aslida, bu turkiy so'z, qadimgi turkiy qabilalardan birining nomini bildiradi.

Qorasaroy mahallasining nomi qorasaroy qabilasi nomi bilan bog'liq. Muhammad Solihning yozishicha, XIV asrda Amir Temur buyrug'i asosida Toshkentning shimoliy qismidagi darvoza tiklangan va unga Qorasaroy darvozasi nomi berilgan. Olimning ehtimoliga ko'ra, ushbu darvozaga qorasaroy qabilasi vakillari qo'riqchilik qilganlar. XIX asrda ushbu hudud aynan shu nom bilan saqlangan. XX asr boshlarida, boshqa darvozalar kabi, Qorasaroy darvozasi buzilib ketgan, biroq uning nomi shu hudud uchun saqlanib qoldi. Qorasaroy ko'chasi ham shu yerdan o'tgan.

QORASAROY DARVOZASI – Sebzor dahasining shimoliy qismida joylashgan. "Qorasaroy" – ikki o'zakli qo'shma etnotoponim. Aslida, bu turkiy so'z bo'lib, qadimgi turkiy qabilalardan birining nomini bildiradi.

Mazkur darvoza, Muhammad Solihning yozishicha, XIV asrda Amir Temur buyrug'i asosida qurilgan. XIX asrda ham shu nom bilan saqlangan. XX asr boshlarida, boshqa darvozalar kabi buzilib ketgan va nomi darvoza turgan hudud uchun saqlanib qoldi. Qorasaroy ko'chasi va shu nomli aholi turar joylari ham mavjud. XIX asr o'rtalariga oid Eski Toshkent tarixida Sebzor dahasida Taxtapul va Qorasaroy darvozalari oralig'ida Teshik qopqa darvozasi ham ko'rsatilgan.

Miller bu darvoza nomini "qopqan" ("qopqa") shaklida yozgan.

Muhammad Solih mazkur darvozaning ikki xil nomini keltiradi: Teshik qofqa (Darvishak qofqa). "Teshik qopqa" – ikki so'zdan iborat toponim bo'lib, "shahar devoriga o'yib qurilgan kichik eshik" ma'nosini anglatadi. Mazkur darvoza XIX asr oxirlarigacha bor edi.

QORASIYROQ – Samarqand viloyatining Narpay va Pastdarg'om tumanlaridagi qishloq. Totkent q./kengashi. Qorasiyroq etnonim, masalan, laqaylarning kichik bir bo'limi qorasiyroq (qorapocha) deb ataladi.

L.S.Tolstova fikricha, juvonsiyroq, qorasiyroq kabi etnonimlar qadimgi sarmat xalqining sirak qabilasi nomidan kelib chiqqan (Tolstova, 1978: 9–10). Urgut shahrining Andak mahallasida Qorapocha va Oqpocha toponimlari qayd qilingan.

T.Nafasovning qayd qilishicha, siyroq umumturkiy urug' nomi. (Nafasov, 2009: 384.)

Shuningdek, Sirdaryo viloyati Guliston tumani, Jizzax viloyati Jizzax tumani, Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloqlar nomi. *Qorasiyroq* – etnonim. Masalan, laqay qabilasining kichik bo'linmalaridan biri qarasiyrak deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории, –С. 99, 101). L.S.Tolstovaning ta'kidlashicha, джувансы(й)рак, карасы(й)рак etnonimlari qadimgi sarmatlarning *sirak* qabilasi nomi bilan bog'liq (Л.С.Толстова. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике. "Ономастика Средней Азии". – М., 1978. –С. 9-10).

Shuningdek, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi ham shunday atalgan bo'lib, parchayuz urug'ining bir bo'lagi deb e'tirof etilgan. Qishloq aholisining ko'pchiligini shu urug' vakillari tashkil etadi. "Siyroq"– "yuz", "bet" degan ma'nolarni bildiradi. Urug' boshlig'i yuzi qora bo'lgani uchun "siyrog'i qora", "qorasiyroq yigit" deb chaqirilgan. Shundan so'ng ushbu nom keng ommalashib, qishloqqa ham aynan shu nom beriladi.

QORASON – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani. Ehtimol, etnonim. Masalan, Janubiy O'zbekistonda yashovchi arablar tarkibida qorason etnonimi qayd etilgan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 113).

QORASOQOL – Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi qishloq. Urug' nomidan olingan. Qora so'zi qatnashgan urug' nomlaridan Qorateri, Qoraxitoy, Qoraqushchi, Qoraqipchoq kabilarni keltirish mumkin.

QORASOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom "***Qora***" va "***Soy***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. "***Qora***" so'zi yerosti sizot suvlari ma'nosidadir [O'TIL. 5, 5, 336]. "***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

Shunga binoan ushbu mikrotoponimni *"sizot suvlari oqadigan soy bo'yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Leksik jihatdan u ikki o'zakli sifat+ot shakliga xos.

QORASOY BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Apellyativning birinchi komponenti suvliklarga nisbatan geografik terminlar bilan qo'llanganda yer ostidan chiqadigan sizot suvlarga *"**qora**"* sifati qo'llanadi. *"**Qora suv**" – "yerdan sizib chiqadigan suv, buloq suvi, quduq suvi"* kabi ma'nolarni bildiradi [Do'simov, 1977, 156].

Geografik termin sanalgan *"**buloq**"* so'zi *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosidadir [O'TIL. 1, 371].

Demak, *"**Qorasoy buloq**"* gidronimi *"yer ostidan chiqadigan sizot va buloq suvlari bilan to'yinadigan soy yaqinidagi buloq, chashma"* ma'nosini anglatadi.

QORASUV – mahalla, qishloq, daryo. Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Andijon, Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand va Xorazm viloyatlarida ham mazkur nom bilan atalgan mahalla, qishloq va boshqa geografik obyektlar nomlari ko'plab uchraydi. Mazkur nomning toponimga aylanishiga gidronim asos bo'lgan. Ushbu gidronimdan Respublikaning turli hududlarda bir qancha geografik obyektlar nomlari yuzaga kelgan. Gidronimiyada *qora* – yerosti, sizot suvi ma'nosini bildiradi. Ko'pincha, Qorasuv va Oqsuv qiyoslangan. *Qorasuv* – tog' bag'irlari va etaklarida yerosti, buloq suvlari bilan to'yinadigan, hajmi ko'p, rangi zangori, tiniq suv (jilg'a, kichik daryo). *Oqsuv* – tog' ustidagi qor suvlari bilan to'yinadigan bo'tana, oqish rangli suv. *Qorasuv* – yilning barcha fasllarida bir xil miqdordagi suv. *Oqsuv* esa yozda ko'payib, yilning boshqa davrida kamayadigan suv.

QORATEGINCHI – qishloq. Andijon viloyati Jalaquduq tumani. *-chi* affiksi ot va fe'ldan ma'lum bir kasb egasi, uning vakili nomini, shuningdek, shaxsning mavqeyi yoki holatini ifodalovchi ismlarni hosil qiladi va toponimlarda u affiks singari ko'rsatib beradi va *-lik* qo'shimchasi ma'lum bir joydan kelib chiqqanini qayd etadi: *Karateginchi* – Qorategin vakili, *alaychi* – Oloy vakili, *tagchi* – tog'chi, tog'lik va boshqalar.

QORATEREN KO'LI – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoq yerining shimol tarafida, Qizilqumning shimoli-g'arbida Terbenbes tog'i deb nomlangan baland tepalik bor. Shu tepalikning tushish joyida Qorateren deb atalgan bir ko'l bor. Mahalliy aholi ko'lning suvi chuqur, suvining rangi qora bo'lganligi bois Qorateren deb atalgan deyishadi. Yoshi ulug' otaxonlarning aytishicha, bu ko'lning tagi bir paytlari katta bir shahar bo'lgan, suv bosgandan so'ng ko'l bo'lib ketgan. Qorateren ko'lining suvi tagida haligacha o'sha shahar bor deyishadi.

QORATERI – Samarqand viloyatining Oqdaryo, Pastdarg'om hamda Namangan viloyatining Norin tumanlaridagi qishloqlar nomi. Kichkina bo'linma, urug' avlodi *tira*; *qoratira* – "qora avlodi" qorateri – "qora teri" tushunchasiga to'liq aylangan. Qatag'on o'zbek qabilasining qorateri urug'i ma'lum (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 105).

QORATOY – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadimiy hudud nomi. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Qipchoq qabilasining bir urug'i ***qoratoy // qoraxitoy*** deb nomlanadi [S.Qorayev, 1, 177; Z.Ziyotov, 214; N.Begaliyev, 134].

Shunga ko'ra mazkur mikrotoponim *qoratoy // qoraxitoy urug'i vakillari yashaydigan qishloq* [B.O'rinboyev, 264] demakdir. Tuzulishi jihatidan ushbu etnooykonim qora/toy sifat+ot shakliga ega.

Qaratov nomi boshqa ko'plab hududlarda (jumladan, Qozog'iston, Sibirda) ham mavjuddir. Sho'r toponimikasini tadqiq qilgan M.A.Abdurahmonov va A.Bonyukovlar *Karatag*[1] o'rmon o'sib yotganligi uchun qora deyiladi, degan fikrni bayon qilganlar.

Olimlarning bu fikri ular o'rgangan hudud toponimiyasi uchun asosli bo'lsa ham bizdagi Qaratovda hech qanday o'rmon yo'q. Faqat uning tashqi ko'rinishi yonidagi Sultonbuva tog'lariga nisbatan qora, shuning uchun ham xalq uni ***Qaratav*** deb nomlagan (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QORATOYLOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. *Qora toyloq* – "qora tuyacha" – tayloq urug'ining bo'linmasi.

QORATOSH – Jizzax viloyatining G'allaorol va Samarqand viloyati Jomboy, Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat bo'lib, uning tarkibidagi "***Qora***" so'zi *"rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozonkuya, ko'mir tusidagi rang"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 5, 336] "***Tosh***" so'zi esa *"yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo'rt tog' jinslarining umumiy nomi"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 5, 4, 159]. Shunga binoan qop-qora toshlardan iborat joy, maskan qoratosh deb nomlangan, shu yerda barpo bo'lgan qishloq ham keyinchalik ***Qoratosh*** nomini olgan [B.O'rinboyev, 261]. Qoratosh sifat+ot strukturali mikritoponim. ***Qora*** rangni ifodalab, shu hududdagi toshlar, asosan, qora rangda ekanligini ifodalab kelmoqda.

Qoratosh nomli mahalla Toshkent shahrida ham mavjud ekanligini ta'kidlash o'rinlidir.

QORATUXUM – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo hamda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq

[1] Абдурахманов М.А., Бонюков А.А. Топонимические названия шории // Языки и топонимика Сибири, – Томск, 1966. – С. 167.

tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qoratuxum* – tuxum urug'ining kichik bo'linmasi (tuxum – nasl, oila).

QORAUNAS – Paxtachi tumanidagi qishloq. Urgut tumanidagi Qozonariq arig'ining o'rta asrdagi nomi ham Qoraunnas bo'lgan. Yettisuvdagi Mo'g'uliston mo'g'ullari Movarounnahr chig'atoylarini qoraunas, ya'ni "qurama" deb ataganlar (Bartold, 1964: 36) O'zbekistonda qoraunas, qirg'izlarda qorag'unas urug'lari bo'lgan. Farg'ona viloyati Quva tumanida Qoraqunas qishlog'i bor.

QORAUPA – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. Zarafshon qipchoqlarining urug'laridan biri *qoraupa* deb nomlangan. (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –С. 179.)

QORAUZ – Payariq tumanidagi qishloq nomi, etnotoponim. "Qorauz" etnonimi qadimiy turkiy qabila – uz nomi bilan bog'liq. Uzlarning asosiy qismi IX–X asrlarda qipchoqlar tarkibiga kirgan. Ularning yirik tarmog'i qorauzlar ilk o'rta asrlarda ancha katta mavqega ega bo'lishgan. Mo'g'ullarning Janubiy Rus yerlariga hujumidan so'ng uzlarning bir qismi qipchoqlar bilan Bolqonga ko'chib borib, usmonli turklar tarkibiga singib ketgan (Yeremeyev, 9). Ularning boshqa qismi qipchoqlar bilan birga Dashti Qipchoq yerlarida ko'chmanchilik qilib yashaganlar. Keyinchalik Zarafshon vodiysiga ko'chib kelib joylashganlar (Shoniyozov, 1971: 135) va bu hodisa mahalliy toponimiyada o'z izini qoldirgan.

QORAUY – qishloq. Andijon viloyati Shahrixon tumani. Ko'chmanchilar qora uy deb nomlangan uylarda yashagan; boylar, dvoryanlar oq uylarda yashar edilar; *Qora uy* "qora uy" so'zi kambag'allik, muhtojlikni anglatardi. Turkmanlarda Karauy yoki Karauyli qabilalari bo'lgan.

QORAUYMOVUT – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani. Bu uymaut, oymaut urug'lari bo'linmalaridan biri, shuningdek, saryuymout ham bor.

QORAVUL – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. Vahimchi mahallasidan bu yerlarga suv taqsimlagich o'tgan va shu hududda yashovchi odamlar bunga navbatma-navbat qorovullik qilganlar. Shu sababdan keyinchalik ushbu mahalla Qoravul nomini olgan.

QORAVULBOZOR – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Bu nomlar Qorovulbozor sardobasi nomidan olingan. Rivoyatga ko'ra, qadimda sardoba yonida karvonsaroy qurilib, kichkina bozorcha vujudga kelgan. Uning yonidagi tepalikda Buxoro amiri sarbozlarining qorovullik burji bo'lib, o'sha tepalik Qorovultepa, yonidagi bozorcha esa Qorovulbozor deb atalgan.

Qadimgi turkiy so'z qorovul – soqchi, kuzatuvchi, himoya qiluvchi ma'nolarga ega. Shahar atrofida, yirik va qadimiy aholi maskanlari va bozorlar tevaragida, katta savdo yo'llari, karvon yo'llarida xavf-xatar va tashqi dushmandan xabar berish, mamla-

katda ichki aloqalarni yuritish uchun qo'ldan, tuproq uyib barpo qilingan tepalar qorovultepa deyilgan. Ular boshqa tepalardan birmuncha balandroq qilib qurilgan.

Yana boshqa bir rivoyat bo'yicha sardoba yonida qora o'tovlar tikilgan, natijada qora ovul vujudga kelgan. O'tovlar oldida paydo bo'lgan bozor qoraovulbozor deb yuritilgan. Yana bir taxminga ko'ra, Buxoroga qo'shni mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari sardoba yonidagi karvonsaroyda to'xtab, ularning mollari amirlikning shu yerdagi bojxona vakillari tomonidan tekshirilgandan so'ng savdogarlarning poytaxtga kirishiga ruxsat etilgan.

Ayrim sabablarga ko'ra, ruxsatnoma ololmagan savdogarlar o'z mollarini shu yerdagi bozorda sotib yurtlariga jo'nab ketishgan. Ruxsatnoma olgungacha savdogarlar o'z mollarini ma'lum muddat o'zlari qo'riqlagan. Turli tomonlardan kelgan savdogarlar bilan doimo gavjum bo'lgan bozorda xavfsizlikni ta'minlash muhim hisoblangan. Qorovullar turadigan, qo'riqlanadigan bozor – Qorovulbozor.

QORAVUL TEPA – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Ikki o'zakdan tashkil topgan bo'lib, leksik–grammatik jihatdan ot+ot shakliga ega. ***Qorovul*** so'zi biror obyektni ziyon-zahmat yetkasmaslik, unda tartib-intizom va shu kabilarni saqlash, qo'riqlash uchun qo'yiladigan shaxs, qo'riqchi ma'nosini bildiradi [O'TIL.5, 344].

Demak, ushbu maskan *qo'riqchilar turadigan tepalik* ma'nosini anglatadi.

QORAXITOY – Oqdaryo tumanidagi qishloq. 1926-yili aholi ro'yxatida So'g'onchi qishloq kengashi hududida deb ko'rsatilgan. Xitoylar hozirgi o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan yirik qabilalardan biri.

Shuningdek, Qashqadaryo, Toshkent va Andijon viloyatlarida ham shunday nomli qishloqlar mavjud.

Tarixiy manbalarda kidanlar deb tilga olingan. Kidan qabilalari etnik birlik sifatida IV asrdan boshlab ma'lum bo'lgan bo'lsalar-da, eramizning birinchi yarim ming yilligida Markaziy Osiyoning siyosiy va harbiy tarixida unchalik yetakchi rol o'ynagan emaslar.

VI asrda kidanlar birinchi Turk xoqonligiga bo'ysunib, uning tutug'i tomonidan boshqarildi. VII asrda kidanlar sakkiz qo'sh (kocheviy)ga bo'linishadi. Biroq ular IX asr oxiriga kelib kuchaydilar. X asrda kidanlar 300 (500) ming kishilik qo'shinga ega bo'lishdi. Yelyuy Ambagay davrida kuchaygan kidanlar davlati uning vorisi Deguan hukmronligida, 937-yilda, Da-lyao (Buyuk lyao) imperiyasi deb e'lon qilindi. Kidanlar davlati hududiga Xitoyning 16 ta shimoliy viloyatlari kiritildi. 947-yili Deguan Xitoy poytaxtini ishg'ol qilib, o'zini Xitoy imperatori deb e'lon qildi. Lyao imperiyasi tanazzulga uchragach, kidanlarning bir qismi Szin imperiyasiga bo'ysungan, bir qismi Yelyuy Dashi boshchiligida Sharqiy Turkiston tomon siljib, qorakidanlar (qoraxitoylar) davlatiga asos solgan-

lar. Musulmon manbalarida xitoylar deb tilga olinadi. Ular 1137-yil Xo'jand yonida Samarqand xoni Mahmud qo'shiniga qattiq zarba berishdi. 1141-yili esa Qatvon cho'lida (hozirgi Bulung'ur cho'li) saljuqiylar sultoni Sanjar qo'shinini tor-mor qilishdi. Shundan so'ng ularning hukmronligi Yenisey daryolari bo'yidan Balx va Xorazmga qadar joylarga tarqaldi. Ammo 1211-yilda nayman podshosi Kuchluk tomonidan qoraxoniylar gurxoniga berilgan zarba mazkur sulola hukmdorligiga chek qo'ydi. Qoraxitoy xalqi xitoy nomi bilan turkiy xalqlar tarkibiga singib ketdi (Bartold, 1968: 542–546).

Xitoy qabilasi tarmoqlari hali to'liq o'rganilmagan. Ammo Oqdaryo tumanidagi Oytamg'ali qishlog'ida sarixitoy etnik birligi qayd qilinadi. 1904–1905-yillardagi aholi punktlari ro'yxatida Samarqand uyezdi Dovul volosti hududidagi Qorasuv qishloq jamoasida hududidagi Qorakaltak, Qorateri, Oshiqota, Boldir qishloqlari qatorida Sarixitoy ham tilga olingan (Список населенных мест.., 1906: 11). Qoraxitoy (xitoy) etnonimining geografik nomlarda saqlanib qolishi uzoq tarixning aks sadosidir.

QORAXON – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Zarafshon vodiysi qipchoqlarining bir qismi oqqipchoqlar bo'lib, ularning tarkibida jag'altoy, shegarboy, bo'riboy (yoki bo'ri), oqpichoq, pichoqchi kabi tarmoqlar bor. Ular orasida jig'altoy urug'i yirik va ko'p sonli bo'lgan. Jig'altoyning avlodlari Quljomon, Shonazar va Qoraxonlar bo'lgan. Ishtixon tumanidagi shu nomdagi qishloqlar aholisi Quljomon, Shegarboy va Qoraxonning avlodlaridir (Shoniyozov, 1974: 129).

Shuningdek, Navoiy viloyatining Nurota tumanida ham shunday nomli etnotoponim mavjud. *Qoraxon* yoki *Qoraxoniy* toponimlari Zarafshon vodiysida bir necha bor takrorlangan. Ular Xo'ja Qoraxoniy urug'i bilan bog'liq. Mazkur qishloqlarning aholisi ushbu urug'ga tegishli edi. Qoraxoniylar qabilasi o'zini Qozog'iston Respublikasining Jambil (hozirgi Taraz) shahrida joylashgan Avliyo ota – "Muqaddas ota" nomi bilan mashhur bo'lgan avliyo Qoraxoniylar avlodlari deb hisoblashgan; shuning uchun o'tmishda bu shahar Avliyo ota deb nomlangan. (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 151. В.В. Бартольд. Сочинения, т. III, 340).

QORAXONI – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Zarafshon vodiysida Qoraxoni degan toponimlar bir nechtani tashkil qiladi.

Etnograf B.X.Karmisheva ma'lumotlariga qaraganda, bunday qishloqlar qoraxoni xo'jalari urug'i yashaganligi uchun shunday nom olgan. Qoraxoni urug'i vakillari o'zlarini Qoraxon avliyoning avlodlari hisoblaydilar. Bu avliyoning mozori Jambul shahridadir; shuning uchun ham bu shahar 1936-yilgacha Avliyoota deb atalgan (Karmisheva, 1974:179).

QORAYONTOQ – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qish-

loq nomi. Mahalliy aholining ta'riflari bo'yicha Qorayontoq – yantoq o'sgan joyda yeri unumdor bo'ladi deb ko'chib kelingan, yantoq uzoqdan qop-qora ko'ringanligi sababli shu hudud Qorayontoq deb nomlangan. Biroq boshqacha qarashlar ham bor, ayrim manbalarda u yovvoyi o'simlik sifatida qayd etiladi. Masalan: yovvoyi o'simliklar nomi bilan atalgan joy nomlaridan Qorayantoq, Qorqchitol kabilarni keltirish mumkin.

Shuningdek, Andijon viloyatining Paxtaobod va Oltinko'l tumanlarida ham shunday nomli qishloqlar mavjud.

QORAYOZBOBO – Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq. Bu nomning kelib chiqishi to'g'risida turli rivoyatlar bor. Ularda qishloqning bunday nomlanishiga Qoriniyozbobo singari ismlar asos bo'lgan deyiladi. Qorayozbobo aslida uch so'zdan tashkil topgan: qora-yozi-bobo. Yozi – qadimgi turkiy va eski o'zbek tilida "cho'l, dasht" ma'nolarini ifoda etgan. "Qora" so'zi qo'shilib, toponimga aylangan. U ayni "qora cho'l, qora dasht" degan ma'noni ifoda etgan. Toponim tarkibidagi "bobo" so'zi esa shu joy nomiga diniy tus berilganiga ishoradir (Do'simov, 1977).

QORAO'ZAK – Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tuman, tuman markazi, QFY nomi. Qorao'zak nomining etimologiyasiga nazar solsak, o'zak degan mahalliy geografik termin bu qo'ldan qazilmagan, o'zi tabiiy turda paydo bo'lgan suv oqimi (o'zani) hisoblanadi.

O'zaklar ba'zi bir paytlari ikki ko'lni birlashtiruvchi yoki daryodan bo'linib dengizga oqib turadigan bo'lgan. Bunday o'zaklardan biri Qorao'zak – Zayir qishlog'ining yonidan oqib o'tib Shilimko'l bilan Taqirko'lni birlashtiruvchi o'zak bo'lib oqib turgan. Ayrim vaqtlarda daryoning suvi toshib tursa, ayrim vaqtlari qaytib turadigan bo'lgan va shunday qaytgan vaqtlarda o'zakka toza suv tushmaganligidan suv rangi qorayib turganligi sababli, mahalliy xalq bu o'zakni Qorao'zak deb nomlagan bo'lishi mumkin.

Dastlab 1928-yili Zayirda Qorao'zak tumani tuzilgan. 1932-yili u yerni suv bosganligi sababli, aholisi hozirgi Shaxaman hududiga ko'chirilgan. 1945-yili u yerni ham suv bosganligi sababli Qorao'zak aholisi hozirgi o'rniga ko'chirilgan.

QORACHA – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon hamda Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloqlar nomi. Qirq, qatag'on, laqay qabilalarining urug'laridan biri *qoracha* deb nomlangan. (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 81, 86-betlar; Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 101, 106.) *Qoracha* urug'i ham qozoqlarning (jetiru qabilasi) va qirg'izlarning (munduz va saruu qabilalari) orasida ham bor.

QORACHABULOQ//QORACHABOYBULOQ – Jizzax viloyatining G'allaorol Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi buloq nomi.

Apellyativning birinchi komponenti "***qoracha***" – *"o'zbek xalqi tar-*

kibidagi qatag'onlarning burka urug'i tarmog'i"dir [Nafasov, 2007, 50]. Ushbu holatda uning ikkinchi qismidagi "***boy***" komponentining *"boylarga murojaatda yoki ular haqida so'z borganda, ularning nomiga qo'shilib ishlatiladi"* izohi o'rinlidir [O'TIL. 1, 301].

"***Buloq***" geografik termini esa *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 371].

Demak, "**Qorachabuloq//Qorachaboybuloq**" – "*qoracha urug'iga mansub kishilar istiqomat qiluvchi joy yaqinidagi buloq*" demakdir.

QORACHAKMAN – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim bo'lsa kerak. Chunki X.Doniyorov oqchepkan (oqchakman) etnonimini qayd qilgan.

QORACHAG'AT – tepalik. Qashqadaryo viloyati. Quyoshga qaragan holda, moloz bilan qoplangan, asosan loyli parchalar, o'simliklardan mahrum bo'lgan qiyalik *chag'at* deb ataladi.

QORACHURA – 1926-yilgi aholi ro'yxatida Yuqori Darg'om rayonidagi (Toyloq tumani hududidagi) qishloq sifatida qayd qilingan. Hozirgi nomi Madaniyat.

Toponim "qora" va chura (chuhra) so'zlaridan yasalgan. (Shuning uchun mahalliy talaffuzda Qorachehra shaklida ham saqlanib qolgan.) Chuhralar (yoki mahramlar) xonlar, sultonlar, shuningdek, taniqli amirlar xizmatidagi zodagon yigitlar, mulozimlar. Ular saroydagi quyi darajali amaldorlar hisoblangan.

Tarixiy manbalarda chuhralardan tuzilgan qo'shin alohida harbiy bo'lim sifatida xon o'rdasini qo'riqlaganligi qayd qilinadi. Chuhraboshi (saroy mahramlari, tan soqchilari boshlig'i) o'zining asosiy vazifasidan tashqari, xonning kuryeri, elchisi vazifasini ham bajargan (Ahmedov, 1982: 170–171).

Ko'rinib turibdiki, Qorachura qishlog'i o'tmishda hukmdorlar saroyida xizmat qilgan chuhra, ya'ni mahramlardan biri bilan bog'liq bo'lganligi tufayli shunday nomlangan. "Chura", "chuhra" termini ishtirokida yasalgan ko'pchuhra, qirqchehra, chuhraog'asi, oqchuhra kabi so'zlar mavjud.

Qoracho'r yoki Qoracho'ra – qadimgi turkcha yuqori harbiy unvonlardan biri. Bir qator turkiy xalqlarda hozir ham bu so'z urug' nomi, shaxs ismi o'laroq uchraydi

QORASHIX – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani. Mashhur turkman qabilasi *shix* mavjud bo'lib, ularning vakillari O'zbekistonning janubidagi muqaddas joylarga g'amxo'rlik qilishgan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. –С. 118). *Qorashix* (qora shix) – mazkur qabilalardan biri bo'lsa, yana *oqshix* (oq shix) ham mashhurdir.

QORYOG'DI – Toshkent shahridagi mahalla va ko'cha nomlari. Qoryog'di – bu birinchi qor ayollar bayrami, bunda ayollar va qizlar o'zlarining uylarining ikkinchi yarmisida bazm qilishgan (Н.А. Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен и сведения об их численности. "Живая старина".

вып. III–IV. –С. 367). Bu xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lsa kerak.

Aslida, Shayxontohur dahasidagi qadimiy mahalla nomi sanalib, Quduqboshi, Zanjirlik va Qiyot mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. O'sha davrda 130 dan ortiq xonadon yashagan (aholisi qariyb 450 kishi). Aholisi asosan o'zbeklar bo'lib, savdo-sotiq va huarmandchilik bilan shug'ullangan. Mahallada maktabxona, baqqollik, sabzavot do'konlari, choyxona, bir necha poyabzallik va duradgorlik ustaxonali, 3 ta masjidi bo'lgan.

A.Muhammadjanovning fikricha, Qoryog'di X yoki XI asrlarda shaharning tashqarisida vujudga kelgan. Yangi qishloq arabcha al-Qaryat, nom shundan olingan. XIV asrga kelib, shahar kengaygach, qishloq shaharning tarkibiga kirgan.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning (XIX asr) "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida mazkur mahalla nomi Qorbosdi shaklida qayd etiladi. Bizningcha, hozirgi Qoryog'di o'sha paytdagi Qorbosdi toponimining dialektal sinonimidir.

QOSPANQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan qumlik nomi. Qumlik nomining kelib chiqish tarixi bu qumlik yonida Qospan ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilgani bilan bog'liq.

Turkmanistonda ham **Kubatau** tog'i bor bo'lib, uning nomi "gumbazli tog'" (arabcha – Qubba – tonoz, gumbaz) degan ma'noni anglatadi.

QOVAN – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Qovon, Gumbaz va Batal qishloqlari qoraqipchoq urug'ining tarmoqlari nomlaridan olingan bo'lib, bular etnotoponimlardir (Shaniyazov, 1974: 123).

QOVUNSAYIL – qishloq. Farg'ona viloyati Farg'ona tumani. *Qovun; qovun sayil* – qovun yeyish maqsadidagi jamoaviy yurish.

QOVUNCHI – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp, Yangiariq tumanlari. Qovunchi – qovun yetishtiradigan va qovunchilik bilan shug'ullanadiganlar ma'nosini anglatadi. Ehtimol, bu kovchin etnonimining buzilgan talaffuzidir.

QOVCHIN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Qarshi, Yakkabog' hamda Samarqand viloyatining Samarqand tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qovchin* – O'zbekistondagi qabila yoki urug' nomi.

Kauchinlar Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida, Farg'ona vodiysida, Tojikistonning Ko'lob vodiysida, Turkmanistonning janubi-sharqiy qismida yashagan. N.V.Xanikovning fikricha, XIX asrning o'rtalarida Kauchinlar Qarshi atrofida ko'chmanchi bo'lib yurishgan (Описание Бухарского ханства. СПб, 1843 г. –С. 15).

V.V.Bartold tarixiy manbalarga asoslanib, *kauchin* so'zi dastlab alohida urug' yoki qabila nomi emas, balki harbiy qismning nomi bo'lganligini yozgan (В.В. Бартольд. Сочинения, т. V, –С. 172).

I.Magidovich kauchin va kutchi mustaqil etnonimlar emas, balki bir

xil naslning nomi, talaffuzidagi farqi ekanligiga ishongan (Материалы по районированию Средней Азии. Книга I, ч. I.. С. 213).

V.V.Radlovning fikricha, *kauchin* so'zi "ega", "mehmon" ma'nolarini ifodalaydi (В.В.Радлов. Опыт словаря, т. II, 475).

QOYSHIKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan ko'l. Ko'lning Qoyshiko'l deb atalishining sababi, ko'l bo'yida istiqomat qiluvchi aholi, asosan, qo'y chorvachiligi bilan shug'ullangan.

QOZAYAQLIOVUL – qoraqalpoqlarning qozayaqli urug'i nomi bilan atalgan qishloqlar Chimboy tumanining "Qosterak", Qorao'zak tumanining "Olg'abos", "Qarshig'ali", "Qorabug'a" QFY hududlarida bor.

Shuningdek, qozoyoqli, qazayaqli, qazoyoqli – o'zbek, qozoq va yana bir qator turkiy xalqlarda uchraydigan etnonim sanaladi.

QOZIQUZZAT – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Xususan, *qoziyul-quzzot* – oliy qozi, bosh hakam.

QOZIXONA – Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan, ya'ni "qozi" va "xona" so'zlaridan tashkil topgan. 1904–1905-yilgi aholi punktlari ro'yxatida Siyob volosti Jag'alvoyli qishloq jamoasidagi qishloq sifatida ro'yxatga olingan.

Qozi (ar.) – diniy unvon, qozi, sudya, shariat qonunlari bilan ish yuritgan holda hukm chiqaruvchi, shuningdek, fuqarolik ishini amalga oshiruvchi. Qozilik avloddan avlodga o'tgan. Qozilar davlatning boshqaruv ishlarida ham faol ishtirok etganlar.

Samarqand shahrining bosh qozisi XVI asr vaqf hujjatlarida Samarqand hokimi deb qayd qilingan. Samarqand qozisiga viloyatning yetti tumani qozilari bo'ysungan (Казнйские документы XVI века. Введение. Стр. 6. – Ташкент, 1937; Мукминова, 323). Viloyat hududida *Qozimachit, Qoziqo'rg'on* kabi qishloq nomlari ham qayd qilingan.

QOZON – qishloq. Buxoro viloyati Qorako'l tumani. *Qozon* tom ma'noda "qozon" degan ma'noni anglatadi va bu yerda qabilaning nomi etnonim sifatidadir.

QOZONARIQ – Samarqand viloyatining Urgut va Jomboy tumanlaridagi ariqlarning nomi. V.L. Vyatkin Jomboy tumanidagi (o'rta asrlardagi Sug'udi Kalon tumani) Xazon qishlog'i xalq tilida Qazon deb talaffuz qilingan, deydi.

Bizningcha, Qozonariq gidronimi urug' nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Toponimist E.M.Murzayev mazkur so'zga e'tibor berib, shunday yozadi: "Qozon turkiy so'z bo'lib, rus, ukrain, belorus va bolgarlar tomonidan o'zlashtirilgan va Rossiya hamda Bolqon mamlakatlari toponimikasidan mustahkam o'rin olgan. Tataristonning poytaxti Qozon shahri, Turkmanistondagi Kozonjik shahri, Ozarbayjondagi Qozonbuloq shaharchasi va Qozongul ko'li, Shi-

moliy Kavkazdagi Qozonsu daryosi, Qrimdagi Qazantip qo'ltig'i, Jung'or Olatovidagi Qozon daryosi shunday nomlardir. Urgut tumanidagi Qozonariq arig'ining o'rta asrlardagi bir nomi Bashmin bo'lgan.

Lurye Nahri Bashmin gidronimi sug'dcha pysmin – *"qishloq orqasi"* ma'nosini bidiradi, deydi (Lurye, 2004:125).

XV–XVI asr vaqf hujjatlarida esa Qoraunnas deb tilga olinadi. Yettisuvdagi mo'g'ullar Movarounnahrdagi chig'atoylarni "qoraunnas", ya'ni "duragay, qurama" deb ataganlar.

Sharafiddin Ali Yazdiy (XV asr) o'zining "Zafarnoma" asarida turk-qoraunnaslarni tilga olgan. Ariq o'z nomini mazkur etnik birlikdan olgan bo'lishi tabiiy. Keyinchalik bu ariq Qozonariq deb atala boshlagan. Urgut tumanidagi Jozmon qishlog'ida "qozonto'pi" urug'i mazkur ariq yoqasida istiqomat qiladi. Samarqand viloyatidagi Quruqqozon, Quduqqozon (Bulung'ur), Qozonli (Payariq), shuningdek, Xatirchi tumanidagi Qoraqozon qishloqlari nomlari ham etnik birliklar bilan bog'liq.

QOZONBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur gidronim "***qozon***" va "***buloq***" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan, bunda buloqning tashqi ko'rinishi qozon shakliga o'xshashligi asos qilib olingan. Yuqoridagi o'xshatishlardan yana anglashiladiki, buloq tosh jinsli joydan chiqqan.

QOZONTOSH – Samarqand viloyatining Nurobod tumanida tosh nomi. Oronimning yuzaga kelishi va nomlanishi haqida mahalliy aholi orasida rivoyatlar ham bor: "***Juz (yuz)*** urug'iga mansub kishilar shu atrofda bug'doy ekib, mo'l hosil olib, yaxshi yashashar ekan. Bug'doy yetishtirish borasida mirishkor bo'lishgani bois, atrofdagi qishloqlarning aholisidan boy-badavlat ekanlar. Bir yili qurg'oqchilik kelib, qabila ochlikdan qiynalibdi. Kundan kunga ahvol og'irlashibdi. Qo'shni qishloqdagilardan ham oziq-ovqat so'rashibdi, biroq qayta-qayta so'rayverish ularning oriyatiga to'g'ri kelmabdi. Natijada oqsoqollar keng, tekis tosh ustiga chiqib, Allohdan yordam so'rab iltijo qilishibdi. Ko'ngildan qilingan duo ijobat bo'lib, yaratgan butun qishloq ahliga ovqat qilsa, yetadigan katta qozon beribdi. Qishloqda bir oqila, keksa doya kampir bor ekan. Uning cho'michi tilga kirib: "Meni qozonga solsalaring, hammangizning kosalaringiz ovqatga to'ladi", – debdi. Kampir cho'michning uchini tuproqqa tegizsa, u yerdan suv chiqibdi. "Tangrining qudrati bilan suv chiqdi, buni qozonga solinglar", – debdi kampir. Hamma hayron-u lol bo'libdi. Mo'jiza ro'y berib, suv oziq-ovqatga aylanibdi, odamlar ochlikdan qutulib, qurg'oqchilikdan omon chiqibdi, dehqonchilikka baraka kiribdi. Buni ko'rgan qaroqchilar mo'jizaviy qozonni o'g'irlamoqchi bo'libdi. O'zini o'nglab olgan aholi esa omonatni, ya'ni qozonni egasiga topshirishni istashibdi. Shu bois qozon va cho'mich toshga aylangan emish. Shundan bu joy Qozontosh deb ataladigan bo'libdi.

Albatta, bu oronim haqidagi xalqona talqin va etimologiya. Tabiat mo'jizasi sifatida yuzaga kelgan, ko'rinishi to'ntarilgan qozon shaklini beruvchi tosh shunday atalgan.

Oronimning etimoni: qozonga o'xshagan tosh otli so'z birikmasidir. Tosh shakliy ko'rinishi asosida metaforik nomlangan.

Demak, oronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: ***qozonga o'xshagan tosh > qozon tosh > qozontosh > Qozontosh*** (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

QOZOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani; **Qozoqlar** – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani; **Qozoqovul** – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on, Bulung'ur, Jomboy tumanlari; **Qozoqsoy** – Samarqand viloyati Narpay tumani; **Qozoqqishloq** – Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani. Bu yerda "qozoq" so'zi ostida qozoqlar ko'zda tutilmayapti, balki o'zbek urug'i (o'zbekcha har ikkala etnonim ham bir xil yoziladi – qozoq) – o'zbeklar ichida, xususan, do'rman, laqay, qo'ng'irot qabilalari tarkibida qozoq urug'i mavjud.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida **qozoq**, mazkur viloyatning Koson tumanida **qozoqli** qishloqlari mavjud.

QOZOQOVUL//TURKMANOVUL//QORALPAQOVUL – Janubiy Qoraqalpog'istondagi ovullar nomlari. *Avul* so'zi turkiy tillarda va hozirgi mo'g'ul tillarida keng tarqalgan: ***Qazaqaul, Turkmənavul, Qaralpaqavul***. *Ao'ul//Ao'il* mo'g'ul tilida *"qishloq"* degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, bu so'zning ko'chib yurish vaqtida to'xtash, yashash joyi ma'nolari ham mavjud. Qirg'iz tilida *ауыл* "qora uy" (yurta) ma'nosiga ega. Mo'g'ul tilida ail so'zi "o'tov, o'tovlar" ma'nosidadir[1]. T.A.Bertagayevning yozishicha *ail* "oilaviy turarjoy, yurt" kabi ma'nolarga ega[2].

Shunday ekan, *avul* indikatorini asli mo'g'ulcha ayl so'zining fonetik varianti deb qarash mumkin. U so'nggi davrlarda semantik jihatdan o'zgargan, ya'ni o'tov – o'tovlar – ko'chish joyi – qo'nish joyi – qishloq. Aslida, "qishloq" so'zi ham shu jarayonni bosib o'tgan.

O'z vaqtida toponimik tizimda ma'lum bir qatlamni tashkil qilgan ushbu nomlar ham tadqiqotchilarning nazarida bo'ldi. Bu nomlar tabiiy tarixiy nomlardan ajratib yangi toponimlar, neotoponimlar nomi ostida o'rganildi va ularning g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishda ekanligi qayd etildi. Ushbu nomlarning ko'pchiligi hozir ham katta avlod tilida saqlanib, qo'llanib kelinmoqda. Ularning ko'pchiligi o'zining g'oyaviy mafkuraviy bo'yog'ini yo'qotgan. Talaffuzda ham

[1] Мурзаев Э.М. Словарь местных географических терминов. –Москва. – С.229.

[2] Бертагаев Т.А. Лексика современных монгольских литературных языков. – М. 1974. – С.48.

mahalliy sheva vakillari nutqiga moslashgan. Ular turkiy adaptatsiya natijasida o'zlarining dastlabki fonetik tarkibi va ko'rinishini deyarli yo'qotgan (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

QOZOQOY – Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani "Tazg'ara" QFY hududida joylashgan joy va qishloq nomi bo'lib, nomning kelib chiqishida tabiiy geografik xususiyat va etnonim o'z aksini topgan. Bu joy yaqin atrofdagi hududlarga nisbatan pastroq, o'yroq bo'lganligi va bu hududda yashovchi aholining asosiy qismi qozoq millatiga mansubligi Qozoqoy nomining paydo bo'lishida katta rol o'ynagan.

QOZOYOQLI – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi hamda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qo'ng'irot qabilasining urug'laridan biri *qozoyoqli* – "g'oz oyog'i" deb atalgan (o'zbek tilida *g'oz*, qozoq tilida *qaz*); etnonim sifatida boshqirdlar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham qayd etilgan.

QUDUQ – Navoiy viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur toponimning ma'nosi *suv olish uchun qazilgan tor chuqurlik*. Turkiy xalqlardan tashqari, Volgabo'yi, Qrim, Shimoliy Kavkazdagi rus shevalarida (Sharqiy Sibirgacha), Ukrainaning janubida ham iste'molda. Tojik tili shevalarida *quduq* deganda *buloq* ham tushuniladi. Turkmanistonda *quduq*ning bir necha turi bor, ko'milib ketgan *quduq*, *guduk*, *guyi*, usmoni turklarda *kuyuk*, Xorazm shevasida esa *quyi* deyiladi. Ba'zi bir turkiy tillarda buloqni ham quduq deyishadi. O'zbekistonda quduq so'zi bilan hosil qilingan, masalan: *Quduqli, Quduqcha, Qo'shquduq, Uchquduq* kabi yuzlagan toponimlar mavjud.

QUDUQCHA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq va quduq nomi. Gidronim ***quduq*** so'zi va ***-cha*** qo'shimchasidan tashkil topgan. Ushbu gidronim bir o'zakli bo'lib, ot so'z turkumiga topoformant qo'shilishi natijasida kichraytirish semasini ifodalamoqda. Joy nomi suv olish uchun qazilgan tor va teran chuqurlik ma'nosini bildiruvchi ***quduq*** so'ziga ***-cha*** qo'shimchasi orqali hosil bo'lgan. ***Quduqcha*** – odatdagidan kichchikroq quduq ekanligini ifodalaydi.

QUL – Samarqand viloyatining Qoradaryo tumanidagi Yodgorxo'ja qishloq kengashidagi qishloq. Shu tumandagi Jarboshi qishloq kengashi hududida ham Qul nomli qishloq qayd etilgan (Материалы.., 1927: 99). Qul – qarluq qabilasi urug'laridan birining nomi. Etnonim toponimga asos bo'lgan.

QULDORTEPA – Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qadimiy shahar xarobasining nomi. O'rta asr manbalarida tilga olingan Maymurg' hokimligining markazi. Maymurg' hokimligining hududida Samarqand vohasini sug'oruvchi Varag'sar to'g'oni

va undan ajralib chiqadigan sug'orish tarmoqlarining ahamiyati katta bo'lgan. Syuan Szyan (630) ma'lumotiga ko'ra, Mi-moxe (Maymurg') vodiyning markazida joylashgan bo'lib, aylanasi 400–500 li (200–250 km)ga yaqin bo'lgan.

VIII asrning ikkinchi yarmida Maymurg' Abbosiylar xalifaligi tarkibiga kirgan (Ртвеладзе, 1999: 231).

Tarixchilar Diodor Ssiliyskiyning "Tarixiy kutubxona" asarida qayd qilingan "Basista" toponimining o'rnini aniqlashda hozirga qadar biror to'xtamga kelishgani yo'q.

V.Tomashek 1899-yilda Basista haqidagi maqolasida (bu joyda Aleksandr Makedonskiy katta ov uyushtirgan edi) Diodor va Kvint Kursiy Ruflarning ma'lumotlariga tayanib, Maroqanda hududidagi Basista – qalin o'rmondagi suvga serob qo'riq (sug'dcha "paradiz") bo'lgan deydi va bu so'zni eroncha "bazista"("mo'l, boy joy") so'zi bilan izohlaydi. Shuningdek, u Basistani Panjakent, Mag'iyon yoki Urgut hududida bo'lishi mumkin deb ham ko'rsatadi (Мончадская, 1959: 120–121).

Bizningcha, Xitoy manbalaridagi Boside (hozirgi Quldortepa yodgorligi) va Diodor tilga olgan Basista bitta nomning ikki xil shaklidir. Bu fikrni eng so'nggi ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi (Ртвеладзе, 1999: 31).

QULJOMON – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Oqqipchoqlarning jag'altoy urug'ining bir tarmog'i quljamon deb atalgan (Qorayev, 1978: 182).

QULON – maydon, Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi maydon nomi. Qulon ov predmeti bo'lgan. Masalan, Bobur qanday qilib eshakni ovlaganini yozadi. O'zbek-qipchoqlar, qozoq-qipchoqlar, qirg'izlarning Chong Bag'ish qabilasida kulon etnonimi bor (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. –С. 144).

Gulanji yoki Gulanchi – tarkibida Kulan etnonimi mavjud bo'lib, ular arab, turkman qabilalarining salir va sayot tarkibidagi kulon ovchisi hisoblanadi (С. Атаниязов. Словарь туркменских этнонимов. – Ашхабад, 1988. –С. 54).

QULONJIQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasi qo'shtamg'ali urug'ining bir tarmog'i **qulonchi // qulonji** deb yuritiladi [S.Qorayev, 1, 183; Z.Ziyotov, 208]. B.O'rinboyev talqiniga ko'ra, ***qulonchi // qulonji*** so'zi asta-sekinlik bilan ***qulonjiq*** sifatida o'zgarishga uchragan, shunga binoan Qo'shrabot tumanidagi ***Qulonjiq*** mikrotoponimini etnotoponimlar qatoriga kiritish mumkin [B.O'rinboyev, 268].

QULONQOQ – ovul. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi qishloq nomi. **Qulonqoq** toponimi "qulonlar suv ichadigan ko'lmak" ma'nosini anglatadi.

QULONQORABOG' – Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomlaridan biri.

Mahalliy aholi fikrlariga ko'ra, Qulonqorabog' – urug' vakillarining ara-

lashib yashaydigan joyi, dehqonchilik qilish uchun betakror manzil bo'lganligi uchun shunday nomlangan deyishadi.

Ammo ayrim ilmiy manbalarda qulon, qora kabi etnonimlar borligi ham qayd etiladi. Masalan, o'zbek-qipchoqlar, qozoq-qipchoqlar, qirg'izlarning Chong bag'ish qabilasida kulon etnonimi bor (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –Т., 1974. –С. 144).

Shulardan kelib chiqqan holda mazkur nom, haqiqatan ham, aralash urug' vakillari yashaydigan joy ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

QULONTAQIR – Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zatov tumanidagi tog'. Ilgari shu atroflarda ham qulon bo'lganini ko'rsatuvchi dalil (qulontaqir – qulonlar suv ichadigan ko'lmak).

QULONXONA – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumani. Bu qulonlar o'sha davrning aks sadosi bo'lib, bu yerda qulonlar ko'p bo'lgan **Qulonxona** – aynan, "qulonlar uchun joy", ya'ni qulonlar ko'p bo'lgan joy ma'nolarini anglatadi.

QULONCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Buxoro viloyati Jondor tumani; **Ariqbo'yiqulonchi, Xarobaqulonchi** (xarobalar) – Buxoro viloyati Qorako'l tumani, **Qoraqulonchi** – Buxoro viloyati Qorako'l tumani. *Kulonchi* – urug'ning nomi (kamdan-kam holatlarda *qulon* shaklida uchraydi).

QULTEPA – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin, Toshkent viloyatining Piskent hamda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanlaridagi qishloq nomi. *Kultepa* – uy axlatlari va kullar tashaladigan joy ma'nosini anglatadi.

QUM – turkiy so'z. Forscha xum so'zining o'zgargan shakli – qum. Qishloq o'rnida qadimda xum pishirilgan, xumdon bo'lgan. Sopol buyumlar tayyorlangan, xom g'isht quyilib pishirilgan. Qarshi arki, bek qo'rg'oni uchun g'isht tayyorlanadigan joy qishloq o'rnida bo'lgan. Sopol buyumlar, machit-u madrasalar, qal'alar uchun g'isht pishirilgan joy shu hududda bo'lgani uchun Xumqishloq deb atalgan. So'z boshidagi tovush o'zgarib, Qumqishloq qiyofasini olgan.

QUMBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur gidronim "***qum***" va "***buloq***" qismlaridan iborat.

Apellyativning birinchi qismi "***Qum***" so'zi "*bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi*" ma'nosida qo'llanadi [O'TIL. 5, 376].

Uning ikkinchi komponenti "***Buloq***" geografik termini esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosiga ega [O'TIL. 1, 371].

Gidronimining tashqi strukturasidan anglash mumkinki, buloq qumlik joyda joylashgan va shuning uchun ham mazkur "***Qumbuloq***" nomi "*qumlik joyda joylashgan buloq*" ma'nosini anglatadi.

QUMARIQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi qishloq nomi. Qum bor joydagi ariq – qumariq. Xum so'zining o'zgargan shakli qum. Oqar suv taqchil hududlarda band (to'g'on)ga xum qo'yib, tagi va og'zi bir xil hajmdagi xum orqali ariqlarga o'lchab berilgan. Xum, ko'za, mo'ndi kabi sopol idishlar, quvurlar o'lchov birligi va asbobi hisoblangan. Qumariq, asli Xumariq, suvi xumda o'lchanib oqizilgan ariq va shunday ariq bo'yida yoki quyisidagi qishloq.

Qum bilan bog'liq joy nomlari ko'p: Qumboyg'undi, Qumguzar, Qumzor, Qumota, Qumrabot, Qumchiyal, Qumcho'p, Qumqishloq, Qumqo'rg'on va boshqalar.

QUMBODOQ – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qadimgi mahalla nomlaridan biri. Mazkur termin tarixiy nom hisoblanib, u bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarralardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi ma'nosini bildiruvchi *qum* va forscha *bodoq* (ariq, arna) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, qumdan kesib o'tgan ariq ma'nosini ifodalaydi, hozirda mazkur nom marhum hofiz, O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Ortiq Otajonov nomiga o'zgartirildi.

QUMYOSQA – mahalla. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi mahalla nomi. Qum – qumlik, qumlikning oxiri yaska hosil bo'lgan, yassi-yassi, tekis yer sathi. Qum bilan qoplangan joy, qumlikning oxiri bo'lgani uchun "qumyasqa" deb nom berilgan. Mahalla 1992-yilda ikkiga bo'linib, "qumyasqa" nomi berilgan.

QUMKASHON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. *Qum* (o'zbekcha), *kash* – kashidan "Tashimoq", "Tortmoq" hozirgi zamon fe'llarining asosi, *-on* – forscha ko'plik ko'rsatkichi. **Qumkashon** – qum tashuvchi, qum tashuvchilar qishlog'i ma'nolarini ifodalaydi.

QUMQISHLOQ – mahalla. Buxoro viloyatining Olot tumani hamda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi qishloq nomi. 80-yillar oxirida shahar tarkibiga mahalla maqomi bilan kirgan qadimiy qishloq. Qum va qishloq so'zlarining o'zaro birikib, nom bo'lish fazilati lisoniy va mantiqiy jihatdan mos emas. Qum so'zi anglatgan tushuncha qishloqning belgisi bo'lishi mumkin emas. Qum ustida yoki qum ko'p joyda qo'rg'on (qal'a, qishloq), hovli qurilmaydi.

QUMQO'RG'ON – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Surxondaryo viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Qumqo'rg'on shahriga dastlab 1930-yillarda Qumqo'rg'on kanalining qazilishi va shu nomdagi qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan asos solingan. Tuman hududida o'tgan asrning 50-yillarida Sherobod – Qiziriq massivida sug'oriladigan yerlarni kengaytirish maqsadida Janubiy Surxon suv ombori qurildi.

Qumqo'rg'on – nomi ikki tarkibiy qismdan iborat: qum va qo'rg'on. Qum – bir-biri bilan birlashmaydigan,

mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi. Qum – joy nomlari tarkibida ancha sermahsul qo'shimcha. Mazkur qo'shimcha aholi turar joylari turini bildiruvchi qal'a, qo'rg'on, rabot, guzar kabi so'zlar bilan birikib toponimlar hosil qilgan.

E'tiborli tomoni shuki, bu turdagi nomlar tarkibidagi mayda zarrachalardan tashkil topgan cho'kindi tog' jinsi bo'lgan qum so'ziga daxli yo'q. Aniqroq qilib aytganda, qumloq joy ustida bino, imorat qurish quruvchilik amaliyotiga xos emas. Binobarin, tuman nomini qumli, qum ko'p joyda qurilgan qo'rg'on deyish xato izoh hisoblanadi.

Demak, uzoq qo'llanish jarayonida nom transformatsiyalashgan va shaklan o'zgarib boshqa ma'no kasb etgan bo'lishi mumkin. Masalan, xum – g'isht, koshin, sopol idishlar pishiriladigan qurilma, xum so'zining o'zgargan shakli – qum. Mazkur izohga asoslanib aytish mumkinki, Qumqo'rg'on – xumdonlarda g'isht, koshin, sopol idishlar pishiriladigan joydagi qo'rg'on. Nomning dastlabki shakli – Xumqo'rg'on, uning o'zgargan shakli – Qumqo'rg'on.

QUNDUZAK – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Qunduz va *-ak* (kichraytirish qo'shimchasi *-cha*) qismlaridan tashkil topgan. T.Nafasov mazkur turdagi so'zni ko'handiz+ak, ya'ni Ko'handiz – ko'hna diz – qadimiy qal'a so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydi (Nafasov, 1988: 260).

QURAYISH – qishloq. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani. 1924-yildagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra Buxoro yaqinida *ersari* turkman qabilasining *qurayish* bo'linmalari qayd etilgan (bu etnonim katta ehtimol bilan arab qabilasi *qurayish* nomi bilan bog'liq. Ko'plab arablar Buxoro hududida yashaganlar, ko'pchilik vaziyatlarda ular o'zlarining tilini yo'qotishgan, biroq o'zlarining urug'-qabila nomlarini saqlashgan). Kollektivlashtirish va ko'chirish yillarida bu yerga kelgan odamlar yoshligidanoq qishloqni o'zlarining tug'ilgan qishloqlari nomi bilan atashlari mumkin edi.

QURALAS – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon hamda Navoiy viloyatining Nurota tumanlaridagi qishloqlar nomi. Rashididdinning "Jome ut-tavorix" to'plamida (Рашид ад-дин, – М., 1952, II. –С. 14), "Tavorixi guzida – Nusratnoma" asarida (Ташкент, 1967, 77) mo'g'ul qabilalari ichida *kuralas* tilga olinadi. Mulla Sayfiddin Axsikendiy (XVI asr)ning "Majmu at-tavorix" va "Tuhfat ut-tavorix-i xoni" (список Ленинградского отделения Ин-та Востоковедения АН СССР. –С. 468. –Л. –С. 266) asarlarida 92 ta o'zbek qabilalari ichida *kuralash* yoki *kuralas* qayd etilgan (Материалы по истории киргизов и Киргизии, вып. I. –М., 1973. –С. 212), demak, kuralash (kuralas) turklashgan mo'g'ul qabilasidir. X.Doniyorov *g'o'ralas* urug'ini tilga oladi (X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari. 81-b). Shubhasiz, quralas va g'o'ralas aynan bir xil nomlardir.

QURALPA – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani. Qoraqalpoqcha – *quralpa* – birlashish, jipslashish degan ma'nolarni anglatadi.

QURAMA – tizma nomi, ushbu nom etnonim hisoblanadi. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan etnik guruhlardan biri – *qurama*. X.Doniyorov ularni o'zbek urug'i sifatida qayd etgan. XV–XVI asrgacha quramalar Dashti Qipchoqda yashaganlar. XVII–XVIII asrlarda O'rta Osiyoga kelib, mahalliy xalqlarga singishib, turli yirik, urug'-qabilalar bilan aralashib ketgan.

Shuningdek, Farg'ona vodiysi, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida ham shunday nomli qishloqlar mavjud.

QURBANOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning qurbon urug'i bilan atalgan qishloqlar Chimboy tumanining "Kenes", "Qizilo'zek", Qorao'zak tumanining "Qarshig'ali" OFY hududlarida bor.

QURBAQALI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Komonimning "**Qurbaqa**" elementi "*suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar turkumining bir turi; oyoqlari sakrab yurishga moslashgan*" ma'nosini ifoda etadi [O'TIL. 5, 379]. ***–li*** turkiy tillarga xos bo'lib, "*otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi*" [O'TIL. 5, 583-584].

Yuqoridagilarga asosan ushbu komonimni "*qurbaqalar ko'p uchraydigan joydagi qishloq*" deb izohlash mumkin bo'ladi. Ushbu komonim hududda suv havzalari mavjudligiga ham ishora qiladi.

QURTQA SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Apellyativning birinchi komponenti "***qurtqa//qutqa***" shevada "*qattiq qum-tuproq aralashmali jins*"-ni ifodalaydi.

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 545].

Demak, "***Qurtqa soy***" – "*qutqa jinslari k'op uchraydigan o'zan*" ma'nosini ifodalaydi.

QURU(Q) SOY – Samarqand viloyatining Urgut, Kattaqo'rg'on, Nurobod va boshqa tumanlardagi o'nlab soylarning nomi. Gidronimning birinchi qismi "***Quru***" so'zi "*suvi yo'q; suvi qurigan*" ma'nosiga ega [O'TIL. 5, 386] "***Qaqir***" – "*suv yetib bormaydigan, qaqrab yotgan yer*" demakdir [Do'simov, 1977, 153].

Uning komponenti "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" demakdir [O'TIL. 3, 545].

Shunday ekan,, "***Quru soy***" gidronimini "*mavsumiy suv oqadigan,*

ko'pincha suvsiz holatdagi kichik daryo" deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

QURSHAB – daryo. Farg'ona vodiysi, Qoradaryoning irmog'i. Birinchi marta "Hudud ul-olam"da **Xursab** shaklida ishlatilgan. Ibn Havqal ham buni eslatib o'tadi (Naxri Xurshab, БАГ, II, С. 392). **Xurush ob** – shovqinli daryo (forscha – *xurush* – shovqin; qichqiriq; *ob* – suv, daryo).

QURQOZON//QURUQOZON – qishloq. Samarqand viloyati Bulung'ur, Jomboy tumanlari, Jizzax viloyati Zomin tumani. Yuz qabilasining bo'linmalaridan biri *qurqozon* (*quruqozon, quriqqozon*), Farg'onada esa *quruqluqozon* deb atalgan. Shu bilan birga, qishloq jamoatchiligi, inqilobgacha bo'lgan davrlarda *qurqozon, qoraqozon* yoki *qozonsherik* deb nomlangan.

QUSXONATOV – Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani hududida joylashgan dengiz sathidan balandligi 138 metr bo'lgan tog' nomi. Rivoyatlarga hamda so'zlarning ma'nosiga e'tibor berilsa, tog' hududida qushlar ko'p bo'lganligi va bu esa tog' nomining paydo bo'lishida katta rol o'ynaganligini ko'ramiz.

QUTALI – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Qishloq qirg'iz urug'i *qutali* nomidan olingan etnonim etnotoponimga aylangan.

QUTONKO'L – atrofi tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy nomi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani. **Quton** – yovvoyi qushning nomi. Demak, Qo'tonko'l – qo'tonlar ko'p bo'lgan ko'l ma'nosini anglatadi.

QUTTISOZON – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumani. Forscha *quttisoz* – qutilar yasash ustasi; *-on* – ko'plik affiksi. **Quttisozon** – quti yasash ustalari yashagan yoki yashayotgan qishloq ma'nosini anglatadi.

QUTCHI – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin hamda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanlaridagi qishloqlar nomi. Do'rman, qo'ng'irot, qatag'on qabilalari tarkibida *qutchi* urug'i qayd etilgan (Б.Х. Кармышева. Очерки этнической истории. С. 93, 105, 108). Ba'zilar qutchilarni mustaqil qabila deb hisoblashadi. *Qutchi* va *kauchin* bir xil ma'noli degan fikrlar bor.

QUVA – shahar va tuman. Farg'ona viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. O'rta asrlarga xos Quva shahri eramizdan oldingi I asrda shakllanib, V-VIII asrlarda eng gullagan, obod qiyofaga kirgan. IX-XII asrlarga kelib esa shahar qayta tiklanib, Farg'onada Axsikent bilan birga muhim markazga aylangan. Ilk bor **Quba** shaklida "Hudud ul-olam" (24a), keyin Istaxriyda (БАГ, I, С. 333, 335, 347), Ibn Havqalda (БАГ, II, С. 392, 394, 396), Muqaddasiyda (БАГ, III, С. 27, 48, 262, 272) tilga olinadi.

O'rta asrlarda Quva mustaqil viloyatning poytaxti va Axsikatdan keyin ikkinchi Farg'ona shahri bo'lgan. Kuba (Kuva) etnonimi ma'lum. Masalan, XIX asrning 50-yillarida, Orenburg atrofida Qipchoq urug'i *kuva*

qayd etilgan (Н.А. Аристов. Заметки об этническом составе тюркских племен и сведения об их численности. "Живая старина". вып. III–IV. –С. 367).

Qirg'izlarning *cherik* qabilasi tarkibida kuba katta urug'i bo'lgan (С.М. Абрамзон. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии, ТКАЕЕ, т. IV, 1960. –С. 50–51).

O'zbeklar-qo'ng'irotlar ichida *kuva* etnonimi tilga olinadi (Н.Ф.Ситняковский. К генеалогической таблице узбекского рода Кунграт – ИТОРГО, т. VII, 1907. –С. 22,23). Guseynzadening fikricha, **Kuba, Kubali, Kubaderesi** (Ozarbayjon), **Kubadag** (Turkmaniston), **Quva** (O'zbekiston) sifatidagi shunday toponimlar *kuba* etnonimi bo'yicha qayd etilgan ("Советская тюркология", 1971, вып. 2). Etnograf K. Shoniyozov esa o'rta asrlarda qipchoqlar tarkibida mustaqil *kuba* (*kuva*) qabilasi mavjud bo'lganini qayd etadi (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. –С. 29).

QUVASOY – shahar. Farg'ona viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Quvasoy haqidagi ilk ma'lumotlar XIV asrdagi manbalarda uchraydi. "Quvasoy" joy nomi haqida bir nechta taxminlar mavjud. Quvasoy 1928-yilgacha Muyan nomi bilan yuritilgan. Bu nom qishloq yaqinida joylashgan Muyan tog'laridan olingan. Farg'ona va Muyan shaharcha (posyolka)sini bog'lash uchun temiryo'l qurilgan va bekatga "Quvasoy" nomi berilgan hamda kelgusida shahar shu nom bilan atala boshlangan (M.Raxmatov, Kuvasay, O'zbekiston, 4-bet).

Ensiklopedik lug'atda keltirilishicha "quva" – o'zbek qabila nomlaridan biri, "soy" esa "tog' irmog'i" yoki "daryo vodiysi" degan ma'nolarni bildirgan. Mahalliy xalq joy nomini Lashkar qishlog'idan oqib o'tuvchi Quvasoy soyi nomidan olingan deb hisoblaydi.

QUVONDARYO – daryo. Qoraqalpog'iston Respublikasi. Sirdaryoning quyi tomonidan boshlanib, Orol dengiziga quyilgan.

A.Butakov 70 yoshdagi qirg'izning (qozoqning) biyi Maqtibay bilan gaplashganda, 1780-yillarda Quvondaryoning suvi Sirdaryoning suviga nisbatan ko'p bo'lganligini aniqlagan. Uning boshlanish joyi juda tez oqqan va hattoki toshlarni ham yumalatgan. Maqtibayning aytishiga qaraganda Quvondaryo shu paytda Sirdaryoning bosh tarmog'i bo'lgan. Janadaryoda unchalik suv ko'p bo'lmagan. Shuningdek, L.Berg Ulkendaryo (Amudaryo), Tallik, Janasuv, Qozoqdaryo va boshqa geografik atamalar haqida bir qancha ma'lumotlar beradi.

QUVONDIQ – qishloq. Samarqand viloyati Narpay hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloq nomi. Mazkur toponimning shaxs nomiga hech qanday aloqasi yo'q. Aslida, o'zbeklarning laqay va qozoqlarning arg'in qabilasi tarkibida ***quvondiq*** urug'i bor [S.Qorayev, 1, 182].

B.Qarmishevaning fikricha, qozoqlarning arg'in qabilasining bir urug'i

quvondik deb atalgan; o'zbeklar tarkibiga kirgan laqay qabilasining ***quyundiq*** urug'i bo'lgan. ***Quvondiq va quyundiq*** ikkalasi bir urug' nomlaridir[1].

Qo'shrabotdagi qishloq nomi shu urug' vakillari tomonidan mazkur yashash maskani barpo etilgani uchun qo'yilgan [B.O'rinboyev, 267]. Shunga ko'ra bu joy nomi bir o'zakli ot so'z turkumiga mansub.

QUVONISHJARMA – Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarini suv bilan ta'minlovchi katta kanal. A.B.Kaulbarsning "Amudaryoning quyi bo'yi" deb nomlangan asarida Qoraqalpog'iston toponimlari haqida ko'plab tarixiy manbalarni uchratish mumkin.

A.B.Kaulbars 1873-yilgi Xiva yurishiga qatnashgan rus genshtabining polkovnigi edi. U rus imperatorining geografiya jamiyatining topshirig'i bo'yicha Amudaryoning quyi qismini o'rgangan. Polkovnik A.B. Kaulbars ruslarning yurishidan keyin 1873-yilning avgust va sentyabr oylarida kema bilan Amudaryo bo'ylab yuradi, Quvonishjarma orqali qoraqalpoqlarning ko'plab aholi punktlarini ko'rib chiqadi. U Quvonishjarmaning oldingi davrdagi oqimi haqida quyidagicha yozgan: Quvonishjarma ilgari Amudaryoning katta bir tarmog'i bo'lgan va u Ko'ko'zek deb nomlangan. Ko'ko'zek bu vaqtda Dovqara ko'liga emas, uning g'arbidagi Janasuvning hozirgi o'zani orqali dengizga quyilgan. Xiva xoni Olloqulixon (1825–1842) davrida Quvonch ismli qoraqalpoqqa Ko'ko'zekdan Dovqara ko'ligacha kanal qazishiga ruxsat beradi. Quvonchning boshchiligida Ko'ko'zekdan Dovqaraga kanal qazilib butkul Dovqara hududidagi yerlar suv bilan to'ldiriladi. Bundan biz Quvonishjarma kanalining dastlabki nomining kelib chiqish sababi Quvonchning ismiga aloqadorligini ko'ramiz.

QUDIYARKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Taxtako'pir" OFY hududida joylashgan ko'l nomi. Ko'l bo'yida bessari urug'idan bo'lgan Qudiyar ismli kishi oilasi bilan yashagan. U ko'l bo'yida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

QUYI BO'ZSUV – hozirgi vaqtda Toshkentning janubi-g'arbiy qismidan o'tuvchi va shu hududdan oqib chiquvchi oqova, tashlama va grunt suvlarini o'ziga yig'ib boruvchi jarga aylanib qolgan kanal. Aslida, u Bo'zsuv kanalining davomi hisoblanadi.

Ma'lumki, Bo'zsuv – bu Chirchiqdan suv oluvchi va Toshkent shimolidan oqib o'tuvchi yirik kanal. Shahar hududida undan Kaykovus, Anhor, Bo'rijar kabi tarmoqlar oqib chiqadi. O'z navbatida, ushbu ariqlardan mayda ariqlar suv oladi. Mazkur ariqlarning ba'zilari ma'lum bir joyda yirikroq ariqqa qo'shiladi. Bunday ariqlardan biri – Jangob va Chor-

[1] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 232.

su ariqlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan Quyi Bo'zsuv arig'idir. Bu ariq Bo'zsuvdan oqib chiqqan tarmoqlarning birlashishi natijasida vujudga kelganligi sababli aholi tomonidan shunday deb nomlangan.

"Quyi Bo'zsuv" gidronimi "Bo'zsuvning pastki qismi" degan ma'noni anglatadi. Mazkur ariqning nomi XIX asr oxiri XX asr boshi rus manbalarida turlicha keltirilgan. Jumladan, 1890-yilgi Toshkent xaritasida u "Boz-su"[1], 1936-yilgi xaritada esa "Nij.Boz-su"[2] shakllarida berilgan. Bu davrda "Bo'zsuv" nomli ariq shaharning janubi-g'arbiy tomonidagi chegarasi ortidagi yerlarda oqqan, biroq u shahardan ancha pastroqda, Quyi Bo'zsuv va Cho'ponota ariqlari suvining qo'shilishidan vujudga kelgan. XX asr boshida Quyi Bo'zsuv arig'i shahar hududida Mirlar, Chuqurqishloq, Andijon, Chaqar, Suzukota mahallalari, shahardan oqib chiqqach, Shofayzi, Uchtepa, Cho'ponota, Teshikli-tepa, Beshqayrag'och mavzelarini ichimlik suvi bilan ta'minlagan muhim manba bo'lgan.

QUYI QO'NG'IROT – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Arabxona* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Bolo Arabxona* deb o'zgartirilgan.

Qishloq nomiga *arab* xalqi nomi asos bo'lgan. Shu sababdan ham bu geografik joy nomi etnotoponim hisoblanadi. Toponimning birinchi komponenti – *bolo* so'zi "baland", "yuksak", "yuqori" degan ma'nolarni bildiradi. Toponim tarkibidagi *arabxona* so'zi esa "arablar yashaydigan joy" ma'nosidadir. Demak, Bolo Arabxona – "yuqoridagi (teparoqdagi yoki *shimoldagi) arablar yashaydigan joy"* ma'nosini anglatadi.

2014-yil 28-aprelda qishloq nomi *Quyi Qo'ng'irot* deb o'zgartirilgan. Toponim *quyi* va *qo'ng'irot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *quyi* so'zi "past", "adoq", "etak", ko'pincha "g'arb" yoki "janub tomon" ma'nosini bildiradi. Toponimning ikkinchi komponenti – *qo'ng'irot* so'zi esa qabila nomi, etnonim. O'zbek xalqi tarkibidagi yirik qabilalardan biri *qo'ng'irot* deb ataladi. Qo'ng'irotlarning asosiy qismi hozir ham Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashaydi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham qo'ng'irotlar bor.

Demak, Quyi Qo'ng'irot – "qo'ng'irot qabilasi vakillari yashaydigan pastroq (janubroq)dagi qishloq" demakdir.

QUYI NAYMAN – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Nayman* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Quyi Nayman* nomiga o'zgartirilgan.

Toponim *quyi* va *nayman* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *nayman* so'zi esa qabila

[1] План города Ташкента. – Ташкент, 1890.

[2] План-путеводитель по городу Ташкенту. – Ташкент, 1936.

nomi, etnonim. Naymanlar – qadimda turkiy va mo'g'ul xalqlari tarkibida bo'lgan qadimiy qabila. O'zbek, qozoq, qirg'iz, no'g'oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining O'zbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Naymanlar o'zbek xalqining *saroy* qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni *naymansaroy* deb ham atashgan. Mo'g'ul tilida *nayman* so'zi "sakkiz" degan ma'noni bildirgan. Shu ma'no tufayli naymanlarni *sakkiz urug', qabila, turkiy xalq* deb ham izohlashgan.

Taniqli toponimist T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, etnonimning so'nggi qismi hisoblangan *man (mon)* so'zi turkiy tillarning o'tmishida "odam(lar)", "kishi(lar)", "urug'" ma'nosini bildirgan. Qishloq nomiga *nayman* urug'i nomi asos bo'lgan. Toponimning boshidagi *quyi* so'zi orqali uning joylashgan o'rniga ishora qilingan. Demak, Quyi Nayman – "janubdagi nayman qabilasi vakillari yashaydigan joy" ma'nosidadir.

QUYI SARIOSIYO – qishloq. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Sariosiyo* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Quyi Sariosiyo* deb o'zgartirilgan. Toponim *quyi* va *sariosiyo* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *sariosiyo* so'zi esa forscha-tojikcha so'z bo'lib, "Tegirmon boshi" degan ma'noni anglatadi.

Qishloq nomiga uning geografik o'rni asos bo'lgan. Tumanda *Yuqori Sariosiyo* nomli qishloq ham mavjud (*qarang:* **Yuqori Sariosiyo**).

QUYI XALAJIYON – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Xalajiyon* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Quyi Xaljiyon* deb o'zgartirilgan.

Mahalliy aholi geografik joy nomi paxtaning tolasi va chigitini ajratuvchi asbob – *haloji* nomidan kelib chiqqan, deb talqin qiladi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *xalaj (xalach-qalach)* so'zi qadimgi qabila nomi, etnonim.

Xalajlar X asrdayoq hamma turkiy xalqlardan janubda, hozirgi Afg'onistonning janubiy qismida yashaganlar.

Etnograf B.X. Karmishevaning ma'lumotlariga ko'ra, xalajlar Qabodiyonda (Tojikiston, Kofirnihon daryosi bo'yida) va Mug'on cho'li (Ozarbayjon)da ham o'rnashib qolganlar va fors tilida so'zlashganlar. Xalajlar asli turkiy xalq bo'lgan. Rashididdinning "Jome ut-tavorix", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari va boshqa asarlarda tilga olingan.

Demak, Quyi Xalajiyon – "xalaj qabilasi vakillari yashaydigan janubroqdagi qishloq" ma'nosidadir.

QUYIN – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. Kuin (quyin) – qoraqalpoq urug'larining nomlaridan biri (Т.А.Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса, рис. 3, таблица родоплеменных названий; Труды

Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т. I. –М., 1953).

QUYIRABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim *quyi* va *rabot* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *rabot* so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi. Demak, Quyirabot – "atrofdagi qishloqlarga nisbatan pastroqda yoki janubroqda joylashgan qishloq" ma'nosidadir.

QUYONSOY – soy. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Mazkur nom ikki komponentli mikrooykonim.

Apellyativning birinchi qismi "***Quyon***" *"tovushqonlar oilasiga mansub, quloqlari va orqa oyoqlari uzun sut emizuvchi hayvon"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 545].

Uning ikkinchi komponenti "***soy***" so'zi esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* demakdir [O'TIL. 3, 545].

Xulosa qilishimiz mumkinki, bu mikrooykonim hududida yovvoyi quyonlar ko'p uchragani uchun ham shunday nom olgan.

QUYTOSH – mahalla. Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi mahalla nomi. Toshloq, ya'ni toshlari quyida joylashgan hududdir. Aslida, ***Quyitosh*** – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi shaharcha nomi bo'lib, o'sha ***Quyitosh***dan ko'chib kelgan aholi shu hududga joylashganligi sababli mazkur hududga ***Quyitosh*** deb nom qo'yilgan.

QUSHCHI – qishloq. Andijon viloyati Marhamat hamda Farg'ona viloyatining Furqat tumanlaridagi qishloq nomi. *Qushchi* – lochin, yirtqich qush bilan ovchi (qush), aftidan bu yerda kutchi etnonimining dialektal varianti bo'lishi mumkin.

Qushchi (ayrim hollarda *qutchi* shaklida yuritiladi) qadimgi turkiy etnonim. Ilmiy adabiyotlarda bu urug' nomi *qush + chi* – "qush tutuvchi", "qush o'rgatuvchi" ma'nosida talqin etiladi. *Qushchi // qutchi*larning ilk ajdodlari Janubiy Sibirda, X–XIII asrlarda esa Qashqar va Yettisuvda yashagan. XIII-XIV asrlarda ularning katta bir qismi Movarounnahr hududiga kelib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Qushchi // qutchi etnonimi no'g'oy, turkman, boshqird, qirg'iz, ozarbayjon hamda o'zbeklarning qo'ng'irot, do'rman, qatag'on urug'lari tarkibida uchraydi.

Namangan viloyatining Norin tumanidagi *Qutchi* qishlog'i ham shu urug' nomi asosida yuzaga kelgan.

QO'BATOV – tog'. Shimoliy Xorazm. Professor Z.Do'simov tog'ning nomi "tekis tog'" degan ma'noni anglatadi, deb hisoblaydi. (Топонимы Северного Хорезма, АКД. – Т., 1970. –С. 8).

QO'L – Navoiy viloyatidagi daryo, soy, daryo tarmog'i, soylik, vodiy nomi. Qadimgi turkiy tilda ***qo'l*** – *vodiy,*

quruq soylik. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ***g'ul*** – *daryo havzasi, pasttekislik*. Shimoliy Kavkazda ***qo'l*** – *yassi jar*, Ozarbayjon, Turkiyada – daryo tarmog'i, turkmanlarda ***go'l*** – *qum tepalari orasidagi pastlik joy*, mo'g'ul tilida ***go'l*** – *daryo, ba'zan –botqoqli ko'l*, Gobi cho'lida – quruq o'zan, Tataristonda ***qo'l*** – *daryo irmog'i, – o'zan, – soylik*.

Bobur Mirzo shunday yozadi: "***Qo'lning ichi kishi mamaridin yirog' xilvat yo'l, qo'l yuqori-o'q yurub, suvni o'ng qo'lga qo'yub, yana bir quruq qo'lga kirduk. Erta namozdigar bor edikim, qo'ldan tuzga chiqildi***. Bobur bunda ***qo'l*** deganda – o'ng tomonini tushungan, ikkinchi ma'noda ***qo'l*** deganda suv oqadigan soylikni tushungan. Suv bo'lmagan soylikni ifoda etish uchun – quruq qo'l, – suvsiz qo'l iboralarini ishlatgan.

Professor K.K.Yudaxin qirg'iz tilida ***qo'l*** so'zi mustaqil holda ishlatilmaydi, faqat geografik nomlar tarkibida uchraydi deydi. Fikrimizcha, qirg'iz va qozoq tillarida ***qo'l*** so'zi mustaqil ma'noga ega. Masalan, ***qo'l ariq*** o'sha ***qo'l***, ya'ni tarmoq so'zidan tashkil topgan: bosh ariqdan chiqariladigan kichik ariq – shoxobcha ariq demakdir.

Qozoqlarda ***qo'lat*** – tog' vodiysi, qirg'izchada ***qo'lo't*** – ikki qir orasidagi cho'zinchoq soylik degani. Qashqadaryo viloyatida kichik bir ariq suvni ***bir qo'l suv*** deyishadi. Qo'l so'zidan tashkil topgan toponimlar, asosan, gidronimlar Qirg'iziston bilan Qozog'istonda ko'p: **Muzqo'l, Norinqo'l, Oqqo'l, Mariqqo'l, Qoraqo'l** va b.

Bunday nomlar O'zbekistonda ham bor: **Norinqo'l** (Samarqand viloyati), **Qizilqo'l** (Buxoro viloyati), **Qumqo'l** (Ohangaron tumani). Tojikistonda Shahriston dovoni yaqinida esa **Oltinqo'l** degan soylik bor. Tog'li Oltoy avtonom viloyati hududida ham ***qo'l*** so'zidan tuzilgan daryo nomlari uchraydi: **Boyqo'l, Oraqo'l, Qoraqo'l** va h.k.

Bunday komponentli gidronimlar Mo'g'ulistonda ham ko'p: *Orxon-gol, Tola-gol, Onon-gol, Tuin-gol, Xalxin-gol, Ider-gol* va b. Shunday qilib, ***qol*** (gol-go'l) komponentli toponimlar juda katta hududda – Sibir va Mo'g'ulistondan tortib, Qozog'iston va O'rta Osiyoda, shuningdek, Shimoliy Kavkaz va Zakavkazyeda ham uchraydi (Arazin golu – Araks daryosining tarmog'i).

QO'LBOSTI – Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi. Mazkur hududda paxta qabul punkti ochilgach, paxta topshirgan kishilarga beriladigan ma'lumotnomalarga muhr o'rniga qo'l barmog'ini bosib berishgan.

Shu tufayli mazkur aholi maskani ***Qo'lbosti***, ya'ni qo'lini bosdi, shaklida nomlangan.

QO'LDOV – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. *Qo'ldovli* – qo'ng'irot qabilasining urug'laridan birining nomi shunday nomlangan. Ko'pincha *-li* etnonimlar tarkibida tushib qoldiriladi.

QO'NG'IR – tog' tizmasi, ust qismining rangiga ko'ra *Qo'ng'irtog'* deb nomlangan deyishadi. O'zbek tilida

qo'ng'ir – qora-sariq rangli, to'q malla; to'q kulrang, qoramtir. S.Qorayevning fikricha, turkiy *qo'ng'ir, qongur,* mo'g'ulcha *xonxur* o'zakdosh so'z, ma'nosi past-baland, o'ydim-chuqur joy, balandlik bag'ridagi chuqurlik, cho'kma. O'tmishda bu so'z geografik termin bo'lgan, obyekt turini bildirgan. *Qo'ng'irtog'* – past tog', cho'l zonalarida mavjud bo'lgan cho'ziq va yassi tizma, balandlik.

Biroq professor Z.Do'simovning ta'kidlashicha, Samarqand viloyatining Jomboy tumanida ham Qo'ng'ir nomli qishloq mavjud bo'lib, u urug'ning nomi – etnonim deb qayd etadi va qo'ng'irot – ko'plik sonda deb e'tirof qiladi.

QO'NG'IRBOY – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. Boyqo'ng'ir va qo'ng'irboy etnonimlari, bizningcha, aynan bir xildir. L.S.Tolstovning fikricha, bunday etnonimlar kangarning pechejen qabilasining asosiy nomidan kelib chiqqan (Л.С.Толстов. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в её исторической ономастике. Сб. "Ономастика Средней Азии". – М., 1978. С. 15).

QO'NG'IROT – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qo'ng'irot – yirik o'zbek qabilasi. XX asrning boshlarigacha qo'ng'irotliklarning asosiy qismi O'zbekistonning janubida va Tojikistonda, shuningdek, Zarafshon vodiysida, Xorazmning bo'sh dashtlarida va qisman Shimoliy Afg'onistonda yashashgan (Н.Ф.Ситняковский. К генеалогической таблице узбекского рода Кунград, ИТОРГО, т. VII, 1907; Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории). Qo'ng'irot – qishloq nomi. Toponimni hosil qilgan qo'ng'irot so'zi qabila nomi, etnonim.

Qozoq toponimisti A.Abdurahmonov Qozog'istondagi Qongirat nomini qongirat etnonimidan yuzaga kelgan, etnonim esa qongir+at birikmasidan vujudga kelgan, qo'ng'ir rangli ot totem bo'lganligi sababli shu nom bilan atalgan, deb ta'kidlaydi.

Taniqli nomshunos T.Nafasovning ma'lumotiga ko'ra, *qo'ng'irot* – turkiy, mo'g'ul tillariga oid so'z, qadimgi turkiy qabilaning nomi. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tillariga xos etnonim ekanligini toponim oxiridagi *-ot* (*-at, -ut*) qo'shimchalari isbotlaydi.

Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, "qong'irot" ("onggirad", "konkurat") qadimiy mo'g'ul qabilalaridan biri bo'lib, ular Gobi cho'llari va Qurulen daryosi sohillari bo'ylab ko'chib yurganlar. Bu qabila naymanlar bilan yonma-yon yashagan. Rashididdin o'z kitobida qo'ng'irot qabilasi haqidagi quyidagi rivoyatni keltiradi: "... bundan ikki ming yil oldin (muallif yashagan davr nazarda tutilmoqda) mo'g'ullar bilan turkiy qabilalar o'rtasida qattiq jang bo'lib, butun bir qabiladan ikki erkak va ikki ayol jon saqlab qoladi. Bu ikki oila o'rmonlar bilan qoplangan tog'lar orasidan o'zlariga joy topib yashay boshlaydilar.

Bu yer Ergunekun (*ergune* – tik, tikka; *kun* – cho'qqi, tog' yonbag'ri ma'nosida) deb atalgan. Bu joy o't-o'langa boy va xushhavo bo'lib, u yerga borish qiyin edi. Oila boshliqlarining ismlari Nukuz va Qiyan bo'lib, ularning avlodlari bu yerda yashab, ko'payganlar.

Natijada ular ayrim-ayrim obox (o'bog', turkcha umoq, uymoq, aymoq)larga bo'linib, o'zaro qarindosh bo'lgan turli nomlardagi jamoa (urug', qabila)larni tashkil qilganlar ("Mo'g'ul" so'zi "mungul", ya'ni "kuchsiz", "sodda" ma'nosida, "kiyan" esa tog'dan pastga oqib tushuvchi kuchli tez oqim, sel ma'nosidadir). Qiyanlar o'ta jasur, mard bo'lganlari uchun bu so'z ularning nomiga aylangan. Qiyot "qiyan" so'zining ko'pligidir. Aholi soni ko'paygach, qabila boshliqlari kengashib, bu tor vodiydan chiqib ketish yo'lini izlashgan va temir qazib olinadigan joydan yo'l ochishib, keng cho'lga yo'l olganlar. Birinchi bo'lib, serurug' qo'ng'irot qabilasi chiqadi. Ular yo'l-yo'lakay boshqa urug'larning o'choqlarini (xonadonlarini) toptab o'tadilar. Ergenekundan chiqishdagi ushbu harakatlari tufayli boshqa mo'g'ul qabilalari qo'ng'irotlar bilan yovlashib qolganlar. Rashiddiddin qo'ng'irotlarning afsonaviy ajdodi haqida gapirar ekan, uning "oltin idishdan" dunyoga kelganligini qayd qiladi. (Rashididdinda bu so'z ***bast-o' zarrin*** deb berilgan. "Bast" so'zi eski fors tilida "sopol ko'za", kuva ma'nosida.)

Biror kishining farzandi aqlli va bilimli bo'lib voyaga yetsa, bunday odamni oltin idishga o'xshatishgan.

Aytishlariga qaraganda, qo'ng'irotlarning afsonaviy otalarining uchta farzandi bo'lgan. Birinchisi – Jurlik mergan. U hozirgi qo'ng'irotlarning bobosi hisoblanadi. Ikkinchisi – Kubay shire bo'lib, uning Ikiras va Olkunut degan o'g'illari bo'lgan. Uchinchi farzand – Tusubidavud. Uning Karanut va Kunklaut degan o'g'illari bo'lgan. Bu hikoya qo'ng'irotlarning kelib chiqishi bilan bog'liq eng qadimgi rivoyatlardan biridir.

O'zbek va qozoq qo'ng'irotlari shajarasini qiyoslagan I.Magidovich quyidagilarni yozadi: "Ko'rinishidan mo'g'ul qo'ng'irotlari atrofiga uyushgan turkiy urug'larning tarkibi turli joylarda har xil bo'lgan". Xorazm va Buxoroning o'zbek qo'ng'irotlari etnik jihatdan bir bo'lib, Shayboniy istilolarida xuddi shu qo'ng'irotlar ittifoqi ishtirok etgan.

N.F. Sitnyakovskiy buxorolik qo'ng'irotlarning Shayboniy istilosi davrida, 400 yil avval Xivadan ko'chib kelganmiz, degan hikoyasini keltirib: "Bu ma'lumotni Xorazm va Buxoro qo'ng'irotlari urug'larining birxilligi ham tasdiqlaydi", deydi (Материалы, 1926: 189–190).

Biroq tarixiy manbalar I.Magidovich va N.F.Sitnyakovskiylarning yuqoridagi fikriga qarshi o'laroq Xorazmda yashovchi o'zbek qo'ng'irotlarning Shayboniyxon istilolaridan ancha oldin ham bu yerda istiqomat qilganliklarini tasdiqlaydi.

Rashididdin XIV asrning oxirgi yillari voqealari haqida hikoya qilar ekan, To'xtaxonning xotini qo'ng'irot qizi Saljigayning ota yurti "Xorazmda" (Ko'hna Urganch yaqinida) ekanligini qayd qiladi (Тизенгаузен, 1884:70).

Qo'ng'irot nomli qabila qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham bor. Qo'ng'irotlar Dashti Qipchoqda Abulxayrxonning hukmronligini mustahkamlashda yaqindan yordam berganlar. O'zbek va qozoq xonlari orasidagi kurash yillarida qo'ng'irotlarning bir qismi Dashti Qipchoqni tashlab, Movarounnahrga kelib o'rnashdilar. Bir qismi esa Qozog'iston Respublikasining Shauldir, Turkiston, Aris va Suzoq tumanlarida yashab qoldilar. Ma'lumki, XIV asrning 70-yillarida Xorazm bo'ylab butun hokimiyat qo'ng'irotlarning so'fiylar sulolasi qo'liga o'tadi. Amir Temur bilan bo'lgan kurash yillarida ularning hukmronligiga putur yetadi.

Faqat XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib, qo'ng'irotlar bu yerda yana o'z hukmronliklarini tikladilar va bu sulola 1920-yilgacha Xorazm xonligini boshqardi. Sharqiy Buxoroda esa qo'ng'irotlar XX asr boshlarida son jihatidan mang'itlardan so'ng ikkinchi o'rinda turardilar. Ular, asosan, G'uzordan boshlab Termizgacha va undan Bobotog' etaklarigacha bo'lgan hududlarda yashar edilar. Qo'ng'irot qabilasi bir necha yirik va ko'plab mayda tarmoqlarga bo'linadi.

O'zbek-qo'ng'irotlar va qoraqalpoq-qo'ng'irotlar yuzasidan fikr yuritgan barcha tadqiqotchilar ularning ko'pchilik urug'lari bir-biriga o'xshash ekanligini qayd qilganlar.

B.X.Karmishevaning qayd qilishicha, o'zbek-qo'ng'irotlar orasida qabila asoschisi Qo'ng'irotota yoki Qo'ng'irbiy haqidagi rivoyat mashhur. Rivoyatga ko'ra, Qo'ng'irbiyning birinchi – katta xotinidan to'rt farzand tug'ilgan. Bular: Voxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Konjig'ali va Oyinnilar bo'lgan. Beshinchi farzandi Tortuvli esa kichik xotinidan tug'ilgan. Kichik xotin tortuv (sovg'a) sifatida olinganligi uchun uning farzandi ham Tortuvli nomini olgan. Har bir urug' an'anaviy urug' bo'lagi soniga ega bo'lgan. Asosiy, ya'ni katta xotindan tug'ilgan o'g'illaridan tarqalgan urug'lar 60 ta bo'lgan. Tortuvlilar esa 6 bo'lakdan iborat. Qo'ng'irot o'g'illarining avlodlari quyidagicha bo'lingan: 18 ota voxtamg'ali, 16 ota qo'shtamg'ali, 14 ota konjig'ali, 12 ota oyinni. Tortuvli esa 6 otaga bo'lingan. Bu 66 urug'ning har biri, o'z navbatida, yana bir qator kichik guruhlarga bo'lingan.

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on hamda Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Payariq va Navoiy viloyatining Xatirchi tumanlaridagi qishloqlar nomi ham Qo'ng'irot deb ataladi.

Shuningdek, Andijon viloyatining Shahrixon, Xorazm viloyatining Urganch, Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanlarida ham shunday nomli mahallalar mavjud.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida Qo'ng'irotovul va Samarqand viloyatining Jomboy hamda Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida Yomonqo'ng'irot tarzida ataladi.

QO'NG'IROTKO'L – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani hududidagi quruq ko'l. OFY va aholi punkti nomi. Bu hududda bir paytlari katta ko'l bo'lgan va bu ko'l bo'yida qoraqalpoqlarning qo'ng'irot urug'idan bo'lgan aholi ko'p yashagan. Shu sababli ham ko'l Qo'ng'irotko'l nomi bilan atalgan.

QO'QON – shahar. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Hozir "Qo'qon" tarzida qo'llanilayotgan nom barcha qo'lyozma manbalarda "Xo'qand" shaklida yozilgan. Jumladan, Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan bir necha asarlarda ham uning "ikki soy o'rtasida, ko'k to'nlik azizlar mavzeyida" barpo etilgani, "suvga serob, xushhavo, katta va obodon shahar" bo'lganligi, "Muntaxab at-tavorix" asarida Xo'qand shahrining go'zal va obod ekanligiga alohida urg'u berilib, uni "Farg'ona mamlakatining kelinchagi" sifatida ta'riflanishi bizningcha ham joy nomini bevosita "Yaxshi shahar", "Latif shahar" deb izohlashga imkon beradi.

Mahalliy tarixchi va arxeologlar orasida shaharning yoshi ikki ming yildan ortiq degan taxminlar mavjud. Astionim X asr arab sayyohlari va "Hudud ul-olam" asarida *Xavokand // Xuvakand* tarzida, "Boburnoma" asarida *Xo'qon* o'rchini, Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda *Xo'qand* shaklida uchraydi. Shahar nomining kelib chiqishi borasida turli afsona va qarashlarni uchratish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra shaharning nomi "Ko'p qon" ("ko'p qon to'kilgan joy") birikmasidan kelib chiqqanligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra uzoq o'tmishda sinlar hududni bosib olishga harakat qiladilar, lekin bu ishni uddalay olmaydilar. Ular ikkinchi marta yana katta qo'shin bilan kelib, shaharni qurshab oladilar va agar shaharliklar o'zlarining hukmdor (podsho)larini tutib bersalar yoki o'ldirsalar, qamalni olib tashlashni aytadilar. Shahar aholisi bu shartni bajarishni rad etsalar-da, lekin hukmron tabaqalar til biriktirib, hukmdorni o'ldirishadi. Shundan keyingina sinlar qurshovni olib tashlab, bu yerdan uzoqlashadilar. Ana shu sababli shaharni qonli – "Ko'p qon" deb ataydilar.

Yana bir rivoyatda esa shahar nomi "Qopqon" ("tuzoq", "pistirma") so'ziga aloqador sanaladi. Unda hikoya qilinishicha, bu joyni qo'lga kiritishga uringan bir guruh ajnabiylar pistirmaga tushib qolib, mag'lubiyatga duch kelganlar. Shundan kelib chiqib shaharni "Qopqon", ya'ni "tuzoq" deb atay boshlaydilar. Astionimning hozirgi Qo'qon shakli esa xalq orasida "Ko'p qon", "Qopqon" leksemalarining fonetik o'zgarishga uchragan ko'rinishi sifatida qaraladi.

Qo'qon astionimi ilk marta X asr arab mualliflarining geografiyaga oid yozma manbalarida uchraydi. Masa-

lan, Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istaxriy "Kitob masolik al-mamolik" asarida bunday deb yozgan edi: *"Kimki Xo'janddan Farg'onaning asosiy shahri bo'lgan Axsikentgacha borishni istasa, u Kenddan So'xga bitta manzil va So'xdan Huvakandgacha – bitta katta manzil, Huvakanddan Axsikentgacha bir manzil yuradi..."*

Ibn Xavqal, Istaxriy asarlarida, shuningdek, astionim Farg'onaning Yuqori Nes'ya viloyati tarkibidagi shaharlar sifatida tilga olinadi: *"Yuqori Nisya esa Farg'onaning birinchi shahridir, negaki Xo'jandga yo'l olayotib undan o'tiladi. Mazkur viloyatning shaharlari: Vanket, So'x, Xuvakand, Rishton"*."Hudud ul-olam" asari muallifi joy haqida quyidagi ma'lumotni berib o'tadi: *"Xavokand, Rishton, Zandaromash – gavjum shaharchalar, ekinzorlari ko'p"*.

Is'hoqxon Ibrat "Farg'ona tarixi" asarining "Xo'qand shahri binosi" deb nomlangan bobida astionimning kelib chiqishini bir rivoyat bilan bog'laydi. Bu rivoyatning haqiqatdan yiroq ekanligi ko'rinib tursa-da, lekin ushbu ma'lumot rus olimlari V.P.Nalivkin, V.V.Bartold asarlarida Qo'qon astionimining etimologiyasi sifatida berib o'tilgan: *"Xo'qand shahri Farg'onada bir katta shahar o'lub, islom podsholarini maqarri saltanati uchun ibtido Xo'qanddan bayon qilinodur. Vajhi tasmiya budurki, xavoqini Xo'qanddan ul shahar bo'lmagan vaqtda Xo'qand o'rni to'qay va qamushzor yerlar bo'lub, ul vaqtda Hovak xojalari tojiklar so'rar ekanlar. Bul to'qaylarda har xil xuk va to'ng'izlar yurar ekan. Alar yerlarni kovlab, har xil ovqat topib ekanlar, bu jihatdan tojik xojalari kelganda necha yerlar kovlangan ekan, alar bu chuqurlar nima, kimlar kavlagan, deganlarida tojiki javob berib, "xuk kand" deganda, ya'ni "to'ng'iz kavlagan" deganda ul yerni ismi "xuk kand" bo'lub, xuk kand etmoqda qiyin bo'lub, bizni turkida "qof" harfi qaviy uchun Xo'qand bo'lgan, forsiy "kof" ni turkiy "qof" ga badal qilganlar turkiylar lafzidur. Mana, endi, yana bir badal bo'ldi, ruscha aytmoqda "qof" yo'q "Kokand" bo'ldi"* (Ибрат, "Фарғона тарихи", 285-бет).

Is'hoqxon Ibrat yana bir o'rinda Xo'qandni "fe'li-xo'yi qand" iborasi bilan aloqador deb ko'rsatadi: *"Shunga o'xshash har vaqtda har qabila lisonlari tabodul o'lub, shevalar o'zgargan, muni ba'zi Xo'qandiylar yaxshi ta'vil ila Xo'yqand derlar, ya'ni fe'li-xo'yi qand degan emish"* (Ибрат, "Фарғона тарихи", 285-бет).

Ilmiy adabiyot va lug'atlarda ham astionimning kelib chiqishi borasida turli talqin va mulohazalar aytilgan. Toponimshunos Z.Do'simov, X.Egamovlar nomning birinchi qismi ***qo'*** yoki ***xu*** morfemasiga ***ko'h*** – "tog'" so'zining fonetik o'zgargan shakli sifatida qaraydilar va astionimni *Ko'hqand* – "tog' shahri" degan ma'noni bildirishini ta'kidlaydilar (З.Дўсимов, Х.Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1977. 156-157 бетлар). Bu izohga M.Dada-

boyev o'zining "Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanish tarixi" asarida qarshi fikr bildiradi: Qo'qon Farg'ona vodiysining tekislik qismida, Farg'ona cho'kmasining tubida joylashganini, ya'ni eng yaqin tog' tizmasidan qariyib 40–50 km uzoqlikda o'rnashganini bayon etadi. Shu bilan bir qatorda qadimgi turkiy xalqlarda shamol "Xo'", shamol ma'budasi "Xo' ena" deb atalishini ta'kidlab, nomni "shamol shahri" sifatida talqin etadi (М.Дадабоев. Хўқанди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. – Фарғона, 2007. 187-бет).

H.Hasanov fikricha ham *xu* qadimgi turkiy tilda shamol ma'nosini anglatgan va olim Qo'qonning sershamolligiga asoslanib Xo'qandni – "shamol shahri", "sershamol shahar" tarzida izohlashni to'g'ri deb topadi (Х.Хасанов. Географик номлар сири. – Тошкент, 1985. 119-бет). Sug'diyshunos olim A.Otaxo'jayev esa P.B.Lurye tomonidan ilgari surilgan dalillarga asoslanib, astionimni sug'diycha xva + kand – "savdo (gar) shahri" degan ma'noni anglatishini qayd etadi.

Tarixchi H.Bobobekov o'z tadqiqotlarida Qo'qon astionimi "Yoqimli shahar", "Latif shahar" kabi ma'nolarni bildirishi, shunday bo'lsa-da, uning "Hunar shahri", "Xular shahri (Xu qabilasi shahri)", "Balandlikdagi shahar" kabi boshqa variantlarini ham rad etib bo'lmasligi to'g'risidagi mulohazalarini o'rtaga tashlaydi. Astionimning "Balandlikdagi shahar" ma'nosini ifodalashda esa qadimgi Xitoy qo'lyozmalarida Qo'qon shahri Guyshan (Xuxan) tarzida qo'llangani va Guyshanni xitoy tilida – "Balandlikdagi shahar", "Tepalikdagi durdona" singari ma'nolarga ega ekanligini dalil qilib ko'rsatadi. Olimning astionim etimologiyasi borasida keltirgan boshqa fikrlari ilmiy jihatdan asosli sanalsa-da, bu o'rinda Guyshan hamda Qo'qon astionimlariga bitta nom sifatida qarashi to'g'ri emas. Chunki aksariyat tadqiqotlarda Guyshan VII-VIII asrlarda Farg'ona ixshidligining poytaxti sanalgan Kosonning xitoycha tarjimasi ekanligi qayd etilgan.

A.Muhammadjonov ishlarida ham Qo'qon astionimi *Xo'qand* so'zidan kelib chiqib, "Yoqimli shahar", "Latif shahar" ma'nolarini bildirishi bayon etiladi.

H.Bobobekov, A.Muhammadjonov tadqiqotlarining har ikkisida ham nomning bunday izohlanishiga sabab ko'pgina qo'lyozma manbalarda shaharga "latif" degan nisbat berilishi, shuningdek, xonlik va amirliklar tomonidan zarb etilgan Qo'qon tangalarida "Xo'qandi latif", "Zarbi Xo'qandi latif" singari jumlalarning mavjudligi asos qilib ko'rsatiladi.

Aytish joizki, Is'hoqxon Ibratning "Turkiston viloyati gazeti" da chiqqan "Jand shahri xususida" nomli maqolasida ham muarrix qadimgi joy nomlari tarkibida uchraydigan "xo'" birligini "yaxshi" ma'nosini anglatishini

ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, astionim tarkibidagi ***xo'*** birligi hozirgi fors va tojik tillarida qo'llanadigan ***xo'b*** yoki ***xush // xash*** leksemalarining fonetik varianti sanalsa, lug'atlarda bu birliklarning "yaxshi", "chiroyli", "go'zal", "durust", "ma'qul" singari ma'nolarga ega ekanligi qayd etilgan.

Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan bir necha asarlarda ham uning "ikki soy o'rtasida, ko'k to'nlik azizlar mavzeyida" barpo etilgani, "suvga serob, xushhavo, katta va obodon shahar" bo'lganligi, "Muntaxab at-tavorix" asarida Xo'qand shahrining go'zal va obod ekanligiga alohida urg'u berilib, uni "Farg'ona mamlakatining kelinchagi" sifatida ta'riflanishi bizningcha ham astionimni bevosita "Yaxshi shahar", "Latif shahar" deb izohlashga imkon beradi.

Demak, astionim lisoniy jihatdan ikki tarkibli bo'lib, nomning birinchi qismi eroniy yoki sug'diy tillarga mansub ***xo'*** – "latif", "yaxshi", "go'zal", "yoqimli", "nozik" ma'nolarini, ***kand // qand*** birligi esa "shahar" ma'nosini anglatgan. Davrlar o'tishi bilan tildagi turli fonetik qonuniyatlar natijasida astionim hozirgi **Qo'qon** ko'rinishiga kelgan. Uning lisoniy shakllanishi quyidagicha bo'lgan: *Xavokand // Xuvakand > Xo'qon > Xo'qand > Qo'qon.*

QO'QON DARVOZASI – Shayxontohur dahasining sharqiy qismida joylashgan. "Qo'qon" toponimi Qo'qon shahri nomidan olingan. Sababi, ushbu darvoza orqali Toshkentdan Qo'qon tomon borilardi. Bu yo'lning boshlanishi hozirgi Toshkentning Mustaqillik ko'chasi va Farg'ona yo'li bilan Qo'yliq yonida Chirchiq daryosi orqali, so'ngra To'ytepa yo'nalishi bilan Qo'qongacha davom etgan va XIX asrda Farg'ona vodiysi bilan Toshkent shahri o'rtasidagi asosiy yo'l sanalgan.

Muhammad Solih XIX asrdagi Qo'qon darvozasi XIV–XV asrlardagi Qiyot darvozasiga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, Qiyot darvozasining nomi – qiyot qabilasi nomidan. Qiyot – o'g'uzlar tarkibidagi qadimgi turkiy qabilalardan. VII–X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan. O'g'uzlar davlati yemirilgach (XI asr), qiyotlar ham bo'linib ketgan. Katta qismi Turkmanistonga, bir qismi Bolqon yarimoroliga ketgan, Dashti Qipchoqda qolgan qismi esa keyinchalik o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Ular XX asr boshlarida, asosan, o'troqlashib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Lekin qiyotlar butun O'rta Osiyo hududi bo'ylab asta-sekin tarqalganlar. Shu jumladan, XIV–XV asrlarda va undan so'ng Toshkentda ham qiyotlarning ma'lum bir guruhi yashagan va o'n ikki darvozadan biri ularning nomi bilan atalgani bunga dalildir.

QO'QONI – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Asosan o'tgan asrning 20-yillari oxirlarida Qo'qondan ko'chib kelgan aholi yashayotganliklari uchun ham mazkur hudud

aynan shunday nom olgan. Bunday nomdagi hududlar respublikamizning ko'plab joylarida uchraydi.

QO'QONQARAPCHI – qishloq. Sirdaryo viloyatining Yangiyer tumanidagi qishloq nomi. Qorapchi qabilasining bo'linmalaridan biri *qo'qonqarapchi* yoki *qarapchiqo'qoni* deb ataladi.

QO'QONQISHLOQ – Andijon viloyatining Paxtaobod tumani markazi. Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarda yozilishicha, XIX asrning 20-yillarida xonlikda yer-suv munosabatlari murakkablashib, agrar masalalarni hal qilish uchun Qo'qon atrofidagi turli urug'lar Andijon sharqiga, keng yaylov tomonlarga ko'chib kelishgan. Burganyantoq bosgan yerlar sekin-asta o'zlashtirilib, "Qo'qonqishloq" nomini olgan aholi punktiga asos solingan. Xudoyorxon o'g'li Nasriddinbek boshchiligida Qoradaryodan kanal qazilib (sobiq "Nasriddinbek arig'i"), ko'plab yerlar o'zlashtirilgan, qishloq (shuningdek, Uyg'urobod ham deyiladi) asta-sekin kengayib boradi. Chorizm bosqini yillariga kelib maxsus "qo'qonqishloq volosti" tashkil topadi. 1926-yil sentabr oyida o'tkazilgan rayonlashtirishda volost o'rnida Paxtaobod nomli yangi rayon tashkil topadi. Shuningdek, Andijon sharqidagi Qorayantoq, Madaniyat shimolidagi Burgandi qishloqlari ham o'sha davrda tashkil topgan.

Mazkur nomdagi qishloqlar Andijon viloyatining Marhamat tumani, Namangan viloyatining Namangan tumani, Sirdaryo viloyatining Xovos tumanlarida ham mavjud. **Qo'qonqishloq** – aynan "qo'qon qishloq", ya'ni "qo'qonliklar tashkil etgan qishloq" ma'nolarini anglatadi.

QO'POYI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Turkman – juz urug'ining bir toifasi (qarang: E.O'razov, 2011, 46).

Anglashiladiki, ushbu urug' vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani bo'lib, bir o'zakli ot so'z turkmiga xos.

QO'RIQ – qishloq va mahalla. Farg'ona viloyatidagi qishloq va mahallalar nomi. Qo'riq – himoya qilinadigan joy, qadimda o'tin olinadigan, istirohat va ov qilinadigan yerlar, ya'ni qo'riqxonalar shunday nomlangan. Bundan tashqari, bir vaqtlar ekin ekilib, keyin tashlab qo'yilgan yer ham *qo'riq* deb ataladi.

QO'RIQSOY – atrofi tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy, Jizzax viloyati Zomin tumani. *Qo'riq* – "begona odamlar uchun taqiqlangan, qirol xalqining o'zi uchun mo'ljallangan joy: yozgi ko'chmanchi xonlar uchun joy". Ko'pchilik ushbu termin mo'g'ulchadan kelib chiqqan, deb hisoblaydi. V.V. Bartoldning yozishicha, mo'g'ullar orasida xon qabristoni taqiqlangan joy sifatida hamma joyda bir xil termin – *qo'ruq* so'zi bilan belgilangan (В.В. Бартольд. Сочинения, т. IV. С. 383). Qizig'i shundaki, qirol mulki ma'nosidagi bu so'z mo'g'ullar Markaziy Osiyoga kelishidan deyarli ikki asr oldin, bundan ming yil avval yozilgan

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida uchraydi (Narshaxiy. Buxoro tarixi. 1966, 33-bet).

Mazkur termin "Boburnoma"da ham qayd etilgan. O'zbek adabiy tilida *bokira* so'zi bilan *qo'riq* muvaffaqiyatsiz berilgan. O'zbekistonning ayrim tumanlarida qo'riq so'zi daryo bo'yidagi serqatnov o'tloqlarni anglatadi.

Ushbu termin qozoq tilida bir xil ma'noga ega. **Qo'riqsoy, Kattaqo'riq, Kichikqo'riq** toponimlari bir necha bor takrorlangan.

QO'RUQBADAY – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. *Qo'ruq* (qo'riq) – qo'riqchi, pichan o'radigan, *baday* – etnonim (*qarang:* **Baday**). Qo'riqbaday – "Baday urug'ining pichan o'ruvchisi" ma'nosini anglatadi.

QO'RG'ON – Farg'ona vodiysida keng tarqalgan joy nomlaridan biri. Atrofi devor bilan o'ralgan mustahkam hovli qo'rg'on deb ataladi. Qo'rg'on so'zining "mozor", "qal'a", "istehkom", "qo'ra" ma'nolari ham bor. Vodiydagi Buzuqo'rg'on, Qo'rg'ontepa, Qo'rg'onariq, Qo'rg'onobod, Qoraqo'rg'on, Oltiqo'rg'on, Oqqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Tepaqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Hasanqo'rg'oncha, O'rtaqo'rg'on kabi toponimlarda qo'rg'on so'zi yuqoridagi ma'nolarda ishlatilgan.

QO'RG'ONTEPA – tuman. Andijon viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qo'rg'ontepa tumani 1926-yil 17-martda tashkil topgan bo'lib, Andijon viloyatining sharqida joylashgan, tuman shimol tomondan tumandagi Jalaquduq tumani, sharqda Qirg'iziston Respublikasini Jalalabod, janubdan Qirg'iziston Respublikasini Osh viloyatlari bilan chegaradosh.

Qo'rg'ontepa tumani nomini kelib chiqishiga asosiy sababi mazkur hududda 17 ta tepaliklar mavjud bo'lib, "Deva" nomlari bilan atalgan. Qo'rg'ontepa tumani nomi mazkur tepaliklarga asoslanib qo'yilgan. Hozirda ushbu tepaliklardan 7 tasi saqlanib qolgan.

Umuman, O'zbekiston hududida "qo'rg'on" so'zi qo'shilib aytiladigan aholi punktlari ko'plab uchraydi. Birgina Farg'ona vodiysida Uchqo'rg'on, Bozorqo'rg'on, Tepaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on va h.k.lar bor. Bu xildagi joy nomlarining tarixi ikki davr bilan bog'liq. Yo arablar kelgach vayron qilinib, yangidan qad ko'targan joy, yoki mo'g'ullar istilosidan so'ng paydo bo'lgan qishloqlar. Ayrimlari esa (masalan, Tepaqo'rg'on, Qo'rg'oncha) Shayboniylar davri bilan bog'liq. 1976-yili Qo'rg'ontepaning qadimiy qismida (Eski Qo'rg'ontepada) arxeologik tekshirishlar olib borilganda VII asrga oid ashyolar va turarjoy qoldiqlari kovlab olingan.

Demak, Qo'rg'ontepaning tarixi eramizning dastlabki asrlariga borib taqaladi.

Umuman, Andijon va Farg'ona viloyatlarida shunday nomdagi joy nomlari ko'plab uchraydi.

QO'RG'ONCHA – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Quva, Toshloq, O'zbekiston tumanlari; Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani; Andijon viloyatining Izboskan, Xo'jaobod, Shahrixon, Baliqchi tumanlari; Namangan viloyatining Namangan, Uychi tumanlari. "Zarafshon vodiysida bir-biridan ajratilgan va har tomonga tarqalgan hovlilar (qal'a va qo'rg'oncha) qator binolarda ko'zga tashlanadi. Ularning aksariyati to'rtburchak shaklga ega, baland devor balandligi 5 yoki undan ortiq arshin, tepasi tishchalar bilan tugaydi. Yaxshi qo'rg'oncha mudofaa vazifasida ikkinchisining afzalliklariga ega bo'lmasdan, kichik qo'rg'onga o'xshaydi" (Н.Ф.Ситняковский. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана, ИТОРГО. Т. I, вып. II, 1900. С. 160–161.)

Qo'rg'oncha Farg'ona vodiysida – barcha binolari devor bilan o'ralgan minora yoki aholi punkti – katta aholi punktidan paydo bo'lgan kichik qishloq.

QO'RG'OSHINQAL'A – shaharcha. Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani. I–V asrlarda mavjud bo'lgan shahar xarobalari. (*Qo'rg'oshinqal'a* – "yetakchi shahar".)

QO'TIRBULOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Obyektdagi buloqlar bilan bog'liq toponim. Qo'tirbuloqning suvi shifobaxsh. Hayvondan qo'tir kasalini yuqtirgan bolalar buloq suviga cho'miltirilsa yoki bir necha bor ichsa, kasallikdan tuzalib ketadi. Buloq suvidagi minerallar bunga yordam beradi. Shu bois xalq Qo'tirbuloqni qo'tir kasalligini tuzatadigan suvli buloq deb ham sharhlaydi. Bunday joylar suvining shifobaxshligi sababli qadamjoga aylantirilgan (Nafasov, 2009: 399–400).

Shunday nomdagi qishloq nomi, ya'ni toponim Buxoro viloyatining Vobkent tumanida ham mavjud bo'lib, aynan shunday ma'noni ifodalashi qayd etiladi.

QO'YLIQ – Toshkent shahridagi mahalla, daha, metro, kanal va ko'cha nomlari. H.Hasanov uni quyilik – "pastlik", "soy" sifatida tushuntiradi (H.Hasanov. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. 57-b.). Qo'shish mumkinki, durmen urug'i bo'linmalaridan biri qo'yli (qo'yli – qo'yliq) deb nomlangan. Bundan tashqari, mo'g'ul sarkardalaridan biri Qo'yliq deb nomlangan, mo'g'ul generallarining nomlari Markaziy Osiyo toponimlarida kam uchraydi (Чиғатай, Бо'ка va b.).

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Toshkentda Qo'yliq bitta hudud nomiga berilgan bo'lsa, hozirda mazkur nom bilan ataladigan mahalla, daha, metro, kanal, ko'cha va boshqa qator geografik obyektlar nomlari mavjud.

Shuningdek, Toshkent shahrida Qo'yliq ota nomli qabriston ham mavjud.

QO'YQIRILGAN QAL'A – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qadimiy qal'a nomi. ***Qo'yqirilgan qal'a*** – toponimi tarkibi uch

ma'noli qismdan iborat: *qo'y + qirilgan + qala*. Apellyativning birinchi va ikkinchi qismi toponimik derevatsiya natijasida onomastik leksika tarkibiga ko'chgan. Bu predikativ birikma toponim uchun etimon bo'lib xizmat qilgan.

Bunday toponimlarni Z.Do'simov "birikmali toponimlar" tipiga kiritadi[1].

T.Rahmatov esa bunday toponimlarni predikativ munosabatdan hosil bo'lgan fe'l toponimlar sifatida ajratadi: *Gədaytapmas, Kəmpiroldi* kabi[2]. *Qal'a* toponimik indikator tarzida izohlanadi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

QO'ZIQO'LOQLI – atrofi tabiiy obyekt bilan o'ralgan joy nomi. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi joy nomi. *Qo'ziqo'loq, -li* – egalik affiksi *(Qo'ziqo'loqli* – qo'ziquloq o'sadigan joy). Balki, etnonim bo'lishi mumkin.

QO'ZICHI – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Qo'zichi etnonim, o'zbek urug'laridan biri. Etnonimiyada hayvon nomlari ko'p, totem sanalgan hayvon nomlari etnonim bo'lib qolgan. *-chi* affiksi ko'plik, jamlikni bildiradi. Etnonimdan qishloq nomi yuzaga kelgan (Nafasov, 1988: 260).

QO'G'ALIKO'L – qishloq va mahalla. Namangan viloyatining Mingbuloq tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Mazkur gidrooykonim o'ziga xos tarixga va murakkab lisoniy tuzilishga ega. O'tmishda qishloq o'rnida bir necha balchiq, kichik ko'llar bo'lgan. Ko'llar atrofida ichi g'ovak va yumshoq, bardiga o'xshash uzun, ko'p yillik qo'g'a (qo'g'ay, qovg'a deb ham ataladi) o'simligi o'sgan[3]. Shunga nisbat berib, bu ko'l ***Qo'g'aliko'l*** deb nomlangan, keyinchalik bu joylar o'zlashtirilib, qishloq, mahalla barpo etilgach, ular ko'lga nisbat berib, ***Qo'g'aliko'l*** deb atalgan.

Demak, ***Qo'g'aliko'l*** gidrooykonimi fitogidronim bo'lib, etimologik jihatdan sof turkiy unsurlar (*qo'g'a+li+ko'l*) asosida shakllangan.

QO'G'AY – qishloq. Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi qishloq nomi. **Yangiqo'g'ay** – qishloq. Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani. *Qo'g'ay* – Farg'ona vodiysidagi o'zbek-qipchoq urug'laridan biri. **Qo'g'ayo'lmas** qishlog'i – shu nomdagi o'zbek-qipchoq qabilasi nomi bilan atalgan (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 116).

QO'G'AYARIQ – Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanining Qo'g'ay, Qo'g'ayo'lmas qishloqlari hududidagi ariqlardan birining nomi. Gidronimning bir necha etimologik talqini

[1] Do'simov Z. Toponimlar tasnifi masalasiga doir//O'zbek tili va adabiyoti. №1. 1978. – B.20.

[2] Rahmatov T. Fe'l toponimlarning yasalishi // O'zbek tili va adabiyoti. №5. 1973. – B.53.

[3] Qarang. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 5-j. – B.322; 424.

kuzatiladi. Gidronimning shakllanish asosi va tarixi Qo'g'ay toponimi bilan bog'liq.

T.Enazarov fikricha, Qo'g'ay toponimining etimoni o'simlik nomini anglatuvchi *qo'g'a* so'ziga *-y* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'lgan *qo'g'ay* yasama so'zi hisoblanadi.

T.Nafasov qo'g'ay so'zini quyidagicha izohlaydi: *Qo'g'a – ichi g'ovak bo'lib, yumshoq, ho'l va quruqligida ham sinmaydigan, egiluvchan, poyasining qirralari kesimta shaklida bo'lgan ko'p yillik o'simlik. Undan bo'yincha, to'qim, arqon, ip va xurjunsimon asboblar yasalgan*[1]. Lug'atlarda ham **qo'g'ay** *"bo'yincha yasash, qovun osib saqlash uchun ishlatiladigan ichi g'ovak va yumshoq, bardiga o'xshash bo'lib o'sadigan ko'p yillik o'simlik"*, deb izohlanadi. Qo'g'ay *qovg'a* deb ham yuritiladi[2].

T.Enazarov fikricha, shunday o'simlik o'sadigan joyning nomi qo'g'a so'zining oxiriga *y* undoshini qo'shish bilan hosil bo'lgan yasama so'zdan onomastik konversiya asosida mazkur toponim shakllangan: *qo'g'a>qo'g'ay>Qo'g'ay.*

Biroq bu talqinga qo'shilib bo'lmaydi. *Qo'g'ay* so'zi etnonim ham hisoblanadi. O'zbek elatining eng katta va asosiy qabilalaridan biri qipchoqlar hisoblanadi. Qipchoqlar O'zbekistonning Samarqand va Kattaqo'rg'on o'rtasidagi tumanlarida, Amudaryoning o'ng sohilida, Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy qismlarida o'troqlashib qolganlar. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Farg'ona vodiysida qipchoqlar 70 ming kishini tashkil etgan. Qipchoqlar *qo'g'ay, bug'ach, kumushoy, o'lmas, yashiq, jaydaq, puchug'oy, elaton, bug'az, og'im, toz, sirmoq, yettiqashqa, qutlug' seid, cherik, ko'kbo'yin, to'rayg'ir, tovuldi, chang'aroqchi, chiyal, qulon, oqbo'yra, qarabovur, boshqird, tikan, qoratikan, sariqipchoq, qorabo'yin* kabi urug'larga bo'linar edi[3].

Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatidagi Qorabo'yin, Tovul, To'rayg'ir, Yashiq, Qo'g'ay, Puchug'oy, Elatan, Qoratikan kabi etnotoponimlar yuqorida keltirilgan qipchoq etnonimlari asosida shakllangan[4].

Qipchoqariq gidronimi ham ana shunday nomlardan biri. Ariq qipchoq qabilasiga mansub aholi yashaydigan Qo'g'ay va Qo'g'ayo'lmas qishlog'i hududidan oqib o'tganligiga hamda qo'g'aylar tomonidan qazilganligiga ko'ra shunday nomlangan.

Demak, Qo'g'ayariq gidronimining etimoni *qo'g'aylar arig'i* otli birikmasidir. Buni lisoniy jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin: *qo'g'aylar arig'i >*

---

[1] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – b. 265.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. II t. – B. 592, 646.

[3] Qarang. Аниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. –С. 109 – 110, 116

[4] Qarang. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – Toshkent: fan, 1989. – b. 10.

qo'g'ay ariq > Qo'g'ay ariq > Qo'g'ayariq. Qo'g'ayariq – etnogidronim.

QO'G'AYO'LMAS – qishloq. Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Qo'g'ay* va *o'lmas* – Farg'ona o'zbek-qipchoqlarining urug' bo'linmalari.

QO'CHQOR OTA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi "Yuqori jo'sh" MFY hududida joylashgan ziyoratgoh nomi. Xalq etimologiyasiga binoan, bu yodgorlikka yaqin joyda tog'qo'chqoriga o'xshash katta tosh bo'lgan ekan. Mahalliy aholi shu-shu bu joyni "***Qo'chqor ota***" deb atashar ekan.

Bugungi kunda "***Qo'chqor ota***" yodgorligi ziyoratgohga aylanib ketgan. Boshqa tumanlardan ham fuqarolar davo topish maqsadida ***Qo'chqor ota*** ziyoratgohiga borib, uni ziyorat qilishadi.

QO'SHAMOZOR – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mazkur hududdagi obyektning juftligiga ko'ra nom olgan.

QO'SHARIQ – Andijon shahrining shimoli-g'arbidagi eski qishloq, hozir esa yangi dahaning nomi. "Boburnoma"da ta'kidlanishicha, Boburning katta onasi bo'lmish Eson Davlatbegim (Umarshayxning qaynonasi)ga Andijon shimolidagi "qo'sh tegirmon" mavzeyida katta chorbog' qurib berganlar. Katta ona doimo ushbu chorbog'da yashagan. Tekshirishlarimizning ko'rsatishicha, zamonlar o'tib "qo'sh tegirmon" nomi "qo'shariq" deb atalib ketgan.

QO'SHHOVUT – Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Bu yerda va Nurota tumanining qo'shni qishloqlarida arabcha *hovuz (havza)* so'zi hovut deb talaffuz qilinadi. Toponimlar tarkibida adabiy havz, havd shaklida uchraydi (А.Л. Хромов. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана, вып. 1. –Душанбе, 1975. С. 19).

Turkmanistonda *gumbez* (tonoz, gumbaz) *gumbet* sifatida talaffuz qilinadi (Б.И.Вайнберг. Топонимика как источник по истории туркмен Хорезма, сб. "Топонимика Востока". –М., 1962. С. 44).

Qaziy so'zini (diniy hakam) – Kavkazda *kadi* sifatida talaffuz qilinadi. Shu tariqa, *hovuz* so'zi O'zbekistonning barcha tumanlarida (hovuz, auz, ouz) shakllarida originalga yaqinroq tarzda talaffuz qilinadi.

QO'SH HOVUZ – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. XV asrda bunyod etilgan mahalla. ***Qo'sh***, ya'ni ikki hovuzi bo'lgan. Hozir hovuzning qoldiqlari va mahalla masjidi saqlanib qolgan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.31).

QO'SHILISH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom bir komponentli mikrooykonim. *"Qo'shilmoq birlashib, aralashib ketmoq, birlik yaxlitlik kasb etmoq, safiga kirmoq"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 5, 591]. Ushbu mikrooykonim turli elat vakillarining

ma'lum bir hududda birikishi natijasida vujudga kelgan.

QO'SHQAYRAG'OCH – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. **Qo'shqayrag'och** – qarachaylar juftligi.

QO'SHKECHIK – Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi qishloq nomi. Nom geografik termin bo'lib, "kechuv", "kechib o'tmoq" so'zlaridan olingan. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda daryolarning sayozroq, kechib o'tish mumkin bo'lgan joylarida tashkil etilgan qishloqlar shu nom bilan yuritilgan. Otkechuv, Dashtkechuv kabi qishloqlar mavjud.

QO'SHKO'PIR – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Ushbu hududda bir joyda ikkita ko'prik joylashganligi uchun u *Qo'shako'pir* deb atalgan, keyinchalik u mahalliy sheva vakillari nutqida *Qo'shko'pir* deb nomlangan.

QO'SHOG'OCH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "***Qo'sh***" umumturkiy so'zlardan biri bo'lib, "juflik" semasini reprezentlaydi.

Shunga asoslanib, mazkur qishloqning nomini dastlab ikkita daraxt (og'och) o'sgan joyda barpo etilgan maskan, qishloq, deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

QO'SHQUDUQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Qo'sh* – ikkili, juft, ikkilangan; quduq; **Qo'shquduq** – *qo'shaloq, qo'sh quduq*.

QO'SHRABOT – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloq nomi. *Qo'sh* – ikkilik, *rabot* – 1) mustahkamlangan ustunlar va turar joylar; 2) karvonsaroy, mehmonxona.

QO'SHSOQA – bu qishloq Samarqand viloyatining Toyloq tumanida joylashgan. Qishloq yaqinida Qo'shsoqa ota nomli tabarruk joy ham bor.

"Samariya" kitobining muallifi mozorlar haqida fikr yuritib, bir o'rinda shunday deydi: "Hazrati xoja Soqqa mozori Shovdor tumanida Soqqa degan joyda, baland bir tepaning kunbotar tomonida va uning ostidadir. Ushbu tepa Amir Temur tomonidan soldirilgan Dilkusho bog'ining janub tomonida. Xoja Saqqo (aslida saqo bo'lishi kerak) Bahouddin Naqshbandning xalifalaridan biri bo'lib, uning mozori bilan shaharning orasi uch chorak tosh chamasi yo'l".

Demak, Xoja Saqo keyinchalik mahalliy aholi tilida Qo'shsoqqa tarzida qo'llanilgan. Bu nomning noto'g'ri talaffuz qilinishi oqibatidir. **Soqa** arab tilida *"suv beruvchi, suv tashuvchi"* ma'nosidagi so'z bo'lib, bu xojaning o'z murshidi huzuridagi xizmatlariga majoziy ishora, termin. **"Soqa"** so'zi hozir Xorazm viloyatidagi sug'orish inshootlari nomlarida uchraydi.

QO'SHTAMG'ALI – qishloq. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani, Samarqand viloyati Samarqand tumani. **Past Qo'shtamg'ali** (Quyi Qo'shtamg'ali) – Navoiy viloyati Nurota tumani; **Tov Qo'shtamg'ali** – Sa-

marqand viloyati Ishtixon tumani; **Yuqori Qo'shtamg'ali** – Samarqand viloyati Bulung'ur, Ishtixon tumani. *Qo'shtamg'ali* ("juft tamg'a") – qo'ng'irot, nayman, yuz va Nurota turkmanlari qabilalari, shuningdek, boshqa urug'-qabilalari, xususan, qarapchi o'zbek-qipchoqlari urug'laridan birining nomi shunday atalgan. Qozoqlar va qoraqalpoqlar tarkibidagi *костамгалы* – qabila nomidir.

Demak, Qo'shtamg'ali nayman qabilasi urug'laridan birining nomi, etnonim. Etnonim joy nomiga aylangan.

QO'SHTEGIRMON – Farg'ona viloyatining Bag'dod hamda Surxondaryo viloyatining Sherobod va Sho'rchi tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qo'shtegirmon* – ikkili tegirmon (qo'shtegirmonlilar qishlog'i).

QO'SHTEPA – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi qishloqlardan birining nomi. *Qo'sh* – juft, yonma-yon joylashgan ikki narsa. **Qo'shtepa** – *yonma-yon turgan qo'sh tepa* demakdir. Andijon viloyatining Jalaquduq, Qo'rg'ontepa tumanlari. *Qo'shtepa* – qo'sh tepalik, ikkita tepali tepalik.

QO'SHTOL – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. **Qo'shtol** nomi juft tol ma'nosini anglatadi va fitonim hududning nomlanishiga asos bo'lgan.

QO'SHCHI – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq hamda Samarqand viloyatining Paxtachi va Xorazm viloyatining Urganch tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Qo'shchi*: 1) shudgor, boyning xizmatkori; 2) 1919–1930-yillarda O'zbekistonda mavjud bo'lgan dehqon mardikorlari, raislari va yeri kam qashshoq dehqonlar ittifoqining nomi; 3) *qo'shchi* yoki *qushchi* – bu o'zbeklar va qirg'izlar orasidagi urug'ning nomi.



RABAX – ariq. Buxoro shahri. Istaxriy asarida (БАГ, I, С. 307) tilga olinadi. **Rabax** deb nomlangan (arabcha *rabax* – kirim) – ariqqa kirim keltiradigan.

RABOT – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "***Rabot // ravot***" asli arabcha so'z bo'lib, "*karvonsaroy, musofirxona, shahar devori, shaharning tashqi qismi, chegara posti, istehkom, qo'rg'on*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 332].

Shunga ko'ra bu mikrotoponimni "*rabot // ravot (karvonsaroy, qo'rg'on) yonida barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" [S.Qorayev. 1, 102; T.Nafasov, 159; N.Begaliyev, 87], deb izohlash to'g'ridir.

RABOTAK – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qishloq nomi. Rabot (e'tiqod uchun kurashuvchilarning mustahkam qarorgohi) + erkalash-kichraytish qo'shimchasi *-cha*.

RABOTAK O'RCHINI – ikki daryo oralig'idagi Sirdaryo daryosining irmoqlari – Qoradaryo va Norin, viloyatning tarixiy nomi (Farg'ona vodiysi). Bobur *tuman, orchin* (o'rchin) terminlarining qo'llanilishini shunday tushuntiradi, pargana: "Samarqand va Buxoro va yana bu navohida viloyatchalarnikim, bir ulug' viloyat tahdida bo'lg'ay, tuman derlar. Va Andijon va Koshg'ar va ul orada o'rchin va Hindustonda pargana derlar" ("Boburnoma". – T., 1960. 189-b.). Mazkur hudud yana **Ikki suv orasi** (o'zbekcha) va **Miyon rudon** (forscha) – "Ikki daryo oralig'i" deb ham nomlangan.

RABOTIMALIK – monumental arxitektura yodgorligi (Navoiy shahri yonida), u *Raboti-Malik* ("Shoh raboti") – mustahkam turarjoy deb o'zining nomini olgan, u Shams ul-mulk Nosir o'g'li Ibrohim (1078–1079) tomonidan qurilgan (В.В.Бартольд. Сочинения, Т. II. С. 378).

Ehtimol, rabot nomi **Malik (Cho'li Malik)** nomi bilan bog'liqdir, chunki ushbu hududda rabot joylashgan.

RABOTISARIQ – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, bu yerda hayot kechirishni boshlagan ilk oila ekin ekish maqsadida yerlarni tekislayotgan vaqtda sariq buyum topib olgan, shu tariqa qishloq nomi vujudga kelgan.

Tadqiqotchi M.M.Avezovning fikricha, toponim *rabot* va *sariq* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi qismi – *rabot* so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi. Uning ikkinchi qismi – *sariq* so'zi urug' nomi, etnonim. Sariq – umumturkiy etnonim. O'zbek xalqi tarkibida ham *sariq* degan urug' bo'lgan. Qo'ng'irotlar qo'shtamg'ali bo'limining *qoraqursoq* urug'i tarkibida *sariq* deb ataluvchi kichik urug' mavjud. Janubiy Tojikiston laqaylari tarkibida *sorichol* urug'i, *sori, sorimraz, sorimbachcha* degan urug' tarmoqlari borligi ma'lum.

Etnograf B.X.Karmishevaning ma'lumotlariga qaraganda, qatag'onlarning *sari (sori), sariqatag'on, sariboshqatag'on* urug'lari bo'lgan. Mang'it, batosh va boshqa qabilalarning ham *sari (sariq, sarig')* urug'i bor. Taniqli toponimist T.Nafasovning yozishicha, sariqlar o'tmishda *uyshun, qo'ng'irot, batosh, mang'it, uyg'ur, nayman, qipchoq, qangli, qirg'iz, no'g'ay* kabi qabilalar tarkibiga qo'shilib singishib ketgan. Sariq – totem. Tatar tilida *сарык* – qo'y. Totem nomi urug', qabila nomiga aylangan.

Demak, Rabotisariq – "sariq urug'i vakillari yashaydigan qo'rg'on" ma'nosidadir (*qarang:* **Gulrabot**).

RABOTIXOSA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nom *rabot* va *xosa* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi qismi – *rabot* so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi. Uning ikkinchi qismi – *xosa* so'zi "mo'tabar", "imtiyozli" degan ma'noni anglatadi.

Demak, Rabotixosa – "mo'tabar kishilar yashaydigan qo'rg'on (qishloq)" degan ma'noni anglatadi. Lekin qishloqning nima sababdan bunday atalganligi noma'lum.

RABOTIO'G'LON – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. *O'g'lon* so'zi – xon maqomini olmagan hovlidagi sarkarda yoki navbatchi bo'lgan Chingizxon avlodi. Rabot ana shunday o'g'lonlarning biriga asoslangan.

Shuningdek, o'g'lon – 92 bovli o'zbek urug'laridan biri sanaladi

RABOTIESHON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nom *rabot* va *eshon* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *eshon* so'zi esa "ruhoniy" degan ma'noni anglatadi. Demak, **Rabotieshon** – *"eshonlar (ruhoniylar) yashaydigan qo'rg'on"* ma'nosidadir.

RABOTISHAYX – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nom – *rabot* va *shayx* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi qismi – *shayx* so'zi esa "oliy musulmon ruhoniylari vakili", "mozor va boshqa ziyoratgohlar mutasaddisi" degan ma'noni anglatadi.

Demak, **Rabotishayx** – *"shayxlar (ruhoniylar) yashaydigan qo'rg'on"* ma'nosidadir.

RABOTOBOD – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Rabot* deb atalgan. 2006-yil

8-aprelda *Rabotobod* deb o'zgartirilgan. Mahalliy aholi qishloq qadimgi Buyuk ipak yo'li yoqasida joylashganligi hamda yo'lovchilar to'xtab dam olganligi sababli shunday nom olgan, deb talqin qiladi.

Toponim *rabot* va *obod* so'zlaridan iborat. Apellyativning ikkinchi komponenti – *obod* esa "o'zlashtirilgan", "obodonlashtirilgan" ma'nosidagi so'z.

Demak, **Rabotobod** – *"obodonlashtirilgan qo'rg'on"* degan ma'noni bildiradi.

RABOTCHA – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. *Rabotcha* – "kichkina rabot" (*-cha* erkalash-kichraytish affiksi O'zbekiston sharoitlarida kamdan-kam holatlarda "ikkinchi" ma'nosini ifodalaydi: Nayman – **Naymancha** (Ikkinchi Nayman), Do'rman – **Do'rmancha** (Ikkinchi Do'rman).

RADZADA – Buxoro shahridagi daha. "Chaqmoq bilan o'ldirilgan" ma'nosini ifodalaydi. Arabcha *ra'd* so'zi o'qotar qurolni ifodalash uchun qo'llanilgan (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 224).

RAFANIK – Tarixiy toponim. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim, aslida, Rafkanik bo'lib, Rafanik esa uning dialektal shaklidir. Ushbu nom ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***Rafi*** – *"yuqori, baland"* degan ma'noni anglatadi. ***Raf*** elementi hozir ham Eron toponimiyasida juda sermahsuldir (В.И.Савина. Словарь. –С. 178).

Xorazmiy tilida mazkur so'zning *"baland, yuqori"* ma'nolaridan tashqari, uning *"janub, qibla"* ma'nolari ham mavjud. ***Kanik*** esa ***"Darvoza"*** demakdir.

Shunday ekan, ***Rafanik*** – *"qibla, janubdagi darvoza"* degan ma'noni anglatadi.

RAHMATILLO – qishloq va mahalla. Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Kishilarga qo'yiladigan bu ism Xudoning rahmdilligi, marhamati degan ma'noni anglatadi.

RAJABAMIN – Samarqand shahri mahallalaridan biri. Rajab, ya'ni shaxs nomi va "amin" (Buxoro xonligida tuman yoki qishloq oqsoqoli; bozorda sotuvchilardan soliq yig'ib oluvchi amaldor, pattachi. **Amin** so'zi asli arabcha bo'lib, ma'nosi *"ishonchli"* demakdir) so'zlaridan yasalgan. Urgut tumanidagi Qurbonqulamin toponimi ham shu tarzda hosil bo'lgan.

RAMADON – qishloq. Toshkent viloyatining Toshkent, Chinoz, Bo'ka, Zangiota tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Ramadon* o'zbeklar tarkibidagi urug'lardan biri, qozoqlarda ham *ramadan* urug'i bo'lgan.

RAPQON – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qo'qon xonining arxiv hujjatlarida **Rafiqonqishloq** shaklida uchraydi (А.Л.Троицкая. Каталог архива Кокандских ханов. С. 292).

Hozirgi talaffuzi (rapqon) forscha *rafiqon* – "o'rtoqlar, do'stlar" so'zlaridan kelib chiqqan. Andijon viloyatining Izboskan tumanida aynan shu

ma'nodagi **O'rtoqlar** qishlog'i mavjud (o'zbekcha). Ehtimol, bu qandaydir bir qishloq jamiyatini ifodalar.

RAS AT-TOQ – Samarqand shahridagi Siyob bozori va uning atrofidagi hududni o'z ichiga olgan mahalla. "Toq" so'zi "gumbazli savdo inshooti" ma'nosida bo'lib, bozor binolarining asosiy qismi mazkur hududda joylashgan edi.

Ras at-toq – "bozor boshi" ma'nosidadir. Bozor do'konlari ushbu joydagi Jo'yi Arziz ("qo'rg'oshin kanal")ning ikki qirg'og'i bo'ylab qurilgan edi.

Istaxriyning qayd qilishicha, Ras at-toq shaharning eng gavjum joyi bo'lib, bozor do'konlari Jo'yi Arzizning ta'miriga qishin-yozin qarab turuvchi mug'larga vaqf qilingan. Samarqand qadimdan o'z bozorlari bilangina emas, bu yerda ishlab chiqilgan qimmatbaho gazlamalari bilan ham mashhur bo'lgan. Samarqandliklar IX-X asrlardayoq kimxob, karbos, zandanachi, vadori kabi gazlamalar bilan savdo qilishib, jahon bozoriga chiqqanlar. Shaharda keyingi asrlarda ham savdo-sotiq keng rivojlangan.

RAS QANTARAYI G'OTFAR – Samarqand shahrining o'rta asrdagi mashhur G'otifar mahallasi bilan bog'liq toponim. Mazkur nomni "G'otifar ko'prigi boshi" deb izohlaydilar.

Nizomiy Aruzi Samarqandiy (XII asr) ma'lumotiga ko'ra, G'otifar mahallasi o'zining sarv daraxtlari bilan mashhur bo'lgan. G'otifar mahallasi (Ko'ksaroy) arkining shimoliy hududida joylashgan bo'lib, keyinchalik Lolazor nomi bilan mashhur bo'lgan. Ark yonidan o'tgan Novadon kanali ustiga qurilgan ko'prik esa G'otifar ko'prigi nomi bilan atalgan.

Mahalla 1590-yil 28-aprelda bitilgan vasiqada "Samarqand atrofida Lolazor nomi bilan mashhur bo'lgan G'otifar mahallasi" deb qayd qilingan.

Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida G'otifarni haytal (eftalit) lar shohi deb ko'rsatadi.

Demak, mahalla kishi nomi bilan atalgan. Bu yerda mashhur olim va shoirlardan Umar Xayyom, Xoja Shamsiddin G'otifariy, Xoja Mavlono G'otifariylar yashaganlar.

RAVALLIK – Jizzax shahridagi mahalla. Qo'shni Rabot qishlog'i aholisi Jizzaxga kelib joylashgan va u joy **Ravotlik** (ravotlik, ravotliklar) deb atalgan, keyinchalik esa **Ravallik** nomini olgan.

RAVON – qishloq. Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. *Ravon* toponimi joriy *suv, obi ravon* kabi ma'nolaridan birini anglatadi.

RAVOT – Samarqand viloyatining qariyb barcha tumanlarida "rabot, ravot" termini ishtirokida yasalgan joy nomlari uchraydi. Masalan, Beklar Ravoti, Ravot, O'rta Ravot, Yuqori Ravot (Urgut t.) kabi.

Dastlab (VII–VIII asrlarda) rabotlar musulmonlarning chegara yerlaridagi arab askarlarining otlari turadigan istehkomlar bo'lgan. Keyinchalik (IX–X asrlarda) ko'chmanchi turklar islom dinini qabul qilganlaridan keyin

harbiy harakatlar boshqa hududlarda olib borildi, avval qurilgan rabotlarning binolarini esa odamlar karvonsaroy sifatida ishlata boshladilar.

Ayrim rabotlarning binolari xonaqohlar sifatida ishlatilib, ularda turli so'fiy tariqatlarga mansub zohidlar qo'nim topgan. Shuning uchun o'rta asrlarda qurilgan karvonsaroylar ham ko'pincha "rabot" deb atalgan. Rabotlar, odatda, xususiy mulk sifatida ayrim shaxslar yoki diniy tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag'larga qurilgan. Chunki bunday ishga pul tikish ko'p foyda keltirgan, shuning uchun uni ochishga hokimiyatdan maxsus ruxsat olish talab etilgan.

Qurilgan rabotlar atrofida keyinchalik qishloqlar vujudga kelib, ularning aholisi kelib ketuvchi karvonlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullangan. Bu, ayniqsa, cho'l va dashtlarda joylashgan rabotlarga xos bo'lgan hol edi. Xususiy rabotlar, odatda, ularni qurdirgan shaxslarning ismlari bilan aytilgan (Ibn Havqal, 2011: 105–106).

O'zbekistondagi ko'p sonli aholi punktlari nomlari. *Ravot* (aniqrog'i, *ribat)* arabchadan o'zlashgan bo'lib, dastlab (arablar bosqini davrida) dushmanlar hujumidan chegarani qo'riqlovchi ot otryadlari uchun stansiya (to'xtash joyi) (B.B. Бартольд. Сочинения. –T. I. –C. 247) yoki chegarada musulmonlar egalik qiluvchi mustahkam joy ma'nosini ifodalagan (B.B. Бартольд, Сочинения, т., III. –C. 119).

Keyinchalik ravot so'zi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan: 1) qo'rg'onchi qorovullar; 2) savdo yo'llari uchun mustahkam turarjoy (ravot); 3) karvonsaroy, doimiy turuvchi hovli. Ba'zan rabot so'zini forscha-tojikcha *rabad* (aniqrog'i, rabaz) so'zi bilan ("qal'a devori", keyinchalik "shahar ichi", "shahar atrofi") adashtirishadi.

Rabat deb "otlar bog'lab qo'yiladigan joy" (terminning etimologik jihatdan kelib chiqishi ham shunday) atalgan; rabat deb qozilar uchun (e'tiqod uchun kurashuvchilar) qayta nomlangan, chunki ular chegara punktlarida joylashib, "ularning musulmonlar va echkilarga hujumini aks ettirib, dushmanlar bilan yuzma-yuz yashashgan" (B.B.Бартольд. Сочинения. T. II. Ч. II. –C. 202).

Rabat deb devorlarning o'zlari nomlangan, chunki bu arabcha termin arab mualliflari tomonidan qo'llanilgan (B.B.Бартольд. Сочинения. T. II. Ч. 1. –C. 200). Hozirgi o'zbek tilida "ravot" so'zi qishloq nomlari sifatida ham, shuningdek, to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan hovli ma'nosida ham qo'llanadi. Ravot Xorazm viloyati Urganch tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Ribot yoki rabot – arabcha "otlarni bog'laydigan yer", "bog'lamoq" fe'lidan olingan. Boshqa manbalarda Rabot – qo'rg'on, istehkom ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan izohlar bir-birini to'ldirib, bir-biriga yaqinligi namoyon bo'lmoqda.

RAVOTXO'JA – O'rta asrlarda Varag'sar – "To'g'onboshi" nomi bilan mashhur bo'lgan joy atamasi. – *v a r g'*

sug'dcha leksema bo'lib, "shox-shabba, qamish, xashak, chim va tuproqdan qurilgan to'g'on" ma'nosidadir. **Sar** –bosh ma'nosida. Bu yerda suv taqsimlagich inshooti bo'lgan.

Akademik V.V.Bartold qo'rg'onning nomi XII asrda yashagan, qabr toshi Toshkent muzeyida saqlanayotgan Xo'ja Abu Zakariyo Varag'sariy (844-yil vafot etgan) ismidan olingan, deydi.

Ba'zi olimlar Varaq so'zini "kichik qo'rg'on", "qo'rg'oncha" tarzida izohlashga moyildirlar.

RAVOTXO'JA TO'G'ONI – to'g'on. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Ravotxo'ja qishlog'i yaqinida qurilgan to'g'on nomi Urgut tumanidagi Ravotxo'ja qishlog'i yaqinida qurilgan to'g'on. To'g'on Samarqand shahri va mahallalarini, shuningdek, Darg'om cho'l zonasini suv bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur suv inshooti ming yillar davomida suv uchun kurash obyekti bo'lib xizmat qildi. Bir necha marta buzilgan to'g'on 1929-yil 1-mayda hozirgi ko'rinishida qayta tiklangach, Zarafshon suvi 511 metrlik tunnel orqali Yangi Darg'om kanaliga oqa boshladi. Mazkur inshoot irrigatsiya tarixida butunlay yangi voqea bo'ldi va u rasmiy hujjatlarda "Birinchi May to'g'oni" deb atala boshladi. Ammo 1950–1951-yillarda to'g'on bahorgi toshqinlar natijasida yana ishdan chiqdi. 1960-yillarda qaytadan tiklandi va to'g'onning ta'mirlanishi yangidan 52 ming gektar yerni sug'orish imkonini berdi. Mazkur suv inshooti mahalliy aholi tilida Ravotxo'ja to'g'oni deb yuritiladi, ya'ni qishloq nomi bilan aloqador holda gidronim yasalgan.

RAVG'ANGARON – Buxoro shahridagi daha. Forscha *ravg'an* – yog', moy, *ravg'angar* – yog' ishlab chiqarish joyida ishlovchi, yog' yetishtiruvchi, *-on* – ko'plik qo'shimchasi.

RAXKENT – Tarixiy toponim. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***Rox*** – fors tiliga mansub hisoblanib, *"yo'l"* degan ma'noni anglatadi.

Uning ikkinchi qismi ***kent*** esa – *"qishloq, qo'rg'on, istehkom"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, ***Raxkent*** toponimi – *"yo'l ustidagi qishloq"* degan ma'noni ifodalaydi.

RAYIMQULKO'SA – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Shaxs nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Odatda, antroponimlarning joy nomlari tarkibida uchrashi ushbu shaxsning xalqqa qilgan xizmati bilan bog'liq. Bu o'rinda mazkur qishloqdan yetishib chiqqan shaxsning xotirasi hurmatiga qo'yilgan nomni ko'ramiz. Hozir rasman Diyor deb yuritiladi. Toponimning ikkinchi qismi "ko'sa" terminidan iborat. Ko'sa fors-tojikcha so'z bo'lib, "soqoli yo'q" shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Mazkur so'z ishtirokida yasalgan toponimlar anchagina bo'lib, shular-

dan biri Samarqand shahri yaqinidagi Ko'saho mahallasidir.

Toponimist Sh.S.Kamoliddin mazkur nom o'rta asrlarda Ko'sakon shaklida qo'llanilganligini qayd qilib, "ko'sa" so'zi laqab tarzida bo'lganligini ko'rsatadi, mahalla aholisi Turk xoqonligi, keyinchalik qoraxoniylar davrida Sharqiy Turkistondan kelgan kishilardan iborat bo'lgan, deb ma'lumot beradi (Kamoliddin, 2006).

Samarqand viloyati hududida "ko'sa" termini bilan yasalgan toponimlar jumlasiga Payariq tumani Qoraabdal qishloq kengashidagi Ko'sa, Qoradaryo tumani Qipchoq qishloq kengashidagi Tog'ayko'sa kabi qishloqlar nomini ham kiritish mumkin. Prof. B.O'rinboyev "ko'sa" qo'ng'irot, yuz, nayman, saroy, turkman yuz, qatag'on, laqaylar tarkibida uchraydigan urug' deb qayd qiladi (O'rinboyev, 2002).

RAYONOBOD – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Obod* – "obodonlashtirilgan", "aholisi ko'p" ma'nosidagi toponim hosil qiluvchi so'z.

RAZMAZ – O'rta asr toponimiyasida keng tarqalgan nomlardan biri. 1926-yilgi aholi ro'yxatida qayd qilingan Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi Razbiron, Vobkent tumanidagi Razmas, Qashqadaryoning Beshkent tumanidagi Razmaz, G'uzor tumanidagi Xojarazmaz, Payariq tumanining Yuqori Ilonli qishlog'i kengashi hududidagi Razmaz, Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi Razi singari qator joy nomlari o'zaro shakldosh bo'lib, etimologik jihatdan yaqin nomlardir.

XV asr vaqf hujjatlarida Kattaqo'rg'on tumani hududidagi Razmaz kanali ekin maydoni sifatida tilga olingan.

V.L.Vyatkin Razmaz kanali keyinchalik Dasht nomi bilan atalgan ariq bir bo'lsa kerak, deb ta'kidlaydi. Mazkur nomlar tarkibidagi birinchi komponent forscha "raz" – uzum, tok ma'nosida. Apellyativning ikkinchi komponenti arabcha mazra' – aynan ekin maydoni, yer ma'nosidagi termin bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mazra' so'zi og'zaki nutqda qisqartirilib, mas, maz tarzida talaffuz qilingan. Razmaz kanali, qishlog'i nomi ba'zi manbalarda Razmaz shaklida ham uchraydi.

Demak, **Razmaz** – *uzumzor, tok ekilgan maydon* ma'nosidadir. Xuddi shunday termin "Taxta raz" – uzumzor Sayfiddin Boxarziyning 1326-yilgi vaqf hujjatlarida ham qayd qilingan. Arman manbalarida ham xuddi shu ma'noda ishlatilgan. Dastlab yirik tokzor, uzumzor nomi bo'lgan Razmaz keyinchalik kanal va qishloqqa ham qo'yilgan bo'lishi tabiiy.

REGDAMIN – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Geografik joy nomi aslida *Regizamin* bo'lsa kerak. Apellyativning birinchi komponenti – *reg* so'zi forscha-tojikcha bo'lib, *"mayda qum"* degan ma'noni bildiradi. Uning ikkinchi komponenti – *zamin* (o'zgarib *damin*ga aylangan) so'zi ham forscha so'z bo'lib, *"yer", "tuproq", "ekin ekiladigan joy"* ma'nolarini anglatadi.

Demak, **Regdamin** – *"qumli yer", "qumloq joy"* ma'nosidadir. Mahalliy aholi ham toponimni shunday izohlaydi.

REGRIZ – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim fors-tojikcha: ***regriz*** yoki ***regsho'y*** shaklida bo'lib, – u *"qumlarni yuvib oltin olgan kishi"* ma'nosini bildiradi.

Zarafshon daryosida, xususan, uning bosh qismida qumni po'stak yoki gilam ustida yuvib, oltin olish qadimdan rasm bo'lgan (oltin og'ir bo'lganidan jun orasiga kirib qolgan).

REGZOR – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Toponim ikki qismdan tashkil topgan: ***reg+zor***. "Reg" – fors-tojikcha so'z bo'lib, *"kvars va boshqa qattiq ma'danlar bo'lagi, mayda zarralari"*[1] ma'nosini bildiradi va ***-zor*** esa o'rin, makon ma'nosini anglatishga xoslangan hisoblanadi. Ushbu nom *"qum mavjud joy", "qumloq"* kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday joylar daryo bo'ylari, sahro va cho'lda bo'lgan. ***Regzor*** – *"qum to'shalgan joy", "usti donador qum bilan qoplangan joy", "sayilgoh", "ommaviy tomoshalar (o'yin, kurash) o'tkaziladigan joy"* ma'nosida ham qo'llaniladi. Registon ham mazkur so'z bilan o'zakdosh[2]dir.

REGISTON – maydon. Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlaridagi maydonlar nomlari. Aslida, Registon – qumloq joy ma'nosini anglatadi.

Ayrim Markaziy Osiyo shaharlarida ichki qal'a – *ark* yoki *registon* deb nomlangan (Материалы по районированию Средней Азии, кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 2. –Хорезм, –Ташкент, 1926. С. 40).

Keyingi paytlarda Registon deb tez-tez bozor bo'lib xizmat qiladigan va qum bilan yotqizilgan shaharning markaziy maydonlari atalgan. Afg'oniston va Eronda **Reg, Regi, Registon** nomlari ostidagi qumloq dashtlar bor.

REGISTON ARIG'I – Kaykovus kanalining chap qirg'og'idan (Zarqaynar ko'chasiga yaqin joydan) boshlangan. Uzunligi 2,5 km. Zarqaynar ko'chasi bo'ylab Imomsoib masjidi, aholi zich yashaydigan mahallalar orqali o'tib, Jangob arig'iga quyilgan.

"Registon" gidronimi "Registon" toponimidan olingan. Aslida, "registon" toponimi forscha "reg" – "qum" va "iston" o'rin-joy yasovchi qo'shimchalaridan tashkil topgan. O'rta asrlar shaharlaridagi Registon qum-shag'al to'kib tekislangan markaziy maydondan iborat edi.

Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida, jumladan, Buxoro, Samarqand va Toshkentda ham Registon bo'lgan. Toshkentdagi Registon bozori hozirgi "Chorsu" metro bekati hududi-

---

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд) Ҷилди 2. О – Я. Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. –Душанбе, 2008. – С. 159.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: Muharrir, 2009. –B.213.

ga to'g'ri keladi. Ushbu joydan oqib o'tgan ariq ham "Registon" nomini olgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mazkur ariq Sebzor dahasining Uchko'cha, Asuvot, Chuvalachi, Hasanboy, Sebzor, Chigitboshi, Oxunguzar-1, Oxunguzar-2, Oxunguzar-3, G'ishtko'prik, Eskijuva, Hojiko'cha-1, Hojiko'cha-2, Hojiko'cha-3 mahallalaridan oqqan. Shaharliklar ariq suvidan sug'orishda va ichimlik suvi olishda keng foydalanganlar. Registon arig'ining shaharning markaziy bozoridan o'tgan qismida esa ariq bo'ylab hordiq chiqarish joylari, oshxona va choyxonalar barpo etilgan.

REGISTONAK – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim tarkibi *registon* so'zi va *-ak* (erkalash-kichraytirish affiksi) affiksidan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *registon* so'zi forscha-tojikcha bo'lib, *"qumli cho'l", "qumloq maydon", "qumloq"* ma'nosini anglatadi. Demak, Registonak – *"kichikroq qumloq"* ma'nosidadir.

REGIYON – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Forscha *reg* – qum, *regiyon* – qumloq, qumloq joy ma'nolarini anglatadi.

REZAKSOY – Namangan viloyatining Chust tumanidagi soy nomi. Rezaksoy gidronimi uch ma'noli qismdan tarkib topgan: *reza, -k, soy.*

Mazkur gidronim *Rezak* oykonimi asosida yuzaga kelgan bo'lib, oykonim morfemik jihatdan *reza – asos va -k* affiksidan iborat. *Reza* so'zi asli fors-tojikcha bo'lib, eski o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llangan: *1) mayda, ushoq; 2) bebaho; 3) yosh bola*[1].

Hozirgi o'zbek tilida esa quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: *1) uncha katta bo'lmagan; mayda, kichik; 2) mayda narsa*[2]. Rezak toponimi uchun reza so'zining birinchi, "mayda, kichik" ma'nosi etimon hisoblanadi.

Demak, *reza* asosiga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-(a)k* affiksi qo'shiluvidan yasalgan rezak yasama sifati "kichkina" degan ma'noga ega. Rezak kichkina demakdir.

Toponimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *reza + k > rezak > Rezak.* Apellyativ leksik sathga mansub so'z onomastik konversiya asosida toponimga, aniqrog'i, oykonimga – qishloq nomiga o'tgan. Keyinchalik Rezak toponimi negizida yana bir nom – Rezaksoy gidronimi hosil bo'lgan. *Rezakning soyi* otli birikmasi lisoniy taraqqiyot va toponimik derivatsiya natijasida qo'shma so'z shaklidagi gidronimga aylangan: *rezakning soyi > Rezak soyi > Rezak soy > Rezaksoy.* Rezaksoy gidronimi uchun *"kichkina joydagi soy"* ma'nosini ifodalovchi *Rezakning soyi* otli birikmasi etimon hisoblanadi.

---

[1] Rahmonov V. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 127.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati, I t, 621-b.

Soy Rezak qishlog'idan boshlanganligiga ko'ra shunday nomlangan bo'lishi mumkin.

RIVDOD – VIII asrda Samarqand ixshid (hokim)larining qarorgohi bo'lgan. Rivdod shahrida (xitoycha Amudi) eftalitlar davrida ajdodlar ibodatxonasi bo'lib, bu yerga qurbonlik qilish uchun Kan (Samarqand)ga bo'ysunuvchi hokimlar yig'ilishgan (Смирнова, 1970: 103).

Maqdisiy Maymurg'da ko'plab qasrlar bo'lganligini qayd qilar ekan, bu rustoqning yirik qishlog'i Rivdodda ixshidlar qasri joylashganligini yozadi (Bartold, 1, 1963: 145).

Rivdod Samarqandning janubida, shahardan bir farsax masofada, Tali-barzu shahristoni o'rnida bo'lgan, deb ko'rsatiladi (Grigoryev, 1940: 87).

Tarixiy hujjatlarda uchraydigan Rivdod nomli ko'cha va darvoza o'tmishda ushbu toponim mashhur bo'lganligini ko'rsatadi.

Ba'zi olimlar Rivdod – "adolat qal'asi" ma'nosini anglatadi, deb yozishadi (Mahmudov, 2007). Tilshunos olim P.B.Lurye esa bu nom sug'dcha *ruv* va *dod* so'zlaridan yasalgan bo'lib, "Riv (xudosi) bergan (yer)" ma'nosini bildiradi, deydi (Lurye, 2004).

RIVDOD DARVOZASI//BOB ARRIVDOD – Rivdod qishlog'i Samarqand ixshidlari (hokim)ning qarorgohi bo'lib, uning xarobalari shahardan bir farsax (7-8 km) uzoqlikdagi Tali-barzu tepaligi o'rnida, Ravanak qishlog'i yonida joylashgan.

Darvoza qishloqqa boriladigan yo'l va uning shahardan chiqiladigan chegarasidagi qarorgoh nomi bilan atalgan.

RISHTON – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Dastlab X asr manbalarida, jumladan, arab sayyohlari asarlari va "Hudud ul-olam" da *Rishton*, "Boburnoma" asarida *Rushdon* hamda Qo'qon xonligi tarixiga oid kitoblarda *Rashidon // Roshidon* tarzida tilga olinadi.

Tarixiy manbalarda Rishton haqidagi ma'lumotlar kam uchraydi. Ilk marta arab sayyohi Istaxriy o'zining "Kitob masolik al-mamolik" asarida mazkur toponimni Yuqori Nesya shaharlari sifatida qayd etadi: *"Farg'onaning birinchi viloyati Yuqori Nesya. Chunki Xo'jandga borganda birinchi undan o'tiladi. Bu viloyatning shaharlari: Vanket, So'x, Xo'qand va Rishton"*. "Hudud ul-olam" asarida esa Rishton toponimi shaharcha nomi sifatida beriladi: *"Xavokand, Rishton, Zandaromash – gavjum shaharchalar, ekinzorlari ko'p"*.

"Boburnoma" asarida ham uni muallif kent, ya'ni shahar nomi tarzida ko'rsatadi: *"Sohibi "Hidoya" Marg'inonning Rushdon otlig' kentidindur"*.

Toponim tarkibidagi ***rish // rushd*** leksemasining etimoni bilan bog'liq ravishda quyidagi farazlar mavjud:

1. Rishton toponimining etimologiyasi aniq bo'lmasa-da, *Rashidonni* – "to'g'ri yo'l topganlar" sifatida diniy izohlash mumkin. Ya'ni Rishton toponimi ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, nomning birinchi qismi arabcha ***rushd*** yoki ***rashid*** morfemasi

"to'g'ri yo'lni topish", "to'g'ri yo'lga tushish" degan ma'noni anglatadi, ikkinchi qismi esa forscha ***-on*** – ko'plik qo'shimchasi sifatida talqin etiladi.

2. Nom tarkibidagi fors-tojik tillariga mansub ***rish*** topoleksemasi quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) soqol; 2) yara, jarohat.

3. Toponimning birinchi qismi sug'diycha bo'lib, mazkur tilda topoleksema shunday ma'nolarga ega: 1) ***rosh*** – "baland, yuqori joy"; 2) ***rust*** – "xilvat joy"; 3) ***rash // rush*** – "qizil tuproq" (xoki surx).

Oykonimning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan ***-ton / -don*** komponenti T.Nafasov asarlarida "joy", "makon" sifatida izohlanadi va olim yurtimiz toponimiyasiga oid *Poshton, Rishton, Bog'don, Karkidon, Xavdon, Xovdon* singari obyekt nomlarini ushbu birlik bilan yasalgan toponimlar sifatida keltirib o'tadi.

S.Qorayev tadqiqotlarida yurtimizning eng qadimgi toponimlari tarkibida uchraydigan ***mitan / metan / meton*** birligi haqida so'z yuritilib, mazkur komponent eroniy tillarda *mayedana* – "turarjoy", "uy", fors tilida *mehan* – "vatan", sug'diycha *medan* – "turar joy", undan tashqari, "qishloq", "qal'a", "istehkom" degan ma'nolarni anglatishi qayd etiladi.

Fikrimizcha, Rishton tarkibidagi ***-ton / -don*** birligining kelib chiqishi ham aynan mana shu "mitan" toponimik terminiga aloqador sanalib, birlik nom tarkibida fonetik o'zgarishga uchragan bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, bizningcha, Rishton toponimi etimologiyasini sug'diy tillarga mansub ***rash // rush*** – "qizil tuproq", "qizil yer" birligi bilan bog'lash to'g'riroqdir. Chunki markaziy Farg'ona cho'lining janubida, So'x daryosi va Katta Farg'ona kanali bo'yida, hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lgan bu joyning tuprog'i qizil gil – qizil rangga ega bo'lib, yerning geomorfologik tabiati aynan ushbu hududda kulolchilik sohasining paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan. Qadim zamonlardan Rishton Markaziy Osiyodagi eng yirik ajoyib sirlangan sopol buyumlar shahri sanalgan. O'rta asrlarda shaharning mana shu xususiyati va undan tashqari, bir tomondan, Xitoy va Hindiston, boshqa tomondan Eron va Yaqin sharq karvon yo'llari chorrahasida joylashgani hisobga olinib, Buyuk Ipak yo'lidagi to'xtash joyi hamda savdo-sotiqning asosiy markaziga aylangan. Shu bilan bir qatorda, Rishtonda kulolchilik sohasining rivojlanishi barobarida ushbu hududda *Chinnigaron, Kulolon va Ko'zagaron* singari kulolchilikka ixtisoslashgan mahallalar vujudga kelgan.

Demak, Rishton toponimi nominatsiyasiga yerning geomorfologik tabiati asos qilib olingan va nom lisoniy jihatdan ikki topoleksemadan iborat: *Rish + ton*. Oykonim tarkibidagi ***rash // rush > rish*** morfemasi sug'diycha "qizil tuproq", "qizil yer"; eroniy tillarga mansub ***-ton*** komponenti esa "turar joy", "makon" yoki "qishloq" ma'nosi-

ni ifodalaydi va ***Rishton*** – "qizil yer", "qizil tuproqli joy" sifatida talqin etiladi. Nom etimoni *rash // rush > rish + don // ton* atributiv birikmasi sanalib, toponim ushbu birikmaning onomastik leksikaga ko'chishidan hosil qilingan: *rash // rush > rish + don // ton > Rishton > Rushdon // Rashidon / Roshidon // Rishton.*

ROHKENT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *roh* va *kent* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *roh* so'zi forscha-tojikcha bo'lib, *"yo'l"* degan ma'noni bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *kent* so'zi asli sug'dcha bo'lib, *"qishloq", "shahar"* degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, Rohkent – *"yo'l bo'yidagi qo'rg'on", "yo'l chetidagi qishloq"* degan ma'nolarni anglatadi.

ROMITAN – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Romitan – O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. Mahalliy rivoyatga ko'ra, romitan so'zi "Tan oromi" degan ma'noni anglatadi. Romitan atamasi turkiy mitan urug'i nomidan kelib chiqqan, degan taxminlar ham mavjud.

Romitan, Zarmitan, Parmitan, Navmitan, Xurmitan kabi toponimlar qadimiy nomlar sirasiga kiradi. Ularning barchasi mitan qo'shimchasi yordamida yasalgan qo'shma nomlardir. O'rta Osiyo hududida mitan so'zi bilan yaratilgan aholi punktlari nomlari ancha ko'p bo'lgan. A.L.Xromovning aniqlashicha, o'tmishda aholisi sug'd tilida so'zlashgan hududlarda ular keng tarqalgan. Sug'd tilida medan, metan so'zi bilan kat, kad (hozirgi kent) so'zlarining ma'nosi o'zaro yaqin bo'lgan. Ular turarjoy, uy, qo'rg'on, qishloq ma'nolarini anglatgan.

Bunday qo'shma nomlarning barchasida metan so'zi qo'shimcha sifatida nomning oxirida kelgan va uning turini bildirgan. Yuqorida tilga olingan barcha nomlar sug'd tilida yaratilgan: Rometan (roh – "yo'l"), Parmitan (par – yuqori, baland), Navmitan (nav – yangi) va hokazo.

Narshaxiyning yozishicha, Romitan – Buxorodan ham qadimiyroq shahar. Ba'zi manbalarda uni Buxoro deb ham ataganlar.

Arab geograflari va sayyohlari X asrda Buxoro vohasidagi 30 ga yaqin shaharlar qatorida Romitan nomini ham tilga olganlar. Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" (XVII asr) asarida yozishicha, Romitan Buxoro viloyatidagi 10 ta tumanning biri, o'rta asrlarda "Samjon" (Romitanning ikkinchi nomi) deb atalgan. Rus tadqiqotchisi V.V.Bartoldning yozishicha, hozirgi vaqtgacha o'z nomini saqlab kelgan Romitan Buxoro atrofidagi eng ajoyib shaharlardan biri bo'lgan.

ROMISH – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Forscha *romush* toponimi *"dam, dam olish"* ma'nosini anglatadi.

ROSTBADAN – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Yangihayot* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *Rostbadan* deb

o'zgartirilgan. Mahalliy aholi uni qishloqning qadimiy nomi deb ataydi, ammo uning ma'nosi to'g'risida birorta ham aniq ma'lumot bera olmaydi.

XIV asrda yozilgan tarixiy hujjat, ya'ni Sayfiddin Boxarziyning maqbarasi vaqfnomasida tilga olinadi.

Nom *Roshbadal* yoki *Roshibadal* ko'rinishida bo'lgan. Buxoro va Qorako'l vohalarining aksariyat hududlarida mahalliy aholi suv oqadigan chuqurlikning ikki chetini (ariq, kanal, zovur (Buxoro viloyatida zovur *zahkash* deb ataladi) bo'ylab cho'zilgan, aslida shularni tozalaganda chiqarib tashlangan loy, tuproq, qumloqdan hosil bo'lgan balandroq yerni) *rosh* deb atashadi (masalan, *ariqning roshi, kanalning roshi, zahkashning roshi* va hokazo).

Xorazm shevasida *rosh* so'zi hozirda ham faol qo'llanilib, u *ariqning cheti, qirg'og'i* ma'nosini ifodalaydi. Bu hududda *rosh* so'zi *"cheti", "yon tomoni", "labi"* ma'nolarida ishlatiladi. *Badal* so'zi esa *"chakalakzor", "butazor"* ma'nosini bildiradi. Demak, **Rostbadan** (aslida *Roshbadal*) – *"ariq chetidagi chakalakzor"* ma'nosidadir.

ROVISTON – qishloq. Namangan viloyatining Namangan shahridagi qishloq nomi. *Roviston* – "iste'mol qiladigan o'tsimon o'simlik o'sadigan joy" (*rov* – iste'mol qiladigan o'tsimon o'simlik, o'zbekcha – ravoch).

ROSHLIQ//ROSH OTIZ//ROSHYOP – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlaridagi hududlar nomi. *Rashlıq, Rash atıız, Rashyap* toponimlari tarkibidagi *"rash"* راش gidronim sifatida "suv inshootlarining qirg'og'i, sohili" degan ma'noni beradi. Bu so'zni voha folklorida ko'plab uchratish mumkin. Masalan:

Polvon bo'yi rash akan,
Yorim qalam qash akan (Qo'shiqdan).

Hozirgi fors tilida *rash* so'zi ombor, g'alla saqlash joyi hamda botanik termin sifatida qora qayin (*fagus*) ma'nolarini ifodalaydi[1] .

Ushbu so'zning etimologiyasini *reja, resh* – o'zak, negiz ma'nosiga bog'lash o'rinlidir. *Rash* mohiyatan suv inshootining ildizi, o'zanidir.

Demakki, *rash* lug'aviy jihatdan *o'zan, o'zak* degan ma'noni anglatgan deb xulosa chiqarishga asos bor (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

RUBAHO – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur toponim fors-tojikcha bo'lib, ***rubax*** – *"tulki"* ma'nosini bildiradi va ***-ho*** esa ko'plik shaklini ifodalab, *tulkilar* demakdir.

Tulkilarning uyasi ko'p bo'lib, tulki yashashi uchun qulay bo'lgan joylar shunday atalgan.

RUDI ZAR – qishloq. Buxorodagi qadimgi kanallardan biri. Arab geograflari asarlarida *Nahri Zar* sifatida qayd etilgan (Istaxri. БАГ, I, С. 307, 311) (qarang: ***Shoxrud***).

RUDNIK – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi

[1] Персидско-русский словарь. – М.: Том 1. 1983. – С. 241.

zamonaviy tipdagi qishloqlardan biri. Eron tillarida "***Rud***" so'zi *"katta kanal, ariq"* ma'nosini ifodalaydi. -ik qo'shimchasi esa kichraytirish affiksidir.

Markaziy Osiyo toponimiyasida ***Rud*** termini juda ko'plab uchraydi. Zarafshon daryosining bir nomi ***Rudi Masof*** bo'lgan. Qoradaryo bilan Norin daryosining orasi ***Miyon Rudon*** (ikki suv orasi) deyilgan. Zarafshon vodiysida ko'p tarqalgan ***Rudbor*** (daryo sohili, daryo etagi) termini ham shu so'z orqali hosil qilingan (S.Qorayev, Lug'at, 99).

Professor Z.Do'simovning fikriga ko'ra, ***Kanik*** – *"darvoza"* ma'nosida qo'llaniladi (Do'simov, 1977:119).

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, **Rudnik** nomi *"katta ariq yoqasidagi darvoza"* ma'nosini anglatadi. Umuman olganda ushbu holatda gidronimning oykonimga o'tish hodisasi sodir bo'lgan.

RUHOBOD – XIX asrda Samarqand shahrida Burhoniddin Sog'arjiy maqbarasi nomi bilan bog'liq holda tashkil etilgan mahalla (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. В. 46). XIV asrning 70-yillarida alloma, avliyo shayx Burhoniddin Sog'arjiy sharafiga qurilgan maqbara. ***Ruhobod*** esa ramziy nom hisoblanadi.

RO'BOHXONA – adir. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi adir nomi. Forscha *ro'boh* – tulki, tulkicha; *Ro'bohxona* – tulkilar ko'p joy.

RO'DA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Ro'da* – qipchoq-saroyliklarning unchalik katta bo'lmagan bo'linmalaridan biri (B. Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo shevalari, 3-b.; К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С.124).

RO'DAK – Toshkent shahrining sharqiy tomonidan oqib o'tadigan Solar kanalining eski nomi. XV-XVI asrlar vaqf hujjatlarida tilga olinadi (В.В.Бартольд. Сочинения, т. III. С. 219; О.Д.Чехович. Самаркандские документы. С. 292, 298). *Ro'dak* – "ariq" (*ro'd* – daryo) (qarang: ***Salar***).

RO'DASOY – daryo. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Forscha *ro'd* – daryo, ariq, kanal ma'nosini ifodalasa, o'zbekcha *soy* – ariq deganidir. Hammasidan ham ishonarlisi, soy ruda etnonimi bo'yicha nomlangan.

RO'DAXO'R – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Forscha *ro'da* – ichaklar, ichki, *ro'daxo'r* – ichaklarni sevuvchi (aholining nomlashi shunday bo'lgan).

RO'DBOR – Markaziy Osiyo, ayniqsa, Zarafshon vodiysida keng tarqalgan geografik termin. "Toza" ko'rinishida toponim hosil qiladi. *Ro'dbor* – daryo bo'yi, tez-tez "daryo" ma'nosida qo'llanilgan. (qarang: ***Jo'ybor***).

RO'YI BOZOR – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Forscha – *ro'yi bozor* "bozor maydoni" ma'nosini anglatadi.



SABALOQ – o'zbek qoraqalpoqlari qoramo'yin, kenagas-mang'it, qoraqursoq va boshqa bir necha urug'larga bo'linadi. Mazkur urug' nomlarining ko'pchiligi qishloq nomlari sifatida etnotoponimlar tarkibidan o'rin olgan.

Sabaloq qishlog'i Bulung'ur tumanidagi Qoramo'yin qishloq kengashi hududida joylashgan. Qoramo'yinlarning bir tarmog'i sabaloq deb ataladi.

Etnograf olim T.A.Jdanko fikricha, "saba" so'zi "qimiz solinadigan mesh" ma'nosidadir. Sabaloq nomi bilan yuritiladigan ikkinchi bir qishloq Bulung'ur tumanining Tungotar qishloq kengashi hududida uchraydi. Shuningdek, Jomboy tumanida ham Qo'rg'onsabaloq, Toshloqsabaloq, Sabaloq nomli qishloqlar bor.

SABIYON – qishloq. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Aslida, fors tiliga xos bo'lgan "***sabi, saby***" so'zi ikki xil ma'noni beradi. Uning arabcha sin (س) va sod (ص) harflari bilan yoziladigan shakllari mavjud. Sin bilan (سبی) (sabi) shaklida yozilsa, "*asir, tutqun*" ma'nosini ifodalaydi. Sod bilan (صبی) (sabi) ko'rinishida bo'lsa, "*go'dak, bola*" ma'nosiga ega bo'ladi.

Demak, ***Sabiyon*** toponimi "*asirlar, tutqunlar yashagan qishloq yoki bolalar qishlog'i*" ma'nolaridan birini anglatadi.

SABOT – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq nomi. Bu qishloqning nomi tarixiy bo'lib, katta savdo yo'li ustida joylashgan. Bu nom arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy va Muqaddasiy asarlarida tilga olinadi. "Sabot" – arabcha nom bo'lib, "yom", "bekat", "karvonsaroy" demakdir.

SABZAVOR//SEBZOR – XV asrda viloyat va shahar. Hozir shu nomdagi shahar, ma'muriy-hududiy jihatdan Eronning Xuroson ostoni (viloyati) tarkibida, viloyatning shimoliy qismida joylashgan.

"Boburnoma"da 911/1505–1506-yil voqealari bayonida eslatilgan. Unda Sulton Husayn Mirzo bilan o'g'illari, ayniqsa, Badiuzzamon o'rtasida yuzaga kelgan nizolar Sabzavorni ham qamrab olgani aytilgan.

Toshkent shahridagi Sebzor mahallasi ham balki shu tarixiy nom bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

SADDA – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq nomi. Arabcha *sadd (a)* toponimi baryer, devor ma'nolarini ifodalaydi.

SADQOQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. *Sadqoq* – qadimgi toponim: Markaziy Osiyoda qadimda tabib, ayollar tug'ilishi bilan shug'ullanuvchilarga sadqoqchi deb atashgan ("Домусульманские верования и обряды". –М., 1975. С. 74–75). Keyinchalik *-chi* qo'shimchasi tushib qolgan.

SAFARNIYOZKALONTAR – qishloq, Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. *Kalontar* yoki *bobo* – ko'plab hunarmandlar mahallalaridagi saylanadigan oqsoqol, qabila boshlig'i. *Safarniyoz* – atoqli ot, ism.

SAFIROBOD – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. Forscha *safir* – elchi; *Safirobod* – elchi tomonidan asos solingan qishloq.

SAGRABOT – qishloq. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi qishloq nomi. *Sang* – tosh, *sangrabot* – toshli rabot ma'nosini anglatadi (qarang: ***Rabot***).

SAINXIDREYLI – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi ***qishloq*** nomi. Aslida, ***Xidreyli*** xidir eli so'zining dialektal varianti bo'lib, – u turkman urug'I sanaladi. Sain esa Botuxonning laqabi bo'lib, mo'g'ul tilida "*homiy*" degan ma'noni bildiradi. Yana shu tumanda ***Sainqoravul*** degan qishloq ham bor.

Demak, mazkur toponimning vujudga kelishiga etnonim asos bo'lgan.

SAKBONLAR – Xiva xonligidagi qishloq (masjid) (M.Yo'ldoshev. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. – T., 1959). Forscha *sag* (sak) – it, *sagbon* – itboqar, *-lar* – ko'plik qo'shimchasi.

Bu olovga sig'inish davriga oid toponim bo'lishi mumkin. Ushbu davrda o'liklarning jasadlari yeyish uchun itlarga tashlangan va tozalangan suyaklar ossuariylarga – suyakdonlarga joylashtirilgan.

Akademik A.R.Muhamadjonovning ta'kidlashicha, *sakbon (sukbon)* "bozor qarovchisi" degan ma'noga ega (arab).

SAKSONKAPA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz hamda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Sakson + kapa* – uycha, kulba.

SAKSONCHEL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Aslida, "***Chel***" so'zi Xorazm shevasiga xos so'z bo'lib, mamlakatimizning ayrim shevalarida: "*ekin maydonlari orasidagi chegara, uvat*"-ni ifodalaydi. Yuqoridagilarga asosan, "***Saksonchel***" nomi "*ko'p sonli ekin maydon, dalalarga ega qishloq*" ma'nosini anglatadi.

SAKU – qishloq. Andijon viloyatining Asaka hamda Namangan viloyati Uychi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Ushbu joy nomlarining kelib chiqishi qadimiyroqdir. Seku – o'tirish yoki yotish uchun joy (Древнетюркский

словарь. –Л., 1969. С. 494), qirg'iz tilida esa *seki* – tog' etaklaridagi kichik tekis qirra. Mo'g'ullar *sagu – degere sagu* atamalarini "yirik mulkdor bo'lib o'tirish" degan ma'noda qo'llashgan. Aynan ushbu so'z buyuk xonning taxtga o'tirishi va unda qolishini ham anglatgan (Б.Я.Владимирцов. Общественный строй монголов. С. 125). Ushbu qishloq nomining kelib chiqishini biz aynan shu oxirgi ma'no bilan bog'liq, deb hisoblaymiz.

SALOR – kanal. Toshkent shahri. Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida (XV asr) Rudak – "kichik kanal" nomi bilan uchraydi (О.Д.Чехович. Самаркандские документы. –С. 292, 298).

Demak, Salor – lashkarboshi, oqsoqol, boshchi, sipohsalor – bosh qo'mondon.

SALOR ARIG'I – Bo'zsuv arig'idan boshlanib, Chirchiq daryosiga quyiladi, uzunligi 65 km. Ikki qismdan iborat: bir qismi Toshkent shahri hududida – Yunusobod, Mirzo Ulug'bek, Hamza, Mirobod, Yakkasaroy va Sergeli tumanlaridan, ikkinchi qismi Toshkent viloyati Zangiota, Yangiyo'l tumanlaridan oqib o'tadi.

Salor qadimiy ariq, qazilgan vaqti, arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, miloddan avvalgi birinchi ming yillikka to'g'ri keladi. Ariq sohili bo'ylab olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida Qovunchitepa, Niyozboshitepa, Ko'gaytepa va boshqa joylarda mil. avv. V–I asrlarga oid qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari topilgan.

IV–XI asrlarda Salor bo'yida Toshkentning qadimgi markazi – Madinat ash-Shosh, shuningdek, Danfig'ankat, Shuturkat va boshqa aholi maskanlari joylashgan.

XIII asrda Markaziy Osiyoga bostirib kirgan mo'g'ullar kanalning ko'p qismini buzib yuborganlar. Hozirgi vaqtda undan suv oluvchi ariqlar ichida eng kattasi Polvon ariqdir. "Salor" gidronimi aslida harbiy-tarixiy atamadir.

Arabchada "salor" – "sipoh", "sarkarda", "bosh qo'mondon", "boshliq" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, uning "podshoh" degan ma'nosi ham bor[1]. Mazkur gidronimning paydo bo'lishi haqida bir nechta fikrlar mavjud: Salor – ushbu ariqni sipohsalor, ya'ni bosh qo'mondon qazdirganini bildiradi. Muhammad Solih keltirgan rivoyatda Salor arig'i Kaykovus va podshoh Salor zamonlarida qazdirilgan ariqning nomi va u (XIX asr 2-yarmida) shahardan chorak farsang (taxm. 1,5 km.) janubdan oqib o'tgan.

Demak, "Salor" qadimgi podshohning ismi bo'lgan. Rivoyatdan ariqning nomi podshoh Salor ismidan olingan, deb taxmin qilish mumkin. Boshqa fikrga ko'ra, "salor" – bu etnotoponim, qadimgi turkiy qabila nomidan olin-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. Ikki tomli.– M.: Rus tili, 1981. T.2. S–H. – B.67.

gan[1]. Xitoy olimlarining tadqiqotlari natijasiga qaraganda, salorlar o'g'uzlar avlodi bo'lib, milodiy I–IV asrlarda "Turo" nomi bilan atalgan 44 turkiy qabilaning biri hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qadimgi solur (silg'ur) o'g'uzlar tarkibiga kirgan bir qabilaning nomidir, deb ko'rsatilgan. Ushbu fikr "Islom" qomusida ham uchraydi. Qomusda, shuningdek, solur atamasi O'g'uzxonning olti o'g'lidan birining ismi bilan bog'liq bo'lganligi va bu atama bilan atalgan qabila qadimgi davrlarda Sayhun daryosi (Sirdaryo), Issiqko'l atrofida va Xurosonda yashaganligi, keyingi davrlarda ular bo'linib, har tarafga tarqalganligi qayd etilgan. Xitoy yilnomalarida salorlar XIV asrdan tilga olina boshlangan[2].

Yirik turkshunos olim E.R.Tenishev salorlar Tangritog' tomonidan g'arbga ko'chganda, ularning bir qismi Samarqandda o'troqlashib qolganligi va yana bir qismi Turkmaniston hududiga borib joylashib, turkman millati tarkibiga kirganligini ko'rsatadi. Salor qabilalari kelib o'troqlashgan, ba'zi hududlar keyinchalik ularning nomi bilan atala boshlagan.

Rus tilida "salor" gidronimi "salar" shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. XX asr boshlarida Toshkent shahrining sharqiy chegarasi Salor arig'ining o'ng qirg'og'i bo'ylab o'tgan va uning suvidan Toshkentning Yangi shahar qismi aholisi keng foydalangan. Salorning kichik tarmoqlari Parkent, Asaka yo'li, Namangan, Solar, Qo'yliq, Mahram shohko'chalaridan o'tgan.

Shuningdek, ariqning o'ng sohilida shaharning ot bozori barpo etilgan. Kanalning chap sohili bo'ylab esa asosan harbiy bo'linma, zavod, dala hovlilar joylashgan. Salor arig'i mazkur yerlar aholisini suv bilan ta'minlashda, dalalarni sug'orishda, zavodlarning faoliyat yuritishida muhim suv manbayi bo'lgan.

SALLOX – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Sallox – jangchi, ya'ni qoramolni so'yish va terisidan ajratish bo'yicha mutaxassisga salloh deyiladi.

SALLOXXONA – qassobxona. Salloxxona – Buxoro shahri darvozalaridan birining nomi.

SALTIR – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqlar tarkibidagi qipchoq qabilalaridan biri Saltir deb nomlangan (Т.А.Жданко. Каракалпаки Хорезмского оазиса, рис. 3, Таблица родоплеменных делений).

SALUR – qishloq, Buxoro viloyati Qorako'l tumani. Solur (Salur) – qadimgi o'g'uz-turkman qabilasi. Buxoro viloyatida ko'plab turkmanlar mavjud. Salur etnonimi Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston, Turkiya, Xitoyda ham uchraydi (З.Б.Мухамедова. Исследования по истории туркменского языка XI–XV вв. – Ашхабад, 1973. С.23).

---

[1] Xo'jayev A. Chinga borib qolgan samarqandlik solorlar // Moziydan sado. – T., 2003. – № 3–4. – B. 33–36.

[2] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T., 2004. T. 7. "Parchin-Soliq". B.450.

SAMANDARAK – Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi qishloq. O'zbek tilida och malla, somon rangli ot saman ot deb ataladi. Saman ot topilgan qishloq deb izohlanishi ilmiy asosga ega emas.

SAMARQAND – shahar, respublika tarkibidagi viloyat va shahar nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Antik davrda Marakanda nomi bilan atalgan.

Shahar nomining kelib chiqishi to'g'risida ko'plab taxminlar va afsonalar mavjud. Hatto Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" singari nufuzli manbada ushbu nomning etimologiyasiga oid bir fikr ham mavjud. Samarqand Markaziy Osiyo va butun dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Samarqand toponimining kelib chiqishi aniqlanmagan. Ba'zilar shahar nomining birinchi qismi, Samar, atoqli ot deb hisoblaydilar. Biroq tarixda bunday nom ma'lum emas. Sug'd tilidagi Kent so'zi "shahar", "qishloq" degan ma'noni anglatadi.

Samarqand tarixini biluvchilardan biri I.I.Umnyakov Marakanda – sug'dcha Smarakans nomining yunoncha shakli, degan fikrni ilgari surdi.

Shahar nomi turli arab va fors manbalarida turli xil variantlarda uchraydi: Samarian, Saramanka, Sarakanna, Sanmangan, Somakiyan, Sumron, Samaran, Simroyat, Shamirkent, Semizkent. Chingizxon haqidagi qadimiy mo'g'ullar hikoyasi – "Samimiyat afsonasi"da u Samisgen shaklida, V asrdagi Xitoy manbalarida Sivangin va boshqa ko'rinishlarda uchraydi.

Samarqand – Marakand shahri makedoniyalik Aleksandr davrida Sug'd davlatining poytaxti bo'lgan. *Samar* bu davlat hukmdorining qizi bo'lgan va *kand* so'zi *"qishloq, shahar"* degan ma'nolarga ega; shuning uchun ham **Samarqand** deb nomlanadi (Shayx Sulaymon Buxoriy "Lug'ati chag'atay va turki usmoni").

Shunday qilib, Samarqand nomining kelib chiqishi aniq belgilanmagan. Ammo, shu bilan birga, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Bobur, fors olimi Mirxond (XV asr), Temur saroyiga kelgan (XV asr) Rui Gonsales de Klavixo shahar nomini quyidagi turkiy so'zlardan olingan deb hisoblashadi: *semiz va kent* – "yog'li", "boy shahar". Samarqand haqida zikr qilingan dastlabki manbalar miloddan avvalgi I asrga oid (Strabonning "Geografiyasi"), ammo qadimiy mualliflar Sug'd poytaxtining nomlarini keltirgan voqealar, Buyuk Iskandar (miloddan avvalgi 329–327) Markaziy Osiyoga bostirib kirgan davrni tasvirlaydi.

Buyuk fors tarixchisi Fazlulloh Rashididdin (1247–1318) ushbu manzilgohlardan biri haqida shunday yozadi: "Boshqa yo'l Chuchjou shahriga olib boradi, u yerga daryo sohili bo'ylab boriladi; u yerda ko'p uzum va mevalar bor. Ushbu shaharcha yaqinida yana Simali degan joy bor; ushbu shahar aholisining aksariyati samarqandliklardir, ular Samarqandning odatiga ko'ra ko'plab bog'lar barpo qilishgan" (Рашид ад-дин. Сборник

летописей, т. I, кн. 1. –М. – Л., 1952. С. 214). **Simali** nomi nimani anglatishi bizga ma'lum emas; balki bu Samarqand nomining xitoycha aytilishidir (Samarqand hududi xitoy manbalarida Kan nomi bilan ham mashhur). Ammo ushbu nom ostida boshqa joylar ma'lum. Fors tarixchisi Juvayniy Xon Guyukni tasvirlar ekan, Beshbaliq shahridan (Jung'oriyada) 7 kunlik shimol tomon yo'lda joylashgan **Samarqand** shahrini esga olib o'tadi.

Bu xabar, deya yozadi V.V.Bartold, G'arbiy Mo'g'ulistonda Sug'diy mustamlakasi mavjudligini ko'rsatadi. XX asrning 40-yillariga qadar Qozog'iston Respublikasining Qarag'anda viloyatidagi Temirtau shahri **Samarqand** deb atalgan; balki bu yer ham Sug'diy mustamlakalaridan biri bo'lgandir; Nura daryosidagi ushbu shahardan uzoq bo'lmagan joyda **Samarqand suv ombori** qurildi. "Hudud ul-olam" (25-b.) nomli anonim geografik asarda Movarounnahrning janubi-sharqiy burchagida, Badaxshondan Vaxsh orqali Tibetga boradigan yo'lda X asrda **Samarqandak** nomli katta manzilgoh – "kichik Samarqand" esga olinadi. Samarqand nomi boshqa joylarda ham uchragan.

Zahiriddin Boburning yozishicha, amakisi Ulug'bek Mirzo Afg'onistondagi bitta qishloqni ham Samarqand deb atagan. O'zbekiston xaritasining o'zida "Samarqand" nomi bir necha bor takrorlangan. Ulardan ba'zilari bir necha asrlar oldin yuzaga kelgan, ba'zilari esa 40–50 yil oldin yangi yerlarni o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan.

Biz ularni bu yerda sanab o'tamiz (ba'zi joylar eski ma'muriy-hududiy bo'linmada ko'rsatilgan): Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi **Bog'i Samarqand** qishlog'i; Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi **Samargand** qishlog'i, Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi **Samarqand Makay** qishlog'i; Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi 2 ta qishloqqa, Chinoz tumanidagi 2 ta qishloqqa **Samarqand** nomi berilgan; Piskent tumanida **Samarqandovul** va **Samarqandqishloq** joylari mavjud; Samarqand viloyatida **Samarqandariq** va **Samarqandqo'ton** hududiy birliklar mavjud; Turkiston tizmasining bir cho'qqisi ham **Samarqand** deb nomlangan.

Bundan tashqari, Buxoro, Toshkent, Nasaf (Qarshi) kabi shaharlarda azaldan Samarqand darvozalari mavjud bo'lgan. Turli manbalarda shahar turli nomlar bilan atalgan. Shahar nomi zamonaviyroq shaklda (Smarakans) dastlab yozma manbalarda Mug' tog'idan topilgan Sug'd manbalarida (VIII asr boshlari) uchraydi.

Arab va fors tiliga oid keyingi barcha yozma manbalarda shahar nomi barqaror shaklga (**Samarqand**) ega bo'lgan. "Samarqand" nomi nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Afg'oniston, Mo'g'uliston, Qozog'istonda, hatto Sharqiy Turkistonda ham ko'plab Sug'diy mustamlakalarning manzilgohlariga berilgan. Shunisi aniqki,

shahar nomi sug'd tiliga oid. Bunda *kand* so'zi "aholi yashash punkti" degan ma'noga ega bo'lishiga qaramay, birinchi komponentning (Samar) etimologiyasi hozirgi kunga kelib ham asoslanmagan.

SAMARQAND DARVOZASI – Beshyog'och dahasining g'arbiy qismida. "Samarqand darvoza" toponimi Toshkent shahrining xalqaro aloqalar tarixi bilan bog'liq. Sababi, bu darvoza orqali Toshkentdan Samarqandga olib boruvchi yo'l o'tgan.

Mazkur darvoza nisbatan kechroq, taxminan XVII asrda qurilgan. Zero, uning nomi Muhammad Solihning XIV–XV asrlardagi Toshkent darvozalari ro'yxatida keltirilmagan. Biroq, keyingi davrga oid manbalarda (Miller, A.K.Geyns, N.A.Mayev, A.I.Dobrosmislov ma'lumotlari, Toshkentning 1890-yilgi xaritasi) Samarqand darvoza nomi qayd etilgan.

Hozirgi kunda ushbu darvozaning o'rnida ramziy darvoza o'rnatilgan bo'lib, bu yerda "Samarqand darvoza"si nomli ko'cha, mahalla va "Samarqand" oshxonasi mavjud.

SAMARCHIQ – Toshkent viloyatidagi bir necha qishloq va dovonning o'rta asrlarga oid nomi. *Samarchiq* – o'zbek qabilalarining kichik tarkibiy qismi.

SAMGAROVUL – qishloq. Toshkent viloyati Bo'ka tumanida shu nomda 2 ta qishloq bor. Tojikistonning Asht tumanidagi Samg'ap qishlog'idan ko'chib kelgan kishilar obod qilgan qishloqlar.

SANDALLI SOY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. "***Sandal***" so'zining birinchi ma'nosi: "***Sandal***" so'zi qadimgi davrlardan buyon, hafaqat mamlakatimizda, balki O'rta Osiyo davlatlari, shuningdek, Afg'oniston va Eron davlatlarida isitish vositasi sanalib kelingan. Uning ikkinchi ma'nosi: "***Sandal***" – "*xushbo'y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko'p yillik daraxt*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 438].

Gidronimdagi ***-li*** topoformanti turkiy tillarga xos bo'lib, "otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi" [O'TIL. 5, 583-584].

Uning ikkinchi komponenti "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" demakdir [O'TIL. 3, 545].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "***Sandalli soy***" gidronimini "Sandalga o'xshash shakldagi soy" ma'nosida izohlash to'g'ri bo'ladi.

SANDIQLI – cho'l. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. *Sandiqli* – turkman urug'laridan birining nomi (Инструкция по русской передаче географических названий Туркменской ССР. –М., 1971. С. 35).

SANGAR – mahalla. Xorazm viloyatining Xiva shahridagi qishloq nomi. *Sang* – tosh, tarozi toshi, *sangar* – tosh

yo'nuvchi, tosh taroshlovchi ma'nosini bildiradi. Bu joyda tosh taroshlovchi ustalar yashagan. Inqilobgacha va undan so'nggi yillarda ham tosh bilan ishlaydigan tosh taroshlovchilar Sulton Uvays tog'idan katta-katta xarsang toshlarni olib kelib, ustunlar, un chiqaruvchi tegirmonlar, naqqoshlik mahsulotlari va shunga o'xshash har xil asbob-uskunalar yasaganlar. Mahalla 1989-yil 25-oktabrda tashkil qilingan.

SANGARDAK – qadimiy qishloq, Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi ikkita daryo ham Sangardak deb nomlanadi. Arab geografi Ibn Havqal (X asr) Kesh viloyatidagi 16 ta hududni sanab o'tgan, shu jumladan, ichki Sangardak va tashqi Sangardak. Sangardak qishlog'i Kesh viloyati poytaxti Saganpan shahridan 1 kunlik masofada, Sangardak daryosi yaqinida joylashgan (Denov) (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 124, 189). *Sang* – tosh, tog'; *gard* – qal'a; fors-tojik tilida *sangar* – istehkom, barrikada (Таджикско-русский словарь. –М., 1954. С. 340); -ak – kichraytirish affiksi.

SANGBUR – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Forscha *sangbur* – toshtarosh, tosh kesuvchi, tegirmon toshi ma'nosini anglatadi.

SANGISTON – qishloq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Forschadan o'zlashgan **Sanguiston** toponimi *toshloq yerlar, toshli tog'lar, baland tog'lar* kabi ma'nolarni anglatadi.

SANGISURX – dovon, Buxoro viloyatidagi dovon nomi. Forscha *sang* – tosh, *surx* – qizil, ya'ni *qizil qoya* ma'nosini anglatadi.

SANGLOH – g'or. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi g'or nomi. *Sanglah* – tog' daryosining toshli o'zani. O'zbekcha *toshloq* va forscha *sangloh* (sangloq) kelib chiqishi va ma'nosi jihatidan bir xil; ammo **sangloh** deganda, odatda, *dumaloq toshlarga boy daryo* tushuniladi.

O'zbekistonning turli joylarida ushbu atama fonetik qonuniyatlar natijasida quyidagi joy nomlarini shakllantiradi: **Sanglox, Sangalak, Sanganak, Saganak.**

SANGRIZA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Forscha *sangreza* – shag'al degan ma'noni anglatadi.

SANGROBOD – qishloq. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi eski qishloq nomi. **"Sang"** – forschada *tosh*, **robod** – qal'a ma'nosida.

Demak, **"Sangrobod"** – *atrofi tosh devorlar bilan o'rab olingan makon.* Shundan ma'lum bo'ladiki, ushbu qishloq qadimiy tarixga ega.

SANGUZAR//SANGGUZAR – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur toponim "***Sang***" va "***guzar***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

Apellyativning birinchi qismi "***Sang***" so'zi forscha so'z bo'lib, "*tosh*" semasini ifodalaydi (O'TIL. 3, 438).Uning ikkinchi qismi "***Guzar***"

so'zi ham forscha bo'lib, "*qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do'konlari bo'lgan obod, gavjum joy*" ma'nosiga ega [O'TIL. 1, 516].

Shunday ekan, "***Sangguzar***" nomi "*toshli joyda barpo bo'lgan qishloq*" ma'nosini anglatadi.

SANGZOR – daryo va vodiy, Jizzax viloyatining Baxmal va G'allaorol tumanlari. Ayrim hollarda ruscha variantini Sanzar ko'rinishida xato yozishadi, bu esa uning talaffuz qilinishida xatolikka olib keladi. Forscha *sangzor* yoki *sangusor* – "Toshli joy", "Toshga to'la joy" ma'nolarini ifodalaydi.

SANNAL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi joy nomi. Bir o'zakli mikrooykonimdir. "***Sannal***" so'zining ikkinchi bo'g'inidagi n tovushi, aslida, d bo'lishligi kerak. Bu mikrotoponim ham mahalliy aholi og'zaki nutqiga moslashuv jarayoni bo'lgan. "***Sandal***" – "*xushbo'y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko'p yillik daraxt*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 438]. Bu maskanni fitomikrooykonim deb qarashimiz mumkin.

SANCHGIL – qishloq, Surxondaryo viloyati Boysun tumani. Qo'ng'irot urug'ining tarkibiy qismlaridan biri turli joylarda turlicha nomlanadi: chanchiqli (K.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. 81-bet), chanchiqli (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 90–94), sanchkuli (И.Магидович. Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1, ч. 1924. – С. 181.), sanchiqli, sanchgil va boshqalar. Bularning barchasi bir xil etnonimning fonetik variantlari.

SANCHIQO'L – qishloq. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomi. Bu atamaning asl shakli Sanchqo'ldir. Ushbu so'zning birinchi qismi sanch bo'lib, tarixan ikki ma'noda qo'llangan. Birinchidan, *sanchmoq* fe'lining o'zagi, ikkinchidan, tog' qiyasidan, o'rdan pastga tushiladigan nishab yer.

Sanch so'zi ana shunday ikki ma'noga egaligi to'g'risida Fathalixonning "Kitobi lug'ati atrokiya" va V.V.Radlovning "Turkiy tillar lug'ati tajribasi" (IV tom, 309-bet) nomli asarlarida ma'lumot beriladi.

Demak, Sanchqo'l degan so'z tarkibidagi sanch so'zi o'zining ikkinchi ma'nosi bilan olingan bo'lib, **Sanchqo'l** – *tog' orasida yuqoridan pastga qarab ketgan nishab qo'l, soy* degan ma'noni anglatadi. Xuddi shu ma'nodagi Sanchqo'l degan nom Urgut tumanining tog' zonasidagi bir qishloqning ham nomi hisoblanadi.

Qizig'i shundaki, Urgut va Pastdarg'om tumanlarining tog' zonasida emas, pasttekisliklarida joylashgan yana ikkita Sanchqo'l degan qishloq bor. Bu qishloqlar tog' yo'llarida joylashmagan bo'lsalar-da, baribir shunday atalishining sababi shuki, pastdagi Sanchqo'llarning tub aholisi bir vaqtlar tog' orasidagi qishloqlardan ko'chib kelib, yangi manzilga ham o'zlari tug'ilib o'sgan joy nomini berganlar, deydi olim.

Lekin bu o'rinda olimning fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki "San-

chiqul" qatag'on, saroy va boshqa o'zbek qabilalari tarkibiga kiruvchi urug'lardan biri sifatida mashhur. Demak, mazkur qishloq nomlari etnotoponimlardir.

SAODAKON – Buxoro shahridagi daha. *Saodakon* – "baxtlilar", ehtimol, urug' nomidir (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 253).

SAODAT – Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi mahallalardan biri. Arab tilida "baxt, rohat, tole" degan ma'noni bildiruvchi bu so'zdan toponim yasalgan. Kishi ismlaridan Saodatli (rizqi mo'l, badavlat), Sattor (himoya qiluvchi, afv etuvchi), Sobir (mahkam, chidamli, sabr qiluvchi), Sodiq (sadoqatli, vafodor, halol), Soli (haqqoniy, vijdonli), Sulton (davlat-boshi hokim), Sunbula (bir xil yulduzlar turkumi) kabilardan ham viloyatda qator joy nomlari vujudga kelgan.

SAQOXONA – Buxorodagi maktablar oldidagi binoda suvga to'ldirilgan qumg'on bo'lib, uning suvi har kuni yangilanib turgan. Qumg'on yonida qovoqdan yasalgan uzun dastali sarxum bo'lgan. Mazkur suv chanqaganlar uchun xizmat qilgan (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. –М., 1976. С. 178).

SAQOCHI – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Saqo (sag'a) – Xorazmda kanalning boshi (arabcha *saqa* – sug'orish), saqochi – kanal boshlanishi (saqosi)da olib boriladigan ishlarga boshchilik qiluvchi usta.

SARAPOYON – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Ayrim "ijodkorlar" mazkur nomni *"sara"* (yaxshi) va *"poyon"* (gulzor) so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan, deb ham talqin qilishadi, **poyon** aslida *gulzor* emas, *oxiri* degan ma'noni ifodalaydi.

Demak, Sarapoyon Xonqa tumanidagi serunum va serfayz qishloqlardan biri hisoblanib, u forsiy-turkiy termin bo'lib, uch qismdan iborat. Sar-ob-yon, ya'ni sar – bosh, ob – suv, yon – makon ma'nolarini bildirib, suv-kanal bo'ylariga joylashgan hududlarga aytilgan.

SARAPOYANLI//SARRAP//SARITAM – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi (hozirda mavjud emas). *Sar* سر komponenti. Mazkur komponent *Sarapayanlы, Sarrap, Saritam* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Mahalliy xalq bu toponimlarni *sari (sariq)* so'zi bilan izohlaydi.

V.I.Savinaning yozishicha, *sar* Eron toponimlari tarkibida ham uchraydi va "biror narsaning boshlanish joyidagi" obyektni bildiradi. *Sar* so'zi pahlaviy tilida *sar*, "Avesto"da *asar* (boshsiz).

Demak, T.D.Chxeidze to'g'ri ta'kidlaganidek, *-sar* suffiksi "bosh" ma'nosidagi avestoviy *sara*ga aloqadordir. Olimning qayd etishicha, mazkur komponent "Avesto"da "bosh; asosiy" ma'nolari bilan ayrim so'zlarning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida uchraydi[1].

[1] Чхеидзе Т.Д. Именное словообразование в персидском языке. – Тбилиси. 1969. - С.31.

Qadimgi hind tilida *qiras, sar;* armaniy *sar* (uch, qir, biror narsaning uchi); kurd, baluj, surxaida *sar;* astiy *sar;* vaxiy (voxon), sanglijiy, munjiy, gilakiy, farizandiy, arniy, natanziy kabi eroniy tillarda ham shu shaklga ega.

O'zbek tilida *bosh* so'zi ega bo'lgan ko'chma ma'nolarning deyarli barchasi forscha *sar* so'zida bor[1]. Jumladan, o'zbek tilida polisemiya masalasini tadqiq qilgan T.Aliqulov *bosh* so'zining turli ma'no qirralarini tahlil qiladi[2].

Bu masala B.Jo'rayev tomonidan ham atroflicha tahlil qilingan bo'lib, unda "bosh" so'zining 19 xil ma'nosi tahlil qilingan[3].

Bugungi o'zbek adabiy tilida *sar* komponentli so'zlar anchani tashkil qiladi. B.Bafoyev Alisher Navoiy tilida qo'llangan *sar* komponentli so'zlarni maxsus tadqiq qilgan[4].

A.L.Xromovning kuzatishiga ko'ra, bu komponent *sar* (yuqori qism) apellyativi bilan aloqador. U *sar* so'ziga *-a* suffiksining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan[5]. *Sar* komponenti Xorazm vohasi toponimiyasida ham xuddi shu ma'noga ega.

Shunday ekan, ushbu komponent ishtirokida hosil qilingan *Sarapayan* toponimini "sahroning, qumning boshlanishidagi qishloq" deb izohlash mumkin (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

SARASKAN – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Professor Z.Do'simovning "***Saribag'ish***" toponimi *"cho'qqi oldidagi qishloq"*ni anglatishidan kelib chiqsak (Do'simov, 1977, 22), ushbu toponimning birinchi qismidagi "***sari***" old ma'nosini ifoda etadi. Nomning ikkinchi qismi –***kan***//"*kent*" leksemasidagi **t** tovushi tushishi, **e** tovushining **a** tovushiga o'zgarishi hosilasi. Natijada *"old tomondagi yashash makoni, qishloq"* ma'nosi yuzaga keladi.

SARBOZOR – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol hamda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Forscha *sari bozor* – bozorning boshi, bozorning birinchi qatorlari, bozorga kiraverishdagi joy, bozor maydoni (o'zbekcha paralleli – *Bozorboshi*).

SARBOZXONA – Qashqadaryo viloyatining Kitob va Qarshi shaharlaridagi joy. Forscha *sarboz* – "boshini, hayotini xavf ostiga qo'yuvchi odam"

---

[1] Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983. – С.26-28.

[2] Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, , 1966.

[3] Jo'rayev B. "Bosh" so'zining ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – № 3. -B. 46-49.

[4] Bafoyev B. Alisher Navoiy asarlarida sar komponentli so'zlar // Adabiy meros. 1-son. 1968.

[5] Хромов А.Л. Историко-лингвистическое исследование Ягноба и Верхнего Зарафшана: Автореф. дисс ... док. фило. наук. –Душанбе, 1970. -С. 51.

– Buxoro xonligidagi piyoda askar, *sarbozxona* – sarbozlar binosi.

SARDOBA – tuman. Sirdaryo viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1964-yilda Ilichevsk tumani nomi bilan tuzilgan. 1992-yilda Sharof Rashidov tumani deb nomlandi. 2004-yilda Sardoba tumani deb o'zgartirildi.

"Sardoba" – tojikcha "sard" – "sovuq", "ob" – "suv" so'zlaridan hamda ot yasovchi *-a* qo'shimchasidan tarkib topgan bo'lib, "muzdek suv saqlanadigan joy" degan ma'noni bildiradi.

"Sardoba" asli suv inshooti nomi. Oqar suvi bo'lmagan joylarda usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagi va devorlari tosh, g'ishtdan terilgan, suv kiradigan teshigi, ustida mo'risi va suvidan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan maxsus joyi bo'lgan qadimiy suv havzasi – Sardoba deb yuritilgan.

Bu nomdan ko'plab joy nomlari kelib chiqqan: **Sardoba** (ko'p bora uchraydi), **Sardoba Malik, Sardoba Raimbek, Katta Sardoba, Yakka Sardoba, Yusuf Sardoba, Sardoba-o'g'iz** va shu kabilar. Usti gumbazsimon bo'lgani uchun ba'zan *gumbaz* deb ham yuritiladi. Sardoba "sovuq suv" degan ma'noga ega (М.Е.Массон. Проблема изучения систерн-сардоба. –Т., 1935).

Shuningdek, Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida ham Sardoba nomli qishloq bor.

SARFAROZ – dovon, Qashqadaryo viloyatidagi dovon nomi. Forscha *sarfaroz – sarafroz – yuksak, baland, buyuk, ulug'* ma'nolarini anglatadi.

SARIBOZOR – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Kogon tumanlaridagi ***qishloqlar*** nomi. Toponim uch qismdan iborat bo'lib, u ***sar+i+bozor*** ko'rinishida hosil qilingan. Bozorning yuqori kunchiqar yoki kunorqa (shimol) tomonida bo'lganligi uchun shu nom bilan atalgan[1].

SARIBOSH – qishloq. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. *Saribosh* "sariq boshli" – qabila, urug' nomi: masalan, Zarafshon vodiysidagi qipchoq o'zbek urug'laridan biri *sarivosh* deb nomlangan (qipchoqlar "b" va "p" o'rniga ko'pincha "v" tovushini ishlatishgan, masalan, *tepa* emas, *teva*.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud. Saribosh ("Sariq boshli") – qatag'on va tog'chi qabilalarining bir qismi (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 84, 197, 199).

SARIBULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi yerosti sizot suvlari boshlanishi joyidagi buloq nomi. "**Sar**" – *bosh* so'zi ishtirokida yasalgan nom. Buloqboshi ma'nosida.

SARIGUZAR – qishloq. Buxoro viloyatining Buxopo tumanidagi ***qishloq*** nomi. Ushbu toponim fors-tojikcha bo'lib u uch qismdan iborat: ***sar+i+guzar.Guzar*** so'zi aslida *"tog' yo'li, daryodan kechib o'tiladigan joy*

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T.: Muharrir, 2009. –B.223.

(kechik)" ma'nosida qo'llangan[1]. Tog' va u bilan bog'liq nomlarda ***guzar*** so'zi ko'proq ishlatiladi. Ayrim hududlarda mahalla, ko'chaga nisbatan ham ***guzar*** so'zi qo'llanadi. Lug'atda *guzar*ning "qishloq yoki mahallalarda, odatda, ko'chalarning kesishgan yerda, chorrahalarda joylashgan, choyxonalari, qassob, baqqollik kabi do'konlari bo'lgan obod, gavjum va serqatnov joy, yo'l"; Buxoro amirligida mahalla[2] kabi ma'nolari sharhlangan.

Demak, ***Sariguzar*** – *"o'tish joyining boshlanishi"* ma'nosini anglatadi.

SARIJO'GA – qishloq. Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanida qishloq va Farg'ona viloyatining Bo'z, Qo'shtepa tumanlarida kanal nomi. **Jo'ga** – *ko'lning sayoz joyi. Jo'gada baliq bo'lmaydi.*

Prof. N.G.Mallitskiy, turkiylashgan forscha *sarijo'ga so'zi* "suv kechimining boshlanishi" deya ta'riflanadi (Н.Г.Маллицкий. О некоторых географических терминах, имеюших отношение к Средней Азии. "Известия ВГО", вып. 5, 1945).

SARIKOR – qishloq. Toponim *sari* va *kor* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *sari* so'zi *"bosh tomon", "yuqori tomon", "yon tomon"* degan ma'nolarni bildiradi. Toponimning ikkinchi komponenti – *kor* so'zi esa *"ish"* degan ma'noni bildiradi.

Demak, Sarikor – *"ishning boshi"* demakdir. Qishloq atrofi bog'lar bilan o'ralgan, shu sababdan ham u Sarikor, ya'ni *"ishning boshi"* deb atalgan. Bu albatta xalq etimologiyasi. Tadqiqotchi M.M.Avezovning fikricha, toponimning ikkinchi komponenti – *kor* so'zi aslida *kar*, ya'ni urug' nomi, etnonim. Toponim dastlab *Sarikar* deb atalgan. Demak, **Sarikar** – *"kar urug'i yashaydigan hududning yuqori tomoni"* demakdir.

SARIKO'L – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanidagi "Qoraoy" OFY hududida joylashgan ko'l va aholi punkti nomi. Ko'lning Sariko'l nomi bilan atalishini uning bir tomonini katta qumlar egallagani bilan izohlash mumkin. Ko'l bo'yida joylashgan aholi punkti nomi ham ko'l nomi bilan ataladi. Sariko'l nomi bilan atalgan ko'llar Qoraqalpog'iston Respublikasining ko'pchilik tumanlarida bor.

Shuningdek, qishloq – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida shunday atalgan qishloq ham mavjud. *Sari(q) + ko'l.*

SARIMSOQTEPA – qishloq, Namangan viloyati Chust tumani. Sarimsoq + tepa; **Sarimsoqtepa** – *yovvoyi sarimsoq o'sadigan tepalik* ma'nosini anglatadi.

SARIOSIYO – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Forscha *sariosiyo* – "tegirmon yonida"; o'zbekcha paralleli: ***Tegirmonboshi*** (qarang). Toyloq tumanidagi qishloq. Fors-tojikcha "sar" – bosh va "osiyo" – tegirmon so'zlaridan tuzilgan toponim. Urgut tumanidagi Ter-

[1] Qorayev S. Toponimika. –T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2006. –B 179.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli, 1-jild. – M.: Rus tili, 1981. –B.195.

sak qishlog'ining mahallalaridan biri ham Tegirmonboshi deb yuritiladi.

Yoqut Hamaviy Darg'om rustog'i (tuman)dagi Hahsar qishlog'i haqida ma'lumot berar ekan, uning Samarqanddan ikki farsax (bir farsah 6–7 km ga teng) uzoqlikda ekanligini qayd qiladi. V.A. Livshis mazkur so'z sug'dcha "buloqboshi" ma'nosida ekanligini ko'rsatadi (Livshis, 1962). Qishloqdan Samarqand shahrigacha bo'lgan masofa 12–14 km. Demak, Hahsar hozirgi Toyloq tumanining Sariosiyo qishlog'i atroflarida bo'lgan.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sariosiyo hamda Buxoro viloyatining Vobkent va Qashqadaryo viloyatining Kitob hamda Samarqand viloyatining Samarqand tumanlaridagi qishloqlar nomi ham shunday atalgan.

SARIOVUL – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim "***sari(q)***" va "ovul" so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan. "***Sari(q)***" umumturkiy etnonim bo'lib, u turkman, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, o'zbeklar tarkibida mavjud.

O'zbeklarning urug'laridan qo'ng'irotlar, laqaylar, qatag'on, mang'it, batoshlar tarkibida ham ***sariq // sari*** urug'i bor.

"***Ovul***" so'zi esa "*ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq*" ma'nolarini ifodalaydi [T.Nafasov, 166; S.Qorayev, 1, 107].

Shunga asoslanib, ushbu toponimni "*sari // sariq urug'i vakillari bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu etnooykonim ot+ot shakliga ega.

SARIQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Sariq – turkman qabilasi (urug'ining) nomi. O'zbek qo'ng'irot urug'ining bir qismi ham *sariq* deb atalgan.

SARIQALOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. O'zbekistonning janubida toshdan qurilgan qoramol chorvaxonasi qaloq deb nomlangan (*qalamoq* fe'lidan – yotqizmoq, barpo qilmoq); *toshqaloq* nomli bolalar o'yini – mayda toshlardan uylar qurish.

SARIQAMISH – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Sariqamish neft koni – Farg'ona viloyati; Sariqamish havzasi – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Turkmaniston. Sariq qamish – qamish turi. Quyidagi toponimlar tarkibida ushbu element uchraydi: **Oqqamish** (ovul, To'rtko'l tumani), **Qoraqamish** (ariq va mahalla, Toshkent). Nima uchun turli ranglardagi qamish? Savol o'z javobini kutmoqda.

Ehtimol, bu o'zbek, qozoq, qirg'iz, qirg'iz-qipchoq, boshqirdlarning tarkibiga kirgan *qarmish* urug'i nomining fonetik variantidir (*r* tovushi ko'p hollarda tushirib qoldirilgan).

SARIQISHLOQ – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq

nomi. Qishloqda Sari urug'i vakillari yashagan. Laqay, qatag'on qabilalari tarkibida hamda qirg'iz, turkman, boshqird va boshqa turkiy xalqlarda *sari(q)* etnonimi keng tarqalgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 92, 101, 105, 118, 229, 245; Р.Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа. С. 81, 115, 192; К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 29–31).

Ko'pchilik olimlar *sari* xalqini qipchoq-qumonlar bilan bog'lashadi. Bu yorqin, sariq degan ma'nolarga ega (В.В.Бартольд. Сочинения. Т. V. С. 395, 396, И.Г.Добродомов. Из древнерусской этнонимии. СЕ, 1966, № 3. С. 122–128).

SARIQSUV – kollektor va ariq. Namangan viloyatining Mingbuloq tumanidagi kollektor, Andijon viloyatining Ulug'nor hamda Farg'ona viloyatining Beshariq tumani Rapqon qishlog'idagi ariq nomi. Namangan viloyatining Mingbuloq tumanidagi kollektor, Farg'ona viloyatining Beshariq tumani Rapqon qishlog'idagi ariq nomi.

Tog'oldi lyoss va gildan iborat qiya tekisliklardan oquvchi loyqa suvlar ***sariqsuv*** deb yuritiladi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi shevalarida ekinlardan oqib chiqqan loyqa oqava suv ham ***sariqsuv*** deb ataladi. Vodiy gidronimiyasiga mansub kollektor va ariqlarda doimo shunday loyqa suvlar oqishi bois ***Sariqsuv*** deb nomlangan.

Demak, mazkur obyektlar suvning xususiyati asosida nomlangan. Gidronimlarga sariqsuv so'zi lug'aviy asos bo'lgan. Lisoniy jihatdan gidronimlar suvning xususiyatini ifodalovchi lug'aviy birlikning obyekt nomiga o'tishi asosida yuzaga kelgan. Gidronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *sariq suv > sariqsuv > Sariqsuv*.

Sariqsuv lug'aviy birligi qipchoq shevalarida *sarisuv* fonetik variantida qo'llanadi. Shuning ta'sirida respublikamiz gidronimiyasida Sarijo'ga (Far. v. Bo'z t. Dehqonobod q. – kollektor), Sarisuv (Sam. v. Jomboy t. – kanal) gidronimlari ham uchraydi.

SARIQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanining "Qoraoy" OFY hududida joylashgan qumlik. Qumlikning Sariqum deb nomlanishining sababini qumlikning rangi sariq bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Bunday nom bilan atalgan qumliklarni Qoraqalpog'iston hududida ko'plab uchratamiz.

SARIQO'L – ko'l. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi ko'l nomi. Nurobod tumani. Bu toponimni ikki xil talqin qilish mumkin: ko'lning boshi, boshlanish joyi, tepasi va sariq ko'l, ya'ni rangi, ko'rinishi sariq bo'lgan ko'l. Bulardan birinchisi to'g'riga o'xshaydi. Chunki qishloqda yashovchi aholi tojikcha-o'zbekcha Sari ko'l (ko'lning boshi, tepasi) deb atagan bo'lishi mumkin. Xitoyning Shinjon Uyg'ur avtonom tumaniga qarashli bir tog' vodiysida yashovchi tojik etnik guruhi ham o'z qishlog'ini Sariko'l deb ataydi. Sarigul

yoki Sarig'o'l nomli qishloq Qo'shrabot tumanida ham bor.

SARIQO'RG'ON – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponimni "yuqori, bosh tomonda joylashgan qo'rg'on" deb izohlash mumkin. Bunda *So'x daryosining yuqori qismida joylashgan qo'rg'on,* degan ma'no kelib chiqadi.

Toponimikada sari(q) urug'i ham qayd etilgan. Sariq qipchoqlar tarkibiga kirgan etnik guruh sifatida tilga olingan. Bunday yondashuvda **Sariqo'rg'on** – *sariqlar yashaydigan qo'rg'on,* degan ma'noni bildiradi.

SARIPANJA – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *sari* va *panja* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *sari* so'zi *"yuqori tomon", "bosh tomon", "yon tomon"* degan ma'nolarni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *panja* so'zi esa *"barmoq"* ma'nosini bildiradi.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq joylashgan hududda katta ariq beshta kichik qismlarga bo'lingan. Shu sababdan ham ariqning boshlanish qismi ma'nosida shunday atalgan. Mahalliy aholining bu izohi haqiqatga juda yaqin.

Toponimning etimoni *Saripanjob* bo'lsa kerak, deb yozadi M.M.Avezov. Saripanjob keyinchalik o'zgarib, hozirgi holatga kelib qolgan.

SARIPUL – qishloq. Samarqand yaqinidagi Zarafshon daryosining Qoradaryo va Oqdaryo o'zanlariga ajralishi natijasida paydo bo'lgan Miyonqol orolidagi qadimgi qishloq nomi.

XV asrda Temuriylar va Shayboniylar o'rtasidagi urushlar natijasida vayron qilingan. Forscha *sar* – bosh, yonida; arab. *pul* – ko'prik, *Saripul* – "ko'prik yonida"; o'zbek tiliga o'zlashgan kalkasi – **Ko'prikboshi.**

Ishtixon va Qushoniya (hozirgi Koshonota qishlog'i) o'rtasidagi yirik va boy qal'alardan (keyinchalik qishloq) biri. U XVI asr manbalarida Miyonqolning qishloqlaridan, deb ko'rsatiladi.

Somoniy asarida qishloq Xushuvag'n deb tilga olingan. Ibn Xurdodbeh ma'lumotlariga ko'ra, Xushubag'n nomidagi yana bir qishloq Samarqand–Zomin yo'lida, sakkiz farsax (60 km.ga yaqin) masofadagi joyda ham bo'lgan.

SARISUV – qishloq. Toshkent viloyatining Chinoz tumanidagi qishloq nomi. *Sarisuv* – sariq suv, loyli suv ma'nolarini anglatadi. Ushbu gidronim urbonimga aylangan.

SARITAMG'ALI – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. **Saritamg'ali** – qurama-o'zbeklar qabilasining bir qismi.

SARITEYIT – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Teyit – katta qirg'iz qabilasi. Keksa avlod vakillari sariteyit so'zini "katta teyit" (forscha *sar* – bosh, asosiy) deydilar. To'g'ri varianti *sari teyit* – "sariq teyit" (*qora teyit* etnonimi ham mavjud).

SARIO'YMOVUT – ovul, Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanidagi qishloq nomi. *Sario'ymaut*

(sariq o'ymovut) – o'zbeklar, qozoqlar va ehtimol qoraqalpoqlarning tarkibiga kirgan o'ymovut urug'ining bir qismi (qarang: ***Uymaut***).

SARIO'ROQLI – qishloq, Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. *Sariq o'roqli – o'roqli* urug'ining bir qismi (qarang: ***O'roqli***).

SARICHASHMA – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Fors-tojikcha "sar" – bosh va "chashma" – buloq, ya'ni "buloqboshi" ma'nosida. Urgut tumanidagi Tegirmonboshi va Toyloq tumanidagi Sariosiyo toponimlari tarkibidagi elementlar ham shu ma'noni anglatadi.

Samarqand viloyatining Jomboy tumanida ham mazkur nom bilan atalgan qishloq mavjud.

SARISHIRIN – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanidagi qishloq nomi. *Shirin* – o'zbeklarning 92 urug'idan birining nomi, *sari* – sariq, *sarishirin – shirin* urug'ining katta tarkibiy qismlaridan biri.

SARJOYLOQ – dala, chegara, Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. O'rta asrlarda Ohangaron vodiysi *Iloq* yoki *Ayloq* deb nomlangan. Forscha *sar* – bosh, boshliq; turkiy *joyloq* (yayloq) – "yaylov"; *Sarjaylak* – o'rta asr *Iloq* yoki *Ayloq* nomlarining o'zgargan varianti (M.Y.Masson).

SARMANQUM – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan qumlik nomi. Qumlik nomining kelib chiqish tarixi bu qumlik yonida Sarman ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilganligi bilan bog'liq, degan fikrlar bor.

SARMOZOR – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi qishloq nomi, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani. **Sarimozor** (forscha) "mozor yonida", "qabriston yonida" ma'nolarini anglatadi.

SAROBI – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq nomi. Tojikchadan tarjima qilinganda "suv boshi" degan ma'noni bildiradi. Bu qishloq tepada joylashgan, suv shu baland qishloqdan o'tganligi uchun Sarobi deb atalgan.

SAROY – qishloq. Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholi oykonimning shakllanishini "karvonsaroy" so'zi bilan bog'laydilar. Qishloq hududida Qirg'iziston, Zarkent, Hazratishohni Chortoq bilan bog'laydigan karvonsaroylar bo'lgan emish. Dastlabki paytlarda uchta karvonsaroy bo'lganligi taxmin qilinadi. Qolgan yerlar qamishzor va butazorlar bilan qoplangan.

Bu saroylar Eshonboy, Sulaymonqul, Xo'jamurod dodho va Eshonxo'ja boylarga tegishli bo'lgan. Karvonsaroylar yo'l bo'yida bo'lganligi uchun karvonlar kirib tunab ketavergan. Hozir ulardan asar ham qolmagan[1]. Qishloq ana shu karvonsaroylarga nisbat berib, Saroy deb atalgan emish.

[1] *Qarang.* Jamoa. Chortoq tumani tarixi. – Toshkent: Universitet, 1995. – B. 21.

Bizningcha, nom saroy etnonimi asosida shakllangan. Saroy – qipchoq qabilasi urug'laridan birining nomi. Saroy – o'zbeklar tarkibiga kirgan eng yirik qabilalardan biri. O'zbek qavmining barcha ro'yxatlarida qayd etilgan, saroylarning shevalari adabiy tilga yaqin.

Saroylarning kichik bir guruhi qozoqlarning arg'in qabilasi tarkibida ham bo'lgan. 1924–1926-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi saroylarning soni 50 mingdan ortiq bo'lib, ulardan 15 ming kishi Buxoro vohasida, 20 ming kishi Karmana vohasida yashaganlar. Jumladan, Namangan viloyatida ham saroylar mavjud. Ular, bizningcha, Chortoq, To'raqo'rg'on tumanlarida yashashadi.

Saroylar tarkibida bir qancha kichik va katta qabilalar mavjud bo'lgan. Masalan, az-saroy, qipchoq-saroy, qirg'iz-saroy, qorabog'-saroy, nayman-saroy va boshqalar. Bularning har biri, o'z navbatida, yana bir qancha urug'larga bo'lingan[1].

Professor X.Doniyorovning fikricha, saroy qabilasi yana quyidagi urug'larga bo'linadi: chem saroy, qo'ng'irot saroy, jomon saroy, mojor saroy, oltin tamg'a saroy, soydan tuman saroy va jolong'och (yalang'och) saroy kabi[2].

Saroylar etnik birlashma sifatida XIV–XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo'lib, XVI asrda boshqa o'zbek qabilalari bilan birga O'zbekiston hududiga kelib joylashgan[3].

Namangan viloyati toponimlari tizimidagi Saroy oykonimi ham ana shu etnonim asosida shakllangan bo'lib, *saroy urug'iga mansub kishilar yashaydigan joy* degan ma'noni anglatadi. Saroy urug'ining bir tarmog'i Qatag'onsaroy deb yuritiladi. To'raqo'rg'on tumanidagi Qatag'onsaroy oykonimi shu etnonim asosida shakllangan. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Urgut, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi.

Mazkur etnonim Saroyqo'rg'on, Ishqimsaroy, Fozilsaroy, Yuqorisaroy, O'rtasaroy kabi toponimlar tarkibida uchraydi.

1870-yillarda A.D.Grebenkin yozib olgan rivoyatga ko'ra, saroylar yashagan asosiy hudud Balx viloyati bo'lib, ular keyinchalik shimol tomon siljishgan va G'uzor atroflari, Qarshi va Jom oralig'idagi cho'lga va Kattaqo'rg'on yaqinida joylashganlar. Olimning fikricha, (O'zbekiston hududiga) saroylarning o'nta asosiy urug'idan faqat ikkitasi – jomon-as va to'qboylar kelishgan (Гребенкин А.Д. Узбеки, "Русский Туркестан, Сборник изданий по поводу Политехнической выставки". Вып. 2. – М., 1872). O'rta Osiyoni rayonlashtirish komissiyasi 1924–1925-yillarda saroylar mazkur

[1] *Qarang*. Sanayev I. Bu ko'hna dunyo. – Toshkent: Adolat, 1996 . – B. 30–31.
[2] Doniyorov H. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent.
[3] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent, 2004.

hududda joylashganliklarini tasdiqladi.

Shuningdek, Shahrisabz vohasida saroylarning boshqa tarmoqlari qatori as-saroy urug'i ham qayd etildi. Saroylarning bir qator urug'lari toponimlar sifatida uchraydi. Jumladan, Sazag'on (Nurobod), Dav (Narpay), To'qboy, Sanchiqul (Pastdarg'om), Sevaz (Urgut) va boshqalar.

Bundan tashqari, respublikadagi ko'plab aholi punktlarining nomlari bor. *Saroy* – o'zbeklarning, qisman qozoqlarning katta qabila ittifoqi: az-saroy, qipchoq-saroy, qirg'iz-saroy, qo'ng'irot-saroy, mojar-saroy, nayman-saroy, qorabog'-saroy va boshq. saroyning bo'linmalari mavjud.

Saroylar Qashqadaryo vodiysi, Jizzax shahri atrofida, qisman Farg'ona vodiysida, Zarafshon vohasida zich yashagan.

SAROYDEYNA – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi kollektor nomi. Kollektor Naqib kollektoriga nisbatan shimolroqdan boshlanadi. U Romitan va Vobkent tumanlari chegarasi bo'ylab o'tkazilgan bo'lib, Shimoliy kollektorga quyiladi.

Toponim asli *Saroydehcha* bo'lgan. Keyinchalik o'zgarib *Saroydehna*, undan keyin esa *Saroydeyna* shaklini olgan. Apellyativning birinchi komponenti – *saroy* yirik o'zbek qabilalaridan biri bo'lib, asli *saroyi*, ya'ni *"saroyda xizmat qiluvchilarning avlodlari"* ma'nosidadir.

Bu qabila vakillarining Buxoro vohasida, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax va Andijon viloyatlarida yashaganliklari ma'lum. Toponim tarkibidagi *dehcha* so'zi *"kichkina qishloq"* degan ma'noni bildiradi (tojikcha *deh* – *"qishloq"*).

Demak, **Saroydehcha (Saroydeyna)** – *"saroy urug'i vakillari yashaydigan kichkina qishloq"* deganidir.

SAROYLIK – mahalla. Jizzax viloyatining Jizzax shahridagi mahalla nomi. Saroylik – mahallada yashovchi saroy qabilasi vakillari ma'nosini anglatadi.

SAROYQISHLOQ – qishloq. Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi qishloq nomi. Qishloqqa Jizzax viloyati G'allaorol tumani Saroy qishlog'idan kelgan aholi vakillari tomonidan Mirzacho'ldagi dashtli yerlarni o'zlashtirish yillarida asos solingan.

SARONON – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Tojikcha *sarona* – jon boshidan olinadigan soliq; *saronon (saronagan)* – soliqlar; "saron" so'zining "harbiylar", "sarkardalar" degan ma'nosi ham bor (Qorayev, 1978).

SARROFON – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. O'rta Osiyo xonliklarida pulni almashtirish, zargarlik buyumlarini sotish va sotib olish bilan shug'ullanadigan odamlar sarrof deb nomlangan – "pul maydalaydigan odam" (arabcha *sarf* – chiqim). *Sarrofon* – pul maydalaydigan odamlar. Buxoroda **Sarrofon** mahallasi mavjud bo'lgan, **Toqi Sarrofon** me'moriy yodgorligi "Pul maydalaydigan odamlarning arkasi, darvozasi" (XVI asr) ma'nosini anglatgan.

Xulosa shuki, *sarrof* – pul maydalaydigan odam; qimmatbaho toshlarni baholovchi shaxs (*-on* – ko'plik qo'shimchasi ko'rsatkichi). Sarroflar pulni maydalash va chet el valyutalarini ayirboshlash bilan shug'ullanishgan.

SARROJON – Buxoro shahridagi daha. Sarrojon – egar-jabduq ustalari. *Sarroj* – egar-jabduq (*-on* – ko'plik qo'shimchasi (ko'rsatkichi)). "Kvartalda egar-jabduq ustalarining yo'qligi bu joy o'z nomini uzoq vaqt oldin olganligidan dalolat beradi" (O.A.Сухарева. Кварталъная община Бухары. С. 201).

SARSONQUM – cho'l. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi cho'l nomi. Sarsonqum – adashgan, harakatlanuvchi qumlar ma'nolarini anglatgan.

SARTAROSHLAR – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim ilgari shu yerda yashagan aholining kasb-koriga bog'liq holda shunday nomlangan. Sartarosh – *soch-soqol oluvchi usta.* Toponim tarkibidagi *-lar* esa ko'plik qo'shimchasi. Demak, **Sartaroshlar** – *"soch-soqol oluvchi ustalar yashaydigan joy"* deganidir.

SARTBULOQ – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Toponim fors-tojikcha **"sard"** – *sovuq* va *buloq* so'zlaridan yasalgan. Sard so'zi og'zaki nutqda "T" tarzida talaffuz qilingan. Mazkur toponim qishloq yaqinidagi gidroobyekt suvi harorati bilan bog'liq holda yaratilgan.

SARTBO'GAJELI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. *Sartbo'gajeli* – qo'ng'irot qabilasi bo'gajeli urug'ining nomi.

SARTOVUL – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Sart – etnonim va ovul so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

SARTQISHLOQ – aholi punkti. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi aholi punkti nomi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Mitan tumanidagi Qo'shrabot qishloq kengashi hududidagi aholi punkti nomi sifatida qayd qilingan.

Toponim "sart", ya'ni etnonim bilan aloqador. Qo'ng'irotlarning voxtamg'ali bo'limining urug'i bo'gajil. Sart esa bo'gajil urug'ining bir tarmog'i (Nafasov, 2009).

SARTYUZ – qishloq. Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi qishloq nomi. **Sartjuzi** – qishloq, Jizzax viloyatining Baxmal tumani. *Sartyuzi, sartjuzi – yuz* qabilasining qismi (qarang: ***Yuzqishloq***).

SARTYUZI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Yuz qabilasining bir tarmog'i sartyuzi deb ataladi. Etnonimdan joy nomi hosil bo'lgan.

SARVARI – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur ***Sarvar*** toponimi – *"sardor, peshvo"* kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, u qavmning ulug'i

sanaladi. Bundan tashqari, mazkur nomning "*farmon, buyruq beruvchi*" ma'nosi ham mavjud.

SASSIQBULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi buloq nomi. Suvning hidi bilan bog'liq nom. Bulung'ur tumanida ham Sassiqbuloqsoy nomli ikkita soy bor. "Sassiq" so'zi mazkur gidroobyekt suvi tarkibidagi minerallar haqida xabar beruvchi belgidir.

SATANG – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. *Satang* – olifta, bashang (qishloqdoshlarning qo'ygan laqablari) ma'nolarini anglatadi.

SAVAY – qishloq. Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi qishloq nomi. Filologiya fanlari doktori S.Ibrohimov va filologiya fanlari nomzodi S.Jalilovning e'tiroflariga ko'ra, qishloq uning asoschisi Isoboy nomi bilan atalgan.

Qirg'iz mutaxassisi S.M.Abramzonning ma'lumotlariga ko'ra, qadimiy qirg'iz qabilalarida savay urug'i bor (Абрамзон С.М. Этнический состав киргизского населения. – ТКАЕЕ, т. 4. –М., 1960. С. 127).

SAVRUN – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Toponim mo'g'ulcha ***saorun*** "*poydevor, zamin, taxt*" degan ma'noni anglatadigan so'zdir[1]. X.Doniyorovning fikricha, ***suvrin*** etnonimi ham mavjud[2].

Demak, ***savrun*** – etnonimga asoslangan toponimdir. Otning sag'risi ham shu mo'g'ulcha so'zdandir.

SAXOVAT – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri hisoblanadi. Ushbu termin arab tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'z quyidagi ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi: a) "qo'li ochiqlik, oliyhimmatlilik, saxovatlilik; baland himmatlilik, saxiylik; b) tabiiy boylik, mo'l hosil, to'kinlik, mo'llik" (O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild, 464-bet).

SAXTIYON – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan hamda Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Saxtiyon* – Orolbo'yi ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan birining nomi. Saxtiyon terisining o'zbekcha nomlanishi – *saxtiyon* ushbu tilga olingan qabila nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. L.S.Tolstova saxtiyan toponimini qadimiy davlat hisoblangan Sug'diyona nomi bilan bog'laydi.

SAYDOV – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Kattasaydov, Qirqsaydov, O'rtasaydov qishloqlari nomlari qayd etilgan.

Xo'ja Ahrorning 1546-yili tuzilgan vaqf hujjatida Said Ohu shaklida qayd qilingan. Mazkur hujjatda Said Ohu yerlari bilan chegaradosh Adak, Kurtushayx, Jonqo'rg'on yer-

[1] Naimov S. Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – B.: 1997. –B.35.

[2] Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. Monografiya. Ikkinchi nashri. –T.:Navro'z, 2017. –B.92.

lari, shuningdek, Siyohob (Qorasuv) arig'i ham tilga olinadi. Adak (Andak deb ham yoziladi) hozirgi O'ymovut qishlog'i o'rnida bo'lgan. Professor V.L.Vyatkin mazkur qishloq nomi mahalliy aholi tilida Saydov tarzida talaffuz qilingan, deb ko'rsatadi. Aslida ikki komponentdan iborat bo'lgan geografik nom talaffuzda eliziya (tovush tushishi)ga uchrab, bir so'zga aylangan. Toponimning birinchi komponenti "said" so'zi arabcha bo'lib, "saodatli, baxtiyor, baxtli" ma'nosida. Mazkur leksema sharq mamlakatlarida "sayid" (xo'jayin, hukmdor) shaklida payg'ambarimizning avlodlariga nisbatan ishlatiladigan terminga aylangan.

O'zbek toponimiyasida mazkur leksema ishtirokida yasalgan geografik nomlar soni anchaginadir. Jumladan, manbalarda Dam Said (Juyidivona bo'lisi), Besh Said (Kabud bo'lisi), Dovul Said, Saydon (Oqdaryo), Saidkent (G'ijduvon), Saidxotun (Romitan) kabi toponimlar qayd qilingan. Bizningcha, Said Ohu (Saydov) qishlog'i nomidagi ikkinchi komponent "ohu" (terminning asl shakli "axi, axiy" bo'lib, og'zaki nutqda o'zgargan. "Axi" arabcha "birodar, oshna" ma'nosida) so'zi so'fiylik tariqati a'zolariga beriladigan unvon sifatida XIII–XIV asrlarda Kichik Osiyo, Eronda keng tarqalgan, jumladan, Markaziy Osiyoda ham ishlatilgan. Buni Sayfiddin Boxarziyning nabirasi shayx Yahyoga tegishli vaqf hujjatida (1333-yil) xoja Abdulla axi nomi tilga olingani ham tasdiqlaydi. Bu termin boshqa o'rinlarda ham uchraydi.

Ko'rinib turibdiki, Said axi(y) toponimi talaffuzda o'zgarib Said Ohu, Saydov shakllarida qo'llana boshlagan.

Demak, qishloq nomi so'fiylik tariqati a'zolari ismi yoki unvoni bilan bog'liq holda yaratilgan.

SAYHUN – Temuriylar davrida ko'proq "Xo'jand daryosi" (Obi Xo'jand) nomi bilan mashhur bo'lgan, biroq o'sha davr tarixiy manbalarida an'anaviy nomi "Sayhun" ham baravar yozilavergan. Daryoning Farg'ona vodiysida Axsikat shahri yonidan oqib o'tgan qismi "Axsikat daryosi" (Obi Axsikat) deb atalgan.

"Boburnoma"da Sayhun XV asrda "Xo'jand daryosi" deb atalgani ("Sayhun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdir." – B.34), qish faslida qalin muzlashi va Bobur, keyinroq Shayboniyxon qo'shinlari bilan daryodan muz ustidan Shohruxiya tomonga o'tganlari qayd etilgan; Sayhunning irmoqlaridan ikkitasining nomi – *Axsi suyi* (hozirgi Kosonsoy) va *Chir suyi* (hozirgi Chirchiq daryosi) ham eslatilgan.

Zahiriddin Bobur Farg'ona vodiysidagi harbiy harakatlarida bir necha marta Xo'jand daryosidan kechib yoki sollar vositasida o'tgani ma'lum.

SAYXUNOBOD – tuman. Sirdaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman 1952-yili dastlab Vernevolinskoye nomi bilan tashkil qilingan. 1959-yili Sirdaryo va Guliston tumanlari tarkibiga qo'shilgan.

1970-yili Voroshilov tumani nomi bilan qayta tashkil etilgan. 1984-yildan boshlab tuman Sayxunobod nomi bilan yuritiladi.

Tuman hududidan O'rta Osiyoning eng yirik daryolaridan biri – Sirdaryo oqib o'tadi. Tumanga nom tanlashda daryo belgi (oriyentir) vazifasini bajargan. Binobarin, daryoning arabcha nomi bo'lgan "Sayhun" so'ziga "obod" qo'shimchasini qo'shish orqali yaratilgan nom tumanga berilgan. Nom tarkibidagi obod so'zi juda qadimdan joy nomlari yasashga ixtisoslashgan qo'shimcha sanaladi. Bu so'z doimo nomlarning so'nggi komponenti bo'lib, belgi vazifasini bajarib kelgan.

SAYILJOY – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. *Sayil* – xalq sayillari, *Sayiljoy* – xalq sayillari bo'lib o'tadigan joy ma'nosini anglatadi.

SAYROB – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. Forscha *sari ob* – daryoning boshi (aynan – suvning boshi) ma'nosini anglatadi.

SAYROM – qadimiy shahar va viloyat. Hozir ham shu nomda, ma'muriy jihatdan Qozog'istonning Chimkent viloyatiga qarashli. Chimkent shahridan 12 km sharqda. Qadimgi nomi Ispijob bo'lgan. Sayrom kichik viloyatining markazi sanalgan.

Amir Temur 1404-yil kuzida Konigildagi katta to'yda Movarounnahrdan sharqdagi hududlarni, jumladan, Sayromni ham Mirzo Ulug'bekka suyurg'ol qilib maxsus yorliq imzolagan. XV asrda Sayrom ma'muriy jihatdan Temuriylar davlati tarkibida edi; XV asr birinchi yarmida Mirzo Ulug'bek, ikkinchi yarmida Sulton Abusaid Mirzo, so'ngra uning to'ng'ich o'g'li Sulton Ahmad Mirzoning mulki doirasiga kirgan.

Keyinchalik Sulton Ahmad Mirzo Sayromni Umarshayx Mirzoga beradi.

Zahiriddin Bobur "Boburnoma"da 899/1494-yil voqealari bayonida bu haqida: "[Sulton Ahmad Mirzo] Toshkand va Shohruxiya va Sayromni olib edi, necha mahal tasarrufida edi. So'ngra Toshkand bila Sayromni inisi Umarshayx Mirzog'a berib edi" (–B. 44), deb yozgan. XV asr oxirgi choragida Sayrom Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxon hukmida bo'lgan.

SAYXON – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax hamda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi qishloq nomi. *Sayxon* – ochiq joy, maydon, dala ma'nolarini ifodalaydi.

SAYYOD – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi ***qishloq*** nomi. T.Nafasov ushbu toponimning ***sayyod, sayod, sayad*** ko'rinishlari borligini qayd etgan hamda uning umumturkiy etnonim ekanligini hamda ***sayyotlar*** o'zbek, turkman, tojik va boshqa xalqlar tarkibiga singib ketganligini ta'kidlagan[1]. ***Sayyod*** – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "ovchi, ov

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. - T.: Muharrir, 2009. –B.216.

ishlari bilan mashg'ul shaxs"[1] ma'nosini ifodalagan. Shuningdek, o'zbek urug'laridan birining nomi ham – ***sayyod***. Kenagaslar va mang'itlarning shu nomdagi urug'i bor. Turkmanlarda bu urug' nomi – ***sayyad***. Faxriy pedagog Nasrullo Shukrulloyev ushbu toponimning turlicha imlosi mavjudligini va ulardan ***Sayot*** shakli to'g'ri ekanligini ta'kidlagan[2].

SAZANJAP – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. Sazan – baliq, "sozda – balchiqda yashaydigan (baliq)", ilgarilari zog'orabaliq deyilar edi, jap, yap (yop) – o'rtacha kanal. *Sazanjap* – sazan yetishtiriladigan ariq.

SAZAG'ON – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Naymansaroy urug'i bo'linmalaridan biri sazag'on deb atalgan (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах узбеков. С. 14).

SAG'ANA – qishloq. Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi qishloq nomi. *Sag'ana* (sog'ona) – maqbara, qabr. Aziz-avliyoning mozori yonida bo'lganidan shunday nom olgan.

SAG'ANAQ – ariq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi ariq nomi. *Sag'anaq* gidronimi ***sanglax*** terminining shevadagi talaffuzidir.

SAG'BON – Toshkent shahridagi mahalla. Forscha *sag'* – it, kuchuk, *-bon* – kimningdir ortidan yurib yoki nimanidir saqlash bilan shug'ullanuvchi shaxs nomini hosil qiluvchi qo'shimcha; *sag'bon* – it boqish bilan shug'ullanuvchi odam – itboqar.

Shaharning shimolida mol haydab boriladigan bozor Sag'bon joylashgan va u yerda insonlar hayvonlarning mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanishgan. Hayvonlar go'shtlarini chakana narxlarda sotib oluvchilarga butun bir guruh ovchilar – *sag'bonlar* xizmat qilishgan.

Boshqa versiyalar bo'yicha toponim qadimiy din bilan bog'liq: otashparastlar jasadlarni itlar va boshqa hayvonlarga yeyish uchun tashlashgan, suyaklarni esa maxsus yashiklarga yig'ib, ularni ko'mishgan. Shu tarzda *Sag'bon* – itboqar toponimi yuzaga kelgan.

Toshkent tumanida Sag'bon qishlog'i bor. Biz akademik A.Muhammadjonovning fikrlarini nisbatan ishonchli deb hisoblaymiz, unga muvofiq Sag'bon arabcha *suqbon* so'zidan kelib chiqqan: arabcha *suq* – "bozor", *ban* (bon) – parvarish qilish, kuzatish; *suqbon* keyinchalik *sag'ban* – "kuzatuvchi, bozor nazoratchisi" (mahalla esa bozorning yonida bo'lgan) shaklini olgan.

SAG'BON DARVOZASI – Toshkent shahri. Ko'kcha dahasining shimoliy qismida. "Sag'bon" toponimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud.

---

[1] Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд) Ҷилди 2. О – Я. Зери таҳрири Сайфиддин Назарзода (раис), Аҳмадҷон Сангинов, Саид Каримов, Мирзо Ҳасани Султон. Душанбе, 2008. – С. 194.

[2] Shukrulloyev N. Qishlog'imning nomini to'g'ri yozing//Buxoronoma, 17.10.2020 (74-75-son).

Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida keltirilgan XIV asr oxiri – XV asr darvozalari ro'yxatida Su'boniyon, XIX asr darvozalari ro'yxatida esa Sag'bon shakllarida berilgan. Ehtimol, "Su'boniyon" so'zi davrlar mobaynida xalq talaffuzida o'zgarib, qisqargan va "Sag'bon" shaklini olgandir. Sag'bon darvozasi XX asr boshlarida bor edi va uning nomi Sag'bon mahallasi nomida keyinchalik ham saqlanib qoldi.

N.G.Mallitskiy "Sag'bon" mahallasida itboqarlar (psari) ko'p bo'lgani uchun, shunday atalgan, degan taxminni aytgan[1].

SAG'ONIYON – Surxondaryo vohasining o'rta asrlardagi arablashgan nomi; tez-tez arab geograflari Istaxriy (БАГ, I, 288, 295, 296, 340 и др.), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 332, 337, 400 и др.) va Muqaddasiy (БАГ, III, С. 22, 34, 262, 273 и др.) asarlarida tilga olinadi.

SAHOBA – qishloq. Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi qishloq nomi. Arabcha *sahoba*(t) – Muhammad (s.a.v.) safdoshlari, sahobalari. Bu kabi nomga ega joylar ziyoratgoh hisoblanadi.

SEBZOR – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. Mahalla nomi hudud tabiati bilan bog'liq. **"Sebzor"** – qo'shma toponim, *"seb"* va *"zor"* qismlardan (forscha "seb" – "olma") hosil bo'lgan bo'lib, *"olmazor"* degan ma'noni anglatadi. Ya'ni Sebzor dahasi olmazor, umuman, bog'lari ko'p yer bo'lgan. Aholisi asosan hunarmandchilik (kosibchilik, to'quvchilik, chitga gul bosish va b.), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa bog'dorchilik hamda dehqonchilik bilan shug'ullangan.

SEBISTON – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Ushbu toponim forscha bo'lib, "***seb***" va "***-iston***" qismlaridan iborat. "***Seb***" – olma ma'nosini bildiradi.

Demak, "***Sebiston***" olmazor demakdir. Shunga binoan mazkur toponimni "*olmalar ko'p o'sadigan joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlash mumkin.

SEGAZA – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. Ehtimol, *g'azo* geografik atamasi bilan bog'liqdir. "Tog' qoyasining turtib chiqqan joyi", bundan tashqari, *gaza* – bu ovchilar qushlarni ovlash paytida berkinadigan chayla, *se* – uch (forscha).

SEGAZAQUM – qishloq. Andijon viloyatining Shahrixon tumaniga qarashli katta qishloq nomi. Ushbu nom haqida ham har xil og'zaki to'qimalar, naql-u rivoyatlar mavjud.

Ammo quyidagi tarix diqqatga sazovor: Qo'qon xoni Umarxon (1809–1822) ov qilishni yaxshi ko'rar edi. Tarixchi Hakim to'ra "Muntahob at-tavorix" asarida yozishicha, Umarxon 1818 (hijriy 1234)-yili minglab odamlar bilan ovga chiqib, Marg'ilonning Quva chakalakzorlarida ov qil-

[1] Малицкий Н.Г. Ташкентские махалли... – С.6.

gan, so'ngra Shahrixondan Andijon atrofiga kelgan. "Segazaqum" nomli odam yashamaydigan qumloq dashtda kiyik ovi qilgan va o'zi bir kunda 20 ta kiyik otgan.

Bu nomdagi "gaza" so'zi "tog' tepasi" yoki "pistirma" ma'nosiga ega. Bu qishloq atrofida tog' yo'q, ammo qadimiy qum sahrosidan hamon nishona qolgan (odamlar bod kasalidan shifo topish uchun avgust o'rtalaridan boshlab qumga tushadilar).

Demak, qum oralig'i azaldan ov qilishga mo'ljallangan bo'lib, uch joyda pistirma qilingan. "Segazaqum" nomi shundan kelib chiqadi.

SEKILOV – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Qirg'izcha *seki* – tog'lardagi uncha katta bo'lmagan bo'rtiq joy, *-lov* – toponim hosil qiluvchi affiks.

SEKIRTMA – dovon. Jizzax viloyati Molguzar tog' tizmasidagi dovon. *Sekirtma* – geografik termin, tog'lardagi zinasimon joylar shu nom bilan ataladi, *sekirmoq* "sakramoq" fe'lining dialektal variantidir.

SELGA – Surxondaryo viloyati Bobotog' tizmasi yonbag'ridagi dara va qishloq. *Selga* yoki *selgoh* (sel yig'iladigan joy) – sel ko'p keladigan o'zan, loyli qorishmalar to'planib qoladigan o'zan (qarang: ***Selxona***).

SELGISOY – Namangan viloyati Pop tumanining G'urumsaroy qishlog'idagi soy nomi. Mahalliy aholi nutqida gidronimning **Selgasoy** fonetik varianti ham kuzatiladi. Kishilar gidronimning mana shu variantiga asoslanib, ya'ni gidronim tarkibidagi *-ga* jo'nalish kelishigi affiksiga asosiy e'tibor qaratgan holda, uning ma'nosini *"sel uchun soy", "sel kelgandagina suv oqadigan soy"* deb izohlaydilar: *sel + ga + soy > Selgasoy.*

Biroq bunday izoh anchayin sodda va til me'yorlariga tushmaydi, nom tarkibida pleonazm hodisasi mavjud: jo'nalish kelishigi affiksi ortiqcha. Ma'lumki, nomlash jarayonining asosiy tamoyillaridan biri – soddalik. Shunday ekan, xalq soyni Selgasoy (sel uchun soy) tarzida emas, balki sodda va aniq tarzda Selsoy deb nomlagan bo'lardi.

Demak, Selgasoy – Selgisoy gidronimining orfoepik jihatdan buzilgan varianti. Selgisoy gidronimi uch ma'noli qismdan tarkib topgan: *sel, gi, soy. "Yomg'irdan, jaladan yoki qor erishidan hosil bo'ladigan kuchli suv oqimi"* ma'nosidagi arabcha *sel*[1] so'zidan *-gi* affiksi vositasida *"suvi, nami qochib bir qadar quruq"* ma'nosidagi *selgi* so'zi yasalgan. Unda suv sel kelgandagina bo'lishi, qolgan paytlarda qurib qolishi kabi omillarni asos qilib olish asosida soy *Selgi // Selgisoy* deb atalgan. Natijada apellyativ selgi so'ziga umumturkiy soy gidronimik indikatorining qo'shiluvi asosida Selgisoy gidronimi shakllangan: *sel + gi > selgi + soy > Selgisoy.*

Bu gidronimning modelini quyidagi tarzda ifodalash mumkin: apellyativ so'z > qo'shma so'z > gidronim.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. II t. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 36.

Demak, Selgisoy // Selgasoy gidronimi *"quruq soy", "suv kelgandagina suv oqadigan soy"* degan ma'nolarni anglatadi.

SELINLI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanidagi qishloq nomi. *Selin* – cho'l boshoqli o'simligi; *selinli* – shunday o'simlik ko'p o'sadigan joy.

SELSOY – dara va qishloq. Navoiy viloyati Nurota tumani. *Selsoy* (ba'zida *seldara*) – sel ko'p keladigan soy. Tojikistonda sellar tez-tez oqadigan kanallar *selroha* deb ataladi (*roh* – yo'l, *-xo* – ko'plik affiksi). Tojikistonning janubiy qismida mineral manbalar bu kabi o'zanlarda joylashgan (qarang: ***Selga, Selxona***).

SELXONA – ariq. Namangan viloyatining Chust tumanida ariq hamda Yangiqo'rg'on tumanida esa kanal nomi. Bu nom ushbu ariqlardan sel ko'p kelgani uchun berilgan. *Selxona* – "sel yig'iladigan joy" (qarang: ***Selga***).

Samarqand viloyatining Urgut tumanida ham shunday nomli gidronim mavjud. Mazkur nom arabcha *sel* – "tog' vodiylari, soylar va jarlardan qisqa vaqt ichida juda katta tezlik bilan oqib keluvchi tosh aralash loyqa suv oqimi" va fors-tojikcha *xona* so'zlaridan hosil bo'lgan.

SEMIZKEND – Samarqand shahrining turkiy nomi, uning katta hajmi va boyligi bilan bog'liq. *Semizkend* – katta shahar (Mahmud Koshg'ariy. "Devon", t. I. 330-b).

SEPATTA – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Forscha *se* – uch, *patta* – butasimon o'simlik ma'nolarini anglatadi.

SERAK//SERAKARIQ//CHEKSERAK – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining nomlanishi (*serak*) forscha *siyoh reg* – qora qum so'zlariga borib taqaladi. *Serak* so'zi aslida etnonim hisoblanadi.

SERGELI – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967-yil 20-yanvardagi 06-A-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Toshkentning janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Tuman nomi Sergeli (sergili, sirg'ali) nomli qozoq va o'zbek xalqlari (Katta juz) tarkibiga kirgan qabilalar ittifoqi nomidan kelib chiqqan. Sergeli ittifoqi vakillari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qoziqurt, Qarjontov, Chimyon tog'larining etaklarida, Bodom, Keles, Chirchiq, Oqsoqota daryolari vohalarida yashagan. Sergeli tarkibida 12 ta urug' (boyjigit, shaldar, botir, jaydak, qaychili, qorakuntirdak, oqkuntirdak, qorabotir, tutamg'ali, eliboy, janaboy, aytbuzim) mavjud bo'lgan. Bu urug'lar, o'z navbatida, bir qancha mayda qavmlarga bo'lingan. Sergelilarning o'z tamg'asi va o'roni (suroni) mavjud bo'lgan.

Bundan tashqari, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida ham shu nom bilan atalgan qishloq nomi mavjud.

SEROB – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. *Serob* – 1) suvga boy, ser-

suv; 2) mo'l-ko'l, barakali ma'nolarini ifodalaydi.

SERTUT – qishloq, Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. *Ser* – ko'p, mo'l-ko'l ma'nosidagi forsiy affiks bo'lib, *tut* – tut daraxtini anglatadi. *Sertut* – "Tut daraxti ko'p joy". Toponim yasalishining kamdan-kam uchraydigan usuli.

SESU – Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi daha. "Uch yo'l kesishmasidagi joy" ma'nosiga ega (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары).

SETALAK – Buxoro yaqinidagi dara nomi. Forscha *se* – uch, arabcha *tal* – tepalik, *-ak* – kichraytirish-erkalash affiksi (*setalak* – "uch tepalik").

SEVAS – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanlaridagi qishloqlar nomi. Saroy qabilasining urug'laridan birining nomi sivaz (sevas) deb atalgan. Demak, hudud nomiga etnonim asos bo'lgan.

SIDDIQIYON – daha. Buxoro shahridagi daha nomi. Ma'nosi "Samimiy", urug' nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin – "Siddiqning avlodlari" (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары). Arabchadan Siddiq ismi "haqiqatgo'y" ma'nosini anglatadi.

SIJJAK – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qishloq nomi. Forscha *se* – uch, *jak* – jarlik, chuqur. *Sijjak* "uch jarlik" ma'nosini anglatadi.

SIMOB – dovon, Oloy tog' tizmasi, So'x va Isfara daryolari oralig'ida joylashgan. Farg'ona vodiysi azaldan tarkibida simob mavjud bo'lgan kinovar (qizil rangli mineral) minerallari bilan mashhur. O'sh shahridan (Qirg'iziston Respublikasi) Xo'jabaqirg'onsoygacha qadimiy kinovar ishlab chiqarilgan joylari tez-tez uchraydi. Arab geografi Muqaddasiyning (X asr) yozishicha, Kuba (Quva) shahri yaqinida simob buloq bo'lib oqqan.

SINGIR//YETIMSINGIR//KATTASINGIR// KICHIKSINGIR// TUYASINGIR – chegaraviy hududlar, Qashqadaryo viloyati. Ko'p joylarda singir "cho'qqi", "tosh" degan ma'noni anglatadi (termin forscha *sang* – tosh so'zi bilan bog'liq: *sangin* – "toshli"). **Sengir** – *tog'ning burni, devorning oxiri* (Древнетюркский словарь. –Л., 1969. С. 495). Sengir (singir) Bobur, Munis, Ogahiyning tarixiy asarlarida "mustahkam harbiy inshoot" ma'nosida uchraydi (В.В.Бартольд. Сочинения т. III. С. 184). *Sangar* – istehkom, barrikada (Таджикско-русский словарь. – М., 1954. С. 340).

SINCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Sinchi* – ot bilimdoni yoki otlarga qanday g'amxo'rlik qilishni biladigan odam. Zarafshon qipchoqlarining urug'laridan biri Sinchi deb nomlangan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 124, 132).

SIOB – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq nomi. *Siob,* to'g'ri shakli *siyoh ob* – "qora suv", buloq suvi. Qishloq ***Qarasu*** (qarang) daryosi bo'yida joylashgan.

SIPAYYOP – kanal. Xorazm viloyati Xonobod kanalidan boshlanadi. Aslida *Sipohi yop* – bu qo'shinlarning arig'i, chunki kanal atrofidagi yerlar qo'shindagi askarlarga bo'lib berilgan (B.B. Бартольд. Сочинения, т. III. –С. 182).

SIRAK – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. ***Sir*** qabilasi avlodlari yashaydigan joy demakdir. Ko'pgina tadqiqotchilar, ***sirak-siyroq*** so'zini "*pocha, poycha, oyoq*" tarzida izohlaydilar. Bunday izohlash xalq etimologiyasiga tegishli ta'bir sanaladi. Bundan tashqari, ***qorasirak*** etnonimi bilan atalgan joy nomlari respublikamizning barcha hududlarida uchraydi. Ushbu etnonim va shu etnonim asosida shakllangan etnooykonim tarkibidagi *qora* so'zi qanday ma'noda ishlatilgan, degan savol tug'iladi. Tarkibida *oq, qora* so'zlarining nisbatlanishi O'zbekiston qishloqlari nomiga xos muhim til hodisasidir. Qora so'zi qishloqlar nomida oq so'ziga nisbatan kamroq ishlatiladi.

SIRDARYO – Respublika tarkibidagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Viloyatning nomi bo'lishiga gidronim asos bo'lgan.

Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo, biroq suv hajmi bo'yicha Amudaryodan keyingi o'rinda turadi. Ushbu daryo turli manbalarda turlicha nomlangan: qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida **Yaxartes** (Yaksart), ba'zan **Tanais**, zardushtiylarning muqaddas "Avesto" kitobida **Danu**, **Yaosha**, X asrga oid "Hudud ul-olam" anonim asarida **Xashart**, qadimgi turkiy runiy yozuvlarida **Yenchiog'uz**, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida va Hamdallah Qazviniyning "Qalblar saodati" asarida (1339) **Gulzarriyun**, arablar istilosidan keyingi ko'plab yilnomalarda **Sayhun**, arab geografi Ibn Xurdodbehning (IX asr) asarlarida **Xishart** va **Kankar**, Beruniy asarlarida **Xasart**.

Shu bilan birga, daryo, oqim joyiga qarab, **Obi Farg'ona** (Farg'ona daryosi), **O'zgand daryosi, Obi Xo'jand** (Xo'jand daryosi), **Naxri Shosh** (Shosh, Choch daryosi), **Banokat daryosi** deb ham nomlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Yaxartes va Yaksart, Xashart va Enchuog'uz – barchasi "Marvarid daryosi" degan ma'noni anglatgan. Daryoning zamonaviy **Sirdaryo** nomi qachon paydo bo'lgan? Rim tarixchisi Pliniy (I asr) skiflar (saklar) bu daryoni **Silis** deb ataganliklarini yozib qoldirgan.

Ba'zi olimlar (V.V.Bartold, S.G. Klyashtorniy, H.Hasanov) Silisni **Sir** bilan bir xil deb hisoblashgan.

Shunday qilib, Sirdaryo qadimgi davrlarda o'rta va yuqori oqimlarda **Yaksart**, past oqimlarida esa – **Silis** (Sir) deb nomlangan. XIII–XIV asrlarda Jend shahri yaqinidagi quyi oqim nomi – **Siro'rda**. Ushbu dalillar mazkur daryoning (Sirdaryo) eng qadimgi nomlaridan biri nafaqat xalq og'zida saqlanib qolganligi, balki asta-sekin ushbu daryoning asosiy nomiga aylanib ulgurganidan dalolat beradi.

Ba'zilar daryoning nomi **Sir**, ya'ni bo'yoq degan ma'noni anglatadi, deya

ta'kidlashadi ("sariq daryo" (loyli daryo), **Sirtdaryo** – *"tog' sirtlaridan oqib keluvchi daryo"*).

Ushbu talqinning ilmiy mohiyati professor H.Hasanov tomonidan e'tirozga sabab bo'lgan. Biz ushbu buyuk daryoning nomini uning bo'yida yashagan qabila (silis – sir) nomi bilan bog'liq ekanligini eng munosib izoh deb hisoblaymiz.

Sirdaryo Markaziy Tyanshanda joylashgan Oqshiroq tog'idagi Petrov muzligidan boshlanuvchi Qorasoy hamda Tarag'ay daryolarining qo'shilishidan vujudga kelgan Norin bilan Farg'ona tizmasidan suv yig'uvchi Qoradaryoning Farg'ona vodiysi sharqiy chekkasida birlashishidan vujudga keladi[1].

Sirdaryo O'zbekistonning Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning Sug'd viloyati va Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston hamda Qizilo'rda viloyatlari bo'ylab avval g'arb, janubi-g'arb tomon, so'ngra esa shimoli-g'arbga oqib borib, Orol dengiziga quyiladi. Sirdaryo – qadimiy va tarixiy daryo.

Sirdaryo gidronimining turlicha nomlar bilan qadimgi tarixiy, geografik, badiiy asarlarda uchrashi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Sirdaryo gidronimi dastlab Rim tarixchisi Pliniy asarida (milodning I asri) ***"Silis"*** shaklida uchraydi[2].

E.Safoyeva va I.Shoyimardonovlarning ko'rsatishicha, Silis "sarmat", "sar", "sir" so'zlari bilan asosdosh (o'zakdosh) bo'lib, hammasi shu daryo bo'ylarida istiqomat qilgan sart nomli qabilasiga aloqador. *Sir* va *Silis* nomlari bir-biriga monanddir. *Sir* – Sirdaryoning qadimiy sak tilidagi nomi.

Bunday fikr P.Baratov ishlarida ham kuzatiladi. U: *"Silis" yoki "Sir"* so'zlari daryo qirg'oqlarida yashagan qabila nomidan olingan bo'lsa kerak, degan taxminlar bor", – deb yozadi[3].

Demak, Silis, Sir bir so'zning fonetik variantlaridir. XIII–XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo'jixonning o'g'illari va nabiralarining o'rdasi *Siro'rda* deb atalgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda *sir* etnonimi uchraydi: *"Qapg'an xoqon Turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi ham [yerga] ega ham bo'lmas edi"*[4]. Bu dalillar Sir etnonim ekanligini, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligini va hozirga qadar yetib kelganligini ko'rsatadi.

XVI asrda Muhammad Solih yozgan "Shayboniynoma" asarining o'nlab o'rinlarida ham daryo nomining Sir varianti kuzatiladi: *Bu ariq birla yetishti lashkar, Sir bo'yin ayladilar tunla maqar. Sovuq aylab erdi* ***Sirga***

[1] Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 85

[2] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-j. – Toshkent, 2004. – B. 640.

[3] Safoyeva Y., Shoyimardonov I. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – B. 24.

[4] To'nyuquq bitiktoshi // Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 79.

ta'sir, To'ngub erdi, topo olmay tadbir...[1] Ayrim tarixchi olimlar fikricha, "Avesto"da tilga olingan keng sersuv daryo – ***Ranxa*** hozirgi Sirdaryoning qadimiy nomi bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi[2].

Biroq "Avesto"ning yangi nashrida Ranxa gidronimi Amudaryo deb izohlangan. "Avesto"da quyidagi parcha kuzatiladi: *O'ldirdi danulik Varashavani, Va yovuzlik tarqatuvchi Pitasnani.* Mazkur parchadagi kichik harflar bilan berilgan *danu* so'ziga kitobning lug'at qismida quyidagicha izoh berilgan: "Danu – turlar qabilasining nomi. Ehtimol, ana shu qabila sohilida istiqomat qilgan daryoning nomi ham bo'lishi mumkin (Don, Sirdaryo)". Demak, asar tarjimoni fikricha, bu asardagi Danu Don yoki Sirdaryoning qadimiy nomi[3].

Sirdaryo gidronimi qadimgi yunon tarixshunoslari asarlarida, G'arbiy Yevropa manbalarida *Yaxartes (Yaksart),* ba'zan *Tanais* tarzida kuzatiladi.

Pliniyning ma'lumotiga ko'ra, daryoni baqtriyaliklar *Laksat,* skiflar *Silyas* deb atashgan. Laksat aynan Yaksart nomining variantidir. *Tanais* asli antik shahar (mil. av. III a. – mil. V a.), Don daryosining quyi oqimi bo'yida joylashgan.

Yunon muarrixlari Don va Sirdaryoni shunday ataganlar[4]. Anglashiladiki, Tanais asli polisonim – shahar nomi, keyinchalik daryo nomiga – gidronimga aylangan, ya'ni gidropolisonimdir, biroq bu nom manbalarda kam uchraydi. Klavdiy Ptolemey "Geografiyadan qo'llanma" asarida yozishicha, Yaksart daryosi sohillari yaqinida yaksartlar degan katta qabila yashagan[5]. Shuningdek, Bihistun kitoblarida Sirdaryo ortidagi qabilalar saklar deb atalgan. Gerodot "Tarix" asarida *"Forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar", – deb* yozadi[6].

Bizningcha, yaksartlar ana shu saklarning bir urug'i. Demak, Yaksart nomi yaksart etnonimining onomastik konversiya asosida gidronimga (daryo nomiga) o'tishi asosida shakllangan: *yaksart > Yaksart.* Yaksart gidronimi pahlaviychada *Yaxshart* shaklida uchraydi.

Sharqshunos I.Markvart Yaxshart gidronimini *Yaxsha, arta* kabi ma'noli qismlar (morfemalar)ga ajratib, uning etimonini *"haqiqiy, toza gavhar"*, deb izohlaydi. Yaxsha – gavhar so'zi daryoning xitoycha va turkiycha nomlari tarkibida ham mavjud.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda Sirdaryo gidronimining **Yinchuo'guz,**

---

[1] Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 128.

[2] *Qarang.* Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 22.

[3] *Qarang.* Avesto (Asqar Mahkam tarjimasi). – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 350.

[4] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-j. – Toshkent, 2005. – B. 252.

[5] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-j. – Toshkent, 2005. – B. 365.

[6] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-j. – Toshkent, 2005. – B. 437.

ya'ni **Injuo'guz** shakli kuzatiladi: *"Injuo'guzni kechib Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog'ini..."*[1]

S.G.Klyashtorniy Yinchuo'guz Sirdaryoning o'rta oqimi, lug'aviy ma'nosi: Inju (marvarid) daryo, deb ko'rsatadi[2]. Yinchu hozirgi o'zbek adabiy tilidagi inju so'zining tarixiy fonetik varianti bo'lib, "marvarid, gavhar" ma'nolarida qo'llanadi. O'g'uz so'zi turkiycha bo'lib, "daryo" ma'nosini anglatadi.

S.G.Klyashtorniyning ko'rsatishicha, daryoning xitoycha nomi "chjen chu je" ham aynan ana shu Yinchuo'guzning tarjimasi. Sug'dchasi *Yaxshart, Yaksart > Yaxsha arta (asl marvarid)*dir. Yaksartning xitoycha transkripsiyasi – *Yaosha, Yausha* yoxud *Yosha*. Islomiyat davridagi arab va fors manbalarida Beruniyning "Qonuni Mas'udiy", muallifi noma'lum "Hudud ul-olam" asarlarida gidronim *Xashart* shaklida uchraydi.

Bizningcha, Xashart ham Yaksart nomining fonetik varianti bo'lib, *Yaksart, Yaxshart, Chinchuxe, Yinchu, Xashart* kabi daryoning tarixiy nomlari aynan bir ma'noga ega. Shuningdek, daryo Firdavsiyning "Shohnoma" asarida va Hamidulloh ibn Abu Bakr Mustavfiy Qazviniyning "Nuzhat ul-qulub" ("Qalblar rohati") asarida *Gulzarriyun* tarzida tilga olinadi. Mazkur nom ham daryoning yuqoridagi nomlariga monand. Daryoning bu badiiy nomi Gulzarriyun – fors-tojikcha *"gul"* va *"zar"* so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, *"gulga monand zar, oltin"* degan ma'noni anglatadi.

Badiiy gidronim *Gulzarriyun*, bizningcha, Yaksart – "asl marvarid" ma'nosidagi yaksart etnonimi asosida shakllangan daryoning qadimiy nomi, Yoxshart, Xashart esa mazkur nomning fonetik variantlari. *Yinchu* (fonetik varianti Inju) gidronimning turkiy, *Chjenchuje* esa xitoycha muqobilidir. *Yaxshart, Chjenchuje, Yinchu* nomlari daryoni mohiyatan gavharga qiyoslash asosida shakllangan. Arablar esa daryoni *Sayhun* deb ataganlar. Jumladan, Alisher Navoiy *Sayhun suyi*, Zahiriddin Muhammad Bobur ham Sayhun gidronimini qo'llagan: *Oqib haddi sharqiyda Sayhun suyi, Borib haddi g'arbiyda Jayhun suyi*[3]. Yoki: *"yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimol jonubida"*.

Shuningdek, XVI asr oxirlarida, aniqrog'i, 1596-yillarda yaratilgan Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida Sayhun varianti kuzatiladi: *"(Chingizxonning) ikkinchi o'g'li Chig'atoyxondirki, (u) Qoshg'ar chegarasidan va Sayhundan (tortib) to*

[1] To'nyuquq bitiktoshi // Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 77.

[2] Кляшторный С.Г. Тонюкук-Асъхида Юанчжен. – Тюркологический сборник. К шестидесятилетию А.Н.Кононова. – Москва: Наука, 1966. – С. 75

[3] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Xamsa. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B. 328.

Jayhun labigacha (bo'lgan yerlarga) uning muborak hukmi joriy edi"[1].

Is'hoqxon Ibrat tarixiy asarida Sayhun, Sirdaryo nomlarini teng qo'llaydi: *"Xo'qand xonlig'iga Qoshg'ar va Pomir, ya'ni Shug'non hududig'acha O'rol ko'lina muttasil o'lub, butun Sayhun daryosini komilan shomul o'lub..."* Yoki: *"Farg'ona gubernasi shimoli-sharqiy tarafidan Samarchin, ya'ni Yettisuv shimoli-g'arbiy tarafidan Sirdaryoga nafsi Turkiston g'arbi-janubiy tarafidan Buxoro xonliqi mahkumi to Pomir, ya'ni Shug'non hukumati mustaqilasiga muttasildur.*[2] Ayrim manbalarda Jayhun (Amudaryo) nomi bilan Sirdaryoning Sayhun nomi "G'arbiy Osiyodagi Jayxon va Sayxon (asli *Jayhon, Sayhon*)ga nisbat qilib qo'yilgan", – degan izoh ham kuzatiladi[3]. Siyhon yoki Sayhon – Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qismidagi daryo. U Qaysariyadan boshlanadi va Tarsusga yaqin joyga suvini quyadi. Umaviylar va vizantiyaliklar hukmronligi davrida asirlarni ayirboshlash shu yerda amalga oshirilgan[4].

Sirdaryoning arablar kelganidan keyin Sayhun deb atala boshlanganligi e'tiborga olinsa, bu fikrda ancha asos bor. Toponimiyada bir joy nomining ikkinchi joy nomiga ko'chishi – qadimiy an'ana.

O'zbekiston toponimiyasida Sayhun gidronimi asosida shakllangan bir necha joy nomlari kuzatiladi. Jumladan, *Sayhunobod* – Sirdaryo viloyatidagi tuman nomi, ya'ni gidroxoronim (suv obyekti nomi bilan atalgan tuman), Sayxun Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi shaharcha nomi, ya'ni gidrooykonim (suv obyekti nomi bilan atalgan shaharcha nomi) va boshqalar[5].

Manbalarda Sayxun gidronimining imlosi turlicha beriladi. Jumladan, Boburning "Boburnoma" asarida *Sayxun*, Ibratning "Ta'rixi Farg'ona" asarida *Sayhun*, fors-tojikcha "G'iyos ul-lug'at", arabcha "Al-Munjid" kabi lug'atlarda *Sayhun*, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da va boshqa ayrim manbalarda esa *Sayxun* kabi.

Sir variantiga doir turlicha talqinlar kuzatiladi. Jumladan, S.Qorayev kitobida ko'rsatilishicha, bu nomning bir nechta variantlari bo'lib, ularni quyidagicha izohlaydilar: *"Sirli daryo", "sir", ya'ni "rang", "bo'yoq" so'zidan; Sirtdaryo – tog' oralaridan, sirtlaridan oqib keluvchi daryo; Saridaryo – "sariq daryo", ya'ni loyqa suv; Serob – "ko'p suvli"*[6]. A.Xudoyorov fikricha, bu vari-

[1] Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy"). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzayev tarj. So'zboshi va izohlar muallifi: B.Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 50.

[2] Ibrat. Farg'ona tarixi. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 282–284.

[3] *Qarang.* So'z mulkiga sayohat. Amudaryo // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 1996. – B. 89.

[4] *Qarang.* Al-Munjid. – Bayrut: Katolik, 1966. – B. 276.

[5] *Qarang.* O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 7-j. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. –B. 435.

[6] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 112.

antlardan faqat bittasi – ***"Sirtdaryo"*** sal asosliroq[1].

Bizningcha, gidronimning *Sirli daryo, Sirtdaryo, Saridaryo, Serob* kabi variantlari ilmiy manbalarda kuzatilmaydi va ***Sir*** nomini "rang", "bo'yoq" so'zidan olingan deb izohlash juda jo'n hamda sodda talqin. Osetiyalik sharqshunos B.Albarov daryo nomi haqida qiziq mulohaza yuritadi: *"Sarmast – sart – silis – sir* so'zlarining o'zagi bitta: bular hammasi shu daryo bo'ylarida istiqomat qilgan sar ismli qabilaga aloqador: daryo nomi hind-yevropacha sal (tuz) so'zidan olingan – daryo o'zanidan tuz yig'ilib, etaklarda yuzasi oqarib turadi, ya'ni "Tuzli daryo" demakdir".

Demak, B.Albarov fikricha, sar va sal aynan bir so'z. Bu talqin ham ancha asossiz. Sirdaryo qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab, *Obi Farg'ona* (yoki Farg'ona daryosi), *O'zgan daryosi, Obi Xo'jand* (Xo'jand suvi), *Nahr ash-Shosh* (Shosh daryosi), *Banokat daryosi* deb ham atalgan[2].

Tahlillardan anglashiladiki, daryo tarixda o'nlab nomlar bilan atalgan. Jumladan, yuqori va o'rta oqimlarida Yaksart, quyi oqimida Sir (Silis), arablar tomonidan Sayhun kabi. Hozirda bu nomlardan Sirdaryo varianti faol qo'llanadi. Sirdaryo gidronimi morfemik jihatdan *sir* va *daryo* ma'noli qismlaridan tarkib topgan bo'lib, sir etnonimi asosida shakllangan. Sir so'zining etnonim deb qaraydigan bo'lsak, gidronimning etimoni *"sirlar daryosi"* otli birikmasi. Birikma davrlar davomida sayqallanib, qo'shma so'zga, undan qo'shma tarkibli nomga, ya'ni gidronimga aylangan: *Sirlarning daryosi > Sirlar daryosi > Sir daryo > Sirdaryo.*

Shuningdek, hozirda ham o'zbek she'riy nutqida gidronimning *Sir* yoki *Sayxun* shakllari kuzatiladi: *Amu bilan Sirdan suv ichgan, Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda* (H.Olimjon. "O'zbekiston"). Nomning Sayxun shakli tarixiy, badiiy asarlardagina qo'llanadi. Sirdaryo gidronimi va uning varianti hamda muqobillari tahlili nomlar xalq tarixi, tili haqida yorqin ma'lumot beruvchi lisoniy xazinaligidan dalolat beradi.

SIRMOQ – qishloq. Andijon viloyati Baliqchi hamda Namangan viloyati Norin, Uchqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Sirmoq* – Farg'ona qipchoqlarining urug'laridan biri (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 116).

SIRG'ALI – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi bo'lis nomi. Manbalarda dastlab volost (bo'lis) nomi sifatida uchraydi. Mazkur termin bilan ataluvchi nomlar respublikamizda ko'p. Jumladan, Toshkentdagi Sergeli tumani nomi ham ushbu so'z bilan bog'liq. Sirg'ali so'zi aslida etnonim bo'lib, urug' nomidir.

Akademik V.V.Radlov sirg'ali urug'ini yuz qabilasining tarmoqlaridan

[1] Xudoyorov A. Daryolarning ko'hna nomlari // "Ma'rifat" gazetasi, 2007, 20-yanvar, 14-bet.

[2] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 7-j. – Toshkent, 2004. – B. 640.

biri sifatida ko'rsatadi. Sirg'ali urug'i haqidagi ma'lumotlar boshqa ko'pgina etnograf olimlarning ishlarida ham uchraydi.

Masalan, etnograf olim K.Shoniyozov Zarafshon vohasida yashovchi jetiuruv o'zbek-qipchoqlar tarmog'ining bir bo'limi "sirg'ali" ekanligini qayd etadi.

Shunday fikr professorlar X.Doniyorov, H.Hasanov asarlarida ham mavjud. Toponimshunos S.Qorayev Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Sirg'ali, Sirg'aliog'ar qishloqlari haqida yozar ekan, sirg'ali (sergeli, sergali)lar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qoziqurt, Qorjontov, Chimkent etaklarida, Keles, Bodom, Chirchiq daryolari bo'ylarida yashaganliklarini qayd qilib, sergeli (sirg'ali)lar 12 urug' tarmog'idan iborat, deb ko'rsatadi.

Demak, sirg'ali turkiy (o'zbek, qozoq va boshqa xalqlar) urug'laridan biri bo'lib, u ko'plab toponimlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Urug'ga sirg'ali deb nom berilishi esa, uning tamg'asi sirg'a shaklida bo'lganligi bilan bog'liq. Oqdaryo tumanida bugungi kunda ushbu nomdagi toponimning uchramasligi davr o'tishi bilan mazkur so'zning o'z mohiyatini yo'qotishi bilan bog'liq.

SITORAJURIDA – dara. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi dara nomi. Forscha *sitora jurida* – "ulduz tushgan", "ulduz tushgan joy", ya'ni yashin urgan joy.

SIYOB – yerosti sizot suvlaridan boshlanuvchi ko'plab ariqlarning nomi. O'zbek tilida Qorasuv deb ataladi. Siyobibolo, Siyobituman Samarqand tumanidagi ariqlar. Samarqand shahrining shimoli-g'arbiy tomonida oquvchi Siyob kanali XIX asr boshlarida *Siyohobi Kaloni puli Mirzo* deb yuritilgan.

V.L.Vyatkinning qayd qilishicha, Zarafshonning janubiy tarmog'i, hozirgi Qoradaryo ham Siyohobi Kalon deb atalgan (Vyatkin, 1902). Miyonqoldagi Siyohob kanali esa Hazarayi Siyohob nomi bilan yuritilgan bo'lib, u joyni sug'organ, keyinchalik bu joy Hazara deb atalgan (Chexovich, 1974).

Siyob gidronimining o'zbekcha shakli Qorasuv bo'lib, Samarqand, Paxtachi, Bulung'ur, Ishtixon, Payariq va boshqa tumanlardagi o'nlab ariqlar shunday ataladi. O'zbekiston, umuman, Markaziy Osiyodagi juda ko'plab soy va jilg'alarning nomi.

Akademik A.N.Kononov "qora" terminini toponimikada "yer, quruqlik" ma'nosida keladi, shunga ko'ra, *qorasuv* – "yerdan sizib chiqqan suv, ya'ni buloq suvi", *"oqsuv"* esa – "oqar suv" degan ma'noni bildiradi, deydi.

Aslida esa tog'lardagi qor, muzlardan to'yinadigan oq suvlardan farq qilib (q. Oqsuv), buloq va sizot suvlari qorasuv deyiladi. Chunki buloq suvidan hosil bo'lgan soy haqiqatan ham qoramtir ko'rinadi. Bunday suv Qorasuv yoki Qoradaryo, o'z o'zanidan oqayotgan suv Oqsuv yoki Oqdaryo deb ataladi (Qorayev, 1978).

SIYOKORON – Buxoro shahridagi daha. Ma'nosi – "siyohchilar". Aholining asosiy mashg'uloti "ishlatilgan poyabzallarni tuzatish, bo'yash va sotish edi". "Siyokori" – bu dahaga nom berishga asos bo'lib xizmat qildi (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 122).

SIYOHREG – joy nomi. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. Forscha *siyoh reg* – "qora qumlar" ma'nolarini anglatadi.

SIYROQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. ***Sarmat*** qabilasining bir tarmog'i ***sirak-siyroq*** deb ataladi. "***Siyroq***" etnonimi bilan aloqador etnooykonimlar mavjud. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida ***Siyroq*** nomli, Jizzax viloyati Zarbdor tumanida ***Juvonsiyroq, Do'svonsiyroq***; Samarqand viloyatining Pastdarg'om hamda Toshkent viloyatining Piskent va Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida ***Qorasiyroq***; Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida ***Kattasiyroq*** kabi etnooykonimlar bor.

"***Sirak-siyroq***" etnonimi yasama so'z bo'lib, u ***sir*** va ***-ak*** qismlaridan iborat. Etnonimlarning ***sir*** qismi Sirdaryo gidronimi tarkibida ham mavjud. Bu gidronim tarkibidagi ***sir*** qismini turlicha talqin etadilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar ***sir*** qabilasi nomidan olingan so'z deb hisoblaydilar. ***Sarmat*** – *sart//silis// sir* so'zlarining o'zagi bitta bo'lib, ular hammasi Sirdaryo bo'ylarida istiqomat qilgan ***sir*** (*sir//sur//sor*) nomli qabilaga tegishlidir. Turkiy tillar tadqiqotchisi S.G.Klyashtorniy sir etnonimi haqida birmuncha qiziqarli va ishonchli fikrlarni bayon etishga intilgan.

SIZA – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. *Siza* – nam, ho'l kabi ma'nolarni ifodalasa, *siza yer* – nam, ho'l yer ma'nolarini ifodalaydi.

SOBLIQ//SOYLIK – arab geografi Ibn Havqalning yozishicha, Isfijob (Sayram) va Shosh (Toshkent) viloyatlarining chegarasi oralig'ida joylashgan Kalas dashtida Sirdaryo viloyatidan Soblaq tog'igacha ko'chmanchi qochoqlarning himoyasi uchun devor qurilgan.

Ehtimol, bu Chirchiq vodiysida aniqlangan katta himoya devorining xarobalari va uning qoldiqlari hisoblanadi.

SOBUNGARON – Buxoro viloyatidagi daha. *Sobungar* – sovun tayyorlovchi, *-on* – ko'plik qo'shimchasi. "Sovun tayyorlovchilar" zamonaviy avlod xotirasida bo'lmagan.

Aholining xabar berishicha, amir hukmdorlari dahalarida aholi zich joylashgan hududlarda sovun tayyorlash taqiqlangan (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 164–165).

SOHIBZODA – daha. Buxoro shahridagi daha nomi. *Sohibzoda* "xo'jayini tomonidan kaltaklangan" – so'fiyning laqabi. Uning qabri ziyoratgoh hisoblanadi (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 100).

SOHIBKOR – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi ma-

halla nomi. Ushbu termin arabcha+-forscha bo'lib, *ishbilarmon, ish beruvchi, yollovchilar, o'z ishining ustasi, omilkor* ma'nolarini ifodalaydi.

SOKTARI – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom o'zagidagi ***sokt*** so'zi aslida tojik tilining Buxoro shevasidagi ***sokit*** so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lishi kerak. *Tar, tari* so'zi esa kuchaytiruvchi vazifasini bajaradi. Bunda *Soktari* toponimining *Sokittari* ko'rinishidagi asl shakli hosil bo'lib, "*xomush, orom, ohista*" ma'nolari kelib chiqadi va nomni qishloq ahlining fe'l-atvori, turish-turmushini aks ettiruvchi toponim sifatida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, ***Soktari*** termini aslida, ***Sad piri*** so'zining o'zgargan dialektal shakli ekanligi va u "*yuzta pir, yuz ma'naviy ustoz yashagan qishloq*" ma'nosini anglatishi to'g'risidagi talqinlar ham mavjud. Tariqat pirlaridan biri Mavlono Poyanda Soktaregi, shuningdek, atoqli adib Sadriddin Ayniy shu qishloqdan bo'lishgan.

SOLIN – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Solin o'zbek urug'larining kichik bir shoxobchasi. Solin urug'i tog'ayto'bi, jobuvchisolin, shodmonto'bi, kavraksolin, davlatsolin, uyazsolin, qirsadoqsolin degan tarmoqlarga bo'lingan (Qorayev, 1978, 113).

Shuningdek, Jizzax viloyatining Zomin tumanida ham shunday nomli toponim mavjud. Solin – Tagaytobi, Jabuvlisalyi, Shadmantobi, Kavraksalin, Davlasalin, Uyazsalin, Kirsadaksalin va boshqalarning birlashmalaridan tashkil topgan o'zbek qabilasi.

Solin qabilasi vakillari Zarafshon vodiysi va Markaziy Osiyoning boshqa joylarida tarqoq holda yashashgan.

SOLOVOT – qishloq. Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi qishloq nomi. Bu so'z **Solihobod** – *"Solih tomonidan obod qilingan"* degan ma'noga ega bo'lib, bunda Solih – mahalliy hukmdorning ismidir.

SOLPI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponimni tashkil etgan "***solpi***" so'zi o'zbek urug'laridan birining nomi, etnonimdir [S.Qorayev. 1, 113; Z.Ziyotov, 127].

X.Doniyorovning ma'lumotlariga ko'ra, qipchoqlarning bir urug'i solpi deb nomlangan [X.Doniyorov, 84].

Shunga ko'ra ushbu mikrotoponimni "*solpi urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" tarzida izohlash maqsadga muvofiqdir.

SOMJAN – Qorako'l ko'lining va Zarafshon daryosi quyi oqimining o'rta asrlarga oid nomi (qarang). Sug'diy tilida **Somjan** so'zi "qora havza" degan ma'noga ega bo'lgan (А.А.Хромов. О структурных особенностях иранской топонимии в период IX–X вв., сб. "Восточная филология" Таджгу, вып. III, 1974. С. 14). **Bargin-i Farrax** – ***Qorako'l*** ko'lining o'rta asrlarga oid nomlaridan biri bo'lib, "keng havza" degan ma'noni anglatgan.

SORIBULOQ – qishloq. Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim "***sari(q)***" va "***buloq***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"***Sari(q) // sori(q)***" umumturkiy etnonim bo'lib, u turkman, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, o'zbeklar tarkibida mavjud. O'zbeklarning urug'laridan qo'ng'irotlar, laqaylar, qatag'on, mang'it, batoshlar tarkibida ham ***sariq // sari // sori(q)*** urug'i bor [T.Nafasov, 166; S.Qorayev, 1, 107].

Apellyativning ikkinchi qismi "***Buloq***" so'zi esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosini ifodalaydi.

Shunga binoan mazkur oyonimni "*sori(q) urug'i vakillari tomonidan buloq yonida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Ushbu etnooykonim ot+ot shakliga ega.

SORITOL – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi joy nomi. Ikki komponentli sifat + ot shaklidagi mikrooykonim.

"***Sor//Sar***" forscha *bosh, "kalla; boshlanish uchi; cho'qqi; eng yaxshi*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 687].

"***Tol***" so'zi esa "*ingichka uzun bargli, surx novda otib o'sadigan daraxt yoki buta*" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 4, 606].

Demak, mazkur mikritoponimning nomi tolzorning boshlanish qismiga nisbatan berilgan.

SORITOSH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi cho'qqi nomi. Mazkur nom "***Sor (sar)***" va "***tosh***" – ikki komponentli mikrooykonim.

"***Sor//Sar***" forscha *bosh, "kalla; boshlanish uchi; cho'qqi; eng yaxshi*" ma'nosiga ega [O'TIL. 3, 687].

"***Tosh***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo'rt tog' jinslarining umumiy nomi*" ma'nosini ifodalaydi (O'TIL. 1, 351; O'TIL. 5, 4, 159).

Demak, mazkur nom orqali toshloq hududning boshlanishiga nisbat berilmoqda.

SORITOSH SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Mazkur gidronim "***sori***", "***tosh***" va "***soy***" qismlaridan iborat.

"***Sari(q) // sori(q)***" umumturkiy etnonim bo'lib, u turkman, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, o'zbeklar tarkibida mavjud [S.Qorayev, 1, 107; T.Nafasov, 166; Z.Ziyotov, 115-116].

Geografik termin sanalgan "***Soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" [O'TIL. 3, 545].

Demak, "***Soritosh soy***" gidronimi "*sori nomli urug' vakillari istiqomat qiluvchi yashash maskani yaqinidagi tog' jinslari ko'p bo'lgan kichik toshhli daryo*" ma'nosini ifodalaydi.

SORIG'UL – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot hamda Nurobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur mikrotoponim "***sori(q)***" va "***gul***" qismlaridan iborat.

"***Sari(q) // sori(q)***" umumturkiy etnonim bo'lib, u turkman, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, o'zbeklar tarkibida mavjud [S.Qorayev, 1, 107; T.Nafasov, 166; Z.Ziyotov, 115-116].

O'zbeklarning urug'laridan qo'ng'irotlar, laqaylar, qatag'on, mang'it, batoshlar tarkibida ham ***sariq // sari // sori(q)*** urug'i bor [T.Nafasov, 166; S.Qorayev, 1, 107].

T.Nafasov "***sariq***" komponenti asosida shakllangan *Sariqaloq, Sariqal'a, Sariqbatosh, Sariqtepa, Sariqumursqa* kabi joy nomlarini izohlaganda, ularning barcha tarkibida bu leksema etnonim sifatida ishtirok etayotganini ta'kidlaydi [T.Nafasov, 166-167].

Etnograf olima B.Qarmishyevaning fikricha, ***sari(q)*** so'zi yirik qabila nomlariga ham qo'shilgan: *sari uyg'ur, sari nayman, sari qipchoq, sari qangli, sari qirg'iz, sari no'g'ay* kabi. Bunda ***sari*** leksemasi yirik etnik birlikning urug'i (qabilasi) yoki undan kichik bo'limi, tarmog'ini bildirgan. Bu o'rinda ***sari(q) // sori(q)*** etnonimi totem asosida yuzaga kelgan[1].

Toponim tarkibidagi "***Gul***" so'zi forscha bo'lib, "*chechak, atirgul, umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o'zi o'sadigan gulli o'simliklar*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 516].

Shunga ko'ra mazkur mikrotoponimni "*sori(q) urug'i vakillari tomonidan gullar o'sadigan joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlasa bo'ladi va u ot+ot shakliga ega.

SORTOVUL – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***sort // sart***" va "***ovul***" qismlaridan iborat. "***Sort // sart***" urug' nomlaridan biri etnonim ekanligi T.Nafasov tomonidan qayd etilgan [T.Nafasov, 167]. Xuddi shu fikr N.Begaliyev tomonidan ham ma'qullangan [N.Begaliyev, 94].

Lekin Z.Ziyotovning fikricha, "***sart // sort***" termini etnonim emas. "Sart" termini aslida, sanskrit tilidan olingan bo'lib, "*karvonboshi savdogar, shaharlik*" ma'nolarini anglatadi [Z.Ziyotov, 118-119].

"***Ovul***" so'zi esa "*ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 3, 81].

Shunga asoslanib, biz ushbu etnotoponimni "*sort urug'i vakillari bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq*", deb izohlash tarafdorimiz hamda leksik jihatdan ot+ot shakliga ega.

SORVONON – daha. Buxoro shahridagi daha nomi. *Sorbonon* – "Tuya haydovchi podachilar". Bu yerda harbiy xizmat sinfining vakillari bo'lgan, ular amirning tuyalarini boshqargan

[1] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 92–105.

va ularning yordamchilari tuyalarni boqishgan (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 127).

SOVOT – qishloq. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq nomi. Karvon yo'lidagi tarixiy qishloq. Ilk bor arab geograflari Istaxriy (БАГ, I С. 379, 403), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 49, 365, 342), Ibn Xurdodbeh (БАГ, VI, С. 27) asarlarida tilga olinadi. *Sabat* arab tilida *karvonsaroy, yom* ma'nolarini ifodalaydi ("Hudud ul-olam" Минорского. С. 354); o'zbek tilining Xorazm va Buxoro shevalarida *sabat* "ayvon" ma'nosini ifodalaydi (O'zbek xalq shevalari lug'ati. –Toshkent, 1952. 35, 228-b.).

SOVUNCHI – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahallaning qadimiy nomlaridan biridir. Mazkur hududda yashovchi kishilar qadimda sovun ishlab chiqarish bilan shug'ullanishgan va shuning uchun ham shu nom bilan atalgan.

SOVUQ BULOQ – buloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Ushbu nom "***Sovuq***" va "***buloq***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti "***Sovuq***" so'zi suvi muzdek, odatdagidan yax bo'lgan holatni ifodalaydi.

"***Buloq***" geografik termini *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosiga ega [O'TIL. 1, 371].

Demak, "**Sovuq buloq**" - shu tipdagi buloqlarga qaraganda *"suvi muzdek buloq"* ma'nosi anglashiladi.

SOVURBULOQ – qishloq. Farg'ona shahar kengashiga qarashli qishloq nomi. Toponim tarkibidagi asosiy geografik termin buloqdir. Yuqorida aytilganidek, bu so'z "oqmoq", "aralashmoq" fe'lidan olingan. Buloqning xarakteri, shakli, soni, egasini ifodalovchi so'zlar qo'shilib, ko'plab joy nomlari hosil bo'lgan, jumladan, *Buloq, Buloqboshi, Yettibuloq, Zarbuloq, Mingbuloq, Oqbuloq, To'qqizbuloq, Qo'shbuloq* kabi joy nomlarida "buloq" so'zi asosiy toponimdir.

Demak, Sovurbuloq turli xil kasalliklarni davolashda ishlatiladigan shifobaxsh suvi tufayli shunday nomlangan, degan izoh mavjud.

SOYOT – mahalla va qishloq. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri. Mahalliy aholi vakillarining fikrlariga asosan, qadimda sayot degan ovchi bo'lgan va u qushlar, turli xil hayvonlarni ovlab, shu joyda yashab, o'ziga makon qilgan hamda u yerda keyinchalik bog' barpo qilgan va shuning nomi bilan *Soyot* deb atashgan.

Biroq ilmiy manbalarda *Sayot* boshqacha talqin qilinadi. Chunki mazkur nom bilan atalgan toponimlar respublikaning boshqa hududlarida ham uchraydi. Xususan, S.Qorayevning lug'atida *Sayot* (sayotli, sayotlar) – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Amudaryo bo'yida, qisman Zarafshon vodiysida yashagan etnik guruh sifatida qayd etiladi.

SOYBO'YI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida-

gi qishloq nomi. O'zbek adabiy tilida **soy** – *ikki cho'ziq adir yoki qir, past tizmalar orasidagi pastlik joy, vodiy.* Ikkinchi ma'nosi ana shunday *soy, soyloq, vodiydan oqadigan suv: Ayoqchisoy, Sho'robsoy, Makritsoy, Toshbuloqsoy.* So'nggi ma'no – *uzun o'zanga ega bo'lmagan oqar suv.* Shu ma'no soy so'zining eng qadimiy ma'nosi. **Soybo'yi** – *oqar suv, jilg'a bo'yi(dagi qishloq).*

Tog'li hududlarda terskay va kungay atamalari ekspozitsiya, ya'ni quyosh nuriga zid yoki to'g'ri joylashgan tomon ma'nosida qo'llaniladi. Dehqonobod tumanidagi qishloqning nomi **Terskay**. Uning ma'nosi – *tog' va tog' tizmalarining, qir va boshqa balandliklarning shimolga qaragan, quyosh nuri kam tushadigan tomoni.* Qishloq joylashgan o'rniga ko'ra nomlangan.

O'zbekistonda, ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi bir necha aholi punktlarining nomi. Soy: 1) ariq; 2) quruq irmoq; bo'y – qirg'oq. *Soy bo'yi* – daryo qirg'og'i, daryo atrofi (quruq irmoq, daryo atrofida joylashgan qishloq).

Farg'ona viloyatining Farg'ona, Yozyovon, Qo'shtepa tumanlarida o'ndan ortiq takrorlanadigan joy nomlaridan biri. Soykeldi, Soyyoni, Qorasoy kabi nomlarda ham toponim yasovchi so'z sifatida soy ishlatiladi. Soy so'zining ikki xil ma'nosi mavjud. Asosiy ma'nosi kichik daryo, oqar suv bo'lsa, qo'shimcha ravishda soylik, keng vodiy, dara ma'nosini ham anglatadi.

SOYKECHAR – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. *Soykechar – daryo orqali o'tiladigan yo'lak* ma'nosini ifodalaydi.

SOYLIQ – qishloq. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi qishloq nomi. Tarixiy asarlarda Chirchiqning madaniy chizmalarida Sobliq yoki Soyliq tog'lari tilga olinadi.

Arab geografi Ibn Havqal asarlarida (X asr) hozirgi Chirchiq daryosi bo'ylarida *Sobliq* yoki *Soyliq* tog'lari tilga olingan. O'sha tog'lar yaqinida hozir *Soyliq* qishlog'i joylashgan.

Akademik V.V.Bartold esa mazkur hududda haligacha ham Soyliq qishlog'i borligini va uni oronimga aylanganini qayd etadi (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 229). *Soyliq* (soylik) – *chuqur bo'lmagan soy, vodiyning soyi.*

SOYMAHALLA – qishloq. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi qishloq nomi. *Soymahalla – daryoning qirg'og'idagi mahalla* ma'nosini anglatadi.

SOYQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. *Soyqishloq – daryoning qirg'og'idagi qishloq* ma'nosini anglatadi.

SOG'ARJ – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Sog'ishtepa yodgorligi. Sog'ishtepa akademik Y.Buryakovning ma'lumotiga ko'ra, Sug'dning shahar darajasidagi ulkan aholi punktlaridan biri bo'lgan Sog'arjning xarobasidir. O'rta asr muarrixlari Al-Yaqubiy (IX asr) va Somoniy (XII asr) asarlarida tilga olin-

gan Sog'arj Ishtixon tumani tasarrufiga kirgan.

V.L.Vyatkin Sog'arj Movarounnahrning eng qadimgi aholi punktlaridan biri ekanligini ta'kidlab, uning arab istilolari davrida ham yirik qishloqlardan biri bo'lganligini yozib qoldirgan. Sog'arj Yangiqo'rg'ondan 4 vyorst (km) masofada bo'lgan (Вяткин. Материалы.., 1902: 62). Ayniqsa, XVI–XVII asrlarda mashhur bo'lgan bu qishloq tasavvufning taniqli vakillaridan biri Burhoniddin Sog'arjiyning vatani hisoblanadi.

Hofiz Tanish Buxoriy o'zining asarida ushbu tumanni mustaqil ulus sifatida qayd qiladi va uni "Sog'arj viloyati" deb tilga oladi (Hofiz Tanish Buxoriy, I, 2000: 36). Sog'arj joniylar yoki ashtarxoniylar davrida Samarqand viloyatining muhim markazlaridan biri bo'lgan (Bartold, I, 1963: 36). Sog'ishtepada olib borilgan qazilmalar jarayonida (arxeolog G.Vafoyev) bu yerdagi machit xarobalaridan oq marmardan yasalgan 2,5 metrlik ustun topilgan bo'lib, unda Ulug'bek davridagi amirlardan Davlatxojaning o'g'li Nuriddinning topshirig'iga ko'ra ushbu ustun 1415-yilda machit uchun tayyorlanganligi yozilgan. Sog'arj ashtarxoniylar davriga kelib o'z mavqeyini yo'qotadi. Mang'itlar hukmronligida Sog'arj o'z o'rnini keyinchalik Yangiqo'rg'on nomi bilan mashhur bo'lgan Dushambeqo'rg'onga bo'shatib bergan (1801-yilda Yangiqo'rg'on Dushambeqo'rg'on nomi bilan tilga olinadi. Bu davrda u devor va xandaqlar bilan o'ralgan, arki bo'lgan shahar edi. Qal'a darvozasi oldida madrasa va jome machiti bor edi. V.L.Vyatkin o'zi yashab turgan davrda madrasaning mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi).

Yoqut asarida yozilishicha, Ishtixon tumanining shimoli-sharqiy hududi Sog'arj tog'lari bilan chegaradosh bo'lib, bu joyda shu nomdagi qishloq ham bo'lgan (Bartold, I, 1963: 147).

Markaziy Osiyo toponimiyasida "shov", "sov" komponentlari bilan yasalgan bir qator nomlar uchraydi. Jumladan, Shovdor, Savdor (Urgut tog'lari), Shavg'ar (Turkiston shahrining o'rta asrlardagi nomlaridan biri, Qoz.R), Shavkat (Ustrushonadagi o'rta asr shahri), Shovqar cho'qqisi (Jizzax viloyati) va boshqalar (Qorayev, 1978).

Olimlar Yag'nob toponimiyasida uchraydigan *Shovdor (Shoudor), Shoug'ar* kabi nomlar haqida gapirar ekanlar, ular tarkibidagi *shou, shov* komponenti sug'dcha *"qora"* ma'nosidagi so'z bo'lib, ikkinchi qismi *g'ar* esa *"dovon, tog'"* ma'nosidadir, deyishadi. Shunga ko'ra, Shovg'ar so'zini "qoratog'" deb izohlashgan (Хромов, 1975: 15).

Ko'rinib turibdiki, *"shov", "shav", "sov"* elementlari yordamida yasalgan nomlar geografiyasi keng bo'lib, *Sog'arj* nomi ham shular jumlasidandir. Biz bu o'rinda mazkur toponimning *Shovg'arch – Shovg'arj – Sovg'arj – Sog'arj – Sog'ish – Sog'ishtepa – Sog'ishmon* shakllarida o'zgarib borganligini kuzatamiz.

Demak, dastlab tog' nomi bo'lgan *Sog'arj* so'zi keyinchalik qishloq nomiga nisbatan ham qo'llanila boshlagan.

SOCHAK – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq. Toponimist T.Nafasov 1926-yilgi qishloqlar ro'yxatida Kitob tumanida Sochak nomli qishloq qayd qilingani haqida to'xtalib, ushbu nomning qadimiy shakli *sang+i+choh – sangi+choh– sangichak – songi+chak – so: -chak – sochak* bo'lgan deb ko'rsatadi va **Sang+i+choh** – *chuqurlikdagi tosh, chuqur joydagi tosh* ma'nosida ekanligini yozadi (Nafasov, 2009: 233).

Shuningdek, 1490-yilgi vaqf hujjatida Toshkent viloyati Chirchiq daryosining quyi qismida Sachak nomli qishloq bo'lganligi ta'kidlangan (Chexovich, 1974).

SOCHTEPA – qishloq, Farg'ona viloyatining Beshariq va O'zbekiston tumanlari. **Sochtepa** (shoshtepa, chochtepa) – *qo'rg'on, sun'iy tepalik, loydan barpo qilingan qal'a* ma'nolarini anglatadi.

SU – tomon, yo'nalish (sesu, chorsu), *suq* – shu ma'nosida, biroq kichraytirish mazmunidagi affiks bilan (sesuq, chorsuq). **Chorsuq** – *"chorraha"*. Arabcha *suq* – *"bozor", "rasta"* (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 90, 303).

SUDOCHYE – Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanidagi ko'l. Qoraqalpoq toponimisti Q.Abdimuratov Sudochye qoraqalpoqcha – "suvi dushshi", ya'ni "suvi chuchuk (ko'l)" so'zlaridan kelib chiqqan deydi. Agar shunday bo'lsa, bu nom Dushshiko'l (Chuchukko'l) bo'lar edi.

Turkiy toponimlar tarkibida suv so'zi toponim oxirida keladi: Achchisuv, Shirinsuv, Qorasuv, Oqsuv. Ilgarilari So'rko'l (Sho'rko'l) deb atalgan. Bu yerlarda Uraldan ko'chirib keltirilgan ruslar yashagan va ko'lni Sudochye – "sudak balig'i ko'li" deb atagan (qoraqalpoqlar bu baliqni *sila balig'i* deb ataydilar).

SUFON – Farg'ona viloyati Quvasoy shahar kengashiga qarashli qishloq. Mazkur toponimning etimologiyasi ma'lum emas. Toponim tarkibidagi *-on* affiksi tojikcha bo'lib, kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga (millatga, urug'ga, kasbga) mansubligini bildiradi, Arabon, Manvitop, Kosagaron, Kokshon kabi. Bunday yondashuvda Sufon biror guruhga (masalan, so'filar) mansub kishilar yashaydigan joy ma'nosida bo'lishi mumkin.

SUFRATOSH – qishloq, Surxondaryo viloyati Sherobod tumani. *Supra* (forscha talaffuz – *sufra)* – dasturxon, un elash uchun mo'ljallangan to'shama. *Sufratosh* – dasturxon shakldagi tosh ma'nosini anglatadi.

SULAYMON//SULAYMONBEK – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi hamda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloqlar nomi. XIX asrning 60-yillarida, Musulmonqulariq kanalidan boshlanuvchi ***Mazgilsoy*** (qarang) arig'i qazilganida, yangi o'zlashtirilgan yerlar Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li Sulaymonbekka berildi va bu yer-

larda paydo bo'lgan manzilgoh Sulaymonbek deb nomlandi. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanida ham Sulaymonbek qishlog'i bor edi.

SULDUZ – qishloq. Andijon viloyati Andijon tumani. Sulduz – bu XIII–XIV asrlarda Ozarbayjon, Eron, Xuroson va Movarounnahrda ham yashagan mo'g'ul qabilasi.

"Sulduz" nomi O'rta asr yozma yodgorliklarida keltirilgan o'zbek qabilalarining ro'yxatlarida uchraydi, biroq XX asrga tegishli shu kabi ro'yxatda ushbu nom uchramaydi.

Bu shuni anglatadiki, bu vaqtga kelib, Sulduzlar Movarounnahrda va Xuroson aholisi orasida assimilyatsiya bo'lib (aralashib) ketishgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 172).

Demak, sulduz mo'g'ulcha so'z: *sulde* – bayroq, *-z* – ko'plik qo'shimchasi, *sulduz* – bayroqdorlar.

Chingizxon va uning avlodlari huzurida sulduzlardan chiqqan amirlar – Shire avlodlari katta hurmatga sazovor bo'lganlar. Bu qabiladan chiqqan amirlarning bir qismi Mo'g'ulistonda xoqon huzurida, qolganlari Xitoy, Eron va boshqa joylarda xizmat qilganlar. Elxoniylar (halokular) huzurida amir Cho'pon boshchiligidagi sulduzlar turk-mo'g'ul ko'chmanchi harbiy asilzodalari orasida eng kuchli guruhni boshqarganlar. Abu Said davrida otaliq bo'lgan amir Cho'pon Eronda hokimiyatni qo'lga olib, cho'poniylar sulolasiga asos solgan. XIV asrning 50-yillarida sulduzlar Balx rayonida yashashgan. Amir Qozag'on o'limidan so'ng, sulduz qabilasi boshlig'i Uljoyd buqa sulduz Balx viloyatining bir qismini egallab oladi.

"Sulduz" nomi o'zbek qabilalari ro'yxati berilgan o'rta asr yozma yodgorliklarida uchraydi. Biroq XX asr boshlaridagi o'zbek urug'lari nomlari qatorida kuzatilmaydi. Bu davrga kelib, sulduzlar Movarounnahr va Xuroson aholisining asosiy qismiga singib ketganlar (Begaliyev, 2004: 96).

Bundan tashqari, Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi qishloq. Barcha tarixiy asarlarda "sulduz" – 92 o'zbek urug'i qatorida sanab o'tiladi. "Sanamlar husnidin maqsud yor ermish Navoiyga, Agar barlos, agar tarxon, agar arlab, agar sulduz" (Alisher Navoiy). G'azalda ham "sulduz" urug'i qayd etilgan. Bu urug'ning Farg'ona vodiysiga kelib o'rnashib qolishi XVI asrdan boshlangan. Shayboniyxon boshliq o'zbek ko'chmanchi urug'larining qishloqlari paydo bo'lib, o'troqlashish jarayoni boshlangan. Rasmiy hujjatlarda, matbuotda "Suv yulduz" shaklida yozilishi noto'g'ri. Professor A. Nurmonov ham shu fikrni tasdiqlaydi.

SULTON UVAYS – Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryoning o'ng sohilidagi tog'lar. Markaziy Osiyoda tasavvuf targ'ibotiga asos soluvchilardan biri arab Uvays Qarniy nomi bilan atalgan (VII asr). Sulton unvoni unga keyinchalik Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan berilgan. Tizma-

ning janubi-g'arbiy yonbag'rida Sulton Uvaysning ziyoratgoh afsonaviy qabri bor.

Tog'larga zohid olim Karna ibn Uvays nomi berilgan, u Osiyodagi Movarounnahr musulmonlarini tarki dunyo qilishga chorlagan. Uning "mozorlari" Markaziy Osiyoning ko'p joylarida uchraydi.

Ammo aslida u VII asrda Arabistonda yashagan va bu joylarga hech qachon tashrif buyurmagan.

SULTONMURODBEK – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. XIX asrning 60-yillarida, Musulmonqulariq kanalidan boshlanuvchi ***Mazgilsay*** (qarang) arig'i qazilganida, yangi o'zlashtirilgan yerlar Qo'qon xoni Xudoyorxonning ukasi Sultonmurodbekka berildi va bu yerlarda paydo bo'lgan manzilgoh **Sultonmurodbek** deb nomlandi.

SULTONOBOD – qishloq. Farg'ona viloyatining Buvayda va Quva tumanlaridagi qishloqlar nomi. Antropotoponim. Ko'rinishidan, qishloq Qo'qon xoni Xudoyorxonning ukasi Sultonmurodga tegishli yerlarida paydo bo'lgan va uning nomi bilan atalgan. **Sultonmurod** nomli qishloqlar bor. Jonli nutqdagi joy nomlari qisqartirilib talaffuz qilinishini ko'p kuzatishimiz mumkin. Masalan, Surxondaryo viloyatining markazi bo'lgan shaharga **Sherali** ismli kishi asos solgan va **Sheraliobod** nomi o'rniga qisqartirilib, **Sherobod** deb nomlangan.

SULUVQO'RG'ON – qishloq. Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi qishloq nomi. *Sulu, suluv* – go'zal, **Suluvqo'rg'on** – go'zal qal'a ma'nosini anglatadi.

SULUK – qishloq. Farg'ona viloyatining Oltiariq hamda Navoiy viloyatining Nurota va Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Ayrim shevalarda *zuluk* so'zi *suluk* tarzida talaffuz qilinadi.

Agar joyga chindan ham zuluklarning borligi uchun shunday nom berilgan bo'lsa, unda ushbu nom yana bitta tarkibiy qismga ega bo'lar edi, masalan, *-li* affiksiga (Zulukli).

Ehtimol, bu "Sug'd", "sug'dliklar" nomlarining shevadagi shakllaridir (В.В.Бартольд. Сочинения, т. II, ч.1. С. 190, 454).

SUMBUL//SUNBUL – qishloq. Navoiy viloyati Nurota hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Ushbu toponimni tashkil etuvchi "***sumbul***" so'zi o'simlik nomi (fitonim) bo'lib, *"piyozguldoshlar oilasiga mansub, lola bargina o'xshash uzun bargli o'tsimon dekorativ o'simlik va uning g'uj bo'lib ochiladigan xushbo'y chiroyli guli"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 587].

Shunga ko'ra bu toponimni *"sumbullar ko'p o'sadigan joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash mumkin. Ushbu fitooykonim bir o'zakli bo'lib, ot shakliga xos.

SURUN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi qishloq nomi. Keneges qabilasining qismlaridan biri Surun deb ataladi (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах. С. 17). Shuningdek, Toshkent

viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud.

SURUNCHAK – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Qishloq Qirg'iz *manak* urug'ining *surunchak* qabilasi nomi bilan ataladi.

SURXONDARYO – Mamlakat tarkibidagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Viloyatning shunday nomlanishiga gidronim asos bo'lgan.

O'zbekiston janubidagi daryo (qadimda – Chaganrud). Ehtimol, daryo dastlab Surxob deb nomlangan ("qizil daryo") va vaqt o'tishi bilan Surxondaryoga o'zgargan.

Ushbu taxmin o'rinlidir, chunki uning yuqori qismi (Denov shahriga qadar) Qizilsuv deb nomlanadi ("qizil daryo"), daryo nomining kelib chiqishi etnonim bilan bog'liq bo'lishi mumkin, turkman urug'laridan biri surx(i) deb nomlangan, -an – ko'plik qo'shimchasi. *Surx* komponenti ko'p bora takrorlanadi: **Surxoni** (Jarqo'rg'on tumani), **Pasurxi** (Boysun tumani), **Surxiyon** (Buxoro viloyati Kogon tumani).

SURXTEPA – Farg'ona shahridagi mahalla nomi. Nom ko'pincha surx, ya'ni qizil tepa deb izohlanadi. Biroq bu so'zning yangi degan ma'nosi ham bor. Surx nomli urug' nomi borligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Qo'shko'pir tumanida ham shunday nomli qishloq bor. U forscha **Surxtepa,** o'zbekcha **Qiziltepa** kabi "qizil tepalik", "qizir balandlik" (qizil tepalik yaqinidagi qishloq, qizil tepalikka ega qishloq) deb ataladi.

SUTKENT – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Toponimning birinchi qismi sut-sud – katta foyda evaziga qarz beruvchi kishi ma'nosida (O'rinboyev, 2003).

-kent topoleksemasi qadimgi eron tilidagi *–kan/-kan* va qadimgi hind tilidagi *-khan* – "qazimoq", "kovlamoq" so'zlaridan kelib chiqqan *-kan kata* – "uy, shahar" so'ziga borib taqaladi.

Ushbu termin Markaziy Osiyo toponimiyasida eng ko'p tarqalgan tiplardan biridir (Abayev, 1956).

Arab muarrixlari va geograflari (Somoniy, Yoqut) asarlarida qayd qilingan toponimlarda bu terminning ilk o'rta asr sug'd tilida *-kad, -ked, -ket* shakllarida ishlatilganini ko'ramiz. Samarqand atrofidagi Binket, Isbiket, Naukedak, Rudfagked kabi qishloqlar nomlar tarkibidagi *ket, ked* kabi terminlar ham shuni ko'rsatadi.

Turkiy tilda bu so'z *kent, qand* tarzida talaffuz qilinib, X–XI asrlardayoq "shahar", "qishloq" ma'nolarida qo'llanilgan. Shuningdek, bu topoleksemaning Mug' yodgorliklarida uchraydigan *-kt, -kat, -ks -kas* va *-kis (-kans)* shakllarini tadqiq qilgan V.A.Livshis ular bir so'zning variantlari, degan xulosaga keladi (Согдийские документы. 1962: 11.85).

Mazkur fikrni arab manbalari ham tasdiqlaydi. Ularda bir nom ikki variantda yozilganligini va bu holat ularni aniqlashda xalaqit bermaganligini kuzatamiz. Masalan, *Kabudanjaket – Ka-*

buzanjakas, Barkat – Barkas, Kurdukat – Kurkas, Nuket – Nukas, Ardlanket – Ardlankas, Xotunkat – Xotunkas kabi. Eski o'zbek tilida bu so'z mustaqil termin sifatida amalda bo'lgan bo'lsa, hozir faqat toponimlar tarkibida uchraydi, deydi toponimist T.Rahmatov.

Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, shimoliy o'zbek shevalarida *"kent"* termini mustaqil leksema sifatida hozir ham amalda ishlatilib kelmoqda. *-kent* topoleksemasi bilan yasalgan geografik nomlar viloyatda ko'plab uchraydi. Masalan, Mirzakent kollektori, Qo'tirkent arig'i, Shirinket (Jomboy), Mo'g'ulkent, Uzvonkenti, Morkent, Totkent (Narpay), Zatkanariq (Kattaqo'rg'on), Sutkent (Oqdaryo), Go'zalkent (Pastdarg'om), O'zbekkent (Samarqand tumani) va boshqalar.

SUVBUZGAN – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. *Suvbuzgan* – suv (sel) toshqini zarar yetkazgan yer ma'nosini anglatadi.

SUVLIARIQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanidagi qishloq nomi. Sersuv ariq ma'nosida nomlangan. Toponimikadagi nisbat berish, qiyoslash qonuniyati asosida Belariq, Jarariq, Ko'lariq, Toshariq, Yangiariq, Qoraariq, Qumariq kabi qishloq va mahalla nomlari yaratilgan.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud. *Suvliariq* – suvli ariq.

SUVLIQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanidagi qishloq nomi. *Suvlik* – suvi mo'l (joy) ma'nosini anglatadi.

SUVQORA/QORASUV – Amudaryodagi kanallardan biri qadimgi Xorazm poytaxti – Katning sharqida joylashgan. "Tabaqat-i Nosiri" asari muallifi Minhojiddin Juzjoniy **Kara-su** shaklida esga oladi. Ibn-Asirda (XIII asr) esa – **Su-kara** shaklida uchraydi va bu nomning "qora suv" ma'nosi ham keltiriladi.

SUVTI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. O'zbek tilining Jo'sh shevasida "***suviti (suvti)***" so'zi bo'lib, u yaqin, o'xshash degan ma'nolarni bildiradi (Ахмедов, 1963: 12).

Janubiy Xorazm o'zbek shevalarida esa "***suvut // suvti***" so'zi "*tol*" ma'nosidadir [O'XSHL. 241].

Shunga binoan bu mikrotoponimni "*tolga o'xshash daraxtlar o'sadigan joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq*", deb izohlash maqsadga muvofiqdir [B.O'rinboyev, 171].

SUVUTI – qishloq. Toshkent viloyati Piskent tumanidagi qishloq nomi. *Sug'uti* (suvuti) – sug'dlik: *sug'ud, sug'ut* – 1) pat, botqoqli joyda yashaydigan odam; 2) oqar suvi mo'l bo'lgan haydalgan yerli joyda yashaydigan odam.

SUXOR – mahalla. Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi mahalla nomi. Naqshbandiya tariqatining yirik vakili Sayyid Amir Kulol tavallud topgan va yashagan qishloq. Toponim ma'nosi yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirmoqchimiz.

Bizningcha, mazkur toponim fors tilidagi saxra (سرخصه), ya'ni xarsang-tosh, yoki saxo (ساخه) – saxovat, muruvvat so'zlarining fonetik o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan. Suxor qishlog'i o'tmishda cho'lga yaqin hududda joylashgani tufayli bir qismi xarsang-toshlar bilan qoplangan.

Shuningdek, qishloqda muruvvatli insonlar aksariyatni tashkil etganiga nisbat berilib, masokinlar, ya'ni istiqomat ahlining ijobiy xislati toponimga aylangan.

SUYENARIM – Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanidagi ko'l nomi. Ruslar usach ("mo'ylovli") deb ataydigan baliqni Amudaryo etagida suyen (suvan, so'gen) deyishadi. Arim qoraqalpoq tilida "pastlik, chuqurlik, soylik" demakdir.

SUYENJO'L – Orol dengizi sohilidagi joy. *Suyenjo'l* qoraqalpoq tilida "Suyen yo'li" degan ma'noni anglatadi.

SUZANGARON – XVI asrda Samarqand shahrida bunyod etilgan mahalla nomi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.24). Forscha "***suzan***" – igna, "***garon***" – shug'ullanuvchi, ya'ni igna bilan ishlovchilar ma'nosini bildiradi.

Ayrim manbalarda ***Zardo'zon*** ham shaklida qayd etilgan bo'lib, zar tikuvchilar, zar bilan ishlovchilar ma'nosini ifodalaydi.

SUZOQ – qishloq. Andijon viloyatining Shahrixon va Xo'jaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Suzoq vodiyga kelib o'rnashib qolgan qipchoqlarning mayda urug'laridan biri. Qirg'izistonning Jalolobod viloyatiga qarashli tuman nomi ham So'zaqdir. Ammo rasmiy axborotlarda Suzaq yozilib ketgan va xalq og'zida Suvi uzoq deb talqin qilinadi.

SUG'UMBOY – qishloq. Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Sug'umboy – o'zbek qirq qabilasining kichik bo'g'ini.

SUG'UT – qishloq. Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. *Sug'ut, Sug'ud* – Sug'd Sug'diyona; *sugud* – 1) past, botqoqli joy; 2) oqar suvi mo'l bo'lgan haydalgan yer.

SO'FIQISHLOQ – Andijon viloyati Jalaquduq tumani markazining eski nomi, tarixdan shu narsa ma'lumki, Qo'qon xoni Xudoyorxon 1853-yili qipchoqlar ustidan g'alaba qilgach, So'fibek ismli ota bir, ona boshqa ukasini Andijonga hokim etib tayinlagan. O'shanda So'fibek bugungi Jalaquduq atrofiga urug'laridan ko'chirib keltirgan, o'z nomidagi qishloqqa asos solgan. Yerlar o'zlashtirilib, yangi xo'jaliklar paydo bo'lgan va keyinchalik "So'fiqishloq" nomini olgan. 1859-yili Xudoyorxon (vaqtincha) taxtdan ketgach, So'fibek shahar hokimligidan olingan. Jalaquduq tumani tashkil topganda uning markazi So'fiqishloq deb ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi qishloq ham shunday nomlangan bo'lib, qishloqda dinga berilgan so'filar ko'p bo'lgani uchun qishloq keyinchalik xalq orasida shu nom bilan atalgan deyiladi.

SO'FILAR – qishloq. Farg'ona viloyati Yozyavon tumanidagi qish-

loq nomi. So'filar – so'fi, muazzinlar (masjid xizmatchilari) ko'p yashaydigan joy. Shu nomli etnonim mavjud. Qo'shtamg'alisaroy urug'ining bir qismi supi (sufi) deb nomlanadi (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах. С. 14; B. Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo shevalari, 162-b.).

SO'FN – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq, Uchko'prik, Quva tumanlaridagi qishloqlar nomi. So'fi – masjidda azon aytuvchi kishi. Qishloqlar ikki ma'noda shunday nomlangan bo'lishi ham mumkin. Birinchidan, so'fi yashaydigan yoki azon chaqiriladigan qishloq, ikkinchidan, sodda, xudojo'y kishilar istiqomat qiladigan qishloq yoki mahalla.

SO'FI ROZIQ – XIX asrda Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla nomi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -В. 37). Mazkur mahalla nomi So'fi Roziq ismli ma'rifatparvar sharafiga qo'yilgan.

SO'KSO'K – qishloq va ariq. Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi qishloq va ariq nomlari. *So'kso'k* – saksovulning qadimiy nomi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (1-tom, 448-b) va Alisher Navoiyning asarlarida uchraydi.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, *so'kso'k* – bu yulg'un (daraxt turi) (А.К.Боровков. Бадаи ал-лугат, –М., 1961. С. 192). Xiva tarixchisi Munis bu masalaga oydinlik kiritdi (1778–1829): "Bu jihatdin Xorazm diyorida qahat va goloshoyih bo'ldi... *Xivakning* oliy imoratlari munxadim bo'lib, o'rniga so'kso'k va yulg'un ko'kordi".

SO'LOQIYON – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Demak, So'loqiyon, *So'loqli* urug'ining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin.

SO'LOQLI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur hamda Jizzax viloyatining Jizzax, Baxmal, Zomin tumanlaridagi qishloqlar nomi. *So'loqli* (so'lakli) – yuz qabilasining urug'laridan biri.

Ushbu urug' vakillari Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va qo'shni Tojikistonning ushbu viloyatlar bilan chegaradosh tumanlari hududlarida yashaganlar (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 84-b.).

So'loq – kichik shoxli qoramolga belgi (tamg'a) qo'yish usuli, agar quloqning old qismi belgilangan, kesib tashlangan bo'lsa, *oldingi so'loq* deb nomlangan, agarda quloqning orqa qismi belgilangan, kesib tashlangan bo'lsa, *keyingi so'loq* deb atalgan.

SO'PI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala, Kitob, Shahrisabz tumanlaridagi qishloqlar nomi. So'pi (so'fi) – so'fiy (masjid xizmatchisi). Bu yerda *so'pi* – etnonim. Masalan, Qo'shtamg'alisaroy urug'laridan biri so'pi deb atalgan (К.Кубаков. О некоторых родоплеменных группах. С. 14, B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari, 162-b.). Shuningdek, o'zbeklarning uz urug'i tarmoqlaridan biri ham so'pi sanaladi.

SO'PIQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi

qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasining kichik bir guruhi so'pi deb ataladi. Mazkur nom etnotoponim bo'lib, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida ham So'pi nomli qishloq bor. Urgut shahridagi mahallalardan biri ham Sufiyon, ya'ni so'filar deb ataladi.

SO'POQSOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumandagi soy nomi. Mazkur nom "***So'poq***" va "***soy***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti "***so'poq***" so'zi *"yassi va cho'ziq"* ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 3, 617].

Geografik termin sanalgan uning ikkinchi qismi "***soy***" so'zi esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 3, 545].

SO'QOQ – qishloq. Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *soqaq* so'zi "oq bug'u" degan ma'noda berilishini e'tiborga olib (H.Hasanov. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. –T., 1965, 20-b), *so'qoq* toponimini ushbu so'z bilan bog'laydi. Sababi, shayx Xo'ja Ahrorning vaqf hujjatlarida (XV asr) ushbu qishloqning nomi **So'xox** ko'rinishida uchrashini e'tiborga olsak, ushbu sharhni uncha muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi (О.Д.Чехович. Самаркандские документы XV–XVI вв. –М., 1974. С., 251, 275, 330, 407 и др.).

SO'RJA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot tumanidagi joy nomi. So'r – sho'r, sho'rxok, so'rja – sho'r joy; O'zbekistonda – Sho'rcha.

SO'X – tuman. Farg'ona viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. O'rta asrlarda So'x yirik savdo markazi bo'lgan. Birinchi marta "Hudud ul-olam" asarida tilga olingan (24-a bet): "So'x tog'lar orasida, Butman va Farg'ona chegarasida joylashgan", arab geograflari asarlarida – Istaxriy (БАГ, I, С. 335, 337), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 395, 397, 398, 406), Muqaddasiyda (БАГ, III, С. 345) shu nomli daryo bilan bog'lanadi.

Umuman, "So'x" gidronimi va toponimining kelib chiqishi hozirga qadar olimlar orasida bahsli masala bo'lib kelmoqda. Ayrim tadqiqotchilar bu termin "Sug'd" nomining o'zgargan shakli deb hisoblaydilar. Ularning taxminiga ko'ra, vohada Sug'd viloyatidan ko'chib kelgan odamlar maskan topganliklari uchun bu daryo va joy shu nom bilan atalgan. Boshqa olimlar esa "So'x" toponimini qadimda bu yerda yashagan sak qabilalarining nomi bilan bog'laydilar. Internet tizimida joylashtirilgan maqolalarning birida esa "So'x" termini fors-tojik tilidagi "сўхтан", ya'ni "yonmoq" so'zidan olinganligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Rishton tumanida ham mazkur nom bilan ataladigan qishloq nomi mavjud.

SO'XTAARIQ – ariq. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi qishloq nomi. Forscha *so'xta* (so'xtan – yon-

moq, kul bo'lmoq) – yongan, kuygan; ko'chma ma'noda – qurib qolgan.

SO'ZOQ – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. *So'zoq* – manzilgoh (Древнетюркский словарь. С. 509). Etnograf T.A.Jdanko tadqiqotlari natijalariga ko'ra, *So'zoq* – qozoqning akasi, qozoqlarda *so'zoq* nomli urug' bor. Qardosh xalqlar – qozoqlar, o'zbeklar va qirg'izlarning qabila nomlari ko'p jihatdan o'xshashdir.

Qadimgi turk tilida so'zoq "xalq turadigan joy", "manzilgoh" degan ma'noni anglatgan (Koshg'ariy, 1963: 509).

SO'G'ANCHI – qishloq. Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Qadimgi turkiy va ba'zi turkiy tillarda *so'g'an* so'zi *piyoz; so'g'anchi* – piyoz yetishtiruvchi dehqon degan ma'nolarga ega.

Ehtimol, bu etnonimdir, oltoylarda Sogonchi urug'i bo'lgan (Ойротско-русский словарь. –М., 1947).

Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida shu ma'noga ega Piyozchi hududi mavjud.

SUG'D//SUG'DIYONA – Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini qamrab olgan tarixiy mintaqa. Sug'd nomi birinchi marta Eron hukmdori Doro Buyukning mixxat yozuvida esga olingan (miloddan avvalgi VI asr). Arab geograflari asarlarida – Istaxriy (БАГ, I, С. 286, 288, 295), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 109, 337 и др.), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 35, 259 и др.) Al-Sug'd shaklida uchraydi.

Sharqshunos I.Markartning so'zlariga ko'ra, Sug'd eroniy *sux, sox* – "yaltiramoq", "yonmoq", "porlamoq" so'zlarga borib taqaladi. "G'iyos al-lug'at" kabi qadimgi lug'atlarda suv to'planadigan pasttekislik Sug'd (Sug'd) deb nomlangan.

Sharqshunos V.L.Vyatkinning kuzatuvlariga ko'ra, mahalliy aholi sug'oriladigan unumdor yerlarni sug'ud deb atashgan (О.И.Смирнова. Каталог монет городия Пенджикент (Материалы 1949–1956 гг. –М., 1963. –С. 24).

Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, fors tilida *sug'ud* so'zi "past, botqoqli joy, oqar suvi mo'l bo'lgan haydalgan yer" degan ma'no ham kasb etishi mumkin.

SO'G'ONCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Bu yerda shayx Muslim otaning xonaqosi bo'lgan. Qishloq yerlarining sharqiy qismidan Jo'yi Devona arig'i oqib o'tadi. Shuningdek, Xina qishlog'i arig'i, Qorabuloq degan joy hamda shimolda Kampir devor va g'arbda Qoraxitoy arig'i bo'lgan (Vyatkin, 1902).

Toponim *"so'g'on"* – *piyoz* so'zi va *-chi* affiksidan yasalgan. So'g'onchi etnonim bo'lishi mumkin (Qorayev, 1978).



T

TABASHARSOY – daryo. Toshkent viloyatining Qurama tizmasi yonbag'rida joylashgan. Forscha *taboshir* – bo'r, oq loy ma'nolarini anglatadi.

TAGALAK – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Geografik joy nomining aniq etimologiyasi ma'lum emas.

Toponimni hosil qilgan tagalak so'zi "gumbazsimon balandlik", "aylana tepalik" ma'nosini anglatadi. Hududida ana shunday balandlik mavjud bo'lgan qishloq – Tagalak.

TAGBANDBOFON – daha. Buxoro shahridagi daha nomi. *Tagband* – belbog' tikuvchi usta, *-on* – ko'plik qo'shimchasi (ko'rsatkichi). "Aholining ko'pchiligi kamar to'qish bilan shug'ullangan" (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 273).

TAGIJAR – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. *Tag* – ostki qism, *jar* – jarlik. *Tagijar* – pastki jarlik. Toponim yasalishining kamdan kam uchraydigan usuli.

TAGISHO'R – XV asr oxiri XVI asr boshlarida Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla nomi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.33).

Sho'r bosgan imorat ma'nosini beradi, ya'ni poydevori sho'rlagan ma'nosini ifodalaydi.

TAGOB – respublikadagi ayrim joylarning nomi. *Tagob, takob* – "Boburnoma"da "irmoq", "soy", "jarlik" ma'nolarida uchraydigan geografik atama.

B.X.Karmishevaning so'zlariga ko'ra, u hozirgi tojik tilida xuddi shu ma'noda qo'llaniladi. Farg'ona vodiysi va Buxoroda yerosti suvlari chiqadigan joylar tagob deb ataladi. Zarafshon vodiysida daryo suvi bilan sug'oriladigan yerlar ham tagob deb yuritiladi: *tagobi nahri Qorasuv* – Qorasuv daryosidan sug'oriladigan yerlar.

Bundan tashqari, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq ham shunday atalgan. Viloyatda Axta-Tagob, Katta Tagob va Kichik Tagob kabi joy nomlari bor.

Tagob geografik termin bo'lib, "o'zan, soy, qirg'oq" ma'nolariga ega. Farg'ona va Buxoroda yerosti suvlari chiqib yotgan joylarni tagob deyishadi. Tagob so'zini tojiklar hozirgi vaqtda ham shu ma'noda ishlatadilar. Zarafshon daryosining bosh tomonida Tagobimayn qishlog'i bor. Zaraf-

shon vodiysida ma'lum bir kanaldan sug'oriladigan maydon ham tagob deb yuritilgan (Do'simov, 1977).

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani sharqi va shimolidagi qishloqlarning umumiy nomi ham shunday atalgan. Ma'nosi suv tagi. Bu ibtidoiy ma'nosi. Hozirgi ma'nosi – qorli, yuksak tog'lar tagi, qor suvlari bilan to'yinadigan suv manbalari (daryo, jilg'a) bo'yidagi aholi maskanlari.

TAKABARAZ – chegaraviy hudud. Jizzax viloyati Zomin tumani. *Taka–Teke* – "Tog' echkisi", *baraz* – (tog' echkisi ko'p uchraydigan) tog' qoyasi.

TAKAYONG'OQ – qishloq nomi. Toshkent viloyati. Tog' echkisi – kiyikning erkagi ham, urg'ochisi ham umumiy nom bilan *taka* deyiladi.

TAKALIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanidagi qishloq nomi. S.Gubayeva (1983) bu kabi nomlarni tashqi ko'rinishiga qarab (takasi bor qishloq) etimologiyasini aniqlash xato bo'lishi mumkinligini yozadi. O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq millati tarkibiga kirgan shu nomdagi urug' qayd etiladi.

Shuningdek, Jizzax viloyatining Nurota tizmasidagi dovon nomi ham shunday ataladi. Demak, *Takalik* – tog' echkisi ko'p bo'lgan joy degan ma'noni anglatadi.

TAKAQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Toponim sug'dcha "Taka" va o'zbekcha qishloq so'zlaridan yasalgan.

A.L.Xromov Yag'nob toponimiyasida "Taka" termini ishtirokida yasalgan bir nechta joy nomini qayd qiladi va sug'd tilida "Taka" so'zi "past, pastki, quyi" ma'nolarini anglatishini ko'rsatadi. Olim G'artaka ("Pastki tog'"), Xantaka ("Pastki ariq"), Kattaka ("Pastki qishloq") kabi nomlarni keltiradi.

Viloyat hududida sug'd tiliga mansub toponimlar ko'pligini nazarda tutsak, mazkur nomning etimologiyasini izohlash qiyin emas.

Demak, Takaqishloq nomining ma'nosi "Pastdagi qishloq, Quyiqishloq" ma'nosidadir. O'zbek toponimiyasidagi *Pastki Ravot, Yuqori Ravot, Quyiqishloq, Ingichka bolo, Sochaki bolo, Sochaki poyon* singari nomlar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Boshqa izoh: toponimist S.S.Gubayeva dala materiallari asosida "Taka" so'zining patronim, ya'ni ma'lum oila boshlig'ining ismi yoki laqabi asosida nomlangan kichik urug' ekanligini ko'rsatib, Farg'ona vodiysidagi Takalar mahallasi toponimini qayd qiladi. Olima ushbu nom turkmanlarning "Taka" etnonimi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatadi.

"Taka" etnonimi bilan bog'liq Tekeli (Qozog'iston Respublikasi), Taka, Takali (O'zbekiston Respublikasi), Teke-koy, Teke-maxla, Tekeler-Jomiy, Tekeler-kyabir, Tekeler-sag'r (Bolgariya) singari toponimlar, shuningdek, qirg'izlarda "Teke", turkmanlarda "Taka, takali" kabi urug'lar mavjud (Gubayeva, 1983: 8–21).

Bundan tashqari, Payariq tumanining Eski Jomboy uchastkasida ham Takaqishloq bor.

TAKIYA – daha. Buxoro, Qo'qon shaharlari. Takiya – darveshlarning boshpanasi, yotoqxona, kashandalar yig'ilgan choyxona; XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxorodagi to'quvchilar yotoqxonasi (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 35).

TALAKLI – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom tarkibidagi tələk so'zining asosi tal bo'lib, mazkur umumeroniy tillarda "*baland joy, tepa*" ma'nosiga ega. "*Tal*" so'zi yuqori, teng ma'nosida hozir ham shevamizda qo'llanadi, ammo avloddan-avlodga o'tish jarayonida ma'nosi unutilgan: tal tut, tal ko'r kabi. *Tələkli* toponimi ham shu apellyativ asosiga qurilgan bo'lib, "tepa qism, yuqoridagi uy, bolaxona" ma'nosini anglatadi. *-li* toponimik formant.

Demak, bu nomning etimoni: *tələk + li*dir (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

TALGUNDAK – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur مدنڭ لڭ toponimning birinchi komponenti arabcha ***tall***, ya'ni "*tepa*" ma'nosini beradi. ***Gundak*** so'zi fors-tojik tilidagi *g'unda o'rgimchak* so'zining fonetik jihatdan buzilgan shakli hisoblanadi. Ikki so'z birikmasidan iborat ushbu toponim "*g'undaktepa*", ya'ni "*o'rgimchak tepa*" ma'nosini bildiradi.

TALIJA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Shofirkon tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Tal, tall* (arabcha) bir vaqtlar qal'a sifatida xizmat qilgan va xandaq bilan o'ralgan sun'iy tepalik (О.Д.Чехович. Бухарские документы XIV в. С. 218); *-ja – -cha* affiksining o'zgargan shakli, **Talija – Talcha** "kichik tepalik", "sun'iy tepaliklari bo'lgan qishloq" (qarang: ***Talcha***).

TALIMIRON//TALLIMARON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Fors-tojikcha izofali toponim bo'lib, u ***Tall+i+mir+on*** ko'rinishida hosil bo'lgan va ushbu nom – "*o'tli tepa, tepasi ko'p yaylov, mayda tepalar ko'p bo'lgan notekis* joy, *qo'rg'on o'rinlari ko'p bo'lgan past-baland joy*" kabi ma'nolarni bildiradi.

TALISANG – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur nom fors-tojikcha izofali toponim hisoblanib, ***Tall+i+sang*** tarzida vujudga kelgan hamda u "toshli tepa, tosh devor qoldiqlari bo'lgan balandlik, qo'rg'on xarobasi o'rni" demakdir.

Shunday ekan, **Talisang** toponimi "*toshli tepalik, toshli balandlik*" degan ma'noni anglatadi.

TALLAK – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. ***Tal(l)*** – tepacha + (toponim yasaydigan) *-ak* kichraytirish affiksi.

TALLIBARZU – Samarqand tumanidagi qadimiy shaharcha xaroba-

si. Arab tarixchisi Al-Muqaddasiy (X asr) asarida tilga olingan Rivdod shahrining hozirgi nomi.

"Tal" – tepa va "Barzu" so'zlaridan tuzilgan nom bo'lib, Barzu tepaligi, qo'rg'oni demakdir. Barzu (sug'dcha baroz – "ulkan, baland, yuksak" ma'nolaridagi so'z) qadimiy sug'd pahlavoni ismi. O'rta asrlardagi mashhur "Barzunoma" dostonining bosh qahramoni.

Talli-Borzu "baland tepalik" ma'nosini ifodalaydi yoki "Barzu tepaligi" (ehtimol, Firdavsiy asari ("Shohnoma") qahramoni nomi bilan bog'liqdir, Barzu (shaxs ismi) – "buyuk" yoki "juda hurmatli" ma'nosidadir.

TALLIGANDUM – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *tal* (aslida, *tall*) va *gandum* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *tal* (aslida *tall*) arabcha so'z bo'lib, *"tepalik", "do'nglik", "pastak tog'", "tuproq va qum uyumi"* kabi ma'nolarni bildiradi.

Bu termin nafaqat mamlakatimizda, balki Eron, Afg'oniston va Ozarbayjonda ham ko'plab toponimlar hosil qilgan. Uning ikkinchi komponenti – *gandum* so'zi esa *bug'doy*ning tojikchada atalish shaklidir.

Demak, Talligandum – *"bug'doy o'suvchi tepalik"* ma'nosidadir.

TALLIQULUH – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *tal* (aslida, *tall*) va *quluh* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *tal* (aslida, *tall*) arabcha so'z bo'lib, *"tepalik", "do'nglik", "pastak tog'", "tuproq va qum uyumi"* kabi ma'nolarni bildiradi (*qarang*: **Talligandum**). Toponimning ikkinchi komponenti – *quluh* so'zi, aslida, *quduq* bo'lsa kerak.

Demak, Talliquluh – *"uzun cho'zilgan qumliklar orasidagi quduq"* ma'nosidadir.

TALLIG'ULON – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi toponim. Tal, tall (ar.) termini Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari hududlarida "Tepalik" ma'nosida ko'p uchraydi.

Tallig'ulon – *"Tall"* (ar.) – tepa va forscha *g'ulon*(m) – qul so'zlaridan yasalgan atama. Tallig'ulon hozirgi Yangibog' qishlog'ining g'arbiy tomonidagi kanal nomi. Eski nomi Soyi Haydar. V.L.Vyatkin fikricha, soy keyinchalik Talli G'ulon deb atala boshlagan.

Olimning aytishicha, Xoja Ahror yerlarida Talli Kalon yoki Kulog'on nomli bog' bo'lgan va bu nom Talli G'ulon tarzida talaffuz qilinishi mumkin (Вяткин. Материалы... 1902).

TALLIYULG'UN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi qishloq nomi. Arab. *tal(l)* – tepalik, *yulg'un* o'simlik nomi. **Talliyulg'un** – "yulg'un o'sadigan tepalik" demakdir.

TALPUSHMON – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nom *tal* (aslida, *tall*) va *pushmon* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *tal* (aslida, *tall*) arabcha so'z bo'lib, *"tepalik", "do'ng-*

lik", "pastak tog'", "tuproq va qum uyumi" kabi ma'nolarni bildiradi.

Bu termin nafaqat mamlakatimizda, balki Eron, Afg'oniston va Ozarbayjonda ham ko'plab toponimlar hosil qilgan. Uning ikkinchi komponenti – *pushmon* so'zining ma'nosi esa noma'lum. Xorazm shevasida pushaymon so'zining dialektal shakli pushmon deb yuritiladi.

TALTAYJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qoraoy" OFY hududidan oquvchi kanal. Ibrayimo'zek kanalidan bo'lingan. Kanal nomiga kelsak, bu sug'orish tarmog'i eniga juda keng qazilgan, bu esa kanal nomiga asos bo'lgan.

TALXOBSOY – daryo. Surxondaryo viloyatidagi daryo nomi, Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'irlaridan boshlanadi. Talxob: *talx(a)* – achchiq, *ob* – daryo, suv, soy.

TAMA – qishloq. Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo hamda Navoiy viloyatining Karmana va Xorazm viloyatining Xonqa, Yangiariq tumanlaridagi qishloqlar nomi. **Tamaovul** – Toshkent viloyati Bo'ka tumani. *Tama* – Zarafshon vodiysi va Xorazmda yashagan qabilaning nomi. *Tama* urug'i (qabilasi) *mesit* va *jabu* urug'lari bilan uch urug' qabilaviy ittifoqini tashkil qilgan.

TAMABAHRIN – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. **Tamabahrin** – *tama* va *bahrin* qabilalari ittifoqi (qarang).

TAMAYRAT – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. *Tama* (qarang) va *oyrat* qabilalari ittifoqi. O'yrot qabilasi A.P.Xoroshxinning "Ro'yxat"ida (Сборник статей, касающихся до Туркестанского края, СПб, 1876. С. 512) va "Nasabnomayi uzbekiya" nomli o'zbek qabilalarining nasabnomasi kitobidan o'zbek qabilalari ro'yxatida qayd etilgan (Н.Ханыков. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С. 58).

TANGI – joy. Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi qishloq nomi. *Tangi* (forscha *tang* – tor) – tor tirqish. Bobur asarlarida uchraydi ("Бабурнаме". – Т., 1961).

Ushbu termin respublikaning janubida keng qo'llaniladi: **Ichkaritangi** – "Ichki tangi", **Tortangi** – "Tor tangi", **Chortangi** – "To'rt tangi" (Jizzax viloyati Zomin tumani), **Qoratangi** – "qora tangi" (Jizzax tumani).

Pokistonda *tangi* – ko'ndalang tirqish (Л.Дадли Стамп. Словарь общегеографических терминов. Т. 2. –М., 1976. С. 283). Eronda *tangi* – tog'ning tor tirqishi (Словарь географических терминов и других слов, формирующих топонимию Ирана. Составитель В.И.Савина. – М., 1971. –С. 209). Ozarbayjonda *tangi* – chuqur dara (R.M.Yuzbashev).

TANGISOY – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi soy nomi. Tangi – tor dara va soy so'zlaridan yasalgan. Nom *tor daradagi soy* ma'nosida (Qorayev, 1970).

TANDIR – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Tandir – kulcha yopish uchun

pech, ko'chma ma'noda – *issiq joy* ma'nolarini anglatadi.

TANISHAHAR ARIG'I – Bo'zsuv kanalining chap tarmoqlaridan, uzunligi 4,7 km. Shayxontohur tumanida, g'arb tomonga yo'nalib, Abay, Olmazor ko'chalarini, Xalqlar do'stligi shohko'chasini va Beshyog'och hamda Samarqand darvoza ko'chalarini kesib o'tadi.

Tanishahar gidronimi tan va shahar morfemalaridan tashkil topgan. Tan forscha-tojikcha so'z bo'lib, bir nechta ma'nolarga ega, bu yerda tan so'zining "kimsaga tegishli qism, ulush yoki narsa"[1] degan ma'nosi to'g'ri keladi. Ya'ni Tanishahar – bu shaharga tegishli degani. Shu bois Tanishahar gidronimi mazkur ariqning aynan shahar hududida oqishini anglatishi mumkin.

XX asr boshlarida Tanishahar arig'i Eski shahar hududida sharqdan g'arbga tomon yo'nalgan bo'lib, Shayxontohur dahasining Yuqori Mergancha, Eski O'rda, Shahidontepa, Qoratosh, Beshyog'och dahasining Murod, Ko'kmasjid, Xonaqoh, Balandmasjid, Tikanlimozor, Badirboy, Qabsota, Mirlar, Andijon mahallalaridan oqqan va shaharning g'arbiy chegarasida Quyi Bo'zsuvga quyilgan. Mazkur hududlarning aholisi Tanishaharning suvidan ichimlik suvi olishda, dala-bog'larni sug'orishda keng foydalangan.

TANTIQCHEK – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. Qishloq Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan Tantiq ismli kishiga ajratilgan yer uchastkasi o'rnida paydo bo'ldi (XIX asrning 60-yillari).

TAQACHI – qishloq. Toshkent viloyatining Bekobod hamda Andijon viloyatining Paxtaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Toshkent shahridagi mahalla nomi. *Taqachi* – taqa yasaydigan va otlarga taqa qoqadigan temirchi ma'nolarini anglatadi.

TAQIR//TAQIRPOL//OQTAQIR – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy tumanidagi qadimiy hudud nomi. *Taqыr, Taqыrpol, Aqtaqыr* toponimlari ham geografik termin asosida vujudga kelgan. Umuman, hududning dehqonchilikka oid terminologiyasi o'ziga xos va rang-barangdir. Uni lingvistik hamda etnografik va tarixiy jihatdan o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Umuman, Janubiy Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyati vakillari shevasida qotib qolgan, sug'orishga muhtoj yerlar ma'nolarini anglatib, shuning uchun ham mazkur toponimlar shunday nom olgan (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

TAQIRQAL'A – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi ovul nomi, *qal'a* – shahar, **Taqirqal'a** – taqir joydagi shahar ma'nosini anglatadi.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 115-b.

TARAG'AY – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Tarag'ay* – o'zbek urug'ining nomi (B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – Toshkent, 1969); shevada *tarag'ay* – "o'rmonsiz, taqir joy" ma'nosini anglatadi.

TARAQQIYOT – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "yuksalish, olg'a harakatlanish, rivojlanish, o'sish" ma'nolarini ifodalaydi hamda u mustaqillik yillarida atalgan toponim hisoblanadi.

U o'zbek tilining izohli lug'atida shunday izohlanadi: "Rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqori yo'nalgan shakli, uning yuksalishi" (O'zbek tilining izohli lug'ati, III jild, 677-bet).

TARVUZPOYA – joy nomi. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Tarvuz* + *poya* – ekin maydoni. **Tarvuzpoya** – tarvuz yetishtiriladigan maydon.

TARLI – Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanidagi quruq o'zan nomi. Q.Abdimuratov bu toponimni Tariqli, Tariqpoya deb izohlagan. Haqiqatan ham, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlar, jumladan, jelovchi o'zbeklar tariqni tari deyishadi. Dastlab bu yer Tarili deb atalgan, keyin Tarli bo'lib ketgan.

Demak, Тарылы – "Tariqli maydon", ya'ni tariq ekilgan maydon ma'nosini anglatadi.

TARLOQ – Toshkentdagi joy nomi. Xadra maydonining janubida joylashgan. Qadimgi nom. Qadimgi turkiy tilida *марыг* – don, non. Tarig'laq – haydalgan maydon. Avval *Tarig'lag'* shaklida, keyinchalik – *Tarig'laq*, hozirda esa *Tarloq* shakliga ega.

TARMAKO'CHGAN – chegaraviy hudud. Jizzax viloyati Zomin tumani. *Tarma* (forscha) – qor ko'chkisi, *ko'chgan* – ko'chmoq fe'lining o'tgan zamon shakli: *Tarmako'chgan* – "qor uyumi ko'chib tushgan joy".

TARNOV – Samarqand shahri atrofidagi mavze. Zahiriddin Bobur 902-yil ramazon (1497-yil may) oyida Andijondan yurish boshlab, Samarqandga yetib keladi va poytaxtni egallash uchun jang-jadallar olib boradi. "Yana bir qatla ham Xiyobonda Tarnov navohisida chopqulash bo'ldi".

TAROB – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Tarixiy yilnomalarda **Tarob** Buxorodan qadimiyroq ekanligi ta'kidlanadi. Qishloq haqida ilk ma'lumotlar Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida tilga olingan (Narshaxiy M. Buxoro tarixi. –Toshkent, 1966, 45, 92, 101-bet).

Qishloq mo'g'ullarga qarshi dehqonlar va hunarmandlarning, shuningdek, Mahmud Torobiy boshchiligidagi mahalliy boy va din ulamolariga qarshi qo'zg'olonlari bilan mashhur (1238-y.).

TAROQLI – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumani, Surxondaryo viloyati Sherobod tumani. Vaxtamg'ali va jilontamg'ali (ilontamg'ali) urug'larining qismlaridan biri *tarakli* deb nomlangan (taroq – taroq, urug'ning

tamg'asi shakliga ko'ra taroqni eslatgan).

Taroqli – juz (yuz), qangli, xitoy qipchoq, qo'ng'irot qabilalari tarkibida uchraydigan urug' nomi. Urug'ning tamg'asi taroq shaklida bo'lgan va bu etnonim uchun asos bo'lgan. Tamg'asiga ko'ra urug', urug'iga ko'ra qishloq nomlangan.

TAVOVIS – Buxorodan 50 km sharqda katta tarixiy qishloq, Navoiy viloyati Qiziltepa tumani. Qishloqning qadimiy nomi **Arqud** yoki **Arfud** bo'lgan. *Tavovis* "Tovus" degan ma'noga ega. "Arabchadan "Tovuslar" degan ma'nodagi nomni qishloq 91/710-yilda olgan: arablar bu yerda ilk bor, Narshaxiyning so'zlariga ko'ra, mahalliy boylarning uylarida saqlanadigan tovuslarni ko'rishgan" (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 149. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. "Buxoro tarixi". –T., 1966, 20-b.).

TAXIATOSH – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Taxiatosh shahri 1953-yilda quruvchilarning posyolkasi sifatida vujudga kelgan. Taxiatosh tumani Qoraqalpog'ston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qarori bilan 1953-yili 19-oktabrda Taxiatosh shahri bo'lib tashkil topgan. Maydoni – 0,18 ming km^2.

Taxiatosh shahrining geografik xaritada paydo bo'lishi "Bosh Turkman kanali"ning Taxiatosh GRESi, Amudaryo ko'prigi qurilishi boshlanishiga sabab bo'ladi. Taxiatosh shahrining birinchi rahbari Yakub Tantashev bo'lgan.

2013-yili Taxiatosh shahri tugatilib, Xo'jayli tumani tarkibiga kiritilgan. Muhtaram Prezidentimizning 2017-yili 20-21-yanvardagi Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida Taxiatosh tumanini tashkil etish bo'yicha taklif bildirgan edi. Ushbu taklif asosida Taxiatosh tumanini tashkil qilish va chegaralarini belgilash bo'yicha qaror qabul qilindi. Taxiatosh tumani rasman 2017-yili tuzildi. Umumiy yer maydoni 0,18 ming km^2. Tumanda 10 MFY, 4 OFY joylashgan. Chegara hududlari – Xo'jayli tumani, Nukus shahri va Turkmaniston Respublikasi.

"Taxiatosh" nomining kelib chiqishi haqida xalq orasida shunday hangoma uchraydi. Bundan uch yuz, to'rt yuz yil oldin Naymanko'l hududida kenegeslar yashagan. Ketmonchi boboning (qabriston) sharq tomonida xalq maslahatlashadigan yer bo'lgan. Bu yer ag'darilib turgan taqya tarzli bo'lib, bu yerning o'rtasida katta tosh bo'lgan. Elning katta beglari shu toshning ustiga chiqib gapirgan. O'sha vaqtdan boshlab shu yer nomi ham Taxiatosh deb atalgan. Biroq bu, bizningcha, munozaralidir.

Mazkur shahar Amudaryoning chap qirg'og'i Ketmon tepaligi yonida joylashgan. Xalq, mahalliy aholi orasida Taxiani Xorazm shevasidagi Taxya "do'ppi" hamda tosh so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lganligi haqidagi varianti ham bor.

Ammo Taxiatoshning ikki qismdan iborat ekanligi ayni haqiqat, bi-

roq uning Xorazm shevasidagi Taxyaga hech qanday aloqasi yo'q.

Apellyativning birinchi komponenti Taxia Takiyaning dialektal shaklidir. Boburnomada qayd etilishicha, Takiya "darveshlarning maxsus joyi, umumiy yotoqxona" kabi ma'nolarni ifodalagan.

Shunday ekan, ***Taxiatosh*** – *"toshdan yasalgan darveshxona, musofirxona"* ma'nosini anglatadi.

TAXIRQUDUQ – qishloq. Navoiy viloyati Qiziltepa tumani. *Taxir* – achchiq, achchiqroq + *quduq*, **Taxirquduq** – achchiq suvli quduq.

TAXKO'H – tog'. Oqtov tizmasi (Navoiy viloyati Nurota tumani). *Taxt* + forscha *ko'h* – tog' (**Taxko'h** – taxt – tog', tog'– taxt).

TAXTAKO'PIR – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. (qarang: ***Taxtako'prik, Taxtapul***). Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoli-sharqiy, Qizilqum cho'lining shimoli-g'arbiy hamda Orol dengizining janubi-sharqiy qismida joylashgan tuman. Taxtako'pir tumani shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasi, sharqda O'zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati bilan, janubda Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a, Beruniy, g'arbda Qorao'zak, Mo'ynoq tumanlari bilan chegaradosh. Yer maydoni 21,12 ming km^2. Taxtako'pir tumani dastlab 1928-yil 10-mayda tashkil topgan. 1963-yili Chimboy tumaniga birlashgan va 1965-yilning 29-dekabr sanasida yana Taxtako'pir nomi bilan ajralib chiqqan.

Taxta – bu yog'och va **ko'pir** – u qirg'oqdan bu qirg'oqqa o'tish uchun suv, chuqurlik ustiga qurilgan yo'l, qurilma hisoblanadi. Nomning kelib chiqish tarixi taxtadan ko'prikning qurilishi bilan bog'liq. Bundan bir asr ilgari hozirgi Taxtako'pir hududiga suv keltiruvchi Quvonishjarma kanalining bir tarmog'i Bosay deb nomlangan. U daryoning ikki tomonida xalq istiqomat qilgan. Ikki tarafdagi xalqning bir-birlari bilan bordi-keldi qilishlari uchun daryoga ko'prik judayam zarur bo'lgan va el oqsoqollari bir bo'lishib, maslahatlashib, bu ahamiyatli va savobli ishga kirishadi.

Ko'prikning qurilishiga Xojamet bo'lis boshchilik qiladi. Barcha xalq hasharga keladi. Ko'prikni qurish uchun Chimboydan ustalar keltiriladi, asosan, ko'prikni qurishda Qosbao'li o'g'li Qalimbetboyning uzun oqteraklaridan foydalanilgan. Ko'prikni qurish ishlari qish oylarida bo'lgan.

Asosiy qurilish materiallari taxta (yog'och)dan bo'lganligi sababli ko'prik Taxtako'pir deb nomlana boshlagan. Ko'prik 1904-yili qurilgan (ayrim manbalarda 1903-yil. Bilish mumkinki, ko'prik qurilishi 1903-yilning qish mavsumida boshlanib, kelasi yili tugallangan).

Xorazm viloyatining Gurlan tumanida ham shunday nomli qishloq bor. Ushbu atama xodadan uzunasiga tilib olingan yassi yog'och bo'lagi ma'nosini bildiruvchi *taxta* so'ziga u qirg'oqdan bu qirg'oqqa o'tish uchun qurilgan qurilma ma'nosini bildiruv-

chi *ko'pir (ko'prik)* so'zini qo'shish bilan hosil qilingan nom hisoblanadi.

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani, Farg'ona viloyatining Quva tumanida ham shu nomli toponimlar mavjud. *Taxtako'prik* – taxtadan qilingan ko'prik (*qarang:* ***Taxtapul***).

TAXTAPUL – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq va Toshkent shahridagi mahalla nomi. O'zbekcha *taxta* – yog'och, taxta, arab. *pul* – ko'prik (*Taxtapul* – taxtadan qilingan ko'prik).

TAXTAPUL DARVOZASI – Toshkent shahri Sebzor dahasining shimoliy qismida joylashgan. Taxtapul – forscha qo'shma toponim (taxta va pul), tarjimasi yog'ochko'prik degan ma'noni anglatadi.

Mazkur darvozaning nomi Muhammad Solih XIV asr oxiri – XV asr boshi uchun bergan ro'yxatida ham bor. Darvozaning nomi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chop etilgan yozma va kartografik manbalarda ham aks etgan. Miller ro'yxatida u Taxtakus shaklida yozilgan[1].

Ushbu darvoza XX asr boshlarigacha saqlanganiga qaramay, uning nomi keyinroq ham mahallalar nomlarida aks etgan: Yuqori Taxtapul, O'rta Taxtapul, Quyi Taxtapul mahallalari.

Taxtapul toponimi hozir ham shu mahallalar o'rnidagi bir nechta mahallalarni birlashtirgan hududning nomi sifatida saqlanib qolgan.

TAXTAQORACHA – dovon. Samarqand viloyati va Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani oralig'idagi dovon nomi. Oronimning morfemik tarkibi uch unsurdan iborat: ***taxta+qora+cha***. ***Taxta*** – tog' ustidagi tekis maydon. Turkiy-mo'g'ul tillarida ***qora//qara //xara // хыra*** – *balandlik, dovon.* -cha affiks.

Demak, ***Taxtaqoracha*** – ustida tekis maydoni bo'lgan dovon. Bu oronim "Boburnomada"da ***Itmak*** tarzida uchraydi. Itmak tojikcha ag'ba so'zining turkiy tarjimasi bo'lsa kerak. ***Itmak < o'tmak*** – o'tiladigan tog', oshib o'tiladigan yo'li bor tog' (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

TAYLAQOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanidagi ovul. Endigina tug'ilgan tuya bolasi, bir yoshgacha buta (bo'taloq), bir yoshdan oshsa, toyloq deyiladi.

Taylaqovul – qoraqalpoqlarning taylaq (toyloq) urug'i nomi bilan atalgan. O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar tarkibida ham taylaq (toyloq) urug'i bo'lgan. Orol dengizida bir orol Taylaqjegen (Toyloq yegan) deb atalardi. Bu yerda birovning toylog'ini so'yib yeb qo'yishgan bo'lsa kerak.

TAYLOQ/TOYLOQ – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Bu yerda Tayloqota nomli muqaddas joy ham mavjud. 1904–1905-yillar manbalarida Tayloqipoyon va Tayloqibolo nomlari keltirilgan.

[1] Соколов Ю. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Ташкент: Узбекистан, 1965. – С.34.

Tayloq, toyloq – urug' nomi. Oqtayloq, qoratayloq tarmoqlari bor. Tayloq, toyloq – bir yoshdan oshgan tuya bolasi. Tayloq totem, shu asosda urug' nomi yasalgan. Urug' nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan.

Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi Tayloq qishlog'i nomi ham shunday hosil bo'lgan (Nafasov, 2009). 1904–1905-yillar ma'lumotlarida Samarqand uyezdi Juyidevona volosti Qo'ng'irot qishloq jamoasida Toyloq va O'tarchi Toyloq qishloqlari nomlari qayd qilingan.

TAYPOQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq va mahalla nomi. O'zbek tilida bu so'z *yapaloq, biroz yassiroq* degan ma'noda ishlatiladi. Agar relyefga nisbatan olinsa, yassi, tekis joydagi qishloq ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin.

TAYANCH – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Ushbu toponim mustaqillikdan keyin qo'yilgan nom bo'lib, u o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlanadi: "a) narsani ko'tarib, uning tik, barqaror turishi uchun xizmat qiladigan vosita, ustun, tirgak, tirnovich; b) yordam yoki himoya qiladigan kimsa: yordamchi, himoyachi, homiy (O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild, 33-bet).

TAZG'ARA – Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani hududidagi eski o'zan va Chimboy shahridan 3 km uzoqlikdagi OFYning nomi. Tarixiy manbalarga qaraganda, bu nom Chimboyning o'g'li Tazg'ara nomiga qo'yilgan.

TEGALAK – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomi. **Tegalak** – "o'rtaliq" degan ma'noni anglatadi va bu mahalla "Xosyon" qishlog'ining o'rtalig'ida joylashgani uchun shu nom bilan atala boshlangan.

TEGANA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloqlardan biri bo'lib, unga kiraverishdagi yo'l ko'rsatkichiga endilikda Teganabegim deb yozib qo'yilgan. Bunga toponimning Amir Temur onasi ismi bilan bog'lanishi sabab bo'lgan. Biroq buyuk sarkarda onasi ismining qishloq nomiga hech qanday aloqasi yo'q.

To'g'ri, tegin va takin so'zlari asosida bir umumiy ma'no ("shahzoda") bo'lsada, biroq bu o'rinda etnonim, ya'ni urug' nomi bilan bog'liqlik mavjud.

Tegana (chegana) o'zbek xalqi tarkibidagi urug'lardan biri ekanligini dastlab qayd qilgan olim prof. X.Doniyorov uning 92 bovli qabilalardan qaysi biriga tegishli ekanligini ko'rsatmagan (Doniyorov, 1968).

Har holda olimning tegana so'zi etnonim ekanligi haqidagi fikri e'tiborga molik. Chunki Samarqand viloyati aholi punktlari ro'yxatida (1904–1905-yillar) Xo'jand uyezdining Umbet qishloq jamoasidagi Tegana qishlog'i nomi keltiriladi va u uyezd markazidan 80 vyorst (km) masofada ekanligi ko'rsatilgan.

Xuddi shu ro'yxatda Kattaqo'rg'on uyezdining Xo'jaariq volosti Arziqul

qishloq jamoasidagi Charteganak qishlog'i ham qayd qilingan (Список населенных мест..., 1906: 54–114). 1926-yilgi aholi ro'yxatida Samarqand okrug Yangiqo'rg'on tumani Tengatopdi qishloq kengashi hududida joylashgan Tagan qishlog'i nomi tilga olinadi.

Mazkur qishloq Qorabuloq, Qarapchi, Sart yuzi kabi aholi punktlari bilan yonma-yon qayd qilingan (Список..., 1927). Agar Urgut tumanidagi Tegana qishlog'i ham Qarapchi, Kishanxo'ja kabi aholi punktlari yonida ekanligini nazarda tutsak, bu etnonimlar orasida bog'liqlik borligi aniq bo'ladi.

TEGIRMONBOSHI – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa hamda Surxondaryo viloyatining Denov va Andijon viloyatining Asaka, Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Urgut, Kattaqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomi. Tegirmonning joylashishi asosida nom olgan qishloq. Urgut tumani Tersak qishlog'idagi Tegirmonboshi mahallasi ham shu tarzda nomlangan. Samarqand shahridagi Sariosiyo toponimi esa shu nomning tojikcha varianti dir. *Tegirmonboshi* – tegirmon yoni.

TEGIRMONTOSH – qishloq. Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi qishloq nomi. *Tegirmontosh* – tegirmonda don yanchish uchun ishlatiladigan tosh; tegirmon toshlari olinadigan joy ma'nolarini anglatadi.

TELIMING – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. *Telming* – qishloq, Navoiy viloyatining Konimex tumani.

Tiliming (teliming) – etnonim; masalan, Farg'ona vodiysidagi qoraqalpoq urug'laridan biri *tiliming* deb nomlangan, qirg'iz jookesek va boston (bo'ston) qabilalarida *telmen* yoki *telmin* urug'i mavjudligi qayd qilingan.

XIX asr Qo'qon xonlari arxivida *Tilimning* shaklida uchraydi (А.Л.Троицкая. Каталог архива кокандских ханов. – М., 1968. С. 97–100).

TELOV – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron hamda Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloqlar nomi. *Telov* – qurama-o'zbeklarning 5 urug'idan birining nomi.

TEMIR DARVOZASI – Jizzax shahri yaqinidagi daraning nomi.

Qadimgi turkiy nomi *Temir kapug* – "Temir darvozalar" ruslar uchun Tamerlanning (Amir Temur) ismi bilan bog'liqlik joyi yo'q; hozirgi mahalliy nomi ***Ilanutti*** (qarang).

TEMIRKON – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi joy nomi. Ikki komponentli mikrooykonim. "***Temir***" so'zi – "yer ostidan qazib olinadigan metall ruda bo'lib, kon – biror narsaga juda mo'l, serob joy" ma'nosiga ega [O'TIL. 2, 398].

Mazkur maskan "*atrofi temir rudasiga boy bo'lgan hudud*" ma'nosini ifodalaydi va shu bois shunday nom bilan atalgan.

TEMIRQISHLOQ – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Temirqishloq* "Temirli qishloq". *Temir* etnonim bo'lishi ham mumkin. Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxon (1603–1664) *temirli* urug'ini tilga oladi (bunda etnonim tar-

kibidagi *-li* egalik affiksi ko'p hollarda tushirib qoldirilgan).

TEMIRQOVUQ – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. Qadimgi turkiy tilda temirqapig' – "*temir darvoza*" degan ma'no kasb etgan.

Turkiy tilda tor daradan o'tgan tog' yo'li *Temirqapug'* deb nomlangan, forscha **Darbandi ohanin**, arabcha **Bobil Hadid**. Ushbu tillardagi keltirilgan nomlarning barchasi "temir darvoza" degan ma'noga ega. **Buzg'alaxona** darasi "tog' echkilariga to'la joy (Qohlug') va Jizzax yaqinidagi **Ilono'tdi** – "ilon izi" darasi qadimda **Temirqapug'** deb nomlangan.

TEMIRQUDUQ – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. *Temirquduq* – temir to'r bilan o'ralgan quduq ma'nosi haqiqatdan yiroq. Bu yerda *temir* etnonim ekanligi ishonarliroq. Qashqadaryoning yuqori oqimida ("Этнографические особенности культуры и быта узбекского народа". – Ташкент. 1972. С. 17), qozoqlarning alimuli va dulat qabilalari, o'zbeklarning saroy qabilasi, qirg'izlarning adegene, bugu, sayak va solto qabilalari tarkibida *temir* urug'i mavjudligi ta'kidlangan.

TEMIRXANJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududida oquvchi kichik kanal nomi.

Mahalliy aholining aytishicha, qoraqalpoqlarning qipchoq urug'idan bo'lgan Temirxan ismli bo'lis nomiga qo'yilgan ekan. Sababi, bu sug'orish tarmog'ining qazilishiga Temirxan bo'lisning o'zi boshchilik qilgan.

TEMIRXO'JA – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Mang'it qabilasi urug'laridan biri temirxo'ja deb ataladi. Urug' nomi toponimga ko'chgan. Temirxo'ja etnotoponim bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Temirxo'ja tarmoq urug'i qoraqalpoq va no'g'oylarning mang'it urug'lari tarkibida ham uchraydi.

TEMIRCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Kenagas qabilasining kichik urug'laridan biri *temirchi* – "Temirchi usta" deb atalgan.

TENGECHOSHGAN QUMI – Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorao'zak tumani hududida joylashgan qumlik.

Rivoyatlarga qaraganda, Xiva xoni shu qumlik bo'ylab kelayotganda odamlar uning oldiga chiqib yo'lini to'sgan ekan, xon esa oldiga chiqqan olomonni tarqatish maqsadida tanga sochgan deyishadi.

TENTAKSOY – daryo. Andijon viloyatidagi daryo nomi. Bu o'rinda, **Tentaksoy** gidronimi quturgan (shiddatli) daryo ma'nosini anglatadi.

TEPA – to'pa – to'ba – ko'plab toponimlar tarkibida uchraydigan termin. Etnotoponimlar tarkibidagi *tepa* atamasi boshqacha ma'noga ega bo'lishi ham mumkin. Gap shundaki, xalq qabila, urug', qism tushunchalarini bir-biridan ajratmagan va bunday etnik bo'linmalarni belgilash uchun ular top (to'p), topar (to'par), toba (to'ba), tuba so'zlaridan foydalanishgan.

Turkiy tillarda, xususan, boshqird tilida tuba urug' degan ma'noga ega. Shunday qilib, **Do'rmantepa, Naymantepa, Uyshuntepa** (qo'shimchalar: Qoratepa) va boshqalar kabi etnotoponimlar tarkibidagi tepa elementining tepalikka hech qanday aloqasi yo'q va shu manzillarda shu nomli (*top, topa, toba*) qabilalar va urug'lar vakillari yashaganligini bildiradi.

Bundan tashqari, jonli nutqdagi bu kabi elementlarning talaffuzi va geografik nomlarining yozilishi ko'p hollarda o'xshash emas. Top (to'p) turkiy gala, to'da – qarindoshlik bilan birlashtirilgan bir nechta oilalardan bo'lgan qishloq jamoasining nomi. Jamoada umumiy yaylovlar, yoqilg'i tayyorlash joylari, suvdan umumiy foydalanish tizimi va umumiy maydonlar mavjud edi va ularni boshliq (oqsoqol) boshqargan.

Munisning "Firdavs ul-iqbol" asaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, XVII asr boshlarida, Xiva xoni Abulg'ozixon davrida, *to'pa* bir necha qabilalar va qabilalarning birlashmasi edi; o'zbeklar quyidagi tartibda 4 guruhga bo'lingan va ularni 4 to'pa deb atashgan: uyg'urlar va naymanlar – bitta to'pa. Do'rmanlar, yuzlar va minglar uyg'urlarga qo'shilishgan; payg'ambarning avlodlari, shayxlar va burloqlar – naymanlarga, qo'ng'irot va qiyotlar – yana bir to'pa; jaloyirlar va ali-eli qiyotlarga qo'shilishgan; nukuslar va mang'itlar – uchinchi to'pa, kenagaslar nukuslarga qo'shilishgan, xo'ja-eli – mang'itlarga; qonli va qipchoqlar – to'rtinchi to'pa; ularga o'n to'rt urug' qo'shildi, shuning uchun ham ular o'n to'rt urug' nomini olishgan (Шер-Мухаммад Бен Аваз-бий Мираб. Фирдаус ал-икбал, – кн.: Материалы по истории казахских ханств XV–XVIII вв. –Алма-Ата, 1969).

TEPALIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi qishloq nomi. *Tepalik* toponimi alohida tepalik, balandlik ma'nosini anglatadi.

TEPAQO'L – qishloq. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomi. Toponim ikki qismdan: tepa va qo'l so'zlaridan hosil bo'lgan.

Tilshunos J.Hamdamovning fikricha, mazkur nomdagi ikkinchi komponent qo'l, kul, ko'l va hatto g'o'l tarzida ham talaffuz qilinib, uning haqiqiy va tarixan to'g'ri shakli qo'ldir. Qo'l so'zi qadimiy turkiy va eski o'zbek tillarida ko'p ma'noli so'z bo'lib, toponimiyada "tog' orasidagi vodiy, soy" ma'nosida ishlatiladi.

Darhaqiqat, Mahmud Koshg'ariy (XI asr) o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida qo'l so'ziga izoh berib, "Tog' cho'qqisidan pastga to'g'ri tushgan vodiydagi (tekislikdagi) baland joy" deb tushuntiradi.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"(XI asr) asaridagi qo'l so'zi "vodiy, daryo o'zani, pasttekislik" ma'nolarida ishlatilgan.

Olim A.Navoiy, Z.M.Bobur va boshqalarning asarlaridagi misollar asosida qo'l so'zi "Tog'ning yuqori qismidan boshlanib, tog' etagidagi tekislikka, dasht yoki cho'lga tutashib ketgan

suvli yoki suvsiz havza, vodiy, soylik ma'nolarini anglatadi", degan xulosaga keladi (Hamdamov, Sariko'lmi..., 1995).

TEPAQO'RG'ON – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik hamda Namangan viloyatining Namangan, Pop, Chust tumanlari va Samarqand viloyati Narpay tumanidagi qishloqlar va mahalla nomi.

Tepaqo'rg'on – Farg'ona vodiysidagi bir qo'rg'on, tepalik shunday nomlanadi. Ushbu terminning boshqa variantlari – *qo'rg'ontepa, tuproqqo'rg'on, shoshtepa (chochtepa).*

Tepaqo'rg'on–Qo'rg'ontepa tuproqdan uyib qilingan baland tepalik ma'nosida. Tepa iborasining ijtimoiy voqelik bilan qo'shilishidan viloyatda Aziztepa, Arabtepa, Go'rtepa, Zindontepa, Kitkontepa, Simtepa, Sobirtepa, Sochtepa (Chochtepa), Tepalik, Tepatagi, Tepa Jaloir, Shahartepa, Qorovultepa kabi joy nomlari shakllangan.

TEPASAROY – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu etnooykonim "***tepa***" va "***saroy***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

"***Tepa***" umumturkiy so'z bo'lib, "*yer sathidan baland, do'ng joy, balandlik*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 66-67].

"***Saroy***" 92 qavmli o'zbek urug'laridan biri sanaladi [S.Qorayev-1, 108; Z.Ziyotov, 118; N.Begaliyev, 94].

X.Doniyorovning fikricha, ***saroy*** qabilasining *chemsaroy, qirg'izsaroy, mojarosaroy, oltintamg'alisaroy, qipchoqsaroy, tepasaroy, jolong'och (yalang'och)saroy, ko'ksaroy, qorasaroy* kabi bir qancha tarmoqlari mavjud [X.Doniyorov, 89].

Shunga binoan bu mikrotoponimni baland joyda saroy urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq [B.O'rinboyev, 179-180], deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Ushbu etnooykonim ikki o'zakdan tashkil topgan bo'lib, ot+ot tuzilishiga ega.

TEPASO'G'ANCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. *So'g'on* (sogun) – piyoz, *so'g'onchi* – piyoz yetishtiruvchi odam. Turkiy xalqlar, qozoqlar, oltoylar va boshqalarning qabila nomlari tarkibida *so'g'onchi* yoki *so'g'anchi* urug'i uchraydi. Etnonim bo'lishi mumkin.

TERAK – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. T.Nafasov terak – tik o'sadigan daraxt ekanligi va shunday daraxt bor joy Terak deb atalishini qayd qilgan holda yana boshqa bir izohni ham keltiradi. Qadimgi turkiy tilda *terngak/ternak/teranguk/ternguk* – buloq suvi, qaynab chiqadigan yerosti suvi; jilg'a. Beshterak, Beshdarak nomlaridagi terak, darak so'zlari ham **terngak** so'ziga daxldor. Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi nomi ham shu so'z bilan bog'liq. Terak – buloq, jilg'a (Nafasov, 2009).

TERAKZOR – qishloq. Andijon viloyatining Ulug'nor tumanidagi qishloq nomi. Demak, *Terakzor* – qator teraklar ekilgan maydon ma'nosini anglatadi.

TERAKLIK – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim kelib chiqishiga ko'ra fitonim hisoblanadi. Chunki toponimning kelib chiqishiga terak daraxtining nomi asos bo'lgan. *Terak* – daraxt nomi. *-lik* toponim yasovchi qo'shimcha.

Demak, Teraklik – *"Terak daraxti ko'p o'sadigan joy"* degan ma'noni bildiradi. Haqiqatan ham, qishloq yaqinidan oquvchi Komiariq yoqasiga mahalliy aholi ko'plab teraklar ekishgan.

TERAKTAGI – qishloq. Andijon viloyatining Andijon, Paxtaobod hamda Farg'ona viloyatining Toshloq tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Teraktagi* toponimi terak ostida, terak yonida, terakzor ma'nolarini ifodalaydi.

TERMIZ – shahar. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Surxondaryo viloyatining markazi. Qadimgi shaharlardan biri. Shahar o'z nomini makedoniyalik Aleksandr davrida olgan deb hisoblashadi. I.V.Mushketov shahar xarobalarini qazish paytida juda ko'p yunon tangalarini topdi. Shaharning ko'plab nomlari mavjud edi: **Tarmad, Tarmiz, Tarmid, Tarmit, Termed, Termez, Termid, Termiz, Tirmid, Tirmiz** va boshqalar.

Termiz nomining kelib chiqishi bo'yicha V.Tomasek Baqtriya tilidagi "narigi qirg'oqdagi manzilgoh" yoki "daryoning narigi tomoni" ma'nosidagi *Taromayetxa* so'zi bilan bog'langan etimologiyani taklif qildi.

Xalq etimologiyasi: *Tirimiz* (adabiycha *tirikmiz*): "biz tirikmiz", Ali al-Hakim Termiziyning o'g'li shayx Abu Abdulloh Muhammad shunday degan, deb izohlanadi. XIV asrdan boshlab shahar Madinat ur-rajal – "o'g'lonlar shahri" degan epitetga ega bo'lganligi ta'kidlanadi.

Professor M.Y. Masson ushbu nom G'arbiy Yevropa va rus adabiyotida turlicha yozilganligini ta'kidlaydi. Jumladan, **Tarmad, Tarmid, Tarmiz, Tarmeiza, Termed, Termesh, Termiz, Termis, Termouz, Tirmid, Tirmiz**, arman manbalarida – *Drmat*; X asrdan boshlab ("Hudud ul-olam") – *Termiz*.

Yunoncha *termos* – "issiq", "jazirama" so'zi bilan bog'lashadi (M.E.Массон. Городища старого Термеза и их изучение. Труды АН Уз ССР; серия 1, История, археология, вып. 2, Термезская археологическая комплексная эксплуатация, 1936 г., Изд-во УзФАН).

TERSAKSOY – soy. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Tog'ning keskin burilgan joyidagi soy va qishloq nomi. Qadimgi turkiy tilda ters so'zi "orqa, shimoliy taraf" degan ma'noni anglatadi.

Toponimist E.M.Murzayev bu haqida ajoyib bir fikrni bayon qilganki, biz unga to'liq qo'shilamiz. "Turk tillarida shunday bir o'xshashlik mavjud bo'lib, bu Kungay (quyoshli, janubiy taraf), Ters (chappa, orqa) so'zlaridir. Xuddi shunday Tersak, Ters, Tersu, Tersakan daryolarining nomi kelib chiqqan", deb ta'kidlaydi olim.

Haqiqatan ham, Tersak qishlog'i Urgut tog' tizmasining quyosh nuriga teskari, ya'ni shimoliy yonbag'rida oqayotgan Tersak soyining bo'yida joylashgan.

TEYIT – qishloq. Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq va Yuqori Chirchiq tumanlaridagi qishloq nomi. Sariteyit – Jizzax viloyatining Baxmal tumani. Teyit – katta qirg'iz qabilasi quyidagi qismlarga bo'lingan: teyit, sariq teyit. Farg'ona vodiysidagi **Qorateyit, Sariteyit** aholi punktlari nomlari shundan dalolat beradi.

Teyit qirg'izlarning *teyit* qabilasi bo'lgan (tarmoqlari: boyteyit, qorateyit, sariteyit, o'g'riteyit va b.).

TEZAKCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Bu qishloqda oqqipchoq urug'iga mansub kishilar yashashadi. Tezakchi so'zi etnonim bo'lishi mumkin. Chunki Qozog'iston Respublikasining Qarnoq qishlog'ida ham tazak to'pi bor.

TEZGUZAR – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning kelib chiqishini "*tez yurar, tezroq o't*" mazmunida talqin qilishadi. Bu ishonchli emas.

Nom, aslida, ***Tezguzar*** emas, ***Dizguzar***dir. Ushbu toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi komponenti **Diz** – "*qo'rg'on*" va ***guzar*** esa – "*kechuv*" ma'nosini anglatadi.

Shunday ekan, ***Tezguzar*** – "*qo'rg'on yonidagi kechuv*" degan ma'noni ifodalaydi. Mahalliy aholi "***diz***" so'zini unutgach, ***tez*** deb talaffuz qila boshlashgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, bu yerdan ***Oqmachit, G'azali, Orenburg*** shaharlariga karvon qatnagan.

TESHIKTEPA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *teshik* va *tepa* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *teshik* so'zi "*o'yiq*" degan ma'noni bildiradi. Uning ikkinchi komponenti – *tepa* tabiiy geografik termin bo'lib, "*do'nglik*", "*tepalik*", "*balandlik*" kabi ma'nolarni bildiradi.

Demak, Teshiktepa – "*o'yiq tepalik*", "*o'yiq balandlik*" deganidir. Mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra, qadimda qishloq hududida katta tepalik bo'lgan. Keyinchalik uni o'rtasidan teshib, ikkiga bo'lib ariq o'tkazishgan. Shu tariqa qishloq nomi Teshiktepa bo'lib qolgan.

TESHIKTOSH – qishloq. Andijon viloyatining Jalaquduq tumaniga qarashli qishloq nomi. Adirlikning tosh-shag'alli baland qismi ostida ungur-g'orsifat joy azaldan chorva boquvchilarga muvaqqat boshpana xizmatini bajargan. Keyinchalik shu adirlik bag'rida paydo bo'lgan qishloq "Teshiktosh" deb nom olgan.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida ham Teshiktosh nomli g'or bor. Bu yerda ibtidoiy odamlar ham yashagani isbotlangan.

Shuningdek, O'zbekistondagi ko'plab joylarning nomi shunday atalgan.

Teshiktosh – "teshilgan tosh": inson o'ta oladigan kattalikdagi teshikka ega xarsangtosh ma'nolarini anglatadi.

TIKANLI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom "***tikan***" so'ziga ***-li*** affiksining qo'shilishidan tashkil topgan.

Apellyativning birinchi qismi "***Tikan***" so'zi *"o'simliklarning ingichka uchli, ninasimon a'zosi"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 4, 87].

Uning ikkinchi qismi ***-li*** affiksi turkiy tillarga xos bo'lib, *"otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanligini yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi"* [O'TIL. 5, 583-584].

Shuning uchun "***Tikanli***" oykonimini *"tikanli o'simliklar ko'p bo'lgan joyda barpo bo'lgan qishloq"* shaklida izohlash maqsadga muvofiq.

TIKO'ZEK – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanidagi qishloq nomi. *Tik* – tikka, *o'zek* – ariq, o'zan ma'nolarini ifodalaydi.

TILLAKAMAR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. *Tilla* – oltin, *kamar* – g'or (Tillakamar – *oltin g'or, oltin topilgan g'or*).

TIM – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Fors va o'zbek tillarida tim "yopiq bozor" yoki "savdo rastasi" degan ma'nolarni anglatadi; bozor soqchisi *timbon* deb nomlangan.

Tim so'zi sug'diy matnlarda hamda musulmon adabiyotlarida uchraydi va "do'kon", "savdo binolari" ma'nosida ishlatilgan, shu jumladan, "katta karvonsaroy" ma'nosiga ham ega bo'lgan. *Tim* so'zi sug'd tiliga xitoy tilidan o'zlashgan (О.И.Смирнова. Очерки из истории Согда. – М., 1970. С. 133).

Yoqut (XIII asr) o'zining "Mu'jam ul-buldon" lug'atida sug'ddagi **Tim** manzilgohi haqida ma'lumot mavjud (В.В.Бартольд. Сочинения, т. 1. С. 183) degan.

Nurobod tumanidagi qadimiy qishloqlardan biri ham shunday nomlanadi. Yoqut Hamaviy (XIII asr) Ibn al-Faqhga tayanib, Samarqand Sug'didagi Tim qishlog'i haqida o'z asarida yozib qoldirgan.

Hozirgi Tim qishlog'i yaqinidagi 400–500 m^2 maydonga ega bo'lgan o'rta asr makoniga mansub tepalik mazkur qishloq anchagina katta mavqega ega joylardan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Tim qishlog'i 977–978-yillarda bunyod etilgan Arabota yodgorligi bilan mashhur. "Tim" termini sug'd yozuvlari va o'rta asr musulmon mualliflari asarlaridayoq uchraydi. Sug'dcha "Tiym" (arabcha "Tim") so'zi "do'kon, savdo binosi" ma'nosida bo'lib, tarixchi O.I.Smirnovaning ta'kidlashicha, xitoy tilidan o'zlashgan.

Yoqut tim so'zini xurosonliklar xon (savdogarlar yashaydigan mehmonxona) deb qo'llashlarini qayd qiladi. Mazkur so'z forslar tomonidan

karvonsaroy, ya'ni matolar sotiladigan joy ma'nosida qo'llangan.

TIMPIYJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Qorateren" OFY hududida joylashgan Qoramo'yinovulning g'arbiy tomonidan oquvchi sug'orish tarmog'i. A.Kaulbarsning 1881-yilgi asarida Qorateren ko'lining g'arbiy bo'limi Timpiyayag'i deb atalgan. Bu kanal juda sekin oqqanligi sababli shunday atalgan.

TIRGARON – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. *Tir* – kamon o'qi, *tirgar* – kamon o'qi yasaydigan usta, *-on* – ko'plik qo'shimchasi.

TIG'IRIQ – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Tig'iriq* – xitoyizilar (xitoyyuzi) qabilasining 12 ta bo'linmasidan biri (X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari, 84-bet).

TOBILG'ILI – joy. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Tobilg'i* – tavolga, qattiq daraxt butasi, *Tobilg'ili* – tobilg'i o'sadigan joy.

TOBON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro hamda Navoiy viloyatining Karmana tumanlaridagi qishloqlar nomi. Forscha *tobon* toponimiyada "lovullagan", "qizib turgan" degan ma'nolarda qo'llaniladi.

Dastlab bu nom *Toboni mavze* "jazirama joy" yoki *Toboni regzor* – "qaynoq qum" shakllarida ishlatilgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik lisoniy vositalar tejamkorligi qonuniyatiga ko'ra, obyekt qisqartirilib, *Tobon* tarzida yuritila boshlagan.

TOJIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Toshloq tumanlaridagi qishloqlar nomi. **Tojikqishloq** – Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Quva tumanlari; Jizzax viloyatining Baxmal tumani; **Tojikkent** – Buxoro viloyatining Qorako'l tumani; **Tojiklar** – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani.

Ushbu qishloqlarda, asosan, tojiklar yashaydi. **Tojikmahalla** – Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi qishloq nomi. Boshqa xalqlar bilan, xususan, o'zbeklar bilan yashaydigan hududlarda tojik etnonimini o'z ichiga olgan boshqa nomlardagi joylar mavjud (shu bilan birga o'zbek etnonimi va boshqalar).

Boshqa xalqlar, jumladan, o'zbeklar bilan tojiklar qo'shni yashaydigan hududlarda shunday qishloqlar uchraydi.

TOJIKLAR//TOJIKON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi ***qishloq*** nomi. Boshqa xalqlar, jumladan, o'zbeklar bilan tojiklar qo'shni yashaydigan hududlarda shunday nomdagi qishloqlar uchraydi. Mazkur etnotoponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***Tojik*** etnonim hisoblanib, uning ikkinchi qismi ***-lar*** va ***-on*** ko'plik shakllarni ifodalaydi.

Demak, ***Tojiklar//Tojikon*** – "*tojiklar yashaydigan* **qishloq**" degan ma'noni anglatadi.

TOJIKOVUL – Samarqand viloyatining Qoshrabot tumanidagi qishloq nomi. Bir vaqtlar Forish tumanining Uxum qishlog'idan aholi ko'chib kelgan va shu hududda muqim yashab

qolishgan hamda o'sha hududda istiqomat qilgani uchun ***Tojikovul*** deb atashgan.

TOKLI SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Gidronimning birinchi komponenti "***tok***" – "*uzum o'simligi*" [O'TIL. 4, 135]. ***-li*** turkiy tillarga xos bo'lib, "*otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanligini yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi*" [O'TIL. 5, 583-584].

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

Demak, "***Tokli soy***" – fitogidronim bo'lib, soyning boshlanish qismida uzum o'simliklari joylashganligiga ishora qilinadi.

TOLISAFED//TALISAFED – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim tarkibidagi Tal termini butun mamlakatimiz hududida, hatto Rossiya Federatsiyasining ayrim hududlari toponimiyasida ko'p uchraydi. ***Talibuzu, Talli tarnov, Talichuqur, Talnavro'zi*** va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu termin mazkur joyning relyefini bildiradi va u "*tepa, balandlik*" ma'nosidadir. Turkiy xalqlarda bu so'z o'rnida *bosh, tepa* terminlari qo'llaniladi. ***Tal*** so'zi arab tiliga xosdir (Қаранг: Русско-арабский словарь. –М., 1964. –С.1013).

Xorazmda ***tal*** – qal'alarning vayronalari, ko'hna xarobalaridir. Safid esa tojikcha "oq" demakdir. Shunday ekan, ***Tolisafed*** toponimi – "*oq tepa*" ma'nosidadir.

TOLICHA//TAL(L)CHA – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur toponim ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***Tol//tal*** – "*tepalik*" ma'nosini bildiradi va ***-cha*** kichraytishni ifodalaydi. Buxoro viloyatining ko'p joylarida tepalikni tal(l) deyishadi.

Demak, ***Tolicha, tolija (talcha)*** – "*kichkina tepalik*" degan ma'noni bildiradi.

TOLLIQ//SUVUTLIK – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi ovul nomi. Hududda fitonimlar bilan bog'liq toponimlar ichida bir fitonimning har xil sheva va lahjalardagi turli nomlari asosida yuzaga kelgan fitotoponimlar ham uchraydi. Bu, albatta, Janubiy Qoraqalpog'istonda ikkita yirik lahja vakillari istiqomat qilayotgani bilan izohlanadi. O'g'uz lahjasi vakillari tomonidan ishlatiladigan "*tol*" ma'nosidagi *suvut* so'zining etimologiyasini ham shu nom orqali atalgan daraxtning tabiiy xususiyati bilan bog'liq holda talqin qilish o'rinlidir.

Bizningcha, ushbu fitonim yuzaga kelishi uchun *sovi-* ma'nosidagi *suvu-*

fe'li asos bo'lgan. Undagi *-t* qo'shimchasi esa hozirda iste'moldan chiqqan ot yasovchidir. Mazkur qo'shimcha, uning turli ma'no qirralari hamda vazifalari, turli turkiy tillarda qo'llanish darajasi maxsus tadqiq qilingan[1].

Jumladan, E.V. Sevortyan uning fe'ldan ot yasovchi affiksi sifatida, asosan, jarayon nomi, obyekt nomi, harakat-holat natijasi ma'nolarini anglatishini qayd etgan[2].

A.G'ulomov *-t* o'zbek tilida ot yasovchi sifatida harakatni qabul qilgan narsa ma'nosidagi (*chiqit*); harakat natijasida hosil bo'lgan predmet ma'nosidagi (*qur(u)t*); o'rin-joy nomi mazmunidagi (*ashit* – kecharlik) otlar yasashini qayd etgan[3].

Suvut so'zida *-t* qo'shimchasining ko'proq jarayon nomi ma'nosi ko'zga tashlanadi. Bunday xulosaga kelishimizga sabab tol, ayniqsa, qora tol soyasi boshqa daraxtlarga nisbatan o'zining salqinligi bilan ajralib turadi va xalq uning shifobaxshligiga ishonadi. Xorazm viloyatining Xonqa tumani aholisi vakillari shevasida ***Tolliq// Dolliq*** va ***So'vutlik*** tarzida hozirda ham faol qo'llaniladi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

TOLLO – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponimni mahalliy aholi *tol, daraxt* so'zi bilan bog'lashadi, ya'ni "toil bor joy" degan ma'noda deb hisoblaydi.

Bizningcha, bu toponim ham yuqoridagi ***tal*** – "*tepalik, balandlik*" so'zi bilan bog'liq va u "*tepalik, balandlik*" ma'nosini ifodalaydi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi ***Tolli qo'rg'on*** nomi ham "*tepalikdagi qo'rg'on*" ma'nosidadir.

TOLMOZORSOY – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi soy nomi. Mozor (ar.) – avliyolarning qabri, sig'inadigan joy (Murzayev, 1979: 97). Archamozorsoy (Urgut tumani), Qoramozorsoy (Bulung'ur), Mozorariq (Toyloq tumani) kabi atamalar gidronimiyada ko'p uchraydi.

TOLTEPA – tepalik. Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi tepalik nomi. **Toltepa** – jiydalar o'sadigan tepalik (arabcha – *tal* va o'zbekcha *tepa* – "tepalik") ma'nosini anglatadi.

---

[1] Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка, И. Аффиксация, част II. Словообразующие аффиксы имен: Афтореф. дисс ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1955. Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в Азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследований. – М.: Наука, 1966. – С. 15, 103, 104.; Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в Азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследований. – М.: Наука, 1962. – С. 175, 339, 351.

[2] Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в Азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследований. – М.: Наука, 1966. – С. 279, 280.

[3] Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Афтореф. дисс ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1955. – С. 32, 35, 38.

TOMA – qishloq. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Mazkur terminning ma'nosi haqida turli fikr-mulohazalar bo'lib, ayrim qariyalarning aytishicha, bu yerda odam yashamagan, bu yer faqat o'tloq va qamishzorlardan iborat bo'lgan, o'tloqlarga odamlar bahor va yoz oylarida kelib mol boqishgan, chiqirlar qurib, dehqonchilik qilib ko'chib kela boshlaganlar. Toma-toma ko'l bo'lur, deganlaridek, odamlar ko'chib kelib, bu yerni obod maskanga aylantirganlar. Biroq, bizningcha, bu munozaralidir, chunki, prof. Z.Do'simovning "Xorazm toponimlari" nomli monografiyasida Toma urug' nomi ekanligi qayd etiladi.

Shuningdek, S.Qorayevning lug'atida u o'zbek urug'laridan biri deb qayd etilib, ushbu termin O'zbekistonda, xususan, Zarafshon vodiysida joy nomlari shaklida uchrashi ta'kidlanadi (S.Qorayev, 1970).

Mazkur muallifning fikricha, tama asli mo'g'ul ko'chmanchi qabilasi bo'lib, Dashtiqipchoq o'zbeklari tarkibiga kirgan va XV–XVI asrlarda o'zbeklar bilan birga Movarounnahrga (asosan Zarafshon havzasiga) va Xorazmga kelib o'rnashgan, deydi. Demak, Toma bu, aslida, etnonimdir.

TOMDI – tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tumanga nom bo'lgan tomdi so'zi buloqning nomi, uning to'la shakli Tomdibuloq. Markaziy Qizilqumda kenglik bo'ylab cho'zilgan tog' Tomditov deb ataladi. Tomditovda ohaktosh, marmar, boksit, oltin va boshqa qazilma boyliklar ochilgan. Gidronimlar aholi turar joylariga nom bo'lib o'tganida ular o'rtasida ma'no va vazifa jihatidan ba'zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni inobatga olish kerak. Birinchidan, suv obyekti hozirda mavjud bo'lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng qo'llaniladi, uning aholi punktini ifodalashi ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Shunda, Tomdibuloq, Oydinbuloq deganda darhol buloq nomi tushuniladi. Ikkinchidan, nom tarkibidagi suv obyekti hozirda mavjud bo'lmasa, vaqt o'tishi bilan uning oykonimik vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Bunday holatlarda nomning gidronimik ma'nosi emas, oykonimik ma'nosi yashashni davom etadi.

Suv obyektlari nomlarining paydo bo'lishiga turli xil omillar sabab bo'lgan. Ular qanday sabablarga ko'ra yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Miqdori, hajmi, shakl tuzilishi, paydo bo'lgan vaqtiga qarab nomlangan suv obyektlari ko'plab topiladi. Bunday nomlar suv miqdori, son-sanog'i va hajmini belgilashga qaratilgan. Suvi kam bo'lganidan toshlardan tomchilab oqib tushadigan buloq – tomchi, tomdi buloq deyiladi.

Qozoq toponimisti Y. Qo'ychuboyev Qozog'istondagi Tomdi degan bir necha joy nomini tom "devor, uy" deb izohlaydi. Nomning to'liq shakli Tomdibuloq, u aslida suv obyektining nomi ekanligi hech kimda shubha

qoldirmaydi. Buloq nomi (gidronim), tog'ga (oronim) va keyincha, shu hududda tashkil qilingan tuman va shaharchaga (oykonim) ham berilgan.

Buloq boshqa geografik obyektlarni nomlashda mo'ljal, oriyentir vazifasini bajargan. Chunki buloq suv tanqis bo'lgan cho'l hududida inson hayoti va faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Mavjud toponimik qonuniyatlarga ko'ra, yangi geografik obyektga nom uzoqdan qidirilmaydi, balki yonidagi obyektning nomi unga ham beriladi.

TOMDIBULOQ – ovul. Navoiy viloyatining Tomdi tumanidagi qishloq nomi. Tomchilab suv beradigan buloq *tomdi, tomchi* deb ataladi. Qozog'istonlik toponimist E.Koichiboyev *tamdi* toponimini "devor" ma'nosidagi so'zlar bilan bog'laydi.

TOMCHI – qishloq, Jizzax viloyatining Forish tumanidagi qishloq nomi; dara, Jizzax viloyatining Zomin tumani, **Tomchisoy** – daryo, Surxondaryo viloyati. *Tomchi* (qatra) – tomchilab suv beradigan buloq ma'nosini anglatadi.

TOMCHILISOY – daryo. Muzrobotsoy irmog'i (Surxondaryo viloyati). *Tomchi* gidronimi qatra (Tomchilisoy – tomchilab suv beradigan buloq).

TOMCHI SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur gidronimning birinchi komponenti "***tomchi***" bu yerda ko'pning juda oz qismini ifodalamoqda.

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, "**Tomchi soy**" gidronimi *"suvi oz, kam bo'lgan soy"* ma'nosini bildiradi.

TOQI SARROFON//TOQI TELPAKFURUSHON – Buxorodagi bozorlar nomlari. *Toq* so'zi "arkli binolar" ma'nosini anglatuvchi eng qadimiy me'moriy terminlardan biri, shu jumladan, "yopiq savdo rastalari". Yuqoridagi bozorlar ham shunday bo'lgan: **Toqi Sarrofon** – pul maydalaydigan bozor, **Toqi Telpakfurushon** – do'ppi sotuvchilar bozori (О.И.Смирнова. Очерки из истории Согда. – М., 1970).

TOQIDO'Z – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomlaridan biri. Toponim forscha-tojikcha *taqiyado'z* so'zining o'zgargan shakli bo'lib, *"do'ppi tikadigan usta"* degan ma'noni bildiradi.

Qishloq aholisi qadimda do'ppi tikish bilan shug'ullangan. Qishloq nomiga shu yerdagi aholining kasb-kori asos bo'lgan.

TOQIMBETJAP – Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida Jalanashqumning yonidan oquvchi kichik kanal. Kanalni qazishda qoraqalpoqlarning shao'jeli urug'idan bo'lgan Toqimbet ismli kishi brigada rahbari bo'lgan va

kanal shu kishining nomi bilan atalgan.

TOQMAN – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu mikrotoponim "***toq (chi)***" va "***-man***" qismlaridan iborat. Dashtiqipchoqdan kelgan yirik o'zbek qabilalaridan biri ***tog'chi // tog'chi (tog'lik)*** deb atalgan [S.Qorayev. 1, 125].

B.Qarmishyevaning fikricha, tog'chilar, asosan, Janubiy O'zbekistonda hamda Zarafshon daryosi bo'ylarida yashagan[1].

T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy O'zbekiston viloyatlarida ***Toqchiguzar, Toqchiyon, Toqchilik*** kabi qishloqlar mavjud [T.Nafasov, 178].

B.O'rinboyev esa "***Toqchiman***" nomini *"toqchi urug'iga mansub kishi"* ma'nosini ifodalaydi, – deydi [B.O'rinboyev, 186].

Shunga ko'ra mazkur mikrotoponimni *"toqchi urug'iga mansub kishi tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash mumkin. Leksik jihatdan tuzulishi ot+ot shakliga ega.

TOQCHI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanidagi qishloq nomi. **Toqchilik** – qishloq, Jizzax viloyatining Jizzax tumani. **Toqchilik** – toqchi qabilasi vakillari yashaydigan hudud, masalan, **Saroylik** – "saroy qabilasi vakillari yashaydigan hudud".

TOQCHIYON – qishloq. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Tog'chi (toqchi) – "tog'lik" o'zbek dashti qipchoq qabilasi; *-yon-(-an)* – forscha ko'plik qo'shimchasi. Ular tog'larda, tojiklardan balandroq joylarda yashashgan, ba'zan o'zlarini qatag'onlar deb atashgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 83–85).

I.Magidovich *saroy* qabilasi tarkibida toqchi urug'i mavjudligini ta'kidlagan (Территория и население Бухары и Хорезма, кн. 1, ч. 1. С. 181).

TORARIQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Tor ariq* toponimi keng bo'lmagan ariq ma'nosini anglatadi.

TORJILG'A – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanidagi qishloq nomi *Tor jilg'a* toponimi tor (keng bo'lmagan) soy ma'nosini ifodalaydi.

TORQAPCHIG'AY – daryo va qishloq. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. **Torqapchig'ay** toponimi tor dara demakdir.

TORTUVLI – qishloq nomi. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Narpay, Oqdaryo tumanlarida uchraydi. Tortuvli o'zbek urug'laridan biri, ba'zi bir fikrlarga ko'ra, qanjig'ali urug'ining bir tarmog'i.

B.X.Karmishevaning ma'lumotiga ko'ra, tortuvli urug'i qo'ng'irot qabilasining ajdodi – Qo'ng'irot otaning kichik xotinidan tarqalgan; Qo'ng'irot ota keksayganda kichik xotini o'g'il tug'ib tortuv (tortiq – sovg'a) qilgani

[1] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 83–85.

uchun undan tarqalganlar tortuvli deb atalgan ekan (Karmisheva, 1979).

Oqdaryo tumanidagi Tortuvli qishlog'i o'rta asr vaqf hujjatlarida Mazarak nomi bilan qayd qilingan. Qishloq yonida Muzaraktosh nomli tepa bor (Вяткин. Материалы..., 1902). Vaqt o'tishi bilan Mazarak ikki qishloqqa ajralgan. Ulardan biri Kapa qishloq bo'lib, keyinchalik Mirkand (Dahbed volosti) deb atala boshlagan. Ikkinchisi Shoxob volostidagi Turtig'ar (hozirgi Turayg'ir)dir (Chexovich, 1974).

Tortuvli toponimi Navoiy viloyatining Xatirchi tumani, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida ham qayd etiladi.

Tartuvli (tortuvli) – ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra o'zbek qanjig'ali urug'ining bir qismining nomi.

Afsonaga ko'ra *tartuli* – Qo'ng'irot qabilasining boshlig'i, Qo'ng'irot otaning unga sovg'a sifatida taqdim (tortuv) qilingan kenja ayolidan bo'lgan beshinchi o'g'lining avlodlari (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории).

TORYOP – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi qishloq nomi. *Tor yop* – tor (keng bo'lmagan) ariq (yop) ma'nosini anglatadi.

TOTKENT – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloqlardan biri. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarini nashrga tayyorlaganlar quyidagilarni yozishadi: "Sayyid Jaloliddin Kosoniy (1542–1549-yillar orasida vafot etgan) manoqibida aytilishicha, Totkand Samarqanddan Buxoroga boradigan yo'l ustida joylashgan mavze. Buxorodan Zominga boradigan yo'l ustidagi beshinchi mavzedir... uning aniq o'rnini belgilab bo'lmadi", deb ko'rsatiladi (Hofiz Tanish, 1999).

Professor B.O'rinboyev bu nomni tot – tosh va *kent* – qishloq so'zlaridan tashkil topgan, deb ko'rsatadi. M.Koshg'ariy asarida "Tot" so'zi ikki ma'noda, ya'ni fors tilida so'zlashuvchilar va islomni qabul qilmagan uyg'urlarni bildiruvchi so'z sifatida ko'rsatilgan (Koshg'ariy, 1965).

Tot so'zi hozirgi kunda fors tilida so'zlashuvchi unchalik yirik bo'lmagan xalq nomi sifatida ham qo'llaniladi.

Bizningcha, mazkur nomning tosh so'ziga aloqasi yo'q. Ehtimol, o'tmishda bu yerda yashagan aholi nomi toponimning yuzaga kelishiga ta'sir qilgan. Har holda, viloyatda uchrovchi *O'zbekkent, Mo'g'ulkent, Tojikqishloq, Arabqishloq* shaklidagi toponimlarning ko'plab uchrashi turli xalqlar nomlarining hosil bo'lishida faol ishtirok etishidan darak beradi.

K.Shoniyozovning dala tadqiqotlari materiallarida Farg'ona vodiysida yashagan qipchoq qabilasining qiziloyoq urug'i qayd qilinib, mazkur urug' tarkibidagi qo'ng'urboy, toti yoki tot, jetkan, xurmachi, ko'chachi, biylo tarmoqlari haqida ma'lumotlar yozib olingan (Shaniyazov, 119).

Demak, Totkent "Totlar qishlog'i" ma'nosida bo'lib, etnotoponimdir. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Metan

rayonidagi Qo'shravot qishloq kengashiga qarashli Toti qishlog'i qayd etilgan (Материалы..., 1927).

TOVLICHIBAR – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. *Chibar* – qirq qabilasining bir qismi, *tovli* – tog'li; **Tovlichibar** – tog'lik chibor (qandaydir "dashtlik chibor" ham bo'lganidan dalolat beradi).

TOVOQSOY – daryo, vodiy. Toshkent viloyatidagi qishloq nomi. *Tovoqsoy* – gir atrofi baland tepalar, tog'lar bilan o'ralgan tovoqsimon chuqur yer.

Shuningdek, Toshkent viloyatidagi soy va qishloqlar ham shunday nomlangan. Mazkur nom soyning shaklidan olingandir. Soy keng hamda sayoz bo'lganligi uchun shunday nom berilgan. Soydan esa bu nom qishloqqa ham ko'chgan.

TOVOQCHI – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. *Tovoq* – katta chuqur kosa, *tovoqchi* – xuddi shunday idishlarni tayyorlovchi usta ma'nolarini anglatadi. *Tovoqchi* etnonim bo'lishi mumkin. Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim hududlarida *tovoqtarosh* nomi ham mavjud. Masalan, ko'plab joylarda mahalliy lo'lilar *tovoqtarosh* deb nomlangan (lo'lilar ko'pincha yog'och kosa yasash bilan shug'ullanishgan).

TOVUL – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida bu yerda *tovuldi* qabilaviy guruhi istiqomat qilgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа).

Ilmiy manbalarda e'tirof etilishicha, qipchoqlarda shu nom bilan ataluvchi urug' nomi qayd etilgan.

TOVXONA – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu oykonim "***tov***" va "***xona***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. "***Tov // tovul // tovuldi***" qipchoq urug'ining bir tarmog'i "***tovul // tov***" deb yuritiladi [S.Qorayev. 1, 122].

Tog'li tumanlarda o'sadigan kauchukli ko'p yillik o'simlik ham ***tovsag'iz // tovsa // tov*** deb nomlanadi [Z.Ziyotov, 147].

"**Xona**" so'zi esa "*uy, bino, uy-joy*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 410; N.Begaliyev, 105].

Shunga binoan mazkur mikrotoponimni "*tovul(di)lar yashaydigan maskan, joy, qishloq*" deb izohlash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, tovxona ikki o'zakli ot+ot strukturasiga kiradi.

TOYIRSHAYX – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq va ariq nomi. Tohir – kishi ismi va shayx (ar.) – oqsoqol so'zlaridan yasalgan toponim. Bu o'rinda shayx so'zi diniy unvon ma'nosida kelgan.

TOYLOQ – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. *Toyloq* – etnonim; o'zbeklar va qoraqalpoqlar orasida Toyloq urug'i qayd etilgan bo'lib, ushbu urug' *oq toyloq* va *qora toyloq* kabilarga bo'linadi.

Toyloq – bir yoshga to'lgan tuya. Bu yerda Toyloq (toyloq) – urug'ga nomi berilgan totem bo'lishi mumkin. Toyloq – erkaklar ismi.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi ham shunday atalgan.

TOYQIR – Zarafshon daryoning quyi oqimidagi qurigan irmog'i. Buxoro viloyatining Olot tumani. U quyidagi mazmunga ega: *tagi qir* – "Tepalik ostida".

TOZ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloqlarning nomi. Tojikiston Respublikasi Qo'rg'ontepa tumanidagi toz urug'ining shig'ir, qaychi, turpich, chirchiq, o'rta singari bir necha bo'limlari bor.

Shuningdek, Gurlan tumanidagi (Xorazm viloyati) toz-qozoqlar o'zlarini sakkiz arisli (bo'limli) tozlar deb ataydilar va bessari toz, chergas toz, jastovon toz, keldiboy toz, oqserka toz kabilarga bo'ladilar. Tozlar qadimgi qipchoq urug'laridan biridir.

Ehtimol, Toz ismi urug' nomidan olingan bo'lishi mumkin, olimlar toz qadimiy turkiy qabilalardan biri deb ko'rsatishadi. Mo'g'ullarning hujumi va qipchoq qabilalari ittifoqining tarqalib ketishi munosabati bilan janubiy rus cho'llaridagi toz urug'i bir necha mustaqil guruhlarga bo'lingan. Bir qismi hozirgi Boshqirdiston hududiga ko'chib borib, o'sha xalq bilan aralashib ketgan.

Boshqa guruhlari esa Dashti Qipchoqning janubiy qismi tomon siljib, bir qator turkiy xalqlar, jumladan, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, o'zbek xalqlarining tarkibiga kirgan.

Toz etnonimi o'zbek-turkman, o'zbek-qatag'on, o'zbek-mang'itlar, shuningdek, Amudaryoning quyi oqimida yashovchi o'zbeklar tarkibida ham uchraydi. Xatirchi tumanidagi (Navoiy viloyati) Tos kanali nomi ham toz urug'i bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Toz laqab sifatida kishi ismlari tarkibida ham keladi. Abdurazzoq Samarqandiy "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" asarida XV asr davlat arboblaridan biri Pir Ali Toz haqida ma'lumot beradi. Bu tozlarning siyosiy hayotda faol ishtirok etganliklarini ko'rsatadi.

TOZABOG' – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahridagi mahalla nomlaridan biri. Toza – yangi, chang-g'ubordan xoli, musaffo.

Mahallaning Tozabog' nomi bilan atalishiga sabab, hudud Xiva xonining dam oladigan bog'ining nomi bilan atalgan. Xiva xoni qal'a atrofidagi unumdor va hosildor yerlarda havoni tozalash va ko'rkamlik ato qilish maqsadida to'rtta bog' yaratgan.

Bu shaharning to'rt tomonida bo'lib, g'arb tomonida "Qibla Tozabog'", shimol tomonida "Orqa Tozabog'", janub tomonida "Bog'ishamol", sharq tomonida "Chodrabog'" bog'larini tashkil qilgan. Ushbu bog'larda mevali daraxtlarning eng shirinlari, eng yaxshi navlari bo'lgan. Mazkur navlar xonga qarashli eng nomdor bog'lardan keltirib ekilgan, ayniqsa, Xorazmning shirin anjiri, anori, xon nashvatisi va olmalari shu bog'larda bo'lgan.

TOZABOZOR – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qish-

loq nomi. Bu yerda *toza* elementi "ozoda" emas, "yangi" (ravish) degan ma'no kasb etadi (**Tozabozor** – yangi bozor).

TOZADO'RMON – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. *Tozado'rmon* toponimi "Yangi Do'rmon" (qarang: ***Do'rmon***).

TOZAURUQ – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Demak, **Tozauruq** toponimi yangi urug'lar ma'nosini anglatadi.

TOZAYOP – ariq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat. *Toza* – yangi, *yop* – katta ariq ma'nosini anglatadi.

TOZAYORGAN – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin Gurlan shevasidagi *yangi* ma'nosini ifodalovchi "toza" va "yormoq" fe'li sifatdosh shaklining qo'shilishidan hosil qilingan nom bo'lib, XX asrning boshlarida ushbu hududdan yangi ariq qazilib, mahalliy aholi suv bilan ta'minlangan va shuning uchun ham Xorazm shevasiga xos bo'lgan so'z bilan atalgan. Mazkur o'rinda ham toza so'zi yangi ma'nosini ifodalamoqda.

TOZG'ARA//TOZG'ORA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi irmoq va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oykonim "***toz***" va "***goro***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. "***Toz***" urug' nomi (etnonim) bo'lib, u o'zbeklar tarkibidagi *mang'it, qatag'on, turkman, kesamir* qavmlari tarkibida uchraydi. Chuqur izlanishlarimiz natijasida quyidagi etimologik tahlil natijasini keltirib o'tamiz: qadimgi eron tilida "***grda***" – "*uy*", avesto asarida "***gereda***" – "*uy*", qadimgi hind tilida "***grha***" va "***grdho***" – "*uy*" ma'nosida qo'llangan (qarang: Luriya, 2004, 120). Shunga ko'ra bu mikrotoponimni "*toz urug'i vakillari yashash maskani, qishloq*" degan xulosaga kelishimiz mumkin va ushbu oykonim ot+ot tuzilishiga egadir.

TOG'AY – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi joy nomi. Toponimning kelib chiqishi haqida ikki xil faraz bor:

1. Inson va hayvon organizmining qismlaridan birining nomi shunday. Shunga asoslanib, topoobyektlar nomi ham Tog'ay deb atalgan. Bu toponimning togay etnonimi va to'qay so'zlari bilan bog'lash holatlari bor. Ammo tog'ay etnonimi ushbu toponim uchun ikkilamchi jarayon, ya'ni oldin toponim hosil bo'lgan. So'ngra shu topoobyektda yashaganlar ma'nosida tog'ay etnonimi yuzaga kelgan. Bu etnonim bilan atalgan obyekt Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi qishloqlardan birining nomi sanaladi: Tog'ay. To'qay so'zini Tog'ay toponimiga bog'lab bo'lmaydi. Sababi, *o'* unlisining *o* unlisiga o'tishi fonetik jarayon sifatida uchramaydi. Bu xalq etimologiyasi.

2. Bu joy nomi ikki topoleksemadan tashkil topgan: tog' (ta:g'), oyoq. Tog' yerning tepalikka nisbatan baland ko'tarilgan qismi ma'nosini bildirib, VII–XVI asrlarda *ta:g'* tarzida aytilgan. Keyinchalik *a:* unlisi *o* unlisiga cho'ziqligini yo'qotib o'tgan: *ta:g'* >

tog'. Oyoq gavdaning tayanib turiladigan va harakatlanish uchun xizmat qiladigan a'zosi bo'lib, qadimgi turkiy tildagi qadamlamoq ma'nosidagi *a:d* fe'lining *ay* shaklidan *-aq* qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan: *a:y+aq > a:yaq > ayaq > oyoq > oyoq* . Ayni shu so'zning *azaq* tarzidagi shakli ham bor. *Ta:g'* va *ayaq* so'zlari o'zaro birikib, so'z birikmasini hosil qilish jarayonida fonetik hodisalardan biri bo'lgan tovush tushishi hodisasi ro'y bergan: *ta:g'+ayaq > ta:g'ayaq > ta:g'ay > tog'ay*. Mazkur holda *ayaq* so'zidagi ikkinchi bo'g'in talaffuz jarayonida tushib, birinchi topoleksemadagi *a:* unlisi cho'ziqlikni yo'qotib, *o* unlisiga o'tgan: *a > o*. Bunda toponimlashuv hodisasining toponimik derivatsiya jarayoni asosida hosil bo'lgan birikma toponimga ko'chgan: *tag'+ayoq, > ta:g'ayaq > tag'ay > tog'ay > Tog'ay*. Binobarin, ikkinchi fikrda asos bor. Tog'ning tugashi yoxud tog'ning oxiri degan ma'no mazkur toponimning ma'nosi bo'lib, uning etimoni *ta:g' ayaq (ta:g' oyoq)* birikmasi.

Ushbu toponim ko'p qo'llanadigan lug'aviy asoslardan hosil bo'lgan bo'lsa ham, kam qo'llanadigan va kam obyektli toponimlar jumlasiga kiradi.

TOG'AYTAMA – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Tog'ay kishi ismi. Tama (toma) 92 bovli o'zbek urug'lari ro'yxatida uchraydi.

S.Qorayevning fikricha, tama asli mo'g'ul qabilasi bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibiga kirgan va XV–XVI asrlarda Movarounnahr (asosan, Zarafshon vodiysiga) va Xorazmga kelib o'rnashgan (Qorayev, 1978).

Tama qabilasi bilan bog'liq nomlar Payariq (Tamoyrot), Narpay (Tamaqishloq) tumanlarida uchraydi.

TOG'AYTO'BI – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Tog'ayto'bi* – marka qabilasi (yoki katta urug'i) tarkibiga kirgan oltita Salin urug'idan biri (X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari, 83-bet).

TOG'LIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Buvayda, Qo'shtepa tumanlaridagi qishloqlar nomi. Sharqiy Turkistondagi etnik guruhlardan birining nomi. Bundan tashqari, qirg'izlarda ham shunday urug' qayd etilgan. Tog'lik, tog'chi, toqchi shaklida uchraydi.

TOG'TOSH – dovon. Hisor tizmasi (Qashqadaryo viloyati). Tog'tosh yoki (tog'-u tosh) – tog'lar, tog'li joylar.

TOSHARIQ – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Demak, *Tosh ariq* toponimi "toshli ariq" ma'nosini ifodalaydi.

TOSHBAQALI – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur onim ot +suffiks shaklidagi sintaktik tuzilish tipiga ega bo'lib, otli so'z birikmasi.

Apellyativning birinchi "***toshbaqa***" komponenti *"tanasi kosasimon qattiq, suyak-muguz qobiq bilan o'ralgan sudraluvchi hayvon"* semasini ifoda etadi [O'TIL. 4, 160].

Uning ikkinchi ***-li*** elementi turkiy tillarga xos bo'lib, *"otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega*

ekanligini yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi" [O'TIL. 5, 583-584].

Yuqoridagilarga binoan ushbu komonimni "*toshbaqalar ko'p uchraydigan joydagi qishloq*" deb ta'riflasak bo'ladi.

TOSHBULOQ – tog' nomi. Suvning chiqish o'rni, tosh orasidan chiqqanligi, suv chiqqan joy tevaragiga toshdan devor yoki to'siq qilinganligidan darak beradi. Shu nomli buloq ham bor. Demak, *Toshbuloq* – suv manbayi atrofi tosh bilan o'ralgan buloq ma'nosini anglatadi.

TOSHHOVUZ – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Quva tumanlaridagi qishloqlar nomi. **Toshhovuz** – "Toshli hovuz" (basseyn) ma'nosini anglatadi.

TOSHKENT – poytaxt va viloyat. Mamlakat poytaxti va viloyatning nomi, ma'muriy-hududiy birlik. (Arab yozuvida Toshkand shaklida yozilgan, hozirda o'zbek tilida Toshkent ko'rinishida yoziladi, Toshkan shaklida talaffuz qilinadi; – O'zbekiston Respublikasi poytaxti. Dunyoning eng qadimiy va eng yirik shaharlaridan biri, ikki ming yildan ziyod tarixga ega.

Shaharning hozirgi nomi taxminan ming yil muqaddam Markaziy Osiyoning qomusiy olimlari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariy asarlarida tilga olingan. Ularning ikkalasi ham bu nomni "tosh qal'a" yoki "tosh minora" ma'nosida bayon qiladi.

Toshkent haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi II asrga oid qadimiy Xitoy yilnomalarida mavjud. Bu yilnomalarda Toshkent vohasi Yuni deb nomlanib, Kangyuy davlatining bir qismi bo'lgan hudud sifatida tavsiflanadi. Voha markazi Yuni shahri bo'lgan.

Keyinchalik, xitoyliklar bu hududni Chjeshi yoki Cheshi, shuningdek, shunchaki Shi deb atashgan. V.V.Bartold xitoy iyeroglifining bu belgisi "tosh" ma'nosida ishlatilgan deb yozadi o'z asarida, bu E. Shavanning O'rxun ekspeditsiyasi asarlar to'plamiga kiritilgan (Sankt-Peterburg, 1903).

Toshkentning xitoycha nomini keyingi turkiy tillardagi nomi bilan solishtiradi. "Xitoy transkripsiyasi, shubhasiz, musulmon davrida ma'lum bo'lgan "chach" nomiga mos keladi", deya ta'kidlaydi akademik (В.В.Бартольд. Сочинения, т. III. – М., 1965. С. 499).

"Shu o'rinda aytib o'tish kerak, yuqorida sanab o'tilgan izlanuvchilar Chochni turkiy so'z deb qarash bilan birga bu so'zning to'laqonli ochiqlamasini bera olmagan edilar. Bizning ilk izlanishlarimizda[1], shuningdek, F. Maqsudov bilan birga chop ettirgan

[1] Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрларда Чоч воҳасида туркий топонимлар // Ўзбекистон урбанистик маданияти. Халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент, 2003. Б. 109-115; Бобоёров Ғ. Ўзбекистон ҳудудида Қорахонийлар даврига бўлган қадимги туркий топонимлар // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. "Карим Шониёзов ўқишлари" туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари, 1-қисм. Тошкент, 2005. Б. 117-129.

maqolamizda Choch atamasining negizi turkiy so'z bo'lib, bu atama miloddan oldingi yuzyilliklarda Xun saltanati (mil. old. III – mil. III yuzyilliklar) boshqaruvi bilan bog'liq o'laroq yuzaga kelgani, bu so'zning negizida eski turkchada, aniqrog'i, prototurkcha "tosh", "feruza toshi" degan so'z yotishiga urg'u berilgan edi[1]. Xitoy yilnomalaridan aniq bo'lishicha, Syunnu (Xun) saltanati chog'ida "tosh" so'zi "chach" (choch) ko'rinishida qo'llanilgan bo'lib, xunlarga Oltoy tillari oilasining prototurk yoki prototurk-mo'g'ul tarmog'ida so'zlashishgan deb qaraladi.

Bizning 2005-yilda kun yuzini ko'rgan maqolamizda ilk bor Choch so'zi turkiy negizda ochiqlanib, bu so'z IX-X yuzyilliklarga tegishli turkiy (uyg'urcha) hujjatlardagi "**chäch**"[2], Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" (XI yuzyillik) asaridagi "chāsh – feruza toshi" bilan qarshilashtirilgan[3], bu so'z turkiy tillar orasida sariq uyg'urchada shunga yaqin anglamda ches (jes) so'zi «tasbehdagi yirik yashil (nefrit, feruza) munchoq" ko'rinishda[4] saqlangani ilgari surilgan bo'lsa-da[5] , bu holat qanday tarixiy o'zgarishlar bilan bog'liq ekani yetarlicha ochib berilmagan edi. To'g'ri, izlanishlarimizda Toshkent vohasining bunday atalishi negizida vohaning kunchiqaridagi tog'larda feruza ma'dani qazib olingani yotishi, ilk o'rta asrlarga tegishli xitoy yilnomalarida Shi-go[6] (so'zlik anglami "Tosh davlati")ning kunchiqarida "se-se" deb ataladigan qimmatbaho toshlari qazib olinishiga urg'u berilgani to'g'risida aytib o'tgan bo'lsakda, bu so'zning ilk ko'rinishi xun tilida "chach" (choch) ekaniga to'xtalmagan edik. Kezi kelganda aytib o'tish kerak, ko'p yillar bo'yi Choch o'tmishini arxeologik qazuv ishlari va topilmalar orqali o'rgangan atoqli arxeolog Y.F.Buryakov bizdan birmuncha keyin Choch so'zining kelib chiqishiga to'xtalib o'tgan bo'lib, bu so'zni xitoy yilnomalarida tilga olingan "se-se" so'zi bilan solishtirgan va uning negizida turkiycha so'z yotishiga urg'u

---

[1] Максудов Ф., Бабаяров Г. К этимологии топонима Чач // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Труды международной научной конференции. –Ташкент, 2009. –С. 199-205.

[2] Древнетюркский словарь. –Л.: Наука ЛО, 1969. –С. 143.

[3] Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луготит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 3 томлик. –Тошкент, 1960–1963. II том. –Б. 63, 83.

[4] Тенишев Э.Р. Строй сарыг-югурского языка. –М., 1976. –С. 177.

[5] Бобоёров Ғ. Ўзбекистон ҳудудида Қорахонийлар даврigача бўлган қадимги туркий топонимлар // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. "Карим Шониёзов ўқишлари" туркумидаги халқаро илмий анжуман материаллари, 1-қисм. –Тошкент, 2005. –Б. 123-124.

[6] Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. –М. –Л., 1950-1953. Том II. –С. 273, 282, 313.

bergan edi[1] . Nima bo'lgandayam har ikkalamizning qarashlarimiz deyarli bir yerdan chiqqan, F. Maqsudov bilan chop etilgan maqolada bu qarashlar yanada kuchaytirilgan edi.

Shu yo'sinda vohaning eng eski otlaridan biri Choch bo'lib, ilk bor milodiy III-IV yuzyilliklarga tegishli sug'diy yozuvli bitiklarda: Arisbo'yi (Janubiy Qozog'iston) shahar qoldiqlaridan topilgan Kul-tobe sopol bitiklarida[2], Uralbo'yidan topilgan kumush idishlarda, shuningdek, miloddan oldingi III milodiy IV yuzyilliklarda hukm surgan Qang' davlatining milodiy III-IV yuzyilliklarida chiqarilgan tangalari deb qaraladigan qadimgi Choch tangalarida "chach" ko'rinishida yozilgan[3] ushbu atamaning negizida eski turkcha (xuncha) "tosh" so'zi yotishi aniqlandi. Milodning ilk yuzyilliklarida ham bu so'z shu anglamda qo'llanilishda davom etganini xitoy yilnomalarida ushbu voha otining ayrim o'rinlarda tub ko'rinishi birmuncha saqlangan holda "Chje-shi", "Chje-chje" ko'rinishida berilgani[4], ayrim o'rinlarda esa xitoychaga o'girilib "Shi" (so'zlik anglami "tosh"), "Shi-go" ("Tosh davlati") deb keltirilgani qo'llab-quvvatlaydi. Demak, vohaning bu oti IX-X yuzyilliklarga kelib, "Toshkand", "Toshkent"ga o'zgargan bo'lib, bu so'zning negizida turkiycha "tosh" va sug'diycha "kand", "kent" (shahar, qishloq) anglami yotib, xun tili (prototurkcha)dagi "chach" ("a" bilan) so'zining o'rnini eski turkcha "tash" (tosh) so'zi egallagan bo'lib chiqadi",

Choch(iston) shaklidagi Toshkent vohasining qadimiy nomi "Zardusht Ka'basi"dagi Fors shohi Shopur I ning 262-yildagi yozuvida qayd etilgan. Sug'd matnlarida Choch IV asrda, VII asrda, Afrosiyob yozuvida eslanadi.

Arablar *Chochni Shoshga* aylantirdilar. "Shosh – bu shaharning turkiy tildagi nomi, ya'ni Toshkand nomidan olingan" (Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. – Ташкент, 1963).

Choch-Shosh – Tosh(kent) – bu bitta so'zning fonetik evolutsiyasimi yoki shahar nomining ushbu variantlarining har biri mustaqil ma'noga egami? "V–XI asrda birinchi marta tilga olingan hozirgi turkiy nomning Choch yoki Shosh shakllari bilan qanchalik bog'liqligi hali ham jumboqli" (V.V.Bartold). Bu masala bo'yicha olimlar o'rtasida kelishuv mavjud emas.

Masalan, taniqli tilshunos prof. E.A.Polivanov *Toshkent* toponimi *Tojkent* deb izohlagan: "Tojiklar shahri",

---

[1] Буряков Ю.Ф. К динамике развития городской культуры древнего и средневекового Чача // Материалы научной конференции "Чач - Бинкет - Ташкент (историческое прошлое и современность)". –Ташкент, 2007. –С. 8-9.

[2] Sims-Williams N., Grenet F. The Sogdian inscriptions of Kultobe // Shygys, 2006, 1. –P. 95-111.

[3] Rtveladze E.V. Pre-Muslim Coins of Chach // Silk Road Art and Archaeology, 5, Kamakura 1997/98. –P. 307-328.

[4] Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // O'zbekiston tarixi, №1, 2005. –С. 11.

ya'ni "arablar shahri" (Markaziy Osiyoda arablar dastlab tojiklar deb nomlangan. Biroq aksariyat olimlar ushbu fikrlar qarama-qarshiligini turkiy tildagi "Tosh" so'zi bilan bog'lash orqali yechim topishni ma'qul ko'rishadi (Sug'd tilida Choch "Tosh" degan ma'noni anglatadi).

"Tosh so'zi (asli) turkcha ism bo'lib, Shosh shaklini olgan. Toshkand – toshli qishloq demakdir. Jug-rofiya asarida u Burch al-Hijora (Toshqal'a) deb nomlangan"[1]; "Binket – Shoshning poytaxti, turkchasi Toshkentdir"[2].

Bundan tashqari, o'rta asrlarda Choch-Shash – Toshkent bilan bir qatorda shaharning parallel nomlari ham bo'lgan; **Binkat**, ehtimol, "Taniqli shahar" degan ma'no kasb etgandir (arab tilidagi manbalarda, masalan, Beruniyda), **Tarband** (IX–X asrlardagi arab tarixchilari Belazuriy va Toboriy asarlarida), **Tarkan** (Mahmud Koshg'ariy asarlarida). Toshkent shahri Rossiyada XVI asrda tanilgan va *"Toshko'ra"* nomi bilan "Katta chizmalar kitobi"ga kiritilgan.

Biroq XVII asrga kelib, qadimiy Shosh nomi va shaharning boshqa nomlari o'rnini asta-sekin Toshkent toponimi egalladi. Shunday qilib, Toshkent toponimining etimologiyasi, uning variantlari va parallel nomlari hozirgi kunda ham bahsli bo'lib, o'z yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi.

TOSHKENDI//TOSHKENTI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq va Samarqand shahridagi mahalla nomi. Qashqadaryo viloyatida qoziyog'li urug'ining tarkibiy qismlaridan biri toshkenti – "Toshkentlik" deb nomlangan (B. Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari).

XVIII asrda Toshkent shahridan ko'chirib keltirilgan aholi uchun bunyod etilgan mahalla bo'lib, shaharning eski qal'asi devori o'rnida XVIII asrda bunyod etilgan. XIX asrga kelib, mahalla quyidagi to'rt guzarga bo'linib ketgan: Toshkenti-1 (Abulqosim). Toshkenti-2 (Orif Jomboy), Toshkenti-3 (Xalifa Laylibek), Toshkenti-4 (Baland ko'pruk) (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.27).

TOSHKO'PIR – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. Ayrim tadqiqotchilar mazkur toponimni ***Tosh*** va ***ko'prik*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lganini qayd etishadi. Bunday tipdagi toponimlar Respublikamiz hududida ko'plab uchraydi.

V.A. Nikonov ***Tosh*** va ***ko'prik*** so'zlari eng faol toponim hosil qiluvchilar ekanini, hatto ular semantik jihatdan keng tarqalganini ta'kidlaydi. (KTS, 412).

Ammo u ***Kopur, Ko'pchur*** shaklida mazkur so'z, *"yaylov, o'tloq, chegara"* kabi ma'nolarga ega (Бу ҳақда қаранг: Рашид-ид-дин. Сборник летописей. Т. I., -М.,-Л., 1952. –С. 135).

---

[1] Абу Райҳон Беруний. Ҳиндистон // Танланган асарлар. II жилд. –Тошкент, 1965. –Б. 232.

[2] Абу Райхан Беруни. Канон Масъуда // Избранные произведение, V, Часть первая. Перевод и примечания Б.А. Розенфельда и А. Ахмедова. –Ташкент, 1973. –С. 471.

Ehtimol, Xorazm viloyatidagi ***Qo'shko'pir, Chotko'pir, Momoko'pir*** kabi toponimlar ham shu so'z bilan aloqadordir.

TOSHLOQ – tuman. Farg'ona viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Joy nomi "tosh" so'ziga o'zakdan anglashiladigan predmet, narsaning mo'lligini, ko'pligini bildiradigan o'rin-joy oti yasovchi -loq qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Toshloq – "toshli, toshi ko'p, sertosh yerlarda vujudga kelgan, tashkil topgan qishloq" ma'nosini ifoda qiladi.

Avval qishloq nomi sifatida shakllangan Toshloq toponimi keyinchalik tuman nomiga ko'chgan.

Andijon viloyatining Jalaquduq va Marhamat hamda Namangan viloyatining Norin, Uychi, Yangiqo'rg'on tumanlari va Samarqand viloyatining Samarqand tumanlaridagi qishloqlar nomi Toshloq nomi bilan yuritiladi.

Shuningdek, Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanidagi qishloqlardan birining nomi ham shunday atalgan. *Toshloq* deganda, ko'pincha qirrali toshlar tushuniladi, yumaloq, silliq toshlardan iborat soylik shu ma'nodagi tojikcha *sangloq* so'zi bilan ataladi.

TOSHMASJID – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2014-yilga qadar *Qalti* deb atalgan.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, jinoyatchilar amirning buyrug'i bilan aynan shu yerda qatl qilingan. Geografik obyekt jinoyatchilar qatl qilingan joy ma'nosida shunday atalgan.

"Qatl" so'zi talaffuzda o'zgarib, *Qalti* shakliga kelib qolgan emish. Qishloq nomi 2014-yil 28-aprelda *Toshmasjid* deb o'zgartirilgan. Toponim – *tosh* va *masjid* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *tosh* so'zi *"alohida turgan qoya", "tog'"* kabi ma'nolarni bildirgani holda qattiq tog' jinslarining umumiy nomini anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *masjid* (arabcha masajada – *"sajda qilinadigan joy"*) so'zining bir nechta ma'nolari bor.

Bular: 1) bir-biridan uzoqroq joylashgan bir necha tarqoq xonadonlarni birlashtirib turgan muassasa; bunda machit (masjid) xonadonlar qaysi manbadan suv ichsa, o'sha suv nomi bilan atalgan;

2) katta qishloqlarning bir qismi, ba'zan shaharlarning mahalla yoki guzari ham machit (masjid) nomi bilan atalgan; machit (masjid) ma'muriy birlik bo'lib ham xizmat qilgan;

3) qishloq bilan machit (masjid) bir ma'noda ishlatilgan, ya'ni ikkalasi bir nom bilan yuritilgan.

Qishloqda toshdan qurilgan masjid mavjud. Shu sababdan ham qishloq mazkur nomni olgan.

TOSHOVUL – qishloq. Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq va Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumanlaridagi qishloqlar nomi. **Toshovul** – toshloq yerlardagi ovul.

TOSHOXUR – dovon. Molguzar tizmasi (Jizzax viloyati). *Oxur* – qoramol uchun oxur. **Toshoxur** – toshdan yasalgan oxur ma'nosini anglatadi.

TOSHQOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. *Qoq* – cho'ldagi ko'lmak. *Toshqoq* – tog'ning chuqurchalaridagi ohak ma'nosini anglatadi.

TOSHQUDUQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Toshquduq* – toshli quduq, osti toshdan qilingan quduq ma'nosini ifodalaydi.

TOSHQO'RG'ON – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. *Toshqo'rg'on* – tosh qal'a yoki tashqi shahar. "Temurbekning nabirasi Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida – shaqarda bir madrasa solibtur" ("Бабур-наме". – T., 1958).

TOSHRABOT – qishloq. Navoiy viloyati Qiziltepa hamda Buxoro viloyatining Romitan, G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomi. Mazkur toponim ***tosh*** va ***rabot*** so'zlaridan hosil qilingan hamda u *"toshli istehkom"* yoxud *"toshli qo'rg'on"* degan ma'nolardan birini bildiradi.

TOSHSAQA – kanal. Xorazm viloyatidagi kanal nomi. *Saqa* (arabcha) – "sug'ormoq", *saqa* so'zi Xorazmda "kanal boshi" degan ma'noni anglatadi.

Kanal 1828-yilda Xiva xoni Olloqulixon tomonidan Polvonyop kanalining boshida qurilgan. Grunti sertosh, toshli bo'lgani uchun kanal **Toshsaqa** – "Toshli bosh kanal" nomini olgan.

TONGOTAR – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nomni hosil qilgan *tongotar* so'zi *"tong otish payti", "subhidam"* ma'nosini anglatadi.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq boshqa aholi punktlariga nisbatan sharqroqda joylashganligi sababli shunday atalgan. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, professor S.Qorayevning ma'lumotlariga ko'ra, *tongotar* nomli urug' mavjud.

Shuni hisobga olsak, toponimning vujudga kelishiga etnonim sabab bo'lgan bo'lishi ham mumkin.

TUGAL – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi qishloq nomi. Etnonim bo'lishi mumkin. O'zbeklarning *tugalan, tugul* urug'lari manzilgohlari O'zbekistonning janubida qayd etilgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории).

TUGMA – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq va ariq nomi. Katta Tugma va Kichik Tugma qishloqlariga bo'linadi. V.L.Vyatkinning qayd qilishicha, Kattaqo'rg'on tumanida *Kulbayi Tugmagon* deb atalgan qal'a bo'lgan (Vyatkin, 1902: 49). Etimologiyasi ma'lum emas.

TUL – qishloq. Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. Tul – arabcha so'z bo'lib, "uzun, cho'zinchoq" degan ma'noni bildiradi. Qishloq konfiguratsiyasidan (shaklidan) shunday nom olgan bo'lishi mumkin.

TULKIOBOD – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. *Tulki* – etnonim bo'lishi mumkin. Masalan, boshqirdlarda,

qirg'izlarning saribag'ish qabilasida *tulka* (*tulke*) urug'i bor.

TULKICHI – dara. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasi va qatag'on qabilasining bo'linmalaridan biri *tulkichi* deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 93).

TUMA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson hamda Andijon viloyatining Marhamat tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Tuma* – qirg'iz urug'laridan biri (*qora tuma, oq tuma*). *Tuma* etnonimi o'zbek laqay qabilasi tarkibida, qozoqlarning o'rta juzida, shuningdek, boshqirdlar orasida qayd etilgan (Р.Г.Кузеев. Происхождение башкирского народа. С. 165, 166; Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 233).

Tuma (*tumat*) qabilasi haqida ma'lumotlar o'rta asr manbalarida zikr qilingan (Рашид ад-дин. Сборник летописей, т. I, кн. 2. – М.-Л., 1952. С. 122). Shunga asoslanib, R.G.Kuzeyev tuma so'zini mo'g'ul komponenti deb ta'kidlaydi (Р.Г.Кузеев. "Происхождение башкирского народа". С. 428).

TUMAN – qishloq. Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. *Tuman*: 1) o'n ming kishilik qo'shin, o'n ming va undan ortiq qo'shin taqdim qilgan ma'muriy-hududiy birlik; 2) etnonim: qozoqlarning arg'in nomli qabilasida va o'zbeklarda tuman urug'i qayd qilingan.

TUMAR//TUMOR//DUMAR – qishloq. Farg'ona viloyatining Dang'ara va Andijon viloyatining Baliqchi, Asaka hamda Samarqand viloyatining Ishtixon va Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi hamda Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomi. *Tumar* (dumar) – qipchoq urug'i nomi sanaladi.

T.Nafasov Qarshi tumanidagi *Tumorchi* etnooykonimini izohlab, quyidagilarni qayd etadi: "Bu so'z tarkibidagi -chi qo'shimchasining mavjudligi o'zbek xalqi o'tmishidagi totemizm (tirik mavjudotlarga sig'inish) bilan bog'liq tarzda etnik jamoa nomlangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. *Tumor* mavjudoti (hayvon, parranda)ga sig'inuvchilar jamoasi – tumorchi". Agar ushbu ma'lumotga tayanilsa, *tumor (dumar)* totemi dastlab urug' nomiga ko'chgan, urug' nomidan esa keyinroq joy nomi yasalgan.

Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida uchraydigan *Oqtumor* toponimi ham *tumor* urug'ining bir tarmog'i hisoblangan *oq tumor* etnonimi asosida yuzaga kelgan.

TUMARTO'P – qishloq. Namangan viloyatining Norin tumanidagi qishloq nomlari. S.Qorayev *Dumor* oykonimining ma'nosi ma'lum emasligini ta'kidlagan holda, Farg'ona vodiysida Dumar (tumar) nomli qipchoq urug'i bo'lganligini keltirib, qishloqlarning nomlanishini ana shu etnonim bilan bog'laydi[1].

O'zbekiston toponimiyasida *Tumorchi* (Qashqadaryo viloyatining

[1] *Qarang.* Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B.50.

Qarshi tumani)[1], *Tumor* (Samarqand viloyatining Paxtachi va Ishtixon tumanlari) kabi oykonimlar ham kuzatiladi[2]. Bizningcha, *dumar* haqiqatan etnonim, u *tumar // tumor* fonetik variantlariga ega. Yuqorida keltirilganidek, shu nomdagi qishloqlarning ko'pligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Norin tumanidagi *Tumorto'p* oykonimi ham *tumor//dumor* etnonimi asosida shakllangan. Oykonim tarkibi *tumar* va *to'p* kabi morfemalardan iborat. *To'p* so'zi ot bo'lib, qadimgi turkiy tilda *asos, ildiz* ma'nosini anglatadi[3]. Hozirda *"o'simlikning har bir donasi"* ma'nosida qo'llanadi[4]. Sh.Rahmatullayev fikricha, so'zning hozirgi ma'nosi "ildiz" ma'nosidan o'sib chiqqan[5].

Demak, *Tumarto'p* nomlanish asosiga ko'ra etnooykonim bo'lib, *tumarlar asosi* birikmasi uning etimoni hisoblanadi. Oykonim *tumar urug'ining asosiy yashaydigan joy* degan ma'noga ega. *Dumar* oykonimi ham *tumar* so'zining fonetik varianti asosida shakllangan.

TUMSHUQ – Samarqand viloyatining Bulung'ur, Payariq va Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. "***Tumshuq***" so'zi *"tog' tizmasi yoki yirik balandliklar, cho'ziq qirlar bag'rida bo'rtib chiqqan do'ng qismi"* ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 5, 4, 189-190].

Shunday ekan "***Tumshuq***" mikrotoponimi *"tog'lik joyning tumshuq qismida barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* ma'nosini anglatadi.

TUNQOTAR//TONGOTAR – respublikadagi bir nechta aholi punktlarining nomlari. *Tunqotar* (so'zlashuv tilida – *tongotar*) – hokimning tungi qo'riqchisi. Masalan, Buxoro amirining ertalabgacha bo'lgan tungi tinchligini navbat bilan ikki qo'riqchi (tunqotar) qo'riqlagan. Sayohat paytida amir dam olayotganda tunqotar o'tovni aylanib yurib, to'qmoq bilan taqillatib yurgan.

TUPROQQAL'A – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Miloddan avvalgi bir-ming yillik va milodiy VI asrga oid qal'aning xarobalari. **Tuproqqal'a** – tuproq qal'asi, tuproqdan qilingan qo'rg'on kabi ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, Buxoro viloyati Romitan tumanidagi qishloq nomi ham shunday ataladi.

TURBAT – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq hamda Quva tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyatida **Turbat** qishlog'i bor.

---

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. – B. 250.

[2] *Qarang.* O'rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar. – Samarqand: Zarafshon, 2003. – B. 177.

[3] *Qarang.* Малов С. Памятники древнетюркской письменности. – М., – Ленинград, 1951. – С. 435.

[4] O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. – M.: 1981, II tom. 224-bet.

[5] *Qarang.* Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 360.

Turbat so'zi arab tilida "qoldiqlar, tuproq, qabr, buyuk odamlarning maqbarasi, ziyoratgoh" kabi ma'nolarga ega.

Samarqanddagi Temuriylar maqbarasi – Go'ri Amir **Turbati Temur** nomi bilan ham tanilgan. "Turbat" deb nomlanuvchi yerlar (Turvat), odatda muqaddas ziyoratgohlar hisoblangan. S.D.Nominxonov *turbatni* mo'g'ul qabilasining nomi deb hisoblagan. Ta'kidlash joizki, qadimda Turbat degan turk-mo'g'ul qabilasi ham qayd etilgan.

TURK – qishloq. Farg'ona viloyatining Quva va Uchko'prik tumanlaridagi qishloqlar nomi.

O'zbekiston hududida XVI asrgacha yashagan qarluq, barlos, kaltatoy, musobozori, mo'g'ul qabilalari turk deb atalgan, bulardan tashqari, turk degan alohida qabila ham bo'lgan.

Viloyatdagi *Turkiston, Turklar, Turkravosh, Turkqishloq* deb ataladigan qishloqlar nomida ham turk so'zi toponimning asosini tashkil etadi.

Buxoro, Samarqand, Qashqadaro, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida ham Turk nomli qishloqlar uchraydi. 92 bovli o'zbek urug'idan biri sifatida XVI asrdan beri yozma manbalarda tilga olinadi.

TURK DARYOSI//OBI TURK – daryo. Chirchiq daryosining qadimiy nomlaridan biri. **Trk** ko'rinishidagi arab yozuvidagi uchta undoshlarning birikmasi ilk marotaba Firdavsiyning "Shohnoma" asarida uchraydi. Parak (Farak) daryosini arab geograflari Turkiy daryo – **Nahri Turk** deb ham atashgan (Istaxriy. БАГ, I, С. 344–345; Ibn Havqal. БАГ, II, С. 368, 404–405). Istaxriyda bir joyda (344-bet), hattoki, **Nahri Turkiston** birikmasi ham uchraydi. Oxirgi O'rta asrlarning fors manbalarida, xususan, Temur tarixida **Ob-i Turk** xuddi shu ma'noda keltirilgan (Шарафиддин Али Язди. "Зафарнаме". С. 273 а, 282 а) (qarang: ***Chirchiq*** va ***Parak***).

TURKI POYON//TURKI BOLO (Kattaturk//Kichikturk) – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. O'zbekiston hududida XVI asrgacha yashagan qarluq, barlos, kaltatoy, musobozori, mo'g'ul qabilalari turk deb atalgan, bulardan tashqari, turk degan alohida qabila ham bo'lgan (Народы Средней Азии, 1.1, 171). Bu qabilalarning hammasi o'zbek millati tarkibiga qo'shilib ketgan.

TURKISTON – XV asr manbalarida Farg'ona vodiysidan shimoldagi joylar va Sirdaryoning quyi havzasidagi o'ng sohil yerlar shunday atalgan.

"Turkiston atamasi qachon, qaysi hududlar uchun qo'llanilgani bo'yicha qarashlar taniqli tarixchilarimiz A.O'rinboyev, A.Asqarov, A.Ahmedov, M.Is'hoqov, B.Mannonov, Sh.Kamoliddin va turkolog Q.Mahmudovlarning izlanishlaridan o'rin olgan va uning o'rni aniq ko'rsatib berilganiga qaramay, yuqorida aytib o'tganimizdek, bu to'g'risida bugungacha qarama-qarshi yondashuvlar, qarashlar bildirishmoqda. Ayniqsa, ayrim mahalliy va chet el nashrlarida Turkiston ata-

masi yuzasidan quyidagicha biryoqlama va yanglish qarashlar borligi ko'zga tashlanadi: 1) "Boshlang'ichda arablar kelishidan birmuncha oldin Sirdaryoning kunchiqaridagi turkiy elatlar yashaydigan o'lkalarni arab va forslar yalpi nom bilan Turkiston deb atashgan"; 2) "Amudaryo – Sirdaryo oralig'i uchun VI-VIII yuzyilliklarda Turkiston atamasini ishlatish mumkin emas, bu atama VIII-IX yuzyilliklarda Sirdaryoning shimoli va kunchiqaridagi o'lkalarga, ko'proq Yettisuv uchun qo'llanilgan, ikki daryo oralig'i esa Turkiston deb atalmagan"; 3) "Movarounnahr Turkistonga kirmagan, Turkiston deganda Sirdaryoning quyi oqimlari, ko'pincha bugungi Turkiston shahri atroflari tushunilgan, faqat XIX yuzyillikning ikkinchi yarmida ruslar O'rta Osiyoni bosib olgach, Turkiston nomi ular tomonidan Sirdaryo va Amudaryo oralig'ini ham anglata boshlagan".

Ushbu qarashlarga javob bera oladigan yuzlab bilgi – ma'lumotlarni o'rta asrlarga tegishli arab-fors, turkiy va boshqa tillardagi yozma manbalarda uchratish mumkin bo'lsa-da, maqolamizning ko'lamini va boshqa tomonlarni ko'zda tutib, bu yerda ko'proq ilk o'rta asrlarga tegishli yozma manbalarga qaratishga intildik. Xo'sh, ushbu geografik atama qachondan boshlab, qaysi hududga nisbatan ishlatila boshlagan va ilk bor qaysi yozma manbalarda tilga olingan? Akademik E.V.Rtveladze VI-VII asrlarga tegishli baqtriy yozuvli bitikda Turkiston atamasi ilk bor uchrashini urg'u beradi. Shuningdek, Sharqiy Turkistondan topilgan 639-yili sug'diy tilda bitilgan hujjatda Turkiston atamasi uchraydi. Ushbu hujjatda "chavyak urug'iga mansub Turkistonda tug'ilgan cho'ri Upachah" to'g'risida so'z boradi. Sug'dshunos olim M.Is'hoqov "Nomi azal Turkiston" sarlavhali maqolasida ushbu hujjatdagi ayrim bilgilarga tayanib, "bu hujjatdan ma'lum bo'ladiki, Turkiston geografik atamasi o'lkamizga nisbatan ilk o'rta asrlardayoq qo'llanilgan, aniqrog'i, bundan 1360–1400-yillar ilgari Turon yerlarining umumiy nomi Turkiston deb atalgan" deb yozadi.

Yaqin yillarda esa Xo'tan (Sharqiy Turkiston)da aniqlangan, VIII yuzyillikka tegishli sug'diy tilli bir hujjatning 13-va 15-qatorlarida "Turkiston" atamasi/ twrkystn ko'rinishlarida yozilgani diqqatni tortadi. Ushbu hujjat yuzasidan izlanishlar olib borgan eroniy tillar bilimdoni, ingliz olimi N. Sims-Vilyams hujjatdagi Turkiston so'zini Turon yurtidagi tarixiy o'lkalardan birining nomi deya ochiqlaydi. Unga ko'ra, o'sha chog'larda bu atama shimoli-sharqdagi yerlar, ayniqsa, Sirdaryodan Mo'g'ulistongacha cho'zilgan o'lkalar uchun qo'llanilgan. Bu qarashga qo'shilsa bo'ladi, biroq ilk o'rta asrlarga tegishli arman va o'rta fors yozma manbalarida "Turkiston" deb Kaspiy dengizining kunchiqaridan boshlab, Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlarini o'z ichiga olgan va kunchiqardagi

Oltoy o'lkasigacha yoyilgan kengliklar tushunilgani anglashiladi.

Turkiston to'g'risida bu kabi qisqa bilgilardan boshqa yanada to'liqroq bilgi beradigan tarixiy va geografik asar bormi? Biz bu savolga javob topishga urinar ekanmiz, shu yo'sindagi bilgi – ma'lumotga duch keldik. Asarni VII yuzyillikning o'rtalarida yozib tugatgan arman tarixchisi Sebeos 2 ta bilgi keltiradi: 1) "Dehiston yoxud uning atroflari Turkistondadir; 2) "Kushon shohi (Eftalit hukmdori) Shimol hukmdori ulug' Xoqon (Turk xoqonligi hukmdori)dan yordam so'radi. Va u yordamga 30 byur miqdoridagi qo'shin bilan keldi. Ular (turklar) Turkistondan boshlanuvchi Vexrot (Amudaryo) daryosidan kechib o'tishdi".

Bundan anglashilishicha, Shimoli-sharqiy Eron (bugungi Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismi)dagi tarixiy Dehiston viloyati Turkistonda bo'lgan. Ikkinchi bilgi esa Amudaryoning Turkistondan boshlanishiga urg'u berilgan bo'lib, Amudaryoning boshlanishi Vaxsh va Panj daryolari tevarak-atroflariga to'g'ri keladi. Sebeosning keltirgan ikkinchi bilgidan bu hudud – Vaxsh – Panj – Yuqori Amudaryo havzalarining Turkiston o'lkasiga kirgani anglashiladi. O'sha chog'larda Yuqori Amudaryo qirg'oqlarida To'xoriston yabg'ulari (chamasi, 620–750-y.y.) deb atalgan turkiy sulola boshqaruvda bo'lib, ushbu sulolaning kelib chiqishi boshqaruv markazlari Siyob (Yettisuv), Jabg'uket (Choch) bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligi (568–740) bilan bog'liq bo'lgan.

Yana bir arman tarixchisi, VII asrda yashagan Ananiya Shirakatsining "Ashxarasuys" ("O'lkalar tasviri") asarida "sug'diylar – Ariya (Xuroson) va Turkiston oralig'ida yashaydi" degan bilgi uchraydi. Ushbu bilgidan Turkistonning o'rnini aniq belgilash qiyinroq bo'lsa-da, unda Turkiston deganda Amudaryo va Sirdaryo oralig'i ham tushunilganini payqash mumkin. "Sug'diylar yashagan o'lka" qadim va ilk o'rta asrlarda ko'proq Qashqadaryo va Zarafshon daryolari qirg'oqlaridagi tuproqlar uchun qo'llanilganini ko'zda tutadigan bo'lsak, ushbu arman tarixchisi Turkistonni birmuncha uzoqda, Sug'd chegarasida deb ko'rsatgan bo'lib chiqadi. Biroq ham arman tilida boshqa yozma manbalar, ham boshqa tillardagi bilgilar Turkistonni kengroq ma'noda olganda Xurosonning bir bo'lagini – Kaspiy dengizining kunchiqar tomonlarini ham o'z ichiga olganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, arman tarixchilari Turkiston haqidagi bilgilarni qo'shnilari forslardan olishgan. "Turkiston" so'zi fors tilida "Turklar yashaydigan yurt", "Turklar yeri" degan tushunchalarni bildiradi. Demak, forslar VI-VII yuzyilliklarda Turkiston atamasini ishlatgan bo'lib, keyinchalik bu yondashuv armanlarga ham o'tgan. Buni ilk o'rta asrlarga taalluqli o'rta fors-pahlaviy yozma manbalari ham qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun, pahlaviycha

"Bundahishn" ("Dunyo qurilishi") otli geografik asarda Turkiston to'g'risida quyidagicha bilgilar uchraydi: 1) "Zarin tog'i – Turkistondadir"; 2) "Saukavaston o'lkasi – Turkistondan Kinistonga boradigan yo'lda, shimoliy yo'nalishda joylashgan"; 3) "Kino (Kino') tog'i kunchiqarda joylashgan, u Turkiston chegarasida bo'lib, Aparsen tog'i bilan tutashadi".

Pahlaviy manbalaridagi Turkistonni belgilash uchun yuqorida keltirilgan Saukavaston va Kiniston o'lkalari hamda Zarin, Kino va Aparsen tog'larining o'rnini aniqlash kerak bo'ladi. Zarin tog'ining qaysi toqqa to'g'ri kelishi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "Bundahishn"da Zarin tog'i Xurosondagi tog'lar sirasida sanab o'tilgani ko'zga tashlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asari "Boburnoma"da Afg'onistonda kechgan voqealarni tilga olar ekan "Ko'tali-Zarin" (Zarin dovoni)ga to'xtalib o'tadi.

Izlanuvchilar bu yerni Shimoli-g'arbiy Afg'onistonning Kuhi-Bobo tog' tizmalaridagi Harirud daryosiga yaqin bir dovon, deb ko'rsatishadi. Shuningdek, hozirgi kunda ham ushbu hududlarga yaqin tog' – Hirot va Balx oralig'idagi Kuhi-Bobo tog' tizmalarining bir qismi "Band-i Turkiston" (Turkiston tog' tizmasi) deb yuritiladi. Bu esa "Bundahishn"da eslatib o'tilgan Zarin tog'i bilan "Boburnoma" asaridagi Zarin dovoni bitta ekanini ko'rsatadi. Shu ham borki, o'tgan asrlarda ham, bugungi kunda ham Kuhi-Bobo tog'larining shimolidan to Amudaryogacha cho'zilgan va Bandi Turkiston tog'larini ham o'z ichiga olgan Shimoliy Afg'onistondagi viloyatlar "Turkiston" yoki "Janubiy Turkiston" deb atalib kelinadi. Bu esa "Bundahishn"dagi Turkiston bilan Shimoliy Afg'onistondagi Turkiston bitta yer uchun qo'llanilgan, degan qarashga undaydi.

Endi "Saukavaston o'lkasi Turkistondan Kinistonga boradigan yo'lda, shimoliy yo'nalishda joylashgan", "Kino (Kino') tog'i kunchiqarda joylashgan, u Turkiston chegarasida bo'lib, Aparsen tog'i bilan tutashadi" degan bilgini ochiqlab o'tamiz. Buning uchun birinchidan pahlaviy matnlaridagi "Saukavaston", "Kiniston" va "Kino' tog'i" atamalari qayerlarga qarata ishlatilganini aniqlash kerak bo'ladi. Ayrim izlanishlarga ko'ra, Kiniston va Kino' tog'i atamalari Sug'd vohasiga va undagi tog' tizmalari uchun, Saukavaston o'lkasi esa Zarafshon daryosi qirg'og'idagi yerlar uchun qo'llanilgandir. Aparsen tog'i esa Xurosondagi tog'larning yalpi nomi bo'lgan. Hisor tog' tizmalari pahlaviycha asarlarda Kino' tog'i, u joylashgan hudud esa Kiniston deb yuritilgan. "Bundahishn"dagi ushbu bilgidan ko'rinadiki, Xurosondan kunchiqarga – Sug'd o'lkasiga tomon yo'nalgan yo'l Amudaryo qirg'oqlarini ham o'z ichiga oluvchi Turkistondan o'tgan. Shuningdek, Sug'dning bir qismi bo'lmish "Saukavastan o'lkasi" ushbu yo'lning shimolida bo'lgan.

Demak, arman yozma manbalari va pahlaviy matnlaridagi bilgilardan ko'rinadiki, yurtimizning kungay – janubiy tuproqlari, Turkmaniston va Tojikistonning kungayi va Shimoliy Afg'oniston hududlari Turkistonning chekka janubiy chegaralari bo'lgan.

Turkiston geografik atamasining Markaziy Osiyoning bir necha o'lkalariga to'g'ri kelishi yoki turli yozma manbalarda uning o'rni turlicha ko'rsatilishiga to'xtalib o'tsak. Turkiston hududi boshqa tarixiy-geografik o'lkalar kabi turli davrlarda birmuncha torayib yoki kengayib turgan. To'g'rirog'i, bu holat siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Arab geograflari asarlarida Turkiston deb ko'proq Sirdaryoning shimoli-sharqiy tomonlari ko'rsatilishi shu bilan ochiqlanadi. Forscha yozma manbalarda esa ayrim o'rinlarda Turkiston va Movarounnahrni bo'lak-bo'lak o'lka o'laroq tilga olganiga ko'zimiz tushadi. Bilamizki, Amudaryo va Sirdaryo oralig'i uchun Movarounnahr atamasini qo'llash arab kirib kelishi so'ngida tarqala boshlagan. O'rta asr arab, fors va turkiy yozma manbalarida esa Turkiston atamasi ko'proq Sirdaryoning quyi oqimidagi tuproqlarga, Sirdaryoning shimoli-sharqiga, Yettisuvga, Farg'ona vodiysi va Sharqiy Turkistonga nisbatan qo'llanila boshlagan. Shu bilan birga, Amudaryo va Sirdaryo oralig'i Turkistonda deb ko'rsatilgan hollarga ko'zimiz tushadi. Misol uchun, Hofizi Abruning (XV yuzyillik) "Jo'g'rofiya" asaridagi Movarounnahr ochiqlamasida quyidagicha bilgi uchrab, undan ikki daryo oralig'i uchun Turkiston atamasi qo'llanilganini anglaymiz: "Aytishlariga qaraganda... Samarqand shahrini Shamar (ismli) mo'tabar amir qurganmish va u Tubba' amirlari (Yaman va Arabistonning islomgacha bo'lgan podshohlari)dan bo'lib, Turkistonga kelib qolgan. Shundan so'ng ul (shahar)ni "Shamar-kand" deyishgan".

Demak, o'rta asrlarga tegishli turli tillardagi yozma asarlarda Turkiston atamasining tor yoki keng ma'noda uchrashini ko'ramiz. Buni o'sha davrdagi siyosiy-geografik tushunchalarning o'zgarib turgani bilan ochiqlash mumkin. XVI yuzyillikda Turkiston deb keng ma'noda Shimoliy Afg'oniston, Shimoli-sharqiy Eron (Xuroson), hatto Ozarbayjon hududi tushunilgan hollar ham bo'lgan. "Qutbnoma" otli asarda Shoh Ismoil Safaviy "piri Turkiston" deb keltirilishi buning yorqin namunasidir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan bilgilar negizida quyidagicha to'xtamlarga kelish mumkin. VII yuzyillikka tegishli arman manbalarida Amudaryoning yuqori oqimi Turkistonda deb keltirilgan. Pahlaviy-fors manbalarida esa Shimoliy Afg'oniston, Amudaryoning yuqori va quyi oqimlari Turkistonga kiritilgan. Sug'diy hujjatlarda ham ikki daryo oralig'i Turkiston deb ko'rsatilgan. To'g'ri, bu bilgilar keng qamrovli bo'lmay, ularda Turkiston atamasi biror voqea to'g'risida so'z

borganda yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan. Shunday bo'lsa ham, ushbu bilgilardan Turkiston deganda hozirgi kun tushunchamizdagi Turkistonni tushunish qiyin emas.

Turkiston geografik atamasi ilk o'rta asrlardayoq eronliklar tomonidan Eronning shimoli-sharqidagi hududlar uchun "turkiylar o'lkasi" deb ishlatila boshlagan. O'z o'rnida ushbu atamani qo'shnilari bo'lmish eronliklardan eshitgan arman tarixchi va geograflari ham qo'llay boshlaganlar".

"Boburnoma"da XV asr ikkinchi yarmi voqealari bayonida shahar (Yasi shahri) va o'sha atrofdagi viloyat shu nom bilan qayd etilgan. "Tarixi Rashidiy" asarida Turkiston o'lka nomi tarzida (Movarounnahr va Turkiston shaklida) keladi. "Boburnoma"da Sulton Abusaidning o'g'li Sulton Ahmad Samarqand taxtida hukmronligi chog'ida Turkiston hokimligiga taniqli amirlaridan bo'lmish Muhammad Mazid tarxonni tayinlagani, so'ngra undan mazkur viloyatni Shayboniyxon olgani, 903 (1497–1498)-yili Zahiriddin Bobur Andijondan Samarqand taxtini egallagani kelganida Shayboniyxon temuriy hukmdor Boysung'ur Mirzoning iltimosi bilan Turkistondan Samarqandga kelgani va Bobur qo'shinidan yengilib qaytib ketgani yozilgan. *"Shayboniyxon Turkistondin ilg'ab bizning yurtumiz ustiga kelib turdi. Bizning cherikimiz yaqin emas edi. Qishloq maslahatig'a ba'zi Raboti Xojag'a, ba'zi Kobulg'a, ba'zi Sherozg'a borib edilar. Bovujud hozir cherik kishisi bila yasab chiqildi. Shayboniyxon turush bermay, Turkistong'a murojaat qildi"* (B.58). Shuningdek, 906 (1500–1501)-yil voqealari bayonida Shayboniyxonning Turkistondan yana Samarqandga bostirib kelgani, muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoro tomon chekingani ham aytilgan.

Shuningdek, Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi qishloq va mahalla nomi ham Turkiston deb atalgan. Markaziy Osiyo va Yevrosiyoning qadimiy-tarixiy nomlaridan biri sanaladi.

Mazkur hudud qariyalarining aytishicha, bir zamonlar janubiy Qozog'istonning Turkiston shahridan uchta oila kelib, shu yerda joylashadi va muqim yashab qoladi. Yillar o'tishi bilan ular ko'payib, qishloq aholisining muayyan qismini tashkil etadilar.

Shundan keyin mazkur qishloqlar ham ular ko'chib kelgan shaharning nomi bilan Turkiston deb atala boshlaydi.

TURKMAN – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mo'minxo'ja qishloq jamoasiga qarashli qishloq. Bu toponim qarluq qabilalari tarkibida tilga olingan (*qarang*: **Qirqjigit**).

Turkman – 92 bovli o'zbek urug'laridan birining nomi. Qozoq, qoraqalpoq, no'g'oy, boshqird va boshqa bir qator turkiy xalqlar tarkibida ham shu va shunga o'xshash nomdagi urug'lar uchraydi

TURKMAN BOLG'ALI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi, etnotoponim.

Qoraqalpoq-qo'ng'irotlarning bolg'ali tarmog'ining bir bo'lagi turkman deb ataladi. Atama mazkur urug' nomi bilan bog'liq.

TURKMANLIK//TURKMANLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch hamda *Buxoro viloyatining* G'ijduvon va Navoiy viloyatining Navoiy tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l va Beruniy tumanidagi ovul nomi. Turkmanlar – o'zbek millati tarkibiga kirgan qabilalardan biri – etnonim.

F.f.d. D.Yo'ldashevning fikrlariga ko'ra, turkmanlik etnotoponimiga asos bo'lgan turkman etnonimi xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biz bu o'rinda etnonimning ikkinchi komponenti qadimgi "man" qismi etnonim tarkibida o'zining genetikasi qadimgi eroniy tillarga borib taqaluvchi "fikr", "o'y", "tafakkur" ma'nosini anglatgan so'z bo'lganligini taxmin qilamiz.

Aftidan bu nom etnik birlikka qarindosh bo'lmagan boshqa xalqlar, xususan, qadimgi eroniylar tomonidan berilgan bo'lishi mumkin. Hozirgi fors tilida bu etnonim turkaman yoki turkamon shaklida ishlatilishi ham shunga dalolat qiladi. (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012). Demak, ***Turkmanlik//Turkmanlar*** – *"Turkmanlar yashaydigan qishloq"* ma'nosini anglatadi.

TURKMANQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida turkmanlar yashayotgan qishloqlar nomi (Ананиёзов, 1980:347).

TURKMANG'IT – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. ***Mang'it*** qabilasining ***oqmang'it, qoramang'it*** degan bo'limlari bor. ***Turkmang'it*** ham shu qabilaning bir tarmog'i. Etnograf K.Shoniyozov turk so'zi rang ma'nosidan tashqari, shu nomli urug' nomidan olinganligini[1] qayd etadi. ***Turkmang'it*** urug'i qoraqalpoqlarda ham bor. Qo'shaloq nom: turk, mang'it. ***Mang'it*** – *qabila*, ***turk*** esa – *shu qabilaning bir tarmog'i*. Bu nom boshqa qabila tarkibida ham uchraydi.

TURKON – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. O'zbekiston hududida XVI asrgacha yashagan *qorluq, barlos, kaltatoy, musobozori, mo'g'ul* qabilalari ***turk*** deb atalgan. Bulardan tashqari, ***turk*** degan alohida qabila ham bo'lgan[2]. Bu qabilalarning hammasi o'zbek millati tarkibiga qo'shilib ketgan. ***Turk*** – qadimiy barlos, qaltatoy, musobozori turk qabilalarining birikuvidan paydo bo'lgan etnik birlashma O'zbekistonda ***turk*** deb atalgan. Ular qarluq lahjasida so'zlashgan[3].

Demak, toponimning vujudga kelishiga etnonim asos bo'lgan.

---

[1] Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Т.: 1971. –С. 154-155.

[2] Народы Средней Азии и Казахстана. т.2. –М.: 1963. –С.171.

[3] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: Muharrir, 2009. –B.250.

TURG'AQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. *Turg'ak* etnonimi ko'chmanchi o'zbeklar orasida keng tarqalgan. Qadimgi turkiy tilda turg'a – "qo'riqchi", "soqchi" (Древнетюркский словарь. – Л., 1969).

TUTAK – Namangan viloyatining Chust tumanining G'ova qishlog'idagi jilg'a nomi. Jizzax viloyatining Zomin, Forish va Navoiy viloyatining Nurota tumanlarida Tutak deb ataluvchi qishloqlar ham bor.

Mazkur nom etimologiyasi haqida S.Qorayevning bir necha qarashlari kuzatiladi:

1. *Tutak* so'zi o'tmishda "choynakning tumshug'i", "tog' kasali" degan ma'nolarni anglatgan[1].

2. Sug'diycha *tutuq* so'zi mazkur toponimlar ma'nosini ochib beradigan "kalit" bo'lib xizmat qiladi. VIII asrda Farg'onada oliy hokim, ya'ni ixshiddan keyingi vazir tutuq deb atalgan, tutuq katta hokimiyatga ega bo'lgan. Tutuq "harbiy noib" ma'nosidagi eski turkcha unvon.

3. Tutk etnonim bo'lishi ham mumkin.

Ammo Namangan viloyati gidronimik tizimiga oid Tutak gidronimining mazkur talqinlarga aloqasi yo'q. O'zbek tilida fors-tojik tilidan o'zlashgan *tutak* so'zi bo'lib, u *"paxtadan ip yigirishda ishlatiladigan qovoq naycha"* ma'nosini anglatadi[2]. Shuningdek, o'zbek tilida *"paxtadan ip yigirish uchun tayyorlangan pilta"* ma'nosida fors-tojikcha *tutak* so'zi ham mavjud. Suv obyektini shakliy tuzilishiga ko'ra ana shu asbobga qiyoslash, o'xshatish kabi nolisoniy omillar asosida so'z gidronimga aylangan: *tut + ak > tutak > Tutak*.

Demak, jilg'aning shakliy ko'rinishi tutakka, paxtadan ip yigirishda ishlatiladigan qovoq naychaga o'xshashligiga ko'ra Tutak deb nomlangan. Anglashiladiki, suv obyekti o'xshatish, qiyoslash omili asosida nomlangan bo'lib, uning etimoni asbob tushunchasini ifodalovchi *tutak* so'zidir.

TUTI XOLAJON – qishloq. Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi (shu tumanda Tut nomli toponim ham bor). V.L. Vyatkinning kitobida *Tuti Xalajon, Dudi Xaladjan* shakllarida keltirilgan (Vyatkin, 1902: 65).

O.D. Chexovich mazkur toponimni Tudxaladjan tarzida qayd qilar ekan, uning Sug'udi Kalon tumanining qishloqlaridan biri ekanligini va u Riyunidan g'arbda joylashganligini ko'rsatadi (Chexovich, 1974: 394).

V.A. Livshis Mug' tog'idan topilgan bitikdagi "Tut" so'zi Markaziy Osiyo toponimiyasida ko'p uchrashini ta'kidlaydi. (СДГМ. Юридические документы, 1962: 59). Tuti xolajon toponimining ikkinchi komponenti *xalaj* va *-on* qismlaridan tashkil topgan bo'lib, xalajlar tuti degan ma'noni bildiradi. Bu yerda *tut* toponimik ter-

[1] Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 128.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. II t. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 231.

min bo'lishi mumkin. Xalajlarni olimlar eftalitlar bilan yaqin qarindosh bo'lgan elat sifatida qayd qilmoqdalar. Xalajlar (xalach, xelej, qalach) tarixiy manbalarda o'g'uz qabilalaridan biri deb ko'rsatilgan (Рашид ад-дин, 1952: 76).

Xalajlar qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lib, ular VI asrda Toxariston, Seyiston va ularga chegaradosh viloyatlarga borib o'rnashganlar. Xalajlar hozirgi kunda Eron, Afg'oniston, Hind, Ozarbayjon, Qabodiyon (Tojikiston Respublikasi) va boshqa joylarda etnik birlik sifatida saqlanib qolgan.

O'zbekistonda esa tarixiy toponomiyada o'z izini qoldirgan. Xalajlar bilan bog'liq geografik nomlar Buxoro viloyatida Xalajiyoni Oqrabot, Yuqori Xalajiyon (G'ijduvon), Xalach (Vobkent), Xalach 1, Xalach 2 (Romitan), Xalach (Arabxona), Xalachxo'ja, (Buxoro tumani), Samarqand viloyatidagi Xolajon (Ishtixon) kabi toponimlarda saqlanib qolgan (Материалы..., 1927).

Akademik Y.G'ulomov Xorazmdagi *Nahri Xalaj* va *Xolijon* toponimlari haqida gapirar ekan, ularning turkiy xalaj qabilasi bilan aloqadorligini ta'kidlaydi (G'ulomov, 1959: 204).

Tud qishlog'i haqida to'xtalar ekan, Somoniy bu qishloq Samarqanddan uch farsang masofada, Vedar yonida deb ko'rsatadi. "Tut" komponenti bilan yasalgan toponimlar XVI asr vaqf hujjatlarida ko'plab uchraydi. Jumladan, Shovdor tumanidagi Vaxashti qishlog'i yonidagi Tuti Husayn, ankori, Tut Qutlug' xoja ankori, Tut Hurdak ankori, Oyjon ismli ayolga tegishli tut bor (ankor toponimik termin bo'lib, dastlab yer maydoni hajmini bildiruvchi o'lchov birligi ma'nosida ishlatilgan, degan fikr bor) (Чехович. Вакуфный документ..., 66). Tut so'zi bu o'rinda daraxt ma'nosida yoki yer maydoni ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin.

TUVADOQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod, Andijon viloyatining Asaka tumanlaridagi qishloq nomi. O'zb. Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmada (4330.3) *tuvadoq* – (توادق) etnonimi 92 bovli o'zbek urug'lari qatorida qayd etilgan. Urug' nomi kishilarning totemik e'tiqodlari bilan aloqador holda yuzaga kelgan. Chunonchi, S.Qorayevning yozishicha, tuvaloq (tuvdoq, tuvadoq) – urug'ning muqaddas jonivori, ya'ni qush turi hisoblangan.

Shuningdek, Bag'dod tumanida *Chektuvadoq* deb atalgan qishloq ham mavjud bo'lib, toponimlarning barchasi shu urug' vakillari istiqomat qiladigan joy ma'nosini bildiradi.

TUVADOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. "***Tuvadoq // tuvaloq***" – so'zi "*tuvdoqlar turkumiga mansub, ov qilinadigan, go'shti mazali yirik qush nomi*" (ornitonim) ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 5, 4, 174].

Turkmanlarning qozoyoqli urug'i mavjud bo'lib, uning bir tarmog'i ***tuvadoq*** deb ataladi [S.Qorayev-1, 125].

Mulla Sayfiddin Axsikandiy (XVI asr) o'zining "Majmuat-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asarida 92 bovli o'zbek urug'ini birma-bir sanab o't-gan. Bularning ichida tuvadoq degan urug'ni ham tilga olgan (qarang: Материалы по истории киргизов и Киргизию Вып. I. –М.1973, 210-бет).

Demak, mazkur mikrotoponim *"tuvadoq urug'iga mansub kishilar tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* ma'nosini bildiradi.

TUZBOZOR – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi qishloq nomi. *Tuzbozor* – tuz sotadigan bozor yoki tekislikdagi bozor ma'nosini anglatadi.

TUZKON – ko'l. Jizzax viloyatidagi ko'l nomi. Demak, *Tuzkon* toponimi "tuz koni (tuz olinadigan ko'l)" kabi ma'nolardan birini ifodalaydi.

TUYABO'G'IZ – O'rta Chirchiq tumanidagi suv ombori va shaharcha. Toshkent viloyati Bo'ka, Piskent tumanlaridagi qishloqlar. Daryoning tuya bo'g'iziga – bo'yniga o'xshab oqadigan joyi *tuyabo'g'iz* yoki *tuyamo'yin* deb ataladi; *tuyabo'g'iz* degan urug' ham bo'lgan. Tuyabo'g'iz suv omborining boshqacha nomi esa *Toshkent dengizi* ham deb ataladi. Lekin H.Hasanov "tuya halqumi" deb izohlashni noto'g'ri, ya'ni bu so'z "xashak", tuya bo'g'iz – "tuya yeydigan o't" demakdir, – deb hisoblaydi.

TUYAGUM – mahalla. Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahridagi mahalla nomi. Toponim yerning geomorfologik xususiyatiga ko'ra nomlangan bo'lib, *tuya* – "tepa" so'zining xalq shevalaridagi talaffuz shakli: tuva / to'va / to'ba / tuya. *Gum* leksemasi fors-tojikcha "chuqur" ma'nosini bildiradi.

Demak, *Tuyagum* – baland-past, o'ydim-chuqur yerda joylashgan aholi maskani.

TUYAMO'YIN – Xorazm viloyatining Tuproqqal'a tumanidagi qishloq va suv ombori nomi. Mazkur gidronim **tuya** va **mo'yin** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti ***tuya*** so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "Bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sut-emizuvchi ish hayvoni"dir. Biroq bu o'rinda nom tarkibidagi tuya so'zining qo'llanilishi, aynan, shu hayvonga o'xshatilishidir.

Uning ikkinchi qismi *bo'yin, mo'yin* indikator hisoblanadi va mazkur so'zlarining kelib chiqishini ham ba'zi tadqiqotchilar ushbu so'z bilan aloqador deb hisoblaydilar. Bu so'z "daryoning tor joyi, egilib oqadigan qismi yoki ikki suv havzasi o'rtasida bo'lgan uzun, tor quruqlik yer" ma'nolarida qo'llaniladi.

Demak, **Tuyamo'yin** gidronimi daryoning tor joyi, egilib oqadigan qismi yoki ikki suv havzasi o'rtasida bo'lgan suv ombori ma'nosini anglatadi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq nomli toponimi ham shu so'z bilan aloqadordir (Bu haqda qarang: O'.Rajapov.

Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. ...dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.).

TUYAMO'YIN SOY – soy. Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Mazkur gidronim joyning geografik xususiyatiga qarab, uning tashqi ko'rinishi asosida vujudga kelgan. Z.Do'simov u joyni "tuya bo'yniga o'xshash egri" deb hisoblaydi [Do'simov, 1977, 134].

V.V. Radlov esa "***Tuyamo'yin***"ni – "*tog', daryo, qumlik joylarning tor qismi – yo'lagidir*" (Slovar, IV, 1960) deb yozadi.

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi esa "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq*" ma'nosini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

TUYATORTAR – Samarqand viloyati orqali Zarafshondan Jizzaxga keltirilgan kanal. Tuyatortar deb nomlanishidan qurilishda asosiy transport faqat tuya bo'lganligini bilish mumkin (Y.G'ulomov. Jizzax tarixiga oid, "Qizil O'zbekiston gazetasi", 1963-yil, 3-yanvar. *Yana qarang*: A.Anorboyev, Tuyatortar kanali qurilishi tarixi. "Arxeologlar hikoya qiladi" to'plami. – T., 1974, 51–56-betlar).

TUYAYAYLOV (asli *teva yaylov, teva* so'zi keyinchalik *tuva,* so'ngra *tuya* bo'lib ketgan) – tepa, ust qismi o'tli, ko'katli joy bo'lganligi uchun tepasi yaylovli joy.

TUYACHI – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l va Beruniy tumanlaridagi ovullar nomlari. Tuyachi ennotoponimi – o'zbek xalq tarkibiga kiruvchi urug'lardan birining nomi[1]. Ushbu etnonim hududdagi *Tuyachilar* toponimiga asos bo'lgan. Etnonimning apellyativi bo'lgan *tuyə* so'zi turli turkiy tillarda mavjud. Jumladan, ozarbayjon tilida *dəvə*, qirg'iz tə, tatarchada *dəyə*, qozoq tilida *tuyə*, qoraqalpoq va no'g'oy tillarida *tuyə*, turkman tilida *duyə* kabi shakllarga ega[2]. Zoonimga shaxsning kasb-korini ifodalovchi *-chi* formanti qo'shilgan. (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

TUYOQLI – qishloq. Bulung'ur, Jomboy, Urgut tumanlaridagi qishloqlar nomi. Tuyoqli – etnonim. Tuyoqlilar 12 otaga bo'linadi. Bular quyidagilardir: *changal, cho'bat, o'ray, olomon, tengali, mullaesagi, beshyuz, qoshtamg'ali, mirzaesagi, choljuvut, chuyut, oqchepkan.* Xalq tuyoqlilarni yuzlarga qo'shadi.

Tuyoqlilarning urug' tarmoqlari nomlari toponimlar tarkibida ko'p

[1] Otajanova A. Xorazm etnotoronimlari. –Toshkent: Fan, 1997. –B. 33.

[2] Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. –М.:Издателство АН СССР, 1967. –С. 103-104. .

uchraydi. Masalan: *O'rayepak, Cho'bot yelpak* (Toyloq tumanidagi qishloqlar), *Beshyuz* kabi.

TO'BALI OTA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ziyoratgoh nomi, mikroogiooykonim. Mahalliy xalq tomonidan e'zozlanadigan tepalik, mahalliy aholi tomonidan rivoyat qilinishicha avliyosifat kishi tepalikda istiqomat qilgan va boshlab o'sha tepalikni o'zlashtirgan. U olamdan o'tgandan keyin tepali ota nomi berilib, og'zaki nutqda ***tepali//to'bali*** shakliga o'tgan. Agiooykonim ot+affiks+ot strukturasiga ega, ya'ni to'pa+-li+ota.

Bu tip agiooykonimlar sirasiga *Alam ota (Alam kishi ismi), Shayx bobo* (*Shayx diniy ulamo*) qarang: O'TIL. 4, 535) kabilarni kiritishimiz mumkin.

TO'DA – Farg'ona viloyatining Oltiariq va Rishton, Buxoro viloyatining G'ijduvon va Namangan viloyatining Norin tumanlariga qarashli qishloqlar nomi.

To'da – o'zbeklar tarkibidagi qipchoq urug'larining bir shoxchasi. Shu nomli qishloq Farg'ona viloyatida ham bor.

Ammo Janubiy O'zbekistondagi To'da qishlog'i nomini urug' nomidan emas, balki "To'p", "To'plangan" ma'nosida deb talqin qiladilar.

Farg'ona vodiysidagi To'da qishloqlari o'zbeklarning Ming, Saroy urug'lari shoxchasiga mansub. Bu urug'lar O'zbekiston janubiga tarqalmagan.

TO'DAARIQ – Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanining Yashiq, Baxt qishloq fuqarolar yig'inidagi ariqlar nomi. Asli "*bir yerga to'plab yoki uyib qo'yilgan narsa: uyum, to'p, to'plam; bir yerga to'plangan kishilar guruhi*"[1] va boshqa ma'nolarni ifodalovchi fors-tojikcha to'da so'zi etnonim – o'zbek urug'laridan birining nomi[2].

Farg'ona viloyatining Rishton, Buvayda, Namangan viloyatining Pop, Norin, Andijon viloyatining Baliqchi tumanlaridagi *To'da, To'dako'cha, To'da mahalla* kabi toponimlar ham *to'da* etnonimi asosida shakllangan[3].

Bu nomlar, avvalo, to'da urug'iga mansub kishilar yashaydigan hududlarning kengligidan va mazkur urug' vakillari respublikaning bir qancha hududlariga tarqalganligidan dalolat beradi. To'daariq gidronimi ham to'da etnonimi, aniqrog'i, To'da oykonimi asosida yuzaga kelgan. Ariq to'dalar yashaydigan Norin tumanining To'da qishlog'i tomon oqib o'tishiga nisbat berilib, To'daariq deb nomlangan.

Demak, To'daariq gidronimining etimoni *to'dalarning arig'i* qaratqichli so'z birikmasidir. *To'dalarning arig'i* so'z birikmasi til taraqqiyoti natijasida qo'shma so'z shaklidagi gidronimga aylangan: *to'dalarning arig'i > to'dalar arig'i > to'da ariq > to'daariq > To'daariq.*

TO'LABOSTI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur oykonimi tarkibidagi "***to'la***" so'zi "*kishilar tomonidan is-*

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati, II t. – B. 242.
[2] *Qarang.* S.Qorayev. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – B. 129.
[3] *Qarang.* Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – B. 52–53.

tiqomat qilish uchun tuproqli qir va tepaliklarda o'yib kovlash natijasida yasalgan uy" ma'nosini ifodalaydi. "***Bosti***" so'zi esa "***ko'plik***" ma'nosida qo'llangan [O'TIL. 1, 323-324].

Xulosa qilishimiz mumkinki, "**To'labosti**" nomi "*to'lalar ko'p bo'lgan maskan*" ma'nosini anglatadi. Ushbu oykonim ikki o'zakli son+fe'l strukturasiga ega.

TO'LABOY – Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi qishloq va mahalla nomi. O'zbeklarda farzandga to'la-to'kis, kamchiliksiz bo'lsin, degan ma'noda shunday nom beriladi. Viloyatda To'xta (omon bo'lgin, o'lmagin, yasha), To'xlimergan (ikkinchi farzand) kabi kishilar ismidan ham joy nomlari yaratilgan. Biroq bu fikrlar munozarali bo'lib, "To'laboy" joy nomi Qo'qon xonligi davlat arbobi, Muhammad Alixon davrida faoliyat ko'rsatgan To'laboy Mirzo nomi bilan bog'liqdir hamda u anrpotoponim hisoblanadi.

TO'LAQISHLOQ – Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. To'laqishloq ilk bor 1893-yilgi ma'lumotlarda Dahbed volostidagi Oqdaryo daryosidan sug'oriluvchi qishloqlardan biri sifatida tilga olinadi (СКСО на 1896 г., 1896: 42).

Toponim mazkur joydagi to'lalar – adir va qirlar yonbag'irlaridagi inshootlar nomidan hosil bo'lgan. To'lalarning ayrimlari hozirgi paytda ham mavjud bo'lib, ulardan og'il sifatida foydalaniladi. Ba'zilari o'z nomiga ham ega: Teshik to'la, Kabutar to'la kabi. Qo'shrabod tumanida To'labosti ("Oqtepa" sh/x) nomli qishloq, Urgut tumanida To'lajar nomli toponimlar bor.

TO'MENQAL'A – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qishloq nomi. Qoraqalpoq tilida *to'men* – quyi, *qal'a* – shahar. Demak, quyiqal'a ma'nosini anglatadi.

TO'NMO'YIN – Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli, Chimboy tumanlaridagi ovullar nomi. Qoraqalpoqlarning mang'it qabilasi tarkibida mo'yinto'n urug'i qayd qilingan.

TO'PAK – qishloq. Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi. O'zbek urug'laridan bo'lgan parchayuz urug'ining bir bo'lagi to'pak deb atalib, nom shundan olingan.

TO'PALAS – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Professor B.O'rinboyev toponim tojikcha to'pol – tog'dagi yoki uning yonbag'ridagi tekis maydoncha) so'ziga *-ak* (kichraytirish qo'shimchasi *-cha*) qo'shilgan, ya'ni *to'polak* – tog' yonbag'ridagi tekis maydondan oquvchi jilg'a ma'nosida, deb ko'rsatadi (O'rinboyev, 2003).

X.Doniyorov "Shajara"sida esa mazkur so'z, ya'ni to'polos o'zbek urug'laridan biri deb ko'rsatilgan (Doniyorov, 1968). Bizningcha, X.Doniyorov fikri haqiqatga yaqin. Chunki o'zbek urug'lari orasida *-s,-z* bilan tugagan etnonimlar anchagina. Masalan, kenagas, uyas, chilkas, sevas va boshqalar.

Fikrimizni o'zbek qoraqalpoqlar qabilasi tarkibiga kirgan joy qoraqalpoq to'palos urug'i nomi ham tasdiqlaydi.

TO'PAR – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon hamda Xorazm viloyatining Xiva va Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanlaridagi qishloq nomi. *To'par* toponimi "urug'ning bir bo'linmasi" ma'nosini anglatadi.

TO'PARARIQ – ariq. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qishloq nomi. Demak, **To'pararIq** – urug' bo'linmasiga tegishli ariq ma'nosini ifodalaydi.

TO'POLONDARYO – daryo. Surxondaryoning eng katta irmog'i. *To'polon* – tartibsizlik, g'alayon; **To'polondaryo** – shiddatli daryo ma'nosini ifodalaydi.

TO'PQORA – qishloq. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *To'pqora* yoki *qora to'pi – qora* urug'ining bo'linmasi.

TO'PCHI – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur hududning shunday nomlanishiga asosiy sabab Xiva xonligi davrida xonlikning to'plari ushbu hududda saqlanilgan va mahalla ham shu nom bilan atalgan.

TO'PCHOQ – qishloq va mahalla. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi mahalla va qishloq nomi. To'ra Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" hamda "Qashqadaryo qishloqnomasi" kitoblarida bu nom bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shunga ko'ra **To'pchoq** – *ayg'ir, go'zal ot* (masalan, "Boburnoma"da uchraydi) yoki qadimiy turkiy etnonim deyiladi. Kenagaslarning to'pchoq urug'i bo'lganligi ham aytilgan.

To'ra Nafasovning yozilishicha, I.N.Beryozin o'tgan asr o'rtalarida **To'pchoq** degan qipchoq urug'i borligini aniqlagan. B.B.Radlov lug'atida ***to'pchoq, to'bichoq semiz, chiroyli ot*** hamda ***dumaloq, sharsimon*** ma'nolarida kelgan. F.Y.Korsh **to'pchoq** so'zini ***otning maxsus bir zoti***, deb tarjima etgan. G. Yarring bu so'z ***chiroyli, xushbichim, semiz ot*** ma'nosida ekanligini yozgan. N.A.Baskakovning fikricha, **to'pchoq** *xushbichim* ma'nosini bildirib, otga nisbatangina emas, odamga nisbatan ham qo'llanilgan.

Yuqoridagi tahlillarga asosan, **To'pchoq** nomini etnonim bo'lgani va u keyinchalik etnotoponimga aylangani hamda mazkur nomni "*To'pchoq urug'i vakillari yashaydigan qishloq*" deb izohlash to'g'ridir.

TO'QBOY – qishloq. Toshkent viloyatining Bekobod, Quyi Chirchiq hamda Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi. *To'qboy* – etnonim. Masalan, mang'it qabilasining urug'laridan biri *to'qboy* deb nomlangan. Mazkur etnonim Boburda ham tilga olinadi (Boburnoma. – T., 1960). Ilmiy manbalarda yuz qabilasining urug'laridan biri *to'qboy* deb atalgan.

Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida A.D.Grebenkin tomo-

nidan 1870-yilda yozib olingan rivoyatga ko'ra, o'zbek-saroylar joylashgan asosiy hudud Balx viloyati bo'lib, ular keyinchalik shimol tomon siljishgan va G'uzor atroflariga hamda Qarshi va Jom (Samarqand) o'rtasidagi cho'llarga o'rnashganlar. Bir qismi Kattaqo'rg'on cho'llariga o'rnashgan.

A.D. Grebenkinning so'ziga qaraganda, bu yerga saroylarning o'nta asosiy urug'idan faqat ikkitasi – jomonas va to'qboy urug'lari kelishgan (Grebenkin, 1874).

Demak, to'qboy etnonim. Etnik birlik qishloq nomining yaratilishiga asos bo'lgan. Mang'it qabilasining bir tarmog'i ham to'qboy deb atalgan.

TO'QIMBOY – qishloq. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. *To'qum* (to'qim) so'zi urug'lar nomlari tarkibida ko'p uchraydi. Shu bilan birga *Tuqimboy* degan ism ham bor.

TO'QQIZARIQ//TO'G'IZARIQ// TO'G'IZBOY – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi ariqlar nomlari. To'quz yoki to'g'izboy qipchoq qabilasi urug'laridan biri.

TO'QMANG'IT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson, Qarshi, Chiroqchi hamda Xorazm viloyatining Shovot tumanlaridagi qishloqlar nomi. O'zbeklarning mang'it qabilasi ikki guruhga bo'lingan: *oq mang'it* va *qora mang'it*.

Mang'it qabilasining yirik urug'laridan biri To'qmang'it deb atalgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 154–155).

TO'QMON – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Ishtixon tumanlaridagi qishloqlar nomi. *To'qmon* – etnonim. Masalan, Uvol qishlog'ida (Jizzax viloyati Zomin tumani) *to'qmon* – urug'-oila guruhi.

TO'QSABA – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi, **Qo'shto'qsaba** – qishloq. Buxoro viloyati Romitan tumani. Ushbu so'z bir nechta ma'nolarga ega:

1) Toqsaba (o'z bayrog'iga ega qo'shin, *tug'* – *tuq* – bayroq) – Buxoro xonligida (amirlikda) yuksak (harbiy) unvon. Uning vazifasiga xonga (amirga) taom tortish va Xarqon tumanini boshqarish kirgan (А.А.Семенов. Бухарский трактат. О чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. – СВ, № 5, 1948. С.150).

2) Uran (jangovar da'vat, shior): Dashtiqipchoq, Zarafshon qipchoqlari, qipchoq-qoraqalpoqlar orasida Sharqiy Boshqird qabilasi qipchoqlar toqsaba deb nomlangan. Etnograflarning fikriga ko'ra, yuqorida aytib o'tilgan uran *toqsabaning* dastlabki o'rta asr qipchoq qabilasining nomi. "Toqsaba" etnonimi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga qadar Qozog'istonning boybaqti urug'ining umumiy bo'linmasi nomi sifatida saqlanib qolgan.

Dastlabki o'rta asr toqsaba qabilasining asosiy qismi, ehtimol, qozoqlar, O'zbekiston qipchoqlari va Qoraqalpog'iston qipchoqlarining bir qator qabilaviy birlashmalari tarkibida assimilatsiya bo'lib ketgan" (К.Шаниязов.

К этнической истории узбекского народа. С. 154).

TO'QUMDO'ZI – Buxoro shahridagi daha. To'qumdo'z – eshakka egar yasovchi usta, *to'qumdo'zi* – shu ish bilan shug'ullanadigan hunarmand. Bu yerda aholi tuyalar va eshaklarga egarlar yasash bilan shug'ullanganlar (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 171).

TO'RA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Komonim "Chimmos" MFYda joylashgan. Bu mikrotoponimni tashkil etuvchi so'z etnonimlardan biri sanaladi. Chunki qipchoq saroylarining qanjig'ali bo'limiga qarashli bir shoxobchasi "***to'ra // turi***" deb nomlanadi [S.Qorayev. 1, 129].

Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoqlar tarkibida ham ***turi*** urug'i mavjud.

Yuqoridagilarga asosan mazkur mikrotoponimni *"to'ra // turi urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash maqsadga muvofiqdir [B.O'rinboyev, 190]. Etnonim keyinchalik oykonimga o'tgan.

TO'RAQO'RG'ON – tuman va shahar. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Shu nomdagi tumanning ma'muriy markazi. To'raqo'rg'on dastlab Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlarda tilga olinadi. "Boburnoma" asarida ushbu nom uchramasa-da, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Bobur aytgan Arxiyon qo'rg'oni – To'raqo'rg'on bo'lsa kerak, degan taxminlar bor. Biroq boshqa bir tadqiqotlarda Arxiyon hozirgi Chortoq tumanidagi *Ayqiron // Oyqiron* oykonimining tarixiy varianti sifatida beriladi.

Shaharning nomlanishi bo'yicha turli talqinlar mavjud, shunday bo'lsa-da, toponimshunoslar fikricha, eng ishonchlisi Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida keltirilgan fikrlari hisoblanadi: *"Bu Namangon atrofida bo'lgan qasabotlari ijmolan yozmoq lozim bo'ldi. Bulardan Namangonning g'arbida bir bozorlik qasaba bu muallif vatani asliysidurki, muni Dashti Qipchoq xonlaridan Ahmadxon, ya'ni Shig'ayxon bino qilgan ekan. Ul vaqt muarrixlari Ahmadxon ismiga qal'a qilib, Qal'ayixon deb ism qo'yub, bu lafz binosiga ta'rix bo'lgan ekan, 861-nchi hijriyda bino bo'lgan ekan. Ammoki, To'raqo'rg'on demak ma'nosi – Shig'ayxonni Yusuf To'ra va Ya'qub To'ra degan o'g'illari bino qilib, Shig'ayxon tarafidan Qal'ayixon ism qo'ysalar ham, ularni ismlariga To'raqo'rg'on deb shuhrat bo'lgan edi".*

Asarda To'raqo'rg'on Namanganning poytaxti sifatida ham qayd etiladi: *"... musulmonlar asrida Marg'inon poytaxti Yormozor bo'lub, Andijon poytaxti Asaka bo'lub, Namangan poytaxti To'raqo'rg'on bo'lub, har yerda havosi toza, suyi pokiza yerlarni hokimlar markazi hukumat ittixoz qilib o'tar ekanlar. Yozgi o'rda va qishki o'rda degandek".*

Ibratning yozishicha, tabiati go'zal, joylashish o'rni har tomonlama qulay bo'lgan ushbu maskan xonliklar davrida ham o'ziga xos nufuzga

ega sanalib, Namanganning markaziy shaharlaridan biri hisoblangan. Shaharning barpo etilishi esa Shig'ayxonning o'g'illari Yusuf To'ra va Ya'qub To'ralar nomi bilan bog'lanadi. Joy dastlabki paytlarda **Qal'ai Xon** nomi bilan atalgan bo'lsa ham, keyinchalik xalq ichida ko'proq To'raqo'rg'on nomi bilan shuhrat topgan.

Oykonim tilshunoslik nuqtayi nazaridan ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib *(To'ra + qo'rg'on)*, ***to'ra*** atamasi semantik jihatdan qishloq aholisi yoki alohida shaxslarning ijtimoiy mavqeyi, nasl-nasabiga ishora qiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli tarixiy so'z sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1) yuqori tabaqaga mansub kishi, zodagon, oqsuyak, aristokrat, asilzoda;

2) xonlar davrida va Turkistonda katta amaldor, hokim;

3) hurmat yuzasidan yoki ulug'lab, kishilarning nomiga, unvoniga, mansabiga qo'shib ishlatiladigan so'z (O'TIL. 244-bet).

Oykonimning ikkinchi tarkibiy qismi sanalgan ***qo'rg'on*** leksemasi esa "o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan joy, shahar, qal'a" degan ma'nolarni anglatadi. Bundan tashqari, qishloq, shahar ma'nolarida ham qo'llanadi.

To'raqo'rg'on oykonimini "yuqori tabaqaga mansub kishilar tomonidan barpo etilgan shahar" yoki "to'ralar, amaldorlarga tegishli joy" tarzida izohlash to'g'ridir. ***To'ralarning qo'rg'oni*** otli birikmasi esa oykonimning etimoni hisoblanib, nom lisoniy taraqqiyot davomida hozirgi shaklga kelgan: *to'ralarning qo'rg'oni > to'ralar qo'rg'oni > To'raqo'rg'oni > To'raqo'rg'on.*

TO'RAOBOD – qishloq. Andijon viloyatining Izboskan, Xo'jaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. To'raobod – to'ra tomonidan obod qilingan (*to'ra* – yuqori mansabdagi odam).

TO'RIAYG'IR – Samarqand viloyatining Oqdaryo, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomi. Tilshunos olim B.O'rinboyev qipchoqlarning bir urug'i to'rtayg'ir yoki to'rayg'ir deb atalishini qayd qiladi.

Etnograf K.Shoniyozov to'riayg'ir yoki to'rtayg'ir Sirdaryobo'yi qipchoqlari bilan bog'liq yirik urug' bo'lgan deb ko'rsatadi. To'riayg'ir ("To'riq ot, ayg'ir") yoki to'rttamg'alilar XVII asrgacha Janubiy Qozog'istonning Qorabuloq mavzesida yashashgan. Jung'orlar hujumidan so'ng bir necha bo'lakka bo'linib ketgan to'riayg'irlarning bir qismi Zarafshon vodiysiga, boshqa qismi Farg'ona vodiysiga, shuningdek, Qirg'iziston, Koshg'ar va Toshkent hududlariga joylashgan (Шаниязов, 1971: 141).

TO'RTAYG'IR – qishloq. Samarqand viloyati Oqdaryo, Pastdarg'om hamda Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanlaridagi qishloqlar nomi. Farg'ona qipchoqlarining urug'laridan biri *to'riayg'ir* (to'rtag'ayn yoki to'rttamg'ali) deb nomlangan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 116, 123).

To'rtayg'ir, ehtimol, to'riayg'ir etnonimining fonetik variantidir. *To'rtayg'ir, to'ruayg'ir, torayg'ir* – garchi semantik jihatdan ular bir-biridan farq qilsa ham, bir xil etnonimning fonetik variantlaridir: *to'rtayg'ir – to'rtta ayg'ir, ot, to'riayg'ir – (to'riayg'ir) – to'riq ayg'ir, ot.*

TO'RTDIVAL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qishloq nomi. Aynan "choldevor, vayrona"; to'rtko'l (to'rtkil) ham shu ma'noda.

TO'RTKO'L – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "To'rt burchak" ma'nosida keladi ("To'rti gul", "To'rt kil", "To'rt ko'l").

Demak, qadimda "To'rtko'l" "To'rt burchak" ma'nosini bildirgan. Shuning uchun V.V.Bartold tarixiy asarlarda uchragan "To'rtko'l" so'zini "chor devor xarobasi" deb izohlagan.

Bundan ma'lum bo'ladiki, To'rtko'l qishlog'i nomini "To'rtta ko'l" (ya'ni suv havzasi) deb izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas (afsuski, mana shunday talqin qilish xalq orasida tarqalgan). Qoraqalpog'istonda shahar, Buxoroda tuman, Shahrisabzda ham qishloq To'rtko'l nomi bilan ataladi.

Bulardan anglashiladiki, "To'rtko'l" qadimiy "chordevor" – eski qishloq vayronasi (darhaqiqat, Izboskandagi To'rtko'l qishlog'ida o'rtasi 16 gektarlik, atrofi tepaliklar bilan o'ralgan to'rtburchak yodgorlik bor, hozir qabriston).

Shuningdek, Andijon viloyatining Izboskan tumaniga qarashli qishloq nomi han shunday atalgan.

TO'RU – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Qoziyog'lining qismlaridan biri *toru* deb nomlangan (B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari).

TO'G'AYOVUL – qishloq. Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qishloq nomi. Manzilgoh avvalgi qamishzorlar o'rnida paydo bo'lgan (tug'ay – chakalakzor).

TO'G'ALI – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. *To'qa* (shevada – *to'g'a*) – to'qa. To'qa shaklidagi tamg'aga ega urug' *to'g'ali* deb nomlanadi. Masalan, XX asrning boshlarida D.N. Logofet tomonidan *togalik* etnonimi mavjudligi ta'kidlangan.

Ming qabilasining bir urug'i to'g'ali deb ataladi. To'g'ali urug'i, o'z navbatida, ahmad, chag'ir, tunnamoz, oqshiq va boshqa tarmoqlarga bo'lingan (Grebenkin, 1874).

XX asr boshlarida D.N.Logofet to'qalik nomli etnonim borligini qayd qilgan edi (Logofet, 131).

TO'G'ONBULOQ – buloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. *To'g'onbuloq* toponimi "to'silgan buloq" ma'nosini anglatadi..

TO'G'UZ – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi qishloq nomi. *To'g'uz* (adabiycha – to'qqiz) – etnonim. Masalan, Zarafshon o'zbek-qipchoqlarning urug'-

laridan biri *toguzuru* yoki *toguzboy* ("To'qqiz urug'") deb nomlangan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 123).

Toguz//togiz elementlari alohida yoki boshqa komponentlar bilan birga qirg'izlar, qozoqlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar va boshqa turkiy xalqlarning nomlari tarkibida uchraydi: *toguz, toguzak, toguzbay, toguzguzi, toguzqipchoq, to'g'uzo'g'uz, toguzuygur, toguzuruv, toguzuul* va boshqalar.



U

UDAMALI – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. *Qirq* qabilasining kichik bir bo'linmasi udamali (o'damali) deb nomlangan.

UDAYCHI – Buxoro yaqinidagi ***qishloq nomi***. Mazkur ***qishloqning*** nomi eski kasb-hunarning toponimiyada qolgan izidir. Tarixiy asarlarda bu kasb *xudaychi* shaklida uchraydi. S.D.Nominxanov yozishicha, udaychi mo'g'ulcha *eguday*, ya'ni *eshik* so'zidan bo'lib, *darvozabon* demakdir[1].

ULACH – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. S.D.Nominxanov bu nomni mo'g'ulcha ***alchi*** – chopar degan so'zga aloqador deb hisoblagan. T.Nafasov esa ***ulach//ulush*** – *"qishloq, qishda yashashga moslab qurilgan qo'rg'on"*, deb ta'riflagan[2].

ULTOV – tog'. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi tog' nomi. Tarkibi *ul+tov*. Aslida *Ul(ug')* va *tov* – tog' demak. **Ultov** – *ulkan tog'* demak (O'rinboyev, 2003: 183).

ULUS – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om hamda Nurobod tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Ulus so'zining xalq, yurt ma'nolari bor. Ma'nosidan qat'i nazar, qanjig'ali va qo'shtamg'ali urug'larining bir bo'limi, dahasi ulus deb atalgan (T.Nafasov). Xon yoki uning xonadoniga tegishli qishloq, mulk ulus deb atalgan. Bu so'z qadimgi turkiy tilda qishloq, mamlakat, viloyat ma'nosida bo'lgan. Hozirgi turkiy tillarda ulus "qabila, xalq", mo'g'ul tilida "davlat" ma'nosida qo'llaniladi.

ULUG'BEK – mahalla. Farg'ona viloyatining Farg'ona shahridagi mahallalardan biri, mutafakkir olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi. Ulug'bek (buyuk, ulkan), Usmon (jasorat, mardlik, qo'rqmas) kabi kishilar ismi ko'plab joy nomiga qo'yilganligini ko'rish mumkin.

ULUG'NOR – tuman. Andijon viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Ulug'nor tumani 1973-yil 26-dekabrda tashkil topgan bo'lib, Andi-

[1] Наминханов С.Д. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР//Записки (Калмыцкий научно-исследовательский институт языка и литературы и истории). –Элиста, 1962.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: Muharrir, 2009. –B.260.

jon viloyatining g'arbida joylashgan, tuman shimol tomondan Namangan viloyatining Mingbuloq hamda Uychi tumanlari bilan, sharqda Baliqchi va Bo'ston tumanlari bilan, janubdan esa Farg'ona viloyatining Yozyovon tumani bilan chegaradosh.

1996-yilda Komsomolobod nomi Ulug'nor deb o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi toponomik komissiyaning xulosasiga ko'ra, Respublikada sho'ro hukumati bilan bog'liq atamalarni o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilinib, shunga asosan tumanda uzoqni ko'rgan mahalliy xalq vakillarining takliflariga asosan tumanga Ulug'nor nomi berilgan. Aslida, mazkur hududda Ulug'nor nomli kanal oldindan mavjud bo'lib, nomning atalishi shunga nisbatan berilgan va bu o'rinda gidronim toponimga ko'chgan hamda gidrotoponimga aylangan.

Andijon viloyatining Ulug'nor tumanidagi kanal nomi. S.Jalilov ko'rsatishicha, kanalning asl nomi Ulug'nahr[1]. P.Ivanov mazkur suv obyekti haqida: "Farg'onaning eng yirik kanallaridan biri", – deb yozadi[2]. الغ نهر so'zi abjad hisobiga ko'ra hijriy 1286 (milodiy 1869–1970)-yilni, ya'ni kanal qazilgan yilni anglatadi.

S.Jalilovning ta'kidlashicha, keyingi davrda *Ulug'nahr* so'zining talaffuzi buzilib, Ulug'nor tarzida aytiladigan bo'lgan. N.P.Ostroumov ham "Xudoyorxon haqida qo'shiq" nomli maqolasida gidronimni Ulug'nor tarzida bergan[3].

Bu haqida A.Middendorf "Ulug'-nahr" deb atalishini qattiq turib talab qilishadi", deb yozadi.

Demak, kanal hajman kattaligiga ko'ra Ulug'nahr deb nomlangan. *"Ulug' daryo, katta daryo"* ma'nosidagi *ulug' nahr* otli birikmasi gidronimning etimonidir: *ulug' nahr > ulug'nahr > Ulug'nahr > Ulug'nar > Ulug'nor.*

Xuddi shunday o'zbek tilida arabcha **nahr** so'zida *h* tovushining tushib qolishi *Narpay* (Sam. v. Paxtachi t.) gidronimida ham kuzatiladi: *Nahrpay > Narpay.* O'zbek tili gidronimiyasining bir qismini Sirdaryo, Qashqadaryo, Norin, Chirchiq, Oqbura, Kosonsoy, Surxondaryo, Zarafshon kabi yirik suv obyekti nomlari – makrogidronimlar tashkil etadi. Mazkur makrogidronimlar qadimiyligi, tarixiyligi, turli variant va shakllarga, sinonimlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Biz quyida ana shunday ayrim gidronimlarning etimologik tahlilini berishga harakat qildik.

UNGUT – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron va O'rta Chirchiq hamda Farg'ona viloyatining Quva va Andijon viloyatining Shahrixon tu-

[1] Jalilov S. Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixidan. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 42.

[2] Иванов П. Очерки по истории Средней Азии. –Москва, 1958. –С. 128.

[3] Bu ma'lumotlar S.Jalilov kitobidan olindi. *Bu haqda qarang:* Мидлендорф А. Очерки Ферганской долины. СПБ., 1882. –С. 20; Mulla Olim. Tarixi Turkiston. – Toshkent, 1915 (Litografiya). – B. 86. (Sharqshunoslik instituti fondi, inv. №5751); Остроумов Н.П. Песня о Худаярхана//Записки вост. отд. инст. арх. общ., 1887. Т. II. –С. 191.

manlaridagi qishloqlar nomlari. "Majmu at-tavorix" va "Tuhfat at-tavorixi xoniy" asarlarida sanab o'tilgan 92 o'zbek qavmlari ichida *ungut / o'ngut / o'ng'ut* – (اونغوت) urug'ining ham nomi tilga olingan.

"Shajarayi turk" asarida Abulg'ozixon *ungut* etnonimining kelib chiqishi haqida bir ma'lumotni keltirib o'tadi. Unga ko'ra Xitoy xalqi o'z yurtini dushmanlardan muhofaza qilish uchun ulkan devor quradi va karvon kirib-chiqishi uchun unga temirdan darvoza ham o'rnatadilar. Xitoy podshohlari turk xalqidan bo'lgan bir necha jamoaga shu darvoza va devorni qo'riqlashni buyuradi. Ushbu jamoani keyinchalik *ungut* deb atay boshlaydilar.

Xitoy tilida *ungu* – "devor" degan ma'noni, *ungut* esa "devor qo'riqlovchi jamoa" ma'nosini bildiradi (Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент, 1992. 36-бет).

Ungutlar ilk o'rta asrlarda Mo'g'ulistonning janubiy tumanlarida, Xitoyning shimoliy chegaralarida yashagan. Ularning umumiy soni XIII asrda 20 ming kishiga yaqin bo'lgan. Rashiduddinning bergan ma'lumotiga ko'ra, ular turkiy xalqlardan bo'lib, keyinchalik mo'g'ullashib ketgan. Mo'g'ul qo'shinlari tarkibida XIII asrda O'rta Osiyo yerlariga kelib o'rnashganlar va davrlar o'tishi bilan mahalliy xalq tarkibiga singishib, o'z etnik nomlarini unutishgan (O'zME. 4-jild. 116-117-betlar).

Shunday bo'lsa-da, *ungut* qabilasi nomi vodiyning yuqorida qayd etilgan tumanlari hududida toponim sifatida saqlanib qolgan.

URDIBALAN – 1926-yilgi aholi ro'yxatida Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani Qatag'on qishloq kengashidagi Qatag'on, Kubay, To'g'ay, Xina, Fozilsaroy, Chambil qishloqlari qatorida tilga olingan.

URGANJI – qishloq. Andijon viloyatining Izboskan tumaniga qarashli qishloq nomi. Qadimda Urganch shahridan chiqqan kishilarning nomidan. Urganji – "urganchlik" ma'nosidadir. Biz ko'rgan ayrim manbalarga qaraganda, Xiva xonlari zulmidan ozor chekkan urganchliklar (Xorazm) Sirdaryo bo'ylab yuqori tomon suzib, yillar davomida Farg'ona vodiysigacha kelganlar va daryo bo'ylarida o'rnashib, o'z qishloqlarini tashkil qilganlar.

Ko'pincha qishloqlar Sirdaryoga yaqin joylashgan. Farg'ona, Namangan, Buxoro, Jizzax viloyatlarida ham "Urganji", "Urganjiyon", "Urganji bog'" nomida qishloqlar bor. Vodiydagi qoraqalpoq qishloqlari tarixi ham xuddi shunday (qaralsin: А.Толстова. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус, 1958).

Boshqa bir ma'lumotlarda Navoiy viloyati Karmana tumani; Namangan viloyati Namangan tumani. Urganji "urganchliklar" – etnonim, Urganchdan chiqqanlar. Bir ma'lumotlarga (I.Magidovich, A.D.Grebenkin) qaraganda, urgandji – Chingizxon tomonidan Xorazm poytaxti Urganch vayro-

na qilinganidan keyin tirik qolgan va Buxoroga keltirilgan hunarmandlarning avlodlaridir.

Boshqa ma'lumotlarga (N.B.Veselovskiy, O.A.Suxareva) qaraganda, urgandji – Urganchdan chiqqanlar, XIX asr oxirida Buxoro va boshqa joylarga ko'chib o'tganlar.

URGANJIXONA // URGANJA // URGANCHI // URGANJIYON – Buxoro viloyatining Urganji Jondor, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, G'ijduvon tumanlaridagi; Urganjixona Buxoro tumanidagi; Urganjiyon Buxoro shahri va Romitan tumanidagi ***qishloq*** nomi sifatida uchraydi. Toponim etnonim asosida paydo bo'lgan. N.Veselovskiy, O.A.Suxarevalarning yozishiga qaraganda, ***Urganjilar*** XVIII asr oxirida Urganch shahridan chiqib, Buxoroga va boshqa yerlarga o'rnashgan o'zbeklardir. I.Magidovich bilan A.D.Grebenkin esa urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon butunlay yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin tirik qolgan va Buxoroga keltirilgan hunarmandlarning avlodlaridir, deb yozishgan.

Urganjiylar – etnografik guruh. ***Urganjiylar*** asli xorazmlik bo'lgan, faqat Urganchdan emas, balki Xorazmning turli xil shahar va qishloqlarida istiqomat qilib kelganlar. Bu guruhning shakllanishi Chingizxon bosqini bilan bog'liq. 1221-yilda mo'g'ul qo'shinlari Xorazmga hujum qilib yuz minglab odamlarni o'ldiradi. Shu vaqtda xorazmliklarning bir qismi qirg'indan qochib, Movarounnahr va Xuroson viloyatlariga ko'chib ketishgan. Ko'chib o'tganlar o'zlarini umumiy nom – ***urganjiylar*** deb atashgan. Ular bu yerlarda ***urganjiy*** qishloq va shaharlarda ***urganjiy*** mahallalariga asos soldilar. XVIII-XIX asrlarning birinchi yarmida iqtisodiy inqiroz va vabo tarqalishi tufayli Xorazmdan aholining bir qismi yana ko'chgan. ***Urganjiy***larning eng katta guruhi Xorazmga qo'shni bo'lgan Buxoro viloyatiga ko'chib o'tishgan. 1924-yil ma'lumotlariga qaraganda Buxoro viloyatida jami 26 ming urganjiy yashagan. XX asrga kelib urganjiylarning kichik guruhlari Samarqand, Navoiy, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari va Shimoliy Afg'onistonda yashaganlar[1].

URGANCH – shahar va tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Urganch nomining kelib chiqishi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga borib taqaladi. "Avesto" kitobida Vurukash (Orol) dengizi bo'yida Urga (Urva) shahri bo'lganligi qayd etilgan. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg'oqchilik) tufayli Urga shahri hozirgi Ko'hna Urganch hududiga ko'chirilgan. VIII asrgacha "Gurganj" nomi bilan yuritilgan. 712-yilda shahar arablar tomonidan bosib olingandan keyin, "Jurjoniya" deb ataldi. 1221-yili mo'g'ullar egallagandan

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, 9-jild. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. –B.115.

so'ng shahar nomi Urganch shaklida yuritila boshladi. XIV asr Yevropa manbalarida shahar (Ko'hna Urganch) Urgant shaklida tilga olinadi. Ko'hna Urganch shahri hozirda Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan.

Hozirda Xorazm viloyati markazi bo'lgan Urganch shahri 1929-yilgacha Yangi Urganch deb atalgan. Shaharga 1646-yilda Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxon tomonidan asos solingan. Gap shundaki, Amudaryo o'z yo'nalishini o'zgartirib Orol dengizi tomon oqa boshlagandan so'ng Gurganj shahri (Ko'hna Urganch) suvsiz qolgan.

Abulg'ozi Bahodirxon o'sha vaqtda qal'a va uning atrofida tarqoq holda yashagan aholini ko'chirib Amudaryoning janubiy qismlarida joylashtirgan va aholi yashagan hudud atrofini qal'a devori bilan mustahkamlab, unga "Toza Urganch", ya'ni "Yangi Urganch" deb nom bergan. Shundan keyin qadimiy Gurganj shahrining nomi Ko'hna Urganch bo'lib qolgan. Yangi Urganch bilan Ko'hna (Eski) Urganch oralig'i 170 km.

Xorazm toponimiyasini o'rgangan professor Z.Do'simov shahar nomining kelib chiqishi haqida turli rivoyatlar saqlangan, deydi. Jumladan, Hur ismli qiz va Ganj nomli yigit muhabbati sharafiga Hurganj yoki hur – "quyosh (yoki baxt)", ganj – "xazina", ya'ni "baxt xazinasi" degan ma'noni bildiradi. Urganch so'zi xorazmiy tilida "katta shahar", "katta qal'a" kabi ma'nolarga ega bo'lganligi qayd etiladi (З.Дўсимов, Х.Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1977. 137-бет).

URGUT – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qadimiy nomlardan biri. Bobur Urgut qo'rg'oni haqida gapirar ekan, uning Shovdor tog'lari (hozirgi Chaqilikalon) yonbag'rida ekanligini qayd qiladi.

Tarixchi Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiy o'zining "Gulshan ul-mulk" asarida 1797–1798-yillarda Movarounnahrda kuchli zilzila bo'lib o'tganligi va bu yer qimirlashi davrida Urgut qo'rg'onidagi binolar vayronaga aylanganligini yozib qoldirgan. U "zilzila shunday kuchli bo'ldiki, hatto yarim sir (1600 gramm) keladigan bir bo'lak devor kesagini ham topish amri mahol bo'ldi", deydi (Bartold, VIII, 1965: 100).

Urgut dastlab qo'rg'on nomi bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'rta asr tarixiy asarlarida ko'proq Andak qishlog'i tilga olinadi.

Farg'ona viloyati va Tojikiston Respublikasidagi Urmetan qishloqlari, Panjakent shahri xarobasidagi Urdokan nomlari tarkibidagi birinchi komponent "ur, urd" sug'd tilidagi "vouru" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "ko'tarma, tepa, baland, yuqori" ma'nolarini anglatadi.

"Kat, kot, gut" topoleksemalari "shahar, qishloq, qo'rg'on, istehkom" nomlarini yasashda ishtirok etadi (Nafasov, 2009: 22).

Gut topoformanti qatnashgan oykonimlar jumlasiga Farg'ona okrugi Quva tumani Tolmozor qishloq kengashi va Madraim qishloq kengashidagi Naygut va Naygut kalsalim qishloqlari, Andijon okrugi Asaka tumanidagi Pastki Ungut va Yuqori Ungut qishloqlari nomlarini ko'rsatish mumkin (Материалы..., 1927).

Demak, Urgut toponimi "tepalikdagi qo'rg'on, istehkom" ma'nosidagi so'z bo'lib, u joylashgan o'rniga nisbatan nomlangan.

V.L.Vyatkin shahar faqat mang'itlar hukmronligi davriga kelib, Urgut deb atala boshlagan, undan oldin Arkut deb nomlangan, deydi (Vyatkin, 1902: 35).

Tilshunos Z.Do'simov toponimni arg'u qabilasi nomi bilan bog'lash mumkin, deydi va Mahmud Koshg'ariy arg'u – turk qabilasi deb ko'rsatishiga asoslanib, nomning qadimgi manbalardagi varianti Arkut (arg'u va -t "lar" affiksi) asosida Urgut so'zi "arg'u, arg'ular yashaydigan joy" ma'nosini bildiradi, deydi (Do'simov, Egamov. 1977: 138).

Respublikamizda Urgut so'zi bilan aloqador toponimlar ko'p. Jumladan, Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida Urgut, Narpay tumanida Pasurgut, Kalurgut, Urgut mahalla kabi toponimlar uchraydi (Материалы Всесоюзной..., 1927). Hozirgi Urgut shahri Kalangar, G'uzni, Kamardon, Andak, Kulollik, So'fiyon, Navbog' va boshqa nomlar bilan ataluvchi, jami yigirmata mahalladan tashkil topgan.

URGUTI – Samarqand shahridagi mahalla nomi. XVIII asrda Urgut tumanidan ko'chirib keltirilgan aholi uchun tashkil etilgan mahalla nomi. Keyinchalik mahalla kengayib, Urguti-1 va Urguti-2 tarzida bo'lingan (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.25).

URGUTSOY – Samarqand viloyatining Urgut shahri markazidan oqib o'tuvchi soy. Gidronim tarkibidagi soy so'zi tog'liq joylardagi suv obyektlari nomlarining qariyb hammasida uchraydi.

Olimlar "kichik daryo, irmoq" ma'nosida ekanligini qayd qiladilar. Turkiy tillardan fors, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga ham o'tgan.

Soy so'zi X–XIII asr yodgorliklarida "vulqon oqibatida paydo bo'lgan toshloq joy, yalanglik, toshloq joy" ma'nolarida ham qo'llanilgan.

Yana bir nomi **Sag'anaq** (sangloq –*"sang"* (tosh) va *-loq* qo'shimchasidan tashkil topgan). Urgut tumanida yuzga yaqin soy bo'lib, ularning nomlarida obyektning o'rni, mahalliy landshafti va boshqa xususiyatlari aks etgan, masalan: *Go'rkamarsoy, Yang'og'lisoy, Obiro'shansoy, Kaltaqo'lsoy, Arpaliksoy, Xirsxonasoy, Mapiro'llisoy, Yumalatmasoy, Bulbulzorsoy* va boshqalar.

URMITANI – Samarqand shahrida XVIII asrda bunyod etilgan mahalla. (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989. В. 16). Urmitandan ko'chirib keltirilgan aholi yashaydigan maskan bo'lganligi uchun mazkur hudud shunday nom olgan.

URUSQISHLOQ – Miyonqoldagi qishloq nomi. Urus toponimi Kitob, Yakkabog' tumanlarida ham uchraydi. Buxoro shahri yaqinida Uruson nomli qishloq va shahar mahallasi bor.

Shuningdek, XVI asr Buxoro hujjatlarida Havzi Aruson, Havzi Arusoni kuhna kabi nomlar qayd qilingan.

S.Qorayev mazkur toponimlarni Aruson (tojikcha "kelinlar") so'zining o'zgargan shakli deb ko'rsatadi (Qorayev, 1970).

B.X.Karmisheva Kitob yaqinidagi qishloq nomi kenagas qabilasining urus urug'i bila aloqador, deydi. Olima *urus//oris* urug'i o'zbeklarning qo'ng'irot va kenagas qabilalari tarkibida, shuningdek, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarkibida uchrashini ham qayd qiladi (Кармышева. 1978).

Oris//o'rus//o'ris so'zi shoti, aravaning shotisi ma'nosida bo'lib, bu o'rinda qabilaning bir tarmog'ini bildirib, metafora tarzida qo'llanilgan.

B.X.Karmisheva bu so'z atoqli otdan kelib chiqqan, degan fikrni ham bildiradi. B.Ibragimov Samarqand yaqinidagi Xoja Kafshir mahallasidagi Bog'i Oris toponimi haqida to'xtalar ekan, ikki fikrni bildiradi:

1) bog' rus savdogarlari to'xtaydigan joy yoki rus diplomatlari rezidensiyasi bo'lishi, shuningdek, rus qullari tomonidan qurilgan bo'lishi mumkin;

2) bu bog'da Oltin O'rda hukmroni Urus xonning nevarasi Baroqxon mehmon bo'lgan va uning sha'niga shunday nom olgan bo'lishi mumkin.

URUSON – Buxoro dahalaridagi guzarlardan biri. O.A.Suxaryeva afsonalarga asoslanib, dahada rus asirlari istiqomat qilgan, nomi shu bilan bog'liq, deb yozgan.

Keyinchalik u toponimning kelib chiqishini boshqacha tushuntirgan: buxoroliklar ma'lumotiga ko'ra bu nom shuning uchun berilgan, qadimda bu yerda rossiyalik elchilar joylashishgan. Bu nomni XVI asr hujjatlarida tilga olingan Buxoro yaqinidagi Uruson qishlog'i mavjudligi bilan bog'lash kerak. Daha o'z nomini mazkur qishloq yoki o'zbek qabilasi uruson nomidan olgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С.140).

A.N.Kislyakov Uruson Arusoni Buxoro dahasi nomining xalq etimologiyasidir – "Buxoro kelinlari" (комментарии к "Воспоминаниям" Садриддина Айни. – М. – Л., 1960. С. 1025). Haqiqatan ham, XVI asr vaqf hujjatlarida **Havzi Arusoni kuhna** nomli joy esga olingan (О.Д.Чехович. Бухарские документы. С. 58, 138), Jo'ybor shayxlari arxivlarida **Havzi Aruson** va **Havzi Arusoni Balandeyi Buxoro** nomlari keltirilgan (П.П.Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. – М. – Л., 1954. С.163). *Aruson* vaqt o'tishi bilan *Urusonga* aylangan deyish mumkin. *Ulus* yoki *urus* o'zbek urug'lari ham mashhur; balki uruson uning ko'plik shaklidir.

USRUSHONA – Jizzax va Xo'jand o'rtasidagi tarixiy tog'li mamlakat. Ilk bor arab geograflari Istaxriy (БАГ, I, C. 288, 292 va boshq.), Ibn Havqal (БАГ, II, C. 9, 109, 329 va boshq.) asarlarida uchraydi.

V.A.Livshis mazkur viloyatning sug'd manbalaridagi ko'plab yozilish variantlaridan (**Istravshan, Osrushana, Osrushna, Sutrushana, Usrushuna, Usiaravshan, Ustrushana, Sutrushana**) tarixiy viloyatining haqiqiy talaffuzga yaqin deb *Istrushana* shaklini hisoblaydi (Согдийские документы с горы Муг, вып. II. – М., 1960. С. 87).

USTALAR – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomi. Ustalar – forscha so'z bo'lib, jamiyatda biror kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi malakali mutaxassis, o'rgatuvchi, muallimlar, usta duradgorlar ma'nosini ifodalaydi. Mazkur hududda kishilarning katta ko'pchiligi biror bir kasb-hunar egalari bo'lganligi uchun ham mahalla nomi shunday atalgan.

USTUVORTEPA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi tepaliklardan birining nomi. Mazkur joyda o'rta asrlarda Ankori Istixar nomli mavze bo'lgan. Keyinchalik mavze nomi tepalikka ko'chgan.

Istixar xalq tilida Ustivor shaklida talaffuz qilingan. Ustuvortepa qadimiy arxeologik inshoot bo'lib, undan topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari (Ardvisura Anaxita haykalchasi, ikki boshli tuyada taxtda o'tirgan podsho tasviri tushirilgan sopol parchasi, yosh yigit haykali boshi singarilar) uning VI–VII asrlarga oid ekanligini ko'rsatadi.

Nom tarkibidagi ankor termini toponimikaga oid bo'lib, u dastlab "yer maydoni hajmini bildiruvchi o'lchov" ma'nosida bo'lgan. Xo'ja Ahror Valining vaqf hujjatlari to'plamidagi joy nomlari tarkibida Ankori Amir Shodi, Ankori G'iyos, Ankori Nove, Ankori Miyon kabilar qayd qilingan.

Toponimiyada uchraydigan Angor, Eski Angor kabi nomlar ankor termini bilan bog'liq bo'lsa kerak, deydi toponimshunos S.Qorayev. Bug'doy, arpa kabi ekinlar o'rib olingandan keyin qolgan g'alla poyasi (ang'iz) ham angor deyiladi. *Istaxr* fors-tojik tilida *ko'l* demakdir. Mazkur tepalik yonida mahalliy aholi tomonidan ko'l deb ataladigan mavze hozir ham mavjud.

Demak, Istixartepa, Ustuvortepa "ko'l yonida joylashgan tepa" ma'nosini anglatadi.

UYAZ//UYAS – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin hamda Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

B.X.Karmisheva ma'lumotlariga qaraganda, *uyas (uyaz)* – marqa qabilasining 16 urug'laridan biri (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 96). Uyaz boshqa urug'lar tarkibiga kirgan. Masalan, uyaz va salin qabilalari ittifoqi *uyassalin* deb atalgan. Qadimgi turk tilida *uyaz* "pashsha", "chivin"ni anglatgan (Девону

луғотит турк, т. 1. С. 112; Е. Фазылов. Выдающиеся филологи Востока. – Ташкент, 1971).

UVOL – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. Bu so'z birinchi marta XVI asrda **Vol** shaklida Abdullaxon tarixida qayd etilgan ("Абдулланома", т. II. –Т., 1969, стр. 220, В.В.Бартольд. Сочинения, т. III. С. 217).

Uvali etnonimi mavjud (masalan, Bahrin qabilasining bo'linmalaridan biri *uvoli* deb nomlangan). *Uvol* yoki *uval* – Xitoyizi urug'ining bo'linmalaridan biri (X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari, 81–84-bet).

UYMOVUT – Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq. Avaz Muhammad Attorning "Tuhfat at-tavorixi xoniy" (XIX asr) asarida 92 o'zbek urug'lari qatorida *uymovut* – (اویملوت) etnonimi uchraydi. Etnonimning tarkibi uch qismdan iborat: *uy-movu-t*. O'y / uy / ud / ut so'zi turkiy tillar o'tmishida "buqa", "ho'kiz", "sigir" ma'nolarini anglatgan.

Etnonimning ikkinchi tarkibiy qismi bug'u / bugu / mug'u / bo'g'u / bo'gu / mo'g'u / mo'gu so'zi ko'pgina turkiy tillarda "bug'u" (hayvon turi) ni bildirgan. So'z oxiridagi *-t* qo'shimchasining -at / -it / -ot / -ut ko'rinishidagi variantlari bo'lib, etnonimlar tarkibida jamlik, to'p, jamoa, kishilar guruhi, odamlarning kichik uyushmasi ma'nosini anglatgan.

Qiyosiy tahlildan ma'lum bo'ladiki, *uymovut* etnonimining qadimiy shakli *o'y / uy + bug'u / mug'u + t* tovush qiyofasida bo'lgan. Ma'nosi – "erkak (nar) bug'u". *Uymovut* – erkak bug'uni muqaddas sanovchi jamoa nomi. Bu nomdan esa keyinchalik qishloq nomi paydo bo'lgan.

Uymovut, o'ymavut kabi etnonim va etnotoponimlar O'zbekistonning bir qancha qishloqlarida uchraydi. Masalan, Qashqadaryo vil. Chiroqchi t.da. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpor, no'g'oylarda ham shunday etnonimlar bor.

UYROT//UYRAT – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi ***qishloq*** nomi. ***Uyrot*** – qadimgi turkiy qabilalaridan biri mo'g'ullarning oyrod degan qabalasi bo'lgan. ***Oyrod – oyrotlar*** – mo'g'ul feodal imperiyasi davrida Chingizxon qo'shinlarining chap qanoti bo'lib, katta nufuzga ega bo'lgan. Etnonim yasama so'z: ***uy (oy)+rad (rot–rod)***. Mo'g'ul va buryat tillarida ***uy – oy*** - *"o'rmon, daraxtzor, chakalakzor"*; rad (arat) – xalq. Uyrat – oyrot – oyrod so'zining lug'aviy ma'nosi – *"o'rmon kishilari, o'rmonda yashovchilar"*. O'rmon so'zi uy – oy o'zagidan, r-y tovushlari mosligi so'z yasashi uchun xizmat qilgan. Etnonim oykonimga ko'chgan. Etnonimni yaratilishida aholining yashash o'rni nazarda tutilgan[1].

Shunday nomdagi qishloqlar Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida ham uchraydi,

UYG'UR – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahal-

[1] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. O'zbekistonning janubiy rayonlari. –T.: O'qituvchi, 1988. –B.188.

la nomi. Bu etnonim Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida yashovchi xalqning nomidir. Uyg'ur millatiga mansub xalq vakillari mazkur hududda yashagani uchun ushbu nom bilan atalgan.

Uyg'ur – 92 bovli o'zbek urug'laridan biri. Bir qator turkiy xalqlar tarkibida uchraydi. Farg'ona vodiysida Uyg'ur nomli ko'plab qishoqlar bor.

UYG'UROBOD – qishloq. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi qishloq nomi. Uning tarixi XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. XVIII asr o'rtalaridan uyg'ur-Shinjong viloyatini Xitoy bosib olgach, mustamlakachilikka qarshi harakatlar boshlagan uyg'ur yo'lboshchilari 1827-yili Qo'qon xoni Madalixondan yordam so'rashgan. Kelasi yildan Qo'qon armiyasi Uyg'uristonga yurish qilib ko'pgina viloyatlarini Xitoydan ozod qilgan. Qaytishida taxminan 70 ming uyg'ur oilasi ular bilan birga Farg'ona vodiysiga ko'chib o'tib, asosan, uning sharqiy viloyatlari – Andijon, O'sh, O'zgan atroflariga, o'zlashtirilmagan yerlarga joylashtirilgan.

Vodiydagi barcha uyg'ur qishloqlari, jumladan, Uyg'urobodga (Andijondagi Eskilik katta mahallasiga) ham o'shanda asos solingan.

UYSHUN – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi hamda va Andijon viloyatining Andijon tumaniga qarashli qishloqlar nomlari. Uyshun juda qadimgi qabila nomi.

Tarixiy manbalarda eramizdan oldingi birinchi mingyillikda ham Usin, Uysun nomida qabila bo'lgan.

Alisher Navoiy ham "Xamsa"da Uyshun qabilasini tilga oladi. Peterburglik arxeolog marhum A.N.Bernshtam fikricha, Usun va Kushon (kusan) kelib chiqishi jihatidan bitta tomirga ega ("Kushon imperiyasi").

Asrlar o'tishi bilan ushbu nom bilan o'zbek qabilasidan biri atalib ketgan. Uyshun qishlog'ining paydo bo'lishi, fikrimizcha, XVI asrlarga (ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlasha boshlagan davriga) to'g'ri keladi. Surxondaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida ham Uyshun qishlog'i bor.

Uyshun nomi bilan atalgan qishloq, ovul, mahalla, guzar, bozor respublikamizning ko'pgina viloyat va tumanlari hududida mavjud. Andijon, Xatirchi, Urganch tumanlarida Uyshun qishlog'i bor. Andijonda Uyshunmahalla, Uyshunchek, O'rta Chirchiq tumanida Uyshunovul nomli qishloqlar borligi ma'lum. Boshqa hududlarda ham Uyshun nomli aholi maskanlari borligi tabiiy. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tatariston, Boshqirdiston, Qoraqalpog'iston kabi turkiy tilli respublikalar hududida Uyshun nomli toponimlar mavjudligi ehtimoldan xoli emas. Chunki bu tur joy nomlarining barchasi qadimiy turkiy qabila nomi asosida yuzaga kelgan. Ma'lumki, *uyshun~uyshin~uysun~uysin~usun* miloddan oldin ham turkiy xalqlarda nufuzli qabilalardan sanalgan. O'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird, tatar, nug'oy xalqlarining o'tmishi va taraqqiyotida katta mavqega ega bo'lgan.

Markaziy Osiyo, Ural, Oltoy, Volgabo'yi, Kavkaz hududlarida joy nomiga aylangan bu so'z turkiy xalqlarda etnonim (xalq, qabila, urug' nomi) sifatida mashhur bo'lgan, ana shu vazifada uzoq vaqt qo'llangan.

Nomshunoslikning bosh tamoyillaridan biri etnonimlarni joy nomlari, kishi ismlari, taxalluslar, laqablarga ko'chirib, tilda yangi lug'aviy birlik yaratishdir. Tildagi ana shu tarzda nomlash me'yori va talabiga ko'ra, uyshun qabila nomi ana shu etnik birlik aholisi yashagan hududning nomiga aylangan. Uyshun etnonimi tarixan yasama so'z: *uy+shun*. Har ikkala qismi ham azalda mustaqil so'z bo'lgan. Etnonimning azaliy shakli aniqlovchi+aniqlanmish qolipida bo'lgan. Uy so'zi uyg'ur, uyrat, uychi, o'ymovut kabi o'zbek etnonimlari tarkibida ham uchraydi. Uy, o'y so'zli qabila, urug' nomlari boshqa turkiy xalqlarda ham bo'lishi tabiiy.

Turkiy xalqlar tillari va madaniyatining ilk davrlar tadqiqotchisi A.N.Bernshtam fikricha, *uyshun// uysun kushan//kusan* etnonimlari bir manbadan kelib chiqqan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixchisi B.G'.G'afurov esa, Sharq xalqlari tillarida *usuan//usvan* etnonimii bo'lgan, bu so'z kelib chiqishiga ko'ra, *uyshun//uysun//usun kushan//kusan* etnonimlariga daxldor.

Qozoq tilshunosi T.Jonuzoqov turkiy tillarning oltoy davri o'tmishida uy-o'y so'zi bo'lgan, o'rmon, daraxtzor ma'nosini anglatgan degan qiyosiy-tarixiy mulohaza asos bayon qilgan.

Uyshun etnonimining so'nggi qismi *shun* so'zi umumoltoy tiliga xos. Turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarida bu so'z turli tovush qiyofasida uchraydi: *shun// sho'n// shin// sun// o'n// sin// jun// jo'n//jin//chun// so'n//chin//yun//yo'n//yin//dun// do'n//din//zun//zo'n//zin.*

So'zda *sh//s//j//ch//y//d//z* tovush uyg'unligi va almashinuvi bor. So'z boshi, o'rtasi va oxirida bu tovushlar uyg'unligi, o'tmishi, almashinuvi turkiy, umuman, oltoy tillari oilasiga mansub tillarga xosdir. Bu holat, ayniqsa, tillar o'tmishida birmuncha kuchli bo'lgan. Turli tovush qiyofasida bu so'z ayrim turkiy tillarda saqlanib qolingan: yoqut tilida *zo'n* – xalq, odamlar, qabila; to'va tilida *cho'n* – xalq, qabila; chuvash tilida *sin//shin* – xalq, kishilar.

Qadimgi xunnlar tilida jun – jo'n tarzida bo'lgan. Turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga oid bu so'z odam(lar), kishi(lar), odamlar uyushmasi ma'nosini anglatgan. Ana shu ma'no zamirida bu so'zning urug', qabila, xalq ma'nosi ham yuzaga kelgan. O'zbek xalqi tarkibida bo'lgan *qovchin, olchin, boysun (boysin)* etnonimlarining so'nggi unsuri *chin~sun~sin* so'zi ham genezisiga ko'ra ana shu so'zga daxldor.

Uyshun etnonimi – birlamchi, Uyshun toponimi – ikkilamchi. Etnonimga aholining yashash joyi, joyning tabiiy belgisi asos bo'lgan: **uyshun** – *o'rmon kishisi, daraxtli joyda yashovchilar*. Joy nomi (qishloq, ovul) esa aholining qaysi qabilaga

mansubligi asosida yuzaga kelgan: uyshun – uyshun qabilasiga mansub kishilar yashagan hudud (joy).

UYCHI – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Uychi – etnonim. Demak, oykonim uychi urug'iga mansub aholi yashaydigan maskan ma'nosini anglatadi.

1935-yil iyun oyida tashkil topgan tuman markazi – Uychi qishlog'i (hozirgi shaharcha)ga nisbat berib shunday nomlangan. Demak, etnonim toponimga ko'chib, etnotoponimga aylangan.

UZUMZOR – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mahalla aholisining ko'pchilik qismi asosan azal-azaldan uzumchilik bilan shug'ullanib kelgan. Uzumzor – uzumchilik rivojlangan va uzum bog'i ko'p hudud va mahalla shuning uchun ham shunday nomlangan.

UZUN – tuman. Surxondaryo viloyatida tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi viloyatning shimoliy qismida joylashgan. Relyefi, asosan, tog' va adirliklardan iborat. Shu sababdan, suv manbalari nisbatan ko'p, tuman hududidan To'polondaryo, Obizarang, Qoratog', Qorasuv, Surxon daryolari oqib o'tadi.

Uzun nomida shaharcha joylashgan hudud nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Tevarak-atrofdagi aholi punktlariga nisbatan qiyoslaganda, uning uzunasiga o'lchami katta, cho'zilgan, en ko'lami qisqa bo'lganligi, shaharchaning shunday atalishiga sabab bo'lgan. Shaharcha nomi ilgari Uzunqishloq – uzunasiga cho'zilgan maydondagi qishloq, soy, ariq yoki jar yoqasidagi cho'ziq maydonda qurilgan qishloq bo'lgan. Keyinchalik nomning ixcham va talaffuzda qulay bo'lishi uchun qishloq so'zi tushirilib qoldirilgan bo'lishi ham mumkin.

Boshqa izoh: Uzun nomli aholi punktlari respublikaning boshqa viloyatlarida ham bor. Uzun so'zining joy nomlari shaklida qayta-qayta takrorlanishi, uning zamirida qandaydir etnik guruh nomi borligini bildiradi. Mutaxassislar tomonidan Qashqadaryo qo'ng'irotlari, Zarafshon, Farg'ona qipchoqlari tarkibida uzun degan urug' borligi aniqlangan. Qozoq qipchoqlarining o'rtajuzida, qirg'izlarning bag'ish qabilasi tarkibida ham uzun urug'i mavjudligi ma'lum. T.Nafasovning yozishicha, Surxondaryo qo'ng'irotlarining qo'shtamg'ali bo'limiga qarashli bandi kuchuk urug'ining ko'sa, uzun, beshog'och, boybotir, jobuv, damg'orin, galamulla, xo'ja tarmoqlari bor. Uzun etnik guruh nomi shaharcha va tumanga nom bo'lib o'tgan. E'tiborli tomoni shuki, aslida uzun chorvadorlar tamg'asining nomidir. Chorvadorlar tamg'ani old va orqa oyoqqa, hayvon sag'rasiga qo'yishgan.

Urug' va uning bo'limlari tamg'asining shakli, ko'rinishi, bosish o'rni, miqdoriga ko'ra bir-biridan farq qilgan va shu asosda nomlangan. Mazkur etnik guruh nomiga tamg'asining shakli asos bo'lgan, degan fikr ham

bor. Masalan, akademik K.Shoniyozov ma'lumotiga ko'ra, mollarning oldingi oyog'iga cho'ziq chiziq qilib bosilgan tamg'ani uzun deb atashgan. Ularning tamg'asi boshqa urug'larnikidan cho'ziqligi bilan ajralib turgan.

UZUNKO'L – ko'l. Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Qoraoy" OFY hududida joylashgan ko'l. Ko'l shakli bo'yicha uzun bo'lib joylashganligi Uzunko'l nomiga asos bo'lgan.

UZUNQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Oqdaryo, Narpay, Samarqand, Urgut tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Uzunli* – Narpay tumani. **Uzun** – etnonim. Masalan, qo'ng'irot qabilasi tarkibidagi bandikuchuk urug'ining bo'linmalaridan biri *uzun* deb nomlangan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории).

Uzun – qo'ng'irot qabilasi qo'shtamg'ali bo'limiga mansub urug' nomi. Chorvadorlar tamg'ani molning old yoki orqa oyog'iga bosishgan. Molning old oyog'iga tamg'a bosgan urug' uzun deb atalgan va uning tamg'asi shakli ham cho'ziqroq (uzunroq) bo'lgan. Uzun etnonimining paydo bo'lishi mana shu xususiyatlarga asoslangan (Шаниязов, 1971: 153). Uzun nomli qishloqlar Namangan, Surxondaryo, Farg'ona, Jizzax viloyatlarida ham bor. Lekin Uzunbuloq, Uzunjilg'asoy (Bulung'ur), Uzunbuloqsoy (Jomboy), Uzunsoy (Nurobod) gidronimlari, Paxtachi tumanidagi Uzunquduq qishlog'i (Paxtachi) kabi nomlar tarkibidagi "uzun" so'zi obyektning shaklini ko'rsatadi.

UZUNQUDUQ – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi ***qishloq*** nomi. ***Uzun*** – etnonim: qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limiga qarashli kuchuk urug'ining *ko'sa, uzun, beshyoroch, boybotir, jobuv, damgorin, galamulla, xo'ja* kabi tarmoqlari bor. Etnonim oykonimga o'tgan. Aslida, ***uzun*** chorvadorlar tamg'asining nomidir. Chorvador tamg'ani old va orqa oyoqqa, hayvon sag'risiga qo'yishgan. Urug' va uning bo'limlari tamg'asining shakli, ko'rinishi, bosish o'rni, miqdoriga ko'ra bir-biridan *farq* qilgan va shu asosda nomlangan. K.Shoniyozovning aniqlashiga ko'ra, mollarning oldingi oyog'iga tamg'a bosgan guruh, urug' ***uzun*** deb atalgan[1]. Boshqa urug'lardan tamg'asining cho'ziqligi bilan ajralib turgan. ***Uzun*** qipchoqlarga oid etnonim: u Zarafshon qipchoqlarida ham mavjud, hatto qozoq qipchoqlari o'rtajuz: qirg'izlarning bag'ish qabilasi tarkibida ham ***uzun*** urug'i qayd qilingan, qirg'izlarda ***uzun chekli*** tarzida uchraydi. Farg'ona qipchoqlarining ham ***uzun*** degan urug'i bor. Demak, ***Uzunquduq*** – *"suvi ancha chuqurlikdan chiqqan quduqli* **qishloq**, *suv manbayi teranlikda bo'lgan quduq atrofidagi* **qishloq**"[2] degan ma'noni bildiradi.

[1] Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Т., 1971. –С. 153.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. - T.: Muharrir, 2009. –B.259-260.

USHOQTEPA – Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi qishloq. Ushoq – kichik, kichkina, mayda, hajm jihatdan birmuncha kichik. "Boburnoma"-da kichik tog'larga nisbatan "ushoq tog'lar" iborasi ishlatilgan. Ushoqtepa – tevarak-atrofdagi boshqa balandliklarga nisbatan en va tik ko'lami jihatdan ancha kichik bo'lgan tepa. Shu tepa atrofidagi qishloq Ushoqtepa deb atalgan.

USHTURKET – Shosh viloyatidagi o'rta asr shahri (Ибн Хавкаль, БАГ, II, С. 389; Ибн Хордадбех, БАГ, IV. С. 27). Chirchiq daryosi sohilida Toshkentdan 50 km g'arbroqda joylashgan. Mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan (XIII asr boshida). Keng tarqalgan etimologiyasi – "tuya shahri" (forscha *shutur* – tuya) (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 227).

UCHKO'PRIK – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Tuman relyefi, asosan, tekislik, uning janubiy qismi Turkiston tog' tizmasining shimoliy etaklaridagi adirlar, markaziy qismi qadimdan dehqonchilik qilib kelayotgan tekisliklardan iborat. Tumanning markaziy qismidan Katta Farg'ona kanali oqib o'tadi. Uch so'zi joy nomlari tarkibida aniq uch raqamni (miqdor, son) yoki belgilangan hududning yoki narsaning oxiri, so'nggi joyini anglatgan. Joy nomi ilgari bir-biriga yaqin masofada uchta ko'prik mavjud bo'lganligidan darak beradi. Ana shunday uchta bir xil, bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan masofada joylashgan ko'priklar geografik obyektni nomlashda belgi vazifasini bajargan.

Ko'prik – to'siq (daryo, kanal, jar yoki boshqa joylar)dan yo'l o'tkazish uchun quriladigan muhandislik inshooti. Ilgari ko'priklar ko'pincha yog'och va xarsangtoshlardan qurilgan. Qadimiy yog'och ko'priklar saqlanib qolmagan. O'rta asrlarda arkli xarsang ko'priklardan ko'proq qurilgan. O'rta Osiyoda ko'proq yog'och va tosh ko'prikdan foydalanilgan. Diniy nuqtai nazardan ko'prik qurish o'tmishda ham, hozir ham xayrli va savobli ish hisoblanadi.

UCHKO'RPA – qishloq. Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumani. Uchko'rpa "ko'rpa urug'ining uchta vakili" – etnonim, ***Ko'rpa*** (qarang).

UCHOLISH – Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Qadimgi turkiy so'z bo'lib, hozirda daryo yoki ariq suvining bo'lingan, tarqatiladigan joyi ma'nosida ishlatiladi. Ucholish, Besholish kabi joy nomlari mazkur termin asosida yaratilgan. Bunday gidronimlar qatoriga Artizonbo'yi, To'g'onboshi kabi suv bilan bog'liq nomlarni kiritish mumkin.

UCHOG'OCH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ta'kidlash joizki, "***uch***" umumturkiy so'zlardan biri bo'lib, "*ikki bilan to'rt oralig'idagi butun sanoq son*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 394; O'TIL. 5, 4, 306].

Apellyativning ikkinchi qismi "***Og'och***" so'zi bo'lib, mazkur so'z hozirda ham Xorazmda aynan shunday shaklda qo'llanilib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "daraxt, yog'och, xoda" degan ma'nolarida izohlanadi [O'TIL. 5, 3, 192].

Shunga asoslanib, B.O'rinboyev Qo'shrabot tumanidagi bu qishloq nomini dastlab *"uch daraxt (og'och) o'sgan joyda barpo etilgan maskan"*, deb izohlaydi [B.O'rinboyev, 2, 56].

UCHTEPA – tuman. Toshkent shahri tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Avvalgi nomi – Akmal Ikromov tumani. 1977-yil 15-sentabrda Chilonzor va Oktabr (hozirgi Shayxontohur) tumanlarini ixchamlashtirish maqsadida, ular hududida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2005-yil 6-maydagi "Toshkent shahrining Akmal Ikromov tumani nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 39-I sonli qarori bilan Uchtepa deb qayta nomlangan. Tuman hududidan Bo'zsuv va Qoraqamish kanallari oqib o'tadi. Uchtepa – ilk o'rta asr qishloq xarobasi (VI-VII asrlar; X-XV asrlar boshi) – Oqtepa maydonidagi "Mebel" do'koni o'rnida joylashgan uchta tepalikdan iborat. Binkat atrofidagi hunarmandlar yashaydigan qishloq bo'lib, asosan, sopol va shisha buyumlari bilan shuhrat qozongan. Mo'g'ullar istilosi (XIII asr boshi)dan so'ng, XIV-XV asrlarda hayot qisman tiklangan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so'ng keng qurilish ishlari olib borilishi jarayonida tekislanib tashlangan.

UCHQUDUQ – tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Asosan, Qizilqum cho'lida joylashganligi bois, tabiiy omillar (yaylov, qum, quduq) asosida shakllangan toponimlar keng tarqalgan. Buning asosiy sababi shuki, mahalliy aholi xo'jalik faoliyatida yaylov, quduq, qum, suv kabi tabiiy landshaft komponentlari muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy aholi hududning tabiiy sharoiti va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, geografik obyektlarni nomlashda turli toponimik terminlardan ham foydalanishgan. Masalan, Qizilqum cho'lida suvning tanqisligi, uni izlab topish, to'g'ri saqlash va oqilona foydalanish hayotiy zarurat ekanligi sababli, geografik obyektlarni nomlash jarayonida gidrografik terminlarni keng qo'llashga sabab bo'lgan. Shuning uchun, tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar orasida suv obyektlari bilan bog'liq nomlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yuqorida qayd qilingandek, tuman hududida, asosan, cho'l landshafti hukmron, bu holat joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Ularda cho'l landshaftining o'ziga xos xususiyatlari, relyef shakllari, quduqlar va boshqa oqar suvlar manbalari aniq belgilangan. Masalan, Quruqquduq, Shirinquduq, Sho'rquduq, Uzunquduq va hokazo. Uchquduq nomi dastlab gidrografik obyekt – quduqqa tegishli bo'lgan. Keyinchalik shu atrofda barpo qilingan shahar va tumanga

ham berilgan. Joy nomlari tarkibidagi "uch" – so'zi aniq son, raqam, miqdorni, ba'zan bir necha ma'noni ham anglatgan. Yonma-yon joylashgan quduqlar soni uchtadan kam bo'lmagan.

Quduq – suv olish maqsadida qazilgan tor va teran chuqurlik ma'nosida. Oqar suv bo'lmaganligi sababli mahalliy aholi asosan quduqlar qazib yerosti suvlaridan foydalanishgan. Quduqlar soni geografik obyektni nomlashda belgi vazifasini o'tagan. Uchquduq shahridan viloyat markazi Navoiy shahrigacha 300 km. Uchquduq shahri 1961-yilda Muruntov oltin konining ishga tushirilishi munosabati bilan barpo etilgan. Uchquduq zamonaviy sanoatlashgan shahar, oltin, uran, oltingugurt, marmar ishlab chiqaruvchi tog'-kon sanoati korxonalari ishlab turibdi. Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatining "Shimoliy" kon boshqarmasi, Ko'kpatos geologiya-razvedka ekspeditsiyasi va bir qancha qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Tuman hududidan Navoiy – Uchquduq – Nukus yo'nalishidagi katta avtotrassa va Uchquduq – Miskin temiryo'l tarmog'i o'tgan. Tuman ma'muriy markazi – Uchquduq shahri (1978-yildan).

UCHQORA – qishloq. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on, Urgut tumanlari; Navoiy viloyati Xatirchi tumani. Uchqora etnonim bo'lishi kerak, balki *qora* urug'ining bo'linmasidir.

UCHQO'RG'ON – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. "Uchqo'rg'on tarixi" kitobi mualliflarini afsus bilan ta'kidlashlaricha, Uchqo'rg'ondagi insoniyat sivilizatsiyasining boshlang'ich davri u yoqda tursin, aqalli o'rta asrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklar ilm-fan mulkiga aylantirilmagan.

Holbuki, goh kanal o'tkazish, goh yer ochish bahonasida tekislanib ketgan *Munchoqtepa, Yassitepa, Oqtepa, Uchtepalar* hozir nima uchundir Qirg'iziston hududiga o'tib qolgan. Mug' singari yodgorliklardan topilgan topilmalar ikki ming yildan ilgari bu yerda hunarmandchilikni taraqqiy ettirgan insonlar yashaganligidan guvohlik beradi[1].

Demak, bu Uchqo'rg'on tarixiy shahar ekanligidan dalolat beradi. T. Nu'monov va boshqalar *Uchqo'rg'on* polisonimi haqida fikr yuritib, shaharning uch joyida qal'a bo'lgan, shuning uchun ham *Uchqo'rg'on* deb nomlangan, degan izoh beradilar. Bu fikr mantiqan asosli. Uchqo'rg'on nomining yuzaga kelishi haqida quyidagi qarashlar mavjud:

1. Qadimgi Uchqo'rg'on Norin daryosining o'ng sohilidagi Mug' (hozirgi Qirg'iziston hududida) va yana ikkita qo'rg'on (Qizilravot)dan iborat bo'lgan. Hozirgi Uchqo'rg'on hududi keyinchalik o'zlashtirilgan. Demak, shahar uchta devor bilan mustahkamlangan aholi punkti, aholi yashash manzilidan iboratligiga nisbat berib, Uchqo'rg'on deb atalgan.

[1] Uchqo'rg'on tarixi. – Uchqo'rg'on , 1995. – B. 12.

2. "Uchqo'rg'on tumani" kitobi mualliflari fikricha, polisonim *uch-qo'riqon* etnonimi asosida yuzaga kelgan. Ularning talqinicha, Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysida Ko'kshin – Urxun daryosi qirg'og'ida topilgan, Bilga xoqon inisi Kultegin sharafiga 732-yilda yozdirgan Kultegin bitiktoshida aytilishicha, Bilga xoqonning ota-bobosi Bumin xoqon va Istami xoqonlar vafot etganlarida azaga kelgan turk urug'lari orasida uchqo'riqon urug'i ham tilga olinadi. Hozirgi Uchqo'rg'on shahriga asos solgan kishilar ana shu uchqo'riqonlar bo'lishi, bu nom soddalashib, keyinchalik Uchqo'rg'onga aylanganligi ehtimoldan xoli emas[1]. Demak, ular talqinicha, Uchqo'rg'on – etnopolisonim. Bizningcha, nom haqidagi birinchi qarash asosli. Uchqo'rg'on polisonimi *uch* va *qo'rg'on* kabi morfemalardan iborat bo'lib, *"uch aholi yashash manzilidan iborat shahar"* degan ma'noga ega. Polisonimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *uch qo'rg'onli > uch qo'rg'on > uch+qo'rg'on > uchqo'rg'on > Uchqo'rg'on.* Demak, *"uch qo'rg'onli"* otli birikmasi polisonim uchun etimon hisoblanadi.

UCHTURGON – Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining aytishicha, XIV–XV asrlarda bu yerdagi balandlik yonbag'ridagi buloq yaqiniga uchta aka-uka kelib joylashgan va shu yerda bir umrga yashab qolib ketishgan. Shundan so'ng esa bu yer Uchturgon (uch aka-uka yashagan) degan nom bilan atalib qolgan. Bu buloqning shifobaxshligi aniqlangach, hozirda Xovos tog' sanatoriysi tashkil etilgan. Shundan so'ng esa bu yer Uchturgon (uch aka-uka yashagan) degan nom bilan atalib qolgan. Bu buloqning shifobaxshligi aniqlangach, hozirda Xovos tog' sanatoriysi tashkil etilgan.

UCHUQTOSH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi cho'qqi nomi. Mazkur toponim ***"uchuq"*** va ***"tosh"*** qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

Apellyativning birinchi qismi ***"Uchuq"*** so'zi *"chetining kichik bir qismi singan, cheti uchgan, siniq"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 4, 310].

Uning ikkinchi komponenti ***"Tosh"*** so'zi esa *"yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan qattiq , tog' jinslarining umumiy nomidir"*, deb izohlanadi [O'TIL. 4, 159].

Shunday ekan mazkur toponimni *"cheti uchgan toshlar mavjud joyda barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* tarzida izohlash maqsadga muvofiqdir.

UCHSHIRDON – joy nomi. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. *Shirdon* – somonning o'tovsimon g'arami (mayda somon, ustidan yer bilan qoplangan).

[1] Uchqo'rg'on tumani. – Uchqo'rg'on, 1995. 13–14-b.



VAHIMKOR – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro va Vobkent tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Vaqf tuproqlari yerlariga ishlov beradigan odam vaqfkor deb nomlangan; **Vahimqor** – *vaqfkor* so'zidan kelib chiqqan (qarang: ***Vahim***).

VAHIMCHI – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir, Gurlan va Hazorasp tumanlaridagi qishloq va mahalla nomi. Vahimchi vahimachi so'zining dialektal varianti bo'lishi mumkin.

Mahalliy aholi vakillari mazkur toponimni ***vahm*** – "*qo'rquv*" so'zi bilan bog'lashadi. Aslida esa uning ushbu toponimga hech qanday aloqasi yo'q. **Vahm** *vaqf* so'zining mahalliy xalq tilidagi talaffuz variantidir. ***Vaqf*** – arabcha so'z bo'lib, u "*turish, turoq, qo'zg'almas*" kabi ma'nolarni anglatadi, u musulmon shariat qoidalariga muvofiq, davlat va ayrim kishilar tomonidan din hamda xayrli maqsadlar yo'lida ajratilgan mol-mulk. Ko'pincha, yer, kanal, ariqlar vaqf mulk deb e'lon qilingan va shu nom bilan yuritilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida vahimachi so'zi shunday izohlanadi: "Vahima qiluvchi, vahima tarqatuvchi, kishilar yuragiga g'ulg'ula soluvchi" (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 452-bet). Biroq mahalliy aholining afsonalariga ko'ra, ushbu hududda xonlik davrida hech kim yashamagan va bu joylar masjidga vahm qilingan deyishadi.

VALIK – qishloq. Farg'ona viloyatining Quvasoy shahar kengashiga qarashli qishloq nomi. Mahalliy aholining fikricha valik Valiylar, avliyolar yurti deyilgan. Ilmiy tomondan olib qarasak, aslida bu so'z "Volik" bo'lsa, "vo" degan so'z forscha bo'lib, "keng" yoki "bo'sh" degan manoni bildiradi. -lik esa o'rin-joy yasovchi qo'shimchadir. Ularning har ikkalasi qo'shilib, "kenglik" yoki "bo'shlik" degan ma'noni bildiradi.

VAQF CHORSU – mahalla. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla nomi. Vaqf arabcha so'z bo'lib, mulkdor tomonidan diniy muassasa ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo o'zini sotmaslik sharti bilan vasiyat qilingan mulk (yer-suv, bino, savdo rastalari, tegirmon). Chorsu to'rt ko'cha kesishgan joy, bozor ma'nosida ishlatiladi.

VARAXSHA – (Qadimiy shahar). Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi shahar nomi. Mazkur shahar nomining ***Afraxsha, Varaxsha, Faraxsha*** shakllari ham ma'lum. Ushbu nom ***Var*** va ***axsha*** qismlaridan iborat bo'lib, ***Var//vara*** – *"qal'a"* hamda ***axsha*** – *"qurilgan joy"* ma'nolarini ifodalab, ***Varaxsha*** – *"qurilgan qal'a"* demakdir.

Varaxshada Buxoro hokimidan buxorxudodlarning yozgi muhtasham binosi saroyi bo'lgan. Saroy devorlari qabartma ganch naqshlar va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Varaxsha Buxorodan ham qadimiy shahar. X asrgacha buxorxudotlar Varaxshada turganlar. Varaxsha shahri Varaxsha arig'i bo'yida bo'lgan. Hozir bu shahar o'rni tepaliklardan iborat.

VARDANZI – Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning *Vardani, Vardona* variantlari ham bor. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, u Buxoro nomidan ham qadimiyroq bo'lib, uni shoh Shopur qurdirgan ekan. Ushbu toponim forscha "var" so'zi asosida hosil qilingan. Bu so'z aholi yashaydigan va chorva mollarini saqlash uchun chor atrofi devor bilan o'ralgan qadimgi istehkomlarni bildiradi.

Demak, ***Vardanzi*** toponimi *"podshohlarning maxsus qarorgohi, qo'rg'oni"* ma'nosini anglatadi. Mamlakatimizda bundan 3000 yil avval bino qilingan katta shahar hamda turar-joy qoldiqlari "**var**" so'zi bilan aloqadordir.

Respublikamizning ayrim hududlaridagi *Dalvarzin, Varaxsha, Vardani, Varag'zon* kabi nomlar ham bevosita shu nom bilan bog'liq.

VARDONA//VARDON – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Substrat qatlamga mansub bo'lgan ***var//vor*** so'zlari – *"qal'a, qo'rg'on, devor bilan o'ralgan joy"* kabi ma'nolarni ifodalasa, ***-don*** – o'rin-joy oti yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

Shunday ekan, ***Vardon*** – *"qo'rg'on o'rni, qo'rg'onli, qal'ali"* ma'nosini ifodalaydi.

VARGANZA – shaharcha. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi shaharcha (2009) nomi. Ro'dakiy asarlarida varg' – to'g'on, band ma'nolarini ifodalaydi. X–XIX asrlar tojik tili manbalarida *varg'* – band, to'sib to'plangan suv havzasi ma'nolarida qayd etilgan (Farhangi zaboni tochiki, 1. – M., 1969. –C. 226).

Yangi sug'd tili deb tan olingan yag'nob tilida *varg'* – dalaning yuqori tomoni. *Zoy* – joy, maydon, yer; ekinzor deganidir (Андреев М.С. и Пещерова Е.М. Ягнобские тексты. –М. – Л., 1957. – С. 344, 369). Sug'd tilida *varg'* – suv to'planadigan joy, band, to'g'on ma'nolarini ifodalab, *-on* qo'shimchasi o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchasidir (Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. –М., 1981. 436). Dastlab vodiy, soylik nomi sifatida shakllangan. *Varg'on-zoy→ varg'anzoy→ varganzay→ varganza→Varganza – suv bandi yonidagi joy* (shaharcha).

VARZAK – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq nomi. Bu nom mutaxassislar tomonidan turli xil izohlanadi. S.Qorayev (1978) *varz* tojikcha "ekin", "ziroat" ekanligini, *varza* – "dehqon" degan ma'noni bildirishini yozadi. Bunda *varzak* so'zini "ekinzor" ma'nosida tushunish mumkin. E.Murzayev (1984) varz so'zining "baland", "yuqori" degan ma'nosini aytsa, Z.Do'simov (1977) bu so'z "atrofi o'ralgan baland qo'rg'on"ni anglatishini yozadi. Demak, professor Z.Do'simovning fikri haqiqatga yaqindir.

VARQ – qishloq. Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi qishloq nomi. Istaxriyda **Varag** (aniqrog'i, Varg') shaklida uchraydi va u sug'dcha "To'g'on" ma'nosini ifodalaydi. Mazkur so'z *varg', bandivarg'* shakllarida shoir Rudakiy asarlarida ham aynan shu ma'nolarda uchraydi. Samarqand va Buxoroda to'g'on tuzatish bo'yicha oxirgi davrlargacha **varkban** (varqbon) deb atashgan.

VARQSAR – Robaxo'ja qishlog'ining hozirgi nomi (Samarqand viloyatining Samarqand tumani). Istaxriy (БАГ, I, 342) asarlarida, Muqaddasiyda **Varagaser** shaklida tilga olinadi. *Varg* – "To'g'on", forscha *sar* – "bosh"; *Varqsar* – "To'g'onning boshi". Buxoro atrofida aynan shu ma'nodagi Ras al-Varg (arabcha – "bosh") degan joy bor.

VARSIN – qishloq. Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. (Somoniy asarida Naxshab viloyatidagi Varsan qishlog'i qayd qilingan). Hozirgi Samarqandning Panjakent yo'lining o'rta asrlardagi nomi Darb Varsanin bo'lgan. Shunga ko'ra, Samarqand shahri darvozalaridan birining nomi ham Varsin deb atalgan.

O'rta asr tarixiy kitoblarida tilga olingan Varsanin (hozirgi Varsin) qishlog'i shu yo'l yoqasida bo'lgan. Qishloq ham, yo'l ham o'z nomini shahardan 4,5 kilometr uzoqlikda joylashgan Tali Varsin tepaligi (qadimiy qo'rg'on xarobasi bo'lishi mumkin) nomidan olgan.

Joy nomlari talaffuzida ayrim tovushlarning tushib qolishi hodisasini hisobga olsak, *"Varsin"* so'zini *"var"* – qo'rg'on, *"san(g)in"* – tosh so'zlaridan tashkil topgan atama sifatida *"Tosh-qo'rg'on"* deb izohlash mumkin (Nafasov, 2009: 77).

D.Buyaner Kavkazdagi Varsan toponimi haqidagi maqolasida ushbu nomni o'rta eron tilidagi *varsa* – "soch, mo'y" (Avesto. *Varasa*, sug'd. *wrs*, qad. hind tilida *valca* – "novda, shox") so'zi bilan bog'laydi. Muallifning aytishicha, Varsan toponimi eron tilidan kelib chiqqan bo'lib, u (vars) o'zakka unumdor *(-an(a)* suffiksi qo'shilishi yordamida hosil bo'lgan. Yahudiy tilida bu toponim kalkasi *seir* shaklida ishlatilgan bo'lib, bu so'z qadimgi yahudiy tilida "sochli, mo'yli, jun bilan qoplangan" ma'nosida bo'lgan. Aftidan, bu so'z tog'ga nisbatan qo'llanilgan va "To'qayzor" ma'nosida ishlatilgan. Tali Varzin toponimi Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani Sari-

chashma qishloq kengashida ham uchraydi (Материалы..., 1927: 125).

VARSIN//VARSANIN DARVOZASI (Yarkas deb ham tilga olinadi) – mahalla va qishloq. Darvoza o'z nomini ushbu mahalla atamasidan olgan. O'rta asrlarda mashhur bo'lgan bu toponim endilikda qishloq nomida saqlanib qolgan. Uning nomi sug'dcha wrs –"soch tolasi", "ip" so'zidan yasalgan, degan fikr bor (Lurye, 2004:21, 85). Bu joyning nomi turkiy *vars (varsak/varsag)* etnonimi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin (Mirzazade, 1988:97–100). Ozarbayjonda ham o'rta asrlarda Varson nomli qishloq bo'lgan.

VARZIGON – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi bo'lib, u "yer egasi" (forschadan *varza* yoki *varzigar* – "dehqonlar") ma'nosini ifodalaydi.

VATANPARVAR – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Ushbu atama o'z vatani, xalqini sevuvchi ma'nosini ifodalab, u mustaqillik yillarida yangicha yondashuv asosida qo'yilgan joy nomidir.

VATKAN//VATAK – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloqlar nomidir. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida Vatkana nomli qishloq bor. *Vat* so'zi sug'd tilida "uy, hovli, qo'ra, saroy" ma'nolarini beradi.

T. Nafasov *xona* (ovul, qishloq, joy) so'zining bir variantini *"kana"* deb qayd qiladi. Sug'd tilida "uy" ma'nosidagi "g'amak" so'zi ham bor.

Demak, Vatkan nomi sug'dcha "qo'rg'on", "devor bilan o'ralgan qal'a" ma'nolarini beradi. **Vatak** – *"vat"* – "qishloq, qo'rg'on" so'zi va *-ak -(cha)* qo'shimchalaridan tashkil topgan bo'lib, "qishloqcha" ma'nosidadir (Nafasov, 2009:78). 1904–1905-yilgi aholi punktlari ro'yxatida Vitkan qishlog'i qayd qilingan (Список населенных..., 1906: 31). Payariq tumanidagi Vatrak toponimi ham etimologik jihatdan yuqoridagi nomlar bilan aloqadordir.

VAYROT – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Prof. B.O'rinboyevning aytishiga ko'ra, qadimgi turkiy qabilalardan biri uyrot, ayrot-oyrot deb atalgan. Etnonim yasama so'z bo'lib, mo'g'ul va buryat tillaridagi uy-ay-oy – "o'rmon, daraxtzor, chakalakzor", rat -arat – "xalq" demakdir. So'z oldidagi v harfi – tovushi fonetik jarayon asosida paydo bo'lgan (O'rinboyev, 2003:47).

VAZIR – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Ushbu so'z arabchada *yuk ko'taruvchi* ma'nosini bildiradi. Termin sifatida o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq davlatlarida, shu jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i ma'nosida ishlatilgan.

Shuningdek, Xorazm vohasining o'rta asr shahar-qal'alaridan biri ham ushbu nom bilan atalgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Shayboniylardan Mustafoxon tomonidan XV asr o'rtalarida asos solingan. Ko'hna Urganchdan 60

km masofada joylashgan. Shayboniylarning Xorazmdagi mulki markazi bo'lgan. XVII asrda Abulg'oziy Bahodirxon xonlik markazini Yangi Urganchga o'tkazgan, Vazir aholisini esa ushbu qishloq hududiga ko'chirgan.

VAZKERD – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi o'rta asr qishloqlaridan biri. Qo'lyozma manbalarda Urkud, Zardkerd, Vazkerd shakllarida uchraydi. V.V. Bartold qishloq nomining o'qilishi to'g'ri aniqlanganicha yo'q deydi. Ammo De Guyedan keyin V.V. Bartold mazkur toponimni Vazkerd tarzida o'qishni to'g'ri deb topgan (Bartold I., 1963: 145). Somoniy Samarqand shahridan 4 farsax masofada joylashgan Vazd yoki Vizd qishlog'i haqida ma'lumot beradi.

Olimlarning aytishlaricha, Ibn Havqalda keltirilgan Vazkerd va Vizd bitta qishloq (Bartold, IV, 1966: 91). Ibn Havqal (X asr) Shovdor tog'i yonbag'ridagi xristianlar qishlog'i Vazkerd haqida to'xtalar ekan, shunday deydi: "Samarqanddan janubda Shovdor tog'i bor. Samarqand atrofida havosi toza, yerlari serhosil va yaxshi mevalarga boy bundan boshqa tuman yo'q. Aholisi sog'lom va kelishgan kishilardir. Cherkov doim xristianlar bilan gavjum. U ko'chmas mulkka ega. Bu joy Vazgerd nomi bilan mashhur" (Bartold, 1966: 99).

V.L.Vyatkin Vazkerd qishlog'i hozirgi Qing'ir qishlog'i o'rnida bo'lgan deb ko'rsatadi (Vyatkin, 1902: 37). Mug' yozma bitiklarida 721-yilgi Devashtich isyonida xaxsarlik va rustaliklar qatori vazkartliklar ham qatnashganliklari yozilgan.

Demak, mazkur qishloq tarixi ancha qadimiydir (Smirnova, 1970: 248). "Vizd" so'zi Yag'nobdagi geografik nomlardan biri – Vizdi Ritda saqlanib qolgan. A.L.Xromovning qayd qilishicha, Vizdi rit toponimi "Vizd daraxti yolg'iz o'sgan joy" ma'nosini anglatadi (Xromov, 1975: 28). Lurye Vazkerda nomining birinchi qismi *weh* – "eng yaxshi" va *-azd* – "mashhur", ikkinchi qismi esa *kart/kirt/jird* – "yaratdi" so'zlaridan yasalgan, deydi (Lurye, 2004:177–178).

VAG'ONZIYAK – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Tadqiqotchi M.M.Avezovning fikricha, qishloq nomi aslida *Varg'onzayak* bo'lgan, keyinchalik o'zgarishga uchrab, hozirgi holatga kelib qolgan. Toponim ikkita so'z – *varg'* va *zoyak* so'zlaridan tashkil topgan. Uning birinchi komponenti – *varg'* so'zi sug'dcha bo'lib, *"suv to'planadigan joy", "to'g'on", "band"* degan ma'nolarni anglatadi.

Yangi sug'd tili deb tan olingan yag'nob tilida *varg'* – *"dalaning yuqori tomoni"* demakdir. Toponim tarkibidagi *-on* qo'shimchasi sug'dchada o'rinjoy yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Nomning ikkinchi komponenti – *zayak* so'zi esa *"partov yer"* ma'nosini anglatadi.

Demak, Vag'onziyak (aniqrog'i, *Varg'onzayak*) – *"partov yerdagi to'g'on", "suv to'planadigan partov yer"* degan ma'nolarni anglatadi.

VOBKENT – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi cho'l bilan voha orasidagi tekislikda joylashgan. Vobkent ko'hna shaharlardan biri. XIV asrga oid tarixiy manbalarda shahar Vobkana nomi bilan tilga olinadi. XVI asrdan boshlab Vobkent ikki nom – Vobkana va Komot deb yuritila boshlagan. XVII asrning tarixchi olimi Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" asarida Vobkent tumani nomi Komot shaklida qayd qilingan.

Vobkent nomini o'g'uz shevasidagi "vob" yoki "vahobkent" – "bo'z, qo'riqdagi qishloq ma'nosini anglatadi", deb ta'rif beriladi. Bu izoh ishonarli emas, chunki nom tarkibidagi "-kent" topoformanti sug'd tiliga tegishli so'z ekanligi isbot talab qilmaydi. O'rta asrlarda Zarafshon daryosi havzasida joylashgan hududlarda sug'd tili keng tarqalganligi qayd qilingan.

Tarixiy nomlar tarkibidagi "kent" so'zining ilk shakllaridan biri kand. Mutaxassislar joy nomlari yasashda ancha faol bo'lgan "-kand", "-kant", "-kat" qo'shimchasini sug'd tiliga daxldor ekanligini aniqlashgan. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududidagi qadimda o'z tili, yozuvi va davlati bo'lgan xalqlardan biri – sug'dlar.

Sug'd tili jonli til sifatida saqlanib qolmagan bo'lsa-da, mazkur tilda yaratilgan joy nomlari hozirgacha saqlangan. Mo'g' qal'asidan topilgan sug'd tiliga oid hujjatlarda bu topoformant uch xil ko'rinishda (-kat, -kan, -kas) uchraydi. Bu so'zlarning ma'nosi – uy, hovli, keyingi davrlarda qishloq, shahar.

Vobkent haqidagi ma'lumotlar Mirzo Badening "Majma' al-arqom" (XVIII asr) hamda XIX asrga oid vaqf hujjatlarida ham uchraydi. Vobkentda qadimda madrasa, hammom, bozor, masjid, Ko'hna Vobkand, Vobkand qo'rg'oni kabi tarixiy obidalar bo'lib, hozirda saqlanmagan. Me'moriy yodgorliklardan shahardagi minora (XII asr) saqlanib qolgan. Minoraning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan Buxorodagi Minorayi Kalonga o'xshaydi. Vobkent minorasining umumiy balandligi 40,3 metrni tashkil etadi.

O'rta asrlarda Vobkent atrofida bir necha qishloq-qo'rg'onlar bo'lgan. Tuman hududida joylashgan ana shunday mashhur qishloqlardan biri – Narshax. "Buxoro tarixi" asarining muallifi tarixchi olim M.Narshaxiy (X asr) shu qishloqda tavallud topgan. Abubakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy (899–959) Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. 943–944-yillarda "Buxoro tarixi" ("Tahqiqi viloyati Buxoro") nomli asar yozib, uni somoniylar amiri Nuh ibn Nasrga bag'ishlagan. Tuman ma'muriy markazi Vobkent shahri (1981-yildan).

VOBKENTDARYO – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi daryo nomi. Daryo Zarafshon daryosining Buxoro viloyati chegarasiga yaqin joyda tarmoqlanganida vujudga kelgan g'arbga tomon oquvchi tarmog'i. U Vobkent aholi punktining janubidan oqadi.

Vobkent aholi punkti nomining shu yerdan oqib o'tuvchi daryo nomiga ko'chishidan hosil bo'lgan. Etimologiyasi Vobkent bilan bir xil bo'lib, *"bo'z yerdan oquvchi doimiy katta suv oqimi", "qo'riq yerdan oquvchi daryo"* degan ma'noni bildiradi.

VODIL – Farg'ona viloyatining Farg'ona tumani markazi. Ko'pchilik "ochiq ko'ngil" (vo-dil) deb ifodalasa, ba'zilar **Vodil** – "ko'ngilni xush qiladigan, ko'ngilni ochadigan" joy degan ma'noda, deb tushuntiradilar.

Ilmiy tadqiqotlarda arabcha "vodiy" so'zi bilan bog'lovchilar ham bor, arabcha vodiy – soy, daryo so'zidan kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin (Qorayev, 1970). Qishloq Shohimardonsoy darasi og'zida joylashgan. Daryo shu daradan o'tgach, "ochiqko'ngillik" bilan ko'plab joylarga suv beradi. Qishloq nomi ana shundan olingan deyishadi.

VORI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' va Kasbi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Yonidagi Zarmas, Kengqo'l, Tatar qishloqlari aholisi Vari shaklida ham talaffuz qilishadi. XX asrning 70-yillari o'rtasida tog' yonbag'ridagi Vori qishlog'i aholisini Kasbi tumanidagi bo'z yerga ko'chirishadi. Bu qishloq ham Vori deb ataladi.

"Avesto"da vara – devorlari ichida odamlar yashaydigan shahar, istehkom, turarjoy (Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T., 1964. – B. 102).

Nomshunos Z.Do'simovning yozishicha, vara so'zi hozir ham nomlar tarkibida *var, vur, bur, buru* shakllarida uchraydi (Do'simov Z. Xorazm toponimlari. –T., 1985. – B. 17). Qadimgi eroniy tillarga mansub bu so'z joy nomlarining boshida va oxirida muqimlashgan. Uning *Vordon (Shahrisabz), Varaxsha, Vardona, Vardiza, Vardanze* (Buxoro), *Varzik* (Chust), *Vorux* (Farg'ona), *Varag'deh, Varag'zon* (Xorazm) shakllari ham mavjud. Qishloq nomlari oxirida: *Zinvar, Zevar, Vaxshivor* (Sariosiyo), *Bo'riariq* (Qarshi), *Bo'rimetan* (Kitob), *Bo'rixona* (Koson) kabi qishloq nomlari tarkibidagi bo'ri so'zi ham "Avesto"dagi *vara* so'ziga daxldordir.

Dalvarzin (Surxondaryo, Andijon, Toshkent) nomi tarkibida ham *var* so'zi mavjud. Eroniy tillarning ilk o'tmishiga xos *vara* so'zi so'nggi davrlar o'zbek tilining joy nomlari tizimida tovush tarkibi jihatidan o'zgarishga uchragan: *vara→vora→vori→Vori* – tevaragi devor bilan o'ralgan istehkom, qo'rg'on.

VORISTON – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Eron tillarida *vara* – odam yashaydigan istehkom, qal'a, shahar. *Vara-vora-vori* – qo'rg'on, qal'a (Nafasov, 1988:52), *-iston* toponim o'rin-joy yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

VOSHI – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq nomi dastlab *Mirvoshi* deyilgan, keyinchalik bu so'z qisqarib, *Voshi* deb atalgan.

Tarixiy manbalarda, jumladan, "Rashahot"da uchraydi. Naqshbandiya tariqati pirlaridan biri Amir Kalon Voshiy shu qishloqdan bo'lgan. Toponimning aniq etimologiyasi ma'lum emas. Balki, uning nomi bilan atalgandir.



X

XADRA – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. Shayxontohur dahasida Janggoh, Hovuzbog', Gulbozor, Degrez, Sho'rtepa mahallalari bilan chegaradosh va bir tomoni Toshko'chaga tutashgan bo'lgan. Hozir bu yerda "Xadra maydoni", "Xadra" mehmonxonasi joylashgan.

"Xadra" so'zi qo'shma toponim (arabcha "xad" – chegara, forscha "roh" – "yo'l", "ko'cha") "yo'lning chekkasi" degan ma'noni anglatadi. "Xadra" toponimi haqida olimlarning turlicha fikrlari mavjud. Jumladan, Y.G'.G'ulomov, H.T. Zarifovlar "xadra" – "xaddi roh" – "yo'lning chekkasi", "chegarasi", "shaharning chekkasi" degan ma'noni bildiradi, – deyishadi. H.Hasanov ham "xadra" – "xon o'rdasining chegarasidagi yo'l" deb sharhlaydi. F.A. Abdullayev esa "Xadra" – "notekis", "past-baland", "yaroqsiz" ma'nosini bildiradi, – deydi (adrang-adra-hadra). A.R.Muhammadjonov "xadra" so'zi "adirli yer", "yo'lning chekkasidagi yer" ma'nosini anglatishini yozadi. Ehtimol, shahristonning sharqiy darvozasi orqali o'tgan yo'l shaharning baland qismi – "xadra" "notekis", "past-baland", "yaroqsiz" ma'nosini bildiradi, deydi (adrang-adra-xadra). Olimning fikriga ko'ra, qadimda Xadra mahallasining maydoni Registon nomi bilan mashhur bo'lgan. Demak, Xadra mahallasining nomi mahallaning uning notekis, adrli yerda, shaharning chekkasidagi yo'l bo'yida joylashganidan dalolat beradi. U taxminan X–XI asrlarda vujudga kelgan. XIV asrga kelib shahar hududi kengaygan. XIX asrga kelib Xadra mahallasi yerlari shahar markaziga to'g'ri kelib borgan, biroq uning nomi avvalgidek saqlanib kelgan.

Shuningdek, Xadra nomli mahalla nomlari respublikamizning ko'plab hududlarida uchraydi.

XAJIVON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Geografik joy nomining aniq etimologiyasi ma'lum emas. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qadimda haj safaridan qaytayotgan hojilar shu yerda to'xtab o'tishgan, shu sababdan qishloq *Xojivon* deb atalgan va keyinchalik o'zgarib, hozirgi shaklga ega bo'lgan.

XAKAN – Andijon shahrining janubidagi qadimiy qishloq. Fikri-

mizcha, Xakan "xoqon" nomining xalq talaffuzida buzib aytilishidir.

Milodiy V asrda Turk xoqonligi (yangi davlat) tashkil topganida Farg'ona vodiysi ushbu xoqonlik tarkibidagi avtonom hokimlik edi. Andijon shahri tarixini o'rganish maqsadida olib borgan tekshirishlarimiz natijasiga ko'ra, Turk xoqonligiga tobe bo'lgan Farg'ona hokimligining markazi bugungi Xakan qishlog'ida joylashgan va shahar maqomida bo'lgan.

Afsuski, yozma manbalarning yo'qligi ilmiy jihatdan uzil-kesil xulosa qilishga shoshilmaslikni taqozo etadi (zotan, Turk xoqonligi tarixi haqida ham yozma manba saqlanmagan). Bobur ham "Vaqoye" (Boburnoma) asarida Andijonning Xakan darvozasi va Xakan arig'ini bekorga tilga olmagan.

XALA – Namangan tumanidagi ariq nomi. *Xala* so'zi asli fors-tojikcha bo'lib, o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) eshak, tuya kabi hayvonlarni niqtab tezroq yurgizish uchun ishlatiladigan uchli tayoqcha, ya'ni xalacho'p;

2) sanchiq, qattiq og'riq;

3) ko'chma.

Biror ishni amalga oshirishda lozim bo'ladigan turtki; tezlatuvchi omil. Masalan, *Sho'rvaga yiqiling, domla, izzattalab bo'lib, o'zi chaqirishini kutib yursangiz, yovg'onsirab o'lasiz. Xala kerak, xala* (A.Qodiriy. "Obid ketmon")[1].

Shuningdek, o'zbek tilida *"doimo xala, niqtash bilan yuradigan (eshak, ot haqida)"* ma'nosida xalakash (f-t.) so'zi ham mavjud[2].

Ariq nomi *xala* so'zining yuqorida keltirilgan ko'chma ma'nosi asosida vujudga kelgan. Ariqda suv doimo kimningdir turtkisi, tezlatishi hisobiga oqishi bois **Xala** deb atalgan.

Demak, *"xala bilan oqadigan ariq"* ma'nosidagi **xala ariq** otli birikmasi gidronimning etimonidir: *xala ariq > xalaariq > Xalaariq > Xala.*

XALAJIYON// XALAJON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent hamda Samarqand viloyatining Ishtixon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Xalach* (xalaj, kalach) – taxminan VI asrdan Amudaryodan janubda – Toxariston, Seyiston va ular bilan qo'shni viloyatlarda qo'nim topgan turkiy qabilalardan biri. O'rta asrlarda ular tarqoq tarzda O'zbekistonning hozirgi hududida (Qashqadaryo vohasi va Zarafshon vodiysi) ham yashagan. Keyingi asrlarda *xalajilar* ma'lum darajada mahalliy aholi orasida aralashib ketgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 83, 196, и др.).

XALACH – Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari. ***Xalach/Xalaj*** qabilasi nomi bilan atalgan. Rashididdinning "Jome-at-tavorix", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" va boshqa asarlarda tilga olingan. ***Xalachlar*** X asrdayoq hamma turkiy xalqlardan janubda, hozir-

[1] *Qarang.* O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981. – II t. – B. 312–313.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati, 313-b.

gi Afg'onistonning janubiy qismida yashagan. Etnograf B.X.Karmishevaning ma'lumotlariga qaraganda ***xalachlar*** Kabodiyonda va Mug'on cho'lida (Ozarbayjon) o'rnashib qolganlar va fors tilida gaplashganlar.

Mahmud Koshg'ariy ***xalajlar***ni turkiy qabila deb qaragan, lekin ular urug'lar hisoblanmagan. Xalq izohiga asoslanib *"**qal-ach**"* (*och qolinglar*) birikmasidan kelib chiqqan, degan. Hofiz Tanish Buxoriy (XVI asr) "Abdullanoma" asarida ***xalachlar***ni O'g'uzxon avlodi deydi, *qol och* birikmasidan tashkil topgan deb hisoblaydi[1]. Bir qator tarixiy asarlarda ***xalach//xalaj//kalach*** etnonimlari qayd etilgan. M.Mamedovning tadqiqiga ko'ra, ***xalach***lar eroniy tilda so'zlashuvchi xalq, ular Ozarbayjon va Eronda yashaydi. Pushtu tilida **Xalachi/galachi/galazi** – tog' o'g'li, tog'da tug'ilgan demakdir. Ya'ni gar – tog', zi – tug'ilish arab va fors tillarida xallaj (paxta tozalovchi, jun tituvchi, tozalovchi) so'zlari ham shu etnonimga daxldor bo'lishi mumkin[2]. Turkiy va eroniy etnonim oykonimga aylangan[3].

XALQOBOD – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent hamda Xorazm viloyatining Yangibozor tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Nom *xalq* va *obod* so'zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *xalq* so'zi biror mamlakat yoki davlat aholisini, millat yoki elatni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *obod* so'zi ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, *"obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan"* ma'nosidagi so'z, affiks. Demak, Xalqobod – *"biror hudud aholisi, millat yoki elat tomonidan o'zlashtirilgan, obodonlashtirilgan joy"* ma'nosini anglatadi.

XAN – ariq. Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi ariq nomi, Xanariq. Aftidan, Eron tiliga xos "xan" so'zidan. Avesto tilida xan – "manba, quduq" (Toporov, Trubachev, 1962: 227).

XARASHKET – Toshkent viloyatidagi o'rta asr shaharchasi; Chirchiqning chap qirg'og'ida, Shoshning ikkinchi yirik shahri bo'lgan Binkatdan 1 farsax uzoqlikda joylashgan edi. Prof. Y.M.Masson Xarashket "qulonlar shahri" yoki "yovvoyi eshaklar" degan ma'noni anglatadi, deb yozgan (М.Е. Массон, Ахангеран. С. 114).

XARASHXONA – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi *qishloq* nomi. To'g'risi, ***xarajxona*** (***xaraj, xiraj*** – "yer-suv uchun xalqdan olinadigan soliq" demakdir.

Shunday qilib, ***xarajxona*** – *"soliq to'lanadigan joy-qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

XARGO'SH – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi ***qishloq*** nomi.

[1] Buxoriy Hofiz Tanis'h. Abdullanoma. 2 tomlik, 1-tom. –T.: 1966. –B.73.

[2] Mamedov M. Xalq nomlari joy nomlarida. –T.: 1981. –B.28.

[3] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. O'zbekistonning janubiy rayonlari. –T.: O'qituvchi, 1988. –B.191.

Mazkur toponim fors tilidan o'zlashgan bo'lib, ***xar*** – *"katta ulkan, yirik"* ma'nosini ifodalasa, ***go'sh*** – *"quloq, katta quloq, shalpangquloq, ya'ni quyon"* ma'nosini bildiradi.

Demak, shunday hayvonlar ko'p bo'lgan yoki ov qilingan joy asosida shakllangan nom.

XAROS – ovul Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi qishloq nomi. Forscha *xar* – eshak, *as* – tegirmon – hayvon kuchi yordamida harakatga keltiriladigan tegirmon.

XARROT – guzar. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi guzar nomi. Charmgar Roguzar, Beshgumbaz, Qarluqxona mahallalarida guzar nomi – Xarrot. Xarroti, Xarrotguzar degan joy, guzar ham bo'lgan.

Koson, Shahrisabz, G'uzor shaharlarida ham shu nomdagi guzarlar bo'lgan. Samarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlarda Xarrotguzar, Xarroti, Xarrotlik ko'p. Xarrot – arabiy kalima.

O'zbek tiliga X–XIV asrlarda o'zlashgan. Ma'nosi – yog'ochni o'yib, gul, bezak, naqsh soluvchi usta, yog'ochsoz. Yog'och, taxtalarga naqsh o'yib, solib bezak beruvchi usta, eshik, darvoza, ustun, bolor va shiftlarga, peshtoqlarga naqsh soluvchi usta shahar hunarmandlari orasida xarrot deyilgan.

Shahar hunarmandchiligida yog'ochdan qurilish jihozlari yasovchi, uy quruvchi usta duradgor deb atalgan bo'lsa, o'ta didli bezak va naqsh solib, yog'och hunarmandchiligida nom taratgan usta xarrot deb farqlangan. Xarrot+i – xarrot hunarmandchiligi demakdir. Guzar xalqining kasb-koriga nisbat berilib, ularning yashagan, ishlagan, savdo-sotiq qilgan maskanlari nomlangan.

XARROTON – XIX asrda Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla nomi. Mahalla ahli, asosan, yog'ochga ishlov berish bilan shug'ullanishgan. (М.Абрамовю Гузары Самарканда, 1989, В.42-43). Aslida, "***Xarrot***" so'zi arabcha bo'lib, *"yog'ochga ishlov beruvchi usta"* ma'nosini ifodalaydi va ***-on*** forscha ko'plik qo'shimchasi sanalib, -lar, ya'ni ko'plikni bildiradi.

Shunday ekan, "***Xarroton***" toponimi *"yog'ochga ishlov beruvchi duradgorlar qishlog'i"* ma'nosini beradi.

XARTUM – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumaniga qarashli qishloq nomi. Ushbu qishloq nomining asl tarixiy ma'nosi aniq emas. Afrika qit'asining shimoli-sharqidagi Sudan davlatining poytaxti ham Xartum nomli shahardir. Ayrim sudralib yuruvchi va sutemizuvchi hayvonlarning uzun o'sgan burun qismi ham xartum deyiladi (masalan, filniki). Qorinoyoqli molluskalarning ham o'ljasini ushlaydigan nozik xartumi bor. Bularning barchasi arab tilida "xurtum" deya atalib kelgan. Sudan poytaxti Xartum shahri Oq Nil va Ko'k Nil daryolarining qo'shilib, shimol tomonga burilgan joyida paydo bo'lgan. Xaritada go'yo fil xartumiga o'xshab ketadi. Bizning Xartum qishlog'ining jug'rofiy jihatdan joylashgan o'rni hozir Andijonsoy o'rni bo'lmish qadimgi

daryo o'zanining adir bilan kesishgan joyidadir. Agar qishloqning tabiiy o'rni hisobga olinsa, arablar kelganida "xartum" (Xurtum) deb nomlanib qolgan bo'lishi mumkin. U holda qishloq tarixi ming yillarga borib taqaladi.

XATIRCHI – tuman. Navoiy viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududining shimoliy qismi Nurota tog' tizmasi va tog' etagi qiya tekisliklaridan iborat. Janubiy qismi Oqdaryo, Qoradaryo va qisman Zarafshon daryosi vodiylarini o'z ichiga oladi. Tumanga nom bo'lgan xatirchi so'zini mahalliy xalq xachirchi, xachir (uy hayvoni, ot bilan eshak duragayi) sotuvchi deb izohlaydi. O'zbekistonda qadimdan xachir yetishtirish va xo'jalik maqsadlarida ulardan yuk tashishda va ulov tarzida samarali foydalanib kelingan. Xachir O'zbekistonda avtomobil transportining rivojlanishi bilan deyarli yo'qolib ketdi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida xachir so'zi qatir (xatir) shaklida uchraydi. XIX asrning o'rtalarida Buxoroga kelgan rus tadqiqotchisi N.Xanikov joy nomini Xatircha shaklida qayd qilgan. Nomning ilmiy etimologiyasi noma'lum, qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladi. Ba'zan, hayvon turi geografik obyektni nomlashda asos bo'lgan bo'lsa, boshqa vaqtda nom majoziy ma'noda qo'llanilgan bo'lishi ham mumkin.

Taniqli olim S.Qorayev zootoponimni qanday qilib aniqlash mumkinligi haqida shunday yozgan: "Agar joy nomi qandaydir hayvonning nomi bilan bog'liq bo'lsa, unda toponimdan keyin -li, -lik, -xona kabi qo'shimchalar qo'shiladi, agar etnonim bo'lsa, hayvon nomi hech qanday qo'shimchasiz yoki ko'plikni bildiruvchi -lar qo'shimchasi bilan ifodalangan bo'ladi".

Tuman ma'muriy markazi – Yangirabot shahri (1972-yildan). Rabot so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (1981) quyidagicha izohlar berilgan: birinchisi, mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki istehkom qo'rg'on. Ikkinchisi, savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy, uchinchisi, shahardan chetroqdagi turarjoy.

Rus olimi, akademik V.V. Bartold rabot so'ziga boshqacharoq ta'rif bergan. Olimning fikricha, musulmon olami kabi Turkistonda ham islom dushmanlariga qarshi mudofaa urushi olib borish maqsadida rabotlar (to'g'risi, ribot) qurilgan. Ularda g'oziylar dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ulardan doimo xabardor bo'lib turib, hujumlarini daf qilganlar. Hozirgi tushuncha bilan aytganda, rabotlar islom askarlari uchun kazarma vazifasini bajargan.

XAVASH – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. B.O'rinboyev *xavash* – habash – Efiopiya davlati umumiy nomi habash deyilgan. Xavash etnooykonimdir, deb izohlaydi (O'rinboyev, 2003: 187).

Bizningcha, ushbu toponim T.Nafasov asarida tilga olingan qarluq qa-

bilasi nomi *xavash* bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

XAYROBOD – mahalla va qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Mahalliy aholi fikriga ko'ra, Xiva xonligi davrida boshqa millat vakillarini bir yerga joylashtirish maqsadida ushbu hududga olib kelingan va turli millat vakillari bo'lganligi tufayli bu joy notinch bo'lgan va bu yerlarni obod qilish maqsadida Xayrli obod qilamiz deb, Xayrobod deb nomlaganlar.

Demak, xayr-sadaqa orqali obod qilingani ta'kidlanadi.

Ilmiy manbalarga murojaat qilinganda boshqacha ta'riflar ham uchraydi. Xususan, mazkur toponim forscha *Xarabod* so'zi bilan bog'liq. *Xarabod* – "mayxona, ko'ngil ochish joyi yoki so'filarning nola qiladigan, sig'inadigan joyi" degan ma'noni ifodalashi qayd etiladi (Персидско-русский словарь, т. I. С. 543).

Shuningdek, Buxoro viloyatining Vobkent tumani; Andijon viloyatining Paxtaobod tumanlarida aynan shu nomli toponim mavjud bo'lib, u *xayr* – ezgu amal, *obod* – obodon, **Xayrobod** – ezgu amal uchun obodonlashtirilgan degan ma'noda ekanligi qayd etiladi.

XAYROXAYRE – qishloq. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. Buxoro amirligi devonxonasi hujjatlarida ***Xayr oxuri*** (خیر خاریخ) tarzida qayd etilgan. Shu shaklda qabul qiladigan bo'lsak, *"xayrli oxur, barakali oxur"*, ko'chma ma'noda esa *"xayrli maskan"* ma'nosini kasb etadi. Toponim tarkibidagi xayr so'zi har holda joyning ijobiy sifatlarga ega ekanligidan darak beradi.

XIDIRSHA – qishloq. Andijon viloyatining Xonobod shahriga qarashli qishloq nomi. "Кыдырша", "Xidirsho" degan urug' nomidan olingan. Xidirsha qishlog'ining aholisi o'zbeklashib ketgan. "Xidirali" nomi aslida "Xidir eli"dan olingan. Surxondaryo viloyatida ham Xidirsha nomidagi qishloq bor.

XIRABEK – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi qadimiy qishloq nomi. Qadimgi turkiy tilda "kara", "xara" tepalik, o'rtacha baland do'nglik ma'nosida keladi.

Darhaqiqat, Xirabek qishlog'i adirlar yonbag'rida joylashgan. "Boburnoma"da "xarabuk" deb yozilgan. "Xirabek"dagi "bek", bizningcha, tepaliklarning balandrog'i degan ma'noda qo'shilgan bo'lsa kerak.

XIRSXONA – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Fors-tojikcha "xirs" – ayiq va xona so'zlaridan tashkil topgan nom. Mazkur obyektda ayiq yashaganligi uchun shunday atalgan.

XITOY – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Markaziy Osiyoda yashovchi xitoy, ktay qabilasini etnograflar hamda tarixchilar qoraxitoy (qorakidan yoki kidan)lar bilan bog'laydilar.

O'rxun-Enasoy bitiklarida Turk xoqonlariga qaram qabila sifatida tilga

olingan. X asrda kidanlar shimoliy Xitoyni bosib olgach, bu mamlakat ushbu qabila nomi bilan atala boshladi. XII asrda kidanlar davlati tor-mor qilingach, ularning bir qismi g'arb tomon siljidi va kidanlar davlati tuzildi. Davlat Gurxon tomonidan boshqarilib, uning qarorgohi Chu daryosi vodiysidagi Orlovka qishlog'i yaqinida bo'lgan.

XIII asr boshlarida mazkur davlat barham topib, mo'g'ul istilosidan so'ng kidanlar mustaqil xalq sifatida tilga olinmaydi. Ularning nomi ktay (xitoy, xtoy) shakllarida o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz. boshqird va boshqa bir qator turkiy xalqlar tarkibida qabila sifatida uchraydi. Bir davrda mavjud bo'lib, yonma-yon yashagan qipchoq va kidan davlatlari tugatilgach, xitoy va qipchoqlar aralashib yashay boshladilar.

Bu holat Zarafshon vodiysida o'zbeklar orasida ham, Xorazm qoraqalpoqlarida ham seziladi. Xitoy-qipchoq guruhi Qrim va Kavkazdagi no'g'aylar orasida ham uchraydi.

1868-yilda Zarafshon vodiysidagi o'zbeklar haqida ma'lumot bergan V.V. Radlov qitoy-qipchoqlarni bitta qabila deb qaraydi va ularni ikki tarmoqqa – qitoy va qipchoqlarga bo'linadi, deb ko'rsatadi.

XIX asrning 80-yillariga oid yana bir ma'lumotda "...qitoy-qipchoqlar bir-birlari bilan mustahkam aloqada bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, yaqin qarindoshlardir. Ular amirlarga, shuningdek, har qanday hokimiyatga nafrat bilan qaraganlar (Grebenkin, 1878: 99–100), deb yozilgan.

P.P. Ivanov xitoy-qipchoqlarning 1821–1825-yillardagi qo'zg'oloni haqida yozar ekan, "xitoy va qipchoq urug'lari bir-birlariga yaqinlashib ketganlar, sharq mualliflari ularni bir qabila deb bilgan", deydi.

Biroq xitoy va qipchoqlarning yaqinligi qarindoshlik tufayli emas, ko'proq siyosiy ittifoq xarakterida bo'lgan. Chunki mazkur qabilalarning urug' tuzilishlari ham, uronlari ham farqli bo'lib, bu holat ular orasidagi quda-andachilikka yo'l ochib bergan. Agar ular qarindosh bo'lganlarida ichki nikohga yo'l qo'yilmagan bo'lardi (Ivanov, 1958: 29).

Samarqand viloyatida mazkur qabila bilan bog'liq nomlar: Qoraxitoy (Narpay, Oqdaryo), Xitoy, Xitoyquduq (Kattaqo'rg'on), Sarixitoy (Oqdaryo) kabilar uchraydi.

XITOYI POYON – Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi. Ikki o'zakli nom hisoblanadi. Apellyativning ikkinchi qismi "Poyon" so'zi forscha bo'lib, "past, quyi" ma'nosini bildiradi.

Demak, "***Xitoyi poyon***" etnotoponimi "*Quyi xitoy qishlog'i*" ma'nosini anglatadi.

XITOYON – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi *qishloq* nomi. ***Xitoy*** – *qadimiy o'zbek qabila-urug'laridan biri.* Qozoq, qoraqalpoq, boshqirdlarda ham *kitay, ktay* qabilasi bo'lgan. B.X.Karmishevning aniqlashicha, XX asr boshida ***Xitoyon qishlog'i***da turkmanjuzlar yashagan. *-yon* affiksi tojikcha bo'lib, kishilar guruhining jamoasini bildirgan. ***Xitoyon*** – *xitoylar* demakdir.

Qishloq nomi turkiy, mo'g'ul xalqlariga mansub qabiladan olingan. Toponimda tovush o'zgarishi ro'y bergan: ***kidar// kidon// kidan. Kidar// kidanlar*** qadimgi xunnlarning avlodi sanalib, milodning 5-asrida Qashqadaryo hududini zabt qilgan. Mo'g'ullar tarkibidagi ***kidar/kidan/kidonlar*** XII asrda Turkiston hududiga ko'chib o'tishgan, qadimgi ***kidar/kidan/kidonlar*** bir necha turkiy, jumladan, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, boshqird xalqlari tarkibiga kirib, singib ketgan. Qozoq, qoraqalpoq, qirg'izlarda ***qitay/qtay***, boshqirdlarda ***xtay-argin, ktay-kipchak, xipchak-ktay, kuzgun-qatay, karachaxitoy, katay, xitay, kitay, xitoy, ktay, xtoy*** kabi qabila, urug'lar bo'lgan.

Demak, ***Xitoyon*** toponimi xitoy+on→xitoyon tarzida hosil bo'lib, ya'ni xitoylar, *"xitoy qavmiga mansub kishilar yashaydigan manzil, qishloq"* ma'nosini anglatadi[1].

XITOYUZ – Samarqand viloyatining Tayloq tumani hamda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanlaridagi qishloqlar nomi. ***"Xitoyuz"*** nomi etnotoponim bo'lib, yuzu urug'ining bir shoxobchasi sanaladi.

XIVA – shahar va tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. U o'sha davrlarda Buyuk ipak yo'lida joylashgan bo'lib, rivoyatlarga qaraganda, Xivaning ko'hna qismi o'rnida (hozirgi Ichan qal'a o'rnida) sahro bo'lgan. Maridan Gurgan tomon (hozirgi Ko'hna Urganch) o'tadigan (hozirgi "Ipak yo'li"ning shimoliy shoxobchasi) hududda karvonlar yurgan. Bu yerdan o'tadigan yo'l bo'yida toza suv saqlanadigan Xivaq nomli quduq bo'lgan. Bo'lg'usi shaharning nomi ham ana shundan kelib chiqqan. Bu Xivaning bunyodga kelishi haqidagi rivoyatlardan biri (A.Abdurasulov. Xiva, 1997).

Prof. Z.Do'simovning fikrlariga ko'ra, nomning etimologiyasini Xorazmiy tilidan izlamoq kerak, chunki nomning qadimiyligi buni taqozo qiladi. Xorazmiy tili bilan qarindosh deb hisoblangan osetin tilida ko'pgina xorazmiy so'zlar saqlangan. Bu toponimiyada ham o'z aksini topadi. Nuxos, Pirnaxos, Darxos toponimlari Osetiyada ham uchraydi.

Shunday ekan, Xiva toponimini hozirgi Osetiya toponimiyasidagi **Xi-auv** – "qishloq" so'zi bilan bog'lash mumkin.

Demak, Xivak yoki Xiva "kichik qishloq" ma'nosini anglatadi (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 141-bet). Xiva shahri 1990-yil 12-dekabrda YUNESKOning umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi va "Xiva – sharq gavhari" deb e'tirof etildi.

XIZIR ELI – qishloq. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Ushbu qishloqning nomini afsonaviy Xizr nomi bilan bog'lashadi. Xizr – islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur'onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur'onda

[1] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. -T.: Navro'z. 2020. -B.68-69.

"Allohning quli" nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar. Xizrga odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni qo'llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan. U hayot bulog'idan "obi hayot" ichgan va umri boqiy bo'lgan.

XOJA DIYDOR – Samarqand viloyati va Samarqand shahridan shimoli-sharq tomonda joylashgan qo'rg'on. "Boburnoma"da Zahiriddin Boburning 1497–1501-yillarda Temuriylar saltanatini egallash uchun kurashlari voqealarida eslatilgan. Bobur 903 (1497)-yili ma'lum muddat Samarqand shahrini qamal qilib, so'ngra qishlov uchun Xoja Diydor qo'rg'oniga boradi; 1500-yili Samarqandni qayta olganida, Shayboniyxon dastlab Xoja Diydorda turgan, so'ngra Buxoroga chekingan. Bobur 1501-yili, to'rt oylik qamaldan so'ng, o'sha yilning kuzida shaharni tark etadi. U Shayxzoda darvozasidan chiqib, Xoja Diydor orqali yurib, Dizak (Jizzax)ga boradi.

XOJA KATTA – Andijon shahri atrofidagi mavze. Zahiriddin Bobur 908 (1502–1503)-yili Tanbalga qarshi janglar olib borganida, g'animning parokanda bo'lganini eshitib, Andijonga qarab yuradi. Sulton Ahmad Tanbalning inisi Muhammad Kalpuk shahardan chiqib, ikki o'rtada to'qnashuv bo'ladi. Kalpuk shaharga chekinadi. Mazkur janglarning bir qismi Xoja Katta mavzeyida kechgan.

XOJA KAFSHIR – Samarqand shahri atrofidagi mavze, shaharning janubiy tomondagi devoriga o'rnatilgan So'zangaron darvozasidan chiqqan yo'nalishda joylashgan. "Boburnoma"da 901 (1495–1496)-yil voqealari bayonida Samarqandda tarxonlar isyoni, Boysung'ur Mirzo bilan Sulton Ali Mirzo o'rtasidagi urush-talashlar, Boysung'ur Mirzoning qochib, Xoja Kafshirga Xojago Xojaning uyiga borgani haqida so'z boradi. Asardagi 906 (1500–1501)-yil voqealari tafsilotlarida esa, Bobur askarlari bilan Shayboniyxon askarlari o'rtasidagi to'qnashuvlar bir qismi Xoja Kafshirda yuz bergani aytilgan. "Yana bir navbat Qosimbek yigitlarni boshlab, So'zangaron darvozasidan chiqib, o'zbaklarni Xoja Kafshirg'acha qavlab, bir necha o'zbakni tushurub bosh kesib keldi".

XOJA KORDZAN – Samarqand shahri atrofida janubi-g'arbiy yo'nalishda joylashgan mavze. "Boburnoma"da 901 (1495–1496)-yil voqealari bayonida Boysung'ur Mirzo bilan Sulton Ali Mirzo o'rtasida Samarqand taxti uchun kurash munosabati bilan eslatilgan. So'ngra 906 (1500–1501)-yil voqealari bayonida Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxonga bergani va Shayboniyxon Xoja Kordzan mavzeyida Xoja Ahrorning o'g'li Xoja Yahyoni va uning ikkita o'g'lini o'ldirtirgani aytilgan. "Xoja Yahyodin chun Shayboniyxon mutavahhim edi, ikki o'g'li Xoja Muhammad Zakariyo va Xoja Boqiy bila Xuroson sari ruxsat berdi. Keynidin bir necha o'zbak borib, hazrati Xojani iki yigit o'g'li bila Xoja Kordzan navohisida shahid qildilar".

XOJAMETOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Otako'l" OFY hududida joylashgan aholi punkti nomi. Hammamizga tarixdan ma'lumki, Xojamet ismli bolis bo'lgan va aholi punktining nomi shu kishining ismiga qo'yilgan.

XOLMUROT BAKOVUL – Samarqand uyezdidagi Quyiqishloq, qishloq jamoasidagi toponim. Mazkur toponim 1926-yilgi aholi ro'yxatida tilga olinmagan. Xolmurot bakovul qishlog'i Usta Abdulla, Vatak, Jartepa, Qurbonqul amin qishloqlari bilan bir hududda joylashganligiga ko'ra, u hozirgi Urgut tumanining shimoli-sharqiy tomonida bo'lganligi ko'rinib turibdi. Bakovul taom xonga tortiq qilinishidan oldin tatib ko'ruvchi shaxs (Мукимханская история. 1956: 277). Bu o'rinda qishloqda yashab, to'ylarda bakovullik qilib obro' orttirgan shaxs nomining toponimga ko'chishi kuzatiladi.

XONAQO – qishloq. Farg'ona viloyatining Toshloq hamda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanlaridagi qishloq nomi. Bu joyda istiqomat qiluvchi keksalarning gapiga qaraganda, qishloqda bir paytlar xonlar avlodidan bo'lgan boy kishi yashagan va u el ichida "Xon aka" nomi bilan mashhur bo'lgan. "Xon aka" birikmasi keyinchalik fonetik o'zgarishlar natijasida **Xonaqa** ko'rinishiga kelgan. Izoh, alabatta, xalqona etimologiyaga asoslangan bo'lib, bizningcha, toponimning yuzaga kelishi *xonaqoh* termini bilan aloqador bo'lsa kerak.

O'TILda terminga quyidagicha izoh berilgan: **Xonaqoh** [f. خانقاه – xilvatxona, uzlat; darvishlar makoni]:

1. Masjidning namoz o'qiladigan, odatda katta va keng xonasi.

2. So'fiylar mashg'ulotlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan katta xona va uning atrofidagi hujralar.

3. Mahalla, qishloq masjidlarining tomi gumbazli yoki tekis bo'lgan qishki qismi (O'TIL, 4-jild. 412-bet).

Xonaqoh leksemasi bilan yasalgan joy nomlari O'zbekiston toponimiyasi uchun xarakterli hisoblanadi. Chunonchi. Xorazm viloyatidagi *Xonqa*, Qashqadaryo viloyatidagi *Xonaqa*, Andijon viloyatining Asaka tumanidagi *Xonaqo* yoki respublikamizning turli hududlariga tegishli bo'lgan *Xonaqohmaydon, Uyshunxonaqoh* toponimlari shu termin asosida hosil qilingan.

Shunday ekan, biz tadqiq etayotgan qishloq nomi ham qadimda ushbu hududda *xonaqoh* bo'lganligi bois uning nomi asosida shakllangan va tildagi turli o'zgarishlar natijasida hozirda *Xonaqa* tarzida yuritilmoqda.

XONAMAK – ariq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani Rovut qishlog'idagi ariq. Gidronim haqida bir necha qarashlar bor:

1. Namangan viloyati toponimlarini o'rgangan T.Nu'monov, B.Turdaliyev, A.Haydarovlar Xonamak gidronimi etimologik jihatdan Namangan polisonimi bilan aloqador bo'lsa kerak, degan fikrni bildirishadi va: "ariq tepaliklar orasidan chiqadi.

Ehtimol, u yerdan qadimda tuz (namak) olingan. Tojikcha izofaviy birikma *kon namak* birikmasi fonetik jihatdan o'zgarib, Xonamak tarziga kelib qolgan bo'lishi mumkin", degan xulosaga kelishadi[1]. Ularning talqinicha, Xonamak gidronimining etimoni – tuz koni ma'nosidagi *kon namak* forsiy izofali birikmasi bo'lib, gidronimning shakllanish jarayoni quyidagicha: *koni namak > kon namak > Konnamak > Xonnamak > Xonamak.*

Bizningcha, ariq joylashgan hududda tuz koni bo'lmagan. Shuningdek, ulardagi mahalliy aholi – o'zbeklar. Shu bois gidronimni tojikcha lug'aviy birlik, ayniqsa, forscha izofaviy birikma asosida shakllangan degan xulosaga kelish o'rinsizroq.

2. Ayrim mahalliy aholi vakillarining fikricha, Xonamak gidronimi ikki ma'noli qismdan tashkil topgan: *xon* va *amak*. *Amak* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *amaki* so'zining qipchoq lahjasidagi fonetik varianti. Ariq Qo'qon xonligi davrida kavlanganligiga ko'ra **Xonamak** deb nomlangan. Demak, bu talqinga ko'ra, *xon amaki* birikmasi gidronimning etimoni hisoblanadi. Otli birikma onomastik konversiya usulida gidronimga o'tgan: *xon amaki > xon amak > xonamak > Xonamak.* Bizningcha, *Xonamak* gidronimi *xon amak* morfemalaridan iborat bo'lib, unda *xon* so'zi o'z ma'nosida, *amak* so'zi "ariqcha" ma'nosida qo'llangan. *Amak* gidronimik indikator bo'lib, izohli lug'atda qayd etilmagan, biroq o'zbek shevalarida *uchamak, beshamak* so'zlari tarkibida aynan ariqcha ma'nosini anglatadi. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *beshamak* so'zi berilgan va: *"O'qariqdan suv olib, besh-o'n egatga birdan suv taratib sug'orish usuli va shunday ariqcha"* deb izohlangan[2].

Demak, *xon qazdirgan amak* otli birikmasi *Xonamak* gidronimining etimonidir. Gidronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *xon qazdirgan amak > xon amak > xonamak > Xonamak.*

XONARIQ – Toshkent viloyatidagi kanal. M.Y. Masson so'zlariga qaraganda, kanalning to'g'ri nomi **Kanarik**: qadimiy *kann* – "katta, buyuk" (M.E.Массон. К истории горного дела на территории Узбекистана. –Т., 1953. –С.14). V.V. Bartoldning **Xanariq** Qo'qon xoni Madalixon davrida qazilgan bo'lib, uning nomi *xon* termini bilan bog'liq bo'lgan.

XONOBOD – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Qo'rg'ontepa tumaniga qarashli sobiq qishloq (hozir shahar) nomi, Xonobod nomida qishloqlar anchagina bor (Namangan, Xorazm, Ohangaronda va boshqa joylarda). Xonlar tomonidan chek berilib, o'rnida paydo bo'lgan qishloqlar shunday

[1] *Qarang.* Turdaliyev B., Nu'monov T., Haydarov A. Namangan viloyati toponimlaridan materiallar. – Namangan, 1995. – B. 75.

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 1-j. – B. 245.

atalib ketgan. Andijondagi Xonobod qishlog'i qaysi xon sha'niga atalgani haqida qo'limizda ma'lumot yo'q. Biz to'plagan ma'lumotlarda aytilishicha, Xudoyorxon har yili bahorda Navro'z bahonasida "Bibi seshanba" ("Bu shishanbi") nomidagi ziyoratgohga kelib turgan (Xonobod yo'lidagi qadimiy joy). Shundan Xonobod qishlog'i Xudoyorxon nomi bilan bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri. Mahalliy aholi vakillarining qayd qilishicha, bu joylarga qadimda xon vakil yuborib, bu yerlarni obod qildirgan va shundan keyin Xonobod deb atala boshlagan. Biroq qaysi xon tomonidan amalga oshirilgani to'g'risida ma'lumot yo'q.

Ilmiy manbalarda xonlar tomonidan obod qilingan yerlar, hududlarga chek berilib, so'ngra o'sha hudud shunday nomlanib kelingani ta'kidlangan (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977.).

XONQA – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik, mazkur tumanning markazi, shaharcha. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, shaharning nomi X asrgacha Darxos bo'lgan. *Dar* – "uzoq, yiroq" va *kas* yoki *xos* – "qishloq, qo'rg'on", ya'ni "Uzoqdagi qo'rg'on, yiroq" ma'nosini anglatgan.

Keyinchalik Xonqa yoki Xonaqoh deb atalgan. Y.G'ulomovning yozishicha, shaharda mashhur yassaviycha Said otaning o'g'li yoki jiyaniga atab qurilgan xonaqo bo'lgan. Shahar mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilgan va faqat xonaqo saqlanib qolgan. Keyinchalik xonaqo atrofida hayot boshlangan. Natijada bu xonaqo shahar nomiga aylangan. Xonaqoning Xonqaga aylanishi isbot talab qiladi. Chunki Xonaqodagi *a* tovushi pozitsiya jihatdan ancha mustahkam va uning tushishi Xorazm shevalari uchun xarakterli emas (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 1977. 142-bet).

Demak, mazkur toponimning etimologiyasi hali ham aniqlik talab etadi.

XONQIZ – Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi qishloq. Toponimning kelib chiqishi haqida xalq orasidagi "xonning qizi" haqidagi rivoyat afsonadir. Aslida nom ikki komponentdan – Xon va Qiz geografik terminlaridan tuzilgan.

Xon, xan so'zlari E.Murzayevning fikriga qaraganda, zardushtiylarning "Avesto" kitobida ham uchraydi. Bu so'z "quduq, chashma buloq" ma'nosini bildiradi. *Qiz* yoki *xis* termini esa "balandlik, yuqori" ma'nolariga ega. Fors tilida ham *xis* so'zi shu ma'noni ifodalaydi.

Demak, **Xonqiz** – *"qizbuloq, yuqori buloq"* ma'nosidadir. Xonlik davrlarida devor bilan o'ralgan istehkom "kuren" deb nomlangan; bostirma paytida atrofdagi odamlar shu yerda yashirinishgan (Документы архива Хивинских ханов. – М., 1967. С. 41).

Kuren, shuningdek, "boshpana" "istehkom" degan ma'nolarni ham anglatadi (Материалы по истории киргизов и Киргизии, вып. I, –М., 1973. С. 243). Ruscha *kuren* shu so'zdan kelib chiqadi. O'zbek tilidagi *ko'ch-ko'ron* – "ko'chirish paytidagi uy-ro'zg'or buyumlari" ham ushbu mo'g'ulcha so'z bilan bog'liq.

XONZİ – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim bilan o'zakdosh va unga shaklan yaqin bo'lgan ikki komponentli "*xoni+zeh*" (زاخ ىن) terminining "*xonzi*" ko'rinishidagi o'zgargan, dialektal shaklidir, chunki fors tilida *xoni*-**hovuz**, **zeh-lab, chekka**, ya'ni "*hovuz labidagi, hovuz chekkasidagi qishloq*" ma'nosi hosil bo'ladi. Ayrim manbalarda esa mazkur toponimning "*xonning izi*", ya'ni "*xon, hukmdor qadami tekkan joy*" ma'nosida ham talqin qilinishi qayd etiladi (Halim To'rayev. Buxoro toponimikasi. –Buxoro, 2015. – B. 92-93).

XONCHARVOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. **Xoncharvoq** toponimi "*Xonning charbog'i*" ma'nosini anglatadi.

XORAZM – viloyat. Mamlakat tarkibidagi viloyat nomi, ma'muriy-hududiy birlik. Dunyodagi eng qadimgi joy nomlaridan biri. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da (mil. avv. X–XX asrlar) *Hvairizm* yoki *Hvayrizem* shaklida, qadimiy fors yozma manbalarida – Huvarazmi va VI asrda ijod qilgan buyuk yunon tarixchisi miletlik Gekatey asarlarida esa *Xorasmiya//Xorazmiya* shaklida qayd etilgan.

Gerodot bu ma'lumotni tasdiqlagan. **Xorazm** arab geograflarining (IX–XI asrlar) asarlarida **Xvarizm** sifatida uchraydi.

Xorazm nomining kelib chiqishi to'g'risida bir nechta fikrlar mavjud. Arab geograflari – Muqaddasiy va Yoqut Hamaviyning Xorazm nomining paydo bo'lishi haqida yozganlarida afsona keltirilgan: shoh g'azablanib, bir nechta fuqarolarini inson yashamaydigan joylarga badarg'a etishni buyurgan. Biroq u yerda o'tin va go'sht (ya'ni Amudaryodagi baliqlar) mo'l bo'lgan. Quvg'inlar bu o'lkani o'zlashtirib, unga Xorazm (*xova* – go'sht, *razm* – o'tin) deb nom berishdi. Ammo bular xalq afsonalari hisoblanadi.

Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, Xorazm so'zi ikki komponentdan iborat. Toponimning ikkinchi komponenti (*zmii, zim, zem*) "yer", "o'lka", "joy" degan ma'noni anglatishiga hech kim shubha qilmaydi. Biroq *xvar* yoki *xor* birinchi komponentning paydo bo'lishi munozarali hisoblanadi.

Ba'zilar uni "unumdor joy", boshqalari – "yomon yer", uchinchilar – "pasttekislik" deb izohlaganlar (С.П.Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л., 1948. С. 80, 87).

M.N.Bogolyubovning fikriga ko'ra, Xorazm toponimi uchta tarkibiy qismdan iborat: *xuvar* (vara) – *zim*.

Eron tillarida *var (vara)* – "devor", "to'siq", "qal'a", "o'tar", *zim (zem)* – "yer", "o'lka", *hu* – "yaxshi" degan ma'nolarni anglatadi; shunday qilib, Xorazm – "yaxshi o'tarlarga ega bo'lgan mamlakat", "chiroyli o'tar – varalarga ega yer" degan ma'noni anglatadi (М.Н.Боголюбов. Древнеперсидские этимологии, сб. "Древний мир" посвященный академику В.В.Струве. – М., 1962. С. 368–370).

XORISTON – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomi. Xoriston (forscha) – tikanlar, tikanli o'simliklar ko'p o'sadigan joy.

XORKASH – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent, Shofirkon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Forscha *xorkash* – yoqilg'i sifatida sotish uchun dashtda tikan, cho'tka, o'lik daraxt yig'adigan kishi.

XORSAFED – qishloq. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Forscha *xor* va *seyf* – oq tikanak (o'simlik) ma'nosini anglatadi.

XOSOVUL – Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim xos va ovul so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti ***xos***, aslida, forscha bo'lib, "ovul, qishloq, istehkom" kabi ma'nolarni anglatadi.

Uning ikkinchi qismi ***ovul*** so'zi esa indikator hisoblanib, turkiy tillarning ko'pchiligida uchraydi. Jumladan, ***ag'al, avil, ovul*** kabi variantlarga ega bo'lib, *"to'xtash joyi, atrofi o'ralgan joy, mollarni qamash uchun qo'ra"* kabi ma'nolarga ega (Murzayev, lug'at, 38).

E.M.Sevortyanning qayd qilishicha, bu so'z *"uy, qishloq, yashash joyi, qishloq jamoasi"* ma'nolarini anglatuvchi eng qadimgi so'zdir (Sevortyan, 1978).

Ushbu so'z turkiy tillardan fors va tojik tillariga o'tgan. Hozirgi kunda Qozog'iston, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlatlarida joy nomlari sifatida va ularning tarkibida indikator vazifasida uchraydi. ***Bo'zag'il, Dashag'il*** (Ozarbayjonda) kabi toponimlar mavjud.

Demak, **Xosovul** toponimi *"atrofi o'ralgan joy, qishloq"* ma'nosini anglatadi (Bu haqda qarang: O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. ...dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.).

XOSYON – mahalla va qishloq. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlari. **"Xosiyon"** – forscha "xistyon" so'zidan olingan bo'lib, "tanlangan, saralangan" degan ma'noni ifodalaydi. Vaqtlar o'tishi bilan mahalliy sheva vakillarining nutqida *"xosyon"* shaklida qo'llanila boshlangan. Buni faqat dastlabki ma'lumot sifatida qarash lozim, chunki mazkur toponim bo'yicha boshqacha yondashuvlar ham bor. Ular hozircha o'z tasdig'ini topmagan.

Aslida, Xosyon forscha "xos – ovul, qishloq, istehkom" va o'zbekcha "yon – tomon, chekka" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, *"chekkadagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi.

XOSRABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholi qishloq nomini *"xohish bilan tashkil qilingan qo'rg'on"* deb izohlaydi.

Nom *xos* va *rabot* so'zlaridan iborat. Apellyativning birinchi komponenti – *xos* so'zi *imtiyozga ega aholi*ni yoki *yuqori tabaqa vakili*ni bildiradi. Uning ikkinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* degan ma'nolarni anglatadi (qarang: ***Gulrabot***).

Demak, Xosrabot – *"imtiyozli aholi yoki yuqori tabaqa vakillari yashaydigan qishloq"* deganidir.

XOTUNKAT – O'rta asr shahri, Shosh poytaxti Binket (Toshkent) shahridan 2 farsaxda joylashgan. Shahar "Hudud ul-olam" (24b-varaq), Istaxriy (БАГ, II, С.386), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 48, 264); xitoy manbalarida turkiy shaklda qayd etilgan (Бичурин. Собрание сведений о народах, т. I. – М., – Л., 1950. С. 288). *Xatun* so'zi (arablashgan shakl) yoki *qatun* – eski turkcha "malika, xotin", "xonning rafiqasi" – Xotunkat va "xon rafiqasining shahri" degan ma'noni anglatgan.

XOVOS – tuman. Sirdaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan. Relyefi pasttekislik, qir, baland adir va tog'lardan iborat. O'rta Osiyodagi eng kuchli shamollardan biri Xovos shamoli nomi bilan yuritiladi. Xovos shahri avtomobil va temiryo'l chorrahasida joylashgan.

Xovos qadimiy shahar, u dastlab X asr arab geograf va sayyohlari Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Hozirgi Xovos shahri 1899-yili chor Rossiyasi tomonidan Ursatyevskaya temiryo'l stansiyasi sifatida barpo etilgan. Tuman 1955-yildan 1966-yilgacha Boyovut, 1966-yildan 1975-yilgacha Yangiyer tumani nomi bilan yuritilgan. Tuman hududi, asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan, relyefi notekis. Mutaxassislar nomning etimologiyasi aniq emas, qo'shimcha etimologik tadqiqotlar talab qiladi, deb yozganlar.

E'tiborli tomoni shuki, joy nomlari asrlar osha yashab, ko'p hollarda o'tmish "guvohlari" sifatida ko'p voqea-hodisalar haqida "hikoya qilib beradi". So'nggi vaqtlar Xovos so'zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan aniqlandi. Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 – Agra, 1756 – Dehli) "Charog'i hidoyat" lug'atida mahalliy forsiy tilli xalq xavos so'zini avom, xizmatkor ma'nosida qo'llashini ta'kidlagan.

XOVOSI – Samarqand shahridagi mahalla nomi. XVIII asrda Samarqand shahrining shimol tomonida bunyod etilgan mahalla nomi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, В.37).

Hozirgi Sirdaryo viloyatining Xovos tumani hududidan ko'chirib keltirilgan aholi yashaydigan maskani bo'lgani uchun shunday nom olgan.

XUDOYON – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. *Xudo* – hukmdor, shoh, *-yon* – ko'plik affiksi; xudoyon o'rniga tez-tez xudat so'zi ishlatilgan; masalan, Buxoro hukmdori musulmon davrida buxorxudot unvoniga ega bo'lgan, Chag'oniyon hukmdori (Surxondaryo vodiysi) – *chag'onxudot* (qarang: ***Xudoyzod***).

XUDOYORXON – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Qishloq Qo'qon xoni Xudoyorxonning (1845–1875) ko'plab yer ulushidan birida paydo bo'lgan.

XUDOYZOD – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi qishloq nomi. Arablar kelishi va islom dinining tarqalishidan oldin *xudo* (xuday) so'zi hozirgiday "Xudo"ni emas, shunchaki oddiy "mezbon", "janob", "podshoh, *zoda* (zod) bo'lsa – "tug'ilgan", "o'g'il" (xudoyzod – xo'jayinning o'g'li) ma'nosini anglatgan.

XUDOYNKAT – Shosh viloyatidagi Benaket (keyinchalik Shohruxiya) shahridan uzoq bo'lmagan Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan o'rta asr shahri. **Xudoynkat** (sug'dcha) – "shoh xonim shahri" ma'nosini bergan (В.В.Бартольд. Сочинения, т. I. С. 226). Islom dini qabul qilinishigacha *xudo* so'zi "xo'jayin", "janob", "hukmdor" degan ma'nolarni anglatgan.

XUMDONAK – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi *qishloq* nomi. G'isht, sopol buyumlar pishiriladigan ustaxona ma'nosidagi ***xumdon*** so'ziga ***-ak*** kichraytirish affiksi qo'shilib yasalgan toponim.

Shunday ekan ***Xumdonak*** toponimi – "*kichik xumdonli* **qishloq**" ma'nosini ifodalaydi.

XUMSON – Toshkent viloyatidagi qishloq va soy nomi. Xumson xumga o'xshagan soy so'zidan olingan, degan fikr bor. Lekin tojikcha *xun* so'zidan olingan bo'lishi ham mumkin. Bunda *xun* – o'ch olish ma'nosida qo'llanilgan.

XURJUNQO'TON – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tosh nomi. ***Xurjunqo'ton*** tabiat tomonidan yaratilgan tosh mo'jizalari: tosh shaklidagi ilon, barmoq shaklidagi toshlarga boy.

Oronimga **xurjun** va **qo'ton** apellyativlari lug'aviy asos bo'lgan. O'zbek tilida **xurjun** so'zi "*yuk solinadigan qop, xalta*" va **qo'ton** so'zi ko'p ma'noli va omonim sifatida "*qo'y yoki mol qamaladigan katta qo'ra yoki maxsus bino; qo'yxona, molxona*" ma'nolarida qo'llanadi. Mazkur apellyativlar oronim tarkibida ana shu ma'nolarda qo'llangan.

Demak, ***Xurjunqo'ton*** oronimi *xurjunga o'xshash qo'y va mollar qamaladigan, soyalab salqinlashi uchun xizmat qiladigan toshli joy* ma'nosiga ega (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

XUROSON – mamlakat, tarixiy o'lka. Ma'muriy jihatdan XV asrda Temuriylar davlati tarkibida bo'lgan. Movarounnahr va Xuroson ma'muriy-hududiy jihatdan XV asrning 50-yillarida ma'lum vaqt va Sulton Abusaid vafotidan

(1468) so'ng uzil-kesil ikkita siyosiy-ma'muriy birlikka bo'linib ketdi.

Zahiriddin Bobur siyosiy maydonga chiqqanda Xurosonni Sulton Husayn Mirzo, ya'ni Husayn Boyqaro (1469–1506) boshqarardi. U ota tomondan Mirzo Umarshayx va ona tomondan Mirzo Mironshoh avlodi sanalgan.

"Boburnoma"da bu haqda: "Sulton Husayn Mirzo karimut-Tarafayn edi, asl podshoh edi", deyilgan (B.128). Umuman olganda, "Boburnoma"da Xuroson o'lkasining XV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bog'liq anchagina muhim tafsilotlar mavjud.

Temuriylar davlatining Xurosondagi hukmdori Sulton Husayn Mirzoning davlatdorlik bobida olib borgan siyosati va amaldagi ishlari, viloyatdagi ichki nizolar, feodal tarqoqlik, Zahiriddin Bobur 1506-yili Sulton Husayn Mirzo taklifi bilan shayboniylarga qarshi jang qilish maslahati uchun Kobuldan Xurosonga kelishi, Sulton Husayn Mirzoning vafoti, undan keyin uning o'g'illari Badiuzzamon va Muzaffar sheriklikda podshoh bo'lganlari, Boburning Hirot temuriylari bilan Murg'ob daryosi vodiysida uchrashuvi, ularning taklifiga binoan qisqa muddat, 1506-yil dekabrning dastlabki yigirma kuni Hirotda bo'lgani va Hirot shahri topografiyasi haqida yozib qoldirgan nodir ma'lumotlari, Shayboniyxonning 1507-yili Xurosonga yurish qilib, Hirotni egallagani, Safaviylar bilan Shayboniylar munosabatlari, jumladan, Marvda Shayboniyxon bilan Shoh Ismoil o'rtasida bo'lgan jang va Shayboniyxonning o'limi, 932/1525–1526-yil voqealari bayonida Buxorodan Ubaydullaxon cherik tortib kelib Marv shahrini egallagani, 935/1528-yil voqealari bayonida Shayboniylar davlatidan Marvda 105 ming kishilik lashkar yig'ilgani va Shahzoda Tahmospning Iroqdan qirq ming askarni boshlab kelib, Domg'onda, so'ngra Jom atrofida janglar qilgani, g'alabaga erishgani tafsilotlari ana shular jumlasidandir.

Zahiriddin Bobur Xurosonning Sulton Husayn Mirzo saltanati davridagi madaniy-ma'naviy hayoti haqida ham nodir ma'lumotlar keltirgan. "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajib zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay" (B.136–137).

XUZOR – hozirgi nomi G'uzor, Qashqadaryo viloyatidagi shahar va tuman. "Boburnoma"da viloyat maqomida Xuzor viloyati deb qayd etilgan va ma'muriy jihatdan poytaxt Samarqandga bo'ysungan. Shuningdek, Zahiriddin Bobur 1500-yili Samarqand shahrini Shayboniyxondan olganida Xuzor viloyati ham ma'lum vaqt uning ixtiyoriga o'tgan.

XUSHRABOT – Samarqand viloyatining Payariq tumanida Xidireli turkmanlari yashayotgan qishloq. Xushrabot "yoqimli karvonsaroy" degan ma'nodadir (Атаниёзов, 1980: 347).

XO'BON – tarixiy kent. Andijon shahri yaqinidagi kent. "Boburnoma"-da 905 (1499–1500)-yil voqealari bayonida Zahiriddin Bobur Xo'bon kenti va uning atroflarida Sulton Ahmad Tanbal va Jahongir Mirzoga qarshi jang qilgani yozilgan. "Tanbal Jahongirni olib, o'ng yonimizdin evrulub Xo'bon degan kentgakim, Andijon sari yonimizda bizdin uch yig'och bo'lg'ay edi, kelib kirdi... Xo'bonning sharqi-janub tarafidan Saqo otliq kentgakim, Xo'bondin bir shar'iy bo'lg'ay, yetishib edukkim, g'anim kishisi Xo'bon kentidin yasab chiqti. Biz ham ildamroq-o'q yuruduk... Xo'bon kentiga-o'q tushtuk. Mening avval masof urushi urushqonim ushbu edi. Tengri taolo o'z fazl va karami bila fath va zafar ro'ziy qildi" (B.72).

XO'JA – Samarqand viloyatining Jomboy, Payariq, Ishtixon, Paxtachi tumanlarida – ***Xo'ja***; Narpay, Kattaqo'rg'on tumanlarida – ***Xo'jalar***; Urgut tumanida – ***Xo'jaabdal, Xo'jaguzar, Xo'jaido'q***; Qo'shrabot tumanida **Xo'jaliq**; Narpay tumanida ***Xo'jakarson, Xo'jaqo'rg'on***; Bulung'ur tumanida ***Xo'jamazgil***; Jomboy tumanida ***Xo'jaobod, Xo'ja qishloq***; Samarqand tumanida ***Xo'jasoat, Xo'jag'ulom, Xo'jag'unjayish***; Tayloq tumanida ***Xo'jayuz***; Paxtachi, Urgut, Pastdarg'om tumanlarida ***xo'ja*** so'ziga *-lar, -liq, -doq, -dek* affikslari va *abdal, guzar, korson, obod, mazgil, soat, g'ulom, g'unjayish, yuz, qishloq* so'zlari qo'shilib kelgan.

Samarqand viloyatidagi ba'zi joy nomlarida ***xo'ja*** so'zi boshqa so'zga qo'shilib kelgan holatda uchraydi: *Safoxo'ja, Sarixo'ja, Xotamxo'ja, Tursunxo'ja, Mo'minxo'ja, Bo'ronxo'ja, Mullaxo'ja, Yodgorxo'ja, Beshbegixo'ja* kabilar. Ularning ba'zilari kishi nomiga xo'ja etnonimining qo'shilishi natijasida joy nomi paydo qilgan: *Xotamxo'ja, Sarixo'ja, Tursunxo'ja, Mo'minxo'ja, Bo'ronxo'ja* kabilar.

Ba'zi tadqiqotchilar mang'it qabilasining Mo'minxo'ja urug'i borligini ko'rsatadilar. Oqdaryo tumanidagi Mo'llaxo'ja qishlog'i nomi tarkibi mo'llaxo'ja qismlaridan iborat. Mo'lla o'qimishli, bilimdon ma'nosini bildiradi. Qo'shtamg'ali qabilasi bandikuchuk urug'i, chig'atoylarning bir tarmog'i ***xo'ja*** deb atalgan.

O'zbek va tojik tilini bilishiga qarab, xo'ja urug'i o'zbeki xo'ja va tojiki xo'ja shoxobchalariga bo'linadi. Mo'llaxo'ja xo'ja urug'idan yetishgan ulamolar yashaydigan joy. Chelak tumanidagi Beshbegixo'ja toponimi ham o'ziga xos usul bilan yaralgan. Toponim besh+bek+i+xo'ja qismlaridan iborat, qozoq tilida pishpek – balandlik, tepaliklari ko'p joy; o'zbek tilida beshbek – yonma-yon beshta tepadan iborat yirik balandlik; xo'ja etnonim. Beshbegixo'ja – yonma-yon beshta tepadan iborat yirik balandlikdagi joyda yashovchi xo'jalar qishlog'i. ***Xo'ja*** so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhining nomi bo'lib qolgan. Ijtimoiy tabaqani anglatuvchi so'zdan kishi ismi, undan joy nomlari paydo bo'lgan.

XO'JAABDOL – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Ikki qismdan iborat toponim. Nomning ikkinchi qismi – "abdal, abdol" o'zbek millati tarkibiga kirgan etnik guruhlardan biri. Bu qabila Hindiston, Afg'oniston va xususan, Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o'ynagan xalq – eftalit, ya'ni haytallarning avlodidir (Qorayev, 1978).

Eftalitlar tarixiy manbalarda *ye-da, xeptal, xaytal, abdal* va boshqa shakllarda tilga olinadi. Eftalitlar ilk o'rta asrlarda tarix sahniga chiqib, V–VI asrlarda yirik davlat tuzishib, Axshunvar (Firdavsiy Xushnavoz deb qayd qilgan), To'raman, Mihirakula, G'otfar kabi hukmdorlari bilan mashhur bo'lgan. Vizantiyalik Feofan eftalitlar shohi Vaxshunvar unvoni bilan yuritilgan. Uning nomi Eftalon bo'lgan va shunga ko'ra qabilasiga eftaliylar degan nom berilgan deydi. "Tan-shu" yilnomasida: "ye-da shohning urug' nomi edi, keyinchalik uning vorislari davlatni ham shu urug' nomi bilan atay boshladilar", deb qayd qilingan. Haqiqatan ham *"ye-da, eftal"* urug' nomi ekanligi ko'rinib turibdi. Vizantiyalik Feofan Eftalon shoh nomi deb bergan ma'lumotiga B.G'afurov shubha bilan qaraydi va bu xalq etimologiyasi bo'lsa kerak, degan fikrni bildiradi (G'afurov, 1972: 251).

Qizig'i shundaki, eftalitlarning qaysi tilda gaplashganliklari hozirga qadar munozarali bo'lib kelmoqda. Ko'pchilik olimlar ularni eroniy tilda gaplashgan, deb ko'rsatadilar (L.S.Tolstova, B.G'afurov).

Biroq o'rta asr manbalarida boshqacha ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Dinovariy (X asr) ularni "Turklar" desa, Prisk Pontiyskiy "gunn" deydi va ularning Kunxa ismli shohi haqida ma'lumot beradi. O'rta asr manbasi "Baxmonyasht"da IV asrning 80-yillaridagi voqealar haqida hikoya qilinar ekan, eftalitlar "Turklar va qizil xioniylar" deb ataladi va ular eroniy emas, deb ko'rsatilgan.

Hind manbalarida ham eftalitlar "xuna yoki oq xunnlar" deb nomlangan. Eftalitlar tarixi, kelib chiqishi bilan shug'ullangan Sh.Uyfalvi eftalit hukmdorlarining portretlarini tahlil qilar ekan, "...bular tatarlar bo'lib, mo'g'ullarga juda yaqindirlar", degan xulosaga keladi (Trofimova, 1968: 180).

Eftalitlarning kelib chiqishi, tili, yozma yodgorliklari masalalari yuzasidan akad. B.G'afurov ham keng ma'lumot bergan. Bizningcha, ilk manbalar asosida fikr yuritish masalaga oydinlik kiritishi mumkin. Bal'amiy (X asr)ning qayd qilishicha, haytal so'zi "pahlavon", "jasur odam" degan ma'noni bildirgan. Shu bilan birga, keyingi asrlarda abdal deganda "gadoy, darvesh" tushunilgan.

Shuningdek, artistlar, sozandalar, qalandarlar, maddohlarning jargoni "abdal (abdol) tili" deyilgan. Abdal urug'i turkmanlar tarkibiga ham kirgan (Karmisheva, 1974).

"Abdol" so'zi ishtirokida yasalgan toponimlar geografiyasi ancha keng. *Abdal* (Kattaqo'rg'on), *Qoraabdol*

(Payariq), *Abdalaras* (Yangi Urganch), *Abdalboy* (Gurlan) va boshqa nomlar fikrimizni tasdiqlaydi.

XO'JAABDUDARUN – Samarqand shahrining janubi-sharqiy chekkasidagi maqbara; bu maqbara IX asrda o'tgan Samarqand qozisi, arab olimi Abdalmaziddin qabridir.

Abdalmaziddinni avliyo va xalifa Usmonning evarasi hisoblaganlar. Maqbara shaharning 40 chaqirim keladigan Devori Qiyomat nomli devorining ichkari tomonida bo'lgani uchun shunday nom olgan (*darun* – ichkari).

Saljuqiylar sulolasidan bo'lgan Sulton Sanjar davrida XII asrda qurilgan maqbara XV asrga kelib buzilib ketgan; hozirgi gumbazli xonaqoh Ulug'bek davrida qurilgan (Qorayev, 1970).

XO'JA KORSON – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Rabinjon shaharlari orasidagi qadimiy Karzan shahri nomining o'zgargan shakli. Yoqut Hamaviy (XIII asr) va Sam'oniy (XII asrlar) asarlarida tilga olingan mazkur shahar (keyinchalik qishloq) o'rta asrlarda juda mashhur bo'lgan. Devashtich qo'zg'oloni (722-yil) davrida mazkur qishloqdan chiqqan Karzanch (ushbu nom nisba bo'lishi kerak) isyonning faol rahbarlaridan biri sifatida Muhammad Jarir at-Tabariy (X asr) asarida tilga olingan. Qishloq temuriylar davrida Xoja Kordzan (xalq etimologiyasiga ko'ra, xoja va "kord" – pichoq hamda *"zan"* – urmoq so'zlaridan tashkil topgan) nomi bilan atalgan. Bunga 1500-yilning avgustida ushbu qishloq yaqinida Xoja Ahror Valining kichik farzandi Xoja Qutbiddin Muhammad Yahyoning Shayboniyxon odamlari tomonidan o'ldirilishi asos bo'lgan.

Biroq qishloq nomining qadimiy manbalarda ham uchrashini hisobga olsak, *Korzan, Xoja Korzam, Xo'ja Korson* nomlari bilan mashhur bo'lgan bu qishloq nomining Xoja Yahyoning o'ldirilishi bilan bog'liq jihati yo'qligi aniq bo'ladi.

XO'JAI BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur gidronimning birinchi komponenti *"**xo'ja**" so'zi "musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan imtiyozli tabaqa. Keyinchalik ba'zi hududlarda xo'ja so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhining nomi bo'lib qolgan"* [Nafasov, 197]. ***-i*** qo'shimchasi asosdan anglashuvchi predmetning III shaxs birlik yoki ko'plikka nisbat berilayotganini ifodalovchi egalik qo'shimchasi.

Demak, *"**Xo'jai buloq**"* nomini *"xo'jalar istiqomat qilish hududiga yaqin joylashgan chashma"* deb izohlash to'g'ri bo'ladi.

XO'JALAR – Buxoro viloyatining Shofirkon, G'ijduvon, Qorako'l, Romitan, Kogon, Vobkent tumanlaridagi *qishloq*lar nomlari. ***Xo'ja*** – eroniy tillarga oid so'z. Fors tilidagi lug'aviy ma'nosi – *xo'jayin, sohib*. O'tmishda O'rta Sharq xalqlari o'rtasidagi feodal ijtimoiy tabaqa. Keng ma'noda feodal jamiyatidagi hukmron tabaqalar vaki-

li. Ba'zi hududlarda ***xo'ja*** so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgan, etnik atamaga aylangan. Ma'lum kishilar guruhining nomi bo'lib qolgan. ***Xo'ja*** so'zi dastlab kishi ismiga qo'shib aytilgan, uning qaysi tabaqa yoki urug'-qabiladan ekanligini bildirgan. Keyingi davrlardan ismdan so'ng qo'shilgan: ijtimoiy tabaqani anglatuvchi so'zdan kishi ismi, undan joy nomlari paydo bo'lgan.

XO'JALIK – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin "O'zbek tilining izohli lug'ati"da jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining tegishli taraqqiyot bosqichiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari majmuyi, ijtimoiy ishlab chiqarish usuli ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 434-bet).

Shunday nomli mahalla Jizzax shahrida ham mavjud bo'lib, Xo'jalik – hojilar yashaydigan mahalla sifatida qayd etiladi.

XO'JAMAKON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq 2014-yilga qadar *Ko'ppos* deb atalgan. 2014-yil 28-aprelda qishloq nomi *Xo'jamakon* deb o'zgartirilgan.

Nom *xo'ja* va *makon* so'zlaridan iborat. Toponim tarkibidagi *xo'ja* so'zi aslida forscha so'z bo'lib, *"xo'jayin", "boshliq", "sohib"* degan ma'nolarni anglatgan. Bu ma'no zamirida *xo'ja* so'zining bir qancha ma'nolari paydo bo'lgan. Qozoq va qirg'iz tilida eski usuldagi maktab o'qituvchisini *xo'ja* deyishgan.

Ko'pgina xalqlarda diniy ruhoniylarni, mullani *xo'ja* so'zi bilan atashgan. Markaziy Osiyoning ayrim xalqlarida yoshi ulug' kishi, oqsoqol, oila boshlig'i, er kishini *xo'ja* so'zi bilan ifodalashgan. Bu so'zning *"janob", "mulk egasi", "jasoratli odam", "tabib"* ma'nosi ham bor.

Ba'zi mamlakatlarda *xo'ja* so'zi faxriy unvonni ham anglatgan. Xo'jalar o'tmishda ijtimoiy tabaqa hisoblangan, shu bois jamiyatdagi ma'lum bir imtiyozlarga ham ega bo'lganligi manbalarda qayd qilingan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi turkiy xalqlarda *xo'ja* qavmi urug', qabila maqomida ham bo'lgan. Qoraqalpoq xalqi, o'zbeklarning laqay qabilasida *xo'ja* degan urug', urug' bo'limi borligi aniqlangan. Xo'ja so'zli aholi maskanlarining ko'pchiligi anhor, ariq, daryo bo'yida, katta yo'l yoqasida, dehqonchilik uchun qulay yerlarda, yirik qishloqlar yaqinida joylashgan. Toponimning ikkinchi komponenti – *makon* so'zi *"maskan", "maydon", "turarjoy", "yashash joyi", "biror narsa to'plangan yoki to'p bo'lgan joy"* kabi ma'nolarni anglatadi.

Demak, Xo'jamakon toponimining ma'nosi – *"xo'jalar yashaydigan joy"* ma'nosidadir.

XO'JANDI – mahalla. Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. XVIII asrda Samarqand shahriga Tojikistonning Xo'jand shahridan ko'chirib keltirilgan aho-

li shu hududda yashay boshlashgan va ular yashaydigan maskan, ya'ni hududni shunday atashgan.

XO'JAOBOD – Andijon viloyati tumani nomiga qo'yilgan katta qishloq. Ushbu nomni xo'jaobodliklar Zahiriddin Muhammad Bobur davri bilan bog'laydilar.

Tarixdan ma'lumki, 1499-yili avji yozda Bobur qo'shini bilan O'shga ketishda tog' yonbag'ridagi Lotkan qishlog'ida bir kecha qo'nib o'tgan.

Xotiralarda aytilishicha, Bobur o'z mulozim xo'jalardan kimgadir shu yerda (bahavo bo'lgani sabab) bir qishloq barpo qilishni buyurgan. Dilkushod qishlog'i tarixini va Xo'jaobod nomini ham shunga bog'laydilar.

Ta'kidlash joizki, tarixiy manbalarda bu haqda ma'lumot uchratmadik.

XO'JAPORSO – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, toponim *xo'jalar* yashaganligi sababli shunday nomlangan. Toponim *xo'ja* va *porso* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *xo'ja* aslida forscha so'z bo'lib, *"xo'jayin", "boshliq", "sohib"* degan ma'nolarni anglatgan.

Toponimning ikkinchi komponenti – *porso* so'zi esa *"pok", "xudojo'y"* degan ma'noni bildiradi.

Demak, Xo'japorso – *"xudojo'y xo'jalar yashaydigan joy"* ma'nosidadir. **Boshqa talqin:** bu nom naqshbandiya tariqati peshvolaridan biri, Bahouddin Naqshbandiyning shogirdi Muhammad Porso (1363–1419)-ning nomi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Vobkentda bu shaxsning qadamjosi mavjud.

Muhammad Porso qadimdan Xo'ja Porso nomi bilan mashhur bo'lib, "Fasl ul-xitob" nomli asarning muallifidir.

XO'JAQISHLOQ – qishloq va mahalla. Farg'ona viloyatida keng tarqalgan qishloq va mahallalar nomi. Xo'ja Ahmad Vali, Xo'jaariq, Xo'jaqishloq, Xo'jamagiz, Xo'jao'ldi kabi toponimlar tarkibida xo'ja asosiy termindir. Markaziy Osiyoda va boshqa musulmon davlatlarida alohida imtiyozga ega bo'lgan oqsuyak, zodagon tabaqa vakillari sharafiga qo'yilgan nom.

XO'JASOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Mazkur mikrotoponim ***"xo'ja"*** va ***"soy"*** qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. Apellyativning birinchi komponenti ***"Xo'ja"*** urug' nomlaridan biri [T.Nafasov, 197; Z.Ziyotov, 172]. "Soy" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL-5, 3, 545]. Shunga binoan bu maskan xo'ja avlodiga mansub kishilar tomonidan soy bo'yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq" [S.Qorayev, 1, 140] deb izohlasa bo'ladi. Ushbu mikrooykonim ikki ot+ot shakliga ega.

XO'JAYAKSHABA – Buxoro viloyati Kogon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom "bir kechada xo'ja" ma'nosini beradi. Har qanday rivoyatning osti-

da qandaydir bir haqiqat yotadi. Toponimning vujudga kelishi to'g'risida qishloq ahli orasida quyidagi rivoyat yuradi. Emishki, o'tmishda bir yetim yigit juda nochor ahvolda kun kechirar, qanchalik mehnat qilmasin, nochorlikdan xalos bo'lish yo'llarini qidirmasin, biri ikki bo'lmas ekan. Oxiri najot izlab bir fol ochuvchiga murojaat qilibdi. Folbin unga o'z otasining kasbi bilan shug'ullansa, nochorlikdan xalos bo'lishi, shu bilan birga, muhtojlikdan qutulishi mumkinligini bashorat qilibdi. Otasi esa o'g'ri bo'lgan ekan. Shunga muvofiq, u bir qishloq masjidiga o'g'rilikka tushibdi. Masjiddagi gilamni yig'ishtirayotgan paytda ittifoqo Bahouddin Naqshband namoz o'qish uchun o'z muridlari bilan shu masjidga tashrif buyuribdilar. Yigit qo'lga tushmaslik uchun darhol o'zini gilamga o'rab yotib olibdi. Namoz tugagach, Bahouddin Naqshband muridlarning soni negadir bitaga ortiqligini, masjidda yana kimdir borligini sezibdilar. Xullas, yigit fosh bo'libdi va boshidan kechirganlarini so'zlab beribdi. Shunda Bahouddin Naqshband unga Qur'onni yod olishni maslahat beribdilar va u bir kechada Qur'onni yodlab, Haq yo'liga yuz buribdi va xo'ja maqomiga ko'tarilibdi. Shu kundan boshlab, u yashagan qishloq Xo'jayakshaba, ya'ni "bir kechada xo'ja", "bir kechada xo'jaga aylangan", deb atala boshlabdi (*Mazkur ma'lumotlar o'sha qishloqda istiqomat qiluvchi tarixchi olima Dilnoza Jamolovaning shaxsiy kutubxonasidan yozib olindi*).

XO'JAYDUQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Tarixiy manbalarda *Idaj, Iduj, Idux* shakllarida qayd qilingan. Sam'oniy (XII asr) uning Samarqand shahridan uch farsax (21 km) uzoqlikdaligini va Shovdor tog'lari yonbag'rida joylashganligini ko'rsatadi. XVI asr vaqf hujjatlarida ushbu joy Yadux, Xoja Yadux nomlari bilan tilga olinadi. Qishloqdagi chashma va Shirvog'ota nomi bilan mashhur muqaddas joy uning qadimiy tarixi bilan bog'liq.

Toponim tarkibidagi "duq" so'zi sug'd tilida "chuqur, o'ra, choh" ma'nosini beradi (Xromov, 1975: 18). Qishloq yaqinidagi tog' yonbag'rida Shirvoqota degan sig'inadigan joy bo'lib, u yerdagi choh (g'or) ichida qabr bor. Mahalliy aholi uni muqaddas deb biladi.

Demak, toponim *xo'ja* va *"duq"* so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni "chohdagi yoki g'or ichidagi xo'ja" ma'nosidadir.

XO'JAYLI – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Nomning Xo'jaeli talaffuzi ham bor. Tuman hududi Amudaryoning quyi oqimi chap sohilida joylashgan. Relyefi, asosan, tekisliklardan iborat. Xo'jayli nomi xo'jaeli so'zining qisman o'zgargan va mahalliy xalq talaffuzida qulay bo'lgan shakli.

Xo'ja (fors-tojik tilida, "xo'jayin, sohib") – islom mamlakatlarida turli davrlarda turlicha ma'noda ishlatib kelingan faxriy unvon va murojaat turi. Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidlardan keyingi o'rinda turgan. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida

har xil fikrlar bor. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalar choryorlardan tarqalgan deyilsa, boshqasida arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari hisoblanadi. Movarounnahrda xo'jalar muayyan imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Mutaxassislar Xo'jayli nomini XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida paydo bo'lgan deyishadi. 1874-yili rus tadqiqotchisi A.L.Kun Xo'jayliga kelgan va shaharning paydo bo'lishi tarixi haqida mahalliy xalqdan quyidagi rivoyatni yozib olgan. Rivoyatga ko'ra, hozirgi Xo'jayli shahriga asos bo'lgan qal'ani Turkistondan ko'chib kelgan eshon Alamin Xo'ja qurgan. Shuningdek, mahalliy aholi orasida shaharga so'fiylarning yassaviylik tariqatiga mansub xo'jalar tomonidan asos solingan degan rivoyatlar ham bor.

Shahar atrofida miloddan avvalgi IV–III asrlarda aholi yashaganligini arxeologik qazilmalar davomida topilgan ashyoviy dalillar tasdiqlaydi. Xo'jayli yonidagi Mizdaxqon shahar xarobasi buning isbotidir. Yangi Xo'jayli (temiryo'l stansiyasi) 1952–1953-yillarda temiryo'l o'tkazilishi munosabati bilan qurilgan.

Tarixiy va me'moriy yodgorliklardan Mizdaxqon o'rta asr shahri xarobalari, uning hududida Gabr qal'a tepaligi, Jo'mard tepaligi, Antakiya shahar tepaligi (XIV asr), Mazlumxon Suluv maqbarasi (XII asr oxiri – XIV asr boshi), Shamun Nabi maqbarasi, Rajab Xalifa uyi, Qirqcho'pon yodgorligi saqlangan. Tuman ma'muriy markazi Xo'jayli shahri (1970-yildan).

XO'ROBA – qishloq. Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Mazkur nom ichish uchun yaroqli suv ma'nosini anglatadi.



YABIQIPCHOK – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi qishloq nomi. *Yabiqipchoq* – ikkili etnonim (yobu va qipchoq qabilalari ittifoqi).

YAKKABOG' – tuman va shahar. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Yakkabog' tumani Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan. Yakkabog' nomi respublika toponimiyasida yagona emas, balki boshqa mintaqalarda shu nomli geografik obyektlar uchraydi. Ta'kidlash joizki, har bir geografik nomning o'ziga xos "yuk"i bor, zero, unda aniq ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam.

Shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtayi nazaridan to'g'ri yondashib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izoh ishonarli bo'ladi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'biri bilan aytganda, "Kim nomning haqiqiy ma'nosini to'g'ri anglasa, u joyni ham yaxshi biladi". Yakkabog' ham real voqelikni o'zida in'ikos etgan nomdir.

Nomning tarkibidagi yakka- yolg'iz, tanho kabi ma'nolarga ega so'z. Bundan xulosa shuki, bog' shu turdagi boshqa obyektlardan alohida joyda joylashganligi sababli unga nisbatan yakka so'zi qo'llanilgan. T.Nafasovning yozishicha, bog' sug'dcha so'z. Sug'd tilidan qadimgi turkiy tilga o'tgan. Dastlab bog' so'zi tok, tokzor ma'nosini anglatgan. So'ngra mevali daraxtlar ko'p, qalin ekilgan joy ma'nosiga ega bo'lgan.

Hozirgi vaqtda manzarali o'simliklar ekilgan joy, daraxtlar va gullar ekilib obod etilgan, atrofi o'ralgan joy ham bog' deyiladi. Masalan, O'zbekiston milliy bog'i, G'afur G'ulom nomidagi dam olish va istirohat bog'i, Jizzax shahridagi "O'rda" ekologik bog'i va boshqalar. Yakkabog' so'zining hozirgi davrdagi ma'nosi atrofida boshqa bog'lar bo'lmagan, alohida joyda barpo qilingan, tevaragi devor yoki panjara bilan o'ralgan mevali bog'.

YAKKASAROY – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik. 1936-yil 26-avgustda Frunze tumani nomi bilan tashkil qilingan. O'zbekis-

ton Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1992-yil 8-maydagi "Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 579-XII-sonli qaroriga asosan Yakkasaroy deb qayta nomlangan. Tuman Toshkentning janubiy va qisman markaziy qismida joylashgan. Boshqa shahar, yurtlardan kelgan savdo karvonlari shu hududda to'xtab o'tgan va Beshyog'och darvozasidan kirib shaharda savdo-sotiq qilgan. "Yakka"-yolg'iz, yagona ma'nosini anglatadi, "saroy" – xon, amir, podsholarning qarorgohi, hashamatli bino, omborxona, karvonsaroy va hokazo.

YALANGBEK – Samarqand shahridagi mahalla nomi. XVII asrda Samarqand shahriga Toshkent shahridan ko'chirib keltirilgan aholi uchun bunyod etilgan bo'lib, Samarqand shahridagi mazkur hudud Yalangto'sh Bahodir nomiga qo'yilgan mahalla (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -B.14).

YALOQTEPA – Samarqand viloyatining Urgut va Payariq tumanlaridagi tepalar nomi. Bu oronim haqida ikki xil talqin bor:

1.B.O'rinboyev oronimni chug'urchuqlar ko'p bo'ladigan tepa va ust qismi yassi, tekis balandlik deb izohlaydi.Bizga ma'lumki, gala-gala bo'lib uchadigan qoraqush va chug'urchuqlar ***qorayaloq*** deb ataladi. Ba'zan esa ularni ***yaloqqush*** yoki ***yaloq*** deb aytishadi. Ikki so'z birikib, so'z birikmasini, qo'shma so'zni, keyin esa onomastik konversiya asosida apellyativ atoqli otga ko'chgan: *yaloq-qush+tepa > yaloqqush tepa > yaloq-qushtepa > yaloqtepa > Yaloqtepa.*

2. T. Enazarovning fikricha, mineral tuzlar va ularning birikmalari respublikamiz maydonlarida ko'plab uchraydi. Mana shunday xususiyatga ega bo'lgan tepalikni ***yalagan*** yoki uning biror parchasini olib surgan kishilar og'zi, tili va oshqozoni uchun foydali shifo topishgan. Vaholanki, ***Yaloqtepa*** mineral tuzlarga boy bo'lgani uchun yalangan tepa degan ma'noni ifodalaydi: *yaloq+tepa > yaloq tepa > yaloqtepa > Yaloqtepa.*

Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga ancha yaqin, chunki Qo'tirbuloq (Payariq tumanida buloq va qishloq) gidronimini misol tariqasida keltirish mumkin. Qo'tir kasalligiga uchragan odamlar va hayvonlar shu buloq suviga cho'milishgan, natijada shifo topishgan. Keyinchalik gidronim transonimizatsiya natijasida oykonimga ko'chgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

YALTIRBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Ushbu nom ikki qismdan iborat. Mazkur gidronimning yaltir komponenti yaltiramoq fe'lidan olingan bo'lib, *"yalt-yalt qilmoq, yarqiramoq"* ma'nosini anglatadi.

Demak, ***Yaltirbuloq*** nomi "yaltiroq tog' jinsli (yoki quyosh nuri tikka

va ko'p vaqt zamonida tushib turadigan) joydagi chashma"dir.

YANGIARIQ – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mahalliy aholi vakillari va umuman, ko'pchilik aholi mazkur nomni yangi qazilgan ariq ma'nosida deb talqin etishadi va unga shubha ham qilishmaydi. Chunki Xorazmda bu ma'noda *yop, arna, kanal, solma* so'zlari qo'llaniladi.

Ammo toponimning kanal, ariq so'ziga hech qanday aloqasi yo'q. Prof. Z.Do'simovning fikricha, Yangiariq toponimining ikkinchi qismi ark so'zi bilan bog'liqdir. Bu so'z "Boburnoma"da podshoh o'rdasi, V.V.Radlovning lug'atida "qal'a" ma'nosida ekanligi, uning doimo baland joyda o'rnashib, hukmdor saroyi shu yerda bo'lganligi qayd etiladi.

Xorazm shevalarida ark "xon saroyi, saroy" ma'nolarida qo'llanilgan. Yangiariq bilan Xiva o'rtasida o'rik, olma yetishtirgan qishloqlari bo'lgan. Bu joylarda xon sayillar, yig'inlar o'tkazgan va ma'lum ma'noda xonning maxsus joyi vazifasini o'tagan.

Shunday ekan, Yangiariq xonning "yangi joyi" ma'nosidadir. Oldingi saroy, arkdan farq qilish uchun xalq uni yangi deb atagan.

Toponimiyada bunday hodisalar ko'plab uchraydi. Masalan, Eski shahar, Yangi shahar, Eski ko'prik, Yangi ko'prik va hokazo. Demak, Yangiariq shevada – Yangoriq (yangi – ravish) (З.Дўсимов, Х.Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент, 1977. 151-бет).

YANGI NAMANGAN – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 2021-yilda Namangan shahri tarkibida tashkil etilgan yangi tuman (xoronim). Namangan viloyatining Namangan shahrida yangi tashkil etilganligi, ya'ni joylashuv o'rni, ma'muriy mansubligi va viloyatdagi Namangan tumanidan farqlash motivlari asosida shunday nomlangan.

YANGIHAYOT – tuman. Toshkent shahri tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4888-sonli qaroriga asosan Toshkent shahrining Sergeli, Bek temir tumanlari va Toshkent viloyatining Zangiota, Quyi Chirchiq, Yangiyo'l va O'rta Chirchiq tumanlari hududlaridan tashkil etilgan. Yangihayot nomi yangilanish, hayot bag'ishlovchi, jonlanish, uyg'onish kabi ma'nolarni anglatadi.

Mazkur toponim ***yangi*** va ***hayot*** so'zlarining qo'shilmasidan paydo bo'lgan. Hayot so'zi ushbu toponim tarkibida kishi va jamiyatning faoliyati va yashash yo'sini, turmush, tirikchilik ma'nosini bildiradi.

Xalq shevalari bo'yicha lug'atda xalq shevalarida ***hayot/hayat*** so'zi borligi hamda uning qishloqdan uzoqda yoki qishloqdagi hovliga devori tutash bog', bog'ot kabi ma'nosi mavjudligi qayd etilgan .

T.Nafasov toponimning gibrid nom ekanligini qayd qilgan. O'zbekcha yangi, arabcha hayot (to bilan), tojik va o'zbek tillarida ***hayat*** – *hovli, hovli-joy, hovli sahni;* tevaragi devor bilan o'ralgan joy, tomorqa; ***qishloq*** ichi yo tashqarida yozlik yashaydigan, bog'-rog' qilingan joy, ya'ni hayat – yangidan tashkil qilingan, bog'-rog', bog'ot yo tomarqa. Ana shunday joyda tashkil etilgan aholi punkti – ***Yangihayat – Yangihayot.*** Hayat so'zi shevalarda ovul ma'nosini ham kasb etgan.

Mustaqillikdan keyin keng quloch ocha boshlagan mazkur nomdagi joy nomlari Respublikamizning ko'pgina viloyatlari (Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Xorazm) hududlarida uchraydi.

YANGIKENT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur toponim o'zbekcha ***yangi*** hamda sug'dcha ***kent*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nom bo'lib, u *"yangi qishloq"* degan ma'noni ifodalaydi.

YANGIOBOD – tuman. Jizzax viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Yangiobod tumani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-apreldagi 2006-sonli qaroriga asosan Jizzax viloyati tarkibida ma'muriy-hududiy tuman bo'lib tashkil topgan va Sirdaryo viloyati tarkibidan ajralib chiqqan, shu sababli yosh tuman bo'lganligi uchun ham Yangiobod nomi berilgan. G'arbdan Zomin tumani, janubiy, sharq, shimolidan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Tumanning shimoliy qismi pasttekislik, janubiy qismi qiradir va tog'lardan iborat. Yer yuzasi janubiga tomon ko'tarilib boradi.

Toponim sifatida yangi va obod so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan. Yangi – so'zi ilgari bo'lmagan, yaqindagina paydo bo'lgan, yaqinda bunyod etilgan yoki qurilgan ma'nosida, obod – ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydi. Yangiobod – tinch, osuda, farovon hayot natijasida bog'u – rog'lar bilan go'zallik kasb etgan, gullab – yashnagan, yangidan obod bo'lgan joy demakdir.

Shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako'l, Shofirkon, G'ijduvon, Peshku, Jondor, Buxoro hamda Navoiy viloyatining Karmana, Konimex tumanlaridagi qishloqlar nomlari ham Yangiobod nomi bilan atalgan.

Shunday nomdagi joylar nomlari mamlakatimizning Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida ko'plab uchraydi.

YANGI OQCHOP – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim tarkibining ikkinchi qismi, aslida, ***"oqchala"*** sanaladi.

"Yangi" umumturkiy so'z bo'lib, *"yaqinda bunyod etilgan"* degan ma'noni bildiradi [O'TIL.5, 5, 113; O'TIL.1, 139].

"Oq" umumturkiy so'zlardan biri bo'lib, *"qor, sut, paxta rangidagi, oq tusga moyil"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 1, 262; O'TIL. 5, 3, 175].

Mang'it qabilasining bir urug'i "***oq***", ikkinchisi esa "***chala***" deb nomlangan [T.Nafasov. 113-114; S.Qorayev. 1, 76].

Yuqoridagilarga asosan ushbu ***Yangi oqchop*** mikrotoponimini *"mang'itlarning oq va chala urug'lari vakillari yangidan barpo etgan yashash maskani, qishloq"* – deb atash maqsadga muvofiqdir hamda u sifat+sifat+ot strukturasiga egadir.

YANGI QISHLOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot, Tayloq tumanlaridagi qishloqlar nomi.

"***Yangi***" umumturkiy so'z bo'lib, *"yaqinda bunyod etilgan"* degan ma'noni bildiradi [O'TIL. 5, 5, 113; O'TIL. 1, 139].

"***Qishloq***" so'zi ham umumturkiy bo'lib, *"aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadiganlar yashash joyi"* ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 1, 555; O'TIL. 5, 5, 315].

Shunga asoslanib, B.O'rinboyev mazkur toponimni *"ilgari qishloq bo'lmagan joyda paydo bo'lgan yangi aholi yashash punkti"* deb izohlaydi [B.O'rinboyev, 240]. Ushbu oykonim ikki o'zakli bo'lib, sifat+ot shakliga xos.

YANGIQO'RG'ON – tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Yangiqo'rg'on avval qishloq bo'lgan, 1993-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi maskani atrofdagi Navkent, Qorapolvon va boshqa qishloqlarga nisbatan keyinroq tashkil topganligi bois shunday atalgan.

Yangiqo'rg'on tumani 1926-yil 26-sentabrda tashkil etilgan va markazi – Yangiqo'rg'on qishlog'i (hozirgi shaharcha)ga nisbat berib shunday nomlangan. Mazkur nom *"yangi"* va *"qo'rg'on"* so'zlaridan tashkil topgan. Apellyativning birinchi qismi *"Yangi"* umumturkiy so'z bo'lib, "yaqinda bunyod etilgan" degan ma'noni bildiradi [O'TIL. 5, 5, 113; O'TIL. 1, 139]. Uning komponenti esa *"Atrofi devor bilan mustahkam o'ralgan hovli, qal'a, ark"* esa ***"qo'rg'on"*** deb ataladi [O'TIL. 5, 5, 416]. Demak, Yangiqo'rg'on – *"yangi joyda barpo etilgan qo'rg'on"* ma'nosiga ega.

YANGI QO'RG'ONSOY – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***yangi***", "***qo'rg'on***" va "***soy***" qismlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

"***Yangi***" umumturkiy so'z bo'lib, *"yaqinda bunyod etilgan"* degan ma'noni bildiradi [O'TIL. 5, 5, 113; O'TIL. 1, 139].

"Atrofi devor bilan mustahkam o'ralgan hovli, qal'a, ark" esa "***qo'rg'on***" deb ataladi [O'TIL. 5, 5, 416].

"***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL.5, 3, 545].

Shunday ekan, mazkur mikrotoponimni *"yangi joyda soy bo'yida barpo etilgan qo'rg'on, aholi yashash maskani, qishloq"*, deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Ushbu oykonim uch o'zakli bo'lib, sifat+ot+t shakliga xos.

YANGIYER – tuman. Sirdaryo viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Yangi – ilgari bo'lmagan, endi yuzaga kelgan (kelayotgan, keladigan) yer (joy, maydon) so'zlari qo'shilmasidan hosil bo'lgan.

Demak, ilgarilari, dasht, cho'l bo'lib yotgan yerlar yangidan o'zlashtirilishi natijasida paydo bo'lgan nomlar Yengiyerdir.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatining Xovos tumanidagi qishloq va mahallaga Yangiyer nomi berilgan.

YANGIYO'L – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi, asosan, tekislikdan iborat bo'lib. Chirchiq daryosining beshta terrasasi (ko'hna qayir) ajralib turadi. Hozirgi tuman hududida XX asrning 40-yillarida umumdavlat ahamiyatiga ega, Katta o'zbek traktining qurilishi va uning tuman iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi tuman nomlanishiga sabab bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Shunday bo'lsa, Yangiyo'l nomining paydo bo'lishini ijtimoiy voqealik bilan bog'liq desak, to'g'ri bo'ladi.

Chirchiq daryosining o'ng sohilida joylashgan Yangiyo'l shahri 1934-yilgacha Qovunchi deb atalgan. S.Qorayevning yozishicha, qovchin etnonimi qovunchi bo'lib ketgan bo'lishi mumkin.

YANGIZAMON – Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi ***qishloq*** nomi. ***Qishloq*** qayta qurilganligi, tubdan turarjoylar bunyod etilganligi davr ruhiga mos bo'layotganligi uchun ***Yangizamon*** deb nomlangan. Ma'nosi ***Yangiqishloq – Yangiobod*** nomlariga hamohangdir.

YANTOQLIQ//YANTOQLI – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi ayrim hududlar nomi. Hududda *yantaq* fitonimi bilan aloqador *Yantaqlıq, Yantaqlı* mikrotoponimlari mavjud. Mazkur nom bilan atalgan o'simlikning shakli, morfologik (botanik tuzilishi) xususiyatlaridan kelib chiqib, uning hudud sheva vakillari nutqida hozir ham faol ishlatiladigan *yanta*-fe'liga aloqadorligini taxmin qilish mumkin.

Yanta – "biror narsani boshqa bir narsaga yaqinlashtirmoq, suyab qo'ymoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Yantoqning boshqa o'simliklar, shuningdek, bir biri tomonga yoyilib, yondashib o'sishi ushbu nom uchun asos bo'lgani shubhasizdir. Undagi *-q* affiksi esa turkiy tillarda fe'ldan ot va sifat yasashda faol ishtirok etadigan, bir ma'nosi bilan asosdan anglashilgan harakat natijasini bildiruvchi qo'shimchadir[1].

So'zning tarixiy tarkibiga nazar solsak, aslida u *yan* (yon, tomon) otiga *-ta* fe'l yasovchisini qo'shish orqali hosil qilingan. Chunki *-ta* hozirgi o'zbek tilida eng faol fe'l yasovchi hisoblangan *-la* ning fonetik variantlaridan biri sanaladi. Qo'shimchaning bu shakli bilan yasalgan *o'rta-, ista-* kabi fe'llarning tarixiy-etimologik tahlili ham shuni ko'rsatadi. *-ta*ning yana bir fonetik varianti *-da* bo'lib, hozir-

[1] Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в Азербайджанском языке. –М.: Наука, 1962. –С. 402.

gi *alda-, unda-* kabi fe'llar shu tarzda yasalgan. Darvoqe, *unda-* fe'lining boshqa turkiy tillarda *unta-* shakli ham borligi fikrimizni oydinlashtiradi[1].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *izla-* XIV asr yozma yodgorliklarida *izda-, qo'lla-, yo'lla-* kabi fe'llar Alisher Navoiy asarlarida *qo'lda-, yo'lda-* shakllari ishlatilgani mazkur qo'shimchaning turli fonetik shakllari birbiri bilan parallel yoki almashib qo'llanish jarayoni tilimiz tarixining nisbatan keyingi davrlariga ham xosligini ko'rsatadi (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

YASTEPA – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi tepa va qishloq nomi. Oronim ikki ma'noli qismdan iborat: ***yas*** va ***tepa***. Birinchi ma'noli qism asli ***yassi*** shaklida bo'lgan, keyinchalik fonetik o'zgarishga uchrab, shu shaklga kelgan.

Demak, oronimning lisoniy shakllanishi quyidagicha: *yassi+tepa > yassi tepa > yassitepa > yastepa > Yastepa.* Uning etimoni tekis tepa ma'nosidagi yassi tepa birikmasi. Oronim fonetik o'zgarishlardan biri bo'lgan tovush tushishi hodisasi ro'y bergan birikma asosida yuzaga kelgan (Bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

YAVONCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi qishloq nomi. Yavon (yovon) – cho'l, dasht, biyobon, yalanglik. Yavonchi – cho'lda yashovchi, dashtlik, sahronishin (Qorayev, 1978: 161).

YAYDOQ – qishloq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomiga *arab* xalqi nomi asos bo'lgan. Shu sababdan ham bu joy nomi etnotoponim hisoblanadi. Toponimning birinchi komponenti – *toshloq* so'zi *"tosh ko'p joy", "sertosh yer", "toshzor"* degan ma'nolarni bildiradi.

Toponim tarkibidagi *arabxona* so'zi esa *"arablar yashaydigan joy"* ma'nosidadir. Demak, Toshloq Arabxona – *"arablar yashaydigan sertosh joy"* ma'nosini anglatadi. Qishloq 2014-yilga qadar *Toshloq Arabxona* deb atalgan. 2014-yil 28-aprelda *Zafarobod* deya o'zgartirilgan. Nomning tarkibi ikkita so'z – *zafar* va *obod* so'zlaridan iborat. *Zafar* arabcha so'z bo'lib, *"g'alaba", "yutuq", "muvaffaqiyat"* degan ma'noni anglatadi. Oykonimning ikkinchi komponenti – *obod* so'zi esa ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, *"obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan"* ma'nosidagi affiks sanaladi.

YAYPAN – Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi shaharcha nomi. Qo'qon xonligi tarixiga tegishli arxiv hujjatlarida bu atama bilan yasalgan

[1] Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в Азербайджанском языке. -М.: Наука, 1962. -С. 394.

Yaypan kalon – (يپيان كلان), *Yaypan G'ani* – (يپيان غنى), *Yaypan Elchi* – يپيان ايلچى), *Yaypan Qulibek* – (يپيان قلى بيك) oykonimlari qayd etiladi.

Yaypan birligi Z.Do'simov tomonidan *`yozi payon`*, ya'ni "tekislik", "cho'l", "yalanglik" ma'nosini beruvchi geografik termin sifatida izohlansa-da, S.Qorayev uni kishi ismlari bilan birga qo'llanishiga ko'ra keyinchalik urug' nomiga aylangan deb hisoblaydi.

Bu fikrni xitoyshunos olim A.Xo'jayev ham tasdiqlaydi va u o'z tadqiqotlarida qadimda Issiqko'lning shimoli-g'arbida, Balxash ko'li bo'ylarida aholisi yaypanlardan iborat shu nomdagi xonlik mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi. Xonlik nomi solnomalarda *Yivatpuan* (zam. o'q. Yuepan) tarzida tilga olinib, u turkiycha "yorug'lik", "kunchiqar" ma'nolarini anglatgan *Yo'ritqan* so'zining xitoycha transkripsiyasi bo'lgan (Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона, 2013. 251-265-бетлар).

Farg'ona vodiysidagi *Yaypan* toponimi esa mana shu yaypanlarning vodiyga migratsiyasi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

YASHNOBOD – tuman. Toshkentdagi ma'muriy-hududiy birlik. 1968-yilda tashkil qilingan. Avvalgi nomi – Hamza. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014-yil 29-avgustdagi SQ-441-II-sonli qaroriga asosan Yashnobod deb qayta nomlangan. Yashnobod barq urib, gullab, yashnayotgan obod va ko'rkam joy ma'nosini anglatadi.

YELIMPAZ – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Yelim – hozirgi zamon "qaynatish", "pishirish" asosi. Yelimpaz – yelim ishlab chiqaruvchi, yelim ishlab chiqarish va pishirish bilan shug'ullanadigan mutaxassis sanaladi. Demak, Yelimpaz – bu yelim ishlab chiqaruvchilar qishlog'i, bu yerda ko'plab yelim ishlab chiqaruvchi ustalar mavjud bo'lgan.

YERTEPA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. Yer – "tuproq, tepa – tepalik, cho'qqi" ma'nolarini anglatadi. *Yertepa* esa "unchalik katta bo'lmagan tepalik" ma'nosini ifodalaydi.

YESIMO'ZEK – Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanidagi Sayman va Qostamg'ali aholi punktlarining g'arbidan oqib o'tuvchi kanal. Kanal 1709-yili qoraqalpoq millatidan bo'lgan Yeshim Muhammedning boshchiligida qazilgan va shundan so'ng o'sha hudud Yesimo'zek deb atalgan.

YESTEK – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan qipchoqlarning bir urug'i yestek deb atalgan. Mazkur urug' vakillari shu hududda yashaganligi sababli qishloq shunday nomlangan.

YETIMAK – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. **Yetimak** – yetim bola, ehtimol, bu etnonimdir. Chunki qozoq qabilasi qo'ng'irotlarda yetimlar yoki jetim derlar qabilasi bor. Yetimakning

og'irligini o'lchash uchun bir birlik mavjud – 500 gramm. Ferma ishchisi (kambag'al) yetimak deb ham nomlangan.

YETIMTOG'//YETIMTOV– Samarqand (Nurota tizmasi yonida) va Navoiy viloyatidagi qoldiq tog'lar (Markaziy Qizilqum va Tomditovning janubi-g'arbiy qismida). Yetim va tov – tog' ("yolg'iz tog'", "past tog'" ma'nosida) so'zlarining qo'shilishidan mazkur nom hosil bo'lgan.

YETIMSHOQ – qishloq. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. **Yetimshoq (yetimshoh)** – "avlod urug'i – yetim" ma'nosini ifodalab, u etnonim sanaladi.

YETTIKECHUV – dovon. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumani va Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi daryodan o'tish joyi.

Toponimning kelib chiqishi to'g'risida bir qancha fikr-mulohazalar bor:

1. Agar sheva vakillari gap bo'laklarini aralashtirib qo'llashlarini hisobga olsak, yettikechuv topogidronimi "kechuvga yetib keldi", degan ma'noni ifodalashi haqida o'sha yerda yashovchilar gapirib berishgan.

2. Toponim uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *yetti, kech, -uv. Yetti* so'zi miqdor-sonni bildiradi. *Kech* payt va harakatni bildiradigan omonim so'z bo'lib, harakat ma'nosidagi *kech* so'zi ko'priksiz joydagi suvdan o'tadigan sayoz joy ma'nosini ifodalaydi, *-uv* harakat nomi yasovchi qo'shimcha sanaladi. Apellativ leksikada bu ma'noli qismlar faol qo'llanadi: *yetti + kech +uv > yetti kechuv > yettikechuv.* Hosil bo'lgan predikativ birikma nomlanish talabi bilan toponimlashuv hodisasi ta'sirida onomastik leksikaga o'tib, mavjud obyektlarning nomlash zaruriyati tufayli obyektning nomi sifatida ishlatilgan: *yetti+kech+-uv > yetti kechuv > Yettikechuv > yettikechuv*. Undagi *yetti* so'zi ko'plik ma'nosini ifodalaydi. Bu toponim kishilar suv o'zanidan doimo o'tishi mumkin bo'lgan sayoz joy ma'nosini anglatadi. Ushbu toponimning etimoni *yetti+kech+-uv > yetti kechuv* predikativ birikmasi sanaladi. Mana shunday predikativ birikma qolipli toponimlar mamlakatimiz toponimlari tizimida juda kam qo'llanadi.

Shuning uchun ham ularni bir obyektli toponimlar sirasiga kiritish o'rinli. Mazkur toponimni ham shu guruhga kiritish lozim.

YETTISOY – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. *Yetti* – bu yerda bir necha, ko'plik ma'nosida, aynan yettita emas. *Yettisoy* – bir necha jilg'alar, soylar tutashgan joy. Soy nomi qishloq nomiga o'tgan. Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Chiroqchi, Dehqonobod tumanlaridagi Yettiquduq qishloqlari ham xuddi shunday, ko'p quduqli, yonma-yon joylashgan, yaqin masofada bir necha quduqlar bo'lgan joy hisoblanadi.

YETTIURUG' – qishloq. Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qishloq nomi. Yettiurug' (so'zma-so'z –

"yetti urug'") – o'zbek-qipchoq urug'i nomi hisoblanadi va bu urug' vakillari Zarafshonning o'rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashagan.

YEVKESAK – Qo'rg'ontepa tumaniga qarashli qishloq (Oyim qishlog'i atrofida). Qirg'izlarning "Ichkilik" bo'limi tarkibida "Jookesak" degan qabila nomidan olingan. Ushbu qabila vakillari o'zbeklar bilan yonma-yon yashashgan (Труды киргизской археолого-этнографической экспедиции. – М., 1956). Yana bir tarixiy manba – "Majmuat tavorix"da yozilishicha, Bulg'achi ismli oqsoqol o'g'illaridan birining ismi Joo Kisek edi. Shu o'g'il oilasi o'rnashib qolgan. Joy keyinchalik ushbu nom bilan atalib ketgan.

Shuni ham aytish kerakki, Zarafshon vodiysida o'rnashib qolgan qipchoqlar tarkibida "Qorakesak" nomida ham urug' bor. Jalaquduq tumanida "Kesak" qishlog'i ham bor.

YESHKILI – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanidagi ovul nomi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot qabilasining bir urug'i yeshkili (echkili) deb atalgan va shu qabila vakillari shu hududda yashaganligi uchun mazkur hudud shunday nom olgan.

YETTI QASHQA – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Chinobodga yaqin qishloq nomi. XVII asrda o'tgan mulla Sayfiddin Axsikatiyning "Majmu at-tavorix" asarida quyidagi ma'lumot keltirilgan: Sayid Mirjalol ismli ulug' shayxga (aftidan Mahdumi A'zam farzandlaridan) qo'l berib murid bo'lish uchun Oq Temur qipchoq degan oqsoqol yetti o'g'li bilan kelishgan (manbada ularning nomlari ham keltirilgan). Yetti og'a-ini oq qashqali bir xildagi bo'z ot minib kelishgan. Ular janglarga ham doimo mana shu qashqa ot bilan kirishardi. Shundan og'a-inilar "yetti qashqa" deb atalib ketgan. Ulardan bittasi o'rnashib qolgan joy – qishloq shu nom bilan atalib ketgan.

Boshqa manba – "Jangnoma" (Mulla Shavqiy asari)da keltirilishicha, XIX asrning 40-yillarida, ya'ni urug' boshliqlaridan mulla Xolbek va Muhammadyor davrida Yetti qashqa qishlog'i ancha kengaygan.

Shuningdek, Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumanida ham shunday nom borligi qayd etiladi. *Yettiqashqa* – qipchoq urug'laridan birining nomi.

XVI–XVII asrlarda Yettiqoshqinlar Qozog'istonning janubiy qismida (Kulan, Qarqara shaharlari hududida) yashagan. XVIII asrda boshqa qipchoq urug'lari bilan birgalikda qalmoqlarning hujumi ostida ular avval Toshkent vohasiga, keyin Farg'ona vodiysiga ko'chib kelib, tog'oldi hududlarida joylashdilar. O'zbek-qipchoq shevasining vakillari Yettiqashqa o'zbeklar tarkibiga kirdi.

Mulla Sayfiddin Axsikatiy tomonidan tojik tilida yozilgan "Majmu at-tavorix" asariga ko'ra, yettiqashqa – peshonalarida oq dog'lar bo'lgan yetti kulrang otga minib yurgan Oq

Temur Qipchoqning yetti o'g'lining avlodlaridir. Aslida qadimgi turkiy *qashqa* – "boshliq", "ajdod", "bek", "shahzoda" degan ma'noni anglatadi.

YERQOCHGAN – Jizzax viloyatining Do'stlik tumanidagi maydon va joy nomi. Shuningdek, Toshkent shahridagi joy nomi ham sanaladi.

Toponimning kelib chiqishi haqida quyidagi taxminlar bor:

1. Oldinlari odamlar o'zlari dehqonchilik qilayotgan yerlarni o'lchashda turli kamchilikka yo'l qo'yishgani uchun yer qochgan iborasini qo'llashgan. Keyinchalik bu ibora shu joyning nomiga aylangan. Bunda toponim agronimlardan biri sanaladi.

2. Toshkent shahrida 1966-yilda bo'lgan zilzilaning markazi xalq tilida ham shunday nomlangan. U jarlik va alohida obyektning nomi. Mazkur predikativ birikma uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *yer, qoch, -gan*. Toponim predikativ birikmadan shakllangan: *yer qochgan*. Tabiiy hodisalardan biri bo'lgan zilzila tufayli yerning silkinishi natijasida unda katta yoriqlar paydo bo'lgan.

Ushbu toponimning nomlanishiga zilzila bo'lmish geografik, ya'ni ekstralingvistik omilning ta'siri seziladi. Shuning natijasida nomlanish zaruriyati va toponimning motivlanish talabi bilan oldin predikativ birikma yuzaga kelgan. So'ngra esa u toponimga aylangan: *yer+qoch+-gan > yer qochgan > yer qochgan > Yerqochgan.*

Ushbu toponim birinchi ko'chish qonuni asosida nomlanish talabi bilan boshqa obyektlarga ham nom sifatida qo'llanilgan. Toponimning etimoni yer yorilib ketgan ma'nosida qo'llanuvchi ot + sifatdosh ko'rinishidagi predikativ birikma: *yer qochgan. Yer* so'zining sakkizinchi ma'nosi (biror punktdan naridagi joy), *qochmoq* so'zining ikkinchi ma'nosi (biror tomonga yo'l olmoq, nari ketmoq, biror joydan uzoqlashmoq) bilan birgalikda mazkur predikativ birikmani hosil qilgan: *yer+qoch+gan > yer qochgan*. Toponimik derivatsiya hodisasi tufayli bu predikativ birikma obyektning nomiga aylangan.

YERQO'RG'ON – qishloq nomi va Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri yaqinidagi qadimiy shahar xarobalari. Yer va qo'rg'on – qal'a, istehkom ma'nosini anglatadi. Yerqo'rg'on – "yer bilan qiyoslagan qal'a" ma'nosini ifodalaydi.

YETTIQUDUQSOY – daryo. Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani Kansay irmog'i. Yetti va quduq ("sayi, u yerda yetti quduq bo'lgan") so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

YOBIARIQ – qishloq. Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi qishloq nomi. Yobu o'zbeklar tarkibidagi qabila nomlaridan sanalgan. Demak, Yobu va ariq so'zlarining qo'shilishidan mazkur nom hosil qilingan.

YOBONIDUR – Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim tojikcha ***Yobon// yovon*** so'zidan olingan bo'lib, u *"dala"* deganidir va apellyativning ikkinchi komponenti ***dur*** esa – "uzoq" degan ma'noni anglatadi. Demak, **Yobonidur** toponimi – *"uzoqdagi dala"* yoki *"uzoq-*

dagi ekin yeri" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shunday ekan, oykonim dala nomi asosida shakllangan.

YOBUXONA – Buxoro viloyatining Buxoro, Jondor tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Toponim ikki qismdan iborat bo'lib, u "***yobu***" va "***xona***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi komponenti "***Yobu (jobu)***" – o'zbek urug'ining nomi. Yobu qozoqlar tarkibida ham bo'lgan, tarqoq holda Zarafshonning o'rta va quyi oqimi (Samarqandning Payariq, Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on, Narpay, Buxoroning G'ijduvon tumanlarida, Qarshi cho'llarida yashagan. Chorvachilik hamda dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. "***Yobu***" urug'lari o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan[1].

Bu qishloqda "***yobu***" urug'iga mansub kishilar istiqomat qilgani uchun shunday nomlangan. "***Yobu***" turkiy etnonim bo'lib, manbalarda "*yobu//yovu//yovi//jobili//jobu*" shakllarida uchraydi[2].

Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi "***Yabliqangli***" entoponimi ham shu bilan aloqadordir.

YOBU//YOVU//YOVI//JOBI//JOBILI – Zarafshon vodiysida ko'p uchraydigan joy nomlari sanaladi. Yobu o'zbek urug'laridan birining nomi. *Yobi//yobu* so'zining ma'nosi *oddiy, jaydari ot* demakdir. Ot nomining etnos nomiga o'tishi totem bilan aloqadordir. Samarqand viloyatida Ishmat yobu, Niyoz yobu, Maydajobu (Narpay), Yavu (Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om) nomli qishloqlar bor.

Ular Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimlarida tarqoq holda (asosan, hozirgi Payariq, Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on, Narpay va G'ujduvon hududlarida) va Qarshi dashtlarida yashashgan.

YOM – Samarqand viloyati va Samarqand shahridan janub tomonda joylashgan kent, shu yerdan oqib o'tuvchi soy Yom suvi (hozirgi Jom soyi) deb atalgan.

O'z vaqtida Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar istilosidan ozod qilish uchun olib borgan jang-jadallarning bir qismi ana shu Yom atroflarida kechgan.

"Boburnoma"da Boburning 902-yil ramazon oyida (1497-yil may-iyun) Andijondan Samarqandga yurishi munosabati bilan esga olinadi. Bobur Samarqand shahrini egallashdan avval uning yaqin atrofidagi bir qancha kent va qo'rg'onlarni oladi, Yom ham shular jumlasidan bo'lgan. "Qarobuloqdin ko'chub, suv kechib, Yom to'g'risida tushtuk".

YOMINI – Samarqand shahridagi mahalla nomi. (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -В.39). Hozirgi Zomin tumanining Yom qishlog'idan ko'chirib keltirilgan aholi shu hududda yashagan va shuning uchun mazkur hudud shunday nom olgan.

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, 3-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2002. –B.462.

[2] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro'z. 2020. –B. 72.

YOMONQANGLI – qishloq. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Yomon* va *qangli* (etnonim) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

YOMONQUYONCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. T.Nafasov tarkibida *yomon/jomon* so'zi ishtirok etgan etnonimlar ko'pligini qayd qilar ekan, *jomonsaroy, jomonqo'ng'irot, jamansho, jomonjoq* urug'larini misol qilib keltiradi. Yomon/jomon so'zi yasama, tarkibi *yo/jo+mon/-ma*. Etnonim boshidagi so'zning qadimiy shakli *jov/job/jab/chov/chav/chab*. Ma'nosi – lochin. Yomon/yobon qush nomi. Qush totemidan urug' nomlangan, urug' nomi qishloq nomiga asos bo'lgan deydi (Nafasov, 2009). Qoraqalpoq qiyotlarining tarkibidagi qo'ldovlilarning jomon quyonchi shoxobchasi bor (O'rinboyev, 2003).

YOMONTELPAK – qishloq. Samarqand viloyati Urgut tumanidagi qishloq nomi. O'zbeklarda qoraqalpoq, qoratelpak urug'lari bor. Yomontelpak qadimiy urug' nomlaridan biri bo'lishi mumkin. Yangi nomi Gulobod.

YOMONTO'P – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Yomonto'p kichik bir urug' nomi sanaladi (O'rinboyev, 2003).

YONG'OQLI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur apellyativning birimchi komponenti "***yong'oq***" so'zi "*mag'zi qattiq po'choq qobiqqa o'ralgan ko'p yillik mevali daraxt*" ma'nosida qo'llanadi hamda ***-li*** affiksi esa "*otlarga qo'shilib, so'z o'zagidan anglashilgan ma'noga ega ekanligini yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi* [O'TIL. 5, 583-584] *gan komponentdan tashkil topgan*".

Keltirilgan izohlarga tayanib, ushbu komonimni "*yong'oq daraxti ko'p o'sadigan hududda bunyod bo'lgan qishloq*" deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

YORDON – qishloq. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. *Yor* so'zi "jar" ma'nosini anglatishi haqida quyida aytilgan. *Don* ko'plik ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin. Masalan, Bordon, Garimdon, Zohidon, Mingdon, Roshidon kabi.

YORIY – Zarafshon vodiysining yuqori qismidagi kent. 906 (1500)-yili Shayboniyxon Samarqandni qo'lga olgach, Bobur Kesh tomonga ketadi. U yerdan Chag'oniyon, Kamrud, Sara dovoni, Iskandarko'l, Kashtud orqali yurib, Yoriy kenti to'g'risida Zarafshon daryosidan o'tadi. So'ngra Samarqand tomon yurib, shaharni egallaydi. "Yorining to'g'risidin Ko'hak (Zarafshon) suyidin ko'pruk bila kechtuk. Yoridin o'tub Shunqorxona tog'idin oshib, Yoryayloqqa kelduk". Demak, *yor* etnonimi va *-iy* qo'shimchasining qo'shilishidan mazkur oykonim hosil bo'lgan.

YORKATAY – qishloq. Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloq nomi. Oykonim *yor* va *katay* morfe-

malaridan tarkib topgan. *Yor* oykonim tarkibida *jar* ma'nosida qo'llangan.

Bizningcha, *katay* so'zi hozirgi *katak* so'zining fonetik o'zgarishga uchragan varianti. O'zbek adabiy tili va shevalarida fors-tojikcha *katak* ko'p ma'noli so'z sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) parranda yoki ayrim jonivorlar turishi uchun maxsus ishlangan uycha, bo'lma;

2) kichik-kichik bo'limlar, uyalar, teshiklarning biri[1].

Shuningdek, o'zbek tilida katak so'zi asosida yasalgan *"katakday kichik, ko'rimsiz hovli, uy, xona"* ma'nosida qo'llanuvchi *katalak* so'zi ham mavjud: Bor-u yo'q uylarini banda bayon gar qilsam: Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak (Maxmur).

Dalillardan anglashiladiki, *katak* so'zi *uy* ma'nosida ham qo'llanadi. Namangan, jumladan, Uychi tumani shevalarida ham *katak* so'zi *uy, uycha* ma'nolarida ishlatiladi: *Tovuqqa katak qildim. Bizni uy misoli bir katalak, juda tor* (Shevadagi so'zlashuv nutqidan). *Yorkatay* oykonimi tarkibidagi *katay* so'zi ana shu *katak* so'zining fonetik varianti. Yorkatay oykonimi uchun *jardagi uy* ma'nosidagi *yor katak* otli birikmasi etimon hisoblanadi. Vaqtlar o'tishi bilan *katak* so'zining ikkinchi bo'g'inidagi *-k* undoshi *-y* undoshiga o'zgargan. Yorkatay oykonimining lisoniy shakllanishi quyidagicha: *yordagi katak > yor katak > yorkatay > Yorkatay.*

YORMISH – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Ushbu termin "kichik ariq" ma'nosini ifodalab, shu hududda bir paytlari qo'l kuchi yordamida kichkina ariq qazilib, mazkur hududga suv keltirilgan hamda o'sha kichkina ariq Yormish deb nomlangan va Yormish arig'i bo'yida joylashgan mahalla ham shu nom bilan atalgan.

YORMOZOR – qishloq. Farg'ona shahar kengashiga qarashli qishloq nomi.

Toponim ikki so'zdan: *yor* va *mozor* so'zlaridan kelib chiqqan. Toponim tarkibidagi yor so'zi "jar" ma'nosini anglatishini bundan qariyb X asr oldin M.Koshg'ariy aytib o'tgan edi. "Jar" so'zining "yor", "yar" shaklida talaffuz etilishidan Farg'ona vodiysida Yorboshi, Yortepa, Yorqatoy, Yorqin, Yorqigiloq, Yorqo'rg'on, Oqjar, Oqyor, Kuyganyor, Ko'kyor, Yortagi, Yorko'cha kabi joy nomlari vujudga kelgan.

Mozor – O'zbekistonda toponimlar tarkibida ko'p uchraydigan termin. Bu so'z arabcha bo'lib, lug'aviy ma'nosi "sig'inish joyi" demakdir. Joy nomlarini tanlashda yaxshi mo'ljal vazifasini bajarib, saqlanish vaqti uzoq bo'lganligi uchun ko'p nomlar tarkibida mazkur so'z uchraydi. Masalan: *Arabmozor, Buvimozor, Ko'kmozor, Mozorboshi, Mozortagi, Oqmozor, Sarmozor, Terakmozor, Tolmozor, Xurmozor* va boshqalar.

YORQISHLOQ – Andijon viloyatining Jalaquduq tumaniga qarashli Oq-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. II t. – M: Rus tili, 1981. – B.372.

bo'ra daryosi bo'yidagi qishloq nomi. Bu nom "yor" so'ziga bog'liq holda vujudga kelgan. O'zbek tilida "jar", "jarlik" nomida keladi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "yor" – "jar" o'yilgan yer ma'nosida keladi. Bas, anglashiladiki, qishloq qadimda "Oqbo'ra" daryosi yoqasida paydo bo'lgani sabab, "yor (jar) qishloq" nomini olgan. "Yor" so'zi bilan atalgan nomlar ko'p uchraydi (Yortepa, Yorqo'rg'on (Namangan viloyati), "yormozor", (Farg'onada), "oqyor", "kuyganyor" (Andijon) va h.k.).

YORQOCHKAN – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim tarkibidagi ***"yor"*** so'zi *"jar, soylik"* ma'nosidadir. Chunki ***"jar"*** so'zi ko'pgina o'zbek shevalarida *"yor // yar"* tarzida talaffuz qilinadi [O'TIL. 5, 2, 73].

Uning ikkinchi komponenti ***"qochgan (qochmoq)"*** so'zi jarlikning boshqa tomonga qarab o'pirilib ketganidan dalolat beradi.

Shunday ekan ushbu mikrotoponimni *"qattiq sel, jala, yog'in tufayli jarliklar hosil bo'lgan hududda barpo etilgan aholi yashash maskani, qishloq"* deb izohlash to'g'ri bo'ladi [T.Nafasov, 72; B.O'rinboyev, 70].

YORTI QO'I – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom ikki komponenti sifat+ot shaklidagi mikrooykonim.

Apellyativning birinchi komponenti "Yorti" so'zi *"yarim, yarimta; chala"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 2, 671].

Uning ikkinchi qismi ***"QoT"*** so'zi esa *"ish-mehnat bajaruvchi a'zo (vosita) sifatida"* izohlanadi [O'TIL. 5, 591].

Demak, mazkur mikrooykonim biror bir ishni sifatli, to'liq bajara olmasligi natijasida vujudga kelgan va shunday shaxsga nisbat berilgan holda atalgan nom.

YORTEPA – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Toponimi to'g'risida ikkita taxmin mavjud:

1. Hamdard, hamdard tepa ma'nolarini anglatadigan nom: Yortepa. Kishilar ba'zan ruhan qiynalishganda o'zlariga do'st-yor, ya'ni hamdard va hamfikrlarni qidirishlari bor haqiqat. Mana shu jarayon oqibatida oronim, ya'ni tepalik Yortepa deya nomlangan. Aholi talaffuzda qisqalikka erishish uchun do'st-yor tepa deyish o'rniga *yor tepa > Yortepa* deb atashgan.

2. Mazkur toponim ikkita ma'noli qismdan shakllangan: yor, tepa. Birinchi ma'noli qism aslida uchta bo'g'indan iborat bo'lgan: yarilgan (*yor* so'zi oldin *ya:r* holida cho'ziq aytilgan, keyinchalik cho'ziqlik kamaygan). U (birinchi bo'g'in) talaffuz vaqtida va nomlanish jarayonida iqtisod tamoyili asosida qisqarib, *yar* holatida kelib qolgan. Ushbu qismga toponimlashuv jarayoni oqibatida tepa toponimik aniqlagichi, ya'ni oronimik xarakterdagi indikator qo'shilgach, unda tovush o'zgarishi va bo'g'in(lar) tushishi hodisasi ro'y bergan: *yarilgan > yarilgan+tepa > yaril tepa*

> yar tepa > yortepa >Yortepa. Tepa-(liklar) tabiiy-geografik obyektlardan biri bo'lib, o'z-o'zidan yorilmaydi, tabiiy ofat bo'lgan zilzila tufayli yer, shu jumladan, tepalar ham ma'lum bir vaqtdagina yorilishi geografiya va geologiyaga oid ilmiy kuzatishlarda tasdiqlangan. Bu toponimning etimologik tahlilida geografik va rekonstruksiya usullari leksik, fonetik tamoyillar bilan birga ishlatilgan.

Demak, ekstralingvistik omil ta'sirida ushbu oronimik obyekt, aniqrog'i, tepalik nomlangan. Toponim haqidagi birinchi taxmin xalqona etimologiyaning bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi taxmin ancha ishonchli ilmiy mulohazadir. Yorilib ketgan tepa ma'nosidagi ushbu toponimning etimoni *yarilgan tepa // yorilgan tepa* birikmasi sanaladi.

YOVARIQ – Toshkent viloyatidagi tarixiy qishloq nomlaridan, hozirda mavjud emas. Mazkur toponim ***Yov*** va ***ariq*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***Yov*** *Yobu* etnonimining dialektal varianti hisoblanib, mazkur toponimning hosil bo'lishiga *Yobu* etnonimi asos bo'lgan.

Yobular o'zbeklar orasida unchalik katta bo'lmagan (Xorazm viloyatining Shovot tumanida mavjud) urug'dir.

Demak, ***Yovariq*** etnotoponimi *"Yobular arig'i"* degan ma'noda bo'lib, avval ariq nomini anglatgan va keyinchalik *"shu ariqdan suv ichadigan qishloq"* ma'nosini ifodalagan.

YOVMUTJAM – Qoraqalpog'iston Respublikasining Mangit tumanidagi qishloq nomi (tarixiy etnotoponim, hozirda mavjud emas). Mazkur etnotoponim ikki so'zdan – ***Yovmut*** va ***jam*** so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Aslida, ***Yovmut*** turkman qabilalarining birining nomidir.

Yovmutlar XIX-XX asrlarning boshlarida Xorazm viloyatida hamda Shimoliy va G'arbiy Turkmanistonda yashaganlar. ***Jom*** so'zi *"to'p, to'da, jamlanmoq"* ma'nosini ifodalaydi. Xorazm viloyati va G'arbiy Turkmanistonda "qishloq, ovul" so'ziga teng keladigan toponimik indikatordir.

Demak, **Yovmutjam** etnotoponimi "Yovmutlar qishlog'i" ma'nosini ifodalaydi.

YOVXONA – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning ***Yovuxona// Yobuxona*** shakllari bo'lib, ushbu toponimning ma'nosi yuzasidan ***Yobuxona*** izohiga qarang.

Demak, ***Yovxona*** – "Yobu – jobu urug'i, qavmi vakillari yashaydigan qishloq" deganidir.

YOVG'IR – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim tumandagi tarixiy nomlardan biri hisoblanib, mahalliy aholining rivoyatlariga ko'ra, bir paytlari mazkur hududga yov bostirib kelayotganida, u yerda tandir bo'lganligi hamda xalqning og'zi bir ekanligi sababli, dushman orqaga qaytib ketgan va shuning uchun ham ushbu hudud Yovg'ir deb nomlangan ekan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham yovg'ir so'zi joy olmagan. Balki yovg'ir, yovqur so'zining dialektal variantidir.

YOYILMA – Andijon shahrining g'arb tomoni, qadimda shu nom bilan atalgan. Nom asli jug'rofiy atama bo'lib, bizning tekshirishlarimizga ko'ra, Andijon shahrining "Boburnoma" asarida tilga olingan to'qqizta arig'ining barchasi sharqdan g'arbga tomon oqqan.

XVI asrdan boshlab, ko'chmanchi o'zbek urug'lari asta-sekin o'troqlashib, atrofda ko'plab qishloqlar paydo bo'ladi va yerlar o'zlashtiriladi. Biroq shahar oralab oqib o'tadigan katta ariqlar yangi yerlarni sug'orishga texnik jihatdan tayyor emas edi. Katta ariqlardan, xususan, Burxonshayx, Xo'tan, Jo'ybozor ariqlaridan yangi yerlar sug'orilgach, tashlama – "paynob" suvlar tekis joylarda oqib yotgan. O'shandan boshlab bu joyning nomi "yoyilma" deb atalib ketgan (keyinchalik suv tartibga solingan, ammo nom saqlanib qolgan).

Shuningdek, Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi va Marg'ilon shahridagi mahallalardan biri ham Yoyilma deb yuritiladi. Bu so'z aslida turkiy tillarga xos bo'lib, *keng* degan ma'noni bildiradi. Ayrim o'zbek shevalarida hozir ham Yoylam, Yoyilma ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladi.

N.Oxunovning yozishicha (1989), *Yoyilma* aslida geografik atama bo'lib, yoyilmoq fe'lidan olingan. Daryo, soy, ariq suvining keng, tekis joydagi oqimi yoyilma deb ataladi.

YOZBULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. mazkur mikrotoponim "***yoz***" hamda "***buloq***" qismlarining qo'shilishidan tashkil topgan.

Uning birinchi komponenti "***Yoz***" so'zi "*yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasl*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 26].

Apellyativning ikkinchi qismi "***Buloq***" so'zi esa "*yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 1, 370].

Shunday ekan, ushbu mikrotoponimni "*yoz faslida buloq yonida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq*" deb izohlash maqsadga muvofiqdir.

YOZYOVON – tuman. Farg'ona viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Markaziy Farg'onadagi cho'l nomi. Bu nom xalq etimologiyasida "yozi yomon, issiq" deb izohlanadi. Aslida esa bu toponim tarkibidagi har ikkala so'z "yoz" ham, "yovon" ham "cho'l, dala, tekislik" demakdir.

Toponimning xalq orasidagi izohlari joyning tashqi ko'rinishi asosida vujudga kelgan. Bu nomning yoz (fasli) so'zi bilan aloqasi yo'q.

M.Koshg'ariyning yozishicha, yoz yoki yozi – "bo'shliq, ochiqlik, cho'l; yovon – "dasht, tekislik" degan ma'noni bildiradi.

Xorazm shevalarida "yovon" hozir ham "qishloq, shahardan uzoq joy" ma'nosida qo'llaniladi. Shunday qilib,

qishloq nomi cho'l nomi asosida vujudga kelgan (Do'simov, 1977; Qorayev, 2015; Oxunov, 1989).

YOSH O'SMIR – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. Mustaqillik yillarida atalgan mazkur nomni mahalliy aholi vakillari ikki xil variantda talqin qilishadi: 1) ushbu hududda yosh-o'smirlarga sport bilan shug'ullanishiga barcha shart-sharoitlar yaratilgani bo'lsa; 2) mazkur hududda asosan yosh oilalar ko'chib borib joylashgan yer sifatida.

YUKSALISH – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi mahalla nomlaridan biri. O'zbek tilining izohli lug'atida *yuksalish – taraqqiy etish, rivojlanish, o'sish, yuksak darajaga erishish, kamol topmoq* kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 80-bet).

YUNUSOBOD – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik. 1936-yil 26-avgustda Kirov tumani nomi bilan tashkil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1992-yil 8-maydagi "Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 579-XII-sonli qaroriga asosan Yunusobod deb qayta nomlangan. Yunusobod nomining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar bor. Ayrim tadqiqotchilar (akad. A.Muhammadjonov) fikricha, joyning nomi juda qadimiy bo'lib, asli "Yunusrabot" deb atalgan. Bu o'rinda "rabot" karvonsaroy ma'nosida qo'llangan. Shimoliy tomondan shaharga kiruvchilar shu joyda qo'nib o'tishgan. Mahalliy ziyolilarning fikricha, joyning nomi sabzorlik tadbirkor Yunus'hoji Nodirhoji o'g'li (XIX asr, Yunusobod Oqtepasida bog'-rog'lari bo'lgan) haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq. Tuman shaharning shimoliy qismida joylashgan.

YUQORI – qishloq. Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. Toponimikada relyefga nisbatan qo'yiladigan joy nomi. Biror obyektning ikkinchisiga nisbatan yuqorida, balandda joylashganligini anglatadi. Viloyatdagi Yuqori, Yuqori Archa, Yuqori Gulshan, Yuqori Mang'it, Yuqori Qishloq, Baland Masjid kabi nomlar shu asnoda vujudga kelgan.

YUQORI BULOQ BOSHI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom uch o'zakli mikrooykonim sanaladi. Yer qaridan chiqayotgan buloqlarning eng avvalgi, birinchisi, boshqalariga qaraganda yuqoriroqda joylashgan manzilga nisbatan aytilgan va shuning uchun ham shunday atalgan.

YUQORI BO'YRABOF – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Bo'yrabof* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Bo'yrabof* deb o'zgartirilgan. Apellativ tarkibidagi *bo'yrabof* so'zi forscha-tojikcha so'zdan olingan bo'lib, *"bo'yra to'quvchi", "bo'yrachi"* degan ma'noni bildiradi. Bo'yra – tozalangan qamish poyalarini ma'lum o'lchamda

kesib, taroshlab, bo'g'imlari orasidan ko'ndalangiga ip o'tkazib, tekis qilib to'qib, to'shamcha, uy-ro'zg'or ashyolari, qorauy chetani sifatida tayyorlanadigan moslama.

Demak, Yuqori Bo'yrabof – *"bo'yrachilar yashaydigan teparoqdagi joy"* degan ma'noni bildiradi. Aholining kasb-kori qishloqning nomiga asos bo'lgan.

YUQORI JO'SH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Ushbu mikrotoponim tarkibidagi "***jo'sh // jo'sha***" so'zi qizil tuproq ma'nosini bildiradi. Kulolchilikda sopol idishlarga qizil rang va naqsh berishda ishlatiladigan bo'yoq ***jo'sha*** deb ataladi [O'TIL. 5, 2, 119].

Uning ikkinchi qismi "*Yuqori*" so'zi esa "*biror narsaning eng ustki qismida joylashgan, tepaligi, balandligi, ustki*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 97].

Demak, **Yuqori jo'sh** mikrotoponimi Jo'sh qishlog'ining tepa, yuqori qismida barpo etilgan yashash maskani, qishloq ma'nosini anglatadi.

YUQORI PO'LATCHI – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi ***qishloq*** nomi. Aslida, ***Po'latchi*** o'zbek urug'laridan birining nomidir[1]. Toponim Po'latchi joy nomiga nisbatlanib yaratilgan.

Demak, ***Yuqori Po'latchi*** – *"yuqoridagi Po'latchi qishlog'i"* ma'nosini bildiradi.

YUQORI QATAG'ON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Qatag'on* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Qatag'on* deb o'zgartirilgan. Apellativning ikkinchi komponenti – *qatag'on* so'zi esa qabila nomi, etnonim.

Qatag'onlar o'zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Qatag'onlarning asosiy qismi Afg'onistonning Qatag'on viloyatida yashaydi; Markaziy Osiyoda qatag'onlar Tojikistonda (Quyi Vaxsh, Yaxsuv vodiylari, Panj daryosining o'ng sohili, Qo'rg'ontepa shahrida) va qisman Janubiy O'zbekistonda qayd qilingan.

Demak, Yuqori Qatag'on – *"qatag'on urug'i vakillari yashaydigan baland (yoki shimol)roqdagi qishloq"* ma'nosidadir.

YUQORI QIPCHOQ – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Qipchoq* deb atalgan. 2006-yil 26-iyulda *Yuqori Qipchoq* deb o'zgartirilgan. Toponim *yuqori* va *qipchoq* so'zlaridan iborat. Apellativning ikkinchi komponenti – *qipchoq* so'zi esa xalq nomi, etnonim.

Demak, Yuqori Qipchoq – *"qipchoq urug'i vakillari yashaydigan baland (yoki shimol)roqdagi joy"* ma'nosidadir.

YUQORI QO'SHTAMG'ALI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Qo'ng'irot qabilasining bir tarmog'i qo'shtamg'ali deb nomlangan [S.Qorayev. 1, 185-186; T.Nafasov, 264-265; S.Qorayev. 2, 155; Z.Ziyotov, 215; N.Begaliyev, 143].

[1] Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. –С. 41.

"***Yuqori***" so'zi "*biror narsaning eng ustki qismida joylashgan, tepaligi, balandligi, ustki*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 5, 97].

Yuqoridagilarga asosan mazkur mikrotoponimni "*qo'shtamg'ali urug'i vakillari tomonidan yuqori, baland tomonda barpo etilgan yashash maskani, qishloq*", deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Ushu etnooykonim to'rt qismdan tashkil topgan bo'lib, ***yuqori + qo'sh + tamg'a + -li*** affiksdan iborat sifat+son+ot+affiks strukturasiga ega.

YUQORI PICHOQCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Pichoqchi* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Pichoqchi* nomiga o'zgartirilgan. Apellativning ikkinchi komponenti – *pichoqchi* so'zi urug' nomi, etnonim. Zarafshon vodiysidagi qipchoqlar (oq qipchoqlar)ning bir urug'i *pichoqchi* deb atalgan.

Demak, Yuqori Pichoqchi – "*pichoqchi urug'i vakillari yashaydigan baland (yoki shimol)roqdagi qishloq*" ma'nosidadir.

YUQORI RABOTAK – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Rabotak* deb atalgan. 2009-yil 29-iyulda *Yuqori Rabotak* deb o'zgartirilgan. Toponim *yuqori* va *rabot* so'zlari hamda *-ak* affiksidan iborat. Apellativning ikkinchi komponenti – *rabot* so'zi "*qo'rg'on*", "*qo'ra*", "*hovli joy*" degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, Yuqori Rabotak – "*balandroqdagi (yoki shimolroqdagi) kichikroq qo'rg'on*" degan ma'noni anglatadi.

YUQORI SARIOSIYO – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Sariosiyo* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Sariosiyo* deb o'zgartirilgan. Toponim *yuqori* va *sariosiyo* so'zlaridan iborat. Apellativning ikkinchi komponenti – *sariosiyo* so'zi esa forscha-tojikcha so'z bo'lib, "*Tegirmon boshi*" degan ma'noni anglatadi.

Qishloq daryo yoqasida suv tegirmonlari bo'lganligi uchun ham shunday nomlangan. Qishloq nomiga uning geografik o'rni asos bo'lgan.

YUQORI SO'FILAR – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *So'filar* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori So'filar* deb o'zgartirilgan. Toponim tarkibidagi *yuqori* so'zi qishloqning geografik o'rnini bildiradi.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloqda ilmli, ma'rifatli insonlar ko'p yashaganligi sababli u shunday nom olgan. Geografik joy nomiga mahalliy aholi tomonidan berilgan bu izoh haqiqatga yaqin. Toponim tarkibidagi *so'fi* so'zi *masjidda azon aytuvchi kishi, muazzin* ma'nosidadir.

Demak, ular ma'rifatli kishilar bo'lishgan. Masjidda azon aytuvchi muazzinlar ko'p bo'lgan qishloq – so'filar. Demak, Yuqori So'filar – "*muazzinlar yashaydigan teparoqdagi*

(yoki shimolroqdagi) qishloq" ma'nosidadir.

YUQORI XALACH – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Xalach* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Xalach* deb o'zgartirilgan. Apellativning ikkinchi komponenti – *xalach (xalaj – qalach)* so'zi qadimgi qabila nomi, etnonim.

Xalajlar X asrdayoq hamma turkiy xalqlardan janubda, hozirgi Afg'onistonning janubiy qismida yashaganlar.

Etnograf B.X.Karmishevaning ma'lumotlariga ko'ra, xalajlar Qabodiyonda (Tojikiston, Kofarnihon daryosi bo'yida) va Mug'on cho'li (Ozarbayjon)da ham o'rnashib qolganlar va fors tilida so'zlashadilar. Xalajlar asli turkiy xalq bo'lgan; Rashididdinning "Jome ut-tavorix", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" va boshqa asarlarida tilga olingan. Demak, **Yuqori Xalach** – *"xalach qabilasi vakillari yashaydigan baland (yoki shimol)roqdagi qishloq"* ma'nosidadir.

YUQORI XOSRABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Xosrabot* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Xosrabot* deb o'zgartirilgan. Toponim *yuqori, xos* va *rabot* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellativning ikkinchi komponenti – *xos* so'zi *imtiyozga ega aholi*ni yoki *yuqori tabaqa vakili*ni bildiradi. Apellativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, **Yuqori Xosrabot** – *"imtiyozli aholi yoki yuqori tabaqa vakillari yashaydigan (balandroqdagi yoki biri ikkinchisiga nisbatan shimolda joylashgan) qishloq"* deganidir.

YUQORI XO'JARABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Xo'jarabot* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Xo'jarabot* deb o'zgartirilgan. Toponim *yuqori, xo'ja* va *rabot* so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan. Apellativning ikkinchi komponenti – *xo'ja* so'zi esa asli forscha bo'lib, *"xo'jayin", "sohib"* degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z toponimlar tarkibida ko'p marta takrorlanadi va bir necha ma'noni anglatadi:

1) sayidlardan keyin turadigan va dastlabki to'rt xalifa – choryorlarning avlodlari deb hisoblanadigan hukmron tabaqa;

2) biron kimsa yoki narsaning egasi;

3) birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan kishi. Keyingi vaqtlarda ma'lum va mashhur xo'jalarni *xoja* shaklida yozish hollari uchramoqda. Toponimning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* degan ma'nolarni anglatadi.

Qishloqqa choryorlarning avlodlari tomonidan asos solinganligi sababli, mahalliy aholining ma'lumotlariga ko'ra esa qishloqda xo'jalar avlodi yashaganligi sababli u shunday nom olgan.

YUQORI YANGIKENT – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Yangikent* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Yangikent* deb o'zgartirilgan. Nom *yuqori, yangi* va *kent* so'zlaridan iborat. Apellativning ikkinchi komponenti – *yangi* so'zi *"ilgari mavjud bo'lmagan", "yaqindagina paydo bo'lgan"* degan ma'noni anglatadi. Apellativning uchinchi komponenti – *kent* so'zi esa sug'dcha bo'lib, *"katta qishloq", "shahar"* degan ma'nolarni bildiradi.

Demak, Yuqori Yangikent – *"yuqoriroqda yaqin davrda vujudga kelgan qishloq"* ma'nosidadir.

YUQORI CHO'RIKALON – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Cho'rikalon* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Cho'rikalon* deb o'zgartirilgan. Mahalliy aholi qishloq aholisining to'rtdan bir qismi mehnatkash xalq bo'lganligi uchun dastlab *Chorikoron* deb atalgan, keyinchalik o'zgarishga uchragan, deb hisoblaydi.

Qishloq dastlab *Cho'likalon* deb atalgan. Toponim boshidagi *yuqori* so'zi qishloqning geografik o'rnidan kelib chiqqan holda keyinchalik qo'shilgan.

Cho'likalon so'zi forscha-tojikchada *"ulkan biyobon", "o'simligi siyrak yoki umuman o'simlik o'smaydigan katta dala-dasht"* degan ma'noni bildiradi.

YUQORI SHAYXON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Shayxon* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Yuqori Shayxon* deb o'zgartirilgan.

Mahalliy aholi qishloqda ilgari shayxlar yashaganligi sababli shunday nom olgan, deb hisoblaydi. Toponim tarkibidagi *yuqori* so'zi qishloqning geografik o'rnini bildiradi. Geografik joy nomining ikkinchi komponenti – *shayx* so'zi *"oliy musulmon ruhoniylari vakili", "mozor va boshqa ziyoratgohlar mutasaddisi"* kabi ma'nolarni anglatadi. Toponim tarkibidagi *-on* qo'shimchasi ko'plik affiksidir. Demak, Yuqori Shayxon – *"shayxlar yashaydigan balandroqdagi (yoki shimolroqdagi) joy"* ma'nosidadir.

YUQORIBOG' – mahalla. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. *Yuqori* va *bog'* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. *Yuqori* so'zi Xorazm shevasida *tepa, baland* ma'nolarida qo'llaniladi. *Bog'* esa forscha so'z bo'lib, mevazor, cha-*manzor* ma'nolarini ifodalaydi.

Demak, **Yuqoribog'** – *tepa, yuqorida joylashgan bog'* ma'nosini anglatadi.

YUQORISAROY – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. Saroy 92 bovli o'zbek qabilalaridan biri. Saroylar, asosan, Buxoro vohasi, Qarshi va Shahrisabz tumanlarida yashashadi. Shuningdek, Zarafshon tog'lari yonbag'irlarida va hozirgi Balx shahri atroflarida ham istiqomat qiladilar. Qisman Jizzaxda va Andijonga yaqin joylarda ham bor.

A.D.Grebenkinning so'ziga qaraganda, bu yerga saroylarning o'nta asosiy urug'idan faqat ikkitasi – jomon-as va to'qboy urug'lari kelishgan (Grebenkin, 1878: 89).

Mavjud ma'lumotlar saroylarning *oltintamg'asaroy, soydantumansaroy, miyonsaroy, o'rtasaroy, chinsaroy, oqsaroy, chanikilsaroy, o'zsaroy, sevaz sivaz* tarmoqlari (urug'lari) borligini ko'rsatadi.

Saroy qabilasi nomi bilan bog'liq toponimlar respublikamizning Andijon, Navoiy, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona va boshqa viloyatlarida uchraydi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida *Maydayavusaroy, Yakkasaroy, Kunsaroy* (Beshkent tumani), *Naymansaroy* (Chiroqchi tumani), *Saroy, Sivaz* (Kitob tumani) va boshqa bir qator qishloq nomlari qayd etilgan.

YUQORICHANDIR – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. (*"yuqorida, kun chiqishda joylashgan chandirlar"* ma'nosida) (Ataniyozov, 1980: 347).

YUZON – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi qishloq nomi. *Yuz* – o'zbek qabilasi: *-on* – forscha ko'plik qo'shimcha ko'rsatkichi. Demak, **Yuzon** – yuz qabilasi vakillari yashaydigan qishloq ma'nosini anglatadi.

YO'LO'TAR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "yo'l" va "o'tar (o'tmoq)" qismlaridan iborat.

"***Yo'l***" so'zi umumturkiy bo'lib, *"odamlar, jonivorlar va boshqa narsalar qatnovi natijasida yer sathida iz bosilib hosil bo'lgan uzun, davomli qism, qatnov qismi"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL.5, 2, 276-277].

Demak, mazkur mikrotoponim *"yo'l bo'yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq"* ma'nosini anglatadi.



ZAFRANJI – Samarqandning janubi-g'arbiy qismida joylashgan qishloq nomi. Darg'om kanaliga yaqin, Go'rkov qishlog'ining sharqiy qismida bo'lgan (ehtimol, hozirgi Balxiyoni bolo qishlog'i o'rnida bo'lgan) (Vyatkin, 1902).

ZAFAROBOD – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Zafarobod nomi ikki qismdan iborat, *"zafar"* arabcha *g'alaba, fath, yutuq, muvaffaqiyat, "obod"* – ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, *"obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", go'zal, chiroyli, tartibga solingan* ma'nosidagi affiks so'z. Obod – asli ob – "suv" so'zidan kelib chiqqan degan fikr mavjud. *Zafarobod – g'alabalar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar evaziga obod etilgan maskan, joy* demakdir.

Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi ham shunday atalgan. Qishloq 2006-yilga qadar Arabxona-1 deb atalgan. 2008-yil 20-avgustda Toshloq Arabxona deb o'zgartirilgan.

Qishloq nomiga arab xalqi nomi asos bo'lgan. Shu sababdan ham bu joy nomi etnotoponim hisoblanadi. Apellyativning birinchi komponenti – *toshloq* so'zi "tosh ko'p joy", "sertosh yer", "toshzor" degan ma'nolarni bildiradi.

Toponim tarkibidagi *Arabxona* so'zi esa "arablar yashaydigan joy" ma'nosidadir. Demak, *Toshloq Arabxona* – "arablar yashaydigan sertosh joy" ma'nosini anglatadi. Qishloq 2014-yilga qadar Toshloq Arabxona deb atalgan. 2014-yil 28-aprelda Zafarobod deya o'zgartirilgan. Nomning tarkibi ikkita so'z – "zafar" va "obod" so'zlaridan iborat. "Zafar" arabcha so'z bo'lib, "g'alaba", "yutuq", "muvaffaqiyat" degan ma'noni anglatadi. Oykonimning ikkinchi komponenti – *obod* so'zi esa ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib, joy nomini yasaydigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan" ma'nosidagi affiks sanaladi.

ZAHARTEPA – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. Zahar va tepa so'zlaridan tashkil topgan (Zahartepa – "zaharlangan tepalik"); Zahartepa, Shahartepa yoki Zartepa toponimlaridan kelib chiqqan.

ZAKKASHMAHALLA – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. "Zakkash" *zahkash* so'zining dialektal varianti bo'lib, u *botqoqlik* ma'nosini bildiradi.

ZAKOSH – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon hamda Romitan tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Buxoroda zahkash ortiqcha suvni yutadigan kanal turi, drenaj xandagi, kollektor, drenaj tizimi bo'lgan. XVI asrgacha bu kanal Zag'orkash deb nomlangan.

ZANGI – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim tojikcha ***sang*** – *"tosh, yolg'iz tosh"* ma'nosini ifodalaydi. Yag'nob tilida ***sang*** – *"yolg'iz katta tosh"* deganidir. Bu so'zning *tog', balandlik* degan ma'nosi ham bo'lgan. So'z oxirida jarangli **-ng** tovushi ta'sirida **s** jaranglashib **z** ga aylangan. ***Sang<zang*** – *"balandlik, tepa"*, qadimgi qo'rg'onlar baland joyda qurilgan. Ilk ibtidoiy davrda tog', tosh – sig'iniladigan asosiy narsalardan biri hisoblangan. Balandlik, tepa, tosh ma'nolardagi Zangning joy nomi sifatida qo'llanishi tog' kulti bilan bog'liq.

ZANGIBOYI – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Zangivayi bu Samarqand yaqinida joylashgan uchta arab qabilasidan biri, keyinchalik ular Darg'om kanali bo'yidagi yerlarga joylashib olgan (Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М., 1969).

ZANGIOTA – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. N.Oxunov tuman nomiga asos bo'lgan Zangiota (asli ismi Oyxo'ja ibn Toshxo'ja, 1258) shaxsi haqida shunday yozgan: Zangiota tasavvuf ta'limotining mashhur namoyandasi Toshxo'janing farzandlaridir.

Bu zoti kiromning asl nomlari Oyxo'ja bo'lib, Zangiota laqablaridir. Zangiota laqabining berilishiga sabab – ul kishining qora tanli ekanligidir. Oyxo'ja dadalari hayotliklari davrida ota himoyalarida, ul zot vafotlaridan so'ng padar ishoratlariga ko'ra Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota) xizmatlarida bo'lganlar, ayni chog'da, Ahmad Yassaviyni o'zlariga pir deb bilganlar, bu mo'tabar mashoyixga murid bo'lganlar.

Aytishlaricha, Zangiota butun hayotlari davomida halol mehnat qilib, tirikchilik qilganlar. Mahalliy aholining mollarini boqib kun kechirganlar. Zangiota chorvani balo-ofatlardan saqlaydigan muhofazachi, uning ko'payishiga yordam beruvchi ulkan homiy bo'lganlar. Zangiotaning nazari tushgan cho'ponlarning ishlari yurishib, mollari ko'paygan, ularga qut-baraka kirgan. Zangiota turk avliyolarining eng mo'tabarlaridan biri bo'lgan.

Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy o'zlarining "'Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida bu haqda shunday deb yozganlar: "Zangi ota – Turkiston mashoyixidindur va ko'p mashoyix suhbat va xizmatiga yetib va turk ulusida mashohirlaridandur. Aning

bobida ham ko'p so'zlar manquldur". Tuman ushbu buyuk zot nomlari bilan atalgan.

Avliyo, tasavvufning taniqli vakili bo'lgan. Toshkent shahrining Samarqand darvoza ko'chasidagi Zangiota mahallasida tug'ilib o'sgan, degan taxmin bor. Arab naslidan, qora tanli bo'lgani uchun zangi (zanji), hurmat yuzasidan va oliy himmatligi uchun Zangibobo Himmatiy deb atashgan. Zangiotaning qabri Zangiota tumanidagi Zangiota qishlog'ida joylashgan. Zangiota dafn etilgan mozor yonida masjid va madrasa qad ko'targan. Bu joy ziyoratgoh sanaladi[1].

Dahaning ikkinchi atalishi – "Beshog'och" qo'shma toponim bo'lib, "besh" va "og'och" o'zaklaridan tashkil topgan ("og'och" yoki "yog'och" – masofa o'lchov birligini anglatgan, taxminan 7–8 km). Beshog'och – "beshinchi yog'och", ya'ni "beshinchi stansiya", Eski Toshkentdan hisoblaganda beshinchi karvonsaroy ma'nosida ham talqin qilinadi[2].

Tarixchi Muhammad Solihxo'ja asarida mazkur toponim "Beshog'och" shaklida berilgan va qabila nomi ekanligi qayd etilgan[3]. Beshog'och dahasi Toshkentning janubiy qismini tashkil etib, Ko'kcha, Sebzor, Shayxontohur dahalari bilan tutashgan. Chegarasi shimoli-g'arbdan Quyi Bo'zsuv bo'ylab (hozirgi Uyg'ur va Samarqand darvoza ko'chalari oralig'idan), sharq tarafdan Beshog'och – Xadra yo'nalishi bo'ylab (hozirgi Furqat ko'chasidan) o'tgan. Dahaning janubida beshog'ochliklarning bog'lari va dehqonchilik yerlari (mavzelari) joylashgan. Beshog'och dahasining yerlari ancha notekis bo'lgan, unda Chuqurko'prik va Zaxariq ariqlari jarliklar hosil qilgan edi.

XIX asr oxirlarida Beshog'ochda uch darvoza (Samarqand, Kamolon, Beshog'och), 75 masjid, 3 madrasa (eng kattasi – Abulqosim madrasasi) bo'lgan[4]. N.G.Mallitskiyning ro'yxatida daha hududida 76 mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 36 mavze qayd etilgan. 1876-yilgi "Turkiston o'lkasi yilnomasi" ("Ежегодник Туркестанского края") xabarlariga ko'ra, Beshyog'ochda 1400 xonadon bo'lib, ularda 12450 kishi yashagan, aholisi misgarlik, egarchilik, tikuvchilik, pishiq g'isht tayyorlash kabi kasblar bilan mashhur bo'lgan. Daha hududida bog'lar ham ko'p bo'lgan. Beshyog'och dahasi hozirgi Shayxontohur tumani hududiga to'g'ri keladi.

ZANGIOTA DAHASI – xalq orasida ko'proq "Beshog'och" deb nomlangan. "Zangiota" – qo'shma toponim, ("zangi" – "qora", "ota" – "shayx", "pir"), antropotoponimlar guruhiga mansub. Dahaning nomi Zangiota laqabi bilan mashhur bo'lgan mutasavvuf shayx

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zangiota. T.3. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 666.

[2] Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T., 1965. – B. 19.

[3] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih..., – B. 25.

[4] Toshkent. Ensiklopediya. – B. 75.

Oyxo'ja ibn Toshxo'ja (vafoti 1258-yil) sharafiga shunday atalgan. Zangiota "podachilar piri" sifatida mashhur bo'lgan, shu sababdan uni ko'pincha Cho'ponota deb ham ataganlar[1].

ZANGULASOZI – guzar. Buxoro shahrining guzari. Forscha *zangula* – *qo'ng'iroq*, *Zangulasozi* – *qo'ng'iroq yasash* ma'nosidadir (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары, С. 199).

ZANJIRBOG' – qishloq. Samarqand viloyati yaqinidagi qishloq nomi. Zanjir va bog' so'zlaridan tashkil topib, *Zanjirbog' – chegara bilan o'ralgan bog'* ma'nosini anglatadi. Biroq bunday talqin – Sanjarfag'n nomining metamorfozi va keyingi qayta fikrlash natijasidir. Sanjarfag'n hozir ham Zanjirbog' shaklida Yangiariqning o'ng qirg'og'idagi qishloqda mavjud (В.В.Бартольд. Сочинения. Т. 1. С. 144; Вяткин. Материалы по истории. –С. 88).

Sanjarfag'n yuzasidan arab geograflari tomonidan ham ma'lumotlar berilgan (Истахри. БАГ, I. С. 320 – 323. Ибн Хаукал, БАГ, II. С. 369–373, Мукаддаси, БАГ, III. С. 266–279). Vaqf hujjatlarida Sanjarfag'n joyi Zanjirbog' nomi ostida mashhur bo'lgan. Sanjarfag'n toponimining birinchi komponenti sanskritcha *sangarma – "cherkovchi", "jamoat joyi"* suzidan kelib chiqqan, komponent esa sug'dcha fag'n – "ma'bud" ma'nolarini ifodalaydi (О.И.Смирнова. Места домусульманских культов Средней Азии (по материалам топонимики). "Страны и народы Востока", вып. 10. – М., 1971. С. 94).

ZARAFSHON – daryo nomi. Xitoy manbalarida Na-mi deb tilga olingan. (Bichurin (Iakinf) 1950: 272–274). Shunga asoslanib, Tomashek daryoning qadimgi ariycha nomi "Nomiq" bo'lgan, degan fikrni bildiradi (Tomashek. Sogdiana, p. 19–20).

Antik tarixchilarning asarlarida *Politimet* ("hurmatli") deb tilga olingan. Bu mahalliy nomning kalkasi (tarjimasi) bo'lsa kerak. Narshaxiyda Rudi Mosaf shaklida tilga olinadi (Narshaxiy. Buxoro tarixi. 1966: 15).

O'rta asrlarda Zarafshon daryosi asosan Ko'hak nomi bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, Vodiy us-Sug'd, Nahr ul-Buxoro, Haromkom nomlari bilan ham tilga olinadi (Muhammadjonov, 1972: 62–65).

XVIII asr boshlarida ba'zi bir manbalarda daryo Ko'hak nomi bilan bir qatorda "Zarafshon" deb ham yozila boshlagan. Uning keyingi nomi birinchi marta "Tarixi Roqimiy" asarida tilga olinadi (Muhammadjonov, 1972).

Biroq Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asaridagi Zarafshon bog'i haqidagi hikoyaga ko'ra, bu nom XVI asrda ham mashhur bo'lgan (Azimdjanova, 1977). Daryoning Zarafshon deb atalishi to'g'risidagi afsonalardan birini K.F.Butenev quyidagicha keltiradi: "...makedoniyalik Iskandar daryoning yuqori qismida oltindan to'g'on qurdirib, suv-

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih... – B. 27.

ni bog'lagan. Oltin to'g'ondan oqib o'tgan suv uni yuvib, mayda oltin zarrachalarini o'zi bilan quyiga olib borgan". Shuning uchun daryo *"Zarafshon"*, ya'ni *"oltin keltiruvchi"* nomini olgan, – deydi u (Butenev, 1842). Ba'zi olimlar Zarafshon daryosining etimologiyasini daryo suvining hayotbaxsh ahamiyatiga bog'lashadi.

Shuningdek, *Zarafshon* – forscha *zar* – oltin, "*afshon* – sochiluvchi, tarqaluvchi"dir. Ilk va o'rta asrlarda daryoning quyi oqimida qumdan oltinni yuvish ishlari bilan qadimdan shug'ullanishgan, XIX asrning 30-yillarida ham ko'rish mumkin edi, maxsus oltin ishlab chiqaruvchilar quyoshda zar sochib turgan tillalarni qo'yning terisi bilan tozalab ish olib borishgan.

Ayrimlar ta'kidlashadiki, daryo bunday nomni maydonlarni sug'orish ma'nosiga ham ega bo'lganligidan olgan. Daryo antik geograflar tilida Politimet nomi ostida, o'rta asrlar arab tili mualliflari ishlarida esa Namik, Rudi Masaf, Haramkam, Rudi Sharg, Samdjan (sug'dcha – "qora suv idishi"), Vodiy us-Sug'd (arabcha – "Sug'd daryosi"), Nahr ul-Buxoro (arabcha – "Buxoro daryosi") tarzida nomlangan, Nahr ul-Ko'xak (arabcha) yoki Daryoyi Ko'xak (forscha – *Ko'hak* – hozirgi Cho'ponota, Samarqand ostidagi tepaliklar shunday nomlangan). Daryoning hozirgi nomi XVII asrda ham uchraydi. Shu munosabat bilan quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Mug tog'lari bilan tilga olingan sug'd hujjatlarida Zarup joyining nomi yoki qishlog'i "Tilla suv", "Oltin suvli" tarzida nomlangan, manbalarda qayd etilishicha, Zarafshon daryosi ham sug'dcha nom bo'lishi mumkin (Согдийские документы с горы Мут. выпуск III. – М., 1962).

ZARANGARI// ZARANGORI – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ***zar*** va ***angor*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Apellyativning birinchi qismidagi ***zar*** so'zining "tilla" so'ziga hech qanday aloqasi yo'q. ***Zar***, aslida, old qo'shimchasi hisoblanib, ***zir***ning dialektal, ya'ni shevadagi shaklidir. ***Zir*** esa "pastki, quyi" degan ma'noni bildirib, respublikamiz, shuningdek, qo'shni mamlakatlar toponimiyasida hozirda ham ko'p qo'llaniladi (В.И.Савина. Словарь. 1991).

Apellyativning ikkinchi qismi ***angor*** esa "poyasi urub olingan dala" demakdir.

Demak, ***Zarangori*** – *"dala pastidagi yoki dala chetidagi qishloq"* degan ma'noni anglatadi. Z.Do'simov va X.Egamovlar mazkur toponimni ***Zarangori*** shaklida qayd etib, "dala pastdagi, dala chetidagi qishloq"" deya sharhlagan[1].

ZARANGBULOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi qishloq nomi. Zarang – yapaloq bargli, yog'ochi qattiq, tog' va toshli yerlarda ancha sekin o'sadigan daraxt. Zarang – uzoq yillar ekin ekilmay tuprog'i zichlashib, yuzasi qotib

[1] Do'simov Z., Egamov X. Ko'rsatilgan asar. –B.66.

qolgan yer. Zarang daraxti tosh orasida, tog' ichida o'sadi. Buloq zarang yerda – adirda qazilgan. Zarang yerda bunyod etilgan buloq (yonidagi qishloq) – Zarangbuloq. Muborak tumanidagi bir qishloq Zarbuloq deb yuritiladi. *"Katta, ulkan, bosh, yuqori, ust"* ma'nosidagi arabcha – *"zar"*. Zarbuloq – katta buloq, ko'p suvli buloq. Zar – shirin suvli buloq. Buloq nomi qishloq nomiga aylangan.

ZARANGTOSH – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi tosh nomi. O'zbek tilida ***zarang*** ko'p ma'noli va omonim so'z bo'lib, *"kungurador, yapoloq bargli, yog'ochi qattiq daraxt"* ma'nosini ham anglatadi. Oronimga apellyativning mana shu ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan.

Tosh orasidan zarang daraxti o'sib chiqqani bois ham, u joy shunday atalgan.

Ayrim tosh, qoya kabi oroobyektlar metaforik tarzda insonning tana a'zolariga nisbat berish asosida nomlangan.

Samarqand oronimiyasidagi *Bukritosh, Dastortosh, Qurbaqatosh, Egartosh* kabilar metaforik oronimlardir (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

ZARBAND – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki qismdan: yani ***zar*** va ***band*** qismlaridan iborat. Apellyativning birinchi qismi ***zar***ning *"oltin, tilla"* kabi so'zlar bilan hech qanday aloqasi yo'q. U fors-tojikcha tilidagi o'zlashma bo'lib, ***zar*** – *zir* old qo'shimchasining shevadagi varianti hisoblanib, *"quyi, pastki"* degan ma'noni anglatadi.

Professor Z.Do'simov toponimning ikkinchi qismi ***band***ni "to'g'on" deb hisoblaydi va ***Zarband*** *"to'g'on pastidagi qishloq"* deb ataydi[1].

Boshqa bir manbalarda ***band*** *"mustahkam, qo'riqlangan"* ma'nosi qayd etiladi.

Demak, shunga asoslanadigan bo'lsak, ***Zarband*** *"pastidagi yoki quyidagi mustahkam qishloq"* ma'nosini ifodalaydi. Bizningcha, ikkinchi variant haqiqatga yaqinroqdir.

Umuman, ***zar*** old qo'shimchasi o'zbek va boshqa qo'shni davlatlar toponimiyasida ko'plab uchraydi. Samarqand viloyatidagi **Zargar** tog'ining nomi ham shu old qo'shimcha bilan aloqadordir. Ikki komponentdan tashkil topgan **Zargar** nomining ikkinchi qismi gar yoki g'ar "tog'" ma'nosini bildirib, "pastdagi tog'"dir.

ZARBDOR – tuman. Jizzax viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1979-yil 4-dekabrda tashkil topgan. Maydoni – 0,71 ming kv.km (70 ming 966 ga), Chegara uzunligi (145,3 km). U Sirdaryo viloyati va Zomin, Sharof Rashidov, Paxtakor tumanlari bilan chegaradosh. Tuman hududi Mirzacho'lning janubida joylashgan. Relyefi, asosan, tekisliklar va tog'oldi

[1] Z.Do'simov., X.Bektemirov. Joy nomlarining qisqacha lug'ati. – Toshkent. 1977. –B.67.

adirliklardan iborat. Iqlimi – keskin kontinental. Tuman markazi temir yo'l stansiyasi ham hisoblanadi.

Toponimning qadimiy nomi Teshiktepa (Teshikto'ba) bo'lgan. Zarbdor toponimidagi zarb – muhr, tamg'a, -dor mansublik, tegishlilikni bildirib, "muhr va tamg'a yasovchilar" mazmunidadir.

Qo'chqor Hakimovning "Jizzax viloyati toponimlari" (Jizzax viloyati toponimlari, Sangzor nashriyoti, 2014-y 73-b) kitobida Zarbdor so'zi "zarb" – arabcha kuch, quvvat, "dor" – egallash, o'rnak bo'lish. Zarbdor – ilg'or, boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'ladigan shaxsga berilgan nisbat, deb keltirilgan. Tuman markazi bo'lgan hozirgi Zarbdor shaharchasi 1962-yilgacha, 1897-yilgi Axaltaka ekspeditsiyasining boshlig'i general Lomakin nomi bilan Lomakino, deb atab kelingan.

ZARBULOQ – Farg'ona viloyatining Buvayda, Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanlaridagi qishloq nomi. Toponim ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, qismlari o'zaro aniqlovchi-aniqlanmish qolipida munosabatga kirishgan: *zar + buloq.*

Nomning birinchi tarkibiy qismi sanalgan *zar* leksemali joy nomlarini vodiy toponimiyasida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi *Zartepa*, Toshloq tumanidagi *Zarkent*, Bag'dod tumanidagi *Konizar*, Beshariq tumanidagi *Zarqaynar* toponimlari bunga misol bo'ladi.

Toponimlar tarkibidagi *zar* leksemasi fors-tojikcha *sar* birligining o'zgargan shakli hisoblanadi va u quyidagi ma'nolarga ega: 1. Bosh; 2. Har narsaning avvali, boshlanish, ibtido; 3. Tepa, yuqori, yuza; 4. Uch; 5. Rais, sardor, boshliq (Фарханги тафсирии забони точикй. Чилди 2. – Душанбе, 2008. 206-с.).

Geograf olim E.M.Murzayev *sar* terminining ko'pgina turkiycha toponimlar tarkibida "bosh", "asosiy", "yuqori", "katta", "boshlanish", "asos" ma'nolarini ifodalashini qayd etadi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, *Zarbuloq* – "Bosh buloq", "Katta buloq" yoki "Buloq boshi" dir. Qishloq katta buloq yonida joylashganligi uchun unga shunday nom berilgan.

ZARDBULOQ – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi buloqlardan biri. Fors-tojikcha *"zard" – talx, achchiq* va o'zbekcha *"buloq"* so'zlaridan yasalgan nom. Gidronimiyada Achchibuloq, Achchisuv kabi nomlar ko'p uchraydi.

ZARDOLISOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Ushbu nom "***zardoli***" va "***soy***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Mazkur apellyativning birinchi komponenti "***zardoli***" – *"o'rik daraxti va uning mevasi"* ma'nosida qo'llanadi [O'TIL. 2, 137].

Geografik termin sanalgan "***soy***" so'zi esa *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pas-*

lik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" ma'nolarini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

Demak, "***Zardolisoy***" – *"qirg'oqlarida o'rik daraxtzori bo'lgan kichik daryo"* ma'nosini bildiradi. Odatda, daraxtzor soyning boshlanish nuqtasida joylashgan bo'ladi.

ZARGAR – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi qishloq nomi. Samarqand viloyatidagi **Zargar** nomining mazkur **Zargar** nomi bilan almashtirmaslik kerak. Chunki Samarqand viloyatidagi **Zargar** – tog' nomi. Biz tahlil qilayotgan Zargar esa qishloq nomi bo'lib, Samarqand viloyatidagi **Zargar** tog' nomiga hech qanday aloqadorligi yo'q. Demak, mazkur toponimga kasb nomi asos bo'lgan va **Zargar** tilla, oltin kabi qimmatbaho metallardan taqinchoq, bezak buyumlari yasovchi usta, humarmanddir. Shunday ekan, **Zargar** "taqinchoq, bezak buyumlari yasovchi usta, humarmandlar qishlog'i" ma'nosini ifodalaydi va zargarlik bilan shug'ullanadigan qishloqlar nomi shunday deb ataladi.

Bunday nomdagi toponimlar respublikamizning ko'plab hududlarida uchraydi.

ZARGARLAR// ZARGARLIK – mahalla. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. Zargarlik – badiiy hunarmandlik sohasi: oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi hisoblanadi. Zargarlar – zargarlik kasbi bilan shug'ullanuvchilar ma'nosini anglatadi. Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi qishloq nomi bo'lib, Zargarlik aynan "zargarlik kasbi" ma'nosini ifodalaydi.

ZARGARON – Samarqand shahridagi mahallalardan biri. Buxoro viloyatining G'ijduvon, Jondor tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Tarixchi olim M.M.Abramov uning XVIII asrda paydo bo'lganligini qayd etib, mahallada yashovchilarning asosiy qismi o'zbek va tojiklardan iboratligi. bir qismi eroniylar ekanligini yozadi.

Biroq Zargaron nomi Jaloliddin Rumiy asarida qayd etilganini hisobga olsak, bu mahalla tarixi ancha qadimiy ekanligini taxmin qilish mumkin. Mahalla aholisi asosan ayollar uchun tilla, kumush va boshqa rangli metallardan zeb-u ziynat buyumlari yasash bilan mashg'ul bo'lganliklari uchun Zargaron (Zargarlar) deb atalgan.

Zargar – "oltin, kumush va turli qimmatbaho toshlardan ziynat buyumlari, bezaklar yasaydigan usta[1]lar yashaydigan qishloq" ma'nosini anglatadi. -on – tojikcha, ya'ni "-lar" ma'nosini ifodalaydi.

Demak, Zargaron – zargarlar yashaydigan qishloq yoki tilla va kumushdan har xil zeb-u ziynatlar yasaydigan kishilar.

ZARHAL – mahalla. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi mahalla

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981. –B. 300.

nomi. Bronza yoki oltin suvi yuritilgan yozuv yoki naqsh shunday ataladi. Zardek nurafshon mahalla ma'nosida bo'lishi mumkin.

ZARKENT – qishloq. Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va Farg'ona viloyatining Quva hamda Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Zar* – oltin, *kent* – shahar, qishloq, aholi punkti. (Shoshda) Muqaddasiyda tilga olingan qishloq Zarankent. V.V. Bartold uni Toshkent viloyatining zamonaviy qishlog'i Zarkent, deb qayd etadi (B.B. Бартольд. Сочинения. T. 1. C. 232).

Arab geograflaridan Muqaddasiy (X asr) o'z asarida Shosh viloyatida tilga olingan Zarankent qishlog'ini V.V.Bartold hozirgi Zarkent bo'lishi mumkin degan. Etimologiyasi noma'lum. *Zar* – "oltin", *zer (zerin)* – "quyi", "etak"; *Zerinkat* – "pastdagi qishloq", "tog' etagidagi qishloq" ma'nosini anglatadi. Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi qishloq ham shunday nomlanib, u quyidagicha izohlanadi: toponimning birinchi qismidagi "zar" tojikcha "sar" so'zining o'zgargan shakli bo'lib, "yuqori, baland, tepa" ma'nosini bildiradi, "kent" esa "qishloq" demakdir.

Demak, Zarkent – "balandlikdagi qishloq, tepalikka joylashgan qishloq" ma'nosini anglatadi (Do'simov, 1977; Oxunov, 1994; Qorayev, 1978).

ZARMITAN – Navoiy viloyatining Qiziltepa va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

Birinchi marta Muqaddasiy asarida to'liq masjidi bilan mustahkamlangan qishloq sifatida tilga olinadi (БАГ, III. C. 282).

Fors tili orqali o'zlashgan "***metana***" so'zi "***yashash joy***" ma'nosida ham qo'llanadi.

V.L.Vyatkin esa "***miton***" so'zini *"qal'a, qo'rg'on"* degan ma'noni bildiradi, deb yozgan (М.Л.Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. Справочная книжка "Самаркандской области", вып. VII. 1902, 25).

Zarmitan va Zarkentning atrof hududidan oltin rudasi sanoat darajasida qazib olinadi. leksik jihatdan ikki o'zakli sifat+ot shakliga xos.

ZARMITANCHA – qishloq. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi qishloq nomi. "Kichik Zarmitan" – bu yerda ilgari Zarmitan deb nomlangan qishloq yaqinida paydo bo'lgan "Ikkinchi Zarmitan" ma'nosida qo'llanilgan.

ZARMONOQ – Buxoro viloyatidagi qishloq nomlaridan biri. Mazkur toponim, ya'ni qishloq nomi XVI asrga oid tarixiy manbalar – "Abdullanoma", "Ravzat ar-rizvon" (Jannat bog'i) kabi asarlarda uchraydi. Buxoro xoni Abdullaxon bilan Jo'ybor xojalarining yirik vakili Xoja Islom shu yerda uchrashib, Buxoroni Balxga almashtirish masalasini hal qilishgan. Katta tarixiy vazifa aynan shu qishloqdagi uchrashuvda o'z yechimini topgan. O'rta asrlarda "Dashti Zarmanoq" deb yurtilgan. Toponim Zarmakon atama-

si asosida tarkib topgan degan fikr ham mavjud.

Yuqoridagi tarixiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar to'g'ri, biroq nomga berilgan izoh shubhaliroq.

Birinchidan, toponimning ikki qismdan iborat ekanligini inobatga olib, apellyativning birinchi qismi *zar-* va ikkinchi qismi *–manoq//monoq* lisoniy, ya'ni etimologik va leksik jihatdan tahlil qilinmagan.

Birinchidan, O'zbek tilining izohli lug'atida zar so'zi beshta ma'noni ifodalab, birinchisi–oltin, tilla; ikkinchisi–oltin bilan teng, oltinga o'xshash; uchinchisi–tilla, pul, umuman boylik; to'rtinchisi–zardo'zlikda zarbob to'n; beshinchisi-bezak yoki o'rov uchun ishlatiladigan yubqa yaltiroq metall varag'i yoki zarhallangan qog'oz deganidir[1].

Ikkinchidan, Xorazm viloyatining Shovot tumanida ham Monoq nomli qishloq bo'lib, u Xorazmiycha, ya'ni substrat qatlamga mansub bo'lib, *miyon//miyonoq//Monoq* tarzida shakllangan va u o'rtadagi qishloq ma'nosini ifodalaydi.

Shunday ekan, ***Zarmanoq*** – *"zari mavjud o'rtadagi qishloq"* ma'nosini bildiradi.

ZARQAYNAR – Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Zarqaynar toponimi ikki tarkibiy qismdan iborat. Tarkibidagi *zar* fors-tojikcha *sar* birligining jaranglilashgan tovush shakli hisoblanadi. U toponimlar tarkibida – bosh, yuqori, ust, yuza, baland, katta, boshlanish, asos singari ma'nolarni bildiradi.

Qaynar birligi esa geografik termin hisoblanib, P.N.G'ulomov uning izohi haqida quyidagilarni keltiradi: **Qaynar** – 1) suvi pastdan yuqoriga ko'tarilib chiqadigan buloq – qaynar buloq; 2) ariqlar yo'l yoki katta ariq, pastlik joy tagidan quvurlar orqali chiqarilgan inshoot ham qaynar deyiladi.

Bizningcha, toponim tarkibidagi *qaynar* termini buloq so'ziga aloqador bo'lib, *Zarqaynar* oykonimi dastlab *Zarqaynarbuloq* shaklida bo'lgan. Keyinchalik tarkibidagi *buloq* so'zi tushib qolgan va nom ixchamlashgan. Biroq hozirda ushbu Zarqaynar nomi Quyi Zarqaynar, Yuqori Zarqaynar tarzida ikkiga bo'lingan.

Demak, *Zarqaynar* oykonimini "Katta qaynar buloq yonida joylashgan qishloq" tarzida izohlash to'g'ridir. Shuningdek, viloyatning Beshariq tumanida *Qaynarbuloq*, O'zbekiston tumanida *Oxunqaynar, Kattaqaynar* singari joy nomlari mavjud.

ZARTEPA – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal hamda Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Zar* – oltin, *tepa* – cho'qqi, tepalik. Qachonlardir oltin tanga topilgan qo'rg'onlar shunday nomlangan. T.Nafasovning ta'kidlashicha, u Hisortepa (arabcha *hisor* – qal'a) so'zidan kelib chiqqan.

ZARG'ALDOQ – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jild. –Toshkent, 2023. –B. 342.

qishloq nomi. *Zarg'aldoq – sariq qush* (qishloq nima uchun shunday nomlangani noma'lum) ma'nosini anglatadi.

ZATAN – XVIII asrda Zaxtan shaklida tilga olinadi. Miyonqolning yuqori qismidagi yirik qishloqlardan biri. Zatan keyinchalik ikkiga, ya'ni Qo'shqo'rg'on va Do'langa ajralgan (Chexovich, 1974:270). V.L.Vyatkinning fikriga ko'ra, Zatan hozirgi Qo'shqo'rg'on o'rnida bo'lgan.

ZAXKASH//ZAKASH – Buxoro viloyatining Peshku, G'ijduvon, Romitan tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Mazkur qishloq nomi zahkash so'zidan olingan.

Zaxkash (ba'zan zaxbar) avvalgi kabi botqoqlik yerlari emas, hozirda u "drenaj kanali", "kollektor", "suv xandaqi" kabi ma'nolarda qo'llaniladi (О.Д.Чехович. Терминологические заметки, "Народы Азии и Африки". – М., 1964, №66. –С. 69–70; О.Д.Чеховичю Бухарские документы XIV. – Ташкент 1965. –С. 219).

Zax – fors-tojik tilida *"tuz, sho'r"* ma'nolarini ifodalasa, -kash yasovchi qo'shimchadir. ***Za(x)kash*** deganda *portov va zax suv oqadigan ariq, zovur tushunilgan.*

Xorazm viloyatida hozirda ham shu ma'noda qo'llaniladi. Ayrim viloyatlarda uning ***zovur*** varianti ishlatiladi, shu jumladan, rasmiy hujjatlarda ham zovur deb yuritiladi. XVI-XV asrlardagi Buxoro vaqf hujjatlarida ***zag'orkash*** shaklida ham uchraydi. ***Zax suvi*** O'rta Osiyoda *zak, zag, zex* shakllarda uchraydi. Ko'p joylarda zax yerni zaxkash deyiladi[1].

ZAG'ORKASH – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Forscha *zag'orkash* – kanalning turi, drenaj xandag'i, kollektor, drenaj tizimini o'zlashtiradigan kanal turi. Zag'ora deb tuproq va toshlar bilan aralashgan toshqinlar, butun oqimlar atalgan, *o'rta* fors tilida "suv bilan namlangan tuproq". XVI asrda bu turdagi kanallar zaxkash yoki zahbar deb atalgan (О.Д.Чехович. Бухарские документы в XVI в. – Т., 1965.–С.219;.П.П.Иванов.Хозяйство джуйбарских шейхов. –С. 152, 153; О.Д.Чехович. Терминологические заметки. "Народы Азии и Африки". – М., 1964).

ZEVARSOY – daryo. Kshtut daryosining oxirgi chap irmog'i (Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani) – forscha *zevar* – chiroy demakdir. **Zevarsoy** – *"chiroyli, manzarali vodiy"* ma'nosini anglatadi.

ZILXA – qishloq. Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi qishloq nomi. Kavkaz tizmasida *Zilg'a* nomli cho'qqi qayd etiladi.

ZINAK – qishloq. Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. *Zin* – sug'd tilida tog' beli (tog'ning ikki cho'qqi o'rtasidagi qismi)dir. *Zinak* esa – kichik tog' beli demakdir. Atama sug'dcha *zin* – tog' beli va *-ak (-cha)* affiksidan tashkil topgan. Tojikiston Respublikasi Xo'jand viloyati Ayniy tumanida Zin nomli mavze va Zinak nomli mahalla ham bor.

[1] Qorayev S. Ko'rsatilgan asar. –B.57.

ZINGARON – Samarqand shahridagi mahalla nomi. Tojikcha *zin+gar+on* morfemalaridan tashkil topgan. *Zin* – egar, egarga o'xshash jihozlar, *-gar* kasb-kor ma'nosidagi so'z yasovchi affiks, *-on* ko'plikni bildiruvchi qo'shimcha. O'tmishda ot, tuya, eshak kabi oyoq-ulov hayvonlari ustiga qo'yiladigan egar va shunga o'xshagan jihoz yasovchi kishilar yashagan guzar, mahalla.

ZINDONTEPA – qishloq. Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi qishloq nomi. Zindon – qamoqxona, yerosti qamoqxonasi demakdir.

Demak, **Zindontepa** toponimi *tepalikdagi qamoqxona* ma'nosini anglatadi.

ZIRABULOQ – Samarqand viloyatining Kattaqo'g'on tumanidagi qishloq va tog' nomi. Xalq orasida mazkur toponimning ***Zarbuloq*** degan izohi keng tarqalgan. Aniqrog'i, ***Zirabuloq*** *Zarbuloq* nomining shevalardagi shaklidir, -kabi fikrlar yuradi. Aslida esa, ***Zarbuloq*** nomidagi ***zar*** so'zi ***-zir*** old qo'shimchasining dialektal shakli bo'lib, u "*quyi, past*" degan ma'nolarni bildiradi.

Demak, mazkur toponim ***-zir*** va ***buloq*** qismlaridan tashkil topib, ***Zirabuloq*** – "*quyidagi yoki pastdagi buloq*" degan ma'noni anglatadi.

ZIRISHAYTON – Tarixiy toponim (hozirda mavjud emas) Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponimning etimologiyasi haqida turlicha fikrlar mavjud. Mahalliy aholi uni "shayton" so'zi bilan bog'laydi. Ba'zilar ushbu nomni ***zirg*** "piyoz" bilan aloqador deb hisoblashsa, ayrim tadqiqotchilar uni ***Zirhi shahidon***, ya'ni "*shahidlar qalqoni*" deb izohlaydilar (Y.Jumanazarov).

Mazkur toponim ***-zir*** old qo'shimchasi yordamida hosil qilingan bo'lib, apellyativning ikkinchi komponenti, haqiqatan ham, shayton emas, shahidon, yani shahidlar "*mozor*" deganidir va ***Zirishayton*** – "*mozordan, qabristondan qiyidagi qishloq*" ma'nosini ifodalaydi.

ZIYOKOR – mahalla. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi mahalla nomi. Mazkur termin fors tili orqali o'zlashgan bo'lib, u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ilm tarqatuvchi, ma'rifatparvar, bilim targ'ib qiluvchi* ma'nolarini ifodalaydi.

ZIYORAT – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro, Qorako'l hamda va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Ziyorat – muqaddas joylarni ibodat qilish (muqaddas joy atrofida qishloq paydo bo'lgan) ma'nosini anglatadi.

ZODIYON – qishloq. Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi qishloq nomi. Asli Zohidon bo'lib, *"Zohidlar" – tarki dunyo qilgan kishilar"* ma'nosida deb hisoblaydilar. Tojikcha *on (-yon)*, o'zbekcha *-lar* qo'shimchalari toponim yasovchi affikslardir (Qorayev, 1970). Viloyatda kishilar ismidan Zebiniso (ayollar ko'rki, bezagi, huri parisi), Zohiriy (arabcha – ko'rinib turgan, oshkor bo'lgan), Zulfiya (tojikcha – jingalak sochli qiz) kabilardan ham joy nomlari yasalgan.

ZOLDORI – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bir o'zakli mikrooykonim. Mahalliy shevada o'rikning mevasini ***zoldori*** ham deb nomlaydi. *O'rik guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg'ish, qizg'ish ranglarda bo'ladigan yirik daraxt* [O'TIL. 5, 591] hisoblanadi va mazkur hudud shuning uchun ham shunday nomda.

ZOMIN – tuman. Jizzax viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. XV asrda ma'muriy-hududiy jihatdan Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan.

Zomin toponimi (Zabын, Zobin – tuman nomining qipchoq shevasida aytilishi) – Jizzax viloyatiga qarashli, asosan, tog', tog'oldi, qisman paст-tekisliklardan iborat. Shuningdek, tumanning madaniy-ma'muriy markazi bo'lmish shaharcha ham shunday ataladi.

Zomin juda qadimiy tarixga ega bo'lib, uning paydo bo'lganiga ikki ming yildan oshiqroq bo'lganini isbotlovchi arxeologik dalillar bor. "Zabын" yoki Zomin so'zining kelib chiqishi ayrim olimlarning tadqiqotlariga ko'ra "yam" so'ziga borib taqaladi. Ularning izohlashlaricha, so'zning boshidagi "y" undoshining talaffuzda ba'zan "z" tovushiga, "m" tovushining "b" undoshiga aylanishi qipchoq lahjasiga xos xususiyatdir. Shuning natijasida mahalliy xalq tomonidan "yom" so'zi "zom" tarzida aytila boshlangan. O'zakka joy nomini yasovchi "-in" qo'shimchasi qo'shilishi bilan "Zobin" yoxud "Zomin" atamasi vujudga kelgan.

Taniqli nomshunos olim prof. To'ra Nafasov ushbu toponimning kelib chiqishi va ma'nosini o'ziga xos yo'sinda izohlaydi: "... qishloq nomlari ... qishloq nomlari yasovchi maxsus so'zlar (hozir ularning ko'pchiligi mustaqil so'zlik ma'nosini yo'qotib, qishloq nomining ajralmas qismiga aylangan, ma'nosi uqilmaydi, yangi nom yasamaydi, qadimiy nomlar tarkibida qotib qolgan) guruhi bo'lgan, ular yordamida asosan shahar, qishloq, qo'rg'on nomlari yasalgan. Olim hozirda alohida so'zlik xususiyatini yo'qotib, qo'shimchaga aylangan, ammo yangi so'zlar yasash jarayonida qatnashmaydigan so'zlar qatoriga bir paytlar "qo'rg'on" ma'nosida qo'llangan "mon", "man", "min" kabi ko'rinishga ega bo'lgan so'zlarni kiritib, "Polmon", "Yozmon", "Xushman", "Marmin", "Zomin" atamalari aynan o'sha so'z–qo'shimcha ko'rinishi ishtirokida yasalgan joy nomi degan xulosa keladi.

Zomin Sug'diyona bilan Farg'onani bir-biriga bog'lab turadigan asosiy jug'rofiy va ma'muriy-iqtisodiy bekat hisoblangan. IX asrda yashab o'tgan arab sayyohi Ibn Xardoz o'zining sayyohlik kitobidagi maxsus bir bobni "Zomindan Farg'onagacha yo'l" deb nomlagan. Unda Burnamazdan Zomingacha to'rt farsax, Zomindan Xovosgacha, yalanglikdan o'lchansa, yetti farsax, Sovotgacha to'qqiz farsax masofa borligini ta'kidlagan.

Shuningdek, Toshkent viloyatining Bekobod va Piskent tumanlaridagi qishloqlar nomlari ham Zomin nomi

bilan ataladi. Zominovul – qishloq. Jizzax viloyatidagi Zomin tumanidan ko'chib kelganlar yashaydigan qishloq bo'lganligi uchun shunday atalgan.

Zomin O'rta asrlarda yirik shahar bo'lgan. Birinchi marta ushbu nom (Zomin) X–XI asrlardagi arab geograflari – Istaxriy (БАГ, I, 326, 327, 335 va b.), Ibn Havqal (БАГ, 2, p. 379,380, 382), Muqaddasiy (БАГ, 3, 49,52, 265, 277) va boshqalar tomonidan tilga olinadi. Oxirgi o'rta asrlarda u Susanda, Sarsanda, Sabza ("yashil") deb ham nomlangan.

ZOMINI – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -B.21). XVIII asrda hozirgi Zomin tumanidan ko'chirtirilib keltirilgan aholi yashagan va mazkur hudud shuning uchun ham shunday nomlangan.

ZOMINQISHLOQ – Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani va Toshkent viloyatining Bo'ka tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Urushdan keyingi davrda Zomin tumanidan bo'lgan harbiy odamlar shunday nomlangan.

ZOVRAQ//ZAVURAQ – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi katta qishloq nomi. Ushbu toponim "Zovur" so'zidan kelib chiqqan. "Hisorak", "Hovuzak" nomlaridagi kabi *"ak"* affiksi toponim, ya'ni nom yasovchi hisoblanadi. Aslida, "Zovur ariq" bo'lishi ham mumkin, sug'orish shoxobchasining chuqurligiga ishora. Qishloq azaldan mevali bog'lar va serhosil ekin maydonlariga serob bo'lgani sababli xalq "Zarvaraq" nomi bilan bog'laydi. Ammo bu to'g'ri emas. Manbada qayd qilinishicha, XVIII asrda qirg'iz urug'idan chiqqan Boybiche Zovur ismli kishi shu yerdagi yer-suvini sotib ketgan. "Zovraq" – o'sha nomdan deyiladi.

ZOG'ZA – mahalla. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi qishloq nomi. Xalq nutqida Zag'za talaffuzi ham bor. Fors-tojikcha *zog'* – qarg'a (qush). Zog'-zog'an deganda, qarg'alar-quzg'unlar tushunilgan. Zog'za mahallasi shahar girdida, daryoga tutash bo'lgani, u yerda bog'-rog'lar ko'p bo'lgani, Charmgar mahallasi odamlarining yozlik bog'oti, yozda ko'chib chiqadigan qarorgohi bo'lgani, qish oylari ko'chib kelib qarg'a singari qushlar yashagani sababli zog'lar-qarg'alar joyi deb atalgan deyishadi.

Mahalla nomini qarg'a-quzg'un ma'nosidagi zog', zog'-zog'an so'ziga aloqador deb bilish ilmiy, amaliy asosga ega emas. Eroniy tillarda zah, zax – nam joy, suvli yer, suv chiqqan joy. Suvli xandaq ham zah, zax deyilgan. Sug'd tilida *zoy – joy, yer (kichik parcha)*. Uzoq o'tmishda buloq singari yer tagidan suv chiqadigan joyi bo'lgani uchun Zaxzoy deyilgan. So'ng o'zbeklar nutqida o'zgarib Zag'za, Zog'za qiyofasiga o'tgan.

ZULFIQOR – Farg'ona viloyatidagi tarixiy antropotoponim. To'rtinchi xalifa Alining afsonaviy farzandi. "Aqlli" degan ma'noni anglatadi. Qo'qon yaqinidagi Qo'qon xoni Xudoyorxondan (XIX asr) yer uchastkasini olgan Zulfiqor ismi nomiga Zulfiqor qishlog'i paydo bo'lgan.

ZULMONOTA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Apellyativning birinchi qismi "***Zulmon***" shaxs ismi bo'lib, o'z davrining ilmli, bilimdon kishilaridan bo'lgan va keyinchalik ilohiylashtirilib, o'zi yashab o'tgan mazkur maskanga uning nomini berishgan.

ZULMUROD\\ZUDMUROD – XV asrda Samarqand shahrida tashkil etilgan mahalla va masjid nomi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, B.32). XIX asrda Xo'ja Zudmurod qabristoni hududida masjid qurilgan.



O‘BA – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro, G‘ijduvon, Romitan tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Qadimgi turkiy tilda *oba* – qabila, urug‘ (Девону луғотит турк, т. I. С.114; Древнетюркский словарь. С. 362) nomi bo‘lgan.

Ko‘pchilik turkiy tillarda *oba* – 1) ko‘chmanchi qabilalarning otlari; shunday joylarda ko‘chmanchilar yashaydigan joy, oila; 2) to‘da, qo‘rg‘on, cho‘qqi (B.B.Радлов. Опыт словаря, т. I: столбик 1157), turkman tilida va Xorazmda – qishloq.

O‘BAZULFIQOR – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim ikki komponentdan iborat bo‘lib, apellyativning birinchi qismi, ya’ni “***o‘ba***” so‘zi Buxoro, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida isteqomat qiluvchi qipchoqlar shevasida “*qishloq*” ma’nosini bildiradi.

Apellyativning ikkinchi qismi “***Zulfiqor***” antroponimi O‘zbek ismlari lug‘atida shunday izohlanadi: “teshib o‘tuvchi, xarob qiluvchi; xalifa Alining ikki damli, afsonaviy qilichining nomi; o‘tkir, keskir, kuchli, qudratli”dir.

Demak, “***O‘bazulfiqor***” nomi anopotoponim bo‘lib, “*Zulfiqor qishlog‘i*” degan ma’noni ifodalaydi hamda uning geografik shakliga qarab va *O‘bazulfiqor qishlog‘i* joylashuvi qilichsimon bo‘lgani sababli ham unga shu nom berilgan.

O‘KLAN – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi toponim. Qishloq vaqf hujjatlarida Dehinav nomi bilan qayd etilgan (Вяткин. Материалы..., 1902: 67). XIX asrning o‘rtalarida Buxoroga kelgan sayyoh N.Xanikov “Nasabnomayi o‘zbekiya” kitobidan keltirgan ro‘yxatda o‘klan (o‘g‘lon) urug‘i qayd qilingan (Qorayev, 1978:162).

O‘KRASH yoki **O‘KRACH** – Samarqand viloyatining Narpay, Toyloq, Urgut va boshqa tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Etnotoponim. Nayman qabilasining yirik tarmoqlaridan biri o‘krach (o‘krash) deb ataladi.

O‘N BESH TO‘LA – Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom son+ot strukturali mikrooykonim sanaladi.

Oykonim va mikrooykonimlar tarkibidagi ***to‘la*** - kishilar tomonidan

istiqomat qilish uchun tuproqli qir va tepaliklarda o'yib kovlash natijasida yasalgan uy ma'nosini ifodalaydi hamda ushbu hudud shuning uchun ham shunday nom olgan.

O'NIKKI – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. Mang'it qabilasining bir bo'lagi o'nikki deb atalgan (Qorayev, 1978: 162).

Shuningdek, ushbu etnik atama no'g'oylarning mang'it urug'i tarkibida ham bor.

O'N OLTI YAMAN//YAMANLAR – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. Mazkur toponimga asos bo'lgan *on altı* etnonimi Xiva xonlari arxiviga oid hujjatlarda o'zbek urug'laridan biri sifatida qayd etilgan[1].

Mazkur etnonim tahlili birmuncha qiziqarli lisoniy faktlarni taqdim etadi. Aslida, etnonim hisoblangan *Yamanlar* joy nomi xalq orasida etnik birlik nomi asosida shakllangani unutilib, keyingi vaqtda aksar xalq etimologiyasi yo'li bilan izohlanishi kuzatiladi. *Yamanlar* joy nomi uchun asos bo'lgan *yaman* etnonimi etimologiyasi turkologiyada munozarali so'zlardan sanaladi.

Ushbu so'z turkiy tillarda VIII asrlardan boshlab yozma manbalarda uchraydi[2]. *Yaman* ayrim ma'no farqlari bilan hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida ishlatiladi[3]. Ayrim tadqiqotlarda bu so'z qadimgi xitoy manbalarida *já-mán*, hozirgi xitoy tilida *yá-mán* shaklidagi *"yovvoyi, madaniyatsiz"*; *"yovvoyilik"*, *"madaniyatsizlik"* so'zlari bilan bog'liq deb ko'rsatilgan[4]. Ushbu fikrda ham, V.B.Xenning tomonidan uning qadimgi forsiy *vimâna* (hozirgi fors tilida o'zbek tiliga o'zlashganidek *"gumon"* shaklida) so'zlariga bog'lashda ham, bizningcha, ayrim muhim lisoniy faktlar e'tiborga olinmagan.

Birinchidan, ushbu so'z tarkibidagi *ya* komponentini hozirgi o'zbek tilida ham faol iste'molda bo'lgan *"o'ta yomon"* mazmunidagi *"yovuz"* so'zi bilan shaklan ham, mazmunan ham bog'liqligi ko'rinib turibdi.

Demak, har ikkala so'zdagi *ya* komponetining o'zi hozirgi o'zbek tilidagi *"yomon"* ma'nosini berganini taxmin qilish mumkin.Uning *man* tarkibiy qismi esa turkiy tillarda *ban // ben* shaklida umuman shaxsni, insonni anglatgan so'z bo'lishini turkiy tillarda azaldan mavjud *ben* kishilik olmoshiga qiyosan taxmin qilamiz. Turkiy tillarda *m* sonori bilan so'z boshlanishi odatiy holat bo'lmasa ham *"b"*ning boshqa bir komponent bilan birikib, so'z o'rtasida boshqa burun tovushiga aylanishi tabiiy fonetik jarayon hisoblanadi (bu haqda qarang:

[1] Rustamov M. O'zbek etnografiyasi. –Toshkent: Fan, 1990.–B. 11.

[2] Древнетюркский словарь. Под редакции Наделяева В.М., Тенешова Е.Р., Щербака А.М. –Л.: 1969. –С.231.

[3] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласных). –М., 1974. –С. 184.

[4] Bu haqda qarang: Шервашидзе И.Н. Фрагмент общетюркской лексики. Заимствованный фонд//Вопросы языкознания. 1982. №2. –С. 64.

D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

O'LMAS – Namangan viloyatining Norin tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi o'zbeklarning qipchoqlar tarkibidagi "o'lmas" nomidan olingan. Farg'ona vodiysi tumanlarida shu nomdagi qishloqlar anchagina. Shuningdek, "Katta o'lmas", "Qo'g'ay o'lmas" qishloqlari mavjud. "O'lmas ariq" ham bor. Namangan viloyatining Norin tumanidagi mazkur qishloq hozirda "Katta O'lmas" MFY nomi bilan yuritiladi.

O'QCHI – Toshkent shahrining qadimgi mahalla nomi. U Mergancha, Olmazor, Tepaqishloq mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. 100 dan ortiq xonadon yashagan. Aholisi, asosan, o'zbeklar (600 nafar kishidan ortiq) bo'lib, hunarmandchilik, jumladan, bo'zchilik, qizalish (ot yopig'i) tikuvchiligi, nilchilik (mato ranglash), katta ikki g'ildirakli Qo'qon arava o'qini yasash, degrez (cho'yangar)lik, savdo-sotiq, shahar atrofidagi mavzelarda, xususan, Qorasuv havzasida dehqonchilik (sholikorlik) va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. XIX asrning 60–70-yillaridan mahallaning bir qismida mahalliy yahudiy savdogarlarning turar joylari, shahar bozorida esa Juhudrasta paydo bo'lgan. O'qchining janubi-sharqida Anhor bo'yida Toshkent shahrining Qo'ymas (Qatag'on) darvozasi joylashgan. Anhorning so'l sohilida qad ko'targan Tali Qo'ymas qo'rg'onini va darvozani Qatag'on va Qiyot urug'iga mansub o'qchi sarbozlar qo'riqlagan. Shu boisdan mahalla O'qchi nomi bilan yuritilgan.

Ushbu nom Farg'ona viloyatida ham uchraydi.

O'RAZTOY – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Zarafshon qipchoqlarining bir urug'i o'raztoy deb atalgan (Шаниязов, 1974: 123).

O'RAMAS – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. A.D.Grebenkin Zarafshon okrugidagi minglar haqida to'xtalib, bu qabila to'g'ali, bog'lon va uvoqtamg'ali urug'laridan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Uvoqtamg'alilar, o'z navbatida, algal, chavutjayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyikxo'ja va yarat (jarat) tarmoqlariga bo'lingan (Grebenkin, 1874: 332).

Demak, O'ramas etnotoponim. Paxtachi tumanidagi O'ramas qishlog'i ham shu asosga ega.

O'RAY – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy tumanlari hamda Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloqlar nomlari. Zarafshon vodiysidagi qipchoqlarning sariqipchoq urug'iga kiradigan kichik bir to'par o'ray deb atalgan (Shoniyozov, 1974:124).

O'RAYELPAK – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. O'ray (q.) – urug' nomi. Elpak ham etnonim bo'lishi mumkin – shu tumandagi Chuvat (cho'bot) elpak

degan qishloq ham elpak so'zining etnonim ekanligini ko'rsatadi (Qorayev, 1978: 162).

O'RDAY – qishloq. Andijon viloyati Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. *Orday* (mo'ynaq) qirg'izlarning adigina qabilasi urug'i (Н.Ф. Ситняковский. Перечисление некоторых родов киргизов, обитавших в восточной части Ферганской области; ИТОРГО, т. 2, вып. 1, 2, Т.,1900. С. 102).

O'RMONBEK – qishloq. Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarashli qishloq nomi. So'nggi Qo'qon xoni Xudoyorxonning 1865-yili tavallud topgan o'g'liga O'rmonbek deb ism qo'yilgan va bo'lg'usi taxt vorisi sifatida uning nomiga katta chek yerlar berilgan edi.

Afsuski, xonlik chorizm tomonidan bosib olinib, xon orzusi ro'yobga chiqmadi, O'rmonbek qishlog'i esa hamon bor.

O'ROQLI – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. O'roqli degan urug' bo'lgan. "So'loqlining to'yida o'roqlining ne ishi bor" degan matal bor (so'loqli ham urug').

O'RTABO'Z – Samarqand viloyatining Jomboy, Nurobod va Payariq tumanlaridagi tepa va qishloq nomi. Toponim ikki ma'noli qismdan iborat: ***o'rta*** va ***bo'z***. ***Bo'z*** so'zi ko'kka moyil oq rang ma'nosi bilan joy nomi tarkibida qo'llangan. Oqish rangdagi tuproq bo'z tuproq deyilgan. ***O'rta*** so'zi toponimlar tarkibida hududiy bo'lak ma'nosida ishlatiladi: O'rtabo'z, O'rtaqishloq. Shuningdek, o'rta so'zi belgi va miqdor ma'nolarini ifodalab, bo'zli tuproqning o'rtacha rangini hamda holatini ko'rsatadi.

Onomastik konversiya hodisasi natijasida bu birikma tarkibidagi ma'noli qismlar birlashib, bir butun holatda qo'shma so'z holiga kelib qolgan, shu tarzda joy nomiga ko'chgan: ***o'rta+bo'z*** > *o'rta bo'z* >*O'rtabo'z*.

Demak, oqish rangli bo'z tuproqqa ega bo'lgan hudud degan ma'no toponimning ma'nosi sanaladi. Ushbu toponimning etimoni o'rta bo'z ko'rinishidagi atributiv birikma. U nomlanish talabi bilan onomastik konversiya tufayli bir butun so'zga aylanib, joy nomiga o'tgan (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

O'RTAQISHLOQ – Samarqand viloyatining Tayloq hamda Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar momlari. Mazkur mikrotoponim "***O'rta***" va "**qishloq**" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Apellyativning birinchi qismi "***O'rta***" so'zi "*sathning chetlaridan markaziga tomon teng uzoqlikda bo'lgan qismi, nuqtasi, markaz*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 5, 170].

Uning ikkinchi qismi "***Qishloq***" so'zi esa "*aholi yashash maskani*" degan ma'noni anglatadi [O'TIL. 5, 5, 315].

Yuqoridagilarga asoslanib, ushbu "***O'rta*qishloq**" mikrotoponi-

mini *"tog'lar o'rtasida barpo etilgan aholi yashash maskani, qishloq"* deb izohlash maqsadga muvofiqdir. Leksik jihatdan ikki o'zakli sifat +ot shakliga xos.

O'RTAQO'RG'ON – Farg'ona viloyati Furqat tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Atrofi devor bilan o'ralgan mustahkam hovli *qo'rg'on* deb atalgan, boshqa ma'nolari haqida quyida so'z yuritiladi. *O'rta* so'zi biror obyektni geografik o'rni o'rtada, markazda joylashganini bildiradi. Bunday nomlardan O'rta ko'cha, O'rta qo'ng'irot, O'rta o'qchi, O'rta qishloq kabilarni keltirish mumkin.

O'RTASAROY – qishloq. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq hamda Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloqlar nomlari. O'rta – oraliqdagi, Yuqori va Pastki qishloqlari o'rtasida joylashgan Saroy ma'nolaridadir.

Bundan tashqari, o'rta saroy – saroy qabilalarining 3 yirik bo'linmalaridan biri: bosh saroy – asosiy saroy, o'rta saroy va kichik saroy yoki kenja saroy – kichik saroy.

O'RTASOY I//O'RTASOY II – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq va soy nomi. Mazkur mikrotoponim ***"o'rta"*** va ***"soy"*** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"O'rta" so'zi *"sathning chetlaridan markaziga tomon teng uzoqlikda bo'lgan qismi, nuqtasi, markaz"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 1, 170].

"Soy" so'zi esa umumturkiy bo'lib, *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy"* ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

Shunday ekan, ***O'rta soy*** nomi *"tog'lar o'rtasidagi soy bo'yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq yoki soy"* deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Leksik jihatdan ikki o'zakli sifat+ot shakliga xos.

O'RTAVUZ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Ikki tomoni uzun yassi balandlik bilan o'ralgan, o'rtasi pastqam, chuqur soylik, qo'riq, o'ti ko'p yer – *buz/bo'z*, o'rtavuz – o'rtasi buz/bo'z deyiladigan chuqur soylikdan iborat bo'lgan dala. Shu dala bo'yidagi qishloq – O'rtavuz. Dala, yaylov nomi qishloq nomiga o'tgan, qishloq dala atrofida joylashgan.

O'RTAYOP – mahalla va qishloq. Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomi. Mahalliy aholi vakillarining ta'riflariga ko'ra, mazkur qishloqning o'rtasidan yop – kichik kanal kesib o'tganligi tufayli ushbu hudud O'rtayop deb atalgan.

O'RTACHIM – Samarqand viloyatining Ishtixon va Oqdaryo tumanlaridagi tepa nomi. Oronim ikkita ma'noli qismdan iborat: ***o'rta*** va ***chim***.

Apellyativning birinchi topoleksemasi ***o'rta*** so'zi bo'lib, *oraliq, qurshov, davra, yarim, markaz, muhit* ma'nolarini ifodalaydi.

*Ajriqli joy, ajriq ko'p o'sgan yer*ning ***chim*** deyilishi e'tiborga olinadigan

bo'lsa, ushbu toponim ajriqli joyning o'rtasi, ajriq o'sgan yerning o'rta qismi ma'nosini anglatadi. Uning etimoni ***o'rta chim*** birikmasi bo'lib, onomastik konversiya hodisasi tufayli joy nomiga ko'chgan (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti).

O'SKU – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomi. O'zGU (O'zbekiston davlat universiteti, hozirgi SamDU)ning qishloq xo'jalik ekinlari joylashgan hududdagi qishloq. O'zGU mahalliy shevada O'sKU shaklida talaffuz qilingan. Asli nomi Boybishe.

O'TAMBETCHUNGUL – Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumani "Mulik" OFY hududida joylashgan o'y nomi. Bu o'yning yonida O'tambet ismli yoshi ulug' inson istiqomat qilgan ekan, bu esa o'yning nomiga o'tgan.

O'TARCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Ishtixon, Oqdaryo, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomlari. O'tarchi qabilasi turli manbalarda tilga olingan. Dashti Qipchoq o'zbeklaridan bo'lgan o'tarchi qabilasi XV–XVI asrlarda Movarounnahrga kelib, Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand viloyatlarida tarqoq holda yashagan.

XX asr boshlariga kelganda o'zbek qabilalari tarkibida o'tarchi urug'i qayd qilingan. O'tarchi "vaqtincha yashovchi" (ko'chmanchi) demakdir (Qorayev, 1978: 164).

O'tarchi nomidagi qishloqlar Samarqand viloyatining Ishtixon, Oqdaryo, Pastdarg'om tumanlarida uchraydi. Manbalarda O'tarchi Toyloq qishlog'ida (Oqdaryo tumani) ham qayd qilinadi.

O'TROR – Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur ***O'tror*** toponimi ilmiy manbalarda qadimgi shahar nomi sifatida qayd etilgan[1].

O'troqi toponimi haqida ma'lumot bergan toponimist T.Nafasov uning qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali bo'limiga qarashli urug' ekanligini qayd etgan[2].

O'YILMA – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Ushbu termin *o'y (pastlik, chuqurlik ma'nosida)* so'zi asosida hosil qilingan bo'lib, pastlikda, chuqurlikda joylashgan yer, joy, mahalla ma'nosini bildiradi.

O'YMOVUT – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida ikkita O'ymovut qishlog'i bor. Ularning har ikkalasi ham Qashqadaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. So'ngisining aholisi XX asrning 50-yillarida daryo bo'yidagi bo'sh yerlarni o'zlashtirish uchun Qumdaryo qirg'og'idagi lalmi joyda joylashgan O'ymovut qishlog'idan ko'chib kelish-

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. 10-jild. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B.554-555.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B.349.

gan. Ko'chirilgan aholi yangidan tashkil qilgan qishlog'ini avvalgi qishlog'i nomi bilan O'ymovut deb atashgan. Qishloq aholisi o'zlarini mang'it deb hisoblashadi. O'ymovut degan urug' borligini bilishmaydi.

Shahrisabz tumanida ham bir qishloqning nomi – O'ymovut.

Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida O'ymovut qishlog'i mavjud. O'ymovut, O'ymavut, Uymavut nomli qishloq, mahalla, ovullarning respublikamizning boshqa viloyat va tumanlarida bo'lishi tabiiy.

Chunki o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug', qabilalar sirasida o'ymovut etnonimi ham mavjud. Zikrlangan qishloq nomlari O'ymovut etnonimi bilan bog'liq. Etnonim qishloq nomiga aylangan.

Nomlanish motiviga ko'ra, qishloq, mahalla, ovul yo boshqa joyning nomlanishida shu yerdagi aholining etnik mansubligi va tarkibi inobatga olinadi.

Qishloq xalqining urug'i – mang'it, nomi – O'ymovut. O'ymovut qabila, urug'i o'tmishda mang'itlar tarkibida bo'lganligini, mang'itlarning urug'i bo'lganligini qishloq nomiga asoslanib taxmin qilish mumkin. Abulg'oziy Bahodirxonning yozishicha, mo'g'ullarning ham o'ymavut urug'i bo'lgan. Xalq o'rtasida o'rmavut talaffuz shakli ham bo'lganligini ta'kidlagan. O'ymovut etnonimi yasama so'z. *O'y, movut* so'zlaridan tarkib topgan. Etnonim tarkibidagi ikki so'z ham hozirgi, eski o'zbek tili lug'at xazinasida uchramaydi. Bu holat etnonim asosidagi so'zlar o'zbek tilininggina emas, turkiy tillarning ilk o'tmishiga oidligini isbotlaydi. Etnonim oxiridagi *-t* qo'shimchasi ham buni dalillaydi: qorayit, qo'ng'irot, mesit, makrit, chuyut, chiljuvut, uyrat, juyrat, to'langit, boshqirt, boyovut, boyivut, arlot, qirot, uyot, isat, quyot, burqut. Bu qo'shimchaning *-at-/it/-ot/-ut* tovush qiyofasidagi nusxalari bo'lgan. Bu qo'shimcha etnonimlar tarkibida jamlik, to'p, jamoa, kishilar guruhi, odamlarning kichik uyushmasi ma'nosini anglatgan. Bu qo'shimchaning so'zlarga qo'shilib, zikrlangan ma'noni ifodalashi ilk urug'chilikkacha bo'lgan davr ibtidoiy jamoachilik davrida yuz bergan. Shu bois so'z tarkibiga shunchalik jipslanib ketganki, ko'pincha bu tur etnonimlarni tarkibiy qismlarga ajratish qiyin.

Qiyosiy tadqiq asosida ibtidoiy etnonimlarning tarkibini, ma'nosini, yaralish motivlarini aniqlash mumkin. Etnonimning tarkibi uch qismdan iborat: *o'y-movu-t. O'y/uy/ud/ut* so'zi turkiy tillar o'tmishida *buqa, ho'kiz, sigir* ma'nolarini anglatgan.

Mo'g'ul tilida *buqa, ho'kiz – udus/ o'dus* deb atalgan. Movut so'zining qadimiy shakli *mug'ut/mo'g'ut/mugut/bug'ut/bugut* tovush qiyofasida bo'lgan. Bu so'z rus xalqining XI asr yodgorligi "Igor jangnomasi"da etnonim maqomida qo'llangan. *Mug'ut/ mugut* etnonimi yasama bo'lib, ikki qismdan iborat. Etnonimga *bug'u/ bugu/ mug'u/ bo'g'u/bo'gu/mo'g'u/ mo'gu* so'zi asos bo'lgan. Bu so'z ko'pgina turkiy tillarda bug'u (hay-

von turi)ni bildirgan. Kuchli, bilag'on, dono, zehnli kabi ko'chma ma'nolarga ega bo'lgan. Bu ko'chma ma'nolar bug'uning tabiatidan kelib chiqqan, ko'chma ma'no ko'pincha odamlarga nisbatan qo'llangan. Ana shu so'zga *-t* qo'shimchasi qo'shilib, *mug'ut/ mo'gut/ mugut/bug'ut/bugut* etnonimi yuzaga kelgan. Vizantiya manbalari va rus solnomalarida poloveslarning bovut/bout degan turkiy qabila nomi tilga olingan. Zikrlangan bu ikki so'z bir etnonimning tovush nusxalaridir.

Qiyosiy tahlildan ma'lum bo'ladiki, o'ymovut etnonimining qadimiy shakli *o'y/uy + bug'u/mug'u + t* tovush qiyofasida bo'lgan. Ma'nosi – erkak (nar) bug'u. Ma'lumki, jahon xalqlari, jumladan, turkiy xalqlarning ilk o'tmishida turli hayvonlar, qushlar, hasharotlar, jonivorlarning ma'lum bir turlari muqaddaslashtirilgan, ularga topinishgan. Har bir urug', qabilaning o'ziga xos muqaddas jonivorlari (totemi) bo'lgan. Ana shu jonivor tasvirini tug' – bayrog'iga tushirib, u bilan faxrlanishgan. Mazkur urug', qabila vakillari ilk o'tmishda erkak (nar) bug'uni totem deb qabul qilishgan. Shu jonivor va uning tug'idagi tasviri asosida urug', qabila nomi yuzaga kelgan.

O'ymovut – erkak bug'uga sig'inuvchi jamoa. Bu – ibtidoiy kishilarning tasavvuri va dunyoqarashi asosida urug', qabila nomi yaralgan.

Samarqand viloyati Payariq tumanida ham shunday nomli qishloq mavjud. Mazkur etnonim etimologiyasi haqida fikr bildirgan toponimist T.Nafasov N.A.Baskakovning fikriga qo'shilib, ushbu nomning totemizm bilan bog'liqligini qayd qiladi (T.Nafasov, 2009: 228).

O'YRAT – Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo'lib, apellyativning birinchi qismi ***o'y*** indikator sanaladi. U Xorazm shevalarida *"pastlik, chuqurlik, jar"* ma'nolarida qo'llaniladi. Bu indikator turkiy tillarning ko'pchiligida ancha faoldir.

Qiyos qiling: turk tilida ***oj*** – *chuqur, chuqurlik*; boshqird tilida *uy "tog' orasidagi vodiy"*; qirg'iz tilida ***oy*** *"pastlik, chuqur"*; oltoy tilida ***oy*** *"pastlik, chuqurlik"* va hokazo.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, ushbu indikator *o'ymoq, qazilmoq* fe'li asosida hosil qilingan. ***Oypan, Oyluk, Oyjuq*** kabi shakllari ham ushbu so'z asosida vujudga kelgan.

Ayrim turkiy xalqlarda *"o'tloq, dala, cho'l"* ma'nolari ham mavjud bo'lib, ko'plab toponimlar yasashda ishtirok etadi. Masalan: ***Uy*** (Boshqirdiston), ***Oylu, Oyluk*** (Oltoy), ***Oytal*** (Issiqko'l), ***Oymal*** (Jambul), ***Togonoy*** (O'sh), ***Qaraoy*** (Aktyubinsk), ***Qiziloy*** (Gurev) va hokazo.

Hozirgi geografik terminlar tizimida ham ***o'y*** *"jar, yer, pastlik yer, o'ydim, past-baland, notekis yer"* ma'nolarida qo'llaniladi. ***O'yqin*** *"Serjar yer"* ma'nolarida ishlatiladi.

Toponimning ikkinchi qismi rat esa ravat//rabat//ravot so'zlarining dialektal variant hisoblanib, u qish-

loq, qo'rg'on, istehkom kabi ma'nolarini anglatadi.

Shunday ekan, **O'yrat** toponimi *"pastlik yer, o'ydim, past-baland, notekis yerdagi qishloq"* ma'nosini ifodalaydi (bu haqda qarang: O'.Rajapov. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari. Filol. fanl. nomz. dissert-si avtoref. – Toshkent, 2009.).

O'YQAL'A – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi ovul nomi. *O'y* – chuqur, past joy, Xorazmda *qal'a* – shahar, mustahkamlangan shahar. Demak, **O'yqal'a** – *pastda joylashgan qal'a* ma'nosini anglatadi.

O'ZBEKYOP – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri. *O'zbek* va *yop* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

O'zbek – etnonim, u O'zbekiston xalqi, millatining nomi. *Yop* so'zi Xorazmiy so'zi elementi bo'lib, u *kichik kanal* ma'nosini ifodalaydi. O'sha davrlarda mahalliy aholini suv bilan ta'minlash maqsadida o'zbek urug'iga mansub kishilar yop qazishgan, shu sababli *O'zbekyop* deb atalgan.

O'ZGARISH – mahalla. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur termin "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: "Taraqqiyot tarixida yuz beradigan keskin burilish, bir holatdan boshqacha holatga o'tish, o'zgacha holat yuz berishi" (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 137-bet).

O'G'UZRABOT – qishloq. Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi qishloq nomi. O'zbek qabilasining nomi *o'g'uz* va *rabot* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi 22 o'g'uz qabilalari haqidagi ma'lumot keltirilgan.

Ayrim manbalarda Rabot – e'tiqod uchun kurashuvchilarning mustahkam qarorgohi, deb qayd etilsa, ba'zilarida rabot – istehkom, soqchilik posti, karvonsaroy tarzida ta'kidlanadi.

Demak, O'g'uzrabot – o'zbek xalqining genetik tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi.

G‘

G‘ADIR ARIG‘I – Bo‘zsuvning chap tarmog‘i, uzunligi 4,7 km. Hozirgi vaqtda Mirobod tumanidan oqib o‘tadi. Rakat arig‘iga quyiladi. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlariga oid rus manbalarida G‘adir arig‘i “Gadrachako”[1], “Gadra”[2], “Gadragan”[3] shakllarida yozilgan. Mazkur davrda G‘adir arig‘i Yangi shaharning sharqiy, markaziy va janubi-sharqiy qismlaridan shimoldan janubga bo‘lgan yo‘nalishda oqqan va shu hududda joylashgan Minor, Yangi shahar Minor ko‘chalari, Mahram shohko‘chasi, Qashqar, Samarqand, Chimkent, Koljent /Xo‘jand/ ko‘chalarini suv bilan ta’minlagan.

G‘AJIRQOYA – tog‘. Surxondaryo viloyatidagi tog‘ nomi. *G‘ajir* (dialektal) – grif, (adabiy – tasqara); qoya.

G‘AJIRUCHTI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishliq nomi. *G‘ajir* – murda bilan oziqlanadigan yirtqich qush; *uchti* (uchdi) – (shunday yirtqich qushlar to‘planadigan joy) ma’nosini anglatadi.

G‘ALABA – mahalla. Xorazm viloyatining Bog‘ot tumanidagi mahalla nomi. Sobiq Ittifoq davrida mazkur hudud Pobeda deb nomlanib, mustaqillikdan keyin u G‘alaba deb nomlangan. Ushbu hududda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari sharafiga yodgorlik majmuasi o‘rnatilganligi sababli mahalla shunday atalgan.

G‘ALLAKOR – Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanidagi qishloq nomi. 1994-yilgacha Tazriq (toza +urug‘) hamda 1-may nomlari bilan yuritilgan. Qishloq ahli, asosan, g‘alla yetishtirish bilan shug‘ullanganligi, mazkur hudud aholisi g‘alla yetishtiruvchilar maskani bo‘lgani bois ham ushbu hudud shunday nomlangan.

G‘ALLAOROL – tuman. Jizzax viloyati tarkibidagi ma’muriy-hududiy birlik. Tuman 1926-yilning 29-sentabrda tashkil topgan. 1931-yilgacha

---

[1] План города Ташкента. –Ташкент, 1980.

[2] Маль Н. Русский Ташкент//Ежемесячные приложения к журналу “Нива”. –Ташкент, 1984. –С. 126-162.

[3] Добромыслев А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. –Ташкент, 1912. –С. 140.; План путеводитель по городу Ташкента. –Ташкент, 1936.

Yangiqo'rg'on nomi bilan atalgan. Shundan keyin yana **G'allaorol** nomi bilan atalib kelingan.

Mazkur toponim "***G'alla***" va "***orol***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.Tuman aholisi doimiy ravishda mo'l g'alla yetishtirib kelgan va shu sababli ham mazkur hudud shunday atalgan.

G'ALVASOY – Toshkent viloyati Chirchiq daryosining irmog'i. Soyda gil, gilvata qatlamlari borligi sababli, shundan gilvota so'zi olingan. Keyinchalik esa G'alvasoyga aylanib ketgan. *G'alvasoy* shu so'zdan olingan bo'lishi ham mumkin.

G'ALCHA – qishloq. Namangan viloyatining Namangan tumanidagi qishloq nomi. *Galcha – g'archa* – "tog'lik" (sug'dcha *g'ar* – "tog'"). Galchalar deb tekislikda yashaydigan aholini atashgan, yangi sug'd tili egalari (fors tilidan kuchli farqlanadigan) nisbatan madaniyat darajasi past bo'lgan aholidir. Biroq hozirda mazkur hudud Navbahor nomi bilan almashtirilgan.

G'ALCHAQISHLOQ – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Sug'd tilida *g'ar* – tog' degan ma'noni bildiradi. G'alcha, to'g'rirog'i g'archa –"tog'lik" degani. Hozirgi tojik tilidagi Ko'histon o'rta asrlarda G'archiston deb atalgan. Qishloq aholisining bir qismi tojiklar, ya'ni tog'liklar bo'lib, toponimning hosil bo'lishida shu holat hisobga olingan.

G'ANCHI – Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xonligi arxiviga tegishli hujjatlarda *G'anchi qishloq* – (غنچی قشلاق) shaklida qayd etiladi. "Navoiy asarlari lug'ati"da *g'anchi* termini "ipni g'ajib uzmasin uchun it arqoniga bog'lanadigan yog'och" sifatida izohlanadi (НАЛ. – Ташкент, 1972. 752-бет).

S.Qorayevning yozishicha, xon yoki bekning mollariga qaraydigan cho'pon ham *g'anchi* deyilgan.

A.Navoiyning "Layli va Majnun" asarida esa bu so'zning o'rniga ba'zi kotiblar *qo'ychi* so'zini ishlatganlar. Bu borada Qo'qon xonlarining (XIX asr) arxiv hujjatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan A.L.Troiskayaning fikrlari ham e'tiborli bo'lib, olimaning ta'kidlashicha, *g'anchi* – xon yoki beklarning chorva mollariga mas'ul shaxs hisoblangan hamda ularning hovlilari, o'rda, harbiy qismlarni go'sht va boshqa hayvon mahsulotlari bilan ta'minlagan. *G'anchiboshi* esa rasmiy ravishda tayinlangan bosh g'anchi bo'lgan.

Bizningcha, *g'anchi* birligining aynan mana shu ma'nosi toponim uchun etimon hisoblanadi va mazkur qishloq shu lavozim egasiga qarashlilikni bildiradi. Shuningdek, Kogon tumanida *G'anchi*, Olot tumanida *G'anchichandir*, Andijon viloyatining Asaka tumanida esa *G'anchiyuz* toponimlari uchraydi.

G'ARBIY BESHRABOT – qishloq. Buxoro viloyati. Qishloq nomi 2006-yilga qadar *Go'jaxo'r* deb atalgan. 2006-yil 8-aprelda *G'arbiy Beshrabot* deb o'zgartirilgan (qishloqning avvalgi *Go'jaxo'r* nomi etnik guruh laqabi, etnonim bo'lgan).

Toponim *g'arb, besh* va *rabot* so'zlaridan iborat. Apellativning birinchi komponenti – *g'arb* so'zi qishloqning geografik o'rnini bildiradi. Apellativning ikkinchi komponenti – *besh* so'zi sonni, 5 raqamini bildiradi. Apellativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* degan ma'nolarni anglatadi.

Demak, G'arbiy Beshrabot – *"g'arbdagi beshta qo'rg'on"* yoki *"g'arbdagi beshta turarjoy"* degan ma'nolarni anglatadi.

G'ARIBIYA – guzar. Buxoro shahridagi guzar nomi. *G'arib – musofir, adashgan; G'aribiya – "uysizlar uchun boshpana"* ma'nolarini anglatadi.

G'AROVCHO'QQI – Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi cho'qqi nomi. Oronim ***g'arov*** apellyativi va cho'qqi oronimik indikatorlaridan tarkib topgan.

Fitooronimlar guruhiga mansub. Haybatli cho'qqida ***g'arov*** o'sadi. Qadimda qishloq aholisi undan uskuna sifatida foydalangan. O'tov yasashda undan zo'ri bo'lmagan. U yengilligi, havo almashinishini yaxshilash, kelgan-ketganni ichkaridan ko'rib, kimligini bilish bilan o'tovdagilarga qulaylik tug'dirgan. Cho'qqida "poyasi qattiq va bo'g'im-bo'g'im, ichi kovak, qamishga o'xshash tropik o'simlik, ya'ni bambuk" o'sganligi bois u shunday atalgan.

Demak, ***G'arovcho'qqi*** g'arov; bambuk o'sadigan cho'qqi degan oronimik ma'noga ega (bu haqda qarang: Sh.Temirov. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. filol. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) dissert-si avtoref-ti, 2019).

G'ARQARALI – qishloq. Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq nomi. G'arqarali, qarqarali – etnonim. Janubiy Qozog'istonda yashab kelayotgan qipchoq qabilalaridan biri. Qarqara degan qush ham bor (Qorayev, 1978: 168). Ehtimol, totemdir. 1904-yilgi ma'lumotlarda Shoxob volostidagi (hozirgi Oqdaryo tumani hududida) Kallar qarqarali qishlog'i qayd qilingan.

G'ARG'A – Qoraqalpog'iston Respublikasining Chimboy tumanidagi ovul nomi. G'arg'atubek – Kegeyli tumani. Turkmanlarning go'klen qabilasi tarkibida g'arg'a urug'i bo'lgan. Boshqirdlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar tarkibida g'arg'a urug'i qayd qilingan.

G'AYRAT – mahalla. Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi qishloq nomi. Mustaqillik yillarida atalgan mahalla nomlaridan biri. Mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"-da shunday ma'noda izohlangan: *"Ish-harakatga bo'lgan kuchli intilish, berilish hissi, ishtiyoq"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 22-bet).

G'AZALKENT – shahar. Ba'zi olimlar arab geograflari asarlarida qayd qilingan *Gazak* shahrini hozirgi *G'azalkent* deb izohlaydilar. H.Hasanovning fikricha, G'azalkent toponimi *g'izol – "ohu"* so'zidan tashkil topgan.

G'AZNACHI – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi

qishloq nomi. G'aznachi (adabiy – xazinachi) – xon (davlat) g'aznachisi ma'nosini anglatadi.

G'IJDUVON – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. G'ijduvon shahri Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomli kitobida Muqanna qo'zg'oloni sababli birinchi marta tilga olinadi. Shahar nomi G'ujduvon shaklida ham talaffuz qilinadi.

G'ijduvon toponimining kelib chiqishi haqida mahalliy xalq orasida turlicha talqinlar mavjud. Masalan, *Kishtuvon* tojikcha *"kish" – "ekin ekuvchi", "Tuvon" – manzil*, ya'ni dehqonlar manzili yoki *G'ujidehon* tojikcha *g'uj – "ko'p", dehon – "qishloqlar"*, ya'ni *qishloqlari ko'p joy*. Xalq og'zida G'ujdevon tojikcha, *g'uj – "ko'p", devon – "devlar"*, ya'ni "devlar makoni" degan rivoyat ham bor.

Boshqa bir mahalliy rivoyat bo'yicha, Buxoroning olim-u fuzalolari bilan bahslashishga, bellashuvga kelgan bir sharqlik donishmand g'ijduvonlik bir hunarmand uyida mehmon bo'lgan, uy egasining bilimdonligi, sandiq to'la kitoblari, sahifalashtirilgan qo'lyozmalarini ko'rib, Buxoroga borish fikridan qaytgan deyishadi. Shu voqeadan keyin donishmand bu yurt yashaydigan odamlarining g'ij-g'ij kitob to'la jevonlari bor, uning nomi ham G'ijdevon, G'ijduvon bo'lsin degan ekan. Mahalliy xalqning bu izohlari taxmin va rivoyatlarga asoslangan soxta etimologiyadir.

Buxoro vohasi toponimiyasida "-duvon", "-tuvon" qo'shimchali toponimlar ko'p: Qoqushtuvon, Buzunduvon va boshqalar. S.Qorayev bu toponimni boshqacharoq izohlagan. Olimning yozishicha, "Buxoro amirligidagi qishloqlar ro'yxatida hozirgi Turkmanistondagi Turkmanobod (avvalgi Chorjo'y) shahri yaqinida Kishtuvan, Olot tumanida Kishtuvon, Zarafshon bo'yida Kemachi degan qishloqlar qayd qilingan. Kishti – "kema, qayiq"; kishtibon – "kema haydovchi", "darg'a".

Zarafshon daryosi qadimda Amudaryoga quyilgan. O'sha davrlarda daryo suvi hozirgiga nisbatan bir necha marta ko'p bo'lgan va unda kemalar qatnagan bo'lishi mumkin. G'ijduvon, Kishtuvon degan joylar Zarafshon o'zanidan uzoqroq bo'lishi mumkin, ammo daryo tez-tez o'zanini o'zgartirib turishini unutmaslik kerak.

G'ISHTBAND – Jom qishlog'i yaqinidagi to'g'on, suv ombori. *G'isht* va *band* so'zlaridan yasalgan toponim – *b a n d* topoleksemasi. *-band* fors-tojik tilidagi *"to'smoq, bekitmoq, bog'lamoq"* ma'nosidagi so'z bo'lib, toponimiyada *"to'g'on, suv ombori"* ma'nosida qo'llanadi. Bu topoleksema bilan yasalgan toponimlar juda kam. Nurota tumanidagi Xonbandi, Ishtixon tumanidagi Zarband kabi toponimlar shular jumlasidandir.

Professor B.O'rinboyev Zarband toponimini "sari-band" – "to'g'on boshi, usti, yuqori" so'zlaridan tashkil topgan, deb ko'rsatadi.

Arxeolog A.Muhammadjonov o'zining quyi Zarafshon vodiysining

sug'orilish tarixiga doir asarida X asrda qurilgan Xonbandi (Forish), Kattaqo'rg'on tumanidagi Jom qishlog'i yaqinidagi G'ishtband (XII asr), XVI asrda qurilgan Abdullaxonbandi (Nurota) kabi toponimlarni ham keltirgan. Yuqoridagi toponimlar tarkibidagi band leksemasi "suv ombori" ma'nosini beradi.

Bundan tashqari, kanallarning bosh qismiga o'rnatiladigan to'g'onlar Zarafshon vodiysida "varaq, varg', varq" va "band" nomi bilan atalgan. Samarqandning sharqidagi Raboti Xojada qurilgan to'g'on o'rta asrlarda Varqsar nomi bilan mashhur bo'lgan.

G'OLIBMOZOR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ziyoratgoh nomi. Mazkur nom ikki o'zakli mikrooykonim. Mahalliy aholi tomonidan muqaddas deb hisoblanuvchi predmet va obyektlarning atoqli nomi agionimlar (agio – "muqaddas" + onoma – "nom") sanaladi. Mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli nomlari nekronimlardir (Бегматов, 2006:11).

"***G'olibmozor***" agionimi xalq etimologiyasiga ilmli va xalq uchun ko'p mehnati singan kishi bo'lgan.

Bundan kelib chiqadiki, bu hududga mikronekronim sifatida qarashimiz mumkin.

Shuningdek, Xorazm viloyatining ayrim tumanlarida ham "***G'olibmozor***", "***G'olibota***" qabristonlari nomlari mavjud.

G'ONCHI – ariq. Samarqand viloyati Oqdaryo tumani. "Abushqa" lug'atida shunday tushuntiriladi:

1) otning ustiga qo'yilgan ko'rpani kemirmasligi uchun uning bo'yniga bog'langan tayoq;

2) arqonni kemirmasligi va uzib olmasligi uchun itning bo'yniga bog'langan tayoq. Qo'qon xonligida *g'anchi* so'zi ijtimoiy termin sifatida "hayvon hovlisi ishchisi" deya qayd etiladi, qator vaziyatlarda "cho'pon" deb ham aytiladi (А.Л.Троицкая. Ганчи, Ганчибаши в Кокандском ханстве (XIX в.) Тюркологические исследования, – М. – Л., 1963. –С. 250–255).

XVII–XVIII asrlardagi fors tili manbalariga asoslanib, B.A.Ahmedov *g'anchi*ni Xurosonda ko'chmanchilik qilgan turk-mo'g'ul qabilasi sifatida aniqlaydi.

G'OVAZON – qishloq. Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani markazidan 8 km shimoli-sharqda joylashgan qishloq nomi. Tumandagi qipchoq shevalarini o'rgangan F.Abdullayev qishloq nomining etimologiyasiga oid asosli material va ma'lumotlar uchrata olmaganligini e'tirof etgan holda, nomni qishloq o'rtasidagi "**g'avazan teve**" deb ataladigan tepalik nomi bilan bog'laydi[1].

Mahalliy keksalarning aytishicha, bu tepada qadimda *"erovul (er+vul)"* turgan. G'ovazon shimol tomondan qadimiy Xo'jasho'rkent va Qorachasho'rkent qishloqlariga tu-

[1] *Qarang.* Abdullayev F. O'zbek tilining qipchoq shevasi // O'zbek dialektologiyasidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1957. I tom. – B. 326.

tashgan bo'lib, uning ikkinchi nomi **Sho'rkentboshi**.

Demak, tepa mudofaa maqsadida qurilgan bo'lib, yuqoridagi ikki qishloq shu yerdan mudofaa qilingan.

F.Abdullayevning fikricha, G'ovazon so'zining o'zagi fors-tojikcha *"gav"*. Gav o'zbek tilida *g'av, g'ov* shaklida qo'llanadi, *"to'siq yoki yo'g'on qamishpoya va hayqiriq, qiyqiriq, qichqiriq"* kabi ma'nolarni anglatadi, *-zon* esa *"zadan – urmoq"* so'zining affiksga aylangan shakli[1].

Yo'g'on qamish bilan o'ralgan, hayqirib xabar berish uchun xizmat qilgan tepalik – *"urmoq"* so'zining affiksga aylangan shakli.

Demak, yo'g'on qamish bilan o'ralgan, hayqirib xabar berish uchun xizmat qilgan tepalik" ma'nosini anglatuvchi *"g'avazon teve"* – g'ovazon tepa birikmasi oykonimning etimoni bo'lib, *"maxsus qo'riqlash, xabar berish joyi"*ni anglatadi. Davrlar davomida oykonim tarkibida fonetik o'zgarishlar ro'y berib, *g'av, zan* so'zlari *g'ov, zon* shakllariga o'tgan, ya'ni *a* unlisi *o* tarzida talaffuz qilinadigan bo'lgan: *g'avazan teve > G'avazan teve > G'avazan > G'ovazon.*

G'OYIB OTA – Samarqand viloyatining Urgut hamda Qo'shrabot tumanlaridagi ziyoratgohlar nomi. Mazkur agiooronimining struktur hamda grammatik tuzilishi ot-ot shakliga ega.

Umuman "G'oyib ota" nekronimi mifologik obraz asosida paydo bo'lgan.

Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida ham «G'olibota» qabristoni homi mavjud.

G'OYIB SOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Mazkur apellyativning birinchi komponenti ***"G'oyib"*** so'zi *"suvi qurigan"* ma'nosini ifodalab kelmoqda. Geografik termin sanalgan ***"soy"*** so'zi "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li; shunday vodiyda, pastlikda doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 3, 545].

Demak, ***"G'oyib soy"*** nomi *"suvi qurigan soy ma'nosi"*ni bildiradi. Gidronim ikki o'zakli ravish+ot shakliga xos.

G'OZIYON – guzar. Buxoro shahridagi guzar. *G'ozi* – muqaddas urush ishtirokchisi, ishonch uchun kurashchi, *-on, -yon* qo'shimchalari ko'plikni ifodalagan (**G'oziyon**).

G'OZOVOT – mahalla va qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlari. Mahalliy aholi fikrlari va rivoyatlariga ko'ra, qadimda bu joyda ko'l bo'lgan, bu ko'lga g'ozlar kelib qo'ngan va keyinchalik boshqa joyga uchib ketishgan. Vaqtlar o'tib, bu yerlarga odamlar kelib yashashgan, shu sababli "g'ozlar kelib obod bo'ldi" ma'nosida qo'yilgan.

Bizningcha, bu ta'rif munozaralidir. Prof. Z.Do'simovning ma'lumot-

[1] *Qarang*: Таджикско-русский словарь. –М., 1954. –С. 473.

lariga ko'ra, u aslida G'oziobod bo'lib, mahalliy aholi shevasida G'ozovot tarzida talaffuz qilingan hamda Xorazmda shu nom bilan qishloq ham bor deyilgan. Nafaqat Xorazmda, balki butun mamlakatlarda biror-bir kanalga nom berishda shu kanalni bunyod qildirgan kishining nomi yoki laqabidan foydalanilgan.

"Shubha yo'qki, – deb yozadi akademik Y.G'ulomov, – Abulg'oziy Madriy yoki Nasriy kanalini (G'ozovot kanalining oldingi nomlari) qayta tiklashda tashabbus ko'rsatgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Madriy yoki Nasriy kanallari G'ozovot kanalining oldingi nomi emas, balki ular Polvon kanalining oldingi nomlari, aynan Polvon kanaliga ulab, G'ozovot kanali vujudga kelgan. Bu haqda tilshunos M.Safarov shunday yozadi: "Buning uchun Durgadik qishlog'ining sharqidan 3 kilometr narida Qulum Hoji chegarasida Polvonyopdan G'oziobodga suv chiqarib, partov qazilgan, kanalning quyi tomoni tartibga solingan va u yerda G'oziobod qal'asi barpo etilgan". G'oziobod (xalq tilida G'ozovot) Abulg'oziy nomi bilan bog'liq ekan (M.Safarov). Bu fikrni prof. Z.Do'simov ham tasdiqlagan. Kanal mo'g'ullar istilosidan oldin Madra yoki Madir, keyinchalik Nahri Nosiriy deb atalgan (Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Toshkent, 1977. 157-bet). Demak, Qo'shko'pir tumanidagi G'ozovot nomi qadimiy-tarixiy nomlardan biri bo'lib, uning nomlanishi Abulg'oziy nomi bilan bog'liq ekan.

G'OZG'ON – tuman. Navoiy viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. G'ozg'on shahri 2019-yil 3-may kuni tashkil etilgan bo'lib, maydoni – 0,05 ming kv km (59,4 ming gektar) hamda chegara uzunligi – 105,3 kilometr, shundan Buxoro viloyati (47,1 kilometr) bilan chegaradosh. Aholisi esa 8,4 ming kishi.

G'ozg'on toponimining ma'nolari yuzasidan bir qancha taxminlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, G'ozg'on o'nqir-cho'nqir yer degan ma'noni anglatadi. Uy-joy qurish, ekin ekishga yaramaydigan joylarga nisbatan ishlatilgan so'zdir.

Bugungacha ***G'ozg'on*** tarixi bilan bog'liq eng muhim manba R.Asadovning "G'ozg'onnoma" asari sanaladi. Mazkur asar garchi to'la ilmiy risola sanalmasa-da, u to'laligicha ***G'ozg'on*** o'tmishiga bag'ishlangan yagona nashr hisoblanadi. Bundan tashqari, Istam Bobonazarovning "Shohimardon tarixi" risolasi ham G'ozg'onda joylashgan qadimiy masjid tarixiga bag'ishlangan asardir.

Ayrim mahalliy faxriy, keksa yoshli nuroniylar G'ozg'on toponimining kelib chiqishini shunday izohlaydilar. Chingizxon Nurni zabt etadi. O'shanda xonning G'ozixon ismli begi shu qishloqda qolib hukmronlik qiladi va shu yerda vafot etadi. Keyinchalik qishloq G'ozixon nomi bilan atala boshlaydi.

Mahalliy aholining toponim haqida yana bir fikri bor. Palaxmonga

qo'yib otiladigan tosh G'azbon deb atalgan. G'azbon atamasi to'g'riga o'xshaydi. Chunki G'ozg'on atrofidagi soylardan biri "Gayrut" deb ataladi va bu ikki atamaning o'zagida bir xillik mavjud.

Geografik joylar lug'atida esa G'ozg'onga boshqacha tarif beriladi. G'ozg'on – aslida, turkiy so'z "qoz kon" (qoz kon) so'zining buzilgan shakli, chunki qadimda bu yerdan bebaho marmar tosh qazib chiqarilib, xalqi sangtaroshlik bilan shug'ullangan, degan taxmin ham mavjud.

G'UBDIN – Jizzax viloyatining G'allaorol hamda Qashqadaryo viloyatining Koson tumanlaridagi qishloq nomi. Ayrim manbalarda G'ubdin tog'i, ba'zi manbalarda esa Habduntog'i deb ham yuritiladigan tog' etagidagi qishloq nomi sanaladi.

G'UZNI – Samarqand viloyatining Urgut shahridagi mahallalardan biri. Toponim "g'uz" (aslida o'g'uz) va *"-ni"* komponentlaridan hosil bo'lgan. Turkiy-o'g'uz qabilalari qadimiy qabilalardan biri bo'lib, arab bitiklarida ular *g'uz* deb tilga olinadi.

Akademik V.V.Bartoldning qayd qilishicha, Urxun yodgorliklarida ham tilga olingan g'uzlar VI asrda Xitoydan to Qora dengizgacha hududni egallagan yirik imperiyaga asos solganlar. O'g'uzlar to'quz o'g'uzlar deb ham tilga olinadi. Shunga ko'ra, ular to'qqiz urug'ga bo'lingan (Bartold, 1968: 524). *-ni* affiksi esa etnonimlar tarkibida kelib, *-li* ma'nosini ifodalaydi. Masalan: oyinni, qiyanni, chayanni, muazzamoni, oqto'nni kabi (Qorayev, 1991: 117). Demak, "G'uzni – g'uzli, ya'ni g'uzlar yashaydigan joy" ma'nosidadir.

G'UZOR – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik, tuman (1926), shahar (1977). Qadimgi turkiy toshbitiklarda *Xuzor/Xuzar/Xazar* tarzida bitilgan nomning tarkibi, ma'nosi, qaysi tilga mansubligi noaniqroq. Muhimi – bu nomning Xuzor/Xuzar/Xazar tarzida V–VII asr qadimgi turkiy yodnomalarda bitilganligi va turkiy xalqlar yashaydigan eng chekka hududdagi shahar nomi sifatida izoh berilganligidir.

Xalq rivoyatlarida turlicha izohlanib keladi: *xuk+zor – cho'chqa yo'llari bo'lgan joy*. Yoki mo'g'ulcha *gazar (tal gazar) – cho'l, dasht joy; xol – gazar – eng chekka joy*. Bu izohlarning barchasini ilmiy izoh deb bo'lmaydi.

G'uzor nomi turkiy xazar etnonimi bilan bog'liq bo'lishi haqiqatga yaqinroq. Xazar/hazar – qadimgi turkiy qabila, xalq nomi. Xazar/hazar qabilalar ittifoqi yaqin o'tmishda Afg'oniston hududida yashaganligi ma'lum. Kavkazda – Kaspiy dengizi atrofida o'tmishda Xazar davlati bo'lgan. Kaspiy dengizi Xazar dengizi deb ham atalgan.

O'zbekistonning turli tuman va viloyatlarida Xazara, G'azara, G'azira, Hazira, Hazora, Hazara kabi tovush qiyofasida farqlanadigan qishloq nomlari bir nechta. Shu nomlar ham G'uzor nomi bilan adashlikka ega. Qadimgi turkiy qabila, xalq nomidan G'uzor nomi yaralgan.

G'O'LBA/G'O'LVA – Samarqand viloyatining Oqdaryo va Samarqand, Pastdarg'om hamda Jizzax viloyatining Zomin tumanlaridagi qishloq nomi. G'o'lba, Qo'lba toponimlari boshqa tumanlarda ham uchraydi. Etnonim bo'lishi ham mumkin.

Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Qadimda sopoldan ishlangan, hozir temir-beton va sopoldan qilingan quvurlarning xalq shevalaridagi nomi *g'o'lva, g'o'lba, g'ulba, g'urba, g'o'rba*. Jar yoki o'yiq joydan suvni ariq orqali o'tkazish imkoniyati bo'lmagan joyda quvur o'rnatilib o'tkazilgan suv yo'li (Nafasov, 1988: 268).

Demak, G'o'lva quvur o'rnatilib suv o'tkazilgan joydagi qishloq.

G'O'RIM – qishloq. Surxondaryo viloyati Boysun va Sherobod tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *G'o'rim* – geografik terminning dialektal shakli, *qurum* – qoyalardagi uyum toshlar shunday nomlanadi.

G'O'S – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. Mazkur qishloqdagi G'avsul A'zam nomi bilan atalgan ziyoratgohning xalq tilidagi atamasi. G'avsul A'zam Osiyo va Afrika mamlakatlarining bir qator rayonlarida keng tarqalgan Qodiriya darveshlik tariqatining asoschisi Abdulqodir G'iloniy (XII asr)ning laqabi bo'lib (Троицкая. Женский зикр... 173–174), *g'avs-madad, yordam, madadkor, yordamga yetib keluvchi, yordam ko'rsatuvchi* va *a'zam – ulug', ulkan* so'zlaridan tashkil topgan.

Qishloq o'rtasidan oqib o'tuvchi G'o'ssoy soyi va qishloq yuqorisidagi Soyg'o's qishloqlari nomlari tarkibidagi *"soy"* termini *"toshloq, jarlikdagi jilg'a"* kabi ma'nolarni anglatadi. G'o's qishlog'i Soyguzar, Quyiguzar, Yettiuyluk, Ko'mirtepa, O'rtaguzar, Chinorguzar mahallalaridan tashkil topgan.



SHABADA – qishloq. Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Shabada – shamolcha. Ammo qishloq boston qirg'iz urug'ining shabada bo'linmasi nomi bo'yicha nomlangan. Katay boshqir qabilasi bo'linmasidan biri *shabida* deb nomlangan.

SHAGARAQ – qishloq. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi, Yakkabog' tumanlaridagi qishloq nomi. Qashqadaryo viloyatida saroy qabilasi qipchoqsaroy urug'i bo'linmasidan biri shagarak deb atalgan (B.Jo'rayev. Yuqori Qashqadaryo shevalari, 3, 163-bet). Zarafshon vodiysida etnonim shigarak sifatida qayd etilgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 124).

SHAHAR ARIG'I – Kaykovus kanalining chap qirg'og'idan, Yangish ko'chasi oldidan boshlanadi, uzunligi 5 km. Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor) tumanidan oqib o'tadi. Bu ariq Yangish, Sag'bon, Forobiy ko'chalarini hamda Beruniy shohko'chasini kesib o'tadi va qolgan suvi Ko'kcha arig'iga qo'shiladi.

Mazkur ariq Toshkentning Eski shahar qismidan oqib chiqqanligi sababli "Shahar arig'i" nomini olgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, 1936-yilgi Toshkent shahar xaritasida "Shahar" deb nomlangan suv tarmoqlari Kaykovus kanalidan ham chap, ham o'ng tomonlarga oqqan shaklda tasvirlangan[1]. Chap tarmog'i Eski shaharga, Ko'kcha dahasining Qoziobod, Hastimom, Hofizi Ko'hakiy, Langar, Sarxumdon mahallalari hududidan oqib, Jangob arig'iga quyilgan. O'ng tomonga oqqan Shahar arig'i esa Toshkentning shimoliy chegarasi tomon yo'nalgan va shahardan oqib chiqib, Ko'kcha dahasining Sag'bon mahallasi, shahar atrofidagi Achavot, Yangi shahar mavze-mahallalarining hududlarini suv bilan ta'minlagan.

SHAHARTEPA – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi. *Shahartepa – shahar tepaligi, aholi punkti* ma'nolarini anglatadi.

SHAHIDMOZOR – qishloq. Namangan viloyati Norin tumanidagi qishloq nomi. Shohid – e'tiqod uchun o'ldirilgan, mozor – qabriston ma'nolarini anglatadi. Hozirda mazkur hu-

[1] План путеводитель по городу Ташкента. –Ташкент, 1936.

duddagi Shahidmozor nomi Ibrat nomiga o'zgartirilgan, shunday bo'lsa-da, ushbu hududda Shahidmozor nomli qabriston bor.

SHAHIDON – qishloq. Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. *Shahid – din uchun vafot etgan; -on* – ko'plik affiksi.

SHAHIDTEPA – Andijon shahrining g'arbiy chekkasidagi qadimiy qishloq nomi (hozir shaharga qo'shilib ketgan). Tarixiy manbalarga qaraganda mo'g'ullar istilosi davrida halok bo'lgan mahalliy xalq vakillaridan biri dafn qilingan joy, uning atrofida keyinchalik qishloq paydo bo'lgan.

SHAHRISABZ – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik (1929). Janubiy Sug'dning uch ming yillik tarixga ega bo'lgan bu shahri qadimda Kesh deb atalgan, XIV asrdan Shahrisabz nomi bilan yuritilganligi manbalarda zikr etilgan. "...bahorlar sahrosi va shag'ri va bomi va tomi ko'b, sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar" (Bobur. Boburnoma. –T., 1960. –B. 108) tavsifidan ma'lumki, Shahrisabz – shaharning dastlab norasmiy, xalqona nomi bo'lgan. Tabiiy belgilari va fazilatlari shaharning nomlanishiga asos bo'lgan. Shahrisabz – bog'-u bog'otlari, daraxtlari, ko'kat-u poliz ekinlari, o't-o'lanlari bisyor shahar.

SHAHRISABZI – Samarqand viloyatining Samarqand shahridagi mahalla nomi. Shahrisabz shahridan XVIII asrda ko'chirib keltirilgan aholi uchun bunyod etilgan mahalla. (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -В.26). Shahrisabzdan ko'chib kelganlar, ya'ni shahrisabzliklar ma'nosini bildiradi.

SHAHRIXON – tuman. Andijon viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Uning (xon shahrining) barpo etilgan vaqti shu nomli soy (kanal) qazilib, yangi yerlar o'zlashtirilishi bilan bog'liq.

Qo'qon xoni Umarxon (1809–1822) taxtga o'tirgach, manbada yozilishicha, Ro'ziqul Dodho (yoki amin) deganga Qoradaryodan boshlab yangi kanal – Shahrixonsoy chiqarish ishini tashkil qilishni buyurgan.

Farg'ona vodiysining birinchi rus tadqiqotchisi, akademik A.F.Middendorfning yozishicha, Umarxon Andijon bilan Qo'qon o'rtasida yangi shahar barpo qilishni rejalashtirgan. Shaharga asos solinishi va kanalning ishga tushgani deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi.

Ibrat To'raqo'rg'oniy "Tarixi Farg'ona" asarida yozishicha, abjad hisobida *G'aral* so'zidagi harflarning arifmetik yig'indisidan shaharga asos solingan yil (ya'ni 1816–1817-y.) chiqadi.

Mahalliy tarixchi Mirza Olim Mushrifning "Ansob-is-salotin" asarida yozilishicha, shoir Fazliy Namangoniy Shahrixonsoyning ishga tushgan tarixini xon tilidan aytilgan "Manzuri mo" (bizga manzur – ma'qul) degan kalimasiga yashirgan. Abjad hisobida ushbu so'z harflaridan 1821–1822-yillar chiqadi. Shahar tarixini Muhammad Ayub ismli muhandis chizib bergan,

degan ma'lumot saqlangan. Xonning orzusi – shaharda xalqaro savdoni rivojlantirish edi. Shuning uchun dastlabki yillari Shahrixonga Xitoy, Rossiya, Turkiya va Hindistondan savdogarlar kelgan. Shahrixonda bozor kuni juma kun deb e'lon qilingan. T.Enazarovning fikrlariga ko'ra toponim to'g'risida quyidagi taxminiy mulohazalar bor:

1. O'sha yerda yashovchilarning tushuntirishlaricha, bu toponim xonga atalgan shahar nomi: shahri+xon > shahrixon > Shahrixon. Bunda joy nomini tashkil qilgan ikki topoleksemani *-i* shaklidagi turkiy izofa bog'lab turibdi. Uning ma'nosi "xonga atalgan shahar", etimoni, ya'ni uning ilk shakli va ma'nosi esa shahri+xon > shahrixon birikmasidir.

2. Amir Umarxon o'z hukmdorligi davrida mahbuslar ko'payganligi uchun noqulay sharoitdan chiqish maqsadida Qo'qon bilan Andijon o'rtasida 1814–1815-yillarda bir qishloqni vujudga keltirib, Dorul Omon – ozodlik eshigi, deb atagan. Bu qishloq tez o'zgarib ketgani va shahar holatiga kirib borayotgani uchun keyinchalik Shahrixon deyishgan. Ushbu nom mazkur topoobyektda bugungacha saqlanib kelinmoqda: qishloq > Dorul Omon – ozodlik eshigi > shahrixon > Shahrixon. Xullas, toponimning etimoni forscha *shahar, -i* turkiy izofa va turkiy xon so'zidan iborat bo'lgan shahrixon birikmasi, qishloq va Dorul Omon nomlari esa joy nomining arxaik nomlaridir. Uning ma'nosi esa *xon qurdirgan shahar, xonning shahri*, demakdir.

Bizningcha, mazkur toponim to'g'risidagi birinchi taxmin xalqona etimologiyaning bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi taxmin ancha asosli va ishonarli dalillarga ega. U tarixiy xronologik jihatdan shakllanishi to'g'ri belgilangan tarixiy toponim, aniqrog'i, toponimning tarkibida kishiga xoslikni bildiruvchi *xon* so'zi borligi uchun uni antropotoponimlardan biri deyish o'rinli sanaladi.

SHAHRUD – daryo, Buxoro. To'g'rirog'i, Shaharrud – shahar daryosi. Qadimgi nomi Rud-i Zar; arab geograflari asarlarida Nahr-i Zar (БАГ, men., p. 307, 311) (Eron *ro'd*, arab *nahr* – bir xil narsa, ya'ni daryo, irmoq degani). Uning to'liq nomi Rud-i shahr-i Buxoro – Buxoro shahrining daryosi (O.D. Chexovich. Buxoro hujjatlari, 59-bet). Keyinchalik, qisqartirilib, Shahrud deb atala boshlandi.

SHAKAR – qishloq. Farg'ona viloyatining Qo'shtepa va Farg'ona tumanlaridagi qishloq nomi. Shakartepa – Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. O'zbeklarning urug'-qabila nomlari ro'yxatida shirin ("mazali") qabilasi mavjud, qirg'izlarning sheker (shakar) urug'i bor.

Farg'ona viloyatida Shakartepa, Shakarqishloq nomli qishloqlar ham bor. Bir qancha turkiy xalqlarning urug'-aymoq nomlari ko'p jihatdan o'xshash ekanligini esga olsak, o'zbeklarda ham "shakar" degan etnonim qayd etilgan. (Qorayev, 1978).

Biroq professor Z.Do'simov shakar so'zi sug'dcha chakar yoki *chakir* bo'lib, "xizmatkor, kambag'al" degan ma'noni anglatishini qayd etadi (Do'simov, 1977).

SHAKARAVON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, shu hududdagi quduqlardan birining suvini ichgan mang'itlar "suvi va mevalari shirin ekan", deyishgan. Qishloq nomi shundan kelib chiqqan.

SHAKARBULOQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. *Shakarbuloq – totli suvga ega buloq* ma'nosini anglatadi.

SHAKARJO'Y – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi qishloq nomi. *Shakarjo'y* toponimi *totli suvli ariq* ma'nosini ifodalaydi.

SHAKARKENT – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim *shakar* va *kent* so'zlaridan iborat.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qadimda qishloq hududida Shakarganji Vali ismli kishi yashab o'tgan, qishloq shu kishi nomi bilan atalgan. Aslida, unday emas. 92 bovli o'zbek qavmlari tarkibida shirin degan qabila tilga olingan; qirg'izlarda sheker urug'i bo'lgan. Bir qancha turkiy xalqlarning urug'-aymoq nomlari ko'p jihatdan o'xshash ekanligini hisobga olsak, o'zbeklar tarkibida ham shakar degan etnonim bo'lgan. Nomning ikkinchi komponenti – *kent* so'zi esa sug'dcha bo'lib, "katta qishloq", "shahar" degan ma'nolarni bildiradi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham qishloqni kent degan. Binobarin, Shakarkent – "shakar urug'i vakillari yashaydigan qishloq (shahar)" degan ma'noni bildiradi.

SHAKARTERI – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasi – shirin po'stli (anor). Aslida, shakar-tira – shakar urug'i (tira – urug'ning bo'linmasi).

SHAKKASH//SHOXKASH – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi zaxkash so'zidan olingan. Zax – fors-tojik tilida "tuz, sho'r", *kash* – qo'shimcha. Zaxkash deganda partov va zax suvi oqadigan ariq, zovur tushunilgan. Zax so'zi Markaziy Osiyoda zak, zag, zex shakllarida uchraydi. Ko'p joylarda zax yerni zaxkash deyishadi (Qorayev, 1978: 57).

SHAMOLGO'Y – joy nomi. Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi qishloq nomi. Shamolgo'y (adabiycha – shamolgoh) – shamol aylanib turadigan joy, goh – joy nomini hosil qiluvchi affiks: *janggoh – "jang maydoni", shamolgoh – doimo mayin shamol esib turadigan joy* ma'nosini anglatadi.

SHAMOLLI – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. *Shamolli – shamol tarafga qaragan* ma'nosini ifodalaydi.

SHAMOLTIYMAS – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi qishloq nomi. *Shamoltiymas* (adabiycha – tegmas) – *shamol bormaydigan joy* ma'nosini anglatadi.

SHAMSIKO'L – Namangan viloyatining Namangan tumanidagi qishloq nomi. Qishloqda, asosan, tojiklar yashaydi. Qishloqning ***Shamsiko'l*** deb atalishi haqida bir necha qarashlar mavjud:

1. Mahalliy aholining fikricha, qadimda bu yerda Shamsiddin Valiy ismli bir avliyo yashagan. Shu kishiga nisbat berib, qishloq Sirdaryo qirg'og'ida joylashganligidan suv ko'payganda hosil bo'lgan ko'l o'rnida yuzaga kelganligiga ko'ra **Shamsiko'l** deb atalgan emish.

2. Ba'zi kishilarning ta'kidlashlaricha, bu yerning asli nomi ***Shamsiko'l*** emas, *Qamishko'l* bo'lgan. O'tmishda, bu yerga odamlar kelib joylashmasdan avval, daryo suvining toshishi natijasida hosil bo'lgan ko'llarda qamishlar o'sib yotgan. Odamlar kelib joylashgach, *Qamishko'l* deb atalgan. Keyinchalik Qamishko'l *Shamsiko'l* bo'lib o'zgargan emish.[1]

3. *Shamsiko'l* gidrooykonimi tarkiban arabcha *quyosh* ma'nosini anglatuvchi *shams* so'ziga *-i* qo'shimchasi vositasida umumturkiy *ko'l* gidronimik indikatorining qo'shiluvidan hosil bo'lgan (*shams+i+ko'l*) bo'lib, *quyoshli ko'l* degan ma'noni anglatadi. Bizningcha, xuddi shu qarash ilmiy asosli va haqiqatga yaqin.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek adabiy tili va shevalarida jarangsiz *s* va *sh* undoshlarining o'zaro mosligi, almashinuvi kuzatiladi. Bu *Shamsiko'l* gidrooykonimi talaffuzida ham kuzatiladi. Mazkur nom mahalliy shevada *Shamshiko'l* tarzida talaffuz qilinadi. Hatto bu ayrim rasmiy manbalarga ham ko'chgan. Chunonchi, Namangan viloyatining siyosiy xaritasida gidrooykonim *Shamshiko'l* tarzida qayd etilgan.[2]

SHAMSIOBOD – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq. Toponimning birinchi komponenti – shams so'zi "quyosh" ma'nosidadir. *Shamsi* – tarixan mashhur bo'lmagan kishining ismi, antroponim. Uning ikkinchi komponenti – *obod* so'zi esa ba'zi otlar yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini hosil qiladigan, "obodonlashtirilgan", "o'zlashtirilgan", "gullab-yashnagan" ma'nosidagi affiks. Shamsi ismli kishi qo'riq yerlarni o'zlashtirib, bunyod etgan qishloq – Shamsiobod.

Demak, qishloq nomiga unga asos solgan kishining nomi sabab bo'lgan.

SHAMSHIRGARON – qishloq. Buxoro viloyatining Romitan, Shofirkon tumanlaridagi qishloq nomi. Shamshir (forscha talaffuzda *shamsher*) – qilich. Shamshergaron esa qilich, *shamshir yasash bo'yicha ustalar* ma'nosini anglatadi.

SHANBA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloqning bunday nom bilan atalishiga o'ziga xos sabab bor. Ilgari haftaning shanba kuni qishloq joylashgan hududda chorva va deh-

[1] Qarang. Namangan tumanining o'tmishi va buguni. – Toshkent: Universitet, 1996. – B. 26.

[2] Qarang. Наманганская область (справочная политико-административная карта). Узгеокадастр, 1996.

qon bozori bo'lgan. Shu sababdan ham qishloq mazkur nomni olgan.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi ham shunday ataladi.

SHANG'I – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomlaridan biri bo'lib, mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da baland va qo'pol ovozda gapiradigan shaxs ma'nosini ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 544-bet). Tarixiy nom bo'lishi ham mumkin, etimologiyasi noma'lum.

SHAQPAQTI – joy nomi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumanidagi joy nomi. Qoraqalpoqcha *shaqpaq(tas) – chaqmoqtosh, -ti* – egalik affiksi, *Shaqpaqti – chaqmoqtoshli* ma'nosini anglatadi.

SHAQSHAQI BALXI – Buxoro shahridagi avliyoning mozori. Shaqshaqi – noto'g'ri, u arabcha shaqiqa. Bu mozor bilan bog'liq ibodat shundan iboratki, u yerda odamlar bosh og'rig'idan davolanishgan. Afsona bo'yicha avliyo Balxdan kelgan bo'lgan (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 57).

SHARBATDOR – XVIII asrda Samarqand viloyatining Samarqand shahrida bunyod etilgan mahalla nomi. Sharbatli ichimlik mahsulotlari tayyorlaydigan hunarmandlar yashaydigan mahalla bo'lganligi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -В.19) uchun ham mazkur hudud shunday nom olgan.

SHARILLOQSOY – qishloq. Jizzax viloyatining Jizzax tumanidagi qishloq nomi. *Sharshara* shevalarda *sharillaq, sharloq, sharlovuq* tarzida talaffuz etiladi (Samarqand viloyati Xatirchi tumanida Sharloq nomli qishloq va kichik daryo bor).

SHAROF RASHIDOV – tuman. Jizzax viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Sharof Rashidov tumani (Sobiq nomi Jizzax tumani). 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Shimolda viloyatning Forish, Zafarobod, Paxtakor tumanlari, g'arbda G'allaorol tumani, sharqda Zarbdor, Zomin tumanlari, janubida Baxmal tumani bilan chegaradosh. Maydoni 1,32 ming km². Tumanda 48 ta mahalla fuqarolari yig'ini bor. Aholisi 244.4 ming kishi. Markazi – Uchtepa shaharchasi.

Sharof Rashidov 1950–1959-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezdiumi raisi o'rinbosari. 1959-yilning martidan O'zbekiston KP MK birinchi kotibi. U to'qqiz yil O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezdiumiga, salkam yigirma besh yil O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga rahbarlik qildi. O'zining 66 yillik umrining yarmidan ko'pini bevosita respublikani boshqaruviga sarflagan rahbar.

Sharof Rashidovich Rashidov jamiyat va davlat arbobi, yozuvchi, Mehnat qahramoni (1974).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 27-martdagi qaroriga asosan atoqli jamiyat va davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovning yorqin xotirasini abadiylashtirish va ulug'lash hamda

tavalludining 100 yilligini munosib nishonlash maqsadida Jizzax viloyati Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berildi.

SHARQ – XVIII asr oxirida Samarqandda tashkil etilgan mahalla nomi. Asosan, yahudiy millatiga mansub aholi yashaganligi uchun Juhuton (Yahudiylar) mahallasi deb ham nomlanadi (М.Абрамов. Гузары Самарканда, 1989, -В. 17).

SHARQIY BESHRABOT – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar Beshrabot deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda Sharqiy Beshrabot deb o'zgartirilgan. Toponim *sharq, besh* va *rabot* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – sharq so'zi qishloqning geografik o'rnini bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *besh* so'zi sonni, 5 raqamini bildiradi. Apellyativning uchinchi komponenti – *rabot* so'zi *"qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy"* degan ma'nolarni anglatadi (qarang: **Gulrabot**).

Demak, *Sharqiy Beshrabot – "sharqdagi beshta qo'rg'on"* yoki *"sharqdagi beshta turarjoy"* degan ma'nolarni anglatadi.

SHARQIY GULISTON – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar Guliston deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda Sharqiy Guliston deb o'zgartirilgan. Toponim tarkibidagi *sharqiy* so'zi qishloqning geografik o'rnini bildiradi. *Guliston – ilgari dashtyerda tashkil qilingan obod, o'zlashtirilgan joy.* Bog'u bo'stonga aylangan kichik maskan ham guliston deb ataladi. Guliston so'zi o'tgan asrning 70-yillarida o'zlashtirilib, tashkil qilingan bog'-rog'li joylarga nisbatan qo'llangan. Joyning tabiiy belgisini bildiruvchi *guliston* so'zi toponimikadagi nom yasalish usuli talabiga ko'ra toponimga – qishloq nomiga aylangan. Mahalliy aholi qishloqda bog'-rog'lar ko'p bo'lganligi sababli shunday nomlangan, deb talqin qiladi. Bu xalq etimologiyasi haqiqatga juda yaqindir.

SHARQIY QATAG'ON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq 2006-yilga qadar *Qatag'on* deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda *Sharqiy Qatag'on* nomiga o'zgartirilgan. Nom tarkibidagi *sharqiy* so'zi qishloq joylashgan hududning geografik o'rnidan dalolat beradi. Toponim *sharq* va *qatag'on* so'zlaridan iborat. Nomning birinchi komponenti – *sharq* so'zi *"kun chiqish tomoni"* degan ma'noni bildiradi. Toponimning ikkinchi komponenti – *qatag'on* so'zi etnik qabila nomi, etnonim. Qatag'onlar o'zbek xalqi tarkibiga kiruvchi urug'lardan biri.

Qatag'onlarning asosiy qismi Afg'onistonning Qatag'on provinsiyasi (viloyati)da yashaydi. Markaziy Osiyoda qatag'onlar Tojikiston (Vaxsh daryosining quyi oqimida, Panj daryosining o'ng sohilida, Qo'rg'ontepa shahrida) va qisman Janubiy O'zbekistonda uchraydi.

Demak, *Sharqiy Qatag'on – "qatag'on urug'i vakillari yashaydigan sharqroqdagi qishloq"* ma'nosidadir.

SHARQIY O'ZBEKON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar O'zbekon deb atalgan. 2006-yil 29-iyulda Sharqiy O'zbekon deb o'zgartirilgan. Nomning birinchi komponenti – sharqiy so'zi qishloq geografik o'rnining boshqa qishloqlarga nisbatan kunchiqar – sharq tomonda joylashganligidan darak beradi. Toponimning ikkinchi komponenti – o'zbekon so'zi esa tojikcha bo'lib, "o'zbeklar yashaydigan joy" degan ma'noni anglatadi.

Demak, Sharqiy O'zbekon – "boshqa aholi punktlariga nisbatan sharqroqdagi o'zbeklar yashaydigan joy" ma'nosidadir.

SHARQIYA – ariq. Toshkent viloyatida Ohangaron daryosidan boshlanadi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida mo'g'ullar davrida u yerda *Benaket (Binakat, Binakas, Finakat, Fanakat, Fanakant)* shahri bo'lgan bo'lib, u Chingizxon tomonidan vayron qilingan. 1392-yilda Temur shaharni qayta tikladi va uni o'z o'g'li Shohrux (Ulug'bekning otasi) nomiga Shohruxiya deb nomladi. U XVIII asrgacha mavjud bo'ldi. Shaharga ariq keltirilgan bo'lib, uning nomi hozirgacha noto'g'ri Sharqiya shaklida yetib kelgan.

SHARRAKBULOQ – qishloq. Samarqand viloyati. Suvi balandlikdan otilib tushib, shovqin bilan oqadigan gidroobyektlarning umumiy nomi. Bulung'ur tumanida *Sharsharsoy, Sharbuloq* (qishloq va soy nomi) bor.

SHAXOB ARIG'I – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qirqdarxon qishlog'i yaqinida Oqdaryoning chap qirg'og'idan chiqarilgan. Dahbed, Katta va Kichik Kumushkent, Qoraniyoz, Naymancha, Kapa, Tarnov, Darugarxo'ja, Jar, Jontugal, Tariqchi Balxi, Qorateri, Boybicha, Do'rmon qishloqlarini sug'oradi.

SHAVKAT – shimoliy Ustrushonada joylashgan o'rta asr shahri, Samarqand va Xo'jand o'rtasidagi yo'lda muhim savdo-sotiq punkti. Ilk bor Mug' tog'idagi sug'd hujjatlarida esga olinadi (Согдийские документы с горы Муг, вып. II. С. 94, 95, 102), shuningdek, arab geograflari Istaxriy (БАГ, I. С. 331, 335), Ibn Havqal (БАГ, II. С. 398), Muqaddasiyda (БАГ, III. С. 49, 342, 345) uchraydi. Sug'dcha *"shau" – qora, "kat" – shahar* ma'nolarini anglatadi.

SHAYBONIYXON MADRASASI – Shayboniyxon madrasasi bilan yonma-yon ikkinchi bir madrasa ham mavjud bo'lganligi uchun ular birgalikda Qo'shmadrasa nomi bilan mashhur bo'lgan. Madrasa qurilishi bevosita Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgani tufayli bino xon nomi bilan atalgan. Shayboniyxon madrasasi XX asrning birinchi yarmigacha saqlanib kelgan bo'lsa ham, keyinchalik shahardagi qurilish ishlari tufayli buzilib ketdi. Shayboniyxon halok bo'lgach (1510-yil), uning jasadi mazkur mad-

rasa hovlisidagi sufa, ya'ni daxmaga qo'yiladi. Shayboniylar daxmasi nomi bilan ma'lum bo'lgan bu sufada o'ttiz uchta qabr toshi bor. Shahardagi rekonstruksiya munosabati bilan toshsufa keyinchalik Sherdor va Tillakori madrasalari oralig'ida joylashtirildi. Shu o'rinda Samarqand shahridagi madrasalar nomini ham tilga olish bu yerda bo'lgan oliy o'quv yurtlari haqidagi tasavvurimizni boyitadi.

Professor V.L.Vyatkinning asarida Madrasayi Safed, Amir Qosim madrasasi, Mir Burunduq madrasasi, Saroymulkxonim madrasasi, Mavlono Qutbiddin Sadr madrasasi, Alovuddin Alayka Ko'kaldosh madrasasi, Shahzoda Abdulla madrasasi, Shahzoda Muhammad Qosim madrasasi, Javzoniya madrasasi, Mulla Abdurahim madrasasi, Amir Alayka madrasasi va boshqalar tilga olinganki, ular mazkur zaminda qadimdan ilm va fanga bo'lgan munosabat baland bo'lganligini ko'rsatadi.

SHAYBONIYXON SUV AYIRG'ICHI – Samarqand viloyatining Shayboniyxon tomonidan Zarafshon daryosi suvini Qoradaryo va Oqdaryoga hamda birqancha anhorlarga taqsimlash maqsadida qurilgan suv ayirg'ich. Hozir ham mazkur inshoatning bir qismi Zarafshon daryosidan Cho'ponota tog'iga qarab o'tgan temiryo'l yoqasida saqlanib qolgan.

SHAYIT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ziyoratgoh nomi. Mazkur agionim mahalliy aholi tomonidan e'zozlanadigan muqaddas joy mahalliy aholi tilida "***shayit***" deb talaffuz qilinadi. Aslan esa "***shahid***" arabcha so'z bo'lib "*o'ldirilgan; aziyat chekuvchi*" semasini ifodalaydi (O'TIL. 4, 561). Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, muayyan holatda halok bo'lgan kishilar dafn etilgan tepalik ma'nosi tushuniladi.

SHAYTONLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch hamda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Aslida, Shayton – iblis, ko'chma ma'noda – ayyor, mug'ambir ma'nolarini anglatadi. Biroq boshqir va turkmanlarda shayton(lar) urug'i borligini inobatga olsak, bu yerda Shayton urug' nomi sifatida qaraladi.

Shuningdek, ***Shayton*** so'zi *shahidon* so'zining o'zgargan shakli: *shayton←shayiton← shahiton←shahidon.*

Demak, ***Shaytonlar*** – *"shahidlar qishlog'i"* ma'nosini bildiradi.

T.Nafasov ***Shahidon*** – *"yolg'iz yoki bir necha qabr bo'lgan joy"*[1] deb sharhlagan.

SHAYXLAR – Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi *qishloq* nomi. Aslida, ***Shixlar***, aynan, shunday dialektal variantda Xorazm shevasida ham mavjud. Turkman xalqining ***shix//shiq*** urug'i bo'lgan[2]. O'zbek xalqining ham

[1] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B.317.

[2] Ataniyazov S. Turkmenыstanыng geografik atlarыining dushundirishli so'zlugi. – Ashxabad, 1980. –B.320.

shix//shiq urug'i bo'lgan. Urug' nomiga -lar jamlik ma'nosini bildirgan affiks qo'shish orqali hosil qilingan nom. Toponimga etnonim asos bo'lgan.

SHAYXIISLOM – aniqrog'i, Shayxulislom bo'lsa kerak. Kattaqo'rg'on uyezdi Girdiqo'rg'on qishloq jamoasiga qarashli qishloq nomi. Shayxulislom arabcha so'z bo'lib, dastlab faxriy unvon va qozikalon so'zining sinonimi sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik musulmon ruhoniylari o'rtasidagi yuqori lavozimlardan biri. Shayxulislom mutavalli vazifasini ham bajargan. Hukmdor ma'lum hududdagi aholidan soliq yig'ish vazifasini ham topshirishi mumkin bo'lgan (Mukminova, 1966: 322).

SHAYXON – Samarqand shahridagi Lolazor mahallasini sug'organ o'rta asr ariqlaridan birining nomi. Hozir Kattaqo'rg'onariq nomi bilan yuritiladi.

SHAYXONTOHUR – tuman. Toshkent shahri tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. 1929-yil 29-noyabrda Oktabr tumani nomi bilan tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1992-yil 8-maydagi "Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o'zgartirish to'g'risida"gi 579-XII-sonli qaroriga asosan Shayxontohur tumani deb o'zgartirilgan. Shimoli-g'arbda Zangiota tumani, shimolda Olmazor, shimoli-sharqda va sharqda Yunusobod, janubda Chilonzor va Yakkasaroy, g'arbda Uchtepa tumanlari bilan chegaradosh. Tuman Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li, ilohiyot va tariqat ilmining yirik namoyondalaridan biri, ulug' valiulloh Shayx Xovandi Tohur (XIV asr) nomi bilan atalgan.

SHAYXONTOHUR ARIG'I – Bo'zsuvning o'ng tarmoqlaridan biri, uzunligi 2,1 km. 1966–1974-yillarda ariqning suvi beton quvurlarda oqadigan qilindi, u o'z yo'lida M-13, M-14, Janggoh mavzelari hududi va qo'shni ko'chalarga ham suv beradi, qolgan suvi Jangob arig'iga tushirilgan. "Shayxontohur" gidronimining paydo bo'lishi ancha qadimgi tarix, XIV asrga boradi va "Shayxontohur" antropotoponimi bilan bog'liq. Aniqrog'i, bu toponim mashhur tarixiy shaxs – shayx Xovandi Tohur ismining qisqartirilgan shaklidir. Mazkur shayx Toshkentda XIV asrda yashagan va vafot etganlar, qabri ustiga keyinchalik maqbara bunyod etilgan va u hozirgacha saqlangan[1].

Toshkent shahrining ana shu qismi keyinchalik "Shayxontohur" nomini oldi va to'rt dahadan birining nomiga aylandi. Shayxontohur arig'i ham ushbu daha nomi bilan atalgan. Shayxontohur arig'i haqidagi ma'lumotlar Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida ham berilgan: "Shayxontohur dahasida uchta ariq bor. Birinchisi – Shayxontohur arig'i bo'lib, Kaykobus kanalidan suv oladi. Boshlanish joyi Anhordan, Ganjtepa degan joydan. Bu ariq daha

[1] Shayxontohur toponimi haqida yuqorida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

o'rtasidan sharqdan g'arbga oqib o'tib, dahaning bir qismini suv bilan ta'minlaydi. Shayxontohur arig'i Ganjtepadan boshlangandan so'ng Xo'ja Ahror jome masjidi tomon oqib keladi, so'ngra shahar bozoridan, keyin Darvishxon Namozgohining shimolidan o'tadi va Ko'kcha darvozasi yonidan shahar tashqarisiga chiqadi. Bu yer Shayxontohur dahasining g'arbiy chegarasidir. Bu ariqda bir nechta tegirmon va objuvozlar qurilgan"[1].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mazkur ariq Shayxontohur dahasining Pastak, Zanjirli, Shayxontohur, Quyi Oqmasjid, Yuqori Oqmasjid, Darxon, Orqako'cha, Raisko'cha mahallalaridan oqib o'tib, Jangob arig'iga quyilgan. Shayxontohur arig'i mazkur mahallalarda yashovchi aholining asosiy suv manbayi bo'lgan.

SHAYXONTOHUR DAHASI – "Shayxontohur" toponimi ko'p o'zakli murakkab antropotoponim bo'lib, "Shayx", "Xovand", "Tohur" so'zlaridan tarkib topgan va XIV asrda yashagan mashhur shaxs – Shayx Xovandi Tohur ismining biroz qisqartirilgan shaklidir. Shayx Xovandi Tohur 1355-yili vafot etgan. Shayx Xovandi Tohur hozirgi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining tog'li Bog'iston qishlog'idan bo'lib, Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'lidir. XIV asrda yashab o'tgan Shayx Xovandi Tohur o'sha vaqtlarda Shosh shahrida eng mo'tabar, o'z davrining o'qimishli shaxslaridan, taniqli din ulamolaridan biri bo'lib, urf-odat, odob-axloq mavzusiga oid kitoblar, hatto she'rlar ham yozgani ma'lum. Vafotidan so'ng biroz vaqt o'tgach, u kishi dafn etilgan ko'rimsiz mozor murid va shogirdlari tomonidan obodonlashtirilib kengaytirilgan, turli hajmdagi binolar qurilib, shaharning eng katta qabristoniga aylantirilgan.

XIV asrning oxirlarida bu yerga Shayxontohur nomi berilgan. XIX–XX asrlar boshida shaharning to'rt dahasidan biri, ya'ni shu maqbara joylashgan daha uning nomi bilan yuritilgan.

1992-yildan boshlab Toshkentning eng katta tumanlaridan biriga Shayxontohur nomi berilgan. XV asrda yashagan mashhur shayx toshkentlik Xoja Ubaydullo Ahror Valiy Shayx Xovandi Tohurning nevarasi bo'lgan. U Shayx Xovandi Tohur qabri ustiga ixcham va naqshinkor maqbara qurdirgan. Mazkur maqbara keyinchalik ta'mirlanib turgan.

Shayx Xovandi Tohur o'g'illarining qabrlari ham shu maqbara atrofida bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, maqbaraning shimoliy tomonidan Shayxontohur nomi bilan yuritilib, doimiy oqib turuvchi shifobaxsh zilol suv arig'i bo'lib, uning bo'yida besh yuz yillik qadimiy katta chinorlar qabristonga soya-salqin solib, qator tizilib turgan.

Shayxontohur dahasi XVIII asr oxirlarida tashkil topgan bo'lib, sha-

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih... 45-b.

harning sharqiy tomonida joylashgan (hozirgi Shayxontohur tumani hududida), Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor dahalari bilan tutashgan. Chegarasi shimoldan Jangob arig'idan, g'arbdan Beshyog'och – Xadra yo'nalishi bo'ylab (hozirgi Furqat ko'chasidan) o'tgan. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Anhorning chap sohilida Beklarbegi o'rdasi va mavzelar o'rnida yangi shahar barpo etilgan. Dahada Shayx Xovandi Tohur maqbarasi katta ziyoratgoh joyi bo'lgan, bu yerda sayillar ham o'tkazilgan. Daha yerlari Anhordan boshlangan ariqlardan sug'orilgan va boshqa dahalarga nisbatan bu yerda bog'lar, ekinzorlar ko'p bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Shayxontohur dahasi hududida uchta darvoza (Qo'ymas, Qo'qon va Qashqar) bo'lgan, ular Yangi O'rda qurilgan vaqtda o'rnatilgan; 70 masjid, 3 madrasa, shuningdek, karvonsaroylar, tegirmonlar, har mahallada 1–2 tadan choyxona bo'lgan[1]. Shayxontohur Eski shahar bozori (hozirgi Eskijo'va bozori)ning bir qismini o'z ichiga olgan.

Aholisi hunarmandchilik – degrezlik, egarchilik, gazlama to'qish va boshqa sohalarda band bo'lgan, ayni paytda, shahar tashqarisidagi yerlar (Oqqo'rg'on, Yalang'och, Qorasuv, Bo'z, Sho'rtepa, Posira va boshqa mavzelar)da dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham mashg'ul bo'lgan. N.G.Mallitskiyning ro'yxatiga ko'ra, dahada 70 mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 31 mavze bo'lgan[2].

SHAYX ZAYNIDDIN DAHASI – u xalq orasida ko'proq Ko'kcha deb atalgan. "Shayx Zayniddin" joy nomi ikki so'zdan tashkil topgan murakkab toponim bo'lib, antropotoponimlar guruhiga kiradi va XII asrda yashab o'tgan mashhur shayx Zayniddin ismidan olingan. Shayx Zayniddin boboning to'liq ismi Shayx Zayniddin bobo Ko'hi Orifon Toshkandiy bo'lib, mazkur shayx 1164–1259-yillarda yashagan, toshkentlik. Otasi Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy Bag'dodning katta mutasavviflaridan bo'lib, suhravardiya tariqatini yaratgan. O'g'li Zayniddinni Shosh (Toshkent)ga yuborgan. Zayniddinbobo hozirgi Ko'kcha dahasida hayot kechirgan va tasavvuf ilmi bilan shug'ullangan.

Tarixiy manbalarda Zayniddinbobo "sayidlarning ulug'i va sharif kishilarning karomatlisi va buyugi", "oriflarning qutbi va ishonchli rahnamosi" deb ta'riflanadi. Amir Temur 1391–1392 va 1402-yillar Zayniddinbobo maqbarasini ziyorat qilgan va ta'mir ettirgan[3]. Dahaning ikkinchi nomi – "ko'kcha" haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Muhammad Solihning yozishicha, Ko'kcha darvozasi-

[1] Toshkent. Ensiklopediya – 388-b.

[2] Mallitskiy N.G. Toshkent mahallalari, 57–59-b.

[3] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Shayx Zayniddin bobo maqbarasi. T.9. – T., 2005. – B. 679.

ning nomi qabila nomidan olingan, ya'ni ko'kcha qabilasidan[1]. Tarixchi olim A.R.Muhammadjonovning fikriga ko'ra, "ko'kcha" so'zi, aslida, "kohicha" so'zining o'zgartirilgan shakli, "kohicha", "kohak" so'zi "qal'acha" degan ma'noni anglatadi va bu yerda o'rta asrlarda harbiy qal'a bo'lganidan dalolat beradi[2]. Ko'kcha dahasi shaharning shimoli-g'arbiy, g'arbiy qismlarida joylashgan; Sebzor, Shayxontohur va Beshyog'och dahalari bilan chegaradosh bo'lgan. Chegarasi sharqdan Sag'bon ko'chasining janubi-sharqiy tarafidan Quyi Bo'zsuv bo'ylab (hozirgi Uyg'ur va Samarqand darvoza ko'chalarining oralig'ida) o'tgan; dahaning g'arbida ko'kchaliklarning bog'lari va polizlari (mavzelari) bo'lgan. Podaxona arig'i dahadagi yirik ariqlardan sanalgan. Yer yuzasi urqir bo'lsa-da, unda bog' va ekinzorlar ham anchagina edi. Daha aholisiga qarashli chorbog'lar Nazarbek, Keles daryolari bo'yida ham joylashgandi. XIX asr oxirlarida Ko'kchada 3 darvoza (Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha), 60 masjid va 2 madrasa bo'lgan.

N.G.Mallitskiy ro'yxatida mazkur dahada 56 ta mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 43 mavze qayd etilgan[3]. Daha aholisi, asosan, ko'nchilik, kosibchilik va to'qimachilik, mavzelarda dehqonchilik bilan shug'ullangan. Eskijo'va bozorining janubiy qismi Ko'kchaga kirgan. Ko'kcha dahasining yerlari hozirgi Shayxontohur tumaniga to'g'ri keladi.

SHAYXZODA DARVOZASI – Samarqand shahri devoriga shimoliy tomondan o'rnatilgan darvoza. "Boburnoma"da Zahiriddin Bobur 906 (1501)-yili Shaybonixon bilan jangda yengilganida Shayxzoda darvozasi orqali shaharga qaytgani va to'rt oy Samarqandda qamalda qolgani voqealari bayon qilingan. Qamal chog'ida g'anim bilan qisqa to'qnashuvlar ko'proq Shayxzoda darvozasi atroflarida yuz bergan, himoyada Bobur o'zi ham qatnashgan. "Bir kun Shayboqxon Ohanin darvozasi bilan Shayxzoda darvozasi orasida urush kelturdi, menkim ko'mak edim, urush munda bo'lg'och munda keldim... Ul kuni Shayxzoda darvozasining ustidin o'q uchida bir bo'z otliqning otini novak o'qi bila yaxshi ottim" (B.84). Bobur Samarqandni tashlab ketishida ham Shayxzoda darvozasidan chiqqan. "Shayxzoda darvozasidin chiqildi. Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun chiqti: biri Bichka xalifa edi, yana biri Minglik ko'kaldosh edi. Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti" (B.86), – deb yozadi Bobur bu haqida.

---

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih, 19-b.

[2] Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent, 57-b.

[3] Mallitskiy N.G. Toshkent mahallalari va mavzelari. /Ruschadan U. Qo'chqor tarj.– T., 1996. – B. 16..

SHAG'AL – qishloq. Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi qishloq nomi. Shag'al – shoqol. Bundan tashqari, qo'ng'irot qabilasi bo'linmalaridan biri shagal deb atalgan (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории). Buxoro viloyatining Kogon tumanida Shag'alak, Samarqand viloyatining Narpay tumanida Shag'alon qishloqlari bor.

SHAG'ALPUL//SHAG'ALPOL – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi joy nomi. *Shag'alpul, Shag'alpol* – toponimi tarkibida ham zoonim ishtiroki bor. Bu zoonim qoraqalpoqcha *sag'al*, qozoq, turkman tillarida *shag'al*, ozarbayjon tilida *chag'g'al* ko'rinishida bo'lib, ayrim tadqiqotchilar fikricha, genetikasi qadimgi eroniy tillarga borib taqaladi[1].

Apellyativning ikkinchi qismi esa Janubiy Qoraqalpog'iston toponimiyasida faol *pul* bo'lib, xorazmiy tilidan qolgan so'z sifatida "ko'prik" (masalan, *payapul* – kechuv, o'tarlik) degan ma'noni anglatadi. *Pul* komponenti keyinchalik *kopir* bilan parallel qo'llana boshlagan bo'lsa, neotoponimlarda *kopir* ishlatilishi *pul*ning lug'aviy ma'nosi deyarli unutilganidan darak beradi. Masalan, *Biyikkopir, Tazakopir* (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

SHERALICHEK – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi qishloq nomi. Sherali – Qo'qon xonligidagi chek – yer ulushi olgan bir amaldorning ismi. "Bu ulushga yer egasi nomiga qo'yilgan qishloqlar kirgan" (А.Л.Троицкая. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – М., 1969. С. 9).

SHERDAN – qishloq. Andijon viloyati Asaka tumanidagi qishloq nomi. Qirg'iz-qipchoqlarning urug'laridan biri *sherdan* deb atalgan (К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 118). Etnonim boshida *Sherdan tugan – Sher avlodi* deb atalgan, keyin qisqartirilib *Sherdan* deb atala boshlangan.

SHEROBOD – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Sherobod ikki ming yildan ziyod tarixga ega. U shahri Haybar deb atalib, makedoniyalik Iskandar (Aleksandr) davrida ham mavjud bo'lgan. Akademik V.V.Bartoldning taxminicha, Sherobod hozirgi nomini XVII asr boshlarida olgan bo'lib, Sheroboddaryoning o'ng sohilida qal'a qurgan o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi hukmdori Sher Ali nomi bilan atalgan.

T.Nafasovning yozishicha, nomning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan "obod" so'zi IX asrdan boshlab Movarounnahrda joy nomlari yasashda faol qo'llaniladi. *Obod* qo'shimchasi ko'pincha kishilar nomiga qo'shilib

[1] Щербак А. Названия домашных и диких животных и тюркских языках//История развития лексики тюркских языков. –М.: Издательство АН СССР, 1967. –С. 145.

joy nomlari yasagan, uning ma'nosi – yangidan qurilgan, shaxs tomonidan bunyod etilgan. *Sherobod* nomini *Sher* ismli kishi qurgan qo'rg'on deb izohlash mumkin, ammo asos ishonchli emas.

S.Qorayev *sher* so'zini etnonim deb hisoblaydi. Olimning yozishicha, o'zbeklarning saroy, qirg'izlarning saruu qabilasi tarkibida sher, sherbachcha urug'lari bo'lgan. U Sherobod, Sherkent, Sherqishloq, Sherqo'rg'on kabi oykonimlar o'sha sher etnonimining in'ikosi deb hisoblaydi.

Mahalliy rivoyatga ko'ra, *Sherobod* atamasi *"shohrabot" – bosh rabot, katta rabot* ma'nosini bildiradi. *Rabot – qo'rg'on, qal'a, istehkom, atrofi devor bilan o'ralgan turarjoy.* Sherobod yonida Termiz yo'lidagi so'nggi bekat – Roziq raboti (X asr) bino bo'lgan. Sheroboddaryo oqib keladigan tog' darasi yoqalab o'rta asrlarda Markaziy Osiyoni Afg'oniston va Hindiston bilan bog'lovchi muhim savdo yo'li o'tgan. XIX–XX asr boshlarida Sherobod Buxoro amirligiga qarashli beklik markazi hisoblangan.

SHERUSHI – ovul. Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli, Chimboy tumanlaridagi ovullar nomi. Qoraqalpoqlarning qitay qabilasi, qozoqlarning kerey qabilasi tarkibida sherushi urug'i qayd qilingan.

SHIKORBEGI – mahalla. Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi mahalla nomi. *Ov begi, ovni boshqarib turuvchi rahbar* ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkin.

SHILVI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. Shilvi – shilvi, uchqat – buta; qisqargan toponim.

SHINNAKLIQALA – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi qal'a nomi. Mazkur nom uch ma'noli qismdan iborat: *shinnək + li + qala*. Apellyativning birinchi qismi bo'lgan *"shinnak"* qal'a-istehkomdagi nishon, tuynuk ma'nosini anglatadi[1]. -li toponimik formant, *qala* esa toponimik indikator. Shu yerlik aholi tilida bu toponim indikatorsiz, ya'ni *Shinnəkli* tarzida faol qo'llanadi.

Demak, toponimning etimoni: *shinnak* bo'lib, qal'a-istehkomdagi nishon, tuynuk ma'nosini bildiradi (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

SHIRIN – tuman. Sirdaryo viloyatidagi ma'muriy-hududiy birlik. Mazkur so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bir qancha ma'nolari beriladi: *"a) shirasi o'tkir, shirali; b) ta'mi yoqimli, mazali, lazzatli; d) kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan, yoqimli, yoqimtoy; e) ahil totuv"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 579).

Boshqa ilmiy manbalarda mazkur Shirin termini etnonim sifatida ham qayd etilib, turkiy xalqlar tarkibida uchrovchi qadimiy komponentlardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Shirin nomi etnonim sifatida keyingi asrlarda unutilgan. Ammo geografik nom shaklida

[1] Фрейман А.А. Хорезмийский язык. –М., –Л. 1953. –С. 84.

turkiy xalqlar yashayotgan hududlarda keng uchrashi bu nom arealining katta ekanligini ko'rsatadi.

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, qadimda Avshyo tabib nomli kishi Bibi Shirin (bu ikkala shaxs ham tarixan mashhur emas) nomlariga atab qo'ygan emish. Bu talqin noto'g'ri.

Geografik nomga asos bo'lgan shirin so'zi *"totli", "shirali", "mazali"* kabi ma'nolarni anglatadi.

Shu bilan birgalikda, o'zbek xalqi tarkibida shirin deb ataluvchi urug' nomi, etnonim mavjudligi aniqlangan. Demak, Shirin – *"shirin urug'i vakillari yashaydigan joy"* degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, *shirin* so'zi yordamida hosil qilingan toponimlar mamlakatimizning ko'plab hududlarida uchraydi. Masalan: Shirinlar – Xorazm viloyati Gurlan tumani; *Shirintepa* – Samarqand viloyati Narpay tumani; *Katta Shirin* va *Kichik Shirin* – Samarqand viloyati Ishtixon tumani; *Sari Shirin* – Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani; *Shirinqo'rg'irot* – Xorazm viloyati Yangibozor tumani. *Shirin* – o'zbek qabilasi.

Respublikamizning bir qator hududlarida, jumladan, ***Xorazm viloyati Xonqa tumani, Samarqand viloyatining Narpay (Shirin Xotin), Kattaqo'rg'on (Shirin), Xatirchi (Shirin Bahrin, Shirin ovul), Buxoro viloyatining Vobkent (Shirin), Toshkent viloyatining Yangiyo'l (Kattashirin, Kichikshirin) tumanlarida*** shirin leksemasi bilan bog'liq nomlar uchraydi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Xakasiya avtonom oblastida Shirin nomli tuman ham mavjud.

Shirin qabilasi turkiy xalqlar etnogenezida ishtirok etgan komponent sifatida tez-tez tilga olinadi. Jumladan, Qrim xonligida mamlakat siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynagan yuqori tabaqa vakillari orasida Barin, Argin, Sejeut, Mangit, Yashlov qabilalari sardorlari qatori Shirin qabilasi vakillari ham faol ishtirok etgan (Nekrasov, 1988: 22).

O'zbek toponimiyasida shirin nomi yozma manbalardan o'rta asr vaqf hujjatlarida uchraydi. Sayfiddin Boxarziyning nevarasi shayx Yahyoning vaqfnomasida (1326) Shirin kanali va qishlog'i nomlari tilga olinadi.

SHIRIN BUVI BULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi bo'lib, antropogidronim hisoblanadi. Apellyativning birinchi komponenti kishi ismi sanaladi va uning ikkinchi komponenti yoshi ulug' ayollarga nisbatan hurmat ma'nosini ifodalaydi.

"**Buloq**" geografik termin sifatida *"yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma"* ma'nosiga ega [O'TIL-1, 371].

Demak, Shirin ismli yoshi ulug' ayolga tegishli bo'lgan buloq ma'nosini ifodalaydi.

SHIRINQUDUQ – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi qishloq nomi. Shirin, ya'ni chuchuk suvli quduq.

SHIRINQO'NG'IROT – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi qishloq nomi. Juft etnonim: ikki qabila shirin va qo'ng'irot ittifoqlarining birlashishidan tashkil topgan.

SHIRVOQOTA – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi ziyoratgohlardan biri. Xo'jayduq qishlog'ining ustki tomonidagi g'orda joylashgan. Bu yerda mahalliy aholi muqaddas deb biladigan qabr mavjud. Toponim uch qismdan: sug'dcha "shir" – *yaxshi, asl, toza, pok* (Основы иранского.., 1981: 419) va "bog'", "voq" so'zlaridan yasalgan.

Sug'dcha *bag'n – ibodatxona, bag' – xudo, iloh* so'zlari qatnashgan nomlar ilk islom davri manbalarida ancha ko'p saqlangan. Ular, asosan, turli yozma bitiklarda, vaqfnomalarda saqlanib qolgan. Hozirgi toponimiyada juda oz.

Respublikamiz tarixiy toponimiyasida bu termin ishtirokida yasalgan nomlar o'tmishda ko'p bo'lgan. O.I.Smirnova ularning soni o'ttizdan ortiq bo'lganligini qayd qiladi. Toponim tarkibidagi uchinchi komponent "ota" so'zi kishilarning diniy tushunchalari tufayli yuzaga kelgan bo'lib, xalq nazarida muqaddas hisoblangan joylar bilan bog'liq bo'lib, suv nomlari tarkibida ko'plab uchraydi.

Ismoilota arig'i (Payariq tumani), Boyliota qishlog'i (Ishtixon) kabilar shular jumlasidandir. V.L.Vyatkin Urgut yaqinidagi Ispandiza qishlog'i (hozirgi Ispanza) haqida gapirar ekan, undan sharqroqdagi Kadud qishlog'i va soyini ham tilga oladi. Kadud-dan shimolroqda Hinduvon, sharqda esa G'o's, janub tomonda bevosita Shayxolon tog'lariga yondosh Shirmitan (sug'dcha aynan "yaxshi qishloq") qishloqlari joylashganligini qayd qiladi (Ваткин. Материалы, 1902: 26).

Respublikamiz toponimiyasida "shir" termini ishtirokida hosil bo'lgan nomlar Jomboy (Shirqo'rg'on), Bulung'ur (Shirqo'rg'onpoyon, Shirqo'rg'onbolo) tumanlarida uchraydi.

SHIVAR – Samarqand shahridagi toponim (mahalliy shevada *shivar – nam, sersuv joy*). Obirahmat va Siyob ariqlarining o'rtasi va u yerda joylashgan ko'lning atroflari shunday deb ataladi.

V.V.Bartold *Shibertu – "balchiqli joy"* degan ma'noni anglatadi, deb yozgan edi.

S.Qorayev mazkur so'z va uning etimologiyasi haqida batafsil to'xtalib, Ligeti (mo'g'ul tilida *"shibar" – "balchiq, loy, botqoq"*), Z.Rozenfeld (ba'zi tojik shevalarida *shiber, shiver – "botqoqlik"*), I.I.Zarubin (shug'non tilida *shibar "botqoqlik, sernam o'tloq"*) larning fikrlarini keltiradi.

Shuningdek, Jizzax viloyati Zomin, G'allaorol tumanlarining suv bo'ylaridagi o'tloqni shiver (shiber) deyishadi, deydi. Xorazmda shavr – chimzor, sersuv o'tloq yer (Qorayev, 1970: 105–109). Urgut tumani she-

valaridan birida *"shiver – ko'k, o'tloq joy, suv tushib turgan maysa"* ma'nosida. Demak, Samarqand shahrining shimoli-sharqiy hududidagi mazkur mavze ham joy tabiatiga mos tarzda nomlangan.

SHIVILI//SHIBLIY – Toshkent shahri mahallasi nomi. Toshkent ruslar tomonidan bosib olinganidan keyin nom Chauli deb yozilgan. Bu antroponim ham bo'lishi mumkin – Markaziy Osiyoda Shibli ismli bir qancha mashhur shaxslar bor. Keng tarqalgan arab ismi Shibli "yo'lbarscha"ni anglatadi, shivili yoki shivli etnotoponim bo'lishi ham mumkin, ehtimol, ming qabilasi bog'lon urug'ining bir bo'g'ini chivli deb atalgan.

Bizningcha, mazkur o'rinda antroponimdan, ya'ni kishi ismidan antropotoponim hosil qilingan. Toshkent shahrida hozirda mazkur nom bilan atalgan qator geografik obyektlari mavjud.

SHIX – qishloq. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla va qishloq nomlaridan biri. Shix toponimi shayx so'zining dialektal variantidir. Aytishlaricha, mazkur hududga qadimda Mashhad shahridan shayxlar kelib, muqim o'rnashib qolib ketgan va bu joy shundan buyon Shix deb atala boshlagan. Manbalarda *"Shayx", "Sheyx"* – arabcha *"yo'lboshchi, boshliq, oqsoqol"* ma'nosini ifodalashi qayd etiladi.

SHIXBOG'I – qishloq. Xorazm viloyatining Yangiariq tumanidagi qishloq nomi. Shix shayx so'zining dialektal varianti bo'lib, ular qabilasiga qarashli bog' nomi.

SHIXLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Tuproqqal'a tumanidagi qishloq nomi. S.Qorayevning fikrlariga ko'ra Shix – turkman qabilasi, bu munozaralidir. Shixlar o'zlarini birinchi xalifa Abu Bakr avlodlari deb hisoblaydilar. Shix – *shayx*, so'zma-so'z *"mo'ysafid"*. 2020-yili mazkur nom Shayxlar deb o'zgartirildi.

Samarqand viloyati Ishtixon tumani. Shix, to'g'risi shayx – "oqsoqol" demakdir (Qorayev, 1978: 157). Shuningdek, o'zbek qabilalari tarkibida shix urug'i ham qayd etilgan. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Qoradaryo tumani Oqqo'rg'on qishloq kengashida Shixlar nomli ikkita qishloq qayd qilingan.

Xorazm viloyati Xiva shahri. Shixlar (aslida, "shayxlar" bo'lib, Xorazm shevasida shixlar deb atalib, hozirda shu nom saqlanib qolgan) mahallasi kelib chiqishi bo'yicha quyidagi qarashlar mavjud. Shayx – musulmonlarda eng yuqori diniy martaba bo'lib, "Qur'oni karim" va "Hadis" ilmini chuqur egallagan va barcha tomonidan e'tirof etilgan kishilarga beriladigan yuksak unvondir. Ushbu mahallada Islom dini kirib kelgan dastlabki yillarda buyuk "shayxlar" yetishib chiqqan bo'lib, shayxlar yashaydigan mahalla hisoblangan va keyinchalik mahalliy aholi vakillari nutqiga moslashtirilib, "Shixlar" deb atala boshlagan.

SHIG'OVUL – Andijon shahridagi mahallalardan birining eski nomi.

Shig'ovul asli mo'g'ulcha so'z bo'lib, *"elchi qabul qiluvchi saroy amaldori"* ma'nosida ishlatiladi (yasovul, bakovul, qorovullarga taqqoslang). Xivada shu nomli qishloq bor. Qarshi shahrida ham Shig'ovul mahallasi bor (ammo nomning kelib chiqishini Shayxovuldan deb izohlaydilar).

SHISHAKI – Namangan viloyati Namangan shahrining Shishaki qishlog'idan oqib o'tuvchi ariq nomi. Shishaki gidronimining etimologiyasi haqida bir necha qarashlar bor:

1. Mahalliy qarashlarga ko'ra, Shishaki nomining etimologiyasi fors-tojikcha *"shishak"* so'zi bilan bog'liq. *"Shishak* (f-t) – *bir yoki ikki yoshli qo'y"* [1].

Aytishlaricha, o'tmishda chorva ichidan bir yoki ikki yoshli qo'ylarni ajratib olib, naslini yaxshilash maqsadida hozirgi Shishaki qishlog'i o'rnida boqilgan emish. Shunga ko'ra qishloq Shishaki deb atalgan ekan[2].

Demak, Shishaki oykonimining etimoni *shishaki* so'zi bo'lib, oykonim *"shishak qo'ylar boqiladigan joy"* degan ma'noga ega. Ana shu hududdagi ariq ham qishloq nomiga nisbat berish asosida Shishaki deb atalgan.

2. Bir guruh qishloq keksalarining izohlashlaricha, qishloq shakllanayotgan paytlarda bu yerda uzumzorlar barpo qilinib, uzumning maxsus navi yaratilgan va u "Shishak" deb atalgan. Bunday uzum boshqa joyda yetishtirilmasligi bois qishloq Shishaki deb atalgan. Bu qarashga ko'ra Shishaki oykonimining etimoni uzum navini ifodalovchi Shishaki fitonimi bo'lib, nom "Shishaki uzum navi yetishtiriladigan joy" degan ma'noga ega. Keyinchalik ana shu Shishaki oykonimiga nisbat berish asosida ariq ham shunday atalgan.

3. Ayrim manbalarda keltirilishicha, ilgari bu yerlarda suv bo'lmagan. Mahalliy aholi quvur bilan To'raqo'rg'ondagi soydan suv olib kelib shishaklab taqsimlashgan. Shishak hisob so'z bo'lib, bir shishak hozirgi 18 litrga teng. Shunga nisbat berib, ariq Shishaki deb atalgan[3]. Keyinchalik gidronim asosida oykonim yuzaga kelgan.

Demak, bu qarashga ko'ra, Shishaki gidronimining etimoni shishak hisob so'zi bo'lib, nom *"shishaklab suv taqsimlanadigan suv obyekti"* degan ma'noga ega. Mazkur gidronim asosida yuzaga kelgan Shishaki oykonimi esa *"shishaklab suv taqsimlanadigan ariq joylashgan joy"* ma'nosini anglatadi. Bizningcha, gidronim haqidagi mana shu etimologik talqin asosli, biroq shishak so'zi manbalarda kuzatilmaydi.

SHISHMAXA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Nomning etimologiyasi noma'lum. Mahalliy aholining fikricha, toponim tojikcha shashmox

1 O'zbek tili izohli lug'ati. II t. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 419.

2 Namangan tumanining o'tmishi va buguni. – Toshkent: Universitet, 1996. – B. 33.

3 *Qarang.* Turdaliyev B., Nu'monov T., Haydarov A. Namangan viloyati toponimlaridan materiallar. 1-kitob. – Namangan, 1995. – B. 88.

so'zining o'zgargan varianti. *Shashmox – "olti oy"* degan so'z.

SHOBBOZ – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ovul nomi. *Shabbaz* toponimi tarkiban eroniy tillarga xos *shoh* so'zi va arab lug'aviy qatlamiga mansub *Abbos* antoponimidan tashkil topgan. Ushbu joy nomining tarixda o'tgan qaysi Abbos nomi bilan aloqadorligi xususida turlicha fikrlar mavjud. Har holda uning safaviylar sulolasiga mansub Shoh Abboslar (birinchi va ikkinchi)ga aloqadorligini taxmin qilish unchalik to'g'ri emas. Ayrim manbalarda ushbu joy nomining *Shoh Abbos valiy* nomi bilan bog'laydilar. Nom tarkibidagi *shoh* so'zining ijtimoiy-siyosiy termindan tasavvuf istilohiga aylanishi ham tasodifiy emas.

Shoh شاه pahlaviy tilida *shâh*, qadimgi fors tilida *xshayathiga* shaklida bo'lgan[1]. Eron leksikografi M.Mu'inning fikricha, bu so'z eroniy tillarning janubiy-g'arbiy guruhiga mansub *shathr* (shahar) so'zi bilan o'zakdoshdir. Tasavvufda keyinchalik xalq o'rtasida ayrim mashhur qalandarlar, darvishlar *shoh* yoki *sulton* deb atala boshlagan.

Aslida, *sulton* سلطان so'zi ijtimoiy-siyosiy termin sifatida tarixan turli davrlarida turlicha mazmun kasb etib kelgan:

1. X asrlarda musulmon mamlakatlari hukmdori. XI asrda saljuqiylardan boshlab bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya bo'lgan ba'zi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Bruney sultoni.

2. Mo'g'ul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar *sulton* deb yuritilgan[2] (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

SHODLIK – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa tumanlaridagi mahalla nomi. Mustaqillik yillarida qo'yilgan nom bo'lib, mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *shod-xurram holati, xursandlik, sevinch, quvonch* ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 591-bet).

SHODMONTO'BI – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Yuz qabilasi salin urug'i bo'linmalaridan biri shodmonto'bi deb atalgan (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 83-bet).

SHOFAYOZ – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponimni hosil qilgan *Shofayoz* so'zi tarixan mashhur bo'lmagan kishining ismi, antroponim.

Xalq etimologiyasiga ko'ra, qishloq shu hududda yashagan Shofayoz Qalandar ismli avliyo nomi bilan atalgan. Mazkur talqin qanchalik darajada rost yoki yolg'on, bunisi noma'lum.

---

[1] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٤٢ . جلد ٣.ص ١٣٢١.

[2] Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha lug'ati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 54.

Ammo shunisi aniqki, qishloq kishi nomi bilan atalgan. Qishloqni amaldagi qonunga mos ravishda shu hudud tabiatining o'ziga xos xususiyatlari yoki qadimgi nomini tiklagan holda (agar mavjud bo'lsa) qayta nomlash maqsadga muvofiq.

SHOFIRKON – tuman. Buxoro viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Shofirkon O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri, tuman tashkil qilingan vaqtda uning nomi tumanga ham berilgan. Nomning qadimiy shakli – Shopurkom. Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida yozilishicha, shahar nomi *Shopurkom*, ya'ni *Shopur qazdirgan ariq* (kanal) nomidan kelib chiqqan. Joy nomlari tarkibida kom so'zi "ariq, kanal, irmoq, daryo" ma'nolarida qo'llanilgan. Keyinroq ariq yonida paydo bo'lgan qal'a va shaharga ham shu nom berilgan.

Shofirkon haqida ayrim ma'lumotlar Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" (Geografiya) asarida (XVII asr) ham keltirilgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Shofirkon va uning atrofidagi qishloqlarni bir necha marta qum bosgan.

SHOHIMARDON – qishloq. Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi qishloq nomi. "Mardon"lar shohi deb izohlanadi. Diniy nomlar jumlasiga kirib, Mardon-Ali nomi bilan bog'liq degan rivoyatlar bor. Shohimardon aynan tarjima qilinganda erkaklar podshohi, zo'ri, pahlavoni degan ma'noni bildiradi.

Farg'ona viloyatida Shohimardondan kelgan kishilar tomonidan qurilgan qishloqqa Shohimardonobod deb nom berilgan. Farg'ona viloyatida Shoimbek (xursand, xushchaqchaq bek), Shomirza (Shoh va Mirza so'zlaridan iborat), Shopo'lat (mustahkam, o'lmas), Shahob (olovdak yolqinli, otashin) kabi kishilar ismlaridan joy nomlari vujudga kelgan.

SHOHRUXIYA – XV asrda Toshkent viloyatidagi yirik shahar, Sayhun daryosi (Sirdaryo)ning o'ng qirg'og'ida joylashgan. "Boburnoma"da uning qadimgi nomi Banokat ekanligi ta'kidlangan: "Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar" (B.59). Banokatni Chingizxon lashkari vayron qildi. Amir Temur bu yerda yangi mustahkam qo'rg'on barpo etdi va u "Shohruxiya" deb nomlandi. Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi yillarida Shohruxiya savdo karvonlari Xitoyga borib keladigan Buyuk ipak yo'lida joylashgan xalqaro ahamiyatga molik muhim shahar bo'lgan; karvonlar Sayhun daryosidan shu yerdan o'tgan.

Shohruxiya XV asrda Movarounnahrda kechgan ko'pgina siyosiy va harbiy voqeliklarga daxldor bo'lgan.

"Boburnoma"da qayd etilishicha, Sulton Ahmad Mirzo Toshkent, Shohruxiya va Sayromni egallab, keyinroq uni Umarshayx Mirzoga beradi. XV asr oxirgi choragida Shohruxiyada tarixiy ahamiyatga molik sulh tuziladi va bu haqida Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida muhim

ma'lumotlar bor. Unda yozilishicha, 890/1485-yili Temuriy shahzodalar – Andijondan Umarshayx Mirzo (vaf. 899/1493–1494) va Samarqanddan Sulton Ahmad Mirzo (vaf. 899/1493–1494), shuningdek, Mo'g'uliston xoni Yunusxon Toshkentdan yo'lga chiqib, Shohruxiyaga keladilar. Ulardan har biri Shohruxiyani egallashni maqsad qilgan edi. Temuriylar saltanati ma'naviy hamda siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan Xoja Ahror Vali Samarqanddan yetib kelib, uchala hukmdorni o'z huzuriga chorlaydi va tomonlarni yarashtirishga erishadi. 890/1485-yili Shohruxiyada tuzilgan ushbu sulh shartiga ko'ra Toshkent viloyati Yunusxonga beriladi. Shunga ko'ra Shohruxiya dastlab Yunusxon, vafotidan (892/1486–1487-y.) keyin esa o'g'li Sulton Mahmudxon hukmida bo'lgan va ma'muriy-hududiy jihatdan Mo'g'uliston tarkibiga kirgan. Sulton Mahmudxonning hukmronligi to Shayboniyxon bu viloyatni olgunga (908 / 1502–1503-y.) qadar davom etgan. "Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong'a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg'on mahalda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalarig'a kelib, bir yilg'a yovuq tanqisliq bila o'tkarib, Kobul azimati qildim" (B.35), – deb yozadi Bobur bu haqida.

SHOLG'OMPOYA – joy nomi. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. Sholg'om, poya – nimadir ekiladigan maydon; Sholg'ompoya – odatda, sholg'om ekiladigan maydon.

SHOLG'OMXO'RON – qishloq. Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi qishloq nomi. Sholg'omxo'r – sholg'omni yaxshi ko'ruvchi, *-on* – ko'plik affiksi (qishloq aholisi laqabi).

SHOLIKOR – qishloq. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Ushbu termin so'z sifatida sholi ekib, guruch yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon ma'nosini bildirib, mazkur hudud faqatgina sholi yetishtirishga mo'ljallangan bo'lgani uchun ham qishloq shunday nomlangan.

SHOLIKORLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. *Sholikorlar toponimi sholi yetishtirish bilan shug'ullanuvchilar* ma'nosini anglatadi.

SHOMIRZA – Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanidagi qishloq nomi. Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlarida *Shoh Mirza tepa* – (شاه میرزا تپه) shaklida yozilgan. Agar ushbu aholi maskanining joylashish o'rniga e'tibor qaratilsa, *Shoh Mirza tepa* qishlog'i *Shahartepa* deb atalgan qishloq bilan yonma-yon holatda Marg'ilon shahridan uncha uzoq bo'lmagan hududda joylashgan.

Fikrimizcha, qishloqlarning nomlanishida Marg'ilon shahri oriyentirlovchi obyekt vazifasini bajargan. Ya'ni har ikki qishloq ham shaharga nisbatan gorizontal holatda uning yuqori tomonida, baland qismida joylashganligi bois nomlar tarkibiga *tepa* leksemasi qo'shib aytilgan.

Shoh Mirza tepa oykonimining nomlanishi uchun hududning joylashish o'rni hamda shaxsga aloqadorlik, qarashlilik xususiyati asos qilib olingan. Nom fonetik o'zgarishlar natijasida bora-bora *Shomirza* shaklida qo'llanishni boshlagan.

SHOPAYZIQULOQ – mahalla. Toshkent shahridagi mahalla nomi. *Quloq (quloq) – ariqning asosiy kanaldan ajraladigan joyi.* Shopayzi – ariq qurgan insonning ismi.

SHOPIR KAMAR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi joy nomi. Mazkur nom ikki komponentli mikrooykonim. A.Narshaxiyning yozishicha "***shopur***" qo'lda qazilgan ariq ma'nosini berishini hamda "***Pur***" eron tilida "*o'g'il*" manosini bildirib kelishini yozib o'tadi [A.Narshaxiy 19, 63].

Apellyativning ikkinchi komponenti "***kamar***" so'zi "*suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yon bag'rida yuvilish, o'pirilish va shu kabilar natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy, yo'l*" ma'nolarini bildiradi (O'TIL. 5, 2, 305; Z.Do'simov, 75).

SHOQAROQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom aniqlovchi+ot shaklidagi murakkab mikrooykonim sanaladi.

Bizga ma'lumki, shevada **a** tovushining **o** ga o'zgarishi ko'p uchraydi. Shoq/shaq moslashuv jarayonida ariq aroq shakliga o'zgargan, Shoqariq=Shoqaroq.

Apellyativning birinchi komponenti "***Shaq***" so'zi "*qattiq urilishdan hosil bo'ladigan ovoz*"ni bildiradi [O'TIL. 4, 559; 680].

Uning ikkinchi qismi "***Ariq***" so'zi esa "*sun'iy ravishda hosil qilingan suv yo'li, o'zani va undagi suv*" ma'nosini ifodalaydi [O'TIL. 1, 98; 680].

Demak, "***Shoqaroq***" nomi suv oqimining baland ovoziga nisbatan atalgan gidromikrooykonimdir.

SHO'RAXON – Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi mahalla nomi.

1. To'rtko'l tumani hududida mahalla nomi.

2. To'rtko'l tumanida joylashgan ushbu qal'a tarixiy manbalarda X–XI asrlardan beri ma'lum bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Sho'raxon haqidagi ma'lumotlarni H.Vamberi asarlarida ham uchratamiz[1].

3. Shu hududdagi ko'l nomi. Ushbu toponim gidronimlar asosida yuzaga kelgan joy nomi hisoblanadi. Chunki uning ikkinchi komponenti *xan* umumeroniy so'zlar sirasiga kirib, qadimgi eroniy *kap* – qazmoq so'zi bilan aloqadordir. *Kap* hozirgi fors tilida *qazimoq; yulmoq; qo'pormoq* mazmunidagi *kapdap* کندن fe'lning hozirgi zamon o'zagidir[2]. Shuning uchun ham *kap* کن fors tilida, jumladan, o'zbek tili tarixiy leksikasida mavjud yasama so'zlar tarkibida "qazuvchi; qo'poruvchi" mazmunida

[1] Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshoatlari. – Toshkent: Fan, 2009. -B. 73.

[2] Персидско-русский словарь. Том 2. –М.: Русский язык, 1983. –С. 356.

keladi: *go'rkan* (go'rkov), *chohkan* (quduq qazuvchi), *qo'hkan* ("*tog' qazuvchi*" – Farhodning istioraviy laqabi).

Ushbu so'zning qadimgi hind tilida *kha* shaklida ishlatilgani hamda turli eroniy tillarda "suv" bilan bog'liq holda har xil mazmun ifodalashini kuzatamiz: yag'nob tilida *xap,* o'rta fors tilida *xap* – kanal[1]. Nomning *shora* qismi "sho'rxok; sho'rlagan yer" mazmunini anglatadi va *shor* so'ziga "a" qo'shimchasi qo'shilishidan yuzaga kelgan. Mazkur so'z fors tilida ham شوره *shure* shaklida bo'lib, xuddi shu mazmunni anglatadi[2] . Fors tilida behuda ish qilmoq mazmunida تخم در شوره انداختن *"to'xm dar sho'ra andoxtan"* – sho'r yerga urug' sochmoq iborasi ham bor.

Demakki, *Sho'raxan – "sho'r suvli joy", "sho'r suvli ko'l"* degan ma'noni anglatadi. Mazkur nom Xorazm vohasida ham uchraydi. Masalan, Yangibozor tumani Oyoqdo'rman qishlog'i Qoratepa mahallasida xuddi shu nomdagi ko'l nomi bor (Bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, – Nukus, 2012).

SHO'ROBOD – Buxoro viloyatining Vobkent, G'ijduvon, Kogon, Qorako'l, Peshku, Jondor hamda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlaridagi *qishloqlar nomlari. Sho'r* yerlar obod qilingan joylar, yerlar va shundan keyin, ya'ni yerlar hosilga kirgandan so'ng qishloqlar nomlari shunday tarzda atala boshlangan.

SHO'RTUT – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur nom ikki komponentli sifat+ot, ya'ni sho'r+tut tuzilishiga ega mikrooykonim sanaladi.

Apellyativning ikkinchi komponenti ***tut*** arabcha so'z bo'lib, *tut daraxti* [O'TIL. 4, 606].

Toponimning birinchi komponenti ***sho'r*** geografik obyektning xarakterli xususiyatini baholash ma'nosiga ega bo'lib, tut daraxti o'sgan joy tuprog'i boshqa hududga qaraganda nisbatan sho'rroq bo'lganligi hamda bu hududda ushbu daraxt borligidan dalolat beradi.

SHO'RCHA – Jizzax viloyatining G'allaorol va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanlaridagi qishloqlar nomi. Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi qishloqning yuqori qismida ***sho'r suvli*** buloq mavjud. Sho'rcha qishlog'i 3 ta ovuldan iborat: *Etak ovul, O'rta ovul, Jo'g'orovul (Yuqori ovul).* "Sho'rcha" so'zi "*quduq, hovuz, chuqur kanal, buloq kabi suv inshootlari*" ma'nosini bildiradi.

Shunday ekan, mazkur toponimni sho'r quduq yonida barpo etilgan yashash maskani, qishloq – deb izohlasa to'g'ri bo'ladi. "***Sho'rcha***" – gidrooykonimlar sirasiga kiradi.

SHOSUVAR – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Shohsuvar – shohlarcha,

[1] Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык//Основы Иранского языкознания. –М.: Наука, 1981. –С. 396.

[2] Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983. – С.119.

shohona (ism ham bo'lishi mumkin).

SHOVA//SHOVVA – Navoiy viloyatining Nurota hamda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi.

"***Shova // shovva***" so'zi "*suvning balandlikdan kuch bilan otilib, shovullab tushadigan joyi, sharshara*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 587].

T.Nafasov ham bu so'zni "*yuqoridan quyiga oqib tushgan suv, sharshara*", – deb izohlaydi [T.Nafasov, 219].

Shunday ekan, "***Shova // shovva***" nomi "*sharshara yonida barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" ma'nosini anglatadi.

SHOVDOR – Samarqand shahri yaqinidagi tog'ning qadimgi nomi. Oronim dastlab ibn Havqal asarida *Savdor* shaklida tilga olingan.

S.Qorayev fikricha, oronimning to'g'ri shakli *Shovdor* bo'lib, sug'dcha *shov* – qora, *dor* – slanes tosh. O'rta Osiyoda kvars, ohaktosh, oq marmar kabi oqish toshlardan iborat tog'lar *Oqtog'* (*Oqtov*), slanes, porfirit kabi qoramtir toshlardan tuzilgan tog'lar *Qoratog'* (*Qoratov*) deyiladi. Demak, *Shovdor* Samarqand yaqinidagi Qoratog'ning sug'diycha nomidir"[1].

Hisor – tog' nomi. Ilmiy manbalarda *Hisor* so'zi geografik termin sifatida turk, eron, arab va boshqa bir necha tillarda keng qo'llanishi qayd etilgan. *Hisor* so'zi ozarbayjon tilida *xasar*; qozoq tilida *asar*; usmonli turk tilida *hisar* shaklida "*qal'a*", fors tilida *xisar* shaklida "*qal'a*", "*istehkom*", "*shahar devori*" ma'nolarida qo'llanadi. Tojik tilidagi lug'atlarda so'zning quyidagi ma'nolari qayd etiladi: *o'rab olmoq; o'rab olingan, devor bilan qurshalgan; atrofi o'ralgan joy, devorli qo'rg'on, qo'rg'on, qal'a*[2].

Turli mamlakatlarda *hisor* apellyativi lug'aviy asos bo'lgan *Gissar arxeologik yodgorligi, Xeserdere, Ko'hnaxesar* (Eron), *Boloxisar* (Afg'oniston), *Xisar* (Hindiston), *Bala-Xisar* (Pokiston), *Xisariya* (Bolgariya) kabi toponimlar mavjud[3].

O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikalari toponimiyasida ham *hisor* apellyativi asosida yasalgan nomlar ko'p: xoronim: *Hisor vodiysi* (Tojikiston Respublikasining g'arbidagi tog'lararo botiq), gidronim: *Katta Hisor kanali* (Hisor vodiysi), oronim: *Hisor tizmasi* (O'rta Osiyodagi tog' tizmasi), *Hisor tog'lari, Hisor-Oloy tog'lari* (O'rta Osiyodagi tog' tizmasi), *Hisor qo'riqxonasi* (Qashqadaryo viloyati), "*Hisor*" naslchilik shirkat xo'jaligi (Tojikiston Respublikasi) kabi. Mahmud ibn Valining yozishicha, Chag'oniyon (Surxondaryoning bosh va o'rta oqimidagi qadimiy viloyat)ni ham *Hisor* deyishgan. Viloyat markazi esa *Hisori Shodmon* nomi bilan yuritilgan.

---

[1] Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 119.

[2] Farhangi zaboni tojiki. – Moskva, 1969. – II. – S. 748.

[3] Мурзаев Е. Словарь народных географических терминов. –Москва: Мысль, 1984. –С. 325.

Qobul shahrida *Hisor* degan mahalla bo'lgan. Kitob tumanidagi bir guzarning nomi *Hisoriy*, ya'ni hisorlik.

Hisor so'zi eski o'zbek tilida, jumladan, Alisher Navoiy asarida quyidagi ma'noda qo'llangan: 1. Qal'a, qo'rg'on, istehkom:

Chu tosh uzra ayog'in tepti mahkam,

***Hisor** ichra sadoye tushti ul dam.*

("Farhod va Shirin")[1].

Shuningdek, eski o'zbek tilida *hisor* so'zi asosidan yasalgan *"o'ralgan, qamalda qolgan, qo'rg'on ichida qolgan"* ma'nosidagi ***hisoriy***, *"qal'ada o'tiruvchi"* lug'aviy ma'nosini anglatuvchi ***hisornishin*** so'zlari ham iste'molda bo'lgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *hisor* so'zi berilmagan, *hisori // hisoriy* so'zi lug'at so'zligidan o'rin olgan. So'z arab tilidan fors tiliga o'zlashganligi va *"o'rab olish; qurshov, qamal; mustahkam qal'a"* lug'aviy ma'nosini anglatishi qayd etilgan hamda *"Tojikiston Respublikasining Hisor hududiga oid; shu hududda yetishtirilgan, ishlab chiqarilgan"* degan izohi berilgan. Shu o'rinda *hisoriy qo'y, hisoriy beqasam* birliklar qatnashgan misollar keltirilgan[2].

SHOVDORARIQ – Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi qadimiy kanallardan biri. Darg'om kanalining o'ng sohilidan ajralib chiqqan yirik sug'orish inshooti. Hozirgi Urgut tog'lari o'rta asrlarda Shovdor nomi bilan mashhur bo'lgan.

Shu nomdagi tuman esa hozirgi Urgut, Toyloq, Samarqand tumanlari va Panjakent (TojR) hududlarini qamrab olgan.

Shovdorariq gidronimi tuman nomi bilan bog'liq holda saqlanib qolgan tarixiy atama hisoblanadi. Shuningdek, 1926-yilda aholi ro'yxatida Payariq tumanidagi Shovdorbuloq qishlog'i (hozir G'allaorol tumaniga qarashli) qayd qilingan.

SHOVQOR – tog'. Turkiston tizmasi, Jizzax viloyati va Tojikiston Respublikasi chegarasida joylashgan. Sug'dcha *shou – qora, gar, kar – tog'lar.*

SHOVOT – tuman. Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tuman hududi viloyatning shimoli-g'arbida, Shovot kanalining sohilida joylashgan. Shovot so'zi – Shohobod nomining mahalliy shevadagi talaffuzi natijasida paydo bo'lgan. Tuman va shaharchaning nomi XVII asrning oxirlarida qurilgan Shohobod kanali va Shohobod qal'asining nomi bilan bog'liq.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, 1681-yili Xiva xoni Anushaxon (1664–1686-yillar hukmronlik qilgan) Abulg'oziy Bahodirxon o'g'li, Eski Vadoq arig'i o'rnida, yangi kanal qazdirgan va uni mahalliy aholi Shohobod kanali deyishgan. Kanalni bunday nom olishiga sabab Anushaxon Mashhad shahrini qo'lga kiritgandan keyin shoh unvo-

[1] Alisher Navoiy. To'la asarlari to'plami. 10-jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2011. –B. 128.

[2]

niga sazovor bo'lgan. Shoh – ayrim musulmon mamlakatlarida hukmdor (podshoh, qirol) unvoni. Shoh unvoni dastlab Sosoniylar davlatida qo'llanilgan.

S.Qorayevning yozishicha, Shohobod kanali dastlab Purfayz (ya'ni Serfayz) deb atalgan. Purfayz so'zi abjad hisobida kanalning qurilgan yilini (hijriy 1092-yil) ham ko'rsatib turgan. Abjad – qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning son qiymatini eslab qolish uchun yasalgan sakkizta so'zning birinchisi va shartli umumiy nomi.

SHOVVALI – qishloq. Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi qishloq nomi. *Shovva – sharshara, -li* – egalik affiksi; *Shovvali* – sharsharali ma'nosini ifodalaydi.

SHOXON – dovon. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi dovon nomi. *Shoxa – novda, tog' tarmog'i, -on* – ko'plik affiksi.

SHOG'OLSOY – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi soy nomi. Ushbu komonimning birinchi komponenti "***shog'ol***" so'zi *"itsimonlar oilasiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvon; shaqal"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. 4, 496].

Apellyativning "***Soy***" komponenti geografik termin bo'lib, *"ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va boshqalar natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy"* ma'nosini anglatadi [O'TIL. 3, 545].

Ushbu tahlilga asoslanib, "***Shag'olsoy***"ni *"shaqallar ko'p uchraydigan, yashaydigan hududdagi soy"* shaklida izohlash maqsadga muvofiqdir.

SHOSH – arab manbalarida Chirchiq vodiysi va Toshkent viloyatining (Choch viloyati) o'rta asrdagi nomlari.

SHOSHTEPA – Toshkent viloyatidagi Chirchiq, Ohangaron tumanlaridagi bir qancha tepaliklar shunday atalgan. Boshida Shosh eski siyosiy-geografik atamasini ko'rib, viloyat nomi haqida o'ylaging va Shoshdagi tepa yoki istehkom sifatida tarjima qilging keladi. Ammo bu atama qayd etilgan o'rta asr viloyati sarhadlaridan uzoqda keng tarqalgan. Markaziy Osiyoda Shoshtepalar (talaffuzda "shishtepa") Chu daryosi vodiysidan Qashqadaryo va Surxondaryo vodiysigacha bo'lgan hududda ma'lum. Afg'onistondagi Badaxshonda Ko'kcha daryosi ustida, Fayzobod darasi yuqorirog'ida Shashpul ko'prigi bor. *Shosh* so'zi ishtirokidagi murakkab nomlar Hindiston shimolida ham uchraydi. Masalan, Sindda katta va mollar haydab o'tiladigan yo'lda XVI asrda Shashnaxar degan joy bo'lgan, u yerda Ibn Batuta so'zlariga ko'ra, Movarounnahrdan kelgan otdagi savdogarlar har bir ot uchun 7 kumush dinor miqdoridagi birinchi to'lovni amalga oshirgan. Bu atamaning kelib chiqishi sug'd va turk tillaridagi chosh, shosh – "uyum" (xususan, qozonda uyib qo'yilgan yanchilgan bug'doy, palov yoki shish – *"shish", "shishish"*)dan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, shoshtepa – "sun'iy uyilgan tepalik" degan ma'noni anglatadi.

SHTOB – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi qishloq nomi. O'tgan asrning 30-yillarida mazkur qishloq hududida sho'ro askarlari shtabi joylashgan. Shtab talaffuzda Shtob bo'lib ketgan. Aslida, *Algar* deb atalgan. Yana bir nomi *Novboshi*.

SHUKURCHI – qishloq. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. *Shukur* – katta soyabon, shoh soyaboni; *shukurchi* – shoh soyabonini olib yuruvchi.

SHULLUKCHIHO – Buxoro shahridagi ko'chalardan birining nomi. Shullukchi (fors.) – zulukchi, *-ho* – ko'plik affiksi. Zulukchilar hovuzlarda zuluk boqishgan.

SHUMANAY – Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik.

Shumanay tumani 1950-yil 6-oktabrda tashkil topgan. 1960-yil 5-fevralda Qo'ng'irot va Xo'jayli tumanlari tarkibiga qo'shilgan. 1976-yil 9-yanvarda qayta tashkil etilgan. Sharqdan Xo'jayli, Qonliko'l, shimol va g'arbdan Qo'ng'irot tumanlari, janubdan Turkmaniston bilan chegaradosh.

Tumanning ma'muriy markazi – Shumanay shaharchasi hisoblanadi. Tumanda bugungi kunda jami 58,04 ming aholi istiqomat qiladi.

"Shumanay" nomi xalq og'zida saqlangan bir rivoyat bilan bog'lanadi. O'tmishda Xiva xonining qizi ovga chiqqan va u yerlar hozirgi Shumanay atrofi ekan. Atrof o'rmonzor bo'lgan. O'rmonzorda u yoqimli bir tovush eshitadi. Bir yigit qamishdan nay yasab, ushbu nayni chalayotgan ekan. Naydan chiqqan tovush shunchalik yoqimli ekan va qiz hayratlanib "shumi nay", ya'ni yoqimli tovush ushbu naydan chiqyaptimi? – deb hayron qolibdi. Qiz ushbu yigitga turmushga chiqib, shu yerlarda yashab qolgan. Qizning "shumi nay" degan so'zi elga taralib, so'ng shu yerning atamasiga aylanib, Shumanay deb nomlanib ketgan deya rivoyat qilinadi. Bizningcha, bu munozarali hisoblanadi hamda mazkur nomning kelib chiqishi va hosil bo'lishi yuzasidan ilmiy izlanishlar talab qilinadi..

Shumanay tumani Nukusdan 90 km masofada joylashgan. Yaqin temir yo'l stansiyasi – Qorabayli (22 km). Aholisi va xo'jaliklari Shumanay kanalidan suv oladi. Mahalliy tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Shumanay Amudaryo Kaspiy dengiziga quyib turgan paytlarida va undan keyingi, Aybuyir (Jampiqqal'a) etagi orqali Orol dengiziga quyilgan davrlarda bir qadar yirik aholi punkti bo'lgan. Amudaryo o'zanini o'zgartirgandan keyin Shumanay hududi cho'lga aylangan va bir asrga yaqin qalin changalzor bo'lib yotgan. 1940-yillarning boshidan Shumanay hududiga hozirgi Navoiy viloyatining Tomdi, Qoraqalpog'istonning Xo'jayli tumanlaridan yeri unumsiz bo'lib qolgan qishloqlar aholisi, qo'ychilik bilan shug'ullanuvchi chorvadorlar ko'chib kelishgan.

SHUNQOR – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Shunqor – shumqor, lochin; bu yerda etnonim (shunqorli o'zbek urug'i ma'lum).

SHO'MEKEYOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning sho'mekey urug'i nomi bilan atalgan qishloq Taxtako'pir tumanining "Mulik" OFY hududida joylashgan.

SHO'MISHLI – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning sho'mishli urug'i nomi bilan atalgan qishloq Taxtako'pir tumanining "Otako'l" QFY hududida joylashgan.

SHO'R – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq, Dang'ara tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Sho'r* toponimi *tuzli, sho'rxok* ma'nolarini anglatadi.

SHO'RAQO'RG'ON – qishloq. Namangan viloyatining Chust tumanidagi qishloq nomi. *Sho'raqo'rg'on – qizilmiya o'sib yotgan qal'a* ma'nosini anglatadi.

SHO'RALISOY – qishloq. Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi qishloq nomi. *Sho'ra – sho'ra, -li* – egalik affiksi; *Sho'ralisoy – sho'ra o'sadigan soy* ma'nosini ifodalaydi.

SHO'RARIQ – qishloq. Namangan viloyatining Norin tumanidagi qishloq nomi. Sho'r – sho'r: *Sho'rariq* toponimi *"suvi sho'r ariq"* ma'nosini anglatadi. Bunday nomdagi toponimlar Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ham uchraydi.

SHO'RISTON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. *Sho'riston* toponimi *"sho'rlangan yer, hudud"* ma'nosini anglatadi.

SHO'ROB – qishloq. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi qishloq nomi. *Sho'rob* toponimi *"sho'r suv arig'i"* nomidan kelib chiqqan. Bunday nomdagi toponimlar Buxoro va Navoiy viloyatlarida ham uchraydi.

SHO'RQAQIR – qishloq. Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi qishloq nomi. *Sho'rqaqir – sho'r tuproqli suvsiz joy* ma'nosini ifodalaydi.

SHO'RQAL'A – qishloq. Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi qishloq nomi. Xorazmda shahar qadimdan qal'a deb atalib kelingan. Xorazmning yeri, tuprog'i tarkibida tuzning ko'pligi sababli ko'pgina nomlar tarkibida sho'r so'zi ishtirok etishiga sabab bo'lgan. Demak, *Sho'rqal'a – sho'rlangan tuproqli shahar* ma'nosini anglatadi.

SHO'RQISHLOQ – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod, Buvayda, O'zbekiston hamda Andijon viloyatining Marhamat va Namangan viloyatining Namangan tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

Demak, *Sho'rqishloq* toponimi *sho'r tuproqli qishloq* ma'nosini ifodalaydi.

SHO'RQO'RG'ON – qishloq. Namangan viloyati Namangan tumanidagi qishloq nomi. *Sho'rqo'rg'on – sho'r tuproqli qo'rg'on, qal'a* ma'nosini ifodalaydi.

SHO'RSUV – O'zbekiston tumanidagi shaharcha nomi. Suvlik nomi shaharcha nomiga qo'yilgan. Suvning maza-ta'mi, hidi va haroratiga qarab nomlangan toponimlar orasida Sho'rsuv, Achchiqsuv, Sassiqsuv, Totlisuv, Issiqsuv kabilar uchraydi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida shahar posyolkasi nomi *Sho'rsuv – sho'r suv arig'idan olingan.*

SHO'RTEPA – O'zbekistondagi bir qancha tepalik, do'ngliklar nomi. *Sho'rtepa – sho'r tuproqli tepalik* ma'nosini anglatadi.

SHO'RYOP – ariq va qishloq. Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi ariq va qishloq nomi. Sho'ryop – sho'r ariq (kanal). Hozirda shunday nomli qishloq mavjud emas.

SHO'RO'ZAK – ariq. Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi qishloq nomi. O'zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham o'zak (o'zek) komponenti bilan murakkablashgan toponim ko'p, asosan, gidronimlar hamda toponimlar tarkibida uchraydi: *Ko'ko'zak, Qoraro'zak, Injenero'zak, Terano'zak* va boshqalar shular jumlasidandir.

Qadimgi turkiy tilda *ozuk – katta bo'lmagan suv hovuzi* (М.Кошгари. "Девон", Т. 1. С. 101); hozirgi turkiy tillarda *ozuk – anhor, daryocha* (В.В.Радлов. Опыт словаря, 1, 1302). Uzak (uzek) ukuz – "daryo" so'ziga borib taqaladi: o'kuz+ak – "kichik daryo", "daryocha".

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi qishloq va ariq nomi. "O'zak" so'zidan tarkib topgan. Xususan, suv joy nomlari o'rnida o'zak, o'qo'zak (daryocha) so'zining o'zgarishidan paydo bo'lgan.

SHO'RCHI – tuman. Surxondaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, IX–XII asrlarda Sho'rchi tumani hududida Barangi qishlog'i bo'lgan. Ibn Xurdodbeh va Kudain asarlarida qayd qilinishicha, Barangi qishlog'ida bir necha masjid bo'lgan. P.G'ulomov sho'r so'ziga quyidagicha ta'rif bergan: "sho'r – qurg'oqchil o'lkalarda yerning pastqam joylarida minerallashgan yerosti suvlarining chiqishi, ko'llarning yozda qurib qolishi natijasida tuproqda xlorid va sulfat tuzlarining yig'ilishidan hosil bo'ladigan botqoq, sho'r yer".

Nom tarkibidagi sho'r – suvda eriydigan, ekinlar hosilini keskin kamaytiradigan, ortiqcha zararli (zaharli) minerallashgan tuzlarni ko'p miqdorda mavjudligini anglatadigan so'z. Biroq shu narsa aniqki, nomdagi qo'shimcha shaklan o'zgargan, chunki *"-chi"* affiksi kasb-hunarni anglatuvchi qo'shimcha hisoblanadi.

Binobarin, nomning dastlabki shakli Sho'rcha yoki Sho'rji bo'lishi mumkin. T.Nafasov *Sho'rcha* nomini *sho'r suvli quduq, Sho'rji* so'zini esa *sho'r suvli hovuz* yoki *sho'r suvli ko'l,* deb izohlagan. Har ikkala holatda ham nom dastlab suv obyektiga tegishli bo'lganligi aniq.

SHO'YITOVUL – Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpoqlarning shyit urug'i nomi bilan atalgan qishloqlar Chimboy tumanining "Baxitli" va "Qizilo'zek" OFY hududlarida keng tarqalgan. Bunday nomdagi toponimlar Janubiy Qoraqalpog'istonda ham uchraydi.



CHAGANTEPA – qabriston (mozor). Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi qabriston nomi. Ehtimol, mo'g'ulcha *sagan (chagan)* – oq, *tepa* – tepalik.

CHAGRAK – mahalla. Andijon shahridagi mahalla nomi. Bobur yozadi: Andijon viloyatining ko'chmanchi qabilalari orasida chograk qabilasi ham bor ("Бабур-наме". – T., 1958. C. 44).

S.Gubayeva Andijondagi mahalla ushbu etnonim bilan nomlanganligini ta'kidlaydi.

Etnograf S.M.Abramzonning fikriga ko'ra, chagrak qabilasi (chograk) qirg'izlar tarkibiga kirgan va chogorok urug'ini hosil qilgan (С.М.Абрамзон. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л., 1971. С. 36).

CHAKKALAR – mahalla. Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim yuzasidan turlicha variantlar mavjud bo'lib, birinchisi, Gurlan tumani mahalliy aholisining so'zlariga qaraganda, shaxs laqabi bo'lgan "chakka" so'zi asosida hosil qilingan nom; ikkinchisi, aholining chekka hududlarda yashashini inobatga olib, dialektal variant hisoblangan Chakkalar deb atalgan bo'lishi ham mumkin, uchinchisi, manbalarda u chek so'zi bilan bog'liq bo'lib, xonlarning yer ajratmasi, ularning oila a'zolari, sud amaldorlari, ruhoniylar va boshqa e'tiborli shaxslar bo'lganligini qayd etish mumkin (А.Л.Троицкая. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – М., 1969. С. 8–9).

CHAKKASHOLIKOR – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Xorazm shevasiga xos bo'lgan *chakka* so'zi bu yerda *chekka* ma'nosini ifodalab, sholikor – *sholi yetishtiruvchi shaxs* tushunchasini bildiradi.

Ilmiy manbalarda *chakka* so'zining boshqacha talqinlari ham uchraydi: A.Diboning "Turkiy tillarning tayanch leksikasi etimologik lug'ati" kitobida yozilishicha, o'zbek tilidagi *chakak*, ya'ni *pastki jag'* so'zi boshqa turkiy tillarda *chega, chiga* shaklida ishlatiladi va *chakka* ma'nosini beradi.

Bizningcha, keltirilgan izohning biz tahlil qilayotgan toponimga hech qanday aloqasi yo'q.

CHALAQARG'A – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Qarg'a degan urug' bor (q. Qarg'ovul). Chala qozoq, chala qirg'iz deganday, qarg'a urug'i bilan qondosh urug' vakillari chala qarg'a deb atalgan bo'lsa kerak (Qorayev, 1978).

CHALMAGADOY – qishloq. Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi qishloq nomi. Buxoro amirligining *Xutfar (hozirgi Peshku)* tumaniga qarashli ikki komponentdan iborat tarixiy toponim. ***Chalma*** Buxoro vohasida tayyorlangan non turlaridan biri. Xamirga piyoz va qovoq aralashtirilib tandirga yopilgan. *"Gadoy"* so'zi asl ma'noda emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Shu nonni tayyorlovchi va shu xildagi nonga ehtiyoji ko'proq aholi istiqomat qilgan qishloqqa nisbatan qo'llanib, mazkur toponimning vujudga kelishiga asos bo'lgan. O'zbekiston Milliy arxivining I-126 fondida saqlanayotgan hujjatlar tarkibida چملاچ ی‌اداگ shaklida qayd qilingan.

CHALG'IR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. T.Nafasovning ma'lumotlariga qaraganda, ***"chalg'ir // chaltir // yaltir"*** urug' nomlari, etnonimlar sanaladi [T.Nafasov, 200].

Shunga asosan mazkur mikrotoponimni chalg'ir urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq tarzida izohlanadi. [S.Qorayev. 1, 143], Etnonim keyinchalik oykonimga aylangan. Oykonim bir o'zakli, ot so'z turkumiga kiradi.

CHAMANZOR – mahalla. Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Mazkur toponim fors tilidan o'zlashgan bo'lib, *gulzor, ko'kalamzor* ma'nolarini ifodalaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa shunday ma'nolarni ifodalashi qayd etiladi: *"Gulzor, gulxona, gulshan"* (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, – Toshkent, 453-bet).

CHAMOCH – Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi qishloq nomi. Oykonim kishi ismidan yasalgan. Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shahruxiy", Mirzo Olimning "Tarixi Turkiston" asarlari hamda arxiv hujjatlarida bu joy nomi *Chamashbiy* – (ﺷﻤﺎﺷﺒﻲ) shaklida qayd etilgan.

"Tarixi Shahruxiy" asaridagi yana bir ma'lumotga tayanilsa, Sulton Ilikxon "Oltin beshik" ning beshinchi avlodi hisoblangan Shahmastbiy ham elda Chamashbiy nomi bilan mashhur bo'lgan.

Demak, *Chamoch* antropooykonimi dastlab *Chamashbiy* tarzida yuritilgan nomning keyinchalik fonetik o'zgarishlarga uchragan shaklidir.

CHANDIR//CHONDIR – Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi qishloq va Samarqand viloyatidagi aholi punktlari nomlari. Mahalliy aholi uni *chandir – qattiq (go'sht teri)* so'zi bilan bog'laydi.

Ayni paytda, chandir – bu turkman urug'i bo'lib, o'zbeklar orasida ham qayd etilgan. *Chandir* qadimgi turkiy tilda *"qurama", "duragay"* degan ma'noni anglatadi. Bu etnotoponim.

VIII–IX asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi, Orol dengizining janubidagi cho'llarda yashovchi o'g'uzlar tarkibida bo'lgan qabila. Keyinchalik chandirlarning bir qismi Movarounnahrga o'tib, o'zbeklar tarkibiga singib ketadi, ikkinchi qismi esa hozirgi Turkmaniston hududiga siljib, turkmanlar bilan aralashib ketgan.

Ayrim manbalarda, chandir turkman urug'iga mansub bo'lib, o'zbek urug'lari tarkibida ham tilga olingan. Abu Hayyon esa *chandir* terminini *"duragay, qurama"* tarzida izohlagan. Bizningcha esa mazkur qishloqning nomi tarixiy bo'lib, *chandir* turkiy urug'lar sirasiga kiradigan etnotoponimdir.

Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi ***Chandirqiyot*** etnotoponimi ham shu nom bilan aloqadordir, faqatgina bundagi mazkur appelyativning ikkinchi komponenti sanalgan Qiyot ham etnonim hisoblanadi.

CHANDIRARIQ – ariq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi Chandir qishlog'ini suv bilan ta'minlaydigan ariq (Ataniyozov, 1980).

CHANDIRQIYOT – qishloq va mahalla. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Ayrim manbalarda Chandir turkman urug'iga mansub bo'lib, o'zbeklar tarkibida ham tilga olingan. Abu Xayyon esa chandir so'zini "duragay, qurama" deb izohlagan.

Bizningcha, mazkur mahallaning nomi tarixiy bo'lib, turkiy urug'lari nomlari hisoblangan chandir va qiyot etnonimlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Chandirqishloq (Chandirqishloq) – Pastdarg'om tumanidagi chandirlar yashaydigan qishloqlar (Ataniyozov, 1980).

CHANGARON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko'ra, ilgari bu yerda qumloq joylar ko'p bo'lgan va sal shamolga ham chang ko'tarilib, qishloq ustiga tushgan. Shu sababli qishloq Changaron deb atalgan. Toponimga mahalliy aholi tomonidan berilgan bu izohda anchagina haqiqat bor nazarimizda.

Demak, *Changaron – "chang yo'li"* ma'nosidadir. Boshqa bir talqin: Changaron so'zi urug' nomi bo'lishi ham mumkin. Farg'ona va Zarafshon vodiylarida chang'aroqchi degan qipchoq urug'i bo'lgan. Ular chang'aroq (o'tovning ustki qismidagi tuynuk chambaragi) yasash bilan shug'ullanganliklari sababli shunday nom olganlar.

Bular hisobga olinsa, *Changaron – "chang'aroq urug'i vakillari yashaydigan joy"* demakdir.

CHANG'ARAQCHI – qishloq. Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi qishloq nomi. Chang'araq toponimi o'tovning yuqori (konussimon) halqasi. Arava solig'i ham changarak deb aytilgan: XIX asrning oxirida daxyanka – dehqondan daromadning o'ndan bir qismi miqdorida olinadigan soliq o'rniga qozoqlar va qoraqalpoqlar uchun shunday soliq belgilangan. Soliq yig'uvchi ham changaraqchi deb atalgan.

Changarakchilarning qipchoq urug'i vakillari Farg'ona va Zarafshon vodiylarida yashagan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа).

CHAQA – Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qishloq nomi. Qipchoq lahjasida "**Chaqa**" so'zi *"bola, farzand"* ma'nosini bildiradi [O'TIL. IV, 465].

Shundan kelib chiqib, "***Chaqa***" toponomi *"bolasi ko'p qishloq"* ma'nosini anglatadi.

CHAQAR – qishloq. Samarqand viloyatining Narpay, Ishtixon hamda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Andijon viloyatining Xo'jaobod hamda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Toshkent shahrining mahallasi. Chaqar – shahar devori ortida mustahkamlangan (В.В.Радлов. Опыт словаря, т. III, 1833). S.D.Nominxanovning so'zlariga ko'ra, Chakar toponimi mo'g'ul urug'laridan birining nomi bilan atalgan.

Darhaqiqat, mo'g'ullarning chaxar (saxar) qabilasi ma'lum (Б.Я.Владимирцов. Общественный строй монголов. С. 131, 133, 155).

Jonli tojik tilida *chakar* – *"ko'cha", "yo'lak"* ma'nosida ishlatiladi (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 105).

CHAQMOQ – qishloq. Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Chaqmoq – chaqmoq (ehtimol, chaqmoq urishi bilan bog'liq).

CHAQON – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim, aslida, "***chaqqan***" bo'lib, mahalliy aholining og'zaki talaffuzida "***chaqon***" shakliga kelib qolgan.

T.Nafasovning ma'lumotlariga ko'ra, "***chaqqan***" chandir turkmanlarining bir shoxobchasi shunday deb ataladi [T.Nafasov, 204; O'TIL. 5, 4, 470].

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, mazkur mikrotoponim *chaqqan urug'i vakillari tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq* ma'nosini anglatadi. Usbu etnooykonim bir o'zakli bo'lib, ot so'z turkumiga mansubdir.

CHAPARASHLI – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. 1926-yilgi aholi ro'yxatida mazkur tumandagi Chaparashli poyon (Qo'shtegirmon q/k), Chaparashli bolo (Xosiyat q/k) va Chaparashli (Qorakesak q/k) kabi qishloqlar qayd qilingan (Материалы. 927: 113–114).

Chaparashli Ulug' Juz qozoqlarining qabilalaridan biri (Vostrov, Mukanov, 1961: 50). Chaparashlilarning bir qismi o'zbeklarning ikki urug'-qabila birlashmasi – qipchoq va qirqlar tarkibiga ham kirgan.

Aftidan, ular yuqorida ko'rsatilgan qabilalarning bir qismi bilan birgalikda XVII–XVIII asrlarda Markaziy Osiyoga kirib kelgan (Shoniyozov, 1974).

CHARKAS – Miyonqoldagi kanal va mavze nomi (Chexovich, 1974: 270). O'zbek xalqining shajarasi –

"Nasabnoma"larda charkas, chilkas, chixilkas kabi fonetik variantlarda uchraydi. Qrimning geografik nomlarida cherkes shaklida qayd qilingan (Lezina, 1988, 159).

Turkiy xalqlar tarkibidagi jelkayes, serkech, serkash, charkas, cherkez, cherkesh va boshqa shakllari bu turkiy etnonimning turli hududlarda uchraydigan fonetik variantlaridir.

O'zbekiston toponimiyasida Quyi Chirchiq tumanining Yangikeldi qishloq kengashida Chilkeskent qishlog'i va Xorazm viloyatining Xiva tumani Gandimiyon qishloq kengashida Cherkes qishlog'i nomlari qayd qilingan.

CHARMGAR – Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrining mahalla, guzar nomlari. Ikki qismdan iborat: forsiy *charm* so'zi, kasb-hunarni anglatuvchi *-gar* qo'shimchasi. Qiyoslang: zargar, halvogar, sovungar, kudungar, chilangar, so'zangar, na'lgar, kimyogar, rixtagar, xodimgar, kosagar, sehrgar, pargar, savdogar, jodugar. Quyidagi so'zlar tarkibida ham shu qo'shimcha bor: jilavgar, da'vogar, jafogar, tayyorgar, ig'vogar, afsungar, bozingar, sitamgar, firibgar, javobgar, talabgar, soxtagar, nag'magar, hiylagar, ishvagar.

Charm kalimasi eroniy tillardan o'zlashgan. O'zbekcha muqobili – *ko'n, teri*. Oyoq kiyimlari (kavush, etik, mahsi, mo'kki, choriq), bosh kiyimlari (telpak, quloqchan, bo'rk), belbog', ot jihozlari (ayil, pushtan, jugan, no'xta, uzangibog'), qorauv qismlarini tutashtiradigan tasmachalar, turli tasmalar, uy jihozlari va asboblari, chorvadorlarning turli buyumlari, suv idishlari (mesh, sanoch, tulup, qovg'a), sariyog' solinadigan idishlar, turli g'ilofdonlar va boshqa qadimiy ashyolar qoramol, qo'y, echki va boshqa hayvonlar terilaridan tayyorlangan.

Zikrlangan ashyolar va hozir iste'molda bo'lmagan xo'jalikbop buyumlar teridan tayyorlangan. Terilarga ishlov berish va ulardan xo'jalik ashyolari tayyorlovchi hunar sohiblari charmgar deb atalgan.

CHARMGARON – Buxoro shahridagi daha *hamda Buxoro viloyatining* Buxoro, G'ijduvon, Qorako'l tumanlaridagi *qishloq*lar nomlari.

Ayrim manbalarda ko'pchilik aholining mashg'uloti teri ishlab chiqarish bo'lgan (О.А.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 116), – deya qayd etiladi. Shuning uchun daha shunday nomlangan.

Charmgar – *"dabbog', charm pishiruvchi mutaxassis, tayyorlovchi usta"* ma'nosini bildirsa, ***-on*** ko'plik ma'nosini ifodalaydi. O'tmishda teriga ishlov berish, oshlash, bo'yoq berish charm qilib tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgan kishilar guruhi yashagan ***qishloq. Charmgar*** – *"kunchi, kasb-hunar egasi"* demakdir.

CHATQOL – daryo. Toshkent viloyati. Chirchiq daryosining bosh irmog'i. Istaxriy (БАГ, I. С. 334, 346), Ibn Havqal (БАГ, II. С. 339, 392, 395, 396), Muqaddasiy (БАГ, III. С. 48, 262) asarlarida Jidgal okrugi va daryo

nomi sifatida esga olinadi va ular uni Jidgil deb hisoblashgan. M.Y.Masson esa uni Chotqol deb hisoblaydi. Haqiqatan ham, "Hudud ul-olam" asarida mazkur nom Jadgal shaklida to'g'ri berilgan va uning talaffuzi ham hozirgi talaffuziga juda yaqin.

Etnograf M.S.Andreyev Darvoz tojiklari *qayinni chotg'ol* deyishlarini aytgan.

Shayx Sulaymonning chig'atoycha – usmoniy turkcha lug'atida chotqol – "notekis yer, dara", hozirgi qirg'iz tilida chatqal – "ikki tog' orasidagi dara, soylik", deb qayd etilgan.

Bu so'z, o'z navbatida, ikki tarkibiy qismdan iborat: chat, chot – ikki daryo bir-biriga qo'shilgan joydagi oraliq; qal (qol) – "soyliq, jilg'a" ma'nosidagi qo'l so'zining fonetik varianti bo'lishi mumkin.

CHAVGAN – Andijon viloyatining Andijon tumaniga qarashli qishloq nomi (Bo'taqora yo'lida). "Chavgan" (xalq tilida "chavkan") qo'ng'irot urug'ining bir tarmog'idir (G'uzor tumanida ham shu nomda qishloq bor).

Bu yerda shuni ham aytib o'tish joizki, "qipchoq saroylari" qabilasining "qirq ayoq" ("chilayoq") tarmog'i "chavtik" deb atalgan bo'lib, ularning tamg'asi "chov", ya'ni cho'mich shaklida bo'lgan. O'zbek tilidagi "chovli" (lag'mon suzgich) o'sha tamg'aga nisbatdir.

CHAVDUR – qishloq. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi qishloq nomi. Chaudur (choudur) etnonimi turkman urug'i. Buxoro viloyati, ayniqsa, Qorako'l tumanida ancha ko'p turkmanlar istiqomat qilishadi. Ehtimol, o'zbeklar orasida ham etnonim qayd etilgan bo'lishi mumkin.

CHAVLI//CHOVLI – *Buxoro viloyatining* Olot, Qorako'l tumanlaridagi *qishloq*lar nomlari. *Chavli//chovli//jovli* – turkiy xalqlarga xos qadimiy etnonim. E.Koychubayev qozoqlarning ***chauli*** urug'i borligi haqida ma'lumot bergan[1].

Qadimgi turkiy tilda ***lochin*** *chovli* deb yuritilgan. ***Chovli//jovli lochin*** totemi asosida yuzaga kelgan etnotoponimdir.

Shuningdek, ***chovli*** so'zining *novda yoki simdan to'qilgan, ugra, shilpildoq va shu kabi xamir ovqatlarni suzib olish uchun ishlatiladigan cho'mich-simon ro'zg'or asbobi*[2] ma'nosi ham mavjud. Mahalliy xalq tilida yoki shevasida ***chov*** – *jar*, ***chovli – jarli*** – *o'ydim-chuqur joy.*

Demak, ***Chovli*** etnotoponimi – *"jar yonidagi, o'ydim-chuqur joydagi* qishloq" ma'nosini ifodalaydi.

CHAG'IZMON – Samarqand viloyati Urgut shahrining shimoli-sharqiy hududida joylashgan qishloq. Toponim o'rta asr vaqf hujjatlarida Chag'izmun shaklida qayd qilingan (Vyatkin, 1902: 35).

Mug' hujjatlarida chag'z rug'ax so'z birikmasi "botqoq yonida" deb izohlangan. Sug'd tilida *chag'z rug'* so'zi

[1] Койчибаев У. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. –Алма-Ата, 1974.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 2-tom. –M.: Rus tili, 1981. –B.376.

– aynan "qurbaqa tekisligi" deb tarjima qilingan. Yag'nob (yangi sug'd) tilidagi chag'zloy "botqoq" ma'nosidadir. Bu so'z yag'nob-sug'dcha chag'z – "qurbaqa" va turkiy – "loy" so'zlaridan tuzilgan (СДМГМ, Юридические... 1962: 52). Agar qishloq nomini sug'd tiliga xos deb olinsa, bu nom "chag'z" – qurbaqa va "mon" (mevan) – makon so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, bu yerda o'tmishda botqoq yoki soy bo'lganligini ko'rsatadi.

Bunda *Chag'izmon – "qurbaqalar makoni, botqoq", "botqoq yonidagi qishloq"* ma'nosini bildiradi. Lekin qishloqning tog'ga yaqinligi va bu yerda suv obyekti yo'qligi bunday xulosa chiqarishimizga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, sug'd tilida *chug'd, chug'z* – "boyg'uli" ma'nosidagi so'z (Основы иранского языкознания... 1979:61). Mazkur fakt asosida toponimni *"boyg'ulilar makoni"* tarzida izohlash mumkin. Bunda nom ironiya, hazil tariqasida yuzaga kelgan bo'lib chiqadi.

Demak, Chag'izmon toponimining etimologiyasi kelgusi izlanishlarda aniqlanishi mumkin. Biroq "qurbaqa" so'zining geografik nomlar yasalishida ishtirok etishi toponimiyada uchrab turadi. Jumladan, Toshkent shahrining mashhur mavzelaridan biri Qurbaqaobod deb ataladi.

Sharqshunos olim N.G.Mallitskiyning ma'lumot berishicha, Qurvaqavod (Qurbaqaobod) zax, qisman botqoq joyning masxaraomuz (ironiya tarzidagi) nomidir (Mallitskiy, 1996: 17). Xuddi shunga o'xshash, Qurbaqa chandir (Buxoro viloyati Qorako'l tumani), Qurbaqaqishloq (Xatirchi tumani) nomli toponimlar ham bor (Материалы, 1927: 73, 87).

Urgut tumanidagi Jozmon, Kattaqo'rg'on tumanidagi Jizmon, Xatirchi tumanidagi Juzman, Ishtixon tumanidagi Juzmon kabi toponimlarning tarkibidagi "mon" (sug'dcha "mevan") so'zi "makon" ma'nosidadir.

CHAG'ONIYON – hududiy jihatdan hozirgi Surxondaryo viloyatining shimoliy qismiga to'g'ri keladi. Surxondaryo (uning eski nomi Chag'onrud) havzasidagi, taxminan hozirgi Jarqo'rg'on shahridan daryoning boshlanish qismigacha bo'lgan hudud qadimda Chag'oniyon davlati deb atalgan. Uning poytaxti, arxeologik tadqiqotlar xulosalariga ko'ra, hozirgi Denov shahridan olti kilometr janubda joylashgan Budrachtepaga to'g'ri keladi.

XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining xoni Qozon Sultonxon bilan amir Qazag'on o'rtasidagi hokimiyat uchun jang-jadallarning bir qismi Chag'oniyon viloyatida kechgan.

Amir Temur 1370-yili Balxga Amir Husayn ustiga yurishida Chag'oniyonda to'xtab, shu yerda lashkar to'plagan. Chag'oniyon Buyuk ipak yo'lidagi viloyat bo'lgan. Mirzo Shohrux saltanatida 1419–1422-yillarda Temuriylar davlatidan Xitoyga borgan elchilar qaytishda Hirotga boruvchi bir guruhi Koshg'ar – Qorategin – Hisori Shodmon – Chag'oniyon yo'nali-

shi bo'yicha yurgani va Termizga kelib Jayhundan o'tgani, so'ngra Hirot yo'nalishida g'arbga safarini davom ettirgani ma'lum.

Temuriylar davrida Chag'oniyon viloyati Movarounnahrning madaniy-ma'rifiy go'shalaridan sanalgan. XIV asrning 90-yillarida naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi xoja Alouddin Attor Buxorodan Chag'oniyonning Dehnav qishlog'i (hozirgi Denov shahri)ga ko'chib keladi va shu yerda muqim yashab, naqshbandiya tariqatini targ'ib qiladi. Vafotlaridan so'ng o'sha yerda dafn etilganlar va qabrlari hozirgacha katta ziyoratgohdir.

"Boburnoma"da XV asr ikkinchi yarmida Movarounnahrning janubiy hududlari – Termiz, Chag'oniyon, Hisor, Xatlon, Qunduz, Badaxshondan to Hindukush tizmasigacha Sulton Abusaidning o'g'li Sulton Mahmud Mirzoning (857/ 1453–900 / 1495) mulki bo'lgan, deyiladi. So'ngra mazkur joylar Xisravshoh, keyinchalik Shayboniylar ixtiyoriga o'tadi. Zahiriddin Bobur Movarounnahrda hukmronlikni egallash uchun kurash yillarida bir necha marta Chag'oniyonda bo'lgan.

Chag'oniyon o'rta asrlarda Surxondaryo vodiysining nomi. Birinchi marta X asrdagi muallifning noma'lum asarida eslatib o'tilgan. Viloyatning asosiy shahri ham Chaganian deb atalgan (qarang: **Denov**).

Markartning Chaganian mo'g'ulcha chagan – "oq"dan kelib chiqqan, degan fikri V. V. Bartold tomonidan rad etilgan.

Chag'onro'd – Surxondaryo daryosining qadimiy nomi. Birinchi marta "Hudud ul-olam" (VI)da tilga olingan, Temur tarixida takrorlangan (*Sharafuddin Ali Yazdi, "Zafar-name"* – T., 1972, I. 136-b.). Chagan komponenti noma'lum (rud – daryo).

CHEK – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. Respublikada, ayniqsa, Farg'ona vodiysida chek komponenti ko'pincha geografik nomlar tarkibida uchraydi. *Chek* so'zi quyidagi ma'nolarda ishlatiladi: 1) chegara, chiziq; 2) Farg'ona vodiysida – maydon o'lchovi; M.Nalivkin va M.S.Andreyevlarning so'zlariga ko'ra, Farg'onada chek 432–450 kvadrat metrga teng bo'lgan; 3) oraliq; 4) xon, amir, uning oila a'zolari, amaldorlar, ruhoniylar, mashhur kishilarning yer uchastkasi.

Oxirgi ma'nosida chek so'zi toponimlar tarkibida qayd etilgan. 1909-yilda nashr etilgan aholi punktlari ro'yxatiga ko'ra, Skobelevda (hozirgi Farg'ona), Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, O'sh uyezdlarida bu so'z Qo'qon xoni Xudoyorxon davridan qolgan 50 dan ortiq geografik nomlarda uchraydi. Xon ko'plab saroy amaldorlari va qarindoshlariga yer uchastkalari ajratib bergan, ushbu yerlarda ishlash uchun odamlar ko'chirilib, keyin aholi punktlari paydo bo'lgan. Keyinchalik bu qishloqlarga amaldorlar, yer egalari nomlari berilgan.

Shunday qilib, ushbu termin yerga xususiy mulkchilik, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning "izi"dir.

CHEKTAMG'A – qishloq. Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi qishloq nomi. Ushbu nom chek va tamg'a so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lib, apellyativning birinchi komponenti chek toponimik indikator hisoblanadi. Qirg'izlarning Manak urug'ining bo'linmalaridan biri chektamg'a deb nomlangan (bu qishloqda qirg'izlar yashagan).

CHEKCHUVALDOQ – qishloq. Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi qishloq nomi. Chuvaldoq yoki Chuvulloq etnonimi bir necha urug' tarkibida, chunonchi, parcha va sari, qipchoq urug'larining tarmoqlari orasida, Zarafshon vodiysidagi naymanlar tarkibida, qo'ng'irot qabilasining shoxobchalari orasida qayd qilingan (Qorayev, 1978).

Chekchuvuldoq Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi qishloq nomlari hamdir. Demak, apellyativning birinchi komponenti chek toponimik indikator hisoblanadi va Chuvuldoq – kichik urug'ning nomidir Chekchuvuldoq – chuvuldoq urug'ining yer uchastkasi ma'nosini bildiradi.

CHELAK – qishloq. Toshkent viloyatining Bekobod hamda Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Chelak (so'zma-so'z "chelak") – etnonim.

Misol uchun, do'rman urug'i bo'linmalaridan biri ko'kchelak (ko'k chelak) deb nomlangan. Oqchelak bo'linmasi ham bo'lishi kerak; bu haqida Oqchelak (Samarqand viloyati Payariq tumani) toponimi dalolat beradi.

Bu etnonimlar juft bo'ladi degan fikrni tasdiqlaydi: oq (oq) – qora (qora), ko'k (ko'k) va sari(q) (sariq). 1926-yilgi aholi ro'yxatida Raim (Chelek) shaklida qayd qilingan. Shuningdek, Qozog'iston Respublikasining Olmaota viloyatida Chilik tumani mavjud.

Toponimist S.Qorayevning ma'lumotiga ko'ra, do'rmon urug'ining bir shoxobchasi ko'kchelak deb atalgan. Payariq tumanida Oqchelak nomli qishloq bor.

Demak, Chelak – etnotoponim. Chelak urug'i oqchelak va ko'kchelak kabi tarmoqlarga bo'linadi (Qorayev, 1978).

Toponimist Y.Koychibayev Qozog'istonning Ilek vodiysidagi Shilik (rus tilida Chilik) mavzesi nomini keltirar ekan, uning ma'nosi qozoq tilida "Tol" ekanligini ko'rsatib, *Shilikti* toponimi *"Tol o'sgan joy"*, deb izohlaydi (Койчибаев, 1974: 253).

CHEM – qishloq. Andijon viloyatining Andijon tumanidagi mashhur Xakan qishlog'i o'ramiga qarashli kichik qishloq. Qadimda tevaragini xandaq qazib, o'rab mol-qo'y, yem-xashak saqlanadigan joy Chem deb atalgan.

Tashqi dushmandan saqlanish uchun atrofi o'rab olingan qo'rg'on

ham (masalan, Chimkent – Chemkent shahri) shu nomdan olingan. Janubiy O'zbekiston tumanlarida ham Chem nomida qishloqlar bor.

Chem nomli qishloq Jizzax viloyatining Zomin tumanida ham bor. *Chem – to'siq, g'ov, devor ma'nolarini ifodalaydi. Mulla Norqulning chemi – toza suvni hayvonlardan himoya qilish uchun to'siq* degan ma'noni anglatadi.

Qashqadaryo viloyatida *chem – qal'a, saroy, istehkom*. Shu yerdan Shaft Chem (Shahrisabz) – qal'a devori degan nom kelib chiqqan. Ehtimol, Chimkent, Chimqo'rg'on kabi nomlar ushbu so'z bilan bog'liq bo'lishi mumkin (qadimgi davrlarda har bir qishloq o'ziga xos chem – qal'a bo'lgan).

CHETARIQ – qishloq. Jizzax viloyati Zomin tumani. *Chetariq – chekka, olisdagi ariq*.

CHETKO'PIR – qishloq. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi qishloq nomi. Chet – chekka, atrof, ko'pir (adabiycha ko'prik) – ko'prik. *Chetko'pir – chekkadagi ko'prik* ma'nosini anglatadi.

CHIBAT – Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi qishloq nomi. Chibat (chubat) uz urug'ining bir bo'limi (B.Jo'rayev, 1969, 162). Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi Chubot Elpak qishlog'i nomi tarkibidagi *chubot* so'zi ham shunga aloqador. Elpak ham etnonim (Qorayev, 1978: 152).

CHIBINQISHLOQ – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq va mahallalar nomlari. Qo'shrabot tumanida Chibinodirqishloq bor.

Shuningdek, 1926-yilgi aholi ro'yxatida Chibitovul va Chibin qishloqlari (Mitan tumanidagi Bozorjoy qishloq kengashi hududida) nomi qayd qilingan. Bulung'ur va G'allaorol tumanlarida "chivinto'p", Turkiston tumanining Qarnoq qishlog'ida chibin (Qozog'iston Respublikasi) kabi etnik guruhlar uchraydi.

Payariq tumani Ishqimsaroy qishlog'ining mahallalaridan biri Chibinqishloq deb ataladi. Xuddi shu tumandagi Choshtepa qishlog'idan chibit etnonimi yozib olingan va hokazo. Ko'rinishda hazil tarzida qo'yilgan nomlarga o'xshash bunday etnonimlar o'tmishga doir atamalar bo'lib, fonetik o'zgarishga uchraganligi tufayli ma'nosida "siljish" paydo bo'lgan.

XIX asrda A.D.Grebenkin Zarafshon vodiysidagi ming qabilasi tarkibida chibli urug'i borligini qayd qilgan (Grebenkin, 1874: 332).

Bizningcha, japni, chapni, chipni, chibli etnonimlari keyinchalik xalq tilida chibin, chivin, chibit shaklida talaffuz qilina boshlagan (Begaliyev, 2004: 70–71). Chunki mazkur so'z M.Koshg'ariyda "japni", Rashididdinda "chibin" shaklida qayd qilingan.

O'g'uz qabilalaridan biri sifatida ko'rsatilgan bu atamani Rashididdin "jangovor" ma'nosida deb izohlagan (Rashididdin, 1952: 89).

CHILGIJIYDA – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Farg'ona vodiysida chillakini ("erta pishish", "erta") chilgi sifatida talaffuz qilishadi. *Chilgijiyda* –

erta pishib yetiladigan jiyda ma'nosini anglatadi.

CHILDUXTARON – mavze. 1. Andijon shahri yaqinidagi mavze, O'shga boradigan yo'nalishda joylashgan. "Boburnoma"da 904 (1499)-yili Zahiriddin Bobur bilan Sulton Ahmad Tanbal va Jahongir Mirzo o'rtasida saltanat uchun kurash voqealari bayonida eslatilgan. "Tanbal Jahongirni olib kelib, Andijonning bir shar'isi Pushtayi Ayshning olidag'i o'langga tushti. Bir-ikki qatla Childuxtaron bila yasab, Pushtayi Ayshning domanasig'a keldi" (v.66a).

Bobur 908 (1502–1503)-yili Samarqandda Shayboniyxondan mag'lub bo'lganda Andijonga qaytadi, ukasi Jahongir Mirzo va Sulton Ahmad Tanbalga qarshi urushib, Andijonni egallagan. "O'shdin otlanib, yarim kecha Andijonning bir kuruhida Childuxtaron ro'baro'yig'a kelduk" (B.91), so'ngra vaziyat og'irlashib, Movarounnahrni tark etishga majbur bo'lgan.

2. Murg'ob vodiysidan Hirot shahriga boradigan yo'lda joylashgan mavze. "Boburnoma"da Zahiriddin Bobur 1506-yili shayboniylarga qarshi jang qilish maqsadida Sulton Husayn Mirzo farzandlari bilan uchrashish uchun Qobuldan qo'shin bilan Murg'ob daryosi vodiysiga keladi va ularning iltimosi bilan Childuxtaron orqali yurib, Hirotga boradi.

CHILDUXTOR//CHILDUXTARON – Markaziy Osiyoda keng tarqalgan toponim – Childuxtor(on) – "qirq qiz" tushunchasi ba'zi qadimiy diniy e'tiqod bilan bog'liq; (qarang: **Qirqqiz**).

CHILJUGUT – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi qishloq nomi. Chiljugut – etnonim; misol uchun, qirg'izlarda chiljubut urug'i bor (С.М.Абрамзон. Этнический состав киргизского населения. – ТКАЕЕ. Т. ИВ. – М., 1960. С. 134).

CHILLABULOQ – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi buloq nomi. Mazkur nom chilla va buloq so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, apellyativning birinchi "***Chilla***" komponenti biror bir oilada chaqaloq dunyoga kelganda uni cho'qintirish maqsadida *Chilla chaqa* degan udumlar bor. Suvi shunga davo bo'ladigan buloq *Chillabuloq* deb ataladi.

CHILON – qishloq. Andijon viloyatining Andijon, Izboskan, Asaka va Marhamat tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Chilon (jiyda) – unabi* ma'nosini anglatadi.

CHILONZOR – tuman. Toshkent shahridagi ma'muriy-hududiy birlik. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1963-yil 22-martdagi qaroriga asosan tashkil qilingan. Toponimistlarning fikricha, tuman nomi chilon (jiyda) o'simligidan olingan. Toshkent zilzilasi (1966-yil)dan keyin tumanda qurilish ishlari avj olgan. Toshkentning janubiy g'arbiy qismida joylashgan. Shimolda Oqtepa kanali, sharqda Bo'rijar kanali, janubiy g'arbda O'rta Osiyo t. y. bo'ylab Toshkent avtomo-

bil halqa yo'li va Bobur ko'chasigacha davom etgan.

Shuningdek, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida ham shu nom ostida atalgan qishloqlar nomlari bor.

CHILONZOR ARIG'I – Anhor kanalining chap tarmoqlaridan biri, uzunligi 2,2 km. Hozirgi Chilonzor tumanidan oqib o'tadi. Gidronim Chilonzor toponimi bilan bog'liq.

Chilonzor toponimi "chilon" va "zor" so'zlaridan iborat bo'lib, "chilon jiyda o'sadigan bog'" ma'nosini anglatadi[1].

Biroq N.G.Mallitskiyning fikricha, Chilonzor aslida Chinorzor, ya'ni "chinor bog'i" demakdir[2]. XX asrning birinchi choragida Chilonzor arig'i Toshkentning janubiy hududini va unga tutash bo'lgan shahar atrofi yerlari (hozirgi Yakkasaroy tumanining Chilonzor ko'chasi va uning tor ko'chalari)ni suv bilan ta'minlagan.

CHILSUTUN – Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand shahri yaqinidagi Pushtayi Ko'hak (Cho'pon ota) tepaligining etagida barpo etilgan imorat. Zahiriddin Bobur "Boburnoma"da 903 (1497–1498)-yil voqealari bayonida bu haqida aniq tafsilotlar yozib qoldirgan. "Yana Pushtayi Ko'hakning domanasida g'arb sori [Ulug'bek mirzo] bog'e solibtur. Bog'i Maydong'a mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur, Chilsutun derlar; du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar qo'poribturlarkim, yuqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora qilibturlar. Yuqorig'i oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin, o'rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar" (B.60).

CHILTANOB – qishloq. Buxoro viloyatining Buxoro tumani. Forscha chil – qirq, tanob (maydon o'lchov birligi – taxminan 0,5 gektar) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

CHIM – qishloq. Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani, Farg'ona viloyati Farg'ona tumani. Chim-chim palaxsasi. Uni Chem toponimi bilan bog'lash to'g'ri (qarang).

CHIMBOY – tuman. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Chimboy shahri o'rnida ilgari qalin to'qaylar bo'lgan, u yerni har xil yovvoyi o'simliklar qoplagan. U yerda qoraqalpoq ovullarining biridan Chiniboy degan yigit ish izlaydi va o'sha qalin to'qayda o'ziga imorat soladi va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. To'qayzorlarni tozalab, dehqonchilik qiladi va mo'l hosil oladi. Olgan hosildan sotib tirikchilik qilgan ekan. Buni ko'rgan odamlar bu yerlarga ko'chib kela boshlagan. So'ngra bu yerlar kattalashib, shaharga aylangan. Chiniboy saxiy kishi bo'lgan va xalqqa juda ko'p foydasi tekkan, keyinchalik bu yerlar Chimboy deb atalib ketgan.

[1] Qorayev S. Geografik nomlar, 133-b.

[2] Малицкий Н.Г. Ташкентские махалли. –С. 18.

Bizningcha, bu munozaralidir. Aslida, toponim chim va boy qismlaridan tashkil topgan. Toponimning chim ma'noli bo'lagi esa urug' nomini anglatadi. Shuning uchun qayd etilgan topoobyektlarga urug' nomi nom sifatida ko'chgan. Buning isboti, chim ma'noli qismlardan iborat toponimlarning tarqalish chegarasidir: Samarqand viloyatida Chimboy, Chimboyobod; Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida Chimboyariq, Chimboytepa; Yakkabog' tumanida Chimboytepa; Toshkent shahrida Chimboyariq va Chimboy kabi toponimlar uchraydi.

Demak, Chimboy nomi "Chim urug'i vakillari yashagan joy" degan ma'noni ifodalaydi. Uning etimoni "chim va boy" birikmasi sanaladi. Undan "chimboy" etnonimi hosil bo'lgan. So'ngra etnonimdan toponim vujudga kelgan: chim+boy > chim boy > chimboy > Chimboy, etnotoponim.

Shuningdek, Toshkent shahridagi mavze hamda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi qishloq va Qamashi tumanidagi tog' nomi ham shunday atalgan.

CHIMBOYLIK – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani. Chimboylik – chimboy urug'i vakili ma'nosini anglatadi.

CHIMYON – qishloq va tog' nomi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani. O'zbek tilida Chimyon – "chim", "qir" deb yoziladi. Mahmud Koshg'ariyda chumgan – qir.

Chimyon nomli qishloq Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida ham bor. Chimyon aslida Chimgan bo'lib, *o'tzor, yashil vodiy* degan ma'noni anglatadi.

Chimyon Chashmadamiyon yoki Chilkon so'zlaridan olingan. Chashmadamiyon "suv (buloq) ko'p", Chilkon esa "konlari ko'p" joy demakdir. Haqiqatan ham, bu yerdan neft konlari ko'p topilgan. Lekin bu nom boshqa yerlarda ham uchraydi (Toshkent viloyatidagi Chimyon tog'lari va boshqalar).

Mahalliy xalq Chimyonni chimzor ma'nosidagi *chimyon* so'zidan kelib chiqqan deydi.

Lekin Chimqo'rg'on, Chimkent kabi bir qancha nomlar "chem", ya'ni "qo'rg'on" so'zidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor.

Sug'dda chim (chem) so'zi hozir ham "qo'rg'on, qal'a" ma'nosida ishlatiladi. Chim (Chem) – ihota, to'siq, g'ov ma'nosini anglatib, ayniqsa, respublikamiz janubida Chim komponentli toponimlar ko'p uchraydi (Qorayev, 1970).

Chimyonsoy soyini ba'zi kishilar chim qon (chimli, o't-o'lanli joy, chim palaxsasi o'yib olish mumkin bo'lgan joy) deb izohlaydilar. Farg'onada Chimyon shaharchasi, Qo'rg'ontepa tumanida Chimyon qishlog'i bor. Chashmadamiyon (suvi, bulog'i ko'p), Chilkon (konlari ko'p joy) degan tavsiflar ham bor.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (XI asr) asarida chumgan o'tzor, shirin ajriq. Chivgin o't – hayvonlarni semirtiradigan o't. Chim – yerdan o'rib olib, oftobda quritiladigan o't,

deb izohlangan. Shuningdek, chimyon ikki komponentli hisoblanadi, ya'ni chim (ildiz, tomirlari zich o'rnashishi sababli qalin bo'lib o'sadigan o't-o'lan) va *-yon* affiksi. Chimyon – *o't-o'lan qalin o'sgan joy* degan ma'nolarni ham anglatadi. Chunki xalq tilida chim o't (past bo'yli, zich bo'lib o'sgan o't) birikmasi mavjud, degan fikrlar ham bor.

CHIMILDIQ – qishloq. Surxondaryo viloyati Denov tumani. Chimildiq (yoki go'shanga) – parda, ostona (bu ma'noda "o'tib bo'lmas", "tog'lar bilan har tomondan yopiq") ma'nolarini anglatadi.

CHIMQARTOV – O'zbekiston va Tojikiston chegaralaridagi Turkiston tizmasining cho'qqilaridan biri. Sug'dcha chem (chim) – to'siq. g'ov, devor; kar, gar – tog'.

CHIMQO'RG'ON – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Yakkabog' tumanlari; Toshkent viloyati Piskent tumani; Jizzax viloyati Forish tumani. Qo'rg'on – qal'a, chim – chim; ehtimol chem – to'siq, g'ov.

CHINGIZ – qishloq. Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani; Navoiy viloyati Karmana tumani. Chingizkent – Samarqand viloyati Narpay tumani. Chingiz – etnonim (Б.Х.Кармышева. Очерки этнической истории. С. 207).

CHINDOVUL//CHINDAUL – Qashqadaryo viloyati Koson hamda Namangan viloyatining Chust va Kosonsoy tumanlaridagi qishloqlar nomlari. 1) suv tashuvchi; 2) O'rta Osiyo xonliklarida lashkar otryadini orqadan qo'riqlovchi bo'lgan askar.

Olim Alisher Navoiy *-vul* harbiy va saroy xodimlarini bildiradigan qo'shimcha deb yozganligini ta'kidlagan, *hirovul, qoravul, yasovul, bakovul, shig'ovul* terminlarini asos qilib olgan holda, *Chindovul* oykonimining etimonini "qo'shinning eng orqadagi qismi, avangard" ma'nosini ifodalovchi chindovul harbiy termini bilan bog'liq, deb ko'rsatadi.

Mahalliy aholining fikricha, bu nom tojikcha *chin* so'zidan olingan bo'lib, "gul termoq" degan ma'noni anglatadi. T.Nu'monov va boshqalar ta'kidlaganidek, bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki Chindovul oykonimi etimonida "gul termoq" ma'nosi kuzatilmaydi.

Yana xalq orasida oykonim etimonini chin ovul – 40 ovul birikmasi bilan ham bog'lash kuzatiladi. Rivoyatlarga ko'ra, Shoh Jalil degan kishi Kosonsoyga borgan, ammo u yerdagi oqsoqollar uni Koson (hozirgi Kosonsoy)ga kiritmaydilar. Shoh Jalil o'z karvoni bilan hozirgi Chindovulga kelgan. Odamlar uni yaxshi kutib olishgan. Shoh Jalil bu yerga 40 ta ovul tikib yashagan.

Shunga nisbat berib, Chindovul oykonimining etimoni "chin ovul", ya'ni "qirq ovul" birikmasi deb hisoblashadi. Mazkur talqin anchayin ishonchsiz.

Bizningcha, Chindovul oykonimi chin – xitoy etnonimiga ovul indikatorining qo'shiluvidan yasalgan bo'lib, oykonim *Xitoy qishloq* degan ma'noga ega.

Til taraqqiyoti davomida chin ovul otli so'z birikmasi onomastik konversiya asosida joy nomiga, ya'ni oykonimga aylangan, bu jarayonda nom tarkibidagi ikki asos o'rtasidagi *-d* undoshi orttirilgan. Qishloq ortida Xitoysoy nomli gidronimning mavjudligi ham buni tasdiqlaydi.

CHINK – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi cho'qqi nomi. Oronim ikki tur izohga ega: "qir va balandliklarning, supatog'larning tik tushgan, baland (350 m gacha) yonbag'ri. Chinklar oldida ko'pincha pastliklar bo'lib, ularni sho'r, botqoq bosgan bo'ladi".

"***Cho'qqi***" esa "*tog' tepasi, kimsasiz, qor bosgan tog'lar*" ma'nosini anglatadi [Gulomov. 1994:116].

Demak, ***Chinki*** oronimining izohi sifatida yuqoridagi ikkinchi tavsif ma'qul ko'rildi.

CHINNIXONA – Samarqand yaqinidagi saroy. XV asrning 40-yillarida Ulug'bek (1394–1449) buyrug'i bilan qurilgan. Chinni – forfor. Chinnixona – bu chinni xona. Bu Ulug'bekning dam olish xonasi bo'lgan.

CHINOBOD – qishloq. Andijon viloyatining Baliqchi hamda Toshkent viloyatining Qibray va Samarqand viloyatining Payariq hamda Surxondaryo viloyatining Termiz, Xorazm viloyatining Xiva tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Chin – haqiqiy, sof, obod – obod, seraholi (Chinobod – obod aholi punkti). Ushbu nom ham "chem" so'ziga borib taqaladi. "Chem" va "chim" hamda "chin" so'zlarining o'zagi tarixan bitta (Chimkent, Chimqo'rg'on, Chinobod).

Bizning tekshirishlarimiz xulosasiga qaraganda Chinobod qishlog'ining tarixi shunday: 1840-yillardan qipchoqlarning urug' boshlig'i Musulmonqul Qoradaryoning hozirgi "Yetti qashqa" qishlog'i yuqorisidan Baliqchi tomonga Yangi kanal qazdirgan. O'sha yangi sug'oruv arig'i bo'ylarida Qo'qondan ko'chib kelganlar hozirgi Chinobod o'rnidagi joy atrofini o'rab yangi qishloqqa asos solganlar (biroq 1880-yildan Qoradaryo suvi kanalga urib ketib, o'rnida daryoning yangi o'zani paydo bo'lgan. Eski o'zan hozir ham "qolgan daryo" deb ataladi). Surxondaryoda ham Chinto'qqizobod qishlog'i bor. Ammo Angor tumanidagi Chinobod nomini "chinrovob" so'ziga bog'laydilar.

Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi mahalla nomlaridan biri ham Chinobod deb atalgan. Bunday nom respublikamizning ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash lozim.

CHINOZ – tuman. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Chinoz – o'zbeklar tarkibiga singib ketgan qabilalardan birining nomi. Rashididdin Fazlullohning (XIV asr) "Jome-at-tavorix" tarixiy asarida yozilishicha, mo'g'ullarning tayjuit qabilasi tarkibidagi urug'lardan biri chinoz (mo'g'ulcha – bo'ri) deb atalgan. Keyinchalik chinozlar tayjuitlardan ajralib, mustaqil qabila bo'lganlar.

XIII–XIV asrlarda chinoz qabilasi ham boshqa bir qancha mo'g'ul

qabilalari kabi Dashti Qipchoqning sharqiy qismiga kelib o'rnashganlar. XVI–XVII asrlarda ularning bir qismi Qarshi cho'li va Toshkent vohasiga ko'chib kelib, o'troqlashib ketgan. Dashti Qipchoqda qolgan qismi esa qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan.

Bo'ri – chinoz urug'ining totemi, muqaddas hayvoni hisoblangan. Totem nomidan urug' nomi yuzaga kelgan. E'tiborli tomoni shuki, totemistik dunyoqarash ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan, insoniyatning tabiat hodisalari va mavjudotlariga bo'lgan munosabatini o'zida aks etadi. T.Nafasovning yozishicha, totemistik qarashlarda insoniyatning tabiat unsurlari – yer, havo, suv, olov, tuproq, o'simlik va hayvonlarga sig'inish, ularning bir qismini yoki bittasini muqaddas deb bilish g'oyasi mujassam. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, chinoz urug'i vakillari bo'rini muqaddas hayvon deb bilishgan va unga sig'inishgan. Urug' nomiga asos bo'lgan bo'ri tasviri urug' tug'i (bayrog'i)ga ham tushirilgan.

CHINOQ – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. Chinoq "qulog'i kesilgan", etnonim bo'lishi mumkin. Xuddi shu tumanda Tauchinak – "Tog'li chinoq" qishlog'i bor. Bu ushbu fikrni to'ldirishga xizmat qilishi mumkin.

CHINOR – qishloq. Toshkent viloyatining Ohangaron, Bo'stonliq hamda Surxondaryo viloyatining Denov va Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Chinor toponimi ming yil umr ko'radigan daraxt nomi. Demak, fitonimdan toponim hosil qilingan.

CHINSAROY – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. Chin saroy – haqiqiy saroy (saroy – o'zbek qabilasi). Qabila-urug' nomlarida ko'pincha chin – "haqiqiy" va yolg'on – "yolg'on", "qo'shilgan" sifatlari qo'llanilgan.

CHIQAR – qishloq. *Buxoro viloyatining* Shofirkon tumanidagi qishloq nomi. Shaharning qal'a devoridan tashqarisidagi istehkom ***chaqar*** deyilgan. St.D.Nominxanov ***Chaqar*** toponimini mo'g'ullarning urug' nomi bilan atalgan[1], deydi. Mo'g'ullarning ***chaxar/staxar*** degan qabilasi bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud[2].

O.A.Suxareva tojik tilida ***chaqar*** deganda *"ko'cha, jinko'cha"* tushuniladi[3], deb ko'rsatgan.

Shuningdek, S.S.Gubayeva ***chaqar*** so'zining staxar/chaxar shaklida qayd

---

[1] Наминханов С.Д. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР//Записки (Калмыцкий научно-исследовательский институт языка и литературы и истории). –Элиста, 1962. –С. 273.

[2] Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольских кочевой феодализм. –Л., 1934. –С. 131-132.

[3] Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухари. –М.: Наука, 1975. –С. 105.

etgan hamda uni etnonim degan[1]. Turkmanlarning bir urug'i ***chaqar*** deb ataladi.

CHIRIK – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Mo'g'ul, qadimiy turkiy tillarda chirik (cherik) – "armiya", "lashkar". Cherik etnonimi ma'lum (К.Шаниязов. К этнической истории народа).

CHIRIKJIYDA – qishloq. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi qishloq nomi. *Chirikjiyda* toponimi *"chirigan jiyda"* ma'nosini anglatadi.

CHIRIKQISHLOQ – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. "Chirik" va "qishloq" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan nom.

CHIRKAY – qishloq. Farg'ona viloyatining Furqat, Buvayda, Beshariq hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanlaridagi qishloq nomi. Qirg'iz tilida, o'zbek tilining shevalarida chirkay – pashsha. Toponimning kelib chiqishini S.Qorayev quyidagicha izohlaydi: "Chirkay qirg'iz yoki qipchoq urug'i nomi bo'lsa kerak (ma'nosi "chivin" demakdir)" (Этнический состав киргизского населения. ТКАЕЕ. Т. IV. – М., 1960. С. 134).

"Кыргыз etnonimder sөzdүgү" kitobida esa *chirkey / chirkay* etnonimi qirg'izlarning bargi, saru, sayak urug'lari tarkibida uchrashi haqidagi ma'lumot qayd etilgan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, qishloq nomi qirg'iz yoki qipchoq urug'larining bir tarmog'i hisoblangan "chirkay" etnonimi asosida paydo bo'lgan.

CHIRQIROVUQ – qishloq. Jizzax viloyatining Zomin hamda Samarqand viloyatining Ishtixon, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloqlar nomlari. Chirqirovuq – etnonim (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari; К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 124, 133).

CHIROQCHI – tuman. Qashqadaryo viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. T.Nafasovning yozishicha, IV–X asrlarda Chiroqchi katta va obod shahar bo'lgan. Shahar mo'g'ullar istilosi davrida xarobaga aylangan. Tuman nomiga asos bo'lgan *chiroqchi* so'zini ikki xil izohlash mumkin: *chiroqchi – chiroq yasovchi hunarmand; chiroqchi – qabriston (xonaqoh) kabi joylarda chiroq (sham) qo'yib, yoqib yuruvchi kishi.*

Odatda, nomlanayotgan geografik obyekt qaysi bir xususiyati yoki ma'lum bir faoliyati yoki hodisa va voqealar bilan kishilar diqqatini jalb qilgan taqdirda nomlashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, turkiy xalqlar tarixini o'rgangan A.Divayevning yozishicha, Sirdaryo bo'yidagi Qo'rqut ota ziyoratgohiga qarab, qabriston mozorlarini tozalab yuradigan kishini chiroqchi deyishgan.

[1] Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX в. и в начале XX в. (по данным топонимии). –Т., 1983.

Mutaxassislarning fikricha, yoritgich, yog'du ma'nosidagi chiroq o'zlashma so'z. Eroniy tillarga xos bo'lgan *charog'* so'zi eski o'zbek tiliga xuddi shu tarzda o'zlashgan. O'zlashib bo'lgach, tovush qiyofasida o'zgarish yuz bergan. Barcha eroniy tillarda mavjud bo'lgan *charog'* so'zi *yoritgich, sham* ma'nosidan tashqari, majoziy ma'noda farzandga nisbatan ham qo'llangan.

T.Nafasov Chiroqchi nomining bir necha xil izohini keltirgan. Ular orasida chiroqchi turkiy qabila yoki urug' nomi degan xulosa ilmiy nuqtayi nazardan eng ishonchlisi hisoblanadi. Olimning yozishicha, qadimgi turkiy urug'-qabila nomidan Chiroqchi nomi yaralgan deb qarash ilmiy jihatdan asosli, tarixan ishonchlidir.

CHIRCHIQ – shahar va daryo. Toshkent viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Sirdaryoning eng katta va eng sersuv o'ng irmog'i, Toshkent viloyatidagi tuman va daryo nomi.

Dastlab daryo "Hudud ul-olam", so'ngra arab geograflari Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida Parak, Nahri turk, Nahri Turkiston nomlari bilan tilga olingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida daryoni Chir suyi nomi bilan qayd etadi: "Sulton Ahmad Mirzokim, Toshkandga mo'g'ul ustiga cherik tortib, Chir suyinikim, Toshkandtin ikki sha'riy yo'l bo'lg'ay, bu suvning yoqasidakim shikast topdi..."

Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"sida ham gidronim Chir suvi deb berilgan: "Chahorshanba kuni kechasi mamlakatni qo'lga oluvchi sipoh Chir suvi bo'yiga (askargoh) qurdi".

H.Hasanov izohlashicha, *"chir"* so'zi *gullagan, burqiragan, tezoqar, sharlovuq, shovullagan* degan holatlarga nisbatan ishlatiladi. Haqiqatan ham, bu daryo tez, ayniqsa, yuqori qismida toshdan toshga urilib, ko'pirib oqadi. Chiq qo'shimcha bo'lib, kichiklikni bildiradi. Demak, *Chirchiq – kichkina, lekin shovullab oqadigan suv* ma'nosidadir.

S.Qorayev fikricha, Chirchiqni Sirchiq, ya'ni "kichik sir" deb izohlash to'g'ridir. Qirg'iz xalqining "Manas" nomli qahramonlik dostonida Chiyirchiq gidronimi kuzatiladi. Ayrim olimlarning fikricha, ana shu Chiyirchiq aynan Chirchiq.

Demak, Chirchiq Sirchiqning til taraqqiyoti davomida yuzaga kelgan fonetik varianti. Sir (Sirdaryo) fonetik o'zgarish bilan Chirga o'tgan. Keyinchalik kichik ma'nosini ifodalovchi *-chiq* affiksini olgan. "Kichik sir" ma'nosidagi *Sirchiq* so'zi gidronimning etimonidir. Gidronimning lisoniy takomili quyidagicha: *Sir > Chir > Chir + chiq > Chirchiq.*

CHITGAR – qishloq. Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi qishloq nomi. *Chit* (f.-t.) – *paxta tolasidan to'qilgan mato.* Chit va *-gar* morfemalaridan tarkib topgan *chitgar* so'zi fors-tojikcha bo'lib, eskirgan so'zlar sirasiga mansub. *Chitgar – kus-*

tar (o'z uyida biror mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi shaxs, hunarmand), to'qimachilik korxonasida chitga gul beruvchi usta. Qishloqda bir necha shunday ustalar bo'lganligiga nisbat berib, unga Chitgar deb nom berilgan. Demak, *Chitgar* oykonimi *chitga gul beruvchi ustalar yashash joyi,* degan toponimik ma'noga ega.

CHITGARON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponimni hosil qilgan chit so'zi paxta tolasi ipidan to'qilgan gazlama nomi. Forscha *chitgar – chitga naqsh soladigan usta, -on* – ko'plik affiksi.

Demak, *Chitgaron – "chit to'quvchi yoki unga gul bosuvchi ustalar"* demakdir. Aholining kasb-kori qishloq nomiga asos bo'lgan.

CHIYIR – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi joy nomi. Mazkur nom bir o'zakli mikrooykonim. "***Chiyir***" so'zi xalq og'zaki ijodida ishlatilib kelinadi u "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*Oyoq, tuyoq izi; iz, yo'l*" tarzida izohlanadi [O'TIL. 4, 482]. Aynan hayvonlardan qolgan izlarga nisbatan usbu so'z ishlatiladi.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Qo'poni mikrooykonimi bilan yonma-yon joylashgan ushbu maskan *qo'y tuyoq izlaridan hosil bo'lgan joy*ga nisbatan islatilmoqda.

CHIG'ANOQ – qishloq. Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. Chig'anoq so'zi ko'p ma'noli bo'lib, o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1) shilliq qurt // shilliq;

2) ba'zi umurtqasiz jonivorlarning, masalan, molluskalarning turli shakllarda bo'ladigan kosasi;

3) anatomik termin: tirsak; tirsak suyagi.

Shuningdek, chig'anoq so'zi o'zbek va qirg'iz tillarida tirsak ma'nosida qo'llanadi. Tirsak – qo'lning bilak suyagi bilan yelka suyagi qo'shiladigan, bukilib burchak hosil qiladigan joyi; narsalarning burchak hosil qilib bukilgan joyi yoki qismi. Qishloq Sirdaryoning ana shunday burchak hosil qilib bukilgan hududida joylashganligiga nisbat berib, Chig'anoq deb atalgan.

Demak, *Chig'anoq* oykonimi *burchak joydagi yashash manzili* degan toponimik ma'noga ega.

CHIG'ATOY – qishloq. *Buxoro viloyatining* Olot tumani va Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi ***qishloq*** nomi. Mazkur oponim "***chag'otoy // chig'atoy***" shakliga egadir.

Mo'g'ul imperiyasining asoschisi Chingizxonning ikkinchi o'g'li – ***Chig'atoy*** Guljadan Amudaryogacha bo'lgan yerlar ***Chig'atoy*** ixtiyoriga bo'lgan Movarounnahr Chig'atoy ulusi deb atalgan. ***Chig'atoy*** so'zining ma'no va qo'llanish doirasi kengaygan. Kishi ismi funksiyasidan tashqari ijtimoiy-siyosiy, harbiy va etnik ahamiyat kasb etgan.

XIII–XIV asrlarda Chig'atoy harbiy qo'shinlari va avlodlari imtiyozga ega bo'lgan turkiy-mo'g'ul kishilari,

XV asrda Movarounnahr va Sharqiy Xurosonning barcha turkiy aholisi ***Chig'atoy*** deb yuritilgan. Temuriylarning Shayboniyxonlarga qarshi kurashi davrida bo'lgan, etnonimik ma'nosi va vazifasi ham shu davrlarda yuzaga kelgan.

Chig'atoy // chag'atoy XV-XVI asrlardayoq hududiy ma'noga ega bo'lgan, etnonimik ma'nosi va vazifasi ham shu davrlarda yuzaga kelgan. Bu davrda ***chig'atoy // chag'atoy*** so'zi ham etnonim, ham antroponim vazifasida qo'llangan.

Shunga ko'ra mazkur qishloq nomi qadimiy etnooykonimlar sirasiga hamda bir o'zakli ot so'z turkumiga kiradi.

CHIG'ATOY ARIG'I – Kaykovus kanalining o'ng tarmoqlaridan biri; uzunligi 3 km. Bu ariq Toshkent shahrining Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor tumani) va Shayxontohur tumanlaridan oqib o'tadi, undan 9 ta shoxobcha suv oladi, Qoraqamish arig'iga quyiladi. "Chig'atoy" gidronimining paydo bo'lishi taxminan XIV asrga to'g'ri keladi, "chig'atoy" antroponimi va "chig'atoy" etnonimi bilan bog'liq.

Ma'lumki, Chig'atoy (XIV asr) O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan Chingizxonning ikkinchi o'g'lining nomi. O'sha davrda O'rta Osiyo hududi "Chig'atoy ulusi" deb nomlangan. Keyinroq ushbu atoqli otdan Amir Temurning buyrug'i bilan Toshkent shahri devorlari tiklanib, unda 12 ta darvoza bunyod etilgan. Darvozalarning biri ushbu turkiy qabila nomi bilan "chig'atoy darvozasi" deb nomlangan.

Chig'atoy arig'i esa Chig'atoy darvozasi yonidan oqib o'tganligi tufayli, uning nomi bilan atalgan. Asrimizning boshlarida Chig'atoy arig'i Ko'kcha dahasining Chig'atoytepa mahallasi, shuningdek, dahaga tegishli bo'lgan, shahar tashqarisida joylashgan Yangi shahar mavze-mahallasi, Kichikqo'riq, Beklarbegi-qo'riq, Ingichkaqo'riq, Ko'ksaroy mavzelaridan o'tgan va uning suvidan shu yerlardagi dala va bog'larni sug'orishda, aholini suv bilan ta'minlashda keng foydalanilgan.

CHIG'ATOY DARVOZASI – Toshkent shahri. Ko'kcha dahasining shimoli-g'arbiy qismida, antropotoponim; nomining kelib chiqishi Chingizxonning (1155–1227) o'g'li Chig'atoyning (vafoti 1242-y.) ismini bildiradi. Ma'lumki, XIII asrda Chingizxon o'g'illariga o'z saltanatini taqsimlab, Markaziy Osiyo yerlarini ikkinchi o'g'li Chig'atoyga bergan va keyinchalik mazkur hudud Chig'atoy ulusi deb atalgan. Chig'atoy darvozasining nomi xonning sharafiga qo'yilgan. Mazkur darvoza nomi Muhammad Solihning ikkala ro'yxatida ham keltiriladi. Chig'atoy darvozasining nomi XX asr boshlarida mahallalar nomlarida ham uchraydi: Chig'atoy tepa, Chig'atoy-chaqar, Chig'atoy-Yangi shahar[1]. Hozirgi vaqtda mazkur hudud Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor tumani) tumaniga tegishli sanalib, bu

[1] Малицкий Н.Г. Ташкентские махалли. ... -С. 13.

yerdagi mahallaga "Chig'atoy darboza" nomi berilgan[1].

CHIG'IR – qishloq. Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi qishloq nomi. Chig'ir – chigir (cho'michli g'ildirak bo'lib, yerlarni sug'orish uchun suv chiqarib bergan).

CHIG'IRIQ – qishloq. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi qishloq nomi. Chig'iriq – urug'lik paxta tozalash uchun qo'lda qilingan sodda mashina.

CHODAK – qishloq. Namangan viloyatining Pop tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra, Chodak nomi forscha *choh* – chuqur, *deg* – qozon so'zlaridan kelib chiqqan.

CHOLDAR – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qishloq nomi. Qozoq qabilalar ittifoqi sergeli (sirg'ali) tarkibiga kirgan 12 qabiladan biri chaldar-shaldar (ehtimol "qariyalar") deb nomlangan.

CHOLMUYIN//CHOLMO'YIN – qishloq. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi qishloq nomi. Qipchoq urug'lari bir bo'linmasi *cholmo'yin* deb atalgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 123, 125).

"Chol" termini qadimiy turkiy tilda bo'z rang, kulrangni bildirgan. Mo'yin, aynan *bo'yin – avlod, bo'lim* ma'nosida. Qipchoqlar tarkibida qoramo'yin, ko'kmo'yin urug'lari bo'lgan.

CHOLQISHLOQ – qishloq. Jizzax viloyati Zomin tumanidagi qishloq nomi. Chal etnonimi ma'lum (chol – "keksa odam"). *Cholqishloq* – chol urug'i vakillari yashaydigan qishloq.

CHOLTOSH – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi cho'qqi nomi. Apellyativning birinchi qismi "**Chol**" so'zi *"botiq, chuqur, suvning quyilish joyi"* demakdir (Персидский-русский словарь, т.I. 459.).

Uning ikkinchi komponenti "**Tosh**" so'zi esa *"qattiq tog' jinsi. Tog'lardagi qoyali cho'qqilar"* ma'nosini anglatadi [G'ulomov, 1994: 107].

"Boburnoma"da "***cholmoq***" so'zi qo'shmoq, aralashmoq ma'nosida qo'llangan (238.I).

Demak, "**Choltosh**" oronimini *"bir-biriga tegib, qo'shilib turgan qoyali cho'qqi"* ma'nosini bildiradi.

CHOPIQ/CHOPUQ – qishloq. *Buxoro viloyatining* Buxoro, Qorako'l tumanlaridagi ***qishloq***lar nomlari. Pomiqlik turkman urug'laridan biri – ***chopiq***dir. Ushbu nom oykonimga o'tgan. "Boburnoma"da Ibrohim Chopuq tog'oyi, ***Chopuq*** kabi kishi ismilari qayd etilgan.

Demak, ***Chopiq, chopuq*** – etnonim. O'tmishda ham urug', ham kishi ismi bo'lgan.

CHORBAKR – *Buxoro viloyatining* Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Abu Bakr ismli to'rt avliyo – Abu Bakr Ahmad Ibn Sa'd, Abu Bakr Is'hoq Kalobdi, Abu Bakr Tarxon, Imom Abu Bakr fazl. (X asr shu mozorda dafn etilgani uchun shunday nom olgan (О.А.Сухарова. Бухара XIX – начало

[1] Tolipov A. "Chig'atoy darboza" deb atashdi // "Mahalladosh" gazetasi. 1991-yil 31-oktabr.

XX века. -М., 1966. 776). Aslida esa mozorga shu avliyolardan eng katta Jo'ybori Xo'jalarning ajdodi Imom Abu Bakr Sa'd dafn etilgan[1].

"***Chor***" – tojik tilidagi "***chahor***" so'zining o'zgargan, qisqartirilgan ko'rinishidir. ***Chor bakr*** – to'rt bakr ma'nosini anglatadi. ***Bakr/bikr*** arabchadan olingan bo'lib, "*pokiza*", "*qiz bola*" (turmushga chiqmagan qiz) ma'nosiga ega. Majoziy ma'noda: *shunday joyki, odamzodning oyog'i tegmagan yo odamzodning qo'li tegmagan (masalan, zamin, cho'l, o'rmonzor); yangi, ho'l, toza: toza, fikr, pokiza fikr, yangi mazmun yo yangi g'oya*[2] kabi ma'nolarda qo'llanadi.

Saqmatin, keyinchalik Sumitan va undan so'ng Chorbakr nomini olgan manzil eng qadimiy qishloqlardan biridir. Bu haqda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Buxoroda yashab o'tgan (IX-X asrlar) mashhur to'rt shayx, tasavvufning yirik namoyandalari. Chor bakrlarning ajdodlari payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Imom Husaynga borib taqaladi. Ular Ali avlodlaridan 4-imom bo'lgan Ja'far as Sodiqning nevaralari hisoblangan. Bular quyidagilar:

1-bakr: Abu Bakr Ahmad ibn Xoja Sa'd Yamaniy (IX asrning oxiri – 971-y.) Buxoroda tug'ilgan. Uning otasi Xoja Sa'd Yamaniy imom Husaynning Zaynulobidin ismli o'g'lining farzandi bo'lib, u Buxoroga Ali ibn al-Husayn bilan birgalikda kelib qolgan (IX asrning so'nggi choragi). Narshaxiyning yozishicha, somoniylar amiri Ismoil Somoniy unga Buxoro yaqinidagi Jo'yi Mo'liyon mavzeyidagi serhosil yerlarning katta qismini vaqf qilib bergan. Xoja Sa'd Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog'ida chorbog', bog', sardoba, tegirmon, hovuz va boshqa binolar barpo etib, bu yerdan katta daromad olgan. Abu Bakr Sa'd va uning avlodlari somoniylar davrida Buxoroda shayxulislomlik qilishgan. Abu Bakr Sa'd otasi vafot etgach, uning o'rniga Ismoil Somoniyning piri hisoblangan. U fiqh maktabini tashkil etib, ko'plab ulamolarga ustozlik qilgan.

2-bakr: Abu Bakr Muhammad ibn Fazl ibn Ja'far al-Buxoriy IX asrning 2-yarmi – 937-y.) Imom Ja'far as-Sodiq avlodidan. Somoniylar davrida Buxoroga kelib qolgan. Uning "Musnadi Fazl" kitobi, ayniqsa, mashhur bo'lib, bu asar Chingizxon Buxoroni bosib olganda yondirib yuborilgan.

3-bakr: Abu Bakr Muhammad ibn Hamid (IX asrning 2-yarmi – 937-y.). Unga "Shayx ul-olam" unvoni berilgan. U Abu Bakr Fazl bilan bir yilda vafot etgan va ikkalasining qabrlari ham bir joyda yonma-yon joylashgan. *4-bakr:* Imom Abu Bakr Tarxon (IX asrning 2-yarmi – 945-y.). "Kito-

[1] Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. -М.: Наука, 1975. –С. 108.

[2] Farhangi tafsirii zaboni toҷikӣ (iborat az 2 ҷild) Ҷildi 1. A – N Zeri tahriri Sayfiddin Nazarzoda (rais), Ahmadҷon Sanginov, Said Karimov, Mirzo Hasani Sulton. Dushanbe – 2008, -S.202.

bi Mullazoda" asarida yozilishicha, u "Jome' va musnad" kitobini yozgan.

Chor bakrlar Buxoroda vafot etgan va shahar yaqinidagi Sumitan mavzeyida dafn etilgan[1]. Qishloq nomi mana shu avliyolar nomiga atab qo'yilgan.

CHORBOQSOY – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***chor***" (to'rt), "***boq*** (g')" va "***soy***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

Apellyativning birinchi komponenti "***Chor***" forscha so'z bo'lib, "*to'rt, to'rtta*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 507].

O'z o'rnida "***Chorbog'(q)***" so'zi aynan to'rt bog' demakdir [S.Qorayev, 1, 149].

"***Soy***" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "*ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy*" ma'nolarini bildiradi [O'TIL. 5, 3, 545].

CHORBOG' – Uchko'prik tumanidagi qishloq nomi. To'rtburchak shaklidagi, shahar chetidagi katta bog' yoki tok, mevali va xushmanzara daraxtlar hamda polizdan iborat bo'lgan bog' shunday nomlangan. Viloyatda Chor qo'shimchasi bilan Chordarra, Chorsu, Chorraha, Chortoq, Chorchaman, Chorchinor kabi joy nomlari yaratilgan.

XV–XIX asrlarda tarixiy manbalarda keng qo'llanilgan chorbog' (so'zma-so'z "To'rt bog'") ma'nosi hanuzgacha aniqlanmagan va Markaziy Osiyoning turli hududlarida har xil ishlatilgan: bog', qishloq uyi, har tomondan panjara bilan o'ralgan bog' va h.k. "Chorbog' o'zbekcha ma'noda faqat atrofdagi mulk orasida joylashgan to'ralarga xos qo'rg'on deb qaralishi mumkin" (П.П.Иванов. Хозяйство джуйбарских шейхов. С. 35; О.Д.Чехович. Самаркандские документы. С. 393).

CHORBOG'INAV – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *chorbog'* va *nav* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *chorbog'* so'zi forscha-tojikcha bo'lib, *"To'rt tomoni bog' bo'lgan uy yoki qo'rg'on", "To'rt tomoni devor bilan o'ralgan bog'", "dala hovli"* kabi ma'nolarni anglatadi.

XIV–XV asrlarda Amir Temurning Samarqandda 14 bog'i – chorbog'i bo'lgan. Bog'larning gir atrofi saroylar bilan o'ralgan edi. XV–XVI asrlarda chorbog'lar boy yer egalarining mulki hisoblangan. Ba'zan shaharning ikki tomoniga teraklar ekilgan bosh xiyoboni chorbog' deyilgan.

Hozir ko'p joylarda gir atrofi devor bilan o'ralgan har qanday bog', shuningdek, shahar chekkasidagi bog'lar chorbog' (chorvoq) deyiladi. Farg'ona vodiysida chorvoq degan urug' bo'lgan. Toponimning ikkinchi komponenti – *nav* so'zi ham forscha bo'lib, *"yangi"* degan ma'noni bildiradi.

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik, 9-jild. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2005. –B.643.

Demak, *Chorbog'inav – "To'rt tomoni bog' bo'lgan yangi uy yoki qo'rg'on", "To'rt tomoni devor bilan o'ralgan yangi bog'"* ma'nosidadir. Mahalliy aholi qishloq nomini uning hududida yangi bog'lar tashkil qilinganligi sababli shunday atalgan, deb hisoblaydi.

CHORBOG'KENT – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Toponim *chorbog'* va *kent* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – chorbog' so'zi forscha-tojikcha bo'lib, aynan *"To'rt bog'", "To'rt tomoni bog' bo'lgan uy yoki qo'rg'on", "To'rt tomoni devor bilan o'ralgan bog'", "dala hovli", "Tokzor", "mevali bog'", "park (tabiiy istirohat bog'i)"* va *"poliz"* kabi ma'nolarni anglatadi (qarang: **Chorbog'inav**). Toponimning ikkinchi komponenti – **kent** so'zi esa "shahar", "aholi punkti" degan ma'noda; *kend (kent)* termini asli *kat* so'zining dialektal shaklidir.

Demak, *Chorbog'kent – "To'rt tomoni bog' bo'lgan qishloq yoki qo'rg'on", "To'rt tomoni devor bilan o'ralgan aholi punkti", "qal'a"* ma'nosidadir.

CHORBOG'TURANG'I – qishloq. Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi qishloq nomi. Chorbog'turang'i shaklida Qo'qon xonlari arxivida ko'rsatilgan (А.Л.Тропцкая. Каталог архива кокандских ханов. С. 74, 93, 292, 296). Ushbu toponim *"Turangi (turangil) – mayda bargli terak o'sadigan chorbog'"* degan ma'noni anglatadi; (qarang: **Chorbog'** va **To'rang'il**).

CHORIQ//CHORUQ – *Buxoro viloyatining* Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. *"**Choriq**"* – "qattiq, xom teridan tikilgan, asosan tog'lik tuman xalqlari orasida rasm bo'lgan oyoq kiyimi"[1] sanaladi.

Mazkur qishloqning nomi shunday mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyat asosida kelib chiqib qo'yilgan.

CHORDARA – qishloq. Farg'ona viloyatining Oltiariq hamda Navoiy viloyatining Konimex va Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Samarqand tumanlaridagi qishloqlar nomlari.

Chordara – to'rt eshikli xona (ikkitasi shimolga, ikkitasi janubga qaragan) yoki mansarda, cherdak xonasi. M.Y.Massonning so'zlariga ko'ra (Ахангеран. Археолого-топографический очерк. – Ташкент, 1953. С. 45), mahalliy aholi bu termin bilan Farg'ona va Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab ko'plab eski tashlandiq istehkomlarni nomlaydi.

Shunday qilib, *chardara, chaldivar, "xarobalar", "katta shahar"* ma'nolarini anglatadi.

CHORJO' GUZARI – Movarounnahr bilan Xurosonni bog'lab turgan Amudaryodagi asosiy guzarlardan biri. Xurosondan Buxoroga boradigan eng yaqin yo'l ushbu guzar orqali o'tgan. Guzarda tashkil topgan aholi maskani IX–XII asrlar yozma manbalarida Amul, Amul ash-shatt, keyinroq Omo'ya nomlari bilan atalgan.

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 2-tom. –M.: Rus tili, 1981. –B.379.

Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, XIV asr ikkinchi yarmida Omo'ya Amudaryoning o'ng sohilida bo'lgan (hozirgi Forob qishlog'i).

"Boburnoma"da Xusravshoh Sulton Mahmud Mirzoning to'ng'ich o'g'li Sulton Mas'ud Mirzoni tutib, ko'zlarini ko'r qildirgani, uni dastlab Keshga, so'ngra u yerdan Chorjo' guzari orqali Hirotga – Sulton Husayn Mirzo huzuriga olib borganlari haqida xabar beriladi.

CHORJO'Y – qishloq. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomi. Forscha *chor* – to'rtta, *jo'y* – ariq ma'nolarini anglatadi.

CHORJO'Y ARIG'I – Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani. Bu ariq Toshloq qo'rg'onchasi yaqinida, Qulqishloqdan yuqoriroqda suv oladi. Qirq, Po'latdarxon, Dahbed, Marg'ilontepa, Boqibiy, Nashab, Zakot, Misit, Balxi, Silot, Zaxzafrat, To'la qishloqlari shu ariqdan sug'oriladi.

CHORMINOR – Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XIX asr). Forscha *chor* – to'rt, *minora* – burj: yodgorlik 4 ta minoradan tashkil topgan.

CHORMITAN – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi qishloq nomi. Mazkur mikrotoponim "***chor***" (to'rt) va "***mitan***" so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma so'zdir.

"***Chor***" so'zi forscha-tojikcha bo'lib, "*to'rt, to'rtta*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 507].

Apellyativning ikkinchi komponenti "***Mitan***" so'zi Markaziy Osiyo xalqlari tarkibida uchraydigan urug' nomlaridan biridir [N.Begaliyev, 74]. Shu bilan birga, "***mitan***" so'zi forscha "***metana***" so'zidan kelib chiqqan va u "yashash joyi, uy, urug' ma'nolarini bildirgan [O'TIL. 5, 2, 581].

Umuman olganda, "***metan // muytan***" o'zbek va qoraqalpoq xalqi tarkibiga singib ketgan urug'lardan biri. O'zbek mitanlarining ko'pchiligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshonning o'rta oqimida yashagan [Z.Ziyotov. 90-91].

Shunday ekan, "***Chormitan***" mikrotoponimi "*mitan urug'idan bo'lgan to'rt kishi tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq*" ma'nosini anglatadi va u son+ot strukturaga ega joy nomidir.

CHOROBOD – qishloq. Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi. Forscha *chor* – to'rt, *rabod* – karvonsaroy, mehmonxona ma'nolarini ifodalaydi.

CHOROVUL – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumandagi qishloq nomi. Bu mikrotoponim "***chor***" (to'rt) va "***ovul***" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir.

Nomning birinchi qismidagi "***Chor***" so'zi forscha-tojikcha bo'lib, "*to'rt, to'rtta*" ma'nosini bildiradi [O'TIL. 5, 4, 507].

Uning ikkinchi komponenti "***Ovul***" so'zi "*ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy, yashash maskani, qishloq*" ma'nolarini ifodalaydi [O'TIL. 5, 3, 81].

Shunga asoslanib, mazkur mikrotoponimni "*to'rt ko'chmanchi chor-*

vador tomonidan barpo etilgan yashash maskani, qishloq, ovul", degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu oykonimni ikki o'zakli son+ot strukturasiga kiritsak bo'ladi.

CHORPORA – qishloq. Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi qishloq nomi. *Chor* – to'rt, *pora* – bo'lak; to'rtta qismdan iborat qishloq; etnonim bo'lishi mumkin.

CHOROG'IL – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi qishloq nomi. *Chor – to'rt, og'il – saroy, chorva uchun omborxona* ma'nolarini anglatadi.

CHORRAHA – *Buxoro viloyatining* Buxoro tumanidagi ***qishloq*** nomi. Toponim ikki qismdan tashkil topgan: ***chor+roh***. Apellyativning birinchi komponenti fors-tojikcha ***chor (chahor)*** – *"to'rt"* ma'nosini ifodalasa, uning ikkinchi qismi ***roh*** – *"yo'l"* ma'nosini ifodalaydi va u *"to'rt yo'l"*, ya'ni *"ko'chalarning kesishgan, serqatnov, gavjum joyi"*, *"chorko'cha"*[1] tushunchalarini anglatadi.

T.Nafasov *chorraha* so'ziga quyidagicha sharh bergan: *"tojik tili o'tmishida chorsu(y) – **chorraha**; to'rt tomonga yo'l ketadigan, usti gumbaz qilib yopilgan bozor. Chorsu va chorrahalar o'tmishda bir-biridan farqlangan. Chorrahalar shahar tevaragidagi yoki rabot qismida bo'lgan, chorsu esa shaharning markaziy qismida, shahristonda, bosh bozor bo'lgan joyda bo'lgan"*[2].

CHORRAHA DARVOZASI – boshqa nomi "chorsu darvozasi". Samarqand shahri devoriga g'arbiy tomondan o'rnatilgan darvoza. "Boburnoma"da 903 (1497–1498)-yili Samarqandda yuz bergan tarxonlar isyoni voqealari bayonida eslatilgan va isyon sababchilaridan bo'lmish Muhammad Mazid tarxon Chorraha darvozasi orqali qochib, Buxoroga borgani aytilgan.

Shuningdek, 905 (1495–1496) – 906 (1495–1496)-yillar voqealari bayonida Sulton Ali Mirzo onasining gapiga kirib, Chorraha darvozasidan chiqib, Shayboniyxon huzuriga bosh egib borgani va halok etilgani aytilgan. "Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegi og'a beaqllig'idin maxfiy Shayboniyxong'a kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniyxong'a Samarqandni bergay. Otasining viloyati [Hisor]ni olg'ondin so'ng Sulton Ali mirzog'a bergay... Sulton Ali mirzo... kengashmay bir necha yovug'idag'i kichik-kirim bila Chorraha darvozasidin Bog'i Maydong'a Shayboniyxon qoshig'a bordi... Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xon-u monin barbod berdi... To'rt-besh kundin so'ng Qulba o'langida o'lturdilar... Bu besh kunluk o'lar jon uchun yomon ot bila bordi" (B. 77–78).

CHORSU – Samarqand shahridagi XVIII asrga oid yodgorlik. Mazkur yodgorlik o'rni Mirzo Ulug'bek davri-

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 2-tom. –M.: Rus tili, 1981. –B.380.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T: Muharrir. 2009. –B.310-311.

da Choponbozor nomi bilan mashhur bo'lgan. Avesto tilida "chavrisuk" (aynan ma'nosi "To'rt tarafli") so'zi keyinchalik "chahorsu" (tojikcha "chorsu") deb talaffuz qilinib, shaharlardagi *usti gumbaz yopiq bozor* ma'nosida ishlatila boshlagan.

Sug'dlar o'z bozorlarini *"vacharn"* (ba'zan metatezaga uchragan *"varchan"* shakli qo'llangan) deb atashgan (mazkur so'z hozirgi tilimizda juft holda qo'llanadigan "bozor-o'char" so'zining ikkinchi qismida uchraydi). O'rta asr arab mualliflari Markaziy Osiyo bozorlarini *"suk"*, ko'plikda *"asvok"* deb, forslar esa *"bozor"* deb atashgan.

Samarqand shahri qadimdan bozorlarga boy bo'lsa-da, uning asosiy yirik bozori azaldan hozir "Siyob bozori" nomi bilan mashhur bo'lgan joyda bo'lib kelgan. Jumladan, islomgacha bo'lgan davrda ham shaharning asosiy bozori Kesh darvozasi (hozirgi Xizr masjidi o'rnidagi darvoza) yonida bo'lgan, deyiladi tarixiy asarlarda. Arab mualliflari bu joyni "Ras at-toq" ("Toq boshi") deb tilga oladilar. *"Toq"* so'zi me'morchilik termini bo'lib, *"gumbazli bozor inshooti, binosi"* ma'nosidadir.

Hozirgi kunda bu termin Buxoro shahridagi "Toqi sarrofon", "Toqi telpakfurushon" singari geografik nomlarda saqlanib qolgan. Samarqand o'zining bozorlari bilan keyingi davrlarda ham mashhur bo'lib keldi. Chunonchi, XV–XVI asrlarda shahardagi Bozori Amir Tangriberdiqul, Bozori Kulohbardoron (Sarbadoron), Bozori Masjidi Jurjoniya, Bozori Rismon, Bozori Xarroton, Bozori Muhammad Chap singari savdo hududlari tarixiy hujjatlarda tilga olinganki, bular Samarqandning qadimdan hunarmandchilik, savdo-sotiq gullab-yashnagan shaharlardan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi.

CHORSU ARIG'I – Bo'zsuv kanalining o'ng qirg'og'idan suv olib, g'arbga tomon oqqan. Ariqning yo'nalishi hozirgi Shayxontohur tumani hududiga to'g'ri keladi; uzunligi taxminan 4,4 km. Gidronim Chorsu toponimidan kelib chiqqan.

Chorsu toponimi forscha *"chor"* – "to'rt" va *"su"* – "tomon" so'zlaridan tashkil topgan; lug'aviy ma'nosi "to'rt tomon" demakdir. Bu shartli tushuncha bo'lib, faqat to'rt ko'cha emas, balki beshta, hatto olti-yettita ko'chaning ham kesishgan joyini anglatgan. Chorsu – markaziy bozorning, aniqrog'i, usti yopiq (tim) ko'chalarning boshlanishi bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chorsu arig'i Shayxontohur dahasining Quyi Mergancha, Yuqori Mergancha, Qoziko'cha, Qo'rg'ontagi, O'roqchilik, Egarchi, Tarloq, Sho'rtepa mahallalari, shuningdek, Ko'kcha dahasining Jarlimasjid, Qalandarxona, Sirlimasjid, Qug'irmoch, Temirchi, Mirzag'ozi, Mirlar, Eski Namozgoh mahallalaridan oqqan, bozor hududidan o'tgan qismida yoz faslida suv bo'yi o'ziga xos oromgoh sanalgan.

CHORTOQ – shahar va tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'-

muriy-hududiy birlik. Chortoq shahrining nomlanishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Chunonchi, rivoyatda aytilishicha, qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Uning aytgani aytgan, degani degan ekan. Bir kuni sayohat qilib, eng xushmanzara joyga borib qolibdi. Tabiati, havosi, suvlari, kishilari unga yoqib qolibdi. Shu yerda taxt qurmoqchi bo'libdi. Qishloqning kunchiqar tomoniga ikkita, kunbotar tomoniga ikkita tuproqdan tog' uydirib, ustiga to'rta taxt qurdiribdi. Tepaliklar shunaqa hashamatli qurilgan ekanki, odam tagiga borib qarasa, do'ppisi tushib ketar ekan. Taxtlar bitgach arzanda, tannoz qizlarini oldirib kelib, to'rtovini to'rtta taxtga o'tqazdirib qo'yibdi. Ammo qizlar bir-birlari bilan bordi-keldi qila olmabdilar. Shunda otalariga: "Biz opa-singillar bir-birimizni ko'rolmay qiynalmoqdamiz, bizning bir-birimiznikiga borib-kelishimiz uchun yerosti va yer ustidan yo'l soldirib bering", – deb iltijo qilishibdi. Podsho rozi bo'libdi. To'rt taxtni bir-biri bilan bog'lovchi yo'llar qurdiribdi.

Shundan keyin to'rt malika shu joyda qolib, uzoq yillar yashashibdi. Joyning nomi esa **Chortoq**, ya'ni **chor taxt** deb ataladigan bo'libdi[1].

Geografiya fanlari doktori, professor H.Hasanov Chortoq oykonimini boshqacharoq talqin etadi: "Chortoq Namangan yonidagi qishloq. Bu "To'rt tog'" deb izohlanadi, lekin bunday emas. To'rt gumbazli (to'rt toqisi bo'lgan) inshoot (ark, qo'rg'on, qorovulxona) Chortoq deyilgan. Ba'zan to'rt tomonida turadigan qorovulxonalar (baland minoralar) ham Chortoq deb atalgan"[2].

Demak, joy o'rtasida baland ark, qorovulxona bo'lganligi bois shunday atalgan.

S.Qorayev esa Chortoq toponimini quyidagicha izohlagan: "Chortoq Namangan viloyatidagi kurort va posyolka. Aslida, Chortoq so'zi ikki so'zdan – *chor* (to'rt) va *toq* (ark, gumbaz) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "to'rt go'shali", "gumbaz" demakdir, toq so'zi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi me'morchilik termini bo'lib, *"arkli bino"* ma'nosini anglatadi. Peshtoq (imoratning oldi tomonidagi toq), toqi ravoq (hashamatli saroy). Chortoq so'zlari ana shu iboralardan tarkib topgan. Ayvon, boloxona, qorovulxona ham chortoq deyilgan".

Shuningdek, S.Qorayevning "O'zbekiston viloyatlari toponimlari"[3] kitobida yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda Chortoq *chordoq* shaklida ham talaffuz etilgan. Otashparastlarning ibodatxonasi ham chortoq deyilgan, degan fikrlarni bildirgan. Chortoq yeri tekis, serunum, sug'orish imkoniyatlaridan foydalanish oson bo'lganli-

[1] Murodov M., Shayxova M. Asotirlar va rivoyatlar. 1-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1990. – B. 68–70.

[2] Hasanov H . O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1995. – B. 56–57.

[3] Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B. 98.

gi sababli yonidagi qo'shnilardan biri bo'lgan Saurlar bosib olishga harakat qiladilar. Ulardan himoyalanish uchun qishloqning eng xavfli tomonlariga to'rtta tepa ko'targanlar va tun-u kun ustida kuzatuvchilar turgan. Agar uzoqdan xavf sezilsa, gulxan yoqilib, qo'shni tepa hamda butun aholi xabardor qilingan.

Mashhur sharqshunos olim, yirik tarixchi Yan Vasiliy Grigoryevich ko'rsatishicha, Markaziy Osiyoning O'zbekiston qismining o'zida erkin massagetlar, sug'dlar, saklar, mingdan ortiq sun'iy tepalar ko'tarib, undan qorovulxona sifatida foydalanganlar.

T.Nu'monov va B.Turdaliyevlar Chortoq astionimi haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: "Chortoq – bu Chortoq tumanining markazi – shahar. Chortoq fors-tojikcha so'zga aloqador bo'lib, *choxar – to'rt, toq – ustun*, ya'ni *to'rt ustun ustiga qurilgan qorovulxona, chayla* ma'nosini anglatgan"[1].

Demak, *Chortoq* so'zi joy o'rniga mos bo'lib, chet dushmanlardan saqlanish uchun vujudga kelgan qorovulxona, baland minora vazifasini o'taydigan inshoot ma'nosini ifodalab, davrlar o'tishi mobaynida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay shahar nomiga aylangan.

CHORTUT – qishloq. Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi qishloq nomlaridan biri. **Chor tut** – *to'rt tut daraxti* ma'nosini anglatadi.

CHORVOQ – shahar posyolkasi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq hamda Samarqand viloyatining Xatirchi va Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanlaridagi qishloq nomi. Toshkent viloyatidagi aholi punkti va suv ombori nomi, (aslida Chorbog'). Chorbog' deb turli mevali daraxtlar o'tqazilgan bog'ga aytiladi. Odatda, bunday bog'ning o'rtasida imorat bo'ladi va daraxtlar to'rt tomonini egallab turadi.

CHORXOROS//CHORXAROS – guzar. *Buxoro viloyatining* Buxoro shahridagi guzar nomi. Mazkur toponim ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, apellyativning birinchi komponenti ***Chor*** – *"to'rt"* degan ma'noni ifodalasa, ikkinchi qismi ***xoros*** esa– *"tegirmon"* ma'nosini bildiradi.

Demak, ***Chorxoros*** – *"to'rt tegirmon"* demakdir. Hududda to'rt tegirmon borligi sababli shunday nomlangan. Xorazm viloyatida hozirgi paytda ham tegirmon so'zi o'rnida xaros termini qo'llaniladi.

CHORSHANBA – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Chorshanba – chorshanba. Markaziy Osiyoda goh u yerda, goh bu yerda har kuni bozor bo'lgan. Aholi punkti bozor bo'lgan kun nomi bilan atalgan. Bunday qishloqlarning to'liq nomlari: Dushanbabozor (Dushanba), Seshanbabozor (Seshanba) va boshqalar bo'lib, keyinchalik bozor so'zi tushirib qoldirilgan.

[1] Nu'monov T., Turdaliyev B., Haydarov A. Namangan toponimlaridan materiallar. – Namangan, 1995. – B. 78.

CHORCHAMAN – qishloq. Andijon viloyatining Asaka tumanidagi qishloq nomi. O'rta asrlarda yirik feodallar (qarang: ***Chorbog'***) alohida maydonlarga bo'lingan bo'lib, ularda turli xil manzarali va mevali daraxtlar va gullar ekilgan, bu bo'laklar *chorchaman* (*chor* – to'rtta, *chaman* – o'tloq, butazor, gulzor) deb aytilgan.

CHOTIRTO'BA – Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi tepalik nomi. Mazkur oronimning "***chot***" komponenti toponimiyada keng tarqalgan bo'lib, "*kichik tepa, pastak tog', yassilanib ketgan bag'ir*" degan ma'noda qo'llanadi.

"***To'ba***" so'zi esa, aslida, "*tepa*" terminining mahalliy aholi shevasida qo'llanuvchi dialektal variantidir. Demak, "***Chotir to'ba***"ni "*yassilanib ketgan tepalik*" deb izohlash mumkin.

Ammo -ir qo'shimchasi taqlidiy so'z va fe'llarga qo'shilib kelishini hisobga olsak, bunday izohlash ishonchsizroq bo'ladi.

"***Chotir***" so'zi aslan "***chatr***", ya'ni "***chodir***" ma'nosida qo'llangan ("Boburnoma", 254, II).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "***Chotir to'ba***" nomi "*chodir tikilgan, qurilgan tepalik*" deb izohlash mumkin.

CHOTKO'PIR – mahalla. Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi mahalla nomlaridan biri. Xorazm shevasiga xos bo'lgan *chot* va *ko'pir* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. *Chot* – shox-shabba; *ko'pir* – ko'prik, u qirg'oqdan bu qirg'oqqa o'tish uchun suv yoki chuqurlik ustiga qurilgan qurilma.

Demak, **Chotko'pir** – *shox-shabba va loydan qurilgan ko'prik.*

CHOVKAY – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi qishloq nomi. Ehtimol, etnonim. Misol uchun, qirg'iz-qipchoqlarning jamonong urug'i bo'linmalaridan biri chokvoy deb aytilgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа).

CHOVLI ARIG'I – Bo'zsuv kanalining chap tarmog'i. Shaharning shimoli-sharqiy qismidan janubga yo'nalgan bo'lib, Salor kanaliga quyilgan. Uzunligi 7 km. Hozirgi vaqtda ariq Mirzo Ulug'bek, Yunusobod va Mirobod tumanlari hududidan oqadi.

Mazkur gidronim ma'nosi haqida ikki xil fikr mavjud. Birinchisiga ko'ra, "shibli" – bu "zax yerlar, o'tloq" demakdir, ya'ni bu ariq shunday joylardan oqqanligi bois Chovli deb atalgan.

Ikkinchi fikrga ko'ra, bu gidronimning to'g'ri atalishi "Shibli". Ariqning nomi mashhur tarixiy shaxs Shayx Shibli ismidan olingan. Keyinchalik aholi tomonidan "shibli" so'zi "chovli" shaklida talaffuz qilinadigan bo'ldi.

Shayx Shibli – tasavvufning mashhur shayxi, komil avliyolardan. Uning to'la ismi Shibliy Abu Bakr Ja'far binni Yunus (862–947)[1]. Shibli arig'i haqida Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi

[1] Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. T. 7. – T.: Fan, 1991. B. 372.

Toshkand" asarida ham ma'lumotlar qayd etilgan.

Muallif, Shayxontohur dahasini ta'riflaganda, dahaning uchta asosiy ariqlaridan biri – Shibliy arig'i ekanligini ta'kidlab, shunday yozgan: "Uchinchi ariq Shayx Shibli yoki Shibli arig'i bo'lib, u ham buloqdan suv oladi, boshlanish yeri shahar devoridan tashqarida, O'zbeklar (Labzak) darvozasi yaqinidagi Mirzo Yusufning yerida. Shu joyda shaharga doxil bo'lib, Xo'ja Darvozning yerlaridan o'tadi va Qiyot darvozasi yaqinida shahardan oqib chiqadi, so'ngra davom etib, Mirobod mavzeyini suv bilan ta'minlaydi"[1].

1936-yilgi Toshkent xaritasida Chovli arig'i "Chauli" shaklida yozilgan[2]. Mazkur davrda Chovli arig'i shimoldan janubga yo'nalgan bo'lib, Yangi shaharning markaziy qismi bo'ylab asosiy ko'chalardan o'tgan va janubi-sharqda Salor kanaliga quyilgan.

CHOYXONA – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Qishloq katta yo'l yoqasida joylashgan bo'lib, uning hududida juda ko'p choyxonalar – choy ichib hordiq chiqariladigan joy mavjud. Shu sababdan qishloq yuqoridagidek nom olgan. Geografik joy nomiga mahalliy aholi tomonidan berilgan mazkur izoh haqiqatga juda yaqin.

CHOSHTEPA – Toshkent shahridagi mahalla nomi. Hozirgi Toshkent shahrining janubi-g'arbiy chekkasida yo'n arig'i bo'yida miloddan avvalgi I-II asrlarda tashkil topgan qadimgi Toshkent shahri xarobalarining keyingi davrlarda tepalik shaklida mavjud holatining nomi. Toponimning qadimgi shakli sug'dcha "choch" (yoki "chosh") so'zlaridan olingan va "Tosh uyumi", "Tosh qo'rg'on" ma'nolarini anglatadi. Buyuk Ipak yo'lida tashkil topgan va uning nomi qadimgi xitoy manbalarida "Chjeshi" bo'lib, "Tosh qo'rg'on" degan ma'noni anglatadi, ya'ni mahalliy atalishidan tarjima qilib berilgan.

Forsiy adabiyotlarda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asaridan boshlab, shahar nomi "Choch" shaklida uchraydi va nazmlarda "Kamoni chochiy" ("Chochiy kamon") ko'p eslatiladi. Arablar shaharni bosib olgach, arab tilida "ch" tovushi bo'lmagani sababli, arab yozuvidagi manbalarda "Choch" o'rniga "Shosh" yozildi va ushbu shakldagi toponim arab, fors va turkiy tillarda yozilgan arab yozuvidagi yozma merosdan keng o'rin oldi. Biroq hozirda yana "Chosh" shaklida yuritila boshlangan.

Shuningdek, mazkur nom Samarqand viloyatining Payariq, Urgut tumanlari, Navoiy viloyatining Xatirchi tumani, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz kabi tumanlarida ham uchraydi.

CHOCH – Chirchiq vodiysi va Toshkent viloyatining o'rta asrlardagi nomi. Birinchi bo'lib, VIII asrning

[1] O'rinboyev A., Bo'riyev O. Toshkent Muhammad Solih... 45-b.

[2] План путеводитель по городу Ташкента. –Ташкент, 1936.

birinchi choragidagi sug'd yozuvlarida (Согдийские документы с горы Муг, вып. II. С., 78, 79, 81, 82) va Firdavsiyning "Shohnoma"sida uchraydi. Arab manbalarida u shash shaklida qayd etilgan: Istaxriy (БАГ, I, С. 281, 288, 291 и др.), Ibn Havqal (БАГ, II, С. 9, 329, 337, 340 и др.), Muqaddasiy (БАГ, III, С. 25, 34, 36, 258 и.т.д.). (qarang: ***Toshkent***).

CHUBALACHI//CHO'BALANCHI – qishloq. Farg'ona viloyatining Bag'dod hamda Xorazm viloyatining Yangibozor tumanlaridagi qishloq nomi. O'zbek urug'-qabilalar ro'yxatida chubalachi etnonimi mavjud. Kuraminlar va o'zbek-qipchoqlar orasida *chubalanchi* urug'i qayd etilgan va xususan, kuraminlarning tama qabilasining oytamg'ali urug'ining bo'linmasi *chubalanchi* (chuvalachi) deb nomlangan.

CHUBATELPAK – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi qishloq nomi. Juft etnonim – *chubat* va *elpak* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

CHUBUTON – daha. Buxoro guzarlaridan biri (daha). Bu chuvit yoki chuyut qabilalar guruh nomini anglatadi (O.A.Сухарева. Квартальная община Бухары. С. 160). Ikkinchi nomi qirg'izoyim ("Qirg'iz xonim").

CHUMCHUQLI – qishloq. Samarqand viloyatining Samarqand, Urgut tumanlaridagi qishloq nomi. *Chumchuqli* (chimchiqli) urug'i qayd etilgan, chumchuq – qush.

CHUQUN – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. O'zbekistonning janubida chuqur so'zi *chuqun* deb aytiladi.

CHUQUR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov hamda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanlaridagi qishloq nomi. *Chuqur – chuqur, kamgak* ma'nolarini anglatadi.

CHUQURARIQ – Samarqand tumanidagi gidronim. O'rta asr vaqf hujjatlarida Xo'ja Kafshir mahallasidagi kanal deb qayd qilingan (Чехович, 1974: 396).

CHUQURQAQ – Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi qadimiy hudud nomi. Janubiy Qoraqalpog'istondagi *Chuqurqaq* toponimi tarkibidagi "qoq" so'zi ham eskirgan holda, gidrotoponim tarkibida saqlanib kelyapti. "Qoq" arxaizmining ma'nosi "yomg'ir hamda sel suvlari to'planib qolgan kichik chuqurlik, xalqob" sifatida izohlanadi[1]. *Qaq* so'zi "chuqur" (chuqur joy) ma'nosida "Devon"dan o'rin olgan: *Qaqlar qamug' ko'lərdi, Tag'lar bashi ilərdi*...she'rida ham ishlatilgan[2] (bu haqda qarang: D.Yo'ldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlarining tarixiy-etimologik tadqiqi, –Nukus, 2012).

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Kitob hamda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanlarida ham shunday nomli qishloqlar mavjud.

[1] O'rozov Y. Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 71.
[2] Mahmud Kashg'oriy. Devonu lug'atit turk. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 180.

CHUQURBEKAT – qishloq. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanidagi qishloq nomi. *Chuqurbekat* – chuqurlikda joylashgan pochta stansiyasi.

CHUQURKO'L – Buxoro viloyatining Kogon tumanidagi qishloq nomlaridan biri sanaladi. *Chuqurko'l – chuqur ko'l* ma'nosini anglatadi.

CHUQURKO'PRIK ARIG'I – Anhor kanalining o'ng tarmog'i, Toshkentning qadimgi ariqlaridan, hozirgi vaqtda qirg'oqlari o'pirilib, kengayib, jarlikka aylangan Bo'zsuvga quyiladi. Chuqurko'prik gidronimi *"chuqur"* va *"ko'prik"* so'zlaridan tuzilgan. Relyef shakli bilan bog'liq, ya'ni ariqning qirg'oqlari past qismiga qurilgan ko'prik mavjudligidan shunday nom olgan. Mazkur gidronim 1890-yildagi Toshkent xaritasida "Uch Kur Kupryuk" shaklida xato yozilgan[1]. XX asr boshlarida Chuqurko'prik arig'i Eski shaharning janubiy qismida sharqdan g'arbga oqqan. U Shayxontohur dahasining O'qchidarvoza, Yuqori Mergancha, O'qchi, Qozi Nizomiddin va Beshyog'och dahasining Zevak, Yalanqar 1, Chaqar, Madalixon, Laklak, Chuqurko'prik mahallalari aholisi uchun muhim suv manbayi bo'lgan.

CHUQURKO'CHA – qishloq. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Toponim *chuqur* va *ko'cha* so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *chuqur* so'zi *"o'yilgan past joy", "o'yiq", "chuqurlik"* degan ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zga taniqli toponimist T.Nafasov quyidagicha ta'rif beradi: "Chuqur – tabiiy hodisalar (yer ko'chishi, yorilishi, sel kabi yog'in suvlarining yuvib ketishi, o'pirilish, zilzila...) tufayli hosil bo'lgan uzun yo tubi teran o'yiq, qazilgan, o'yilgan chuqurlik, yer sathidan past joy". Toponimning ikkinchi komponenti – *ko'cha* so'zi esa *"yo'l", "qishloq"* degan ma'noni bildiradi.

Demak, Chuqurko'cha – *"atrofdagi hududga nisbatan chuqur, xalqob joyda joylashgan qishloq"* deganidir. Qishloqning nomlanishiga u joylashgan hududning relyefi sabab bo'lgan.

CHUQUROBSHIR – qishloq. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi qishloq nomi. Agar *obi sho'r* bo'lsa – *tuzli suv*; agar *obshor* bo'lsa – *sharshara, oqim.*

CHUQURQISHLOQ – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi qishloq nomlaridan sanaladi. *Chuqurqishloq – chuqurlikdagi qishloq* ma'nosini anglatadi.

CHUQURSOY – Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi gidronim nomi. Gidroobyektning joylashgan holatini ko'rsatuvchi atama sanaladi.

CHURASH – qishloq. Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. **Churasharik** – Payariq kanalidan (Samarqand viloyati) boshlanadigan ariq. Zarafshon vodiysi o'zbek-qipchoqlari urug'laridan biri *churash* deb atalgan.

[1] План города Ташкента. –Ташкент, 1980.

CHUST – shahar va tuman. Namangan viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik. Manbalarda XV asrdan boshlab qayd etila boshlaydi. Etimologiyasi noma'lum. Forscha *chust* – *"tez", "harakatchan"* (suv haqida bo'lishi mumkin); *"chiroyli", "go'zal", "loyiq"* (tabiat haqida) degan ma'noni anglatishi ehtimoldan xoli emas. Mazkur shahardan tashqari, O'zbekistonda bir qancha aholi yashash punktlari Chust (Chustnon) deb ataladi.

CHUVAMA – qishloq. Andijon viloyati Izboskan tumaniga qarashli qishloq nomi. Ayrim lug'atshunoslar qo'ng'irot urug'i tarkibida "chuvama", "chug'urtma" qavmi borligiga ishora qiladilar. Mahalliy xalqda quyidagi naql mavjud: qo'shni qishloqqa kelin tushirib ketayotganlar shu yerdan o'tib ketishayotganlarida yoshlar sho'xlik qilib, kelin o'ltirgan arava g'ildiragining o'qidan "chuv cho'pi"ni sug'urib olganlar (qo'qonaravaning g'ildiragi o'qdan chiqib ketmasligi uchun o'qni teshib o'tkazib qo'yilgan yo'g'on cho'p "chuv" deyiladi). Natijada, aravaning bir g'ildiragi o'qidan chiqib ketib, kelin yiqilib tushgan. Shundan so'ng shu joy nomi "chuv olma" (Chuvama) atalib ketgan. Taniqli turkiyshunos, professor Qozoqvoy Mahmudov fikricha, *chuvama* so'zi *cho'g'alma* so'zining talaffuzda buzilib aytilishidir. U *chuvalmoq, ulg'aymoq* ma'nosini anglatadi.

CHUVULLOQ – qishloq. Jizzax viloyatining G'allaorol, Zomin hamda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumandagi qishloqlar nomlari. **Chuvullakovul** – Toshkent viloyatining Bo'ka tumani; **Chekchuvuldak** – Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani. *Chuvulloq* (chuvuldoq) etnonimi ko'plab urug' va qabilalar tarkibida, masalan, sariq qipchoq urug'lari, Zarafshon naymanlari va qo'ng'irot qabilasi orasida qayd etilgan.

CHUYUT – qishloq. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy hamda Navoiy viloyatining Konimex, Karmana tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Chuyut* (chiyit) etnonimi ma'lum (K.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari. B. 81). Masalan, chuyut urug'i Qashqadaryo viloyati, shuningdek, Zarafshon va Farg'ona vodiylaridagi kenagas qabilasi tarkibida qayd etilgan. Chuyut uyshun qabilasi tarkibida ham esga olingan. Etnonim **Chuyut, Chuit, Chilchuyut** (Chilchuit) toponimlari tarkibida saqlanib qolgan.

CHO'JA – qishloq. Andijon viloyatining Asaka hamda Namangan viloyatining Norin tumanlaridagi qishloq nomi. Farg'ona vodiysida *jo'jani cho'ja* deb talaffuz qilinadi. *Cho'ja* etnonim bo'lishi mumkin, buni *Cho'jaarab, Cho'jaariq, Cho'jayuziya* toponimlari ko'rsatib turibdi. Mazkur nom hozirda Namangan viloyatida ikkita mahallaga bo'linib, Pastki Cho'ja va Yuqori Cho'ja deb yuritiladi.

CHO'LBAYIR – Surxondaryo viloyatidagi Hisor tizmasining janubi-g'arbida joylashgan tog'lar. *Bayir* – Markaziy Osiyoning cho'l va yarimcho'l hududlaridagi qum tepaliklar va

ular orasidagi pastliklar; *cho'l* – qumlik, dasht.

CHO'LIGULISTON – qishloq. Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi qishloq nomi. *Cho'liguliston – gullagan cho'l, gullagan o'lkaga aylangan cho'l* ma'nosini anglatadi.

CHO'MBAG'ISH – Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi qishloq va mahalla nomi. Aslida, Cho'ngbag'ish bo'lishi mumkin. Qirg'iz urug'lari orasida Boybag'ish, Qorabag'ish, Saribag'ish kabi nomlar uchraydi. Bu so'z qirg'iz tilida los (bulan) demakdir.

CHO'MICH – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Cho'mich (aniqrog'i, cho'michli) ma'nosida, etnonim.

CHO'MICHLI – qishloq. Qashqadaryo viloyatining G'uzor hamda Jizzax viloyatining Jizzax va Samarqand viloyatining Narpay, Payariq, Pastdarg'om tumanlaridagi qishloq nomi. *Cho'michli* – etnonim; masalan, qo'ng'irot qabilasi vaxtamg'ali bo'linmasining bir urug'i cho'michli deb atalgan (Б.Х.Кармышева.Этническая история узбекского народа. С. 90). Bu etnonim boshqa turkiy qabilalar tarkibida ham uchraydi, misol uchun, qoraqalpoqlarda (sho'mishli). Cho'michli urug'i zarafshonlik o'zbek-qipchoqlar orasida ham bo'lgan (К.Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. С. 123).

Samarqand shahri yaqinidagi qishloq ham Cho'michli deb ataladi. Vaqf hujjatlarida bu yerda Samarqand shahri mahallalaridan birida Yom joylashganligi qayd qilinib, keyinchalik u Cho'michli qishlog'i deb atala boshlanganligi yozilgan. Shuningdek, bu hududda Sharafi Durji nomli mavze bo'lib, u g'arbda Siyob arig'i, sharqda Yam qishlog'i arig'i va Temur bakovul arig'i hamda shimolda Oqtepa balandligi bilan chegaradosh bo'lgan. O'sha paytda bu yerda Ibodulla shayx Azizon xonaqosi va Xoja Xub (Cho'p) Sivor mozori ham bo'lgan. Keyinchalik Sharafi Durji mavzesi o'rnida Xo'ja qishlog'i va Ibodulla Shayx Azizon mozori joylashgan. Aftidan, hozirgi Obi Rahmatning yuqori qismi Yam arig'i deb atalgan. Temir Baqovul arig'i esa Xalifa Hasan arig'i deb atalgan (Вяткин, 1902).

Qishloq "cho'michli yoki cho'mich tamg'ali" degan urug' nomi bilan atalgan. Cho'michli qishlog'i Samarqand viloyatining Urgut, Payariq tumanlarida ham bor.

CHO'NGTOCH – qishloq. Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qishloq nomi. *Cho'ngtosh – palaxsa, xarsang tosh* ma'nolarini anglatadi.

CHO'NTAK – Andijon viloyatining Asaka shahri istirohat bog'ining dam olishga qulay bo'lgan mashhur joyidir. Biz ko'rgan tarixiy manbada yozilishicha, Qo'qon xoni Xudoyorxon Asakani "Bog'i Eram"ga aylantirish maqsadida yuqoridan adir qirg'og'i bo'ylab suv keltirgan va yozlik qarorgohi tashkil qilgan (1871–1872-yillar). Biroq chorizm hujumi boshlanib, uning rejasi amalga oshmagan. Qarorgoh o'rni "Asaka cho'ntagi" nomi bilan atalib ketgan.

Andijon viloyatining Asaka tumanida shunday nomli toponim mavjud bo'lib, u – etnonim bo'lishi kerak, deb faraz qilingan.

CHO'PONLAR – qishloq. Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi qishloq nomi. *Cho'ponlar toponimi mol, qo'y, echki va boshqa uy hayvonlarini boquvchi podachilar* ma'nolarini anglatadi.

CHO'PONOTA – Samarqand yaqinidagi tepalik. *Cho'ponota* – cho'ponota, avliyo, cho'ponlar homiysi. Joy Ko'hak (*qarang*) nomi bilan mashhurroq.

CHO'RASH – Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi qishloq nomi. Etnotoponim. Cho'rash, O'raztoy, Qrimxo'ja etnonimlari qatorida qipchoq qabilasining to'g'uzboy urug'i tarkibidagi kichik bo'lak. K.Shoniyozovning ko'rsatishicha, bu etnonimlar o'rta asrning so'nggi yillarida shakllangan (Shoniyozov, 1974: 137).

CHO'RIKALON – qishloq. Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi. Mahalliy aholi qishloq aholisining to'rtdan bir qismi mehnatkash xalq bo'lganligi uchun dastlab *Chorikoron* deb atalgan, keyinchalik o'zgarishga uchragan, deb hisoblaydi.

Qishloq dastlab *Cho'likalon* deb atalgan. Cho'likalon so'zi forscha-tojikchada *"ulkan biyobon", "o'simligi siyrak yoki umuman o'simlik o'smaydigan katta dala-dasht"* degan ma'nolarni anglatadi.

CHO'YANBO'QSOY – Chaulisoy daryosining (Ohangaron daryosi tizimi) irmog'i. *Cho'yan, cho'yanbo'q* – tarkibida cho'yan bo'lgan toshqol. Namdanak qishlog'idan 12 km janubi-sharqda arxeologlar qo'ygan toshqol va archa qoldiqlarini – cho'yan quyish izlarini topishgan. Umuman olganda, Ohangaron vodiysi – Markaziy Osiyo kon-ruda sanoatining eng qadimiy markazlaridan biri, bu haqida *Ohangaron* – "Temirchilar" nomining o'zi dalolat berib turibdi.

CHO'YANCHI – qishloq. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on hamda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanlaridagi qishloqlar nomlari. *Cho'yanchi* – "quyuvchi" (cho'yanchi) – cho'yan va bronzadan qozon, omochning cho'yan poynagi, o'zangi va boshqalar. Uyda kerak bo'ladigan asbob-anjomlarni tayyorlaydigan usta sanaladi (qarang: **Degrez**).

CHO'YANCHIYON – Kadan yaqinidagi qishloq. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani. Hozirgi Cho'yanchi qishlog'iga to'g'ri keladi (Vyatkin, 1902: 53). Kasb-hunar nomidan hosil bo'lgan toponim (O'rinboyev, 2003: 209).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. –М. –Л., 1958.

2. Abdulla Jabbor. Namangan viloyati. – Namangan, 2011.

3. Abdullayev F. A. Xorazm shevalari. I. –T., 1961.

4. Abdullanoma: Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma. –T., 1966, I jild, II jild, 1969.

5. Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI – первой половине XIX века. –Т., 1966.

6. Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. –Л., 1971.

7. Абрамзон С.М. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. ТКАЭЭ, т. IV, 1960.

8. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1966.

9.Айтбоев Д. Тюркские этнонимы. –Н., 1986.

10. Avezov M.M. Arid o'lkalar toponimlarining tabiiy geografik asoslari (Buxoro viloyati misolida) (monografiya). –T.: Universitet, 2021.

11. Avezov M.M. Buxoro viloyatidagi geografik joy nomlari va ularning tabiiy geografik xususiyatlari // Professor Suyun Qorayev – zamondoshlari nigohida. Professor Suyun Qorayevning 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2015.

12. Avezov M.M., Jumayev I.S. Joy nomlarida hudud tabiiy sharoitining aks etishi (Buxoro viloyati toponimlari misolida) // Zamonaviy geografiya va O'zbekiston tabiiy-resurs potensialini baholash. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T., 2015.

13. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Buxoro toponimiyasiga doir muhim manba // Geografiya fani va ta'limining zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T., 2015.

14. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari (monografiya). –T.: VNESHINVESTPROM, 2020.

15. Avezov M.M., Hamroqulova M.O'. Quyi Zarafshon tabiiy geografik o'lkasidagi joyning geografik o'rniga bog'liq toponimlar // O'zbekiston Geografiya jamiyati IX syezdi materiallari. –T., 2014.

16. Азимджанова С. А. Индийский диван Бабура. –Т., 1966.

17. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. –T., 1948.

18. Андреев М. Местности Туркестана, интересные в археологическом отношении. –Ташкент, «Средне-Азиатский вестник», 1896.

19. Андреев М. С. По Таджикистану. Отчёт экспедиции. 1925 г. –Т., 1927.

20. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане 1874–1889. –СПб, 1889.

21. Аристов Н. А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. «Живая старина», год VI. СПб, 1896.

22. Архангельский Н. П. Среднеазиатские вопросы географической терминологии и транскрипции. –Ташкент, 1935.

23. Асланов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 2005.

24. Атаниязов С. Топонимика Юго-восточного Туркменистана. Автореферат кандидатской диссертации. –Ашхабад, 1966.

25. Ахмадалиев Ю. И. Фарғона вилояти топонимлари. –Фарғона, 2009.

26. Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. –М., 1965.

27. Бакрон. Жаҳоннома – Мухаммад ибн Наджиб Бакран, Джаханнаме (Книга о мире). Издание текста, введение и указатели Ю.Е.Борщевского.

28. Бартольд В. В. Сочинения, т. I. –М., 1963.

29. Бартольд В. В. Сочинения, т. II. –М., 1964.

30. Бартольд В. В. Сочинения, т. III. –М., 1965.

31. Бартольд В. В. Сочинения, т. IV. –М., 1966.

32. Бартольд В. В. Сочинения, т. VI. –М., 1966.

33. Бартольд В. В. Сочинения, т. VII. –М., 1967.

34. Бартольд В. В. Сочинения, т. VIII. –М., 1970.

35. Бартольд В. В . Сочинения, т. IX. –М., 1972.

36. Бартольд В. В . Историко-географический обзор Ирана. –СПб., 1903.

37. Баскаков Н. А. Тюркские языки. –М., 1959.

38. Begmatov E. Joy nomlari – Ma'naviyat ko'zgusi. – T., 1998.

39. Begmatov E. O'zbek ismlari. –Toshkent, 1998.

40. Begmatov E., Uluqov N. Onomastik terminlar izohli lug'ati (bibliografik ko'rsatkich). –Namangan, 2006.

41. Беляев Б.И. Арабские источники по истории туркмен IX–XIII вв. МИТТ, т. I. –М. –Л., 1939.

42. Бернштам А.Я. Памятники старины Таласской долины. Историко-археологический очерк. –Алма-Ата, 1941.

43. Boburnoma: Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., 1960.

44. Boboyorov G'. Ilk o'rta asr manbalarida Turkiston atamasi // «O'zbek xalqining kelib chiqishi, ilmiy-metodologik yondoshuvlar, etnogenetik va etnik tarix» mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. – T., 2004.

45. Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). –Toshkent: Yangi nashr, 2010.

46. Boboyorov G'. O'zbekiston hududida Qoraxoniylar davrigacha bo'lgan qadimgi turkiy toponimlar // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, "Karim Shoniyozov o'qishlari" turkumidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari, 1-qism. –Toshkent, 2005.

47. Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков. Известия отд. общественных наук. АН Таджикской ССР. –Душанбе. Вып. II. 1952.

48. Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тефсира XII–XIII вв. –М., 1963.

49. Боровков А.К. Бадаи ал-луғат – словарь Тали имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. –М., 1956.

50. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, т. I–II. СПб., 1869–1871.

51. Bo'riyeva X. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)yu –T., 2009.

52. Buxoro tarixi: Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T., 1966.

53. Vahobov M. O'zbek sosialistik millati. –T., 1960.

54. Весловский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. СПб., –М., 1877.

55. Веселовский С.Б. Топонимика на службе у истории. «Исторические записки», выпуск. – М., 1945.

56. Вильданова А.Б. Бухарские ирригационные и канцелярские термины. «Народы Азии и Африки», 1964.

57. Вильданова А.Б., Чехович О.Д. Об общинном землепользовании, обозначаемом термином «пайкал». «Народы Азии и Африки», 1965.

58. Винников Я.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине. – СЭС II. –Т., 1959.

59. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. –Л., 1934.

60. Востоков А.Х. Задача любителям этимологии. «Санкт-Петербургский вестник», СПб, 1812, № 2, сбр. 204–215.

61. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета, СКСО, вып. VII. 1902.

62. Вяткин В. Памятники древностей Самарканда, изд. 3-е. –Т., 1933.

63. Гафуров А. Рассказы об именах. –Душанбе, 1968.

64. «Географические названия» («Вопросы географии», т. 58). –М., 1962.

65. Гребенкин А.Д. Узбеки. Сб. «Русский Туркестан», вып. 2. –М., 1872.

66. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зерафшанского округа. – СРТ. Вып.II, 1872.

67. Губаева С.С. Этническая история населения Ферганы конца XIX – начала XX вв. (По данным топонимии). –Т., 1983.

68. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Докторская диссертация. –Т., 1957.

69. Гулямов А.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Ташкент, 1957.

70. Дамбе В.Ф. Исследования по вопросам топонимики Латвийской ССР. –Рига, 1962.

71. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –Toshkent, 1968.

72. Дульзон А.П. Вопросы этимологического анализа русских топонимов субстратного происхождения. –ВЯ, 1959.

73. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимов Хорезма. Дисс. док. фил. наук. –Т., 1989.

74. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. –Toshkent, 1985.

75. Do'simov Z. Xorazmdagi tarixiy nomlar // Filologik tadqiqotlar. –Urganch, 2000.

76. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T., 1977.

77. Do'simov Z. Shimoliy Xorazm toponimlari. Nomzodlik dissertasiyasi. – Toshkent, 1970.

78. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T., 1964.

79. Jalilov S. Farg'ona vodiysining sug'orilish tarixidan. –Toshkent, 1977.

80. Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции», т. I. –М., 1952.

81. Жучкевич В. А. Топонимика. –Минск, 1965.

82. Жуковский В. А. Древности Закаспийского края. Развалины Старого Мерва, СПб., 1894 (МАР, вып. 16).

83. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. –Toshkent, 1969.

84. Загоровский В.П. Как возникли названия городов и сел Воронежской области. –Воронеж, 1966.

85. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи. – Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т.I.//Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948. –М., 1952.

86. Закиров А. Лексико-семантическая характеристика этнонимов Джизакской области; Исследования по лексике и фразеологии языков разных систем. –М., 1990.

87. Закиров А. А. Топонимия Джизакской области Узбекской ССР; автореф. дисс. кан. фил. наук. –М., 1991.

88. Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – ТКИПС, 1925.

89. Зафарнома – Шарафиддин Али Яздий, Зафарнома. –Тошкент, 1972.

90. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, 1960.

91. Захириддин Мухаммад Бабур. «Бабур-наме». –Ташкент, 1958.

92. Зинин С. И. Ономастика Республик Средней Азии и Казахстана. Краткий библиографический указатель литературы за 1917–1972 гг. –М., 1972.

93. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. –Toshkent, 1959.

94. Иванов П. П. К истории развития горного промысла в Средней Азии. Краткий исторический очерк. –Л. –М., 1932.

95. Иванов П.П. Из области Среднеазиатской хозяйственной терминологии. ИАН–ООН, 1935.

96. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI–XVII вв. – М. – Л., 1954.

97. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – Л., 1940.

98. Ishayev A. Shimoliy Xorazmdagi ba'zi toponimik nomlarning etimologiyasi // filologiya masalalari. Toshkent davlat chet tillar ped.in-ti asarlari. –Toshkent, 1963.

99. Yo'ldoshev M. X. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. –T., 1959.

100. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1970.

101. Каримова Л.Г. Топонимы североузбекских говоров. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Ташкент, 1972.

102. Кармышева Б.Х. О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков (по этнографическим данным). Труды международного конгресса востоковедов. Т. III. –М., 1960.

103. Кармышева Б. Х. Сведения об узбекских родах семиз и кесамир. Труды АН Тадж. ССР. –Ташкент, XVIII, 1953; Сборник статей по истории и филологии Средней Азии, посвященный А. А. Семенову. –Сталинабад, 1953.

104. Кармышева Б. Х. Очерки этнографической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М., 1976.

105. Карпенко Ю.А. Топонимия Буковины. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Киев, 1967.

106. Конкашпаев Г.К. Казахские народные географические термины. «Изв. АН Казахской ССР», № 99, серия географическая, вып. 3. –Алма-Ата, 1951.

107. Конкашпаев Г. К. Словарь казахских географических названий. – Алма-Ата, 1963.

108. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абул-Гази-хана хивинского. –М. –Л., 1958.

109. Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак в тюркской географической терминологии // Изв. отд. общественных наук АН Таджикской ССР. – Душанбе, 1954.

110. Крачковский И.Ю. Арабские географы и путешественники. ИГГО. Т. L.XIX, 1937.

111. Крачковский И.Ю. Бируни и его роль в истории восточной географии. «Бируни. Сборник статей под ред. С.П. Толстова». –М. –Л., 1950.

112. Кубаков К. О некоторых родоплеменных группах узбеков верхней Кашкадарьи. «Этнографическое изучение культуры и быта узбекского народа» –Т., 1972.

113. Кузеев Р. Г. Происхождение башкирского народа. –М., 1973.

114. Латипов Дж. Топонимия города Маргелана и его окрестностей (лингвистический анализ). Автореф. дис. филол. наук. –Т., 1975.

115. Лебедева А.И. Словообразование в псковской топонимике «Ученые записки» (ЛГУ), № 198, серия филологических наук. Вып. 24. – Л., 1956.

116. Лившиц В.А. Согдийские письма с горы Муг. –М., 1960 (XXV Международный конгресс востоковедов, Доклады делегации СССР).

117. Лившиц В.А. Два согдийских документа с горы Муг, ВДИ. 1960.

118. Лигети Л. Монгольские элементы в диалектах хазара в Афганистане. Краткие сообщения ин-та народов Азии. № 83, Монголоведение и тюркология. –М., 1964.

119. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары (очерки о Средней Азии). СПб., 1913.

120. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Вып. I–III. –СПб., 1909.

121. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом, т.I. – СПб, 1911.

122. Лойфман Н.Я., Попов С.А. Топонимические названия Оренбургской области. –Оренбург, 1960.

123. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. –Т., 1965.

124. Максудов Ф., Бабаяров Г. К этимологии топонима Чач // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Труды международной научной конференции. – Ташкент, 2009.

125. Максудов Ф., Бабаяров Г., Кубатин А. Чач – один из самых древних тюркских топонимов Центральной Азии // Тәуелсіздік таңы – достық нәрі (Ташкент қаласының 2200 жылдығына арналған ғылыми-теориялық конеференция материалдары). –Ташкент, 2009.

126. Маллицкий Н.Г. О некоторых географических терминах, имеющих отношение к Средней Азии «Изв. Всесоюзного географического общества», –Т. 77, вып. 5, 1945.

127. Маллицкий Н. Г. Учебное пособие по географии Таджикистана. – Ташкент-Сталинабад, 1929.

128. Маллицкий Н. Г. Ташкентские махалля и мавза. – «В.В.Бартольд», –Т., 1927.

129. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. –М. –Л., 1951.

130. Мандельштам А.М. Материалы к историко-географическому обзору Памира и припамирских областей с древнейших времен до XX в. м. э. Сталинабад, 1957 (Труды ин-та истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР, т, LIII).

131. Марр Н.Я. Из переживаний доисторического населения Европы племенных и классовых в русской речи и топонимике. –Чебоксары, 1925.

132. Масальский В. И. Туркестанский край, СПб., 1913 (Россия Польное географическое описание нашего отечества, под ред. П.П.Семенова-Тян-Шанского. –Т. XIX).

133. Массон М.Е. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. – Ташкент, 1953.

134. Массон М.Е. Городища старого Термеза и их изучение. «Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936 г.». –Ташкент, 1940 («Труды УзФАН». ср. 1, вып. 2).

135. Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент, 1953.

136. Массон М. Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении. Труды САГУ, новая серия. Вып. XXXI. Археология Средней Азии. –Ташкент, 1956.

137. Массон М.Е. Новые картографические данные о прошлом Туркменистана XVIII в. Известия АН Туркменской ССР, №1, 1958.

138. Матвеев А.К. Историко-этимологические разыскания. «Ученые записки УралГУ, вып. 36. –Свердловск, 1960.

139. Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Арабские и персидские источники. Т. I (VII–XV вв.). Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А. Ю. Якубовского. Труды ИВ Академии наук, XXIX. –М. –Л., 1939.

140. Материалы по районированию Средней Азии, кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1, Бухара. –Ташкент, 1926.

141. Материалы по районированию Средней Азии, кн. II. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 2. Хорезм. –Ташкент, 1926.

142. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. –Тошкент, 1960.

143. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. II том. –Тошкент, 1961.

144. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том. –Тошкент, 1963.

145. Мгеладзе Д.С., Колесников Н.П. Слова топонимического происхождения в русском языке. –Тбилиси, 1965.

146. Минорский В. Ҳудуд ал-олам – Hudud al-Alam, Translaed and explaenen By V. Minorsky. –London, 1970.

147. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. –T.: «Fan va texnologiya nashriyoti», 2009.

148. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Buxoro viloyatidagi xorologik va xronologik oykonimlar // O'zGJ axboroti. 47-jild. –T., 2016.

149. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Buxoro viloyati geografik joy nomlarining o'rganilish tarixi // O'zGJ axboroti. 46-jild. –T., 2015.

150. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. Hududiy toponimiya va geografik joy nomlarining rayonlashtirilishi // Farg'ona vodiysi tabiatidan foydalanish va muhofaza qilishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. II qism. –Namangan., 2014.

151. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Asrorov D.Q. Vobkent tumani toponimlari (monografiya). –T., "MUMTOZ SO'Z", 2017.

152. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Shamuratova N.T. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugidagi fitonim va zoonimlar // Zamonaviy geografiya va O'zbekiston tabiiy-resurs potensialini baholash. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T., 2015.

153. Mirakmalov M.T., Avezov M.M. O'lkamiz o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishda joy nomlarining o'rni // Orol dengizi mintaqasida yuzaga kelgan ekologik ofatning atrof-tabiiy muhitga ta'siri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Buxoro, 2015.

154. Монгольско-русский словарь. –М., 1957.

155. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «Вакф-наме». –Ташкент, 1966.

156. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. –М., 1984.

157. Мурзаев Э. М. Средняя Азия. –М., 1957.

158. Мурзаевы Э.В. Словарь местных географических названий. –М., 1959.

159. Мусин Р. Сўз мағзидан ер бағрига. –Тошкент, 1967.

160. Муталлибов С.М. «Дивану лугат-ит турк» Махмуда Кашгарского. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Ташкент. 1967.

161. Мухаммаджонов А.Р. ва Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Я. Ғ. Ғуломов таҳрири остида. –Тошкент. 1957.

162. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. – Toshkent, 1972.

163. Muhammadjonov A.R. "Dahkat" oykonimining etimoni va "kat" substrati // O'zbek tili va adabiyoti, 2000.

164. Muhammadjonov A.R. Namangan toponimining etimologiyasi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1993.

165. Muhammadjonov A.R. "Kalobod", "Kalhovuz", "Kalos", "Miyonkol" gidronimlari va "kal", "kol", "kolot" substratlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 2004.

166. Набиев Р. Н. Новые документальные материалы к изучению феодального института «Союргал» в Фергане XVI–XVII вв., Известия АН УзССР. Серия общественных наук, № 3, 1959.

167. Наимов С.Н. Ойконимы Бухарской области. Автореф.дис.канд.филол. наук. –Ташкент, 1984.

168. Naimov S.N. Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Buxoro, 1997.

169. Narshaxiy. Buxoro tarixi. –Toshkent, 1966.

170. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (O'zbekistoning janubiy rayonlari). –Toshkent, 1988.

171. Nafasov T. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan? –Toshkent, 1989.

172. Nafasov T. O'zbek nomnomasi. –Qarshi, –Nasaf, 1993.

173. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –Toshkent, 2009.

174. Никонов В. А. Введение в топонимику. –М., 1965.

175. Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. –М., 1966.

176. Ne'matova Y. Zarkent oykonimi xususida / O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2-qism (Prof. Mazluma Asqarovaning 80 yilligiga bag'ishlangan ilmiy to'plam). – Toshkent, 2005.

177. Ne'matova Y. Kuymozor oykonimi // Til va tarjima muammolari: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Fan, 2007.

178. Ne'matova Y. Qipchoq urug'larini ifodalovchi etnonimlar asosida shakllangan oykonimlar / Til, tarjima va adabiyot kengliklarida (prof. N.Otajonov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Toshkent: Fan, 2007.

179. Ne'matova Y. Namangan viloyati oykonimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. falsafa dok. ... disser. – Farg'ona, 2018.

180. Ne'matova Y. Poramon // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011.

181. Ne'matova Y. Chindovul va Saroy oykonimlari xususida // O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari. – Namangan, 2006.

182. Номинханов Ц.Д. Монгольские элементы в этнонимике и топонимике Узбекской ССР. «Записки (Калмыцкий научно-исследовательский ин-т языка, литературы и истории)», вып. 2. Элиста, 1962.

183. Оллоёров Қ.М., Оллоёрова В.М. Халқ достонлари ономастикаси. – Тошкент, 2018.

184. Орлов А.Ф. Происхождение названий русских и некоторых западноевропейских рек, городов, племен, местностей. –Вельск, 1907.

185. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. Автореф.дис. канд.филол.наук. –Ташкент, 1978.

186. Oxunov N. Joylar va nomlar. –Toshkent, 1986.

187. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. –Toshkent, 1989.

188. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. –Toshkent, 1994.

189. Oxunov N. Til va joy nomlari. –Toshkent, 1988.

190. Петрушевский И.П. Земледелие и аграрные отношения в Иране XIII–XIV веков. –М., –Л., 1960.

191. Подольская Н.В. Исследование топонимики в связи с данными этнографии // «Материалы и исследования по русской диалектологии», 2. –М., 1961.

192. Попов А. И. Географические названия. –М. –Л., 1965.

193. Поспелов Е.М. Топонимика и картография (Географические названия). –М., 1962.

194. Поспелов Е.М. Современное состояние топонимики в СССР. Изв. АН СССР, серия географическая, 1966.

195. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий, т. I–IV. СПб., 1893-1911.

196. Рашид ад-дину Сборник летописей, т. I, кн.1, –М. –Л., 1952.; т. I, кн. 2, –М. –Л., 1952.

197. Решетов В.В. К вопросу о термине «курама» и кураминцах. Бюллетень АН УзССР. 1945.

198. Розенфельд А. З. Топонимика Нижнего Каратегина в связи с некоторыми вопросами его истории. «Известия отд. общ. наук АН Таджикской ССР». –Сталинабад, 1956.

199. Ромаскевич А.А. Персидские источники по истории туркмен и Туркмении X–XV вв. МИТТ, 1. –М. –Л., 1939.

200. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. СВ, №5, 1948.

201. Семенов А. А. К вопросу о происхождении Саманидов. – «Труды инта истории, археологии и этнографии АН Тадж. ССР». Т. XXVII. –Сталинабад, 1954.

202. Семенов А.А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани хана. – МИТУ, вып. I, ТИИАЭ АН Тадж. ССР, т.XII. 1952.

203. Семенов А. А. Материальные памятники иранской культуры в Средней Азии. –Сталинабад, 1945.

204. Семенов А.А. О среднеазиатском (бухарском) термине «агалык». Доклады АН Таджикской ССР, вып. III, 1952.

205. Семенов А.А. Очерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. –Ташкент, 1929.

206. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. –Сталинабад, 1954.

207. Семенов-Тян-Шанский В.П. Как отражается географический пейзаж в народных названиях населенных мест. –М.: «Землеведение», 1924.

208. Сергеев И.В. Тайна географических названий. –М., 1963.

209. Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий ВЯ. 1959.

210. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана, ИТОРГО, т. I, вып 2, 1900 (Список арыков и населенных пунктов).

211. Слоним И.Я. О происхождении некоторых географических названий. Страны и народы Востока. Выпуск 1. –М., 1959.

212. Смирнова О.И. Вопросы исторической топографии и топонимики верхнего Зарафшана // «Труды СТАЭ» т. I, 1946–1947 (МИА, № 15), 1950.

213. Смирнова О.И. Места домусульманских культов Средней Азии (по материалам топонимики), «Страны и народы Востока», вып. X. –М., 1971.

214. Смирнова О. И.Очерки из истории Согда. –М., 1972.

215. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе. ЗРГО, т. IV, 1874.

216. Соболевский А.И. Названия рек и озер русского Севера. «Известия 2 отд. Акад наук», т. 32. –Л., 1927.

217. Согдийские документы с горы Муг, вып. I. Чтение, перевод и комментарии А. А. Фреймана. –М., 1962.

218. Согдийские документы с горы Муг, вып. II. Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. –М., 1962.

219. Согдийские документы с горы Муг, вып. III. Чтение, перевод и комментарии М. Н. Боголюбова и О. И. Смирновой. –М., 1963.

220. Соколов Ю. А. Ташкент, ташкентцы и Россия. –Ташкент, 1966.

221. Список населенных пунктов Узбекской ССР. I–VIII части. –Ташкент, 1935.

222. Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX вв. –М., 1966.

223. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –М., 1976.

224. Сухарева О.А. О терминологии, связанной с исторической топографией городов Средней Азии (куча, махалла, гузар). Народы Азии и Африки. –М., 1965.

225. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). –Ташкент, 1958.

226. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М., 1948.

227. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М. –Л., 1948.

228. Толстова Л.С. Некоторые вопросы исторической ономастики Хорезмского оазиса // Этнография имен. –М.: Наука, 1971.

229. Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии и её исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. –М.: Наука, 1978.

230. Топонимика Востока. –М., 1962.

231. Топонимика Востока (Новые исследования). –М., 1964.

232. Топоров В.Н., Трубачев О.Н. Лингвистический анализ гидронимов Верхнего Поднепровья. –М., 1962.

233. Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. –М., 1968.

234. Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района // Ономастика Средней Азии. –Фрунзе: Илим, 1980.

235. Туйчиев У. Этнонимы и этническая география Джамбайского района // Ономастика Средней Азии. 2. –Фрунзе, 1988.

236. Uluqov N. Beshatmon, Miyona gidronimlari // Filologiya masalalari (Tursunboy Nu'monovning 80 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Namangan, 2007.

237. Uluqov N. Jo'y, olish, kanda gidronimik aniqlagichlarining etimologiyasi va ma'noviy xususiyatlari // Til, tarjima va adabiyot kengliklarida (professor Ne'matilla Otajonov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan to'plam). – Toshkent: Fan, 2007.

238. Uluqov N. Namangan viloyati fitogidronimlari xususida // O'zbek tilshunosligi muammolari. –T., 2003.

239. Uluqov N. Namangan viloyatidagi ariq nomlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2004.

240. Uluqov N. Namangan viloyatining "jo'y" tarkibli gidronimlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002.

241. Uluqov N. Norin gidronimi // Til va tarjima muammolari: Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Fan, 2007.

242. Uluqov N. Oqbura va Ulug'nor gidronimlari xususida // Aktualniy problemi filologii: Materialы regionalnoy nauchnoy konferensii. – Namangan, 2009.

243. Uluqov N. "Saddi Iskandariy"dagi gidronimlar xususida //Navoiyga armug'on. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2003.

244. Uluqov N. Sirdaryo gidronimi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2007.

245. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008.

246. Uluqov N., Ne'matova Y. "Qizilravot" va "Uchqo'rg'on" etimologiyasi xususida // Til va adabiyot ta'limi, 2012.

247. Умняков И.И. Значение трудов акад. В.В. Бартольда по истории Средней Азии. – МПВНКВ. С. 675–682; ср.: журн. «Фан ва турмуш», 1957, № 3.

248. Умурзаков С. Очерки по истории географических открытий и исследований Киргизии. –Фрунзе, 1959.

249. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. т. I. –Ташкент, 1966.

250. Фазылов Э.И., Зиняева М.Т. Изысканный дар тюркскому языку. – Ташкент, 1978.

251. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843.

252. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. –СПб., 1876.

253. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек исмлари имлоси доир//Низомий номидаги Тошкент давлат университети конференция материаллари. –Тошкент, 2007.

254. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек исмларининг имлоси хусусида// Филологик тадқиқотлар. –Тошкент, 2008.

255. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. –Урганч, 2023.

256. Xudoyberganov R.Y. Joy nomlari – Vatan tarixini o'rganishda muhim manba//Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Urganch, 2013.

257. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. –Ташкент, 1965.

258. Чехович О.Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. –М., 1974.

259. Чехович О.Д. О некоторых терминах среднеазиатских актов. Иранская филология. Труды научной конференции по иранской филологии. –Л., 1964.

260. Чехович О.Д. Терминологические заметки. «Народы Азии и Африки». 1964.

261. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. –Ташкент, 1974.

262. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Ташкент, 1964.

263. Шарафуддин Али Язди. «Зафар-наме». –Ташкент, 1972.

264. Шишкин В.А. К исторической топографии Старого Термеза. – «Труды УзФАН, сер. 1, вып. 2, 1940 (Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936 г.).

265. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent, 1962.

266. Шостакович В.Г. Историко-этнографическое значение названий рек Сибири. «Известия Восточно-Сибирского отдела русского географического общества». –Иркутск, 1926.

267. Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X–XIII вв. из Восточного Туркестана. –М. –Л., 1961.

268. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. –М., 1965.

269. Юлдашев М.Ю. К историй крестьян Хивы XIX века. –Ташкент, 1966.

270. Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. –Ташкент, 1941.

271. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. –Toshkent, 2020.

272. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. –Toshkent, 2020.

273. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. –Toshkent, 2020.

274. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. –Toshkent, 2020.

275. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. –Toshkent, 2020.

276. O'rinboyev B. Jizzax viloyati toponimlari. –Jizzax, 1992.

277. O'rinboyev B. Samarqand viloyati toponimlarining izohli lug'ati. –Samarqand, 1997.

278. Qorayev S. Geografiya darsliklaridagi termin va geografik nomlar to'g'risida. 1953.

279. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? –Toshkent: O'zdavnashr, 1970.

280. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. –Toshkent: O'zdavnashr, 1978.

281. Кораев С. Географические названия и термины УзСЭ – свод знаний (К завершению издания Узбекской Советской энциклопедии). –Ташкент, 1981.

282. Кораев С. География этнотопонимов Узбекистана. Тезисы XI го международного конгресса по ономастике. –София, 1972.

283. Кораев С. Древнетюркские топонимы Средней Азии. Тезисы XI го международного конгресса по ономастике. –София, 1972.

284. Кораев С. К выходу топонимического словаря – рецензия (В.А.Никонов. Краткий топонимический словарь). //Общественные науки в Узбекистане. –М., 1967.

285. Кораев С. К этимологии топонимов «Сибир» и «Шибер»// «Общественные науки в Узбекистане», 1966.

286. Qorayev S. Navoiy va toponimika// «O'zbek tili va adabiyoti», 1968.

287. Qorayev S. SSSRdagi geografik nomlar lug'ati. –Toshkent: O'zdavnashr, 1964.

288. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent, 2006.

289. Qorayev S. Toshkent toponimlari. –Toshkent: Fan, 1991.

290. Qorayev S. Toponimika. –Toshkent: O'ZKP MK nashriyoti, 1970.

291. Qorayev S. Etnonimika. –Toshkent: O'zbekiston, 1979.

292. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

293. Qorayev S. O'zbekiston Respublikasi geografik nomlarining o'zbek tilida yozilishi asosiy qoidalari. –Toshkent. O'zgeodezkadastr, 2004.

294. Qorayev S. O'zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so'zlar lug'ati. –T.: O'zgeodezkadastr, 2001.

295. Qorayev S., G'ulomov P., Rahimbekov R. Geografik nomlar va tushunchalar izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1980.

296. G'aybullayev S. Qorako'l vohasi toponimlari. –T., 2015.

297. G'ulomov Ya. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. –M., 1959.

298. Hakimov Q.M. Kartadagi so'z. –T.: "VNESHINVESTPROM", 2018.

299. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. –Jizzax: "Sangzor" nashriyoti. 2014.

300. Hasanov H. Beruniy asarlarida toponimika // Beruniy va ijtimoiy fanlar. –T., 1972.

301. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. –Toshkent, 1964.

302. Hasanov H. Geografik nomlar siri: ilmiy-ommabop ta'rif. –Toshkent, 1985.

303. Hasanov H. Yer tili. –T., 1977.

304. Hasanov H. Zahiriddin Muhammad Bobur. –T., 1966.

305. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. –Toshkent, 1965.

UO'K 81.2–3(5O')
KBK 81'373.21 (575.1)(038)
O' 23

O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati [Matn] : lug'at / tuzuvchilar R.Y. Xudoyberganov, N. Uluqov [va boshq.]; – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. –432 b.

O‘ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG‘ATI

II JILD

P – Ch

Muharrir *Habib Abdiyev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhih *Adolat Mustafoyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Aliyeva*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2024-yil 4-oktyabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 $^{1}/_{16}$. "Cambria" garniturasi.
Ofset bosma. 25,5 shartli bosma taboq. 20,3 nashr tabog'i.
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz **info@gglit.uz.**